

SHAVKAT BUTAYEV

ENGLISH-UZBEK
UZBEK-ENGLISH

70.000

words and expressions

DICIONARY
LUG'AT

INGLIZCHA-O'ZBEKCHA
O'ZBEKCHA-INGLIZCHA

70.000

so'z va ibora

NEW EDITION

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
„FANUM“ ILMIY-O‘QUV MARKAZI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SHAVKAT BUTAYEV

**ENGLISH-UZBEK
UZBEK-ENGLISH
DICTIONARY**

70 000 words and expressions

**INGLIZCHA-O‘ZBEKCHA
O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA
LUG‘AT**

70 000 so‘z va ibora

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan beshinchi nashri

TOSHKENT – „O‘ZBEKISTON“ – 2018

UO'K 811.111.(038)811.512.133(038)

KBK 81.2 Ingl-4

81.2 O'zb-4

B-98

Butayev, Shavkat

English-uzbek, uzbek-english dictionary: 70 000 words and expressions –
Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at: 70 000 so'z va ibora / Sh. Butayev.
– Toshkent: „O'zbekiston“, 2018. – 1040 b.

ISBN 978-9943-01-988-1

UO'K 811.111.(038)811.512.133(038)

KBK 81.2 Ingl-4

81.2 O'zb-4

SHAVKAT TURDALIYEVICH BUTAYEV

**INGLIZCHA-O'ZBEKCHA
O'ZBEKCHA-INGLIZCHA
LUG'AT**

Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashri

„O'zbekiston“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2018

Muharrirlar: *Z. Butayev, K. Inagamova, J. Karamatov*

Badiiy muharrir: *B. To'xliyev*

Texnik muharrir: *L. Xijova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009.

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 10.10.2018. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.

“Gazetnaya puxlaya” qog'oz. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t. 65,0.

Shartli b.t. 60,45. Hisob-nashriyot t. 90,27. Adadi 15 000 nusxada.

Buyurtma № 18-495.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'zbekiston“ nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

ISBN 978-9943-01-988-1

© Shavkat Butayev, 2014, 2016, 2018

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish yana ham rivojlandi, respublikamizning ko'p viloyatlari, shahar va tumanlarida chet el sarmoyadorlari bilan hamkorlikda juda ko'p qo'shma korxonalar barpo etildi. Bulardan tashqari, yurtimizda ko'pgina xalqaro musobaqalarning o'tkazilishi, xalqaro tashkilotlar, vakolatxonalarining rasmiy faoliyat olib borayotgani, mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarning soni kundan-kunga ortib borayotgani, xorijiy tillarni o'qitish yangi, takomillashgan dasturlar va darsliklar asosida o'tilayotgani davr talabiga javob beradigan yangi lug'atlar yaratish masalasini kun tartibiga qo'ydi.


Ayni paytda madaniyat, fan, qishloq xo'jaligi, sanoat, sport va shu kabi sohalarning rivojlanishi natijasida yangi so'z va terminlarning paydo bo'lishi, ayrim so'zlarning esa eskirib, iste'mol doirasidan chiqishi ham hozirgi kun talabiga javob beradigan inglizcha-o'zbekcha va o'zbekcha-inglizcha lug'at yaratishning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini tasdiqlaydi.

Respublikamizda hamda chet ellarda hozirgacha chop etilgan inglizcha-o'zbekcha va o'zbekcha-inglizcha lug'atlar, yuqorida aytib o'tilgan o'zgarishlar tufayli, hozirgi kunda ingliz tili mutaxassislari talablariga to'liq javob bera olmayapti. Shu jihatdan qaraganda mazkur lug'at respublikamizdagi ingliz tili ta'limi sohasida ishlaydigan xodimlarning ishlarini yengillashtirishda muhim rol o'ynaydi, o'zbek leksikografiyasining rivojiga ham o'z hissasini qo'shadi, deb o'ylaymiz.

Istiqlol yillarida yuz bergan katta o'zgarish va rivojlanishlardan so'ng mamlakatimizda ingliz tili ta'limi ancha yuqori saviyaga ko'tarildi. Ushbu yaratilgan lug'atning asosiy maqsadlaridan biri o'zbek va ingliz tillarida vujudga kelgan o'zgarishlarni ko'rsatib berish, ayrim so'zlarning ma'nolarini so'z birikmasi yoki iboralar tarzidagi illustrativ materiallar bilan kengroq yoritib berishga qaratilgan.

Lug'at tuzish jarayonida ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, texnikaviy, ommabop asarlar, turli xildagi darslik va bukletlarga, matbuot materiallariga tayandik, so'zlarni adabiy tilga munosabati va qo'llanish doirasiga qarab tanladik.

Mazkur lug'at 70 000 so'z va iborani o'z ichiga oladi. Lug'at so'ngida noto'g'ri fe'llar jadvali, geografik nomlar ro'yxati ilova sifatida berilgan.



LUG'ATNING TUZILISHI VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBI

Lug'atning tuzilishi

1. Bosh so'zdan keyin o'rta qavs „[]“ ichida uning transkripsiyasi, o'rta qavsdan keyin so'zning qaysi so'z turkumiga mansub ekanligi va qaysi tildan olinganligi yoki qaysi sohaga taalluqli ekanligi kursiv bilan berilgan. Undan keyin so'zning ma'nosi berilgan:

ovum [əʊvəm] *n biol.* tuxum, hujayra

debutante [debju:tɑ:nt] *n fr.* boshlovchi (*ayol*)

2. Bosh so'zlar alifbo tartibida to'q qora rang bilan berilgan.
3. Barcha so'z turkumlariga oid tub va yasama so'zlar kiritilgan.
4. Ba'zi so'zlarning ma'nolarini yanada yaxshiroq yoritib berish maqsadida ular ishtirok etgan iboralar berilgan. Bu holatda so'z yana qaytarilmasligi uchun tilda „~“ belgisidan foydalanilgan:

vain [veɪn] *a* behuda, foydasiz, asossiz; quruq; ~ **promise** quruq va'da

5. Omonimlar rim raqamlari bilan berilgan:

utter I [ʌtə] *n* to'liq, to'la, butunlay, mutlaqo

utter II [ʌtə] *v* 1) so'z bilan ifoda etmoq; 2) talaffuz qilmoq

Lug'atda so'zlarning ma'no xarakteristikasi:

1. Har bir so'zning ma'nosi qisqa va aniq ifoda etilgan.
2. So'zlarning, asosan, hozirgi ingliz adabiy tilida keng qo'llanadigan ma'nolari berilgan.
3. So'z ma'nolarini ochishda misol va iboralardan keng foydalanilgan.

enormous [ɪnɔ:məs] *a* juda katta, ulkan; ~ **sum** katta summa; ~ **changes**

katta o'zgarishlar

4. Ilmiy atamalar ma'nosini ochishda ta'rifiy izohdan keng foydalanilgan:

radar [reɪdɑ:] *n* radiolokator (*radioto'lqinlar yordamida obyektning turgan joyini aniqlovchi qurilma*)

So'z ma'nolarining joylashish tartibi:

So'zlarning eng asosiy ma'nosi oldin, ikkinchi darajali ma'nolari keyin berilgan:

powder [paʊdə] *n* 1) kukun; 2) upa; 3) porox, miltiqdori

Lug'atda frazeologiya:

1. Ingliz tilidagi frazeologik iboralar kiritilgan:

gag [geɪdʒ] *n* garovga qo'yish; **to give on** ~ garovga bermoq

2. Frazeologik iboralar, ko'pincha, birinchi komponent hisoblangan so'z maqolasida joylashtirilgan. Agar frazeologik iboraning birinchi komponenti olmosh, son yoki yordamchi so'z bo'lsa, u ikkinchi o'rindagi mustaqil ma'noli so'z maqolasida berilgan.
3. Frazeologik birikmalar faqat bir marta izohlangan.

So'zlarning grammatik xarakteristikasi:

Lug'atda so'zlarning grammatik kategoriyasini (qaysi so'z turkumiga mansubligini) ko'rsatish uchun maxsus belgilar qabul qilingan.

Otlar:

Otlar bosh kelishikda va birlik shaklida berilgan:

map [mæp] *n* xarita

Sifatlar:

Sifatlar oddiy daraja shaklida berilgan:

interesting [ˈɪntrɪstɪŋ] *a* qiziqarli, qiziq, qiziqish uyg'otadigan

Sonlar:

Sonlar turli tegishli grammatik belgilar bilan ko'rsatilgan:

six [sɪks] *num. card.* olti

third [θɜ:d] *num. ord.* uchinchi

Olmoshlar:

Olmoshlar turli tegishli grammatik belgilar bilan berilgan.

we [wi:] *pron. pers.* biz

his [hɪz] *pron. poss.* uning, uniki (*erkaklarga nisbatan*)

Fe'llar:

Fe'llar „to“ yuklamasisiz berilgan:

write [raɪt] *v* yozmoq

Ravishlar:

Barcha ravishlar grammatik belgi bilan ko'rsatilgan:

slowly [sləʊli] *adv* sekinlik bilan, shoshilmay, imillab

Talaffuz va urg'u:

1. So'zlarning talaffuz qilinishi transkripsiya orqali o'rta qavs ichida ko'rsatilgan.
invite [ɪn'vaɪt] *v* taklif qilmoq; chaqirmoq, chorlamoq
2. Transkripsiya qilingan paytda so'zning urg'usi ham ko'rsatilgan.
incur [ɪn'kɜ:] *v* yo'liqmoq, duchor bo'lmoq, muhtalo bo'lmoq

O'ZBEKCHA QISQARTMALAR

<i>adab.</i>	adabiyotga oid atama	<i>geol.</i>	geologiyaga oid atama
<i>afs.</i>	afsona	<i>geom.</i>	geometriyaga oid atama
<i>ak.</i>	akustika	<i>gerald.</i>	geraldika, gerbshunoslik
<i>amer.</i>	amerikanizm	<i>gidr.</i>	gidrologiya, gidrotexnika
<i>anat.</i>	anatomiyaga oid atama	<i>gram.</i>	grammatika
<i>antr.</i>	antropologiyaga oid atama	<i>grek afs.</i>	grek afsonasi
<i>arab.</i>	arabcha	<i>harb.</i>	harbiy atama
<i>arxeol.</i>	arxeologiyaga oid atama	<i>hazil.</i>	hazilga oid so'z
<i>asal.</i>	asalchilikka oid atama	<i>hind.</i>	hindcha
<i>asos.</i>	asosan	<i>hisob.</i>	hisob-kitobga oid
<i>astr.</i>	astronomiyaga oid atama	<i>h. k.</i>	hokazo
<i>av.</i>	aviatsiyaga oid atama	<i>idiom.</i>	idioma
<i>avstral.</i>	Avstraliyaga oid	<i>ingl.</i>	inglizcha
<i>avt.</i>	avtomobil	<i>iqt.</i>	iqtisodga oid atama
<i>b.</i>	boshqalar	<i>irl.</i>	Irlandiyaga oid
<i>bakt.</i>	bakteriologiya	<i>ital.</i>	Italiyancha
<i>bank.</i>	bank ishlariga oid atama	<i>jan. afr.</i>	Janubiy Afrikaga oid
<i>bibl.</i>	bibleizm	<i>jarg.</i>	jargon so'z
<i>biol.</i>	biologiyaga oid atama	<i>kam.</i>	kam qo'llaniladigan so'z va ibora
<i>bol.</i>	bolalar tilida	<i>kamsit.</i>	kamsitish
<i>bosm.</i>	bosmaxonaga oid atama	<i>kanad.</i>	Kanadaga oid
<i>bot.</i>	botanikaga oid atama	<i>kasb.</i>	kasbga oid atama
<i>bog'.</i>	bog' dorchilikka oid atama	<i>kim.</i>	kimyoga oid atama
<i>deng.</i>	dengizchilikka oid atama	<i>kin.</i>	kinoya
<i>dial.</i>	dialektizm	<i>kino</i>	kinematografiya
<i>din.</i>	dinga oid so'z	<i>kit.</i>	kitobiy uslub
<i>dip.</i>	diplomatik atama	<i>komp.</i>	kompyuterga oid atama
<i>el.</i>	elektrotexnikaga oid atama	<i>konch.</i>	konchilikka oid atama
<i>ent.</i>	entomologiya	<i>kriket.</i>	kriketga oid atama
<i>erk.</i>	erkalashni ifodalovchi so'z, ibora	<i>kuch.</i>	kuchaytirma
<i>esk.</i>	eskirgan so'z, ibora	<i>ko'ch.</i>	ko'chma ma'no
<i>etn.</i>	etnografiya	<i>lot.</i>	lotincha
<i>evf.</i>	evfemizm	<i>makt.</i>	maktab
<i>fals.</i>	falsafaga oid atama	<i>mant.</i>	mantiq
<i>farm.</i>	farmatsevtikaga oid atama	<i>maq.</i>	maqol
<i>fiz.</i>	fizikaga oid atama	<i>mat.</i>	matematikaga oid atama
<i>fiziol.</i>	fiziologiyaga oid atama	<i>maxs.</i>	maxsus ibora
<i>folk.</i>	folklor	<i>mens.</i>	mensimaslikni bildiradigan so'z
<i>fon.</i>	fonetika	<i>metal.</i>	metallurgiyaga oid atama
<i>fors.</i>	forscha	<i>meteor.</i>	meteorologiyaga oid atama
<i>foto</i>	fotosuratchilikka oid atama	<i>me'mor.</i>	me'morchilikka oid atama
<i>fr.</i>	fransuzcha	<i>mif.</i>	mifologiya
<i>geod.</i>	geodeziyaga oid atama	<i>min.</i>	mineral
<i>geogr.</i>	geografiyaga oid atama	<i>mol.</i>	moliyaga oid atama
		<i>mus.</i>	musiqaga oid atama

<i>nafr.</i>	nafratlanish iborasi	<i>teatr.</i>	teatrga oid atama
<i>nem.</i>	nemischa	<i>tel.</i>	telefon
<i>odat.</i>	odatda	<i>telev.</i>	televideniyaga oid atama
<i>opt.</i>	optikaga oid atama	<i>tem. y.</i>	temir yo'l transporti
<i>ov.</i>	ovchilikka oid atama	<i>tex.</i>	texnikaga oid atama
<i>oshx.</i>	oshxona	<i>tib.</i>	tibbiyotga oid atama
<i>paleont.</i>	paleontologiya	<i>tij.</i>	tijoratga oid atama
<i>paz.</i>	pazandachilik	<i>tilsh.</i>	tilshunoslikka oid atama
<i>poligr.</i>	poligrafiyaga oid atama	<i>top.</i>	topografiyaga oid atama
<i>psix.</i>	psixologiyaga oid atama	<i>turk.</i>	turkcha
<i>qadim.</i>	qadimgi	<i>to'q.</i>	to'qimachilik atamasi
<i>qart.</i>	qarta	<i>tog'.</i>	tog'-konchilikka oid so'z, ibora
<i>qisq.</i>	qisqartma	<i>to'g'r.</i>	so'zning to'g'ri ma'nosi (<i>ko'chma emas</i>)
<i>qo'pol.</i>	qo'pol so'z, ibora	<i>univer.</i>	universitet
<i>qur.</i>	qurilishga oid atama	<i>vengr.</i>	vengrcha
<i>q.x.</i>	qishloq xo'jaligiga oid atama	<i>xitoy.</i>	xitoycha
<i>radio</i>	radiotexnikaga oid atama	<i>yap.</i>	yaponcha
<i>ras.</i>	rassomchilikka oid atama	<i>yun.</i>	yunoncha
<i>rasm.</i>	rasmiy so'z, ibora	<i>yur.</i>	yuridik atama
<i>rim.</i>	Rimga oid	<i>yo'l.</i>	yo'l ishlari
<i>rit.</i>	ritorik	<i>zool.</i>	zoologiyaga oid atama
<i>ruh.</i>	ruhshunoslik	<i>o'rmon.</i>	o'rmonchilikka oid atama
<i>rus.</i>	ruscha	<i>shaxm.</i>	shaxmatga oid atama
<i>salb.</i>	salbiy	<i>she'r.</i>	she'riyatga oid atama
<i>san.</i>	san'atga oid so'z, ibora	<i>sheva.</i>	shevaga oid so'z
<i>siyos.</i>	siyosatga oid atama	<i>sh. k.</i>	shu kabilar
<i>sod.</i>	sodda til	<i>shoir.</i>	shoirona so'z va ibora
<i>sport.</i>	sportga oid so'z, ibora	<i>shotl.</i>	shotlandcha
<i>stil.</i>	stilistika	<i>shun.</i>	shuningdek
<i>so'zl.</i>	so'zlashuv tilidagi so'z, ibora	<i>cherk.</i>	cherkovga oid atama
<i>tar.</i>	tarixiy		

INGLIZCHA QISQARTMALAR

<i>a</i>	adjective	sifat
<i>adv</i>	adverb	ravish
<i>atr.</i>	attributive	aniqlovchi
<i>cj.</i>	conjunction	bog'lovchi
<i>emph.</i>	emphatic	kuchaytiruvchi
<i>imp.</i>	imperative	buyruq mayli
<i>indef</i>	indefinite	gumon
<i>inf.</i>	infinitive	infinitiv
<i>int.</i>	interjection	undov
<i>n</i>	noun	ot
<i>num. card.</i>	numeral cardinal	sanoq son
<i>num. ord.</i>	numeral ordinal	tartib son
<i>p.p. of</i>	past participle of	...ning o'tgan zamon sifatdosh shakli

<i>part.</i>	particle	yuklama
<i>pass.</i>	passive	majhul nisbat
<i>past of</i>	past of	...ning o'tgan zamon shakli
<i>phr.</i>	phraseology	frazeologiya
<i>pl</i>	plural	ko'plik
<i>pl of</i>	plural of	...ning ko'plik shakli
<i>predic.</i>	predicative	qo'shma kesimning ot qismi
<i>pref.</i>	prefix	prefiks
<i>prep.</i>	preposition	predlog
<i>pres. p.</i>	present participle	hozirgi zamon sifatdoshi
<i>pron</i>	pronoun	olmosh
<i>pron. conj.</i>	conjunctive pronoun	bog'lovchi olmosh
<i>pron. def.</i>	definite pronoun	belgilash olmoshi
<i>pron. demonstr.</i>	demonstrative pronoun	ko'rsatish olmoshi
<i>pron. indef.</i>	indefinite pronoun	gumon olmoshi
<i>pron. neg.</i>	negative pronoun	bo'lishsizlik olmoshi
<i>pron. pers.</i>	personal pronoun	kishilik olmoshi
<i>pron. poss.</i>	possessive pronoun	egalik olmoshi
<i>pron. refl.</i>	reflexive pronoun	o'zlik olmoshi
<i>pron. rel.</i>	relative pronoun	nisbiy olmoshlar
<i>sing</i>	singular	birlik shakl
<i>smb.</i>	somebody	biror kimsa
<i>smth.</i>	something	biror narsa
<i>sl.</i>	slang	jargon
<i>v</i>	verb	fe'l

INGLIZ ALIFBOSI

Aa [ei]	Nn [en]
Bb [bi:]	Oo [əu]
Cc [si:]	Pp [pi:]
Dd [di:]	Qq [kju:]
Ee [i:]	Rr [ɑ:]
Ff [ef]	Ss [es]
Gg [dʒi:]	Tt [ti:]
Hh [eitʃ]	Uu [ju:]
Ii [ai]	Vv [vi:]
Jj [dʒei]	Ww [ˈdʌblju:]
Kk [kei]	Xx [eks]
Ll [el]	Yy [wai]
Mm [em]	Zz [zed]

O'ZBEK ALIFBOSI

Aa a	Ll el	Vv ve
Bb be	Mm em	Xx xe
Dd de	Nn en	Yy ye
Ee e	Oo o	Zz ze
Ff ef	Pp pe	O'o' o'
Gg ge	Qq qe	G'g' g'e
Hh he	Rr er	Sh sh she
Ii i	Ss es	Ch ch che
Jj je	Tt te	Ng ng nge
Kk ke	Uu u	(') tutuq belgisi

A

A [eɪ] *n* 1) ingliz alifbosining birinchi harfi; **from ~ to Z** a) avvalidan (boshidan) oxirigacha; b) mukammal; **to know smth. from ~ to Z** biror narsani mukammal bilmoq; **not to know ~ from B** A bilan B ning farqiga bormaydigan; hech narsani bilmaydigan; 2) *mus.* lya; ~ **sharp** lya-diez; ~ **flat** lya-bemol; 3) *mat.* ko'plik belgisi (alovati, ishorasi); 4) birinchi, oliy, eng yuqori (nav, tur, sifat, daraja); 5) *amer.* a'lo, besh (*maktabdagi eng yuqori baho*); **to get an ~** besh baho olmoq; **straight ~** faqat „a'lo“ (*Amerika maktablarida o'quvchilarning bilimlari olti balli tartibda baholanadi, eng yuqori baho A, eng past baho esa F hisoblanadi*); **to get straight A's** faqat a'lo baholarga o'qimoq; 6) *jam.* eng yuqori kasbiy mahorat; 7) Angliyada birinchi darajali yo'llar belgisi; 8) qonning Aguruhi; 9) qog'oz o'lchami (o'lchovi)ning xalqaro belgisi; 10) a) **A1** [ei'wan], *amer.* **A No1** [ei'nambə'wan] yangi yoki ta'mirdan chiqqan kema; b) *ko'ch.* birinchi darajali, eng yaxshi; a'lo darajadagi, ajoyib

a [eɪ] (urg'uli yoki to'liq shakli); [ə] (*urg'usiz yoki reduksiyaga uchragan shakli*) 1) *undosh tovush bilan boshlanadigan birlik sondagi sanaladigan otlardan oldin ishlatiladigan noaniq artikl bo'lib, quyidagi umumlashtiruvchi ma'nolarni beradi:* har qanday, har qanaqa, har bir, xohlagan, istagan, istalgan; 2) bir; ~ **dozen eggs** bir dujina (12 dona) tuxum; ~ **metre of fabric** bir metr gazlama; 3) a) miqdorni bildiruvchi quyidagi so'z va iboralardan oldin: **little, few, good many, great many**; ~ **little** ozgina, biroz, oz miqdorda, ko'p emas; ~ **few stars** bir nechta yulduz; ~ **great many years** ko'p yillar; b) **dozen** dujina (o'n ikki) va **score** yigirma so'zlaridan oldin; **half ~ dozen** yarim dujina (olti dona); ~ **score of students** yigirmata talaba; 4) bir xil, baravar, teng, birdek, xuddi shunday; **all of ~ size** hammasi bir xil o'lchamda; **two at ~ time** ikkalasi bir paytda; 5) har, har bir, har qaysi; **a man has two ears** har bir odamning ikkita qulog'i bo'ladi; 6) muallif nomidan oldin kelib, „asar“, „adabiyot“ yoki „san'at“ so'zlari o'rnida ishlatiladi; ~ **Van Gogh** Van Gog asari; 7) qandaydir; ~ **Mr. Black** qandaydir janob Blek degan kishi; 8) *avoqli otlardan oldin ishlatilib, uning qaysi oilaga mansubligini bildiradi;*

9) **many so'zidan keyin ishlatilib, otni ko'plik shakliga aylantiradi:** **many ~ man** ko'p odamlar; **many ~ book** ko'p kitoblar; **many ~ day** ko'p kunlar

ab- [æb-] *pref.* bo'lishsiz shaktda ishlatiladigan prefiks, masalan: **abnormal** aqldan ozgan, esi past, tentak

abac [ə'bæk] *n mat.* to'r shaklidagi (to'rsimon) nomogramma; nomogramma (*turli kattaliklar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadigan va ularni topishni osonlashtiradigan grafik chizma*)

abaca [æbəkə] *n* 1) *bot.* abaka daraxti yoki shu daraxtdan qilingan ip; 2) kanoptola; 3) *me'mor.* boshtirgak

abaci [æbəkai, 'æbəsai] *pl of abacus*

aback [ə'bæk] *adv esk.* 1) orqaga; 2) orqasidan; 3) orqasi bilan; **to hold oneself ~ from** ... dan o'zini uzoqda olib yurmoq, o'zini chetga olmoq, o'zini olib qochmoq; **to stand ~ from** ... dan o'zini olib qochmoq; **to take ~** hayratda qoldirmoq; **taken ~** hayratda qolgan

abacterial [æbæk't(ə)rɪəl] *a* mikrobsiz, mikroblardan tozalangan; ~ **cystitis** *tib.* mikroblardan tozalangan sistit (qovuqning yallig'lanishi)

abaction [æb'ækʃ(ə)n] *n yur.* katta o'g'rilik yoki molni o'g'irlash

abaculus [ə'bækjʊləs] *n* marmar plita

abacus [æbəkəs] *n (pl -ci, -ses [-siz])* 1) *me'mor.* boshtirgak; ustunning tepa qismi; 2) *mat.* cho't, hisobcho't (*XVIII asrgacha Yunoniston, Qad. Rim, keyinchalik G'arbiy Yevropada arifmetik amallarni yechishda ishlatilgan hisob taxtakachi*); **to operate/to use an ~** cho'tda hisoblamoq, cho't qoqmoq, cho't solmoq; ~ **ball** cho't tugmasi, cho't donasi; 3) *mat.* nomogramma (*turli kattaliklar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadigan va ularni topishni osonlashtiradigan grafik chizma*)

abaft [ə'ba:ft] 1. *adv deng.* qayiq orqasidan, qayiq izidan; 2. *prep.* orqasida(n), ketida(n); keyin; ~ **the beam** travers orqasidan (*travers ~ kemaning yo'nalishiga perpendikular bo'lgan yon tomon*)

abandon [ə'bændən] 1. *v* 1) bosh tortmoq; **they must ~ the idea** ular bu g'oyadan bosh tortishlari kerak; **to ~ a right** huquqdan bosh tortmoq; **to ~ a claim** da'vo (shikoyat, talab)dan bosh tortmoq; **to ~ call** suhbatdan bosh tortmoq; **to ~ mine** shaxtadan foydalanishni to'xtatmoq; **to ~ patent** patentdan bosh tortmoq; **to ~ take-off** uchish (parvoz qilish)ni to'xtatmoq; **to ~ theory** nazariyadan bosh tortmoq; 2) tashlab ketmoq; **to ~**

altp kemani tulk etmoq; 3) adashtirmoq; 1) qoldirmoq, 2, n 1) esk. erkinlik, hemaletlik, 3) *ku*, odobsizlik, surbetlik; o'zini tuta olmashk

abandoned [ə'bənd(ə)nd] a 1) tashlab (chiqib) ketilgan, tark etilgan; bosh tortgan, bahridan o'tgan, voz kechgan, qoldirilgan; tashlandiq, tashlab qo'yilgan, qarovsiz qolgan (qoldirilgan), qarovsiz qolib (qoldirilib) ketilgan; tushlandi; xaroba; **an** ~ **area** bekor yotgan (bo'sh, obod qilinmagan) yer; **an** ~ **child** tashlab ketilgan bola; **an** ~ **garden** tashlandiq bog', chaldivor; **an** ~ **house** tashlab ketilgan uy; **an** ~ **town** tashlab chiqib ketilgan shahar; **an** ~ **derrick** tashlab ketilgan burg'ilash minorasi; ~ **property** egasiz mulk; **an** ~ **well** tashlab ketilgan quduq; **an** ~ **call** kechiktirilgan (qoldirilgan) telefon suhbat; 2) hurmatini (obro'sini) yo'qotgan, obro'sizlangan; buzuq, axloqsiz, badaxloq, sayoq; suyuqoyoq, fohishaboz, fohisha; **an** ~ **woman** buzuq ayol; **an** ~ **wretch** o'taketgan yaramas; 3) o'zini tuta (tiya) olmasdan qilingan, jahl bilan (qizishib) aytilgan, ixtiyorsiz, tiyiqsiz; to'xtatib (tiyib bo'lmaydigan); ~ **hilarity** tiyiqsiz xursandchilik; **an** ~ **laugh** o'zini to'xtatib bo'lmaydigan kulgi; o'zini to'xtata olmay (tutolmay) kulish

abandonee [ə'bændə'ni:] n kemani falokatdan sug'urta qilish

abandonment [ə'bændənmənt] n 1) qarovsiz qoldirib ketish; **an** ~ **job** tugatish ishlari (quduqda); 2) *yur.* bolasini yoki xotinini tashlab ketish; 3) qarovsiz qoldirganlik; yolg'izlik, kimsasizlik; 4) *yur.* voz kechish, bosh tortish (huquqdan, da'vodan); **an** ~ **application** birovning kuchidan (mehnatidan) foydalanishni to'xtatish haqidagi ariza

abase [ə'beis] v 1) kamsitmoq; yerga (pastga) urmoq; **to** ~ **oneself** o'zini (kamsitmoq) yerga urmoq; 2) (*mansabdan*) tushirmoq

abatement [ə'beismənt] n 1) kamsitish, yerga (pastga) urish; 2) (*mansabdan*) pasaytirish, tushirish; 3) tanazzul, zavol, inqiroz; 3) *tib.* pasayish, pastrog tushib qolish (*insonning biror-bir a'zosi haqida*); tushmoq, tushib ketmoq, to'kilmoq (*tish va b. haqida*)

abash [ə'bæʃ] v uyaltirmoq, uyaltirib qo'yarmoq, uyatga qoldirmoq, xijolat qilmoq, xijolatda qoldirmoq, xijolatga (qo'yarmoq) solmoq; o'ng'aysiz ahvolga solmoq, o'sal (izza) qilmoq; sarosimaga tushirmoq, dovdiratib (shoshiltirib, hovliqtirib) qo'yarmoq

abashed [ə'bæʃt] a uyali (uyatga) qolgan, xijil (o'sal) bo'lgan, xijolat (izza) tortgan, xijil, uyaltirilgan, xijolatda qolgan; **to feel/to be/to stand** ~ sarosimaga tushmoq, o'zini yo'qotib qo'yarmoq

abashment [ə'bæʃmənt] n 1) uyali qolish, xijolat bo'lish, xijolat tortish; 2) sarosimaga tushish, dovdirash, shoshib (shoshilib, hovliqib) qolish; 3) sarosimalik, gangib (dovdirab, esankirab) qolish(lik), parishonlik

abate [ə'bert] v 1) kuchsizlantirmoq; pasaytirmoq; kamaytirmoq; **to** ~ **the pain** og'riqni pasaytirmoq; **to** ~ **pride** kekkayish (gerdayish)dan o'zini tiymoq; **to** ~ **noise** shovqinni pasaytirmoq; 2) (*umumiy miqdordan*) olib yoki chiqarib tashlamoq, kamaytirmoq, pasaytirmoq, tushirmoq; **to** ~ **a tax** soliqni kamaytirmoq; 3) o'tmas qilmoq (*uchni, tig'ni*); **to** ~ **the knife** pichoqni o'tmas qilib qo'yarmoq; 3) *yur.* bekor qilmoq

abatement [ə'bestmənt] n 1) kuch-quvvatdan qolish, zaiflashish; **the** ~ **of noise** a) shovqin bilan kurashish; b) shovqinning pasayishi; 2) (*narxni, soliqni*) tushirish; **to make** ~ narxni tushirish; **no** ~ **made** o'zgarimas narxda; **the** ~ **of tax** soliq chegirmasi; 3) *yur.* bekor qilish; **the** ~ **of action** sud ishini (jarayonini) to'xtatish

abatis [æbæis, æbæti:] n ag'darilgan daraxtlardan qilingan to'siq, uyum, to'da, to'p

abat-jour [a:ba:'ʒu:r] n *fr.* esk. 1) lampa qalpog'i; 2) shiftdagi tuynuk; 3) shiftdagi tuynukdan keladigan yorug'lik

abattoir [æbætwa:] n *fr.* qushxona, kushxona (*chorva mollarini so'yish, go'sht, yog'tayyorlash bilan shug'ullanuvchi korxon*); sallohxona, mol so'yiladigan joy

abat-vent [a:ba:'vɑ:n] n *fr.* 1) jalyuza (*yog'och darparda va shu k.*); 2) bir tomoni qiya (nishab) tom; 3) mo'ring qalpog'i

abatvoix [a:ba:'vwa:] n *maxs.* akustik ekran

abb [æb] n to'q. arqoq (*gazlamaning o'rishi bilan ko'ndalangiga kesishuvchi iplari*)

abbacy [æbæsi] n abbatlik unvoni, abbatlik

abbess [æbes] n abbatisa (*katolik ayollar monastirining boshlig'i*); rohiba

abbey [æbi] n 1) abbatlik (*katoliklar monastiri va unga qarashli joy-mulk*), monastir; ~ **lubber** tekinox'r; 2) monastirlik (*monastir va unga qarashli yer-mulk*); 3) so'zl. **the Abbey Westminster** abbatligi

abbot [æbət] n abbat (*1. katolik erkaklar monastirining boshlig'i; 2. Fransiyada: katoliklar ruhoniysi*)

abbreviate [ə'brivieit] v qisqartirmoq, qisqartirmoq, kamaytirmoq, kichraytirmoq,

- ozaytirmoq, qisqaroq (kichikroq, ozroq) qilmoq (*matn, vaqt va b.*); **to** - notation *mat.* belgi (alamat, ishora)ni qisqartirmoq; **to ~ to...** ...gacha qisqartirmoq
- abbreviation** [əˈbrɪːv(ə)ʃ(ə)n] *n* qisqartirish; qisqartma
- ABC** [ˈeɪbiːˈsiː] *n* 1) alifbo; ~ **book** alifbe kitobi; 2) asos, negiz; **the ~ of Uzbek Grammar** o'zbek tili grammatikasining asoslari; **as easy (yoki simple) as ~** juda oson
- abdicate** [ˈæbdɪkət] *v* 1) kechmoq, voz kechmoq, yuz o'g'irmoq, bahridan o'tmoq, o'zini mahrum qilmoq (*taxtdan, hokimiyatdan, o'z huquqidan ~ from*); 2) *yur.* bolasidan voz kechmoq
- abdication** [ˈæbdɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* kechish, voz kechish, yuz o'g'irish, bahridan o'tish, o'zini mahrum qilish (*nimadandir*)
- abdomen** [ˈæbdəmən, əbˈdɔ:mən] *n* 1) *anat.* qorin, qorin bo'shlig'i; **a pendulous ~** osilgan (*osilib tushgan*) qorin; **a protuberant ~** bo'rilib chiqqan qorin; **a retracted ~** ichiga kirgan qorin; 2) *zool.* qorin (*qushlarda*)
- abdominal** [ˈæbˈdɔ:mən(ə)l] *a* *anat.* qoringa oid, qorin...; **an ~ pain** qorin og'rig'i; **an ~ cavity** qorin bo'shlig'i; **an ~ pregnancy** bachadondan tashqari homila; **an ~ belt** beldamcha, qorinbog'; **an ~ wound** qorindagi (*oshqozondagi*) jarohat
- abdominous** [ˈæbˈdɔ:mɪnəs] *a* semiz, yo'g'on, qorni katta
- abducent** [ˈæbˈdjuːs(ə)nt] *a* *anat.* ajratadigan (*muskullar to'g'risida*)
- abduct** [ˈæbˈdʌkt, əbˈdʌkt] *v* (*zo'rlab, majburan*) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, olib qochmoq (*from*); **to ~ a child from its home** bolani uyidan olib qochmoq
- abduction** [ˈæbˈdʌkʃ(ə)n, əbˈdʌkʃ(ə)n] *n* (*zo'rlab, majburan*) o'g'irlash, o'g'irlab ketish; olib qochish (*asosan, bolalar va ayollarni*); ~ **by fraud** birovni aldov yo'li bilan olib qochish; ~ **by open violence** birovni ochiqdan ochiq kuch ishlatib olib qochish; **forcible ~** kuch ishlatib olib qochish; **fraudable ~** aldab olib qochish; **violent ~** kuch ishlatib (*zo'rlab, majburan*) olib qochish
- abductor** [ˈæbˈdʌktə] *n* o'g'ri, o'g'irlovchi; olibqochar (*asosan, bolalar va ayollarni*)
- abeam** [əˈbiːm] *adv* deng. kemaning izidan, orqasidan
- abear** [əˈbeə] *v* toqat qilmoq, chidamoq, bardosh bermoq, ko'tarmoq
- abecedarian** [ˈeɪbiː(ː)siː(ː)ˈde(ə)rɪən] 1. *a* 1) alifbo tartibida joylashtirilgan; 2) oddiy, sodda; 2. *n* savod o'rgatadigan, o'qituvchi
- abed** [əˈbed] *adv* 1) ko'rpa-to'shakda; karavotda; 2) ko'rpa-to'shakka, karavotga;
- 3) ko'rpa-to'shakka mixlanib qolgan, kasal, bemor; xasta, betob, nosog'; ~ **with gout podagra** (*modda almashinuvining buzilishi tufayli yuz beradigan, bo'g'inlarni, mas., barmoqlarni qizishganday zir-qiratib og'ritadigan kasallik*) bilan og'rib ko'rpa-to'shakka mixlanib qolgan
- abele** [əˈbiːl, ˈeɪb(ə)l] *n* bot. oq terak
- aberdevine** [ˈæbədəˈvaɪn] *n* *zool.* tog'chumchuq (*modasi*)
- aberrance, -cy** [æˈberəns, əˈberəns, -sɪ] *n* 1) to'g'ri yo'ldan chiqish; 2) *biol.* normal turdan chetga chiqish
- aberrant** [æˈberənt, əˈberənt] *a* 1) adashgan, adashib qolgan, yo'lini yo'qotib qo'ygan; 2) og'gan, chetga chiqqan, burilib ketgan; **a plane on an ~ course** belgilangan yo'ldan chetga chiqib ketgan samolyot
- aberration** [ˈæbəˈreɪʃ(ə)n] *n* adashish, adashib qolish, yo'lini yo'qotish
- abet** [əˈbet] *v* yomon ishga undamoq (**in**); **to ~ smb. in a crime** *yur.* kimnidir jinoyat sodir etishga undamoq
- abetment** [əˈbetmənt] *n* ig'vo, fitna
- abetter** [əˈbətə] *n* 1) sherik; 2) g'iybatchi, g'alamis, fitnachi
- abettor** [əˈbetə] = **abetter**
- abeyance, -cy** [əˈbeɪəns, -sɪ] *n* 1) noma'lum, mavhum holat; 2) *yur.* vaqtincha amalda bo'lmaslik, vaqtincha bekor qilinish (*qonun, huquq*); **this rule has fallen into ~** bu qonun eskirgan (boshqa amal qilmaydi); **in ~ a)** mavhum, kutish holatida; **b)** egasiz (*meros to'g'risida*); **d)** vaqtincha bekor qilingan (*qonun to'g'risida*)
- abhor** [əbˈ(h)ɔː] *v* 1) juda yomon ko'rmoq; nafrat bilan qaramoq; 2) *so'zl.* toqat qila olmaslik; yoqtirmaslik; **my son ~s being idle** o'g'lim bekor yurishni yoqtirmaydi
- abhorrence** [əbˈ(h)ɔːrəns] *n* jirkanish, nafratlanish, yomon ko'rish; **to hold in ~** nafratlanmoq, jirkanmoq
- abhorrent** [əbˈ(h)ɔːrənt] *a* 1) nafrat uyg'otadigan; **an ~ deed** qabih harakat, yaramas ish; 2) birga yashay olmaydigan, birga bo'lolmaydigan (**to bilan**)
- abidance** [əˈbaɪd(ə)ns] *n* rioya qilish (*nimagadir*); ~ **by rules** qoidalarga rioya qilish
- abiding** [əˈbaɪdɪŋ] *a* doimiy, o'zgarmas, abadiy, mustahkam; ~ **friendship** mustahkam do'stlik
- ability** [əˈbɪlɪtɪ] *n* qobiliyat, iste'dod, mahorat; (**at, in; to+inf.**); **the ~ to hear** eshitish qobiliyati; **the ~ to pay** to'lashga qodirlik; **inborn (innatenatural) ~** tug'ma qobiliyat (talant); **negotiation ~** to'siqlarni

yengish qobiliyati; **spring** ~ sakrash qobiliyati; **the ~ to read** o'qish qobiliyati
abirritate [æ'birritet] *v tib.* tinchlantirmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin (orom) hermoq, xotirjam qilmoq, asabiylashishni pasaytirmoq
abject [æhdzekt] *a* 1) ayanchli, qabih, yaramas, pastkash, razil; past; **un ~ coward** manfur, qo'rqoq odam; 2) xo'rlangan, haqoratlangan, kamsitilgan; 3) juda, o'taketgan, g'oyat; **in ~ poverty** juda nochor ahvolda; - **failure** butunlay barbod bo'lish; - **despair** juda ham mushkul ahvol
abjection [æb'dʒekʃ(ə)n] *n* 1) past, xarob, g'arib; 2) kamsitish, pastga urish
abjuration [æbdʒ'reiʃ(ə)n] *n* voz kechish, yuz o'girish
abjure [æb'dʒʊə] *v* yuz o'girmoq, voz kechmoq; **to ~ one's religion** o'z dinidan yuz o'girmoq
ablactation [æblæk'teiʃ(ə)n] *n* ko'krigidan (bag'ridan) tortib olish (*bolani*), ko'krak sutidan ajratish
ablate [æ'bleit] *v tib.* olib tashlamoq; kesib tashlamoq; ajratib olib tashlamoq
ablation [æ'bleiʃ(ə)n] *n* 1) *jarg.* olib tashlash, kesib tashlash; 2) *geol.* jinslarning yuvilishi, muzlarning erishi
ablative [æblə'tiv] *n gram.* o'rin-payt kelishigi
ablaut [æblaut] *n tilsh.* ablaut (*o'zgaruvchan unli*)
ablaze [æ'bleiz] *1. a; predic.* yonayotgan, chaqnayotgan; **to be ~** porlamoq; **to set smth. ~** nimagadir o't qo'yib yubormoq, nimanidir yondirib yubormoq; *2. adv* o'tda, o'lovda
able [eib(ə)] *a* qobiliyatli, mohir; **to be ~ to ...** qo'lidan kelmoq; ~ **to meet competition** raqobatlasha oladigan; ~ **to pay to** lashga qurbi yetadigan; ~ **to perform a contract** shartnomani bajarishga qurbi yetadigan
able-bodied [eib(ə)'bɒdɪd] *a* chidamli, baquvvat, sog'lom, yaroqli (*harbiy xizmatga*)
ablet [æblit] *n zool.* zog'orabaliq
abloom [æ'blu:m] *adv* gulli, gullagan; **gardens ~ with roses** atirgullar ochilib turgan bog'lar
abluent [æbluənt] *a tib.* tozalaydigan, tozalovchi
ablush [æ'blʌʃ] *a* uyaltirilgan, qizargan
ablution [æ'blu:ʃ(ə)n] *n* 1) tahorat; 2) tahorat suvi; 3) *tex.* yuvish
ably [eibli] *adv* mohirlik bilan, mahorat bilan, mohirona
abnegate [æbnigeit] *v* 1) (*biror narsadan*) bosh tortmoq; 2) rad qilmoq

abnegation [æbni'geiʃ(ə)n] *n* 1) inkor etish; 2) bahridan o'tish, voz kechish
abnodule [æbnɒdʌl] *v q.x.* daraxtlarning shox-butog'larini qirgib tashlamoq
abnormal [æb'nɔ:m(ə)] *a* 1) normaga (me'yorga, tabiiy holatga, odatdagiga) to'g'ri kelmaydigan; g'ayritabiiy; 2) telba, devona; - **psychology** psixopatologiya (*ruhiy kasalliklarni o'rganish va davolash haqidagi umumiy ta'limot*)
abnormality [æbnɔ:'mæliʃi] *n* 1) g'ayritabiiylik; noto'g'rilik; xatolik, g'alatilik; **reversive abnormalities** asl holiga kela oladigan o'zgarishlar; 2) so'zl. esi pastlik, tentaklik
abnormity [æb'nɔ:miʃi] = **abnormality**
aboard [ə'bɔ:d] *adv* 1) kemada; 2) kemaga; **to take goods ~** kemaga yuklarni yuklamoq; **to (get) step ~** kemaga (samolyotga) o'tirmoq
abode [ə'bəʊd] *n* 1) manzil, maskan; **a mean ~** faqirona kulba; 2) turar joy, yashaydigan (istiqomat qiladigan) joy; **to take up one's ~** ko'chib kelib (borib) joylashmoq; **of no fixed ~, (with no fixed ~)** doimiy (ma'lum) yashash joyi bo'lmagan; **the ~ of the spirits** narigi dunyo
abolish [ə'bɒliʃ] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, tugatmoq; **to ~ taxes** soliqni bekor qilmoq; **to ~ a duty** bojni bekor qilmoq
abolishment [ə'bɒliʃmənt] *n* o'zgartirish, bekor qilish, yo'q qilish, yo'qotish
abolition [æbɒ'liʃ(ə)n] *n* bekor qilish, yo'q qilish, tugatish (*shartnoma, qonun va b.*); **the ~ of capital punishment** o'lim jazosini bekor qilish
abolitionary [æbɒ'liʃən(ə)rɪ] *a* halokatli; buzadigan, buzuvchi
abolitionism [æbɒ'liʃ(ə)nɪz(ə)m] *n amer. tar.* abolitsionizm (*biror qonunni yo'q qilish uchun biror jamiyatning qiladigan harakati*)
A-bomb [eibɒm] *n* atom bombasi; **an ~ burst** atom bombasining portlashi; **an ~ explosion** atom bombasining portlashi; **an ~ er** atom bombasini tashlovchi samolyot
abominable [ə'bɒmɪnəb(ə)] *a* 1) jirkanch, qabih, yoqimsiz, juda yomon, juda xunuk, nafratni qo'zg'aydigan, jirkantiradigan; 2) yaramas, juda yomon; **the ~ weather** juda yomon ob-havo
abominably [ə'bɒmɪnəbli] *adv* kir (iflos) qilib, iflos holda
abominate [ə'bɒmɪneɪt] *v* nafratlanmoq, jirkanmoq
abomination [ə'bɒmɪ'neɪʃ(ə)n] *n* nafratlanish, yomon ko'z bilan qarash; **to hold in ~** nafrat bilan qarash

- aboriginal** [ˌæbəˈrɪdʒ(e)nəl] 1. *a* 1) tub joylik; mahalliy; 2) tabiiy holicha saqlangan, tabiiy holatdagi, qoʻl tegmagan; ~ **forests** haligacha inson qoʻli tegmagan oʻrmonlar; 2. *n* tub joyli kishi
- aborigine** [ˌæbəˈrɪdʒɪni(:)] *n* mahalliy kishi
- aborigines** [ˌæbəˈrɪdʒɪni:z] *n pl* mahalliyalar, tubjoyliklar, qadimgilar, muqimlar, mahalliy xalqlar
- abort** [əˈbɔ:t] *v* 1) bola tashlamoq; 2) baxtsizlikka uchramoq; **our plans ~ed** rejalrimiz barbod boʻldi (amalga oshmadi); 3) *komp.* kompyuterga berilgan topshiriq bajarilayotganda mutaxassis tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatoni toʻgʻrilash maqsadida jarayonni toʻxtatmoq
- aborted** [əˈbɔ:tɪd] *a* 1) chala tugʻilgan; 2) *biol.* yaxshi rivojlanmagan; 3) toʻxtatilgan, qoldirilgan; ~ **escape** sindirilgan novda; ~ **attempt** muvaffaqiyatsiz urinish
- abortion** [əˈbɔ:f(ə)n] *n* 1) oldindan homilador boʻlishni toʻxtatish, homiladorlikning oldini olish, homiladorlikni toʻxtatish, bolani sunʻiy yoʻl bilan olib tashlash, bola tashlash; **accidental** ~ shikastlanish natijasida gʻayriixtiyoriy bola tashlash; **natural** ~, **spontaneous** ~ gʻayriixtiyoriy bola tashlash; **criminal** ~, **illegal** ~ maxfiy ravishda (yashirin tarzda) bolani sunʻiy yoʻl bilan olib tashlash; **justifiable** ~, **legalized** ~, **legal** ~ qandaydir jiddiy sabablarga koʻra tibbiyot xodimlari tomonidan qonuniy tarzda bolani sunʻiy yoʻl bilan olib tashlash; 2) nogiron; 3) falokat, ish oʻngmasligi, muvaffaqiyatsizlik; 4) *biol.* biror aʼzoning yaxshi rivojlanmaganligi; 5) chetga chiqish hodisasi
- abortive** [əˈbɔ:tɪv] *a* 1) bevaqt, vaqtidan ilgari (*tugʻish haqida*); 2) badbaxt, baxtsiz, tugʻmaydigan; 3) *biol.* chala, chala tugʻilgan; 4) natijasiz, befoyda; **an ~ attempt** befoyda urinish; 5) amalga oshmaydigan; **an ~ scheme** amalga oshmaydigan reja; **to be ~** oʻngmaslik, oʻngidan kelmaslik, muvaffaqiyatsiz chiqmoq
- abortively** [əˈbɔ:tɪvli] *adv* samarasiz, behuda, foydasiz
- abound** [əˈbaʊnd] *v* 1) moʻl boʻlmoq, koʻpaymoq; **fish ~ in the sea** dengizda haliqlar koʻp; 2) (**in, with**) serob boʻlmoq; **land ~s in oil** yerda neft koʻp
- about** [əˈbaʊt] 1. *adv* 1) tevaragida, atrofida, hamma yerda, har yerda, barcha joylarda; **to look ~** atrofga nazar solmoq; **to worry ~** -dan tashvishlanmoq; **don't leave the papers ~** qogʻozlarni tashlamang! 2) taxminan, yaqin; **a woman ~ fifty (years old)** taxminan ellik yoshlardagi ayol; 2. *prep.* toʻgʻrisida, haqida, xususida; **to be ~ to qilmoqchi boʻlmoq**; oʻtlanmoq; **a book ~ travels** sayohatlar haqidagi kitob; **to bring ~** biror natijaga olib kelmoq, sabab boʻlmoq
- about-face** [əˈbaʊtˈfeɪs] 1. *n* orqaga burilish, orqaga aylanish, orqaga qaytish; 2. *v* orqaga qaytmoq, orqaga burilmoq, orqaga aylanmoq; **he did a complete ~** u yoʻlni tubdan oʻzgartirdi
- about-sledge** [əˈbaʊtsledʒ] *n* bosqon, temirchining toʻqmoqʻi
- above** [əˈbʌv] 1. *adv* ustida, ustiga, yuqorida; **my room is just ~** mening xonam yuqorida; **as stated ~** yuqorida aytib oʻtilganidek; 2. *prep.* ustida, yuqori; ~ **all (things)** eng avval (oldin, ilgari), hammadan avval, birinchi navbatda; eng muhimi; asosan, xususan; **be get (yoki to rise) ~ oneself** 1) oʻzini katta tutmoq (olmoq), gerdaymoq, kekkaymoq, kibrlanmoq, kattakonlik (kattalik) qilmoq, manmanlik qilmoq, dimogʻi shishmoq, oʻziga ishonib ketmoq; burni (dimogʻi) koʻtarilmoq; 2) itoatdan bosh tortmoq, amridan chiqmoq, oʻzboshimcha boʻlib (qoʻldan chiqib) ketmoq
- above-board** [əˈbʌvˈbɔ:d] 1. *a* halol, vijdonli, toʻgʻrisoʻz; 2. *adv* insof bilan, toʻgʻrilik bilan
- above-ground** [əˈbʌvˈgraʊnd] 1. *a* 1) tirik, yashab yurgan; 2) yer ustidagi (yuzidagi); 2. *adv* tiriklayin
- above-mentioned** [əˈbʌvˈmenʃ(ə)nd] *a* yuqorida aytilgan; **the ~ story** yuqorida aytilgan hikoya
- above-water** [əˈbʌvˈwɔ:tə] *a* suv ustidagi
- abracadabra** [ˌæbrəkəˈdæbrə] 1. *n* safsata, bemaʼni gap; 2. *v* 1) duo qilmoq; 2) bemaʼni (bemaza) gaplarni gapirmoq
- abradant** [əˈbrædɪnt] 1. *n* *tex.* abraziv material (*charxlash, silliqlash asboblari uchun ishlatiladigan mayda donador qattiq material*); 2. *a* *tex.* (*metall, oyna, yogʻoch va sh. k. ning yuzini silliqlash, jilolash, pardozlash, shuningdek, asboblarni charxlash uchun ishlatiladigan*) abraziv
- abrade** [əˈbreɪd] *v* 1) yuvmoq, ishqalab yirtmoq; 2) uzib olmoq, yulib tashlamoq, shilib olmoq (*terini, poʻstni, chammii*); 3) *tex.* silliqlamoq
- abranhial** [əˈbræŋkiəl] = **abranhiate**
- abranhiate** [əˈbræŋkiət] *a* *zool.* oyquloqsiz (*oyquloq - suv hayvonlarining nafas organlari*)
- abrasion** [əˈbreɪʒ(ə)n] *n* 1) ishqalash, ishqalab yoʻqotish; 2) shilingan (timdalangan,

- sidiirilgan, qirilgan) joy, chaqa (*badanda*); ~ *on one's knee* (izzatning shtingani (sidiirilib ketgan, chaqa bo'lgan) joyi)
- abrasive** [ə'breɪsɪv] 1. *a tex.* pardoz beradigan; 2. *n tex.* pardoz beradigan material
- abreast** [ə'breɪst] *adv* qatorda, bir safda; **three ~** bir safda uchtadan; **to stay ~ of a runner** yugurayotgan kishidan orqada qolib ketmaslik
- abridge** [ə'brɪdʒ] *v* qisqartirmoq, qisqartirmoq, kichraytirmoq, kamaytirmoq; **to ~ the labour** mehnat xarajatlarini qisqartirmoq
- abridged** [ə'brɪdʒd] *a* qisqartirilgan; **an ~ edition** qisqartirilgan nashr; ~ **accounts** qisqartirilgan hisobotlar; **an ~ form** qisqartirilgan shakl; **an ~ method** qisqartirilgan metod; **an ~ notation** qisqartirilgan yozuv; **an ~ system** *mat.* qisqartirilgan sistema (tizim)
- abridgement** [ə'brɪdʒmənt] *n* 1) qisqartirish; **this article requires no ~** bu maqolani qisqartirish shart emas; **the ~ of table** jadvalni qisqartirish; 2) qisqartirilgan matn; 3) (*huquq va b.*) cheklash
- abroad** [ə'brɔ:d] 1. *adv* chet elga, chet elda; **at home and ~** vatanda va chet elda; **during my residence ~** men chet elda yashab yurgan paytlarimda; **to be ordered ~** chet elga jo'natilmoq; **to get smth. from ~** chet eldan nimadir olmoq; **to go ~** chet elga (xorijiy mamlakatlarga) bormoq; **to come from ~** chet eldan kelmoq; **to live ~** chet elda yashamoq; **to serve ~** chet elda xizmat qilmoq; **to travel ~** chet elga sayohat qilmoq; 2. *prep. esk.* har yerda; ~ **the world** butun dunyoda; **to noise ~** mish-mish tarqatmoq
- abrogate** [æbrə'geɪt] *v* (*qonun va b. ni*) o'zgartirmoq, bekor qilmoq; **to ~ a constitution** qonunni o'zgartirmoq, qonunni bekor qilmoq
- abrogation** [æbrəu'geɪʃ(ə)n] *n* bekor qilish, kuchini yo'qotish; (*qonun va b. ni*) o'zgartirish
- abrupt** [ə'brʌpt] *a* 1) kutilmagan, tasodifiy; **an ~ turn** kutilmagan burilish; 2) tik jarlik, tik kesilib tushgan; **an ~ coast** tik qirg'oq, tik jarlik
- abruption** [ə'brʌpʃ(ə)n] *n* 1) yoriq, yorilgan joy, ajratish, ayirish, bir-biridan judo qilish, uzib qo'yish, yulib ajratmoq, kuch bilan ajratmoq; 2) *geol.* balandlikka chiqish (*qatlan*)
- abruptness** [ə'brʌptnəs] *n* kutilmaganlik; nogahoniylilik
- abscess** [æbses] *n* tib. yiringlash, chipqon, yiringli shish; **to lance an ~** yiring boylagan yarani ochmoq
- abscissa** [æb'sɪsə] *n* *mat.* absissa (*nuqtaning tekislikdagi yoki fazodagi vaziyatini aniqlovchi koordinatalardan biri*)
- abscissae** [æb'sɪsi:] *pl of abscissa*
- abscission** [æb'sɪʃ(ə)n] *n* 1) tib. kesib tashlash; 2) *bot.* ajralib tushish; **the ~ of leaves** daraxtlardagi barglarning yerga tushishi; ~ **fruits** mevalarning (*pishgandan keyin yoki shamol natijasida*) daraxtlardan yerga tushishi
- abscond** [æb'skɒnd] *v* *lot.* yashirinmoq; (*sud-dan*) qochib ketmoq (*from, with*)
- absence** [æbs(ə)ns] *n* ishtirok etmaslik; vaqtincha qatnashmaslik (*from*); ~ **from school** maktabga bormaslik; ~ **from work** ishdan qolish; **sickness ~** kasallik tufayli ishga chiqmaslik; ~ **makes the heart grow fonder** *maq.* (firoq yuraklarda muhabbatni kuchaytiradi) yolg'izlikda yor yaxshi; **the ~ of mind** parishonxotirlik, fikri tarqoqlik; **to be conspicuous by its ~** jo'rttaga (atayin) kelmay o'zini ko'rsatish
- absent** [æbs(ə)nt] 1. *a* kelmagan kishi; **to be ~** yo'q bo'lmoq; **to be ~ from school** (*maktabdagi*) darslarni qoldirmoq; **who is ~ today?** bugun kim yo'q? **the ~ are always (in the) wrong** *maq.* (davrada yo'q doim aybdor), o'zi yo'qning ko'zi yo'q; 2. *v* kelmay qolmoq, yo'q bo'lmoq
- absentee** [æbs(ə)n'ti:] *n* kelmagan (*yo'q, qatnashmagan, hozir bo'lmagan*) kishi
- absenteeism** [æbs(ə)n'ti:z(ə)m] *n* sababsiz ishga chiqmaslik
- absentia** [æb'sentɪə] *adv* *lot.* yo'qligida, sirdan (*in ~*); **to be tried in ~** *yur.* birovni sud qilmoq, sirdan muhokama qilmoq
- absently** [æbs(ə)ntli] *adv* parishonxotirlik bilan
- absent-minded** [æbs(ə)nt'maɪndɪd] *a* parishonxotir, xayoli qochgan, e'tiborsiz; **an ~ person** parishonxotir odam; **an ~ look** e'tiborsiz (beparvo) qarash
- absent-mindedness** [æbs(ə)nt'maɪndɪdnəs] *n* parishonxotirlik
- absinth(e)** [æbsɪnθ] *n* ermanga to'yintirilgan spirti ichimlik, ermanli araq, erman araq'i
- absit** [æbsɪt] *n* darslarda qatnashmaslik uchun ruxsatnoma (*kollej yoki universitetda*)
- absolute** [æbsəlu:t] *a* 1) to'la, to'liq, shubhasiz, mutlaq, absolut; **an ~ control** to'liq nazorat; ~ **trust** to'liq ishonch; **an ~ value** *komp.* absolut qiymat (*uning belgisidan qat'i nazar ma'lum bir sonning ifodalangan qiymati*); 2) toza, sof; ~ **alcohol** toza spirt

absolutely [ˌæbsəˈlu:tli] *adv* mutlaqo, juda, g'oyat; ~ **indispensable** juda ham zarur; **you are ~ right** siz mutlaqo haqsiz

absoluteness [ˌæbsəlu:tənəs] *n* 1) mutlaqo, batamom, shubhasiz, qat'iy; 2) chegaralanmagan, cheklanmagan, mutlaq hokimiyat

absolution [ˌæbsəˈlu:ʃ(ə)n] *n* 1) oqlash, kechirish; 2) *cherk.* gunohlarni yuvish (*kato-lıklarda*)

absolutism [ˌæbsəlu:tɪz(ə)m] *n* cheklanmagan hokimiyat

absolutist [ˌæbsəlu:tɪst] *n* absolutizm tarafdori

absolutory [æbˈsɒljət(ə)rɪ] *a yur.* aybsizligini ko'rsatadigan; **an ~ document** tasdiqlovchi hujjat

absolve [æbˈzɒlv] *v* 1) (**from**) kechirmoq; **to ~ from blame** gunohidan o'tmoq

absolvent [æbˈzɒlvənt] *1. n* 1) kechiruvchi; 2) qutqaruvchi, xaloskor; *2. a* kechiruvchi

absonant [ˌæbsə(ʊ)nənt] *a* norozi, qarshi; ~ **to nature** g'ayritabiiy

absorb [æbˈsɔ:b, æbˈzɔ:b] *v* so'rmoq; shimmoq; namni tortib olmoq; **to ~ heat** issiqlikni yutmoq (o'ziga singdirmoq)

absorbability [æb,sɔ:bəˈbɪlɪtɪ] *n* namni tortib olish qobiliyati

absorbable [æbˈsɔ:bəb(ə)l] *a* namni tortuvchi

absorbed [æbˈsɔ:bd] *a* 1) shimgan, shimib olgan, singdirgan, yutgan, o'ziga singdirgan; **deeply (completely, thoroughly, totally)** ~ butunlay o'ziga shimib olgan; 2) (*nimagadir*) berilib ketgan, sho'ng'ib ketgan; ~ **in thought** chuqur o'yga sho'ng'ib ketgan

absorbency [æbˈsɔ:bənsɪ] *n* yutish, namni tortib olish

absorbent [æbˈsɔ:bənt] *1. a* namni tortib oladigan, shimadigan, yutib yuboradigan; ~ **cotton** nam tortadigan paxta; ~ **material** namni tortib oladigan material; *2. n* namni tortib oluvchi modda

absorber [æbˈsɔ:bə] *n* *tex.* shimuvchi, namni tortuvchi; ~ **material** namni tortib oladigan material

absorbing [æbˈsɔ:bɪŋ] *1. a* nam tortuvchi, shimuvchi; ~ **capacity** yutish qobiliyati; *2. n* yutish (o'ziga tortib olish)

absorption [æbˈsɔ:p(ə)n] *n* shimirish, shimish, o'ziga singdirish, yutish; ~ **power (ability)** o'ziga olish (shimish) qobiliyati; ~ **material** shimadigan material; ~ **method** shimish metodi

absorptive [æbˈsɔ:ptɪv] *a* shimiruvchan, so'ruvchan, tortadigan, emadigan; ~ **ability** o'ziga olish (shimish) qobiliyati

absorptivity [ˌæbsɔ:p(ɪvɪtɪ)] *n* yutish qobiliyati

abstain [əbˈsteɪn] *v* o'zini tutmoq, o'zini (nafsini) tiymoq, sabr-qanoat qilmoq; tonmoq, rad qilmoq; **to ~ from entering into contract** shartnoma (bitim) tuzishni rad etmoq

abstainer [əbˈsteɪnə] *n* ichkilik ichmaydigan, hushyor

abstemious [əbˈsti:mɪəs] *a* 1) o'zini tiygan, o'z nafsini tiygan (*ovqatdan*); 2) kambag'alona; ~ **diet** kambag'alona (*nochor*) ovqat; 3) o'rtacha, o'rtamiyona; ~ **life** o'rtacha hayot

abstention [əbˈsten(ə)n] *n* 1) o'zini tiyish (*yeb-ichishdan*); 2) betaraflik (*ovoz berishda*); **a vote of twenty in favour, five against, and two ~** ovoz berishda qatnashganlardan yigirma kishi tarafdor, beshta qarshi va ikkita betaraf

abstentious [əbˈsten(ə)s] *a* o'zini (nafsini) tiygan; sabr-qanoatli

absterge [əbˈstɜ:dʒ] *v* 1) artmoq, artib tozalamoq, yuvmoq; 2) gunohi yuvilmoq; **to ~ oneself from one's sins** gunohlardan forig' bo'lmoq

abstergent [əbˈstɜ:dʒ(ə)nt] *1. a* yuvuvchi, tozalovchi; *2. n* (*suv va b. ni*) tozalaydigan moddalar, yuvadigan moddalar

abstersion [əbˈstɜ:ʃ(ə)n] *n* artish, yuvib tozalash

abstinence [ˌæbstɪnəns] *n* (**from**) o'zini tiyish, o'zini tortish; **the day of ~** go'shtli, sutli ovqatlarni yeyish taqiqlangan kun (*xristianlarda*); **the ~ from meat** go'sht yemaslik

abstinent [ˌæbstɪnənt] *1. n* o'z nafsini tiygan kishi, (*yeb-ichishdan*) o'zini tiygan kishi; *2. a* o'z nafsini tiygan, (*yeb-ichishdan*) o'zini tiygan

abstract [ˌæbstrækt] *1. n* 1) mavhum tushuncha; **in the ~** mavhum; 2) umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot; **an ~ journal** referativ jurnal; **an ~ of record** protokoldan ko'chirma; 3) *komp.* referat, konspekt, tezis (*qisqa qilib tuzilgan axborot*); *2. a* mavhum, aniq bo'lmagan; **an ~ notion** mavhum tushuncha; **an ~ noun** mavhum ot; **an ~ algebra** universal algebra; **an ~ art** abstrakcionizm (*tasviriy san'atda: real narsalarni mavhum shakllar bilan tasvirlash tarafdori bo'lgan formalistik oqim*); *3. v* tortib olmoq; zo'rlik bilan olmoq

abstracted [əbˈstræktɪd] *a* 1) xayolga cho'mgan; 2) uzoq, olis

abstractedly [əbˈstræktɪdli] *adv* parishonxotirlik bilan

abstractedness [əbˈstræktɪdnəs] *n* 1) mavhumlik, aniq emaslik; 2) parishonlik, parishonxotirlik; 3) parokandalik, tarqoqlik

abstracter [əb' stræktə] *n* referent yozadigan kishi
abstraction [əb' strækʃ(ə)n] *n* mavhum tushuncha; noaniq narsa
abstractive [əb' stræktiv] *a* noaniq, mavhum
abstruse [əb' stru:s] *a* 1) chuqur ma'noli, ma'nodor, jiddiy; 2) tushunish qiyin bo'lgan; 3) maxfiy
absurd [əb' sɜ:d] *a* bema'ni, bo'lmag'ur; ahmoqona; kulgini qistatadigan; **patently, totally** ~ ma'uman bo'lmag'ur
absurdity [əb' sɜ:dti] *n* bema'nilik, behudatik, ahmoqlik, tentaklik
absurdly [əb' sɜ:dlɪ] *adv* bema'ni; ahmoqona; kulgini
abundance [ə' bʌndəns] *n* 1) mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lichilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinchilik; farovonlik, to'qchilik; **to be in** ~ serob bo'lmoq, to'lib-toshib yotmoq; **the ~ of one's (yoki the) heart** hissiyotga boylik, ortiq darajada hissiyotga berilish; sevinchi ichiga sig'maslik; 2) boylik, mol-mulk, dunyo, davlat; **to live in** ~ farovonlikda yashamoq; 3) juda ko'p, ancha, bir talay; **the ~ of people** xalqning yog'ilib kelib to'planishi
abundant [ə' bʌndənt] *a* serob; to'lib-toshgan; **to be** ~ to'lib-toshmoq
abuse [ə' bjʊ:s] 1. *n* so'kish, haqorat qilish; tahqirlash; **to exchange** ~ bir-birini haqorat qilmoq; ~ **of authority** amaldan (o'z manfaat uchun) foydalanish; **the ~ of environment** atrof-muhitni iflos qilish; **the ~ of law** qonunni buzish, qonundan (o'z manfaat uchun) foydalanish; **the ~ of power** amaldan (o'z manfaat uchun) foydalanish; **the ~ of privilege** imtiyozdan (o'z manfaat uchun) foydalanish; 2. *v* so'kmoq, haqorat qilmoq; tahqirlamoq; **to ~ a child** bola bilan zolimona (juda ham yomon) muomalada bo'lmoq; **to ~ a horse** otini haydab (urib, quvib) kirgizmoq, kiritmoq
abusive [ə' bjʊ:sɪv] *a* haqoratli, tahqirli, xo'rlik keltiradigan, tahqirlaydigan, nafsoniyatga (izzat-nafsga, shaxsiyatga) tegadigan, qattiq tegadigan; haqoratomuz, tahqirromuz; **an ~ act** o'z manfaat uchun foydalanish; ~ **language** so'kish, haqorat, dashnom; **an ~ letter** so'kib yoki qarg'ab yozilgan xat; ~ **treatment** yomon muomala
abut [ə' bʌt] *v* (on, upon) borib taqalmoq; chegaradosh bo'lmoq; **to ~ against** biror narsaning ko'ndalang joyiga borib taqalmoq; **to ~ on** yopishib (taqalib) turmoq, jips bo'lib turmoq; tutashmoq, yondashib turmoq, tutash (yondosh) bo'lmoq

abutment [ə' bʌtmənt] *n* 1) tutashish, yondashish, yonida (qatorida) turish, tutash (yondosh) bo'lish; 2) uvat, chegara, marza
abutting [ə' bʌtɪŋ] *a* tutashgan, chegaradosh, yondosh, bir qatorida (yonida) joylashgan; ~ **buildings** yonma-yon joylashgan binolar (imoratlar)
abuzz [ə' bʌz] *a* 1) vizillaydigan; 2) faol
abysm [ə' bɪz(ə)m] *n* tubsiz jar, chuqurlik, girdob
abysmal [ə' bɪzməl] *a* 1) chuqur, teran, tagsiz, tubsiz, tagi yo'q, juda chuqur; **the ~ depth of the oceans** okeanlarning tubsiz chuqurliklari; 2) haddan tashqari, juda, g'oyat; cheksiz, benihoyat; to'liq, to'la, mutlaqo, butunlay; ~ **misery** mutlaqo qashshoqlik; 3) juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz **his taste is abysmal** uning didi juda yomon
abyss [ə' bɪs] *n* tagsiz (tubsiz) chuqurlik, jar, choh, chuqur joy, qa'r, girdob; **a bottomless** ~ tubsiz jar; **a gaping (yawning)** ~ lang ochilib turgan (chuqur bo'lib ko'rinib turgan) jar
abyssal [ə' bɪs(ə)l] *a* chuqurlikdagi, suvning chuqur joyida yashaydigan; **an ~ sea** dengizning eng chuqur joyi
acacia [ə' keɪʃə] *n* bot. akatsiya (*daraxt*)
academe [ˈækædi:m] *n* 1) akademiya o'quv muassasasi; 2) Afina yaqinidagi Aflotun o'qigan maktab joylashgan bog'; 3) oliy o'quv yurtlarining o'qituvchisi; professor; 4) o'qimishli odam
academic [ˌækə'demɪk] 1. *n* akademik (*bi-ror akademiyaning haqiqiy a'zosi va shu kishining unvoni*); 2. *a* akademiya oid; akademiya qarashli; akademiya ...; akademik...; pedagogik; o'quv-ta'limga oid; **an ~ year** o'quv yili; **an ~ lyceum** akademik litsey; **an ~ adviser** ilmiy maslahatchi; **an ~ degree** ilmiy daraja; **an ~ hour** akademik soat; **the ~ profession** o'qituvchi (pedagogning kasbi); **an ~ rank** ilmiy unvon
academical [ˌækə'demɪk(ə)l] *a* akademiya oid, universitetga oid
academicals [ˌækə'demɪk(ə)lz] *n* pl plash va beret (*universitet kiyimi*)
academician [ˌækə'demɪʃ(ə)n] *n* akademik, akademiya a'zosi
academy [ˌækə'demɪ] *n* akademiya (*oliy ilmiy muassasa*)
academy-figure [ˌækə'demɪ,frɪgə] *n* ras. yalang'och odam rasmimi chizish
acanthi [ə' kænθaɪ] *pl* of **acanthus**
acanthus [ə' kænθəs] *n* 1) bot. ayiqtovon (*o'simlik*); 2) *me'mor.* naqsh

acaridan [ə'kæridən] *n* (*pl -dae [-di:]*) kana, jo'lak
acarpous [ə'ka:pəs] *a bot.* mevasiz, samarasiz
acataleptic [ə,kætə'leptik] *a kit.* tushunib bo'lmaydigan
acaudal [ə'kɔ:d(ə)l] *a zool.* dumsiz, quyruqsiz
accede [æk'si:d] *v* rozi bo'lmoq, qabul qilmoq; **to ~ to request (to a proposal)** iltimosga rozi bo'lmoq, taklifni qabul qilmoq
accedence [æk'si:d(ə)ns] *n* rozi bo'lish, qabul qilish
accelerant [æk'selərənt] *n kim.* katalizator (*kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi modda*)
accelerate [æk'seləreit] *v* tezlashtirmoq, tezligini oshirmoq
accelerated [æk'seləreitid] *a* tezlashtirilgan; oshirilgan (*tezlik va h. haqida*); ~ **charge** tezlashtirilgan zaryad; ~ **determination** tezlashtirilgan sinov; **an ~ electron** tezlashtirilgan elektron; **an ~ examination** tezlashtirilgan ekspertiza, tekshirish; **an ~ flight** tezlashtirilgan uchish (*parvoz*); **an ~ flow** tezlashtirilgan oqim; **an ~ graphics** tezlashtirilgan grafika; ~ **irradiation** tezlashtirilgan nurlantirish; **an ~ motion** tezlashtirilgan harakat; **an ~ particle** tezlashtirilgan zarra; ~ **payments** tezlashtirilgan to'lovlar; ~ **plasma** tezlashtirilgan plazma; **an ~ proton** tezlashtirilgan proton; **an ~ rotation** tezlashtirilgan aylanish; **an ~ system** tezlashtirilgan tizim; **an ~ test** tezlashtirilgan sinov
accelerating [æk'seləreitɪŋ] *a* tezlashuvchi, tezlashtiruvchi; ~ **agent** tezlashtiruvchi modda; ~ **anode** tezlashtiruvchi anod; ~ **cathode** tezlashtiruvchi katod; ~ **force fiz.** tezlashtirish kuchi; **an ~ electrode** tezlashtiruvchi elektrod; **an ~ chamber fiz.** tezlashtiruvchi kamera; **an ~ system** tezlashtiruvchi tizim
acceleration [æk'selə'reiʃ(ə)n] *n* tezlatish, tezlashtirish, jadallashtirish, oshirish, tezlashuv, tezlashish, jadallashuv; **the ~ of gravity fiz.** og'irlik kuchi tezlanishi; ~ **amplitude** tezlanish amplitudasi; ~ **center** tezlashish markazi; ~ **field** tezlashish maydoni; ~ **period** tezlashish jarayoni
accelerative [æk'selə'reitiv] *a* tezlashtiruvchi; ~ **force** tezlashtiruvchi kuch
accelerator [æk'selə'reitə] *n* 1) *tex.* tezlatgich, akselerator; 2) *kim.* katalizator
accent [ˈæks(ə)nt] 1. *n* 1) urg'u; **a sentence ~ gap** urg'usi; **an ~ mark** urg'u belgisi; **to put the ~ on the third syllable** uchinchi

bo'g'inga urg'u qo'yimoq; **a syllabic ~ bo'g'in** urg'usi; **to put the ~ on smth.** nimani-dir ta'kidlab o'tmoq, nimagadir urg'u berib o'tmoq; 2) talaffuz; **a good ~ yaxshi talaffuz**; 2. *v* 1) urg'u qo'yimoq, urg'u bilan talaffuz qilmoq; 2) ta'kidlamoq
accidental [æk'sentʃ(ə)l] *a* urg'uga oid bo'lgan; ~ **prosody** barmoq vaznli she'r to'qish
accentuate [æk'sentʃeɪt] *v* 1) urg'u qo'yimoq; 2) urg'u belgisini qo'yimoq; 3) ta'kidlamoq
accentuation [æk'sentʃ(ə)ɪʃ(ə)n] *n* 1) urg'u qo'yish; 2) talaffuz qilish uslubi; 3) ta'kidlash
accept [æk'sept] *v* qabul qilmoq, olmoq; rozi bo'lmoq; **to ~ blindly** ko'r-ko'rona ishonmoq; **to ~ a proposal/a suggestion/an offer** taklifni qabul qilmoq; **to ~ a present** sovg'ani qabul qilmoq; **to ~ failure** muvaffaqiyatsizlikni tan olmoq; **to ~ the responsibility** javobgarlikni o'z bo'yiga olmoq; **to ~ an apology** uzr deb qabul qilmoq; **to ~ the goods** tovar (*molni*) qabul qilib olmoq; **to ~ the losses** zararlarni o'z bo'yiga olmoq
acceptability [æk'septə'biliti] *n* maqbul bo'lish, to'g'ri kelish
acceptable [æk'septəb(ə)l] *a* 1) ma'qul; muvofiq keladigan; 2) yoqadigan, ko'ngildagi; **if the proposal is ~ to you** agar taklif sizga ma'qul bo'lsa
acceptance [æk'septəns] *n* qabul qilish; kutib olish; **the ~ of an invitation** taklifni qabul qilish; **the ~ of persons** yuz-xotir qilish, yuzidan o'tolmaslik, oshna-og'aynigarchilik
acceptant [æk'septənt] *a* qabul qiluvchi, qabul qiladigan
acceptation [æk'sept'etʃ(ə)n] *n* so'zning mazmunini yaxshi tushunib olish
accepted [æk'septɪd] *a* hamma qabul qilgan, hammaga ma'qul bo'lgan; rasm bo'lib qolgan; oddiy, keng tarqalgan, barchaga tanilgan; ~ **pronunciation** qabul qilingan talaffuz; ~ **proposal** qabul qilingan taklif; ~ **truth** hammaga ayon bo'lgan haqiqat
accepter [æk'septə] *n* qabul qiluvchi shaxs; qabul qiluvchi
acceptive [æk'septiv] *a* qabul qilsa bo'ladigan, maqbul, ma'qul, yaroqli, muvofiq
acceptor [æk'septə] *n* qabul qiluvchi kishi
acceptor [æk'septə] *n* tij. akseptant (*qabul qiluvchi kishi*)
access [ˈækses] *n* 1) kirish yo'li, kiradigan joy; 2) kirish (yoki foydalanish) huquqi, kirish (*foydalanish*) qurumi, xususiyat, ijozat, kira (*foydalana*) olish; **easy/free ~**

37628

birinchi kirishi mumkin, hammaga yo'l ochiq; 3) *komp.* kompyuterga kirish (*kompyuterni ochib, kerakli dastur ustida ishga tushish*); ~ **code** kompyuterga kirish kodi (*hushqular tomonidan kompyuter yoki undagi faylni ochib ishlatishdan muhofaza qilish maqsudida operator tomonidan ishlatiladigan maxsus kod*); ~ **time** ishga tushish vaqti (*kompyuterda so'ralgan axborot va ana shu axborotni kompyuter ekraniida paydo bo'lish o'rtasidagi interval*)

accessory [æk'ses(ə)rɪ] = **accessory**

accessibility [æk'sesə'bilɪtɪ] *n* 1) kirish (o'tish, borish) mumkinlik; 2) *tex.* ko'rish va xizmat ko'rsatishning qulayligi

accessible [æk'sesə'b(ə)l] *a* 1) kirish (borish, o'tish) mumkin bo'lgan; yo'lab (borib, chiqib) bo'ladigan; ochiq; 2) hammaning kuchi (qurbi, imkoni) yetadigan; hammaning imkoni doirasidagi; hammaning qo'lidan keladigan; 3) hamma tushunadigan, hamma-bop, ommabop; tushunilishi oson, jo'n; ...sa bo'ladigan; **easily** ~ oson erishsa bo'ladigan; 4) tushunish uchun oson, tushunarli, yengil; 5) gapga ko'nadigan (*unaydigan*), gapga kiradigan, ko'ngli bo'sh, ko'ngilehan; ~ **to bribery** sotqin; poraxo'r; 6) *tex.* qulay, soz, yaxshi

accession [æk'seʃ(ə)n] *1. n* 1) o'tish, yaqinlashish; 2) o'sish; ko'payish; to'ldirish; **an ~ book** inventar daftari; **an ~ catalogue** yangi tushgan kitoblarning katalogi (*katubxonada*); **an ~ number** inventar raqami

2. v ro'yxatga (katalogga) kiritmoq

accessorial [æksə'sɔrɪəl] *a* ko'makchi; qo'shimcha

accessories [æk'sesəriz] *n pl* buyumlar; narsalar; **computer ~** kompyuter buyumlari

accessory [æk'sesərɪ] *1. n yur.* birga ishtirok etgan (qatnashgan) odam, sherik; **2. a** qo'shimcha; **an ~ after the fact yur.** jinoyat sodir etilgandan keyingi sherik, yashiruvchi, bekituvchi; **an ~ before the fact yur.** jinoyat sodir etilishidan oldingi sherik; g'alamis, ig'vogar; fitnachi; yomon ishlardagi hamkor (sharik, hamtovoq), jinoyatga aralashgan odam (sharik); ~ **material** qo'shimcha material; ~ **defenses** *harb.* ko'makchi mudofaa inshootlari; **an ~ building** qo'shimcha bino; **an ~ program** qo'shimcha dastur; **an ~ word** yordamchi so'z

accidence [æksɪd(ə)ns] *n* 1) *gram.* morfologiya; 2) qandaydir fanning asosi (negizi, poydevori); 3) avariylarning bo'lib turishi; buzilish, zararlanish, shikastlanish; avariylar

accident [ˈæksɪd(ə)nt] *n* 1) hodisa, tasodif; **by ~** tasodifan, kutilmagan; 2) baxtsiz hodisa, ko'ngilsiz voqea, baxtsizlik; halokat; fojia; **a dreadful/horrible/shocking ~** mudhish fojia; **a factory/professional/industrial ~** ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisa; **a hunting ~** ovdagi baxtsiz hodisa; **a railway/train ~** temir yo'l halokati; **an unavoidable ~** oldini olib bo'lmaydigan; **to meet with an/to have an ~** halokatga uchramoq; **to be involved in a serious car ~** jiddiy avtohalokatga uchramoq; **there was an ~** baxtsiz hodisa yuz berdi; **a car/road ~** avtomobil halokati; **road/traffic ~s** yo'l-transportida shikastlanish; ~ **measures** *harb.* tasodifning oldini olish uchun ko'riladigan choralar; **an ~ at work** ish joyida sodir bo'lgan (bo'ladigan) baxtsiz hodisa; **an ~ book** baxtsiz hodisalarning ro'yxati yozib qo'yiladigan daftar; **a ~ cause** ko'ngilsiz voqeaning sababi; **an ~ certificate** baxtsiz hodisa haqida tuzilgan akt; **an ~ condition** avariya holati; ~ **damage** baxtsiz hodisa natijasida shikastlanish; **an ~ investigation** avariya natijalarini tekshirish; **an ~ investigator** baxtsiz hodisaga oid ishlarni olib boruvchi tergovchi; **an ~ lawyer** baxtsiz hodisaga oid ishlarni olib boruvchi advokat; **an ~ rate** sodir etilgan baxtsiz hodisalarning miqdori; **an ~ scene** baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joy; **an ~ service** baxtsiz hodisa sodir bo'lganda shoshilinch yordam ko'rsatadigan tibbiy xizmat; **an ~ site** avariya joyi; ~ **statistics** baxtsiz hodisalarning miqdori; **an ~ summary** baxtsiz hodisalar haqidagi hisobot; **an ~ threat** baxtsiz hodisaning xavfi; **an ~ victim** baxtsiz hodisadan jabrlangan kishi

accidental [æksɪ'dentl] *a* 1) tasodifiy, tasodifan bo'lgan (bo'lib qolgan), kutilmagan, nogahoniy; ~ **abortion** shikastlanish natijasida bola tashlash (g'ayriixtiyoriy tug'ish); ~ **benefits** qo'shimcha to'lovlar; **an ~ coincidence** tasodifiy mos kelish, tasodifan bir xilda bo'lib chiqish; **an ~ death** baxtsiz hodisa natijasida vafot etish; **an ~ error** tasodifiy xato; **an ~ event** tasodifiy hodisa (voqea); ~ **exposure** tasodifiy ta'sir ko'rsatish; tasodifiy nurlantirish; ~ **fault** tasodifiy ziyon (zarar) yetkazish, ziyon keltirish; ~ **harm** baxtsiz hodisa natijasida ko'rilgan ziyon (zarar); **an ~ injury** tasodifiy zarar (ziyon); **an ~ invention** tasodifiy ixtiro (kashfiyot); **an ~ killer** to'satdan kimnidir o'ldirgan kishi; **an ~ result** tasodifiy natija; **an ~ hemorrhage** tasodifiy

qon oqish; **an ~ discharge** *harb.* to'satdan o'q otish; 2) ikkinchi darajali

accidentally [ˌæksɪˈdent(ə)li] *adv* tasodifan, bexosdan, to'satdan

acclaim [əˈkleɪm] 1. *n* baqiriq, xursandchilik bilan qutlash (tabriklash, kutib olish); 2. *v* (*kimnidir*) baqirib olqishlamoq; **to ~ the winner** g'olibni baqirib tabriklamoq

acclamation [ˌækləˈmeɪʃ(ə)n] *n* qizg'in ma'qullash; **carried by ~** bir ovozdan ma'qullanganligi tufayli ovozga qo'yamay qabul qilindi

acclamatory [əˈklæmət(ə)rɪ] *a* ma'qullaydigan; **~ shouts** ma'qullash (qabul qilish) nidolari

acclimate [ˌæklɪmeɪt, əˈklaɪmət] *v* *amer.* yangi iqlimga (sharoitga) moslashtirmoq, yangi sharoitga o'rgatmoq, ko'niktirmoq

acclimation [ˌæklɪˈmeɪʃ(ə)n] = **acclimatization**

acclimatization [əˈklaɪmətaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* iqlimga (sharoitga) moslashtirish, yangi sharoitga o'rgatish, ko'niktirish

acclimatize [əˈklaɪmətaɪz] *v* iqlimga muvofiqlashtirmoq; **to ~ oneself to the surroundings** atrofdagi sharoitga moslash(tir)moq

acclivity [əˈklɪvɪti] *n* qiya ko'tarilib boradigan yo'l, qiya tepalik; qiyalik, yonbag'ir, nishab, nishablik

acclivous [əˈklɪvəs] *a* qiya, qiyalama, nishab

accommodate [əˈkɒmədeɪt] *v* 1) moslashmoq, moslashtirmoq; **to ~ oneself to smth.** biror narsaga moslashmoq, biror narsaga odatlanmoq; **~ to smb.** biror kishiga o'rganib qolmoq; 2) ta'minlamoq, yetkazib bermoq; **to ~ with a loan** kimgadir pul qarz bermoq; 3) boshpana (joy) bermoq; **to be well ~d** yaxshi joylashmoq, barcha qulayliklarga ega bo'lmoq; 4) xizmat ko'rsatmoq; **to ~ a client** mijozga xizmat ko'rsatmoq

accommodating [əˈkɒmədeɪtɪŋ] *a* 1) xizmatini ayamaydigan; 2) chiqishib ketadigan, gapga ko'nadigan; **in an ~ spirit** murosa ruhida

accommodation [əˈkɒməˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) ko'nikish, moslashish; **~ capability** moslashish qobiliyati; 2) boshpana; bino, imorat, uy, xona, maskan, odamlar turadigan (yashaydigan) yer, joy, uy-joy (*kulba, xona va h. k.*); **deluxe ~ / first-class ~** qulay va shinam turar joy; **furnished ~s** mebellar bilan jihozlangan xonalar; **secure ~** xavfsiz bino (imorat, uy-joy); **hotel ~** mehmonxonadagi xona; **~ with every convenience** harcha qulayliklarga ega bo'lgan turar joy;

to seek ~ turar joy qidirmoq; **~ house** 1) karvonsaroy; 2) *yur.* fohishaxona (*kapitalistik jamiyatda*); **~ car** mahalliy yo'lovchilar uchun mo'ljallangan (*hech qanday qulayliklarga ega bo'lmagan, yaqin masofaga mo'ljallangan arzon*) vagon

accommodation-ladder [əˈkɒməˈdeɪʃ(ə)n-ˌlædə] *n* olib qo'yiladigan narvon

accommodation train [əˈkɒməˈdeɪʃ(ə)n-ˌtreɪn] *n* *amer.* har bir bekatda to'xtaydigan mahalliy yo'lovchi poyezdi

accommodative [əˈkɒmədeɪtɪv] *a* 1) qulay; munosib, bop, o'ng'ay, mos, muvofiq; 2) chiqishadigan, chiqisha oladigan, murosa qila biladigan, murosalı, inoqlik bilan yashay oladigan; **~ character** har kim bilan chiqisha olish xarakteri

accompaniment [əˈkæmp(ə)nɪmənt] *n* 1) kuzatish; 2) *mus.* jo'r bo'lish; **a piano ~ to a song** pianino jo'rliğida kuylanadigan qo'shiq; **to the ~ of soft music** tinch musiqqa jo'rliğida

accompanist [əˈkæmp(ə)nɪst] *n* jo'rlik qiluvchi sozanda

accompany [əˈkæmpəni] *v* 1) kuzatib qo'y-moq; yo'ldosh bo'lmoq; 2) *mus.* jo'r bo'lmoq

accompanying [əˈkæmp(ə)nɪŋ] *a* kuzatuvchi, ergashib boruvchi, birga yuradigan; **an ~ letter** ilova qog'ozı (*xatı*)

accomplice [əˈkæmplɪs] *n* *yur.* (*jinoyatda*) sherik, birga ishtirok etgan; **an ~ in crime** jinoyatda birga ishtirok etgan odam

accompliceship [əˈkæmplɪʃɪp] *n* *yur.* (*jinoyatda*) birga ishtirok etish

accomplish [əˈkæmplɪʃ] *v* 1) bajarmoq, amalga oshirmoq, qilmoq, ko'rsatmoq; erishmoq; tugatmoq, oxiriga yetkazmoq; **to ~ a promise** va'dasiga vafq qilmoq; **to ~ a distance** masofani bosib o'tmoq; **how did you ~ this?** siz buni qanday bajardingiz? **to ~ a task** topshiriqni bajarmoq; 2) mukammallashtirmoq; bekam-ko'st qilmoq

accomplished [əˈkæmplɪʃt] *a* 1) tugatilgan, oxiriga yetkazilgan, bajarilgan; 2) tajribali, eng yaxshi; **an ~ violinist** eng yaxshi skripkachi

accomplishment [əˈkæmplɪʃmənt] *n* 1) bajarish, amalga oshirish, ijro etish; 2) tugatish, bitirish, oxiriga (poyoniga, nihoyasiga) yetkazish; 3) yutuqqa (muvaffaqiyatga) erishish, yutuq, muvaffaqiyat

accord 1 [əˈkɔ:d] *n* rozilik, yakdillik; **in ~ with smth.** nimagadir muvofiq (binoan, ko'ra); **out of ~ with smth.** nimagadir qarshi; **with one ~** bir ovozdan, yakdillik bilan; **be in ~** qarashlarning bir xil bo'lib chiqishi;

fikrlanmoq bir yerdan chiqishi; **of one's own** - xiyoriy ravishda, o'z xohishi (ixtiyoriy) bilan, ko'ngilli bo'lib

account I [ə'kaʊnt] v bermoq, taqdim etmoq, in'om qo'yish, hadda) qilmoq; **to ~ a warm welcome** - samimiy (yaxshi) kutib olmoq
accountance [ə'kaʊnt(ə)ns] n muvofiqlik, moslik, in - **with smth.** -ga muvofiq (ko'ra, binoan)

accordant [ə'kaʊd(ə)nt] a (with) munosib, muvofiq, mos

according [ə'ko:diŋ] I. *prep.* (to) -ga ko'ra (muvofiq, binoan, asosan); **~ to all accounts** (shuningdek, by all accounts) ko'pchilikning fikricha, umumiy xulosalarga qaraganda, odamlarning aytishlariga qaraganda (aytishlaricha); **~ to contract** shartnomaga asosan; **~ to law** qonunga binoan; **~ to plan** rejaga binoan; **~ to schedule** jadvalga asosan; **~ to the circumstances** sharoitga (vaziyatga) qarab; 2. *adv* shunday qilib, shuning uchun ham

accordingly [ə'ko:diŋli] *adv* 1) tegishli, tegishli ravishda, yarasha, qarab, mos ravishda; 2) shunday qilib, demak

accordion [ə'ka:rdjən] n 1) *mus.* akkordeon, garmon, bayan; 2) *tex.* qat-qat (nova-nova) qilib ulangan joy

accost [ə'kɒst] I. n murojaat qilish (*kingadir*); 2. v murojaat qilmoq, yopishmoq, xiralik qilmoq, shifqimlik qilmoq (*kingadir*)

accouchement [ə'ku:ʃmənt] n *fr.* tug'ish, ko'zi yorish

accoucheur [ə'ku:ʃɜ:] n *fr.* akusher (*homiladorlarga, tug'adigan va tug'gan xotinlarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassis shifokor*), doya

accoucheuse [ə'ku:ʃɜ:z] n *fr.* doya ayol (*homiladorlarga, tug'adigan va tug'gan xotinlarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassis shifokor ayol*)

account [ə'kaʊnt] I. n 1) raqam, hisob raqami; **to charge smb.'s** - kimningdir hisob raqamiga yozib qo'yimoq; **to close an ~ with a bank** bankdagi hisob raqamini yopmoq; **to overdraw an ~** bankdagi hisob raqami xarajatlarini oshirmoq; **to pay an ~** hisob-kitobni to'lamoq; **to pay into an ~** hisob raqamiga pul qo'yimoq; **to settle an ~** hisob raqami bo'yicha hisoblashmoq; **according to all ~s** (*shun. by all ~s*) ko'pchilikning fikriga ko'ra; **to be called (yoki gone) to one's ~** olandan o'tmoq, o'lmoq; **to bring (call, hold yoki take) smb. to ~** kimnidir javob berishga chaqirmoq (unda-moq), javobgarlikka chaqirmoq; kimdandir hisobot berish (tushuntirib berish, sababini

aytib berish)ni talab qilmoq; **a dormant ~** mijozlar tomonidan juda uzoq muddatdan beri ishlatilmayotgan joriy hisob; **to give a good (fine, splendid, etc.) ~ of oneself** o'zini (yaxshi tomonlarini) ko'rsatmoq, nimanidir muvaffaqiyatli bajarmoq, yaxshi (a'lo darajadagi) natijalarga erishmoq = qiyinchiliklarni *sharaf bilan yengmoq*, uyalib (yerga qarab) qolmaslik; **for ~ of smb.** kimningdir hisobidan; **a bank ~** bankdagi hisob (raqam); 2) hisobot; **to give an ~ of smth.** nimanidir haqida hisobot bermoq; **to call to ~** nimanidir haqida hisobot berishni talab qilmoq; **the great ~** - *din. qiyomat*; **to lay (one's) ~ for (on yoki with) smth.** nimanidir ko'zda (nazarda) tutmoq, mo'ljallamoq; nimanidir kutmoq, nimagadir umid qilmoq (umid bog'lamoq, ko'z tutmoq); **to make little ~ of smth.** nimanidir uncha muhim emas deb hisoblamoq; **to make much ~ of smth.** nimanidir juda muhim deb hisoblamoq; **to make no ~ of smb. (yoki smth.)** kimgadir (*yoki* nimagadir) hech qanday e'tibor bermaslik; **of much ~** qiymatga, ahamiyatga ega bo'lgan; **of no ~ (so'zl. no ~)** hech qanday qiymatga, ahamiyatga ega bo'lmagan; **of small ~** uncha ko'p (katta) bo'lmagan, arzimaz, uncha ham katta ahamiyatga ega bo'lmagan, obro'ga ega bo'lmagan, izzat-hurmatga sazovor bo'lmagan; **on ~ of smth. (jarg. ~ of smth, yoki on ~)** nimaningdir munosabati bilan, nimanidir bo'lgani uchun, nimanidir boisdan (sababli, tufayli, natijasida, oqibatida, ortqasida); **on all ~** (*shun. on every ~*) hamma narsani e'tiborga (inobatga, nazarga) olib; nazarda tutib; har jihatdan, hamina tomondan; **on no ~** hech qanday holat (sharoit, vaziyat)da, uslo, hech, zinhor, sira, hech bir; **on smb.'s ~** kimningdir hurmati uchun; **to send smb. to his ~** kimnidir narigi dunyoga jo'natmoq, o'ldirmoq; **to settle (yoki to square) ~s (yoki one's ~) with smb. (shun. to settle smb.'s ~)** 1) kim bilandir hisob-kitob qilmoq, hisoblashmoq, hisoblashib orani ochiq qilmoq; 2) kimdandir o'ch (qasos, qasd) olmoq, kim bilandir hisoblashib qo'yimoq; **to turn smth. to (good) ~** nimanidandir foyda (manfaat) ko'rmok, naf topmoq, foyda olmoq, nimanidir o'z foydasi uchun ishlatmoq; 2. v (*for*) tushuntirmoq; **to ~ for one's absence** kelinaganligining sababini tushuntirib bermoq

accountability [ə'kaʊntə'bɪlɪtɪ] n 1) javobgarlik; 2) hisobot beruvchi; **she is ~ to her father** u otasining oldida hisobot beradi

- accountable** [ə'kauntəb(ə)] *a* mas'ul, javobgar; **to be ~ for one's actions** o'z qilmishiga javob bermoq
- accountably** [ə'kauntəbli] *adv* sababli (uzrli) tarzda, sababini tushunib (tushuntirib)
- accountancy** [ə'kauntənsi] *n* hisobchilik ishi, hisobchilik
- accountant** [ə'kauntənt] *n* 1) hisobchi, buxgalter; 2) *yur.* javobgar; ~'s office hisob-kitob bo'limi, buxgalteriya
- accountant-book** [ə'kauntəntbuk] *n* buxgalteriya daftari
- accountantship** [ə'kauntənʃɪp] *n* 1) buxgalterlik ishi; 2) buxgalterlik vazifasi
- accounting** [ə'kauntɪŋ] *n* 1) buxgalterlik, hisobchilik ishi; ~ **check** *komp.* kompyuterga kiritilgan axborotning to'g'ri o'zlashtirilganligini tekshirish (nazorat qilish); 2) buxgalterlik daftarlarini yuritish
- accouter** [ə'ku:tə] = **accoutre**
- accoutre** [ə'ku:tə] *v* 1) kerakli narsalar (kiyim-kechak, oziq-ovqat, transport vositalari va sh. k.) bilan ta'minlamoq; 2) kiyintirmoq, kiygizmoq; 3) kerakli (*asosan, harbiy*) anjom-aslaha bilan ta'minlamoq
- accoutrements** [ə'ku:tremənts] *n pl* *harb.* (*shaxsiy*) anjom (*asosan, charmdan qilingan*)
- accredit** [ə'kredit] *v* vakolat bermoq
- accreditation** [ə'kredɪ'teɪʃ(ə)n] *n* 1) *dipl.* chet davlatga vakil qilib yuborish (*diplomatik vakillarni, jurnalistlarni*); 2) rasmiylashtirish, rasmiy ro'yxatdan (qaytadan) o'tkazish (*tashkilot, o'quv muassasasi haqida*)
- accredited** [ə'kreditɪd] *a* 1) vakil qilib yuborilgan; 2) rasmiylashtirilgan, rasmiy ro'yxatdan (qaytadan) o'tkazilgan (*tashkilot, o'quv muassasasi haqida*); **an ~ advertising agency** rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan (*reklamalarni joylashtirishga huquqi va imkoniyatlari mavjud bo'lgan*) reklama agentligi; 3) rasm bo'lib qolgan
- accrementation** [ækri'mɪn'tʃ(ə)n] *n* *biol.* tabiiy o'sish
- acrescent** [ə'kres(ə)nt] *a* 1) o'sib boruvchi, o'sayotgan; 2) *bot.* gullagandan keyin o'sib boruvchi
- accrete** [ə'kri:t] 1. *a* *bot.* tutashib o'sgan; 2. *v* (*o'sish yoki rivojlanish jarayonida*) bitta bo'lib qo'shilib (*bitib*) ketmoq
- accretion** [ə'kri:ʃ(ə)n] *n* 1) o'sish, ko'payish; **the ~ of territory** maydonning kengayishi; **the ~ of the capital** *iq.* mablag' (sarmoya)ning ko'payishi; 2) *biol.* tabiatan o'sish
- accretive** [ə'kri:tɪv] *a* 1) o'sib boruvchi, o'suvchi, kattalashib borayotgan; 2) *geol.* (suv, shamol yoki muz olib kelgan) o'tirindi, cho'kindi
- accrue** [ə'kru:] *v* ko'paymoq; to'planib qolmoq
- accumulate** [ə'kjʊ:mju:leɪt] *v* to'plamoq, yig'moq; jamg'armoq
- accumulation** [ə'kjʊ:mju:'leɪʃ(ə)n] *n* to'plash, yig'ish; jamg'arish; ~ **of power** kuch to'plash
- accumulative** [ə'kjʊ:mju:lətɪv] *a* jamg'arilgan, jamlangan, to'plangan
- accumulator** [ə'kjʊ:mju:leɪtə] *n* 1) *tex.* akkumulator; 2) *komp.* akkumulator (*prosessorning maxsus registri (tugmahalar qatori)*); 3) manfaatparast odam
- accuracy** [ækjʊrəsi] *n* aniqlik, to'g'rilik; **calculation** ~ hisobning (hisoblab chiqishning) aniqligi (to'g'riligi); **the ~ of translation** tarjimaning aniqligi (aynan to'g'riligi); **the ~ of fire** *harb.* morganlik; ~ **control characters** *komp.* akselerator (*jarayonni tezlashtiruvchi blok*)
- accurate** [ækjʊrət] *a* aniq, to'g'ri; ~ **within 0,001 mm** 0,001mm gacha bo'lgan aniqlik bilan; **an ~ description** aniq tasvirlash; **an ~ diagnosis** aniq tashxis; ~ **information** aniq (ishonchli) ma'lumot
- accurately** [ækjʊrətli] *adv* xatoga yo'l qo'ymay, yanglishmay, xato qilmay, xatosiz, aniq, to'ppa-to'g'ri, bexato
- accuse** [ə'kʊ:s] *v* esk. so'kmoq, urishmoq, kuyimoq, la'natlam, qarg'amoq
- accursed** [ə'kʊ:sɪd] *a* 1) la'nati, la'natlangan, la'nat o'qilgan; **an ~ problem** mashkul (hal qilinishi qiyin bo'lgan) masala; 2) nafrat qo'zg'aydigan
- accurst** [ə'kʊ:st] = **accursed**
- accusation** [ækjʊ'zeɪʃ(ə)n] *n* ayblash, qoralash; **to bring an ~ against smb.** kimnidir ayblamoq
- accusative** [ækjʊ:zətɪv] *a* *gram.* tushum kelishigi
- accusatorial** [ækjʊ:zə'tɔ:riəl] *a* *yur.* ayblashga oid
- accusatory** [ækjʊ:zət(ə)rɪ] *a* ayblanadigan, ayblash bilan bog'liq bo'lgan
- accuse** [ə'kju:z] *v* ayblamoq, kimsaga ayb qo'ymoq, aybni kimsaga yuklamoq, kimsani aybdor, gunohkor hisoblamoq; **to ~ smb. of a crime** kimnidir jinoyat sodir qilganlikda ayblamoq
- accused** [ə'kju:zd] *a* *yur.* ayblanuvchi (*jinoyatda*)
- accuser** [ə'kju:zə] *n* 1) *yur.* ayblovchi, qoralovchi; 2) shikoyatchi
- accustom** [ækstəm] *v* o'rgatmoq, odatlantirmoq, ko'niktirmoq, o'rgatib (odatlan-

tirib) qo'ymoq (to); to ~ oneself to smth. (nimagadir) o'rganib qolmoq; to ~ oneself to getting up early ertalab turishga odatlanib qolmoq; to be ~ed to hard work og'ir ishlarga o'rgatilmog; to be ~ed to working hard qattiq mehnat qilishga o'rganib qolmoq

accustomed [ə'kʌstəmd] *a* odatlangan; o'rganangan; ~ to smth. nimagadir o'rgatilgan; ~ to hard work og'ir mehnatga o'rgatilgan; ~ to walking long distances ko'p piyoda yurishga odatlangan

ace [eɪs] *1. n* 1) *short.* bir zarba bilan yutib olingan (qo'lga kiritilgan) xol (*tennisda, gandbolda*); 2) *qart.* tuz; **one's** (*yoki the*) ~ of trumps asosiy kuzir; **an ~ up one's sleeve** (*amer. an yoki one's ~ in the hole*) so'zl. „zaxiradagi kuzir“, qo'shimcha imkoniyat (yashirincha ustunlik); **to trump smb.'s** (*yoki the*) ~ tuzni kuzir bilan bosmoq, kimningdir zarbasini gaytarmoq (daf qilmoq); kimningdir zarbasiga qarshi zarba bermoq; **within an ~ so'zl.** oz (sal) bo'lmasa, sal qoldi; hozir, hademay, tez orada, hash-pash deguncha = nimaningdir oldida (yoqasida); nimagadir juda yaqin; 3) yaxshi biladigan, bilag'on, bilindon, bilarmon; eng yaxshi mutaxassis; o'z ishining ustasi; 2. *v* xol o'lmoq (*o'yinda*)

acentric [ə'sentrik] *a* 1) markazlashtirilmagan; 2) *tib.* ustki, sirtqi

acephalous [ə'sefələs] *a* 1) *zool.* boshsiz (*molluskalar guruhi to'g'risida*); 2) rahbardan mahrum etilgan, boshliqsiz

acerb [ə'sɜ:b] *a* 1) nordon, og'iz burushtiradigan, tish qamashtiradigan, qimizak, turush, achchiq, taxir; 2) achchiq, o'tkir; o'yuvchi, yeyuvchi, achitadigan, achishtiradigan; alam qildiradigan, zaharli, achchiq, zahar

acerbate [ə'sɜ:bət] *v* 1) g'azablantirmoq, achchig'ini chiqarmoq; 2) achitmoq, taxir (*tish qamashadigan*) qilmoq

acerbic [ə'sɜ:bik] *a* nordon, achchiq

acerose [ə'sɜ:rəʊz] *a* *bot.* ignasimon; **an ~ leaf** ignabarg (*ignabargli daraxning bargi*)

acescent [ə'ses(ə)nt] *a* oksidlovchi

acetate [ə'setət] *n* 1) *kim.* sirka kislotasining (tuzi, atsetat; 2) *attr.* atsetatli; sun'iy; ~ silk atsetatli, sun'iy ipak

acetic [ə'si:tik] *a* *kim.* sirkali; ~ acid uksus kislotasi

acetify [ə'si:tɪfaɪ] *v* *kim.* sirka (kislotasi)ga aylanmoq (aylantirmoq)

acetone [ə'setəʊn] *n* *kim.* atseton (*lok-bo'yoq sifatida va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan organik birikma, rangsiz suyuqlik*)

acetous [ə'setəs] *a* 1) sirkaga oid, sirka...; 2) sirkali, nordon, achchiq

acetum [ə'setəm] *n* *farm.* sirka

acetylene [ə'setili:n] *n* *kim.* atsetilen

ache [eɪk] *1. n* og'riq (*surunkali*); **to have an ~** og'riqni his qilmoq, og'riqni boshdan kechirmoq; **a dull ~** simillab og'rish; zirqirab turadigan og'riq; **a persistent ~** doimiy og'riq; **a steady ~** to'xtamaydigan og'riq; 2. *v* 1) og'rimoq (*qayeridir*); og'riqni his qilmoq; kasal bo'lmoq; **my head ~s** mening boshim og'riyapti; 2) ichi kuymoq, achinmoq

acheless [eɪkələs] *a* og'riqsiz, og'ritmaydigan

achievable [ə'tʃi:vəb(ə)l] *a* yetib (*erishib*) bo'ladigan

achieve [ə'tʃi:v] *v* erishmoq; yetishmoq; **to ~ one's aim** o'z maqsadiga erishmoq; **to ~ success (results)** muvaffaqiyatga (natijaga) erishmoq; **to ~ an object of invention** kashfiyotdagi maqsadiga erishmoq; **to ~ economy** iqtisodga erishmoq

achievement [ə'tʃi:vmənt] *n* yutuq, muvaffaqiyat, g'alaba; **considerable ~s** katta muvaffaqiyatlar; **the ~ of goal** maqsadga erishish; **a crowning ~** eng katta yutuq; **an epic ~** tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yutuq (muvaffaqiyat); **great/major ~s** katta yutuq, ulkan g'alaba; **a memorable ~** esda qoladigan (unutilmaydigan) yutuq; **remarkable ~s** g'oyat katta muvaffaqiyatlar; **outstanding ~s in science** ilmdagi ulkan yutuqlar; **scientific ~s** ilmiy yutuqlar; **~s in industry (national economy, trade)** sanoat (xalq xo'jaligi, savdo)dagi yutuqlar

aching [eɪkɪŋ] *a* nosog', betob, kasal; **an ~ tooth** og'riyotgan tish

achromatic [ækro(ə)'mætɪk] *a* 1) rangsiz, tussiz, rangpar, xira; ~ color axromatik (*nurni tarkibiy qismlarga ajratmasdan o'tkazadigan*) rang; **an ~ image** axromatik tasvir; ~ light axromatik (oq) rang; **an ~ system** axromatik sistema; **an ~ television** oq-qora televizor; 2) *tib.* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*) bilan og'rigan (azoblanayotgan); ~ vision daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*)

achromatism [ækro'matɪz(ə)m] *n* maxs. 1) axromatizm (*optik shishalarning nurni tarkibiy qismlarga ajratmasdan o'tkazish xususiyati*); 2) rangsizlik

achroous [ækroʊəs] *a* rangsiz

acicular [ə'sɪkjələ] *a* maxs. ignasimon, igna shaklidagi, ignaga o'xshagan

acid [æsid] *1. a* 1) nordon, achchiq; 2) kislotaga oid; kislotali; kislotasi...; **an ~ brick** silikat (*tarkibida kremniy kislotasining*)

uzlari bo'lgan) g'isht; ~ **burn** kislota bilan kuydirish; ~ **cleaning** kislota bilan tozlash; **an** ~ **conduit** kislota quvuri; ~ **dye** kislotali bo'yoq; ~ **estimation** kislota miqdorini aniqlash; ~ **-fast** kislota chidamli; ~ **formers** kislota shaklidagi bakteriyalar; ~ **liquor** kislotali eritma; ~ **proof** kislota chidamli, kislota bardosh; **an** ~ **room** kislota saqlanadigan bino; ~ **salt** nordon tuz (*tarkibida metall bilan almashina oladigan yodod bo'lgan tuz*); ~ **stability** kislota chidamlilik, kislota bardosh; **an** ~ **tank** kislota saqlanadigan bak; ~ **value** kislota miqdori; ~ **(ic) waste** ishlatib bo'lingan (ishdan chiqqan) kislota; ~ **water** achchiq (nordon) suv (*uglekislotali mineral suv*); ~ **-based** kislota oid; kislotali; kislota ...; ~ **-cut water** achchiq (nordon) suv (*uglekislotali mineral suv*); ~ **-etch** buyum sirtiga kislota bilan ishlov bermoq; ~ **free** tarkibida kislota bo'lmagan; ~ **-like** kislota simon, kislota o'xshagan; ~ **-proof paint** kislota chidamli bo'yoq; ~ **-proof paint**; ~ **-resisting steel** kislota chidamli (kislota bardosh) po'lat; ~ **-resisting tile** kislota chidamli (kislota bardosh) plitka (kichkina toshtaxta); ~ **-seal** = ~ **-resistant**; ~ **-seal paint** kislota chidamli (kislota bardosh) bo'yoq; ~ **-tolerant** kislota chidamli (kislota bardosh); ~ **-washed** kislota bilan yuvilgan; 2. *n kim.* kislota; ~ **residual** kislota qoldig'i; **acetic (ethanoic)** ~ sirka kislota; **citric** ~ limon kislota; **nitric** ~ azot kislota, nitrat kislota; **sulfuric** ~ olingugurt kislota, sulfat kislota; **hydrochloric** ~ xlor kislota, xlorid kislota; **to come the** ~ *jarg.* achchiq (qattiq) gapni aytib yubormoq, alam qiladigan so'z aytmoq, zaharxanda bilan gapirmoq, achchiq gap qilmoq; **to put the** ~ *on smb.* *avstral. jarg.* 1) kimdandir qarzga so'rab olib turmoq; 2) nafsoniyatga (izzat-nafsig, shaxsiyatiga) tegadigan gap qilmoq, shilqimlik qilavermoq (ayol kishiga)

acidic [əˈsɪdɪk] *a* 1) nordon, achchiq; 2) kislota oid; kislotali; kislota...; ~ **amino acid** kislotali aminokislota; ~ **solution** kislotali eritma; ~ **waste** ishlatib bo'lingan (ishdan chiqqan) kislota; ~ **water** achchiq (nordon) suv (*uglekislotali mineral suv*)

acidification [əˈsɪdɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n kim.* oksidlash; oksidlanish

acidify [əˈsɪdɪfaɪ] *v kim.* oksidlamoq

acidity [əˈsɪdɪti] *n* 1) kislotalilik; ~ **coefficient** kislotalilik ko'effitsiyenti; ~ **constant** kislotalilikning doimiy miqdori; ~ **level** kislotalilik darajasi; 2) o'yuvchanlik

acidize [ˈæsɪdaɪz] *v* oksidlamoq

acidly [ˈæsɪdli] *adv* istar-istumas; ijirg'anib; ijirg'angan chehra bilan

acidproof [ˈæsɪdpruːf] kislota chidamli, kislota bardosh; **an** ~ **brick** kislota chidamli (kislota bardosh) g'isht; ~ **glass** kislota chidamli (kislota bardosh) shisha; ~ **material** kislota chidamli (kislota bardosh) material; ~ **paint** kislota chidamli (kislota bardosh) bo'yoq; ~ **paper** kislota chidamli (kislota bardosh) qog'oz; ~ **steel** kislota chidamli (kislota bardosh) po'lat; ~ **varnish** kislota chidamli (kislota bardosh) lok

acidulate [əˈsɪdjuleɪt] *v kim.* kislota qo'shmoq

acidulous [əˈsɪdjələs] *a* nordonroq, achchiqroq; ~ **water** achchiq (nordon) suv, uglekislotali mineral suv

acinose [ˈæsɪnəʊs] *a maxs.* doni ko'p, serdon

ack-ack [æk,æk] *n* 1) *harb. jarg.* zenit topi; 2) zenit artilleriyasi; 3) zenit artilleriyasining o'qi

acknowledge [ækˈnɒlɪdʒ] *v* 1) tushunmoq, bilmok, anglamoq, fahmlamoq; iqror bo'lmok, bo'yniga olmoq, tan olmoq; **to** ~ **a debt** qarzni bo'yniga olmoq; **to** ~ **character** qabul qilib olganini tasdiqlovchi belgi; **to** ~ **receipt of** nimanidir olganini tasdiqlamoq; **to** ~ **the corn** *idiom.* o'z aybini bo'yniga olmoq; **to** ~ **one's mistakes** o'z xatolarini tushunmoq; 2) o'z minnatdorchiligini izhor etmoq; **to** ~ **gifts** sovg'alar uchun o'z minnatdorchiligini yozma ravishda izhor etmoq

acknowledged [ækˈnɒlɪdʒd] *a* tanilgan, tan olingan, e'tirof etilgan; ~ **sequence number** tasdiqlangan tartib raqami

acknowledgement [ækˈnɒlɪdʒmənt] *n* 1) tan olish, e'tirof etish; 2) tasdiqlash; (nimanidir) olish uchun berilgan tilxat; 3) bilish, tanish; 4) minnatdorchilik, minnatdorchilik, minnatdor bo'lishlik; **an** ~ **of a mistake** xatoni tan olish (e'tirof etish); **an** ~ **signal** qabul qilib olganligini tasdiqlovchi signal

acclinic [əˈklɪnɪk] *a* gorizontaal, yotiq, ni-shabsiz; **an** ~ **line** gorizontaal chiziq

acme [ˈækmi] *n* (*nimaningdir*) eng yuqori nuqtasi, eng avji, eng yuksak darajasi, eng qizg'in payti; **the** ~ **of skill** mahorat cho'qqisi

acne [ˈækni] *n tib.* husnbuzar, g'udda (*yuzda*)

acock [əˈkɒk] *adv* chakkaga qo'yib, chakkaga qo'ndirib (*bosh kiyini haqida*)

acolyte [ˈækələt] *n* 1) *cherk.* xizmatkor; 2) yordamchi; 3) *ast.* yo'ldosh

aconite [ˈækənait] *n* bot. akonit, parpi (*dorivor o'simlik*)

acorn [ˈeɪkɔ:n] *n* cho'chqayong'oq (*dub daraxtining mevasi*)

acoustic [əˈku:stɪk] *a* akustik, tovushga oid; **an** ~ **apparatus** akustika apparati; **an** ~ **element** akustik element; ~ **energy** akustik energiya; **an** ~ **field** akustik maydon; **an** ~ **generator** akustik generator; **an** ~ **guitar** akustik gitara; ~ **al material** akustik material; **an** ~ **method** akustik metod; **an** ~ **microscope** akustik mikroskop; **an** ~ **pipe** akustik quvur; **an** ~ **radiometer** akustik radiometr; **an** ~ **signal** akustik signal; **an** ~ **system** akustik tizim; **an** ~ **thermometer** akustik termometr; ~ **velocity** tovush tezligi

acoustically [əˈku:stɪk(ə)li] *adv* akustika nuqtayi nazaridan

acoustician [ˈækju:ˈstɪʃ(ə)n] *n* 1) akustika bo'yicha mutaxassis; 2) eshitish apparat-lari ustasi

acoustics [əˈku:stɪks] *n* akustika (1. fizika-ning tovush haqidagi bo'lini; 2. binoning hamma yerida tovushning yaxshi eshitilish-eshitilmaslik xususiyati)

acquaint [əˈkweɪnt] *v* 1) (**with**) tanishtirmoq, tanitmoq (*kim bilandir*); **to get/to become** ~ **ed with smb.** kim bilandir tanishmoq; **to** ~ **smb. with smth.** kimnidir biror narsa bilan tanishtirmoq; 2) (**oneself with**) tanishmoq, tanishib chiqmoq; **to** ~ **oneself with smth.** nima bilandir tanishib chiqmoq

acquaintance [əˈkweɪntəns] *n* tanish (oshna) bo'lish; tanishish; tanishlik, tanish-bilishlik, oshnachilik, og'aynilik; og'aynigarchilik; **to make the** ~ **of smb.** kim bilandir tanishmoq; **to renew an** ~ **oshnalikni** qaytadan boshlamoq; **to strike up an** ~ **with** kim bilandir tanishmoq (tanishib olmoq); **a casual** ~ tasodifiy tanishuv (uchrashuv); **nodding** ~ ko'z oshna (tanish) bo'lish, salom-alik qilib yurish; **a passing** ~ tasodifiy tanishuv (uchrashuv); **slight** ~ yuzaki tanishuv; **superficial** ~ yuzaki tanishuv; **to scrape (up)** ~ (**yoki an** ~) **with smb.** so'zl. kim bilandir tanishishga intilmoq; **a speaking** ~ rasmiy tanishuv; **short** ~ **brings repentance** maq. (qisqa muddatli tanishuv pushaymonga sababchi) yangi do'stga uncha ham ishonib bo'lmaydi; kiyimning yangisi yaxshi, do'stning eskisi

acquainted [əˈkweɪntɪd] *a* 1) (*kim bilandir*) tanish, oshna; 2) (*nimanidir*) biladigan, qandaydir ma'lumotga ega bo'lgan

acquest [æˈkwest] *n* 1) *kit.* olish, ega bo'lish, egallash; 2) *yur.* sotib yoki in'om sifatida olingan narsa (*ammo meros sifatida emas*)

acquiesce [ˌækwiˈes] *v* indamay yoki istar-istamay rozilik bildirmoq; **he will never** ~ **u** hech qachon rozi bo'lmaydi

acquiescence [ˌækwiˈes(ə)ns] *n* indamay yoki istar-istamay rozi bo'lish; rozilik; **complete / total** ~ to'liq rozilik

acquiescent [ˌækwiˈes(ə)nt] 1. *n* indamay rozi bo'ladigan kishi; 2. *a* indamay rozi bo'ladigan; qarshi chiqmaydigan

acquirable [əˈkwɪr(ə)rəb(ə)l] *a* erishib (egallab, qo'lga kiritib) bo'ladigan

acquire [əˈkwɪə] *v* 1) olmoq, ega (molik) bo'lmoq, erishmoq, egallamoq, qo'lga kiritmoq; orttirmoq; **to** ~ **friends** do'stlar (oshna-og'aynilar) orttirmoq; **to** ~ **distinction** mashhurlikka erishmoq; **to** ~ **a patent** patent (*ixtirochiga o'z ixtirosi uchun olgan huquqni tasdiqlovchi hujjat; savdo-sotiq yoki hunar bilan shug'ullanish uchun beriladigan hujjat*) olmoq; **to** ~ **a right** qandaydir huquqqa ega bo'lmoq; qandaydir huquqni qo'lga kiritmoq; **to** ~ **a skill** malaka hosil qilmoq; **to** ~ **shares** aksiyalarni sotib olmoq; **to** ~ **wealth** boylik orttirmoq; 2) sotib olmoq, xarid qilmoq

acquired [əˈkwɪəd] *a* o'z mehnati bilan topilgan, peshana teri bilan (ter to'kib) orttirilgan, erishilgan; nasliy emas; ~ **agammaglobulinemia** naslda bo'lmagan agammaglobulinemiya; ~ **anaphylaxis** naslda bo'lmagan (ya'ni keyin yuqtirilgan, orttirilgan) anafilaksiya; ~ **deafness** naslda bo'lmagan karlik (qulog'i og'irlik, garanglik); **an** ~ **disease** naslda bo'lmagan (ya'ni keyin yuqtirilgan, orttirilgan) kasallik; ~ **heart disease** naslda bo'lmagan (ya'ni keyin yuqtirilgan, orttirilgan) yurak kasalligi; ~ **hernia** naslda bo'lmagan dabba (churra tushish); ~ **Immune Deficiency Syndrome** (~ **immunodeficiency syndrome**) (AIDS) Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS); ~ **property** o'z mehnati bilan topilgan mulk, o'z mehnati bilan orttirilgan mol-dunyo; ~ **reflex** naslda bo'lmagan refleksi; **an** ~ **right** olingan (ega bo'lgan) huquq; **an** ~ **surplus** qo'lga kiritilgan qo'shimcha mablag'; **an** ~ **target** erishilgan maqsad

acquirement [əˈkwɪəmənt] *n* (*bilimni*) olish, egallash

acquisition [ˌækwiˈzɪʃ(ə)n] *n* 1) olish, erishish, egallash, qo'lga kiritish, o'zlashtirish; **the** ~ **of land** yerni o'zlashtirish; 2) o'rganib (bilib) olish, egallash, o'zlashtirish; **language** ~ tilni o'rganib olish; **the** ~ **of**

knowledge bilimni egallash (o'zlashtirish); **an ~ agent** sug'urtaning yangi shartnomalarini tuzuvchi agent; **~ control** xaridlarni tartibga solish; **an ~ date** olish sanasi; **an ~ interval** ro'yxatga olish vaqti; **an ~ method** o'zlashtirish metodi; **an ~ mode** ma'lumotlarni yig'ish tartibi (tartiboti); **~ negotiations** xarid qilish haqidagi muzokaralar; **the ~ of components** detallarni yig'ish; **the ~ of expert knowledge** maxsus bilimlarni egallash (o'zlashtirish); **the ~ of goods** mollar (tovarlar)ni sotib olish; **the ~ of income** daromad olish; **the ~ of license** ruxsatnoma (litsenziya) olish; **the ~ of nationality** fuqarolik olish, fuqarolikni qabul qilish; **the ~ of nationality by marriage** oila qurish natijasida fuqarolikni qabul qilish; **the ~ of patent** patent olish; **the ~ of patent information** patentga oid ma'lumot olish; **the ~ of property** mulkka egalik qilish; **the ~ of right** huquqni qo'lga kiritish, huquqqa egalik qilish; **the ~ of skill** malaka hosil qilish; **~ planning** dala ishlarini loyihalashtirish; **an ~ price** sotib olish narxi; **an ~ process** xarid qilish jarayoni; **an ~ system** ma'lumotlarni to'plash tizimi; **~ value** xarid narxi

acquisitive [ə'kwizitiv] *a* tamagirlarcha

acquit [ə'kwit] *v* 1) (of) oqlamoq; 2) *kit.* o'zini tutmoq; **to ~ oneself well (ill)** o'zini yaxshi (yomon) tutmoq; 3) (of, from) ozod qilmoq (*mujburiyat, qarz va sh. k. dan*)

acquittal [ə'kwitl] *n* 1) *yur.* oqlab hukm chiqarish; 2) bajarish, ustidan chiqish (*mujburiyat, qarz va shu kabilar*)

acquittance [ə'kwit(ə)ns] *n* 1) bo'shatish, xalos qilish (*vazifasidan, qarzdan*); 2) tilxat (*qarzni to'laganlik haqida*)

acre [eikə] *n* 1) akr (*Angliyada va Shimoliy Amerikada 0.4047 gektarga teng yer o'lchovi*); 2) *pl* yer, yer-suv; **~ allocation** yer maydonini taqsimlash (bo'lib berish); **~ shot** yer solig'i; **God's Acre** qabriston, go'riston

acreage [eik(ə)rɪdʒ] *n* akrlarda o'lchangan yer maydoni

acid [ækrɪd] *a* o'tkir, achchiq (*ta'm va b.*)

acridity [ə'krɪdɪtɪ] *n* 1) o'tkirlik, keskinlik (*tuom, ichimlik*); 2) dag'al, qo'pol (*xatti-harakat*)

acrimonious [ækri'məʊniəs] *a* badjahl, jahli yomon, jahldor, serzarda (*xulq-atvorga oid*); zahar (*uili yomon, gap bilan uzib oladigan*); yovuz

acrimony [ækri'məni] *n* badjahllik, serzardalik, zaharlik, achchiqlik (*xulq-atvorga oid*)

acrobat [ˈækroʊbæt] *n* akrobat (*murakkab mashqlarni bajaruvchi sportchi yoki sirk artisti*)

acrobatic [ækroʊˈbætɪk] *a* akrobatikaga oid

acrobatics [ækroʊˈbætɪks] *n* 1) akrobatika; 2) *av.* figurali uchishlar

acronym [ˈækronɪm] *n* akronim (*so'zlarining bosh harfini olib yozilgan qisqartma, mas.: AQSH - Amerika Qo'shma Shtatlari*)

acropolis [əˈkrɒpəlɪs] *n* (*pl -ses [-sɪz], leis*) me mor. akropol (*Qadimgi Yunon shaharlarining, odatda, tepalikda joylashgan va mustahkamlangan markaz qismi; qal'a, qasr*)

across [ə'krɒs] *l. adv* 1) a) ko'ndalang, ko'ndalangiga, eniga; **a line drawn ~** ko'ndalangiga (eniga) chizilgan chiziq; b) yotig'iga, gorizontal chiziq bo'ylab (*krossvordda*); 2) u tomonga; u tomonda; ro'parada, qarshida, qarshi tomonda, ro'parama-ro'para; **to put ~** o'tkazib qo'ymoq, olib o'tmoq (*transport vositasida*); 3) biri ustiga ikkinchisini ko'ndalang qo'yib, chalishtirib, kesishtirib; **with arms ~** qo'l qovushtirib; 4) *tex.* parallel holda (ravishda), parallel (yondash) qilib, yonma-yon (*ulangan*); 2. *prep.* orqali, orasidan, ichidan; -dan; narigi tomoni (tarafi, cheti, chekkasi, yoni, yoqasi)da; **~ the river** daryoning narigi tomonida; **to run ~ the street** ko'chani chopib kesib o'tmoq; **to come (run) ~ to** -sattan duch kelib (uchratib) qolmoq; **to put it ~ smb.** 1) kim bitandir hisoblashmoq (hisoblashib orani ochiq qilmoq); 2) kimdandir o'ch (qasos, qasd) olmoq

acrylic [ə'krɪlɪk] *a* akrilga oid, akril...; **~ acid** akril kislota; **~ aldehyde** akrolein (*o'tkir hidli suyuqlik*); **~ colour** akril bo'yoq; **~ fibre** akril tola; **~ plastic** plastmassa; **~ resin** akril plastmassa; akril yelim; **~ rubber** akril kauchugi

act [ækt] *l. n* 1) ish, xatti-harakat, faoliyat, muomala; **an ~ book** *shohl.* sud protokoli; **an ~ of kindness** xayrli ish; **an ~ of faith** katta bardosh va kuch talab qiladigan og'ir ish; 2) *tij.* tabiiy ofat (*kemada yuk tashish shartnomasi va sug'urta qilinganlik to'g'risidagi hujjatlarda ishlatiladi*); **a heroic** ~ qahramonona ish, mardonavor harakat, qahramonlik; **a criminal (illegal)** ~ jinoyi xatti-harakat (kirdikor); **an impulsive (rash)** ~ o'ylamasdan qilingan xatti-harakat; **an ~ of bravery** qahramonona ish, mardona xatti-harakat; **a foolish** ~ ahmoqona ish (xatti-harakat), ahmoqlik, bema'nilik; **a kind** ~ yaxshi (xayrli, ezgu) ish;

a statesmanlike ~ davlat arbobiga munosib xatti-harakat; **a thoughtful** ~ puxta o'ylab (yaqsbi o'ylab, chuqur mulohaza bilan) qilingan ish (xatti-harakat); **do the ... ~ amer. so'z.** ish (harakat) qilmoq, ish ko'rmoq, ish tutmoq (*harakatning xarakterini act so'zidan oldin kelgan sifat orqali aniqlanadi*); **the Dutch** ~ amer. jarg. o'zini o'zi o'ldirish, o'z joniga qasd qilish; 2) harakat, jarayon; 3) qaror; **the ~ of Parliament** parlament qarori; 4) sahnadagi harakat (opera, drama va b.); 5) dissertatsiya (*universitetlarda*); ~ **liability insurance** avtomobil halokatidan sug'urta qilish; **the ~ of adjournal** 1) *short.* adliya sudning protokolga kiritilgan qarori; 2) jinoyat ishi bo'yicha protokolga kiritilgan hukm; **an ~ of aggression** bosqinchilik harakati; **the ~ of bankruptcy** bankrotlik (sinish) haqida (gi) qonun; **an ~ of civil status** fuqarolik holatlari akti; **the ~ of condonation** javobgarlikdan ozod qilish akti; ~ **of Congress** kongress qonuni; **an ~ of crime** jinoyat xatti-harakati; **an ~ of defence** mudofaa harakati; **an ~ of faith** e'tiqodini sinab ko'rish; **an ~ of force** (jismaniy) kuch ishlatish; ~ **of God** yengib bo'lmaydigan kuch; **an ~ of grace** umumiy afv; kechirish, gunohidan o'tish; **an ~ of law** qonun chiqarish ishi (akti); ~ **of legislature** qonun chiqarish ishi (akti), qonun; **the ~ of maternity** onalik haq-huquqlarini himoya qiluvchi qonun; **an ~ of mutiny** isyonkorona harakat; **an ~ of oblivion** kechirish, gunohidan o'tish; **an ~ of omission** harakatdan to'xtash, harakatsizlik; **an ~ of outrage** kuch ishlatish; **an ~ of piracy** dengiz qaroqchiligi; **an ~ of protest** norozi bo'lib shikoyat arizasi berish (yozish); **an ~ of providence** yengib bo'lmaydigan kuch; ~ **of state** davlat akti, hujjat; **an ~ of terrorism** terroristik akt; **an ~ of the law** yuridik akt; **an ~ of union** birlashish (birlashtirish) akti; **an ~ of use** foydalanish akti; **an ~ of violence** zo'rvonlik harakati; **an ~ of war** harbiy harakat; **an ~ of worship** ibodat qilish; 2. v 1) harakat qilmoq, ish ko'rmoq, ish tutmoq; o'zini biror tarzda tutmoq; **to ~ a lie** gap bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan aldamoq; **to ~ a part rol** o'ynamoq, o'zini biror ko'ryga (holga) solmoq, mug'ambirlik qilmoq; **to ~ as 1)** ...sifatida ishlamoq; 2) kimningdir vazifasini bajaranoq, vaqtincha kimningdir o'rniga ishlamoq; **to ~ as mediator** dalklik vazifasini bajaranoq; **to ~ as principal** o'zining nomidan harakat qilmoq (*bitim tuzishda*); **to ~ by deputy** o'rinbosar vosita-

sida (orqali, yordamida) harakat qilmoq; **to ~ call teatr.** 1) tomosha boshlanganligi haqida aktyorlarga beriladigan xabar (imo, ishora, signal); 2) tomoshabinlarni tomosha zaliga chaqirish uchun chalinadigan qo'ng'iroq; **to ~ effectively** samarali harakat qilmoq; **to ~ faithfully** aniq harakat qilmoq; **to ~ for 1)** boshqa shaxsning vazifasini bajaranoq; 2) kimningdir vakili bo'lib qatnashmoq; **to ~ freely** erkin harakat qilmoq; **to ~ in concert** birgalikda (*birga, hamjihatlik bilan, birgalashib*) harakat qilmoq (ish ko'rmoq); **to ~ in good faith** vijdonan (*halol*) ish tutmoq; **to ~ kindly** ohista ta'sir qilmoq (*dori haqida*); **to ~ on 1)** kimgadir maslahat berish orqali uning axloqini tuzatmoq; 2) (*kasallik, tana qismlari va b. ga*) ta'sir etmoq, ko'rsatmoq; **to ~ on behalf of another** boshqa shaxs nomidan harakat qilmoq (ishlamoq); **to ~ on one's authority** mustaqil (*ravishda*) harakat qilmoq; **to ~ one's age** o'z yoshiga qarab ish tutmoq; **to ~ out** o'zining his-tuyg'usini harakat bilan ifoda etmoq; g'ayriixtiyoriy harakat qilmoq; **to ~ out of spite** qasdma-qasdga, qasddan harakat (ish) qilmoq; **to ~ reciprocally** birgalikda (*birgalashib*) harakat qilmoq; **to ~ the ape** ko'r-korona taqlid qilmoq; biror kimsa yoki narsaga muxaramuz taqlid qilmoq; maynabozchilik qilmoq; **to ~ the ass** ahmoqlik (*tentaklik, maynabozchilik, jinlilik*) qilmoq; **to ~ the fool** ahmoqlik (*ahmoqchilik, maynabozchilik*) qilmoq; **to ~ the maggot** *irl.* ahmoqlik (*ahmoqchilik, maynabozchilik*) qilmoq; **to ~ the part rol** o'ynamoq (*ijro etmoq*); **to ~ unlawfully** g'ayriqonuniy ish (xatti-harakat) qilmoq; **to ~ up yomon** ishlamoq (*mashina haqida*); o'zini yomon tutmoq; **to ~ up to one's opinions** ishonch bilan harakat qilmoq; **to ~ with judgment** ehtiyoqlik bilan ish tutmoq; **to ~ with the authority of law** qonun asosida ish tutmoq; **to ~ irresponsibly** mas'uliyatsizlik bilan (*javobgarlikni his qilmay, beparvolarcha*) harakat qilmoq; **to ~ impulsively** g'ayriixtiyoriy harakat qilmoq; **to ~ immediately** kechiktirmasdan (*kechikmay*) harakat qilmoq; **to ~ generously** oliyjanoblik bilan (*himmat kamarini bog'lab*) harakat qilmoq; **to ~ up to a promise** so'zining (*va'dasining*) ustidan chiqmoq, so'zida (*va'dasida*) turmoq, va'daga vafu qilmoq; 2) ishlamoq, tuzuk (*butun, ishga yaroqli*) bo'lmoq; **to refuse to ~** buzilib qolmoq; 3) ta'sir ko'rsatmoq; **to ~ on smb.'s nerves** kimningdir

asabiga ta'sir ko'rsatmoq (teginmoq); 4) *teatr* o'ynamoq, rol ijro etmoq; **I love to** ~ men teatrdagi rol ijro etishni yaxshi ko'raman; **to** ~ **the leading part** bosh rolni ijro etmoq; **to get into the** ~ 1) nimadadir faoliyat ko'rsatmoq; 2) *amer.* foydali ishda qatnashmoq; **to** ~ **wisely** o'zini yaxshi tutmoq

actable ['æktəb(ə)] *a* 1) sahnaga mos, sahnabop (*sahna asari haqida*); 2) namoyish etishga (ijro etishga) yaroqli

acting ['æktɪŋ] *l. a* 1) vazifasini bajaruvchi (vaqtincha); **an** ~ **manager (director)** boshqaruvchi (direktor) vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi; **an** ~ **mechanism** boshqaruvchi mexanizm; **an** ~ **officer** mansabdor shaxsning vazifasini bajaruvchi; **an** ~ **president** prezident vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi; ~ **in concert** kelishib ish-harakatlar qilish; **an** ~ **judge (lieutenant, sub-lieutenant)** sudya (leytenant, kichik leytenant) vazifasini bajaruvchi (ijro etuvchi); 2) ishtirokchi, qatnashuvchi, harakatdagi; **an** ~ **army** harakatdagi qo'shin (armiya); **an** ~ **system** amaldagi tizim; 2. *n* *teatr.* (rolni) ijro etish

actinia [æk 'tɪniə] *n* (*actiniae*) *zool.* aktiniya (*dengiz hayvonining bir turi*)

actinic [æk 'tɪnɪk] *a* *kim.* aktiniyaga oid; aktinik, aktiniya...; ~ **dermatitis** nur dermatiti (*radioaktiv nur ta'sirida terining yallig'lanishi*); ~ **glass** issiqlikni o'ziga tortib oladigan (*issiqlikni o'tkazmaydigan*) oyna; ~ **injury** radiatsiya (nurlanish)dan zararlanish; ~ **keratosis** qarigandagi keratoz (*terining ba'zi kasalliklarida muguz qavatining qalindlashi*); ~ **light** aktinik yorug'lik; ~ **light rays** aktinik nurlar; ~ **radiation** aktinik nurlanish; ~ **rays** aktinik nurlar

actinism ['æktɪnɪz(ə)m] *n* *kim.* aktinizm

- aetiology** [iːtɪˈɒlədʒɪ] *n* *tib.* etiologiya (*kasallik paydo bo'lish sabablari haqidagi bilim*)
- afar** [əˈfɑː] *adv* uzoq; - **from** uzoqdan
- affability** [æfəˈbɪlətɪ] *n* xushmuomalalik
- affable** [æfəb(ə)l] *a* xushmuomala

- ertadan keyin; **long** ~ ko'p vaqt o'tgandan keyin; **not long** ~ birozdan so'ng; **to name** ~ **somebody** kimningdir nomiga qo'yimoq, kimningdir nomi bilan atamoq; ~ **classes** darsdan so'ng
- afterbirth** [ˈɑːftəbɜːθ] *n* anat. yo'ldosh
- afterburning** [ˈɑːftəbɜːnɪŋ] *n* tex. yonib tamom bo'lgan yoqilg'i
- after-care** [ˈɑːftəkeə] *n* sog'ayayotgan kasalni parvarish qilish
- aftercrop** [ˈɑːftəkɹɒp] *n* q.x. ikkinchi hosil; ikkinchi o'rim
- afterdamp** [ˈɑːftədəmp] *n* zaharli gaz aralashmasi
- after-dinner** [ˈɑːftəˌdɪnə] *a* tushlikdan keyingi
- after-effect** [ˈɑːft(ə)riˌfekt] *n* natija, oqibat, yakun, samara
- after-game** [ˈɑːftəgeɪm] *n* qaytadan yutib olish uchun urinib ko'rish
- afterglow** [ˈɑːftəgləʊ] *n* kechki shafaq
- after-grass** [ˈɑːftəgrɑːs] *n* yangi o't (maysa)
- afterimage** [ˈɑːftəˌɪmɪdʒ] *n* telv. yo'qolmaydigan (qoldiq) tasvir
- after-life** [ˈɑːftələɪf] *n* narigi dunyodagi hayot
- afterlight** [ˈɑːftələɪt] *n* teatr. orqadagi yorug'lik
- aftermath** [ˈɑːftəmæθ] *n* oqibat, talafot, falokat
- aftermost** [ˈɑːftəməʊst] *a* deng. kema quyruq'iga yaqinroq joydagi
- afternoon** [ˈɑːftəˌnuːn] *n* kunduzi, tushdan keyin; **the ~ of life** kit. umrning zavoli, umrning oxiri, yosh qaytganda, qariganda, qarigan chog'ida; **good ~!** so'zl. 1. (kunduzgi) salom, xayrli kun! 2. xayr, ko'rish-guncha omon bo'ling! **in the ~** kunduzi, kunduz kuni
- afterpiece** [ˈɑːftəpiːs] *n* tomoshaning oxirida ko'rsatiladigan kichik sahna asari yoki konsertning oxirida beriladigan qo'shimcha konsert dasturi
- afters** [ˈɑːftəz] *n* pl ikkinchi va uchinchi taom
- aftershave** [ˈɑːftəʃeɪv] *n* soqol olingandan so'ng surtiladigan suyuqlik
- aftertaste** [ˈɑːftəteɪst] *n* ovqatdan keyin og'izda qoladigan ta'm
- afterthought** [ˈɑːftəθɔːt] *n* vaqt o'tgandan so'ng keladigan g'oya (fikir)
- afterwards** [ˈɑːftəwədz] *adv* so'ngra, keyin
- again** [əˈgeɪn] *adv* qaytadan, yana; ~ **and** ~ yana va yana, qayta-qayta; doimo, hamisha; uzluksiz, tinmasdan, dam-badam
- against** [əˈgeɪnst] *prep.* qarshi, qarama-qarshi; **to be up ~ smth.** qiyinchiliklarni qarshi olmoq; **to learn ~ smth.** nimagadir tayanib turmoq; **to strike one's foot ~ smth.** oyog'ini nimagadir urib olmoq
- agamic** [eɪˈgæmɪk] *a* biol. erkak yoki urg'ochilik afomati yo'q
- agape** [əˈgeɪp] *a* (hayratdan) angrayib
- agaric** [ˈæɡərɪk] *n* bot. qalpog'ining osti burmati (plastinkasimon) qo'ziqorin
- agate** [ˈæɡət] *n* min. aqiq (kvarsning bir turi)
- agave** [əˈgeɪvɪ] *n* bot. agava (katta-katta bargli tropik o'simlik)
- agaze** [əˈgeɪz] *a* predic. hayratda qolgan, mahliyo bo'lgan
- age** [eɪdʒ] 1. *n* 1) yosh; **to act (yoki to be) one's** ~ o'zini o'z yoshiga munosib bo'lgan tarzda tutmoq, o'zini juda yaxshi tutmoq; bolalik qilishni bas qilmoq, bachkanalik qilishni bas qilmoq; **the ~ of consent** turmushga chiqish mumkin bo'lgan yosh, balog'at yoshi (qizlarda); **the Augustan** ~ adabiyot va san'atning ravnaq topish (rivojlanish) davri; **at the ~ of ...** yoshda; **at an early ~** yoshligidan, yoshlikdan; **the awkward** ~ balog'atga o'tish davri; **to bear (yoki to carry) one's** ~ **well** borgan (yetgan) yoshiga nisbatan (qaraganda) yoshroq ko'rinmoq; **to be of ~** voyaga (balog'atga) yetmoq; **to be under ~** voyaga (balog'atga) yetmaslik; **to come of ~** voyaga (balog'atga) yetmoq; **the full ~** yoshiga (voyaga) yetish, balog'at (Angliyada 21 yosh); **golden** ~ (shun. **Golden Age**) 1. oltin asr (hamma narsa, fan, madaniyat va b.); ravnaq topgan asr, gullab-yashnash, (ravnaq topish, yuksalish, rivojlanish, taraqqiy etish, kamol topish) davri (madaniyat, san'at va b.); 2. hayotning baxtiyor onlari, hayotdagi baxtiyor onlar; **a green old ~** baxtli keksalik (davri), tetik keksalik (davri); **lawful** ~ yoshiga (voyaga) yetish, balog'at (Angliyada 21 yosh); **to look one's** ~ o'zining yoshiga nisbatan katta ham, kichik ham ko'rinmaslik; o'zining yoshidagi ko'rinishga ega bo'lmoq; **tender** ~ murg'ak yosh; 2) asr, davr; **stone** ~ tosh davri; **for (amer. in) ~s** so'zl. juda uzoq vaqt; qachonligini eslay olmayman
- aged** [eɪdʒ(t)d] *a* keksaygan, qarigan, yoshi qaytgan
- ageing** [ˈeɪdʒɪŋ] *n* 1) qarish, keksayish; 2) yetilish
- ageless** [ˈeɪdʒləs] *a* eskirmaydigan, abadiy; bir umr yashaydigan, umrbod qoladigan
- agelong** [ˈeɪdʒlɒŋ] *a* azaliy, abadiy
- agency** [ˈeɪdʒ(ə)nsɪ] *n* 1) harakat; 2) agentlik; **by (yoki through) the ~ of ...** ... yordami (vositasi) bilan, ... yordamida, ... orqali

agenda [əˈtʃɛndə] *n* kun tartibi, ko'riladigan masala; **to be on the ~** juda muhim (eng zarur) bo'lmoq, kun tartibida turmoq; **to place smth. on the ~** nimanidir kun tartibiga qo'yimoq, nimanidir birinchi galdagi vazifa deb hisoblamoq
agent [ˈeɪdʒ(ə)nt] *1. n* agent; **an advance ~** amer. shartnoma (bitim) tuzish uchun yuboriladigan vakil, agent (*mas., teatr guruhining gastrol safarlarida*); **a parliamentary ~** parlament a'zolarini u yoki bu qonun loyihasini qo'llashga undaydigan kishi; **2. a** harakat qiluvchi
agential [əˈdʒenʃ(ə)l] *a* agent yoki agentlikka oid
age-old [ˈeɪdʒ,əʊld] *a* qadimdan qolib kelayotgan, azaliy
agglomerate [əˈɡlɒməreɪt] *1. n* 1) yig'ish, to'plash, jamg'arish; 2) uyib (qalashtirib) tashlash; 3) aglomerat (*1. geol. har xil tog' jinslari va minerallarning bir-biriga yopishuvidan hosil bo'lgan g'ovak to'plami*; 2. *tex. ruda kukuni yoki parchalarini qorishtirib hosil qilingan yirik bo'laklar*); **2. v** yig'moq, to'plamoq
agglomeration [əˈɡlɒmə'reɪʃ(ə)n] *n* to'plash, jamlash, yig'ish
agglutinate [əˈɡlu:tɪneɪt] *1. v* yelimlab (sizrachlab) yopishtirmoq; **2. a** yelimlab yopishtirilgan
agglutination [əˈɡlu:tɪ'neɪʃ(ə)n] *n* yopishtirish
agglutinative [əˈɡlu:tɪnətɪv] *a* yopishadigan; ~ languages agglutinativ tillar
aggrandize [əˈɡrændaɪz] *v* kattalashtirmoq
aggrandizement [əˈɡrændɪzmənt] *n* ko'paytirish
aggravate [ˈægrəveɪt] *v* yomonlashtirmoq, yomon holatga keltirmoq
aggravating [ˈægrəveɪtɪŋ] *a* yomonlashtiradigan, yomon holatga tushirib qo'yadigan
aggravation [ˈægrə'veɪʃ(ə)n] *n* yomonlashish
aggregate [ˈægrɪgeɪt] *1. n* *tex.* agregat (*masinalar to'plami*); **2. a** bir joyga yig'ilgan; **3. v** bir joyga to'plamoq
aggression [əˈɡreʃ(ə)n] *n* hujum, tajovuz
aggressive [əˈɡresɪv] *a* tajovuzkor; hamla qiluvchi
aggressiveness [əˈɡresɪvnəs] *n* tajovuzkorlik, hujumkorlik
aggressor [əˈɡresə] *n* bosqinchi, tajovuzkor
aggrieve [əˈɡri:v] *v* ranjitmoq, xafa qilmoq
aggrieved [əˈɡri:vd] *a* achchiqlangan, xafa
aghost [əˈɡɑ:st] *a* qo'rquvdan esankirab qolgan
agile [ˈædʒaɪl] *a* epchil, uddaburon, chaqqon

agility [əˈdʒɪlɪti] *n* chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik
agin [əˈɡɪn] *prep.* qarshi, teskari
aging [ˈeɪdʒɪŋ] *n* 1) qarish, keksayish; 2) yetilish
agiotage [ˈædʒɪətɪdʒ] *n* ajiotaj; sun'iy ko'tarilgan shov-shuv; birja o'yini, chayqovchilik, olibsotarlik
agitate [ˈædʒɪteɪt] *1. v* tashviqot yurgizmoq; **2. v** hayajonlanmoq
agitated [ˈædʒɪteɪtɪd] *a* hayajonlangan
agitation [ˈædʒɪ'teɪʃ(ə)n] *1. n* tashviqot; **2. n** hayajon
agitator [ˈædʒɪtətə] *n* 1) tashviqotchi; 2) *tex.* aralashtirgich (*chilcho'p*)
aglet [ˈæɡlɪt] *n* 1) shurning metallidan qilingan uchi; 2) *bot.* bargak (*osilib turgan meva guli*)
aglow [əˈɡləʊ] *a* qizib (cho'g' bo'lib) turgan
agnail [ˈæɡneɪl] *n* milk (*tirnoqning milki*)
agnate [ˈæɡneɪt] *1. n* er tomonidan qarindosh; **2. a** yaqin, qarddon (*qarindoshlar haqida*)
agnation [ˈæɡˈneɪʃ(ə)n] *n* ota tomonidan qarindoshlik
agnostic [ˈæɡˈnɒstɪk] *1. n* agnostitsizm tarafdori; **2. n** agnostikaga oid
agnosticism [ˈæɡˈnɒstɪsɪz(ə)m] *n* agnostitsizm (*falsafiy ta'limot*)
ago [əˈɡəʊ] *adv* muqaddam; **not long ~** yaqinda; **years ~** ancha yillar ilgari; **five days ~** besh kun ilgari (*oldin*)
agog [əˈɡɒɡ] *a* ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan; **to be (all) ~ (about, for, on, over, upon yoki with; smth. to be (all) ~ to do smth.)** nimadir qilishni juda ham istamoq, nimagadir chin yurakdan intilmoq (*harakat qilmoq*); mahfiyo qilmoq; sabrsizlik bilan kutmoq, kutaverib toqati toq bo'lmoq
a-going [əˈɡəʊɪŋ] *a* harakatda
agonic [əˈɡɒnɪk] *a* burchak chiqazmaydigan
agonistic [ˈæɡəʊˈnɪstɪk] *a* atletikaga va atletikachiga oid
agonize [ˈæɡənaɪz] *v* qiynalmoq, azob bermoq
agonized [ˈæɡənaɪzd] *a* azob beradigan, qiynaydigan, qiyn, og'ir, mashaqqatli
agonizing [ˈæɡənaɪzɪŋ] *a* mashaqqatli, qiyn, og'ir, murakkab
agony [ˈæɡəni] *n* eng kuchli og'riq; ~ **in red kon. hazil.** och-qizil (rangdagi) kastum; **to be in an ~ of despair (yoki of grief)** qattiq qayg'urmoq (*g'am yemoq, kuyimoq, achinmoq, hasrat chekmoq*); **to pile on (kam. up) the ~** kuchli ta'sir ko'rsatish uchun bo'rtirib ko'rsatmoq, noto'g'ri (*yomonligini oshirib*) ko'rsatmoq

- agoraphobia** [æg(ə)rə'fəubiə] *n tib.* keng (bo'sh) joydan qo'rqish
- agrarian** [ə'gre(ə)rɪən] *a* agrar (yer va undan foydalanish masalalariga oid)
- agree** [ə'gri:] *v* rozi bo'lmoq (to, with); kelishmoq; **to ~ to differ** bir-birlarining fikrlarini o'zgartirishga harakat qilib ko'rishdan voz kechmoq; o'z fikrlarida qolmoq (*bahslashuvchilar haqida*); **to ~ with smb.** kimningdir fikriga qo'shilmoq
- agreeable** [ə'gri:əb(ə)l] *a* ma'qul, maqbul, kelishib bo'ladigan
- agreeably** [ə'gri:əblɪ] *adv* yoqimli
- agreed** [ə'gri:d] *a* kelishilgan, rozi bo'lgan
- agreement** [ə'gri:mənt] *n* 1) (ikki tomonlama) rozilik (**about, on**); **~ of opinion** hamfikrlilik; 2) shartnoma, bitim (**about, on; between; with**); **to come to an ~** bitim tuzmoq; **an executive ~** amer. Senatning tasdig'ini talab qilmasdan prezident tomonidan xorijiy davlat bilan tuziladigan shartnoma (bitim); **a gentleman's ~** o'zaro jentelmenlarcha kelishuv; tantilik bilan tuzilgan o'zaro og'zaki bitim; **a stand-still ~** tij. talab qilib olinmay yotgan qarzlar haqidagi kelishuv; 3) *gram.* moslashuv (*in*)
- agricultural** [ægrɪ'kʌltʃ(ə)rəl] *a* qishloq xo'jaligiga oid
- agriculture** [ægrɪ'kʌltʃə] *n* qishloq xo'jaligi
- agriculturist** [ægrɪ'kʌltʃ(ə)rɪst] *a* 1) agronom; 2) yer mutaxassisi
- agrimony** [ˈægrɪməni] *n bot.* chakamug', alomatchoy
- agrimotor** [ˈægrɪməʊtə] *n q.x.* traktor
- agrobiological** [ˈægrə(ə)baɪəʊ'lɒdʒɪk(ə)] *a* agrobiologiyaga oid
- agrobiologist** [ˈægrəʊbaɪ'ɒlədʒɪst] *n* agrobiolog
- agrobiology** [ˈægrə(ə)baɪ'ɒlədʒɪ] *n* agrobiologiya (*o'simlikshunoslik va chorvachilikku bevosita aloqador umumiy biologik qonuniyatlarni o'rganuvchi fan*)
- agronomic(al)** [ˈægrəʊ'nɒmɪk(əl)] *a* agronomik
- agronomics** [ˈægrəʊ'nɒmɪks] *n* agronomiya (*qishloq xo'jaligi va ziroatchilik haqidagi fan*)
- agronomist** [ə'grɒnəmɪst] *n* agronom
- agronomy** [ə'grɒnəmi] *n* qishloq xo'jaligi, ziroatchilik
- agrostology** [ˈægrə'stɒlədʒɪ] *n bot.* o'tlarni o'rgatadigan ilm (fan)
- aground** [ə'graʊnd] *a deng.* og'ir ahvolda
- ague** [ˈeɪɡju:] *n* bezgak; isitma; **~s come on horseback but go away on foot** maq. (bezgakning kelishi ot ustida, ketishi yayov), og'riq joyini topsa, olti oy qishlaydi
- ague-cake** [ˈeɪɡju:kɛk] *n tib.* uzoq davom etgan isitma natijasida jigarning kattalashishi
- ague-spleen** [ˈeɪɡju:spli:n] *n tib.* bezgak natijasida kattalashgan jigar
- aguish** [ˈeɪɡju:ʃ] *a* bezgakka oid
- ah** [ɑ:] *int.* ah! eh!
- aha** [ɑ:'hɑ:] *int.* aha!
- ahead** [ə'hed] *a* oldinga, oldinda; **breakers** (*yoki rocks*) **~!** oldinda xavf (xatar)! ehtiyot bo'ling! saqlaning! **to get ~ (of)** o'zib o'tmoq **~ of time** muddatdan ilgari; **go ~** olg'a, davom eting, boshlang; **to be ~ of** oldinda bormoq, orqada qoldirmoq
- ahap** [ə'hɪ:p] *adv* g'aramda, to'dada
- ahem** [ə'hɛm, ə'hʊm] *int.* hm (*shubha, kinoya kabi ma'nolarni ifodalaydi*)
- ahorse** [ə'hɔ:s] *a* ot ustida; ot mingan
- ahoy** [ə'hɔɪ] *int. deng.* chaqiriq ovozi, chaqiriq; **ship ~!** ey kemadagilar! (*chaqiriq*)
- ahull** [ə'hʌl] *adv deng.* yelkanlari yig'ishtirilgan va kemaning yon tomoni shamolga qarab qo'yilgan holat
- aid** [eɪd] *1. n* yordam, ko'mak; **to ~ and abet** 1) *yur.* sherik bo'lmoq va yomon ishga undamoq; 2) yo'l qo'ymoq, yo'l qo'yib qo'ymoq, erk bermoq; o'ta erkalarib yubormoq; rag'batlantirmoq, qiziqtirmoq, taqdirlamoq, qo'llab-quvvatlamoq, yordam bermoq (qilmoq, ko'rsatmoq), imkon (imkoniyat) tug'dirmoq, osonlashtirmoq; **2. v** yordam bermoq
- aide** [eɪd] *n* yordamchi, maslahatchi
- aide-de-camp** [ˌeɪdə'kæmp, ˌeɪdə'kɒŋ] *n fr. (shaxsiy) adyutant*
- aide-memoire** [ˌeɪdmə'mwɑ:] *n fr.* xotira yozuvi
- aigrette** [ˈeɪɡret] *n* 1) jig'a, ukpar; 2) oq qo'ton; 3) *tex.* nur tarami
- aiguille** [eɪ'ɡwi:l] *n fr.* tog' cho'qqisi
- ail** [eɪl] *v* kasal bo'lmoq, betob bo'lmoq
- aileron** [ˈeɪləron] *n* eleron (*samolet qanotlarining burilishiga xizmat qiladigan qismi*)
- ailing** [ˈeɪlɪŋ] betob, tobi qo'chgan, kasal
- ailment** [ˈeɪlmənt] *n* kasallik, betoblik
- aim** [eɪm] *1. n* maqsad, niyat; nishon; **to take ~** nishonga olmoq; **to ~ at ... ni** mo'ljalga (nishonga) olmoq; **2. v (at)** nishonga olmoq
- aimless** [ˈeɪmləs] *a* maqsadsiz, bemaqsad
- ain't** [eɪnt] *qisq.* 1) *dial.* = am not, is not, have not; 2) *so'zl.* = are not
- air** [eə] *1. n* 1) havo; havo qatlami; **~s and graces** noz-karashma, qiliqdorlik, qiyshang'ilik; **to assume (to give oneself yoki to put on)** **~s** o'zini katta tutmoq (olmoq),

gerdaymoq, kekaymoq, kibrlanmoq, kattakonlik (kattalik) qilmoq; **to be in the ~** bilib (tushunib, anglab) bo'lmaydigan ahvolda bo'lmoq (ahvolga tushmoq); = na u yoqlik, na bu yoqlik bo'lmay (arosatda) qolmoq; **to be (yoki to go) off the ~** a) radiolashirishni tugatmoq; b) (radio orqali) berishni (eshittirishni, olib eshittirishni) to'xtatmoq; **to be on the ~** a) ishlamoq, eshittirish olib bormoq (radiostansiya haqida); b) radioda (radio orqali) so'zlammoq; d) radio orqali eshittirmoq (bermoq, olib eshittirmoq); **to clear the ~** holatni (vaziyatni) yumshatmoq, (biror narsaga) aniqlik kiruymoq, nizo (janjal, mojaro)ni bartaraf qilmoq; **to come up for ~** avstral. so'zl. dam olmoq, nafasini rostdamoq, o'ziga kelib olmoq; **by ~** samolyot bilan; **to fish in the ~** (shun., **to plough the ~**) kam. befoyda ish bilan mashg'ul bo'lmoq; bekorga harakat qilmoq; **hot ~** so'zl. bekorchi gap, saf-sata; **to leave in the ~** a) (smb.) kimnidir taajjubga (hayratga) solmoq, kimningdir boshini qotirmoq (garang qilmoq), kimnidir o'yga (tashvishga) solmoq (solib qo'ymoq); b) (smth.) nimanidir hal etmasdan, tugatmasdan, bir bitimga kelmasdan qoldirmoq (qo'ymoq); **to make (yoki to turn) the ~ blue** so'kishmoq, urishmoq, olishmoq, xafalashmoq; so'kinmoq; so'kmoq, haqorat qilmoq, qarg'amoq; beodob (behayo) gaplar gapirmoq, og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoq; **in the open ~** ochiq havoda; **to put on the ~** radio orqali olib eshittirmoq, efiga uzaumoq; **to read the ~** kit. havoni larzaga solmoq (*baqir-chaqir bilan*); **to saw the ~** zarb bilan qo'l silkitmoq (siltamoq), (*qattiq*) zo'r berib imo-ishoralari qilmoq; **to take the ~** a) toza havoda sayr qilmoq, toza havodan nafas olmoq; b) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq, bildirmasdan (sekingina) qochmoq, ko'ch. quyon bo'lmoq, quyonning rasmini chizmoq; jo'nab (ketib) qolmoq, yo'q bo'lib qolmoq, g'oyib bo'lmoq, bildirmay qochib ketmoq; d) ar. havoga ko'tarilmoq, uchmoq; 2) muhit; **to tread (yoki to walk) on (yoki upon) ~** shodlannmoq, shod-xurram (shodmon) bo'lmoq, sevinmoq, quvonmoq, zavqlanmoq, xursand (shod) bo'lmoq; = terisiga sig'may ketmoq, shodlikdan dunyoni unutmog; **with an ~ of finality** shunday vajohat bilanki, go'yo hammasi tugagandek (hal etilgandek); = gap tugadi, gap tamom, boshqa gap yo'q; **a friendly ~** do'stona muhit; 2. a havoga oid; 3. v shamollatmoq

air-balloon ['eəbə.lu:n] n havo shari
air-barrage ['eə,bæərə:ʒ] n havoni to'sish (aerostatlar bilan)
air-base ['eəbeɪs] n aviatsiya bazasi
air-bed ['eəbed] n damlama matras
air-bladder ['eəblædə] n 1) suzgich pufak (*baliqda*); 2) shishacha, kichkina shisha
air-blast ['eəblɑ:st] n havo to'lqinining birdan kuchayishi
airborne ['eəbɔ:n] a havo yo'li orqali tashiladigan
air-brake ['eəbreɪk] n tex. pnevmatik (*sigilgan havo yordami bilan ishlaydigan*) tormoz
air-brick ['eəbrɪk] n xom g'isht
air-bridge ['eəbrɪdʒ] n havo (ko'prigi) yo'li
air-brush ['eəbrʌʃ] n bo'yoq purkagich
air-cell ['eəsel] n anat. o'pka pufakchalari
air-chamber ['eə,tʃeɪmbə] n tex. havo kamerasi
Air Chief Marshal ['eə'tʃi:f,mɑ:ʃ(ə)l] n aviatsiya bosh marshali
Air command ['eəkeɪmə:nd] n aviatsiya qo'mondoni (*harbiy havo kuchlarining oliy tashkiliy birlashmasi*)
air-condition ['eəkən,dɪʃ(ə)n] v havo haroratini bir xilda saqlamoq
air-conditioner ['eəkən,dɪʃ(ə)nə] v konditsioner, sovitgich
air-conditioning ['eəkən,dɪʃ(ə)nɪŋ] n havo haroratini bir xilda saqlash
air-cooled ['eəku:lɪd] a havo yo'li bilan sovitiladigan
air-cooling ['eəku:lɪŋ] n havo bilan sovitish
aircraft ['eəkra:ft] n samolyot
aircraft(s)man ['eəkra:ft(s)mən] n aviatsiya oddiy askari (*Angliyada*)
air-cushion ['eə,kʊʃ(ə)n] n damlama yostiq
airdrome ['eədrəʊm] n aerodrom
airdrop ['eədrɒp] n *harb.* parashutchi desantning samolyotdan tashlashi
Airedale ['eədeɪl] n erdelteryer (*it zoti*)
air-engine ['e(ə)r,ɛndʒɪn] n samolyot motori
air-exhauster ['e(ə)rɪŋ,zɔ:stə] n tex. tortuvchi ventilator
airfield ['eəfi:ld] n aerodrom
Air Force ['eəfɔ:s] n harbiy-havo kuchlari
air-frame ['eəfretm] n uchish apparati korpusi
air-freighter ['eə,freɪtə] n yuk samolyoti
air-gap ['eəgæp] n zazor (*mashina qismlari o'rtasidagi juda tor tirqish*)
air-gas ['eəgæs] n yonuvchi aralashma
air-gauge ['eəgeɪdʒ] n manometr
air-gun ['eəgʌn] n havo kuchi bilan ishlaydigan mitliq

- air-hammer** [ˈeə,hæmə] *n* pnevmatik bolg'a
- air-hardening** [ˈeə,hɑ:dniŋ] *n metal.* havoda chiniqtirish
- air-highway** [ˈeə,haɪweɪ] *n* havo yo'llari trassasi
- air-hole** [ˈeə,həʊl] *n* 1) havo (gaz) chiqib turadigan tuynuk; 2) daryoning erigan yoki muzlamay qolgan joyi; 3) av. havo o'pqoni
- air-hostess** [ˈeə,həʊstəs] *n* samolyotning stuardessasi
- airily** [ˈe(ə)rɪli] *adv* 1) yengil, oson; 2) nazokatli; 3) tuturiqsizlarcha, yengiltaklik bilan
- airing** [ˈe(ə)rɪŋ] *n* shamollatish va quritish; **to take smb. for an ~** amer. kimnidir o'ldirmoq, halok qilmoq
- air-jacket** [ˈeə,dʒækt] *a* damlanadigan qutqarish nimchasi
- airless** [ˈeələs] *a* 1) shamolsiz; 2) havosiz
- air-lift** [ˈeə,lɪft] *n* *harb.* havo yo'li orqali boshqa joyga ko'chirish
- airline, air-line** [ˈeəlaɪn] *n* havo yo'li; **by ~** to'g'riga qarab
- air liner** [ˈeə,laɪnə] *n* 1) muayyan bir yo'nalishda uchuvchi samolyot; 2) odam tashiydigan samolyot
- air-lock** [ˈeə,lɒk] *n* *tex.* havo probkasi
- air mail** [ˈeəmeɪl] *n* havo pochtasi
- airman** [ˈeəmən] *n* uchuvchi
- airmanship** [ˈeəmənʃɪp] *n* uchuvchilik mahorati
- air-map** [ˈeəmæp] *n* havo navigatsiyasining xaritasi
- air marshal** [ˈeəˈmɑːʃ(ə)] *n* aviatsiya marshali
- air mechanic** [ˈeəmɪ,kæntɪk] *n* bortmexanik (*uchish apparati mexanigi*)
- air-minded** [ˈeə,maɪndɪd] *a* aviatsiya masalalarining farqiga boradigan
- air-monger** [ˈeə,mɑŋgə] *n* xayolparast
- air-photography** [ˈeəfəˈtɒgrəfi] *n* samolyotdan suratga olish va shu usulda olingan surat
- airplane** [ˈeəpleɪn] *n* amer. samolyot
- air-pocket** [ˈeə,pɒkɪt] *n* *adv* havo o'pqoni
- airport** [ˈeəpɔːt] *n* aeroport
- air-powered** [ˈeə,pəʊəd] *a* *tex.* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*)
- air-raid** [ˈeəreɪd] *n* havo hujumi
- air-route** [ˈeəruːt] *n* havo trassasi
- air scout** [ˈeə,skaʊt] *n* *harb.* 1) havo razvedkachisi; 2) havoni kuzatuvchi
- airscrew** [ˈeəskruː] *n* havo parragi
- air shaft** [ˈeəʃɑːft] *n* *tex.* ventilatsiya shaxtasi
- airshed** [ˈeəʃed] *n* angar (*samolyot, vertolyot va sh. k. turadigan yoki ta'mirlanadigan maxsus bino*)
- airship** [ˈeə,ʃɪp] *n* havo kemasi
- air show** [ˈeə,ʃəʊ] *n* aviatsiya ko'rgazmasi
- airsick** [ˈeə,sɪk] *a* havo kasalligidan azob chekayotgan
- airsickness** [ˈeə,sɪknəs] *n* havo kasalligi
- air-space** [ˈeəspeɪs] *n* havodagi bo'shliq
- air speed** [ˈeəspiːd] *n* samolyotning uchish tezligi
- air spraying** [ˈeə,spreɪɪŋ] *n* havodan dori sepish
- air-stop** [ˈeəstɒp] *n* odam tashiydigan vertolyotning stansiyasi yoki qo'nish maydonchasi
- air strip** [ˈeə,striːp] *n* uchish-qo'nish maydoni
- air-tight** [ˈeətaɪt] *n* havo o'tkazmaydigan
- air-to-air** [ˈeətuːˈeə] *n* bir samolyotdan ikkinchisiga o'tish
- air-to-ground** [ˈeətuːˈgraʊnd] *a* *tex.* reaktiv (*orqaga (epish kuchidan foydalanadigan)*)
- air-unit** [ˈeəjuːnɪt] *n* aviatsiya bo'limi
- airway** [ˈeəweɪ] *n* havo yo'li
- airwoman** [ˈeə,wʊmən] *n* (*pl -women [-,wɪmɪn]*) uchuvchi ayol
- airworthiness** [ˈeə,wɜːðnəs] *n* samolyotning uchishga yaroqliligi
- airworthy** [ˈeə,wɜːðɪ] *a* uchishga yaroqli (*samolyot to'g'risida*)
- airy** [ˈe(ə)rɪ] *a* havoga oid
- aisle** [aɪl] *n* (*po'yezd va teatrdan*) o'rindiqlar orasidagi yo'lak; **to have (to lay yoki to send) smb. (rolling) in the ~s so'z.** a) tomoshabinlarni quvontirmoq, shodlik (quvonch) hislarini tug'dirmoq; b) zo'r muvaffaqiyat bilan hayratda qoldirmoq, ulkan muvaffaqiyat qozonmoq, katta yutuqqa erishmoq; d) kimnidir kuldirmoq, kulgisini qistatmoq; kimningdir vaqtini chog' qilmoq, ko'nglini ochmoq, xursand qilmoq
- ait** [eɪt] *n* orolcha (*asosan, daryoda*)
- aitchbone** [ˈeɪtʃbəʊn] *n* anat. dumg'aza suyagi
- ajar** [əˈdʒɑː] *a* yarim ochiq, zich yopilgan
- akimbo** [əˈkɪmbəʊ] *adv* ikki qo'lini beliga qo'yib
- akin** [əˈkɪn] *a* qarindoshlikka oid
- akinesia** [ˌækiˈniːsiə] *a* tib. akinezia (*qimirlash holatini yo'qotish*)
- alabaster** [ˈæləbəːstə] *n* ganch, alabastr
- alack** [əˈlæk] *int.* afsus! atang!
- alacrity** [əˈlækrɪti] *n* tayyor turish
- aland** [əˈlænd] *adv* qirg'oqda, quruqlikda
- alar** [ˈeɪlə] *a* 1) qanotli; 2) qanotga o'xshagan; qanotga taalluqli (tegishli) bo'lgan
- alarm** [əˈlɑːm] 1. *n* vahima; ~s (*yoki alarms*) and excursions *kit.* shovqin, shovqin-suron, g'ovur-g'uvur, shov-shuv,

yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon, tartib-sizlik, ortiqcha harakat, behuda (befoyda) urinish; **a false** ~ yolg'ondakam trevoga (xavfni bildiruvchi xabar); **to take (the)** ~ tashvishlanmoq, tashvishga tushmoq; bezovta bo'lmoq; qattiq qo'rqmoq, juda cho'chib ketmoq, o'takasi yorilguday bo'lmoq; hurkib ketmoq; sarosimaga (dahshatga) tushmoq; **2.** *v* qo'rqitmoq
alarm-clock [ə'la:mklɒk] *n* qo'ng'iroqli soat
alarmed [ə'la:md] *a* bezovta bo'lgan, hayajonlangan, hayajonga tushgan; bezovta, hayajonli, tashvishli, betinch
alarming [ə'la:mɪŋ] *a* cho'chitadigan, qo'r-qitadigan; hayajonli
alarmingly [ə'la:mɪŋli] *adv* tashvishlanib, xavotirlanib, qo'rujib, xavfsirab
alarmist [ə'la:mɪst] *n* vahimachi
alarm-post [ə'la:mpəʊst] *n* trevoga vaqtida qo'shin to'planadigan joy
alarum [ə'lærəm] *n* soatning jiringlashi
alas [ə'læs] *int.* afsus! attang!
alb [ælb] *n* cherk. stixar (*dyakolarning ibodat vaqtida kiyadigan uzun kimxob kiyimi*)
Albanian [æl'beɪniən] **1.** *n* 1) albaniyalik erkak yoki ayol; 2) alban tili; **2.** *a* Albaniyaga va albanlarga oid
albatross [ælbətros] *n* *zool.* albatros (*tumshug'i uzun, katta dengiz qushi*)
albert [ælbət] *n* erkaklar soatining zanjiri
albescent [æl'bes(ə)nt] *a* rangi oqaradigan
albinism [ælbɪnɪz(ə)m] *n* albinizm (teri yoki sochlarda utarga xos normal rang beruvchi pigmentning yetishmasligi)
albino [æ'bi:nəʊ] *n* albinos (*albinizm belgilari bo'lgan kishi, o'simlik yoki jonivor*)
Albion [ælbɪən] *n* *she'r.* Albion, Angliya;
perfidious ~ „makkor Albion“ (*Angliyaning laqabi*), Albion (*Buyuk Britaniyaning qadimgi nomi*)
albugo [æl'bjʊ:qəʊ] *n* *tib.* ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq
album [ælbəm] *n* albom
albumen [ælbjʊmɪn] *n* *biol.* oqsil, oqsil modda
albumin [ælbjʊmɪn] *n* *kim.* albumin (*suvda eriydigan moddasi bo'lmagan, oqsil modda*)
albuminoid [æl'bjʊ:mɪnɔɪd] *a* oqsilsimon, oqsilga o'xshagan
albuminous [æl'bjʊ:mɪnəs] *a* albumin yoki oqsil xususiyatiga ega bo'lgan
alburnum [æl'bɜ:nəm] *n* po'stloq osti qatlami (*daraxtning po'stloq ostidagi yanqi yog'och qismi*)
alchemic(al) [æl'kemɪk(əl)] *a* alkimyoviy (*alkimyo o'rta asrlarda: oddiy metallarni*

oltin yoki kamushga aylantiruvchi „hikmat toshi“ – iksir izlash bilan shug'ullangan xayoliy fanga oid)
alchemist [ˈælkəməst] *n* kimyogar
alchemy [ˈælkəmə] *n* alkimyo
alcohol [ˈælkəhɒl] *n* alkogol; spirt
alcoholic [ˈælkə'hɒlɪk] *a* 1) spirtga oid; 2) spirtli
alcoholism [ˈælkəhɒlɪz(ə)m] *n* alkogolizm (*ichkilik kasalligi*)
alcoholmeter [ˈælkəhɒ'mɪtə] *n* spirtomer
Alcoran [ˈælkə'ra:n] *n* Qur'on
alcove [ˈælkəʊv] *n* tokcha, taxmon
alder [ˈɔ:ldə] *n* *bot.* olxa (*daraxti va butasi*)
alderman [ˈɔ:ldəmən] *n* shahar boshqarmasining a'zosi; (**as**) **fat as an** ~ „oldermen“dek semiz (yo'g'on), semiz, yo'g'on, qorni katta
aldermanry [ˈɔ:ldəmənri] *n* shahar boshqarmasidagi hudud
ale [eɪl] *n* pivo; **Adam's** ~ *hazil.* suv; **to mend like sour** ~ *in summer esk. dial.* „yozdagi achchiq pivodek yaxshilanmoq“, demak, yana ham yomonlashmoq
aleak [ə'li:k] *a* *predic.* oqayotgan; **the vessel is** ~ kemaga suv kiryapti
aleatory [ˈeɪlətəri] *a* tasodifiy
alee [ə'li:] *a* shamol esayotgan tomonga
ale-house [ˈeɪlhaʊs] *n* pivoxona
alembic [ə'lembɪk] *n* *tex.* suv qaynatish yoki suyuqliklarni haydash uchun ishlatiladigan berk idish
alert [ə'leɪt] *n* 1) tashvish, vahima, xavotirlik; 2) xavfni bildiruvchi ishora (xabar); 3) *harb.* jangovar tayyorgarlik holati; **to be on the** ~ tayyorlanib (shaylanib) turmoq; **to keep on the** ~ tinchini buzmoq; **a red** ~ xatar (xavf) oldidagi jangovar shaylik
ale-wife [ˈeɪlwaɪf] *n* pivoxona sohibasi
alexandrite [ˈæɪlɪg'zɑ:ndraɪt] *n* *min.* aleksandrit (*qimmatbaho tosh*)
alfalfa [æl'fælfə] *n* *bot.* beda
alfresco [æl'frɛskəʊ] *a* ochiq havoda yuz beradigan
alga [ˈælgə] *n* dengiz suv o'tlari (o'simliklari)
algae [ˈældʒi:] *n* dengiz to'lqinlari
algebra [ˈældʒɪbrə] *n* algebra
algebraic [ˈældʒɪ'brenk] *a* algebraik; jabriy
Algerian [æl'dʒɪ(ə)rɪən] *a* Jazoirga va jazoirliklarga oid
algid [ˈældʒɪd] *a* sovuq, izg'irin
algorithm [ˈælgərɪz(ə)m] *n* *mat.* algoritm (*biror masalani yechish qoidalari yoki amallari majmuyi*)
alias [ˈeɪlɪəs] *adv* boshqacha (*nomlanadigan*)
alibi [ˈælibaɪ] *yur.* aybdor emasligiga dalil

alidād, alidade [ˈæltɪdæd, -deɪd] *n* *tex.* burchak o'ichagich

alien [ˈeɪliən] **1.** *n* chet ellik kishi; **2.** *a* begona, chet ellik

alienable [ˈeɪliənəb(ə)] *a* *yur.* begonalashtiriladigan (*mulk to'g'risida*)

alienate [ˈeɪliəneɪt] *v* begonalashtirmoq

alienation [ˌeɪliəˈneɪʃ(ə)n] *n* begonalashish

alienee [ˌeɪliəˈni:] *n* *yur.* mulk foydasiga musodara qilinayotgan shaxs

alien-enemy [ˈeɪliən,ɛnɪmi] *n* *yur.* dushman davlatning mamlakatda yashovchi fuqarosi

alien-friend [ˈeɪliən,frend] *yur.* do'st davlatning mamlakatda yashovchi fuqarosi

alienism [ˈeɪliənɪz(ə)m] *n* chet ellik kishining begona mamlakatdagi holati

alienist [ˈeɪliənɪst] *n* ruhiy kasallik shifokori

aliform [ˈeɪlɪfɔ:m] *a* qanotsimon

alight [əˈlaɪt] **1.** *v* 1) (*tramvay va b. dan*) tushmoq; **2.** *a* kuydirilgan

alighting [əˈlaɪtɪŋ] *n* kelib qo'nish

align [əˈlaɪn] *v* saf tortmoq, saflanmoq

aligning [əˈlaɪnɪŋ] **1.** *n* bir qator qilib joylashtirish; **2.** *v* bir qator qilib joylashtirmoq

alignment [əˈlaɪnmənt] *n* bir qator qilib joylashtirish

alike [əˈlaɪk] *a* o'xshash, ayni o'sha: **to be** ~ bir-biriga o'xshamoq

aliment [ˈælmənt] *n* taom, ovqat

alimentary [ˌæliˈment(ə)rɪ] *a* oziq-ovqatga oid

alimentation [ˌælmənˈteɪʃ(ə)n] *n* ovqatlantirish

alimony [ˈælməni] *n* aliment, nafaqa

aliped [ˈælipəd] *a* *zool.* panjaqanotli (*ko'r-shapalak va b.*)

aliquant [ˈælikwɒnt] *a* *mat.* qoldiqsiz bo'linadigan

alive [əˈlaɪv] *a* 1) jonli: **more dead than** ~ na o'lik, na tirik; **to be** ~ tirik bo'lmoq; **to remain** ~ tirik qolmoq, omon qolmoq; 2) tetik; ~ **and kicking** *hazil.* sog'-salomat, eson-omon

alizarin(e) [əˈlɪzərɪn] *n* *kim.* alizarin, ro'yan (*ba'zi o'simliklar ildizidan olinadigan yoki sun'iy yo'l bilan tayyorlanadigan bo'yoq modda*); ~ **colours** alizarin bo'yoqlar

alkalescence [ˌælkəˈles(ə)ns] *n* *kim.* (*kuch-siz*) ishqorlilik

alkalescent [ˌælkəˈlesnt] *n* *kim.* kam ishqorli

alkali [ˈælkəlaɪ] *a* *kim.* ishqor

alkalimetry [ˌælkəˈlɪmɪtrɪ] *n* *kim.* alkali-metriya

alkaline [ˈælkələɪn] *a* *kim.* 1) ishqorga oid, ishqorli, ishqor...; 2) ishqor hosil qiladigan;

3) ishqor bilan (ishqor vositasida) ishlaydigan; ~ **soil** ishqorli yer

alkaloid [ˈælkəloɪd] *n* *kim.* alkaloid

all [ɔ:l] *a* barcha; **after** ~ oxiri, axiyr; pirovardida, oqibatda; ~ **aboard!** chiqish tugadi (*kemaning jo'nashidan ogohlantirish*); ~ **along** *so'zl.* hamma vaqt, eng avvalidan; doimo; ~ **and sundry** bitta ham qolmasdan hamma, hamma qatorasiga, qatorasiga hamma, ketma-ket, birin-ketin; ~ **anyhow** *so'zl.* naridan-beri, chala-chulpa, pala-paritish; tartibsiz ravishda, to's-to'polonda; ~ **at once** a) to'satdan, birdan, kutilmaganda; b) bir vaqtda, bir vaqtning o'zida, baravar, birdan; ~ **but** a) oz bo'lmasa, sal bo'lmasa; b) -dan boshqa, -dan tashqari, -dan bo'lak; ~ **for nothing** hammasi befoyda (foydasiz, bekor, behuda); ~ **in** *so'zl.* a) juda charchagan, horg'in, so'lg'in, tinkasi qurigan, holdan toygan; b) jon deb (bajonidil, mamnuniyat bilan) qatnashadigan (*nimadudir*); d) hammasini o'z ichiga olganda, hammasini qo'shib hisoblaganda, hammasi bilan birga; ~ **in** ~ **1.** *n* *phz.* a) sevgili, sevikli; yaxshi ko'rgan (sevgan) mashg'uloti; b) hal qiluvchi omil, (*qandaydir ishda*) hamma narsa; **2.** *adv* *phz.* a) to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila; b) asosan, umuman, xullas, umuman aytganda (olganda); xullas kalam; ~ **of** *amer.* ... dan ko'p emas; ortig'i bilan ..., faqat, atigi, bor-yo'g'i; ~ **over** a) har yerda, hamma yoqda, har yoqda, har joyda, aylanib, atroflab; b) ma'lum tipga xos bo'lgan, o'ziga xos bo'lgan, aniq ko'rinib turadigan, boshqalardan ajralib turadigan; biror kimsa yoki narsa(ning o'zi)ga xos bo'lgan; kimningdir o'ziga xos; d)...ning xuddi o'zi, juda ham o'xshash (o'xshaydi), o'zginasi, quyib qo'yganday o'xshash; e) o'tmishda, orqada, o'tmishda (orqada) qoldi; f) 1) butunlay (uzil-kesil, batamom) hal bo'ldi; ish biti; 2) butunlay yo'q (barbod, tamom) bo'ldi, bitdi; ~ **round** (*amer. shun. ~ around*) a) har yerda, hamma yoqda, har yoqda, hamma (har) joyda, tevarak-atrofdan, har tomondan (yoqdan); b) hammasini qo'shib hisoblaganda, ... bilan birga, har taraflama, atroflicha; ~ **serene** *kam. so'zl.* xo'p, mayli, roziman, bo'pti, bo'ladi; binoyiday, yaxshigina, durustgina, durust, tuzuk; ko'ngildagidek; hamma narsa joyida; ~ **square** *kam.* 1) a) ora ochiq, orani ochiq qildik, ora ochiq bo'ldi, qarzdan qutuldik, qarzni uzdik; b) *ko'ch. so'zl.* o'ch (qasd, qasos) olindi, hisoblashib qo'yildi; 2) xo'p, bo'pti, yaxshi, yomon emas; ajoyib, juda

soz, ko'ngildagidek; hamma narsa joyida; ~ **the go** (*shun. ~ the rage*) *so'zl.* eng so'nggi antiqa moda, yoppasiga (hamma) baravariga qiziqadigan (shug'ullanadigan) narsa; ~ **there** *so'zl.* aqlli, zehni o'tkir, idrokli, topqir, tez tushunadigan, aqli (kalasi) yaxshi ishlaydigan, fahmli; **first of ~** eng avvalo; **most of ~** hammasidan ko'ra; ~ **of us** biz hammamiz; ~ **day** (**all day long, all the day**) kun bo'yi; ~ **right** 1. *int. phr. so'zl.* bo'pti! xo'p! mayli! roziman! bo'ladi! to'g'ri keladi! shubha qilmang! xotirjam bo'ling! ishonig! 2. *adv. phr.* 1) qoniqarli, qanoatlanarli, qoniqarli ravishda, qabul qilsa bo'ladigan ravishda, butunlay, tamoman, to'la, bemalol, yetarlicha, to'liq ravishda; 2) albatta, shubhasiz, shubha tug'dirmaydigan, shak-shubhasiz, begumon, aniq, muqarrar, o'z-o'zidan ma'lum (ravshan, tushunarli); 3) muvaffaqiyatli ravishda, muvaffaqiyat bilan, muvaffaqiyatli; sog'-salomat, beshikast, bus-butun holda; 3. *a phr.* 1) qoniqarli, ma'qul, yaroqli, muvofiq, qabul qilsa bo'ladigan; yaxshi, yomon emas, munosib, bop, mos; 2) sog', sog'lom, tani sog', sihat-salomatligi yaxshi, sog'aygan, tuzalgan, sog'ayib (tuzalib) ketgan; 3) *jarg.* halol, pok, vijdonli, to'g'ri, sofdil, insofli, andishali, nomusli; 4) *jarg.* juda yaxshi, juda soz, a'lo darajadagi, ajoyib; ~ **the same** 1) baribir, farqi yo'q; 2) shunga qaramay (qaramasdan), shunday bo'lsa ham, har holda, biroq; **and ~ so'zl.** va hokazo, va boshqalar; **and ~ that** va boshqalar, ana shu tarzda, aytganlaridek, aytilganidek, aytishlaricha; ayni payt, xuddi payti; **as ~ that** uncha, unchalik, shuncha, shunchalik, shu qadar, chandon; **at ~** 1) *esk.* mutlaqo, tamoman, butunlay, to'liq; juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada (tasdiq gaplarda ishlatiladi); 2) mutlaqo, also, sira, hech (*bo'lishsiz gaplarda ishlatiladi*); 3) umuman, umuman olganda (*tasdiq va inkor gaplarda, shu bilan birga, shart er-gash gaplarda ishlatiladi*); **to be ~ abroad** 1) (nimanidir) tushunmaslik, tushunib (bilib, fahmlab, anglab) olmaslik; 2) shoshib (shoshilib, hovliqib) qolmoq, sarosimaga tushmoq, o'zini yo'qotib qo'yimoq; **to be ~ adrift** sarosimaga tushmoq, o'zini yo'qotib qo'yimoq, miyasi gangib qolmoq, og'ir (mushkul, qiyin) ahvolga tushib qolmoq; **to be ~ for smb.** (*yoki smth.*) *so'zl.* kimnidir (*yoki nimanidir*) to'la qo'llab-quvvatlamoq; **to be ~ one to smb.** *so'zl.* kimgadir tamoman (mutlaqo) befarq, baribir;

to be (yoki to go) ~ out *so'zl.* har qanaqasiga (turli, har xil yo'l bilan) harakat qilmoq, kuchni ayamastlik, kuchni ayamastdan harakat qilmoq; zo'r bermoq, kuyib-pishib urinmoq, o'lgan-tirilganiga qaramay harakat qilmoq (tirishmoq); **to be ~ over** 1) (*smb.*) *so'zl.* 1) kimgadir nisbatan nozik tuyg'uni his qilmoq (etmoq); 2) (*smth.*) nimagadir juda qoyil qolmoq; **to be ~ over oneself** *so'zl.* 1) har tomonlama harakat qilmoq, kuchini ayamoq; 2) g'oyat mamnun (juda qoyil) bo'lmoq, haddan tashqari (juda, o'ta) xursand bo'lmoq; 3) o'zini katta tutmoq; (*sweet*) **damn ~ so'zl.** hech balo (vaqo, narsa); **the deuce (yoki the devil) and ~ jin** ursin! obbo; **for ~** ga qaramasdan; **for ~ of me** *amer. so'zl.* menga kelganda, menga kelsak; **for ~ that** (*yoki this*) har holda, shunga qaramay, shunga qaramasdan, shunday bo'lsa-da; **in ~** hanumasi, jami, hammasi bo'lib; **in ~ likelihood** (*yoki probability*) ehtimol shunday(dir), ajab emas shunday bo'lsa, shunday bo'lsa kerak; aftidan (chamasi) shunday; **not at ~** 1) hech (sira, zarracha) ham (...yo'q); 2) marhamat, arzimaydi (*„rahmat“ deganga javoban*) **Allah** [ˈælə, ˈælə:] *n* Oллоh, Xudo, Tangri **all-around** [ˌɔ:lə ˈraʊnd] *n* sport. ko'p kurash (*sportning turli xillari*) **allay** [ə ˈleɪ] *v* tinchlantirmoq, ovutmoq **all-clear** [ˌɔ:l ˈkliə] *n* havo xatari tugaganligi haqidagi ishora **allegation** [ˌæli ˈɡetʃ(ə)n] *n* tasdiqlash (*dalilsiz*); ~ **of faculties** *yur.* (*eridan alimni talab qilish maqsadida*) erining moddiy ahvolini bilish uchun xotinining yozgan arizasi **allege** [ə ˈledʒ] *v* tasdiqlamoq **allegedly** [ə ˈledʒɪdli] *adv* go'yo, go'yoki **allegiance** [ə ˈli:dʒ(ə)ns] *n* sodiqlik **allegoric(al)** [ˌæli ˈɡɒrɪk(əl)] *a* kinoyali **allegorize** [ˈæliɡ(ə)raɪz] *v* kinoya (shama) qilib gapirmoq **allegory** [ˈæliɡ(ə)n] *n* kinoya **all-embracing** [ˌɔ:lɪm ˈbreɪsɪŋ] *a* keng qamrovli, ko'p narsani o'z ichiga olgan **allergic** [ə ˈlɜ:dʒɪk] *a* tib. allergiyaga oid **allergy** [ˈælədʒɪ] *n* tib. allergik, o'ta ta'sirchanlik **alleviate** [ə ˈli:vɪeɪt] *v* yengillashtirmoq **alleviation** [ə ˈli:vɪeɪʃ(ə)n] *n* yengillashtirish **alley** [ˈæli] *n* xiyobon; **to be (right) down** (*yoki up*) **one's ~** *jarg.* 1) biror kishi bilan sherik bo'lmoq; 2) kimningdir didiga yoqmoq (o'tirmoq), kimningdir qandaydir talabiga to'liq javob bermoq; **a blind ~** 1) boshi berk ko'cha, (hech qayerga chiqib

- bo'lmaydigan) boshi berk yo'l; 2) boshi berk ko'cha, qiyin (mushkul) ahvol; **blind** ~ **employment** (**job** yoki **occupation**) istiqbolsiz, kelajagi (istiqboli) yo'q ish
- alleyway** [ˈæliwei] *n* tor ko'cha, tor o'tish yo'li
- All Fool's Day** [ˌɔ:l ˈfu:lz,dei] *n* hazil, yolg'onlar kuni (*1-aprel*)
- all-honoured** [ˌɔ:l ˈɒnəd] *a* hamma hurmat qiladigan
- alliance** [ə ˈlaɪəns] *n* 1) ittifoq; **the Holy Alliance** tar. muqaddas uyushma (ittifoq) (*Avstraliyadagi reaksiya uyushma*); **the unholy** ~ *kin.* gunohkorlar uyushmasi (ittifoqi); 2) qarindoshlik
- allied** [ə ˈlaɪd] *a* ittifoqdosh
- alligation** [æli ˈgeɪʃ(ə)n] *n* qotishma, aralashma
- alligator** [ˈæliɡetə] *zool.* alligator, timsoh
- all-in** [ˌɔ:l ˈɪn] 1. *a* charchagan, toliqqan, holdan toygan; 2. *adv* hammasini qo'shib hisoblaganda
- all-in-all** [ˌɔ:lɪn ˈɔ:l] *a* juda muhim, juda kerakli
- all-in-one** [ˌɔ:lɪn ˈwʌn] *a* *tex.* butun, yaxlit
- all-metal** [ˌɔ:l ˈmetl] *a* nuqul metallardan qilingan (yasalgan)
- all-night** [ˌɔ:l ˈnaɪt] *a* tungi, tun bo'yi ishlaydigan (*restoran, qahvaxona va b.*)
- allocate** [ˈæləkeɪt] *v* 1) joylashtirmoq; 2) tayinlamoq (*to*)
- allocation** [ˈælə ˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) taqsimot; 2) tayinlash
- allocution** [ˈæləʊ ˈkeɪʃ(ə)n] *a* pand-nasihatlilik, murojaat
- alodial** [ə ˈləʊdiəl] *a* tar. soliq majburiyatlardan ozod bo'lgan
- alodium** [ə ˈləʊdiəm] *n* to'la xususiy mulk hisoblanadigan va soliq majburiyatlaridan ozod yer
- allogamy** [ə ˈlɒɡəmi] *n* bot. chetdan changlanish
- allopath** [ˈæləpæθ] *n* allopat
- allopathy** [ə ˈlɒpəθi] *n* allopatiya (*kusallik belgilariga qarama-qarshi, ammo samarali bo'lgan dorilar bilan davolash prinsipi*)
- allot** [ə ˈlɒt] *v* taqsimlamoq, bo'lmoq
- allotment** [ə ˈlɒtmənt] *n* 1) taqsimlash, bo'lib berish; 2) tayinlash, belgilab berish; 3) qism, bo'lak; hissa, ulush; 4) ijaraga beriladigan yer maydoni
- allottee** [ə ˈlɒ ˈti:] *n* 1) yer maydonini oluvchi; 2) mayda ijarachi
- all-out** [ˌɔ:l ˈaʊt] 1. *a* to'la; umumiy, yalpi; 2. *adv* bor kuch bilan
- all-outer** [ˌɔ:l ˈaʊtə] *n* amer. qat'iy yoki so'nggi choralar tarafdori
- all-overish** [ˌɔ:l ˈəʊv(ə)rɪʃ] *a* mazasi qochayotgan
- all-overishness** [ˌɔ:l ˈəʊv(ə)rɪʃnəs] *n* so'zl. umumiy darronsizlik
- allow** [ə ˈlaʊ] *v* 1) ijozat bermoq; 2) bermoq; *to* ~ *time* vaqt bermoq
- allowable** [ə ˈlaʊəb(ə)] *a* 1) bo'lishi mumkin bo'lgan, yo'l qo'yish mumkin bo'lgan; 2) ijozat berilgan, ruxsat etilgan, yo'l qo'yilgan; 3) qonuniy
- allowance** [ə ˈlaʊəns] *n* ruxsat; ijozat; **make** ~ (*s*) **for smth.** nimanidir e'tiborga (hisobga) olmoq; nimaningdir narxini tushirmoq; nimagadir tuzatish kiritmoq; **monkey's** ~ *esk. jarg.* mukofot o'rniiga kaltaklash
- allowedly** [ə ˈlaʊdli] *adv* ijozat berilgan yo'sinda
- alloy** [ə ˈlɔɪ] *n* (*qandaydir metalning*) qotishmasi
- all-powerful** [ˌɔ:l ˈpaʊəf(ə)] *a* har narsaga qodir, qudratli, kuchli
- all-right** [ˌɔ:l ˈraɪt] 1. *a* qoniqarli; hammasi joyida; 2. *adv* juda ma'qul tarzda; 3. *int.* yaxshi! xo'p! bo'пти!
- all-round** [ˈɔ:lraʊnd] *adv* har taraflama, ko'p tomonlama
- all-rounder** [ˌɔ:l ˈraʊndə] *n* sport. o'ngku-raschi
- allspice** [ˈɔ:lspais] *n* bot. Yaman murchi
- all-time** [ˈɔ:ltaɪm] *a* misli ko'rilmagan, eshitilmagan
- allude** [ə ˈlu:d] *v* aytib o'tmoq
- All-Union** [ˌɔ:l ˈju:niən] *a* umumittifoq
- allure** [ə ˈl(j)ʊə] *v* maftun etmoq
- allurement** [ə ˈl(j)ʊəmənt] *n* qiziqtiradigan (*havasni keltiradigan*) narsa
- alluring** [ə ˈl(j)ʊəriŋ] *a* qiziqtiradigan
- allusion** [ə ˈlu:ʒ(ə)n] *n* 1) luqma; 2) surgun
- allusive** [ə ˈlu:ʒɪv] *a* kinoyali, shamali, qochirimli (*to*)
- alluvial** [ə ˈlu:viəl] *a* *geol.* o'tirindi, cho'kindiga oid
- alluvion** [ə ˈlu:viən] *n* o'tirindi, cho'kindi
- alluvium** [ə ˈlu:viəm] *n* cho'kindi qatlamlari
- all-wool** [ˌɔ:l ˈwʊl] *a* sof jundan qilingan
- ally** [ˈæli] 1. *n* ittifoqdosh; 2. *v* birlashtirmoq
- almanac** [ˈɔ:lɪmənæk] *n* taqvim; almanax
- almighty** [ˌɔ:l ˈmaɪti] *a* qudratli, qodir
- almond** [ˈɑ:mənd] *n* bot. bodom (*daraxti*)
- almond-shaped** [ˈɑ:mənd ˈʃeɪpt] *a* bodomshimon
- almoner** [ˈɑ:mənə] *n* esk. xayr-ehson ulashuvchi (*saroy va b. dagi mansabdor shaxs*)

almost [ˈɔːlməʊst] *adv* deyarli; ~ never killed a fly (*shuni, almost was never hanged*) *maq.* hatto pashshaga ham ozor yetkazmagan

alms [ɑːmz] *n* xayr-ehson

alms-deed [ˈɑːmzdiːd] *n* muhtojlarga yordam, xayr-saxovat, ehson

alms-house [ˈɑːmzhaʊs] *n* gʻaribxona

almsman [ˈɑːmzmən] *n* 1) xayr-sadaqa hisobiga kun kechiradigan kishi; 2) esk. muruvvat koʻrsatuvchi, yaxshilik qiluvchi, valineʼmat

alodial [əˈləʊdjal] = **allodial**

aloe [ˈæləʊ] *n bot.* aloy, sabur

aloft [əˈlɒft] *adv* yuqorida, tepada

alone [əˈləʊn] *a* yolgʻiz; **to let ~** tinch qoʻymoq

along [əˈlɒŋ] *prep.* boʻylab, yoqalab; **to go (to come) ~ with smb.** kim bilandir birga bormoq (kelmoq); ~ a river (a street) daryo (koʻcha) boʻylab; (all) ~ of soʻzl. tufayli, sababli, orqasida, natijasida, sharofati bilan

along-shore [əˈlɒŋ ˈʃɔː] *adv* qirgʻoqda, qirgʻoq boʻyida

alongside [əˈlɒŋ ˈsaɪd] *adv* yonma-yan, bir qatorida; yaqinida

aloof [əˈluːf] *adv* nariroqda, chetroqda

aloofness [əˈluːfnəs] *n* 1) uzoqlashtir ketganlik, begonalik; 2) befarqlik, beparvolik, eʼtiborsizlik

aloud [əˈlaʊd] *adv* baland, ovoz chiqarib

alp [ælp] *n* togʻ choʻqqisi

alpaca [ælpækə] *n* alpoka junidan qilingan gazlama

alpenstock [ˈælpənstɒk] *n sport.* alpinistlarning nayzador uzun tayogʻi

alpha [ˈælfə] *n* alfa (*grek alifbosining birinchi harfi*); **the Alpha and Omega** avvali va oxiri, mohiyat, asl (tub) maʼno, ahamiyatli, eng muhim

alphabet [ˈælfəbet] *n* alifbo

alphabetic [ˈælfəˈbetɪk] *a* alifboga oid.

alphabetical [ˈælfəˈbetɪk(ə)] *a* alifboga oid

alphabetically [ˈælfəˈbetɪk(ə)li] *adv* alifbo tartibida

alphabetize [ˈælfəˈbetəɪz] *v* alifbo tartibida joylashtirmoq

alpha rays [ˈælfəˈreɪz] *n pl fiz.* alfa nurlari

alpine [ˈælpain] *a* baland togʻlarga xos yoki mansub boʻlgan

alpinist [ˈælpɪnɪst] *n* alpinist

already [ɔːlˈredɪ] *adv* allaqachon

alright [ɔːlˈraɪt] *predic.* yaxshi, qoniqarli, qanoatlantirarli; maʼqul

alsatian I [ælsɪˈeɪʃ(ə)n] *n* esk. qochib yurgan qarzdor yoki jinoyatchi

alsatian II [ælsɪˈeɪʃ(ə)n] *n* sharqiy yevropa ovcharkasi (iti)

also [ˈɔːlsəʊ] *adv* shuningdek, ham; ~ ran soʻzl. *sport.* musobaqaning omadsiz qatnashchisi

alt [ælt] *n mus.* baland ovoz; **to be in ~** koʻtarinki ruhda boʻlmoq; *mus.* bir oktava baland olmoq

altar [ˈɔːltə] *n* minbar, arsh (butxonada), mehrob (*cherkovning ibodat qilinadigan asosiy qismi, cherkov ibodatxonasi*); **to lead to the ~** er-xotin boʻlmoq, uylanmoq, nikohiga olmoq, nikohiga oʻtmoq

alter [ˈɔːltə] *v* 1) oʻzgartirmoq, oʻzgartirmoq, oʻzgarishlar kiritmoq, boshqacha qilmoq; 2) *amer. dial.* bichmoq, axta qilmoq

alterable [ˈɔːltərəb(ə)] *a* oʻzgaruvchan

alterant [ˈɔːltərənt] *a* taklifni oʻzgartirishga olib keladigan

alteration [ˈɔːltəˈreɪʃ(ə)n] *n* oʻzgartirish

alterative [ˈɔːltərətɪv] *a* oʻzgartirishga sabab boʻlishga qodir

altercate [ˈɔːltəˈkeɪt] *v* janjallashib qolmoq; gap talashmoq (**with**)

altercation [ˈɔːltəˈkeɪʃ(ə)n] *n* janjal, mojarro

alter ego [ˈæltərˈiːgəʊ] *n lot.* eng yaqin doʻst va hamfikir

alternate [ɔːlˈtɜːnɪt] 1. *a* navbati bilan qilinadigan; 2. *v* galma-gal qilmoq

alternating [ˈɔːltənɪtɪŋ] *a* almashib turadigan

alternation [ˈɔːltənɪt(ə)n] *n* galma-gal qilish

alternative [ɔːlˈtɜːnətɪv] 1. *n* ikki yoʻldan birini tanlash; 2. *a* ikki yoʻldan birini tanlashni taqozo etadigan

alternatively [æltərˈtɜːnətɪvli] *adv* muqobil ravishda

although [ɔːlˈðəʊ] *conj* garchi; ... ga qaramay

altigraph [ˈæltɪgrəːf] *n* altigraf

altimeter [ˈæltɪˌmɪːtə] *n* altimetr, balandlik oʻlchagich

altisonant [æltɪˈtsənənt] *a* dabdabali, balandparvoz

altitude [ˈæltɪtjuːd] *n* balandlik

alto [ˈæltəʊ] *n* alt (*ovoz va torli musiqa asbabi*)

alto-cumulus [ˈæltəʊ ˈkjuːmjʊːləs] *n meteor.* osmondagi toʻp-toʻp bulutlar

altogether [ˈɔːltəˈgeðə] *adv* butunlay; toʻla, tamoman, butkul, mutlaqo, juda, gʻoyat; **in the ~ soʻzl.** yalangʻoch (koʻrinish) qi-yofa (*mas., rassomning modelida*)

alto-relievo [ˈɑːltəʊˈriːliːvəʊ] *n meʼmor.* gorelf (*tekis sathda ishlangan boʻrtma naqsh*)

alto-stratus [ˌæltəʊˈstreɪtəs] *n* meteor. ko'p qatlamli bulut
altruism [ˈæltrɔɪz(ə)m] *n* altruizm
altruist [ˈæltrɔɪst] *n* altruist, g'amxo'rlik ko'rsatuvchi odam
altruistic [ˌæltroʊˈɪstɪk] *a* altruistik
alum [ˈæləm] *n* achchiqtosh
alumina [əˈl(j)uːmɪnə] *n* aluminiy oksidi
aluminium [ˌæljʊˈmɪniəm] *n* aluminiy
aluminous [əˈl(j)uːmɪnəs] *a* achchiqtoshga oid
alumna [əˈlʌmnə] *n* lot. sobiq shogird (kollej yoki universitetda)
alumnae [əˈlʌmni:] *pl of alumna*
alumni [əˈlʌmni] *pl of alumna*
alumnus [əˈlʌmnəs] *n* sobiq shogird (kollej yoki universitetda)
alveolate [ˈælvəleɪt] *a* alveolalarga oid
alveolus [ˌælvɪˈəʊləs] *n* anat. pufakchalar: katak, ko'z, uyacha
always [ˈɔːlweɪz] *adv* doimo, har doim, muntazam; hamisha, hamma vaqt
am [æm] „to be“ fe'lining hozirgi zamonda birinchi shaxs uchun birlik sonda ishlatiladigan aniqlik maylidagi shakli
amadou [ˈæməduː] *a* pilik, qov
amain [əˈmeɪn] *adv* esk. 1) tez, tezda, darrov, darhol; 2) bor kuch bilan
amalgam [əˈmælgəm] *n* 1) amalgama; 2) ko'ch. kit. aralash-quralash narsa
amalgamate [əˈmælgəmeɪt] *v* birlashtirmoq
amalgamated [əˈmælgəmeɪtɪd] *a* o'zaro bog'langan
amalgamation [əˈmælgəˈmeɪʃ(ə)n] *n* aralashish
amanuenses [əˈmænjʊˈɛnsɪz] *pl of amanuensis*
amanuensis [əˈmænjʊˈɛnsɪs] *n* lot. oqqa ko'chiruvchi; kotib, (aytib turganni) yozadigan, shaxsiy kotib
amaranth [ˈæməərəntθ] *n* 1) bot. amarant; 2) baxinalrang, to'q qizil rang
amaranthine [ˌæməˈrænd(ə)n] *a* 1) so'l-maydigan, so'lmas; 2) to'q qizil, qirmizi
amass [əˈmæs] *v* yig'moq, to'plamoq
amassment [əˈmæsmənt] *n* uyum, g'aram
amateur [ˈæmət(ə)ə, ˈæmətəː] *n* havaskor; **an** ~ **painter** havaskor rassom; **an** ~ **show** havaskorlik konserti
amateurish [ˌæməˈtəriʃ] *a* havaskorga oid
amative [ˈæmətɪv] *a* (tez, darrov) oshiq bo'ladigan, hadeb sevaveradigan, sevuvchan
amatol [ˈæmətɒl] *n* amatol (portlovchi modda)
amatory [ˈæmət(ə)rɪ] *a* ishq-muhabbatga oid
amaze [əˈmeɪz] *v* taajjublantirmoq

amazed [əˈmeɪzd] *a* hayratlangan; **to be ~ at smth./smb.** nimadandir yoki kimdandir hayratda qolmoq
amazement [əˈmeɪzmənt] *n* taajjublanish
amazing [əˈmeɪzɪŋ] *a* hayratlanarli
amazingly [əˈmeɪzɪŋli] *adv* hayron qolarli darajada, hayratomuz
Amazon [ˌæməz(ə)n] *n* grek. mij. amazonka (yunon afsonalarida jangovar xotin)
ambages [æmˈbeɪdʒiːz] *n* kinoya, imo-ishora, qochirim, shama
ambassador [æmˈbæsədɔː] *n* elchi
ambassadorial [æmˈbæsədɔːrɪəl] *a* elchiga va elchixonaga oid, elchi...; elchixonana...
ambassador [æmˈbæsədɔːrɪs] *n* 1) elchining xotini, 2) ayol elchi
amber [ˈæmbə] 1. *n* kahrabo; 2. *a* kahraboga oid
ambergris [ˈæmbəgrɪ(:)s] *n* kulrang anbar
ambidext(er)ous [ˌæmbɪˈdekstrəs] *a* 1) ikkala qo'lini bir xilda ishlata oladigan (odam); 2) ikki tomoni (orqa-o'ng, o'ng-tersi) bir xil; ikki tomonlama, ikki taraflama; ikki tomon o'rtasidagi; o'zaro; 3) kit. ikkiyuzlama, munofiq, riyokor
ambience [ˈæmbɪəns] *n* muhit, sharoit, tevarak-atrof
ambient [ˈæmbɪənt] *a* har tomondan o'rab olgan
ambiguity [ˌæmbɪˈɡjuːɪti] *n* 1) ishora, piching, shama, kinoyali (ikki ma'noli) gap; 2) noaniqlik, noma'lumlik; noaniq (gap, fikr) narsa
ambiguous [æmˈbɪɡjuːəs] *a* ikki ma'noli
ambit [ˈæmbɪt] *n* atrof, tevarak, tevarakatdagi joylar, o'rab olgan muhit, sharoit
ambition [æmˈbɪʃ(ə)n] *n* 1) shuhratparastlik; 2) kuchli orzu, niyat, maqsad, ishtiyok; **it is her ~ to become a teacher** uning maqsadi o'qituvchi bo'lish; **to realize one's ~s** o'z orzularini amalga oshirmoq
ambitious [æmˈbɪʃəs] *a* shuhratparast
ambivalence [æmˈbɪvələns] *n* ikkilanish
ambivalent [æmˈbɪvələnt] *a* ikkilangan (o'y-fikr haqida)
amble [ˈæmb(ə)l] *n* 1) yo'rg'alash, yo'rg'alab yurish; 2) yengil qadam tashlash, chaqqon yurish
ambler [ˈæmblə] *n* yo'rg'a (ot)
ambrosia [æmˈbrɔːziə] *n* 1) grek. mij. yunon afsonalarida ilohlar taomi; 2) asalari ovqati (asalarilarning uyusiga gul changlaridan to'plagan asal bilan aralashirilgan ovqatlari)
ambulance [ˈæmbjʊləns] *n* tez yordam mashinasi

- ambulance-chaser** [ˈæmbjʊləns,tʃeɪsə] *n* amer. baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga o'z xizmatini taklif qiluvchi advokat
- ambulant** [ˈæmbjʊlənt] *a* bir joydan ikkinchi joyga o'tadigan; ko'chma (*kasallik haqida*)
- ambulatory** [ˈæmbjʊlət(ə)rɪ] *a* 1) ko'chma; 2) ambulatoriyaga oid
- ambuscade** [ˌæmbʊsˈkeɪd] *v* bir joyda o'tirmoq; pistirmada bo'lmoq; qurshovda bo'lmoq
- ambush** [ˈæmbʊʃ] *n* pistirma
- ameer** [əˈmɪə] *n* amir
- ameliorate** [əˈmi:liəreɪt] *v* yaxshilamoq
- amelioration** [əˈmi:liə'reɪʃ(ə)n] *n* yaxshilash
- ameliorative** [əˈmi:liə'reɪtɪv] *a* yaxshilaydigan; meliorativ
- amen** [aːˈmen] *int.* omin; say ~ to smth. hazil. nimagadir rozi bo'lmoq, nimanidir ma'qul topmoq (to'g'ri deb hisoblamoq, qo'llab-quvvatlamoq). nimagadir o'z roziligini bermoq
- amenability** [əˈmi:nəˈbɪlɪti] *n* javobgarlik, mas'uliyat
- amenable** [əˈmi:nəb(ə)l] *a* javobgar
- amend** [əˈmend] *v* yaxshilamoq, tuzatmoq
- amendable** [əˈmendəb(ə)l] *a* tuzaladigan
- amended** [əˈmendɪd] *a* tuzatilgan
- amendment** [əˈmendmənt] *n* (xatoni) tuzatish, to'g'rilash, yaxshilash; **a** wrecking ~ *siyos.* qabul qilingan qonun loyihasini buzish maqsadida unga tuzatish kiritish
- amends** [əˈmendz] *n* qoplash, o'rini to'ldirish; **to make ~ (for)** 1) zararlarning o'rini qoplamoq; 2) o'z aybini yuvishga harakat qilmoq
- amenity** [əˈmɪnɪti, əˈmenɪti] *n* yoqimlilik, mehribonlik
- amens** [əˈmentə] *n pl* *ib.* aqli zaif kishilar
- amentia** [əˈmenʃə] *n* aqli zaiflik
- amentum** [əˈmentəm] = **amens**
- amerce** [əˈmɜ:s] *v* jarima solmoq
- amercement** [əˈmɜ:smənt] *n* jarima solish
- American** [əˈmerɪkən] 1. *n* amerikalik; 2. *a* amerikaga oid
- Americanism** [əˈmerɪkənɪz(ə)m] *n* amerikanizm
- Americanize** [əˈmerɪkənaɪz] *v* amerikalashtirish
- amethyst** [ˈæmɪθɪst] *n* ametist (*qimmatbaho tosh*)
- amethystine** [ˌæmɪˈθɪstɪn] *a* ametistga oid
- amiability** [ˌeɪmɪəˈbɪlɪti] *n* mehribonlik
- amiable** [ˈeɪmɪəb(ə)l] *a* xushmuomala; do'stona
- amianthus** [ˌæmɪˈæntʰəs] *n* min tog' zig'iri
- amicability** [ˌæmɪkəˈbɪlɪti] *n* do'stona munosabat
- amicable** [ˈæmɪkəb(ə)l] *a* do'stona
- amid** [əˈmɪd] *prep.* (*biror narsaning*) o'rtasida
- amides** [ˈæmaɪdz] *n pl* kim. amidlar
- amidships** [əˈmɪdʃɪps] *adv* deng. kemaning o'rtasida
authorize [ɔ:θəraɪz] *v* ruxsat bermoq
authorized [ɔ:θəraɪzd] *a* muallif ma'qullagan
authorship [ˈɔ:θəʃɪp] *n* mualliflik
auto- [ˈɔ:tə(u)-] *n* (automobile so'zining qisqartirilgan shakli) avtomashina
autobahn [ˈɔ:tə(u)ba:n] *n* (pl -en [-ən]) nem. avtostrada (avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunlangan katta yo'l)
autobiographic(al) [ɔ:təbaɪəˈgræfɪk(əl)] *a* muallif tarjimaiy holidan iborat bo'lgan
autobiography [ɔ:təbaɪəˈgræfɪ] *n* tarjimaiy hol
autobus [ˈɔ:ltəbʌs] *n* amer. avtobus
autocar [ˈɔ:təkɑ:] *a* yengil mashina
autochthon [ɔ:ˈtɒkθən] *n* mahalliy aholi

autochthonal [ɔ:ˈtɒkθən(ə)l] *a* tub joyli (mamlakat aholisi to'g'risida)
autocracy [ɔ:ˈtɒkrəsi] *n* yakka hokimiyatchilik
autocrat [ˈɔ:tɒkræt] *n* yakka hokim
auto-da-fe [ˈɔ:təʊdɑːˈfeɪ] *n* autodafe (o'rtasrlarda: shakkoklarni va dinga qarshi kitoblarni xaloyiq o'rtasida gulxan qilib yoqish, o'tga tashlash)
autograph [ˈɔ:təgrɑ:f] 1. *n* 1) dastxat; 2) qo'lyozmaning asl nusxasi; 2. *v* dastxat yozib bermoq
autographic [ˈɔ:təgræfɪk] *a* o'z qo'li bilan yozilgan
automate [ˈɔ:təmeɪt] *v* avtomatlashtirmoq
automatic [ˈɔ:təˈmætɪk] *a* avtomatlashtirilgan, avtomatik ravishda ishlaydigan
automation [ˈɔ:təˈmeɪʃ(ə)n] *n* avtomatika (mexanizmlar majmuyi)
automatize [ɔˈtɒmətaɪz] *v* avtomatlashtirmoq
automaton [ɔˈtɒmətən] *n* avtomat (belgilangan ishni ichki mexanizmlar yordamida o'zi bajaradigan mashina, asbob)
automobile [ˈɔ:təmeɪbi:l] 1. *n* avtomobil; 2. *a* avtomobilga oid; **an ~ wagon** yuk tashuvchi mashina
autonomist [ɔ:ˈtɒnəmɪst] *n* avtonomist, avtonomiya tarafdori
autonomous [ɔ:ˈtɒnəməs] *a* avtonom; o'zini o'zi idora qiladigan, o'zini boshqaradigan
autonomy [ˈɔ:tɒnəmi] *n* avtonomiya (o'z-o'zini mustaqil idora qilish huquqi); muxtoriyat
autopsy [ˈɔ:tɒpsɪ] *n* murdanani yorib ko'rish
autorifle [ˈɔ:təˈraɪf(ə)] *n* amer. harb. qo'l pulemyoti
autostrada [ˈɔ:tə(u)strɔ:də] *n* avtostrada (avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunlangan katta yo'l)
autotruck [ɔ:təˈtrʌk] *n* amer. yuk mashinasi
autumn [ˈɔ:təm] 1. *n* kuz; **in ~** kuzda; 2. *attr.* kuzgi; ~ fruits kuzgi mevalar
autumnal [ɔ:ˈtʌmənəl] *a* she'r. kuzgi; ~ leaves kuzgi yaproqlar
auxiliary [ɔ:gˈzɪljəri] 1. *n* 1) yordamchi; 2) gram. yordamchi fe'l; 2.a yordamchi
avail [əˈveɪl] 1. *n* foyda; 2. *v* foydali bo'lmoq
availability [əˈveɪləˈbɪləti] *n* foydali bo'lish; mavjudlik
available [əˈveɪləb(ə)l] *a* yaroqli; bor, mavjud
avalanche [ˈævələ:nʃ] *n* ko'chki (tog'lardan ko'chib tushadigan qor uyumi)
avant-garde [ævɔŋˈgɑ:d] *a* yangi, zamonaviy (adabiyot va san'atga nisbatan)
avarice [ˈæv(ə)rɪs] *n* 1) ochko'zlik; 2) qizg'anchilik

avaricious [ˌævəˈrɪʃ(ə)s] *a* 1) ochko'z; 2) qizg'anchiq
avast [əˈvɑːst] *int. deng.* to'xta!
avenge [əˈvendʒ] *v* qasos olmoq; **to ~ oneself** o'zi uchun qasos olmoq
avengeful [əˈvendʒf(ə)l] *a* kek saqlovchi
avenger [əˈvendʒə] *n* qasoskor
avenue [ˈævɪnjuː] *n* atrofi daraxtzor ko'cha; **to explore every ~ (kam. to leave no ~ unexplored)** barcha imkoniyatlarni ishga solmoq, barcha imkoniyatlardan foydalanmoq; barcha kuchni sarflamoq, bor kuchni bermoq; **Madison Avenue** *amer.* Amerika reklamasi (*ko'pgina reklama agentliklari Nyu-Yorkdagi Medison-avenyuda joylashgan*)
aver [əˈvɜː] *v* rostligini tasdiqlamoq
average [ˈæv(ə)rɪdʒ] 1. *n* o'rtacha son; **above the ~** o'rtadan yuqori; **a batting ~** *amer.* (*qandaydir ishda*) shaxsiy yutuqlar, muvaffaqiyatlar; **below the ~** o'rtadan past; 2. *a* o'rtacha; ~ **temperature** o'rtacha harorat; **an ~ price** o'rtacha narx
averruncator [ˌævərʌŋˈkɛtə] *n* tokqaychi, gulqaychi
averse [əˈvɜːs] *a* nafratlanuvchi, yoqtirmaydigan (**to**)
aversely [əˈvɜːsli] *adv* istamasdan, xohlamay
aversion [əˈvɜːʃ(ə)n] *n* nafrat; **one's pet ~** *hazil.* juda yoqtirmaslik (xush ko'rmaslik)
avert [əˈvɜːt] *v* 1) ko'zini boshqa tomonga olib qochmoq; 2) (*biror noxushlik, xavfning*) oldini olish
aviary [ˈeɪvɪəri] *n* katak
aviate [ˈeɪviət] *v* samolyotda uchmoq
aviation [ˌeɪvɪˈeɪʃ(ə)n] *n* aviatsiya
aviator [ˈeɪviətə] *n* uchuvchi
aviculture [ˈeɪvɪkʌltʃə] *n* parrandachilik
avid [ˈævɪd] *a* qizg'anchiq
avidly [ˈævɪdli] *adv* qizg'anib, nokaslarcha
avionics [ˌeɪvɪˈɒnɪks] *n* aviatsiya elektronikasi
aviso [əˈvaɪzəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) bank avizo (*yuborilgan pul, mol va sh. k. haqida oluvchiga yo'llangan xabarnoma*)
avoid [əˈvɔɪd] *v* o'zini chetga olmoq; **he ~ed danger** u xavfdan qutuldi; **to ~ smth., smb.** nimadandir, kimdandir o'zini olib qochmoq; **to ~ doing smth.** nimanidir qilmaslikka harakat qilmoq; **to ~ (danger) a mistake** (xavfdan) xatodan qutulmoq
avoidable [əˈvɔɪdəb(ə)l] *a* qilmaslik yoki uchratmaslik mumkin bo'lgan
avoidance [əˈvɔɪd(ə)ns] *n* 1) o'zini chetga olish; 2) bekor qilish
avouch [əˈvaʊtʃ] *v* kafolat bermoq

avow [əˈvaʊ] *v* tan olmoq
avowal [əˈvaʊəl] *n* tan olish
avowedly [əˈvaʊɪdli] *adv* ochiqdan ochiq; yashirmasdan
await [əˈweɪt] *v* kutmoq, kutib turmoq
awake [əˈweɪk] 1. *v* (**awoke, awoken, awakened**) 1) uyg'otmoq; 2) qiziqish uyg'otmoq; 3) uyg'onmoq; **to ~ early** erta turmoq; 2. *a predic.* tetik; **to be ~** uyg'oq (bedor) bo'lmoq
awaken [əˈweɪkən] *v* uyg'otmoq, qo'zg'atmoq
awakening [əˈweɪkənɪŋ] *n* uyg'onish, uyqudan turish; uyg'otish; **rude ~** ixlosi qaytish, ko'ngli g'oyat sovib ketish
award [əˈwɔːd] 1. *n* berish, tayinlash (*mukofot va b.*); 2. *v* mukofotlamoq; **he was ~ed order** uni orden bilan taqdirladilar
aware [əˈweə] *a predic.* xabardor, biluvchi; **to be ~ of** bilmoq; xabardor bo'lmoq
awash [əˈwɒʃ] *a* suv bilan to'ldirilgan
away [əˈweɪ] 1. *adv* uzoqda; ~ **with you!** so'z! yo'qol! ket! **daf bo'!** bu yerdan yo'qol! tur yo'qol! ~ **with you! I am tired of your company** bu yerdan ket! sening ulfatlaring jonimga tegdi; ~ **from home** o'z uyidan yiroqda; **to go ~** ketmoq, ketib qolmoq; **far and ~ (shun., out and ~)** ancha, anchagina, ko'p, sezilarli (aytarli) darajada, nisbatan ko'p (ortiq, tez va h.), xiyla, ko'p (bir necha) marta; albatta, so'zsiz, shakshubhasiz, tortishmay, shakshubha qilmay, shubhasiz; 2. *prep* yo'qligida; **to be ~** yo'q bo'lmoq (*uzoq vaqt*); **to be far ~** uzoqda bo'lmoq; **to go (to walk) ~** nari (nariga) ketmoq; **to drive ~** ketib qolmoq, jo'nab ketmoq (*mashinada*); **to sail ~** suzib ketmoq (*qayiq, kema va b.da*); **to run ~** yugurib ketmoq, qochmoq; **to swim ~** suzib ketmoq (*odam, baliq va b.*); **to move ~** uzoqlashmoq, uzoqqa ketmoq; **to look ~** teskari qaramoq, yuz o'girmoq; **to put ~** bir chetga qo'yinoq; **to take ~** tortib olmoq; **to throw ~** chiqarib tashlamoq, tashlab yubormoq; **to keep ~** chetda (aralashmay, ishtirok etmay) turmoq
awe [ə:] 1. *n* 1) qo'rqish; 2) izzat-ikrom; 2. *v* qo'rqitmoq; **to hold (yoki to keep) in ~ (shun., to strike with ~)** o'zini yo'qotib qo'yinoq, qo'rquvdan (*yoki hayajondan*) qaltiramoq; **to stand in ~ of smb. (yoki smth.)** ortiq darajada hurmat qiladigan biror kishi (*yoki biror narsa*)dan qo'rqmoq, qaltirab turmoq, o'zini yo'qotib qo'yinoq
awearly [əˈweəri] *a predict. shoir.* (nimadandir) charchagan, toliqqan, holdan toygan, horgan

awesome [ˈɔːs(ə)m] *a* to'qinlantiruvchi, hayajonga soluvchi
awestruck [ˈɔːstrək] *a* qo'rqqanidan hurmat qiladigan
awful [ˈɔːf(ə)] *a* dahshatli, vahimali, qo'r-qinchli; ~ **weather** juda yomon havo; **it is ~!** bu dahshat
awfully [ˈɔːf(ə)li] *adv* so'zl. juda ham, nihoyat darajada, benihoyat, g'oyat, haddan tashqari; dahshatli, vahimali, mudhish; ~ **bad** juda yomon
awhile [əˈwaɪl] *adv* ozgina; biroz, jindak; **let's wait ~!** biroz kutamiz!
awkward [ˈɔːkwəd] *a* qo'pol; beso'naqay (*odamlar, harakat va b.*); ~ **movement** qo'pol harakat; **to feel ~** o'zini noqulay sezmoq, xijolat bo'lmoq
awkwardness [ˈɔːkwədnes] *n* qo'pollik, noqulaylik
awl [ɔːl] *n* bigiz; **to pack up one's ~s and be gone** kam. hazil. (o'z) lash-lushlarini (ko'ch-ko'ronlarini) yig'ishtirib, o'z uyiga (kelgan joyiga) jo'nab qolmoq (ketmoq)
awning [ˈɔːnɪŋ] *n* bostirma
awoke [əˈwəʊk] *past of awake*
awry [əˈraɪ] *adv* 1) qiyshiq; 2) yonboshlab
ax(e) [æks] 1. *n* bolta; **to have (got) an ~ to grind** o'z manfaatini ko'zlab (tama, g'araz bilan) ish tutmoq; qiziqqan kishi bo'lmoq **to lay the ~ to the root of smth.** ildiziga bolta urmoq, nimanidir yo'q qilishga kirishmoq; (**as**) **savage as a meat ~** g'azablangan, g'azabi kelgan, g'azabi qo'zg'agan, darg'azab bo'lgan, qoni qaynagan, juda jahili chiqqan; **to use the ~ jarg.** (*asosan, ishchi o'rinlarini*) keskin qisqartirmoq; **the manager decided to use the ~ to solve his staff problem** ishchilar muammolarini hal etish maqsadida boshqaruvchi ishchi o'rinlarni keskin qisqartirishga qaror qildi; **with an ~ to grind** o'z manfaatini ko'zlab (tama, g'araz bilan) ish tutib; **to send the ~ after the helve** kam. oxirgi (so'nggi) marta tavakkal qilib ko'rmoq; bo'lmaydigan ishni bajaraman deb (qaysarlik, o'jarlik qilib) harakat qilib, tirishib ko'rmoq; **smb.'s (yoki the) ~ falls (on)** kimningdir zarbasi (-ga) tushadi; 2. *v* bolta bilan ishlamoq
axial [ˈæksɪəl] *v* *tex., mat.* o'qqa oid
axiom [ˈæksɪəm] *n* aksioma (*isbotsiz qabul qilinadigan va boshqa da'volarning isboti uchun asos qilib olinadigan haqiqat*)
axiomatic [ˈæksɪəˈmætɪk] *a* o'z-o'zidan ko'rinib turgan, aniq, tushunarli
axiomatical [ˈæksəˈmætɪk(ə)] *a* aniq, tushunarli

axis [ˈæksɪs] *n* (*pl axes* [-i:z]) *tex.* o'q (*mashina va b. da*)
axle [ˈæks(ə)l] *n* *tex.* o'q (*mashina va b. da*)
axle-bearing [ˈæks(ə)l,be(ə)rɪŋ] *n* *tem. y.* buksa (*vagon, lokomotiv g'ildiragining gupchagi*)
axle-box [ˈæks(ə)l,bɒks] *n* *tex.* buksa (*vagon, lokomotiv g'ildiragining gupchagi*)
axled [ˈæks(ə)ld] *a* *tex.* o'qqa oid
axle-pin [ˈæks(ə)lpɪn] *n* *tex.* chuv, cheka (*arava o'qining g'ildirakni tutib turadigan quloq'i*)
axle-tree [ˈæks(ə)l,triː] *n* g'ildirak o'qi
axunge [ˈæksʌndʒ] *n* so'zl. moy, yog'
Azerbaijani [ˌæzəˈbeɪˈdʒɑːniən] *a* Ozarbayjonga (*ozarbayjonlikka*) oid
azimuth [ˈæzɪməθ] 1. *n* azimut (*astr. kuzatish nuqtasi orqali o'tgan meridian tekisligi bilan shu nuqta va biror yulduz, planeta yoki narsa orqali o'tkazilgan tik tekislik o'rtasidagi burchak*); 2. *attr.* azimutga oid; **an ~ circle** bussol (*geodeziyada: burchak o'lchash asbobi*)
azote [eɪˈzəʊtɪk] *a* o'lik, jonsiz
azote [əˈzəʊt] *n* azot
azotic [əˈzəʊtɪk] *a* tarkibida azot bo'lgan, azotli; ~ **acid** azot kislotasi
azure [æzə] 1. *a* lojuvard; 2. *n* she'r. osmon

B

B, b [biː] *npl* 1) ingliz alifbosining ikkinchi harfi; 2) *mus. si* (*notasi*)
baa [bɑː] 1. *n* qo'yning ma'rashi; 2. *v* ma'rarmoq (*qo'y va echkilar haqida*)
Baal [ˈbaːl, ˈbeɪl] *n* (*pl Baalim*) 1) Vaal yoki Baal (*Falastin va Suriyada: hosildorlik, suv, bo'ron va harbiy jasorat xudosi*); 2) but, sanam
baa-lamb [ˈbaːləm] *n* bol. qo'zi, qo'zichoq
Baalism [ˈbeɪlɪzəm] *n* 1) Vaalga sajda qilish (*sig'inish*); 2) butparastlik
babbie [ˈbæbi] *n* chaqaloq, bola, go'dak
babbit [ˈbæbɪt] = **babbit**
Babbitry [ˈbæbɪtri] *n* tor manfaatparastlik, o'z tirikchiligidan boshqani o'ylamashlik
babble [ˈbæbl] 1. *n* shildirash; g'uldirash; 2. *v* shildiramoq; g'uldiramoq
babblement [ˈbæblmənt] *n* shildirash; g'uldirash
babbler [ˈbæblə] *n* sergap odam, ezma
babe [beɪb] *n* 1) yangi kelgan kishi; 2) tajribasiz odam
babel [ˈbeɪbl] *n* qiyomat-arosat, qiy-chuv, to's-to'polon; shovqin-suron

- baboo** [ˈbɑːbu] *n hind.* xoʻjayin, janob, taqdir (*muvojaat uchun ishlatiladi*)
- baboon** [bəˈbuːn] *n* habuin (*maymun*)
- baby** [ˈbeɪbi] **1.** *n* goʻdak, chaqaloq; **2.** *a* bolalarga xos boʻlgan
- baby-farmer** [ˈbeɪbi,fɑːmə] *n* bolalarni (*pulli*) tarbiyalash uchun oladigan ayol
- babyhood** [ˈbeɪbiˌhʊd] *n* bolalik, goʻdaklik
- babyish** [ˈbeɪbiʃ] *a* bolalarga xos boʻlgan
- baby-minding** [ˈbeɪbi,mɑɪndɪŋ] *n* bolani boqish, bolani tarbiyalash
- baby-moon** [ˈbeɪbiˌmuːn] *n* soʻzl. yerning sunʻiy yoʻldoshi
- baby-sit** [ˈbeɪbisɪt] *v* soʻzl. qatnab ishlaydigan enaga boʻlmoq
- baby-sitter** [ˈbeɪbi,sɪtə] *n* qatnab ishlaydigan enaga
- baby talk** [ˈbeɪbitɔːk] *n* tili chiqqa boshlagan bolaning noaniq gapi
- baccalaureate** [ˌbækəˈlɔːrɪət] *n* bakalavr darajasi
- Bacchant(e)** [bəˈkæntri] *n* aysh-ishratga berilgan ayol
- Bacchus** [ˈbækəs] *n* *afs.* Baxus, Vaxx (*Qadimgi Rimda may va aysh-ishrat xudosi*)
- baccy** [ˈbæki] *n* soʻzl. (*tobacco* soʻzining qisqartmasi) tamaki
- bach** [bæt] *n* (*bachelor* soʻzining qisqartirilgan shakli) boʻydoq, uylanmagan
- bachelor** [ˈbætʃələ] *n* **1)** boʻydoq; **2)** bakalavr (*universitetni bitiruvchilarga beriladigan eng kichik ilmiy daraja*)
- bachelorhood** [ˈbætʃələˌhʊd] *n* **1)** boʻydoqlik davri; **2)** bakalavr darajasi
- bachelorship** [ˈbætʃələʃɪp] *n* **1)** bakalavr darajasi; **2)** boʻydoqlik davri
- bacilli** [bæˈsɪlɪ] *n* batsilla (*tayoqcha shaklidagi bakteriya*)
- bacillus** [bæˈsɪləs] *n* (*pl* bacilli [-lɪ]) batsilla (*tayoqcha shaklidagi bakteriya*)
- back** [bæk] **1.** *n* **1)** orqa; **2)** bir tomoni ochiq katta yogʻoch hochka; **2.** *adv* orqaga; **3.** *v* qoʻllamoq; *to* ~ *a plan* rejani qoʻllamoq; *to* ~ *down* (*nimadandir*) bosh tortmoq; *to* ~ *out* qatnashishdan bosh tortmoq; *to* ~ *up* qoʻllab-quvvatlamoq; **4.** *prep.* orqadagi
- backache** [ˈbækeɪk] *n* beldagi ogʻriq, bel ogʻrigʻi
- back-bencher** [ˌbækˈbentʃə] *n* parlamentning oddiy aʼzosi, „oxirgi qatorida oʻtiradiganlar“
- backbit** [ˈbækbit] *past. of* backbite
- backbite** [ˈbækbaɪt] *v* (*backbit*; *backbitten*) yomonlamoq; orqasidan yomonlab gapirmoq
- back-blocks** [ˈbækbloks] *n pl* avstr. soʻzl. aloqa yoʻllaridan uzoqdagi joy; chekka joy
- back-blow** [ˈbækbləʊ] *n* kutilmagan zarba; toʻsatdan urilgan zarba, nogʻahoniy (tasodifiy) zarba
- backboard** [ˈbækboːd] *n* yogʻoch suyanchiq (*qayiq yoki aravada*)
- backbone** [ˈbækboʊn] *n* **1)** anat. umurtqa; **2)** asos, mohiyat
- back-breaking** [ˈbæk,breɪkɪŋ] *a* juda ogʻir; mashaqqatli; ~ *labour* mashaqqatli ish
- back-chat** [ˈbæktʃæt] *n* soʻzl. qoʻrs javob
- back-cloth** [ˈbækklɒθ] *n* teatr. toʻrdagi dekoratsiya
- back country** [ˈbæk,kʌntri] *a* aholi kam joylashgan markazdan uzoq hududlar
- backdoor** [ˌbækˈdɔː] **1.** *n* zaxira (maxfiy) yoʻl; **2.** *a* yashirin, maxfiy
- backdown** [ˈbækdaʊn] *n* chekinish
- back-draught** [ˈbækdroʊft] *n* **1)** orqaga (qarama-qarshi tomonga) tortuvchi kuch; **2)** orqaga tashlanish (*dvigatel haqida*)
- backdrop** [ˈbækdɒp] *n* teatr. toʻrdagi dekoratsiya
- backed** [bækt] *a* suyanchiqʻi bor, suyanib oʻtira boʻladigan, suyanchiqli
- back-end** [ˌbækˈend] *n* oxirgi qism
- backer** [ˈbækə] *n* **1)** qoʻllaydigan kishi; **2)** tarafdor
- backfall** [ˌbækˈfɔːl] *n* sport. orqa bilan yiqilish (*kurashda*)
- backfiller** [ˈbækfɪlə] *n* yoʻl. toʻldiradigan (koʻmadigan) mashina
- back-fire** [ˌbækˈfaɪə] *n* amer. oʻrmondagi yongʻinni oʻchirish maqsadida qarama-qarshi tomondan (*sunʻiy ravishda*) yoqiladigan gulxan
- backfisch** [ˈbækfɪʃ] *n* qizcha
- back-formation** [ˈbækfɔːməɪʃən] *n* tilsh. qaytadan soʻz yasash
- backgammon** [ˈbækgæmən] *n* triktrak (*oʻyin*)
- background** [ˈbækgraʊnd] *n* orqa tomoni; *to stay in the* ~ panada qolmoq
- backhand** [ˈbækhænd] *n* chap tomondan urish (*tennisda*)
- backhanded** [ˌbækˈhændɪd] *a* qoʻlning orqa tomoni bilan urilgan (*zarba toʻgʻrisida*)
- backing** [ˈbækɪŋ] *n* qoʻllab-quvvatlash; yordam, madad, dalda
- backlash** [ˈbæklæʃ] *n* tex. toʻxtash nuqtasi
- backless** [ˈbækləs] *a* orqa tomoni kesib tashlangan (*kiyim*)
- backlog** [ˈbækloʊg] *n* iqt. qarzdorlik
- backmost** [ˈbækməʊst] *a* eng oxirgi, orqadagi, soʻnggi
- backpage** [ˈbækpeɪdʒ] *n* **1)** (kitobning) chapdagi sahifasi; **2)** varaqning orqa tomoni; oxirgi varaq

back pay [ˈbækpeɪ] *n amer.* oylik (maosh) berishning kechiktirilishi

backrest [ˈbækrest] *n* suyanchiq (*stul va b. da*)

backroom [ˌbæk ˈru:m] *n soʻzl.* yashirin, maxfiy boʻlim (qism)

back settlement [ˌbæk ˈsetlmənt] *n amer.* uzoq (olis, yiroq) manzilgoh

back slang [ˌbæk ˈslæŋ] *n* teskari talaffuz qilinadigan soʻzlar jarayoni (*mas., mis – sim*)

back-slapping [ˈbæk,slæpɪŋ] *n* maʼqullab, yelkaga urib qoʻyish

backslide [ˌbæk ˈslaɪd] *v* dindan chiqmoq

backstage [ˌbæk ˈsteɪdʒ] *a* parda (sahna) orqasida: yashirin

backstairs [ˌbæksteəz] *n pl* pana zina, yashirin yoʻl

backstitch [ˌbækstɪtʃ] *n* chok, mashina choki

backstop [ˌbækstɒp] *n* toʻsiq, gʻov; devor

backstroke [ˌbækstreɪk] *n* javob tariqasida berilgan zarba

backword [ˌbækwɔ:d] *n tar.* ikki tigʻli qilich

back-talk [ˌbæktɔ:k] *n soʻzl.* qoʻrs javob; eʼtiroz, qarshilik

backtrack [ˌbæktræk] *v* chekinmoq

back-up [ˌbæk ˈʌp] *n* dubiyorlik qilish (*kosmonavtikada*)

backward [ˌbækwəd] *1. adv* qarama-qarshi (orqa) tomonga; *2. a* orqada qolmoq

backwardness [ˌbækwədnes] *n* orqada qolish; qoloqlik, orqada qolganlik, ulgurmaslik

backwards [ˌbækwədz] *adv* orqaga; qarama-qarshi tomonga; orqasi bilan, teskari (orqa) tomonga

backwash [ˌbækwɒʃ] *n* qarama-qarshi oqim

backwater [ˌbækwɔ:tə] *n* daryo yoki koʻl qoʻltigʻi; qoʻltiq

backwoods [ˌbækwudz] *n pl* oʻrmonning odam oyogʻi yetmagan joylari

backwoodsman [ˌbækwɒdzmen] *n (pl -men [-mən])* oʻrmonning ichkarisida, xilvat joyida yashovchi odam

bacon [ˈbeɪkən] *n* bekon, dudlangan choʻchqa goʻshti; *to save one's ~* oʻz jonini panaga olib qochmoq

bacteria [ˌbæktɪəriə] *pl of bacterium*

bacteriological [ˌbæktɪəriəˈlɒdʒɪkl] *a* bakteriologiyaga oid; bakteriologik

bacteriologist [ˌbæktɪəriˈɒlədʒɪst] *n* bakteriolog (*bakteriologiya mutaxassisi*)

bacteriology [ˌbæktɪəriˈɒlədʒɪ] *n* bakteriologiya (*bakteriyalar haqidagi fan*)

bacterium [ˌbæktɪəriəm] *n (pl -ria [-riə])* bakteriya (*mikroskop orqaligina koʻrindigan juda mayda organizm*)

bad [bæd] *1. a (worse; worst)* 1) yomon, yaramas, buzuq, notoʻgʻri; ~ **language** soʻkinib gapirish, haqoratli soʻzlarni ishlatib gapirish; **a ~ name** yomon nom (*chiqarish*); ~ **money** qalbaki pul; 2) betob, kasal; nosogʻ, zararli; **to feel ~** betob boʻlmoq; **a ~ leg** kasal oyoq; 3) buzilgan; **to go ~** buzilmoq, aynib qolmoq; *amer. a ~ man* kallakesar; **my brother feels ~** mening akam oʻzini yomon sezyapti; **a ~ coin** qalbaki tanga; 4) sifati past, yaramas, buzuq; 5) zararli; **smoking is ~ for your health** chekish sogʻligʻingiz uchun zararli; 6) kasal; **a ~ head** ogʻrigan (kasal) bosh; *2. n* omadsizlik, baxtsizlik, omadi kelmagalik

baddy [ˈbædi] *n* badkor, yaramas

bad(e) [bæd (beɪd)] *past. of bid*

badge [bædʒ] *n* 1) alomat, ishora; 2) belgi, nishon

badger [ˈbædʒə] *n zool.* boʻrsiq

badger-baiting [ˈbædʒə,beɪtɪŋ] *n* boʻrsiqlarni it bilan ovlash

badger-dog [ˈbædʒədɒg] *n* taksa (*it zoti*)

badger-drawing [ˈbædʒə,drɔ:ɪŋ] = **badger-baiting**

badger-fly [ˈbædʒəflaɪ] *n* sunʼiy pashsha (*chivin*)

badinage [ˈbædɪnɑ:ʒ] *n fr.* hazillashish; hazil qilish

badlands [ˈbædlændz] *n pl amer.* unumsiz yerlar

badly [ˈbædli] *adv* 1) yomon, chatoq, nojoʻya; 2) juda yomon, juda qattiq, kuchli; **it is ~ needed** juda kerak, ~ **injured** qattiq shikast yegan; **to be ~ off** zoriqmoq, ogʻir ahvolda boʻlmoq; ~ **wounded** ogʻir yaralangan; **my father wants this book ~** bu kitob mening otamga juda kerak

badminton [ˈbædmɪntən] *n* badminton (*sport oʻyini*)

badness [ˈbædnəs] *n* yaroqsizlik, yomonlik

bad-tempered [ˌbæd ˈtempəd] *a* badjahli; tajang, jahli yomon

baffle [ˈbæfl] *1. n* 1) *tex.* toʻsiq; 2) muvaffaqiyatsizlik; umidsizlik; *2. v* toʻsqinlik qilmoq, xalaqit bermoq, (*rejani*) buzmoq

baffle-board [ˈbæflbɔ:d] *n tex.* boʻladigan (ajratadigan, boʻluvchi) toʻsiq

baffled [ˈbæfld] *a* tushunarsiz, juda chalkash

baffle-plate [ˈbæflpleɪt] = **baffle**

baffler [ˈbæflə] *n tex.* toʻsiq, gʻov

baffle-wall [ˈbæflwɔ:l] = **baffle board**

baffling [ˈbæflɪŋ] *a* qiyin, murakkab, chigal, ogʻir

bag [bæg] *1. n* qop, sumka, chamadon; *2. v* qopga joylamoq (*solmoq*)

- bagasse** [bɑːgæs] *n* qoldiq (*siqib suvi olingan narsa qoldig'i*)
- bagatelle** [ˌbæɡəˈtel] *n* arzimagan (ahamiyatsiz) gap yoki voqea
- bagful** [ˈbæɡfʊl] *n* bir qop, to'la qop
- baggage** [ˈbæɡɪdʒ] *n* yuk, yo'lovchi yuki
- baggage car** [ˈbæɡɪdʒkɑː] *n* amer. bagaj (yuk) vagoni
- baggage-check** {ˌbæɡɪdʒˈtʃek} *n* amer. bagaj (yuk) kvitansiyasi
- baggage-man** [ˈbæɡɪdʒmæn] *n* amer. (*pl -men* [-mən]) *hammol* (*vokzalda yuk tashuvchi*)
- baggage room** [ˈbæɡɪdʒru:m] *n* amer. yuk saqlash kamerasi (*yuklar vaqtincha saqlanadigan joy*)
- bagged** [bæɡd] *a* qopga (xaltaga, chamdonga) joylashtirilgan
- bagger** [ˈbæɡə] *n* suv havzalarini chuqurlashtirib loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina
- bagging** [ˈbæɡɪŋ] *n* qop-qanor tikiladigan mato
- baggy** [ˈbæɡɪ] *a* qo'pol, keng (*kiyim haqida*)
- bagman** [ˈbæɡmən] *n* (*pl -men* [-mən]) sayyor savdogar
- bagno** [ˈbænjə] *n* 1) fohishaxona; 2) hammom; 3) *tar.* quflar qamoqxonası (*sharqda*)
- bagpiper** [ˈbæɡpaɪpə] *n* volinka chaluvchi
- bagpipes** [ˈbæɡpaɪps] *n* *pl* volinka (*dam bilan chalinadigan rus xalq cholg'u asbobi*)
- bah** [baː] *int. e!* ajabo! voy bo'!
- baignoire** [ˈbeɪnwɑː] *n* *fr.* teatr. benuar (*tomosha zullarida: pastki qavat lojalari*)
- bail** [beɪl] 1. *n* 1) kafolat; 2) kafil; 2. *v* kafillikka olmoq
- bailable** [ˈbeɪləbl] *a* kafillik yoki kafolat asosida qamoqdan ozod qilinish huquqiga ega bo'lgan
- bailee** [ˈbeɪliː] *n* *yur.* mollarni (tovarlarni) saqlash uchun javobgar shaxs
- bailer** [ˈbeɪlə] *n* cho'mich, yog'log'i
- bailey** [ˈbeɪli] *n* *tar.* saroy (qal'a, qasr, qo'rg'on) hovlisi
- bailiff** [ˈbeɪlɪf] *n* *yur.* sud ijrochisi
- bailing** [ˈbeɪlɪŋ] *n* (kondan) suvni tortib chiqarish
- bailment** [ˈbeɪlmənt] *n* kafillik yoki garov evaziga ozod qilish
- bailsmen** [ˈbeɪlzmən] *n* (*pl -men* [-mən]) kafil, kafil bo'lgan kishi
- bairn** [beən] *n* *shott.* go'dak, bola, farzand, chaqaloq; o'g'il, qiz
- bait** [beɪt] 1. *n* don, xo'rak (*balta, qush va sh. k. ga aldash uchun ishlatiladigan*); 2. *v* xo'rak qo'yimoq (*qopqon, tuzoq va b.*)
- baize** [beɪz] *n* paxmoq; tukli movut
- bake** [beɪk] *v* non yopmoq, non pishirmoq
- bakehouse** [ˈbeɪkhaʊs] *n* novvoyxona
- baker** [ˈbeɪkə] *n* novvoy, bulkapaz, bulkachi, bulka (non) sotuvchi
- baker-legged** [ˌbeɪkəˈlegd] *a* qiyshiq oyoq, maymoq, oyog'i qiyshiq
- bakery** [ˈbeɪkri] *n* novvoyxona
- baking** [ˈbeɪkɪŋ] *n* yopish, pishirish (*non*)
- baking-powder** [ˈbeɪkɪŋpaʊdə] *n* xamirturushning o'rniga ishlatiladigan kukun, non poroshogi
- Balaam** {ˈbeɪləm} *a* *bibl.* Valaam (*jodugar*)
- balance** [ˈbæləns] 1. *n* 1) tarozi; 2) muvozanat; 2. *v* 1) tortmoq, o'lchamoq; 2) muvozanatga keltirmoq, tenglashtirmoq
- balance-beam** [ˈbælənsbi:m] *n* tarozi shayini
- balance-bridge** [ˈbælənsbrɪdʒ] *n* ko'tariladigan ko'priq
- balanced** [ˈbælənst] *a* bosiq, og'ir, vazmin
- balance-master** [ˈbæləns,mɑːstə] *n* ekvilibrist (*dor, shar va sh. k. da o'yin ko'rsatadigan sirk artisti*)
- balancer** [ˈbælənsə] *n* 1) ekvilibrist (*dor, shar va sh. k. da o'yin ko'rsatadigan sirk artisti*); 2) dorboz (*akrobat*); 3) tenglashtiruvchi, balans chiqaruvchi
- balance-sheef** [ˈbælənsʃi:t] *n* *mol.* balans (*ma'lum bir muddat mobaynidagi kirimchiqim, daromad-buromad va h. k. ning yakuniy nisbati*)
- balance-step** [ˈbæləns,step] *n* *harb.* parad-da tantanali qadam tashlab yurish
- balance weight** [ˈbælənsweɪt] *n* *tex.* posangi
- balance-wheel** [ˈbælənswi:l] *n* soat kappiri
- balconied** [ˈbælkəniəd] *a* balkonli
- balcony** [ˈbælkəni] *n* *me'mor.* balkon
- bald** [bɔːld] *a* sochi yo'q, yaltirbosh, sochi to'kilgan, kal, sochsiz
- baldachin** [ˈbɔːldækm] *n* choyshab
- baldachin** [ˈbɔːldækm] = baldachin
- bald-coot** [ˈbɔːldku:t] *n* *zool.* qashqaldoq (*qush*)
- balderdash** [ˈbɔːldədəʃ] *n* bema'ni (*bo'lma-g'ur*) gap, safsata
- bald-headed** [ˈbɔːldˈhedɪd] *a* 1) sochi yo'q, yaltiroq, kal, sochsiz; 2) qashqa (*hayvonlar haqida*)
- baldicoot** [ˈbɔːldɪku:t] = bald-coot
- baldly** [ˈbɔːldli] *adv* yashirmasdan, ro'yi-rost, ochiqdan ochiq, dangal
- baldness** [ˈbɔːldnəs] *n* kallik, boshida sochi yo'qlik, sochi to'kilganlik
- baldric** [ˈbɔːldrɪk] *n* tasma, qayish
- bale** [beɪl] 1. *n* bog'lam, taxlam, to'p, toy, tugun, bo'xcha, g'aram, dasta; *cotton* -s

paxta toylari; 2. v g'aram qilmoq; toy qilib to'plamoq, bir yerga uymoq
baleen [bə'li:n] *n* kit mo'yi (*kitlarning og'zidagi muguz plastinka*)
balefire ['beɪl,fəɪ] *n* 1) signal chirog'i; 2) guixan
baleful ['beɪfl] *a* yovuz, yomon, serjahl
balk [bɔ:k] 1. *n* to'siq, xalal, xalaqit; 2. *v* 1) xalal bermoq, to'sqinlik qilmoq; 2) o'jarlik qilmoq, qaysarlik qilmoq (*ot haqida*)
Balkan ['bɔ:lkan] *a* botqonga oid
balky ['bɔ:kɪ] *n* o'jar, qaysar (*hayvonlar haqida*)
ball [bɔ:l] *n* 1) koptok; 2) bal (*raqs kechasi*)
ballad [bæləd] *n* adab. ballada (*she'r bilan yozilgan kichkina qissa*)
ballad-monger ['bæləd,mɪŋgə] *n* tar. ballada muallifi yoki sotuvchisi
balladry ['bælədri] *n* esk. xalq balladalari va ularning usullari
ballast ['bæləst] *n* posangi yuk
ball-bearing [bɔ:l'beərɪŋ] *n* tex. sharikli podshipnik
ball-cartridge [bɔ:l'kɑ:trɪdʒ] *n* *harb.* o'qi (o'qi bor) patron
ballerina [bælə'ri:nə] *n* balerina, balet raqqosasi
ballet ['bæleɪ] *n* balet (*sahna raqsi*)
ballet-dancer ['bæleɪ,dɑ:nseɪ] *n* balerina; balet raqqosasi
ballet-master ['bæleɪ,mɑ:stə] *n* baletmeyster (*raqslarni sahnalashtiruvchi*)
balletomane ['bæleɪtəumeɪn] *n* balet ishqiboz
ballistic [bə'ɪstɪk] *a* ballistik (*erkin otilgan jism trayektoriyasi bo'ylab uchadigan raketa*); *a* ~ rocket ballistik raketa
ballistics [bə'ɪstɪks] *n* *pl* ballistika (*o'q-snarvudlarning harakat qonunlari haqidagi fan*)
balloon [bə'lu:n] 1. *n* havo shari; 2. *v* havo sharida ko'tarilmoq
balloon-car [bə'lu:nkɑ:] *n* aerostat gandalasi
balloonist [bə'lu:nɪst] *a* havodan yengil apparatlarda uchuvchi
balloon tire [bə'lu:n,təɪə] *n* ballon (*shina*)
ballot ['bælət] 1. *n* 1) saylov bulleteni; yashirin ovoz berish; 2) ovoz berish, ovozga qo'yish, saylash; *by secret* ~ yashirin ovoz berish yo'li bilan; 2. *v* ovoz bermoq; ovozga qo'yimoq
ballot-box ['bælət,bɒks] *n* saylov qutisi
ballot-paper ['bælət,pəɪpə] *n* saylov bulleteni
ball-point pen [bɔ:l'pɔɪnt'pen] *n* sharikli ruchka

ball-room ['bɔ:lru:m] *n* raqs zali
ballyhoo [ˌbæli'hu:] *n* shov-shuv, shovqin-suron, g'ala-g'ovur
ballyrag ['bælræg] *v* (qo'pol) qaltis hazil qilmoq
balm [bɔ:m] *n* malham dori
balm-cricket ['bɔ:m,kri:kɪt] *n* chirildoq (*hasharot*)
balmy ['bɔ:mi] *a* hidi yaxshi, xushbo'y, muattar
balneology [ˌbælnɪ'ɒlədʒɪ] *n* *tib.* balneologiya (*tabiiyotning mineral suv va loy-balchilqlar xususiyati va ular vositasida davolash bilan shug'ullanadigan bo'limi*)
baloney [bə'leɪni] *n* ahmoqona narsa, bo'lmag'ur (*bema'ni*) narsa
balsa ['bɔ:lsə] *n* balza (*daraxt*)
balsam ['bɔ:lsəm] *n* malham dori
baluster ['bæləstə] *n* naqshinkor (*jimjimador*) g'o'lacha, ustuncha (*panjara va shu kabilar uchun ishlatiladi*)
balustrade [ˌbælə'streɪd] *me'mor.* zina-poya dastagi
ban [bæm] *v* aldamoq
bamboo [ˌbæm'bu:] *n* *bot.* bambuk (*tropik va subtropik mamlakatlarda o'sadigan, tanasi qamishga o'xshash, ichi kovak, bo'yi baland o'simlik*)
bamboozle [bæm'bu:zl] *v* aldamoq, chalg'itmoq; yolg'on gapirmoq
ban [bæn] 1. *n* man etish; 2. *v* man etmoq
banal [bæ'neɪl] *a* ko'p chaynalgan
banality [bæ'neɪlɪtɪ] *n* ko'p chaynalganlik
banana [bə'nɑ:nə] *n* *bot.* banan (*tropik mamlakatlarda o'sadigan baland o'simlik*)
band [bænd] 1. *n* 1) tasma, lenta; 2) odamlar guruhi; 3) orkestr 2. *v* 1) bog'lamoq; 2) bir-lashtirmoq
bandage ['bændɪdʒ] 1. *n* 1) yara bog'laydigan doka; 2. *v* bog'lamoq
bandana [bæn'dæneɪ] = **bandanna**
bandanna [bæf'dæneɪ] *n* turli rangdagi dastro'mol (*ro'molcha*)
bandbox [bændbɒks] *n* karton (*shlapa, lenta va b.*)
bandeau [bændəʊ] *n* *fr.* (*pl -x [-z]*) sochga o'raydigan lenta
bandeaux [bændəʊz] *pl of* bandeau
banded ['bændɪd] *a* hoshiyali
banderol(e) [ˌbændə'reʊl] *n* vimpel (*1. harbiy kemalarda: uzun va ensiz bayroqcha, taniqlik belgisi; 2. umuman, biror narsaning ramzi bo'lgan buyroqcha*)
band-iron [ˌbænd,aɪrən] *n* *tex.* tasma temir
bandit ['bændɪt] *n* (*pl -ɪttɪ [-ɪ:tɪ]*) bosqinchi
bandog [bændɒg] *n* zanjirband (*zanjirdagi*)
it

- bandoleer** [ˈbændəˈliə] *n* *harb.* patron sumka
- bandolero** [ˈbændəˈlirəʊ] *isp.* (*pl* -os [-əʊz]) bosqinchi
- bandolier** [ˈbændəˈliə] = **bandoleer**
- bandoline** [ˈbændəliːn] *n* fiksatur (*sochni silliqlash uchun surtiladigan moy*)
- band-saw** [ˈbændsɔː] *n* tasma arra
- bandsman** [ˈbændzsmən] *n* (*pl* -men [-mən]) orkestr musiqachisi
- band-wagon** [ˈbænd,wæɡən] *n* *amer.* orkestrli soyahon arava yoki yuk mashinasi
- bandy** [ˈbændi] **1.** *v* aytishmoq; **2.** *a* qiyshiq
- bandy-legged** [ˈbændiˈlegd] *a* oyogʻi qiyshiq
- bane** [beɪn] *n* achchiq, zahar, zaharli narsa
- baneful** [ˈbeɪnfʊl] *a* halokatli; falokatli
- banewort** [ˈbeɪnwɔːt] *n* *bot.* ayiqtovon
- bang** [bæŋ] **1.** *n* urish; **2.** *v* urmoq
- banger** [ˈbæŋə] *n* 1) kolbasa, sosiska; 2) mushak; 3) eski avtomobil
- bangle** [ˈbæŋɡl] *n* (*bilakka taqiladigan*) bilaguzuk
- bang-up** [ˈbæŋʌp] *a* birinchi darajali
- banian** [ˈbæniən] *n* savdogar hindu
- banish** [ˈbæniʃ] *v* 1) haydamoq, quvmoq, quvib yubormoq; 2) quvgʻin qilmoq
- banishment** [ˈbæniʃmənt] *n* haydash, quvish, quvgʻin qilish
- banister** [ˈbænistə] *n* *pl* panjara (*zinada*)
- banjo** [ˈbændʒəʊ] *n* (*pl* -os, -oes [-əʊz]) *mus.* banjo (*musiqa ashobi*)
- bank** [bæŋk] **1.** *n* 1) qirgʻoq (*daryoda*); 2) bank; **2.** *v* bankka pul qoʻymoq
- bankable** [ˈbæŋkəbl] *a* *mol.* hisobga olishga yaraydigan
- bank-bill** [ˈbæŋkbɪl] *n* *mol.* bank bileti
- bank-book** [ˈbæŋkbʊk] *n* *mol.* 1) bank daf-tarchasi; 2) shaxsiy hisob raqami
- banker** I [ˈbæŋkə] *n* 1) bankir, bankchi (*bank egasi yoki xususiy bankka sherik boʻlgan yirik aksiyador*); 2) bank xizmatchisi; 3) *qarta oʻyinida*: bank qoʻygan oʻyinchi
- banket** [ˈbæŋkɪt] *n* *konch.* tuproq (yoki shagʻal) koʻtarma
- banking** [ˈbæŋkɪŋ] *n* bank ishi
- banking-house** [ˈbæŋkɪŋhaʊs] *n* bank
- bank-note** [ˈbæŋknəʊt] *n* qogʻoz pul
- bank-rate** [ˈbæŋkreɪt] *n* bank hisobi
- bankrupt** [ˈbæŋkrʌpt] **1.** *n* qarzdor boʻlgan odam; **2.** *a* qarzdor boʻlgan
- bankruptcy** [ˈbæŋkrʌptsi] *n* sinish, qarzdorlikni toʻlay olmaslik
- bankseat** [ˈbæŋksi:t] *n* koʻprik tirgagi
- banksman** [ˈbæŋksmən] *n* *togʻ.* (*pl* -men [-mən]) konning ogʻzida ishlaydigan ishchi
- banner** [ˈbænə] **1.** *a* namunaviy; **2.** *n* bayroq; **the ~ of peace (freedom)** tinchlik (ozodlik) bayrogʻi
- banner-bearer** [ˈbænə,beərə] *n* bayroqdor, bayroqchi
- banner-cry** [ˈbænəkraɪ] *n* jangovar xitob, jangovar chaqiriq
- bannerette** [ˈbænəˈret] *n* bayroqcha, kichkina bayroq
- bannock** [ˈbænək] *n* *shotl.* (*suli, arpa yoki noʻxat unidan tayyorlangan*) katta non
- banns** [bænz] *n* *pl* nikohdan oʻtadiganlar nomlarini cherkovda oʻqib eshittirish
- banquet** [ˈbæŋkwɪt] *n* **1.** *n* ziyofat, bazm; **2.** *v* (*nimaningdir sharofatiga*) ziyofat bermoq
- banquette** [bæŋˈket] *n* koʻtarma, tepalik
- bantam** [ˈbæntəm] **1.** *a* mayda, kichik, pakana; **2.** *n* bantamka (*mayda, katta boʻl-maydigan tovugʻ*)
- bantam-weight** [ˈbæntəmweɪt] *n* *sport.* eng yengil vazn
- banter** [ˈbæntə] **1.** *n* muloyim (yoqimli) hazil qilish **2.** *v* muloyim (yoqimli) hazil qilmoq
- banting** [ˈbæntɪŋ] *n* parhez usuli bilan davolash
- banyan** [ˈbænjən] *n* Hindistonda oʻsadigan shoxlari katta daraxt
- baobab** [ˈbeɪəbæb] *n* baobab (*tanasi yoʻgʻon tropik daraxt*)
- bar** [bær] *n* *shotl.* bulochka, bulka
- baptism** [ˈbæptɪzəm] *n* choʻqintirish (*xristian diniga kiritish*)
- baptismal** [ˈbæpˈtɪzml] *a* choʻqintirishga oid
- baptist** [ˈbæptɪst] *n* choʻqintiruvchi
- baptize** [ˈbæptəɪz] *v* 1) choʻqintirmoq; 2) nom qoʻymoq
- bar** [baː] **1.** *n* 1) metall tasmasi, boʻlagi; 2) toʻsiq; 3) bar; 4) bufet; 5) tamaddixon
- barb** [baːb] *n* *bot.* qiltiq, qiltanoq
- barbarian** [baːˈberɪən] **1.** *n* nodon, johil; **2.** *a* vahshiyona
- barbaric** [baːˈbærɪk] *a* dagʻal, qoʻpol, toʻng, xunuk
- barbarism** [baːˈbærɪzəm] *n* johillik
- barbarity** [baːˈbærɪti] *n* 1) qahri qattqlik, berahmlilik, yovuzlik, johillik; 2) qoʻpoflik
- barbarous** [baːˈbərəs] *a* yovvoyi, vahshiy
- barbate** [ˈbaːbeɪt] *a* *zool.* qiltikli, serqiltiq, sertuk, qiltirliqli
- barbecue** [ˈbɑːbɪkjʊː] *n* butunlay qovurilgan (*qoʻy yoki mol*) goʻshti; **2.** *v* goʻshtni butunligicha qovurmoq
- barbed** [baːbd] *n* tikanakli; **a** ~ wire tikanli sim

barbel [ˈbɑːbl] *n* *zool.* soʻzanbaliq; ninabaliq
bar-bell [ˈbɑːbel] *n* *pl sport.* shtangu
barber [ˈbɑːbər] *n* sartarosh
barberry [ˈbɑːbəri] *n* *bot.* zirk (*daraxti va mevasi*)
bard [bɑːd] *n* *tar.* bard (*qadimgi keltlarda: kuychi shoir, baxshi*)
bardic [ˈbɑːdɪk] *a* *tar.* bardlarga oid
bare [beə] **1.** *a* yalangʻoch, ochiq; **2.** *v* yechmoq, ochmoq, koʻrsatmoq
bareback [beəˈbæk] *a* egarlanmagan, egarsiz
barefaced [beəˈfeɪst] *a* 1) ochiq yuz bilan, niqobsiz; 2) uyatsiz
barefoot [ˈbeəfʊt] **1.** *a* yalangoyoq; **2.** *adv* yalangoyoq holda
bare-headed [beəˈhedɪd] boshyalang, bosh kiyimsiz
barelegged [beəˈlegd] *a* yalangoyoq, oyoq kiyimsiz
barely [ˈbeəli] *adv* zoʻrgʻa, bazoʻr, arang
barenecked [beəˈnekt] *a* yalangʻoch (ochiq) boʻyin bilan
bareness [beənəs] *n* ochiqlik, yopilmaganlik, berkitilmaganlik
baresark [beəsɑːk] *a* quturgan, achchigʻi tez
bar-fly [ˈbɑːflaɪ] *n* *soʻzl.* bar (mayxona)ning hozir-u noziri
bargain [ˈbɑːɡɪn] **1.** *n* savdo shartnomasi (bitimi); **2.** *v* savdolashmoq
bargainer [ˈbɑːɡɪnə] *n* savdogar, doʻkondor
barge [bɑːdʒ] *n* barja (*shatakka olib yuriladigan yoki oʻziyurar yassi yuk kemasi*)
bargee [bɑːˈdʒiː] *n* barka (yuk tashiydigan yassi daryo kemasi)ga oid
bargeman [ˈbɑːdʒmən] *n* (*pl* -men [-mən]) barja (barka) jamoasi aʼzosi
baric [ˈbæɪrɪk] *a* 1) *kim.* bariyga oid, bariyli; 2) barometrik (*atmosfera bosimiga oid*)
baritone [ˈbæɪrɪtəʊn] *v* *mus.* bariton (*1. tenor bilan bas oraligʻidagi erkaklar ovozi; 2. shunday ovoqli qoʻshiqchi; 3. puflab chalinadigan musiqa asbobi*)
barium [ˈbeəriəm] *n* *kim.* bariy
bark [bɑːk] **1.** *n* 1) daraxt poʻstlogʻi; 2) vovullash, akillash; 3) kema; **2.** *v* 1) daraxtning poʻstlogʻini shilib olmoq; 2) vovullamoq, akillamoq
barkeeper [ˈbɑːkiːpə] *n* *amer.* 1) bar sohibi; 2) bar xizmatchisi
barken [ˈbɑːkən] *v* (*terini*) oshlamoq, oshlab qoʻymoq
barker [ˈbɑːkə] *n* baqiroq odam, eʼlonchi, chopar
barkery [ˈbɑːkri] *n* teri oshlash zavodi
barking [ˈbɑːkɪŋ] **1.** *n* 1) shilish; 2) vovullash; akillash; **2.** *a* vovullayotgan, akillayotgan

bark-pit [ˈbɑːkpiːt] *n* teri oshlaydigan togʻ ora
barley [ˈbɑːli] *n* *bot.* arpa
barleycorn [ˈbɑːlɪkɔːn] *n* arpa doni
barley sugar [ˈbɑːliˌʃʊgə] *n* obaki, obakidandon
barley-water [ˈbɑːliˌwɔːtə] *n* arpa qaynatmasi
barling [ˈbɑːlɪŋ] *n* xodacha, tayoq
barm [bɑːm] *n* (*pivo*) achitqisi
barmaid [ˈbɑːmeɪd] *n* bufetchi ayol
barman [ˈbɑːmən] *n* (*pl* -man [-mən]) barda ishlaydigan erkak
barmy [ˈbɑːmi] *a* koʻpikli, koʻpigi bor, serkoʻpik
baron [bɑːn] *n* 1) omborxonona, ombor, ximmon, saroy; 2) depo, garaj; **a** car ~ *amer.* tramvay parki
barnacle [ˈbɑːnəkl] *n* tikan, tikanak; tishlamasligi (baqirmasligi) uchun ogʻizga tiqib qoʻyiladigan latta, yogʻoch (*oʻynoqi otlarda*)
barn-door [ˈbɑːnˈdɔː] *n* omborxonona darvozasi
barnstorm [ˈbɑːnstɔːm] *v* saroyda tomosha koʻrsatmoq (*sayyor aktyorlar toʻgʻrisida*)
barograph [ˈbærəɡrɑːf] *n* barograf (*atmosfera bosimini oʻzi yozib turadigan asbob*)
barometer [bæˈrɒmɪtə] *n* barometr (*atmosfera bosimini oʻlchovchi asbob*)
barometric(al) [ˈbɑːrəˈmetrɪk(əl)] *a* barometrga (*atmosfera bosimiga*) oid
baron [ˈbærən] *n* baron, grafdan quyi unvon va shu unvondagi kishi
baronage [ˈbærənɪdʒ] *n* baronlik, baron unvoni
baroness [ˈbærənəs] *n* baronessa (*baronning qizi yoki xotini*)
baronet [ˈbærənɪt] **1.** *n* baronet (unvon); **2.** *v* baronet unvonini bermoq
baronetcy [ˈbærənɪtsɪ] *n* baronet unvoni
baronial [bæˈrɒniəl] *a* baronga oid, baronlik, baron
barony [ˈbærəntɪ] *n* baron mulki
baroque [bæˈrɒk] *n* *san.* (*the* ~) barokko (*sanʼatda, xususan, meʼmorchilikda: XVI–XVIII asrlarda rasm boʻlgan serhasham hadiiy uslub*)
baroscope [ˈbærəskəʊp] *n* *fiz.* baroskop (*atmosfera bosimini oʻlchaydigan asbob*)
barouche [bæˈruːʃ] *n* lando (*toʻrt kishilik buklama soyabonli arava*)
barque [bɑːk] *n* uch, toʻrt yoki besh machtali suzish kemasi
barrack [ˈbærək] **1.** *n* 1) barak (*yengil-yelpi qurilgan yogʻoch uy*); 2) kazarma (*harbiy qismlarda*); **2.** *v* 1) kazarmalarga joylashtirmoq; 2) baqirib birovning gapini boʻl-

- moq; 3) biror kimsa *yoki* narsani qo'lib-quvvatlayotganligini ko'rsatish uchun baqirmoq
- barracoota** [ˌbærəˈku:tə] = **barracuda**
- barracuda** [ˌbærəˈku:də] *n zool.* dengiz cho'rtan balig'i
- barrage** [ˈbærɪdʒ] *n* to'siq, g'ov
- barrator** [ˈbærətə] *n* g'iybatchi, ig'vogar
- barratry** [ˈbærətɹɪ] tuhmat, g'iybat
- barrel** [ˈbærəl] **1. n** 1) bochka; 2) barrel (*su-yuq, sochiladigan va ayrim qattiq materiallar o'lchov birligi*); **2. v** bochkalarga quy-moq
- barrel-head** [ˈbærəlhed] *n* bochkaning tagi
- barrel-roll** [ˈbærəlɹəʊl] *n av.* bochka (*o'liy pilotaj figurasi*)
- barren** [ˈbærən] **1. a** hosilsiz, hosil (meva) bermaydigan; **2. n** hosilsiz yer
- barricade** [ˌbærɪkeɪd] **1. n** 1) barrikada (*chep*); **2)** to'siq, g'ov; **2. v** barrikada qurmoq, chep bog'lamoq
- barrier** [ˈbærɪə] **1. n** g'ov, to'siq; **2. v** to's-moq
- barring** [ˈbɑ:ɹɪŋ] **1. prep.** ...dan tashqari; **2. n tex.** (*mashinani*) ishga tushirish
- barrister** [ˈbærɪstə] *n* advokat
- barrow** [ˈbærəʊ] *n* zambilg'altak, g'altak arava
- barrow-boy** [ˈbærəʊbɔɪ] *n* ko'cha savdogari
- bartender** [ˈbɑ:tendə] *n amer.* bar xodimi
- barter** [ˈbɑ:tə] **1. n** 1) ayirboshlash; **2)** ayirboshlashga asoslangan savdo; **2. v** ayirbosh-lamoq
- bartizan** [ˈbɑ:tɪzæn] *n tar.* soqchilar mino-rasi
- barton** [ˈbɑ:tən] *n* qo'rg'oncha
- baryta** [ˈbæˈrɪtə] *n kim.* bariy oksidi
- barytone** [ˈbærɪtəʊn] *n* bariton (*ovoz va musiqa asbobi*)
- basal** [ˈbeɪsəl] **a** 1) zaminida yotgan; **2)** aso-siy, muhim
- basalt** [ˈbæsoʊlɪt] *n min.* bazalt (*shishasimon vulkanik tog' jinsi*)
- basaltic** [ˈbæˈsoʊlɪk] **a min.** bazaltga oid.
- bascule** [ˈbæskju:l] *n* ko'prikning ko'tarila-digan tomoni
- bascule-door** [ˈbæskju:fdɔ:] *n* ko'tarma dar-voza
- base** [beɪs] **1. a** pastkash, yaramas; **2. n** 1) asos, tub, tag, ost; **2)** bilim, manba, asos; **3)** baza, boshqarma; **4)** harbiy baza; **3. v** asos solmoq; (**on/upon**) asoslanmoq
- baseball** [ˈbeɪsbɔ:l] *n sport.* beysbol
- baseboard** [ˈbeɪsbɔ:d] *n qur.* plintus (*de-vorning pastida pol chetiga qoqiladigan ingichka taxta*)
- base frequency** [ˌbeɪsˈfri:kwənsɪ] *n fiz.* xu-susiy chastota
- baseless** [ˈbeɪsləs] **a** asossiz, dalilsiz, asos-lanmagan
- basely** [ˈbeɪsli] *adv* razilona, vijdonsizlarcha
- basement** [ˈbeɪsmənt] *n* 1) asos, manba; **2)** eng pastki, poydevorda qolib ketgan qat-vat; **3)** yerto'la; **4)** zamin, poydevor
- bash** [bæʃ] **1. n** zarba; **2. v** 1) urmoq; **2)** qat-tiq zarba bermoq
- basher** [ˈbæʃə] *n amer.* qotil, bosqinchi
- bashful** [ˈbæʃfl] **a** uyatchan, tortinchoq, kam-tarin
- bashing** [ˈbæʃɪŋ] *n* savalash, qamchilash, urish
- basic** [ˈbeɪsɪk] **a** asosiy, bosh, eng muhim; **a** ~ **instruction** asosiy kurs (*o'qitish jarayo-nida*); **literacy** ~ savod chiqarish manbayi (asosi)
- basicity** [beɪˈsɪsɪtɪ] *n kim.* valentlik, asosiy-lik
- basil** [ˈbæzi] *n bot.* rayon
- basilica** [ˈbæˈzɪlɪkə] *n* bazilika (*ichki qismi qator ustunlar bilan bir nechta qismga bo'lingan hino*)
- basilisk** [ˈbæɪsɪlɪsk] **1. n** afs. ajdaho; **2. a** za-harli
- basin** [ˈbeɪsɪn] *n* tos, jom, tog'oracha
- basinet** [ˈbæɪsɪnət] *n* po'latdan qilingan du-bulg'a, temir qalpoq
- basis** [ˈbeɪsɪs] *n* 1) asos, zamin; **2)** asosiy (tarkibiy) qism
- bask** [bɑ:sk] **v** 1) isinmoq (*quyoshda, o'tda*); **2)** rohatlanmoq (*tinchlikdan, baxtdan*)
- basket** [ˈbɑ:skɪt] **1. n** savat; **2. v** keraksiz narsalarni savatga tashlamoq
- basket-ball** [ˈbɑ:skɪtbɔ:l] *n sport.* basketbol
- basketful** [ˈbɑ:skɪtful] *n* nima bilandir to'la savat
- basketry** [ˈbɑ:skɪtrɪ] *n* to'qish, o'rish, to'qil-gan (savat) buyumlar
- basket-work** [ˈbɑ:skɪtwɜ:k] = **basketry**
- Basque** [bæsk] **1, n** 1) basklar; **2)** bask tili
- 2. a** basklarga oid
- bas-relief** [ˌbæstriˈli:f] *n* barelyef (*tekis yu-zaga ishlangan bo'rma naqsh*)
- bass** [bæs] *n zool.* olabug'a (*balig*)
- basset** [ˈbæsɪt] *n* taksa (*ining bir turi*)
- basso** [ˈbæsəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) muz. bas (*ovoz*)
- bassoon** [bæˈsu:n] *n* fagot (*yog'ochdan ya-salgan surnaysimon musiqa asbobi*)
- bass-viol** [ˌbeɪsˈvaɪəl] *n* violonchel (*skrip-kasimon katta musiqa asbobi*)
- bass-wood** [ˈbæswɔd] *n bot.* jo'ka (lipa) da-raxti

- bast** [bæst] *n* tola, po'stloq (*kanop, zig'ir va sh. k. o'simliklar poyusining tolası*)
- bastard I** [ˈbæstəd] *n* nikohsiz tug'ilgan bola, haromi
- bastard II** [ˈbæstəd] *n* bot. duragay, cha-tishma
- bastardize** [ˈbæstədɪz] *v* nikohsiz tug'ilgan deb e'lon qilmoq
- bastardy** [ˈbæstədi] *n* bolaning nikohsiz tug'ilishi
- baste** [beɪst] *vt* 1) qovurish paytida qozonga yog' quymoq; 2) urmoq, yanchmoq
- bastille** [bæˈsti:l] *n* fr qal'a, qamoqxona
- bastinado** [ˌbæstɪˈneɪdəʊ] 1. *n* (*pl* -ous [-əʊz]) kaltak bilan urish (*asosan, oyoqning kaftiga; sharqdagi jazolash usuli*); 2. *v* kaltak bilan urmoq (*asosan, oyoqning kaftiga*)
- bastion** [ˈbæstɪən] *n* *harb.* qo'rg'on
- bat** [bæt] 1. *n* 1) *zool.* ko'rshapalak; 2) so'yil, to'qmoq; 2. *v* tayoq (so'yil, to'qmoq) bilan urmoq
- batata** [bæˈtɑ:tə] *n* batat (*janub o'simligi-ning bir turi va uning kartoshka ta'mli shi-rin ildiz mevasi*)
- bat-blind** [ˈbætblaɪnd] *a* butunlay ko'rmaydigan
- batch** [bætʃ] *n* bir yo'la pishiriladigan non miqdori
- batcher** [ˈbætʃə] *n* *tex.* bunker; ta'minlagich
- batfowl** [ˈbætfəʊl] *v* qushlarni tunda yorug'lik bilan ko'zini qamashtirib, yog'och bilan urib ovlamoq
- bath** [bɑ:θ] *n* (*pl* *baths* [bɑ:ðz]) 1) vanna; 2) cho'milish (*vannada*); **to have (to take) a ~** (*vannada*) cho'milmoq; 3) hammom; cho'miladigan joy
- Bath chair** [ˈbɑ:θtʃeə] *n* kasallar uchun g'il-dirakli kreslo
- bathe** [beɪð] 1. *n* cho'milish; 2. *v* cho'milmoq
- bather** [ˈbeɪðə] *n* cho'miluvchi
- bath-house** [ˈbɑ:θhaʊs] *n* hammom
- bathing** [ˈbeɪðɪŋ] *n* cho'milish
- bathos** [ˈbeɪθɒs] *n* chuqurlik, jar
- bathrobe** [ˈbɑ:θrəʊb] *n* cho'milish xalati
- bath-room** [ˈbɑ:θru:m] *n* vannaxona
- bath-tub** [ˈbɑ:θtʌb] *n* vanna
- bathyscaphe** [ˈbæθɪskæf] *n* batiskaf (*suv ostida harakat qiladigan mexanizmlı suv ostı kamerası*)
- bathysphere** [ˈbæθɪsfɪə] *n* batisfera (*simli kanop orqali tushirilgan suv ostı kame-rası*)
- bating** [ˈbeɪtɪŋ] *prep.* ...dan boshqa, ...dan tashqari
- batiste** [bæˈtɪst] *n* batist (*gazlama*)
- batman** [ˈbætɪnən] *n* *harb.* navkar, chopar
- baton** [ˈbæton] 1. *n* politsiya tayog'i; 2. *v* tayoq bilan urmoq (*politsiyachi haqida*)
- batsman** [ˈbætsmən] *n* to'pni urib qay-taruvchi (*kriketda va beysbolda*)
- battalion** [bæˈtæliən] *n* 1) *harb.* batalyon; 2) *amer.* artilleriya, divizion
- batten** [ˈbætn] 1. *n* polbop taxta, pol taxta; 2. *v* 1) pol qoqmoq; 2) yaxshi boqilib se-mirmoq
- batter** [ˈbætə] 1. *n* ko'pirtirilgan xamir; 2. *v* qattiq urmoq
- battered** [ˈbætəd] *n* ko'p urilgan
- battery** [ˈbætəri] *n* batareya; akkumulator (*asosan, avtomashinada*)
- batting** [ˈbætɪŋ] *n* vatin (*astar bilan avra orasiga qo'yiladigan matı*)
- battle** [ˈbætl] 1. *n* urush, kurash, olishish, jang; 2. *v* jang olib bormoq; kurashmoq
- battle-array** [ˈbætləˈreɪ] *n* jangovar tartib
- battle-axe** [ˈbætlæks] *n* jangovar bolta
- battlecraft** [ˈbætlkrɑ:ft] *n* harbiy mahorat
- battle-cruiser** [ˈbætlkru:zə] *n* safdagi krey-ser
- battle-ery** [ˈbætlkraɪ] *n* jangovar shior
- battledore** [ˈbætlɔ:ə] *n* g'ola, o'qlog'i, jo'va
- battle dress** [ˈbætlɔ:dres] *n* *harb.* safar kiyimi
- battle-field** [ˈbætlfi:ld] *n* urush (jang) may-doni
- battle-fleet** [ˈbætlfi:t] *n* safdagi flot
- battle-ground** [ˈbætlgraʊnd] *n* harbiy hara-akatlar maydoni
- battlement** [ˈbætlmənt] *n* dandanali devor
- battle-order** [ˈbætlɔ:ɔ:ɔ] *n* *harb.* 1) jango-var tartib; 2) harbiy buyruq
- battle-piece** [ˈbætlpi:s] *n* urush manzaralari tasvirlangan rasm
- battle-plane** [ˈbætlpleɪn] *n* av. jangovar samolyot
- battler** [ˈbætlə] *n* 1) jangchi; 2) chidamli bokshi
- battle-seasoned** [ˈbætlˈsi:znd] *a* 1) urushni ko'rgan, jangda chiniqqan, jangga o'rganib qolgan; 2) ko'pni ko'rgan, boshidan ko'p narsa kechirgan, tajribali
- battleship** [ˈbætl,ʃɪp] *n* jangovar kema
- battle-tryed** [ˈbætltraɪd] *a* jang tajribasiga ega bo'lgan
- battle-wagon** [ˈbætl,wæɡən] *n* *amer. deng. so'zl.* jangovar kema (*linkor*)
- battue** [bæˈtu:] *fr. n* o'rab (qurshab) olish (*ovda*)
- batty** [ˈbæti] *a* so'zl. aqldan ozgan, jinni, telba
- bauble** [ˈbɔ:bl] *n* 1) arzon taqinchoq; 2) Yan-gi yil archasini bezatish uchun ishlatiladi-gan koptok shaklidagi bezak
- baubling** [bɔ:blɪŋ] *a* arziyas

baulk [bɔ:k] = **balk**
bauxite [ˈbɔ:ksaɪt] *n min.* boksit, aluminiy rudasi
bawd [bɔ:d] *n soʻzl.* 1) qoʻshmachil ayol; 2) fohisha
bawdry [ˈbɔ:drɪ] *n soʻkinish*; haqorat
bawdy [ˈbɔ:di] 1. *n soʻkinish*; 2. *a yaramas, axloqsiz*
bawdy-house [ˈbɔ:dihaʊs] *n fohishaxona*
bawl [bɔ:l] 1. *n qichqiriq, haqiriq*; 2. *v qichqirmoq, baqirmoq*
bay [beɪ] 1. *n* 1) qoʻltiq, koʻrfaz; 2) akillash; 3) toʻriq ot; 4) toʻgʻon; 5) dafna (*daraxti*); 2. *a toʻriq*; 3. *v* 1) uvullamoq (*it haqida*); 2) qatʻiy talab qilmoq
bayonet [ˈbeɪnɪt] 1. *n* multiq nayzasi; 2. *nayza tiqmoq*
bay-salt [ˈbeɪˈsɔ:lt] *n dengiz yoki koʻl choʻkindi tuzi*
bay window [ˈbeɪˈwɪndəʊ] *n meʼmor* tom-dagi oynaband (*oynali tuynuk; deraza va b.*)
baz(a)r [bæˈzɑ:] *n bozor (sharqda)*
bazooka [bæˈzu:kə] *n amer. harb. tankka qarshi qoʻllanadigan „Bazuka“ reaktiv granatamyoti*
be [bi:] *v (sing was, pl were)* boʻlmoq, bor boʻlmoq; **to ~ about to a)** hozirlanmoq **my father is about to go** otam ketmoqchi; **b)** nima bilandir band boʻlmoq; **d)** oyoqqa turmoq; **to ~ at** rejalashtirmoq; **to ~ away** ishtirok etmaslik; **to ~ back** qaytmoq; **to ~ for a)** (*kinningdir yoki nimaningdir*) tarafdori boʻlmoq; **b)** ...ga joʻnamoq; **to ~ in** kelmoq (*poyezd va b.*); **to ~ off** ketmoq; **to ~ on** (*kino, film, teatr tomoshasi*) boʻlmoq, qoʻyilmoq; **to ~ out** uyda boʻlmaslik; **to ~ up a)** tugamoq; **b)** oʻrmondan turmoq
beach [bi:tʃ] 1. *n dengiz boʻyi; plaj*; 2. *v qirgʻoqqa tortib chiqmoq*
beach-comber [ˈbi:tʃ,kɒmə] *n* 1) qirgʻoqqa uriluvchi okean toʻlqini; 2) qirgʻoqdan kerak boʻlib qolishi mumkin boʻlgan narsalar izlab yuradigan odam
beach-head [ˈbi:tʃhed] *n harb. sohildagi plasdarm (desant tushirishda)*
beach-master [ˈbi:tʃ,mɑ:stə] *n harb. dengiz desantini tushirish joyi komendanti*
beacon [ˈbi:kən] *n* 1) mashʼal; 2) mayoq; 3) radio yoki radar signali
bead [bi:d] 1. *n munchoq, marjon*; 2. *v marjon (munchoq) bilan bezatmoq*
beaded [ˈbi:di] *a marjon (munchoq) bilan bezatilgan*
beadfedom [ˈbi:di:dəm] *n rasmiyatchilik*
bead-roll [ˈbi:drɔ:l] *n roʻyxat*
beady [ˈbi:di] *a munchoqqa oʻxshash*

beagle [ˈbi:gl] 1. *n tozi (it)*; 2. *v tozi it bilan ov qilmoq*
beak [bi:k] *n tumshuq (qushlarda va baʼzi hayvonlarda)*
beaked [ˈbi:kt] *a tumshuqli*
beaker [ˈbi:kə] *n menzurka (oʻlchovli shisha idish)*
beam [bi:m] 1. *n* 1) nur; 2) yogʻoch yoki metall toʻsin; 3) (xursandchilikdan) kulimsirash; 2. *v* 1) nur (issiqlik, energiya) sochmoq; 2) xursandchilikdan kulmoq; 3) havo orqali uzoq masofaga radio yoki televizion signal yubormoq
bean [bi:n] *n* 1) bot. loviya (*oʻsimligi va mevasi*); 2) qahva doni
bean-feast [ˈbi:nfi:st] *n korxonaga egasi yilda bir marta oʻz xizmatchilari uchun uyushtiradigan anʼanaviy tushlik*
bean-pod [ˈbi:npɒd] *n loviya dukkagi*
bear [beə] 1. *n* 1) ayiq; 2) qoʻpol, tarbiyasiz odam; 2. *v (bore, borne)* 1) olib bormoq, 2) (*born*) tugʻmoq; 3) chidamoq; **to ~ away** yutib chiqmoq (*sovrin va b.*); **to ~ down** yengib chiqmoq; **to ~ off** chetlashmoq; **to ~ on** tegishli boʻlmoq; **to ~ out** qoʻllab-quvvatlamoq
bearable [ˈbeərəbl] *a chidasa boʻladigan*
bear-baiting [ˈbeə,betɪŋ] *n tozi solib ayiq ovlash*
beard [biəd] *n soqol*
bearded [ˈbiədɪd] *a soqolli, sersoqol*
beardless [ˈbiədləs] *a soqolsiz, koʻsa*
bearer [ˈbeərə] *n* 1) yuklarni tashuvchi; 2) maʼlumot, xat-xabar keltiruvchi odam; 3) pasport va sh. k. rasmiy hujjatlar egasi
beargarden [ˈbeə,gɑ:dn] *n soʻzl. ayiq ovlanadigan joy, ayiqxona*
bearing [ˈbeərɪŋ] 1. *n* 1) olib yurmoq; 2) tugʻish; 3) toqat qilish; 2. *a* 1) olib yuradigan; 2) tugʻadigan
bearish [ˈbeərɪʃ] *a* 1) ayiqqa oid; 2) tarbiya koʻrmagan, qoʻpol
bearskin [ˈbeə,skɪn] *n ayiq terisi*
beast [bi:st] *n hayvon, mol*; **a ~ of burden** yuk hayvoni (*ot, eshak, xachir*); **a ~ of prey** yirtqich hayvon
beastliness [ˈbi:stlɪnəs] *n yaramas ish (xatti-harakat), razolat*
beastly [ˈbi:stli] *a hayvonlarga xos boʻlgan, hayvoniy*
beat [bi:t] *v (beat, beaten)* 1) urmoq, qoqmoq, savalanoq, kaltaklamoq, zarba bermoq; 2) urib qaytarmoq, qarshi zarba bermoq; 3) (*xamirni, tuxumni*) koʻpirtirmoq; 4) (*metallni*) urib toblamoq, bolgʻalamoq; 5) (*gʻilam va b. dan changni*) qoqib chiqarmoq, urib chiqarmoq; 6) yengmoq, zoʻr

(*kuchli*) chiqmoq; 7) o'tib ketmoq, g'olib (zo'r) chiqmoq; 8) *amer.* muttahamlik qilmoq. (*qonun va b. ga*) firib bermoq; **that ~ s me!** tushuna olmadim, anglay olmadim; **to ~ back (off)** (*zarbani, hujumini*) qaytarmoq

beaten [ˈbi:tɪn] *a* 1) urilgan; 2) mag'lubiyatga uchragan

beater [ˈbi:tə] *n* uradigan (kaltaklaydigan) odan

beatific, beatifical [biːtɪfɪk, -əl] *a* g'oyat baxtli, shod-xurran

beatify [biːtɪfaɪ] *v* baxtli qilmoq

beating [ˈbi:tɪŋ] *n* urish, tushirish, tepish, qoqish

beatitude [biːtɪtju:d] *n* baxt-saodat, rohat-farog'at

beau [bəʊ] *n* (*pl beaux* [bəʊz] *yoki beaus*) *fr.* olifta

beauteous [ˈbju:tɪəs] *a* go'zal, juda chiroyli, juda yaxshi

beautician [ˈbju:tiʃn] *n* kosmetolog

beautiful [ˈbju:tɪfəl] *a* chiroyli, ko'rkli, zebo, barno, go'zal

beautify [ˈbju:tɪfaɪ] *v* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq

beauty [ˈbju:ti] *n* go'zallik, chiroylilik, barnolik

beauty parlour [ˈbju:ti,pɑ:lə] *n* kosmetika xonasi

beauty-sleep [ˈbju:tɪslɪ:p] *n* kunduzgi uyqu

beaver I [ˈbi:və] *n* 1) *zool.* suv qunduzi; 2) *tar.* dubulg'a pardasi

- catholicize** [kəˈθɒlsəɪz] *v* katolik mazhabiga kiritmoq
- cat-lee** [ˈkæt,leɪ] *n* yupqa muz
- catkin** [ˈkætkɪn] *n* *bot.* bargak, kuchala (*daraxtlarda*)
- cat-lap** [ˈkætlæp] *n* so'zl. spirtsiz ichimliklar
- cat-like** [ˈkætlɪk] *a* mushukka o'xshash (o'xshagan); mushukka oid
- catling** [ˈkætlɪŋ] *n* *tib. jarg.* kesish (*amputatsiya*) pichog'i
- cat-mint** [ˈkætmɪnt] *n* *bot.* cho'l yalpizi
- catnap** [ˈkætnæp] 1. *n* qush uyqu (*o'tirgan joyda*); 2. *v* nuzg'ib olmoq
- catnip** [ˈkætnɪp] *amer n bot.* cho'l yalpizi
- cat-o'mountain** [ˌkætəˈmaʊntɪn] *n* Yevropa yovvoyi mushugi
- cat-o'-nine-tails** [ˌkætəˈnaɪntetlz] *n* charm darra, o'rma qamchi
- catoptric** [kəˈtɒptrɪk] *a* *fiz. esk.* qaytaradigan, qaytaruvchi
- cat-sleep** [ˈkætsli:p] *n* qush uyqu (*o'tirgan joyda*)
- cat's-meat** [ˈkætsmi:t] *n* mushuk uchun sotib olinadigan ot go'shti
- cat's-paw** [ˈkætspɔ:] *n* birovning qo'lida o'yinchoq (qurol) bo'lish
- catsup** [ˈkætsəp] = **ketchup**
- cattily** [ˈkætɪli] *adv* qasddan, jo'rttaga
- cattish** [ˈkætiʃ] *a* 1) mushukka oid; 2) makkor; 3) yovuz
- cattle** [ˈkætl] *n* (*sigir, ho'kiz kabi*) qoramol; chorva
- cattle-dealer** [ˈkætl,di:lə] *n* mollarni semirtirib sotuvchi, mollurush
- cattle-feeder** [ˈkætl,fi:də] *n* mollarga avtomatik ravishda ozuqa tarqatuvchi mashina
- cattle-grid** [ˈkætlgrɪd] *n* mollarni molxonadan yo'lga chiqish uchun monelik (qarshif) qiladigan moslama
- cattle-leader** [ˈkætl,li:də] *n* mollar burnidan o'tkaziladigan halqa
- cattle-lifter** [ˈkætl,lɪftə] *n* mol o'g'risi
- cattlemán** [ˈkætlmən] *n* (*pl* -men [-mən]) podachi, cho'pon
- cattle-ranch** [ˈkætl,rɑ:ntʃ] *n* 1) chorvachilik fermasi; 2) chorvachilik xo'jaligi
- cattle-rustler** [ˈkætl,rʌslə] *n* *amer.* mol o'g'risi
- catty** [ˈkæti] *n* katti (*Xitoy va Hindistonda 604,82 gr. ga teng bo'lgan og'irlik o'lchovi*)
- Caucasian** [kɔ:ˈkeɪz(j)ən] 1. *a* Kavkazga (*va kavkazliklarga*) oid; 2. *n* kavkazlik
- caucus** [ˈkɔ:kəs] *n* *amer.* partiyaning saylovoldi kengashi
- caudal** [ˈkɔ:dəl] *a* *anat.* dumdagi, orqadagi
- caudate** [ˈkɔ:deɪt] *a* *anat.* dumli, quyruqli
- caudle** [ˈkɔ:dəl] *n* kasallar uchun issiq xush-ta'm ichimlik
- caught** [kɔ:t] *past, p. p. of catch*

caul [kɔ:l] *n* anat. qorindagi bolaning suv qobig'i, pardasi
cauldron ['kɔ:ldrən] *n* qozon, doshqozon
caulescent [kɔ:'les(ə)nt] *a* bot. poyadan chiqqan, poyali, poyasi bor
cauliflower ['kɔ:lɪflaʊə] *n* bot. gulqaram
caulk [kɔ:k] *v* biror narsa bilan teshik-tirqishlarni bekitmoq
caulker ['kɔ:kə] *n* teshik-tirqishlarni berkituvchi usta
causal ['kɔ:z(ə)l] *a* 1) fals. sabab bilan bo'ladigan; 2) gram. sabab...
causality [kɔ:'zælɪtɪ] *n* filos. sababiyat
causation [kɔ:'zeɪʃ(ə)n] *n* sabab bo'lish
causative ['kɔ:zətɪv] *a* sabab bilan bo'ladigan
cause [kɔ:z] 1. *n* sabab; 2. *v* sabab bo'lmoq
causeless ['kɔ:zləs] *a* sababsiz
cause-list ['kɔ:z,lɪst] *n* yur. sudda ko'riladigan ishlar ro'yxati
causer ['kɔ:zə] *n* aybdor, gunohkor
causeway ['kɔ:zweɪ] *n* 1) to'shama yo'l (to'sh yoki boshqa narsa yotqizilgan yo'l); 2) yo'lak; 3) to'g'on, g'ov
causey ['kɔ:zi] = **causeway**
caustic ['kɔ:stɪk] 1. *n* achchiq (o'tkir, o'yuvchi) modda; 2. *a* kim. o'tkir, o'yuvchi
causticity [kɔ:'stɪsɪtɪ] *n* achchiqlik (gap, so'z, kinoya va sh. k. haqida); 2) zaharxandalik; achchiq kinoya (piching, istehzo)
cauterization [kɔ:'tɛrə'zeɪʃ(ə)n] *n* tib. kuydirish
cauterize ['kɔ:təraɪz] *v* tib. kuydirmoq
cautery ['kɔ:təri] *n* tib. kuydirish
caution ['kɔ:ʃ(ə)n] 1. *n* i) ehtiyotkorlik; 2) uzoqni ko'rishlik; 2. *v* ogohlantirib qo'ymoq
cautionary ['kɔ:ʃən(ə)rɪ] *a* ogohlantiruvchi, oldini oluvchi, tanbeh beruvchi
caution board ['kɔ:ʃ(ə)nbɔ:d] *n* xavf-xatar to'g'risida xabar beruvchi (ogohlantiruvchi) yozuv
cautious ['kɔ:ʃəs] *a* ehtiyotkorlik bilan qilingan
cautiously ['kɔ:ʃəsli] *adv* avaylab, ehtiyot qilib, ehtiyotkorona
cavalcade [kæv(ə)'keɪd] *n* kavalkada (sayr qilib yurgan bir to'da otliq; otida birgalashib sayr qilish)
cavalier [kævə'liə] 1. *n* otliq, chavandoz; 2. *a* tortinib o'tirmaydigan (takallufni bilmaydigan)
cavalry ['kæv(ə)rɪ] *n* harb. otliq qo'shin (askarlar), kavaleriya
cavalryman ['kæv(ə)rɪmən] *n* harb. (pl -men [-mən]) otliq askar
cave I [keɪv] 1. *n* g'or; 2. *v* teshmoq, o'ymoq

cave II [keɪv] *n* oldini olish, ogohlantirish
caveat [keɪvɪət] *n* tanbeh, ogohlantirish, oldini olish
cave-dweller ['keɪv,dwelə] *n* g'orlarda yashovchi ibtidoiy odam
cave-man ['keɪvmæn] = **cave dweller**
cavern ['kævɜ:n] *n* g'or
cavernous ['kævənəs] *a* g'orga boy (serob) bo'lgan
caviar (e) ['kævɪə:] *n* ikra (uvildiriqdan tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti)
cavil ['kæv(ə)l] 1. *n* tirnoq ostidan kir qidirish; 2. *v* birovni asossiz ayblamoq
caviller ['kæv(ə)lə] *n* tirnoq ostidan kir izlaydigan odam
cavity ['kævɪtɪ] *n* 1) chuqurcha, chuqur; 2) biror narsaning ichidagi bo'shliq
cavort [kə'vɔ:t] *v* so'zl. sakramoq, irg'imoq
caw [kɔ:] 1. *n* qag'illash, qag'-qag' qilish; 2. *v* qag'illamoq (qarg'a, quzg'un kabi qushlar haqida)
cay [keɪ] *n* marjon qoyalari
cayenne [keɪ'en] *n* qizil qalampir
cayman ['keɪmən] *n* zool. kayman (Markaziy va Janubiy Amerikada yashovchi timsohlarning bir turi)
cease [si:s] 1. *v* to'xtatmoq; 2. *n* to'xtatish
cease-fire ['si:sfaɪə] *n* harb. o't ochishni to'xtatish
ceaseless ['si:sləs] *a* uzluksiz, to'xtamaydigan
cecils ['seslz] *n* pl go'shtli frikadelka (sho'rva pishiriladigan yumaloq qiyma)
cecily ['si:sɪtɪ] *n* ko'rlik, so'qirlik
cedar ['si:də] *n* bot. kedr (ignabargli doim yashil yirik daraxt)
cede [si:d] *v* (maydonni) topshirmoq
ceil [si:l] *v* 1) qoplamoq; 2) suvoq qilmoq, suvamoq
ceiling ['si:lɪŋ] *n* shift
celadon ['selədon] *n* kulrang-ko'kimtir rang yoki dengiz to'lqinining rangi
celandine ['selədaɪn] *n* bot. qoncho'p (xalq tibbiyotida; ba'zi teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik)
celebrant ['selɪbrənt] *n* cherkov ibodatini o'tayotgan (qilayotgan) ruhoni (pop, kashish)
celebrate ['selɪbreɪt] *v* bayram qilmoq, nishonlamoq
celebrated ['selɪbreɪtɪd] *a* mashhur, atoqli
celebration [selɪ'breɪʃ(ə)n] *n* bayram qilish; bayram tantanasi
celebrity [sɪ'lebrɪtɪ] *n* 1) mashhurlik; 2) tanli odam
celerity [sɪ'lerɪtɪ] *n* tezlik, chaqqonlik

celery [ˈsɛləri] *n* bot. selderey (*kashnichsimon oshko'k*)

celestial [sɪˈlestiəl] *a* 1) osmonga (ko'kka) oid, osmondagi, ko'kdagi; 2) astronomik; **a ~ map** osmon yulduzlarining xaritasi

celibacy [ˈsɛlibəsi] *n* nikohsizlik, uylanmaslik (yoki erga tegmaslik) haqidagi ahd

celibatarian [ˌsɛlibəˈte(ə)rɪən] *1. a* nikohdan o'tmagan, nikohsiz, nikohlanmagan; **2. n** uylanmagan kishi, bo'ydoq

celibate [ˈsɛlɪbɪt] *1. n* 1) uylanmagan kishi, bo'ydoq; 2) uylanmaslik ahdini bergan odam, turmushga chiqmaslik ahdini bergan qiz; **2. a** 1) uylanmagan, bo'ydoq; 2) uylanmaslikka (turmushga chiqmaslikka) ahd qilgan

cell [sɛl] *1. n* 1) qamoqxonadagi xona; 2) katak; 3) *biol.* hujayra; **2. v** 1) katakka joylashtirmoq, qamamoq; 2) qamoqda yotmoq

cellar [ˈsɛlə] *1. n* yerto'la; **2. v** vino saqlanadigan yerto'lada saqlamoq

cellarage [ˈsɛlərɪdʒ] *n* 1) yerto'la; 2) yerto'lada saqlash

cellarer [ˈsɛlərə] *n* kelar (*monastir mutasaddisi*)

cellaret(te) [ˌsɛləˈret] *n* safar qutisi (*oziq-ovqat, idish-tovog solib yuriladigan quticha*)

cellist [ˈtʃɛlɪst] *n* violonchelchi, violonchel chaluvchi

cello [ˈtʃɛləʊ] *n* violonchel (*skripkasimon katta musiqa asbobi*)

cellophane [ˈsɛləfem] *n* sellofan (*sellulozadan tayyorlangan material*)

cellular [ˈsɛljələ] *a* hujayraga oid

cellulate [ˈsɛljuleɪt] *a* 1) hujayralardan tarkib topgan; 2) teshik-teshik, serg'ovak

cellule [ˈsɛljʊ:l] *n* *biol.* hujayra

celluloid [ˈsɛljʊləɪd] *n* selluloid (*sellulozadan tayyorlangan qattiq plastik material*)

cellulose [ˈsɛljʊləʊs] *n* selluloza (*yog'ochdan, o'simlikdan olinib, qog'oz, sun'iy ipak, portlovchi narsalar tayyorlash uchun ishlatiladigan modda*)

Celsius [ˈsɛlsɪəs] *n* selsiy termometri, selsiy termometrining shkalasi

Celt [kɛlt] *n* keltlar (*G'arbiy Yevropada yashagan qabilalar*)

celt [sɛlt] *n* *arxeol.* toshdan yoki bronzadan yasalgan uskuna

Celtic [ˈkɛltɪk] *1. a* keltlarga oid; **2. n** kelt tili

celtuce [ˈsɛltəs] *n* selderey (*kashnichsimon oshko'k*) bilan salatning chatishmasi (aralashmasi)

cembalo [ˈtʃɛmbələʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) simbal (*changsimon cholg'u asbobi*)

cement [sɪˈmɛnt] *1. n* sement; **2. v** (*qum va shag'al aralashtirib*) sement quymoq

cementation [ˌsɪːmɛntˈteɪʃ(ə)n] *n* sement quyish, sementlash

cemetery [ˈsɛmɪtri] *n* qabriston, go'riston, mozor

cenotaph [ˈsɛnəːtəf] *n* qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik (*sag'ana, maqbara*); **2**) noma'lum askarga qo'yilgan yodgorlik

cense [sɛns] *v* *cherk.* ladan tutatmoq, ladan solmoq

censer [ˈsɛnsə] *n* ladandon (*ibodat vaqtida ladan tutatadigan idish*)

ensor [ˈsɛnsə] *1. n* nashr qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan material yoki asarlarni nazorat qiluvchi shaxs; **2. v** ko'rib chiqmoq

ensorial [ˈsɛnsəriəl] *a* senzorga oid, senzor

ensorious [ˈsɛnsəriəs] *a* talabchan, qat'iy talab qiladigan

ensorship [ˈsɛnsəʃɪp] *n* nashr qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan material yoki asarlarni nazorat qilish

ensurable [ˈsɛnsərəb(ə)] *a* tanbeh berishga arziydigan

ensure [ˈsɛnsə] *1. n* tanbeh (*berish*); **2. v** tanbeh bermoq

census [ˈsɛnsəs] *n* ro'yxat qilish, ro'yxatga olish; **population** ~ aholini ro'yxatga olish

census-paper [ˈsɛnsəsˌpeɪpə] *n* ro'yxatga olish vaqtida to'ldiriladigan blank

cent [sɛnt] *n* sent (*dollar, gulden, rupiyaning 0,01 qismi*)

centaur [ˈsɛntəʊ] *n* *afs.* kentavr (*yunon afsonalarida: yarmi odam, yarmi ot maxluq*)

centenarian [ˌsɛntɪˈne(ə)rɪən] *a* yuz yillik

centenary [ˈsɛntɪˈni(ə)rɪ] *n* 1) yuz yillik vaqt (muddat); 2) yuz yillik yubiley (*marosim*); 3) yuz yillik yubileyini (*marosimni*) nishonlaydigan kun

centennial [ˈsɛntɪniəl] *a* 1) yuz yillik, yuz yashar; 2) yuz yilda bir marta bo'ladigan

center [ˈsɛntə] *n* *amer.* = **centre**

centering [ˈsɛntərɪŋ] *n* *tex.* markazlashtirish (*markazda joylashtirish*)

centesimal [ˈsɛntɪsɪm(ə)l] *a* 1) yuzinchi, yuzinchi raqamli; 2) yuz qismga bo'lingan; 3) yuz so'mlik, yuz kishilik

centigrade [ˈsɛntɪɡreɪd] *a* 1) yuz darajali; 2) yuz darajaga bo'lingan

caentigram(me) [ˈsɛntɪɡræm] *n* santigramm (*yuzdan bir gramm*)

centime [ˈsɛntɪːm] *n* *fr.* santim (*frankning 0,01 qismi*)

centimeter [ˈsɛntɪˌmɪːtə] *amer.* = **centimetre**

centimetre [ˈsɛntɪˌmɪːtə] *n* santimetr (*metrning yuzdan bir qismi*)

centipede [ˈsentipi:d] *n zool.* mingoyoq
centner [ˈsentnə] *n* sentner (*metrik o'lov*
tizimida 100 kilogrammga teng og'irlik
o'lov birligi)
central [ˈsentrəl] **1.** *a* asosiy, bosh, marka-
 ziy; **2.** *n amer.* markaziy telefon stansiya-
 si
centralization [sentrəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* mar-
 kazlashtirish
centralize [ˈsentrəlaɪz] *v* markazlashtirmoq
centralized [ˈsentrəlaɪzd] *a* markazlashgan
centre [ˈsentə] **1.** *n amer.* **centre**; **1)** markaz;
2) *sport.* markaziy o'yinchi (*hujumchi, hi-*
moyachi va b.); **2.** *attr.* markaziy, markaz-
 dagi; **3.** *v* markazda (markazga) joylashtir-
 moq
centring [ˈsent(ə)rɪŋ] *n* markazlashtirish,
 markazga joylashtirish
centre-piece [ˈsentəpi:s] *n* stol o'rtasidagi
 naqshinkor guldon
centrifugal [ˈsentriˈfju:ɡ(ə)l] *a* markazdan
 qochma yoki qochirma
centrifuge [ˈsentrifju:dʒ] *n* sentrifuga (*mar-*
kazdan qochirma kuch ta'sirida qorishma-
ni mexanik ravishda ajratuvchi asbob)
centring [ˈsent(ə)rɪŋ] = **centering**
centripetal [senˈtrɪpi:təl] *a* markazga intila-
 digan
centuple [ˈsentjup(ə)l] **1.** *a* yuz marta kat-
 talashtirilgan (ko'paytirilgan); **2.** *v* yuzga
 ko'paytirmoq
centuplicate [senˈtju:plɪkət] *n* yuz nusxa
century [ˈsentʃəri] *n* yuz yillik; asr
century plant [ˈsentʃəriˈplɑ:nt] *n bot.* aloy,
 sabur (*o'simlik*)
cephalic [siˈfælik] *a anat.* boshga (miyaga)
 oid
cephalitis [ˌsefəˈlaɪtɪs] *n tib.* ensefalit (*bosh*
miyaning yallig'lanishi)
cephalopoda [ˌsefəˈlɒpədə] *n pl zool.* bosh-
 oyoqlilar
ceramic [sɪˈræmɪk] *a* kulolchilikka oid
ceramics [sɪˈræmɪks] *n 1)* kulolchilik; **2)** ku-
 lolchilik buyumlari
ceramist [sɪˈræmɪst] *n* kulol
cerastes [sɪˈræstɪz] *n zool.* qora ilon
cereal [sɪ(ə)rɪəl] **1.** *n* boshqali g'alla o'sim-
 ligi; **2.** *a* g'allaga (donga) oid
cerebellum [ˌserɪˈbeləm] *n anat.* kichik miya
cerebral [ˈserɪbrəl] *a anat.* miyaga oid
ceribration [ˌserɪˈbreɪʃ(ə)n] *n* miyaning
 faoliyati
cerebrum [ˈserɪbrəm] *n anat.* bosh miya
cercloth [ˈsɛklɒθ] = **cerement**
cerement [ˈsɛmənt] *n* kafan
ceremonial [ˌserɪˈmɔ:niəl] **1.** *a* rasmiy; **2.** *n*
 marosim

ceremonious [ˌserɪˈmɔ:niəs] *a* rasmiy tan-
 tanaga (tantanali marosimga) oid
ceremony [ˈserɪməni] *n* marosim, rasm-ru-
 sum, udum
cerise [səˈri:z] *a* och qizil
cerium [ˈsɪ(ə)rɪəm] *n kim.* seriy (*kimyoviy*
element)
cermet [ˈsɛ:mit] *n tex.* metall buyumlari
ceroplastics [ˌsɪ(ə)rə(ʊ)ˈplæstɪks] *n pl* mum-
 dan narsalar yasash
certain [ˈsɜ:tn] *a* aniq, ma'lum, muqarrar
certainly [ˈsɜ:tnli] *adv* albatta, turgan gap,
 shubhasiz
certainty [ˈsɜ:tnntɪ] *n 1)* shubhasiz dalil, is-
 bot; **2)** ishonch
certificate [səˈtɪfɪkət] **1.** *n 1)* guvohnoma;
2) yozma tasdiqlash; **2.** *v 1)* tasdiqlamoq;
2) guvohlik bermoq, guvohnoma bermoq
certificated [səˈtɪfɪkətɪd] *a* diplom olgan,
 diplomli
certification [ˌsɜ:ˈtɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n 1)* (*dalilni*)
 tasdiqlash; **2)** guvohnoma berish
certify [ˈsɜ:ˈtɪfɪ] *v 1)* tasdiqlamoq; **2)** ishon-
 tirmoq
certitude [ˈsɜ:ˈtɪtju:d] *n 1)* ishonish; **2)** shub-
 ha qilmashlik
cerulean [sɪˈru:lɪən] *n* havorang, moviy; lo-
 juvard, ko'm-ko'k
cerumen [sɪˈru:mən] *n* quloq kiri
ceruse [sɪ(ə)rʊ:s] *n* qo'rg'oshinning oq mi-
 neral bo'yog'i
cervical [ˈsɜ:vɪk(ə)l] *a anat.* **1)** ensaga oid;
2) bo'yinga oid
cervine [ˈsɜ:vɪn] *a* bug'uga oid
cervix [ˈsɜ:vɪks] *n (pl cervixes) anat.* bo'yin
cess [ses] *n* o'lpon; soliq
cessation [seˈseɪʃ(ə)n] *n 1)* to'xtatish; **2)** ta-
 naffus
cession [ˈseʃ(ə)n] *n* yon berish, rozi bo'lish
cesspit [ˈses,pɪt] *n* axlat (*to'kiladigan, tash-*
lanadigan) o'ra
cesspool [ˈsespu:l] *n* suv oqib tushadigan
 (*ketadigan*) quduq
cestoid [ˈsestɔɪd] *n zool.* lentasimon
 chuvalchang
cetacean [sɪˈteɪʃ(ə)n] **1.** *a zool.* kitga oid; **2.** *n*
 kitlar oilasiga mansub bo'lgan hayvon
cetaceous [sɪˈteɪʃəs] *a zool.* kitga o'xshagan
chafe [tʃeɪf] **1.** *n* shilingan joy, chaqa (*ba-*
danda); **2.** *v* ishqalamoq, ishqamoq
chafer [ˈtʃeɪfə] *n zool.* tillago'ng'iz
chaff [tʃɑ:f] **1.** *n 1)* to'pon; **2)** maydalangan
 somon; **2.** *v (poxolni)* maydalamoq, chop-
 moq
chaff-cutter [ˈtʃɑ:f,kʌtə] *n q.x.* poxol qir-
 qich (*poxol, pichan, beda va h. k. qirqadi-*
gan mashina, jodi)

chaffer [ˈtʃɑ:fə] 1. *n* savdolashish; 2. *v* savdolashmoq
chaffinch [ˈtʃæfɪntʃ] *n* zool. zyablik (*sayroqi qush*)
chaffy [ˈtʃɑ:fi] *a* to'pon bilan qoplangan
chafing-dish [ˈtʃeɪfɪndɪʃ] *n* 1) kabob ko'ra; 2) elektrik kastrulka (*termos*)
chafing-gear [ˈtʃeɪfɪŋɡeə] *n* deng. ishqalanishdan saqlash uchun troslarni o'rash; (*troslarning*) himoya o'rovi
chagrin [ˈʃægrɪn] 1. *n* achinish, xafagarchilik; 2. *v* xafa qilmoq, ranjitmoq
chain [tʃeɪn] 1. *n* zanjir; zanjircha; 2. *v* zanjirlamoq
chain-drive [ˈtʃeɪndraɪv] *tex.* zanjirli peredacha (*peredacha – harakati mashinaning bir qismidan boshqa qismiga o'tkazuvchi mexanizm*)
chainlet [ˈtʃeɪnlɪt] *n* zanjircha
chainsmoke [ˈtʃeɪnsməʊk] *v* uzluksiz (*tinmay*) chekmoq
chain smoker [ˈtʃeɪnsməʊkə] *n* ashaddiy chekuvchi
chain-stitch [ˈtʃeɪnstɪtʃ] *n* kashta choki
chain-stores [ˈtʃeɪnstɔ:z] *n pl* amer. bitta firmaning bir xil tipdagi chakana savdo do'konlari
chair [tʃeə] 1. *n* 1) stul; 2) raisning o'rni; 2. *v* boshqarmoq
chair-bed [ˈtʃeə,bed] *n* kreslo karavot, buklama kreslo
chair-car [ˈtʃeə,kɑ:] *a* amer. salon-vagon
chairman [ˈtʃeəmən] *n* (*pl -men [-mən]*) rais
chairmanship [ˈtʃeəmənʃɪp] *n* raislik lavozimi (*vazifasi*)
chairperson [ˈtʃeə,pɜ:s(ə)n] *n pl* majlis yoki yig'ilishni boshqaruvchi (*olib boruvchi*)
chair warmer [ˈtʃeə,wɔ:mə] *n* amer. jarg. dangasa, tanbal, ishyoqmas
chairwoman [ˈtʃeə,wʊmən] *n* (*pl -women [-wɪmɪn]*) raisa, rais ayol
chaise [ʃeɪz] *n fr.* fayton, izvosh
chaise-longue [ʃeɪzˈlɔŋ] *n fr.* shezlong (*yengil kresloning bir turi*)
chalcidony [kælˈsedəni] *n* min. xalsedon (*kvarts yoki chaqmoqtoshning bir turi bo'lgan yarimqimmat tosh*)
chalcography [kælˈkɒgrəfi] *n* misga (*o'yib*) naqsh tushirish
Chaldean [kælˈdi:ʃən] 1. *a* xaldeylarga oid, xaldeycha, xaldeylar; 2. *n* xaldey, xaldeyda yashovchi kishi
chaldron [ˈtʃɔ:ldr(ə)n] *n* tar. cheldron (*inglizlarning 32 dan 72 gacha bushetini tashkil etadigan eski o'lchov birligi*)
chalet [ˈʃæleɪ] *n* qishloq uyi (*asosan, Shvey-sariyada*)

chalk [tʃɔ:k] 1. *n* bo'r; to write in ~ bo'r bilan yozmoq; 2. *v* bo'r bilan yozmoq
chalk-stone [ˈtʃɔ:kstəʊn] *n* ohaktosh
chalky [ˈtʃɔ:ki] *a* 1) bo'rga oid, bo'rli; 2) ohakdan qilingan, ohakli
challenge [ˈtʃælɪndʒ] 1. *n* da'vat qilish (*musobaqada*); 2. *v* da'vat qilmoq
challenger [ˈtʃælɪndʒə] *n* da'vatchi, chaqiruvchi
challenging [ˈtʃælɪndʒɪŋ] *a* katta kuch talab qiladigan
chalybeate [kəˈlɪbɪt] *a* tarkibida temir bo'lgan, temirli (*kon, manba haqida*)
chamber [ˈtʃeɪmbə] 1. *n* xona, bo'lma, uy; 2. *a* kameraga oid, kamerada bo'ladigan; 3. *v* kameraga qamab qo'ymoq
chamber-maid [ˈtʃeɪmbəmeɪd] *n* mehmonxona xodimasi (*mehmonxonada uylarga qarovchi ayol*)
chamber-pot [ˈtʃeɪmbəpɒt] *n* tuvak
chameleon [kəˈmi:lɪən] *n* gapida turmaydigan (*ikkiyuzlama*) odam
chamfer [ˈtʃæmfə] *n* 1) tarnov, nov; 2) chuqur (*o'yilgan joy*)
chamois [ˈʃæmwɑ:] *n fr.* zool. tog' kiyik, qora echki
chamois-leather [ˈʃæmi,leðə] *n* zamsh (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm*)
champ [tʃæmp] 1. *n* chapillatib chaynash; 2. *v* chapillatib chaynarmoq
champagne [ʃæmˈpeɪn] *n fr.* shampan vinosi
champaign [ʃæmˈpeɪn] *n* tekislik, tekis yer
champerty [ˈtʃæmpəti] *n* yur. noqonuniy ravishda sotib olish (*xarid qilish*)
champignon [ˈʃɑmpɪnjɔŋ] *a fr. bot.* shampinion (*qo'ziqorinning bir turi*)
champion [ˈtʃæmpjən] 1. *a so'zl.* birinchi darajali, eng yaxshi; 2. *v* 1) himoya qilmoq; 2) nima uchundir kurashmoq; 3. *n* 1) kurashchi, kurashuvchi; 2) chempion, g'olib
championship [ˈtʃæmpjənʃɪp] *n* sport. birinchilik, chempionat
chance [tʃɑ:ns] *n* 1) imkoniyat; 2) tasodif
chance-comer [ˈtʃɑ:ns,kʌmə] *n* tasodifiy yoki kutilmagan mehmon
chanceful [ˈtʃɑ:nsf(ə)l] *a* qaltis; xavfli, xatarli
chancel [ˈtʃɑ:ns(ə)l] *n* mehrob (*cherkovning ibodat qiladigan asosiy qismi*)
chancellor [ˈtʃɑ:ns(ə)lə] *n* kansler (*ba'zi davlatlarda: oliy martabali amaldorlar unvoni*)
chancellory [ˈtʃɑ:ns(ə)ləri] *n* kansler (*ba'zi davlatlarda: oliy martabali amaldorlar unvoni*)

- chance-medley** [ˈtʃɑːns(ə)medli] *n* yur. qo-tillik
- chancery** [ˈtʃɑːns(ə)ri] *n* lord-kansler sudi
- chancre** [ˈʃæŋkə] *n* tib. yara
- chancy** [ˈtʃɑːnsi] *a* soʻzl. qaltis
- chandelier** [ˌʃændəˈleɪ] *n* qandil, katta shamdon, chilchiroq
- chandler** [ˈtʃɑːndlə] *n* sham ishlab chiqaradigan fabrika egasi
- chandlery** [ˈtʃɑːndləri] *n* sham ombori
- change** [tʃeɪndʒ] **1.** *n* almashtirish; **2.** *v* almashtirmoq
- changeability** [ˌtʃeɪndʒəˈbɪləti] *n* oʻzgaruvchanlik
- changeable** [ˈtʃeɪndʒəb(ə)l] *a* oʻzgaruvchan, oʻzgarib turadigan
- changeful** [ˈtʃeɪndʒf(ə)l] *a* oʻzgaruvchan, oʻzgarib turadigan
- changeless** [ˈtʃeɪndʒləs] *a* oʻzgarmaydigan, doimiy
- change-over** [ˈtʃeɪndʒˈəʊvə] *n* oʻzgartirish, almashtirish
- channel** [ˈtʃænl] **1.** *n* kanal; **2.** *v* ariq qazimoq (kovlamoq)
- chanson** [ˈʃæns(ə)n] *n* fr. ashula, qoʻshiq, oʻlan
- chant** [tʃɑːnt] **1.** *n* sheʻr. ashula, qoʻshiq; **2.** *v* ashula (qoʻshiq) aytmoq
- chantage** [ʃɑːntɑːʒ] *n* fr. qoʻrqitib, doʻq qilib undirish (olish)
- chanterelle** [ˌʃæntəˈrel] *n* fr. qoʻziqorinning bir turi
- chantry** [ˈtʃɑːntri] *n* cherk. 1) oʻlganlar ruhiga duoyi fotiha qilish uchun qoldirilgan pul; 2) mehrobsiz kichik butxona; kichik ibodatxona
- chanty** [(t)ʃænti] *n* dengizchilar (matroslar)ning xor boʻlib kuylaydigan qoʻshiqlari
- chaos** [ˈkeɪs] *n* oʻta tartibsizlik
- chaotic** [keɪˈɒtɪk] *a* tartibsiz, chalkash
- chap** [tʃæp] *n* 1) soʻzl. oʻspirin, yigitcha; 2) yoriq, darz; 3) *n* jagʻ (asosan, hayvonlarniki)
- chaparral** [ˌ(t)ʃæpəˈræl] *n* amer. tikanli buta
- chap-book** [ˈtʃæpbʊk] *n* arzon narxda nashr etilgan xalq ertaklari kitobi
- chapel** [ˈtʃæp(ə)l] *n* mehrobsiz kichik butxona (kichkina ibodatxona)
- chaperon** [ˈʃæpəˈrɒn] **1.** *n* yosh qizni balga kuzatib boruvchi keksa ayol; **2.** *v* (yosh qizni) kuzatmoq
- chap-fallen** [ˈtʃæpˌfɔːlən] *a* jagʻi osilgan
- chapter** [ˈtʃæptə] *n* meʻmor. ustunning qoshi (ustunning shipga tutashgan yuqori qismi)
- chaplain** [ˈtʃæplɪn] *n* ruhoni
- chaplet** [ˈtʃæplɪt] *n* gulchambar
- chapman** [ˈtʃæpmən] *n* (pl -men [-mən]) sayyor savdogar
- chappie** [ˈtʃæpi] *n* soʻzl. yigitcha, yigit, oʻspirin
- chappy** [ˈtʃæpi] = **chappie**
- chapter** [ˈtʃæptə] **1.** *n* bob (kitoblarda); **2.** *v* kitobni boblarga boʻlmoq
- char I** [tʃɑː] **1.** *n* kundalik (kunbay, kunlik) ish; **2.** *v* kundalik ishni bajarimoq
- char II** [tʃɑː] **1.** *n* kuyib koʻmirga aylangan narsa; **2.** *v* koʻmirga aylantirmoq
- char-a-banc(s)** [ˈʃærəbæŋ(z)] *n* uzoqqa qatnaydigan (oʻrindiqli) avtobus.
- character** [ˈkærɪktə] **1.** *n* xarakter, tabiat, xususiyat; **2.** *v* aks ettirmoq, gavdalandirmoq
- characteristic** [ˌkærɪktəˈrɪstɪk] **1.** *a* keskin harakatli, oʻjar; boshqalardan ajralib turadigan; **2.** *n* oʻziga xos fazilat
- characteristically** [ˌkærɪktəˈrɪstɪk(ə)li] *adv* oʻziga xoslik bilan
- characterization** [ˌkærɪktəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* taʼrif, tasnif, baho
- characterize** [ˈkærɪktəraɪz] *v* taʼriflamoq, baho bermoq, ifoda etmoq
- characterless** [ˈkærɪktələs] *a* irodasiz, irodasi sust
- charade** [ʃəˈrɑːd] *n* sharada (topishmoqning bir turi)
- charcoal** [ˈtʃɑːkəʊl] **1.** *n* pista koʻmir; **2.** *v* koʻmir bilan chizmoq
- charcoal-burner** [ˈtʃɑːkəʊlˌbɜːnə] *n* koʻmir qazuvchi
- chare** [tʃeə] *n* kunbay ish
- charge** [tʃɑːdʒ] **1.** *n* 1) ayblash; 2) hujum; 3) *el.* zaryad (elektrlangan jismdagi elektr miqdori); **2.** *v* 1) ayblamoq; 2) hujum qilmoq; 3) narxni tayinlamoq (belgilamoq); 4) yozmoq (kimningdir hisobiga); ~ **this to our account** buni bizning hisobimizga yozib qoʻying; 5) *el.* zaryadlamoq
- chargeable** [ˈtʃɑːdʒəb(ə)l] *a* 1) ayblashga, taʼna qilishga arziydigan; 2) masʼul, javobgar
- charge d'affaires** [ˌʃɑːʒedæˈfeə] *n* fr. dip. ishonchli vakil (martabasi elchidan pastroq boʻlgan diplomatik vakil)
- charger** [ˈtʃɑːdʒə] *n* 1) yuklovchi odam; 2) yur. ayblovchi, qoralovchi
- charge-sheet** [ˈtʃɑːdʒiːt] *n* 1) politsiya bayonnomasi; 2) ayblov xulosasi
- chariness** [ˈtʃe(ə)rɪnəs] *n* 1) ehtiyotkorlik; 2) tejamkorlik; 3) gʻamxoʻrlik, mehribonlik
- chariot** [ˈtʃæriət] **1.** *n* sheʻr. ikki gʻildirakli jang (yoki poyga) aravasi (qadimgi yunon-

charioteer

larda va rimliklarda); 2. *v* ikki g'ildirakli aravada yurmog

charioteer [ˈtʃæriəˈtiə] *n* so'zl. aravakash, izvoshchi

charisma [kəˈrɪzmə] *n* Allohning in'omi

charitable [ˈtʃærɪtəb(ə)l] *n* muhtojlarga yordam beruvchi

charity [ˈtʃærɪti] *n* 1) rahm (shafqat, marhamat); 2) muhtojlarga yordam (xayr-saxovat; ehson)

charity-school [ˈtʃærɪtɪsku:l] *n* yetimxona

charivari [ˌʃɑːrɪˈvɑːri] *n* fr. shovqin, shovqin-suron

charlatan [ˈʃɑːlət(ə)n] *n* 1) aldoqchi; 2) toylamachi; 3) duxon

Charley [ˈtʃɑːli] *n* so'zl. tungi qorovul

charlock [ˈtʃɑːlək] *n* bot. yovvoyi xantal (*o'simlik*)

charlotte [ˈʃɑːlət] *n* fr. sharlotta (*qat-qat xamir ichiga olma solib pishirilgan ovqat*)

charm [tʃɑːm] 1. *n* dilrabolik, dilbarlik; joziba, yoqimlilik; 2. *v* maftun etmoq

charmer [ˈtʃɑːmə] *n* dilbar (juda go'zal) kishi (*asosan, ayollar haqida*)

charming [ˈtʃɑːmɪŋ] *a* juda chiroyli, ko'rkam, dilbar

charnel-house [ˈtʃɑːnlhəʊs] *n* yer ostidagi sag'ana (*daxma*)

charred [ˈtʃɑːd] *a* kuygan, kuyib qoraygan

chart [tʃɑːt] 1. *n* dengiz xaritasi; 2. *v* 1) xaritaga kiritmoq; 2) xarita tuzmoq

charter [ˈtʃɑːtə] 1. *n* 1) xartiya (*qadimgi qo'lyozma, hujjat va shunday qo'lyozma yozilgan material yoki qog'oz*); 2) nizom; 2. *v* imtiyoz (yengillik) bermoq

chartered [ˈtʃɑːtəd] *a* imtiyozli, imtiyozga ega bo'lgan

charterer [ˈtʃɑːtərə] *n* deng. kemani kiraga oladigan kishi yoki tashkilot

Charterhouse [ˈtʃɑːtəʊs] *n* qariyalar uyi

charter-party [ˈtʃɑːtəˌpaːti] *n* deng. kemani yollash shartnomasi

Chartism [ˈtʃɑːtɪz(ə)m] *n* tar. chartizm (*ingliz ishchilarining XIX asr 30-50-yillardagi birinchi ommaviy revolyutsion harakati*)

Chartist [ˈtʃɑːtɪst] *n* tar. chartizm tarafdori

chartreuse [ʃɑːˈtrɜːz] *n* tikor (*o'tkir shirin spirtli ichimlik*)

charwoman [ˈtʃɑːˌwʊmən] *n* (*pl -women* [-ˌwɪmɪn]) kumbay (*qanab*) ishlaydigan uy xodimasi

chary [ˈtʃe(ə)ri] *a* ehtiyotkor

chase [tʃeɪs] 1. *n* 1) quvish, ta'qib qilish; 2) ov; 3) ov qilish joyi; 2. *v* 1) ov qilmoq; 2) o'yib naqsh tushirmoq

chaser [ˈtʃeɪsə] *n* 1) ta'qib (quvg'in) qiluvchi; 2) zarb qiluvchi (bosuvchi, o'ymakor) usta

chasing [ˈtʃeɪsɪŋ] *n* 1) ta'qib qilish; ketidan quvish; 2) o'ymakorlik ishi

chasm [ˈkæz(ə)m] *n* 1) chuqur dara; 2) tubsiz chuqurlik, jar

chassis [ˈʃæsi] *n* tex. shassi; yurgizadigan qism

chaste [tʃeɪst] *a* iffatli, bokira

chasten [ˈtʃeɪs(ə)n] *v* tartib-intizom solmoq

chastise [ˈtʃæsɪˈteɪz] *v* jazo bermoq (*asosan, tan jazosi*)

chastisement [ˈtʃæstɪz(ə)mənt] *n* intizomiy jazo

chastity [ˈtʃæstɪti] *n* iffatlilik, bokiralik

chasuble [ˈtʃæzjʊb(ə)l] *n* cherk. riza (*ruhoniylarning ibodat vaqtida kiyadigan libosi*)

chat I [tʃæt] 1. *n* 1) do'stona suhbat; 2) saf-sata; 2. *v* tortinmasdan (bemalol) gapirmoq

chat II [tʃæt] *n* zool. sirchumchuq (*qoravaloqlar oilusiga mansub qush*)

chateau [ˈʃætəʊ] *n* fr. (*pl chateaux* [ˈʃætəʊz]) qasr, saroy, ark, qo'rg'on

chatelaine [ˈʃæt(ə)leɪn] *n* fr. qasr, saroy bekasi (*yer-suv sohibasi*)

chatoyant [ʃəˈtɔɪənt] *a* fr. yارقiraydigan (*rang haqida*)

chattel [ˈtʃæt(ə)l] *n* 1) odat. *pl.* yar. mulk, mol-mulk, amlok (*odat. ko'chirib bo'ladigan*); **goods and ~s** barcha ko'chirib bo'ladigan shaxsiy mulk; **~s real** ko'chmas mulk; **personal ~s, ~s personal** ko'chirib bo'ladigan mulk; 2) esk. gul; **a ~ slavery system** eng og'ir mehnat tizimi

chatter [ˈtʃætə] 1. *n* bekorchi gap, saf-sata; 2. *v* vaysamoq

chatterbox [ˈtʃætəbɒks] *n* sergap odam, ezma

chatterer [ˈtʃætərə] *n* sergap odam, ezma

chatty [ˈtʃæti] 1. *a* sergap, vaysaqi; 2. *n* hind. sopol ko'za

Chaucerian [tʃəˈsɪ(ə)rɪən] *a* adab. ingliz shoiri Jefri Choser uslubiga oid

chauffer [ˈtʃɑːfə] *n* (*kichkina*) ko'chma temir pechka

chauffeur [ˈʃəʊfə] *n* fr. haydovchi

chauvinism [ˈʃəʊvɪnɪz(ə)m] *n* shovinizm (*ashuddiy burjua millatchiligi*)

chauvinist [ˈʃəʊvɪnɪst] *n* shovinizist, shovinizm tarafdori

chauvinistic [ˌʃəʊvɪˈnɪstɪk] *a* shovinizmga oid, shovinizistlarcha

chaw [tʃəː] 1. *n* 1) chaynash; 2) saqich; 2. *v* chaynamoq

chaw-bacon [tʃəːˌbeɪk(ə)n] *n* qo'pol (*madaniyatsiz*) yigit

cheap [tʃiːp] 1. *a* arzon, narxi past; 2. *adv* arzimagan narxga, suvtekin

cheapen [ˈtʃi:p(ə)n] *v* arzonlashmoq (*narxnavo to'g'risida*)
cheapjack [ˈtʃi:pdʒæk] *n* ko'tarib yurib sotuvchi, arzon narxlarga sotuvchi kishi
cheaply [ˈtʃi:pli] *adv* arzimagan narxga
cheat [tʃi:t] **1.** *n* 1) firib berish, aldash; 2) tovlamachilik, qalloblik; **2.** *v* 1) aldamoq; 2) tovlamachilik qilmoq
check I [tʃek] **1.** *n* 1) nazorat; 2) tekshirish; 3) to'xtatish, orqaga surish; 4) to'siq, to'xtash; 5) belgi (*tekshirilganlik belgisi*); 6) *shaxm.* kishi; **2.** *v* 1) nazorat qilmoq; 2) to'xtatmoq, orqaga surmoq
check II [tʃek] **1.** *n* 1) yuk qog'ozi; 2) *amer.* chek; **2.** *v* (*omonat va b. ni*) bermoq, topshirmoq
checker [ˈtʃekə] *n* *amer.* shashka (*o'yin*)
checkerboard [ˈtʃekəbɔ:d] *n* shaxmat taxtasi
checkered [ˈtʃekəd] *a* 1) = **chequered**; 2) *maxs.* taram-taram (*botiq yoki bo'rma chiziqlar bilan qoplangan*)
check-in [ˈtʃek'in] *n* ro'yxatdan o'tish joyi
checking [ˈtʃekɪŋ] *n* tekshirish, qiyoslash
checkmate [ˈtʃekmeɪt] **1.** *n* shoh va mot; **2.** *v* mot qilmoq
check-nut [ˈtʃeknʌt] *n* *tex.* kontrgayka (*asosiy gayka bo'shab ketmasligi uchun uning ustidan burab qo'yiladigan ikkinchi gayka*)
check-off [ˈtʃekɒf] *n* *amer.* (*a'zolik badali, kvartira haqini*) ish haqidan ushlab qolish
check-out [ˈtʃekəʊt] *n* nazorat, sinov
check-point [ˈtʃekpɔɪnt] *n* nazoratdan o'tkazish, (*tekshirib ko'rib*) o'tishga ijozat beradigan joy
check-room [ˈtʃekru(:)m] *n* 1) ust-bosh yechib qo'yiladigan joy; 2) omonatxona
checkrow [ˈtʃekrəʊ] *n* *q.x.* kvadrat uyalab ekish
check-taker [ˈtʃek,tɛkə] *n* *teatr.* chipta tekshiruvchi
check-up [ˈtʃekʌp] *n* tekshirish, nazorat
check-weigher [ˈtʃek,weɪə] *n* nazorat qilib turadigan tarozibon
Cheddar [ˈtʃedə] *n* cheddar (*pishloq navi*)
cheek [tʃi:k] **1.** *n* bashara, yonoq; **2.** *v* so'zl. surbetlik qilmoq
cheek-bone [ˈtʃi:kbəʊn] *n* yuz (yonoq) suyagi
cheek-tooth [ˈtʃi:ktu:θ] *n* oziq tish, jag' tishi
cheeky [ˈtʃi:ki] *a* so'zl. surbet
cheep [tʃi:p] **1.** *n* chiyillash, chirqillash (*qush va sichqonlar to'g'risida*); **2.** *v* chirqillamoq
cheeper [ˈtʃi:pə] *n* qush bolasi, jo'ja

cheer [tʃiə] **1.** *n* 1) *pl* ishlar; 2) xushchaqchaqlik; **2.** *v* ruhlantirmoq; 2) xursand qilmoq
cheerful [ˈtʃiəf(ə)l] *a* quvnoq, xushchaqchag
cheerfulness [ˈtʃiəf(ə)lnəs] *n* shodlik, xursandchilik
cheerio [ˌtʃi(ə)rɪ'əʊ] *so'zl.* sizning sog'lig'ingiz uchun
cheerless [ˈtʃiələs] *a* ma'yus, g'amgin, umidsiz
cheers [tʃiəz] *n* 1) nutq so'zlab qadah ko'tarish; 2) rahmat; 3) xayr
cheery [ˈtʃi(ə)rɪ] *a* shod, xursand, vaqtichog'
cheese [tʃi:z] *n* pishloq; **~cake** pishloqli pirog
cheese-cloth [ˈtʃi:zklɒθ] *n* doka
cheesemonger [ˈtʃi:z,mʌŋgə] *n* pishloq sotuvchi kishi
cheese-paring [ˈtʃi:z,pɛ(ə)rɪŋ] *n* xasislik
cheesy [ˈtʃi:zi] *a* pishloqqa oid
cheetah [ˈtʃi:tə] *n* *zool.* gepard, chita (*yirtgich hayvon*)
chef [ʃef] *n* *fr.* bosh oshpaz
chef-d'oeuvre [ʃeɪ'də:vʁ(ə)] *n* *fr.* shoh (*durdona*) asar
cheiromancy [ˈkaiərəmænsɪ] = **chiromancy**
cheiroptera [kaiə'roptərə] *n* *pl* *zool.* qo'l-qanotlilar (*sut emizuvchilar otradi*)
chela [ˈki:lə] *n* *zool.* (*pl -ae [-i:]*) panja, changgal (*hasharotlarda*)
chemical [ˈkemɪk(ə)] **1.** *a* kimyoviy; **2.** *n* *pl* kimyoviy preparatlar
chemise [ʃə'mi:z] *n* ayollar ko'ylagi
chemisette [ˌʃemi(:)zɛt] *n* manishka (*ayollar ko'ylagining qadama ko'krak qismi*)
chemist [ˈkemɪst] *n* 1) kimyogar; 2) dorixonada ishlovchi
chemistry [ˈkemɪstri] *n* kimyo; **organic** ~ organik kimyo; **inorganic** ~ noorganik (*anorganik*) kimyo
chemotherapy [ˌki:məʊ'θerəpi] *n* *tib.* kimyoterapiya (*vuqumli kasalliklarni kimyoviy moddalar bilan davolash*)
chenille [ʃə'ni:l] *n* baxmal ip, xom ip (*gul tikish, popuk yasash uchun*)
cheque [tʃek] *n* bank cheki
cheque-book [ˈtʃekbʊk] *n* chek daftarchasi
cheque card [ˈtʃekko:d] *n* plastik kartochka
chequer [ˈtʃekə] *v* shaxmat tartibida joylashtirmoq
chequered [ˈtʃekəd] *a* katak gulli, katak-katak
chequer-wise [ˈtʃekəwaɪz] *adv* shaxmat tartibida

cherish [ˈtʃerɪʃ] *v* 1) umid bogʻlamoq; 2) yod-da tutmoq
cherished [ˈtʃerɪʃt] qimmatli, ardoqli, aziz, muqaddas, tabarruk
cherry [ˈtʃerɪ] 1. *n* olcha (*mevasi*); 2. *a* 1) toʻq qizil, olcharang; 2) olchadan qilingan
cherry-pie [ˈtʃerɪpaɪ] *n* olchadan qilingan (olchali) pirog
cherry-stone [ˈtʃerɪstəʊn] *n* olcha danagi
cherry-tree [ˈtʃerɪtri:] *n* olcha daraxti
chert [tʃɜ:t] *n* kremniyli slanec
cherub [ˈtʃerəb] *n* (*pl* -s [-z], -bim [-bɪm]) oliy martabali farishta (*xristian dinida*)
cherubic [tʃɜːruːbɪk] *a* farishtadek begunoh
cherubim [ˈtʃerəbɪm] *pl of cherub*
chess [tʃes] *n* 1) shaxmat; 2) deraza romi
chess-board [ˈtʃesbɔ:d] *n* shaxmat taxtasi
chess-man [ˈtʃesmæn] *n* shaxmat donalari
chess-player [ˈtʃespleɪə] *n* shaxmat oʻyin-chisi, shaxmatchi
chest [tʃest] *n* sandiq, quti
chesterfield [ˈtʃestəfi:ld] *n* katta yumshoq divan
chestnut [ˈtʃesnʌt] 1. *n bot.* kashtan (*qora-qayinlar oilusiga mansub daraxt va uning yongʻogʻi*); 2. *a* jigarrang, qizgʻish
chest-voice [ˈtʃestvɔɪs] *n* ichdan (koʻk-rakdan) chiqariladigan toʻla (*past*) ovoz
chevalier [ˌʃevəˈliə] *n* yigit, yigitcha
cheviot [ˈtʃeviət] *n* toʻq. sheviot (*jun gazlama*)
chevron [ˈʃevrən] *n* shevron (*muddatidan ortiq harbiy xizmatni davom ettirayotgan harbiylarning yengiga taqiladigan uqa*)
chevy [ˈtʃevi] 1. *n* 1) ov; 2) quvish; 2. *v* quvmoq
chew [tʃu:] 1. *n* saqich; 2. *v* chaynamoq
chewing-gum [ˈtʃu:ɪŋɡəm] *n* chaynaladigan rezinka
chibouk [tʃɪˈbu(:)k] *n* tar. 1) nay, chilim nayi; 2) qalamcha, novda (*ekish uchun olingan*)
chie [tʃi(:)k] 1. *n fr.* nazokatlilik, orastalik; 2. *a* orasta, kelishgan, zebo
chicane [tʃɪˈkeɪn] *n* 1) asossiz ayblash; 2) ishkal chiqarish
chicanery [tʃɪˈkeɪn(ə)rɪ] *n* safsatabozlik
chick [tʃɪk] *n* 1) joʻja; 2) qush bolasi
chickabiddy [ˈtʃɪkəˈbɪdɪ] *n* erkak joʻjacha, xoʻrozcha; qushcha
chickaree [ˈtʃɪkəri:] *n* zool. shimoliy Amerika olmaxoni
chicken [ˈtʃɪkɪn] *n* 1) tovuq; 2) joʻja; **a brood of** ~s ona tovuqdan ajralmagan joʻjalar; 3) tovuq goʻshiti
chicken-hearted [ˈtʃɪkɪnˈhɑ:tɪd] *a* qoʻrqqoq, yuraksiz

chicken-liver [ˈtʃɪkɪnˈlɪvə] *n* qoʻrqqoq
chicken-pox [ˈtʃɪkɪnpɒks] *n* tib. suvchechak
chick-pea [ˈtʃɪkpi:] *n* bot. turk noʻxati
chickweed [ˈtʃɪkwi:d] *n* bot. qum oʻti (*gumda boʻladigan bargli oʻsimlikning nomi*)
chicle [ˈtʃɪk(ə)l] *n* 1) chikl (*tabiiy kauchuk*); 2) saqich
chicory [ˈtʃɪk(ə)rɪ] *n* bot. sachratqi (*oʻsimlik*)
chide [tʃaɪd] *v* (**chid**; **chidden**) soʻkmoq, urishmoq, koyimoq
chief [tʃi:f] 1. *n* 1) boshliq, rahbar; bosh, eng katta, boshchilik qiluvchi; 2) eng muhim, asosiy, bosh; **a ~ problem** eng muhim masala; 2. *a* rahbarlik qiluvchi
chiefly [ˈtʃi:flɪ] *adv* xususan, ayniqsa
chieftain [ˈtʃi:ftən] *n* qabila sardori (boshligʻi)
chiff-chaff [ˈtʃɪftʃæf] *n* zool. qoramtir (kulrang) patli kichkina sayroqi qushcha
chiffonier [ˌtʃɪfəˈniə] *n* shifoner (*kiyim shkafi*)
chilbain [tʃɪlbeɪn] *n* sovuqqa oldirib qoʻyilgan joy
child [tʃaɪld] *n* (*pl children* [ˈtʃɪldrən]) chaqaloq, goʻdak
child-bearing [ˈtʃaɪldˌbe(ə)rɪŋ] *n* tugʻish, bolalash
childbed [ˈtʃaɪlbed] *n* tugʻish, bolalash
child-birth [ˈtʃaɪldbɜ:θ] *n* 1) tugʻish, bolalash; 2) tugʻish (tugʻilish) miqdori
childhood [ˈtʃaɪldhʊd] *n* 1) bolalik davri; 2) bolalarga xos; ~ **disease** bolalar kasalligi
childish [ˈtʃaɪldɪʃ] *a* bolalarga xos boʻlgan
childless [ˈtʃaɪldləs] *a* bolasiz, befarzand
childlike [ˈtʃaɪldlɪk] *a* oddiy, gunohsiz, samimiy
childly [ˈtʃaɪldli] 1. *a sheʻr.* bolalarga xos boʻlgan; 2. *adv* bolalarcha ish tutadigan
child-minder [ˈtʃaɪldˌmaɪndə] *n* enaga
childness [ˈtʃaɪldnəs] *n* bolalarga xos sod dalik, bolalarga xos xulq-atvor
children [ˈtʃɪldrən] *n pl* bolalar
Chilean [ˈtʃɪliən] 1. *a* Chili va chitiliklarga oid; 2. *n* chililik ayol (yoki erkak)
chiliad [ˈtʃɪliəd] *a* 1) ming; 2) ming yillik
Chilian [ˈtʃɪliən] = **Chilean**
chill [tʃɪl] 1. *n* sovuq; 2. *a* salqin; 3. *v* sovitmoq
chilli [ˈtʃɪli] *n* isp. bot. qizil garmdori
chilling [ˈtʃɪlɪŋ] *a* qoʻrqinchli, vahimali dahshatli, mudhish, bahaybat
chilly [ˈtʃɪli] 1. *a* sovuq; 2. *adv* sovitib
chime [tʃaɪm] 1. *n* 1) qoʻngʻiroq; 2) qoʻngʻiroq ovozi, jarangi; 2. *v* jaranglamoc (*qoʻngʻiroqlar haqida*)

chimeric(al) [kai'merik(ə)] *a* amalga oshmaydigan

chimney ['tʃɪni] *n* mo'ri

chimney-piece ['tʃɪnpi:s] *n* kamin (o'choqsimon uy pechkasi)ning ustidagi taxtadan qilingan tokcha

chimney-stack ['tʃɪnistæk] *n* mo'ri

chimney-stalk ['tʃɪnistɔ:k] = **chimney-stack**

chimney-sweep ['tʃɪnɪswi:p] *n* mo'ri tozalovchi

chimpanzee [ʃɪmpæn'zi:] *n* zool. shimpanze (odamsimon maymun)

chin [tʃɪn] *n* iyak, engak

China ['tʃaɪnə] *a* Xitoy va xitoyliklarga oid

china ['tʃaɪnə] *1. n* chinni, chinni buyumlar; *2. a* chinnidan qilingan (yasalgan)

China-clay [tʃaɪnəkler] *n* chinnibop (chinni qilinadigan) loy; kaolin, chinnigil, oqgil

china-closet ['tʃaɪnəkloʊzɪt] *n* bufet (idish-tovoq javoni)

China ink [tʃaɪnə'ɪŋk] *n* Xitoy tushi

Chinaman [tʃaɪnəmən] *n* (pl -men [-mən]) xitoylik

chinaman [tʃaɪnəmən] *n* chinni buyumlarni sotuvchi

Chinatown [tʃaɪnətaʊn] *n* xitoyliklar mahallasi (Nyu-York va h. shaharlarda)

china-ware [tʃaɪnəweə] *n* chinni buyumlar

Chinawoman [tʃaɪnə,wʊmən] *n* (pl -women [-wɪmɪn]) xitoylik ayol

chinch [tʃɪntʃ] *n* 1) hayvon umurtqasi; *2) dara*

chine [tʃaɪn] *n* 1) hayvon umurtqasi; *2) suyaksiz go'sht;* *3) tog' tizmasi;* *4) dara*

Chinese [tʃaɪ'ni:] *n* xitoylik

Chinese [tʃaɪ'ni:] *1. a* Xitoy va xitoyliklarga oid, xitoycha; *2. n* xitoylik erkak (ayol)

chink [tʃɪŋk] *1. n* 1) jaranglash (stakan; tanga haqida); *2) kovak;* tirqish; yoriq; *2. v* jaranglamoq

chintz [tʃɪnts] *n* chit

chip [tʃɪp] *1. n* mayda tarasha; *2. v* ranglamoq

chipmuck [tʃɪpmək] = **chipmunk**

chipmunk [tʃɪpməŋk] *n* olasichqon

chippie [tʃɪpi] = **chippy**

chippy [tʃɪpi] *a* 1) dami (tig'i) qaytgan (pichoq to'g'risida); *2) singan* (idishning cheti to'g'risida)

chirk [tʃɜ:k] *1. a* amer. so'zl. xursand, quvnoq; *2. v* xursandchilik (vaqtichog'lik) qilmoq

chirm [tʃɜ:m] *n* qushning sayrashi

chirromancy [kai(ə)rɒmənsɪ] *n* qo'lga qarab bashorat qilish

chiropodist [ki'rɒpədɪst] *n* qadoqlarni kesuvchi xodim

chiropody [ki'rɒpədi] *n* pedikur (oyoq tirnoqlariga pardozi berish va qadoqlarni kesish)

chirp [tʃɜ:p] *n* chug'urtlash (qush to'g'risida)

chirpy [tʃɜ:pi] *a* quvnoq, xushchaqchaq, shod, xursand

chirr [tʃɜ:] *1. n* chirillash; *2. v* chirillamoq

chirrup [tʃɪrʌp] *1. n* 1) qushlarning sayrashi; *2) chug'ullash;* *2. v* chug'ur-chug'ur qilib sayramoq (qushlarga oid)

chisel I [tʃɪz(ə)] *1. n* 1) tex. iskana; *2) kesish asbobi, keskich;* *2. v* tex. iskana bilan ishlamoq

chisel II [tʃɪz(ə)] *n* kepak, chori; elakdan qolgan chiqit

chiselled [tʃɪz(ə)ld] *a* charxlangan

chit [tʃɪt] *1. n* 1) chaqaloq, go'dak; *2) nish, nihol;* *3) qisqa xat;* *2. v* nish urmoq

chit-chat [tʃɪtʃæt] *n* bekorechi gap, safsata

chiton [kai(ə)n] *n* xiton (qadimiy yunonlar kiyimi)

chitterlings [tʃɪtəlɪŋz] *n* pl ichak-chovoq

chivalrous [tʃɪv(ə)rəs] *a* ritsarlarga oid

chivalry [tʃɪv(ə)lrɪ] *n* ritsarlik unvoni

chive I [tʃaɪv] *n* bot. nish (sepilgan urug'dan chiqqan) piyoz

chive II [tʃaɪv] *n* jarg. pichog

chivied [tʃɪviəd] *a* juda charchagan

chloric [klo:ɪk] *a* kim. xlorli; ~ acid xlor kislotasi

chloride [klo:raɪd] *a* kim. xlorli

chlorine [klo:ri:n] *1. n* kim. xlor (kimyoviy element); *2. a* och ko'k, ko'k rang, yashil

chloroform [klorə:fɔ:m] *1. n* xloroform (ko'pincha, narkoz uchun qo'llaniladi, shirinroq hidli suyuqlik); *2. v* xloroform bermoq (xloroform yordamida uyquga ketkazmoq)

chlorophyll [klorəfɪl] *n* bot. xlorofil (o'simlikka yashil rang berib turuvchi modda)

chlorosis [klo:ˈrəʊsɪs] *n* 1) tib. kamqonlik (qon tanachalarida gemoglobin yetishmasligi natijasida paydo bo'ladigan kasallik); *2) bot. rangsizlik, o'z rangini yo'qotish* (o'simliklarda xlorofil moddasi yetishmasligidan hosil bo'ladigan kasallik)

chlorous [klo:rəs] *a* kim. xlorli; ~ acid xlor kislotasi

chock [tʃɒk] *1. n* 1) pona; *2) tirgovich, tirak;* *2. v* tirgak qo'ymoq

chock-a-block [tʃɒkə'blɒk] *a* so'zl. liq, to'la

chock-full [tʃɒk'fʊl] *a* liq to'lgan, lim-lim bo'lgan, niqtalab joylashtirilgan

chocolate [tʃɒk(ə)leɪt] *n* shokolad

choice [tʃɔɪs] *1. n* tanlab olish; *2. a* eng yaxshi, tanlangan, saralangan

choicely [ˈtʃɔɪʃlɪ] *adv* 1) tanlab; 2) ehtiyot bo'lib
choir [ˈkwaɪə] **1. n** 1) xor ansambli; 2) cherkov xori; **2. v** xor bo'lib kuylamoq
choir-master [ˈkwaɪə,mɑːstə] *n* xormeyster (*xor rahbari*)
choke [tʃəʊk] **1. n** bo'g'ish, bo'g'ib o'ldirish; **2. v** bo'g'moq, bo'g'ib o'ldirmoq; **to ~ down** qiyinchilik bilan (zo'rg'a) yutmoq
choke-coil [ˈtʃəʊkkɔɪl] *n* drossel (*tok kuchini tartibga solish*) g'altagi
choke-damp [ˈtʃəʊkdæmp] *n* bo'g'uvchi gaz (*konlarda*)
choke-full [ˈtʃəʊkˈfʊl] *a* liq to'la, tiqilinch
choker [ˈtʃəʊkə] *n* bo'g'uvchi
chokidar [ˈtʃəʊkɪdɑː] *hind. n* qorovul, soqchi, qo'riqchi
choky [ˈtʃəʊkɪ] *a* nafasni qaytaradigan
choler [ˈkɒlə] *n* g'azab, nafrat, qahr, jahl, zarda
cholera [ˈkɒlərə] *n tib.* vabo
choleraic [ˌkɒləˈreɪk] *a tib.* vaboga oid
choleric [ˌkɒləˈrɪk] *a* vaboga yo'liqqan
cholesterol [kəˈlestərɒl] *n* xolesterin (*organizmida, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarida bo'ladigan va hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan yog'simon modda*)
choose [tʃuːz] *v* (**chose; chosen**) tanlamoq
chooser [ˈtʃuːzə] *n* tanlovchi kishi
choos(e)y [ˈtʃuːzɪ] *a so'zl.* injiq, nozik tabiatli
chop [tʃɒp] **1. n** 1) (*bolta va b. bilan*) chopish; 2) to'qmoqlangan go'shtdan tayyorlangan kotlet; **2. v** kesmoq
chop-chop [tʃɒpˈtʃɒp] *adv* 1) *amer. so'zl.* tez-tez; 2) *gram. int.* qani, qimirla! qo'z-g'al! tezroq!
chop-house [ˈtʃɒphaʊs] *n* arzon restoran
chopper [ˈtʃɒpə] *n* 1) qassobning pichog'i; 2) *hind.* poxol yopilgan tom, poxolli tom
chopper switch [ˈtʃɒpəswɪtʃ] *n* rubilnik (*kuchli elektr toklarini ulash va uzish uchun ishlatiladigan moslama*)
choppy [ˈtʃɒpi] *a* tez-tez o'zgarib turadigan; birdan kuchayib, yana pasayib ketadigan (*shamol*)
chop-sticks [ˈtʃɒpstɪks] *n pl* ovqat yeyish uchun ishlatiladigan tayoqchalar (*xitoyliklar, koreyaliklar va yaponiyaliklarda*)
chop-suey [tʃɒpˈsuːɪ] *n* xitoylar jarkopi
choral [ˈkɔːrəl] **1. n** *mus.* xoral (*cherkovda ko'p ovoz bo'lib aytiladigan qo'shiq va shu shukldagi musiqali pyesa*); **2. a** xorga oid, xor bilan aytiladigan
chord [kɔːd] *n* 1) tor (*sim, ip*); 2) akkord (*turli balandlikdagi bir necha tovushning hamohang birligi*)

chorda [ˈkɔːdə] *n anat.* xorda (*ba'zi hayvonlarning umurtqa suyagi o'rnidagi elastik o'q skeleti; ko'pincha, u umurtqa suyagiga aylanadi*)
chordae [ˈkɔːdiː] *pl of chorda*
chorea [kɔːriə] *n tib.* shaytonlash (*kasallik*)
choree [kɔːriː] *n she'r.* xorey (*she'riy vazn*)
choreographer [ˌkɔːrɪˈɒgrəfə] *n* baletmeyster (*raqsalarni sahnalashtiruvchi rahbar*)
choreographic [ˌkɔːrɪˈɒgrəfɪk] *a* xoreografiyaga oid; xoreografik
choreography [ˌkɔːrɪˈɒgrəfi] *n* xoreografiya (*raqs san'ati*)
chorine [ˈkɔːriːn] *n amer.* xorda qatnashadigan ashulachi (*ayol*)
chorister [ˈkɔːrɪstə] *n* xorda qatnashadigan ashulachi
chortle [ˈtʃɔːtl] **1. n** qiqirlab (*hiringlab*) kulish; **2. v** past ovozda kulmoq
chorus [ˈkɔːrəs] **1. n** xor, xor guruhi; **2. v** xor bilan qo'shiq aytmoq, xor bilan qaytarmoq
chose [tʃəʊz] *past of choose*
chosen [ˈtʃəʊz(ə)n] **1. p. p. of choose;** **2. a** tanlangan, tanlab olingan
choultry [ˈtʃəʊltri] *n hind.* karvonsaroy
chouse [tʃəʊs] **1. n** so'zl. muttahamanlik, fibrigarlik; **2. v** aldamoq
chow [tʃəʊ] *n* chau (*xitoy itlarining bir turi*)
chow-chow [ˈtʃəʊtʃəʊ] *n* xitoy. aralashma, qorishiq narsa
chowder [ˈtʃəʊdə] *n amer.* sabzavot, cho'chqa go'shti, molluskalar va baliqlardan tayyorlangan quyuc yovg'on sho'rva
chrism [ˈkriːz(ə)m] *n cherk.* cherkovlarda ishlatiladigan maxsus zaytun moyi
Christ [kraɪst] *n* xristian; masih; *so'zl.* qutqaruvchi, xaloskor
christen [ˈkriːs(ə)n] *v* cho'qintirmoq
Christendom [ˈkriːs(ə)ndəm] *n* xristianlar olami
christening [ˈkriːs(ə)nɪŋ] *n* cho'qintirish
Christian [ˈkriːstʃən] *a* xristian diniga va xristianlarga oid
Christianity [ˌkriːstiˈænɪti] *n* xristianlik, xristian dini
christianize [ˈkriːstʃənaɪz] *v* xristian diniga kiritmoq
Christmas [ˈkrɪsməs] *n* rojdestvo, milod (*iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*)
Christmas-box [ˈkrɪsməsbɒks] *n* rojdestvo sovg'alari solingan quti
Christmassy [ˈkrɪsməsi] *a so'zl.* rojdestvo (milod) bayramiga oid, rojdestvo bayramida bo'ladigan
Christmas-tide [ˈkrɪsməstaɪd] *n* svyatki (*rojdestvo bayrami kunlari*)

- Christmas-tree** [ˈkrɪsməstri:] *n* rojdestvo archasi
- chromatic** [krəʊˈmætɪk] *a* yorqin rangli
- chromatics** [krəʊˈmætiks] *n pl* (sing dek ishlatiladi) rang hamda boʻyoqlar toʻgʻrisidagi ilm, rangshunoslik
- chrome** [krəʊm] *n* 1) sariq boʻyoq; 2) sariq rang
- chromic** [ˈkrəʊmɪk] *a* kim. xromga oid, xromlangan, xromli
- chromium** [ˈkrəʊmiəm] *n* kim. xrom (och kuirang tusli qattiq kimyoviy element)
- chromolithograph** [ˌkrəʊmə(ʊ)ˈlɪθəgrɑ:f] *n* xromolitografiya (litografik usulda bir necha rangda kitob, jurnal va h. k. bosish)
- chromosome** [ˈkrəʊməsəʊm] *n* biol. xromosoma (hujayrasidagi genlarni oʻzida saqlovchi hujayra va yaxlit organizm uchun xos xususiyatlarni belgilovchi organoid)
- chromosphere** [ˈkrəʊməsfɪə] *n* xromosfera (quyosh atmosferasining qatlumlaridan biri)
- chromotype** [ˌkrəʊmə(ʊ)ˈtaɪp] *n* poligr. xromotipiya (koʻp rangli tipografik bosma)
- chronic** [ˈkrɒnɪk] *n* surunkali kasallik bilan har doim ogʻrib turadigan bemor
- chronicle** [ˈkrɒnɪk(ə)l] *n* yilnoma
- chronicler** [ˈkrɒnɪk(ə)lə] *n* yilnoma yozuvchi, tarixni yozib boruvchi
- chronograph** [ˈkrɒnəgrɑ:f] *n* xronograf (qadimgi yozuvlar yodgorligi)
- chronologic(al)** [ˌkrɒnəˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* voqealarning ketma-ket sodir boʻlishiga asoslangan, xronologik
- chronology** [krəˈnɒlədʒɪ] *n* xronologiya (muayyan bir vaqtdan boshlab tarixni hisoblab berish haqidagi fan)
- chronometer** [krəˈnɒmɪtə] *n* xronometr (juda toʻgʻri yuradigan, vaqtni aniq koʻrsatadigan soat)
- chronopher** [ˈkrɒnəfə] *n* radio. vaqtning xabarini avtomatik ravishda (usulda) beradigan apparat
- chrysanthemum** [ˌkrɪˈsændɪməm] *n* bot. xrizantema (murakkabguldoshlar oilasiga mansub, bir va koʻp yillik oʻt oʻsimliklar turkumi)
- chryselephantine** [ˌkrɪselɪˈfænt(a)ɪn] *a* oltin va fil suyagidan qilingan (haykal toʻgʻrisida)
- chrysolite** [ˈkrɪsələɪt] *n* min. xrizolit (yashil rangli, shaffof qimmatbaho tosh)
- chub** [tʃʌb] *n* zogʻorabaliq
- chubby** [ˈtʃʌbɪ] *a* toʻla yuzli
- chuck I** [tʃʌk] **1.** *n* tex. qisqich; **2.** *v* tex. siqmoq, qismoq
- chuck II** [tʃʌk] *v* soʻzl. irgʻitmoq, uloqtirmoq; **to - away** (imkoniyatni) qoʻldan boy bermoq; **to - up** qusmoq, qayt qilmoq
- chuck-farthing** [ˈtʃʌkˌfɑːðɪŋ] *n* osmonga tanga otish oʻyini
- chuck-hole** [ˈtʃʌkˌhəʊl] *n* amer. oʻyilgan joy
- chuckle** [ˈtʃʌk(ə)l] **1.** *n* 1) boʻgʻiq ovoz bilan kulish; qiqirlab (hiringlab) kulish, qiqir-qiqir (hiring-hiring) kulish, qiqirlash, hiringlash; 2) qaqagʻlash, qagʻ-qagʻ; gʻagʻillash, gʻaq-gʻaqlash; gʻaqillash, gʻaq-gʻaq qilish (gʻoz haqida); **2.** *v* 1) qiqirlab (hiringlab) kulmoq, qiqir-qiqir (hiring-hiring) kulmoq, qiqirlamoq, hingillamoq; 2) qaqagʻlamoq, qagʻ-qagʻ qilmoq; gʻagʻillamoq, gʻaq-gʻaqlamoq, gʻaq-gʻaq qilmoq; 3) gʻaqillamoq, gʻaq-gʻaq qilmoq (gʻoz haqida)
- chucklehead** [ˈtʃʌk(ə)lhed] *n* soʻzl. ahmoq, galvars, kallavaram
- chuddar** [ˈtʃʌdə] *n* hind. jun (yung) sholr oʻmol
- chuff** [tʃʌf] *n* qoʻrs (qoʻpol muomalali) odam
- chug** [tʃʌg] **1.** *n* parovoz (mashina)ning pishillashi; **2.** *v* pishillab harakat qilmoq (mashina, parovoz haqida)
- chum** [tʃʌm] **1.** *n* doʻst; joʻra; **2.** *v* doʻst boʻlmoq
- chummage** [ˈtʃʌmɪdʒ] *n* ikki yoki undan ortiq kishi oʻtiradigan xona (yotoqxona va b.)
- chummery** [ˈtʃʌməri] *n* bitta xonada yashash
- chummy** [ˈtʃʌmɪ] *a* soʻzl. odamga ei boʻladigan
- chump** [tʃʌmp] *n* kunda, gʻoʻla
- chunk** [tʃʌŋk] *n* boʻlak (burda); bir burda
- chunky** [ˈtʃʌŋki] *a* 1) qisqa, lekin yoʻgʻon va qalin; 2) qalin (yoʻgʻon) materialdan ishlangan
- church** [tʃɜːtʃ] *n* cherkov, butxona
- church-goer** [ˈtʃɜːtʃˌgəʊə] *n* xudojoʻy, dindor kishi
- churchman** [ˈtʃɜːtʃmən] *n* (pl -men [-mən]) xudoga ishonuvchi (dindor) kishi
- church-rate** [ˈtʃɜːtʃreɪt] *n* cherkov uchun toʻlanadigan soliq
- church service** [ˈtʃɜːtʃˌsɜːvɪs] *n* 1) ibodat qilish; 2) cherkov xizmati
- church-text** [ˈtʃɜːtʃtekst] *n* Angliyaning qora gotik shrifti (gotik shrift — Angliya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda qoʻllanadigan uchli shrift)
- churchwarden** [ˈtʃɜːtʃˌwɔːdn] *n* cherkov oqsoqoli

- churchy** [ˈtʃɜːtʃɪ] *a soʻzl.* cherkovga berilgan (sodiq, sadoqatli, fidokor)
- churchyard** [ˈtʃɜːtʃjɑːd] *n* qabriston, mozor, goʻriston
- churl** [tʃɜːl] *n* yomon tarbiyalangan inson
- churlish** [ˈtʃɜːlɪʃ] *a* 1) qoʻpol, qoʻrs; 2) xasis, ziqna
- churn** [tʃɜːn] **1.** *n* moyjuvoz; **2.** *v* sutni chayqatib yogʻini olmoq
- churn-staff** [ˈtʃɜːnstɑːf] *n* chilchoʻp, kurakcha
- chut** [tʃ(A)t] *int.* boʻlaqolsang-chi! (*sabrsizlikni ifoda etadi*)
- chute** [ʃuːt] *n soʻzl.* parashut
- cicatrice** [sɪkətri(:)s] *n tib.* yara oʻrni, chandiq
- cicatrization** [sɪkətri(a)ˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) yaraning bitishi; 2) tuzalish (*vara haqida*)
- cicatrize** [ˈsɪkətraɪz] *v tib.* tuzalmoq, bitmoq; tuzalib (bitib) ketmoq
- cicerone** [ˌsɪsəˈreɪni, ˌtʃɪtʃəˈreɪni] *n (pl -ni)* yoʻl koʻrsatib boruvchi
- ciceroni** [ˌsɪsəˈreɪniː, ˌtʃɪtʃəˈreɪni] *pl of cicerone*
- Ciceronian** [ˌsɪsəˈreɪniən] *a* gapga (chechan) usta
- cider** [saɪdə] *n* sidr, olma vinosi (*olma shirasidan tayyorlangan vino*)
- ci-devant** [ˌsiːdəˈvɒŋ] *a fr.* ilgorigi, avvalgi, burungi, sobiq; *a ~ chairman* sobiq rais
- cigar** [sɪˈɡɑː] *n* sigara
- cigarette** [ˌsɪɡəˈret] *n* sigareta
- cigarette-case** [ˌsɪɡəˈretkeɪs] *n* papiros qutisi
- cigarette-end** [ˌsɪɡəˈretend] *n* chekib tashlangan papiros
- cigarette-holder** [ˌsɪɡəˈretˌhəʊldə] *n* mundshuk (*papiros naychasi*)
- cigarette-lighter** [ˌsɪɡəˈretˌlaɪtə] *n* papirosni yondirib olish uchun ishlatiladigan asbob (*gugurtning oʻrniga ishlatiladi*)
- cigarette-paper** [ˌsɪɡəˈretˌpeɪpə] *n* papiros qogʻozi
- cigar-holder** [sɪˈɡɑːˌhəʊldə] *n* papiros naychasi
- cilia** [ˈsɪliə] *n pl anat.* kiprikar; 2) *biol.* tuk (*hayvon va oʻsimliklar hujayralaridagi ingichka nozik tuk*)
- ciliary** [ˈsɪliəri] *a anat.* kiprikka oid
- ciliated** [ˈsɪliətɪd] *n biol.* mayda (nozik) tukli
- cilice** [ˈsɪlɪs] *n* yung (*jun*)dan qilingan toʻqima
- cillery** [ˈsɪləri] *n meʼmor.* barg (yaproq) shaklidagi bezak
- Cimmerian** [sɪˈmɪ(ə)rɪən] *a afs.* hech narsani koʻrib boʻlmaydigan (*kechasi*)
- cinchona** [sɪŋˈkəʊnə] *n bot.* xin(in) daraxti (*Janubiy Amerikada oʻsadigan, poʻstlogʻida xinin boʻladigan daraxt*)
- cincture** [ˈsɪŋktʃə] **1.** *n* belbogʻ; **2.** *v* belbogʻ bogʻlamoq
- cinder** [ˈsɪndə] **1.** *n* tutab yonadigan koʻmir; **2.** *v* 1) yondirmoq; 2) yonib kulga aylanmoq
- cinder-box** [ˈsɪndəˌbɒks] *n tex.* kulxona, kuldon
- Cinderella** [ˌsɪndəˈrelə] *n* Zolushka, shumshuk qiz
- cinder-path** [ˈsɪndəpɑːθ] *n sport.* yugurish yoʻlkasi
- cinder track** [ˈsɪndətræk] = **cinder-path**
- cine-camera** [ˈsɪniˌkæməɹə] *n* kinoapparat (*kinofilm oladigan va uni ekranda koʻrsatadigan apparat*)
- cine-film** [ˈsɪnɪfɪlm] *n* kinoplyonka (*kinofilmlar suratga olingan maxsus lenta*)
- decussate** [di'kʌsɪt, di'kʌsɪt] *a* to'g'ri burchakning ostidan ko'ndalang kesib o'tadigan
- dedicate** ['dedɪkert] *v 1)* xabardor qilmoq, ma'lum qilmoq; 2) bag'ishlamoq, atamoq
- dedicated** [dedɪkertɪd] *a 1)* sodiq, sadoqatli, fidokor; 2) atalgan, bag'ishlangan
- dedication** [dedɪ'kerɪ(ə)n] *n 1)* sadoqat, sodiqlik, fidokorlik; 2) bag'ishlash, bag'ishlov
- dedicator** ['dedɪkertə] *n* sadoqatli kishi
- dedicatory** ['dedɪkət(ə)rɪ] *a* bag'ishlovchi, bag'ishlaydigan
- deduce** [di'dju:s] *v* xulosa chiqazmoq, iziga tushmoq
- deduct** [di'dʌkt] *v* ayirmoq, olib tashlamoq, ayiruv amalini bajarmoq
- deduction** [di'dʌkɪ(ə)n] *n 1)* *mat.* ayirish, chiqarib tashlash; 2) faraz, xulosa

- deductive** [diˈdʌktɪv] *a mant.* deduksiyaga asoslangan (*deduksiya — unumiy holatdan xususiy xulosalar chiqarish*)
- dee** [di:] *n* 1) *D* harfining nomi; 2) *tex.* *D* shaklidagi halqa
- deed I** [di:d] *n* 1) jasorat, mardlik; 2) ish, harakat, ishlash, muomala; *-s* xatti-harakat
- deed II** [di:d] *adv. shotl.* aslida, haqiqatan
- deed-poll** [ˈdi:dpoʊl] *n yur.* bir tomonlama majburiyat
- deem** [di:m] *v* faraz qilmoq, hisoblamoq, ... deb hisoblamoq
- deep** [di:p] 1. *a* chuqur, teran; *a - place* o'yi, o'yilgan joy; 2. *n* chuqur joy
- deepen** [ˈdi:p(ə)n] *v* 1) chuqurlashmoq; 2) kuchayib ketmoq
- deep-felt** [ˈdi:pˈfelt] *a* chuqur his etilgan
- deepfreeze** [ˈdi:pˈfri:z] 1. *n* muzlatuvchi qurilma; muzxona; 2. *v* muzlatmoq (*mahsulotlarni*)
- deep-frozen** [ˈdi:pˈfrəʊz(ə)n] *a* yangi muzlatilgan, endigina muzlatilgan
- deep-laid** [ˈdi:pˈleɪd] *a* 1) mayda-chuydasigacha ishlab chiqilgan va maxfiy (*reja*); 2) chuqur joylashgan
- deeply** [ˈdi:pli] *adv* chuqur, teran, chuqur qilib
- deep mining** [ˈdi:pˌmaɪnɪŋ] *n* yer ostidan ko'mir qazish
- deep-mouthed** [ˈdi:pˈmaʊðd] *a* 1) qattiq, o'tkir, jarangli, gulduros; 2) qattiq akillaydigan
- deepness** [ˈdi:pnis] *n* chuqurlik, teranlik
- deep-rooted** [ˈdi:pˈru:tɪd] *a* chuqur ildizli, ildizi chuqur
- deep-sea** [ˈdi:psi:] *a* 1) dengiz qa'rida yashaydigan; 2) chuqur (*suv havzalari haqida*)
- deep-seated** [ˈdi:pˈsi:tɪd] *a* chuqur o'r mashgan, tomir (ildiz) otgan
- deer** [diə] *n zool.* bug'u, kiyik; *red - asl* bug'u
- deer-forest** [ˈdiəˌforɪst] *n* bug'ular qo'riqxonasi
- deer-hound** [ˈdiəhaʊnd] *n* Shotlandiya tozi iti
- deer-lick** [ˈdiəˌlɪk] *n* bug'ular tuz yalaydigan tuz tuproqlardan iborat bo'lgan yer maydoni
- deer-neck** [ˈdiənek] *n* ingichka bo'yin (*otlarda*)
- deer-park** [ˈdiəpɑ:k] = **deer-forest**
- deerskin** [ˈdiəskɪn] *n* bug'u terisi
- deerstalker** [ˈdiəˌstɔ:kə] *n* bug'ularni ovlaydigan ovchi
- deerstalking** [ˈdiəˌstɔ:kɪŋ] *n* bug'ularni ovlash
- deface** [diˈfeɪs] *v* 1) buzmoq, buzib qo'y-moq, ishdan chiqarmoq, noto'g'ri talqin qilmoq; 2) obro'-e'tiborini to'kmoq
- defacement** [diˈfeɪsmənt] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish
- de facto** [diˈfæktəʊ] *adv lot.* aslida, haqiqatan
- defalcate** [ˈdi:fælkət] *v* 1) begonalarning pulini o'ziniki qilib olmoq; 2) ishonchni yo'qotmoq
- defamation** [ˌdefeˈmeɪʃ(ə)n] *n* tuhmat, bo'hton; g'iybat; yolg'on-yashiq, uydirma
- defamatory** [diˈfæmət(ə)rɪ] *a* tuhmat qilib aytilgan, tuhmatdan (bo'htondan) iborat bo'lgan, bo'hton
- defame** [diˈfeɪm] *v* tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq, g'iybat qilmoq
- defatted** [ˈdi:fætid] *a* yog'sizlantirilgan, yog'i olingan
- default** [diˈfɔ:lt] 1. *n* 1) burchni bajarmaslik (*usosan, pullik*); 2) (*pala-partishlik natijasida qilingan*) yanglish ish; yaxshi qaramaslik; e'tiborsizlik; 2. *v* to'lov to'lashni to'xtatmoq
- defaulter** [diˈfɔ:ltə] *n* 1) o'z majburiyatini bajarmaydigan kishi; 2) kamomad qilgan kishi; 3) obro'-e'tiborini yo'qotgan shaxs; 4) singan savdogar
- defeasance** [diˈfi:z(ə)ns] *n* 1) bekor qilish; kuchdan qoldirish; 2) *yur.* bekor qilish shartlari
- defeasible** [diˈfi:zəbl] *a* bekor qilsa bo'ladigan
- defeat** [diˈfi:t] 1. *n* 1) mag'lubiyat; **to sustain a ~** mag'lubiyatga uchramoq; 2) barbod bo'lish (*reja haqida*); 3) yo'qqa chiqish (*orzu-umidlar haqida*); 4) *yur.* bekor qilish; 2. *v* 1) mag'lubiyatga uchramoq; 2) (*rejalarni*) barbod qilmoq; 3) (*orzu-umidlar va b. ni*) puchga chiqarmoq; 4) *yur.* bekor qilmoq
- defeatism** [diˈfi:tɪzəm] *n* taslim bo'lish, mag'lub bo'lish
- defeatist** [diˈfi:tɪst] *n* 1) taslim bo'lish tarafdori; 2) qo'rqoq, jur'atsiz
- defeature** [diˈfi:tʃə] *v* tanimaydigan qilib qo'y-moq
- defecate** [ˈdefɪkət] *v* 1) tozalamoq, tozalanmoq; 2) (*suyuqlikni*) tinitmoq, tindirmoq; 3) yozilmoq, ichni bo'shatmoq
- defecation** [ˌdefɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) tozalash; 2) tinitish, tindirish; 3) yozilish, ichni bo'shatish
- defect** [diˈfekt] 1. *n* 1) nuqson, illat, ayb; kamchilik, buzqlik; 2) kamomad, kam chiqish, kam kelish; 2. *v* 1) o'z burchini bajarmaslik; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq
- defection** [diˈfekʃ(ə)n] *n* (*burchni*) buzish, xizmatdan (*vazifadan*) bosh tortish
- defective** [diˈfektɪv] *a* 1) kam-ko'sti bor, chala; 2) kam, oz, yetmaydigan; 3) mukam-

- mal emas; 4) buzuq, buzilgan, shikastlangan; 5) nuqsonli
- defence** [di 'fens] *n* mudofaa, himoya
- defenceless** [di 'fensləs] *a* himoyachisiz, ojiz, bechora, o'zini himoya qila olmaydigan
- defend** [di 'fend] *v* himoya qilmoq, mudofaa qilmoq, yoqlamoq
- defendant** [di 'fendənt] *n* yur. aybdor (javobgar, ayblanuvchi, sudlanuvchi) kishi
- defender** [di 'fendə] *n* himoyachi, himoya qiluvchi
- defense** [di 'fens] *amer.* = defence
- defensible** [di 'fensəbl] *a* *harb.* himoya uchun qulay
- defensive** [di 'fensiv] **1.** *n* 1) mudofaa; 2) qo'shinning jang paytida mudofaa uchun o'r-nashgan joyi; **2.** *a* mudofaaga qaratilgan, mudofaaga xizmat qiladigan
- defer** [di 'fə:] *v* 1) kechiktirmoq, keyinga qoldirmoq; ~red qoldirilgan, kechiktirilgan; 2) kimningdir fikri bilan hisoblashmoq; 3) boshqalarning maslahat yoki xohishi bilan ish tutmoq
- deference** [di 'fə(ə)r(ə)ns] *n* hurmat, hurmat bilan qarash; to show ~ to smb. kimgadir hurmat bilan muomala qilmoq
- deferential** [di 'fə'renʃ(ə)l] *a* 1) hurmat qiladigan, odobli; 2) ancha, anchagina, katta
- deferment** [di 'fə:mənt] *n* kechiktirish, keyinga qoldirish, muhlat berish
- deferred** [di 'fə:d] *a* 1) sekinlashgan, paysalga solingan; 2) keyinga surilgan, kechiktirilgan
- defervescence** [di 'fə:'vesns] *n* *tib.* haroratning pasayishi (tushishi)
- defiance** [di 'faiəns] *n* bo'ysunmaslik, itoat qilmastik, bosh tortish
- defiant** [di 'faiənt] *a* dag'al, qo'pol, qo'rs
- defiantly** [di 'faiəntli] *adv* dag'allik (qo'rslik, qo'pollik) bilan, qo'rs
- deficiency** [di 'fiʃ(ə)nsi] *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik
- deficient** [di 'fiʃ(ə)nt] *a* 1) kamchil, tanqis, yetarli bo'lmagan; 2) takomillashmagan
- deficit** [di 'fisiʃit] *n* 1) kamomad, kam chiqish, kam kelish; 2) yetishmaslik, tanqislik
- defilade** [di 'fai'leid] *n* *harb.* tabiiy pana joy
- defile I** [di 'fai] *v* 1) kir qilmoq, bulg'amoq; ~d harom; 2) tahqirlamoq, xo'rlamoq
- defile II** [di 'fai] **1.** *n* tor tog' oralig'i, tor yo'lak, dara; **2.** *v* tantanali yurish qilmoq
- defilement** [di 'fai'mənt] *n* iflos qilish, kir qilish, bulg'ash
- definable** [di 'fainəbl] *a* aniqlab bo'ladigan, bilib bo'ladigan, ta'riflab bo'ladigan, ta'riflanishi mumkin bo'lgan
- define** [di 'fain] *v* 1) aniqlamoq, belgilamoq, topmoq; 2) ta'riflamoq
- definite** [di 'definit] *a* aniq, ma'lum, muqarrar; **the ~ article** *gram.* aniq artikl; ~ly aniq, shaksiz; ~ness qat'iylik; qat'iyat
- definition** [di 'defi'nif(ə)n] *n* izoh, ta'rif
- definitive** [di 'finitiv] *a* 1) shak-shubhasiz; 2) ikkilanmaydigan, jasur; 3) eng so'nggi
- deflagrate** [di 'defləgreit] *v* tez yonmoq yoki yoqmoq
- deflagration** [di 'deflə'greiʃ(ə)n] *n* portlaydigan moddalarning birdan (*lov etib*) yonishi
- deflate** [di 'fleit] *v* 1) havoni nasos bilan tortib (so'rib) olmoq, chiqarib tashlamoq; 2) narxni kamaytirmoq (tushirmoq)
- deflation** [di 'fleif(ə)n] *n* *mol.* 1) muomaladagi pul miqdorini kamaytirish; 2) havoni chiqarib yuborish
- deflect** [di 'flekt] *v* 1) biror tomonga (burmoq, og'dirmoq) burib qo'ymoq; 2) og'moq, engashmoq, qiysaymoq, burilmoq; 3) yo'nalishini o'zgartirmoq
- deflected** [di 'flektid] *a* 1) qaytgan, yo'nalishni o'zgartirgan; 2) bukilgan, egilgan; 3) qiysliq
- deflection** [di 'flekf(ə)n] *n* yo'nalishini o'zgartirish
- deflective** [di 'flektiv] *a* bukiladigan, egiladigan
- deflector** [di 'flektə] *n* *tex.* qaytargich
- deflexion** [di 'flekf(ə)n] = deflection
- deflorate** [di 'flə:reit] *a* *bot.* gullab bo'lgan, guldari tushgan
- defloration** [di 'flə:'reiʃ(ə)n] *n* 1) gullarini tushirish; 2) zo'rlash; nomusiga tegish
- deflower** [di 'fləʊə] *v* 1) gullarni uzmoq (yulmoq); 2) zo'rlamoq, nomusiga tegmoq
- defoliate** [di 'fəʊliət] **1.** *a* barglari tushgan, bargsiz; **2.** *v* 1) barglarini tushirmoq; 2) o'simliklarni yo'q qilmoq
- defoliation** [di 'fəʊli'eiʃ(ə)n] *n* barglarning tushishi; xazonrez, xazonrezlik
- deforest** [di 'fri:st] *v* o'rmondagi daraxtlarni kesib, o'rmonni yo'q qilmoq
- deforestation** [di 'fəʊris'teiʃ(ə)n] *n* o'rmonni, dov-daraxtlarni yo'q qilish, daraxtsiz yalanglikka aylantirish
- deform** [di 'fə:m] *v* 1) majruh qilmoq, ishdan chiqarmoq; 2) (*fikri*) buzib ko'rsatmoq; noto'g'ri talqin qilmoq
- deformation** [di 'fə:'meiʃ(ə)n] *n* 1) buzib ko'rsatish, noto'g'ri talqin qilish; 2) *tex.* shaklning o'zgarishi yoki o'zgartirilishi
- deformity** [di 'fə:mnti] *n* xunuklik, badbaxshalik, beo'xshovlik
- defraud** [di 'frə:d] *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq, firib bermoq, pand bermoq

- defray** [diˈfreɪ] *v* to'lamoq, (*xarajat, soliq va h. k. uchun*) haq, pul to'lamoq
- defrayal** [diˈfreɪ(ə)l] *n* to'lanadigan (olinadigan) pul, haq, to'lov
- defrayment** [diˈfreɪmənt] = **defrayal**
- defreeze** [ˌdiːˈfriːz] *v* (*ozuq-ovqatni*) eritmoq, muzdan tushirmoq
- defrock** [ˌdiːˈfrɒk] *v* (*rohibni*) martabadan tushirmoq
- defrost** [diːˈfrɒst] *v* muz (yax)dan tushirmoq, eritmoq
- defroster** [diːˈfrɒstə] *n* *tex.* eritgich, muz erituvchi asbob
- deft** [deft] *a* epchil, chaqqon, abjir; usta, mohir, chaptast
- defunct** [diˈfʌŋ(k)t] **1.** *a* marhum, rahmatli, o'lgan, vafot etgan; **2.** *n* (*the -*) o'lib ketgan kishi
- defuse** [diːˈfjuːz] *v* 1) vaziyatni yumshatmoq; 2) zararsizlantirmoq
- defy** [diˈfaɪ] *v* 1) chorlamoq, chaqirmoq; 2) nazar-pisand qilmaslik, mensimaslik; 3) e'tiborsizlik (beparvolik) bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik
- degas** [diˈgæs] *v* zaharli gazdan tozalab zararsizlantirmoq
- degeneracy** [diˈdʒen(ə)rəsi] *n* 1) zotning (naslning) buzilishi; boshqacha tug'ilish; 2) tushkunlik, inqiroz, tanazzul
- degenerate** [diˈdʒen(ə)rɪt] **1.** *n* zoti (nasli) buzilgan shaxs; chala (zoti, nasli buzilgan, jismoniy *yoki* ruhiy jihatdan aynigan holda) tug'ilgan odam; **2.** *a* chala tug'ilgan, zoti (nasli) buzilgan
- degeneration** [diˈdʒenəˈreɪʃ(ə)n] *n* zotning (naslning) buzilishi
- degenerative** [diˈdʒen(ə)rətɪv] *a* 1) chala tug'ilgan; 2) zoti buzilgan
- degrade** [diˈgreɪd] *v* 1) tushkunlikka (inqirozga) yuz tutmoq; zavol topmoq; 2) (*kuch, narx va b.ni*) pasaytirmoq, tushirmoq, kamaytirmoq; 3) (*mansabdan*) pasaytirmoq; 4) kamsitmoq, yerga urmoq
- degraded** [diˈgreɪdɪd] *a* inqirozga yuz tutib turgan
- degrading** [diˈgreɪdɪŋ] *a* pastkash; kamsitadigan
- degree** [diˈɡriː] *n* 1) daraja, bosqich, pal-la, pog'ona; *by ~s* asta-sekin; *to the last ~* so'nggi darajagacha; 2) daraja, saviya; 3) unvon, ilmiy daraja; 4) qarindoshlik darajasi; 5) *gram.* daraja; 6) *mat.* daraja
- degression** [diˈɡreɪʃ(ə)n] *n* 1) kamayish, oza-yish; 2) soliqlarning pasayishi
- degressive** [diˈɡresɪv] *a* pasayuvchi, kamayib boradigan
- dehisce** [diˈhɪs] *v* ochilmoq, yorilib chiqmoq (*ko'sak haqida*)
- dehiscent** [diˈhɪsnt] *a* ochilayotgan, yozilayotgan (*ko'sak haqida*)
- dehorn** [ˌdiːˈhɔːn] *v* shoxlarni (muguzni) aralamoq
- dehumanize** [ˌdiːˈhjuːmənaɪz] *v* vahshiy odamga aylantirmoq
- dehydration** [ˌdiːˈhaɪˈdreɪʃ(ə)n] *n* *kim.* suvsizlantirish, suvini qochirish
- dehydrogenize** [diˈhaɪdrədʒənəɪz] *v* *kim.* vodorodni ketkizmoq (olib tashlamoq, yo'qotmoq)
- de-ice** [ˌdiːˈaɪs] *v* muzlashning oldini olmoq (bartaraf etmoq)
- de-icer** [ˌdiːˈaɪsə] *n* muzlashga qarshi vosita (modda)
- deictic** [ˈdeɪktɪk] *a* *mant.* bevosita isbotlovchi, ishontiruvchi
- deification** [ˌdiːɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* ilohiylashtirish, sig'inish, xudo deb bilish
- deify** [ˈdiːfaɪ] *v* ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq, topinmoq
- deign** [deɪn] *v* lozim ko'rmoq (topmoq); munosib ko'rmoq
- deism** [ˈdiːz(ə)m] *n* deizm (*Xudoni tan oluvchi, lekin uning tabiat taraqqiyotiga daxli yo'q deb biluvchi diniy-falsafiy ta'limot*)
- deist** [ˈdiːst] *n* deizm tarafdori
- deity** [ˈdiːti] *n* 1) Tangri; Alloh; 2) ma'buda, but, sanam
- deject** [diˈdʒekt] *v* xafa qilib (ranjitib) qo'y-moq
- dejecta** [diˈdʒektə] *n* *pl* 1) ichni bo'shatish; 2) axlat, najas
- dejected** [diˈdʒektɪd] *a* xafa bo'lgan, ranjigan
- dejection** [diˈdʒekʃ(ə)n] *n* ruhiy tushkunlik, g'amginlik, ma'yuslik
- déjeuner** [ˈdeɪʒənɛɪ] *n* *fr.* dabdabali, bezatilgan *yoki* rasmiy (*nonushta*)
- de jure** [ˌdiːˈdʒʊəri] *a* *lot.* yuridik
- delaine** [dəˈleɪn] *n* yengil ko'ylakbop mato
- delate** [diˈleɪt] *v* 1) ayblamoq; 2) xabardor qilmoq; 3) ovoza qilib yubormoq
- delation** [diˈleɪʃ(ə)n] *n* chaquv, zimdan berilgan xabar, chaqim
- delator** [diˈleɪtə] *n* chaqimchi, xabar beruvchi
- delay** [diˈleɪ] **1.** *n* kechiktirish, keyinga surish; **2.** *v* kechiktirmoq, keyinga surmoq
- delayed-action mine** [diˈleɪdˌækʃ(ə)nˈmaɪn] *n* *harb.* belgilangan vaqtda portlaydigan mina
- delayed drop** [diˈleɪddrɒp] *n* parashutni ancha vaqt ochmay tushish
- dele** [diˈli(:)] **1.** *n* chiqarib tashlashning korrektura (korrekturaga oid) belgilari; **2.** *v*

- belgilarni o'chirib tashlamoq (*korrektura-da*)
- delectable** [di'lektəbl] *a* g'oyat go'zal, ajoyib, qoyilmaqom
- delectation** [di:'lektətʃ(ə)n] *n* 1) orom, laz-zat, maza, zavq; 2) orom olish, lazzatlanish, zavqlanish
- delectus** [di'lektəs] *n* *lot. makt. lotin yoki grek xrestomatiyasi*
- delegacy** [deli'geɪsi] *n* 1) delegatsiya; 2) delegatning vakilligi; 3) vakillik
- delegate** [deli'geɪt] 1. *n* vakil; 2. *v* vakil qilib yubormoq
- delegated legislation** [deli'geɪtɪd,ledʒɪs'leɪʃ(ə)n] *n* vazirning qonun kuchiga ega bo'lgan qaror chiqarish huquqi
- delegation** [deli'geɪʃ(ə)n] *n* vakil, delegatsiya
- delete** [di'li:t] *v* o'chirib tashlamoq, chizib tashlamoq
- deleterious** [deli'tɛriəs] *a* zararli, ziyon qiladigan, zarar keltira oladigan
- deletion** [di'li:ʃ(ə)n] *n* 1) o'chirish, chizish; 2) o'chirib (chizib) tashlangan narsa
- delft** [delft] *n* 1) fayans (*ganch aralash loy*); 2) fayans buyumlar
- deliberate** [di'lib(ə)rɪt] 1. *a* oldindan o'ylab (mo'ljallab) qo'yilgan; ataylab (qasddan, jo'rttaga) qilingan; g'arazli; 2. *v* kengashmoq, maslahatlashmoq
- deliberately** [di'lib(ə)rɪtli] *adv* 1) ataylab, jo'rttaga, qasddan; 2) ehtiyotkorlik bilan; 3) sekin-asta, shoshilmasdan
- deliberation** [di,lib(ə)'reɪʃ(ə)n] *n* 1) chuqur o'ylash, mulohaza qilish; 2) shoshilmaslik; **to speak with** ~ shoshilmasdan gapirmoq
- deliberative** [di'lib(ə)rətɪv] *a* maslahat (kengash)ga oid
- delicacy** [deli'kəsi] *n* 1) nafislik, noziklik, xipchalik; 2) odoblilik, muloyimlik, nazokat
- delicate** [deli'kɪt] *a* 1) nazokatli, mahoratli, mohir; 2) latofatli, nozik, go'zal; 3) quvvatsiz, nozik, nimjon
- delicatessen** [deli'kɛ'tesn] *n* *nem.* 1) yaxna ovqatlar; 2) rostbif (*molning biqin go'shidan qilingan qovurma*); 2) oziq-ovqat do'kon
- delicious** [di'liʃəs] *a* 1) g'oyat go'zal, maf-tunkor, dilrabo; 2) juda shirin; mazali
- delict** [di'likt] *n* *yur.* qonunbuzarlik, qonunni buzish, qonunga xilof ish qilish
- delight** [di'laɪt] *v* 1) suyuntirmoq, ko'nglini (dilini) yorishtirmoq; shodlantirmoq; 2) lazzatlanmoq
- delightful** [di'laɪtʃ(ə)] *a* maf-tunkor, dilrabo, jozibali, zavqli, fayzli
- delightsome** [di'laɪtsəm] *a* qoyilmaqom, ajoyib
- delimit** [di:'li:mɪt] *v* chegarani aniqlamoq, alohida bo'lmog
- delimitate** [di:'li:mɪteɪt] = **delimit**
- delimitation** [di,li:mɪ'teɪʃ(ə)n] *n* chegarani aniqlash
- delineate** [di'li:mɪeɪt] *v* 1) ustidan chizib chiqmoq, ustidan qalam yurgizmoq; 2) tasvir-lab bermoq
- delineation** [di,li:mɪ'eɪʃ(ə)n] *n* tasvir, bayon, chizma
- delineator** [di'li:mɪeɪtə] *n* 1) o'lchamni belgilovchi (*odam, inson*); 2) andaza
- delinquency** [di'liŋkwənʃi] *n* 1) ayb, nojo'ya ish, noo'rin xatti-harakat; 2) jinoyatchilik, jinoyatkorlik
- delinquent** [di'liŋkwənt] *n* qonunni buzuvchi (jinoyatchi, jinoyat qiluvchi) kishi
- deliquesce** [deli'kwes] *v* *kim.* erimoq, erib ketmoq
- deliquescence** [deli'kwesns] *n* *kim.* eruvchanlik, moddaning eruvchanlik xususiyati
- deliquescent** [deli'kwesnt] *a* (*havodan yu-tilgan namlikdan*) eriydigan
- delirious** [di'li(ə)rɪəs] *a* 1) bosinqiraydigan, alahsiragan; 2) aqldan ozgan, telba
- delirium** [di'li(ə)rɪəm] *n* darg'azab, ortiq darajada asabiylashish
- delirium tremens** [di,li:rɪəm'tri:menz] *n* al-kogolizm oqibatidagi og'ir ruhiy kasallik
- delitescence, -cy** [deli'tesns, -sɪ] *n* *tib.* yashirin, inkubatsion davr (*kasallikning yashirin davri*)
- delitescent** [deli'tesnt] *a* *tib.* sirdan bilinmaydigan (*kasallik alomatlari haqida*)
- deliver** [di'livə] *v* (*xatlar, mollarni*) yetkazib bermoq, tarqatmoq
- deliverance** [di'liv(ə)r(ə)ns] *n* ozod qilish, ozod bo'lish, ozodlikka chiqish
- delivery** [di'liv(ə)rɪ] *n* eltib berish, ta'minlash, yetkazib berish
- delivery note** [di'liv(ə)rɪneɪt] *n* yopishtirma, qoplama
- delivery van** [di'liv(ə)rɪvæn] *n* yuk tashuvchi avtobus
- dell** [del] *n* o'rmonli (serdaraxt) vodi
- Delphian** [del'fiən] *a* *qad. grek.* 1) jumboqli, sirli; 2) tushunib bo'lmaydigan
- Delphic, Delphical** [del'fik, -(ə)] = **Delphian**
- delphinium** [del'fɪniəm] *n* *bot.* delphinium (*ayiqtovon* (*zaharli o't*))liklar oilasiga mansub tibbiyotda va dekorativ maqsadda ishlatiladigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik)
- delta** [delte] *n* 1) *geogr.* delta (*daryoning tarmoqlanib ko'tga yoki dengizga quyila-*

- digan joyi*); 2) delta (*grek alifbosining to'rtinchi harfi*)
- deltaic** [del'teik] *a* delta yasovchi
- deltoid** [deltoid] *a* uchburchakli, delta shaklidagi
- delude** [dr'lu:d] *v* aldamoq, firib bermoq
- deluge** [delju:dʒ] 1. *n* toshqin, suv bosish; 2. *v* suv bosmoq; suv bostirmoq
- delusion** [dr'lu:ʒ(ə)n] *n* adashtirish, yanglishtirish, chalg'itish
- delusive** [dr'lu:siv] *a* yolg'ondan iborat bo'lgan, yanglishtiradigan, chalg'itadigan, aldovchi; ~ **hopes** ushalmaydigan orzular
- delusory** [dr'lu:s(ə)rɪ] = **delusive**
- deluxe** [də'luks] *a* dabdabali, hashamatli, ziynatli, yasatilgan, bezatilgan, dang'illama, muhtasham, serhasham
- delve** [delv] *v* esk. kovlamoq, qazimoq, qazib chuqurlashtirmoq
- demagnetization** [di:mægnɪtə'zeɪʃ(ə)n] *n* magnitsizlantirish, magnitlik xususiyatini yo'qotish
- demagnetize** [di:mægnɪtaɪz] *v* magnitsizlantirmoq, magnitlik xususiyatini yo'qotmoq
- demagog** [deməgɒg] = **demagogue**
- demagogic** [deməgɒgɪk] *a* demagogiyadan (safsatabozlikdan) iborat bo'lgan
- demagogue** [deməgɒg] *n* demagog, safsataboz
- demagogy** [deməgɒɡɪ] *n* laqillatish, safsatabozlik, quruq gap
- demand** [dr'mɑ:nd] 1. *n* talab; -s talablar; 2. *v* talab qilmoq
- demandant** [dr'mɑ:ndənt] *n* yur. da'vogar, haq talab qiluvchi
- demanding** [dr'mɑ:ndɪŋ] *a* talabchan
- demarcate** [di:mɑ:kert] *v* 1) chegaralamoq, ajratmoq; 2) demarkatsiya chizig'i o'tkazmoq
- demarcation** [di:mɑ:'keɪʃ(ə)n] *n* chegaralash, chegarasini belgilash; boshqalardan ajratish
- demarche** [demɑ:ʃ] *n* fr. dip. demarsh, namoyishkorona diplomatik harakat, murojaat
- demean** [dr'mi:n] *v* 1) o'zini tutmoq; 2) kamситmoq, yerga urmoq, xo'rlamoq; to ~ **oneself well** o'zini yaxshi (munosib) tutmoq
- demeanour** [dr'mi:nə] *n* axloq, fe'l-atvor, muomala, yurish-turish
- dement** [dr'ment] *v* aqldan ozmoq
- demented** [dr'mentɪd] *a* aqldan ozgan, jinni, savdoyi, telba, devona; to **become** ~ aqldan ozmoq
- dementia** [dr'menʃ(ɪ)ə] *n* tib. aqli kamlik, aqli pastlik
- demerit** [di:'merɪt] *n* 1) nuqson, illat, ayb, kamchilik; 2) yetishmaslik, kamlik, tanqislik; 3) muhtojlik, kambag'allik
- demeritorious** [di:merɪ'tɔ:riəs] *a* tanbehga loyiq
- demi-** [di:'demi-] *pref.* yarimtasi, yarmi
- demigod** [demɪgɒd] *n* yarmi xudo
- demijohn** [demɪdʒɒn] *n* to'qib o'rilgan katta idish
- demilitarization** [di:mɪlɪtəraɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* qurolsizlantirish, qurolli kuch va harbiy sanoatdan mahrum etish
- demilitarize** [di:mɪlɪtəraɪz] *v* demilitarizatsiyalashtirmoq, qurolsizlantirmoq
- demilune** [demɪlju:n] *n* tar. yarimoy
- demi-monde** [di:'mi:mɔ:(ə)nd] *n* fr. yarimchiroq
- demi-rep** [di:'demɪrep] *n* yomon xulqli ayol
- demisable** [dr'maɪzəbl] *a* meros sifatida qoldirsa bo'ladigan (*mulk haqida*)
- demise** [dr'maɪz] *n* 1) o'lim, vafot, qazo; 2) mulkni meros sifatida qoldirish; 3) mulkni ijaraga berish
- demission** [dr'mɪʃ(ə)n] *n* esk. ishdan bo'shsh, ishdan bo'shatilish, ishdan bo'shatish
- demiurge** [di:'mi:ɹɜ:dʒ] *n* din. yaratuvchi, egam, parvardigor
- demobee** [di:mə'bi:] *n* demobilizatsiya qilingan shaxs
- demobilization** [di:məʊbɪl(a)ɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* demobilizatsiya (1. *harbiy xizmatdan bo'shatish*; 2. *tinchlik holatiga o'tkazish*)
- demobilize** [di:'məʊbɪlaɪz] *v* demobilizatsiya qilinmoq
- democracy** [di'mɒkrəsi] *n* demokratiya, xalqparvarlik
- democrat** [di'mɒkræt] *n* demokrat
- democratic** [di'mɒkrætɪk] *a* demokratiyaga asoslangan; demokratik
- democratization** [di:mɒkrə't(a)ɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* demokratlashtirmoq, demokratlashish
- democratize** [di'mɒkrətaɪz] *v* demokratlashtirmoq, demokratik asosda qayta qurmoq
- demodé** [deɪmɔ:'deɪ] *a* fr. eskirgan, modadan qolgan
- demographic** [di:mə'græfɪk] *a* demografiyaga oid
- demography** [di:'mɒgrəfɪ] *n* demografiya, aholishunoslik
- demoiselle** [demwɑ:'zel] *n* fr. 1) qiz bola; 2) zool. go'zal turna
- demolish** [di'mɒlɪʃ] *v* parchalamoq, buzmoq; yemirmoq; ~ed yemirilgan
- demolition** [demə'liʃ(ə)n] *n* buzish, yo'q qilib tashlash, qirib tashlash

demon [di:mən] *n* jin, ajina
demonetize [di:'mənɪtaɪz] *v* o'z qiymatini yo'qotmoq (*tangaga nisbatan*)
demoniac [di'məʊniæk] *a* 1) jin urgan, telbaroq, tentakroq, jinniroq; mukkasidan ketgan, vasvasaga tushgan, muhtalo, savdoyi, shaydo, jinni; 2) iblisga (shaytonga) oid, shaytonga xos bo'lgan, iblisona; iblis...; shayton...
demoniacal [di:mə'niæk(ə)l] *a* 1) iblisga (shaytonga) oid, iblisona; 2) johil, iblis
demonic [di:'mɒnɪk] *a* iblisga (shaytonga) oid; iblisona
demonstrable [dɛmən'strəbl̩] *a* isbotlanishi mumkin bo'lgan, isbot qilib bo'ladigan
demonstrate [dɛmən'streɪt] *v* ko'rsatmoq, namoyish qilmoq
demonstration [dɛmən'streɪʃ(ə)n] *n* namoyish, ko'rsatish
demonstrationist [dɛmən'streɪʃ(ə)nɪst] = **demonstrator**
demonstrative [di'mɒn'strətɪv] *n* 1. *a* namoyish etiladigan, ko'rsatiladigan; 2 *gram.* ~ **pronouns** ko'rsatish olmoshlari
demonstrator [dɛmən'streɪtə] *n* namoyishchi
demoralization [di,mɒrəl'aɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* intizomning, jangovar ruhning yo'qolishi, tushkunlik kayfiyati; 2) maishiy buzilish, buzuqlik, razolat
demoralize [di'mɒrəlaɪz] *v* tushkunlikka solmoq, huzmoq
demos [di:mɒs] *n* *Qad. Rim.* xalq
demote [di'məʊt] *v* *amer.* (*mansabini*) pasaytirmoq
demotic [di:(ə)'mɒtɪk] *a* xalqqa mansub (oid); oinnaviy
demount [di'maʊnt] *v* qismlarga (bo'laklarga) ajratmoq
demountable [di'maʊntəbl̩] *a* qismlarga ajraladigan va qayta yig'ib qo'yiladigan, yig'ma
demulcent [di:(ə)'mʌlsənt] 1. *n* *tib.* tinchlantiradigan dori; 2. *a* tinchlantiradigan, og'riqni pasaytiradigan
demur [di'mɜ:] *v* e'tiroz (qarshi fikr) bildirmoq, qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq; so'z qaytarmoq
demure [di'mjʊə] *a* kantar, kamsuqum, oddiy, sipo; kantarin
demurrage [di'mɜrɪdʒ] *n* bekor turish, bekor to'xtab turish (*kema, vagon haqida*)
demurrer [di'mɜrə] *n* 1) shubhalanadigan, gumonsiraydigan, ikkilanadigan kishi; 2) [di'mɜrə] *yur.* e'tiroz, qarshilik
demy [di'maɪ] *n* qog'ozning formati (bichimi)

den [den] *n* 1) ayiq ini; 2) uy, kulba
denarius [di'neəriəs] *n* dinariy (*Qadimgi Rim tangasi*)
denary [di:nəri] *a* o'nlik, o'ntalab sanaladigan
denatured [di:neɪtʃəd] *a* aynitilgan (*ichib, iste'mol qilib bo'lmaydigan holga keltirilgan*)
denatured alcohol [di:neɪtʃəd'ælkəhɒl] *n* denaturat (*denaturatsiya qilingan, aynitilgan spirt*)
denazification [di:nə:zɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n* fashizmni yo'qotish
denazify [di'nə:zɪfaɪ] *v* denatsifikatsiya qilmoq
dendriiform [dendri'fɔ:m] *a* daraxtga o'xshagan, daraxtsimon, daraxt shaklidagi
dendritic [den'drɪtɪk] *a* daraxtga o'xshash
dendroid(al) [dend'rɔɪd(ə)l] = **dendritic**
dendrology [den'drɒlədʒɪ] *n* dendrologiya (*botanikaning daraxt va butalar haqidagi bo'limi*)
dene [di:n] *n* 1) vodiy, soy; 2) qirg'oq bo'yidagi qumlar
deniable [di'naɪəbl̩] *a* janjalli, munozarali, talash; **it's not ~ that ...** shak-shubha yo'qki...
denial [di'naɪ(ə)l] *n* rad, inkor, salbiy javob
denigrate [denɪ'greɪt] *v* 1) qoraytirmoq, qoraga bo'yamoq; 2) yomonlamoq, qoralamoq, yomonga chiqarmoq, sharmanda qilmoq; 3) badnom qilmoq, obro'sini to'kmoq; yomon otliq qilmoq
denigration [denɪ'greɪʃ(ə)n] *n* tuhmat, bo'hton, uydirma, g'iybat
denim [denɪm] *n* dag'al ip gazlama
denizen ['denɪz(ə)n] 1. *n* 1) iqlimga moslashtirilgan o'simlik yoki hayvon; 2) istiqomat qiluvchi, yashovchi, turuvchi; 2. *v* fuqarolikka qabul qilmoq
denominate [di'nɒmɪneɪt] *v* 1) nomlamoq, atamoq, ot qo'ymoq; 2) aniqlamoq, ayon qilmoq, ko'rsatmoq
denomination [di,nɒmɪ'neɪʃ(ə)n] *n* 1) nom, ot, ism; 2) din, e'tiqod, mazhab
denominator [di'nɒmɪneɪtə] *n* *mat.* 1) maxraj; 2) bo'luvchi
denotation [di:nə(ə)'teɪʃ(ə)n] *n* 1) belgilash, belgi qo'yish; 2) belgi qo'yib ko'rsatish; 3) alomat, belgi
denotative [di'neʊtətɪv] *a* bildiradigan, anglatadigan
denote [di'neʊt] *v* bildirmoq, ma'no anglatmoq, ma'no bermoq
denotement [di'neʊtmənt] *n* belgi, alomat, ishora

dénouement [deɪˈnuːmənt] *n* *adab.* yechim, oqibat, yakun, pirovard, oxiri (*roman haqidā*)

denounce [diˈnaʊns] *v* 1) (*aybni*) fosh qilmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; 2) ayblamoq, qoralamoq, yomonlamoq, taʼna qilmoq

dense [dens] *a* zich, tigʻiz, qalin

densely [densli] *adv* zich, tigʻiz; qalin, zich (qalin) qilib; **a** ~ **populated area** aholisi zich joylashgan joy

densimeter [denˈsɪmɪtə] *n* *fiz.* areometr (*suyuqlikning zichligini, solishtirma ogʻirligini oʻlchaydigan asbob*)

density [densɪti] *n* qalinlik, zichlik, tigʻizlik

dent [dent] *v* bosib (siqib) kirgizmoq, bosib (qapishirib) yubormoq

dental [dentl] 1. *n* *fan.* tish (tish ishtirokida yuzaga keladigan) tovush; 2. *a* tishga oid; tish...

dentate [ˈdentet] *a* tishli

denticle [ˈdentɪkl] *n* kichkina (mayda) tish, tishcha

denticular [denˈtɪkjʊlə] = **denticulate**

denticulate, denticulated [denˈtɪkjʊlə(e)ɪt, denˈtɪkjʊləɪtɹd] *a* oʻtmaslashgan, dami qaytgan, oʻtmaslangan

dentifrice [ˈdentɪfrɪs] *n* tish kukuni (*pastasi*)

dentist [ˈdentɪst] *n* tish doktori

dentistry [ˈdentɪstri] *n* 1) tishlarni davolash; 2) tish shifokorligi kasbi

denuclearization [ˈdiːnjuːklɪəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* yadro qurolidan xalos qilish, yadro qurolidan xoli mintaqani yaratish

denuclearized [ˈdiːnjuːklɪəraɪzɪd] *a* yadro qurolidan xalos etilgan; **a** ~ **zone** yadro qurolidan xalos etilgan mintaqa

denude [diˈnjuːd] *v* yalangʻochlamoq, ochmoq, ochib tashlamoq

denunciation [diˈnʌnsiˈeɪʃ(ə)n] *n* chaqimchilik, aybni fosh qilish, oshkor qilish, ochib tashlash

denunciative [diˈnʌnsiətɪv] *a* ayblash bilan bogʻliq boʻlgan, ayblaydigan

denunciator [diˈnʌnsiətə] *n* ayblovchi, qoralovchi, tanqid qiluvchi

deny [diˈnaɪ] *v* inkor qilmoq, tonmoq, rad qilmoq

deodorant [diˈəʊd(ə)rənt] 1. *n* dezodorator (*badboʻy hidni yoʻqotadigan qurilma yoki modda*); 2. *a* badboʻy hidni yoʻq qiluvchi

deodorize [diˈəʊdəraɪz] *v* badboʻy hidni yoʻq qilmoq

deontology [ˌdiːɒnˈtɒlədʒɪ] *n* etika (*axloq haqidagi falsafiy taʼlimot*)

depart II [diˈpɑːt] *v* joʻnamoq, joʻnab ketmoq

departed [diˈpɑːtɪd] *a* *esk. shoir.* 1) oʻtgan, boʻlib oʻtgan, oʻtib ketgan, oʻtmish, ilgari; boshdan kechirilgan, boshdan oʻtgan, koʻrilgan, eski; ~ **joys** oʻtmishdagi xursandchiliklar; 2) oʻlgan, vafot etgan, qazo qilgan

department [diˈpɑːtmənt] *n* boʻlim, shoʻba, muassasa, idora

departmental [ˌdiːpɑːtˈmentl] *a* biror korxonaga qarashli; biror korxonada ixtiyoridagi

departmentalism [ˌdiːpɑːtˈmentəlɪzəm] *n* rasmiyatchilik, qogʻozbozlik

departure [diˈpɑːtʃə] *n* joʻnash, joʻnab ketish

depend [diˈpend] *v* bogʻliq, qaram boʻlmoq

dependence [diˈpendəns] *n* qaramlik; bogʻliqlik, tobelik

dependency [diˈpendənsɪ] = **dependence**

dependent [diˈpendənt] *a* qaram, tobe

depict [diˈpɪkt] *v* tasvirlamoq; ~**ed** tasvirlangan

deplete [diˈpliːt] *v* ozdirib yubormoq, darmonini quritmoq, holdan toydirmoq

depletion [diˈpliːʃ(ə)n] *n* 1) kamayish, oza-yish; 2) yemirilish

deplorable [diˈplɔːrəbl] *a* 1) mungli, hazin; 2) oʻta achinarli, ayanchli

deplorably [diˈplɔːrəblɪ] *adv* 1) maʼyus, xafa (gʻamgin) ravishda; 2) afsus, atang

deplore [diˈplɔː] *v* oʻksinmoq, afsuslanmoq, pushaymon qilmoq

deploy [diˈplɔɪ] *v* *harb.* jangovar holga keltirmoq

deployment [diˈplɔɪmənt] *n* kengaytirish, avj oldirish, kuchaytirish

deponent [diˈpeʊnənt] *n* *yar.* guvoh, shohid

depopulate [ˌdiːpɒpjʊleɪt] *v* odamsiz qoldirmoq; huvillatib qoʻymoq

deport [diˈpɔːt] *v* surgun qilmoq

deportation [ˌdiːpɔːtʃ(ə)n] *n* surgun

deportment [diˈpɔːtmənt] *n* axloq, xulq, muomala, yurish-turish

depose [diˈpeʊz] *v* agʻdarmoq, yiqitmoq, tushirmoq, agʻdarib tashlamoq

deposit [diˈpɒzɪt] 1. *n* zakalat; garovga qoʻyilgan pul; ~**or** pul qoʻygan kishi; 2. *v* zakalat bermoq; garovga pul bermoq

depository [diˈpɒzɪt(ə)rɪ] *n* ishonchli odam

deposition [ˌdeɪpəˈzɪʃ(ə)n] *n* mansabdan tushirish; taxtdan agʻdarish

depository [diˈpɒzɪt(ə)rɪ] *n* ombor, omborxon

depot [ˈdepəʊ] *n* 1) ombor, omborxon; 2) *harb.* oʻquv boʻlimi; 3) *amer.* temir yoʻl stansiyasi (bekati)

deprave [diˈpreɪv] *v* 1) jinsiy buzqlikka (fohishabozlikka) oʻrgatmoq; 2) axloqni buzmoq, axloqsizlikka oʻrgatmoq, yoʻldan ozdirmoq

depravity [di'prævɪtɪ] *n* axloqsizlik, odob-sizlik, buzqlik

deprecate ['depreɪkət] *v* e'tiroz bildirmoq, qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq

depreciate [di'pri:ʃi:ɪt] *v* kamsitmoq, xor (beqadr) qilmoq

depredation [ˌdeprɪ'deɪʃ(ə)n] *n* bosqinchilik, o'g'rilik

depress [di'pres] *v* kuch bilan bosmoq, bosib qo'yimoq, yanchib tashlamoq

depressed [di'prest] *a* g'amgin, tushkunlikka tushgan

depression [di'preʃ(ə)n] *n* 1) ma'yuslik, g'amginlik; umidsizlik; 2) chuqurlik, jar

deprivation [ˌdeprɪ'veɪʃ(ə)n] *n* 1) mahrum qilish; 2) qo'ldan berish, ajralish, yo'qotish

deprive [di'praɪv] *v* mahrum etmoq, judo qilmoq; ~d benasib, mahrum bo'lgan

depth [depθ] *n* 1) chuqurlik, teraanlik; 2) tubanlik, razillik, pastlik

depurate [ˌdepjʊreɪt] *v* tozalanmoq, soflanmoq, toza bo'lmoq

deputation [ˌdepju(:)'teɪʃ(ə)n] *n* delegatlar, vakillar

depute [di'pjʊ:t] *v* (kimgadir) hokimiyat yoki vakolatni topshirmoq

deputize [ˌdepjʊtaɪz] *v* vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq

deputy ['depjʊtɪ] *n* 1) deputat, delegat; 2) o'rinbosar, muovin

derail [di'reɪl] *v* halokatga uchramoq (uchratmoq)

derange [di'reɪndʒ] *v* 1) tartibsizlikka olib kelmoq; 2) aqldan ozdirmoq

derelict ['derɪlɪkt] *1. n* 1) ishga yaramay qolganligi uchun tashlab yuborilgan narsa; 2) hech kimga qarashli bo'lmagan (egasiz) buyum; *2. a* tashlandiq; egasiz, qarovsiz, tashlab ketilgan

dereliction [ˌderrɪ'lkʃ(ə)n] *n* 1) tashlab qo'yish, qarovsiz qoldirish; 2) adashish, kamchilik, xato

derestrict [ˌdi:ri'strɪkt] *v* cheklovni olib tashlamoq

deride [di'reɪd] *v* masxara qilmoq, ustidan kulmoq

derision [di'reɪʒ(ə)n] *n* masxara qilish, ustidan kulish

derisive [di'reɪsɪv] *a* kulgili, istehzoli, masxara qilib aytilgan

derisory [di'reɪsɪ(ə)rɪ] *a* maynabozlikdan iborat bo'lgan, kulgidan boshqaga arzimaydigan

derivation [ˌderrɪ'veɪʃ(ə)n] *n* manda, kelib chiqish

derivative [dɪ'rɪvətɪv] *1. n* 1) hosila, yasama 2) *tilsh.* yasama (hosila) so'z; 3) *mat.* hosila; funksiya; *2. a* yasama; ~ word yasama so';

derive [dɪ'reɪv] *v* 1) sazovor (ega) bo'lmoq olmoq, topmoq; 2) ko'rmoq; chiqarmoq 3) hosil qilmoq, ajratib olmoq

derm(a) [ˈdɜ:m(ə)] *n* anat. teri, po'st

dermal [ˈdɜ:məl] *a* anat. teriga oid, teri

dermatic [ˈdɜ:mætɪk] = **dermal**

dermatitis [ˈdɜ:mə'taɪtɪs] *n* tib. dermati (terining yallig'lanishi)

dermatologist [ˈdɜ:mə'tələdʒɪst] *n* dermatolog, dermatologiya mutaxassisi, teri kasalliklari shifokori

dermatology [ˈdɜ:mə'tələdʒɪ] *n* dermatologiya (tibbiyotning teri va teri kasalliklar haqidagi bo'limi)

dermis [ˈdɜ:mɪs] = **derm**

dernier [ˈdɜ:nɪə] *a* fr. oxirgi, keyingi, so'ngg

derogate [ˈderəgeɪt] *1. a* kam. 1) buzuz, buzilgan; shikastlangan; ishdan chiqqan; 2) buzilgan, aynigan, hidlangan, sasigan, chirigan, yomonlashgan; *2. v* 1) kamsitmoq 2) kamsitilmoq; 3) qoidaga xilof ish qilmoq

derogation [ˌderə'geɪʃ(ə)n] *n* 1) kamaytirish, pasaytirish, bo'shashtirish; 2) kamsitish, yerga urish

derogatory [dɪ'rogət(ə)rɪ] *a* haqoratomez kamsitadigan, obro'yini to'kadigan, yerga uradigan

derrick ['derɪk] *n* 1) burg'ilash minorasi 2) jo'mrak

desalt [ˌdi:'sɔ:lt] *v* chuchuk qilmoq, sho'rin tozalamoq, tuzsizlantirmoq

descant ['deskænt] *1. n* diskant (bolalarga xos baland ingichka ovoz va shunday ovozli ashulachi); *2. v* fikr qilmoq, mulohaza qilmoq, o'ylamoq

descend [dɪ'send] *v* tushmoq; **to ~ from the mountain** tog'dan tushmoq

descendant [dɪ'sendənt] *n* avlod, zurriyot

descendent [dɪ'sendənt] = **descendant**

describe [dɪs'kraɪb] *v* tasvirlamoq; ta'riflamoq; ~d yoritilgan, tasvirlangan, tavsiflangan

description [dɪs'kripʃ(ə)n] *n* tavsifnoma; ta'rif

descriptive [dɪs'kriptɪv] *a* tasvirlovchi, tavsiflovchi, ta'riflovchi

desecry [dɪs'kraɪ] *v* 1) ko'rmoq, ko'rib qolmoq, ko'zi tushmoq; 2) payqamoq, fahmlamoq, e'tibor bermoq

desecrate [ˌdestkreɪt] *1. a* 1) harom qilingan, murdor qilingan, bulg'angan; 2) tahqirlangan, masxaralangan, tahqir qilingan, xor qilingan, xorlangan, rasvo qilingan; *2. v* 1) harom qilmoq, bulg'amoq; 2) masxaralamoq, xo'rllamoq

- desert** [ˈdezət] 1. *n* sahro, dasht, choʻl, biyobon; 2. *a* odam yashamaydigan; choʻlga oʻxshagan; 3. *v* [diˈzɜ:t] tashlab ketmoq, qochib ketmoq
- deserted** [diˈzɜ:tɪd] *a* tashlandiq, odamsiz, kimsasiz
- desertion** [diˈzɜ:ʃ(ə)n] *n* 1) darbadarlik; 2) siyosiy sotqinalik; (siyosiy) dushman tarafiga oʻtish
- deserter** [diˈzɜ:tə] *n* qochoq
- deserve** [diˈzɜ:v] *v* 1) ...ga munosib (...ga loyiq) boʻlmoq; 2) sazovor boʻlmoq
- deserved** [diˈzɜ:vɪd] *a* 1) arziydigan, loyiq; 2) mehnat qilib erishilgan
- deservedly** [diˈzɜ:vɪdli] *adv* xizmatiga yarasha, qilmishiga yarasha
- deserving** [diˈzɜ:vɪŋ] *a* arziqli, arziydigan, loyiq, munosib, sazovor
- desiccate** [ˈdesɪkət] 1. *n* quruq (quritilgan) mahsulot; 2. *a maxs.* quritilgan, qoqi qilingan, qoqlangan, quruq, qoq, suvi ketkazilgan
- desiderata** [diˌzɪdəˈreɪtə] *pl of desideratum*
- desideratum** [diˌzɪdəˈreɪtəm] *n (pl -ta [-tə])* yetishmaydigan, istalgan biror narsa
- design** [diˈzəzn] 1. *v* 1) diliga tugmoq; niyat qilmoq, rejalashtirmoq; 2) moʻljallamoq, belgilamoq; 3) rejasini, sxemasini tuzmoq; rejalashtirmoq, loyihalashtirmoq; 4) ijro etmoq, bajarmoq; 2. *n* 1) oʻy, xayol; reja; 2) maqsad, niyat; 3) (ijodiy) fikr; reja, loyiha; rejalashtirish; 4) chizma, xomqolip; loyiha; hisob; 5) dizayn, tashqi koʻrinish, ijro; 6) sanʼat asari
- designate** [ˈdeziɡneɪt] *v* 1) aniqlamoq, belgilamoq, topmoq, aniq qilmoq; 2) tayinlamoq; belgilamoq; ~d tayinlangan, belgilangan
- designation** [ˌdeziɡˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) bildirish, anglatish, taʼriflash, koʻrsatish; 2) belgi, ifoda; nom, atalish; 3) (*lavozim, ishga*) tayinlash
- designedly** [diˈzəɪndli] *adv* atayin, ataylab, joʻrttaga, qasddan
- designer** [diˈzəɪnə] *n* mashina, inshoot va sh. k. ning loyihasini tuzuvchi mutaxassis
- designing** [diˈzəɪnɪŋ] *n* loyihalash, loyiha tuzish, loyihalashtirish
- desirable** [diˈzəɪ(ə)rəbl̩] *a* istalgan, tilangan, matlub, maʼqul, kerak
- desire** [diˈzəɪə] 1. *n* xohish, istak, orzu, havas; 2. *v* xohilamoq, istamoq
- desirous** [diˈzəɪ(ə)rəs] *a* xohlovchi, istovchi; **to be ~ to succeed** muvaffaqiyatga harakat qilmoq
- desist** [diˈzɪst] *v* 1) oʻzini tiymoq, oʻzini tutmoq, sabr-qanoat qilmoq; 2) betaraf qolmoq, xolis turmoq (*ovoz berishda*)
- desk** [desk] *n* parta, yozuv stoli
- desman** [ˈdesmən] *n zool.* 1) suv kalamushi; 2) suv kalamushi moʻynasi
- desolate** [ˈdesələt] 1. *a* tashlandiq, qarovsiz qolgan, xaroba; 2. *v* xarob qilmoq, vayron qilmoq
- desolation** [ˌdesəˈleɪʃ(ə)n] *n* xarob boʻlish, xonavayron boʻlish (qilish)
- despair** [dɪsˈpeə] 1. *n* noumidlik, maʼyuslik; gʻamginlik; 2. *v* umidsizlanmoq; maʼyus boʻlmoq
- despatch** [dɪsˈpætʃ] = **dispatch**
- desperate** [ˈdesp(ə)rɪt] *v* 1) mushkul (noiloj, ilojsiz) ahvoldagi; noilojlikdan qilingan; noiloj, noumid; 2) umidsiz, ishonchsiz, noumid; umid qilib boʻlmaydigan; chorasiz, ilojsiz, mushkul; 3) *hissiy-kuch.* ashaddiy, oʻtaketgan, borib turgan, gʻoyat; juda kuchli
- desperately** [ˈdesp(ə)rɪtli] *adv* 1) noiloj, ilojsizlikdan, oʻylamay, muhokama (mulohaza) qilib koʻrmay; telbalarcha, tentaklarcha; **to fight ~** oxirigacha kurashmoq; 2) umidsizlarcha, umidini uzib; 3) *hissiy-kuch.* gʻoyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada
- desperation** [ˌdespəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) aqidan ozganlik, jinnilik; 2) oʻylamay ish qilish, bemulohazalik
- despicable** [ˈdespɪkəbl̩] *a* jirkanch, razil
- despise** [dɪsˈpaɪz] *v* nafratlanmoq, jirkanmoq, hazar qilmoq
- despite** [dɪsˈpaɪt] *a* ...ga qaramay, ...dan qatʼi nazar
- despiteful** [dɪsˈpaɪtful] *a* yomon, yovuz, serjahl, badjahl, gʻazablangan
- despoil** [diˈspɔɪl] *v* talamoq, talon-taroj qilmoq
- despoilment** [diˈspɔɪlmənt] *n* bosqinchilik, oʻgʻrilik, talonchilik
- despoliation** [diˌspəʊlɪˈeɪʃ(ə)n] = **despoilment**
- despond** [dɪsˈpɒnd] *v* ruhi tushmoq, umidsizlanmoq, ishonchini yoʻqotmoq
- despondence, -cy** [dɪsˈpɒndəns, -sɪ] *n* ruhiy tushkunlik, chorasizlik, mushkul ahvol
- despondent** [dɪsˈpɒndənt] *a* maʼyus, gʻamgin, umidsiz
- despot** [ˈdespɒt] *n* zolim, shaddod, zulmkor
- despotic(al)** [ˈdespəˈtɪk(əl)] *a* zulmkor, zolim, zulmi oʻtkir
- despotism** [ˈdespəˈtɪz(ə)m] *n* zolimlik, zulmkorlik, zulmini oʻtkazish, qattiq zulm qilish
- desquamate** [ˈdeskwəmeɪt] *v* iib. shilinmoq, archilmoq, poʻst tashlamoq
- dessert** [diˈzɜ:t] *n* desert (*ovqatdan keyin yeyiladigan meva, shirinlik*)

- destination** [ˌdestɪˈneɪʃ(ə)n] *n* belgilangan joy, manzil
- destine** [ˈdestɪn] *v* atamoq, mo'ljallamoq, belgilab (atab) qo'yimoq
- destined** [ˈdestɪnd] *a* mo'ljallanganlik, atalganlik
- destiny** [ˈdestɪni] *n* taqdir, qismat
- destitute** [ˈdestɪtju:t] *v* biror narsaga nihoyat darajada muhtoj bo'lmoq
- destitution** [ˌdesɪˈtju:ʃ(ə)n] *n* yetishmovchilik, muhtojlik, kambag'allik, qashshoqlik, bechoralik, nachorlik
- destroy** [dɪsˈtrɔɪ] *v* buzmoq, vayron qilmoq; *-ed* buzilgan
- destroyer** [dɪsˈtrɔɪə] *n* vayron qiluvchi, buzuvchi, xarob qiluvchi
- destruction** [dɪsˈtrækʃ(ə)n] *n* 1) vayrona, xaroba; 2) xaroblik
- destructive** [dɪsˈtræktɪv] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli; *~ to health* sog'liq uchun zararli
- desultory** [ˈdesʌltəri] *a* bog'lanmagan, tartibsiz, yopishmagan, bog'lanishsiz, poyma-poy
- detach** [dɪˈtætʃ] *v* 1) chegaralamoq, ajratmoq, ajratib turmoq, alohida qilmoq; 2) *harb. deng.* (otradni, kemani) boshqa shaxs ixtiyoriga jo'natmoq
- detachable** [dɪˈtætʃəbl] *a* olinadigan, olib qo'yiladigan, chiqadigan
- detached** [dɪˈtætʃt] *a* 1) alohida, bo'lak, mustaqil; *a ~ house* alohida (yakkā) uy; 2) xolis, beg'araz, mustaqil
- detachment** [dɪˈtætʃmənt] *n* 1) alohidalik, yakkalik, xolislik, ayrimlik; 2) *harb. guruh*, bo'lina
- detail** [ˈdi:teɪl] **1.** *n* ikir-chikir tafsilot; **2.** *v* batafsil (mayda-chuydasigacha) bayon etmoq
- detailed** [ˈdi:teɪld] *a* to'la, batafsil, mufassal, mukammal
- detain** [dɪˈteɪn] *v* 1) kechiktirmoq; ushlab turmoq (qolmoq); kutishga majbur etmoq; 2) ushlamoq, hibsga o'lmoq, qamamoq
- detect** [dɪˈtekt] *v* 1) ochmoq, fosh etmoq, kashf etmoq; 2) ko'rmoq, sezmoq, topmoq, bilib qolmoq
- detection** [dɪˈtektʃ(ə)n] *n* ochish, kashf etish, ixtiro
- detective** [dɪˈtektɪv] **1.** *a* qidiruv; detektiv; **2.** *n* 1) qidiruv politsiya agenti, detektiv, izquvar; 2) detektiv roman yoki hikoya
- detent** [dɪˈtent] *n* *tex.* lo'kidon, suzilma zanjir
- détente** [deˈto:nt, ˈdeɪnt] *n* *fr.* (asosan, davlatlar o'rtasidagi) keskinlikni yumshatish
- detention** [dɪˈtenʃ(ə)n] *n* 1) qo'lga (tushirish) olish; 2) qamoqqa olish
- détenu** [ˌdetəˈnju:] *n* *fr.* hibsga olingan kishi; mahbus
- deter** [dɪˈtɜ:] *v* aynitmoq, biror ishdan qaytarmoq, ushlab qolmoq, to'xtatib qolmoq
- detergent** [dɪˈtɜ:dʒ(ə)nt] *a* yuvish vositalari (*kukun va sh. k.*)
- deteriorate** [dɪˈtɪəriəreɪt] *v* yomonlashmoq, og'irlashmoq, yomonlashib ketmoq
- deteriorating** [dɪˈtɪəriəreɪtɪŋ] *n* 1) yomonlashib borayotgan (*xususan, siyosiy*) ahvol; 2) buzilish, aynish, ishdan chiqish
- deterioration** [dɪˈtɪəriəˈreɪʃ(ə)n] *n* yomonlashtirish, og'irlashtirish, battar qilish; 2) buzilish, aynish, ishdan chiqish; 3) buzilgan (lat yegan, ishdan chiqqan) joy, shikast; 4) yeyilish, yeyilib ketish; siyqalanish; eskirish, to'zish
- determinant** [dɪˈtɜ:mɪnənt] *a* hal qiluvchi, asosiy, eng muhim
- determinate** [dɪˈtɜ:m(ɪ)nət] *a* aniq, ma'lum, muayyan, tayin
- determination** [dɪˈtɜ:mɪneɪʃ(ə)n] *n* 1) aniqlash; 2) iroda, qat'iylik, qat'iy ishonch
- determinative** [dɪˈtɜ:mɪnətɪv] *a* hal qiluvchi, eng muhim, asosiy
- determine** [dɪˈtɜ:mɪn] *v* aniqlamoq, belgilamoq
- determined** [dɪˈtɜ:mɪnd] *a* qat'iy, jiddiy, hal qiluvchi
- determinism** [dɪˈtɜ:mɪnɪz(ə)m] *n* determinizm (*narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limot*)
- deterrent** [dɪˈter(ə)nt] *n* qo'rqitish vositasi
- detersive** [dɪˈtɜ:sɪv] = **detergent**
- detest** [dɪˈtest] *v* nafratlanmoq, jirkannoq, yomon ko'rmoq
- detestable** [dɪˈtestəbl] *a* jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz
- dethrone** [dɪˈθrəʊn] *v* 1) (*yuqoridan*) tashlamoq, tashlab yubormoq; 2) yiqitmoq, ag'darmoq, taxtdan tushirmoq
- detonate** [ˈdetəneɪt] *v* 1) portlatmoq, portlatib yubormoq; 2) g'azabini qaynatmoq, jahlini chiqarib yubormoq
- detonation** [ˌdetəˈneɪʃ(ə)n] *n* juda tez portlash, yonish
- detonator** [ˈdetəneɪtə] *n* portlatgich modda
- detour** [ˈdi:tʊə] *n* aylanma yo'l
- detract** [dɪˈtrækt] *v* 1) kichraytirmoq, ozaytirmoq, qisqartirmoq, kamaytirmoq; 2) kamaitmoq, yerga urmoq
- detraction** [dɪˈtrækʃ(ə)n] *n* kamaytirish, patsaytirish

- detrain** [di:'trein] *v* poyezddan tushirib qo'yimoq (yoki tushirib yubormoq)
- detrainment** [di:'treimənt] *n* maxs. 1) tushirish, tushirib qo'yish; tushirib yuborish; 2) yukni tushirish, yukdan bo'shatish; yuki kamayish
- detrimental** [di:'tri:məntl] *a* zarar (shikast) yetkazadigan, zararli, ziyonli
- detrition** [di:'tri:(ə)n] *n* artish, o'chirish, yo'qotish, yo'q qilish
- détritus** [di:'traitəs] *n* 1) detrit (*chechak emi, chechakka qarshi emlanadigan dori-darmon*); 2) detrit (*geol. suv havzasi tubiga cho'kadigan, suv yoki tuproqdagi mayda organik zarrachalar*)
- de trop** [də'trɒp] *a* fr. 1) ortiqcha, ehtiyojdan ortiq; 2) kerak bo'lmagan, keraksiz
- detruide** [di:'tru:d] *v* tashlamoq, otmoq, irg'itmoq
- detruncate** [di:'trʌŋkeit] *v* qirqmoq, kesmoq, qirqib olmoq, butamoq
- deuce** [dju:s] *n* 1) ikki, ikki ochko (*qarta o'yinida*); 2) shayton, iblis; jin
- devaluation** [di:,vælju'eɪʃ(ə)n] *n* devalvatsiya (*muomaladagi qadrsizlangan qog'oz pullarni bekor qilish yoki ularning qiymatini tushirish*)
- devalue** [di:'væljʊ:] *v* mol. qadr-qimmatini tushirmoq, beqadr qilmoq
- devastate** ['devəsteɪt] *v* xarob qilmoq, vayron-tolqon qilmoq
- devastated** ['devəsteɪtɪd] *a* vayron qilingan, xarob bo'lgan
- devastating** ['devəsteɪtɪŋ] *a* 1) hayratlantiradigan, qayg'uga soladigan, tashvishlantiradigan; 2) vayron (xarob) qiladigan
- devastatingly** ['devəsteɪtɪŋli] *adv* vayron (xarob) qilish
- devastation** [di:'væstətʃ(ə)n] *n* vayron qilish, xarob qilish
- develop** [di:'veləp] *v* rivojlantirmoq, rivojlanmoq
- developed** [di:'veləpt] *a* rivojlangan, taraqqiy etgan
- developer** [di:'veləpə] *n* 1) yakka tartibda imorat soluvchi (quruvchi) shaxs; 2) foto. proyavitel (*fotosuratlarini chiqarishda ishlatiladigan dori*); 3) texnikaning biror sohasida biror narsani ishlab chiqaruvchi mutaxassis
- development** [di:'veləpmənt] *n* taraqqiyot, rivojlanish
- devlate** [di:'vleɪt] *v* og'moq, engashmoq, qiyshaymoq, burilmoq, surilmoq
- deviation** [di:'vi:əɪʃ(ə)n] *n* chetga chiqish, qaytish
- device** [di:'vaɪs] *n* qurilma, mexanizm
- devil** ['devl] *n* shayton, iblis
- devildom** ['devldəm] *n* iblislar, shaytonlar; jinlar, ajinalar, ins-jins
- devilish** ['devlɪʃ] 1. *a* do'zaxga, jahannamga oid, do'zaxda bo'ladigan; 2. *adv* juda, rosa, o'ta, o'lguday, g'oyat, chunon, benihoyat
- devil-may-care** ['devlmeɪ'keə] *a* g'am-tashvishdan xoli, betashvish, beg'am
- devilment** ['devlmənt] *n* sho'xlik, shumlik
- devilry** ['devln] = **devilment**
- devil's darning-needle** {,devlz'dɑ:nɪŋ-,nɪ:dl} *n* amer. ninachi, so'znanak
- devious** [di:'vi:vəs] *a* egri-bugri, aylanib o'tiladigan
- devise** [di:'vaɪz] 1. *n* yur. vasiyat, vasiyatnoma; 2. *v* o'ylamoq; niyat qilmoq
- deviser** [di:'vaɪzə] *n* ixtirochi; kashfiyotchi
- devoid** [di:'vɔɪd] *a* erki (huquqi) o'zida bo'lmagan, biror narsadan mahrum
- devoir** ['devwa:] *n* qarz, burch
- devolution** [di:'vɔ:lju:ʃ(ə)n] *n* 1) birovga yetkazish, topshirish, o'tkazish, berish; 2) *biol.* aynimoq, zoti (nasli) buzilmoq
- devolve** [di:'vɒlv] *v* topshirmoq (*mansabni*)
- Devonian** [de'veɒnjən] *a* geol. devon davri (*poleozoy erasining uchinchi davri*)ga oid
- devote** [di:'vəʊt] *v* bag'ishlamoq, atamoq
- devoted** [di:'vəʊtɪd] *a* 1) bag'ishlangan; 2) fidoyi, sodiq
- devotee** [di:'vəʊtɪ:] *n* kurashuvchi, kurashchi; yoqlovchi, himoya qiluvchi; ixlosmand
- devotion** [di:'vəʊʃ(ə)n] *n* 1) fidoyilik, sodiqlik; 2) bag'ishlash, bag'ishlov
- devour** [di:'vaʊə] *v* 1) yemoq, yeb qo'yimoq; 2) yamlamoq, komiga tortmoq; 3) qirmoq, qirib tashlamoq
- devout** [di:'vaʊt] *a* 1) xudojo'y, dindor, taqvodor; 2) samimiy, sidqidildan qilingan
- dew** [dju:] 1. *n* shudring, shabnam; 2. *v* sug'ormoq; ho'llamoq
- dewy** ['dju:t] *a* shudring bosgan, shabnam tushgan
- dexterity** [deks'terɪtɪ] *n* chaqqonlik, ephillik, ildamlilik
- dexterous** ['dekst(ə)rəs] *a* tez, chaqqon, shaxdam
- dia-** ['daɪə-] *pref.* orasida, o'rtasida, oralig'ida, mobaynida; orqali, vositasida
- diabetes** [di:'daɪə'bi:tɪ:z] *n* tib. diabet (*modda almashituvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan va siydikning ko'payishi bilan kechadigan kasalliklar nomi*)
- diabetic** [di:'daɪə'betɪk] *n* diabet kasaliga yo'liqqan kishi
- diabolical** [di:'daɪə'bɒlɪk(ə)] *a* iblisona, yo'vuz, makrli, makkorona

diadem [ˈdaɪədəm] *n* diadema (1. toj; 2. gul-toj)

diagnose [ˈdaɪəgneɪz] *v* tashxis qo'ymoq

diagnosis [ˌdaɪəˈɡnəʊsɪs] *n* (pl -ses [-si:z]) tashxis, diagnoz

diagnostic [ˌdaɪəˈɡnɒstɪk] *a* tashxisga oid, diagnostik, diagnostika...

diagnostician [ˌdaɪəˈɡnɒstɪʃ(ə)n] *n* kasalni aniqlovchi mutaxassis shifokor

diagonal [daɪˈæɡənəl] 1. *n* *mat.* diagonal (ko'p burchakning bir tomonida yotmaydigan ikki uchini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq kesmasi); 2. *a* diagonal yo'nalishidagi, diagonal orqali o'tgan, diagonal...

diagram [ˈdaɪəɡræm] *n* diagramma

dial [ˈdaɪəl] *v* 1) (radiopriyomnik shkalasi bo'ylab yugurdakni siljitib) stansiya izlamoq; (priyomnik, televizorni) sozlamog; 2) telefon raqamini termog

dialect [ˈdaɪələkt] *n* dialekt, sheva

dialectal [ˌdaɪəˈlektl] *a* shevaga oid, shevaga xos bo'lgan

dialectics [ˌdaɪəˈlektɪks] *n* dialektika (harakat va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi falsafiy ta'limot, harakat va rivojlanishning o'zi)

dialectology [ˌdaɪəˈlektˈɒlədʒɪ] *n* shevashunoslik, dialektologiya

dialogic [ˌdaɪəˈlɒdʒɪk] *a* dialogik, dialog (so'zlashuv, suhbat) tarzidagi

dialogue [ˈdaɪələg] *n* dialog, so'zlashuv, suhbat

diameter [daɪˈæmɪtə] *n* diametr, ko'ndalang kesim o'lchami

diametrical [ˌdaɪəˈmetrɪk(ə)l] *a* diametrdagi joylashgan, diametr orqali o'tgan, diametral

diametrically [ˌdaɪəˈmetrɪk(ə)li] *adv* butunlay, tamoman, mutlaqo

diamond [ˈdaɪəmənd] *n* olmos (qimmatbaho asl tosh)

diapason [ˌdaɪəˈpeɪsən] *n* diapazon (bilim, o'zgarish va sh. k. ning ko'lami, hajmi, doirasi)

diaper [ˈdaɪəpə] 1. *n* 1) (dasturxon, sochiq va h. k. uchun) guldor gazlama; 2) yo'rgak; 2. *v* yo'rgaklamoq

diaphanous [daɪˈæfənəs] *a* tiniq, shaffof

diaphragm [ˌdaɪəˈfræm] *n* anat. 1) diafragma (ko'krak-qursoq pardasi); 2) zool. par-da

diarchy [ˈdaɪɑ:kɪ] *n* qo'sh hokimiyatchilik

diarize [ˈdaɪəraɪz] *v* kundalik (xotira) daftari tutmoq

diarrhoea [ˌdaɪəˈrɪə] *n* tib. ich ketish, ichburug', dizenteriya

diary [ˈdaɪəri] *n* kundalik (xotira) daftari

diathermic [ˌdaɪəˈθɜ:mɪk] *n* fiz. diatermiyaga oid; diatermik

diathermy [ˈdaɪəθɜ:mɪ] *n* tib. diatermiya (yugori chastotali tok bilan qizdirib davolash)

diathesis [daɪˈæθɪsɪs] *n* tib. diatez (organizmning kasalga moyillik holati)

diatomic [ˌdaɪəˈtɒmɪk] *a* ikki atomli, ikki atomdan iborat bo'lgan

diatribe [ˈdaɪətraɪb] *n* fosh qiluvchi (qorlovchi) sifatidagi nutq

dice [daɪs] 1. *n* oshiq o'yini (qimor); 2. *v* oshiq o'ynamoq (qimor)

dice-box [ˈdaɪsbɒks] *n* ichiga oshiqlar solib o'ynaladigan piyola (stakan)

dicer [ˈdaɪsə] *n* oshiqboz

dichromatic [ˌdaɪkrə(ʊ)ˈmætrɪk] *a* 1) ikki rangli; 2) tib. ikkita asosiy rangni ajrata oladigan

dickens [ˈdɪkɪnz] *n* so'zl. shayton, iblis

dicky, dickey [ˈdɪkɪ] 1. *n* 1) ko'ylakning qadama ko'krak qismi; 2) bolalar oshxo'ragi; 2. *a* kuchsiz, bo'sh, nimjon, zaif, kasalmand

dicotyledon [ˈdaɪkɒtɪˈli:d(ə)n] *n* bot. ikki pallali (urug'i, doni ikki pallali) o'simlik

dicotyledonous [ˈdaɪkɒtɪˈli:d(ə)nəs] *a* bot. ikki pallali

dieta [ˈdɪktə] *pl of = dictum*

dictate [ˈdɪktet] *v* aytib turib yozdirmog

dictation [ˈdɪkˈteɪʃ(ə)n] *n* aytib turish; diktant

dictator [ˈdɪkˈteɪtə] *n* o'z so'zini o'tkazuvchi; yakka hokim

disruption [dis'rʌptʃ(ə)n] *n* 1) buzish, buzilish; 2) yemirilish; - of an empire imperiyaning yemirilishi; 3) uzilish, ajralish, parchalanish; 4) vayronalar, xarobalar
disruptive [dis'rʌptɪv] *a* buziladigan, yemiriladigan; parchalanadigan
dissatisfaction [ˌdis,sætɪs'fæktʃ(ə)n] *n* norozilik, qanoatlanmaganlik, qoniqmaslik

dissatisfactory [ˌdis,sætɪs'fækt(ə)rɪ] *a* qoniqarsiz, qanoat hosil qilmaydigan, qoniqtirmaydigan
dissatisfied [ˌdis'sætɪsfaid] *a* norozi, qanoat hosil qilmagan, norozilikni ifodalaydigan
dissatisfy [ˌdis'sætɪsfaɪ] *v* norozi qilmoq, qoniqmaslik
dissect [di'sekt] *v* 1) (*o'likni*) yormoq, yorib ko'rmoq, tekshirmoq; 2) tahlil qilmoq
disselsee [ˌdissi:'zi:] *n yur.* ko'chmas mulkka egalik qilishdan noqonuniy mahrum qilingan shaxs
dissemblance [dɪ'sembləns] *n* o'xshamaslik, har xillik; farq
dissemble [di'sembl] *v* 1) yashirmoq, si tutmoq, niqoblamoq; 2) e'tiborsiz qoldirmoq; (*biror narsadan*) ko'z yummoq
disseminate [di'semɪneɪt] *v* joriy qilmoq, tatbiq etmoq, (*fikr, nuqtayi nazarni*) yoymoq, kengaytirmoq
dissension [di'senʃ(ə)n] *n* kelishmovchilik, qarama-qarshilik, ziddlik, ziddiyat
dissent [di'sent] 1. *n* qarashlardagi qarama-qarshilik, kelishmovchilik; 2. *v* qarashlarda ziddiyat vujudga kelmoq, rozi bo'lmaslik e'tiroz bildirmoq; qarshi chiqmoq
dissenting [di'sentiŋ] *a* qarshi, zid, teskar
dissemination [di'sepɪmɪnt] *n* 1) pardevor, pardadevor; 2) to'siq, g'ov
dissert, dissertate [di'sɜ:t, 'dɪsətet] *v* gapdanlik (*mahmadonalik*) qilmoq; uzoq gapirmoq, gap sotmoq, safsatabozlik qilmoq
dissertation [ˌdɪsɪ'teɪʃ(ə)n] *n* dissertatsiya
disserve [ˌdis'sɜ:v] *v* ishdan chiqarmoq, ziyon (zarar) yetkazmoq, shikast yetkazmoq; yomon xizmat ko'rsatmoq
disservice [ˌdis'sɜ:vɪs] *n* 1) yomon xizmat ko'rsatish; 2) zarar, shikast, ziyon
disseverance [ˌdis'sevərəns] *n* 1) bo'lim, 2) xona, bo'lma
dissident [ˌdɪsɪd(ə)nt] 1. *n* dindan qaytgan; 2. *a* boshqa fikrdagi, boshqacha o'ylovchi
dissimilar [di'sɪmɪlə] *a* mislsiz; to'g'ri kelmaydigan, o'xshamaydigan
dissimilarity [ˌdɪ,sɪmɪ'lærɪti] *adv* o'xshash (monand) emaslik, har xillik
dissimulate [di'sɪmjuleɪt] *v* 1) (*his-tuyg'a va b. ni*) bекitmoq, yashirmoq; 2) ikkiyuzlamachilik qilmoq, riyokorona ish tutmoq
dissimulation [ˌdɪ,sɪmju'leɪʃ(ə)n] *n* ayyorlik, mug'ambirlik, firibgarlik
dissimulator [di'sɪmjuleɪtə] *n* mug'ambir, ayyor, firibgar
dissipate [ˌdɪsɪpeɪt] *v* 1) tarqalmoq (*bulut, qo'rquv haqida*); 2) behuda sarflamoq
dissipated [ˌdɪsɪpeɪtɪd] *a* axloqsiz, axloqi buzuq, intizomsiz, tartibsiz

dissociable [dr' sɔʃjəbl] *a* 1) kishiga qo'shil-maydigan; jamiyatdan ajralgan; 2) mos (muvofig) kelmaydigan
dissociate [dr' sɔʃjeɪt] *a kam.* 1) ajratilgan, ayrilgan, ayirib (ajratib) tashlangan (yuborilgan), ajratib olingan; 2) bir-biri bilan bog'lanmagan, bir-biridan ajralib (uzilib) qolgan, aloqasi yo'q, tarqoq
dissolute [dɪ'sɒləʊt] *a* fahshga (shahvatga) berilgan; buzuc, yomon yo'lga kirgan
dissolution [dɪ'sɒ'lu:ʃ(ə)n] *n* 1) eritish, qorish; erish, qorilib ketish; 2) ajralish, parchalanish, ajratish
dissolve [dr' zɒlv] *1. n* kino, ohista (asta-sekin) almashinuv (*ekranda bir manzuraning ikkinchi manzara bilan sekin-asta almashinuvi*); *2. v* 1) eritmoq; *to ~ sugar in water* qandni suvda eritmoq; 2) tarqatmoq, faoliyatni tugatmoq, barham bermoq; 3) vayron qilmoq; 4) bekor qilmoq *to ~ a marriage* nikohni bekor qilmoq
dissolvent [dr' zɒlvənt] *1. a* eruvchan, eriydigan; *2. n* eritgich (*eritadigan suyuqlik*)
dissonance [dɪ'sɒnəns] *n* ohangsizlik, hamohang emaslik, quloqqa yoqmaslik, ohangsiz (*hamohang bo'lmagan, quloqqa yoqmaydigan*) tovushlar
dissonant [dɪ'sɒnənt] *a* ohangsiz, hamohang bo'lmagan
dissuade [dr' swɛɪd] *v* aynitmoq; yo'ldan urmoc
distaff [dɪ'stɑ:f] *n* 1) charx, ip yigiradigan charx; 2) ayollar yumushi, mashg'uloti; 3) ayol; *the ~ side* ayol tomondan qarindoshlik (*genealogiyada*)
distal [dɪ'st(ə)l] *a anat.* markazdan uzoqdagi; uzoq, olis, yiroq
distance [dɪ'st(ə)ns] *1. n* masofa, oraliq, uzoqlik; *2. v* uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoc
distant [dɪ'st(ə)nt] *a* uzoq, olis; *a ~ place* olis joy
distaste [dɪ's'teɪst] *n* nafrat, jirkanish
distasteful [dɪ's'teɪstf(ə)l] *a* bemaza, yoqimsiz, beyoqim; *~ness* bemazagarchilik
distemper [dɪ's'tempə] *1. n* 1) noxush, yomon kayfiyat; 2) to'lqinlanish, hayajon, xovliqish; 3) *ver. it* vabosi; 4) ruhiy kasallik; *2. v* 1) sog'liqni yo'qotmoq; 2) kayfiyatni buzmoq
distempered [dɪ's'tempəd] *a* 1) hayajonlangan, to'lqinlangan; 2) kayfiyati buzilgan
distend [dɪ's'tend] *v* 1) puflab yondirmoc; 2) puflab, dam berib shishirmoc
distensible [dɪ's'tensəbl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan, kengayuvchan
distension [dɪ's'tenʃ(ə)n] *n* 1) cho'zilish, uzayish, kengayish; 2) shishish

distent [dɪ's'tent] *a* puflab dam berib shishirilgan, ho'ppaytirilgan
distich [dɪ'stɪk] *n* bayt (*ikki misrali she'r*)
distichous [dɪ'stɪkəs] *a bot.* ikki qatorli, ikki qator qilib joylashtirilgan
distil(l) [dɪ's'tɪl] *v* 1) (*suvni*) tozalamoq, soflamoq; 2) *tex.* tortmoq, haydamoc (tarkibiy qismlarga ajratmoq)
distillate [dɪ'stɪlɪt] *n* distiliat (*distillatsiya natijasida hosil bo'lgan suv, suyuqlik*); haydash natijasida olingan mahsulot
distillation [dɪ'stɪ'leɪʃ(ə)n] *n* distillatsiya, distillash (bug'lantirib toza, sofl suv, suyuqlik hosil qilish); haydash, tortish
distillatory [dɪ's'tɪlət(ə)rɪ] *a* distillatsiya qiladigan, distillovchi, distillatsiya...; tortishga (haydashga) oid; tortish (haydash)...
distiller [dɪ's'tɪlə] *n* spirt (araq) ishlab chiqaruvchi kishi, spirt, araq tortuvchi
distinct [dɪ's'tɪŋ(k)t] *a* 1) aniq, yaqqol; 2) alohida, maxsus; 3) turli, har xil
distinction [dɪ's'tɪŋ(k)ʃ(ə)n] *n* 1) ayirma, farq, tafovut; 2) farqlovchi belgi (alomat), xususiyat, o'ziga xoslik; 3) hurmatli munosabat, hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom; 4) mukofot, rag'bat
distinctive [dɪ's'tɪŋ(k)tɪv] *a* boshqalardan ajratib (farqlab) turadigan, tafovut qiladigan, farqlovchi, o'ziga xos, maxsus
distinctively [dɪ's'tɪŋ(k)tɪvli] *adv* aniq, ravshan
distinctly [dɪ's'tɪŋkltɪ] *adv* 1) aniq, ravshan, ochiq; 2) tushunarli, ayon, belgili, ma'lum
distinctness [dɪ's'tɪŋ(k)tɪnəs] *n* 1) soflik, tozalik, ochiqlik, ravshanlik; 2) o'ziga xoslik, xarakterlilik
distingué [dɪ's'tæŋgeɪ] *a fr.* nafis, go'zal, nozik, chiroyli
distinguish [dɪ's'tɪŋgwɪʃ] *v* farq qilmoq, ajratmoq
distinguished [dɪ's'tɪŋgwɪʃt] *a* xizmat ko'rsatgan, atoqli, mashhur, ko'zga ko'rinarli
distort [dɪ's'tɔ:t] *v* 1) buzib ko'rsatmoq; noto'g'ri talqin qilmoq; 2) burishtirmoc, tirishtirmoc, afti o'zgaroc
distortion [dɪ's'tɔ:ʃ(ə)n] *n* 1) buzish, noto'g'ri tushuntirish, xato anglash; 2) burishish, tirishish, qiyshayish
distortionist [dɪ's'tɔ:ʃ(ə)nɪst] *n* 1) dorboz, simdorchi, chig'irida o'ynovchi kishi; 2) karikatura chizuvchi; 3) (*dalillarni*) buzib ko'rsatuvchi
distract [dɪ's'trækt] *v* (*diqqatni*) chetga tortmoq; chalg'itmoq
distracted [dɪ's'træktɪd] *a* uyalgan, uyalib qolgan, xijolatda qolgan, xijil; esankiragan

distractio [dɪs'trækt(ə)n] *n* 1) e'tibori (xayoli) qochganlik, esi og'ganlik, fikri tarqoqlik; 2) o'yin-kulgi, ko'ngil ochish
distrain [dɪs'treɪn] *v* o'z ta'siriga olmoq, o'ziga jalb qilmoq
distract [dɪs'treɪt] *a fr.* parishonxotir, xayoli qochgan, beparvo
distract [dɪs'trɔ:t] *a* 1) gangigan, esankiragan, sarosimaga tushgan, hayajonga kelgan, hijolatda qoigan, hijolat tortgan; 2) aqldan ozgan, aql-hushini yo'qotgan, aqlsiz
distress [dɪs'tres] *n* 1) qayg'u, alam, hasrat, dog', kulfat, iztirob; 2) kambag'allik, faqirlik, muhtojlik; 3) falokat, halokat
distressed [dɪs'trest] *a* 1) charchagan, holdan toygan; 2) xafa bo'lgan, ranjigan, xafa; 3) og'ir (mushkul) ahvoldagi, musibatli; 4) halokatga (falokatga) uchragan
distressful [dɪs'tresf(ə)l] *a* qayg'uli, g'amg'ussali
distressing [dɪs'tresɪŋ] *a* xafa (dini siyoh) qiladigan, ranjitadigan, qayg'uga soladigan, qayg'uli
distributable [dɪs'trɪbjʊtəbl] *a* tarqatsa bo'ladigan, tarqatiladigan
distribute [dɪs'trɪbjʊ(:)t] *v* tarqatmoq, taqsimlamoq
distributing [dɪs'trɪbjʊ(:)tɪŋ] *a* tarqatuvchi, taqsimlaydigan
distribution [dɪstri'bju:(ə)n] *n* taqsimlash, bo'lish, bo'lib berish, taqsimlanish, taqsimot
distributive [dɪs'trɪbjʊtɪv] *a* 1) taqsimlaydigan; 2) taqsimlash, tarqatish bilan shug'ullanadigan; 3) *gram.* ayiruvchi
distributor [dɪs'trɪbjʊ(:)tə] *n* 1) avtomobil sotadigan agent; 2) *maxs.* taqsimlovchi; taqsimlash qurilmasi
district ['dɪstrɪkt] *n* tuman, okrug, nohiya, mahalla
distrust [dɪs'trʌst] *1. n* ishonchsizlik, shubha; *2. v* ishonmay qo'yinoq, ikkilanmoq; gumonsirammoq
distrustful [dɪs'trʌstf(ə)l] *a* ishonmaydigan, shubha bilan to'la, gumonsirovchi
disturb [dɪs'tjʊ:n] *v* buzmoq, izdan chiqarib yubormoq
disturb [dɪs'tɜ:b] *v* tinchini buzmoq, bezovta qilmoq
disturbance [dɪs'tɜ:b(ə)ns] *n* 1) bezovta qilish, tinchini buzish; 2) hayajon, tashvish, iztirob, besaranjomlik
disturber [dɪs'tɜ:bə] *n* 1) tinchlikni, xotirjamlikni buzuvchi; 2) *yur. (birovning)* huquqlarini buzuvchi
disunion [dɪs'ju:njən] *n* ajratish, uzib qo'yish

disunite [dɪsju:'naɪt] *v* bo'lmoq, taqsimlamoq
disuse *1. n* [dɪs'ju:s] ishlatilmaslik, qo'llanilmaslik, iste'moldan qoiganlik; *2. v* [dɪs'ju:z] ishlashni (qo'llashni, foydalanishni) to'xtatmoq
disyllabic [dɪsɪ'læbɪk] *a* ikki bo'g'inli
ditch [dɪtʃ] *1. n* ariq, zovur; *2. v* o'ra (chukur, xandaq) qazimoq
ditcher ['dɪtʃə] *n* qazuvchi, yer kovlovchi kishi yoki mashina
ditching ['dɪtʃɪŋ] *n* yer kovlash
ditch-water ['dɪtʃ.wɔ:tə] *n* ko'lmak, turgan suv, oqmas suv
ditto ['dɪtəʊ] *1. n* (*pl -os [-əʊz]*) 1) aynan bir xil miqdordagi summa; 2) *so'zl.* aynan o'shanday nusxa; *2. adv* bir xil, aynan shu tarzda; *to act* - aynan shu tarzda harakat qilmoq
ditty ['dɪtɪ] *n* (qisqa) ashula, qo'shiq; lapar, terma
ditty-bag ['dɪtɪbæɡ] *n* nina, iplar uchun xaltacha
ditty-box ['dɪtɪbɒks] *n* quticha (*nina, iplar uchun*)
diuretic [dɪjʊə'retɪk] *1. a tib.* siydik haydovchi; *2. n* siydik haydovchi dori
diurnal [daɪ'ɜ:nɪl] *1. n* 1) kunduzgi kapalak (mayda chivin, mayda pashsha) yoki qush; 2) *esk.* har kungi (kundalik) gazeta; 3) *esk.* kundalik; jurnal; *2. a astr.* 1) bir kecha-kunduzlik; 2) kunduzgi; 3) har kungi, kundalik
diva [dɪ:və] *n* primadonna (*vetakchi rollarni bajaruvchi opera ashulachisi*)
divagate [dɪvə'geɪt] *v* 1) aylanib (sandiroqlab) yurmoq, kezmoq, tentiramoq, izg'imoq, taqillab yurmoq; 2) mavzudan chetga chiqmoq
divagation [dɪvə'geɪʃ(ə)n] *n* 1) bir joydan ikkinchi joyga maqsadsiz yurish; 2) (*mavzudan*) chetga chiqish
divalent [dɪ'veɪlənt] *a kim.* ikki valentli
divan I [dɪ'væn] *n* 1) devon (*Turkiya davlat kengashi*); 2) devon, vazirlar hay'ati (*ba'zi Sharq mamlakatlarida*)
divan II [dɪ'væn] *n* 1) suyanchig'i yo'q, pastak keng divan, kat; 2) keng yumshoq divan
divan III [dɪ'væn] *n* devon, she'rlar to'plami (*sharq she'riyatida*)
divan-bed [dɪ'vænbed] *n* kushetka (*yumshoq kursi*)
divaricate *1. a* [dɪ'veɪrɪkɪt] tarmoqlanadigan, tarqaladigan, sochiladigan; *2. v* [dɪ'veɪrɪkeɪt] tarqalib ketmoq; tarmoqlanmoq, tarmoqlarga bo'linmoq; ikkiga bo'linmoq

divarication [daɪ,væriˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) tar-moqlanish; 2) shoxobcha, tarmoq; 3) fikrlar-dagi farq, tafovut
dive [daɪv] 1. *n* suvga shoʻngʻish (sakrash);
 2. *v* suvga shoʻngʻimoq, sakramoq
dive-bomb [ˈdaɪvbɒm] *v* *harb.* (pastga) bom-ba tashlamoq
dive-bomber [ˈdaɪv,bɒmə] *n* pastga qarab bomba otuvchi
diver [ˈdaɪvə] *n* (suv tagiga tushuvchi), shoʻngʻuvchi gʻovvos
diverge [daɪˈvɜːdʒ] *v* 1) tarqalmoq, tarqalib ketmoq; 2) oʻzini olib qochmoq
divergence [daɪˈvɜːdʒ(ə)ns] *n* farq, tafovut, ayirma, kelishmovchilik, toʻgʻri kelmaslik, ixtilof
divergency [daɪˈvɜːdʒ(ə)nsɪ] *n* tarqalish, ayrilish, sochilish
divergent [daɪˈvɜːdʒ(ə)nt] *a* 1) tarqaladigan, yoyiladigan; 2) farqlanadigan, farq qiladigan
divers [ˈdaɪvəz] *a* har xil, turli, turlicha, boshqa-boshqa, turli-tuman
diverse [daɪˈvɜːs] *a* 1) turli; 2) har xil
diversified [daɪˈvɜːsɪfaɪd] *a* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang, koʻp qirrali
diversify [daɪˈvɜːsɪfaɪ] *v* turli tusga kirmoq; har xil qilmoq, turli-tuman qilmoq
diversion [daɪˈvɜːʃ(ə)n] *n* chetga burilish, ogʻish, chalgʻitish
diversity [daɪˈvɜːsɪtɪ] *n* 1) farq, tafovut, oʻzgalik, har xillik, farq qilish; 2) turli xillik, xilma-xillik
divert [daɪˈvɜːt] *v* 1) biror tomonga burmoq, boshqa tomonga yoʻnaltirmoq; 2) (*diqqat va sh. k. ni*) boshqa tomonga tortmoq, chalgʻitmoq; 3) yoʻldan urmoq, adashtirmoq
diverting [daɪˈvɜːtɪŋ] *a* koʻngil ochadigan, kayfni chogʻ qiladigan, oʻyin-kulgili, qiziq, ajib
divertissement [dɪ,vɜːtɪsˈmɑːŋ] *n* *fr.* 1) koʻngil ochish, tomosha qilish; 2) divertissement (*spektaklga yoki konsertga qoʻshimcha qilingan mayda oʻyin va ashulalar*)
Dives [ˈdaɪvɪz] *n* boy, badavlat odam
divest [daɪˈvest] *v* 1) yechintirmoq, kiyimini yechmoq, yechib qoʻymoq; 2) mahrum qilmoq, tortib olmoq, judo qilmoq
divestiture [daɪˈvestɪtʃə] *n* 1) yechintirmoq, yechintirib qoʻymoq, yechib qoʻymoq; 2) huquqdan mahrum qilish
divestment [daɪˈvestmənt] *n* 1) kiyimini yechish, yechintirish; 2) (*huquq va b. dan*) mahrum qilish
divide [dɪˈvaɪd] *v* 1) boʻlmoq, ajratmoq; 2) qismlarga boʻlmoq; 3) turkumlamoq
divided [dɪˈvaɪdɪd] *a* boʻlingan, taqsimlangan

dividend [ˈdɪvɪdend] *n* 1) *igt.* dividend (*ak-siyadan kelgan daromad*); 2) *mat.* boʻlinuvchi
dividend-warrant [ˈdɪvɪdend,wɒr(ə)nt] *n* dividend olish uchun guvoohnoma
divider [dɪˈvaɪdɪə] *n* 1) boʻluvchi kishi; 2) *tex.* boʻluvchi qurilma; 3) separator
dividing [dɪˈvaɪdɪŋ] *n* boʻluvchi, boʻladigan
dividual [dɪˈvɪdʒuəl] *a* 1) alohida; baʼzi; 2) boʻlinadigan, boʻlinuvchi
divination [ˌdɪvɪˈneɪʃ(ə)n] *n* bashorat qilish, kelajakni oldindan aytish
divine [dɪˈvaɪn] 1. *n* teolog (*din boʻyicha mutaxassis*); 2. *a* 1) ilohiy; Xudoga, Tangriga oid; Xudo..., Tangri...; 2) muqaddas, aziz, tabarruk; 3) aʼlo, afzal, juda yaxshi; 3. *v* oldindan aytmok, kelajakdan xabar ber-moq
diving [ˈdaɪvɪŋ] *n* 1) shoʻngʻish; 2) yuqori-dan suvga tashlash
diving-bell [ˈdaɪvɪŋbɛl] *n* suv tagiga tushish-ga oid qoʻngʻitroq
diving board [ˈdaɪvɪŋbɔːd] *n* (suvga sak-rash uchun) trampoline
diving-dress [ˈdaɪvɪŋdres] *n* skafandr (*suv oʻtmaydigan kiyim*)
diving-rudder [ˈdaɪvɪŋ,rʌdə] *n* 1) av. bal-landlik yoki pastlik ruli; 2) *deng.* gorizonta l rul
divining-rod [dɪˈvaɪnɪŋrɒd] *n* 1) sehrli ta-yoqcha; 2) suv yoki ruda izlab topish uchun xivich, chiviq, novda
divinity [dɪˈvɪnɪtɪ] *n* ilohiyot, Xudo, Alloh, Iloh
divinize [ˈdɪvɪnaɪz] *v* ilohiytashirmoq, xudo deb bilmoq, sigʻinmoq
divisibility [dɪˈvɪzɪˈbɪlɪtɪ] *n* boʻlish, ajratish, taqsimot, ajralish, tafovut
divisible [dɪˈvɪzəbl] *a* boʻlinadigan, boʻli-nuvchi
division [dɪˈvɪʒ(ə)n] *n* 1) *harb.* diviziya; 2) boʻlish; taqsimlash; 3) *mat.* boʻlish; 4) fikrlardagi farq, tafovut; 5) tasniflanish, boʻlish; 6) (*bir necha fakultetlar*) boʻlimi
divisional [dɪˈvɪʒənəl] *a* 1) *harb.* diviziyaga oid; 2) boʻlinishga oid; 3) kasrga oid
divisive [dɪˈvaɪsɪv] *a* 1) boʻluvchi; 2) orani buzuvchi, ajratib yuboruvchi, bir-biridan judo qiluvchi, nifoq soluvchi
divisor [dɪˈvaɪzə] *n* *mat.* boʻluvchi
divorce [dɪˈvɔːs] 1. *n* taloq; ajralish; nikoh-ning bekor qilinishi; 2. *v* ajrashmoq; nikohni bekor qilmoq
divorcee [dɪˈvɔːˈsiː] *n* ajrashgan (*er yoki xo-tin*)
divorcement [dɪˈvɔːsmənt] *n* ajralish (*er-xotin haqida*); nikohning bekor qilinishi

divot [ˈdɪvət] *n* chim, chimzor
divulgate [ˌdɪvəlˈɡeɪʃ(ə)n] *n* oshkor qilish, hammaga bildirib qo'yish
divulge [dɪvəlˈdʒ] *v* oshkor qilmoq, hammaga ma'lum qilmoq, ovoza qilmoq, (*simi*) oshkor qilmoq
divvy [ˈdɪvi] *1. n* haq, hissa, ulush; *2. v* bo'lishmoq; o'rtoqlashmoq, baham ko'rmoq
dixie, dixy [ˈdɪksɪ] *n* *harb.* oshxona qozoni
dizain [dɪˈzeɪn] *n* o'n qatorli she'r
dizzily [ˈdɪzɪli] *adv* boshni aylantirib, miyani aynitib
dizziness [ˈdɪzɪnəs] *n* bosh aylanish
dizzy [ˈdɪzi] *1. a* boshi aylanayotgan; *2. v* bosh aylanmoq
do I [du:] *n* (*pl* **dos, do's** [du:z]) *1* so'zl. aldash, firib (*paud*) berish; aldov, aldovchilik, *paud*, aidamchilik; yolg'on-yashiq; *2* so'zl. o'yin-kulgi, sayr-tomosha, ermak, ovunchiq
do II [du:] *v* (*did, done*) bajarmoq, amalga oshirmoq, qilmoq
doable [ˈdu:əbl] *a* bajarsa bo'ladigan
do-all [ˈdu:ɔ:l] *n* har tomonlama mohir, qo'ligul
dobbin [ˈdɒbɪn] *n* kichkina finjon (*chashka*)
doc [dɒk] *n* so'zl. doktor, shifokor
docile [ˈdɒsaɪl] *a* gapga kiradigan, gapga quloq soladigan, itoatkor
docility [dɒ(ɪ)ˈsɪlɪti] *n* *1*) gapga quloq solish, itoatkorlik; *2*) o'qishga qobiliyat; zehni o'tkirlik, ziyotlik
dock I [dɒk] *1. n* dok (*kema va paroxodlarni ta'mirlaydigan ishxona*); *2. v* *1*) (*kemani*) dokka (*kemalar tuzatiladigan korxonaga*) olib kirmoq; *2*) dokka kirmoq (*kema haqida*)
dock II [dɒk] *n* yur. qora kursi; sudlanuvchilar kursisi
dock III [dɒk] *n* bot. shovul
dock IV [dɒk] *1. n* maxs. *1*) dumg'aza (*hayvonlar dumida*); *2*) kesilgan dum; *2. v* *1*) (*dumni*) qirqmoq, kesmoq; *2*) (*sochni*) kalta qilmoq
dockage [ˈdɒkɪdʒ] *n* kemalarning turadigan joyi
docker [ˈdɒkə] *n* deng. portda ishlaydigan ishchi
docket [ˈdɒkɪt] *1. n* hujjatning ustiga yozilgan yozuv; *2. v* belgi qo'yimoq, tamg'a bosmoq
dock-master [ˈdɒk,mɑːstə] *n* dok boshlig'i
dockyard [ˈdɒkjɑːd] *n* kemasozlik zavodi
doctor [ˈdɒktə] *1. n* doktor, shifokor; *2. v* so'zl. davolamoq, muolaja qilmoq; *to -smb.* kimnidir davolamoq
doctoral [ˈdɒkt(ə)rəl] *a* doktorlik darajasiga oid; doktorlik

doctorate *1. n* [ˈdɒkt(ə)rɪt] *1*) doktorlik darajasi; *2*) doktoratura; *2. v* [ˈdɒkt(ə)rɪt] *kam.* doktorlik ilmiy darajasini bermoq
doctrinal [dɒkˈtrɪnəl] *a* aqidaparastlikka oid
doctrine [ˈdɒktrɪn] *n* ta'limot; nazariya
document [ˈdɒkjʊmənt] *n* hujjat, guvohnoma
documentary [ˌdɒkjʊˈment(ə)rɪ] *a* hujjatli, hujjatlarga asoslangan; *a - film* hujjati film
documentation [ˌdɒkjʊmənt(ə)ʃ(ə)n] *n* hujjat, rasmiy qog'oz
dodder I [ˈdɒdə] *v* oqsoqlanmoq, sudralmoq, oyoqlarini sudrab qadam bosmoq
dodder II [ˈdɒdə] *n* bot. zarpechak, devpechak
doddered [ˈdɒdəd] *a* bargi to'kilgan, shipshiydam bo'lgan (*daraxtlar haqida*)
dodderly [ˈdɒdərlɪ] *a* *1*) tentak, ahmoq; *2*) oyoqda tura olmaydigan
doddle [ˈdɒdl] *n* qulay (*oson*) ish
dodecagon [dəʊˈdekəɡən] *n* o'n ikki burchaklilik
dodecahedron [ˌdɒdekəˈhɛdr(ə)n] *n* o'n ikki yoqlik; dodekaedr
dodge [dɒdʒ] *1. n* hiyla, nayrang; *2. v* *1*) chap bermoq, o'zini chetga olmoq, chalg'itmoq; *2*) (*ta'qibdan bekiniib*) yashirinmoq; *3*) (*bi-ror kimsaning orqasidan*) bildirmasdan bormoq; *4*) orqaga va oldinga harakat qilmoq
dodger [ˈdɒdʒə] *n* hiylagar, ayyor, mug'ambir
dodgery [ˈdɒdʒəri] *n* bahona, vaj, hiylanayrang
dodgy [ˈdɒdʒɪ] *n* ayyor, hiylakor, shayton
dodo [ˈdɒdəʊ] *n* (*pl* *-oes, -os* [-əʊz]) johil (*qoloq, nodon*) kishi
doe [dɒ] *n* urg'ochi, moda, makiyon (*bug'u, quyon va h. k. haqida*)
doer [ˈduː(ə)] *n* amalga oshiruvchi, bajaruvchi, ijrochi
does [dɒz] *do* *fe'lining hozirgi zamon III saxs birlik shakli*; *he - his homework everyday* u har kuni uy ishini bajaradi
doeskin [ˈdɒskɪn] *n* *1*) bug'uning terisi; *2*) zamsh (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charrn*)
doff [dɒf] *v* (*kiyimni*) yechmoq, yechib qo'yimoq, yechib tashlamoq
dog [dɒg] *1. n* *1*) it, kuchuk; *2*) erkak (*bo'ri, tulki va b. haqida*); *2. v* *1*) ketma-ket bormoq; (*birovning orqasidan*) kuzatmoq, izidan bormoq; *2*) it bilan ta'qib qilmoq; itga oldirmoq
dog-bane [ˈdɒɡbeɪn] *n* bot. kendir (*tolali ko'p yillik o'tsimon o'simlik*)

- dog-bee** [ˈdɒɡbi:] *n* 1) erkak asalari; 2) dangasa, ishyoqmas, tekinox'r
- dogberry** [ˈdɒɡb(ə)rɪ] *n bot.* ituzum (yeb bo'lmaydigan mayda mevali o'simlik)
- dog-biscuit** [ˈdɒɡˌbɪskɪt] *n* itlarga beriladigan qotirilgan kulcha non
- dog-box** [ˈdɒɡbɒks] *n* yuk vagonlarida itlar uchun ajratilgan maxsus bo'linma
- dog-cart** [ˈdɒɡkɑ:t] *n* it qo'shilgan aravacha
- dog-cheap** [ˈdɒɡtʃi:p] *a amer. so'zl.* arzon, juda arzon
- dog-collar** [ˈdɒɡˌkɒlə] *n* bo'yinbog'. bo'yinga taqiladigan tasma, qayish (hayvonlar uchun)
- dog-days** [ˈdɒɡdeɪz] *n* 1) yozning issiq kunlari; 2) qora kunlar, og'ir paytlar
- dog-eared** [ˈdɒɡeəd] : **a ~ book** titilgan (eskirgan) kitob
- dogface** [ˈdɒɡfeɪs] *n amer. so'zl.* 1) piyoda askarlar; 2) rekrut (chor Rossiyasida askarlikka olingan yangi askar)
- dog-fancier** [ˈdɒɡˌfænsɪə] *n* 1) itboqar; 2) itboz
- dogfight** [ˈdɒɡˌfaɪt] *n harb.* 1) havo jangi; 2) qo'l jangi
- dogfish** [ˈdɒɡfɪʃ] *n zool.* nalim, yelimbaliq
- dog-fox** [ˈdɒɡfɒks] *n* nar (erkak) tulki
- dogged** [ˈdɒɡɪd] 1. *a* o'jar, qaysar; 2. *adv* juda, juda ham, haddan tashqari, o'ta, favqulodda
- dogger** [ˈdɒɡə] *n* 1) deng. Gollandiyaning baliq ovlaydigan ikki minorali (machtali) kemasi; 2) geol. mezozoy erasining ikkinchi davri
- doggerel** [ˈdɒɡ(ə)rəl] 1. *n* bo'lar-bo'lmas she'rlar, yomon yozilgan she'rlar; 2. *a* yomon, nojo'ya, nobop, ma'nosiz, mazmunsiz (she'r haqida)
- doggerly** [ˈdɒɡ(ə)rɪ] *n* 1) itlar; 2) hayvoniy xulq, qabih fe'l
- doggie** [ˈdɒɡɪ] *n* kuchuk, kichkina it
- doggish** [ˈdɒɡɪʃ] *a* 1) qo'rs, qo'pol, dag'al; 2) itga oid, itniki
- doggo** [ˈdɒɡəʊ] *adv* yashirinib, bekinib; to lie ~ yashirinmoq, bekinmoq
- doggone** [ˈdɒɡɡɒn] *int.* attang! afsus! esizgina!
- doggy** [ˈdɒɡɪ] 1. *n* kichkina it, kuchukcha; 2. *a* itlarni yaxshi ko'radigan
- dog-hole** [ˈdɒɡhəʊl] *n* itning uychasi
- dog-house** [ˈdɒɡhaʊs] *n* itning uychasi
- dog-in-the-manger** [ˈdɒɡɪndəˈmæŋ(d)ʒə] *n* na o'ziga qiladi, na bировga; o'ziga ham qilmaydi, bировga ham bermaydi
- dog-lead** [ˈdɒɡli:d] *n* itning yetaklash ipi, arqoni, jilovi
- dog-licence** [ˈdɒɡˌlaɪsəns] *n* itning ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma
- dogma** [ˈdɒɡmə] *n* 1) aqida; 2) din aqidalari; 3) qotma, qotib qolgan
- dogmata** [ˈdɒɡmətə] *pl of dogma*
- dogmatic** [ˈdɒɡˌmætɪk] *a* 1) dogmatik, aqidalarga asoslangan; 2) qotib qolgan
- dogmatically** [ˈdɒɡˌmætɪkəli] *adv* qat'iy, uzilkesil
- dogmatics** [ˈdɒɡˌmætɪks] *n (sing.)* aqidaparastlik
- dogmatize** [ˈdɒɡmətaɪz] *v* aqidalarga ko'r-ko'rona ishonitirmoq
- dog nail** [ˈdɒɡneɪl] *n* 1) qo'ltiqtayog; 2) qoziq mix
- dog-poor** [ˈdɒɡpʊə] *a* gadoy, tilanchi
- dog-rose** [ˈdɒɡrəʊz] *n bot.* na'matak, itburun
- dog-salmon** [ˈdɒɡˌsæmən] *n zool.* keta (lossolar oilasiga mansub qizilgo'sht baliq)
- dog's-grass** [ˈdɒɡzɡrɑ:s] *n bot.* bug'doyiq (yerga yoyilib o'sadigan g'allasimon o'simlik)
- dog-sick** [ˈdɒɡˌsɪk] *a* noxush his qilish; be was ~ u o'zini noxush (yomon) his qildi
- dogskin** [ˈdɒɡskɪn] *n* layka (mayin teri)
- dog-sleep** [ˈdɒɡsli:p] *n* hushyor (sezgir) uyqu
- dog's letter** [ˈdɒɡzˌletə] *n* „R“ harfining eski nomi
- dog's-meat** [ˈdɒɡzmi:t] *n* 1) o'limtik, o'laksa; 2) itga beriladigan go'sht
- Dog's-tail** [ˈdɒɡzteɪl] *n astr.* Kichik Ayyiq, Kichik Yetti og'ayni (yulduz turkumi)
- Dog-star** [ˈdɒɡstɑ:] *n astr.* Sirius (yulduz)
- dog tag** [ˈdɒɡtæg] *n* itni qaydga (ro'yxatga) olish raqami
- dog-tired** [ˈdɒɡˌtaɪəd] *a* qattiq (rosa, juda) charchagan, horigan, tinkasi qurigan, holdan toygan, itdek charchagan
- dog-tooth** [ˈdɒɡtu:θ] *n (pl -teeth [-ti:θ])* qoziq tish, so'yloq tish
- dogtrot** [ˈdɒɡtrɒt] *n* yo'rtib chopish, yelish
- dog-violet** [ˈdɒɡˌvaɪələt] *n bot.* yovvoyi binatsha
- dog-weary** [ˈdɒɡˌwɪəri] = **dog-tired**
- dogwood** [ˈdɒɡwʊd] *n bot.* qizil (qizil mevali buta va uning nordon mevasi)
- doily** [ˈdɔɪli] *n* qo'l sochiq (mato va qog'ozdan)
- doing** [ˈdu(:)ɪŋ] 1. *n* yumush; 2. *a* 1) amaldagi, faol ishtirok etayotgan; 2) (kino, teatrdagi) qo'yilayotgan; **what's - tonight?** kechqurun nima qo'yilyapti?
- doings** [ˈdu:ɪŋz] *n pl* ish, harakat, muomala; qiliq
- doit** [dɔɪt] *n* 1) mayda-chuyda; 2) mayda pul

- doited** [ˈdɔɪtɪd] *a* *shotl.* qarib aqldan ozgan
- doldrums** [ˈdɔldrəmz] *n* ma'yuslik, g'amginlik, umidsizlik
- dole I** [dəʊl] **1.** *n* 1) ishsizlik nafaqasi; 2) (*biror narsani xayriya maqsadida*) tarqatish, berish; **2.** *v* 1) istar-istamas (uncha xohlamasdan) tarqatmoq; 2) xayriya yordami ko'rsatmoq
- dole II** [dɔl] *n* *shoir.* 1) qayg'u, g'am, dardalam, dog'; 2) ingrash, oh-voh qilish, zorlanish; oh-voh, oh-zor, nola, fig'on, afg'on; **to make ~** ingrash (oh-voh qilmoq)
- doll** [dɒl] **1.** *n* qo'g'irchoq; **2.** *v* yasantirmoq, kiyintirmoq
- dollar** [ˈdɒlə] *n* dollar; **the ~s** pullar, boylik
- dollish** [ˈdɒlɪʃ] *a* qo'g'irchoqqa oid, qo'g'irchoqqa o'xshagan
- doll-like** [ˈdɒləɪk] *a* qo'g'irchoqsimon, qo'g'irchoqqa o'xshagan
- dolltop** [ˈdɒləp] *n* kattagina bo'lak, parcha, tishlam
- dolly** [ˈdɒli] **1.** *n* kichkina qo'g'irchoq; **2.** *a so'z.* 1) qo'g'irchoqqa oid; bolalarga xos; 2) oson, yengil
- dolly-bag** [ˈdɒləbæɡ] *n* ayollarning kichkina sumkachasi
- dolly-shop** [ˈdɒləʃɒp] *n* matroslar do'koni
- dolly-tub** [ˈdɒlətʌb] *n* tog'ora, jom
- dolman** [ˈdɒlmən] *n* doloman (*gusarlar kiyimi*)
- dolomite** [ˈdɒləmaɪt] *n* *min.* dolomit (*minerat*)
- dolorous** [ˈdɒləərəs] *a* qayg'uli, g'amgin
- dolose** [də(ɒ)'ləʊs] *a* *yur.* badniyat, niyati buzuc
- dolour** [ˈdɒləʊ] *n* qayg'u, g'am, xafagarchilik
- dolphin** [ˈdɒlfɪn] *n* *zool.* delfin
- dolt** [dɔʊlt] *n* ahmoq, tentak, nodon kishi
- doltish** [ˈdɔʊltɪʃ] *a* tentaknamo, ahmoqroq
- domain** [də'meɪn] *n* 1) mulk, yer-suv; 2) oblast, soha, faoliyat maydoni
- dome** [dəʊm] **1.** *n* gumbaz, ravoq, qubba; **2.** *v* qubbage o'xshagan shakl bermoq
- domed** [deʊmd] *a* 1) gumbazsimon; 2) gumbaz bilan bezatilgan
- Domesday Book** [ˈdu:mzdeɪbʊk] *n* (1086-yilda) istilochi Vilgelm tomonidan o'tkazilgan Angliyaning yer ro'yxati, kadastr daftari (*kadastr - biror narsa haqidagi ma'lumotlar to'plami; biror narsaning ro'yxati*)
- domestic** [də'mestɪk] **1.** *a* 1) uyga oid, oilaviy; 2) oilaviy hayotni yoqtiradigan; 3) ichki, mamlakat ichidagi; 4) mahalliy; o'z mamlakatiga oid, mamlakatning o'zidagi; ~ **industry** mamlakatning o'z sanoati; **2.** *n* 1) oqsoch, xizmatkor ayol, uy xizmatchisi; 2) *pl* mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan tovarlar; 3) *amer. pl* paxtadan qilingan oddiy matolar
- domesticable** [də'mestɪkəbl] *a* qo'lga o'rgatsa bo'ladigan; xonakilashtirish mumkin bo'lgan (*hayvonlar haqida*)
- domesticate** [də'mestɪkeɪt] *v* 1) (*hayvonlarni*) qo'lga o'rgatib o'lmoq; 2) yangi sharoitga (iqlimga) o'rgatmoq; 3) xo'jalik (ro'zg'or) yuritishni o'rgatmoq; 4) uyga o'rgatmoq; uyga havas uyg'otmoq
- domestication** [də'mestɪ'keɪʃ(ə)n] *n* 1) uyga, oilaviy hayotga odatlanish; 2) (*hayvonni*) qo'lga o'rgatish
- domesticity** [ˌdəʊmestɪ'tɪsɪti] *n* 1) oilaviy hayot; 2) oilaviy hayotga muhabbat
- domett** [də(ɒ)'met] *n* yarimjun mato
- domic, domical** [dəʊmɪk, -(ə)l] *a* gumbazsimon; qubbaga o'xshagan
- domicile** [ˈdɒmɪsəl] **1.** *n* 1) doimiy turar joy; 2) *yur.* shaxs yoki firmaning yuridik manzili; **2.** *v* doimiy yashash uchun joylashtirmoq
- domiciliary** [ˈdɒmɪ'sɪljəri] *a* uy, turar joy bo'yicha; **a ~ visit** uyni tintuv qilish
- dominance, -cy** [ˈdɒmɪnəns, -sɪ] *n* hukmronlik, hokimlik, ustunlik; saltanat
- dominant** [ˈdɒmɪnənt] **1.** *n* dominanta (1. *asosiy belgi, ustun turgan narsa; hukmron g'oya; 2. mus. diatonik gammaning beshinchi pardasi; 3. biol. nasldan nastga o'tuvchi asosiy belgi*); **2.** *a* 1) hukmron, ustuvor, hokim; 2) tevarak-atrofdan baland turgan, baland, hukmron
- dominate** [ˈdɒmɪneɪt] *v* 1) hukmronlik qilmoq, ustuvorlik qilmoq; 2) o'zini tiymoq, qo'lga o'lmoq; 3) tevarak-atrofdan baland ko'tarilib turmoq, baland bo'lmoq, hukmron bo'lmoq
- domination** [ˈdɒmɪ'neɪʃ(ə)n] *n* hukmronlik, ustuvorlik
- domineer** [ˈdɒmɪ'niə] *v* idora qilmoq, boshqarmoq, hukmronlik qilmoq
- domineering** [ˈdɒmɪ'niəriŋ] *a* mustabidlaracha; so'zini o'tkazadigan, e'tirozga yo'l qo'ymaydigan
- dominical** [də'mɪnɪk(ə)l] *a* *cherk.* qaytadan vujudga keladigan, qayta tiriladigan
- dominie** [ˈdɒmɪni] *n* 1) *shotl.* maktab o'qituvchisi; 2) *amer.* ruhoni
- dominion** [də'mɪnjən] *n* 1) dominion (1947-yilgacha Britaniya imperiyasiga kirgan, rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan davlat); 2) suverenitet, mustaqillik, suveren (mustaqil) huquq, suveren (mustaqil) hokimiyat; 3) hokimlik, hukmronlik, hokimiyat, saltanat; 4) mulk, mol-mulk; egalik qilish huquqi

- domino** [ˈdɒmɪnoʊ] *n* (*pl -oes [-əʊz]*) 1) domino (*maskarad kiyimi*); maskarad ishtirokchisi; 2) domino (*o'yin*)
- dominoed** [ˈdɒmɪnoʊd] *a* domino (*maskarad*) kiyimi kiygan
- don** [dɒn] 1. *n* 1) (D) don (*ispan unvoni*); 2) o'qituvchi, kollej kengashining a'zosi (*Oksford va Kembrijda*); 2. *v* esk. taqib (*ilib, osib*) olmoq
- dona(h)** [ˈdɒnə] *n* 1) xotina kishi; 2) mahbuba, ma'shuqa
- donate** [deɪ(ʊ)neɪt] *v* tortiq qilmoq, sovg'a qilib bermoq, armug'on etmoq
- donation** [deɪ(ʊ)neɪʃ(ə)n] *n* 1) tortiq, hadya, sovg'a; 2) sadaqa
- donative** [ˈdeɪ(ʊ)nətɪv] 1. *n* hadya, in'om, sovg'a, tuhfa; 2. *a* hadya qilish bilan bog'liq bo'lgan, sovg'a qilib berilgan, sadaqa (hadya, xayr-ehson, nazr) qilingan
- donatory** [ˈdeɪnət(ə)rɪ] *n* hadya, sovg'ani oluvchi kishi, shaxs
- done** [dʌn] 1. *p. p. of do*; 2. *a* 1) qilingan, bajarilgan; ~ *in English* ingliz tilida bajarilgan (*rasmiy hujjat haqida*); 2) yaxshi tayyorlangan, pishirilgan; ~ *to a turn* ajoyib tayyorlangan
- donee** [deɪ(ʊ)ni:] *n* sovg'ani oluvchi kishi
- donga** [ˈdɒŋgə] *n* dara
- donjon** [ˈdɒndʒ(ə)n] *n* bosh minora (*o'rta asrlarga oid qasrda*)
- donkey** [ˈdɒŋki] *n* 1) zool. eshak; 2) amer. Eshak (*demokratik partiyaning norasmiy emblemasi*)
- donkey-engine** [ˈdɒŋki,ɛn(d)ʒɪn] *n* 1) chig'ir (*yuqoriga yuk ko'taradigan eng oddiy mashina*); 2) tex. yordamchi (*qo'shimcha*) dvigatel
- donnish** [ˈdɒnɪʃ] *a* takabbur, gerdaygan, dimog'dor
- donor** [ˈdɒnə] *n* 1) nazr beruvchi, iona qiluvchi, sadaqa (xayr-ehson) qiluvchi; 2) tib. donor (*yarador va bemorlarga o'z qonini beruvchi kishi*)
- do-nothing** [ˈduːnʌθɪŋ] 1. *n* bekorchi, ishyoqmas kishi; 2. *a* 1) yalqov, dangasa, tana, ishyoqmas; 2) bekorchi, ishlamaydigan, ishlamasdan yashaydigan
- doodle** I [ˈduːdl] 1. *n* ahmoq kishi, galvars, kallavaram; 2. *v* sheva. aldamoq, aldash ketmoq, tovlamoq, firib bermoq, pand bermoq
- doodle II** [ˈduːdl] *v* shotl. volinka (*dam bilan chalinadigan rus xalq cholg'u asbobi*) chalmoq
- doom** [duːm] 1. *n* 1) taqdir, qismat; 2) halok bo'lish, yo'q bo'lish, halokat; 2. *v* 1) mahkum qilmoq, duchor qilmoq; 2) ayblov hukmini chiqarmoq, jazoga hukm qilmoq, kesmoq
- dooms** [duːmz] *adv* shotl. juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari; ortiq darajada
- doomsday** [ˈduːmzdeɪ] *n* dir. 1) qiyomat, qiyomat kuni; 2) yuz. sud kuni
- door** [dɔː] *n* 1) eshik, eshikcha; 2) yo'li; *a ~ to success* muvaffaqiyat yo'li; 3) uy, xonadon, binol: next ~ qo'shni uy; ~ step ostona, bo'sag'a
- doorbell** [ˈdɔːbel] *n* eshik qo'ng'irog'i
- door-case** [ˈdɔːkeɪs] *n* eshik kesakisi
- door-frame** [ˈdɔːfreɪm] = **door-case**
- door-keeper** [ˈdɔːkiːpə] *n* shveysar, darbon, darvoza (eshik) og'asi
- door-man** [ˈdɔːmən] = **door-keeper**
- door-mat** [ˈdɔːmæt] *n* 1) oyoqartgich, oyoq artiladigan gilamcha; 2) ko'ch. „latra“, irodasiz (*bo'shshagan*) kishi
- door-plate** [ˈdɔːpleɪt] *n* (*familiya va b. yozilgan*) eshik taxtachasi
- doorstep** [ˈdɔːstep] *n* ostona, bo'sag'a
- door-stone** [ˈdɔːstəʊn] *n* eshik oldi (*uyga kiraverishdagi soyabonli pillapoya*) tosh-taxtasi
- doorway** [ˈdɔːweɪ] *n* 1) binoga kirish yo'li, kiraverish; 2) qur. eshik o'rni; 3) (*biror narsaga*) yo'li
- dope** [dɒp] 1. *n* 1) narkotik modda; 2) narkoman, giyohvand; 2. *v* 1) narkotik modda yoki doping (*g'ayratni oshiruvchi modda, vosita*) bermoq; 2) narkotik qabul qilmoq; gangitmoq, miyasini aynitmoq, ongini zaharlamoq; aldamoq
- dope-fiend** [ˈdɒpfiːnd] *n* narkoman, bangi (*giyohvand, nashavand, ko'knori odam*)
- dopey** [ˈdɒpi] *a* so'zl. 1) lanj, shakpaygan; bo'shshagan; 2) gangitadigan, narkotik, behush (*mast, karaxt*) qiladigan
- dor** [dɔː] *n* qo'ng'iz, go'ngqo'ng'iz, tilla-qo'ng'iz
- dor-beetle** [ˈdɔːbiːtl] = **dor**
- dor-bug** [ˈdɔːbʌg] = **dor**
- Dorcus** [ˈdɔːkəs] *n* kambag'alfarni kiyim-kechak bilan ta'minlovchi ingliz ayollar jamiyatining nomi
- dorhawk** [ˈdɔːhɔːk] *n* zool. tentakqush
- Dorian** [ˈdɔːriən] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyatiga*) oid; doriy, dorida...
- Doric** [ˈdɔːrɪk] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyatiga*) oid; doriy, dorida; *a ~ order* me'mor. dorida uslubi (*orderi*)
- Dorking** [ˈdɔːkɪŋ] *n* dorking (*Angliyaning go'shdor tovuq zoti*)
- dormancy** [ˈdɔːmænsɪ] *n* 1) harakatsizlik holati; 2) mudrash, mudroq bosish, pinak, mudroq

- dormant** [ˈdɔ:mənt] *a* 1) uyqudagi; 2) harakatsiz; tinch, sokin; 3) yashirin (*qobiliyat, kuch va b. to'g'risida*); **to lie** ~ harakatsiz (yashirin) holatda bo'lmoq; 4) uyquda bo'lgan (*hayvonlar to'g'risida*); 5) daromad keltirmaydigan (*sarmoya to'g'risida*); ~ **capital** daromad (foyda) keltirmaydigan boylik
- dormice** [ˈdɔ:mɪs] *pl of dormouse*
- dormitory** [ˈdɔ:mɪt(ə)rɪ] *n esk.* talabalar umumiy yotoqxonasi, yotoqxon
- dormouse** [ˈdɔ:məʊs] *n zool.* sonya (*qishda uzoq vaqt uyquda bo'ladigan olmaxonga o'xshagan hayvon*)
- dorp** [dɔ:p] *n jar. afr.* qishloq
- dorsal** [dɔ:s(ə)] 1. *a anat.* orqadagi, orqa..., orqa...; 2. *n* 1) orqasuzgich (*baligda*); 2) *anat.* orqa umurtqa
- dorse** [dɔ:s] *n zool.* yosh treska (*shimol dengizlaridagi baliqning bir turi*)
- dorter, dortour** [dɔ:tə] *n tar.* monastirning umumiy yotoqxonasi
- dory** [ˈdɔ:rɪ] *n* baliqchilarning tagi yassi qayig'i (*Shimoliy Amerikada*)
- dosage** [ˈdɔ:sɪdʒ] *n tib.* doza, o'lchovli miqdor (*dori-darmon va b.*)
- dose** [dɔ:s] 1. *n* 1) doza, o'lchovli miqdor; 2) *so'zl.* biror narsaning, ko'pincha, ovqatning muayyan, *mas.*, bir kishiga mo'ljallangan miqdori; 2. *v* dozalamoq, dozalarga bo'lmoq
- dosimeter** [dɔ:(u)'sɪmɪtə] *n* dozimetr (*radioaktiv nurlanish darajasini o'lchaydigan asbob*)
- doss** [dɔs] 1. *n* 1) karavot, osma karavot (*tunaydigan joylarda*); 2) uyqu, uxlash; 2. *v* 1) tunamoq (*tunaydigan joylarda*); 2) uxlamoq
- dossal, dossel** [ˈdɔs(ə)] *n cherk.* mehrob ortidagi parda
- doss-house** [ˈdɔshaʊs] *n* tunash joyi
- dossier** [ˈdɔsɪeɪ] *fr n* biror ish, masala yoki shaxsga doir hujjatlar to'plami, shaxsiy varaqa
- dot I** [dɔt] 1. *n* 1) nuqta; 2) kichkina narsa; 3) kichkintoy, chaqaloq, go'dak; **a ~ of a child** jajji chaqaloq; 4) kichkina dog'; 2. *v* 1) nuqta qo'ymoq; 2) nuqtali chiziq bilan belgilamoq; nuqtali chiziq chizmoq
- dot II** [dɔt] *n yur. sep, sep-sidirg'a*
- dotage** [ˈdɔtɪdʒ] *n* qarilikdagi (*qarigandagi, keksalarga xos bo'lgan*) aqli pastlik
- dot-and-go-one** [ˈdɔtən ˈgəʊwən] *n* oqsoqlanib yurish, oyoqlarni sudrab bosish
- dotard** [ˈdɔtəd] 1. *n* aqldan ozgan qariya; esini yeb qo'ygan chol; 2. *a* 1) aqldan ozgan, esini yeb qo'ygan; esi yarimta bo'lib qolgan; 2) *esk.* chirigan, chirib qolgan (*daraxt haqida*)
- dote** [dɔt] *v* haddan tashqari sevmok (yaxshi ko'rmoq)
- doting** [ˈdɔtɪŋ] *a* 1) haddan ortiq sevadigan; 2) qarilikdagi aqli zaiflikdan azob chekayotgan
- dotted** [ˈdɔtɪd] *a* 1) nuqtali; 2) nuqtalar bilan belgilab qo'yilgan; **a ~ line** nuqtali chiziq, punktir (*nuqta yoki uzun chiziqlardan iborat chiziq*)
- dotterel** [ˈdɔtrəl] *n zool.* rjanka (*Amerika, Hindiston, Eron, Avstraliya va boshqa yerlarda tarqalgan, loyxo'vaktar oilasiga mansub qush*)
- dottle** [ˈdɔtl] *n* chala chekilgan trubkada qolgan tamaki qoldig'i
- dotty** [ˈdɔtɪ] 1. *a* aqldan ozgan, jinmi, telba, devona; 2. *v* aqldan ozmoq, jinmi bo'lmoq
- double** [ˈdʌbl] 1. *a* 1) ikkita, qo'shaloq, ikkilangan; **a ~ bed** ikki kishilik karavot; 2) ikki xil; ikkiyuzlamachi; 2. *n* ikki miqdor (*his*sa); 3. *adv* ikki marta; 4. *v* ikki baravar oshirmoq
- double-acting** [ˈdʌbl ˈæktɪŋ] *n tex.* ikki baravar ko'p harakat qilish (*mexanizm haqida*)
- double-barrelled** [ˈdʌbl ˈbær(ə)ld] *a* 1) qo'shog'iz; **a ~ gun** qo'shog'iz miltiq; 2) ikki ma'noli
- double-bass** [ˈdʌbl ˈbeɪs] *n mus.* kontrabas (*skripkaga o'xshagan katta cholg'u asbobi*)
- double-bedded** [ˈdʌbl ˈbedɪd] *a* 1) ikkita karavotga ega bo'lgan (*xona to'g'risida*); 2) ikki kishilik (*mehmonxonadagi xona haqida*)
- double-breasted** [ˈdʌbl ˈbreɪstɪd] *a* ikki yoqlama tugmali (*kastum haqida*)
- double-charge** [ˈdʌbltʃɑ:dʒ] *v* ikki hissa o'qlamoq
- double-cross** [ˈdʌblkrɒs] 1. *n so'zl.* 1) aldash, firib (*pand*) berish; aldoq, aldovchilik, *pand*, aldamchilik, yolg'on, yolg'on-yashiq; 2) hiyla, nayrang, makr (*qilish, ishlatish*); 2. *v so'zl.* aldab ketmoq, firib bermoq
- double-dealer** [ˈdʌbl ˈdi:lə] *n* aldoqchi, aldamchi, firibgar, yolg'onchi
- double-dealing** [ˈdʌbl ˈdi:lɪŋ] 1. *n* munofiqona xatti-harakat, munofiqlik, xoinlik, sotqinlik; 2. *a* 1) munofiqona ish tutadigan, munofiq, riyokor, ikkiyuzlamachi; 2) munofiq odamlarga (*xoinlarga, sotqinlarga*) xos bo'lgan; munofiqona
- double-decker** [ˈdʌbl ˈdekə] *n* 1) ikki qavatli avtobus; 2) ikki palubali kema
- double eagle** [ˈdʌbl ˈi:gl] *n* 1) *gerald.* ikki boshli burgut; 2) *amer.* 20 dollarlik eski oltin tanga

double-edged [ˌdʌbl̩ ˈedʒd] *a* ikki tomoni o'tkir, ikki tug'li, dudama

double entendre [ˈduːbl̩ɑːŋ ˈtɑːndr̩] *n* ikki ma'noli ibora; ikki ma'nolilik

double entry [ˌdʌbl̩ ˈentri] *n* tij, ikki yoqlama buxgalteriya (ikkivyuzlamachilik, munofiqlana ikki tomonga ishlash)

double-event [ˈdʌbl̩ ˈvent] *n* sport, ikki-kurash (sportning ikki turini o'z ichiga olgan musobaqa)

double-faced [ˌdʌbl̩ ˈfeɪst] *a* 1) (mato haqida) ikki tomonli; 2) ikki tomoni bilan ursa bo'ladigan

double-first [ˌdʌbl̩ ˈfɜːst] *n* Angliya universitetini darajali diplom bilan ikki mutaxassislik bo'yicha bitirgan kishi

double-hearted [ˌdʌbl̩ ˈhɑːtɪd] *a* 1) ikkiyuzlama, munofiq, riyokor; 2) xiyonatkor, bevafo

double-lock [ˌdʌbl̩ ˈlɒk] *v* qulfn kalitni ikki marta burab qulftamoq (bekitmoq)

double-manned [ˌdʌbl̩ ˈmænd] *a* *harb.* ikki baravar shaxsiy tarkibli

double-meaning [ˌdʌbl̩ ˈmiːnɪŋ] **1.** *n* ikki ma'nolilik, ikki ma'noli gap; **2.** *a* aldaydigan, aldanchi

double-minded [ˌdʌbl̩ ˈmaɪndɪd] *a* qat'iyatsiz, ikkilanadigan

double-quick [ˌdʌbl̩ ˈkwɪk] **1.** *n* *harb.* tez yurish, tez qadam tashlash; **2.** *a* juda tez; tezkor, tezlik bilan bo'ladigan; **3.** *adv* 1) *harb.* tez qadam tashlab; 2) juda tezlik bilan

double-stop [ˌdʌbl̩ ˈstɒp] *v* tor simlarni baravar bosmoq (*skripka chalganda*)

doublet [ˈdʌblɪt] *n* 1) juft narsa; 2) nuxsa, dublikat; 3) pl egizaklar

double-time [ˌdʌbl̩ ˈtaɪm] *n* 1) *harb.* jadal yurish; 2) ishlagan ortiqcha soatlar uchun ikki hissa pul to'lash

double-tongued [ˌdʌbl̩ ˈtʌŋd] *a* 1) yolg'onchi, aldanchi; 2) yolg'ondakam, soxta, yasama, qalbaki

doubling [ˈdʌblɪŋ] *n* 1) (biror narsani) takrorlash; 2) ikki marta oshish; ikki baravar ko'paytirish

doublon [ˌdʌb ˈluːn] *n* *tax.* dublon (*qadimiy ispan oltin tangasi*)

doublure [duː ˈbluːr] *n* *fr.* muqovaning ich qismiga yopishtiriladigan ipak teri va b.

doubly [ˈdʌblɪ] *adv* ikki hissa qilib, ikki marta ortiq, ikki baravar ko'p

doubt [daʊt] **1.** *n* shubha, gumon, ikkilanish, qat'iyatsizlik, noaniqlik; **no** ~ shubhasiz; **2.** *v* shubhalanmoq, shubha qilmoq

doubtful [ˈdaʊtfl(ə)] *a* shubhali, dargumon, ishonib bo'lmaydigan

doubtless [ˈdaʊtləs] **1.** *a* shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, shak-shubhasiz, be-

gumon, aniq; **2.** *adv* shubhasiz, shak-shubhasiz, shubha tug'dirmaydigan

douce [duːs] *a* *shotl.* tinch, xotirjam, osoyishta

douceur [duː ˈsɜː] *n* *fr.* pora; „choy puli“

douche [duːʃ] **1.** *n* 1) dush; 2) ustidan (ustiga) to'kib yuborish, quyish, sepish; **2.** *v* 1) dush qabul qilmoq; 2) o'z ustidan suv quyimoq

dough [dəʊ] *n* xamir; *my cake is ~* ishim chatoq

doughboy [ˈdɒbɔɪ] *n* 1) uzma, pilak, pilakcha; 2) yog'da ko'pchib pishgan kulcha

doughtily [ˈdaʊtli] *adv* mardlarcha, jasurona, qahramonlarcha

doughtiness [ˈdaʊtɪnəs] *n* jasorat, botirlik, qahramonlik

doughty [ˈdaʊtɪ] *a* *esk.* jasoratli, jasur, botir, qahramon; shavkatli; lidokor, jonboz, dov-yurak, mard, jur'atli, jasoratli, qo'rqmas

doughy [dɒ(ʊ)ɪ] *a* 1) xamirsimon, xamirga o'xshagan; yumshoq; 2) befaht, tushunmaydigan (*kishilar haqida*); 3) solqigan, shishinqiragan, nosog'tom, kasalmand (*yuzning rangi haqida*)

dour [dɔː] *a* qattiqqo'f, qahri qattiq, berahm

douse [daʊs] *v* suvga sho'ng'imoq, suvga kirmoq

dove [dɒv] *n* *zool.* kabutar, kaptar; ~ of peace tinchlik kabutari

dove-colour [ˈdɒv,kələ] *n* ko'k, ko'kimtir rang

dovecot, dovecote [ˈdɒvkɒt, ˈdɒvkəʊt] *n* kaptarxona, kaptar uyasi

dove-eyed [ˈdɒv,aɪd] *a* 1) begunoh ko'rinish bilan; 2) beozor qarash bilan

dove-like [ˈdɒvlaɪk] *a* nozik, muloyim, yumshoq, xushmuomala, mehribon, mushfiq, yuvosh, beozor, mo'min-qobil

dovetail [ˈdɒvteɪl] *v* 1) to'g'ri keltirmoq, moslashtirmoq, kelishtirmoq; 2) to'g'ri kelmoq, mos kelmoq

dowager [ˈdaʊədʒə] *n* (*martabasi ulug' kishining*) bevasi

dowdy [ˈdaʊdɪ] **1.** *n* didsiz kiyingan ayol; **2.** *a* modadan qolgan, eski modadagi, eski bichimdagi, eskicha (*kiyim haqida*)

dowdyish [ˈdaʊdɪʃ] *a* kelishmagan, beo'xshov

dowel [ˈdaʊəl] *n* 1) katta yog'och (*yoki metall*) mix, mixcho'p; 2) shpunt (*1. taxtaning yon qirrasi bo'ylab chiqarilgan tirnoq; 2. bochkadagi achib yetilmagan vinoni berkitib turuvchi maxsus tiqin*); 3) *tex.* shponka (*mashina, mexanizm va sh. k. qurilmalarning qismlarini bir-biriga mustahkamlaydigan deta*)

- dower** ['daʊə] 1. *n* 1) merosning bevalarga qarashli bo'lgan qismi; 2) qobiliyat, iste'dod; 2. *v* (bevalarga) meros qoldirmoq
- down**[daʊn] 1. *n* 1) qiya, qiyalik, nishablik; **ups and ~s** balandlik va pastliklar; 2) g'arazgo'ylik, xush ko'rmaslik, yoqtirmaslik; **to have a ~ on smb.** biror narsaga g'araz bilan qaramoq; 2. *a* pastga yo'nalgan, tushayotgan; 3. *adv* 1) *past tomonga bo'lgan harakatni anglatadi*; **to come ~** pastga tushmoq; **the shades are ~** pardalar tushirilgan; 2) *miqdor, hajmning kamayishini, pasayishini, zaiflashishini, yomonlashishini anglatadi*; **to go ~** kamaymoq, pasaymoq, zaiflashmoq, aynimoq, yomonlashmoq; **to bring ~ the price** narxni tushirmoq; 4. *prep.* past tomonga harakatni anglatadi; **to walk ~ the hill** tepalikdan tushmoq; **to fall ~ the stairs** zinudan yiqilib tushmoq; 5. *v* 1) tushirmoq, tashlamoq; **to ~ one's opponent** raqibning yelkasini yerga tekkizmoq; 2) yutmoq; **to ~ medicine** dorini yutmoq; 3) yengmoq, bo'ysundirmoq, tinchitmoq; **to ~ opposition** qarshilikni yengmoq
- downcast** ['daʊnkɑ:st] 1. *n* 1) tushirish, pasaytirish, quyi solish; 2) yerga qadalgan ko'zlar (nigohlar); g'amgin nigoh; 3) *tog'*. pasayib borayotgan havo oqimi; 4) *tog'*. ventilatsion shaxta (kon); 2. *v short.* xafa qilmoq, ranjitmoq, xafa qilib (ranjitib) qo'yimoq, qayg'uga solmoq, ruhini tushirib yubormoq, dilini xufton qilib yubormoq
- down-draught** ['daʊn,drɑ:ft] *n* 1) *tex.* pastki tyaga (*tyaga* — *mexanizmining tortish quvvatini bir qismidan ikkinchisiga uzatib berib turuvchi uzun o'q*); 2) pasayib borayotgan havo oqimi
- downfall** ['daʊnfɔ:l] *n* 1) jala, sharros yomg'ir; 2) qattiq qor yog'ish, qorning qattiq yog'ishi
- down-grade** ['daʊnɡreɪd] 1. *n* 1) nishablik, qiyalik, nishab; 2) pasayish, tushish; 3) tushkunlik, inqiroz; 2. *a* qiyalikka qarab borayotgan (boradigan); qiyalikdan tushib ketayotgan; 3. *adv* ['daʊn'ɡreɪd] pastga qarab, qiyalikka qarab, qiyalikdan
- downhearted** [ˌdaʊn'ha:tɪd] *a* ruhan tushkunlikka tushgan; ruhi tushgan
- downhill** ['daʊnhɪl] 1. *adv* 1) *tog'*ning tagida, *tog'*ning tagiga; 2) ostga, pastga, quyiga; **to go ~** yomonlashmoq (*sog'liq haqida*); 2. *a* qiya, nishab
- Downing Street** ['daʊnɪŋ'stri:t] *n* Downing-strit (Londonda tashqi ishlar vaziri va bosh vazir qarorgohi joylashgan ko'cha)
- downpour** ['daʊnpɔ:] *n* jala, qattiq yomg'ir, sel
- downright** ['daʊnrɪt] 1. *a* halol, pok, vijdonli, to'g'ri, sofdil; 2. *adv* mutlaqo, batamom
- downstage** [ˌdaʊn'steɪdʒ] 1. *a* 1) *so'zl.* do'stona, do'stlikka oid; 2) sahna oldiga (peshsahnaga) oid; 2. *adv* 1) sahna oldi (peshsahna)da; 2) sahna oldi (peshsahna)ga
- downstairs** [ˌdaʊn'steəz] 1. *a* pastda, pastki qavatda joylashgan; 2. *adv* pastga, quyiga, tubga; **to go ~** pastga tushmoq; **to wait ~** pastda kutib turmoq
- downstream** [ˌdaʊn'stri:m] 1. *a* oqim bo'yicha pastki, ostki, quyi, pastdagi; pastlikda bo'ladigan; ~ **water** pastki (quyi) byef (*daryo yoki kanalning ikki to'g'on, shluz oralig'idagi sathi*); 2. *adv* oqim bo'yicha pastga
- dowthrow** ['daʊnθrəʊ] *n geol.* uzilma (*tog' jinstarining uzilib tushishi*); uzilib siljib tushgan tog' jinsi
- downtime** ['daʊntaɪm] *n* noilojlik, bekor turib qolish
- downtown** ['daʊntaʊn] 1. *n* 1) shaharning biznes qismi; shahar markazi; 2. *a* shaharning markazida, biznes qismida joylashgan
- downtrodden** [ˌdaʊn'trɒdn] *a* ruhan ezilgan, g'amgin, boshi qotgan
- downturn** ['daʊntɜ:n] *n* 1) bukilgan joy, bukik, egik; 2) (*iqtisodiy*) inqiroz, tanazzul
- downward** ['daʊnwəd] 1. *a* 1) tushuvchi, pasayuvchi, pastga yo'nalgan, qiya; ~ **movement** past tomon harakat; ~ **tendency** pasayishga moyillik; 2) pasayib borayotgan, tanazzulga yuz tutgan; ~ **career** martabada (lavozimda) pasayish; 3) ezilgan, g'amgin, qayg'uli; ~ **thoughts** noxush xayollar; 2. *adv* 1) pastga, qiyalik bo'yitab; 2) borgan sari yomon, yomondan yomon
- downy I** ['daʊni] *a* 1) tivitli, parli, momiqli; par yoki tivit bilan qoplangan; baroq; 2) pardan yoki tivitdan qilingan; **a ~ pillow** parvostiq; 3) yumshoq, mayin, momiqday
- downy II** ['daʊni] *a so'zl.* ayyor, hiylagar, quv, shayton, mug'ambir, shum
- downy III** ['daʊni] *a kam.* tepalik (balandlik)lar bilan qoplangan; past-baland
- dowry** ['daʊ(ə)rɪ] *n* 1) sep, qalin; 2) qobiliyat, iste'dod
- dowse** [daʊz] *v* tol novdasi vositasida yerosti suvlari yoki minerallar borligini aniqlamoq
- dowsing-rod** ['daʊzɪŋ,rɒd] *n* yerosti suvlari yoki mineral borligini aniqlaydigan tol novdasi, sehrli novda (*qadimgi afsonalarda*)
- doxy** ['dɒksi] *n* 1) ta'limot, nazariya; 2) ishonch, e'tiqod, maslak

- doyen** [ˈdɔɪən] *n fr.* oqsoqol, boshliq (*diplomatlilar hay'atida*)
- doze** [ˈdɔʊz] 1. *n* mudroq, pinak, uyqusirash; 2. *v* mudroq bosmoq, mudramoq, uyqusiramog
- dozen** [ˈdɔz(ə)n] *n* dujina (*o'n ikki dona*)
- dozy** [ˈdɔʊzi] *a* mudroq bosgan, uyqu aralash, uyqudagi, uyqusiragan, mudragan
- drab** [dræb] 1. *a kit.* sarg'ish-jigarrang; xira jigarrang; 2. *n 1)* isqirt ayol; 2) *so'zl.* fohisha, buzuq, g'ar
- drabbet** [ˈdræbɪt] *n* oqartirilmagan (yaxshi ishlanmagan) mato
- drabble** [ˈdræbl] *v* kir qilmoq, ifloslamoq, sachratmoq
- drachma** [ˈdrækmə] (*pl -mae [-mi:]*) draxma (*Qadimgi Gretsiya tangasi*)
- Draco** [ˈdreikəʊ] *n 1)* *astr.* Ajdar (*yulduzlar turkumidan biri*); 2) *zool.* qanotli kaltakesak
- Draconian, Draconic** [ˈdreɪˈkɔʊnjən, ˈdræˈkɔːnɪk] *a 1)* juda qattiq, shafqatsiz, yovuz; 2) = **Dracontic**
- draft** [dra:ft] 1. *n 1)* reja, chizma; *a ~ for a machine* mashina chizmasi; 2) loyiha, qoralama, eskiz; *first ~* dastlabki (qoralama) loyiha; 2. *v* eskiz tayyorlamoq, qoralama qilmoq; reja (loyiha) tuzmoq; *to ~ a drawing* tasvirini chizmoq
- draftee** [ˈdra:fˈti:] *n* *harb.* harbiy xizmatga chaqiriluvchi
- drafter** [ˈdra:ftə] *n* aravaga qo'shiladigan ot, aravakash ot
- drafting** [ˈdra:ftɪŋ] *n 1)* (*hujjat, qonun loyihasi*) tuzish; 2) chizmachilik
- draftsman** [ˈdra:ftsmən] *n* (*pl -men [-mən]*) 1) chizmachil, chizmakash; 2) qonun loyihasi muallifi
- draftsmanship** [ˈdra:ftsmənʃɪp] *n* chizmachilik, chizmachilik san'ati
- drag** [dræg] 1. *n 1)* sekin yurish (*harakat qilish*); *a heavy ~ uphill* qiyinchilik (*mashaqqat*) bilan tog'ga chiqish (*ko'tarilish*); 2) sudrash, sudrab bosish; *to walk with a ~* oyog'ini zo'rg'a sudrab bosmoq; 2. *v 1)* tashimoq, sudramoq; *to ~ a net* to'rni tortmoq; 2) sudrab olib kelmoq; 3) azoblamoq, ezmoq
- dragée** [ˈdrɑːˈʒeɪ] *n fr.* mayda dumaloqlangan narsa, konfet, vitamin va b.
- draggle** [ˈdrægl] *v* loyda sudrab bulg'amoq, kir qilmoq
- draggle-tail** [ˈdræglteɪl] *n 1)* kir etak; 2) isqirt (*ko'pincha, bolalar haqida*)
- drag-net** [ˈdræɡnet] *n 1)* (*balliq ovlaydigan*) to'r; 2) (*qush ovlaydigan*) to'r
- dragoman** [ˈdræɡə(v)mən] *n* (*pl -men [-mən]*) tilmoch, tarjimon (*sharq mamlakatlaridagi Yevropa elchixonalarida*)
- dragon** [ˈdræɡən] *n 1)* ajdaho, ajdar; 2) iblis, shayton; 3) beshafqat kishi, qattiqqo'l odam
- dragonfly** [ˈdræɡənflaɪ] *n* *zool.* ninachi
- dragon's-blood** [ˈdræɡənzblʌd] *n* ajdar yoki ilon qoni (*drakon daraxtining qizil smolasi*)
- dragon's teeth** [ˈdræɡənzi:θ] *n 1)* *mif.* ajdaho tishi; 2) *harb.* tankka qarshi to'siqlar
- dragoon** [ˈdræˈɡu:n] *n* dragoon (*chor armiyasi va bu'zi chet el armiyalarida: ham otda, ham piyoda harakat qila olgan otliq askar*)
- drain** [dreɪn] 1. *n 1)* oqib chiqish, oqib ketish, oqib tamom bo'lish, oqib tushish; ~ *from a leaky faucet* suvning buzuq krandan oqib chiqib ketishi; 2) zaxini qochirish, quritish; 3) *tib.* yaraning fasodini oladigan naycha; 2. *v* quritmoq, zaxini qochirmoq (*yerning*)
- drainage** [ˈdreɪnɪdʒ] *n 1)* yerning zaxini qochirish, quritish; 2) kanalizatsiya (*axlat, chiqindi va yog'in suvlari oqiziladigan quvurlar tarmog'i*); 3) *tib.* drenaj qilish, naycha yordamida fasodni olish
- drainage-tube** [ˈdreɪnɪdʒ,tju:b] *n* *tib.* drenaj naychasi, fasodni olish naychasi
- drake** [dreɪk] *n* o'rdak
- dram** [dræm] 1. *n* ho'plam, qultum; 2. *v* spirtli ichimlik ichmoq
- drama** [ˈdrɑ:mə] *n 1)* drama (*pyesa*); 2) (*the ~*) dramaturgiya, dramatik adabiyot, drama
- dramatic** [ˈdrɑːmætɪk] *a 1)* dramatik, teatr oid, dramaturgiyaga oid; *a ~ performance* teatr tomoshasi; *a ~ reading* badiiy o'qish; 2) og'ir, mushkul, jiddiy; 3) kuchli taasurot qoldiradigan, dabdabali
- dramatics** [ˈdrɑːmætɪks] *n 1)* drama san'ati; 2) spektakl, oshirib yubormoq
- dramatis personae** [ˈdrɑːmætɪspɜːˈsəʊnəɪ] *n pl* *lot.* ishtirok etuvchilarning ro'yxati
- dramatist** [ˈdræmətɪst] *n* drama yozuvchi adib, dramaturg
- dramatization** [ˈdræmət(a)ɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* dramalashtirish
- dramatize** [ˈdræmətaɪz] *v 1)* sahnalashtirmoq; 2) vahima qilmoq, oshirib yubormoq
- dramaturge** [ˈdræmətɜːdʒ] = **dramatist**
- dramaturgic** [ˈdræməˈtɜːdʒɪk] *a* dramaturgga va dramaturgiyaga oid; dramaturgik, dramaturgiya...
- dramaturgist** [ˈdræmətɜːdʒɪst] = **dramatist**
- dramaturgy** [ˈdræmətˌdʒɪ] *n* dramaturgiya (*dramatik asarlar yozish nazariyasi va san'ati*)

dram-drinker [ˈdræm,drɪŋkə] *n* araqxoʻr, ichkilikboz

drank [dræŋk] *past of drink 2*

drape [dreɪp] 1. *v* parda tutmoq; parda va gilamlar tutib yasatmoq; 2. *n* 1) gazmol; mato; 2) eshik parda

drapery [dreɪp(ə)rɪ] 1. *n* gazlama, gazmol, toʻqima; 2. *v* 1) pardalamoq, parda tutmoq, guldor mato (yoki gilam va sh. k.) qoqib bezatmoq; 2) (gazlama, gazmol, mato, toʻqima va b. bilan) bezamoq, bezatmoq

drastic [ˈdræstɪk] *a* qattiq (kuchli) taʼsir qiladigan (*dori haqida*)

drastically [ˈdræstɪk(ə)li] *adv* dadil, jasur, qatʼiy, tortinmay, keskin

dratted [ˈdrætd] *a* laʼnati, laʼnatlangan, laʼnat oʻqilgan

draught I [dra:ft] *n* 1) tortish; **beasts of ~** ot-ulov; ish hayvonlari; 2) qultum; **a ~ of water** bir qultum suv; 3) yelvizak, yutish, yutinish

draught II [dra:ft] *n pl* shashka; **to play ~s** shashka oʻynamoq

draught-board [ˈdra:ftbɔ:d] *n* 1) shashka taxtasi; 2) chizma chizish taxtasi

draughtsman [ˈdra:ftsmən] *n (pl -men [-mən]) = draftsman*

draughty [dra:fti] *a* yelvizakda joylashgan

draw I [drɔ:] 1. *n* 1) tortish, tortib chiqarish; sugʻurib chiqarish; 2. *v (drew, drawn)* 1) tortmoq, sudramoq; **to ~ a train** po-yezdni tortmoq; **to ~ a net** toʻmi tortmoq; 2) tortib (surib) qoʻymoq, yaqinlashtirmoq; **to ~ a book towards oneself** kitobni oʻzi tomon tortib (surib) qoʻymoq; 3) tortmoq; **to ~ a rope** arqonni tortmoq; 4) oʻziga tortmoq, jalb qilmoq; **to ~ smb.'s attention** birovning eʼtiborini jalb qilmoq; 5) tortib olmoq, sugʻurib olmoq; **to ~ a nail** mixni sugʻurib olmoq; **to ~ a tooth** tishni sugʻurmoq

draw II [drɔ:] *v (drew, drawn)* rasm solmoq, rasm chizmoq; **to ~ cartoons** hajviy rasm chizmoq

drawback [ˈdrɔ:bæk] *n* 1) kamchilik, nuqson; 2) toʻsiq, gʻov

drawbridge [ˈdrɔ:brɪdʒ] *n* koʻtarma (*ikki to-monga ajraladigan*) koʻprik

drawer I [ˈdrɔ:ə] *n* 1) bufatchi, ofitsiant; 2) chizmach, chizmakash; 3) hujjat tuzuvchi

drawer II [ˈdrɔ:ə] *n* 1) surilma quti; 2) tortma (*stol, javon va b. da*)

drawers [drɔ:z] *n* ishton (*erkaklar ishtoni*)

drawing I [ˈdrɔ:ɪŋ] *n* 1) chizmachilik; 2) chizma, rasm, tasvir; **a ~ of a tree** daraxtning tasviri

drawing II [ˈdrɔ:ɪŋ] *a* 1) tortadigan, sudraydigan; 2) ulovga yaroqli, ulovbop (*hayvon haqida*)

drawing-bench [ˈdrɔ:ɪŋbentʃ] *n tex.* metall choʻzadigan (kiryalaydigan) dastgoh

drawing-block [ˈdrɔ:ɪŋblɒk] *n* rasm daftar

drawing board [ˈdrɔ:ɪŋbɔ:d] *n* chizmachilik taxtasi

drawing card [ˈdrɔ:ɪŋkɑ:d] *n* juda mashhur aktyor yoki spektakl; dasturning eng muhim (qiziq) joyi

drawing-knife [ˈdrɔ:ɪŋnaɪf] *n qur.* randa, oʻroqanda

drawing-machine [ˈdrɔ:ɪŋməʃi:n] *n tex.* 1) yuk koʻtaradigan mashina; 2) chizadigan moslama

drawing-paper [ˈdrɔ:ɪŋpeɪpə] *n* rasm chizish yoki chizmachilik qogʻozi

drawing-pen [ˈdrɔ:ɪŋpen] *n* reysfeder (*tush bilan chiziq chizadigan asbob*)

drawing-pin [ˈdrɔ:ɪŋpɪn] *n* chizmachilik yoki konselariya knopkasi

drawing-room [ˈdrɔ:ɪŋru(:)m] *n* 1) mehmonxona; 2) mehmonlar; 3) rasmiy qabul (*ayniqsa, saroyda*); 4) chizma chizishga moʻljallangan zal

drawl [drɔ:l] 1. *n* choʻziq talaffuz; 2. *v* soʻzni choʻzib talaffuz qilmoq

drawn I [drɔ:n] *p. p. of draw I, 2*

drawn II [drɔ:n] *p. p. of draw II*

drawn III [drɔ:n] *a* 1) burishgan, buzilgan, oʻzgarib ketgan; **a ~ face** oʻzgarib ketgan yuz; 2) erigan; **~ butter** erigan moy

draw-well [ˈdrɔ:wel] *n* quduq (*arqondagi chelagi bilan*)

dray I [drei] *n* arava, ot arava

dray II [drei] *n sheva.* olmaxon uyasi

dray-horse [ˈdreɪhɔ:s] *n* aravaga qoʻshiladigan ot, aravakash ot

drayman [ˈdreɪmən] *n (pl -men [-mən])* kirakash arava haydovchisi

dread [dred] 1. *n* qoʻrqinch; vahima; 2. *a* *kit.* qoʻrqinchli, vahimali, dahshatli, bahaybat, mudhish

dreadful [ˈdredf(ə)l] *a* 1) dahshatli, dahshatga soladigan, qoʻrqinchli; vahimali; **a ~ monster** dahshatli mavjudot; 2) yaramas, juda yomon; **~ weather** juda yomon ob-havo

dreadnought [ˈdrednɔ:t] *n* 1) deng. zirhli katta harbiy kema; 2) qalin movutdan tikilgan palto

dream [dri:m] 1. *n* 1) tush, tush koʻrish, uyqu; **to awoke from a ~** uyqudan uygʻonmoq; 2) orzu; **the land of ~s** orzular mamlakati; 3) rohat-farogʻat, goʻzallik; **~ of delight** jannat lazzati; 2. *v (dreamed,*

- dreamt** 1) tush ko'rmoq; **you must have -t** tushingda ko'rgan bo'lsang kerak; 2) orzu qilmoq, xayol surmoq; **to ~ of happiness** baxtli bo'lishni orzu qilmoq
- dreamer** ['dri:mə] *n* xayolparast, hayotdan uzilib qolgan kishi, orzu-xayollarga beriluvchan odam
- dream-hole** ['dri:mhəl] *n* minorada yoritishni yaxshilashga xizmat qiladigan tuynuk
- dreamily** ['dri:mili] *adv* 1) xayol surgan (*xayolga botgan, orzu-xayollarga cho'mgan*) holda; 2) tushdagidek
- dream-land** ['dri:mlænd] *n* afsonaviy mamlakat
- dreamlike** ['dri:mlək] *a* afsonaviy, xayoliy
- dreamt** [dremt] *p. p. of dream* 2
- dream-world** ['dri:mwɜ:lɪd] = **dream-land**
- dreamy** ['dri:mi] *a* xayolparast, o'ychan, xayolchan, orzu-xayollarga beriluvchan
- drear** [driə] = **dreary**
- dreary** ['driəri] *a* qayg'uli, g'amgin, ma'yus, xafa, noxush
- dredge I** [dredʒ] 1. *n* 1) *tex.* zemlecher-palka (*suv havzalarini chuqurlashtirib, loy-balchiqlarni chiqarib, tashlaydigan mashina*); 2) *tex.* draga (*1. suv ostidan oltin, kumush kabi metallarga boy jinslarni oladigan, shuningdek, suv ostini kovlaydigan mashina*; 2. *tekshirish uchun suv osti o'simlik va jonivorlarini olib chiqadigan asbob*); **a hydraulic** ~ tuproqni loyqalatib, kuchli nasos yordamida chiqarib tashlaydigan mashina; 3) dengiz molluskalarini tutadigan to'r; 2. *v* 1) draga yordamida suv ostidan foydali qazilma olmoq yoki suv ostini chuqurlatmoq; draga yordamida suv osti o'simlik va jonivorlarini olib chiqmoq; 2) to'r bilan dengiz molluskalarini tutmoq
- dredge II** [dredʒ] *n* *maxs.* 1) ekish uchun suli va arpa aralashmasi; 2) suspenziya (*qattiq jism zarralari muallaq yurgan suyuqlik yoki gaz*)
- dredger** ['dredʒə] *n* 1) zemlecherpalka (*suv havzalarini chuqurlashtirib, loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina*); 2) qopqog'i teshikli idish (*murchdon singari, shakar yoki un sepish uchun kichkina teshigi bo'lgan idish*)
- dree** [dri:] *v* so'zl. qiynalmoq, azoblanmoq, chidamoq, dosh bermoq
- dreg** [dreg] *n* *pl* chiqitlar, qoldiqlar, sarqitlar. ~s of a society jamiyat sarqitlari
- dreggy** ['dregi] *a* loyqa, loyqalangan; axlatli
- dregs** [dregz] *n* qoldiq, yuvundi
- drench** [drentʃ] 1. *n* 1) bo'kish, ho'l bo'lish; 2) jala, sharros yomg'ir; 2. *v* 1) jala yog'moq, sharros yomg'ir yog'moq; 2) suv o't-
- kazmoq, nam tortmoq; namlamoq, ho'llamoq
- drencher** ['drentʃə] *n* 1) jala, sharros yomg'ir; 2) yomg'ir yog'dirish moslamasi; 3) (*hayvonlar og'ziga*) dori quyishga mo'ljallangan moslama
- dress** [dres] 1. *n* 1) ko'ylak, kiyim; **a morning** ~ uyda kiyiladigan ko'ylak, xalat-ko'ylak; **a fancy** ~ maskarad kiyimi; 2) libos, qatlam, qatlama; **spring** ~ bahorgi libos (*daraxtlarda*); 2. *v* 1) kiyintirmoq, yasantirmoq; **to ~ a child** bolani kiyintirmoq; 2) bezamoq, yasatmoq; **to ~ a shop-window** vitrinani bezamoq
- dressage** ['dresɑ:ʒ] *n* *fr.* otni minishga o'rgatish, minib sovutish
- dress-circle** ['dres,sɜ:kɪl] *n* *teatr.* ikkinchi qavat, boloxona
- dress coat** ['dres,kəʊt] *n* 1) frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*); 2) *harb.* paradda (bayramda) kiyiladigan libos
- dresser I** ['dresə] *n* 1) bezatuvchi; 2) *teatr.* kiyim-kechak mutasaddisi; 3) *tib.* yordamchi (*operatsiya, yarani bog'lash vaqtida*); jarrohlik hamshirasi
- dresser II** ['dresə] *n* 1) (*idish-tovoqlar uchun*) oshxona shkafi; 2) tokchali oshxona stoli; oshxona javoni (*idish-tovoq uchun*); 3) pardoz stoli yoki ko'zguli javon
- dress-guard** ['dresgɑ:d] *n* (*ayollar velosipedidagi*) saqlash to'ri
- dressing** ['dresɪŋ] *n* 1) kiyim kiyish; 2) kiyim; 3) yara bog'laydigan material; 4) ziravor, qayla, garnir
- dressing-bag** ['dresɪŋbæg] = **dressing-case**
- dressing-bell** ['dresɪŋbel] *n* tushlik uchun kiyinish vaqti bo'lganligini anglatuvchi qo'ng'iroq
- dressing-case** ['dresɪŋkeɪs] *n* bog'lash materiallarini soladigan quti
- dressing-down** ['dresɪŋdaʊn] *n* qattiq gap, koyish, tanbeh, jazolash
- dressing-gown** ['dresɪŋgaʊn] *n* 1) xalat; 2) ayollarning uyqudan turganda kiyib oladigan yengil yotak bichim ko'ylagi
- dressing-room** ['dresɪŋru(:)m] *n* garderobxona, kiyinish xonasi
- dressing-station** ['dresɪŋstetʃ(ə)n] *n* *harb.* maxsus bog'lash joyi; birinchi yordam ko'rsatish joyi
- dressing-table** ['dresɪŋteɪbl] *n* 1) pardoz stoli; 2) bog'lash stoli
- dressmaker** ['dres,meɪkə] *n* tikuvchi ayol, chevar
- dressmaking** ['dres,meɪkɪŋ] *n* ayollar ko'ylagini tikish

dress rehearsal [ˈdresrɪ,hə:s(ə)] *n* oxirgi (so'nggi) tayyorgarlik, repetitsiya

dress-shield [ˈdresʃi:ld] *n* qo'ltiqlik, qo'ltiqqa tikiladigan narsa

dressy [ˈdresɪ] *a* 1) yaxshi kiyinishni yoqtiradigan; 2) zamonaviy (*kiyim to'g'risida*)

drew I [dru:] *past of draw I, 2*

drew II [dru:] *past of draw II*

drey [drei] *n* olmaxon uyasi

dribble [ˈdrɪbl] *I. n* kichkina soy, jilg'a, ariq; 2) tomchi, qatra; 3) tomchilab yog'ayotgan yomg'ir; *2. v* 1) tommoq, tomchilamoq;

2) so'lagini oqizmoq

dribblet [ˈdrɪblɪt] *n* 1) oz miqdordagi put; 2) qittak, ozgina; *by (in) ~ s* oz-ozdan tomchilab

dried [draɪd] *a* quritilgan qoqi; ~ *melon(s)* qovun qoqi; ~ *milk* sut kukuni

drier [draɪə] *n* 1) quritadigan modda; 2) quritgich, quritish moslamasi

drift [drɪft] *I. n* 1) oqim, *to be on the ~* oqim bo'ylab suzish; 2) yo'nalish; *2. v* 1) (*shamol, suv bilan*) olib ketmoq, oqizib ketmoq; 2) oqim bo'ylab suzmoq

driftage [ˈdrɪftɪdʒ] *n* 1) kema, muzlik va sh. k. ning shamol va oqim bilan siljib yurishi; 2) oqizib ketish (*kema to'g'risida*); 3) dengiz qirg'og'iga chiqarib tashlangan narsalar

drift apart [ˈdrɪftə ˈpɑ:t] *v* tarqalib ketmoq

drifter [ˈdrɪftə] *n* 1) drifter (*baliqchilik kemasi*); 2) drifterda suzuvchi baliqchi; 3) *amer. so'zl.* hech narsaga arzimaydigan odam; bemaqsad, sandiroqlab yuruvchi odam; 4) *amer.* daydi

drift-ice [ˈdrɪftaɪs] *n* suzib yuruvchi muz

drift-wood [ˈdrɪftwɒd] *n* oqiziladigan yog'och

drill I [drɪl] *I. n* tex. parma, burg'i, driil; *2. v* parmalamoq, teshik ochmoq, burg'ilamoq

drill II [drɪl] *I. n* mashq, mashg'ulot; *to do one's ~* mashqlarni bajarmoq; *2. v* mashq qildirmoq

drill III [drɪl] *I. n* q.x.1) qatorlab ekadigan seyalka; 2) qatorlab ekish; 3) egat, ariq, joyak; *2. v* ekmoq; qatorlab ekmoq

drill IV [drɪl] *n* tik (*gazlama*)

driller [ˈdrɪlə] *n* 1) parmalovchi, burg'ilovchi (*ishchi*); 2) parmalash dastgohi

drill ground [ˈdrɪlgraʊnd] *n* *harb.* mashq maydoni, harbiy mashq o'tkaziladigan maydon

drillhole [ˈdrɪlhəʊl] *n* burg'ilangan quduq

drilling I [ˈdrɪlɪŋ] *n* parmalash, burg'ilash

drilling II [ˈdrɪlɪŋ] *n* mashq qildirish, o'rgatish

drilling III [ˈdrɪlɪŋ] *n* q.x. qatorlab (qator) ekish

drink [drɪŋk] *I. n* 1) ichish, ichimlik; **food and ~** oziq-ovqat va ichimlik; 2) ichimlik; **soft ~s** spirtsiz ichimliklar; 3) qultum, yutum; **a ~ of water** bir qultum suv; *2. v*

(**drank, drunk**) 1) ichmoq; **to ~ a glass**

dry qatra qoldirmay ichmoq; 2) ichmoq, ichkilikbozlik qilmoq; **to ~ hard** surunkali

ichmoq; 3) ho'plamoq, totmoq, tatib ko'rmoq; **to ~ the cup of suffering** g'am-kulfat kosasini shimirmoq

drinkable [ˈdrɪŋkəbl] *a* ichishga yaroqli; ichsa bo'ladigan

drinker [ˈdrɪŋkə] *n* ichuvchi, ichkilikboz

drinking-bout [ˈdrɪŋkɪŋbəʊt] *n* surunkasiga ichish, bir ichsa ichaverish, mayparastlik, to'xtovsiz ichish

drinking-fountain [ˈdrɪŋkɪŋfaʊntɪn] *n* (*suvini*) ichib bo'ladigan favvoracha

drinking-horn [ˈdrɪŋkɪŋhɔ:n] *n* shoxqadah (*hayvon shoxidan qilingan qadah*)

drinking-song [ˈdrɪŋkɪŋsɒŋ] *n* ziyofatlarda jo'rlikda aytiladigan qo'shiq

drinking-water [ˈdrɪŋkɪŋwɔ:tə] *n* ichiladigan suv, ichimlik suvi

drip [drɪp] *I. n* tomish, tomchilash; tomchi; *2. v* tommoq, tomchilamoq, oqib turmoq;

the tap is ~ ping jo'mrakdan suv tomchilayapti

drip-dry [ˈdrɪpdraɪ] *n* tez quriydigan mato

dripping [ˈdrɪpɪŋ] *I. n* tomish, tomchilab tushish; *2.* ho'l bo'lgan, ivib ketgan; **a ~ coat** butunlay ivib ketgan palto

dripping-pan [ˈdrɪpɪŋpæn] *n* tunuka tova; tova

drive [draɪv] *I. n* 1) yurish; sayr, safar (*otda, transportda*); **a full ~** to'la tezlikda; **within two hour's ~ of Oxford** Oksforddan ikki soatlik masofada; **to go for a ~** aylanib kelgani ketmoq; 2) yo'lka, xiyobon; so'qmoq; 3) (*dushmani, hayvonni*) haydash, quvish, ta'qib qilish; 4) *harb.* hujum, zarba;

5) poyga, shoshilish; **armament(s) ~** qurollanish poygasi; *2. v* (**drove, driven**)

1) haydamoq, boshqarmoq; **to ~ a car** mashina haydamoq; **to ~ in a car** mashinada ketmoq (yurmoq); 2) haydamoq, quvmoq

to ~ cattle mollarni haydamoq; **to ~ the clouds** bulutlarni haydamoq; 3) yelmoq yeldek uchmoq; juda tez bormoq; **the ship**

drove across the waves kema to'lqinlarni kesib, yeldek uchib borardi; 4) haydab (urib kirgizmoq; sanchmoq; **to ~ a wedge** a) pon

qoqmoq; b) *harb.* suqulib kirmoq; 5) tez lashtirmoq, qistovga olmoq; **to ~ a committee** komissiyani shoshiltirmoq (qistovga olmoq); 6) (*dushmani*) ta'qib qilmoq

haydamoq; haydab chiqarmoq, chekintr

- moq; **to ~ the invader across the border** bosqinchilarni mamlakat hududidan haydab chiqarmoq; 7) (*ish va b. ni*) yuritmoq, olib bormoq; **to ~ a trade** savdoni boshqarmoq
- drive-in** [ˈdraɪvɪn] *n* (mijozlarga bevosita avtomobilda xizmat ko'rsatiladigan) do'kon, restoran, bank yoki ustaxona
- drivel** [ˈdrɪvl] 1. *n* bekorchi gap, safsata, bema'ni gap; 2. *v* safsata sotmoq, bema'ni (behuda) gaplarni gapirmoq, valdiramoq
- driveller** [ˈdrɪvlə] *n* tentak vaysaqi, tentak, esi past, ovsar odam
- driven I** [ˈdrɪvɪn] = **drive 2**
- driven II** [ˈdrɪvɪn] *a tex.* harakatga kiritadigan, uzatmali, uzatmasi bo'lgan, yetaklanuvchi; **a ~ wheel** yetaklanuvchi g'ildirak
- driver** [ˈdraɪvə] *n* 1) haydovchi; 2) izvoschi, kucher; 3) (*mol, podani*) haydovchi; 4) operator; **a crane ~** kranchi; 5) *tex.* dvigatel
- driveway** [ˈdraɪvweɪ] *n* yo'l; o'tiladigan (transport o'tadigan) yo'l
- driving** [ˈdraɪvɪŋ] 1. *n* 1) (*otda, aravada, mashinada*) yurish, sayr qilish; 2) (*avtomobilni*) haydash; 3) *tex.* uzatmaga oid, uzatma; 2. *a* 1) haydayotgan; 2) harakatlantiruvchi; harakatga keltiruvchi; **a ~ age** shiddatli (jo'shqin) zamon; 3) kuchli, juda kuchli, quturgan; **a ~ storm** dovul; **a ~ rain** kuchli yomg'ir; 4) *tex.* yetaklovchi, harakatga keltiruvchi; **a ~ machine** dvigatel
- driving-axle** [ˈdraɪvɪŋ,æksl] *n* yetaklovchi o'q
- driving-belt** [ˈdraɪvɪŋbɛlt] *n* uzatma tasmasi (qayishi)
- driving-force** [ˈdraɪvɪŋfɔ:s] *n* harakatlantiruvchi kuch
- drizzle** [ˈdrɪzl] 1. *n* maydalab yog'gan yomg'ir; shivillab yog'gan mayda yomg'ir; 2. *v* maydalab yog'moq, tomchilab yog'moq
- droit** [ˈdrɔɪt] *n* yuridik huquq; alohida huquq
- droll** [ˈdrɔʊl] 1. *n* qiziqchi, hazilkash, masxaraboz; 2. *a* qiziq, ajib, g'alati, kulgili, alomat; 3. *v* hazillashmoq, hazil qilmoq, masxarabozlik qilmoq
- drollery** [ˈdrɔʊləri] *n* hazil-mutoyiba, hazil
- drome** [ˈdrɔʊm] **aerodrome** ning qisqartirmasi
- dromedary** [ˈdrɒməd(ə)rɪ] *n* zool. nortuya, bir o'rkachli tuya
- drone** [ˈdrɔʊn] 1. *n* 1) erkak asalari; 2) tekinxo'r, haromtom; 3) *av.* uchuvchisiz hujum vositasi; boshqariladigan snaryad; uchuvchisiz samolyot; 2. *v* 1) bekor yurmoq, birovning hisobiga yashamoq; 2) sarflamoq, bemaqsad sarflamoq; 3) g'uvullamoq
- droningly** [ˈdrɔʊnɪŋli] *adv* bir xilda, bir zaylda
- drool** [ˈdru:l] = **drivel**
- droop** [ˈdru:p] 1. *n* 1) qiyalik; pasayish; 2) bukurlik, bukchayganlik; **to walk with a ~** bukchayib yurmoq; 2. *v* 1) egilmoq, engashmoq, osilib turmoq; **the branches ~ ed over the water** novdalar suv ustida osilib turardi; 2) tushmoq, sirpanib tushmoq
- drop** [ˈdrɒp] 1. *n* 1) tomchi; **a ~ of rain** yomg'ir tomchisi; 2) bir tomchi; qultum, ozgina; **a ~ of tea** bir qultum choy; 3) *pl* *tib.* tomchilar; 4) obaki; **chocolate ~s** shokoladga belangan obaki; 5) tushish, pasayish; **a great ~ in prices (temperature)** narxlarning (haroratning) keskin tushishi; 2. *v* 1) tomchilamoq, tomib tushmoq; 2) tushmoq, tushib ketmoq, tushirib yubormoq; **to ~ a book** kitobni tushirib yubormoq; 3) tashlamoq, tushirmoq; **to ~ anchor** langar tashlamoq; 4) yiqilmoq, tashlamoq, tushmoq; **to ~ into a chair** stulga o'tirmoq; 5) o'lmoq, vafot etmoq (~ *off*); **men ~ ped like flies** odamlar pashshadek qirildi; 6) toshmoq, pasaymoq, kamaymoq, tinchimoq; **the production of oil ~ ped** neft qazib olish pasaydi; 7) tushmoq, tushirmoq; **her eyes ~ ped** u ko'zlarini tushirdi; **to ~ across** tanbeh bermoq; jazolamoq; **to ~ away** tomchilab oqib ketmoq; bitta-bittadan bo'lib ketmoq; **to ~ back** sport, harb. chekinmoq, orqaga qaytmoq; **to ~ behind** orqada qolmoq; **to ~ in** kirmoq, ko'rgani kirmoq; **to ~ off** bittadan bo'lib ketmoq, chiqmoq; birin-ketin chiqib ketmoq; tarqalishmoq
- drop-curtain** [ˈdrɒp,kɜ:tɪn] *n* teatr. tushib-ko'tariladigan parda
- drop-hammer** [ˈdrɒp,hæmə] *n* kopyor (*J.* qurilishlarda goziq qoqadigan qurilma; 2. laboratoriyalarda materiallarning zarbga chidamliligini aniqlaydigan maslana)
- drop-leaf** [ˈdrɒp,lɪ:f] *n* qaytarma taxta (*stolda*)
- droplet** [ˈdrɒplɪt] *n* mayda tomchi
- drop-letter** [ˈdrɒp,letə] *n* amer. mahalliy xat, maktub
- drop-out** [ˈdrɒp'au:t] *n* so'zl. chiqarib yuborilgan (haydalgan) odam
- dropping I** [ˈdrɒpɪŋ] *n* 1) tushirish, pasaytirish; 2) tushish; 3) tashlab yuborish, tashlash; 4) tomish, tomchilash
- dropping II** [ˈdrɒpɪŋ] *a* 1) tartibsiz, ayqash-uyqash, pala-partish; 2) tashlab yuboradigan, tushirib qoldiradigan
- dropping-gear** [ˈdrɒpɪŋɡɪə] *n* av. bomba tashlagich

dropsical [ˈdrɒpsɪk(ə)] *a tib.* istisqoli; shishgan, shishib ketgan; solqigan
dropsy [ˈdrɒpsɪ] *n tib.* istisqo (*kasallik*)
dross [drɒs] *n tex.* metall zaki, to'pon; toshqol, shlak (1. *metall eritilganda qolgan qotishma*; 2. *qattiq yonilg'ularning kulga aylanmagan qoldig'i*)
drought [draʊt] *n* qurg'oqchilik, quruqchilik, yomg'irsizlik
drove I [druv] *past of drive 2*
drove II [druv] 1. *n* poda, gala; a ~ of horses otlar uyuri; 2. *v 1*) qoramollarni bozorga haydamoq; 2) qoramol sotish bilan shug'ullanmoq
drover [ˈdrɒvə] *n 1*) podachi, mol haydovchi; 2) mollarni semirtirib sotuvchi
drown [draʊn] *v 1*) cho'kmoq, cho'ktirmoq; to be ~ed cho'kib ketmoq; 2) botirmoq, suv bosmoq; to ~ the land joyni suv bosmoq
drowned [draʊnd] *a 1*) cho'kkan, cho'kib ketgan; 2) botgan, suvga botgan
drowse [draʊz] 1. *v* mudramoq, pinakka ketmoq, ko'zi ilinmoq; 2. *n* mudroq, pinak, mudrash
drowsily [ˈdraʊzɪli] *adv* uyquli (uyqusiragan, uyqu bosgan) holda
drowsy [ˈdraʊzi] *a 1*) uyquga oid, uyqudagi; 2) uyqusiragan, uyqu bosgan
drub [drʌb] 1. *n* tayog yoki so'yil bilan urish; 2. *v* urmoq, taqillatmoq, qoqmoq
drubbing [ˈdrʌbɪŋ] *n* urish, kaltaklash
drudge [ˈdrʌdʒ] 1. *n* og'ir ishni bajaradigan kishi, „eshak“; 2. *v* og'ir, zerikarli ishni bajarmoq, eshakday ishlamoq
drudgery [ˈdrʌdʒəri] *n* og'ir, zerikarli ish
drudgingly [ˈdrʌdʒɪŋli] *adv* qunt qilib, harakat qilib
drug [drʌg] *n 1*) dori-darmon, dori, dorivor; 2) narkotik, g'iyohvand modda; ~ plant dorivor o'simlik
druggist [ˈdrʌgɪst] *n* dorixona egasi, dorixona xodimi; dorishunos
drugstore [ˈdrʌgstɔː] *n amer.* dorixona
drum [drʌm] 1. *n 1*) do'mbira; nog'ora; 2) anat. quloq pardasi; 2. *v 1*) do'mbira (nog'ora) chalmoq; 2) g'o'ng'illamoq (*haharotlar to'g'risida*)
drumbeat [ˈdrʌmbi:t] *n 1*) do'mbira chalish; 2) so'zl. hammani o'ziga qaratadigan, shovqinli reklama
drumfire [ˈdrʌm,faɪə] *n harb.* dovuldek o'q yog'dirish, o'q yomg'iri; yomg'irdek yog'gan o'q
drumhead [ˈdrʌmhɛd] *n 1*) do'mbira terisi; 2) anat. quloq pardasi
drum-major [ˈdrʌm ˈmeɪdʒə] *n* polkning katta barabanchisi

drummer [ˈdrʌmə] *n 1*) nog'orachi, do'mbira-rachi
drumstick [ˈdrʌmstɪk] *n 1*) baraban cho'pi; 2) qaynatilgan yoki qovurilgan parranda oyog'i
drunk I [drʌŋk] *p. p. of drink 2*
drunk II [drʌŋk] *predic. a* mast; blind ~ o'l-guday mast, g'irt mast; 2) zavqi oshgan, mast bo'lgan; ~ with success muvaffaqiyatdan mast bo'lgan; 3) beqaror
drunkard [ˈdrʌŋkəd] *n* ichkilikboz, araqxo'r
drunken [ˈdrʌŋk(ə)n] *a* mast, shirakayf
drupaceous [ˈdruːˈpeɪʃəs] *a bot.* danakli (*meva to'g'risida*)
drupe [dru:p] *n bot.* danakli meva
drupel, drupelet [ˈdru:pəl, -ɪt] *n bot.* danak
dry [draɪ] 1. *n 1*) quruq; qurg'oqchilik; quruq ob-havo; 2) quruqlik; 3) (*pl* drays [draɪz]) amer. so'zl. spirtli ichimliklarni taqiqlash tarafdori; 2. *a 1*) quruq; ~ clothing quruq kiyim; with ~ eyes ko'z yoshisiz; 2) namsiz; suvi qochirilgan; ~ weight quritilgan material og'irligi; ~ concrete qattiq beton; 3) surilmagan, yog'siz, murabbosiz; ~ bread yog' surilmagan non; 4) quruq, namgarchilik kam bo'lgan; a ~ year namgarchilik kam bo'lgan yil; a ~ summer quruq yoz; 5) qurigan, qurib qolgan; 6) quruq, muloyim, sovuq; a ~ answer quruq (vazmin) javob; ~ facts quruq dalillar; 7) quruqlikda: quruqlikda bo'lgan; 8) qattiq, to'kiladigan (*siyoq emas*); 3. *v 1*) quritmoq; namini qochirmoq; to ~ herbs o'tlarni quritmoq; 2) (*quruq qilib*) artmoq; to ~ one's hands (*on a towel*) qo'llarni artmoq (*sochiq bilan*); 3) sog'ishni to'xtatmoq; sut bermay qo'yimoq (*sigir to'g'risida*)
dry-bob [ˈdraɪbɒb] *n 1*) sport bilan shug'ullanuvchi (*suv sporti bilan emas*); 2) sportni yaxshi ko'radigan kishi (*suv sportini emas*)
dry-cargo ship [ˈdraɪ,kɑːgəʊˈʃɪp] *n deng.* quruq yuk tashiydigan kema
dry-clean [ˈdraɪˈkliːn] *v* kimyoviy yo'l bilan tozalamoq
dry-cleaner's [ˈdraɪˈkliːnəz] *n* kimyoviy yo'l bilan tozalaydigan joy
dry-cleaning [ˈdraɪˈkliːnɪŋ] *n* kimyoviy tozalash (*jarayon*)
dryer [draɪə] *n 1*) qurituvchi; 2) quritadigan apparat
dry-fly [ˈdraɪflaɪ] *n* kichkina soxta pashsha (*balıq tutishda ishlatiladi*)
dry goods [ˈdraɪgʊdz] *n* gazmol, mato; attorlik mollari
dryish [ˈdraɪʃ] *a* quruq, namsiz, qaqragan, qurg'oq

- dry-nurse** [draɪnɜːs] 1. *n* enaga, bolaga qaraydigan ayol; 2. *v* yosh bolaga qaramoq, enagalik qilmoq
- dry-point** [ˈdraɪpɔɪnt] *n* kislotasiz o'yib rasm solish uchun igna
- dry-rot** [ˈdraɪrɒt] *n* 1) ma'naviy tushkunlik, zavol; 2) ma'naviy (axloqiy) buzuqlik
- dry-salter** [ˈdraɪsɔːltə] *n* 1) bo'yoqchilik mollari sotuvchisi; 2) quritilgan mahsulotlar va konservalar sotuvchi kishi
- drysaltery** [ˈdraɪsɔːltəri] *n* 1) bo'yoqchilik mollari do'koni; 2) bo'yoqchilik mollari savdosi
- dry-shod** [ˈdraɪʃɒd] *a* suvga tegizmasdan; **to pass over** ~ oyoqlarni ho'l qilmay o'tmoq
- dry wall** [ˈdraɪwɔːl] *n* loysiz g'isht terib qurilgan devor
- dual** [dju(:)əl] 1. *a* 1) ikkilangan; ~ **nationality (citizenship)** ikki (qo'sh) fuqarolik; 2) ikki xil; ikki tarafdin; ~ **personality** *fib.* o'zini boshqa odam deb fahmlash (*ruhiy kasallik turi*); ~ **ownership** qo'sh egalik, birgalikda egalik qilish; 2. *n* gram. ikkilik son
- dualism** [ˈdju(:)əlɪz(ə)m] *n* 1) fals. dualizm (*dunyoning negizi materiya bilan ruh deb biluvchi idealistik falsafiy ta'limot*); 2) ikki tarafdinlik
- duality** [dju(:)ælɪti] *n* ikki tarafdinlik, ikkilanganlik, ikkilanish
- dualize** [ˈdju(:)əlaɪz] *v* ikkiga ajratmoq (bo'lmoq)
- dub** [dʌb] 1. *v* 1) kesmoq, kesib tashlamoq; 2) filmga ovoz bermoq, dublaj qilmoq; 2. *n* amer. beso'naqay odam, noshud (qo'pol) odam
- dubbin** [ˈdʌbɪn] = **dubbing I**
- dubbing I** [ˈdʌbɪn] *n* teriga suriladigan yog'
- dubbing II** [ˈdʌbɪn] *n* kino. dublaj; dublaj qilish (*bir tilda olingan filmni boshqa tilga tarjima qilish*)
- dubiety** [dju(:)bɪəti] *n* shubha, gumon, ikkilanish
- dubious** [dju(:)bɪəs] *a* shubhali, shubha tug'diradigan; **a ~ character** shubhali shaxs
- ducal** [dju(:)k(ə)l] *n* gersoglarga (oid) qarashli; gersoglik
- ducat** [ˈdʌkət] *n* tar. dukat (*ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida: qadimgi kumush yoki oltin pul, tanga*)
- duchess** [ˈdʌtʃɪs] *n* gersoginya (*gersog xotini yoki qizi*)
- duchy** [ˈdʌtʃɪ] *n* gersoglik; ~ **rights** gersoglik huquqi
- duck** [dʌk] 1. *n* 1) zool. o'rdak; 2) suvga sho'ng'ish, kalla tashlash; suvga botirish;
- 3) dag'al mato, guzlama; 2. *v* suvga sho'ng'imoq, kalla tashlamoq
- duckbill** [ˈdʌk,bɪl] *n* zool. o'rdakburun (*Avstraliyada: tuxumidan bola ochadigan bir xil sutemizuvchi hayvon*)
- duck-boards** [ˈdʌkbɔːdz] *n* pl taxta to'shama, yog'och kat
- ducket** [ˈdʌkɪt] *n* 1) lotereya chiptasi; 2) amer. kasaba uyushmasining bileti
- duck-hawk** [ˈdʌkhɔːk] *n* zool. bo'ktargi (*yirtqich qush*)
- ducking** [ˈdʌkɪŋ] *n* sho'ng'ish
- duckling** [ˈdʌkɪŋ] *n* o'rdak bolasi
- duck-out** [ˈdʌkˈaʊt] *n* harb. qochoqlik, qochish
- duck's-egg** [ˈdʌkseg] *n* 1) o'rdak tuxumi; 2) nol hisobi (*kriket o'yinida*)
- duck's meat** [ˈdʌksmi:t] = **duckweed**
- duckweed** [ˈdʌkwɪ:d] *n* bot. baqato'n
- ducky** [ˈdʌki] *n* jonginam, azizam
- duct** [dʌkt] *n* 1) anot. yo'l, tomir; 2) daryo shaxobchasi, irmoq
- ductile** [ˈdʌktaɪl] *a* 1) egiluvchan, qayishuvchan, cho'ziladigan; 2) bo'ysunadigan, itoatgo'y odam
- ductility** [ˈdʌkˈtɪlɪti] *n* 1) egiluvchanlik; 2) itoatkorlik
- dued** [dʌd] *a* foydasiz, yaroqsiz narsa, keraksiz
- dude** [dju(:)d] *n* olifta, satang; quruq savlatli kishi
- dudgeon** [ˈdʌdʒ(ə)n] *n* 1) tar. xanjarning yog'ochli (*sopi*) dastasi; 2) xafalik, dilsiyohlik, ranj
- due** [dju(:)] 1. *n* pl yig'imlar, soliqlar, bojlar; badallar; **custom** ~s bojxona boji; 2. *a* 1) kerak bo'lgan, tegishli; **a ~ process of law** qonuniy tartib; **in ~ course** navbati bilan; tegishli vaqtda; 2) *predic.* talab etilgan, majbur; **he is ~ at his office on Monday** u idorasiga dushanba kuni kelishi kerak; 3) to'lanishi lozim bo'lgan; **a ~ date** qarzni to'lash muddati; 4) mos, tegishli; **a ~ penalty** munosib jazo
- duel** [ˈdju(:)əl] *n* duel, yakkama-yakka olishuv; **to fight a ~** duelda olishmoq
- duellist** [ˈdju(:)əlɪst] *n* duel qatnashchisi
- duenna** [dju(:)enə] *n* murabbiya (*boy oilalarda yosh bolalarni tarbiyalash uchun yollangan ayol*)
- dues** [dju(:)z] *n* to'lov, boj
- duet** [dju(:)'et] *n* mus. duet (*1. ikki so'z yoki ovoz uchun yozilgan musiqa asari; 2. shunday asarni ijro etish va uning ijrochilari*)
- duett** [dju(:)'et] = **duet**
- duetto** [dju(:)'etəʊ] = **duet**

duff [dʌf] 1. *n* 1) xamir; 2) chirindi; 3) ko'mir kukuni; 2. *v* 1) yangilamoq; 2) aldamoq, laqillatmoq

duffel ['dʌf(ə)] *n* jundan yoki ipdan paxmaytirib to'qilgan yumshoq mato; jundan ishlangan gazlama

duffel-bag ['dʌf(ə)l,bæg] *n* xalta, qopcha, to'rva

duffer ['dʌfə] *n* zehni yo'q, befarosat, be-fahm, esi past

duffle ['dʌfl] = **duffel**

dag [dæg] *n* yelin, emchak (*hayvonlarniki*)

dag-out ['dægəʊt] *n* 1) moki (*to'quv dastgo-hida*); 2) *harb.* bombapana; yerto'la

duiker ['daɪkə] *n zool.* Janubiy Afrika anti-lopasi, ohu

duke [djʊ:k] *n* gersog (*G'arbiy Yevropada: yuqori tabaqa knazlarga va dvoryanlarga beriladigan unvon*)

dukedom [dju:kdəm] *n* gersoglik (*1. gersog boshchiligidagi davlat; 2. gersog unvoni*)

dulcet ['dʌlsɪt] *a* 1) she'r, yoqimli, xush-ovoz, nozik; 2) so'zl. shirin

dulcify ['dʌlsɪfaɪ] *v* yoqimli, ko'ngilli qilmoq; yumshatmoq, yumshoq qilmoq

dulcimer ['dʌlsɪmə] *n mus.* simbal (*chang-simon cholg'u asbobi*)

dull [dʌl] 1. *a* 1) anqov, ongsiz, bema'ni; ~ **brain** aqli past; 2) ezilgan, g'amingin; ~ **mood** ma'yus kayfiyat; 3) zerikarli, zeriktiradigan; 4) o'tmas, charxlanmagan; 2. *v* 1) shal-paytirmoq, lanj qilmoq; 2) o'tmaslashtirmoq; 3) xiralashtirmoq

dullard ['dʌləd] *n* befarosat, be-fahm, esi past kishi

dullish ['dʌlɪʃ] *a* 1) tentaknamo, ahmoqona; 2) o'tmaslashgan; 3) zerikarli

duly ['dju:lɪ] *adv* kerakli tarzda, tegishli-ha; o'z vaqtida; **to pay** ~ o'z vaqtida (*muddatida*) to'lamoq

dumb [dʌm] *a* 1) gung, kar-soqov; ~ **from birth** tug'ma soqov; 2) tilsiz; ~ **animals** tilsiz hayvonlar; 3) indamas, kamgap; sukut saqlaydigan; 4) indamay yoki ovozsiz amalga oshiriladigan; ~ **show** pantomima

dumb-bell ['dʌmbəl] 1. *n sport.* gantel, gim-nastika toshi; 2. *v* gantellar bilan mashqlar bajarmoq

dumbfound [dʌm'faʊnd] *v* qattiq taajjub-lantirmoq, hayratga solmoq

dumbly ['dʌmblɪ] *adv* gapirmasdan, indamay, so'zsiz

dumbness ['dʌmnəs] *n* 1) gunglik, soqovlik, tilsizlik; 2) sukut; jimjitlik, sukunat

dumb-waiter [dʌm'weɪtə] *n* ovqatni bir qavatdan boshqasiga yuborish uchun ishlatiladigan oshxonadagi kichkina lift

dummy ['dʌmɪ] 1. *n* 1) qo'g'irchoq, tulum, model; 2) sun'iy yoki yasama narsa; yasama tish va h. k.; 3) rezinka so'rg'ich (*chaqaloqlar uchun*); 4) qo'g'irchoq, boshqalar qo'lidagi qurol; 5) *sport.* fint, aldovchi harakat; 6) *poligr.* nashr-maketi (*kitob*), 2. *a* 1) haqiqiy bo'lmagan, qalbaki, yasama, yolg'ondakam; **a ~ watch** o'yin-choq soat; **a ~ cartridge** *harb.* mashq patroni; 2) shovqinsiz, ovozsiz

dump [dʌmp] 1. *n* 1) axlat uyumi; 2) axlat-xona; 3) *amer.* muvaqqat yog'och ombori; 4) *harb.* dala ombori; 2. *v* 1) uymoq, to'p-lamoq; 2) chiqarib tashlamoq, ag'darmoq, tushirmoq; **to ~ coal** ko'mirni tushirmoq, ag'darmoq; 3) *iq.* bozorni arzon mollar bilan to'ldirib yubormoq

dump cart ['dʌmpkɑ:t] *n* ag'darma arava yoki vagoncha

dumping ['dʌmpɪŋ] *n* 1) ag'darish, tushirish, uyumlab (*betartib*) tushirish; 2) *iq.* chet el bozorlarida molni arzon sotish

dumpish ['dʌmpɪʃ] *a* qayg'uli, xafa, ma'yus

dumpling ['dʌmplɪŋ] *n* 1) uzma pilak, pilakcha; 2) so'zl. pakana, past bo'yli ayol

dumps [dʌmps] *n* g'am, g'am-g'ussa, ma'yuslik, ko'ngil g'ashlik, xunobgarchilik

dummy ['dʌmpɪ] *a* 1) baqaloq, yo'g'on; 2) ma'yus, g'amingin

dun [dʌn] *n* 1) jonga tegadigan (*bezor qiladigan*) kreditor; 2) qarzni to'lashni qat'iy talab qilish

dunce [dʌns] *a* ovsar, esi past, be-fahm, be-farosat, zehni past

dunderhead ['dʌndəhed] *n* ahmoq, galvars, kallavaram

dune [dju:n] *n* qumtepa (*shamol uchirib yuradigan qum uyumlari*)

dung [dʌŋ] 1. *n* go'ng, o'g'it; 2. *v* o'g'it-lamoq, go'ng solmoq

dungaree [dʌŋgə'ri:] *n* dag'al ip gazlama

dungarees [dʌŋgə'ri:z] *n* kombinezon (*shimi bilan ko'ylagi birga qo'shib tikilgan ish kiyimi, korjoma*)

dung-beetle ['dʌŋ,bi:tl] *n ent.* go'ngqo'n-g'iz

dungeon ['dʌndʒən] *n* zindon, yer ostidagi qamoqxona

dung-fork ['dʌŋ,fɔ:k] *n* go'ng yuklaydigan panshaxa

dunghill ['dʌŋ,hɪl] *n* go'ngto'da, go'ng uyumi

dungy [dʌŋɪ] *a* 1) go'ngga oid; 2) kir, iflos

dunywassal ['du:nɪwɒs(ə)] *n* *shotl.* kichik dvoryanin

dunk [dʌŋk] *v* botirmoq, botirib olmoq; ho'i-lamoq, namlamoq, cho'ktirmoq

dunnage [ˈdʌnɪdʒ] *n* yukning tagiga solindigan narsa

duo [ˈdjuːə] *n* (*pl* **duos** [ˈdjuː(ə)z]) *mus.* duet (1. ikki soz yoki ovoz uchun yozilgan musiqa asari; 2. shunday asarni ijro etish va uning ijrochilari)

duodecimal [ˌdjuː(ə)(ʊ)ˈdesɪm(ə)l] *n* 1) oʻn ikkinchi qism; 2) *pl mat.* oʻn ikkilik sistema

duodecimo [ˌdjuː(ə)(ʊ)ˈdesɪm(ə)ʊ] *n* 1) (*pl* -os [-əʊz]) varaqning 12-dan bir qismi shaklidagi kitob formati (bichimi) va shu formatdagi (bichimdagi) kitob

duodenal [ˌdjuː(ə)(ʊ)ˈdiːnəl] *a anat.* oʻn ikki barmoqli ichakka oid; ~ **ulcer** oʻn ikki barmoqli ichakning yarasi

duodenitis [ˌdjuː(ə)(ʊ)ˈdiːnɪtɪs] *n tib.* oʻn ikki barmoqli ichakning yalligʻlanishi

duodenum [ˌdjuː(ə)(ʊ)ˈdiːnəm] *n* (*pl* -na) *anat.* oʻn ikki barmoqli ichak

duologue [ˈdjuːələʊ] = **dialogue**

dupable [ˈdjuːpəbl] = **dupeable**

dupe [djuːp] 1. *n* aldangan kishi; 2. *v* 1) aldamoq; 2) ahmoq qilmoq

dupeable [ˈdjuːpəbl] *a* yolgʻon gapga laqqa tushadigan

dupe [ˈdjuːp] *a mat.* ikki hissa ortiq, ikki marta koʻp

duplex [ˈdjuːpleks] *a* 1) ikki tomonlama, ikki taraflama; 2) ikki marta koʻp, ikki hissa

duplicate [ˈdjuːplɪkət] 1. *n* nusxa, koʻchirma; 2. *v* nusxa koʻchirmoq (olmoq)

duplication [ˌdjuːplɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) nusxa koʻchirish; 2) ikki baravar koʻpaytirish

uplicator [ˈdjuːplɪkətə] *n* nusxa koʻchiradigan apparat

durability [ˌdʒʊ(ə)rəˈbɪlɪtɪ] *n* mustahkamlik, qattqlik, chidamlilik, pishqlik, sabotlilik, bardoshlilik

durable [ˈdʒʊ(ə)rəbl] *a* mustahkam, pishiq, ishonchli; ustuvor

duramen [dʒʊ(ə)ˈreɪmən] *n bot.* oʻzak, magʻiz

duration [dʒʊ(ə)ˈreɪʃ(ə)n] *n* davom etish (choʻzilish) muddati, davomiylik

durbar [ˈdɜːbɑː] *n hind.* 1) tantanali kutib olish; 2) tantanali qabul marosimi oʻtkaziladigan zal yoki saroy

duress(e) [dʒʊ(ə)ˈres] *n* 1) ozodlikdan mahrum qilish; 2) majbur qilish, zoʻrlash; **to do smth. under** ~ nimanidir majburiyat yuzasidan bajarmoq

during [ˈdʒʊərɪŋ] *prep.* davomida, vaqtida, mobaynida

durst [dɜːst] = **dare**

dusk [dʌsk] 1. *n* oqshom, kechqurungi gʻira-shira vaqt; 2. *a* qorongʻi, gʻira-shira; 3. *v* qorongʻi tushmoq, qorongʻilashmoq

duskiness [ˈdʌskɪnəs] *n* qorongʻi, qorongʻilik

dusky [ˈdʌskɪ] *a* gʻira-shira qorongʻi, qosh qoraygan paytdagiga oʻxshagan xira

dust [dʌst] 1. *n* chang, toʻzon, gard; 2. *v* 1) changitmoq; 2) changni artmoq, artib tozalamoq

dustbin [ˈdʌstbɪn] *n* axlat qutisi, axlat tashlaydigan idish

dust-coat [ˈdʌstkeɪt] *n* changdan saqlaydigan yupqa plash

dust-colour [ˈdʌst,kʌlə] *n* och jigarrang

duster [ˈdʌstə] *n* chang artadigan latta; supurish, tozalash va sh. k uchun choʻtka

dust-hole [ˈdʌsthəʊl] *n* axlat tashlaydigan chuqur

dusting [ˈdʌstɪŋ] *n* 1) changni artish; 2) se-pish, sepib qoʻyish; 3) sepki, sepiladigan narsa; se-pish uchun antiseptik kukun

dustpan [ˈdʌstpæn] *n* kurakcha, xokandoz

dust-proof [ˈdʌstpruːf] *a* chang oʻtkazmaydigan

dust-shot [ˈdʌstʃɒt] *n ov.* eng mayda sochma oʻq, pitra

dust-storm [ˈdʌststɔːm] *n* toʻzonli boʻron (dovul), changli qattiq shamol

dust-up [ˈdʌstʌp] *n* 1) soʻzl. shovqin, shov-shuv, gʻalva; 2) gʻuvullagan tovush; 3) janjal, gʻavgʻo, mojaro

dusty [ˈdʌstɪ] *n* changli, toʻzonli, chang bosgan

Dutch [dʌtʃ] 1. *a* Niderlandiyaga (Gollandiyaga) oid; 2. *n* 1) (the ~) niderlandiyaliklar; gollandiyaliklar; 2) niderland (golland) tili

dutch [dʌtʃ] *n* soʻzl. xotin, rafiq; **my old ~** mening kampirim (*xotin toʻgʻrisida*)

Dutchman [ˈdʌtʃmən] *n* (*pl* -men [-mən]) niderlandiyalik kishi; gollandiyalik erkak

Dutchwoman [ˈdʌtʃ,wʊmən] *n* (*pl* -women [-,wɪmɪn]) niderlandiyalik ayol; gollandiyalik ayol

dutiful [ˈdjuːtɪf(ə)l] *a* itoatli, boʻysunadigan, qobil, sharafli

duty [ˈdjuːtɪ] *n* 1) burch, xizmat, vazifa; 2) majburiyat; 3) navbatchilik; **I am on ~ today** bugun men navbatchi; 4) hurmat, eʼtibor, ehtirom, izzat; 5) davlat yigʻimi, makka soligʻi, soliq, boj; 6) *tex.* (*qozon, nasos va sh. k. ning*) unumdorligi; quvvat; (*mashinaning*) foydali ishi

duty-free [ˌdjuːtɪˈfriː] *a* boj toʻlanmaydigan, bojdandan ozod (*toʻvar, mahsulot, mollarga nisbatan*)

duvet [ˈduː(ː)veɪ] *n* tivit adyol

dwarf [dwoːf] *a* pak-pakana odam, mitti (pakana) kishi

dwarfish [ˈdwo:ʃɪʃ] *a* 1) kichkina, mitti, pakana; 2) hali o'sib yetilmagan, yaxshi o'smagan

dwell [dwell] *v* (**dwelt**) 1) yashamoq, kun kechirmoq; 2) qolmoq, yashamoq; 3) (*biror narsa ustida*) batafsil to'xtamoq; (*biror narsa haqida*) mulohaza qilmoq; 4) to'siq oldida to'xtab qolmoq yoki sekinlashmoq (*ot haqida*)

dweller [ˈdwelə] *n* turuvchi, yashovchi (*kishi*)

dwelling [ˈdwelɪŋ] *n* 1) uy-joy, turar joy, makon; 2) yashash

dwelling-house [ˈdwelɪŋhaʊs] *n* odam yashaydigan uy

dwelling-place [ˈdwelɪŋpleɪs] *n* yashash joyi

dwelt [dwellt] *past, p. p. of dwell*

dwindle [ˈdwaɪndl] *v* 1) kichray(tir)moq, qisqar(tir)moq; 2) mazmunini yo'qotmoq;

3) yomonlashmoq, inqirozga uchramoq

dyad [ˈdaɪæd] *n* 1) juft, ikki; 2) *kim*, ikki valentli element

dye [daɪ] 1. *n* bo'yoq, rang; 2. *v* bo'yamoq

dye-house [ˈdaɪhaʊs] *n* bo'yoqchilik ustaxonasi, gazmollarni bo'yash sexi

dyeing [ˈdaɪɪŋ] *n* 1) bo'yoq (bo'yash) ishlari; 2) matolarni bo'yash

dyer [ˈdaɪə] *n* bo'yoqchi

dye-stuff [ˈdaɪstʌf] *n* bo'yoq moddalar

dye-works [ˈdaɪwɜ:ks] *n* bo'yoqxona, bo'yash fabrikasi

dying [ˈdaɪɪŋ] 1. *n* o'lish, o'lim; 2. *a* o'layotgan, o'lim to'shagida yotgan

dyke [daɪk] *n* to'g'on

dynamic [daɪˈnæmɪk] *a* 1) dinamik, dinamikaga oid; 2) faol, g'ayratli, serg'ayrat, serharakat

dynamics [daɪˈnæmɪks] *n* 1) dinamika (*harakat haqidagi fanning bir bo'limi*); 2) harakatlantiruvchi kuchlar

dynamite [ˈdaɪnəmaɪt] *n* dinamit (*portlovchi moddu*)

dynamitic [ˈdaɪnəˈmɪtɪk] *a* dinamitli, dinamitga oid

dynamo [ˈdaɪnəməʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) dinamo-mashina, o'zgarimas tok generatori

dynasty [ˈdɪnəsti] *n* sulola, dinastiya

dysentery [ˈdɪs(ə)nt(ə)rɪ] *n* *tib.* ichburug'

dyslexia [ˈdɪsˈleksiə] *n* *tib.* disleksiya, o'qishga noqobillik, uquvsizlik

dyslexic [ˈdɪsˈleksɪk] *a* *tib.* o'qishga qobiliyati yo'q, o'qishni o'rgana olmaydigan

dyspepsia [ˈdɪsˈpepsɪə] *n* *tib.* dispepsiya (*me'da va ichaklarda ovqatning singmasligi va shuning oqibatidagi kasallik*)

dyspeptic [ˈdɪsˈpeptɪk] 1. *a* ovqatning yomon hazm bo'lishidan qiynalayotgan; 2. *n*

ovqat yomon hazm bo'lishi natijasida azob chekayotgan odam

dyspn(o)ea [ˈdɪsˈpni(:)ə] *n* *tib.* nafas qisish, nafas siqilish, harsillash

dystrophy [ˈdɪstrəfi] *n* *tib.* distrofiya (*to'qima va a'zolarida modda almashinuvi-ning buzilishi*)

E

E, e [i:] *n* 1) ingliz alifbosining beshinchi harfi; 2) *mus.* mi; 3) *deng.* ikkinchi darajali kema; 4) „qoniqarsiz“ baho, „yomon“ baho; 5) *so'zl.* o'zlashtirmaydigan o'quvchi

each [i:tʃ] 1. *pron. indef.* har bir; har qaysi; ~ student has to learn it by heart har bir talaba buni yoddan bilishi kerak; 2. *n* har bir kishi, har kim

each other [i:tʃˈʌðə] *pron. recip.* bir-birini, bir-biroviga (*odatda, ikki kishi haqida*)

eager [i:ɡə] *a* (*for, after, about*) jon-jahdi bilan intiladigan; sabrsiz; intiluvchan; intizor

eagerness [i:ɡənəs] *n* g'ayrat, jo'shqinlik, ishtiyoq, intilish

eagle [i:ɡ(ə)l] *n* 1) *zool.* burgut; 2) *amer. esk.* o'n dollarli oltin tanga; 3) burgut (*AQSH gerbi va emblemasi*)

eagle-eyed [i:ɡ(ə)lˈaɪd] 1. *n* burgutko'z; o'tkir ko'z; sinchkovlik; 2. *a* o'tkir, ziyrak, sezgir; o'tkir qarashli

eagle-owl [i:ɡ(ə)lˈaʊl] *n* *zool.* ukki (*qush*)

eaglet [i:ɡlɪt] *n* burgutchka, burgut bolasi

eagre [eɪɡə] *n* daryoning quyilish joyidagi ko'tariladigan to'lqin

ear [ɪə] 1. *n* 1) quloq; 2) eshitish, eshitish qobiliyati; 3) boshqoq, so'ta, makkajo'xori; 2. *v* boshqolamoq, boshqoq chiqarmoq

ear-ache [ˈɪərəɪk] *n* quloq og'rig'i

eardrop [ˈɪədrɒp] *n* osilgan bezak (*shokila*)li zirak

ear-drops [ˈɪədrɒps] *n* *pl* quloq tomchi derisi, tomizib ichiladigan dori (*quloq og'riganda*)

ear-drum [ˈɪədrʌm] *n* *anat.* quloq pardasi

ear-flap [ˈɪəflæp] *n* 1) quloqchin; 2) solinchak (*quloqda*)

earful [ˈɪəfʊl] *n* *so'zl.* 1) uzundan uzoq suhbatlar, uzunquloq gaplar; 2) kaltak, ta'zir, qattiq gap, tanbeh, koyish

earl [ɜ:l] *n* graf (*Angliyada*)

ear-lap [ˈɪələp] *n* *anat.* solinchak (*quloqda*)

earldom [ˈɜ:lɒm] *n* graflik unvoni; graflik

earless [ˈɪələs] *a* 1) quloqsiz, qulog'i yo'q; 2) tutqichsiz, dastasiz (*idish to'g'risida*)

ear-lobe [ˈɪələʊb] = ear-lap

ear-lock [ˈɪlək] *n* kokil soch, quloq ostidagi gajak

early [ˈɜːli] **1. a** 1) barvaqt, erta, vaqqli; **an - morning** tong saharda; **in - spring** erta bahorda; 2) oldindan; 3) yaqin, yaqin kelajakda kutilayotgan, tez orada; **at an - date** yaqin orada; 4) vaqtdan oldin, muddatidan oldin; **an - death** bevaqt o'lim; **2. adv** erta, vaqqli; **to be up -** vaqqli turmoq; **~ in life** yoshlikda; **~ in the year** yilning boshida

earmark [ˈɪmə:k] **1. n** 1) hayvon qulog'ida-gi tamg'a; 2) farqlovchi belgi, kimgadir tegishlilikni bildiruvchi belgi; 3) sahifaning bukilgan burchagi; **2. v** tamg'alamoq, tamg'a bosmoq; 2) belgilamoq; **to - a page** sahifa burchagini bukib qo'yimoq; 3) mo'ljal-lamoq; muayyan maqsad uchun ajratib qo'y-moq

earmuffs [ˈɪməfs] *n* (sovuq, shovqin-suron va b. dan himoya qilish uchun) quloqchin

earn [ɜːn] *v* 1) ishlab topmoq; daromad kel-tirmoq; **how much do you ~?** qancha ma-osh olasiz? **to - one's living** tirikchilik uchun ishlab topmoq; 2) sazovor bo'lmoq, qozonmoq, erishmoq; **to - a fame** shuhrat qozonmoq

earner [ˈɜːnə] *n* maosh oluvchi shaxs

earnest [ˈɜːnɪst] **1. a** 1) jiddiy, muhim; 2) samimiy, qat'iy ishongan; 3) jonkuyar, g'ay-ratli, tirishmoq; **2. n** 1) bay puli (*zakalat*); 2) garovga qo'yilgan (yoki olingan) narsa

earnestly [ˈɜːnɪstli] *adv* qattiq turib, qat'iy sur'atda

earnings [ɜːˈnɪz] *n* 1) ishlab topilgan pul, maosh, mablag'; 2) daromad, tushum

ear-phone [ˈɪəfəʊn] = **head-phone**

earpiece [ˈɪəpiːs] *n* (*asos. pl*) 1) quloq (*bosh kiyimida*); 2) ko'zoynakning bandi; 3) tele-fon go'shagining quloqqa tutadigan qismi

earplug [ˈɪəplʌg] *n* (*odat. pl*) quloqqa tiqila-digan tiqin

ear-ring [ˈɪəriŋ] *n* zirak, baldoq, isirg'a

earshot [ˈɪəʃɒt] *n* ovozni eshitib bo'ladigan uzoqlikdagi masofa; eshitilish masofasi

ear-splitting [ˈɪəsplɪtɪŋ] *a* juda qattiq; quloqni kar qiladigan

earth [ɜːθ] **1. n** 1) yer, yer shari; **~'s sur-face** yer sathi; 2) (**the Earth**) Yer (*say-yora*); **the Earth goes round the Sun** Yer Quyosh atrofida aylanadi; 3) yer, tup-roq; 4) in, uya; **to run to -** inida yashirin-moq; **2. v** 1) chopmoq, yerni chopiq qil-moq, egat olmoq; 2) iniga haydab kiritmoq; yerga kirib ketmoq; 3) ko'mmoq; dafn qilmoq

earth-born [ɜːθbɔːn] *a* o'ladigan, odam (ki-shi; inson)ga oid, yerdan yaralgan; **crea-tures -**, **not spirits** ruh emas, yer farzandi

earth-bound [ɜːθbaʊnd] *a* 1) yer, dunyo-viy, hayotiy; 2) yerga oid; yer bilan bog'liq; yerga yo'nalgan

earthen [ˈɜːθ(ə)n] *a* tuproqli, loyli, yerlik; loydan qilingan (yasalgan)

earthenware [ˈɜːθ(ə)nweə] **1. n** 1) loy, tup-roq; 2) loydan yasalgan idish, sopol idish; **2. a** 1) loydan qilingan; loy ...; sopol ...; 2) loydan (tuproqdan) iborat bo'lgan; tup-roq...

earthing [ˈɜːθɪŋ] **1. pres. p. of earth** **2. n** *el.* yerga ulash; yerga ulangan sim

earth-flax [ˈɜːθflæks] *n* toshpaxta, asbest

earth-light [ˈɜːθlaɪt] = **earth-shine**

earthly [ˈɜːθli] *a* yerga oid; yer...; **an - globe** yer shari

earthly-minded [ˈɜːθliˈmaɪndɪd] *a* o'ta omilkor (tajribakor)

earth-nut [ˈɜːθnʌt] *n* yeryong'oq

earthquake [ˈɜːθkweɪk] *n* yer qumirlash, zil-zila

earthshaking [ˈɜːθˌeɪkɪŋ] *a* o'ziga xos mu-him ahamiyatga ega bo'lgan; ajoyib, larzaga soladigan

earth-shine [ˈɜːθˌʃaɪn] *n astr.* (*Oyning*) ku-mushrang nuri

earthward(s) [ˈɜːθwəd(z)] *adv* yerga tomon

earthwork [ˈɜːθwɜːk] *n* yer qazish ishlari

earth-worm [ˈɜːθwɜːm] *n* 1) *zool.* chuval-chang; 2) *ko'ch.* xushomadgo'y, laganbar-dor

earthy [ˈɜːθi] *a* 1) yerga oid, sertuproq; 2) hayotiy, dunyoviy

ear-wax [ˈɪəwæks] *n* quloq kiri

earwig [ˈɪəwɪg] *n zool.* uxovyortka (*to'g'ri qanotli hasharot*)

ease [iːz] **1. n** tinchlik, osoyishtalik, orom, huzur-halovat; **to take one's -** dam olmoq; **2. v** 1) (*azob va b. ni*) yengillash-tirmoq; (*og'riq va b. ni*) tinchitmoq, qoldirmoq; 2) (*og'riqni*) bo'shashtirmoq, yumshatmoq

easeful [iːz(ə)l] *a* *kit.* 1) (*ko'ngilni*) tinchi-tadigan, tinchlantiradigan, yupatadigan, ovu-tadigan, taskin (orom) beradigan, xotirjam qiladigan; 2) tinch, osoyishta, xotirjam, bexavotir, beg'alva, bamaylixotir

easel [iːz(ə)l] *n* 1) molbert (*rassomlar dast-gohi*); 2) kitob uchun taglik; 3) nota va ki-tob qo'yadigan qiya moslama

easement [iːzəmənt] *n* qulaylik, o'ng'aylik; 2) yengillatish, yumshatish, tinchitish

easily [ˈiːzəli] *adv* osonlik bilan, osongina, qiyinchiliksiz, qiynalmay, bemashaqqat, bemaol; **they can - do it** ular buni osonlik bilan bajara oladilar; 2) bajonidil, qarshilik ko'rsatmay; **we agreed -** biz bajonidil rozi bo'ldik

easiness [ˈi:zɪnəs] *n* yengillik, osonlik, o'ng'aylik

east [i:st] **1. n** 1) sharq; **to the ~** sharqqa; **in the ~** sharqda; **to the ~ of a** ...dan sharqqa; b) ...ning sharqida; **the Far East** Uzoq Sharq; **the Middle East** O'rta Sharq; **the Near East** Yaqin Sharq; 2) sharqiy shamol; **2. a** 1) sharqiy; ~ **wind** sharqiy shamol; 2) sharqqa qaragan, sharqqa chiqadigan; **an ~ window** sharqqa qaragan deraza; **3. adv** 1) sharqqa; 2) sharqiy yo'nalishdan (*shamol haqida*); **to blow ~** sharqdan esmoq

eastbound [ˈi:stbaʊnd] *a* sharqqa harakatlanuvchi (harakat qiluvchi)

East End [ˈi:st'end] *n* Ist-End; Londonning sharqiy (*kambag'al*) qismi

Easter [ˈi:stə] *n* cherk. Pasxa (*xristianlar bayrami*)

easterly [ˈi:stəli] **1. a** sharqqa oid, sharqdagi; **2. n** sharqiy shamol; **3. adv** sharqqa; sharqdan (*shamol to'g'risida*)

eastern [ˈi:stən] **1. a** sharqiy; **2. n** sharq fuqarosi, sharqda yashovchi kishi

Easterner [ˈi:stənə] *n* AQSHning shimoliy-sharqiy qismida yashovchi kishi

easternmost [ˈi:stənmoʊst] *a* eng sharqiy

Eastertide [ˈi:stə,tɑɪd] *n* cherk. Pasxa haftaligi

East India Company [ˈi:st'ɪndiə'kɑmpənɪ] *n* Sharqiy Hindiston shirkati

easting [ˈi:stɪŋ] *n* deng. sharq tomonga yo'l olish, yurish (*kemalarning yo'nalishlari haqida*)

East Side [ˈi:st'saɪd] *n* Nyu-Yorkning sharqiy (*kambag'al*) qismi

eastward [ˈi:stwəd] **1. a** sharqqa harakat qiluvchi (qiladigan); **2. adv** sharqqa, sharq tomonga; **3. n** sharq tomon

easy [i:zi] **1. a** 1) oson, yengil, qiyin bo'lmagan; **an ~ task** yengil topshiriq; **an ~ path** qulay so'qmoq; 2) yengil, og'irlik qilmaydigan; **on ~ terms** yengil shartlarda; ~ **book** max. kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitob; 3) qulay, yoqimli; **an ~ coat** keng palto; 4) tinch, osoyishta, xotirjam; **make your mind ~** hayajonlanmang, o'zingizni bosing; 5) shoshilmay, bemalol; **to travel by ~ stages** dam olish uchun to'xtab-to'xtab sayohat qilish; 6) chiqishadigan, ko'nuvchan, yumshoq tabiatli; ~ **disposition** yumshoq tabiat; 7) erkin, bemalol, tabiiy; ~ **manners** tabiiy xatti-harakat, xulq-atvor; 8) ta'minlangan, badavlat; ~ **circumstances** moddiy ta'minlanganlik; **2. adv** osonlik bilan, qiyinchiliksiz

easy-care [i:zi'keə] *a* qattiq parvarish qilishni talab qilmaydigan, parvarish qilishi oson bo'lgan

easychair [i:zi'tʃeə] *n* yumshoq kreslo

easy-going [i:zi'gəʊɪŋ] *a* 1) yengil, osoyishta (*otning yurishi to'g'risida*); 2) xushmuomala, quvnoq; 3) parvosiz, beparvo, beg'am

easy meat [i:zi'mi:t] *n* so'zl. 1) befahm (anqov, laqma) odam; 2) oson ish

eat [i:t] (**ate; eaten**) *v* yemoq, yeb qo'y-moq; **to ~ away** yemoq, ichmoq, yeb (ichib) qo'y-moq; **to ~ in** uyda ovqatlanmoq; **to ~ off** birovning bor-yo'g'ini yeb qo'y-moq, kimningdir hisobidan yashamoq; **to ~ up** yemoq, yeb qo'y-moq, yeb yubormoq

eatable [ˈi:təb(ə)l] *a* yeyishli, yesa bo'ladigan, ovqatga ishlatiladigan

eatables [ˈi:təb(ə)lz] *a pl* yemoq-ichmoq uchun belgilangan, yegulik, oziq-ovqat

eaten [ˈi:tɪn] *p. p. of eat*

eater [ˈi:tə] *n* 1) ovqatlanuvchi har bir kishi, xo'randa; 2) iste'molchi

eatery [ˈi:təri] *n* 1) ovqatxona, yemakxona (*xonadonda*); 2) oshxona; 3) gazakxona

eating [ˈi:tɪŋ] **1. n** ovqat, oziq, taom; ovqat yeyish; **2. a** xom holda yesa bo'ladigan; **an ~ apple** yeyiladigan olma; **an ~ club** (*yoki hall*) amer. universitet oshxonasi

eating-house [ˈi:tɪŋhaʊs] *n* oshxona; arzon restoran

eats [i:ts] *n pl* so'zl. ovqat, oziq, taom

eau de Cologne [əʊdəkɔːlən] *n* odekolon, atir

eau-de-vie [əʊdə'vi:] *n fr.* konyak, araq, viski

eaves [i:vz] *n* karniz

eavesdrop [i:vzdrɒp] *v* bildirmay, yashirincha quloq solmoq, eshitib olmoq (*shuningdek, mikrofon vositasida ham*)

eavesdropper [ˈi:vz,drɒpə] *n* yashirincha quloq soluvchi; josus, ayg'oqchi

ebb [eb] **1. n** 1) (*suvning, to'lqinning*) orqaga qaytishi; 2) ko'ch. tushkunlik, tanazzul, yomonlashish; **to be at an ~** qiyin ahvolda bo'lmoq; **2. v** 1) chekinmoq (*to'lqinning qaytishi to'g'risida*); kamaymoq (*suv to'g'risida*); 2) zuflashmoq, so'nmoq, o'lmoq; 3) (*baliqni*) suvning qaytishida ovlamoq

ebb-tide [eb'taɪd] *n* suvning, to'lqinning orqaga qaytishi

ebonite [ˈebənaɪt] *n* tex. ebonit (*izolatsion material*)

ebony [ˈebɒni] **1. n** 1) lot. qora yoki obnus daraxti; 2) amer. negr. zangi, habash; **2. a** 1) qora yoki obnus daraxtidan qilingan; 2) mumdek qora

e-book [i:bʊk] *n* kompyuter ekranida o'qish mumkin bo'lgan kitob, elektron kitob

ebullience [i'buljəns] *n* 1) qaynash, biqirlab qaynash; 2) shodiyona, hayajonlanish, (to'lib-toshgan) g'ayrat, tashabbus
ebullency [i'buljənsi] = **ebullience**
ebullient [i'buljənt] *a* 1) oshib-toshgan, ichiga sig'maydigan (*xursandchilik va b. haqida*); 2) qaynayotgan
ebullition [e'bʊl'ʃ(ə)n] *n* 1) qaynash; 2) birdan qizishib ketish (*his-uyg'u, ehtiros*)
écarté [e'ka:te] *n fr.* ekarte (*qarta o'yini-ning bir turi*)
ecaudate [i(:)'kə:deit] *a zool.* quyruqsiz, dumsiz
eccentric [i'kɛntrɪk] 1. *a* g'alati, ajib, qiziq; 2. *n* g'alati (ajib, qiziq) inson
eccentricity [i'kɛntrɪsɪti] *n* ajiblik, qiziqlik; g'alatilik
ecclesiastic [i'kli:zi'æstɪk] 1. *n* ruhoniylarga mansub kishi, ruhoni; 2. *a* = **ecclesiastical**
ecclesiastical [i'kli:zi'æstɪk(ə)] *a* 1) cherkovga oid; 2) ruhoni, diniy
echelon [e'ʃələn] 1. *n* *harb.* eshelon (*birin-ketin joylashgan qo'shinlar qatori*); 2. *v* *harb.* eshelonlamoq, eshelonlarga bo'lmoq, eshelon-eshelon qilib (*birin-ketin*) joylashingtirmoq
echidna [i'kiðnə] *n zool.* 1) yexidna (*Avstraliyada va uning atrofidaagi ba'zi orollarda yashaydigan kirpisiimon jontivor*); 2) yexidna (*Avstraliyada yashaydigan zaharli ilon*)
echini [i'kaɪni] *pl of echinus*
echinus [i'kaɪnəs] *n (pl -ni [-ni]) zool.* dengiz tipratikani
echo [i'ekəʊ] 1. *n (pl -oes [-əʊz])* aks sado; 2. *v* aks sado bermoq
echoic [i'kəʊɪk] *a* 1) aks sadoga o'xshash, aks etgan (*tovush haqida*); 2) tovushga taqlid yo'li bilan hosil qilingan, taqlidiy
echo-sounder [i'ekəʊ'saʊndə] *n deng.* exolot (*dengiz chuqurligini elektroakustik usul bilan o'laydigan asbob*)
eclair [i'kleə, e'kleə] *n fr.* ekler (*pirojni-ning bir turi*)
eclampsia [i'klempsiə] *n tib.* eklampsiya (*homiladorlikni va tug'ishni qiyinlashtiradigan og'ir kasallik*)
éclat [i'eklo:] *n fr.* 1) mashhurlik, dongdorlik, buyuklik; 2) g'ulg'ula soladigan muvaffaqiyat; **with great** ~ katta muvaffaqiyat bilan
eclectic [i'klektɪk] 1. *n* eklektik (*eklektizmga moyil odam*); 2. *a* eklektizmga oid, eklektizmga asoslangan
eclecticism [i'klektɪs(ə)zɪm] *n* eklektika, eklektizm (*turlicha qarashlarni, nazariya-*

larni bir-biriga o'zboshimchalik bilan qorishtirib yuborish)
eclipse [i'klɪps] 1. *n* 1) *astr.* tutilish; **a total (partial)** ~ to'la (qisman) tutilish; xiralashish; 3) shukuhini, dabdabasini yo'qotish, tanazzul, tushkunlik; **the ~ of feudalizm** feodalizmning inqirozi; **an ~ of one's power** holdan toyish; 2. *v* 1) qorong'i qilmoq, to'smoq (*osmon jismi to'g'risida*); 2) ustun kelmoq, soyasida qoldirmoq; 3) tanazzulga yuz tutmoq, shuhratini yo'qotmoq, zaiflashmoq (*qudrat to'g'risida*)
ecliptic [i'klɪptɪk] 1. *n* *astr.* ekliptika (*Quyosh bir yilda aylanib chiqadigan katta fazoviy doira*); 2. *a* ekliptikaga oid
eclogue [i'ekloʒ] *n* *adab.* ekloga (*cho'ponlar va qishloq hayoti ideallashtirib tasvirlangan adabiy asar*) janri; idilliya (*tabiat quchog'idagi tinch va osoyishta hayomi tasvirlovchi kichik she'riy asar*); pastoral (*cho'ponlar hayoti tasvirlangan badiiy yoki muvqiqiy asar*)
ecofriendly [i'ekəʊ'frendli] *a* ekologiyaga zarar yetkazmaydigan, ekologik toza
ecological [i'ekə'lɒdʒɪk(ə)] *a* ekologiyaga oid, ekologik
ecologist [i'kolədʒɪst] *n* ekologiya mutaxassisi
ecology [i'kolədʒɪ] *n* *biol.* ekologiya (*tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan biologik fan*)
e-commerce [i'kɒmə:s] *n* internet orqali amalga oshiriladigan tijorat (*savdo-sotiq*) ishlari
econometrics [i'kɒnə'metrɪks] *n* ekonometriya, matematik iqtisod
economic [i'ekə'nɒmɪk] *a* 1) iqtisodiy; xo'jalikka, xalq xo'jaligiga oid; **an ~ policy** iqtisodiy siyosat; ~ **forces** iqtisodiy omillar; ~ **development** iqtisodiy rivojlanish; 2) tejamli; iqtisodiy foydali yoki maqsadga muvofiq; foyda keltiradigan; 3) amaliy; ~ **botany** amaliy botanika, qishloq xo'jaligi botanikasi
economical [i'ekə'nɒmɪk(ə)] *a* 1) tejamkor, rejali; ~ **habits** tejamkorlik; tejjash odatlari; 2) iqtisodiy
economically [i'ekə'nɒmɪk(ə)] *adv* 1) tejjab-tergab, reja bilan; 2) iqtisodiy nuqtayi nazardan
economics [i'ekə'nɒmɪks] *n* 1) iqtisodiyot, xalq xo'jaligi; **planned** ~ rejali (rejaga asoslangan) xo'jalik; 2) iqtisodiyot fani, siyosiy iqtisod fani; 3) xo'jalik hayoti; xo'jalik; **home** ~ to'zg'orshunoslik; **rural** ~ qishloq xo'jaligi

economist [r 'kɒnəmɪst] *n* 1) iqtisodchi; 2) rejali xo'jayin; tejamkor kishi
economize [r 'kɒnəmaɪz] *v* tejamq, iqtisod qilmoq, rejali sarflamoq
economizer [r 'kɒnəmaɪzə] *n* 1) tejamkor odam; 2) *tex.* suv isitgich, suv isitadigan asbob
economy [r 'kɒnəmi] *n* 1) xo'jalik, iqtisodiyot; 2) tejamkorlik; 3) iqtisod, tejash; a **political** - siyosiy iqtisod
ecru [e'krʊ:] *a fr.* qattiq bo'z rangi, och jigarrang
ecstasize ['ekstəsəɪz] *v* 1) g'oyat zavqlantirmoq, qoyil qoldirmoq; 2) qoyil qolmoq; tahsin o'qimoq
ecstasy ['ekstəsi] *n* jazava; o'zini yo'qotish darajasida zavqlanish (hayajonlanish); **in the ~ of** shodlikdan entikib
ecstatic ['ɪk'stætɪk] *a* g'azabi oshgan, hayajonlangan, asabiylashgan
ectopic pregnancy [ek'tɒpɪk 'pregnənsɪ] *n tib.* bachadondan tashqari homila
écu [e'kjʊ:] *n fr.* ekyu (*qadimiy kumush tanga*)
Ecuadorean [ekwə'dɔ:riən] 1. *a* Ekvadorga oid, Ekvador...; 2. *n* ekvadorlik, ekvadorlik ayol
ecumenic(al) [i:kju'menɪk(əl)] *a cherk.* butunjahon (*asosan, xristianlar yig'ini haqida*)
eczema [eksɪmə] *n tib.* ekzema, chilla yara
edacious ['edɪʃəs] *a* 1) ochko'z, suq; 2) yebto'ymas, badnafis
edacity ['ɪdæsɪtɪ] *n* 1) ochko'zlik, suqlik; 2) yebto'ymaslik, badnafislik
Edam ['i:dəm, 'i:dæm] *n* Edam pishlog'i
edaphology [edə'fɒlədʒɪ] *n* tuproqshunoslik
eddish ['edɪʃ] *n q.x.* 1) yangi o't, maysa; 2) ang'iz (*ekin o'rib olingan yer*)
eddy ['edɪ] 1. *n* girdob, quyun, dovul, uyur-mali qattiq shamol, bo'ron; 2. *v* 1) girdobga aylanmoq; 2) burqirab chiqmoq
edelweiss ['edɪlvajs] *n bot.* edelveys (*murrakkabguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik tog' o'simligi va uning guli*)
Eden ['i:dn] *n cherk.* jannat, jannatmakon joy
edentate [r 'dentɪt] *a* 1) *zool.* sutemizuvchilarga oid; 2) *hazil.* tishi yo'q, tishi tushgan, tishsiz
edge [edʒ] 1. *n* 1) dam, tig'; **the knife has no ~ pichoq o'tmas bo'lib qoldi**; 2) chet, qirg'oq; **the ~ of a wood** o'rmon chekkasida; **on the ~ of winter** qish bo'sag'asida; 3) chet (*kitobda*); hoshiya (*sahifada*); 4) qirra, cho'qqi (*tog'da*); tog'lar tizmasi;

the ~ of a mountain tog' qirrası; 2. *a* 1) charxlamoq, o'tkirlamoq; 2) hoshiyalamoq, atrofını o'ramoq; 3) (*sekin*) ilgarilamoq; (*ohista*) yaqinlashmoq
edge-bone ['edʒbəʊn] *n* dumg'aza suyagi
edge-stone ['edʒstəʊn] *n* tegirmon toshi, tegirmontosh
edge-tool ['edʒtu:l] *n* o'tkir, keskir, uchli, qirrali asbob; **to play with ~s** o't bilan o'ynashmoq
edgeways ['edʒweɪz] *adv* uchi bilan; yoni bilan; **to get a word in ~** luqma tashlamoq, gapga aralashmoq, gap qistirmoq
edgewise ['edʒweɪz] = **edgeways**
edging ['edʒɪŋ] *n* qirg'oq, chet
edgy ['edʒɪ] *a* 1) o'tkir; kesuvchan, qirquvchan; keskir; 2) serjahl, serzarda
edibility [edə'bɪlɪtɪ] *n* yesa bo'ladiganlik, ovqatga ishlatishga yaraydiganlik
edible ['edəb(ə)] *a* yeyishli, yesa bo'ladigan, ovqatga ishlatiladigan
edict ['i:dɪkt] *n* farmon, oliy farmon; qonun; ~s of nature tabiat qonunlari
edification [edɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n* nasihat, o'git, pand-nasihat
edifice ['edɪfɪs] *n* hashamatli bino, imorat, inshoot
edify ['edɪfaɪ] *v* biror narsaga o'rgatmoq, ta'lim bermoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq; pand-nasihat bermoq
edit ['edɪt] *v* 1) tahrir qilmoq; nashrga tayyorlamoq; 2) muharrirlik qilmoq; **to ~ the newspaper** gazeta muharriri bo'lmoq; 3) (*kinofilmi*) montaj qilmoq; 4) nashr qilmoq, chop etmoq; 5) *maxs.* tekshirmoq, tahlil qilmoq, tuzatishlar kiritmoq; **to ~ out** o'chirmoq, o'chirib (chizib) tashlamoq
edition ['ɪdɪʃ(ə)n] *n* 1) nashr, bosma asar; **popular** - ommaviy nashr; 2) alohida nashr; **evening** - oqshomda chiqadigan (*gazeta*); 3) bosilgan nusxalar soni (*kitob, gazeta va b.*)
editio princeps [ɪdɪʃɪəʊ pɪn'seps] *n lot.* birinchi nashr
editor ['edɪtə] *n* 1) muharrir; 2) bosh maqolaning muallifi (*gazetada*)
editorial [edɪ'tɔ:riəl] 1. *a* tahririy, muharrirga oid, tahrirga oid; **an ~ office** nashriyot bo'limi binosi; **an ~ staff** nashriyot xodimlari; **an ~ board** tahrir hay'ati; 2. *n* bosh maqola
editorialist [edɪ'tɔ:riəlɪst] *n* bosh maqola yozadigan kishi
editorialize [edɪ'tɔ:riəlaɪz] *v amer.* xabarni g'arazli bayon qilish (*gazetada*)
editor-in-chief [edɪtərɪn 'tʃi:f] *n* bosh muharrir

educate [ˈɛdʒukeɪt] *v* 1) bilim bermoq, tarbiyalamoq; 2) mashq qildirmoq, oʻrgatmoq; **to ~ smb.'s taste in literature** adabiy didni oʻstirmoq; **to ~ the ear** eshitish qobiliyatini oʻstirmoq

educated [ˈɛdʒukeɪtɪd] *a* 1) bilimdon, (oliy) maʼlumotli; 2) oʻrgatilgan, mashq qildirilgan; ~ **animals** oʻrgatilgan hayvonlar

education [ˌɛdʒuˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) maʼlumot, taʼlim, oʻqitish; **all-round** ~ har tomonlama oʻqitish; **higher** ~ oliy maʼlumot; **compulsory** ~ majburiy taʼlim; **the ~ of the will** irodani tarbiyalash; 2) maʼlumotlilik, madaniy (*inson*); 3) (*hayvonlarni*) oʻrgatish

educational [ˌɛdʒuˈkeɪʃ(ə)nəl] *a* 1) taʼlimiy, tarbiyaviy; 2) oʻquv, pedagogik; **an ~ book** darslik, oʻquv qoʻllanma; 3) maʼrifiy; **an ~ film** oʻquv-maʼrifiy film

educationalist [ˌɛdʒuˈkeɪʃ(ə)nəlɪst] *n* pedagog, pedagogika nazariyachisi, xalq taʼlimi arbobi

educationally [ˌɛdʒuˈkeɪʃ(ə)nəli] *adv* taʼlim nuqtayi nazaridan, pedagogika nuqtayi nazaridan

educationist [ˌɛdʒuˈkeɪʃ(ə)nɪst] = **educationalist**

educative [ˈɛdʒəkətv] *a* tarbiyaviy, taʼlimiy ahamiyatga ega boʻlgan

educator [ˈɛdʒukeɪtə] *n* tarbiyachi, tarbiyalovchi, pedagog, oʻqituvchi, muallim

educate [ɪˈdʒuːs] *v* 1) (*yashirin qobiliyatini, iqtidorini*) koʻrsatmoq; ongini oshirmoq; 2) xulosa chiqarmoq (**from**); 3) kim. ajratmoq, ajratib chiqarmoq

education [ɪˈdʒək(ə)n] *n* 1) (*qobiliyatlarni, imkoniyatlarni*) aniqlash; 2) xulosa; 3) aniqlangan narsa, aniqlangan natijalar

edulcorate [ɪˈdʒɒkoreɪt] *v* 1) yumshamoq (*munosabat va sh. k. haqida*); 2) kim. kislot, tuz va b. dan yuvib tozalamoq

Edwardian [edˈwɔːdiən] *a* ingliz qirollari Eduardlardan birining zamondoshi

eel [iːl] *n* zool. ilonbaliq

eel-buck [iːlbʌk] *n* chetan, qirtil (*baliq tutadigan voronkasimon savat*)

eelpout [iːlpaʊt] *n* zool. beldyuga (*baliq turi*)

eel-spear [iːlspeə] *n* ilonbaliq ovlanadigan uch tishli ayri

eelworm [iːlwɜːm] *n* biol. nematoda (*chugalchangning bir turi*)

e'er [eə] *a* doimo, har doim

eerie, eery [iːəri] *a* dahshatli, vahimoli, qoʻrqinchli; mudhish

efface [ɪˈfeɪs] *v* 1) oʻchirmoq, siyqalanmoq; **the image on the coin is ~d** tangadagi tas-

vir siyqalanib oʻchib ketgan; 2) oʻchirmoq, chizib tashlamoq; **to ~ murals** devoriy rasmni ustidan boʻyab tashlamoq; 3) yoʻq qilmoq, bekor qilmoq; **to ~ the boundaries** chegaralarni yoʻq qilmoq (bekor qilmoq)

effacement [ɪˈfeɪsmənt] *n* artish, oʻchirish, artib tashlash

effect [ɪˈfekt] *l. n* 1) natija, oqibat; **cause and ~** sabab va oqibat; **~s of war** urush oqibatlari; **of no ~, to no ~, without ~** natijasiz; 2) maqsad, moʻljal, niyat; **to this ~** bu maqsadda, buning uchun; 3) taʼsir; **the ~ of light** yorugʻlikning taʼsiri; 4) amalga oshirish, bajarish; **to take ~** kuchga kiritmoq; 5) taʼsir, taassurot; **for ~** taʼsir etish (*taassurot qoldirish*) maqsadida; **general ~** umumiy taassurot; **2. v** 1) amalga oshirmoq, roʻyobga chiqarmoq, bajarmoq, (*hayotga*) tatbiq qilmoq; **to ~ payment** toʻlamoq, toʻlovni amalga oshirmoq; 2) (*bitimni*) tuzmoq, rasmiylashtirmoq; **to ~ a marriage** nikohdan oʻtmoq, nikohni rasmiylashtirmoq

effective [ɪˈfektɪv] *l. n* *harb.* 1) jangchi; 2) *pl* jangovar tarkib; **2. a** 1) haqiqiy, amaliy, foydali, muvaffaqiyatli; ~ **cooperation** foydali (*unumli*) hamkorlik; ~ **control** samarali nazorat; ~ **steps** amaliy qadamlar; 2) amaldagi, ishlab turgan, kuchga ega boʻlgan (*qonun va b. haqida*); **to become ~** kuchga kirmoq; ~ **until the end of the year** faqat yilning oxirigacha amal qiladi

effectless [ɪˈfektləs] *a* natijasiz; qonuniy kuchga ega boʻlmagan; bekor qilingan

effector [ɪˈfektə] *n* *tex.* ijrochi, bajaruvchi organ *yoki* mexanizm

effectual [ɪˈfektʃuəl] *a* 1) taʼsirli, amaliy, haqiqiy, natija beradigan; **an ~ measure** amaliy chora; 2) amaldagi, ishlab turgan, qonuniy kuchga ega boʻlgan

effectuate [ɪˈfektʃueɪt] *v* amalga oshirmoq, ijro qilmoq; **to ~ a conclusion** xulosa chiqarmoq

effectuation [ɪˈfektʃuˈeɪʃ(ə)n] *n* bajarish, amalga oshirish, ijro etish

effeminacy [ɪˈfemɪnəsi] *n* 1) noziklik, ipakoyimlik (*erkak haqida*); erkakka nomunosib noziklik (nazokat); 2) xotinchalishlik

effeminate [ɪˈfemɪnɪt] *l. n* xotinchalish erkak, zaif odam; **2. a** xotinchalish, xotinlarga oʻxshagan

effendi [eˈfendɪ] *n* *turk.* afandi, taqsir, janob

effluent [ɪˈfɛrənt] *a* markazdan qochma *yoki* qochirma, markazdan qochadigan *yoki* qochiradigan; ~ **nerves** harakatlantiruvchi asablar

effervesce [efəˈves] *v* vishillamoq, vijillamoq; ko'piklamoq, ko'pirmoq (*ichimlik to'g'risida*)

effervescence [efəˈves(ə)ns] *n* vishillash, pishillash, shipillash, vijillash

effervescency [efəˈves(ə)nst] = **effervescence**

effervescent [efəˈves(ə)nt] *a* 1) vishillaydigan, pishillaydigan; 2) qaynab toshgan, ko'pirib turgan

effete [ɪˈfi:t] *a* kuchsiz, bo'sh, kuchi (quvati, madori) yo'q

efficacious [ɪfɪˈkeɪʃəs] *a* amaliy natija (foyd) beradigan, ta'sir ko'rsatadigan, ta'sirli, ta'sirchan

efficacy [ɪˈefɪkəsi] *n* samaradorlik, foydalilik, ta'sir ko'rsatish, ta'sirchanlik

efficiency [ɪˈfiʃ(ə)nsi] *n* 1) samaradorlik, unumdorlik, mahsuldorlik; **the ~ of labour** mehnat unumdorligi; 2) amaliylik, ta'sirlik; 3) epchilik, g'ayratlilik, mahoratlilik

efficient [ɪˈfiʃ(ə)nt] *1. n* 1) sabab, birinchi (bosh) sabab; 2) *matem.* faktor, ko'paytuvchi; *2. a* 1) samarali, ta'sirli, amaliy; g'ayratli, epchil; **an ~ worker** mohir va g'ayratli ishchi; 2) maqsadga muvofiq; ~ **distribution** maqsadga muvofiq taqsimot

effigy [ɪˈefɪdʒi] *n* (*relyefli*) tasvir, haykal, portret; **a wax ~** murdan yasalgan haykal

effloresce [ɪfloːˈres] *v* gullay boshlamoq, gulga kirmoq, ochilmoq

efflorescence [ɪfloːˈres(ə)ns] *n* gullash, gul chiqarish, gul ochish, gullash mavsumi, gul ochilgan payt

effluence [ɪfluːəns] *n* 1) oqish, oqib ketish, oqib chiqish, oqib tamom bo'lish; 2) nurlanish, nur sochish, nur chiqarish

effluent [ɪfluːənt] *1. n* 1) boshqa daryo, ko'ldan oqib chiqadigan oqim; 2) tarnov, nov, ariq; *2. a* (*nimadandir*) oqib chiqadigan (tushadigan)

effluvia [ɪfluːviə] *pl of effluvium*

effluvium [ɪfluːviəm] *n* zaharli chirindi bug'lari

efflux [ɪflʌks] *n* oqib chiqib ketish, to'kilib kamayish (*suyuqlik, gazlar haqida*)

effort [ɪfət] *n* zo'r berish, harakat qilish; urinish; **to make an ~** harakat qilib ko'rmoq

effortless [ɪfətɫəs] *a* 1) sust, sustkash; 2) oson, yengil

effrontery [ɪˈfrʌnt(ə)ri] *n* surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik, behayotlik

effulgence [ɪˈfʌldʒ(ə)ns] *n* 1) nur, yog'du, shu'la; 2) nurga to'lalilik, nurafshonlik, nurlilik

effulgent [ɪˈfʌldʒ(ə)nt] *a* 1) nurga to'la, nurafshon, nurlı; 2) porloq, yorqin

effuse *1. n* [eˈfjuːs] to'kish, to'kilish; **much ~ of blood** ko'p qon to'kish; *2. v* [ɪˈfjuːz] to'kmoq, quymoq; to'kilmoq, ag'darmoq, oqizmoq

effusion [ɪˈfjuːz(ə)n] *n* to'kilish, oqish; ~ **of blood** qon oqish

effusive [ɪˈfjuːsɪv] *a* 1) o'zini tiya olmaydigan, tez qizishib ketadigan; 2) (*chetidan*) oqadigan, to'kiladigan, quyiladigan

eft [eft] *n* *zool.* triton (*ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor*)

egad(s) [i(ː)ˈgæd(z)] *int. so'zl.* xudo haqi! xudo ursin! chindan! rostdan ham!

egallitarian [ɪˌgæliˈteəriən] *1. a* teng huquqlilik uchun kurashuvchi; *2. n* teng huquqlilik uchun kurashuvchi kishi

egg [eg] *1. n* tuxum; **a hen's ~** tovuq tuxumi; **powdered ~s** tuxum kukuni; *2. v* 1) tuxum sarig'ini surmoq; 2) *so'zl.* palag'da tuxumlarni otmoq

egg-beater [egˌbi:tə] *n* 1) tuxum ko'pirtirgich; 2) *so'zl. amer.* vertolyot

eggcup [egkʌp] *n* tuxum soladigan kichkina qadah (rumka)

egg-dance [egˌdɑːns] *n* 1) ko'zlar bog'langan holda qo'yib chiqilgan tuxumlar o'rtasida raqs tushish; 2) og'ir vazifa (topshiriq); qaltis ish

egg-flip [egˌflɪp] = **egg-nog**

egghead [egˌhed] *n* aqli (esli) kishi; o'qimishli, ziyoli kishi

egg-nog [egˌnog] *n* vino qo'shib ko'pchitilgan; tuxum qo'shilgan ichimlik

egg-plant [egˌplɑːnt] *n bot.* baqlajon, patinjon

egg-roll [egˌrɔːl] *n amer.* sabzavotli blin-chik

egg-shaped [egˌʃeɪpt] *a* tuxum shaklidagi, tuxumga o'xshaganlar

egg-shell [egˌʃel] *n* 1) tuxum po'chog'i; 2) tez sinadigan narsa; **to walk upon ~s** juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoq

egg-timer [egˌtɪmə] *n* uch daqiqali qum soat (*tuxum pishirish uchun*)

egg-wife [egˌwaɪf] *n* tuxum sotuvchi ayol

egg-white [egˌwaɪt] *n* tuxumning oqi

egplantine [egˌplɑːntɪn] *n bot.* na'matak, itburun

ego [ɪˈgəʊ, ˈegəʊ] *n* xudbinlik, o'z manfaatini ko'zlash

egocentric [ɪˈgəʊˈsentrɪk] *a* egoistik; xudbinlikka oid

egoism [ɪˈgəʊz(ə)m] *n* xudbinlik, o'z manfaatini ko'zlash

egoist [ɪˈgəʊst] *n* xudbin (faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan) odam

- egoistic(al)** [i:ˈgəʊˈɪstɪk(əl)] *a* xudbinlikka oid
- egotism** [ˈegəʊtɪz(ə)m] *n* manmanlik, dimog'dorlik, o'ziga o'ta bino qo'yishlik
- egotist** [egəʊtɪst] *n* o'taketgan xudbin, manman
- ego trip** [i:ˈgəʊtrɪp] *n* so'zl. maqtanchoqlik, katta og'izlik, katta gapirish; **to be on an ~** maqtanmoq, maqtanchoqlik qilmoq, katta gapirmoq
- egregious** [iˈgrɪ:dʒəs] *a* ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan; **an ~ error** qo'pol xato; **an ~ fool** o'taketgan ahmoq
- egress** [iˈɡres] *n* 1) chiqish; 2) *geol.* yer sathiga chiqish
- egression** [iˈɡreɪʃ(ə)n] *n* chiqish, chiqish yo'li, chiqaverish
- egret** [iˈɡrɪt] *n* *zool.* oq qo'ton
- Egyptian** [iˈdʒɪp(ə)n] 1. *a* Misrga, misrlilarga oid; 2. *n* misrlik, misrlik ayol
- Egyptology** [iˈdʒɪpˈtɒlədʒɪ] *n* misrshunoslik
- eh** [eɪ] *int* (so'roq, hayratda qolish, tinglovchining roziligiga umid qilishni ifodalaydi) a? nima? qanday? nima dedingiz? hali shunaqami? shunday emasmi?
- eider** [aɪdə] *n* *zool.* gaga (*Shimoliy qutb suvlarida yashaydigan qimmatbaho patli o'r-dak*)
- eider-down** [aɪdədaʊn] *n* gaga pari
- eidolon** [aɪˈdɒlɒn] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoq; xayolda ko'rinish
- eight** [eɪt] 1. *num. card.* sakkiz; 2. *n* sakkiz raqami
- eighteen** [eɪˈti:n] *num. card.* o'n sakkiz
- eighteenth** [eɪˈti:nθ] 1. *num. ord.* o'n sakkizinchi; 2. *n* o'n sakkizinchi qism
- eighth** [eɪθ] 1. *num. ord.* sakkizinchi; 2. *n* sakkizinchi qism
- eighties** [eɪtɪz] *n pl* (the ~) saksoninchi yillar
- eightieth** [eɪtɪθ] 1. *num. ord.* saksoninchi; 2. *n* saksoninchi qism
- eighty** [eɪtɪ] *num. card.* sakson
- einsteinium** [ˌaɪnˈstɪniəm] *n* kim. eynshteyniy (*kimyoviy element*)
- eirenicon** [aɪˈri:nɪkɒn] *n* *grek.* 1) yarashishga da'vat; 2) tinchlikni qo'llab-quvvatlash rejasi
- eisteddfod** [aɪˈstedfɒd] *n* (*Uelsda*) aystedvodd, har yili bo'ladigan baxshi (*bard*)lar festivali
- either** [aɪðə] 1. *pron. ind.* 1) har bir; 2) qaysini bo'lsa ham; 2. *n* 1) ikkalasidan bittasi; yo unisi, yoki bunisi; ~ **of the two pupils may go to London** bu ikkala o'quvchidan bittasi Londonga borishi mumkin; 2) unisi ham, bunisi ham; 3. *a* 1) u yoki bu, unisi yoki bunisi, ikkalasidan bittasi; 2) ikki ki-
- shidan har biri, har qaysi; 4. *adv* ham (*inkor gaplarda*); **if he does not come, I shall not ~** agar u kelmasa, unda men ham kelmayman
- either... or** [aɪðə... ɔ:] *ej.* yo..., yo...; yoki..., yoki; ~ **come in or go out** yo kiring, yoki chiqing
- ejaculate** [iˈdʒækjʊleɪt] *v* 1) chaqirmoq, hayqirmoq, na'ra tortmoq; xitob qilmoq; 2) otilib chiqmoq, toshib chiqmoq (*suyuqlik haqida*)
- ejaculation** [iˈdʒækjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* xitob, nido, undov, na'ra, hayqiriq; xitob qilish, hayqirish, undash
- eject** [iˈdʒekt] *v* 1) haydamoq, quvmoq, quvib (surib) chiqarmoq; 2) *yur.* surgun qilmoq (**from**)
- ejection** [iˈdʒek(ə)n] *n* 1) *yur.* surgun, bardarg'a, quvg'in; 2) otilib chiqish (*tutun va b. haqida*); 3) vazifasidan (mansabidan) ozod qilish
- ejection seat** [iˈdʒektəˌsi:t] *amer.* = **ejector seat**
- ejectment** [iˈdʒektmənt] *n* *yur.* bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish
- ejector** [iˈdʒektə] *n* *tex.* ejetor (*bug'kuchi bilan ishlaydigan mexanizm*)
- ejector seat** [iˈdʒektəˌsi:t] *n* avtomatik ravishda otib yuboriladigan (*parashutda joylashtirilgan*) kreslo
- eke** [i:k] *adv* so'zl. hamda, yana, shuningdek, shu bilan birga
- el** [el] 1. *n* «L» harfining nomi; 2. *amer.* so'zl. (El) yer ostidagi temir yo'l
- elaborate** 1. *v* [iˈlæbəreɪt] batafsil, puxta ishlab chiqmoq; **to ~ a plan** rejani puxta ishlab chiqmoq; 2. *a* [iˈlæbəreɪt] puxta, muassal ishlab chiqilgan
- elaboration** [iˈlæbəˈreɪʃ(ə)n] *n* (*rejani, loyihani*) puxta ishlab chiqish, tayyorlash; 2) rivojlantirish, aniqlik kiritish, takomillashtirish
- élan, elan** [ˈeɪlɒn, eɪˈlɔ:n] *fr.* *n* tezlik, shiddatlilik; shiddat, shitob
- eland** [ˈi:lænd] *n* *zool.* kanna (*sharqiy va janubiy Afrikada yashaydigan uzun shoxli katta kiyik*)
- elapse** [iˈlæps] *v* tezda o'tib ketmoq, tugab qolmoq (*vaqt haqida*); tugamoq (*muddat haqida*)
- elastic** [iˈlæstɪk] 1. *n* rezina; rezinalangan tasma; rezinalangan shnur; 2. *a* egiluvchan, qayishqoq, prujinasimon
- elasticity** [iˈlæstɪˈtɪzɪ] *n* egiluvchanlik, qayishqoqlik
- elastic-sides** [iˈlæstɪkˌsaɪdz] *n pl* erkaklarning bog'ichli rezina botinkasi

elastoplast [ɪˈlæstə,plɑːst] *n* elastoplast (*bakteriyalarni o'ldiradigan (bakteritsid))* plastir

elate [ɪˈleɪt] *v* kayfiyatni ko'tarmoq, shodlantirmoq

elated [ɪˈleɪtɪd] *a* ruhi ko'tarilgan holda, ko'tarinki (kayfiyat) ruh bilan

elation [ɪˈleɪʃ(ə)n] *n* katta zavq-shavq, xursandlik, ruhiy bardamlik, zo'r quvonch

elbow [ˈelbəʊ] **1.** *a* tirsak; **2.** *v* tirsak bilan itarmoq, turtmoq

elbow-chair [ˈelbəʊˈtʃeə] *n* suyanchiqli kreslo

elbow-grease [ˈelbəʊˌɡriːs] *n* og'ir mehnat, og'ir ish

elbow-rest [ˈelbəʊrest] *n* tirsakqo'ygich, tirsaklagich (*kursining tirsak qo'yiladigan yondori*)

elbow-room [ˈelbəʊruːm] *n* kenglik, yalanglik, sayxon yer (*harakat qilish uchun*)

eld [eld] *n* so'zl. *she'r. 1*) keksalik; qarilik; **2)** qadim, o'tmish; **monuments of** ~ o'tmish yodgorliklari

elder I [ˈeldə] **1.** *n pl* kattalar, katta yoshlilar; **2.** *a* katta (*yoshi yoki mavqeyi jihatidan*); **the ~ brother** katta aka

elder II [ˈeldə] *n* bot. buzina, marjon (*qizil mevali buta yoki daraxt va uning mevasi*)

elderberry [ˈeldəb(ə)rɪ] *n* buzina (marjon) mevasi

elderly [ˈeldəli] *a* yoshi qaytgan, qariy boshlagan, keksaygan; yoshi ulg'aygan, ulug', keksa

elder statesman [ˌeldəˈsteɪtsmən] *n* (*hozir nafaqada bo'lgan*) keksa davlat arbobi; oqsoqol (*tajribali davlat arbobi yoki siyosiy arbob*)

eldest [ˈeldɪst] *a* eng katta, to'ng'ich

El Dorado, Eldorado [ˌeldə ˈrɑːdəʊ] *n* tar. Eldorado, afsonaviy boyliklar mamlakati

eldritch [ˈeldrɪtʃ] *a* **1)** dahshatli; vahimali; **2)** aql bovar qilmaydigan, mo'jizaviy

elecampa [ˌelɪkæmˈpeɪn] *n* bot. ko'p yillik o'simlik

elect [ɪˈlekt] **1.** *a* **1)** saylanma; tanlangan, saralangan, eng yaxshisi; **2)** tanlab olingan, saylangan; **the mayor** ~ yangi (endigina saylangan) mer; **2.** *v* **1)** (*ovoz berish yo'li bilan*) saylamoq; **2)** tanlamoq

electable [ɪˈlektəb(ə)l] *a* **1)** saylash huquqiga ega bo'lgan; **2)** saylanishga arziydigan

electee [ˌlektˈiː] *n* (*ovoz berish yo'li bilan*) saylangan

election [ɪˈlektʃ(ə)n] *n* saylov, saylash; **general** ~ umumiy saylovlar

electioneer [ɪˌlektʃəˈniə] *v* saylovoldi kampaniyasini o'tkazmoq; nomzod uchun tashviqot (ishlarini) olib bormoq

electioneering [ɪˌlektʃəˈni(ə)rɪŋ] *n* saylovoldi kampaniyasi

elective [ɪˈlektɪv] **1.** *n* amer. fakultativ fan (*maktabda, kollejda*); **2.** *a* **1)** saylovga oid; saylanadigan; saylovga taalluqli; ~ **office** saylov yo'li bilan tayinlanadigan vazifa; **2)** saylash huquqiga ega bo'lgan; **an ~ body** saylovchilar; **3)** fakultativ, majburiy bo'lmagan

elector [ɪˈlektə] *n* **1)** saylovchi; **2)** saylashga vakil qilingan kishi

electoral [ɪˈlekt(ə)rəl] *a* saylovga oid, saylov; ~ **law** saylov qonuni

electorate [ɪˈlekt(ə)rət] *n* **1)** saylovchilar tarkibi, saylovchilar; **2)** saylov okrugi

electric [ɪˈlektɪk] *a* **1)** elektrga oid; **by ~ light** elektr yorug'ida; **2)** to'qinlantiruvchi, ajoyib, hayajonlantiruvchi

electrical [ɪˈlektɪk(ə)l] *a* elektrga oid, elektr, elektrik; ~ **engineering** elektrotexnika (*elektrdan amaliy maqsadlar uchun foydalanish to'g'risidagi fan*)

electric blanket [ɪˌlektɪk ˈblæŋkɪt] *n* elektrodoyol (*elektrisitgich elementli adyol*)

electric blue [ɪˌlektɪk ˈbluː] *n* ko'kimtir kulrang

electric chair [ɪˌlektɪk ˈtʃeə] *n* elektr stul (*o'lini jazosiga hukm qilinganlarni qatl qilish uchun qo'llaniladigan moslama*)

electric guitar [ɪˌlektɪkɡɪˈtɑː] *n* elektrogitara

electrician [ɪˌlektˈrɪʃ(ə)n] *n* **1)** elektrotexnik (*elektrotexnika mutaxassisi*); **2)** elektromontyor

electricity [ɪˌlektˈtrɪsɪti] *n* elektr, elektr quvvati, elektr yorug'i, elektr chiroqlari

electric razor [ɪˌlektɪk ˈreɪzə] = **electric shaver**

electric shaver [ɪˌlektɪk ˈʃeɪvə] *n* elektr us-tara

electric shock [ɪˌlektɪk ˈʃɒk] *n* elektroshok (*tokning ta'siri natijasida organizm funksiyalarining og'ir xastalanishi, buzilishi*)

electrification [ɪˌlektɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* fiz. elektr energiya bilan ta'minlash, elektrlash

electrify [ɪˈlektɪfaɪ] *v* **1)** elektrlashtirmoq; **2)** zaryadlamoq; **3)** ilhomlantirmoq, kuch bag'ishlamoq, hayajonlantirmoq

electrization [ɪˌlektɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* **1)** fiz. elektrlash; zaryadlash; **2)** tib. elektr bilan davolash

electrize [eˈlektɪraɪz] = **electrify**

electro [ɪˈlektɹəʊ] so'zl. „electroplate“ va „electrotype“ so'zlarining qisqartmasi

electrocardiogram [ɪˌlektɹəʊ kɑːdɪəgræm] *n* tib. elektrokardiogramma

- electrochemistry** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈkɛmɪstrɪ] *n* elektrokimyo (*kimyoning elektririk va kimyoviy jarayonlarining o'zaro bog'lanishini o'rganadigan bo'limi*)
- electrocute** [ɪˈlektʁəkju:t] *v* 1) elektr toki bilan o'ldirmoq; 2) elektr stulida o'ldirmoq
- electrocution** [ɪˈlektʁəˈkju:ʃ(ə)n] *n* elektr toki (quvvati) bilan o'ldirish
- electrode** [ɪˈlektʁəʊd] *n* elektrod
- electrodynamics** [ɪˈlektʁə(ʊ)daɪˈnæmɪks] *n* elektrodinamika (*fizikaning bir bo'limi*)
- electrolier** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈliə] *n* qandil, chilchiroq
- electrolyse** [ɪˈlektʁə(ʊ)laɪz] *v* elektroliz yo'li bilan ajratmoq
- electrolysis** [ɪlekˈtrɒlɪsɪs] *n* 1) elektroliz (*moddani shu modda eritmasi orqali elektr toki o'tkazib, tarkibiy qismlarga ajratish*); 2) (*o'simta, tosh va b. ni*) elektr toki vositasida yo'q qilish
- electrolyte** [ɪˈlektʁə(ʊ)laɪt] *n* elektrolit (*elektr toki o'tkazilganda tarkibiy qismlarga ajraladigan kimyoviy modda*)
- electromagnet** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈmæɡnɪt] *n* elektromagnit
- electromagnetic** [ɪˈlektʁə(ʊ)mæɡˈnetɪk] *a* elektromagnitizmga oid, elektromagnitizm; ~ *waves* elektromagnitik to'lqinlar
- electromechanical** [ɪˈlektʁə(ʊ)mɪˈkænɪk(ə)] *a* elektromexanikaga oid, elektromexanik
- electrometallurgy** [ɪˈlektʁə(ʊ)mɛˈtælədʒɪ] *n* elektrometallurgiya (*metallar va qotishmalarni elektr toki yordamida olishning sanoat usullarini yaratish va ulardan amalda foydalanish bilan shug'ullanadigan metallurgiya sohasi*)
- electrometer** [ɪlekˈtrɒmɪtə] *n* elektrometr (*elektr kuchlanishini o'lchaydigan asbob*)
- electromotive** [ɪˈlektʁəʊˈmɔʊtɪv] *a* elektr (toki) hosil qiluvchi; ~ *force* elektr (toki) hosil qiluvchi kuch
- electromotor** [ɪˈlektʁəˈmɔʊtə] *n* elektrodvigatel
- electron** [ɪˈlektʁɒn] *n* fiz. 1. *n* elektron (*manfiy elektr zaryadli elementar zurracha*); 2. *attr.* elektronga oid, elektron...; *an* ~ *microscope* elektron mikroskop; ~ *beam* elektron tarami
- electronegative** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈnegətɪv] *a* manfiy zaryadli
- electronic** [ɪˈlekˈtrɒnɪk] *a* fiz. elektronga oid, elektron; ~ *music* elektron musiqa; *an* ~ *lamp* elektron lampa; *an* ~ *watch* elektron soat; *an* ~ *device* elektron moslama (asbob)
- electronic mail** [ɪˈlekˈtrɒnɪkmeɪl] = *e-mail*
- electronics** [ɪˈlekˈtrɒnɪks] elektronika (*fizikaning elektron jarayonlar haqidagi bo'limi*)
- electron volt** [ɪˈlektʁɒnˌvɔʊlt] *n* fiz. elektronvolt (*yadro fizikasi va atom fizikasida: energiya o'lchash birligi*)
- electropathy** [ɪˈlekˈtrɒpəθɪ] *n* tib. elektr (toki) bilan davolash
- electrophone** [ɪˈlektʁəfəʊn] *n* elektrofon, elektr toki bilan ishlaydigan musiqiy asbob
- electroplate** [ɪˈlektʁə(ʊ)pleɪt] *n* galvanivatsiya qilish (1. *tib.* galvani toki bilan davolash; 2. *tex.* galvani toki yordamida biror metallning sirtini boshqa metall bilan qoplash)
- electroplating** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈpleɪtɪŋ] *n* tex. galvani toki yordamida biror metallning sirtini boshqa metall bilan qoplash
- electropositive** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈpɒzɪtɪv] *a* musbat zaryadli
- electroscope** [ɪˈlektʁəˌskəʊp] *n* elektroskop (*elektr zaryadlarini aniqlaydigan asbob*)
- electrostatics** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈstætɪks] *n* elektrostatika (*fizikaning elektr zaryadlari haqidagi bo'limi*)
- electrotherapy** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˈθerəpɪ] *n* elektroterapiya (*elektr toki bilan davolash*)
- electrotype** [ɪˈlektʁə(ʊ)ˌtaɪp] *n* poligr. 1) elektrotipiya; 2) galvano
- electuary** [ɪˈlektʃuəri] *n* tib. elektuariy, dorivor yo'ng'ichqa
- elemosynary** [ˌeliˈmɒsɪn(ə)rɪ] *a* kit. 1) sadaqa bilan kun ko'radigan; 2) muhojirlarga yordam beruvchi; xayrli
- elegance** [ˈɛlɪɡəns] *n* nafislik, noziklik, zebolik; *to dress with* ~ *did* bilan kiyinmoq
- elegancy** [ˈɛlɪɡənsɪ] = *elegance*
- elegant** [ˈɛlɪɡənt] 1. *a* 1) nafis, zebo; 2) bashang (orasta) kiyingan; 2. *n* *so'zl.* modaga berilgan kishi, modaparast, olifta, bashang, satang
- elegantly** [ˈɛlɪɡəntlɪ] *adv* bashang (orastalik) bilan; bashang, orasta
- elegiac** [ˌeliˈdʒaɪək] 1. *a* mungli, g'amgin; 2. *n* *pl* mungli (g'amgin) she'rlar
- elegize** [ˈɛlɪdʒaɪz] *v* mungli lirik she'rlar yozmoq (*upon*)
- elegy** [ˈɛlɪdʒɪ] *n* 1) elegiya; 2) mungli ohang, mungli lirik she'r
- element** [ˈɛlɪmənt] *n* 1) element, tarkibiy qism; 2) kim. element; 3) *pl* asoslar; boshlang'ich (dastlabki) ma'lumotlar
- elemental** [ˌeliˈmɛntl] *a* 1) tabiiy, tabiat kuchi bilan bo'ladigan; 2) asosiy, eng muhim
- elementary** [ˌeliˈmɛnt(ə)rɪ] *a* boshlang'ich, ibtidoiy, dastlabki
- elephant** [ˈɛlɪfənt] *n* 1) zool. fil; 2) *so'zl.* fil suyagi
- elephantiasis** [ˌɛlɪfənˈtəʊsɪs] *n* tib. fillashuv, yiriklashuv (*teri va teriosti kletchat-*

kalarining keskin qalinlashuvi tufayli biror a'zoning, ko'pincha, oyoqlarning g'oyat katta, yirik bo'lib ketish kasalligi); elefantiazis

elephantine [ˌɛlɪ fæntaɪn] *a* 1) filga oid, fil; 2) filga o'xshash, beso'naqay, o'g'ir (yo'g'on); 3) kishiga qattiq botadigan, dag'al, qo'pol; **an ~ humour** qo'pol (qaltis) hazil

Eleusinian mysteries [ˌɛljʊː sɪmɪən ˈmɪstɪ(ə)rɪz] *n pl yun. diniy bayram (Qadimiy Yunonistonning Eleusin shahrida har yili Persefon sharafiga bag'ishlab o'tkaziladigan diniy bayram)*

elevate [ˈɛlɪvət] *v* 1) (Javozimda, unvonda) ko'tarmoq, oshirmoq; 2) ko'tarmoq, balandroq qilmoq; **to ~ the voice** ovozini ko'tarmoq; 3) qo'zg'altirmoq, zavq-shavqini oshirmoq; kayfiyatni ko'tarmoq

elevated [ˈɛlɪvətɪd] *a* 1) baland, yuqori; 2) yer ustidagi; 3) ko'tarinki, yuksak, buyuk; 4) hayajonlangan; ko'tarinki ruhda

elevating [ˈɛlɪvətɪŋ] *a* 1) ko'taradigan, oshiradigan; 2) ma'rifiy, tarbiyaviy

elevation [ˌɛlɪˈvɛɪʃ(ə)n] *n* 1) ko'tarilish, oshish; **-s and depressions** yuksalishlar va tushishlar; 2) yuksaklik, ulug'vorlik; **the ~ of style** uslubning ulug'vorligi; 3) tepalik, balandlik; 4) (dengiz sathidan) balandlik

elevator [ˈɛlɪvɪtə] *n* 1) yuk ko'targich (mashina, mexanizm, qurilma); 2) amer. lift

elevator operator [ˈɛlɪvɪtə ˈɒp(ə)reɪtə] *n* amer. liftchi

eleven [ˈɪlɪv(ə)n] *n num. card.* o'n bir

elevenuses [ˈɪlɪv(ə)nɪzɪz] *n so'zl.* ertalab soat o'n birlarda qilinadigan yengil nonushta

eleventh [ˈɪlɪv(ə)nθ] 1. *num. ord.* o'n birinchi; **at the ~ hour** so'nggi daqiqada; 2. *n* 1) o'n birinchi qism; 2) (the ~) o'n birinchi sana

elf [ɛlf] *n (pl elves [ɛlvz])* 1) folk. elf (Qadimgi Skandinaviya mifologiyasida: ruh, pari kabi afsonaviy maxluq); 2) juda past bo'yli odam; 3) to'polonchi, shum (kishi)

elfin [ˈɛlfɪn] *a* 1) elflarga oid; 2) sehrlaydigan, sehrlı

elf-lock [ˈɛlfɒk] *n* chigal sochlar

elicit [ɪˈlɪsɪt] *v* 1) olmoq, aniqlamoq; talab qilmoq; **to ~ truth by discussion** bahslashib haqiqatni aniqlamoq; 2) erishmoq; **to ~ reply** javob olishga erishmoq

elide [ɪˈlaɪd] *v* 1) qo'yib yubormoq, chiqarmoq; 2) og'izga olmay (chetlab) o'tmoq; e'tiborsiz qoldirmoq; 3) tilsh. talaffuz qilyotganda (bo'g'in yoki untini) tushirib qoldirmoq

eligibility [ˌɛlɪdʒəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) saylash huquqi; 2) maqbullik, ma'qullik; muvofiqlik; yaroqlilik

eligible [ˈɛlɪdʒəb(ə)l] *a* ma'qul, muvofiq keladigan; **an ~ young man** so'zl. munosib qalliq

Elijah [ɪˈlɪdʒə] *n bibl.* Iliya (payg'ambar)

eliminate [ɪˈlɪmɪnət] *v* 1) bartaraf qilmoq, tugatmoq; **to ~ all unnecessary words** ortiqcha so'zlarni olib tashlamoq; 2) yo'q qilmoq, tugatmoq; **to ~ war** urushlarga barham bermoq; 3) e'tiborsiz qoldirmoq; **to ~ the personal factor** shaxsiy fikrlarni chetga surib qo'ymoq; 4) fiziol. organizmdan chiqarib tashlamoq

elimination [ɪˈlɪmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) tugatish, bartaraf qilish, yo'q qilish; 2) inkor (rad) etish

eliminator [ɪˈlɪmɪnətə] *n* 1) (suv va b. suyuqlikni) ajratuvchi, ayiruvchi; 2) tex. separator (suyuq yoki qattiq jismlar tarkibidagi aralashmani ajratuvchi asboblarning umumiy nomi)

elision [ɪˈlɪz(ə)n] *n* tilsh. eliziya (fonetikada: so'zdagi oxirgi unli tovushning tushib qolishi)

elite, elite [eɪˈli:t, ɪˈli:t] *n* sara, eng yaxshi namoyanda (kishilar haqida)

elixir [ɪˈlɪksə] *n* eliksir (ajoyib ta'sir etadigan ichimlik); panatseya (alximiklar tomonidan go'yo har qanday kasalga davo deb qaralgan dori); **~ of life** obi hayot (afsonaviy hayotbaxsh ichimlik)

Elizabethan [ɪˈlɪzəˈbi:θ(ə)n] 1. *a* Angliya qirolichasi Yelizaveta I davriga (zamoniga) oid; 2. *n* Yelizaveta zamondoshi; Angliya qirolichasi Yelizaveta I davridagi shoir, dramaturg, davlat arbobi

elk [ɛlk] *n zool.* los (bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon)

ell [ɛl] *n* 1) tar. el (uzunlik o'lchovi = 113 sm); 2) uyning qanoti (tomoni)

ellipse [ɪˈlɪps] *n* mat. ellips (berk egri chiziq); oval (tuxumsimon cho'ziq, yassi shakl)

ellipses [ɪˈlɪpsɪz] *pl of ellipsis*

ellipsis [ɪˈlɪpsɪs] *n (pl -ses [-sɪz])* 1) tilsh. ellipsis (so'z yoki gap bo'lagining gapda tushib qolishi); 2) harflar yoki so'zlarning tushirib qoldirilganligini bildiruvchi belgi sifatidagi tire (—), ko'quqta (...) yoki yulduzchalar (***)

elliptic(al) [ɪˈlɪptɪk(əl)] *a* tilsh. ellipsisga oid, elliptik, to'liqsiz, qisqargan (gap haqida)

elm [ɛlm] *n bot.* qayrag'och, bujun

elocution [ˌɛləkju:ʃ(ə)n] *n* notiqlik san'ati; notiqlik

elongate [ɪˈlɒŋɡeɪt] 1. *a* uzaytirilgan, cho'zilgan; 2. *v* uzaytirmoq, cho'zmoq

elongation [ɪˈlɒŋˈɡeɪʃ(ə)n] *n* uzaytirish, cho'zish, cho'zilish, uzayish

- elope** [ɪˈləʊp] *v* 1) birovdan qochib yurmoq; o'zini olib qochmoq; 2) sevgani bilan qochib ketmoq
- elopement** [ɪˈləʊpmənt] *n* 1) (sevgani bilan) qochish, qochib ketish; 2) yashirincha qochish
- eloquence** [ˈeləkwəns] *n* notiqlik, so'zga ustalik
- eloquent** [ˈeləkwənt] *a* 1) gapga usta, notiq, so'zga chechan; **an** ~ **speech** ta'sirli nutq; 2) ifodali, ma'noli, ma'nodor; **an** ~ **look** ma'noli (ma'nodor) qarash
- else** [els] *adv pron.* yana, boshqa, tag'in, buning ustiga, shu bilan birga, -dan tashqari
- elsewhere** [elsˈweə] *adv* boshqa bir yerda; yana bir yerda
- elucidate** [ɪˈluːsɪdeɪt] *v* tushuntirmoq, tushuntirib bermoq; **to** ~ **a text** matnini sharhlamoq
- elucidation** [ɪˈluːsɪdeɪʃ(ə)n] *n* tushuntirish, anglatish, tushuntirib berish, (matnini) sharhlash
- elucidative** [ɪˈluːsɪdeɪtɪv] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...
- elucidatory** [ɪˈluːsɪdeɪt(ə)rɪ] = **elucidative**
- elude** [ɪˈluːd] *v* 1) qochmoq, o'zini chetga olmoq; o'zini olib qochmoq; 2) bo'yin tovlamoq, bosh tortmoq
- elusion** [ɪˈluːʒ(ə)n] *n* bo'yin tovlash, bosh tortish
- elusive** [ɪˈluːsɪv] *a* tutqich bermaydigan; gapni chalg'itadigan, to'g'ri javobdan qochadigan; noaniq; mujmal; ~ **memory** sust xotira
- elusory** [ɪˈluːs(ə)rɪ] *a* tutqich bermaydigan, ushlab (qo'lga tushirib) bo'lmaydigan
- elutriate** [i(:)ˈl(j)uːtrɪeɪt] *v kin.* yuvmoq, yuvib qo'yimoq; yuvib tozalamoq, yuvib tashlamoq
- eluvium** [i(:)ˈ(j)uːvɪəm] *n geol.* eluviy (tog' jinstari nurashi mahsuli)
- elver** [ˈelvə] *n zool.* yosh ilonbaliq
- elves** [elvz] *pl of elf*
- elvish** [ˈelvɪʃ] *a* 1) sehrlaydigan, sehrlı; 2) kichkina, jajji
- Elysium** [ɪˈlɪzɪəm] *n yun. mif.* elizium, eliziy; baxtiyor kishilarning narigi dunyodagi maskani; jannat
- elytra** [ˈelɪtrə] *pl of elytron*
- elytron** [ˈelɪtrɒn] *n* qanot-qalqon, qattiq qanot (qo'ng'iz va hasharotlarda)
- Elzevir** [ˈelzɪvɪə] *n* 1) elzevir (XVI - XVII asrlarda Gollandiyada nashr etilgan kitob); 2) *attr.* elzevirga oid, elzevir...; ~ **type** elzevir shrifti
- em** [em] *n* „M“ harfining nomi
- emaciate** [ɪˈmeɪʃɪeɪt] *v* holdan toydirmoq, darmonini quritmoq
- emaciated** [ɪˈmeɪʃɪeɪtɪd] *a* holdan toygan, darmoni qurigan, ozg'in, nimjon; ~ **soil** oriq yer
- emaciation** [ɪˈmeɪʃɪeɪʃ(ə)n] *n* ozib (oriqlab) ketish, ozib-to'zish, oriqlik
- e-mail** [ˈiːmeɪl] 1. *n* elektron pochta; 2. *v* elektron pochta orqali xabar jo'natmoq
- emanate** [eməˈneɪt] *v (from)* sodir bo'lmoq, yuz bermoq, kelib chiqmoq
- emanation** [eməˈneɪʃ(ə)n] *n* sodir bo'lish, paydo bo'lish, kelib chiqish, yaratilish
- emancipate** [ɪˈmænsɪpeɪt] *v* 1) (qaramlikdan, qullikdan) ozod qilmoq; 2) *yur.* yoshiga (balog'atga) yetgan deb e'lon qilmoq, ota-ona qaramog'idan ozod qilmoq
- emancipation** [ɪˈmænsɪpeɪʃ(ə)n] *n* (qullik, qaramlik va b. dan) ozod qilish; ~ **of slaves** qullarni ozod qilish; ~ **from slavery** qullikdan ozod qilish
- emancipationist** [ɪˈmænsɪˈpeɪʃ(ə)nɪst] *n* ozod qilish (erkinlikka chiqarish, erksizlikdan qutqarish) tarafdori bo'lgan kishi
- emancipist** [ɪˈmænsɪpɪst] *n avstral.* oldin surgunda bo'lgan kishi
- emasculate** [ɪˈmæskjuleɪt] *v* 1) bichmoq, axta qilmoq; 2) kuchsizlantirmoq, zaiflashtirmoq
- emasculation** [ɪˈmæskjuˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) axtalash, bichish; 2) kuchsizlantirish, zaiflashtirish
- embalm** [ɪmˈbɑːm] *v* mo'miyolamoq (*maxsus moddalar yordami bilan murdani chirimaydigan qilmoq*)
- embalment** [ɪmˈbɑːmmənt] *n* mo'miyolash
- embank** [ɪmˈbæŋk] *v* damba bilan o'ramoq, damba bilan to'sib (bo'g'ib) qo'yimoq
- embankment** [ɪmˈbæŋkmənt] *n* damba, ko'tarma; to'siq, g'ov
- embargo** [emˈbɑːgəʊ] *n (pl -oes [-əʊz])* 1) taqiq, (olib kirish, olib chiqish, kirishni) taqiqlash; 2) kema yoki uning yukini hibsga olish; 3) taqiq, to'siq; 4) embargo (*chet el mollarini mamlakatga keltirish yoki mamlakattan chiqarishning davlat tomonidan taqiqlab qo'yilishi*)
- embark** [ɪmˈbɑːk] *v* kemaga yuklamoq (ortmoq); 2) kemaga yoki samolyotga o'tirmoq; 3) kemada (*biror yerga*) jo'natmoq (**for**)
- embarkation** [ˌembaːˈkeɪʃ(ə)n] *n* kemaga yoki samolyotga chiqish
- embarrass** [ɪmˈbærəs] *v* 1) tashvishga solmoq, shoshiltirib qo'yimoq, garang qilib qo'yimoq; 2) uyaltirmoq; 3) xalaqit bermoq, to'sqinlik qilmoq; 4) (*ishni, masalani*) murakkablashtirmoq, chigallashtirmoq
- embarrassed** [ɪmˈbærəst] *a* 1) qiyin, tang, og'ir; 2) xijolatda qolgan, uyatli qolgan

- embarrassing** [ɪmˈbærəsɪŋ] *a* qiyinchilik tugʻdiradigan, shoshitirib qoʻyadigan, garrang qiladigan; *an - situation* noqulay holat
- embarrassingly** [ɪmˈbærəsɪŋli] *adv* hayratga soladigan (hayratda qoldiradigan, esankiratib qoʻyadigan, hayratomuz, hayratlanarli) tarzda
- embarrassment** [ɪmˈbærəsmənt] *n* 1) xijolat boʻlish, uyalib qolish, sarosimaga tushish, dovdirash; 2) mushkul ahvolda qolish; 3) xalal, xalaqit, toʻsiq, toʻsqinlik
- embassy** [embəsi] *n* 1) elchixonat; 2) elchilar, vakillar
- embattle** [ɪmˈbætl] *v* 1) jangovar tartibda qurmoq; jangovar tayyorgarlikka keltirmoq; 2) *tar.* istehkomlarda, qalʼa devorlaridagi tuynuklarda turib qalʼa, minora va b. ning devorlarini himoya (mudofaa) qilmoq
- embay** [ɪmˈbeɪ] *v* 1) qurshab olmoq, oʻrab olmoq, oʻrtaga olmoq; 2) (*kemani*) koʻrfazga olib kirmoq
- embed** [ɪmˈbed] *v* 1) oʻyib oʻrnatmoq, ichiga (orasiga, oʻrtasiga) joylashtirmoq; 2) jo boʻlmoq, saqlanib qolmoq
- embellish** [ɪmˈbelɪʃ] *v* 1) bezamoq, bezatmoq, yasatmoq; 2) pardoz berib (bezab) gapirmoq, boʻrtirib gapirmoq; (*hikoya, ertak va b. ni*) xayoliy voqealar bilan bezamoq
- embellishment** [ɪmˈbelɪʃmənt] *n* bezash, bezatish
- ember** [ˈembə] *n* choʻgʻ, oʻt
- Ember days** [ˈembədəɪz] ibodat qilish va roʻza tutish kunlari (*ingliz katolik cherkovlarida*)
- ember-geese** [ˈembə,ɡuːs] *n* (*pl -geese* [-ɡiːs]) *zool.* gagara (*Shinolda yashaydigan quyuq patli yirik suv qushi*)
- embezzle** [ɪmˈbez(ə)l] *v* (*oʻzgalat pulini*) oʻzlashtirmoq, sarflab yubormoq
- embezzlement** [ɪmˈbez(ə)lmənt] *n* sarf qilish; begona mulk va pulni oʻzlashtirish
- embitter** [ɪmˈbɪtə] *v* 1) gʻazablantirmoq, gʻazabini keltirmoq, qattiq xafa qilmoq; 2) (*hayotni*) zaharlamoq, buzmoq, xira qilmoq
- emblazon** [ɪmˈbleɪz(ə)n] *v* 1) gerbni tasvirlab (taʼriflab) bermoq; 2) juda ham maqtab yubormoq, rosa taʼrif-tavsif qilmoq, koʻklarga koʻtarmoq
- emblem** [ˈembləm] *n* timsol, nishon, belgi, emblema; *gerb*; **the national - of the Republic of Uzbekistan** Oʻzbekiston Respublikasining davlat gerbi
- emblematic(al)** [embləˈmæʃ(ə)l] *a* 1) simbolik, ramziy; 2) ramzlar (timsollar) bilan; ramzlar orqali, timsollar vositasida
- emblemize** [emˈbleməɪz] *v* timsol (ramziy ishora) boʻlib xizmat qilmoq, ramziy boʻlmoq
- embodied** [ɪmˈbɒdɪd] *a* 1) bitimdagi, bitimda aks etgan; 2) oʻzida mujassamlashtirgan, timsol boʻla oladigan
- embodiment** [ɪmˈbɒdɪmənt] *n* 1) timsol, mujassam; 2) jonli obraz orqali mujassamlashtirish
- embody** [ɪmˈbɒdɪ] *v* 1) gavdalandirmoq, mujassamlantirmoq; 2) jonli qilib koʻrsatmoq; 3) oʻz ichiga olmoq; 4) birlashtirmoq, qoʻshmoq
- embolden** [ɪmˈbɔʊld(ə)n] *v* dalda bermoq, ruhlantirmoq; gʻayrat bagʻishlamoq
- embolism** [ˈembɒlɪz(ə)m] *n* emboliya (*qon tomirlarining bekilib qolishi kasalligi*)
- embonpoint** [ˌɛmbɒnˈpwæŋ] *n* *fr.* toʻlalik, toʻliqlik, semizlik
- embosom** [ɪmˈbuz(ə)m] *v* 1) bagʻriga bosmoq; 2) (*bagʻrida, yuragida*) ardoqlamoq, saqlamoq
- emboss** [ɪmˈbɒs] *v* 1) peshlamoq; 2) zarb qilmoq, bosib naqsh solmoq
- embouchure** [ˌɛmbuˈʃʊə] *n* 1) *mus.* mundshuk (*puflab chalinadigan asboblarining ogʻizga olinadigan qismi*); 2) daryoning quyilish joyi; 3) (*vodiyga, daraga*) kirish yoʻli
- embowel** [ɪmˈbaʊəl] *v* ichak-chovogʻini olib tashlamoq, ichak-chovoqdan tozalamoq
- embower** [ɪmˈbaʊə] *v* bekitmoq, yashirmoq, soya solmoq
- embrace** [ɪmˈbreɪs] *v* 1) quchoqlamoq, quchogʻiga olmoq, bagʻriga bosmoq; 2) (*imkoniyatdan*) foydalanmoq, foydalanib qolmoq; 3) (*dinni*) qabul qilmoq; 4) oʻz ichiga olmoq, qamrab olmoq; 5) (*kashni*) tanlamoq
- embracery** [ɪmˈbreɪs(ə)rɪ] *n* *yur.* sudya yoki sud maslahatchilariga noqonuniy tarzda bosim, tazyiq oʻtkazish
- embranchment** [ɪmˈbrɑːnt[mənt] *n* shox, butoq, novda
- embrangle** [ɪmˈbræŋɡl] *v* adashtirmoq, chalgʻitmoq, boshini aylantirmoq, gangitib qoʻymoq
- embrasure** [ɪmˈbreɪʒə] *n* 1) *harb.* tuynuk, shinak (*qoʻrgʻon devorlarida*); 2) *meʼmor.* devordagi teshik (*eshik, deraza va sh. k. ning oʻrni*)
- embrittle** [ɪmˈbrɪtl] *v* 1) tez sinadigan (moʻrt) qilmoq; 2) moʻrt boʻlib qolmoq; moʻrtlashmoq
- embrocate** [ˈembɾə(ʊ)keɪt] *v* 1) suyuq maham surkamoq; 2) ogʻrigan joyga suyuq dori yoki issiq suvga hoʻllangan bint qoʻymoq

- embrocation** [ˌembɾəˈkeɪʃ(ə)n] *n* surkaydigan suyuq malham dori
- embroider** [ɪmˈbrɔɪdə] *v* gul (kashta) bilan bezamoq; gul (kashta) tikmoq
- embroidery** [ɪmˈbrɔɪd(ə)rɪ] *n* 1) gul (kashta) tikish; 2) tikilgan narsa, ish; kashta
- embroil** [ɪmˈbrɔɪl] *v* chalkashtirmoq, chuvalashtirmoq
- embroilment** [ɪmˈbrɔɪlmənt] *n* chigallik, chalkashlik, chatoqlik; chalkashtirish
- embrown** [ɪmˈbraʊn] *v* jigarrang yoki qoramtir rang bermoq
- embryo** [ˈembriəʊ] *n* (pl -os [-əʊz]) 1) *biol.* embrion (*pusht, homila*); 2) *bot.* kurtak; 3) boshlang'ich holat
- embryology** [embriˈɒlədʒɪ] *n* embriologiya (*biologiyaning embrionlar rivojlanishini o'rganadigan bo'limi*)
- embryonic** [ˌembriˈɒnɪk] *a* 1) embrionga oid, embrion holidayi; 2) yetilmagan, xom, g'o'r; 3) rivojlanmagan
- embus** [ɪmˈbʌs] *v* avtomobilga o'tirmoq, yuklamoq
- emcee** [ˌemˈsi:] *n* *amer. so'zl.* (*konsert, ko'r-satuv va b. ni*) boshlovchi; olib boruvchi
- emend** [i(:)ˈmend] *v* (*matni*) tuzatmoq, to'g'rilamoq; o'zgartishlar kiritmoq; xato (*kamchilik*)larni bartaraf qilmoq
- emendate** [ˈi:mendɪt] = **emend**
- emendation** [ˌi:mənˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) (*adabiy asar va b. ni*) to'g'rilash, yaxshilash; 2) (*mamdagi*) xato va har xilliklarni bartaraf qilish
- emerald** [ˈem(ə)rəld] 1. *n* 1) *min.* zumrad; 2) och yashil rang, yam-yashil rang; 2. *a* zumradga oid, zumraddan qilingan, zumrad qadalgan, zumrad ko'zli
- emerge** [ɪˈmɜ:dʒ] *v* (**from**) paydo bo'lmoq, ko'rinoq; (*qayerdandir*) chiqmoq
- emergence** [ɪˈmɜ:dʒ(ə)ns] *n* chiqish, paydo bo'lish
- emergency** [ɪˈmɜ:dʒ(ə)nsɪ] *n* 1) kutilmagan hodisa; zaruriyat; 2) favqulodda vaziyat, mushkul ahvol
- emergency door, emergency exit** [ɪˈmɜ:dʒ(ə)nsɪˌdɔː, -egzɪt] *n* avariya holatida ishlatish uchun mo'ljallangan chiqish yo'li (*yoki qismi*)
- emergent** [ɪˈmɜ:dʒ(ə)nt] *a* (**from**) kutilmagan paydo bo'ladigan
- emeritus** [ɪˈmerɪtəs] *a* *lot.* xizmat ko'rsatgan, faxriy unvoni bo'lgan; **an** ~ professor iste'fodagi xizmat ko'rsatgan professor
- emersion** [ɪˈmɜ:ʃ(ə)n] *n* (*osmon jismining Quyosh, Oyning tutilishidan keyin*) ko'rinishi, paydo bo'lishi
- emery** [ˈem(ə)rɪ] *n* jilvir, qumqog'oz
- emery-cloth** [ˈem(ə)rɪˌkloθ] *n* jilvir, qumqog'oz
- emery paper** [ˈem(ə)rɪˌpeɪpə] *n* jilvir(li) qog'oz
- emery-wheel** [ˈem(ə)rɪˌwi:l] *n* qayroqtosh, qayroq
- emetic** [ɪˈmetɪk] 1. *a* qustiradigan (*dori to'g'ristida*); 2. *n* qustiradigan dori
- emu** [i:mju:] *n* *zool.* emu, tuyaqush (*Avstraliya tuyaqushi*)
- emigrant** [ˈemɪgrənt] 1. *n* 1) ko'chib kelgan kishi; 2) muhojir (*siyosiy emas*); 2. *a* chet mamlakatga ko'chib ketadigan; ko'chishga (*ko'chirishga*) oid; ko'chish (*ko'chirish*)...
- emigrate** [ˈemɪgreɪt] *v* boshqa mamlakatga ko'chib ketmoq
- emigration** [ˌemɪˈgreɪʃ(ə)n] *n* muhojirlik, ko'chish
- emigratory** [ˈemɪgrət(ə)rɪ] *a* muhojirlarga oid
- émigré** [ˈemɪgreɪ] *n* *fr.* muhojir (*odatda, siyosiy*)
- eminence** [ˈemɪnəns] *n* 1) balandlik, tepalik; baland joy; 2) yuqori mavqe, yuqori lavozim; **a man of** ~ mashhur odam
- eminent** [ˈemɪnənt] *a* 1) yuksalgan, yuksalib turgan; 2) mashhur, atoqli, dong'i ketgan
- eminently** [ˈemɪnəntli] *adv* yuqori darajada, o'ta, juda, haddan tashqari
- emir** [ˈeɪmɪr] *n* amir (*unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs*)
- emirate** [ˈemɪ(ə)reɪt, ˈemɪrət] *n* amirlik
- emissary** [ˈemɪs(ə)rɪ] *n* 1) emissar (*maxfiy siyosiy topshiriq bilan chet mamlakatga yuborilgan kishi*); 2) josus, ayg'oqchi
- emission** [ɪˈmɪʃ(ə)n] *n* 1) ajralib chiqqan narsa (*issiqlik, gaz va b.*); tarqalish (*nur, hid va b.*); issiqlik chiqarish (*tarqatish, ajratish*), nur sochish; 2) *mol.* emissiya (*qimmatli qog'ozlar va qog'oz pul chiqarish*)
- emissive** [ɪˈmɪsɪv] *a* ajratadigan, chiqaradigan, tarqatadigan
- emit** [ɪˈmɪt] *v* taratmoq, tarqatmoq, chiqarmoq
- emmet** [ˈemɪt] *n* *esk.* chumoli; qumursqa
- emollient** [ɪˈmɒlɪənt] 1. *a* pasaytiradigan, kamaytiradigan, yumshatadigan; 2. *n* yumshatadigan vositalar
- emolument** [ɪˈmɒljʊmənt] *n* ish haqi, ishlab topiladigan pul; daromad
- emote** [ɪˈməʊt] *v* hissiyotni yuzaki namoyon etmoq
- emotion** [ɪˈməʊʃ(ə)n] *n* his-hayajon, his, tuyg'u, hissiyot; ruhiy, ichki kechinma
- emotional** [ɪˈməʊʃ(ə)nəl] *a* jo'shqin, hayajonli; hayajonlantiruvchi; to'lqinlantiruvchi

emotionalism [i'məʊʃ(ə)nəliz(ə)m] *n* ortiq hissiyotlilik, hayajonlilik, his-tuyg'u bilan to'lalik

emotionality [i,məʊʃə'nælɪtɪ] *n* his-hayajonlilik; his-tuyg'u bilan to'lalik

emotive [i'məʊtɪv] *a* hayajonli, jo'shqin, his-tuyg'uga to'la; jo'shqinlikni (his-tuyg'uni) ifodalaydigan

empale [ɪm'pæl] = **impale**

empalel [ɪm'pænl] *v* sud maslahatchilari to'yxatini tuzmoq; sud maslahatchilari to'yxatiga kirgizmoq

empennage [em'penɪdʒ] *n* av. dum qanoti

empathy [em'pæθɪ] *n* 1) birga qayg'urish; 2) achinish, rahmi kelish, hamdardlik

emperor [emp(ə)rə] *n* 1) imperator, hoqon; 2) qog'oz hajmi, bichimi (48x72 d. – Angliyada; 40x60 d. – Amerikada)

emphases [emfəsi:z] *pl of emphasis*

emphasis [emfəsɪs] *n* (*pl* -ses) 1) ta'kidlash, urg'u berish; **to lay special ~ on smth.** biror narsaga alohida e'tibor bermoq; 2) ifodalilik, jonlilik, ma'nodorlik; 3) urg'u, urg'u belgisi

emphasize [emfəsəzɪz] *v* 1) ta'kidlamoq, ajratib ko'rsatmoq, alohida urg'u bermoq, alohida e'tibor bermoq; 2) ifodalamoq, yaqqolroq qilmoq; 3) *tilsh.* urg'u qo'yimoq

emphatic [ɪm'fætɪk] *a* ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor

emphatically [ɪm'fætɪk(ə)li] *adv* sabot bilan, qat'iyat bilan, qattiq turib, tirishib-tortishib, ketidan qolmay

emphysema [emfi'si:mə] *n* tib. emfizema (*kasallik tufayli biror organ to'qimalarining kengayishi va unda havo to'planishi*)

Empire [em'paɪə] *san.* 1. *n* ampir uslubi; 2. *a* ampir uslubidagi

empire [em'paɪə] 1. *n* 1) imperiya (*monarxiyali yirik davlat; monarxiya davlati*); 2) hokimlik, hukmronlik; saltanat; 2. *a* imperiyaga oid; imperiyaga qarashli; imperiya...

Empire City [em'paɪə,sɪtɪ] *n* amer. „Imperiya shahri“ (*Nyu-York shahrining laqabi*)

Empire State [em'paɪə,steɪt] *n* „Imperiya shtati“ (*Nyu-York shtati laqabi*)

empiric [ɪm'pɪrɪk] *a* emperizmga oid; emperizmga xos bo'lgan

empirical [ɪm'pɪrɪk(ə)l] *a* tajribaga asoslangan, tajribadan kelib chiqqan, tajribadan olingan

empiricism [ɪm'pɪrɪsɪz(ə)m] *n* empirizm (*nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokn, tajribani bilishning birdan-bir manbayidir, deb biladigan falsafiy yo'nalish*)

empiricist [ɪm'pɪrɪsɪst] *n* empirik (1. *empirizm tarafdori*; 2. *faqat tajriba, amaliy faoliyat tarafdori*)

empiricriticism [ɪm'pɪrɪə(u)'krɪtɪsɪz(ə)m] *n* empiriokrititsizm (*subyektividealistik falsafiy oqim*)

emplace [ɪm'plɛs] *v* joylashtirmoq; o'rnatmoq, qo'yimoq, qurmoq; **-ment** joylashtirish, qo'yish, qurish

emplane [ɪm'pleɪn] *v* (*samo(yotga)*) o'tqizmoq, o'tirg'izmoq

employ [ɪm'plɔɪ] 1. *n* 1) yollanma mehnat; 2) ish, mehnat; 2. *v* 1) ish bermoq; ishga olmoq; 2) foydalanmoq; 3) yollanmoq

employable [ɪm'plɔɪəb(ə)l] *a* mehnatga qobiliyatli, mehnat qilishga yaroqli, qo'lidan ish keladigan

employé [ɔm'plœi] *fr* = **employee**

employee [ɪm'plɔɪ'i:, em'plɔɪ'i:] *n* xizmatchi, yollanib ishlovchi

employer [ɪm'plɔɪə] *n* 1) korxonaga egasi; 2) xo'jayin; 3) ish beruvchi; ishga oluvchi; xo'jayin

employment [ɪm'plɔɪmənt] *n* 1) xizmat, mashg'ulot; 2) ijara, kira; 3) qo'llash, ishlatish

empoleon [ɪm'pɔɪz(ə)n] *v* zahar berib o'ldirmoq, zaharlamoq

emporium [ɪm'pɔɪrɪəm] *pl of emporium*

emporium [em'pɔɪrɪəm] *n* 1) bozor, rasta; 2) savdo markazi

empower [ɪm'paʊə] *v* vakolat bermoq, vakil qilmoq

empress [em'prɛs] *n* 1) imperator xotini; 2) imperator (hoqon) ayol

emprise [ɪm'praɪz] *n* esk. shoir. dadil tashabbus; mardonavor jasorat

emptiness [em'ptɪnəs] *n* bo'shlik, xolilik

empty [em'ptɪ] 1. *a* 1) bo'sh; **an ~ box** bo'sh quti; 2) quruq; **an ~ talk** quruq gap; ma'nosiz gap; 2. *v* quyimoq, to'kmoq; **to ~ water out of a glass** stakandan suvni to'kmoq

empty-handed [em'ptɪ'hændɪd] *a* bo'sh qo'l bilan

empty-headed [em'ptɪ'hedɪd] *a* qovoqbo'sh, kallavaram

empurple [ɪm'pɜ:p(ə)] *v* qizartirmoq, qizil tus bermoq, qizil rangga bo'yamoq

empyrean [em'pɜ:(ə)'ri:əl] *a* osmonga oid, osmondagi, samoviy

empyrean [em'pɜ:(ə)'ri:ən] *n* 1) empirey (*yunonlar tasavvurida: osmonning xudolar turadigan eng yuqori qismi*); 2) osmon, ko'k, samo, falak

emu [i:'nju] *n* emu, tuyaqush (*Avstraliya tuyaqushi*)

emulate [em'juleɪt] *v* musobaqalashmoq; bahslashmoq

emulation [ˌemjuˈleɪ(ə)n] *n* musobaqa, raqobat, bahs
emulative [ˌemjʊlətɪv] *a* musobaqaga (bellashuvga) oid
emulous [ˌemjʊləs] *a* musobaqalashuvchi; bahslashuvchi
emulsify [ɪˈmʌlsɪfaɪ] *v* emulsiya hosil qilmoq, emulsiyaga aylanmoq
emulsion [ɪˈmʌlʃn] *n* emulsiya (bir-biriga singmaydigan ikki xil suyuqlikning qorishmasi)
emulsive [ɪˈmʌlsɪv] *a* 1) emulsiyaga oid, emulsion; 2) yogʻli, seryogʻ
en [en] *n* „N“ harfining nomi
enable [ɪˈneɪb(ə)] *v* 1) imkoniyat bermoq; 2) yengillashtirmoq, osonlashtirmoq
enact [ɪˈnækt] *v* 1) qaror qabul qilmoq; qaror chiqarmoq; 2) rol oʻynamoq
enacting [ɪˈnæktɪŋ] *a* kiritiladigan, kiritish...; qaror chiqaradigan, qaror qabul qiladigan; ~ **clause** qonun preambulasi (xalqaro bitimlarning kirish qismi), qonun konvensiyasi (biror maxsus qonun yuzasidan davlatlar oʻrtasida tuziladigan shartnoma, bitim, kelishuv)
enactment [ɪˈnæktmənt] *n* 1) qonunni kuchga kiritish; 2) qonun, qoida, tartib, nizom, qonun chiqarish ishi (akti)
expletive [ik' sple:tri] **1.** *a* 1) bo'sh joyni to'ldirishga xizmat qiladigan; qo'shimcha, kiritilgan, qo'shilgan; 2) haqoratli, uyatli (*so'z haqida*); **2.** *n* 1) *tilsh.* qo'shilgan (kiritilgan) so'z (*mas., „demak“ va sh. k.*); o'rganish bo'lib qolgan (*parazit*) so'z; 2) odatda, doim nutqda ishlatib turiladigan haqoratli so'z, so'kish so'zi
explicable ['eksple:kəb(ə)l] *a* sababi bor, sababli, sababini tushunib bo'ladigan
explicate ['eksplikeit] *v* 1) (*fikrni*) davom ettirib chuqurlashtirmoq; (*g'oyani, fikrni, rejani*) kengaytirmoq, rivojlantirmoq, o'stirmoq; 2) tushuntirmoq, anglatmoq, tushuntirib bermoq
explication [,ekspli 'kei:(ə)n] *n* 1) sabab (*bahona*) qilish; 2) tushuntirish
explicative ['eksplikəti] *a* 1) izohlaydigan; tushuntirib beradigan; 2) aniq, ravshan, tushunarli
explicatory ['eksplikəti(ə)ri] = **explicative**
explicit [ik' splisit] *a* 1) aniq, ravshan; 2) samimiy, sofdil

explode [ik' spleud] *v* portlatmoq, portlamoq; **to** - **a mine** minani portlatmoq; 2) buzmoq, qo'pormoq
exploded [ik' spleudid] *a*: **an** - **custom** bekor (yo'q) qilingan urf-odat (*udum, odat*)
exploder [ik' spleudə] *n* 1) portlatuvchi moslama, portlatgich; 2) portlatgich modda
exploit **1.** *v* [ik' spleit] 1) birovning kuchidan (*mehnatidan*) foydalanmoq; 2) *amer. sav.* reklama qilmoq, taklif qilmoq; **2.** *n* ['ekspleit] qahramonlik, mardlik, jasorat
exploitation [,eksplei: 'teif(ə)n] *n* foydalanish, ishlatish, ishga solish
exploiter [ik' spleitə] *n* eskpluatatsiya qiluvchi, eskpluatator, foydalanuvchi, ishlanuvchi
exploration [,eksple: 'rei:(ə)n] *n* tadqiqot, tadqiq etish, o'rganish
explorative [ik' sple:rətri] = **exploratory**
exploratory [ik' sple:rət(ə)ri] *a* tadqiqiy, tadqiqotga oid, tekshirishga oid
explore [ik' sple:] *v* o'rganmoq, tadqiq etmoq; **to** - **the Antarctica** Antarktikani o'rganmoq; 2) *ib.* yarani (*jarohatni*) tekshirmoq
explorer [ik' sple:rə] *n* tadqiqotchi, tekshiruvchi
explosion [ik' spleuz(ə)n] *n* 1) portlash; 2) avj olish; 3) tez o'sish; **cultural** - madaniyatning gullashi
explosive [ik' spleustiv] **1.** *a* portlovchi, portlaydigan; **an** - **bomb** portlovchi bomba; **an** - **bullet** portlovchi (*yorilib ketadigan*) o'q; **2.** *n* portlovchi modda
exponent [ek' spəunənt] **1.** *n* 1) tushuntiruvchi, izohlovchi; 2) (*musiqiy asarni*) ijro etuvchi; 3) namuna; 4) eksponent, ko'rgazma ishtirokchisi; **2.** *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...
exponential [,ekspe: 'nen:(ə)l] *a* *mat.* ko'rsatkichli
export **1.** *n* ['ekspe:t] 1) (*pul, mol va b. ni*) chet elga chiqarish; 2) *attr.* eksportga oid; eksport qilinadigan, chet elga chiqariladigan, eksport ...; 3) tashishga (*olib chiqishga*) oid; tashish ...; olib chiqish...; chetga mol olib chiqishga (*chiqarishga*) oid; ~ **duty** chet elga chiqariladigan mollar uchun to'lanadigan boj; **2.** *v* [ik' spe:t] chetga chiqarmoq
exportation [,ekspe: 'teif(ə)n] *n* olib ketish, tashib ketish; tashqariga (*chetga*) mol chiqarish
exporter [ik' spe:tə] *n* eksportchi, eksport, eksport qiluvchi (*chet elga mol chiqaruvchi davlat*)
expose [ik' spəuz] *v* 1) (*quyosh, yomon ob-havo va sh. k.*) ta'siri ostiga qoldirmoq;

- 2) (*xavfga*) uchramoq, duchor bo'lmog; 3) fosh etmoq, (*sirni*) ochmoq; 4) nusxa ko'chirmoq
- exposition** [ˌɛkspəˈzɪʃ(ə)n] *n* 1) tavsif, ta'rif, tasvir, bayon; 2) tasvirlab (ta'riflab) berish; 3) ko'rgazma; 4) *adab. mus.* ekspozitsiya (*adabiy yoki musiqa asarlarining kirish qismi, muqaddimasi*)
- expositive** [ɪkˈspɒzɪtɪv] *a* 1) tushuntirib beradigan, izohlaydigan; 2) tasviriy, tavsifiy
- expositor** [ɪkˈspɒzɪtə] *n* sharhlovchi, izohlovchi, tushuntirib beruvchi
- expository** [ɪkˈspɒzɪt(ə)rɪ] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...
- expostulate** [ɪkˈspɒstʃuleɪt] *v* ko'ndirishga harakat qilmoq, pand-nasihah qilmoq, ko'ndirmoq, unatmoq
- expostulation** [ɪkˈspɒstʃəˈleɪʃ(ə)n] *n* nasihat (o'git) qilish, pand, nasihat, o'git
- exposure** [ɪkˈspəʊʒə] *n* 1) tashqi ta'sir ostiga qoldirish; (*yomg'ir, quyosh va sh. k. ga*) qo'yish; 2) (*xavf va sh. k. dan*) himoya qilinganlik; 3) fosh etish; ochib tashlash
- expound** [ɪkˈspaʊnd] *v* bayon (hikoya) qilmoq, ifoda etmoq, aytib bermoq
- express** [ɪkˈspres] 1. *n* *tem. y.* ekspress (*odatdagidan tez yuradigan poyezd*); 2. *a* tez, shoshilinch, tez yuradigan; **an** ~ **train** eng tez yuradigan poyezd; ~ **delivery** tez yetkazib (eltib) berish; 3. *adv* shoshilib, shoshilinch (oshig'ich) ravishda, tezlik (zudlik) bilan; **to travel** ~ eng tezyurar poyezdda bormoq; 4. *v* 1) eng tez yuradigan poyezd bilan (shoshilinch pochta orqali) jo'natmoq; 2) bildirmoq, ifodalamoq; **to** ~ **one's opinion** o'z fikrini bayon etmoq
- expressible** [ɪkˈspresəb(ə)l] *a* ifoda etib bo'ladigan
- expression** [ɪkˈspreʃ(ə)n] *n* 1) ifoda, ibora; **to give** ~ ifoda etmoq; 2) (*yuz, ko'z va sh. k. dagi*) ifoda
- expressionism** [ɪkˈspreʃ(ə)nɪz(ə)m] *n* ekspressionizm (*Yevropada san'at va adabiyotda XX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan yo'nalish. Bu yo'nalishning namoyondalari san'atkorning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosini yoritishdan iborat, deb hisoblaydilar*)
- expressive** [ɪkˈspresɪv] *a* 1) ifodali, jonli, ma'noli, ta'sirli, ma'nodor; ~ **voice** jonli ovoz; ~ **glance** ma'nodor qarash; 2) ifodalovchi, bildiruvchi, izoh etuvchi, ko'rsatuvchi; ~ **of joy** xursandchilikni ifodalovchi; ~ **of despair** tushkunlikni ifodalovchi
- expressly** [ɪkˈspresli] *adv* 1) atayin, ataylab, jo'ritaga, qasddan; 2) aniq, ravshan
- expressman** [ɪkˈspresmən] *n* (*pl* -men [-mən]) *amer.* transport idorasining vakili
- expressway** [ɪkˈspresweɪ] *n* *amer.* avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunlangan katta yo'l*)
- expropriate** [ɪkˈsprɒpriət] *v* 1) musodara qilmoq, mol-mulkdan mahrum qilmoq; 2) egasidan tortib olmoq
- expropriation** [ɪkˈsprɒpɪˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) majburiy tarzda tortib olish; 2) mulkdan majburan mahrum qilish, musodara qilish
- expulsion** [ɪkˈspʌlʃ(ə)n] *n* 1) (*maktab, klub va b. dan*) quvish, chiqarish; 2) surgun, badarg'a, quvg'in
- expulsive** [ɪkˈspʌlsɪv] *a* haydovchi, quvib (surib) chiqaruvchi
- expunge** [ɪkˈspʌndʒ] *v* 1) (*ro'yxatdan, kitobdan*) o'chirmoq; 2) yo'q qilmoq, o'chirib tashlamoq
- expurgate** [ˈɛkspəɡeɪt] *v* kitobdagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirmoq
- expurgation** [ˌɛkspəˈɡeɪʃ(ə)n] *n* kitobdagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirish
- exquisite** [ɪkˈskwɪzɪt] 1. *n* olifta, satang, o'ziga bino qo'yuvchi odam; 2. *a* 1) nazokatli, latofatli, nozik, nafis, go'zal; 2) qattiq, kuchli, o'tkir, zo'r, og'ir; **an** ~ **pain** qattiq og'riq; 3) juda yaxshi, g'oyat yoqimli, juda chiroyli, zebo, ko'rkam, dilbar, ajoyib
- exsanguinate** [ɪkˈsæŋɡwɪneɪt] *v* qonsizlantirmoq, qonini ketkazmoq, qonini qochirmoq
- exsanguine** [ɪkˈsæŋɡwɪn] *a* qonsiz, qoni kam, qoni qochgan
- excise** [ɪkˈsɪns] *v* kesib (qirqib) olmoq; kesib (qirqib) tashlamoq
- ex-service** [ˌɛksˈsɜːvɪs] *a* 1) harbiy xizmatdan bo'shatilgan; 2) iste'foga chiqqan, iste'fodagi
- ex-serviceman** [ˌɛksˈsɜːvɪsmən] *n* (*pl* -men [-mən]) urush faxriysi, sobiq jangchi
- exsiccate** [ˌɛksɪˈkeɪt] *v* 1) quritmoq; 2) qurimoq
- exsiccation** [ˌɛksɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) quritish; 2) qurish
- extant** [ɪkˈstænt] *a* bor, mavjud, yashayotgan, kun kechirayotgan
- extemporaneous** [ɪkˌstempəˈreɪniəs] *a* 1) tasodifiy, kutilmagan, nogahoniy; 2) tayyorlanmagan, oldindan tayyorgarlik ko'rmagan
- extemporary** [ɪkˈstemp(ə)rɪ] *a* 1) ma'lum tayyorgarlik ko'rmagan, maxsus tayyorlanmagan; 2) tayyor (taxt) emas
- extempore** [ɪkˈstemp(ə)rɪ] 1. *a* maxsus tayyorlanmagan, tayyorgarliksiz aytilgan (ijro etilgan); 2. *adv* tayyorlanmasdan, oldindan tayyorgarlik ko'rmaydan, to'g'ridan to'g'ri, birdaniga, qo'qqisidan

- extemporization** [ek.stempəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* tayyorgarliksiz (birdan) kuy yaratish
- extemporize** [ɪkˈstempəraɪz] *v* (*ijro paytida*) tayyorgarliksiz aytmoq, toʻqimoq, yaratmoq
- extend** [ɪkˈstend] *v* 1) choʻzmoq, uzatmoq; **to ~ one's hand for a handshake** soʻrashish uchun qoʻl choʻzmoq; 2) kengaytirmoq, uzaytirmoq; 3) (*muddatni*) choʻzmoq, uzaytirmoq
- extended** [ɪkˈstendɪd] *a* 1) uzoq muddatli, uzoq davomli, uzoqqa choʻzilgan (choʻziladigan), uzoq davom etgan (etadigan); **in an ~ sense** keng maʼnoda; **an ~ payment** uzaytirilgan toʻlov muddati; 2) keng tarqalgan, keng yoyilgan, koʻp uchraydigan; **an ~ sentence gram.** yoyiq gap
- extender** [ɪkˈstendə] *n* 1) uzaytirgich; 2) *tex.* toʻldirgich
- extensibility** [ɪk.stensəˈbɪlɪtɪ] *n* choʻzilish, uzayish, kengayish; choʻziluvchanlik, kengayuvchanlik
- extensible** [ɪkˈstensəb(ə)l] *a* choʻziladigan, uzayadigan, kengayadigan, kengayuvchan, choʻziluvchan
- extensile** [ɪkˈstensəl] *a* choʻziladigan, uzayadigan
- extension** [ɪkˈstɛnʃ(ə)n] *n* 1) kengaytirish; 2) yoyish; choʻzish, uzaytirish; 3) qoʻshilgan narsa, qoʻshimcha, ilova
- extension course** [ɪkˈstɛnʃ(ə)nkɔːs] *n* malaka oshirish kurslari (*asos., sirtqi va kechki*)
- extensive** [ɪkˈstɛnsɪv] *a* 1) keng, bepoyon; ~ **front** *harb.* keng front; ~ **discussion** keng muhokama qilish; ~ **plans** katta rejalari; 2) *q. x.* ekstensiv (*sifatga eʼtibor bermay, faqat miqdorni oshirishga, hajmini kengaytirishga qaratilgan*); 4) hamma tomonga; **to travel ~** koʻp sayohat qilmoq; turli mamlakatlarga bormoq
- extensively** [ɪkˈstɛnsɪvli] *adv* 1) keng, katta; 2) keng ravishda, keng koʻlamda, har tarafлама; 3) mufassal, toʻla, toʻliq
- extensor** [ɪkˈstɛnsə] *n* *anat.* yoziladigan mushak (muskul)
- extent** [ɪkˈstɛnt] *n* 1) masofa, keng sath (*maydon, joy*); 2) oʻlcham, miqdor; 3) koʻlam (*boʻy, en va balandlik*), miqyos, daraja; **to what ~?** qay darajada? qanchalik? nechogʻilic? naqadar? **to a great ~** maʼlum (koʻp) darajada; **to exert oneself to the utmost** ~ bor kuchi bilan harakat qilmoq
- extenuate** [ɪkˈstɛnjuːeɪt] *v* 1) kuchsizlantirmoq, darmonsizlashtirmoq, kuch-quvvatdan qoldirmoq; 2) (*aybni*) yumshatmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, yengillashtirmoq; 3) bahona (uzr) boʻlib xizmat qilmoq
- extenuation** [ɪk.stɛnjuːˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) holdan toyish, ozib-toʻzish, behollik, bemajollik; 2) uzr, qisman bahona
- extenuatory** [ɪkˈstɛnjuː(ə)ri] *a* 1) (*gunohni*) yengillashtiruvchi; 2) (*ogʻriqni*) pasaytiruvchi
- exterior** [ɪkˈsu(ə)rɪə] *a* ustki, tashqi
- exteriority** [ɪk.stɪ(ə)rɪˈrɪtɪ] *n* ustki (tashqi) tomoni
- exteriorize** [ɪkˈstɪ(ə)rɪəraɪz] = **externalize**
- exterminate** [ɪkˈstɛːmɪneɪt] *v* tag-tomiri bilan yoʻq qilmoq; barham bermoq, ildizini quritmoq
- extermination** [ɪk.stɛːmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* qirish, yoʻq qilish, tag-tomiri bilan yoʻq qilish
- exterminator** [ɪkˈstɛːmɪneɪtə] *n* qiruvchi, qiruvchi samolyot
- exterminatory** [ɪkˈstɛːmɪnət(ə)ri] *a* qiruvchi, qiron soluvchi, qirgʻin keltiruvchi, qironli; **an ~ war** qirgʻinbarot jang
- external** [ɪkˈstɛːn(ə)l] 1. *a* tashqi, xorijiy; sirtqi; ~ **force** tashqi kuch; **the ~ world** tashqi dunyo; 2. *n* tashqi koʻrinish, qiyofa, turq; **an ~ angle** tashqi burchak; **to judge by ~s** tashqi koʻrinishiga qarab baho bermoq
- externality** [ˌɛkstɛːˈnælɪtɪ] *n* tashqi koʻrinish, qiyofa, aft-angor, turq
- externalize** [ɪkˈstɛːnəlaɪz] *v* gavalantirmoq, mujassamlantirmoq; gavalantirib koʻrsatmoq
- exterritorial** [ˌɛkstɛrɪˈtɔːrɪəl] *a* eksterritorial (*eksterritoriallik huquqiga ega boʻlgan*)
- exterritoriality** [ˌɛkstɛrɪˈtɔːrɪˈælɪtɪ] *n* eksterritoriallik (*chet elda xizmat qiladigan diplomatik vakillarning faqat oʻz davlati qonunlariga boʻysunish huquqi*)
- extinct** [ɪkˈstɪŋkt] *a* 1) oʻchgan, soʻngan, oʻchib (soʻnib) qolgan; **an ~ volcano** soʻnib qolgan vulqon; 2) qirilib ketgan, yoʻq boʻlib ketgan (*qabila, hayvon turi va sh. k. haqida*); 3) isteʼ moldan chiqqan (*soʻz, odat va sh. k. haqida*)
- extinction** [ɪkˈstɪŋkʃ(ə)n] *n* 1) oʻchirish, soʻndirish; 2) (*qabila, hayvon turi va sh. k. ning*) yoʻq boʻlib ketishi; qirilib ketishi
- extinguish** [ɪkˈstɪŋgwɪʃ] *v* 1) oʻchirmoq, bartaraf qilmoq; 2) yoʻq qilmoq, qirmoq, bitirmoq; 3) (*umid, sevgini*) soʻndirmoq
- extinguisher** [ɪkˈstɪŋgwɪʃə] *n* oʻchirgich, oʻt oʻchirgich, oʻchiruvchi
- extirpate** [ˌɛkstɛːˈpeɪt] *v* tag-tomiri bilan yoʻq qilmoq, barham bermoq, ildizini quritmoq
- extirpation** [ˌɛkstɛːˈpeɪʃ(ə)n] *n* barham berish, tugatish, yoʻqotish, tag-tomiri bilan yoʻq qilish

extirpator [ˈɛkstrəːpeɪtə] *n* tag-tomiri bilan yo'q qiluvchi, barham beruvchi (*kishi*)

extol [ɪkˈstəʊl] *v* juda ham maqtab yubormoq, rosa ta'rif-tavsif qilmoq, ko'klarga ko'tarmoq

extort [ɪkˈstɔ:t] *v* qo'rqitib (*yoki* tovlab) pulini olmoq

extortion [ɪkˈstɔ:ʃ(ə)n] *v* qo'rqitib (*yoki* do'q-po'pisa va boshqa yo'llar bilan) undirish

extortionate [ɪkˈstɔ:ʃ(ə)nɪt] *a* 1) haddan tashqari baland (*narxlar to'g'risida*); 2) tamagirlikka qaratilgan, tovlamachilikdan iborat bo'lgan

extortioner [ɪkˈstɔ:ʃ(ə)nə] *n* qo'rqitib (*yoki* do'q-po'pisa bilan) undiruvchi, bosmachi, o'g'ri; tovlamachi, tamagir, yulg'ich

extra [ˈɛkstrə] 1. *a* 1) qo'shimcha: ~ **charges** qo'shimcha xarajat; 2) maxsus; 3) oliy sifat; 2. *n* qo'shimcha nimadir narsa

extra- [ˈɛkstrə-] *pref.* -dan tashqari, -dan ortiq

extracellular [ˈɛkstrəˈseljʊlə] *a* *biol.* hujayraga oid bo'lmagan, g'ayrihujayraviy

extract 1. *n* [ˈɛkstrækt] *n* parcha, ko'chirma; 2. *v* [ɪkˈstrækt] *v* 1) sug'urib (*yoki* oldirib) tashlamoq; **to** ~ **a** **tooth** tishni sug'urmoq; 2) (*shirasini*) siqib chiqarmoq; 3) chiqarmoq; 4) *mat.* ildizini topmoq

extraction [ɪkˈstrækʃ(ə)n] *n* 1) parcha, ko'chirma; 2) kelib chiqish; nasab, nasl-nasab; **an American of Germany** ~ **Nemis** millatiga mansub amerikalik

extractive [ɪkˈstræktɪv] 1. *a* 1) ajratib oladigan; 2) ajratib olish yo'li bilan hosil qilingan; 2. *n* ekstrakt (*kimyoviy yo'l bilan organik to'qimalardan olingan modda*)

extractor [ɪkˈstræktə] *n* *tib.* jarrohlik qisqichi

extracurricular [ˈɛkstrəkəˈrɪkjʊlə] *a* 1) majburiy bo'lmagan, ixtiyoriy; 2) darsdan tashqari

extradite [ˈɛkstrədaɪt] *v* jinoyatchini boshqa davlatga bermoq

extradition [ˈɛkstrəˈdɪʃ(ə)n] *n* jinoyatchini boshqa davlatga topshirish

extra-judicial [ˈɛkstrədʒuːˈdɪʃ(ə)l] *a* *yur.* norasmiy, ko'rib chiqilayotgan ishga aloqadar bo'lmagan

extramarital [ˈɛkstrəˈmæɪtɪl] *a* nikohsiz, nikohdan oldingi, nikohdan oldin bo'lgan

extra-mundane [ˈɛkstrəˈmaɪnˈdeɪn] *a* *din.* narigi dunyoda bo'ladigan, narigi dunyodagi

extra-mural [ˈɛkstrəˈmju(ə)rəl] *a* sirtqi *yoki* kechki; ~ **courses** sirtqi o'qish kurslari

extraneous [ɪkˈstreɪniəs] *a* begona, yot, o'zga, tashqi, sirtqi

extra-official [ˈɛkstrəˈfɪʃ(ə)l] *a* rasmiy emas, norasmiy

extraordinarily [ɪkˈstrɔ:d(ə)n(ə)rɪli] *adv* g'ayrioddiy tarzda, juda ham ajoyib

extraordinary [ɪkˈstrɔ:d(ə)n(ə)rɪ] *a* 1) favqulodda, turfa, hayron qolarli, sira ko'ril-magan (*eshilmagan*); haddan tashqari, ajoyib, g'alati; 2) tasodifiy

extrapolation [ˈɛkstrəpəˈleɪʃ(ə)n] *n* *mat.* ekstrapolatsiya (*narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish*)

extra-territorial [ˈɛkstrətərɪˈtɔ:rɪəl] *a* eks-territorial (*eksterritoriallik huquqiga ega bo'lgan*)

extravagance [ɪkˈstrævəɡəns] *n* isrofgarchilik, nobudgarchilik, behuda sarflashlik, sovurib yuborishlik

extravagancy [ɪkˈstrævəɡənsɪ] = **extravagance**

extravagant [ɪkˈstrævəɡənt] *a* 1) isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi; 2) beaql, esi yo'q, tentak, jinni, ko'ngliga kelganini qilaveradigan, bema'ni (*ahmoqona*) ish tutadigan; ahmoqona, telba-teskari; 3) bema'ni, kelishmagan, kurakda turmaydigan; tuturiqsiz; 4) adashib yuradigan, sanqi, darbadar; 5) haddan tashqari, cheksiz (*talab to'g'risida*)

extravaganza [ˈɛkstrævəˈɡænzə] *n* *teatr.* ertak sujetiga asoslangan teatr *yoki* sirk tomoshasi

extravasion [ˈɛkstrævəˈseɪʃ(ə)n] *n* *tib.* qon quyilish

extreme [ɪkˈstri:m] 1. *a* 1) keskin, eng oxirgi, chetdagi; **the** ~ **edge of a field** maydonning eng uzoq tomoni; 2) *so'zl.* eng oxirgi (*so'nggi*); 2. *n* chegara, haddan ortiq holat

extremely [ɪkˈstri:mli] *adv* favqulodda, haddan tashqari, nihoyatda; juda ham, g'oyat

extremism [ɪkˈstri:mɪz(ə)m] *n* ekstremizm (*siyosatda: keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik*)

extremist [ɪkˈstri:mɪst] *n* *siyos.* ekstrimist (*keskin choralar tarafdori*)

extremity [ɪkˈstri:mɪti] *n* uch, bosh, etak; qirra, chekka, lab, oxiri

extricate [ˈɛkstrikeɪt] *v* (*qiyin ahvoldan*) olib chiqmoq (**from, out of**)

extrication [ˈɛkstriˈkeɪʃ(ə)n] *n* bo'shatib yuborish, ozod qilish, qutqarish

extrinsic(al) [ˈɛkˈstri:nsɪk(ə)l] *a* tashqi, sirtqi, ustki; begona

extroversion [ˈɛkstrəˈvɜ:ʃ(ə)n] *n* tashqi muvaffaqiyatlarga (*moddiy boyliklarga*) had-

dan tashqari qiziqish, ma'naviy qiziqishning yo'qligi, faqat o'z manfaatini o'ylash

extrovert [ˈɛkstrəvɜːt] *n* 1) *psixol.* faqat o'zining manfaatini ko'zlaydigan kishi (*shaxs*); 2) faqat tashqi muhit bilan qiziqadigan kishi

extrude [ɛkˈstruːd] *v* itarib (turtib-turtib) chiqarmoq, turtib-surtib chiqarib yubormoq

extrusion [ɛkˈstruːʒ(ə)n] *n* itarib (turtib-turtib) chiqarish, turtib-surtib chiqarib yuborish

exuberance [ɪgˈzjuːb(ə)rəns] *n* mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik

exuberancy [ɪgˈzjuːb(ə)rənsɪ] = **exuberance**

exuberant [ɪgˈzjuːb(ə)rənt] *a* mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p, to'kin-sochin

exuberate [ɪgˈzjuːb(ə)reɪt] *v* juda ko'p bo'lmoq, to'lib-toshib yotmoq, boy (serob, mo'l-ko'l) bo'lmoq

exudation [ˌɛksjuːdeɪʃ(ə)n] *n* *tib.* nazla (*bandadagi teshikchalardan terning ujrilib chiqishi*)

exude [ɪgˈzjuːd] *v* *tib.* ter chiqarmoq

exult [ɪgˈzʌlt] *v* 1) quvonmoq, zavqlanmoq, shodlanmoq, shod-xurram bo'lmoq; **to ~ in a victory** g'alabani nishonlamoq; 2) shodlikdan sakramoq

exultance, -cy [ɪgˈzʌlt(ə)ns, -sɪ] = **exultation**

exultant [ɪgˈzʌlt(ə)nt] *a* shod, shod-xurram; **an ~ cry** shod-xurramlik qiyqirig'i

exultation [ˌɛgzʌlˈteɪʃ(ə)n] *n* shodlik, shod-xurramlik, shodiyona

exuviate [ɪgˈzjuːviət] *v* *zool.* tullamoq, po'st tashlamoq

exuviation [ɪgˈzjuːviˈeɪʃ(ə)n] *n* *zool.* tullash, po'st tashlash

eyas [ˈiːəs] *n* lochin bolasi

eye [aɪ] 1. *n* 1) ko'z; **blue large** -s katta ko'k ko'zlar; **to see with one's own** -s o'z ko'zlari bilan ko'rmoq; ~ **disease** ko'z og'rig'i; ~ **hospital** ko'z kasalxonasi; 2) teshik, ko'z (*ignada*); 3) *sheva.* izquvar, detektiv; 4) *sheva.* televizor ekrani; 2. *v* 1) qaramoq, qarab chiqmoq; 2) nazorat qilmoq

eyeball [ˈaɪbɔːl] *n* ko'z soqqasi

eye-bath [ˈaɪbɑːθ] *n* *tib.* ko'z vannachasi (*vanna - davolanish uchun belgilangan kichkina toscha*)

eye-beam [ˈaɪbiːm] *n* o'ynoqi ko'z, tez nigoh

eyebrow [ˈaɪbrəʊ] *n* qosh; **to raise the** -s qoshini ko'tarmoq (*hayrat, norozilik va sh. k. belgisi sifatida*)

eye-catcher [ˈaɪ,kætʃə] *n* yorug' (yorqin) manzara; ko'zga tashlanadigan narsa

eye-cup [ˈaɪkʌp] *n* *tib.* ko'z vannachasi (*runi ka shaklidagi*)

eye-drop [ˈaɪdrɒp] *n* *pl* ko'zga toniziladigan dori

eyeful [ˈaɪfʊl] *n* *so'zl.* 1) ajoyib manzara, 2) *so'zl.* g'oyat go'zal ayol

eye-glass [ˈaɪglɑːs] *n* 1) linza, okular (*optik asbobning ko'zga tutib qaraladigan tomondagi shishasi*); 2) ko'z qorachig'i, 3) ko'zoyinak oynasi; 4) *pl* ko'zoyinak

eyehole [ˈaɪhəʊl] *n* 1) kichkina (torgina) teshikcha, tirqish; kovak, yoriq; 2) ko'z ko'sasi

eyelash [ˈaɪlæʃ] *n* kiprik, mujgon

eyeless [ˈaɪləs] *a* ko'zi (*yoki bir ko'zi*) yo'q, ko'r

eyelet [ˈaɪlɪt] *n* kichkina teshikcha

eyelid [ˈaɪlɪd] *n* qovoq (*ko'z qovog'i*)

eye-opener [ˈaɪ,ɒp(ə)nə] *n* *so'zl.* kishini juda ham hayratda qoldiradigan yangilik; odamning ko'zini ochib qo'yadigan nimadir (*qandaydir*) narsa

eyepiece [ˈaɪpiːs] *n* okular (*optik asbobning tutib qaraladigan tomondagi shishasi*)

eye-service [ˈaɪ,sɜːvɪs] *n* majburan qilingan ish; ishga beparvolik bilan qarash

eyeshadow [ˈaɪ,ʃædəʊ] *n* ko'z qovoqlari bo'yog'i

eyeshot [ˈaɪʃɒt] *n* ko'rish maydoni, doirasi

eyesight [ˈaɪsaɪt] *n* ko'rish qobiliyati, ko'rish; **good** - yaxshi ko'rish, ko'zning o'tkirligi; **poor** - xira ko'rish; yomon ko'rish

eye-socket [ˈaɪ,sɒkɪt] *n* ko'z chanog'i, ko'z kosasi

eyesore [ˈaɪsɔː] *n* ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq

eye-tooth [ˈaɪˈtuːθ] *n* (*pl* - **teeth** [-tiːθ]) *anat.* so'yloq tishlar, yoriq tishlar

eyewash [ˈaɪwɔːʃ] *n* 1) ko'z malhami (*latta yoki paxtaga surtib og'riq joyga qo'yish uchun tayyorlangan suyuq dori*); 2) qalloblik, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik

eyewater [ˈaɪ,wɔːtə] *n* 1) ko'z malhami; 2) ko'z yoshi

eye-wink [ˈaɪwɪŋk] *n* 1) ko'z bilan qilingan imo, ishora; 2) ko'z ochib yunguncha o'tadigan vaqt (*lahza, on, fursat, dam, nafas*)

eyewitness [ˈaɪ,wɪtnəs] *n* guvoh, shohid

eyrie [ˈɪ(ə)ri] = **aerie**

F

F, f [ef] *n* 1) ingliz alifbosining oltinchi harfi; 2) *mus.* fa notasi

fa [fɑː] *n* *mus.* fa (*musiqa gammasining to'rtinchi notasi*)

fab [fæb] *a* 1) afsonaviy; xayoliy; 2) ertakka oid
Fabian [ˈfeɪbiən] *a* 1) Rimdagi Fabiylar urugʻiga oid; 2) (*gʻalabaga payt poylash taktikasi bilan erishgan*) Fabiy Kunktatorga xos; ehtiyotli, ehtiyotkor; (*taktika, uslublar haqida*) payt poylaydigan; **a ~ policy** payt poylash siyosati
fable [ˈfeɪb(ə)l] *n* 1) masal, toʻqima, zarbulmasal; 2) choʻpchak, ertak
fabled [ˈfeɪb(ə)ld] *a* 1) afsonadan (rivoyatdan) iborat boʻlgan; afsonalarda boʻladigan, afsonaviy; 2) oʻylab chiqarilgan, xayoliy, uydirma, toʻqima
fabler [ˈfeɪblə] *n* 1) masalchi, masal yozuvchi, masalnavis; 2) ertakchi
fabliau [ˈfæbliəʊ] *n* (*pl -aux [-əʊ(z)]*) *adab.* fablio (*sheʻr orqali ifoda etiladigan hajviy qissa*)
fabliaux [ˈfæbliəʊz] *pl of fabliau*
fabric [ˈfæbrɪk] *n* 1) gazlama, gazmol, mato; **silk and woolen ~** ipak va jun gazlama; 2) tuzilish, tuzilma; **the ~ of society, the social ~** ijtimoiy tuzum; 3) boʻrtma, gul, bezak (*gazmolda*); **cloth of beautiful ~** bezagi chiroyli gazlama; 4) buyum, fabrikat; 5) inshoot, bino
fabricate [ˈfæbrɪkeɪt] *v* 1) oʻylab chiqarmoq; **the story was ~d from beginning to end** hikoya boshidan oxirigacha toʻqilgan edi; 2) qalbakilashtirmoq; **to ~ papers** qalbaki hujjatlar tayyorlamoq; 3) ishlab chiqarmoq, tayyorlamoq
fabricated [ˈfæbrɪkeɪtɪd] *a* yigʻma, tayyor qismlardan yasalgan; **a ~ house** tayyor qismlardan qurilgan uy (*panelli uy*)
fabrication [ˈfæbrɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) uydirma, yolgʻon, toʻqima; **his story was an entire ~** uning hikoyasi boshidan oxirigacha uydirma edi; 2) soxta, qalbaki narsa; **the document was undoubtedly a ~** hujjat soʻzsiz soxta edi
fabulist [ˈfæbjulɪst] *n* 1) masalchi, masal yozuvchi, masalnavis; 2) uydirmachi, yolgʻonchi
fabulosity [ˈfæbjʊˈləsəti] *n* afsonaviy, misli koʻrilmagan, aqlga sigʻmas narsa
fabulous [ˈfæbjʊləs] *a* afsonaviy, misli koʻrilmagan; **a ~ hero** afsonaviy qahramon; **~ wealth** misli koʻrilmagan boylik
facade [ˈfæso:d] *n* fasad, binoning old tomoni (oldi), tashqi koʻrinish
face [feɪs] **1.** *n* 1) yuz, aft, qiyofa; 2) yuz ifodasi; chehrasida aks etgan belgi; **straight ~** ehtiyossiz (*hech narsani ifodalamaydigan*) yuz, „niqob“; **to make ~s** aftini burishtirmoq; 3) tashqi koʻrinish, tashqi qiyofa;

fa; on the ~ of tashqi koʻrinishiga koʻra; 4) *soʻzl.* surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik; **to show a ~** oʻzini surbetlarcha tutmoq; 5) sath, tashqi tomon; **the ~ of a door** eshik tomonlari (*ichki va tashqi tomon*); 6) (*yerning, suvning*) usti, sathi; 7) (*mato, medal va b. ning*) oʻng, old tomoni; **2.** *v* 1) yuzga qarab turmoq, oʻtirmoq; **they sat so as to ~ each** ular qarama-qarshi (*beimabət*) oʻtirishardi; **the man now facing me** hozir oldimda turgan kishi; 2) (*biror narsani*) mardona kutib olmoq; hech bir qoʻrquvsiz yuzga qaramoq; **to ~ danger** xavfni qoʻrquvsiz kutib olmoq; 3) duch kelmoq, toʻqnash kelmoq; **to be ~d with a difficulty** qiyinchilikka duch (toʻqnash) kelmoq
face-ache [ˈfeɪsɪk] *n* *tib.* yuz asablari, nevrologiyasi (*asab sistemasining biror yeri kasallanishi yoki yalligʻlanishi natijasida paydo boʻladigan ogʻriq*)
face-card [ˈfeɪskɑ:d] *n* surat, suratli qarta (*korol, valet, dama*)
facecloth [ˈfeɪsklɒθ] *n* yuzni yuvish uchun ishlatiladigan kichkina sochiq (*sochiqcha*)
face cream [ˈfeɪskri:m] *n* yuzga surtiladigan yogʻ upa (*krem*)
face-guard [ˈfeɪsgɑ:d] *n* *sport.* himoya qiladigan (saqlaydigan) niqob
faceless [ˈfeɪsləs] *a* xususiyatsiz, oʻziga xos xislati boʻlmagan
facelift [ˈfeɪs,lɪft] *n* yuzni plastik operatsiya qilish
face-lifting [ˈfeɪs,lɪftɪŋ] *n* kosmetik maqsadda ajinlarni yoʻq qilish uchun bajarilgan yuzning plastik operatsiyasi
face-off [ˈfeɪsof] *n* *sport.* (*koptokni, shaybani*) tashlash, tashlab berish, uzatish, uzatib berish
face powder [ˈfeɪs,pəʊdə] *n* upa
facer [ˈfeɪsə] *n* 1) betga urilgan zarba; 2) *amer. soʻzl.* kutilmagan toʻsiq
face-saving [ˈfeɪs,servɪŋ] *a* obroʻ uchun qilingan, yuzxotir sifatida
facet [ˈfæst] **1.** *n* 1) qirra (*olmos va b. da*); 2) jihat, tomon; **to study all the ~s of matter** masalaning barcha tomonlarini oʻrganib chiqmoq; **2.** *v* qirralamoq, silliqlab qirra chiqarmoq
facetiae [ˈfæːsiːˈtɪ:] *n* *pl* lot. hazillar, qochirmlar, pichinglar
facetious [ˈfæːsiːʃəs] *a* 1) hazillashadigan, hazilkash; 2) quvnoq
face-value [ˈfeɪs,væljʊ:] *n* nominal baho, (*tanga, banknot, aksiyaning*) oʻz bahosi
facia [ˈfeɪʃə] *n* korxonada, muassasa va sh. k. ning nomi yozilgan va kiraverishda osib qoʻyilgan lavha

facial [ˈfeɪʃ(ə)l] **1. a** 1) yuzga oid, yuzdagi; **a ~ expression** chehrasida aks etgan belgi; chehra; 2) yuzadagi, sirtqi, ustki; **a ~ layer** ustki qatlam; 3) kosmetik; **a ~ massage** kosmetik uqalash; **2. n** yuzni uqalash

facile [ˈfæsəl] **a** 1) yengil, oson, zoʻr berishni talab qilmaydigan; **a ~ victory (success)** oson erishilgan gʻalaba (muvaffaqiyat); 2) moyil, taʼsirchan, zehni; 3) yuzaki, shoshmashosharlik bilan qilingan; **a ~ decision** shoshmashosharlik bilan qabul qilingan qaror; 4) koʻngilchan, koʻnikuvchan, yumshoq tabiat; **~ parents** muruvvatli ot-onalar

facilitate [fəˈsɪlɪteɪt] **v** yordam bermoq, koʻmaklashmoq, yengillatmoq, hamkorlik qilmoq

facilitation [fəˈsɪlɪˈteɪʃ(ə)n] **n** yordam berish, koʻmak berish, yengillatish

facility [fəˈsɪlɪtɪ] **n** 1) qulaylik, imtiyoz; **good transportation facilities** yaxshi uyushtirilgan transport; 2) yengillik, qiyin emaslik; **the ~ of the task** vazifaning yengilligi

facing [ˈfeɪsɪŋ] **n** 1) qoplama; 2) pardoz, sayqal berish; 3) ustki qatlam, silliqlash

facsimile [ˈfæksɪmɪl] **n** faksimile (*qoʻlyozma, hujjat yoki imzoning ayni nusxasi*); **in ~** 1) juda aniq, toʻppa-toʻgʻri, xuddi aytganday, aynan; 2) xuddi shunday (shunga oʻxshagan), aynan shunaqa

fact [fækt] **n** 1) dalil, chin, haqiqat, mohiyat; 2) haqiqat, reallik; 3) dalil, asos; **you must prove your ~s** siz keltirgan dalilning toʻgʻriligini isbotlashingiz kerak

fact-finding [ˈfæktˌfaɪndɪŋ] **n** tekshirish, dalillarni aniqlash

faction I [ˈfæksj(ə)n] **n** siyos. fraksiya (*biror tashkilot yoki partiya ichidagi maqsadi va qarashlari bilan boshqalardan farq qiladigan alohida guruh*)

faction II [ˈfæksj(ə)n] **n** haqiqiy voqealar asosida yozilgan kitob yoki olingan film; hujjatli film

factional [ˈfæksj(ə)nəl] **a** fraksiyon, guruhbozlikka oid

factionalism [ˈfæksj(ə)nəlɪz(ə)m] **n** fraksiyachilik, guruhbozlik

factitious [ˈfæktɪʃəs] **a** 1) sunʼiy; sunʼiy yaratilgan; 2) sunʼiy, shartli; yasama, oʻylab topilgan, toʻqima, uydirma

factitive [ˈfæktɪv] **a** gram. sabab...

factor [ˈfæktə] **n** 1) omil, harakatga keltiruvchi kuch; 2) vositachi; oʻrtada turuvchi, dalol; 3) *mat.* koʻpaytiruvchi

factorial [ˈfæktəriəl] **a** oʻrtada turuvchi, vositachilikka oid; **~ duties** oʻrtada turuvchining vazifasi

factory [ˈfækt(ə)rɪ] **n** zavod, fabrika; **~ law** fabrika qonunlari; **at a ~** fabrikada

factory-buster [ˈfækt(ə)rɪˌbʌstə] **n** *harb.* ogʻir fugas bombasi

factotum [ˈfækt(ə)tʊtəm] **n** ishonchli xizmatkor; 2) qoʻli gul usta

factual [ˈfæktɪʃ(ə)l] **a** dalilga asoslangan, haqqoniy

facultative [ˈfækt(ə)lɪtətɪv] **a** fakultativ, majburiy boʻlmagan; ixtiyoriy

faculty [ˈfækt(ə)ltɪ] **n** 1) qobiliyat, isteʼdod; **~ of speech** soʻzlash qobiliyati, notiqlik; **the mental faculties** aqliy qobiliyatlar; 2) hokimiyat, huquq (*cherkovga oid*); 3) fakultet, boʻlim, boʻlinma; **the ~ of law** yuridik fakulteti; 2) oʻqituvchi-professorlar tarkibi

fad [fæd] **n** gʻalati qiliq, gʻalatilik; **this is a passing ~** bu oʻtkinchi (qisqa muddatli) havas

faddiness [ˈfædnəs] **n** gʻalatilik, qiziqlik, jinnilik

faddish [ˈfædɪʃ] **a** 1) (tabiati) qiziqroq, gʻalatiroq, tentaksimon; 2) injiq, xarxashali, gʻalati qiliqli, tantiq

faddist [ˈfædɪst] **n** gʻalati (tentaksimon) odam, qiziq tabiatli kishi

faddy [ˈfædɪ] **a** (tabiati) qiziqroq, gʻalatiroq, tentaksimon

fade [feɪd] **v** soʻlmoq, qurimoq, sekin yoʻq boʻlmoq; **summer ~s into autumn** yoz sekin-asta kuzga aylanmoqda

fadeaway [ˈfeɪdəˈweɪ] **n** asta-sekin (sekin-asta) yoʻqolish

fade-in [ˈfeɪdnɪn] **n** *kino. radio. telev.* tovush yoki tasvirning asta-sekin paydo boʻlishi

fadeless [ˈfeɪdləs] **a** soʻlmaydigan, soʻlmas, oʻchmas

fade-out [ˈfeɪdaʊt] **n** *kino. radio. telev.* tovush yoki tasvirning sekin-asta yoʻq boʻlib ketishi

fading [ˈfeɪdɪŋ] **n** *radio.* soʻnish, oʻchish, pasayish, toʻxtash

faeces [ˈfiːsiːz] **n** *pl* 1) choʻkindi, loyqa; quyqum; 2) najas, axlat, tezak, goʻng

faerie [ˈfe(ə)rɪ] **n** 1) ertaklardagi podshotik; 2) pari

faery [ˈfe(ə)rɪ] = faerie

faff [fæf] *soʻzl.* = fuss 1, 2

fag [fæg] **1. n** 1) ogʻir, toliqtiradigan yoki zerikarli ish; 2) kattalarga xizmat qiluvchi kichik oʻquvchi; **2. v** 1) mehnat qilmoq, ishlamoq; 2) kichik doʻstlarning xizmatidan foydalanmoq

fag-end [ˈfægˈend] **n** 1) keraksiz narsa; 2) oxiri; **the ~ of the day** kunning oxiri; **at the ~ of a book** kitobning oxirida

faggot [ˈfæɡət] 1. *n* bogʻ, bogʻlam; 2. *v* shox-shabballarni bir bogʻlam qilib bogʻlamoq

fagot [ˈfæɡət] *amer.* = faggot

Fahrenheit [ˈfærənhaɪt] *n* Farangeyt termometri, Farangeyt termometrining shkalasi

faience [ˈfaɪəns] *n fr.* fayans (*ganch aralash loy*)

fail [feɪl] *v* 1) muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; **to ~ in the life** hayotda omadsiz boʻlmoq; **without ~** albatta, muqarrar, shubhasiz, shaksiz; 2) pand bermoq, umidni puchga chiqarmoq; **as usual, he ~ed me at the last minute** odatdagidek, u soʻnggi daqiqada menga pand berdi; 3) kamlik qilmoq, yetishmay qolmoq; **time would ~ me** vaqtim boʻlmaydi, men ulgurmay qolaman; **I ~ words to express my thanks** minnatdorchiligimni bildirish uchun soʻz topolmayapman; **our water supply has ~ed** zaxira suvimiz tugadi, bizga suv yetishmay qoldi; 4) pasaymoq, zaiflashmoq, kuchdan qolmoq; **the wind ~ed** shamol tindi; **daylight is ~ing** qorongʻi tushyapti; 5) ishlashdan toʻxtamoq, safdan chiqmoq; **the patient's heart ~ed** bemorning yuragi urishdan toʻxtadi; 6) yiqilmoq (*imtihondan*); **he ~ed in English** u ingliz tili imtihonidan yiqildi; 7) sinmoq, bankrot boʻlmoq (*firma va b. toʻgʻrisida*); toʻlovlarni toʻxtatmoq (*bank toʻgʻrisida*)

failed [feɪld] *a* 1) muvaffaqiyatsiz, ishi oʻngidan kelmagan; 2) singan, inqirozga uchragan; **a ~ firm** singan firma

failing [ˈfeɪlɪŋ] 1. *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik; **we all have our ~s** hammamizning oʻz kamchiligimiz bor; 2. *a* 1) yetishmaydigan; 2) zaiflashayotgan; **a ~ sight** koʻrishning zaiflashishi; 3. *prep.* yoʻqligi tufayli, yoʻq boʻlgan taqdirda; **~ his arrival, we shall stay here** u kelmay qolgan taqdirda, biz shu yerda qolamiz

faillie [feɪli] *n fr.* toʻq. fay (*bir turli shoyi yoki jun gazlama*)

fail-safe [ˈfeɪlsɪf] *a* oʻzidan-oʻzi toʻxtaydigan, tarmoqdan uziladigan (*avariya va b. holatlarda*)

failure [ˈfeɪljə] *n* 1) muvaffaqiyatsizlik, barbod boʻlish; **dead ~** butkul barbod boʻlish; **to end in ~** muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanmoq; 2) yetishmaslik, yoʻq boʻlish (*biror narsaning*); **the ~ of rain** qurgʻoqchilik, yomgʻirsizlik; **crop ~** hosilsizlik; 3) omadsiz, ishi oʻngidan kelmaydigan odam; **he was a ~ in art** u sanʼatda omadsiz edi; 4) bajarmaslik, amalga oshmaslik; **~ to keep a promise** vaʼdani buzish; 5) *tex.*

buzilish, avariya, shikastlanish, ishlamay qolish; **the ~ of a pump** nasosning buzilishi

fain [feɪn] *a* majbur boʻlgan, ilojsiz qolgan; **she was ~ to keep silence** u gapirmasligi kerak edi, u ogʻzini ochmaslikka majbur edi; **she was ~ to comply** u rozi boʻlishga majbur edi

faineant [ˈfeɪnənt] 1. *a* yalqov, dangasa, tanbal; 2. *n* yalqov (dangasa, tanbal, ishyoqmas) kishi

faint [feɪnt] 1. *n* hushidan (oʻzidan) ketish, behush boʻlib yotish, hushsizlik, behushlik; 2. *a* 1) kuchsiz, boʻsh, zaif, kuch-qudrati oz; 2) rangi ketgan, xira; 3. *v* hushidan (oʻzidan) ketmoq

faint-hearted [ˈfeɪnthɜːt] *n* qoʻrqqoq, yuraksiz, quyvon yurak

faint-hearteded [ˈfeɪntˈhɑːtɪd] *a* qoʻrqqoq, yuraksiz, qoʻrqqoq kishi

faint-heartedly [ˈfeɪntˈhɑːtɪdli] *adv* qoʻrqqoq, hadiksirab

fainting-fit [ˈfeɪntɪŋfɪt] *n* hushidan (oʻzidan) ketish, behush boʻlib qolish

faintly [ˈfeɪntli] *adv* rangi oqarib, boʻzarib, zoʻrgʻa

fair [feə] 1. *n* yarmarka, bozor, koʻrgazma; **the world ~** jahon koʻrgazmasi; 2. *a* 1) vijdonli, adolatli, begʻaraz, qonuniy; **by ~ means** qonuniy yoʻl bilan; **a ~ price** adolatli (haqiqiy) narx; 2) durustgina, chidasa boʻladigan; **in ~ condition** durust (yaxshi) holatda; **a ~ number** of yetarli miqdorda; 3) oq, malla, sargʻish; **~ hair** sargʻish sochli; 4) toza, dogʻ tushmagan; **a ~ name** pok (yaxshi) nom; 5) ochiq va quyoshli kun; **~ sky** musaffo osmon; **~ly** xijla, ancha; 3. *adv* 1) aniq, aynan, toʻgʻri; 2) roʻyirost, halollik bilan

fair-dealing [ˈfeəˌdiːlɪŋ] *n* vijdonlilik, toʻgʻrilik, halollik, poklik

fairground [ˈfeəgraʊnd] *n* yarmarka maydoni

fair-haired [ˈfeəhɛəd] *a* sargʻish sochli, oq, malla

fairing [ˈfe(ə)rɪŋ] *n* yarmarkadan sovgʻa (*koʻpincha, meva-cheva*)

fairly [ˈfeəli] *adv* 1) haqqoniy ravishda, odilona, haqqoniylik (odillik, adolat) bilan, toʻgʻri; 2) ancha, yetarli darajada; 3) mutlaqo, juda, gʻoyat; 4) *amer.* albatta, soʻzsiz, shak-shubhasiz

fairness [ˈfeənəs] *n* 1) adolatlilik, haqqoniylik, odillik, toʻgʻrilik; 2) ozodalik, pokizalik, tozalik; **in all ~** vijdonan gapirganda, ochigʻini (rostini) aytganda

fair-spoken [ˈfeəˌspəʊkən] *a* xushmuomala, muloyim, yumshoq

fairway [ˈfeəweɪ] *n* farvater (*suvinig kemalar yura oladigan chuqur joyi, kema yoʻli*); kema qatnaydigan kanal

fair-weather [ˈfeə,wedə] *a* 1) faqat yaxshi ob-havoda foydalaniladigan; 2) ishonchsiz, faqat qulay sharoitlarda yaxshi boʻlgan; ~ **friends** ishonchsiz doʻstlar; **a ~ sailor** tajribasiz dengizchi

fairy [ˈfe(ə)ri] 1. *n* sehrgar (jodugar) ayol; 2. *a* sehrlı, sehrlab qoʻyadigan, maftun qiladigan, goʻzal, afsonaviy

fairyland [ˈfe(ə)rilənd] *n* afsonaviy mamlakat

fairy lights [ˈfe(ə)rlaɪts] *n pl* xitoy fonarchalari (shishali chiroqchalari)

fairy-mushroom [ˈfe(ə)ri,mʌʃrʊm] *n* qurbaqasalla (*zaharli qoʻziqorin*)

fairy-tale [ˈfe(ə)riːtəl] *n* afsona, ertak

fait accompli [ˈfeɪtə ˈkɒmpli:] *n fr*; boʻlgan voqea

faith [feɪθ] *n* 1) ishonch, ishonish; **to have ~ in smth.** biror narsaga ishonmoq; **to place one's ~ in smth.** biror narsaga koʻr-koʻrona ishonmoq; 2) eʼtiqod, din; **the Muhammadan** ~ islom dini; 3) maslak, nuqtayi nazar, qarash; **a political ~** siyosiy maslak; **to keep one's ~** oʻz nuqtayi nazarida qatʼiy turmoq; 4) sodiqlik, sadoqatlilik, tarafdorlik; **in good ~** chin qalbdan, toza vijdon bilan; 5) vaʼda qilish, kafil boʻlish, soʻz berish; **to keep (one's) ~** soʻzida turmoq

faithful [ˈfeɪθf(ə)l] *a* 1) chin, sodiq, sadoqatli; vafodor; **a ~ friend** sadoqatli doʻst; 2) aniq ishongan, ishonch qozongan; 3) vijdonli

faithfully [ˈfeɪθf(ə)li] *adv* vijdonan, toʻgʻri, halollik bilan; **to serve smb. ~** kimgadir vijdonan xizmat qilmoq

faithfulness [ˈfeɪθf(ə)lnəs] *n* sodiqlik, vafodorlik, sadoqat, vafu, sidqidillik

faithless [ˈfeɪθləs] *a* ahdini buzuvchi, oʻz soʻzida turmaydigan, bevafo

fake [feɪk] 1. *n* 1) qalbaki, soxta, yasama; 2) yolgʻonchilik, firibgarlik, gʻirromlik; 2. *v* 1) qalbaki narsa yasamoq; 2) aldamoq

faked [ˈfeɪkt] *a* soxta, qalbaki, yasama, qalbakilashtirilgan; ~ **diamonds** soxta olmoslar; **a ~ report** qalbaki hisobot

faker [ˈfeɪkə] *n* firibgar, qallob, muttaham

fakir [ˈfeɪkɪə, ˈfæ ˈkiə] *n* darvesh, qalandar, faqir

Falangist [ˈfæləndʒɪst] *n* falangist, falangachi (*Ispaniyada: fashistik partiya aʼzosi*)

falcate [ˈfælkeɪt] *a max.* oʻroqqa oʻxshash, oʻroqsimon

falcated [ˈfækeɪtɪd] = falcate

falchion [ˈfɔ:l(t)ʃ(ə)n] *n* kalta, lekin enli egri qilich, shamshir

falciform [ˈfæltsɪfɔ:m] *a* egik, ilgaksimon, oʻroqsimon

falcon [ˈfɔ:lkn] *n zool.* lochin

falconer [ˈfɔ:lknə] *n* lochin bilan ov qiladigan ovchi

falconet [ˈfɔ:lknə ˈnet] *n zool.* qarqunoq, olatoʻgʻanoq

falconry [ˈfɔ:lknəri] *n* lochin ovi

falderal [ˈfældərəl] *n* mayda-chuyda bezak, buyum, zeb-ziynat, pardoz

faldstool [ˈfɔ:ldstʊ:l] *n* 1) *cherk.* yepiskopning buklanadigan kreslosi; 2) buklanadigan kichkina qiya stol

fall [fɔ:l] 1. *n* 1) pasayish, tushish; 2) pastga tushish; ~ **in temperature** haroratning pasayishi; 3) sharshara; **the ~ s of Niagara** Niagara sharsharasi; 4) pastlik, qiyalik, qoya; 5) toʻkilish (*soch haqida*); 6) *amer. kuz*; 2. *v* (**fell**; **fallen**) 1) tushmoq, tushib ketmoq; pasayib ketmoq; 2) halok boʻlmoq; **to ~ in battle** jangda halok boʻlmoq; **to ~ about soʻzl.** qattiq kulgidan ichagi uzilmoq, kulaverib ichagi uzilmoq; **to ~ across** toʻsatdan uchrashib qolmoq; **to ~ away** tashlab ketmoq; **all his old friends fell away** hamma qadrdon doʻstlari uni tashlab ketdilar; **to ~ off** tushmoq; **all the leaves have ~ en off** hamma barglar toʻkilib boʻldi

fallacious [fə ˈleɪʃəs] *a* xato, notoʻgʻri; **a ~ argument** notoʻgʻri dalil (isbot)

fallacy [ˈfæləsi] *n* xatolik, xato; xato fikr, notoʻgʻri xulosa

fallal [fæ ˈlæl] *n* bezak, zeb-ziynat, yarqiroq taqinchoqlar

fallen [ˈfɔ:lən] 1. *p. p. of fall* 2; 2. *a* yiqilgan, qulagan, yiqilib tushgan; 3. *n* (**the ~**) urushda halok boʻlganlar

fall-guy [ˈfɔ:lɡaɪ] *n jarg.* hamma baloga toʻgʻanoq odam; boshqalarning aybiga javobgar boʻlib qolgan odam

fallibility [ˈfælə ˈbɪləti] *n* xatolik, notoʻgʻrilik, yanglisblik, xato, nuqson, kamchilik

fallible [ˈfæləb(ə)l] *a* xato qilgan, xato qilishi mumkin boʻlgan

falling [ˈfɔ:lɪŋ] *n* 1) yiqilish, yiqilib tushish; 2) tushish, pasayish

falling sickness [ˈfɔ:lɪŋ,sɪknəs] *n tib.* epilepsiya, tutqanoq, quyonchiq (*kasallik*)

fall-out [ˈfɔ:l ˈaʊt] *n* yogʻilgan radioaktiv zarralar

fallow [ˈfæləʊ] 1. *n q.x.* ekilmagan, dam berib qoʻyilgan yer (*shudgor qilib, bir yoz boʻsh qoldirilgan yer*); 2. *v* shudgor qilmoq; 3. *a* qizgʻish-sariq

fallow-deer [ˈfæləʊdɪə] *n* lan (*bug'ularga mansub juft tuyoqli hayvon*)
false [fəʊls] *a* 1) soxta, qalbaki; ~ **pride** qalbaki mag'rurlik; 2) yasama; ~ **hair** yasama soch, parik
false alarm [ˈfəʊlsəˈlɑ:m] *n* yolg'ondakam trevoga (xavfni bildiruvchi signal)
false arch [ˈfəʊlsɑ:t] *n* *qur.* manzarali ravoq
false-bottomed [ˈfəʊlsˈbɒtəmd] *a* qo'sh tubli
false-hearted [ˈfəʊlsˈhɑ:tid] *a* ahidini buzuvchi, o'z so'zida turmaydigan, ahiddan qaytuvchi; bevafo
falsehood [ˈfəʊlshʊd] *n* yolg'on, yolg'on (noto'g'ri) gap; **he never told ~s** u hech qachon yolg'on gapirmagan
falsely [ˈfəʊlsli] *adv* soxta, yolg'ondakam, yasama
falseness [ˈfəʊlsnəs] *n* xatolik; yolg'onchilik, makkorlik
false start [ˈfəʊlsˈstɑ:t] *n* 1) *sport.* falstart (*komandu berilmasdan oldin olingan start*); 2) muvaffaqiyatsiz boshlanish
falsezzo [fəʊlˈsetəʊ] *n* *mus.* falset (*ashula aytishda: juda baland ovoz*)
falsework [ˈfəʊlswɜ:k] *n* havoz (qurilishlarda devor yoniga yog'och yoki metallardan qavat-qavat qilib ishlangan muvaqqat qurilma)
falsification [ˈfəʊlsɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* soxtalash-tirish, qalbakilashtirish
falsify [ˈfəʊlsɪfaɪ] *v* soxtalash-tirmoq, qalbakilashtirmoq, buzib ko'rsatmoq
falsity [ˈfəʊlsɪti] *n* 1) yolg'onlik, soxtalik, xatolik; 2) ahidini buzish
falter [ˈfɔ:ltə] *v* 1) noto'g'ri harakat qilmoq; 2) ikkilanmoq
faltering [ˈfɔ:lt(ə)rɪŋ] *a* ikkilanuvchi, jur'atsiz; ishonchsiz; ~ **steps** ishonchsiz (noto'g'ri) harakat; **a ~ voice** titraydigan (qaltiraydigan) ovoz
fame [feɪm] *1. n* shon-sharaf, shuhrat, dong; **to make ~** sharafiga erishmoq; *2. v* mashhur bo'lmoq
famed [feɪmd] *a* mashhur, nomi chiqqan, tanilgan
familiar [fəˈmɪliə] *1. a* yaqin, qalin, qadrdon; ~ **friends** qadrdon do'stlar; *2. n* yaqin do'st, qadrdon o'rtoq, sirdosh o'rtoq
familiarity [fəˈmɪlɪˈæri] *n* 1) yaqinlik, yaqin tanish, yaqin (do'stona) munosabat; 2) (*biror narsa bilan*) yaxshi tanish bo'lish, (*biror narsadan*) xabardor bo'lish
familiarization [fəˈmɪlɪəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) (*biror narsani*) o'zlashtirish, bilib olish; 2) tanishish, tanishtirish
familiarize [fəˈmɪlɪəraɪz] *v* tanishtirmoq, ko'rsatmoq; **to ~ smb. with a new job**

biror kimsani yangi ish bilan tanishtirmoq;
to ~ oneself with smth. nima bilandir tanishib chiqmoq, nimanidir ko'rib (o'rganib) chiqmoq
familiarly [fəˈmɪliəli] *adv* 1) yaqindan, yaqin, yaxshi; 2) odatda, qoida bo'yicha; 3) betakallufona, takalluf qilmasdan
family [ˈfæm(ə)li] *1. n* oila, oila a'zolari, urug'; ~ **likeness** oilaviy o'xshashlik; **a ~ hotel** oila uchun mehmonxona; **a ~ friend** oila do'sti; **a ~ name** familiya; *2. attr.* 1) oilaga oid, oilaviy, oila...; **a man of ~** oilali kishi; **a man of good ~** yaxshi oiladan chiqqan kishi; 2) *max.* oila; **cat ~ zool.** mushksimonlar oilasi; 3) hamdo'stlik, bir-lashma, uyushma
family doctor [ˈfæm(ə)liˈdɒktə] *n* biror uy (oil)ning shifokori
famine [ˈfæmɪn] *n* ochlik, tabiiy ofat; ochar-chilik; **to die of ~** ochlikdan o'lmoq
famish [ˈfæmɪʃ] *v* 1) och qolmoq, ochiq-moq; **I'm ~ing** so'zl. men ochlikdan o'lyap-man; 2) ochdan o'ldirmoq
famished [ˈfæmɪʃt] *a* och, och qolgan
famous [ˈfæməs] *a* atoqli, shonli, mashhur; **he is a ~ English writer** u atoqli ingliz yozuvchisi; **he has a ~ appetite** uning ishtahasi zo'r; **that's ~ zo'r, a'lo;** **to be ~ for** biror narsa bilan mashhur bo'lmoq
famously [ˈfæməsli] *adv* juda, juda ham, rosa; **they dined ~ in a Chinese restaurant** ular Xitoy restoranida zo'r tushlik qilishdi
famuli [ˈfæmjʊlə] *pl of famulus*
famulus [ˈfæmjʊləs] *n* (*pl -li [-laɪ]*) 1) lot. shaxsiy kotib; 2) olim yoki fokusning yordamchisi
fan I [fæn] *1. n* 1) yelpig'ich, buklama yelpig'ich; 2) shamol parrak; **an electric ~** elektr shamol parrak; *2. v* 1) yelpimoq, (*donni*) yelpib (shopirib) tozalamoq; 2) puf-lamoq
fan II [fæn] *n* 1) jonboz, tashabbuskor; 2) ishqiboz, havasmand; **he is a football ~** u futbol ishqibozi; **a film ~** film ishqibozi
fanatic [fəˈnætɪk] *n* 1) o'taketgan mutaassib; 2) o'ta ishqiboz, biror ish yoki g'oyaga jon-dili bilan berilgan odam, fanat
fanatical [fəˈnætɪk(ə)] *a* mutaassib bo'lgan
fanaticism [fəˈnætɪsɪz(ə)m] *n* fanatizm, o'taketgan mutaassiblik
fan belt [ˈfænbelt] *n* *avr.* sovitch tasmasi (*radiatorda*)
fancier [ˈfænsɪə] *n* yaxshi biladigan, bilag'on; bilimdon, bilarmon, usta, omilkor
fanciful [ˈfænsɪf(ə)l] *a* 1) serxarxasha, injiq; **a ~ child** injiq bola; 2) jonli tasavvurga,

fantaziyaga ega bo'lgan; 3) xayoliy, tasavvuriy, noreal; aqlga to'g'ri kelmaydigan; 4) g'alati, ajib, ajoyib

fancy [ˈfænsɪ] 1. *n* xayol, faraz, o'y, tasavvur; 2. *a* 1) havasmand, ishqiboz; 2) zamonaviy; ~ **goods** zamonaviy mahsulotlar; 3) gul solib tikilgan, gulli; 3. *v* 1) tasavvur qilmoq; **I can't ~ him as soldier** men uning askar bo'lganini tasavvur qilolmayman; 2) yoqtirmoq; **I don't ~ this place at all** men bu joyni umuman yoqtirmayman; 3) kerilmoq, manmanlik qilmoq

fancy-ball [ˈfænsɪˈbɔ:l] *n* maskarad (*niqob va maxsus kiyimlar kiyib o'tkaziladigan sayil*)

fancy-dress [ˈfænsɪˈdres] *a* maskarad libosi

fancy-free [ˈfænsɪˈfri:] *a* oshiq bo'lmagan, sevmagan; uylanmagan, unashtirilmagan

fancy-work [ˈfænsɪˈwɜ:k] 1. *v* gul tikib bezamoq; 2. *n* kashta tikish, kashtado'zlik

bandango [ˈfæŋˈdæŋgəʊ] *n* 1) bandango (*ispancha raqs*); 2) *amer. so'zl.* katta bazm, o'yin-raqs kechasi

fane [ˈfæni] *n* ibodatxona, butxona

fanfare [ˈfænfə] *n* *mus.* fanfara (*puflab chalinadigan musiqa asbobi*)

fanfaronade [ˈfænfərəˈneɪd] *n* maqtanchoqlik, lofchilik, kekkayishlik, maqtanish, gerdayish, lof urish

fang [ˈfæŋ] *n* 1) qoziq tish, so'yloq tish; 2) zaharli tish (*ilonlarda*); 3) tishning ildizi

fan-light [ˈfænlɑ:t] *n* *me'mor.* yelpig'ich shaklidagi deraza (*eshik tepasida*)

fanner [ˈfænə] *n* shamolmashina (*don sovuradigan mashina*)

fanny [ˈfæni] *n* quyruq qism, quyruq, dum, orqa

fantasia [ˈfæniˈteɪzɪə] *n* *mus.* fantaziya (*erkin shaklda yozilgan musiqa asari*)

fantasize [ˈfæntəsaɪz] *v* o'ylamoq, tasavvur qilmoq, xayoliga keltirmoq

fantastic(al) [ˈfæntəstɪk(əl)] *a* antiqa, g'aroyib, ajoyib; ~ **ideas** g'aroyib o'ylab topilgan narsalar; ~ **fears** yolg'ondakam qo'tquv; ~ **profit** juda katta foyda

fantasticity [ˈfæntəstɪˈkæləti] *n* ajoyiblik, g'aroyiblik, antiqalik

fantasy [ˈfæntəsi] *n* 1) xayol; fantaziya, tasavvur; 2) ko'z bo'yash; 3) injiqlik

fantoccini [ˈfæntəˈtʃi:ni] *n* *ital. pl* 1) qo'g'irchoqlar teatri; 2) qo'g'irchoqlar

fan tracery [ˈfænˌtreɪs(ə)rɪ] *n* *me'mor.* gum-baz (qubba) qirrası

faqir [ˈfeɪkɪə] = **fakir**

far [fɑ:] (**farther, further; farthest, furthest**) 1. *adv* 1) uzoq, yiroq; 2) anchagina xiyla; 3) uzoq o'tmishda yoki kelajakda;

(*biror davr*) oxirida, oxiriga kelib; ~ **back in the past** uzoq o'tmishda; ~ **and near** uzoq-yaqindan, hamma yoqdan; **he saw ~ and wide** u dunyoqarashi keng inson edi; **as ~ as a** ... gacha; b) qanchalik; nechog'liq, naqadar; 2. *a* uzoqdagi, olisdagi; **the Far East** Uzoq Sharq

farad [ˈfærəd] *n* *el.* farada (*elektr sig'imi birligi*)

faradization [ˈfærədəɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* induksiya (*induksiyalangan*) tok bilan davolash, faradzatsiya

far-away [ˈfɑ:ˌrəweɪ] *a* 1) uzoq, yiroq, olis; uzoqdagi, yiroqdagi, olisdagi; 2) ma'nosiz, befarq; **a ~ look** ma'nosiz qarash

far-between [ˈfɑ:bɪˈtwi:n] *a* siyrak, kam; **father's visits were few and ~** otam onda-sonda kelardi

farce I [ˈfɑ:s] *n* 1) qo'pol hazil, maynabozchilik; 2) *teatr.* kichik hajviy pyesa

farce II [ˈfɑ:s] 1. *n* qiyma (*go'sht qiymasi*); 2. *v* qiyma solmoq, qiyma bilan to'ldirmoq

farceful [ˈfɑ:sɪk(ə)] *a* maskarabozlarcha, qiziqchilarcha

farey [ˈfɑ:si] *n* manqa (*otlarda bo'ladigan yuqumli kasallik*)

farfel [ˈfɑ:dl] *n* 1) tugun, bo'xcha; 2) og'ir yuk

fare [feə] *n* 1) yo'l haqi; yo'l haqi qiymati; **what is the ~?** yo'l haqi (chipta) qancha turadi?; 2) yo'lovchi; **to pick up a ~** yo'lovchi olmoq; 3) oziq-ovqat; **simple ~** oddiy ovqat; **spiritual ~** ma'naviy oziq

Far-Eastern [ˈfɑ:(r)ˈi:stən] *a* Uzoq Sharqdagi, Uzoq Sharqqa oid

farewell [ˈfeəˈweɪl] 1. *n* xayrlashish, vido-lashish; **to make one's ~s** xayrlashmoq; 2. *a* xayrlashuvga oid

far-famed [ˈfɑ:ˈfermd] *a* dong'i chiqqan, dong taratgan, mashhur

far-fetched [ˈfɑ:ˈfetʃt] *a* sun'iy, yasama, notabiiy

far-flung [ˈfɑ:ˈflʌŋ] *a* 1) keng yoyilgan; 2) bepoyon

far-gone [ˈfɑ:ˈgɒn] *a* uzoqqa cho'zilgan, chuqurlashgan; **sitting in the ~ night** yarim tungacha o'tirish; 2) g'irt mast; 3) qarzga botgan

farina [ˈfɑ:ri:nə] *n* 1) un; 2) kukun; 3) bug'doy yormasi; 3) kraxmal, kartoshka uni

farinaceous [ˈfæriˈneɪʃəs] *a* kraxmalli, unli, serkraxmal, un solingan

farinose [ˈfæriˈnəʊs] *a* kraxmalli, unli, tarkibida un yoki kraxmal bo'lgan

farm [fɑ:m] 1. *n* 1) ferma, xo'jalik; **a milk ~** sut fermasi, sut xo'jaligi; **a collective ~** jamoa xo'jaligi; 2) dehqon xo'jaligi; **an indi-**

- vidual** ~ yakka xo'jalik; 3) niholxona, qo'riqxon; 4) fermadagi turar joy; 2. v 1) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmoq; 2) (yerga) ishlov bermoq; 3) ijaraga olmoq, ijaraga bermoq
- farmer** [fɑ:mə] *n* fermer; a **cattle** ~ chorvador; chorvachilik fermasining egasi; a **collective** ~ jamoa xo'jaligida ishlovchi kishi; 2) ijarachi, ijaraga oluvchi
- farm-hand** [fɑ:mhænd] *n* qishloq xo'jaligi ishchisi
- farm-house** [fɑ:mhaus] *n* qishloq xo'jaligidagi turar joy (uy)
- farming** [fɑ:mɪŋ] *n* 1) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish, dehqonchilik; 2) qishloq xo'jaligi
- farmstead** [fɑ:msted] *n* 1) qo'rg'oncha, qishloqcha; 2) hovli-joy; 3) qo'rg'on (jamoa xo'jaligining uy-joylar va xo'jalik binolari bo'lgan shahar tipidagi qishloq)
- farmyard** [fɑ:mjɑ:d] *n* ferma hovlisi
- faro** [fə(ə)rəʊ] *n* faraon (qarta o'yinining bir turi)
- far-off** [fɑ:(r)'ɒf] *a* 1) uzoq, ilgari, allaqachon; it **happened in those ~ days** bu ilgari bo'lib o'tgan; 2) uzoq, olis, yiroq, uzoqdagi, yiroqdagi
- farouche** [fə'ru:ʃ] *a* 1) odamovi; kishilarga aralashmaydigan, yovvoyi; 2) xo'mraygan, badqovoq
- far-out** [fɑ:(r)'aʊt] *a* hayotdan ajralib qolgan; atrofda bo'layotganlardan bexabar
- farraginous** [fə'reɪdʒɪnəs] *a* aralash, terma, yig'ma, terilgan, terib olib tuzilgan
- farrago** [fə'rɑ:gəʊ] *n* aralashma, har xil narsalar, olamdagi bor narsalar, qorishma
- far-reaching** [fɑ:'ri:tʃɪŋ] *a* 1) keng qo'llaniladigan; 2) keng tatbiq etilgan, keng joriy qilingan
- farrier** [færiə] *a* temirchi, taqachi
- farriery** [færiəri] *n* 1) temirchilik, taqachilik; 2) temirchilik ishxonasi
- farrow** [færəʊ] 1. *n* bolalash, tug'ish (*cho'chqa haqida*); 2. *v* bolalamoq, tug'moq (*cho'chqa haqida*); 3. *a* amer. qisir (*sigir haqida*)
- far-seeing** [fɑ:'si:ŋ] *a* uzoqni ko'ruvchi, sinchkov, oldindan ko'ra biluvchi
- far-sighted** [fɑ:'saɪtɪd] *a* uzoqni ko'ra biladigan
- fart** [fɑ:t] *qo'pol*. 1. *n* 1) organizmdan chiqayotgan gazning ovozi; 2) sassiq kishi; 2. *v* 1) organizmdagi gazni chiqarib tashlamoq; 2) sasimoq, yomon gapirmoq
- farther** [fɑ:ðə] *a* 1) ancha uzoq, olis; at the ~ shore narigi qirg'oqda; 2) qo'shimcha; **have you anything ~ to say?** yana biror narsa qo'sha olasizmi?
- farthermost** [fɑ:ðəməʊst] *a* eng uzoq, juda yiroq; the ~ point eng oxirgi nuqta
- farthest** [fɑ:ðɪst] *a* eng uzoqdagi, eng oxirgi
- farthing** [fɑ:ðɪŋ] *n* esk. *farting* (1/4 pens); the **uttermost** ~ oxirgi tanga; it's **not worth** a ~ bir chaqaga qimmat; **not to care a brass** ~ tupurmoq, umuman qiziqmaslik
- farthingale** [fɑ:ðɪŋgeɪl] *n* tar. fijmali yubka (XVIII - XIX asrlarda: ayollar yubkasi etagini qappaytirish uchun ichidan qo'yiladigan gardish va shu usulda tayyorlangan yubka)
- fascia** [fæɪʃə] *n* (pl -iae) 1) chiziq, chiziqcha; 2) korxon, muassasa va sh. k. ning nomi yozilgan va kiraverishdagi osib qo'yilgan lavha
- fasciae** [fæɪʃi:] *pl of fascia*
- fascicle** [fæɪsɪk(ə)l] *n* bot. bir bog', bir bosh, bir shingil
- fascicule** [fæɪstɪkjʊ:l] = fascicle
- fascinate** [fæɪsɪneɪt] *v* hayratda qoldirmoq, asir qilmoq; maftun qilmoq, jalb etmoq
- fascinating** [fæɪsɪneɪtɪŋ] *a* o'ziga tortuvchi, o'ziga qaratadigan, asir qiladigan, maftunkor
- fascination** [fæɪsɪ'neɪʃ(ə)n] *n* ko'rkamlilik, go'zallik, joziba, maftun etish
- fascinator** [fæɪsɪneɪtə] *n* 1) sehragar, jodugar; 2) dilrabo, dilbar, maftunkor, jozibali
- fascine** [fæ'si:n] *n* shox-shabba yoki qamish bog'lami (to'g'on uchun ishlatiladi)
- fascism** [fæ'sɪz(ə)m] *n* fashizm (siyosiy oqim)
- fascist** [fæ'sɪst] *n* fashist
- fash** [fæʃ] 1. *n* tashvishlanish, bezovtalik, ranjish; 2. *v* bezovtalanmoq, tashvishlanmoq; **never ~ yourself with me** mendan xavotir bo'lmang
- fashion** [fæʃ(ə)n] *n* 1) harakat (muomala) tarzi; **he behaved in a strange ~** u o'zini g'alati tutdi; 2) fason, bichim, shakl; **the two cups are made after the same ~** ikkala piyolaning shakli bir xil; 3) uslub, rusum, moda; **he was dressed in the Eastern ~** u sharqona rusumda kiyingandi; **to come (to bring, to grow) into ~** rusum (moda) bo'lmoq; **to be in the ~** modaga rioya qilmoq; **out of ~** modadan chiqqan
- fashionable** [fæʃ(ə)nəb(ə)l] *a* zamonaviy; modadagi; rasm bo'lgan; a ~ dressmaker zamonaviy tikuvchi
- fashion designer** [fæʃ(ə)ndɪ,zəɪnə] *n* modelyer (kiyimlarning modelini ishlab chiquvchi mutaxassis)
- fashioner** [fæʃ(ə)nə] *n* tikuvchi, chevar
- fashionist** [fæʃ(ə)nɪ:st] *n* kam. modaga berilgan kishi, modaparast, olifta, bashang, satang; modaga berilgan (modaparast) ayol, bashang (satang) ayol

fashion-monger [ˈfæʃ(ə)n,mɒŋgə] *n* zamonaviy, modaga berilgan kishi, olifta (bashaŋ) kishi

fashion-paper [ˈfæʃ(ə)n,petpə] *n* modalar jurnali

fashion-plate [ˈfæʃ(ə)nplɛt] *n* 1) moda tasviri tushirilgan surat, moda sahifasi; 2) bashaŋ kiyingan ayol

fast I [fɑ:st] **I.** *n* zanjir, zulfın, tamba; **2.** *a* 1) qattiq, pishiq, mustahkam; ~ **rocks** qattiq qoyalar; **a hard and ~ rule** qattiq qoida; 2) mustahkam, pishiq biriktirilgan; 3) sabotli, matonatli, sodiq; **a ~ friend** sodiq do'st

fast II [fɑ:st] **I.** *a* 1) tezkor, chaqqon; **a ~ horse** uchqur ot; **a ~ tank** tezyurar tank; **he is a ~ worker** u tez ishlaydi; 2) tez yurish yoki tez harakatlanishga moslangan; ~ **track** poyezdning tez yurishiga moslangan yo'l; 3) oldin ketish (*soat to'g'risida*); **my watch is 5 minutes ~ soatim** 5 daqiqa oldin; 4) yengiltak, mulohazasiz, oqibatini o'ylamaydigan; **to lead a ~ life** sayoq yashamoq; **a ~ woman** suyuqoyoq ayol; **2.** *n* *din.* ro'za; **a day for a general ~ ro'za** kuni

fasten [ˈfɑ:s(ə)n] *v* 1) bog'lamoq, tugmoq; **to ~ shoelaces** tufli ipini bog'lamoq; **to ~ a boat to a tree** qayiqni daraxtga bog'lamoq; 2) mustahkamlamoq, biriktirmoq; 3) yopmoq; ~ **the window** derazani yoping (*deraza sumbasini solish*); 4) qotmoq, yopishmoq; **the plaster ~ s slowly** suvoq sekin qotadi; 5) (*diquatni, e'tiborni*) jamlamoq, to'plamoq, qaratmoq; **he ~ ed his eyes on the picture** u rasmdan ko'zini uzmasdi; 6) (*on, upon*) majburan qabul qildirmoq, bo'yniga ortmoq, o'tqazmoq; **to ~ the blame upon smb.** aybni birovga ag'darmoq

fastener [ˈfɑ:s(ə)nə] *n* 1) qulf, ilgak, zanjir, zulfın, tamba, tirgak; 2) qisqich, iskanja; 3) qog'oz qisqichi

fastening [ˈfɑ:s(ə)nɪŋ] *n* biriktirish, bog'lash, qistirib qo'yish

faster-than-sound [ˈfɑ:stəðən'saund] *a* tovushdan tez uchadigan; ~ **aircraft** tovushdan tez uchadigan samolyot

fastfood [ˈfɑ:stfu:d] *n* tez yeb olinadigan taom (*gamburger, sosiska va b.*)

fasti [ˈfæsti:] *n* lot. solnoma, yilnoma (*zamonadoshlar tomonidan yilma-yil yozib berilgan tarix*)

fastidious [fæˈstɪdiəs] *a* 1) farqiga boradigan, tanlaydigan, talabchan, injiq; **don't be so ~ bunchalik** injiq bo'lma; 2) nozik, nafis; ~ **hands** bejirim qo'llar

fasting [ˈfɑ:stɪŋ] **I.** *n* ro'za; **2.** *a* ro'za tutgan; **3.** *adv* och qoringa

fastness [ˈfɑ:stnəs] *n* 1) pishqlik, mustahkamlik; 2) chidamlilik; 3) qal'a, qo'rg'on, istehkom; 4) *biol.* organizmning ayrim zaharlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati

fat [fæt] **I.** *n* 1) yog', moy; **vegetable ~ o'simlik** yog'i; 2) semizlik, to'lafik, yo'g'onlik; **to be inclined to ~** semirishga moyil bo'lmoq; 3) (*biror narsaning*) eng yaxshi qismi; **to live on the ~ of the land** dabdabali yashamoq, barcha qulayliklardan foydalanmoq; **2.** *a* 1) yog'li, moyli; ~ **soup** yog'li sho'rva; 2) semiz, yo'g'on, to'la; **with years he was grown ~** yillar o'tib u semirib ketdi; 3) bo'rdoqiga boqilgan, semirtirilgan; **a ~ ox** semirtirilgan buqa; 4) hosildor, semiz (*yer haqida*); 5) mo'l-ko'l, boy, serob; **a ~ larder** to'la ombor; 6) so'zl. foydali, daromadli; **a ~ job** daromadli ish

fatal [ˈfeɪtəl] *a* 1) peshanaga yozilgan, taqdir-dagi; 2) halokatli, falokatli, mash'um; o'ldiradigan

fatalism [ˈfeɪtəliz(ə)m] *n* fatalizm (*taqdirga ishonish*)

fatality [fəˈtælɪti] *n* 1) baxtsizlik, halokat, o'lim (*urush, baxtsiz hodisa va shu kabillarda*); 2) taqdir, qismat, peshana; **to believe in ~** taqdirga ishonmoq

fata morgana {ˈfɑ:təmə: ˈgɑ:nə} *n* 1) sarob; 2) Morgana sarobi (*bunda suv o'rında nurlı narsalar ko'ringanday bo'ladi*)

fate [feɪt] *n* taqdir, qismat, peshana

fated [ˈfeɪtɪd] *a* oldindan belgilangan, peshanasiga yozilgan

fateful {ˈfeɪt(ə)l} *a* muqarrar, peshanaga yozilgan

fat-free [ˈfæt fri:] *a* yog'sizlantirilgan, yog'iolingan, kerkizilgan, yo'qotilgan, yog'dan tozalangan, yog'siz, moysiz (*taom haqida*)

fat-guts [ˈfætɡʌts] *n* so'zl. semiz odam, yo'g'on odam

fat-head [ˈfæθed] *n* ahmoq, tentak, nodon

father [ˈfɑ:ðə] *n* 1) ota; **an adoptive ~** tutingan ota; **a natural ~** nikohsiz tug'ilgan bolaning otasi; 2) yaratuvchi, ijodkor; 3) katta a'zo (oqsoqol); **city ~s** shahar otalari; shahar boshqaruvi a'zolari; 4) ma'naviy ota, ruhoni

Father Christmas [ˈfɑ:ðəˈkrɪsməs] *n* qor-bobo

father figure [ˈfɑ:ðəˈfɪgə] *n* insonlar o'z otalaridek sevib hurmat qiladigan kishi

fatherhood [ˈfɑ:ðəhʊd] *n* otalik, ota bo'lish

father image [ˈfɑ:ðə(r),ɪmɪdʒ] = **father figure**

father-in-law [ˈfɑ:ð(ə)rɪnlɔ:] *n* qaynata (*xotini yoki erining otasi*)

fatherland [ˈfɑ:ðələnd] *n* vatan, yurt

fatherless [ˈfɑːðələs] *a* otasiz qolgan, otasiz

fatherly [ˈfɑːðəli] *a* otalarcha, otaga xos; ~ **responsibility** oralik javobgarligi

fathom [ˈfæð(ə)n] **1.** *n* 1) dengiz sarjini (= 6 fut yoki 182 sm.); 2) izobata (*xaritalarda: dengiz, darvo, koʻl chuqurligi birday boʻlgan joylarni birlashtiruvchi chiziqlar*); ~ **line** deng. lot (*chuqurlikni oʻlchash asbobi*); **2.** *v* 1) (*suvning*) chuqurligini oʻlchamoq; 2) tushunmoq; **I can't ~ his meaning** u nima demoqchiligini men tushuna olmayapman

fathometer [ˈfæθ(ə)mɪtə] *n* deng. exolot (*dengiz chuqurligini elektroakustik usul bilan oʻlchaydigan asbob*)

fathomless [ˈfæð(ə)mɪləs] *a* 1) oʻlchab boʻlmaydigan; tubsiz; **the ~ depths of the sea** dengizdagi tubsiz chuqurlik; 2) aql yetmaydigan, aqlga sigʻmaydigan, aql bovar qilmaydigan

fatidic(al) [ˈfeɪ ˈtɪdɪk(əl)] *a* paygʻambarga oid, paygʻambarona

fatigue [ˈfæːtiːg] **1.** *n* 1) toliqish, charchash; 2) charchaganlik; charchatadigan ish; 3) *q.x.* oriqlash (*ver haqida*); **2.** *v* charchamoq, toliqmoq

fatigue-dress [ˈfæːtiːgdres] *n* *harb.* askar korjomasi, askarning ishga kiyadigan kiyimi

fatigue-duty [ˈfæːtiːg,djuːti] *n* *harb.* safdan tashqari(dagi) naryad

fatigue-party [ˈfæːtiːg,pɑːti] *n* *harb.* ishchi jamoa (guruh)

fatso [ˈfætsəʊ] *n* *soʻzl.* semiz (yoʻgʻon) odam; semiz ayol, semiz qiz

fatstock [ˈfætsɒk] *n* soʻyish uchun boqib semirtiriladigan mol

fatten [ˈfætn] *v* semirtirmoq, boʻrdoqiga boqmoq

fatty [ˈfæti] *a* 1) yogʻli, moyli; 2) toʻla, yoʻgʻon, semiz; ~ **degeneration of the heart** yurakning yogʻ bosib ketishi

fatuity [ˈfæːtjuːti] *n* ahmoqlik, befarosatlik, bemaʼnilik

fatuous [ˈfætjuəs] *a* ahmoqona, tentaknamo; **a ~ smile** bemaʼni tabassum

fat-witted [ˈfæt ˈwɪtɪd] *a* ahmoq, esi past, tentak, befarosat, befahm

faubourg [ˈfəubʊəg] *n* *fr.* shahar atrofi, shahar chegarasiga tutashgan qishloq yoki posyolka

fauces [ˈfəʊsiːz] *n* *pl anat.* jigʻildon, kekirdak, halqum

faucet [ˈfəʊsɪt] *n* 1) *amer.* vodoprovodning (suv quvurining) joʻmrangi; 2) joʻmrak; 3) *tex.* vtulka; 4) tiqin

faugh [fəː] *int* tuf! tfu! (*nafratni ifodalaydi*)

fault [fəʊlt] *n* 1) kamchilik, nuqson; **a ~ in cloth** gazlamadagi nuqson; 2) ayb, gunoh; **in (at) ~ aybdor**; **I am not in ~** men aybdor emasman; **whose ~ is it?** bunda kim aybdor? 3) xato; **there's your ~** mana xatoyingiz nimada; 4) xato, nojoʻya ish, buzish (*qonun va b. ni*)

faultfinder [ˈfəʊlt,faɪndə] *n* aybsituvchi, tirnoq ostidan kir izlaydigan odam

faultfinding [ˈfəʊlt,faɪndɪŋ] *n* asossiz ayb-lash, aybsitish, tirnoq ostidan kir izlash

faultless [ˈfəʊltlɪs] *a* xatosiz, benuqson, bekkam-koʻst; beayb

faultly [ˈfəʊltrɪ] *a* 1) nuqsonli, xatoli, nomukammal; 2) notoʻgʻri, xato; **a ~ argument** notoʻgʻri dalil; 3) buzilgan, shikastlangan, yaroqsiz

faun [fəʊn] *n* favn (*yunon mifologiyasida: hosildorlik xudosi; chorvachilik, dala va oʻrmonlar homiysi*)

fauna [ˈfəʊnə] *n* fauna (*maʼlum joy yoki davrga oid hayvonot dunyosi*)

faunae [ˈfəʊniː] *pl* of fauna

faux pas [ˈfəʊ ˈpɑː] *n* notoʻgʻri qadam

favor [ˈfeɪvə] *amer.* = favour

favorable [ˈfeɪv(ə)rəb(ə)l] *amer.* = favourable

favorite [ˈfeɪv(ə)rɪt] *amer.* = favourite

favour [ˈfeɪvə] **1.** *n* 1) xayrixohlik, moyillik, mayl; **in ~ of ...ning** foydasiga, nomiga; **to find ~ in smb.'s eyes** birovning iltifotiga sazovor boʻlmoq; **to be in high ~ with smb.** birovga juda yoqmoq; 2) iltifot koʻrsatish, iltifot, marhamat; **do me (him) a ~** menga (unga) iltifot koʻrsatsangiz; **to heap ~s upon smb.** kimnidir marhamatlar bilan koʻmib tashlamoq; afzallik berish, homiylik qilish (*nufuzli kishi tomonidan*); **to gain a position by ~ more than by merit** mansab (mavqe)ga xizmati tufayli emas, balki homiylik tufayli erishmoq; 4) qoʻllab-quvvatlash; yordam, koʻmak; 5) ruxsat, ijozat; **by (with) your ~** ijozatingiz bilan; 6) xabar, xat; **your ~ of yesterday** sizning kechagi xatingiz; **2.** *v* 1) marhamat qilmoq, mu-ruvvat koʻrsatmoq; **fortune ~s the brave** baxt botirlarga yoʻldosh boʻladi; **please ~ me with an answer** iltifot qilib savolimga javob bersangiz; 2) qulaylik tugʻdirmoq, yordam bermoq; **the darkness ~ ed his escape** qorongʻilik uning qochishiga qoʻl keldi; 3) qoʻllab-quvvatlamoq, homiylik qilmoq; 4) biror narsani eslatmoq, oʻxshash boʻlmoq; **the child ~s his mother** bola onasiga oʻxshaydi

favourable [ˈfeɪv(ə)rəb(ə)l] *a* 1) qulay, muvofiq keladigan; ~ **wind** muvofiq shamol;

2) xayrixoh, moyil, ko'ngli yaqin; **he was quite ~ to our project** u bizning loyihamizga xayrixohlik bilan qaradi; 3) ma'qullaydigan, ijobiy; **a ~ answer** ijobiy javob
favoured [ˈfeɪvəd] *a* 1) imtiyozli, imtiyozlardan foydalanadigan; afzal ko'radigan; **a ~ friend** sevimli do'st; 2) rohatbaxsh, orombaxsh (*iqlim va b. haqida*)
favourer [ˈfeɪv(ə)rə] *n* homiy, tarafdor
favourite [ˈfeɪv(ə)rɪt] 1. *a* sevimli, jonajon, yaxshi ko'rgan; 2. *n* eng yaxshi ko'rgan narsa
favouritism [ˈfeɪv(ə)rɪtɪz(ə)m] *n* favoritizm, favoritchilik, afzallik, ortiq (afzal) ko'rish
fawn [fɔ:n] 1. *n* 1) bug'u bolasi (*bir yoshgacha*); 2) sarg'ish-jigarrang; 3) so'zl. qullarcha xushomad qilish, qullarcha tiz cho'kish; 2. *v* 1) dumini likillatmoq, suykalmog (*it haqida*); 2) xushomad qilmoq, tiz cho'kmoq
fawn-coloured [fɔ:n,kələd] *a* sarg'ish-jigarrang
fawner [fɔ:nə] *a* xushomadgo'y, laganbardor
fawning I [ˈfɔ:nɪŋ] *n* buzoqlash, bolalash, tug'ish (*sigir, bug'u, las kabi hayvonlar haqida*)
fawning II [ˈfɔ:nɪŋ] *a* xushomadgo'ylarga xos, xushomadgo'ylarcha, xushomadgo'ylik (laganbardorlik) bilan qilingan
fax [fæks] 1. *n* faks; 2. *v* faks orqali jo'natmoq (yubormoq)
fay [feɪ] 1. *n* 1) ishonch, e'tiqod; 2) sodiqlik, vafodorlik, sadoqat, vafo; 3) maftun qiladigan (sehrlab qo'yadigan) go'zal ayol; pari (*G'arbiy Yevropa afsonasida*); 2. *v* zich biriktirmoq
faze [feɪz] *v amer.* 1) bezovta qilmoq; 2) ranjitmoq
fealty [ˈfi:(ə)ltɪ] *n* tar. qaram bo'lgan kishining feodalga sodiqligi
fear [fiə] 1. *n* 1) qo'rqish, cho'chish; **needless ~s** o'rinsiz cho'chishlar; **to be in ~** qo'rqmoq; **the ~ of death was upon him** o'lim dahshati uni chulg'ab olgandi; 2) xavfsirash, cho'chish; **there is not the slightest ~ of rain today** bugun yomg'ir yog'ishidan darak beradigan hech qanday xavf-xatar yo'q; 2. *v* 1) qo'rqmoq; **to ~ of ...dan qo'rqmoq**; **for ~ of ...dan qo'rqib**; **never ~** qo'rqmang; 2) xavfsiramoq, (*biror noxushlikni*) kutmoq
fearful [ˈfiəf(ə)l] *a* dahshatli, qo'rqinchli; **~ to do smth.** qo'rqib bir narsa qilmoq
fearfulness [ˈfiəf(ə)lnəs] *n* qo'rqoqlik, qo'rqinchlilik, dahshatlilik
fearless [ˈfiələs] *a* qo'rqmas, dadil, mard, jasur

fearlessness [ˈfiələsnəs] *n* mardlik, botirlik, qo'rqmaslik
fear-monger [ˈfiə,məŋgə] *n* vahimachi
fearnought [ˈfiəno:t] *n* patli qalin movut
fearsome [ˈfiə(ə)m] *a* dahshatli, qo'rqinchli, dahshatga soladigan
feasibility [ˌfi:zəˈbɪlɪtɪ] *n* bajarsa bo'ladiganlik, amalga oshadiganlik
feasible [ˈfi:zəb(ə)l] *a* bajarilishi (amalga oshirilishi) mumkin bo'lgan
feast [fi:st] 1. *n* 1) to'y, bazm, ziyofat; 2) bayram; **a ~ for the eyes** yoqimli tomosha; 2. *v* bayram qilmoq
feast-day [ˈfi:stdeɪ] *n* oilaviy tantana, oilaviy bayram
feat [fi:t] 1. *n* 1) jasorat; **~ of arms** harbiy jasorat; 2) mahorat, chaqqonlik, san'at; 2. *a* esk. epchil, chaqqon, abjir
feather [ˈfeðə] *n* 1) pat, par (*parrandaniki*); **as light as a ~** pardek yengil; 2) ov. parranda; 3) biror yengil narsa, arzimmas narsa
feather-bed [ˌfeðəˈbed] 1. *n* parto'shak; 2) qulay joy; 2. *v* erkalamoq, erkalatmoq
feather-brain [ˈfeðəbreɪn] *n* yengiltak (betayin, yengiltabiat) odam
feather-brained [ˈfeðəbreɪnd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq
feathered [ˈfeðəd] *a* 1) par (pat) bilan qoplangan *yoki* bezatilgan; 2) par (pat) shaklidagi; 3) qanotli, qanoti bor, barqanot, uchar; **our ~ friends** bizning qanotli do'stlarimiz (*qushlar*)
feather-grass [ˈfeðəgrɑ:s] *n* bot. kovil, challo
featherhead [ˈfeðəhed] = **featherbrain**
feather-headed [ˌfeðəˈhedɪd] = **feather-brained**
feathering [ˈfeð(ə)rɪŋ] *n* pat, qush patlari
feather-pate [ˈfeðəpeɪt] = **feather-brain**
feather-pated [ˌfeðəˈpeɪtɪd] = **feather-brained**
feather-stitch [ˈfeðəstɪtʃ] *n* boshogqa o'xshatib gul tikish
feather-weight [ˈfeðəweɪt] *n* juda yengil odam *yoki* narsa
feathery [ˈfeð(ə)rɪ] *a* patga o'xshagan
feature [ˈfi:tʃə] 1. *n* 1) yuz tuzilishi; **she had oriental ~s** uning yuz tuzilishi sharqona edi; 2) xususiyat, o'ziga xos belgi; **the geographical ~ of a district** joyning o'ziga xos geografik xususiyatlari; 3) dastur, tomoshaning eng qiziqarli joyi; **the actress is the main ~ of the show** aktrisa tomoshaning tayanchi hisoblanadi; 4) maqola, ocherk (*gazetada, jurnalda*); 5) to'la metrajli film; 2. *v* 1) o'ziga xos, farqlovchi xususiyat bo'lmoq; 2) tasvirlamoq, chizmoq;

- rasm solmoq; 3) ko'rsatmoq, namoyish qilmoq (*ekranda*); 4) gazetada bermoq (*ko'rinadigan joyda*)
- feature-length** [ˈfi:tʃələŋθ] *a kino. to'la metrajli*
- featureless** [ˈfi:tʃələs] *a hech narsa anglatmaydigan, ifodasiz*
- febrifuge** [ˈfebrɪfju:dʒ] 1. *tib. n isitma pasaytirgich (dori); 2. a isitmani pasaytiradigan, haroratni tushiradigan*
- febrile** [ˈfi:brail] *a isitma vaqtida bo'ladigan, isitmali; ~ chill isitma aralash titroq; a ~ state isitma holati*
- February** [ˈfebru(ə)rɪ] *n fevral; ~ days fevral kunlari*
- feces** [ˈfi:sɪz] *amer. = faeces*
- fecit** [ˈfi:stɪ] *v lat. bajarildi, ijro etildi; tayyorladi (rassomning imzosi)*
- feck** [fek] *n 1) kuch; 2) aksariyat, ko'p qismi*
- feckless** [ˈfekləs] *a 1) foydasiz, befoyda; 2) qo'ldan hech narsa kelmaydigan*
- feculence** [ˈfekjələns] *n quyqum, loyqa*
- feculent** [ˈfekljələnt] *a loyqalangan*
- fecund** [ˈfekənd] *a unumdor, hosildor*
- fecundate** [ˈfekəndet] *v 1) hosildor qilmoq; 2) biol. urug'lamoq, homilador qilmoq*
- fecundity** [ˈfiˈkændɪtɪ] *n unumdorlik, hosildorlik*
- fed** [fed] *past., p. p. of feed 2*
- federal** [ˈfed(ə)rəl] *a 1) federal, ittifoqchi; 2) amer. federal hukumat, umumdavlat*
- federate** [ˈfed(ə)rɪt] *a federatsiyaga oid, federativ*
- federation** [ˌfedəˈreɪʃ(ə)n] *n federatsiya, ittifoq, birlashma*
- federative** [ˈfed(ə)rətɪv] *a federal, federativ*
- fedora** [ˈfiˈdɔ:rə] *n amer. yumshoq fetr shlapa (fetr ~ a'lo nav yupqa namatsimon mato)*
- fed-up** [ˌfedˈʌp] *a biror narsadan juda to'ygan, biror narsa joniga tekkan*
- fee** [fi:] 1. *n 1) qalam haqi, maosh, haq; the lawyer's ~ advokat haqi; tuition ~s o'qish haqi; 2) choy puli; ~s are prohibited here bu yerda choy puli berilmaydi (yozuv); 3) badal; admission ~ kirish badali; entrance ~ kirish haqi; 2. v 1) qalam haqi yoki maosh to'lamoq; 2) choy puli bermoq*
- feeble** [ˈfi:b(ə)l] *a 1) zaif, past, kuchsiz; bo'sh; a ~ pulse zaif puls; to give a ~ moan zaif ingramoq; a ~ argument ishonchsiz dalil; 2) zaif, kuchsiz, nimjon; a ~ old man kuchsiz qariya*
- feeble-minded** [ˌfi:b(ə)lˈmaɪndɪd] *a aqli kam, aqli past (zaif)*
- feed** [fi:d] 1. *n 1) ovqatlantirish, boqish; to ~ the horse otni boqmoq; 2) oziqa, yem-xashak; ~ for sheep qo'ylar uchun oziqa;*
- 3) yaylov, o'tloq; **to be out at ~** yaylovda boqilmoq; 4) *tex. ta'minot, ta'minlash, materialni uzatish; 2. v (fed) 1) ovqatlantir-moq, boqmoq; to ~ a baby at the breast bolani ko'krak suti bilan boqmoq; 2) boq-moq, ta'minlamoq, qarab turmoq; he has a family of 8 to ~ u sakkiz kishilik oilani boqishi kerak*
- feedback** [ˈfi:dbæk] *n fikr-mulohaza*
- feeder** [ˈfi:də] *n 1) ovqatlanuvchi, xo'randa; 2) tex. ta'minlovchi, uzatuvchi mexanizm; 3) yordamchi hayo, avtobus va b. yo'li; 4) q.x. oziqa, ekin*
- feeding bottle** [ˈfi:dɪŋˌbɒtl] *n bolani ovqat-lantirish uchun ishlatiladigan shishacha*
- feed-pipe** [ˈfi:dpap] *n tex. ta'minlovchi qu-vur*
- feed-pump** [ˈfi:dpʌmp] *n tex. (suyuqlik, gaz kabilar bilan) ta'minlovchi nasos*
- feed-screw** [ˈfi:dskrɜ:] *n tex. harakatlanti-ruvchi parrak*
- feed-stuff** [ˈfi:dstʌf] *n xashak, pichan, yem. oziqa, don*
- feed-tank** [ˈfi:dtæŋk] *n suv saqlanadigan katta idish*
- feed-trough** [ˈfi:dtroʊf] = **feed-tank**
- fee-faw-fum** [ˌfiːˌfɔːˌfʌm] *n fu-fo-fam! (ing-liz ertaklarida odamxo'ring xitobi)*
- feel** [fi:l] 1. *n 1) sezish, his qilish; 2) sezgi, tuyg'u, his; 2. (felt) v 1) sezmoq, his qil-moq; I ~ ten years younger o'zimni o'n yoshga yoshargandek his qilyapman; 3) id-rok qilmoq, tushunmoq; 4) anglamoq; he felt the truth of what was said u aytil-ganlarning haqiqatligini anglab turardi*
- feeler** [ˈfi:lə] *n zool. paypaslagich, qisqich, mo'ylov*
- feeling** [ˈfi:lɪŋ] 1. *n sezgi, hissiyot, nazar, his-hayajon; sezish; 2. a sezgir, hushyor, ziyrak*
- feelingly** [ˈfi:lɪŋli] *adv hissiyot bilan, his-tuyg'u bilan*
- feet** [fi:t] *pl of foot*
- feeze** [fi:z] 1. *n 1) tashvish, xavotirlik; 2) ha-yajonlanish, to'lqinlanish; 2. v bezovta qil-moq*
- feign** [feɪn] *v 1) mug'ambirlik qilmoq, o'zini biror kuyga solmoq; 2) to'qimoq, o'ylab topmoq; to ~ a story hikoya to'qimoq*
- feigned** [feɪnd] *a yasama, yolg'ondakam, ayyorona; a ~ smile yolg'ondakam tabas-sum*
- feigningly** [ˈfeɪnɪŋli] *adv yolg'ondakam, sox-ta, yasama, ayyorlarcha*
- feint** [feɪnt] *n mug'ambirlik, ayyorlik, yasa-malik; to take a ~ of doing smth. o'zini nimadir qilayotgandek tutmoq*

feist [faɪst] *n amer.* kichkina kuchuk, kuchukcha
feisty [ˈfaɪsti] *a* 1) quntli, g'ayratli, shiddatli, tirishqoq; 2) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik, terisi yupqa, jizzaki
feldspar [ˈfɛldspɑː] *n min.* dala shpati (*silikatlar jinsiga mansub mineral*)
felicitate [fɪˈlɪsɪtɪt] *v* tabrikلامoq, qutlamoq, baxt tilamoq
felicitation [fɪˈlɪsɪˈteɪʃ(ə)n] *n* tabrik, qutlov, tabriknoma
felicitous [fɪˈlɪsɪtəs] *a* muvaffaqiyatli, o'ngidan kelgan; omadli, baxtli
felicity [fɪˈlɪsɪtɪ] *n* baxt, saodat, iqbol, omad
feline [ˈfiːlɪn] **I.** *n zool.* mushuksimonlar oilasiga mansub bo'lgan hayvon; **2.** *a zool.* 1) mushuksimonlarga oid; 2) ayyor, makkor
fell I [fel] *n* teri (*hayvonniki*)
fell II [fel] **1.** *n* kesish, daraxt kesish; **2.** *v* kesmoq, chopmoq, yormoq, tilmoq, artalamoq
fell III [fel] *past. of fall*
fella [ˈfɛlə] *n so'zl.* jirk, tip, nusxa, yaramas
fellah [ˈfɛlə] *n (pl -heen, -s [-z])* falloh (*arab mamlakatlarida: dehqon*)
fallaheen [ˈfɛləˈhiːn] *pl of fellah*
feller [ˈfɛlə] *n so'zl.* tip, nusxa, yaramas
felling [ˈfɛlɪŋ] *n* o'rmon (daraxt) kesish
felloe [ˈfɛləʊ] *n* g'ildirak, g'ildirakning to'g'ini (tegarchigi)
fellow [ˈfɛləʊ] *n* o'rtog, oshna, og'ayni; **my dear** ~ qadrdonim; **I shall never find his** ~ men hech qachon unga teng keladiganini topolmayman
fellow-countryman [ˈfɛləʊˈkʌntrɪmən] *n (pl -men [-mən])* hamshahar, hamqishloq, vatan-dosh
fellow-feeling [ˈfɛləʊˈfiːlɪŋ] *n* achinish, hamdardlik, rahm, shafqat
fellowship [ˈfɛləʊʃɪp] *n* o'rtoglik, o'rtogchilik
fellow-traveller [ˈfɛləʊˈtræv(ə)lə] *n* yo'l-dosh, hamroh
felly [ˈfɛli] = **felloe**
felo-de-se [ˈfiːləʊdəˈseɪ] *n* o'zini-o'zi o'ldirgan (*o'z joniga qasd qilgan*) kishi
felon I [ˈfɛlən] **1.** *a* jinoyi, jinoyatkorona; **2.** *n yur.* jinoyatchi
felon II [ˈfɛlən] *n rib.* milkak (*tirmoq ostining yallig'lanib yiring boylashi*)
felones de se [ˈfɛləniːzdiːˈsiː] *pl of felo-de-se*
felonious [fɪˈlɒniəs] *a yur.* jinoyi, jinoyatkorona
felony [ˈfɛləni] *n* jinoyatchi
felony [ˈfɛləni] *n yur.* og'ir jinoyat, qattiq jinoyat

felspar [ˈfɛlspɑː] = **feldspar**

felt I [felt] *n* kigiz, namat

felt II [felt] *past., p. p. of feel 2*

felt-tip (pen) [ˈfɛl(t)ɪpˈpen] *n* flomaster (*bo'yog'i ichidan sizib keladigan, qalamsimon yozish, chizish, rasm solish quroli*)

felucca [feˈlʌkə] *n deng.* feluga (*kichikroq, yelkanli ov kemasi*)

female [ˈfiːmeɪl] *n* 1) ayol, xotin kishi; ~s xotin-qizlar; 2) *zool.* urg'ochi; makiyon

feme [fiːm] *n yur.* xotin, xotin kishi, ayol; **a** ~ **covert** turmushga chiqqan ayol; **a** ~ **sole** turmushga chiqmagan ayol (*asos., ajrashgan*)

feminine [ˈfemɪnɪn] **1.** *a* xotin-qizlarga oid; **2.** *adv* xotin-qizlarcha

femininity [ˈfemɪˈnɪnɪtɪ] *n* nazokat, zarofat, ayollik xislati; ~ **general gram.** ayollar jinsi

feminism [ˈfemɪnɪz(ə)m] *n* feminizm (*ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi uchun kurashuvchi xotin-qizlar harakati*)

feminist [ˈfemɪnɪst] *n* feminist (*feminizm tarafdori*)

feminize [ˈfemɪnaɪz] *v* nozik (erka) qilib o'stirmoq; nozik (erka) bo'lib o'smoq

femme fatale [ˈfæmfəˈtaːl] *n fr.* falokat keltiradigan ayol

femora [ˈfemərə] *pl of femur*

femoral [ˈfemərəl] *a anat.* songa oid, son

femur [ˈfiːmə] *n (pl -s [-s], femora) anat.* son

fen [fen] *n* botqoq, botqoqlik; ~ **grass** botqoq o'ti

fence [fens] **I.** *n* 1) devor, to'siq; panjara, g'ov; **a green** ~ yashil to'siq; 2) saqlovchi to'siq; 3) *sport.* qilichbozlik; **2.** *v* 1) to'smoq, o'rab olmoq; 2) qilichbozlik qilmoq; 3) to'g'ri javob berishdan qochmoq; 4) himoya qilmoq; **to ~ one's head from blows** boshini zarbalardan himoya qilmoq

fenceless [ˈfensləs] *a* ochiq, yalang, to'siqsiz

fence-month [ˈfensmənθ] *n* yilning ov qilish man etilgan fasli

fencer [ˈfensə] *n* 1) qilichboz; 2) g'ov-to'siqlar osha poygada qatnashadigan ot

fence-season [ˈfensˌsiːz(ə)n] = **fence-month**

fencing [ˈfensɪŋ] *n* 1) o'rab olish, to'sib olish; 2) to'siq, devor; 3) qilichbozlik qilish

fencing-cully [ˈfensɪŋˌkʌli] *n* o'g'irlangan narsalarni yashirib saqlovchi *yoki* sotib oluvchi kishi

fencing-ken [ˈfensɪŋˌken] *n* o'g'irlangan narsalar yashirib qo'yiladigan *yoki* sotiladigan makon

- fend** [fend] *v* 1) qaytarmoq, daf qilmoq; 2) qarshi zarba bermoq
- fender** [fendə] *n* 1) kamin panjarasi; 2) saqlovchi (himoyalovchi) panjara (*tramvay va b. da*); 3) avtomobil qatnovi
- fender-bender** [fendə,bendə] *n amer. so'zl.* yengil yo'l-transport hodisasi
- fen-fire** [fen,faɪə] *n* goh u yerda, goh bu yerda ko'rinadigan shu'lalar (*botqoqliklardagi metan gazining lip-lip yonib ko'rinadigan shu'lalari*)
- Fenian** [ˈfi:niən] *n tar.* feniy (*Irlandiyani inglizlar saltanatidan ozod qilish uchun kurashuvchi maxfiy jamiyat a'zosi*)
- fennel** [ˈfen(ə)l] *n bot.* arpabodiyon (*soya-bonguldoshlar oilasiga mansub efir moyli doriivor o'simlik*)
- fenny** [ˈfɛni] *a* botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, serbotqoq
- feoff** [fɛf] *n tar.* len, feod (*o'rta asrlarda: feodal tomonidan o'ziga qaram bo'lgan kishiga berilgan yer-suv, mulk va undan olinadigan soliq, o'lpon*)
- ferae naturae** [ˌfɛ(ə)raɪnæ ˈtu(ə)raɪ] *a lot.* yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan
- feral** [ˈfɪ(ə)rəl] *a* 1) yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan; 2) dafn etishga (ko'mishga) oid; ko'mish: dafn, motam
- feretory** [ˈfɛrɪ(ə)rɪ] *n cherk.* 1) raka (*xristianlar cherkovida: avliyolar jasadi saqlanadigan maqbara*); 2) sag'ana, qabr
- ferial** [ˈfɪ(ə)rɪəl] *a* kundalik, har kungi, oddiy
- ferine** [ˈfɪ(ə)rɪn] *a* 1) yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan; 2) yovvoyilashgan; dalada bo'ladigan, daladagi (*o'simliklar haqida*); 3) qo'pol, madaniyatsiz, to'ng
- ferity** [ˈfɛrɪtɪ] *n* yovvoyilik, vahshiylik
- ferment** 1. *n* [ˈfɛ:ment] achitqi, xamirturush; 2. *v* [ˈfɛˈment] achitmoq
- fermentable** [ˈfɛˈmentəb(ə)l] *a* to'polonchi, janjalkash
- fermentation** [ˌfɛ:menˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) achish, bijg'ish, ko'pchish; 2) g'alayon, g'ulg'ula, shov-shuv, to'polon
- fermi** [ˈfɛəmi] *n fiz.* fermi (*uzunlikning xalqaro birliklar sistemasiga kirmaydigan birligi 10-13 sm ga teng*)
- fermion** [ˈfɛ:mɪ,ɒn] *n fiz.* fermion (fermizarra), yarim-butun spinli zarra yoki kvazizarra: elektron, proton, neytron va b. (*shuningdek, kvarklar*)
- fern** [fɛ:n] *n bot.* qirqquloq
- fernery** [ˈfɛ:n(ə)rɪ] *n* qirqquloqlar o'stiriladigan joy
- fern-owl** [ˈfɛ:naʊl] *n zool.* tentakqush
- ferny** [ˈfɛ:ni] *a bot.* qirqquloqdoshlar, qirqquloqsimonlar
- ferocious** [fəˈrəʊʃəs] *a* yovvoyi, vahshiy
- ferocity** [fəˈrɒsɪtɪ] *n* yovvoyilik, vahshiylik, qahri qattiqlik, bag'ritoshlik, rahmsizlik
- ferrate** [ˈfɛrɪt] *n* ferrat, temir kislotasining tuzi
- ferret** [ˈfɛrɪt] *n zool.* sassiqkuzan
- ferrriage** [ˈfɛrɪdʒ] *n* 1) sol yoki kemada daryodan suzib o'tiladigan joy; 2) (*transport vositasida*) narsalarni tashish
- ferric** [ˈfɛrɪk] *kim.* : ~ acid temir kislotasi
- ferriferous** [fɛˈrɪf(ə)rəs] *a* tarkibida temir bo'lgan, temirli
- ferris wheel** [ˈfɛrɪs,wɪ:l] *n amer.* shayton g'ildirak, charxpalak (*o'yin-kulgi qurilmasi*)
- ferrite** [ˈfɛrɪt] *n kim.* ferrit (*uglerodning temirdagi qattiq eritmasi*)
- ferroalloy** [ˌfɛrəʊ ˈæləɪ] *n* ferroqotishma, temir qotishma (*temirning biror boshqa element bilan qotishmasi*)
- ferroconcrete** [ˌfɛrəʊ ˈkɒnkri:t] *n* temir-beton
- ferromagnetic** [ˌfɛrəʊmæɡˈnetɪk] *a fiz.* tez va kuchli ravishda magnitlanadigan
- ferrotype** [ˈfɛrə(ɒ)təɪp] *n sur.* ferrotipiya (*metallga fotografik surat tushirish usuli*)
- ferrous** [ˈfɛrəs] *a kim.* tarkibida temir bo'lgan
- ferruginous** [fəˈrʊdʒɪnəs] *a* temirli, tarkibida temir bo'lgan
- ferrule** [ˈfɛrəl, fɛrəl] *n* metall gardish, chamberak, halqa
- ferry** [ˈfɛrɪ] 1. *n* 1) kechuv, kechik (*sol yoki kemada daryodan suzib o'tiladigan joy*); 2) parom (*solsimon kichik kema*); **to cross the ~** boshqa qirg'oqqa o'tkazmoq; boshqa joyga o'tkazmoq; 2. *v* (*daryodan*) olib o'tmoq
- ferry-boat** [ˈfɛrɪbɔ:t] *n* parom; yassi kema
- ferry-bridge** [ˈfɛrɪbrɪdʒ] *n* kemalar to'xtaydigan joy bilan parom o'rtasidagi taxta, zina (*parom solsimon yassi kema*)
- ferryman** [ˈfɛrɪmən] *n* (*pl -men [-mən]*) daryodan o'tkazib qo'yuvchi, kemachi
- fertile** [ˈfɛ:taɪl] *a* unumdor, hosildor, serhosil; ~ **in resources** resurslarga boy
- fertility** [ˈfɛ:tlɪtɪ] *n* 1) unumdorlik, hosildorlik; 2) boylik, seroblik, mo'l-ko'llik
- fertilization** [ˌfɛ:tləɪzˈeɪʃ(ə)n] *n* o'g'itlash, o'g'it solish
- fertilize** [ˈfɛ:tləɪz] *v* o'g'itlamoq, o'g'it (go'ng) solmoq
- fertilizer** [ˈfɛ:tləɪzə] *n* o'g'it, go'ng
- ferula** [ˈfɛrələ] = **ferule**
- ferule** [ˈfɛrəl] *n* 1) chizg'ich, xivich (*o'quvchilarni jazolash uchun*); 2) maktab in'izomi, qattiq tartib

fervercy [fɜ:vnsɪ] *n* 1) qizg'inlik, qiziqqonlik, tezlik; 2) g'ayrat, ishtiyok
fervent [fɜ:v(ə)nt] *a* otashin, qizg'in, jo'shqin, issiq, qaynoq; ~ **desire** jo'shqin orzu
fervid [fɜ:vid] *a* issiq, qaynoq, qizg'in, jo'shqin, g'ayratli
ferver [fɜ:və] *n* qizg'inlik, jo'shqinlik, g'ayrat, ishtiyok
fescue [fɛskju:] *n* 1) ko'rsatkich, tayoq; 2) *bot.* betaga (*g'allasimon o'simlik*)
festal [fɛstl] *a* 1) bayramga oid; 2) xushchaqchaq
fester [fɛstə] *v* ilviramoq, yiringlamoq; ~ing gazak
festival [fɛstɪv(ə)l] *n* 1) tantanali bayram; 2) festival
festive [fɛstɪv] *a* 1) tantanali; qunvoq, xushchaqchaq; 2) bayramga oid, bayram; **a ~ evening** bayram kechasi
festivity [fɛstɪvɪtɪ] *n* tantanali bayram, xushchaqchaqlik
festoon [fɛ'stu:n] **1.** *n* gul (*barg, novda va sh. k.*) o'rini, tizmasi, marjoni; **2.** *v* gullar bilan bezamoq
festchrift [fɛstʃrɪft] *n* *nem.* buyuk olim yoki jamoat arbobining faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar to'plami
fetal [fi:tɪl] *a* *zool.* embrionga oid, embrion holidayi, embrion...
fetch I [fetʃ] **1.** *n* 1) hiyla-nayrang, ayyorlik, makkorlik; **to cast a ~** tuzoq qo'ymoq; 2) zo'r berish; **to take a ~** zo'r bermoq, g'ayrat qilmoq; **2.** *v* 1) olib kelmoq; **to go and ~ a doctor** borib doktorni olib kelmoq; 2) qo'zg'amoq, sabab bo'lmoq (*ko'z yoshi va b.*); **to ~ a laugh from the audience** tomoshabinlarni kuldirmoq; 3) chiqarmoq, chiqishga majbur qilmoq; 4) urmoq, zarba bermoq; 5) *so'zl. jalb* qilmoq, maftun qilmoq
fetch II [fetʃ] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh
fetching [fetʃɪŋ] *a* yoqimli, jozibador, jozibali, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq
fete, fête [fɛt] *fr.* **1.** *n* tantanali bayram, ziyofat, tantana; **2.** *v* bayram qilmoq, nishonlamoq
fête champêtre [fɛtʃɑm'pɛtr(ə)] *n* *fr.* ochiq havoda (tabiat quchog'ida) o'tkaziladigan bayram; bog' sayri; sayr qilib dalaga chiqish
fête-day [fɛtdeɪ] *n* tantanali bayram; biror munosabat bilan o'tkaziladigan shodiyona kun (tantana, bayram, ziyofat)
fetich(e) [fi:tɪʃ] = **fetish**
fetid [fi:tɪd] *a* sassiq, badbo'y, qo'lansa; ~ **breath** og'izdan keladigan sassiq hid
fetish [fi:tɪʃ] *n* 1) tumor; 2) but, sanam, sajdagoh

fetishist [fɛtʃɪst] *n* ko'r-ko'rona ishonuvchi, sajda qiluvchi
fetlock [fɛtlɒk] *n* ot to'pig'ining popugi
fetor [fi:tə] *n* sassiq hid, badbo'ylik
fetter [fɛtə] *n* 1) kishan, tushov (*otda*); 2) oyoqqa solinadigan kishan; **in ~ s** kishanlangan; 3) kishan, zanjir, band, asorat; **to burst one's ~ s** kishanlarni parchalamoq, ozod qilmoq
fetterless [fɛtələs] *a* ozod, erkin, hur
fetterlock [fɛtələk] *n* ot kishani, tushovi
fettle [fɛtl] *n* ahvol, holat, vaziyat; **in good ~** yaxshi holatda
fetus [fi:təs] *n* qorindagi bola, homila, embrion
feud [fju:d] *n* 1) uzoq vaqt davom etadigan (*yoki avloddan avlodga o'tib ketadigan*) dushmanlik, adovat; **the right of ~** xun olish huquqi; 2) o'zaro (ichki) urush, o'zaro (ichki) nizolar
feudal [fju:dl] *a* feodal va feodalizmga oid; **a ~ system** feodal tuzum
feudalism [fju:dlɪz(ə)m] *n* *tar.* feodalizm (*feodallarning xususiy mulkchiligiga, dehqonlarning kuchidan foydalanishga asoslangan ijtimoiy tuzum*)
feudalist [fju:dlɪst] *n* 1) feodal; 2) feodal tuzumi tarafdori
feudality [fju:'dælɪtɪ] *n* feodalizm, feodal idora usuli
feudalize [fju:dlɑɪz] *v* yerni feodal mulkiga aylantirmoq
feudatory [fju:dət(ə)nɪ] *a* 1) qaram, tobe; 2) feodal mulki, feodalga qaram yerlar
feu de joie [fɜ:də'ʒwa:] *n* *fr.* umumxalq tantanasida miltiqdan o'q uzib qutlash
feuilleton [fɜ:j'tɔŋ] *n* *fr.* 1) gazetaning adabiyot, tanqid va b. ga bag'ishlangan qismi; 2) *felyeton (tanqidiy maqolalar)*
fever [fi:və] *n* 1) issiqlik, harorat; **he has a high ~** uning harorati baland; 2) asab buzilishi
fever blister [fi:vəblɪstə] *n* *amer.* uchuk (*ko'pincha, labga chiqadi*)
fevered [fi:vəd] *a* isitmali, bezovta, asabi buzilgan
feverfew [fi:vəfju:] *n* *bot.* murakkabgullilarga kiradigan ko'p yillik o'simlik
feverish [fi:v(ə)ɪʃ] *a* 1) isitmali, isitma vaqtida bo'ladigan titrash; 2) hayajonlangan, iztirobli
feverous [fi:v(ə)rəs] = **feverish**
few [fju:] **1.** *n* 1) ayrimlar, ba'zilar; ~ **of them had travelled** ularning ayrimlarigina (*ba'zilarigina*) sayohat qilgan; 2) **the ~** ozchilik; imtiyozlilar, baxtlilar; **the fortunate ~** sanoqli baxtlilar; **2.** *a* ozchilik, kamchilik;

- kam, oz; **he has but ~ chances** uning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kam
- fewness** [ˈfju:nəs] *n* ozchilik, kamchilik, uncha ko'p emaslik
- fey** [fer] *a* halokatga mahkum, o'lishi aniq bo'lgan
- fez** [fez] *a* feska, hojido'ppi (*ba'zi Sharq mamlakatlarida kiyiladigan popukli bosh kiyim*)
- fiacre** [fi'ɑ:kɾ(ə)] *n* kirakash ekipaj yoki fayton (*G'arbiy Yevropa shaharlarida*)
- fiance** [fi'ɒnsɛi] *n* unashirilgan yigit, qallic, kuyov
- fiancée** [fi'ɒnsɛi] *n* unashirilgan qiz, qallic, kelin, yor
- fiasco** [fi'æskəʊ] *n* (*pl* -os [-əʊz]) muvaffaqiyatsizlik, ish unmaslik, omadsizlik
- fiat** [ˈfi:ət, ˈfi:æt] *n* lot. 1) dekret (*qonun kuchiga ega bo'lgan qaror, farmoyish*); 2) farmon, buyruq
- fib** [fib] 1. *n* so'zl. 1) uydirma, yolg'on, aldash; 2) zarba berish, urish; **to give a ~** urmoq, zarba bermoq; 2. *v* so'zl. 1) uydirma to'qimoq, aldamoq; 2) zarbalarga ko'mib tashlamoq
- fibber** [ˈfibə] *n* uydirmachi, aldoqchi
- fiber** [ˈfaɪbə] *amer.* = **fibre**
- fiberglass** [ˈfaɪbəglɑ:s] *n* fiberglas, shisha plastik materiallar
- fibre** [ˈfaɪbə] *n* tola; ipak tolasi
- fibred** [ˈfaɪbəd] *a* tolali, sertola
- fibreglass** [ˈfaɪbəglɑ:s] = **fiberglass**
- fibril** [ˈfi:(a)brɪl] *n* 1) *anat.* ingichka asab tolasi; 2) *bot.* ildiz tuki (tukchasi)
- fibrin** [ˈfaɪbrɪn] *n* fiziol. fibrin (*qon ivishi natijasida hosil bo'ladigan erimaydigan oqsil modda*)
- fibroid** [ˈfaɪbrɔɪd] *a* tolali, sertola
- fibroin** [ˈfaɪbrəɪn] *n* kim. fibrion (*ipak tola-tarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan oqsil modda*)
- fibroma** [faɪ'brəʊmə] *n* (*pl* -ta [-tə]) tib. fibroma (*biriktiruvchi to'qimadan yuzaga ketgan zararsiz o'sma*)
- fibromata** [faɪ'brəʊmətə] *pl of fibroma*
- fibroses** [faɪ'brəʊsi:z] *pl of fibrosis*
- fibrosis** [faɪ'brəʊsɪs] *n* (*pl* -ses [-si:z]) tib. tolali to'qimalarning paydo bo'lishi (yuzaga kelishi)
- fibrous** [ˈfaɪbrəs] *a* tolali, sertola
- fibster** [ˈfɪbstə] *n* so'zl. yolg'onchi, aldoqchi, aldanchi, yolg'on gapiruvchi, uydirmachi
- fibula** [ˈfɪbjulə] *n* (*pl* -lae [-li:], -s [-z]) *anat.* kichik boldir suyagi
- fibulae** [ˈfɪbjuli:] *pl of fibula*
- fichu** [ˈfi:ʃu:] *n* to'rdan to'qilgan (jimjimador, to'rsimon) uchburchak ro'mol (*qiyiq ro'mol*)
- fickle** [ˈfɪk(ə)l] *a* 1) o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, vaqtinchalik; 2) *ishonchsiz*; ~ **friends** ishonchsiz do'stlar
- fickleness** [ˈfɪklnəs] *n* o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish; aynish, aynib turish
- fictile** [ˈfɪktəl] *a* 1) loydan qilingan; 2) kulolchilikka oid
- fiction** [ˈfɪkʃ(ə)n] 1. *n* 1) badiiy asar; 2) uydirma, to'qima, afsona; 2. *a* uydirma, to'qima, yolg'on
- fictional** [ˈfɪkʃ(ə)nəl] *a* o'ylab topilgan
- fictionalize** [ˈfɪkʃ(ə)n(ə)laɪz] *v* to'qimoq, o'ylab topmoq
- fiction-monger** [ˈfɪkʃ(ə)n,mʌŋgə] *n* uydirmachi, g'iybatchi
- fictitious** [ˈfɪkˈtɪʃəs] *a* 1) tof, to'qima, xayoliy, tasavvurdagi; **a ~ being** afsonaviy mavjudot; 2) qalbaki, yolg'ondakam; **a ~ marriage** qalbaki nikoh; 3) yolg'ondakam, soxta; ~ **tears** soxta ko'z yoshlari; ~ **fame** puch shuhrat
- fictive** [ˈfɪktɪv] *a* 1) o'ylab chiqarilgan, to'qilgan, to'qib chiqarilgan, uydirma; 2) soxta, yolg'ondakam, yasama, qalbaki
- fid** [fɪd] *n* pona, qoziq
- fiddle** [ˈfɪdl] 1. *n* so'zl. g'ijjak, skripka; 2. *v* skripka chalmoq
- fiddle-case** [ˈfɪdlkɛs] *n* skripka g'ilofi
- fiddle-de-dee** [ˈfɪdlɪ'di:] *n* safsata, bo'lma-g'ur gap, bema'ni gap
- fiddle-faddle** [ˈfɪdl,fædl] 1. *n* bekorchi gap, safsata; 2. *v* bekor yurmoq; 3. *a* behuda, arzimas
- fiddlehead** [ˈfɪdlhed] *n* deng. kemaning tumshug'i (old qismi)ga o'yib o'rnatilgan bezak
- fiddler** [ˈfɪdlə] *n* skripkachi, g'ijjakchi
- fiddlestick** [ˈfɪdl,stɪk] *n* mus. kamoncha, kamon
- fiddling** [ˈfɪdlɪŋ] *a* quruq, bema'ni, behuda, ahamiyatsiz
- fiddly** [ˈfɪdlɪ] *a* so'zl. 1) chigal, chalkashgan, chigallashib (*chalkashib*) ketgan; 2) noqulay, nobop; 3) charchatadigan, zeriktiradigan
- fidelity** [fi'delɪti] *n* 1) sodiqlik, vafodorlik; 2) to'g'rilik
- figet** [ˈfɪdʒɪt] 1. *v* tashvishli harakat qilmoq, hayajonlanmoq, asabiylashmoq; 2. *n* 1) tashvishli (notinch) holat; 2) notinch kishi
- figety** [ˈfɪdʒɪti] *a* tinch turolmaydigan, sho'x; **a ~ child** tinch turmaydigan bola
- fiducial** [fi'dju:ʃ(ə)l] *a* ishonchga asoslangan
- fiduciary** [fi'dju:ʃ(ə)rɪ] *n* 1) vasiy; 2) *yur.* ishonchli odam

fie [far] *int.* tuf, tfu, tuf-e (*nafratlanish ma'nasida*)

fief [fi:f] *n tar.* feodalning yer-mulki

field [fi:ld] 1. *n* 1) dala, o'tzor, ekinzor; **a ~ of wheat bug** doyzor; **flowers of the ~** dala gullari; 2) (*biror maqsadga mo'ljalangan*) maydon, joy; **a flying ~** uchish maydoni; 3) *geol. kon:* **diamond** -s olmos konlari; 4) jang maydoni; **in the ~** safarda; urushda; harakatdagi armiyada; 5) sohu, faoliyat sohasi; **a wide ~ for trade** savdo uchun keng imkoniyatlar; **he's the best man in his ~** u o'z sohasining eng yaxshi mutaxassisi; 6) *max.* dala, maydon; **a magnetic ~** magnit maydoni; 2. *v* 1) to'pni qabul qilmoq (*kriketda*); 2) ochiq havoda (*don va b. ni*) quritmoq; 3) garov o'ynamoq, dov qo'yimoq

field-allowance [fi:ldə'laʊəns] *n harb.* dala ta'minoti hajmi (normasi); dalada bo'lgani uchun to'lanadigan ustama haq

field-artillery [fi:ldɑ:tl(ə)rɪ] *n (yengil) dala* artilleriyasi

field-book [fi:ldbʊk] *n yer o'lchamlari yozib boriladigan daftar*

field court martial [fi:ld,kɑ:t'mɑ:ʃ(ə)l] *n* harbiy-dala sudi

field crops [fi:ld,krops] *n pl q.x.* dala ekinlari, dala ishlari

field-day [fi:lddeɪ] *n harb.* taktik mashg'ulot

field duty [fi:ld,dju:ti] *n* harakatdagi armiya safidagi xizmat

fielder [fi:ldə] = **fieldsman**

field-events [fi:ldi'vents] *n pl* sportning yengil atletika turi bo'yicha musobaqalar (*uloqtirish, sakrashlar*)

fieldfare [fi:ldfeə] *n zool.* 1) qorayaloq; 2) katta kulrang mayna

field-glass(es) [fi:ld,glɑ:s(ɪz)] *n* dala durbini

field-gun [fi:ldgʌn] *n harb.* dala zambaragi

field hockey [fi:ld,hɒki] *n* chim ustidagi xokkey

field-hospital [fi:ld,hɒspɪtl] *n* 1) dala gospitali; 2) sanitariya mashinasi

field-house [fi:ld'hauz] *n* sport maydonidagi sport jihozlari turadigan va kiyim yechadigan joy (*bo'lma, xona*)

field kitchen [fi:ld,kɪtʃɪn] *n harb.* daladagi oshxona

field-marshal [fi:ld'mɑ:ʃ(ə)l] *n* feld-marshal (*chor armiyasi va ba'zi xorijiy armiyalarda: oliy generallik va shu mansabga ega bo'lgan shaxs*)

field-mouse [fi:ldmaʊs] *n zool.* dala sich-qon

field-officer [fi:ld,ɒfɪsə] *n* shtab-ofitser (*chor armiyasida: polkovnik, podpolkovnik va mayor unvoni hamda shu unvonga ega bo'lgan shaxslar*)

fieldsman [fi:ldzmən] *n (pl -men [-mən])* sport. (*kriket o'yinida*) qabul qiluvchi o'yinchi

field-sports [fi:ldspɔ:ts] *n pl* baliq ovi va boshqa ovlar bilan shug'ullanish

field-work [fi:ldwɜ:k] *n* dala ishi

fiend [fi:nd] *n* 1) iblis, shayton; 2) yovuz, razil; 3) *amer.* **a dope** - narkoman

fiendish [fi:ndɪʃ] *a* shafqatsiz, rahmsiz

fierce [fiəs] *a* 1) yovuz, yirtqich; rahmsiz; **a ~ dog** tishlaydigan, qopag'on it; 2) qiziqqon, o'zini tutolmaydigan; 3) tetik, g'ayrali; 4) *amer.* jirkanch, illos, juda yomon; 5) shiddatli, qattiq

fiery [fi(ə)rɪ] *a* 1) o'tga oid; alangali, otashli; ~ **sun** otashin quyosh; 2) tog', gazli

fiesta [fi'estə] *n isp.* bayram, festival; karnaval

fife [faɪf] 1. *n* qamishsurnay, qamish nay; 2. *v* nay chalmoq

fifer [faɪfə] *n* naychi, surnaychi

fifteen [fɪf'ti:n] *num.* o'n besh; **Room** - o'n beshinchi xona

fifteenth [fɪf'ti:nθ] *num.* o'n beshinchi, o'n beshinchi raqamli

fifth [fɪθ] *num. ord.* beshinchi, beshinchi raqamli; **on the ~ of May** beshinchi mayda

fifthly [fɪθli] *adv* beshinchidan

fifties [fɪf'ti:z] *n pl* 1) ellikdan ellik to'qqizgacha bo'lgan sonlar; 2) (**the -**) elliginchi yillar

fiftieth [fɪf'tiθ] *num. ord.* elliginchi; **he arrived ~** u elliginchi bo'lib keldi

fifty [fɪftɪ] *n num. card.* ellik, ellikta

fifty-fifty [fɪftɪ'fɪftɪ] *adv* so'zl. teng, baravar, teng-baravar

fig I [fɪg] *n* 1) bot. anjir (*daraxti va mevasi*); **green ~** s yangi anjir; 2) arzimagan, befoyda narsa

fig II [fɪg] 1. *n* 1) kiyim, libos; 2) holat, kayfiyat; **to be in good** - yaxshi kayfiyaida bo'lmoq; 2. *v* bezamoq, yasantirmoq

fight [faɪt] 1. *n* jang, urushish, mushtlashish, yoqalashish; 2. *v* (**fought**) jang qilmoq, mushtlashmoq, urushmoq

fighter [faɪtə] *n* askar, jangchi, kurashuvchi; **a ~ pilot** qiruvchi samolyot uchuvchisi

fighting [faɪtɪŋ] *a* 1) kurash, jang; **a hand-to-hand** - qo'lma-qo'l kurash; 2) *harb.* jangovar; **a ~ speech** jangovar nutq; **a ~ machine** jangovar mashina, qiruvchi samolyot

fig-leaf [fɪgli:f] *n* anjir bargi

figment [fɪgmənt] *n* to'qima, uydirma, xayoliy narsa, yolg'on gap

fig-tree [fɪgtri:] *n* bot. anjir daraxti

- figurant** [ˈfɪgʊərənt] *n fr.* statist (soʻzsiz rollarni ijro etuvchi artist)
- figurante** [ˈfɪgʊˈrɑnt] *n fr.* statistka (soʻzsiz rollarni ijro etuvchi artist ayol)
- figuration** [ˈfɪgʊˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) koʻrinish, chitroy, koʻrk; 2) rasmiylashtirish; 3) bezatish
- figurative** [ˈfɪgʊrətɪv] *a* majoziy, obrazli, kinoyaviy, serkinoya
- figure** [ˈfɪgə] **1.** *n* 1) qad-qomat, boʻy-bast, jussa; 2) obraz, tasvir, shakl, haykal; *in* -s raqam bilan; **2.** *v* (*grafik, diagramma va sh. k. bilan*) tasvirlamoq
- figured** [ˈfɪgəd] *a* gulga (naqshga) oid; gul... naqsh..., jimjimador
- figure-head** [ˈfɪgəhed] *n* 1) nomigagina boshliq; 2) *deng.* kema tumshugʻini bezash
- figure-of-eight** [ˈfɪgə(r)ɒvˈeɪt] *a* sakkiz shaklidagi narsa; *a* ~ *attack* sakkizlik hujum (*basketbolda*)
- figure-skating** [ˈfɪgəˌsketɪŋ] *n* figurali uchish (*konkida*)
- figure work** [ˈfɪgəwɜ:k] *n* *poligr.* terilgan hartlar toʻplami (jadvali)
- figurine** [ˈfɪgʊˈrɪn] *n* haykalcha
- filaceous** [fɪˈleɪʃəs] *a* bot. tolali oʻsimliklarga oid
- filagree** [ˈfɪləɡri:] = **filigree**
- filament** [ˈfɪləmənt] **1.** *n* tola; **2.** *atr.* *a* ~ *lamp* choʻgʻlanma lampa
- filamentary** [ˈfɪləˈment(ə)rɪ] *a* tolali, sertola
- filamentous** [ˈfɪləˈmentəs] *a* tolali, sertola
- filas** [ˈfaɪlə] *a* *tex.* *a* ipga oid, ip...
- filature** [ˈfɪləʃ(ə)] *n* 1) ipak yigirish; 2) ipak yigirish fabrikasi
- filbert** [ˈfɪlbət] *n* bot. 1) funduk (*Kavkaz va Qrimda oʻsadigan yongʻoq daraxti*); 2) yongʻoq daraxti
- filch** [fɪltʃ] **1.** *n* oʻgʻri, mayda oʻgʻrilik; **2.** *v* oʻgʻirlamoq, oʻgʻirlab ketmoq, oʻgʻirlab kelmoq
- file I** [faɪl] **1.** *n* egov; **2.** *v* egovlamoq; silliqlamoq
- file II** [faɪl] **1.** *n* tikilgan hujjatlar, qogʻozlar; **2.** *v* hujjatga tikib qoʻymoq
- file cabinet** [ˈfaɪl,kæbɪnɪt] kartoteka (*biror soha boʻyicha maʼlumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yigʻindisi*)
- file-cutter** [ˈfaɪl,katə] *n* arrani tishlaydigan, arraning tishini oʻtkiraydigan kishi
- filet** [ˈfaɪl] *n* file (*ip toʻrga gul solib tikish yoki toʻrsimon toʻqimagul*)
- filial** [ˈfɪʃəl] **1.** *a* oʻgʻilga (*farzandga*) oid, oʻgʻil (*farzand*); ~ *duty* oʻgʻillik burchi; **2.** *n* boʻlim, filial
- filiation** [ˈfɪliˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) kelib chiqish, paydo boʻlish; nasl; 2) filial (*biror idora yoki korxonaning mahalliy boʻlimi*)
- filibeg** [ˈfɪlbeg] *n* shotland askari yubkasi
- filibuster** [ˈfɪlɪbʌstə] *n* dengiz qaroqchisi
- filicide** [ˈfɪlɪsɪd] *n* 1) bola oʻldirish, bolani oʻldirish; 2) bolalarini oʻldirgan kishi
- filiform** [ˈfɪlɪfɔ:m] *a* ipsimon, tolasimon; ipga (tolaga) oʻxshagan
- filigree** [ˈfɪlɪɡri:] *n* nozik (nafis) ish
- filig** [ˈfaɪlɪŋ] *n* 1) qipiq, payraha, qirindi; 2) temir kukuni
- filig cabinet** [ˈfaɪlɪŋ,kæbɪnɪt] *n* 1) hujjatlar saqlaydigan javon; 2) kartoteka (*biror soha boʻyicha maʼlumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yigʻindisi*)
- fill** [fɪl] **1.** *v* 1) (*with*) toʻldirmoq; *to* ~ *in a form* blankani toʻldirmoq, toʻlgʻazmoq; *to* ~ *with* ... bilan toʻlmoq (toʻldirmoq); *to* ~ *a bucket with water* chelakni suv bilan toʻldirmoq; 2) *amer.* tishni plomba qilmoq; 3) ovqatlantirmoq, toʻydirmoq; 4) (*vazifa, burchni*) bajarmoq; 5) (*idishni yonilgʻi bilan*) toʻldirmoq; **2.** *n* yetarli miqdor
- fill-dike** [ˈfɪldɪk] *n* *shotl.* yomgʻirli davr, seryomgʻir vaqt
- filler** [ˈfɪlə] *n* toʻldiruvchi kishi yoki narsa
- fillet** [ˈfɪlɪt] **1.** *n* lenta, tasma, jiyak; **2.** *v* lenta bilan bogʻlamoq
- fill-in** [ˈfɪlɪn] *n* vaqtinchalik oʻrnini oluvchi (almashtiruvchi)
- filling** [ˈfɪlɪŋ] **1.** *n* 1) toʻldirish; 2) tish plom-basi; **2.** *v* toʻldirmoq, toʻlatmoq
- filling-station** [ˈfɪlɪŋ,steɪʃ(ə)n] *n* *amer.* avtomobillarga yonilgʻi quyish tarmogʻi
- filip** [ˈfɪlɪp] **1.** *n* 1) chertki, chertish; *to give a* ~ *chertmoq*; 2) mayda, arzimaydigan narsa; **2.** *v* 1) chertmoq; 2) ragʻbattantirmoq; yordam bermoq
- fillister** [ˈfɪlɪstə] *n* *tex.* 1) bosma qogʻozni maʼlum tartibda buklash; 2) novranda; 3) novranda bilan randalash
- filly** [ˈfɪli] *n* 1) kichkina biya, baytal; 2) soʻzl. shoʻx qizcha
- film** [fɪlm] **1.** *n* 1) plyonka (*parda, poʻst*); 2) fotoplyonka (*surat tushiriladigan lenta*); kinoplyonka; *coloured* ~ rangli plyonka; 3) (*kino*) film, (*kino*) kartina; *a feature* ~ badiiy film; *a colour* ~ rangli film; 4) kino sanʼati; *the art of the* ~ kino sanʼati; *a* ~ *actor* kinoaktyor; *a* ~ *play* kinokartina; *a* ~ *studio* kinostudiya; 5) vengil tuman; **2.** *v* 1) suratga olmoq (*kinofilm, fotoplyonka*); 2) ekranlashtirmoq; *the story won't* ~ *well* bu hikoyani ekranlashtirib boʻlmaydi; 3) filmga tushmoq (*rol oʻynamoq*); *this actor has been* ~ *ing for many years* bu aktyor koʻp yillardan buyon kinoda oʻynaydi

filmland [ˈfɪlmlənd] *n* kino olami; **a** ~ actor kinoaktyor
film star [ˈfɪlmstɑː] *n* kinoyulduz (*mashhur kino artisti*)
film-strip [ˈfɪlmstriːp] *n* diafilm, diapozitiv film
film test [ˈfɪlmtest] *n* rolni bajaradigan shaxsni sinab ko'rish (*kinoproba*)
filmy [ˈfɪlmi] *a* 1) xira, sal-pal bilinadigan; 2) o'rgimchak uyasidek yupqa
filoselle [ˈfɪləsəl] *n* xom ipak
filter [ˈfɪltə] 1. *n* filtr, suzg'ich; ~ cloth havvo o'tkazadigan mato; 2. *v* filtrlamoq, suzmoq
filter-bed [ˈfɪltəbed] *n* *tex.* filtrlaydigan qatlam
filter-tipped [ˈfɪltə'tɪpt] *a* filtrlı, suzg'ichlı; **a** ~ cigarette filtrlı sigaret
filth [fɪlθ] *n* kirlik, ifloslik
filthy [ˈfɪlθi] *a* 1) iflos, kir, bulg'anch; 2) ablahona, yaramas, razil, qabih, jirkanch
filtrate 1. *n* [ˈfɪltrɪt] filtrat (*filtridan, suzg'ichdan o'tkazilgan suyuqlik*); 2. *v* [ˈfɪltrɪt] suzmoq, suzg'ichdan o'tkazmoq
fin [fɪn] 1. *n* (*baliqning*) suzg'ichi; 2. *v* suzg'ichlar bilan suvni kesmoq
finable [ˈfaɪnəb(ə)] *a* 1) jarima solinadigan; 2) tozalashga chidayolmaydigan (*dosh berolmaydigan*)
finagle [fɪˈneɪɡ(ə)] *v* so'zl. aldamoq, aldab ketmoq, firib bermoq
final [ˈfaɪn(ə)] *a* oxirgi, so'nggi, hal qiluvchi; **the ~ day of the term** mashg'ulotlarning yakunlovchi oxirgi kuni
finale [fɪˈnaɪl] *n* *mus.* oxir, so'ng, natija, yakun
finalist [ˈfaɪn(ə)lɪst] *n* *sport.* finalist, finalchi, yakuniy musobaqalar ishtirokchisi
finality [faɪˈnælɪti] *n* tugaganlik, yakunlanlik; yakunlanish, yakuniy jarayon
finalize [ˈfaɪn(ə)laɪz] *v* tugatmoq; tamomlamoq, tugallamoq, yakunlamoq
finally [ˈfaɪnəli] *adv* nihoyat, yakunida, oxirida); ~ **I have to say...** oxirida men aytmoqchimanki...
finance 1. *n* [ˈfaɪnəns] *pl* moliya mablag'lari, pul mablag'lari; **Ministry of F.** Moliya vazirligi; 2. *v* [ˈfaɪnəns] mablag' bilan ta'minlamoq
financial [fɪ(a)ɪˈnæns(ə)] *a* moliyaviy; **a** ~ system moliyaviy tizim
financier [fɪ(a)ɪˈnænsɪə] *n* moliyachi, moliyashunos
fin-back [ˈfɪnbæk] *n* *zool.* qorin terisi qatqat bo'lib buklangan-tirishgan katta kit
finch [fɪntʃ] *n* 1) *zool.* vyurok (*chumchuqsimonlar turkumiga mansub qush*); 2) zyablik (*sayroqi qush*)

find [faɪnd] 1. *n* 1) topildiq, topilgan narsa; 2) *toq'*. yangi topilgan kon; 2. *v* (**found**) topmoq, izlab topmoq; **I can't ~ my book anywhere** men kitobni hech qayerdan topa olmayapman; 2) ochmoq; 3) bilib olmoq; **to ~ out** bilmoq, oydinlashtirmoq, aniqlamoq; **I found the key missing** men kalit yo'qligini bildim; 4) ... deb hisoblamoq, topmoq; **to ~ it impossible** ilojisiz deb hisoblamoq; 5) *yur.* hukm chiqarmoq; 6) ta'minlamoq; **the hotel doesn't ~ tea** mehmonxona choy bilan ta'minlamaydi; 7) *mat.* hisoblab chiqarmoq; 8) uchratmoq, duch kelmoq
finder [ˈfaɪndə] *n* qidiruvchi, izlovchi
finding [ˈfaɪndɪŋ] *n* 1) topilgan narsa; 2) hukm (*sud*)
fine [faɪn] 1. *a* 1) yaxshi, aniq; **a** ~ day yaxshi kun; 2) zo'r, ajoyib, xushchaqchaq; **a** ~ woman ajoyib ayol; 3) yupqa, ingichka; ~ thread ingichka ip; 4) mayda; ~ sand mayda tuproq; 5) toza; sof; 6) yirik, katta; **a** ~ baby katta bola; 7) did bilan kiyingan; yorqin, charaqlagan; 2. *n* jarima; **a heavy** ~ katta jarima; 3. *v* jarima solmoq, jarima to'latmoq
fine-draw [ˈfaɪndrɔː] *v* (**fine-drew**; **fine-drawn**) bilinmaydigan qilib chok tikmoq
fine-drawn [ˈfaɪnˈdrɔːn] 1. *p. p. of fine-draw; 2. *a* 1) juda yupqa; 2) bilinmaydigan qilib tikilgan; 3) *sport.* (*ortiqcha vaznsiz*) yaxshi tayyorlangan, tayyorgarligi yaxshi
fine-drew [ˈfaɪndruː] *past. of fine-draw*
fine-fleece [ˈfaɪnˈfliːs] *a* mayin junli; **a** ~ sheep mayin junli qo'y
fine-grained [ˈfaɪnˈɡreɪnd] *a* mayda donali
finely-fibred [ˈfaɪnliːˈfaɪnbəd] *a* ingichka tolali
fineness [ˈfaɪnənəs] *n* nafis, ingichka; **the ~ of thread** ipning ingichkaligi
finery [ˈfaɪn(ə)rɪ] *n* 1) yaxshi kiyinish; 2) qimmatbaho zeb-ziynatlar
fine-spun [ˈfaɪnspeɪn] *a* jimjimador, murakkab
finesse [fɪˈnes] *n* mohirlik, ustalik, mahorat
fine-tune [ˈfaɪntjuːn] *v* (*radiopriyomnik, mexanizm va b. ni*) sozlamoq, rostlamoq, to'g'rilamoq
finger [ˈfɪŋɡə] 1. *n* 1) barmoq; **index (first)** ~ ko'rsatkich barmoq; 2) soat mili (strelkasi); 2. *v* 1) qo'l bilan tegmoq; 2) musiqa asbobini chalmoq
finger-alphabet [ˈfɪŋɡə(r),ælfəbet] *n* karsoqovlarning alifbosi
finger-board [ˈfɪŋɡəbɔːd] *n* *mus.* 1) grif (*cholg'u asboblari dastasi bo'ylab yopishtiril-**

- fly-by-night** [flaɪbaɪ'naɪt] *a* 1) ishonib (orqa qilib) bo'lmaydigan, ishonchsiz; 2) mas'uliyatni his qilmaydigan, javobgarlikni sezmaydigan, beparvo
- flycatcher** [flaɪ,kætʃə] *n* zool. uzun-quyruq; uzunquyruq chumchuq (*hasharotxo'r qush*)
- flyer** [flaɪə] *n* 1) uchuvchi; 2) qush, hasharot, ko'rshapalak va sh. k.
- flying** [flaɪɪŋ] *a* uchadigan; **a ~ machina** samolyot; 3. *n* uchish, parvoz
- flying boat** [flaɪɪŋ'boʊt] *n* av. uchar qayiq (samolyot)
- flying bridge** [flaɪɪŋ'brɪdʒ] *n* osma ko'prik
- flying fish** [flaɪɪŋ,fɪʃ] *n* uchar baliq (*suvdan ko'tarilib biroz ucha oladigan baliq*)
- Flying Fortress** [flaɪɪŋ'fɔ:trɪs] *n* av. uchar qal'a (*uzoqqa uchadigan og'ir bombardimonchi samolyot*)
- flying instrument** [flaɪɪŋ,ɪnstɹəmənt] *n* av. uchish asbob-uskunalar
- flying officer** [flaɪɪŋ,ɒfɪsə] *n* uchuvchi-zobit (*Angliyada*)
- flying saucer** [flaɪɪŋ'sə:sə] *n* uchar tarelka (likopcha)
- flying start** [flaɪɪŋ'stɑ:t] *n* yaxshi (muvaffaqiyatli) boshlanish; **to get off to a ~** (*yangi ish va b. ni*) muvaffaqiyatli boshlamoq
- flyleaf** [flaɪli:f] *n* poligr. kitobning boshi yoki oxiridagi yozilmagan toza varaq
- flyman** [flaɪmæn] *n* (*pl -men [-mən]*) 1) teatr. dor (*dekoratsiyalarni mahkamlash va ko'tarish-tushirish uchun sahna shipiga o'rnatilgan panjaralar*)da ishlaydigan ishchi-xodim; 2) aravakush, izvoshchi
- flyover** [flaɪ,əʊvə] *n* 1) estakada (*yo'l tepasiga qurilgan osma ko'prik*); 2) *attr.* **a ~ crossing** yo'llarning turli darajada kesishib o'tilishi; yo'llar turli darajada kesishib o'tgan joy
- fly-paper** [flaɪ,pɛɪpə] *n* pashsha o'ldiradigan yopishqoq qog'oz
- fly-sheet** [flaɪʃi:t] *n* varaqa
- fly title** [flaɪ,tɑɪtl] *n* poligr. shmustitul (*kitobning tutilgan oldingi varag'i, kitob bobi yoki bobi oldidagi sarlavha yoziladigan sahifa*)
- fly-trap** [flaɪtræp] *n* pashshatutqich
- flyweight** [flaɪwɛɪt] *n* 1) yengil vazn (*havaskor boksda*); 2) yengil vazndagi boksch
- fly-wheel** [flaɪwi:l] *n* tex. maxovik, salmoqli g'ildirak
- foal** [fəʊl] 1. *n* toy; xo'tik; 2. *v* qulunlamoq; toylamoq; tug'moq
- foam** [fəʊm] 1. *n* ko'pik; 2. *v* ko'pirmoq, ko'piklanmoq
- foam-rubber** [fəʊm'rʌbə] *n* g'alvirak rezina
- foamy** [fəʊmɪ] *a* ko'pikli, ko'pigi bor; serko'pik
- fob I** [fɒb] *n* cho'ntak soat
- fob II** [fɒb] *v*: **to ~ off smb. with smth.** (*soxta narsalar, yolg'on va da va b. bilan*) kimnidir aldamoq
- focal** [fəʊk(ə)] *a* markaziy, eng muhim, bosh; **a ~ point** markaziy qism, markaziy nuqta
- foci** [fəʊkəɪ] *pl of focus*
- focus** [fəʊkəs] *n* (*pl -i [-kəɪ]*) 1) fiz. fokus (*nurlarning kesishgan nuqtasi*); **in ~ fokusda**; **out of ~ fokusdan tashqarida**; 2) biror narsa to'plangan joy, o'choq,

- markaz; **the ~ of interest** qiziqish doirasi; **to bring to a ~** (*biror masalani*) ko'tarib chiqmoq, o'rtaga tashlamoq
- fodder** [fɒdə] **1.** *n* hayvonlarga oziq-ovqat, oziqa, yem; **2.** *v* (*hayvonni*) oziqlantirmoq
- foe** [fəʊ] *n* *shoir*: dushman, raqib, g'anim
- foetal** [fi:təl] *a* *tib.* embrionli
- foetid** [fi:tɪd] = **fetid**
- foetus** [fi:təs] *n* qorindagi bola
- fog I** [fɒg] **1.** *n* 1) quyuq tuman; 2) havо tarkibida tutun *yoki* chang; zimiston; 3) *in a ~* tumandagidek; og'ir ahvolda, og'ir holatda; **2.** *v* tuman bilan qoplanmoq; tumanlashmoq
- fog II** [fɒg] **1.** *n* q.x. 1) o'tzor; 2) o'rilmay qolgan o't; **2.** *v* yaylovda hayvonlarni o'tlatish; 2) (*o'mi*) chala o'rmoq
- fogey** [fəʊgi] *n* eskicha (eskilarga amal qiluvchi) odam, mutaassib
- foggy** [fɒgi] *a* 1) tumanli; qorong'i; **a ~ idea** noaniq fikr; 2) *fiz.* noaniq, mujmal
- fog-horn** [fɒgɦɔ:n] *n* sirena, tuman paytida kemalarni ogohlantirish uchun berilgan ovoz
- fogy** [fəʊgi] = **fogey**
- foible** [fɔɪb(ə)] *n* zaif joy, kamchilik
- foie gras** [fwa: ˈgrɑ:] *n* g'oz jigaridan tayyorlangan pashtet (*saom*)
- foil I** [fɔɪl] *n* 1) folga, zar qog'oz (*juda yupqa metall list*); 2) staniol (*qalaydan tayyorlangan zar qog'oz*); 3) hayvonning izi; **2.** *v* 1) boshi berk ko'chaga kirib qolmoq; (*rejani*) buzmoq; 2) (*itni*) izdan adashtirmoq; 3) *so'zl.* hujumni qaytarmoq, yengmoq
- foil II** [fɔɪl] *n* rapira (*qilichbozlikda qo'llaniladigan, chor qirra qilichsimon qurol*)
- foist** [fɔɪst] *v* suqmoq, tiqmoq, solmoq, tiqib qo'yimoq
- fold** [fəʊld] **1.** *n* 1) hoshiya, kiyimdagi taxlam, chiziq, yo'l; 2) (*qo'ylar uchun*) qo'ra; **2.** *v* 1) (*mato va h. k. ni*) taxlamoq; buklatmoq, qayirmoq; **to ~ ones arms** ko'krakka qo'lni zanjir qilmoq (*qovushtirmoq*); 2) qoplamoq; **hills ~ ed in mist** tog'larni tuman qopladi; 3) qo'raga kiritmoq
- foldaway** [fəʊldəweɪ] *n* buklatma, buktiladigan; yopiladigan, yig'iladigan; **a ~ bed** buklatma (buklanadigan) karavot
- folder** [fəʊldə] *n* (*qog'oz va hujjatlar uchun*) papka
- foldinq** [fəʊldɪŋ] *a* buklatma, yig'iladigan
- foldinq-bed** [fəʊldɪŋbed] *n* buklanadigan karavot (*sayohatlarda*)
- foldinq-chair** [fəʊldɪŋtʃeə] *n* buklanadigan kursi, taxlama kursi (*stud*)
- foldinq-cot** [fəʊldɪŋkɒt] = **foldinq-bed**
- foldinq-stool** [fəʊldɪŋstʊ:l] = **foldinq-chair**
- foliage** [fəʊlɪdʒ] *n* barglar, yaproqlar
- foliate** [fəʊliət] *a* bargli, yaproqli
- folio** [fəʊliəʊ] *n* (*pl -qs [-əuz]*) 1) infolio (*1/2 taboqli bichim*); 2) foliant (*juda katta va qalin kitob*)
- folk** [fəʊk] *n* 1) odamlar; **old ~ qariyalar**; **rich ~ boylar**; **my ~s** *so'zl.* qarindoshlarim; **the old ~ at home** qariyalar, ota-onam (*uydagilar*); 2) *esk.* xalq; 3) *attr.* xalqqa oid; ommaviy
- folk-etymology** [fəʊkətɪˈnɒlədʒɪ] *n* xalq etimologiyasi (*soxta etimologiya*)
- folk-lore** [fəʊklo:] *n* xalq og'zaki ijodi; folklor
- folk song** [fəʊksɒŋ] *n* xalq qo'shig'i, xalq kuyi
- folksy** [fəʊksɪ] *a* 1) kirishuvchan (*muomalada*); 2) xalqqa yaqin
- folkways** [fəʊkweɪz] *n* *pl* xalq an'analari
- follicle** [fɒlɪk(ə)] *n* 1) *zool.* pilla; 2) *bot.* qo'zoq, po'choq
- follow** [fɒləʊ] *v* 1) ergashmoq, orqasidan bormoq, amal qilmoq; **a concert ~ ed the lecture/the lecture was ~ ed by a concert** ma'ruzadan so'ng konsert bo'ldi (*berildi*); **one misfortune ~s (upon) another** baxtsizlik ustma-ust keldi, baxtsizlik ketma-ket keldi; 2) hamroh bo'lmoq; 3) fikrini qo'llamoq; **I cannot ~ you in all your views** men sizning hamma fikrlaringizni qo'llayvermayman; 4) (*biror narsa bilan*) mashg'ul bo'lmoq; **to ~ the plough** yer haydamoq; **to ~ the bounds** ov itlari bilan ovlamoq; **to ~ the law** huquqshunos bo'lmoq; **to ~ the sea** dengizchi bo'lmoq; 5) poylamoq, kuzatmoq; 6) ko'z qiri bilan kuzatmoq; 7) tinglamoq; (**do**) **you ~ me?** tushunarlimi? 8) mantiqan kelib chiqmoq; **to ~ on** kuzatishni (izidan yurishni) davom ettirmoq; **to ~ out** oxirigacha bajarmoq (*ijro etmoq*)
- follower** [fɒləʊə] *n* izdosh, tarafdor, muxlis, shogird
- following** [fɒləʊɪŋ] *a* keyingi, navbatdagi
- follow-up** [fɒləʊəp] *n* ijroni tekshirish
- folly** [fɒli] *n* ahmoqlik, aqlsizlik
- foment** [fəʊˈment] *v* 1) *tib.* malham qo'yimoq, malham surmoq; 2) yomon ishga undamoq, g'alamislik qilmoq; 3) yondirmoq, alanga oldirmoq
- fomentation** [fəʊmenˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) g'alamislik, ig'vorgarlik, ig'vo, fitna; **~ of discontent** noroziligini avj oldirish; 2) og'rigan joyni suyuq dori yoki issiq suvga ho'llangan bint bog'lash bilan davolash
- fond** [fɒnd] *a* sevuvchi, yoqtiruvchi, yaxshi ko'ruvchi; **to be ~ of smb. (smth.)** kimnidir (nimanidir) sevmoq

- fondant** [ˈfɒndənt] *n* oshx. pomadka (meva shirasi va shakardan qilingan yumshoq konfet)
- fondle** [ˈfɒndl] *v* erkalamoq, suymoq, erkalatmoq
- fondling** [ˈfɒndlɪŋ] *n* eng yaxshi koʻrilgan (hamma sevgan) odam, arzanda
- fondly** [ˈfɒndli] *adv* 1) muloyimlik (yumshoq qilib, xushmuomalalik, mehribonlik) bilan; 2) soddalik bilan, soddalarcha, ishonuvchanlik bilan
- fondness** [ˈfɒndnəs] *n* nazokat, latofat
- fondue** [ˈfɒndju:] *n* oshx. fondyu (maydalangan goʻsht va sabzavotlardan tayyorlangan taom)
- font** [fɒnt] *n* 1) cherk. jom, togʻora (bolani suvga botirib choʻqintiriladigan katta idish); 2) poligr. shrift
- food** [fu:d] *n* oziq-ovqat, oziqa, yemish, yem; **the ~ here is excellent** bu yerning ovqatlari juda yaxshi; **to become ~ for fishes** choʻkmoq, choʻkib ketmoq; **to become ~ for worms** oʻlmoq, qurt-qumursqaga yem boʻlmoq
- food-card** [ˈfu:d,kɑ:d] *n* oziq-ovqat kartochkasi
- food poisoning** [ˈfi:d,pɔɪz(ə)nɪŋ] *n* oziq-ovqatlardan zaharlanish
- food-stuffs** [ˈfu:dstʌfs] *n* oziq-ovqat mahsulotlari
- fool** I [fu:l] 1. *n* ahmoq; tentak; devona; 2. *v* aldamoq, ahmoq qilmoq; **to ~ about** ishsiz laqillab yurmoq; **to ~ after** (kimningdir) ketidan (orqasidan) ergashib yurmoq, ilakishmoq; **to ~ around = to ~ about**; **to ~ away** (imkoniyat va b. ni) qoʻldan boy bermoq; **to ~ out** aldab qoʻlga kiritmoq, yolgʻon gapirib erishmoq; **to ~ with** ermak qilmoq, ovunmoq; oʻynamoq, oʻzini yupatmoq, vaqtni chogʻ qilmoq
- fool** II [fu:l] *n* kisel (quyuqroq ichimlik)
- foolery** [ˈfu:ləri] *n* ahmoqona xatti-harakat, ahmoqlik, tentaklik
- foolhardy** [ˈfu:l,hɑ:di] *a* behudaga tavakkal qiladigan, oʻzini behudaga xavf ostiga qoʻyadigan
- foolish** [ˈfu:lɪʃ] *a* kaltafahm, tentak, jinni; **-ness** tentaklik
- foolproof** [ˈfu:lpru:f] *a* ishonchli, adashmaydigan
- foolscap, fool's cap** [ˈfu:lzkæp] *n* 1) 33,6x42 sm li qogʻoz bichimi; 2) qiziqchi (maskaraboz)ning qalpogʻi
- fool's gold** [ˈfu:lzɡəʊld] *n* pirit (baʼzida yangilishib oltin deb hisoblanadigan metall)
- fool's paradise** [ˈfu:lzˈpærədɑ:z] *n* betashvish hayot, begʻam (beparvo) yashash
- foot** [fut] *n* (pl feet [fi:t]) 1) oyoq (toʻpiqdan pastki qismi); **on ~ piyoda**, yayov; **to strike one's ~ against smth.** oyoqʻini biror narsaga urib olmoq; 2) tovon; 3) fut (30,48 sm ga teng uzunlik oʻlchovi)
- footage** [ˈfʊtɪdʒ] *n* 1) film yoki plyonkaning futlardagi uzunligi; 2) oyoq kaftida oʻlchangan uzunlik
- foot and mouth disease** [ˈfʊtənd ˈmaʊθ-dɪ,zɪ:z] *n* vet. oqsim, oqsim kasalligi
- football** [ˈfʊtbɔ:l] *n* futbol; **at a ~ match** futbol oʻyinida (musobaqasida)
- footballer** [ˈfʊtbɔ:lə] *n* futbolchi
- footbath** [ˈfʊtbɑ:θ] *n* oyoq vannasi, oyoqlarga vanna qilish
- footboard** [ˈfʊtbɔ:d] *n* 1) zina, zinapoya (transportda); 2) orqa oʻrindiq (qadimgi yopiq aravalar orqasida xizmatkorlar oʻtiradigan joy); 3) zinapoya, pogʻona
- foot brake** [ˈfʊtbreɪk] *n* oyoq tormozi
- footbridge** [ˈfʊtbrɪdʒ] *n* yayov oʻtadigan (piyoda oʻtiladigan) koʻprikcha
- footer** [ˈfʊtə] *n* 1) soʻzl. futbol; 2) piyoda
- footfall** [ˈfʊtɔ:l] *n* qadam, qadam tashlash
- footfault** [ˈfʊtɔ:lɪt] *n* toʻpni oshirayotgan paytda notoʻgʻri qadam tashlagani uchun toʻp oshirishdan mahrum boʻlmoq, toʻpni raqib tomonga bermoq (tennisda)
- foot-gear** [ˈfʊtɡɛə] *n* 1) oyoq kiyim, poyabzal; 2) paypoq
- Foot Guards** [ˈfʊtɡɑ:dz] *n* pl gvardiyachilarning piyoda askarlari (harbiy qism nomi)
- foothill** [ˈfʊt,hɪl] *n* togʻ etagi; adirlar
- foothold** [ˈfʊθəʊld] *n* 1) oyoq uchun tirgak; 2) tayanch nuqtasi, tayanch punkti; **to gain a ~** oyoqda qattiq (mustahkam) oʻrnashib olmoq
- footing** [ˈfʊtɪŋ] *n* soʻzl. 1) holat, vaziyat; 2) tik turish, muvozanat
- footle** [ˈfu:tɪl] *v* soʻzl. ahmoqlik (tentaklik) qilmoq, jinnilik qilmoq
- footless** [ˈfʊtləs] *a* 1) oyoqʻi (oyoqlari) yoʻq, oyoqsiz, choʻloq; 2) asossiz; 3) soʻzl. uquvsiz, kaltafahm, ovsar
- footlights** [ˈfʊtlaɪts] *n* rampa (sahna oldiga oʻrnatilgan, yorugʻi faqat sahnaga tushadigan chiroqlar)
- footling** [ˈfʊtɪŋ] *a* arzimas, ahamiyatsiz, behuda; oson
- footloose** [ˈfʊtlʊ:s] *a* erki oʻzida boʻlgan, qaram boʻlmagan, mustaqil, erkin, hur
- footman** [ˈfʊtmən] *n* (pl -men [-mən]) 1) yurgudak; 2) piyoda askar
- foot-mark** [ˈfʊtmɑ:k] *n* iz, oyoq izi
- foot-note** [ˈfʊtnəʊt] *n* (sahifa ostidagi) izoh
- footpace** [ˈfʊtpeɪs] *n* qadam, odim; **at (a) ~** qadamlab, shoshmay qadam tashlab

- footpad** [ˈfʊtpæd] *n* tar. qaroqchi, bosqinchi, yoʻltoʻsar
- foot-passenger** [ˈfʊt.pæs(ə)ndʒə] *n* piyoda, yayov yuruvchi
- foot-path** [ˈfʊtpɑːθ] *n* piyoda yurishga moʻljallangan yoʻl, soʻqmoq, yoʻl
- foot plate** [ˈfʊtpleɪt] *n* 1) parovoz haydovchisining maydonchasi; 2) *attr.* parovozga oid, parovoz...; a ~ crew parovoz brigadasi
- footprint** [ˈfʊt.pɪnt] *n* oyoq izi
- foot-race** [ˈfʊtreɪs] *n* yugurish musobaqasi
- footsie** [ˈfʊtsi] *n* soʻzl.: to play ~ (*kin bilan*) oʻynayverib joniga tegmoq
- footslog** [ˈfʊtslɒɡ] *v* (*asos.*, uzoq masofaga) bormoq yoki qadam tashlamoq
- footslogger** [ˈfʊt.slɒɡə] *n* soʻzl. 1) piyoda askar; 2) piyoda, yayov yuruvchi
- foot soldier** [ˈfʊt.səʊldʒə] *n* piyoda askar
- footsore** [ˈfʊtsɔː] *adv* siyqalangan oyoqlar bilan, oyoqlari toliqib
- footstalk** [ˈfʊtstɔːk] *n* bot. poya, tana
- footstep** [ˈfʊtstep] *n* 1) qadam, odim; 2) iz
- footstool** [ˈfʊtstʊːl] *n* oyoq ostiga qoʻyiladigan kursicha
- footway** [ˈfʊtweɪ] *n* 1) piyoda yurishga moʻljallangan yoʻl; yoʻlka
- foot-wear** [ˈfʊtweə] *n* poyabzal, oyoq kiyim
- footwork** [ˈfʊtwɜːk] *n* oyoqning ishlashi, oyoqning faoliyati (*sport, raqs va b. da*)
- footworn** [ˈfʊtwɔːn] *a* 1) charchagan, horgan, toliqqan, horgʻin (*yoʻlovchi haqida*); 2) tepkilab (bosib) tekislangan, tepkilab (bosib) zichlangan (*soʻqmoq yoʻl haqida*)
- foozle** [ˈfʊːz(ə)l] *v* (*ish va b. ni*) naridanberi (chala-chulpa, palapartish) bajarmoq
- fop** [fɒp] *n* olifta, satang, oʻziga bino qoʻyuvchi odam
- foppery** [ˈfɒp(ə)rɪ] *n* oliftalik, satanglik
- foppish** [ˈfɒpɪʃ] *a* olifta, satang, havoyi, oʻziga bino qoʻygan
- for** [fɔː] *prep.* *cj. 1*) davomida, vaqtida; 2) uchun; 3) sababli, ~ lfe umrbod; ~ ever butunlay; abadiy; ~ example misol uchun, chunonchi; 4) ...ga qarshi; **medicine ~ a cough** yoʻtalga qarshi dori
- forage** [ˈfɒrɪdʒ] 1. *n* yem-xashak; 2. *v* yem-xashak tayyorlamoq
- forage cap** [ˈfɒrɪdʒkæp] *n* pilotka (*harbiylar, uchuvchilar kiyadigan yozlik bosh kiyim*)
- forager** [ˈfɒrɪdʒə] *n* furajir, yem-xashakchi, yem-xashak tayyorlovchi
- foramen** [fəˈreɪmɪn] *n* (*pl* -mina, -s [-z]) *anat. zool. bot.* teshik, yoʻl, kanal
- forasmuch... as** [fəˈræzˈmætʃ...æz] *adv* modomiki, hamonki; sababli, uchun
- foray** [ˈforeɪ] *n* bosqin, hujum, bostirib kish
- forbad, forbade** [fəˈbæd, fəˈbeɪd] *past. of forbid*
- forbear I** [ˈfɔːbeə] *n* avlod; ajdod; ota-bobo
- forbear II** [fɔːˈbeə] 2. *v* 1) (**forbore; forbore**) oʻzini tiymoq (tutmoq, toʻxtatmoq); 2) chidamli boʻlmoq, sabr-toqat qilmoq
- forbearance** [fɔːˈbe(ə)rəns] *n* oʻzini tiyishlik: sabr-toqat
- forbid** [fəˈbɪd] *v* (**forbad, forbade; forbid-den**) taqiqlamoq, man etmoq
- forbidden** [fəˈbɪdn] *p. p. of forbid*
- forbidding** [fəˈbɪdɪŋ] *a* 1) oʻziga jalb qilmaydigan, jozibasiz, yoqimsiz, koʻrimsiz; sovuq, jirkanch, kishini sovitadigan, oʻzidan qochiradigan; a ~ look yoqimsiz aft-angor (tashqi koʻrinish, qiyofa). sovuq bashara, yoqimsiz koʻrinish; 2) doʻq (tahdid)ni ifodalaydigan; xavfli, xatarli, qoʻrquchli. tahlakali, dahshatli; 3) yaqinlashib (yoniga borib) boʻlmaydigan; a ~ coast yaqinlashib boʻlmaydigan qirgʻoq
- forbore** [fɔːˈboː] *past. of forbear II*
- forborne** [fɔːˈboːn] *p. p. of forbear II*
- force** [fɔːs] 1. *n* 1) kuch, zoʻrlilik; **the ~ of the blow** zarba kuchi; 2) majburlash; **by ~** kuch bilan, zoʻrlab. majburan; 3) harbiy guruh; 2. *v* 1) majbur qilmoq, zoʻrlamoq; **to ~ smb. to do smth.** kimnidir nimagadir majburlamoq; 2) kuch bilan olmoq; 3) tezlashtirmoq
- forced** [fɔːst] *a* majbur boʻlgan, nochor, majburiy
- forcedly** [ˈfɔːsɪdli] *adv* majbur boʻlganidan (majburlikdan), noilojlikdan (ilojsizlikdan, noifojdan); biror majburiyat ostida
- force-feed** [ˈfɔːsfiːd] *v* (*asos.*, mahbustlarni) majburiy ravishda (zoʻrlab) ovqatlantirmoq
- forceful** [ˈfɔːsf(ə)l] *a* 1) kuchli, baquvvat; 2) amaliy natija (foйда) beradigan; taʼsir koʻrsatadigan; taʼsirli, taʼsirchan
- force-land** [ˈfɔːslænd] *v* *av.* majburan qoʻnmoq
- forceless** [ˈfɔːsləs] *a* kuch-quvvatdan qolgan, bequvvat, bedarmon, kuchsiz, darmonsiz, zaif, notavon
- force majeure** [ˈfɔːsmæˈʒɔː] *n* fr. yur. yengib boʻlmaydigan kuch
- force-meat** [ˈfɔːsmiːt] *n* qiyma
- forceps** [ˈfɔːseps] *n* jarrohlik qisqichi, pinset
- force-pump** [ˈfɔːspʌmp] *n* *tex.* dam beradigan nasos
- forcible** [ˈfɔːsəb(ə)] *a* 1) majburiy, zoʻraki; 2) asosli, ishonchli (*fikr va b.*)

- forcing** [ˈfɔːsɪŋ] *n* 1) majburan qilish, zoʻrlash, kuch ishlatish; 2) *q.x.* qoʻzgʻatish, kuchaytirish (boʻyini); (*oʻsimliklarni*) issiqxona (parnik)da tezlashtirib yetishtirish; 3) *atr.* a- bed issiqxona (parnik)
- Ford** [fɔːd] *n* ford (*avtomobil*)
- ford** [fɔːd] 1. *n* kechuv, kechish; 2. *v* kechib oʻtmoq
- fore** [fɔː] 1. *n* yuz (old) tarafi; 2. *a* yuz (old) tarafdagi
- fore-and-aft** [ˌfɔː(ɪ)ænd ˈɑːft] *a deng.* boʻylama, uzunasiga, boʻyiga
- forearm I** [ˈfɔːrɑːm] *n* bilak
- forearm II** [ˈfɔːrɑːm] *v* oldindan (ilgaridan) qurullangan
- forebear** [ˈfɔːbeə] = **forbear I**
- forebode** [fɔːˈbɔʊd] *v* 1) bashorat qilmoq, oldindan xabar bermoq; 2) oldindan sezmoq
- foreboding** [fɔːˈbɔʊdɪŋ] *n* oldindan sezish, koʻngil sezish
- fore-cabin** [ˈfɔːkæbɪn] *n deng.* 1) komandir saloni; 2) passajirlar turadigan ikkinchi darajadagi joy
- forecast** [ˈfɔːkɑːst] 1. *n* bashorat, karomat, oldindan aytilish; **weather** ~ ob-havo maʼlumoti; 2. (**forecast**, **fore-casted**) *v* oldindan ayrib bermoq, bashorat qilmoq
- forecastle** [ˈfɔːkɑːsl] *n deng.* bak (*baʼzi kemalarning old qismi*)
- foreclose** [fɔːˈkləʊz] *v* oldini olmoq, ehtiyot chorasini koʻrmoq
- foreclosure** [fɔːˈkləʊzə] *n yur.* garovga qoʻyilgan narsani pul toʻlab qaytarib olish huquqini bekor qilish
- forecourt** [ˈfɔːkɔːt] *n* tashqi hovli, bino oldidagi yalanglik
- foredoom** [ˈfɔːdʊm] *v* 1) (*taqdirni*) oldindan hal qilib qoʻymoq; 2) duchor (mahkum) qilmoq (*to*)
- fore-edge** [ˈfɔːredʒ] *n* kitobning old tomondagi cheti (qirgʻogʻi)
- forefather** [ˈfɔːfɑːðə] *n* ota-bobo, avlod-ajdod
- forefinger** [ˈfɔːfɪŋgə] *n* koʻrsatkich barmoq
- forefoot** [ˈfɔːfʊt] *n* hayvonlarning oldingi oyogʻi
- forefront** [ˈfɔːfrʌnt] *n* oldingi oʻrin, muhim oʻrin
- foregather** [fɔːˈgæðə] *v* toʻplamoq, yigʻmoq
- forego** [fɔːˈgəʊ] *v* (**forewent**; **foregone**) ilgari boʻlmoq, oldin yuz bermoq
- foregoing** [fɔːˈgəʊɪŋ] *a* ilgari, ilgarigi, oldingi, oʻtgan, oldin boʻlgan
- foregone** [fɔːˈgʌn] 1. *p. p. of* forego; 2. *a* ilgarilab ketgan, oldinga oʻtib ketgan
- foreground** [ˈfɔːgraʊnd] *n* 1) oldingi planda (*suratda*); 2) koʻzga yaqin, koʻzga tashlanadigan joy
- forehand** [ˈfɔːhænd] *n* oʻng tarafdin urish (*tennis va b. da*)
- forehanded** [fɔːˈhændɪd] *a* 1) oʻz vaqtida boʻladigan, ayni paytida qilinadigan, vaqtni boy bermasdan (kechikmasdan) oʻtkaziladigan; 2) oldindan qilingan, oldinroq (barvaqt) qilib qoʻyilgan
- forehead** [ˈfɔːhed] *n anat.* peshana
- foreign** [ˈfɔːrɪn] *a* 1) chet el, xorijiy, tashqi; **a** ~ **language** chet tili; ~ **affairs** tashqi aloqalar; **a** ~ **policy** tashqi siyosat; ~ **problems** tashqi siyosat muammolari; **the F. Office** tashqi ishlar vazirligi (*Angliyada*); **F. Secretary** tashqi ishlar vaziri (*Angliyada*); ~ **service** diplomatik xizmat; ~ **economic relations** tashqi iqtisodiy aloqalar (munosabatlar); ~ **exchange** chet el valutasini (puli); 2) notanish, begona; **a** ~ **trade** tashqi savdo
- foreigner** [ˈfɔːrɪnə] *n* chet ellik
- forejudge** [fɔːˈdʒʌdʒ] *v* 1) oldindan hal qilib (yechib) qoʻymoq; oldindan qaror qilib qoʻymoq; 2) oldindan aniqlab (belgilab) qoʻymoq
- foreknew** [fɔːˈnjuː] *past. of* foreknow
- foreknow** [fɔːˈnəʊ] *v* (**forknew**; **fore-known**) oldindan bilmok
- foreknowledge** [fɔːˈnɒlɪdʒ] *n* oldindan bilish, oldindan koʻrish
- foreknown** [fɔːˈnəʊn] *p. p. of* foreknow
- foreland** [ˈfɔːlənd] *n* 1) burun (*dengizga oid*); 2) dengiz boʻyi
- foreleg** [ˈfɔːləg] *n* oldingi oyoq (*hayvonlarda*)
- forelock** [ˈfɔːlək] *n pl* peshana gajak; kokil, poʻpak, toj; **to take time** (*yoki occasion*) **by the** ~ fursatdan (imkoniyatdan) foydalanmoq (foydalanib qolmoq)
- foreman** [ˈfɔːmən] *n* (**pl** -men [-mən]) 1) usta, mutaxassis; 2) *yur.* sud maslahatchilari raisi
- foremast** [ˈfɔːmɑːst] *n deng.* fok-machta (*kemaning old tomonidagi machta*)
- foremilk** [ˈfɔːmɪk] *n* ogʻizsut, ogʻiz suti
- foremost** [ˈfɔːməʊst] 1. *a* eng mashhur, eng taniqli; **the** ~ **authority** eng zoʻr mutaxassis; 2. *adv* birinchi oʻrinda, birinchi
- forename** [ˈfɔːneɪm] *n* ism, ot, nom
- forenamed** [ˈfɔːneɪmd] *a* yuqorida eslatib oʻtilgan, zikr qilingan, mazkur
- forenoon** [ˈfɔːnuːn] *n* erta, ertalab, tong, sahar
- forensic** [fɔːˈrensɪk, -zɪk] *a* sudga oid; sud-dagi; sud ...; ~ **medicine** sud tibbiyoti; ~ **eloquence** advokat (oqlovchi)ning gapga chechanligi (ustaligi)
- foreordain** [ˈfɔːrɔːdeɪn] *v* oldindan belgilab qoʻymoq, oldindan aniqlab (tayinlab) qoʻymoq

- forepart** [ˈfɔːpɑːt] *n* 1) oldingi qism; 2) birinchi qism
- foreplay** [ˈfɔːpleɪ] *n* ishq-muhabbat oʻyini
- forerun** [ˈfɔːrʌn] *v* (**foreran**; **forerun**) 1) biror kimsa yoki narsadan oldin oʻtmoq (ilgari boʻlmoq); 2) bashorat qilmoq, oldindan xabar bermoq (aytib bermoq)
- forerunner** [ˈfɔːrʌnə] *n* darakchi, oldindan xabar beruvchi
- foresail** [ˈfɔːs(ə)l, -seɪl] *n* deng. fok (*kemalarda: oldingi machtaning pastki yelkani*)
- foresaw** [ˈfɔːsɔː] *past. of foresee*
- foresee** [ˈfɔːsiː] *v* (**foresaw**; **foreseen**) oldindan koʻrmoq (bilmoq), bashorat qilmoq
- foreseeable** [ˈfɔːˈsiːəb(ə)l] *a* kutilayotgan, oldindan koʻriladigan, bilinadigan
- foreseen** [ˈfɔːsiːn] *p. p. of foresee*
- foreshadow** [ˈfɔːʃædɔʊ] *v* bashorat qilmoq, oldindan xabar bermoq
- foreshore** [ˈfɔːʃɔː] *n* qirgʻoqning suv bilan yuvilib turgan qismi
- foreshorten** [ˈfɔːʃɔːtn] *v* qisqartirib (kichraytirib) tasvirlamoq
- foreshow** [ˈfɔːʃəʊ] *v* (**foreshoed**; **foreshown**) (*nima boʻlishini, kelajakni*) oldindan (taxminan) aytmoq, bashorat (karomat) qilmoq
- foreshown** [ˈfɔːʃɔːm] *p. p. of foreshow*
- foresight** [ˈfɔːsaɪt] *n* 1) oldindan koʻra bilish, bashorat qilish, uzoqni koʻrish; 2) ehtiyotkorlik
- foreskin** [ˈfɔːskɪn] *n* tana, badan
- forest** [ˈfɔːrɪst] 1. *n* 1) oʻrmon; 2) *attr.* oʻrmonga oid; oʻrmonda boʻladigan, yashaydigan, oʻrmondagi; oʻrmon ...; - **conservation** oʻrmonlarni saqlash; **a - shelter belt** ihota oʻrmoni; 2. *v* oʻrmonlashtirmoq; daraxt ekmoq
- forestall** [ˈfɔːsteɪl] *v* 1) ogohlantirmoq, xabar bermoq; 2) oldindan qilmoq, oldini olmoq
- forester** [ˈfɔːrɪstə] *n* oʻrmon nazoratchisi
- forestry** [ˈfɔːrɪstri] *n* oʻrmonchilik, oʻrmon xoʻjaligi
- foretaste** [ˈfɔːteɪst] *n* oldindan lazzatlanish yoki qaygʻurish
- foretell** [ˈfɔːˈtel] *v* (**foretold**) oldindan aytmoq, oldindan xabar bermoq, bashorat qilmoq
- forethought** [ˈfɔːθɔːt] *n* uzoqni rejalashtirish
- forethoughtful** [ˈfɔːθɔːtf(ə)l] *a* ehtiyotkor, uzoqni oʻylaydigan; kelajakni oʻylab ish qiladigan
- foretime** [ˈfɔːtaɪm] *n* eski (qadimgi) zamonlar; oʻtgan kunlar; oʻtmish
- foretoken** [ˈfɔːˈtɔːkn] *v* bashorat qilmoq, oldindan aytib bermoq
- foretold** [ˈfɔːˈtɔːld] *v* *past, p. p. of foretell*
- foretooth** [ˈfɔːtuːθ] *n* oldingi tish
- forever** [ˈfɔːrevə] *adv* abadiy, doimiy
- forewarn** [ˈfɔːwɔːn] *v* ogohlantirib qoʻymoq
- forewent** [ˈfɔːˈwent] *past. of forego*
- forewoman** [ˈfɔːˈwʊmən] *n* (*pl -women* [-,wɪmɪn]) oʻnboshi ayol, ishboshi ayol; texnik ayol; usta ayol
- foreword** [ˈfɔːwɜːd] *n* soʻzboshi, muqaddima
- forfeit** [ˈfɔːfɪt] *n* musodara, huquqdan mahrum boʻlish
- forfeiture** [ˈfɔːfɪtʃə] *n* konfiskatsiya, musodara, musodara qilish
- forfend** [ˈfɔːˈfend] *v* *amer.* saqlamoq, ehtiyot qilmoq
- forgather** [ˈfɔːˈgæðə] *v* toʻplamoq, yigʻmoq, yigʻilmoq
- forgave** [ˈfɔːˈgeɪv] *past. of forgive*
- forge** [ˈfɔːdʒ] 1. *n* temirchi ustaxonasi; 2. *v* 1) bolgʻa bilan (*biror narsa*) yasamoq; 2) soxtalashtirmoq
- forger** [ˈfɔːdʒə] *n* 1) temirchi; 2) soxta pul yasovchi; 3) (*hujjat, imzoni*) soxtalashtiruvchi
- forgery** [ˈfɔːdʒ(ə)rɪ] *n* 1) soxtalashtirish, qalbakilashtirish; 2) soxta imzo, qalbaki hujjat
- forget** [fəˈget] *v* (**forgot**; **forgotten**) esdan chiqarmoq, unutmok; **-ful** unutulmagan, faromushxotir
- forget-me-not** [fəˈgetmiˌnɒt] *n* bot. boʻta-koʻz (*gul*)
- forgivable** [fəˈɡɪvəb(ə)l] *a* kechiriladigan, kechirsa boʻladigan
- forgive** [fəˈɡɪv] *v* (**forgave**; **forgiven**) kechirmoq, gunohidan oʻtmoq
- forgiven** [fəˈɡɪv(ə)n] *p. p. of forgive*
- forgiveness** [fəˈɡɪvnəs] *n* kechirish, gunohidan oʻtish
- forgiving** [fəˈɡɪvɪŋ] *a* 1) marhamatli, muruvvatli, andisha bilan ish tutadigan; iltifotli; 2) hamma gunohlarni kechiruvchi, hamma gunohlardan oʻtuvchi, rahmdil
- forgo** [ˈfɔːˈɡəʊ] *v* (**forwent**; **forgone**) rad qilmoq, voz kechmoq, sabr-qanoat qilmoq, oʻzini (nafsini) tiymoq, saqlanmoq
- forgone** [ˈfɔːˈɡɒn] *p. p. of forgo*
- forgot** [fəˈɡɒt] *past. of forget*
- forgotten** [fəˈɡɒtən] *p. p. of forget*
- forint** [ˈfɔːrɪnt] *n* forint (*Vengriya pul birligi*)
- fork** [ˈfɔːk] 1. *n* 1) ayri, panshaxa; 2) vilka (*ovqat yeydigan*); 3) sanchqi; 2. *v* panshaxa bilan ishlamoq
- forked** [ˈfɔːkt] *a* 1) ikkiga boʻlingan (ayrilgan); 2) shoxobchalarga (tarmoqlarga) boʻlinib ketgan; 3) sanchqisimon, sanchqi shak-

- lidagi; a ~ lightning zigzag (siniq chiziq) shaklidagi chaqmoq
- fork-lift** [ˈfɔ:k,lɪft] *n* yuk ko'targich (mashina, mexanizm, qurilma)
- forlorn** [fɔˈlɔ:n] *a* yolg'iz, baxtsiz, umidsiz, tushkun
- form** [fɔ:m] *f. n* 1) shakl, tashqi ko'rinish; 2) *harb.* tuzilma; 3) shakl, qomat (*odam haqida*); 4) (*adabiy*) usul, uslub; 5) toifa; tur: ~s of animal hayvon turlari; 6) holat: 2. *v* 1) yaratmoq; 2) tuzmoq, 3) shakllantirmoq; **to ~ an option** fikrini shakllantirmoq; 4) qurmoq
- formal** [ˈfɔ:m(ə)] *a* 1) rasmiy, qonuniy; a ~ agreement rasmiy kelishuv; 2) tashqi; ~ism rasmiyatchilik
- formaldehyde** [fɔːˈmældɪhaɪd] *n kim.* formaldegid, chumoli aldegid (*o'tkir hidli, rangsiz gaz*)
- formal dress** [ˈfɔ:m(ə)ˈdres] *n* tantanali tungi qabul marosimlariga kiyiladigan kiyim
- formalin** [ˈfɔ:məli:n] *n kim.* formalin (*dizinfeksiyalovchi dori*)
- formalist** [ˈfɔ:məlist] *n* rasmiyatchi, rasmiyatparast; sinchkov, maydakash; rasmiy talablarni bajarishga zo'r beruvchi kishi, o'taketgan rasmiyatchi
- formality** [fɔːˈmælti] *n* 1) rasmiyatchilik; 2) sinchkovlik
- formalize** [ˈfɔ:məlaɪz] *v* 1) rasmiylashtirmoq; rasmiylashtirib qo'yimoq, rasmiylashtirib kuchga kiritmoq; 2) ma'lum bir shaklga keltirmoq (kiritmoq); 3) rasmiy tarzda harakat qilmoq (ish tutmoq); 4) rasmiyatchilik bilan yondoshmoq
- formally** [ˈfɔ:məli] *adv* rasmiy, rasman
- format** [ˈfɔ:mæt] *n* 1) o'lcham, hajm; shakl; 2) kitob bichimi
- formate** [ˈfɔ:mɪt] *n kim.* chumoli kislota-sining tuzi
- formation** [fɔːˈmeɪʃ(ə)n] *n* tuzish, tashkil etish, yaratish, shakllanish
- formative** [ˈfɔ:mətɪv] *a* singitadigan, singiydigan, oqlaydigan
- forme** [fɔ:m] *n tex.* shakl, model, andaza, qolip
- former** [ˈfɔ:mə] *f. a* oldingi, sobiq; **in ~ time** oldingi paytlarda; *n* 1) qolip; 2) tuzuvchi, yaratuvchi
- formerty** [ˈfɔ:məti] *adv* avval, ilgari, qachonlardir
- formic** [ˈfɔ:mɪk] *a kim.* chumoliga oid, chumoli...; ~ acid chumoli kislota
- Formica** [fɔːˈmɪkə] *n* o'tga chidamli plastmassa (*oshxona mebellari uchun savdo belgisi*)
- formicary** [ˈfɔ:mɪk(ə)rɪ] *n* chumoli uyasi, ini
- fornication** [ˌfɔ:nɪˈkeɪʃ(ə)n] *n tib.* badanida chumoli yurgandek his qilish
- formidable** [ˈfɔ:mɪdəb(ə)l] *a* 1) dahshatli; 2) yengish qiyin bo'lgan; 3) ulkan; a ~ army kuchli armiya
- formless** [ˈfɔ:mləs] *a* formasiz, shaksiz
- formmaster** [ˈfɔ:m,mɑ:stə] *a* sinf rahbari
- formula** [ˈfɔ:mjələ] *n* formula, aniq ifoda, ta'rif
- formulae** [ˈfɔ:mjəli:] *pl of formula*
- formulary** [ˈfɔ:mjʊl(ə)rɪ] *n* 1) *cherk.* trebnik (*pravoslavlarda: treba ibodatiga oid ayatlar va qoidalar yozilgan kitob*)
- formulate** [ˈfɔ:mjʊleɪt] *v* ifodalamoq, tahrir qilmoq; **to ~ a proposal** taklifni ifoda etmoq
- formulation** [ˌfɔ:mjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* aniq ifoda qilish, ta'riflash, ta'riflab berish; aniq ifoda (ta'rif); a final ~ eng so'nggi ta'rif
- formulism** [ˈfɔ:mjʊlɪz(ə)m] *n* formulaga (biror ta'rifga) ko'r-ko'rona amal (rioya) qilish
- fornicate** [ˈfɔ:nɪkeɪt] *a* zino qilmoq
- fornication** [ˌfɔ:nɪˈkeɪʃ(ə)n] *n esk. hazil.* shaloqlik, buzuqlik, fahsh, zino, zinokor; nikobsiz jinsiy munosabatda bo'imoq
- forrader** [ˈfɔ:redə] *adv* so'zl. oldinga qarab, oldinga, olg'a
- forsake** [fɔːˈseɪk] *f. v* (**forsook; forsaken**) tashlab ketmoq; voz kechmoq, bahridan o'tmoq; *a* tashlab (qoldirib) ketilgan, tark etilgan, qarovsiz qoldirib ketilgan
- forsaken** [fɔːˈseɪkən] *p. p. of forsake*
- forsook** [fɔːˈsɒk] *past. of forsake*
- forsooth** [fɔːˈsu:θ] *adv* shubhasiz, shakshubhasiz, haqiqatan ham, haqiqatda ham, chindan ham, chinakamiga, darhaqiqat
- forswear** [fɔːˈswɛə] *v* (**forsovere; forsworn**) inkor qilmoq; tonmoq; qaytmoq; **to ~ oneself** yolg'ondakamiga qasam ichinoq; qasamini buzmoq
- forsovere** [fɔːˈswɔ:] *past. of forswear*
- forsworn** [fɔːˈswɔ:n] *f. v p. p. of forswear;* *a* qasamni buzgan, qasamxo'r
- fort** [fɔ:t] *n* qal'a, qo'rg'on
- forte** [ˈfɔ:t(eɪ)] *f. n* kuchli tomon, kuchli jihat; *adv mus.* forte, qattiq, kuchli
- forth** [fɔ:θ] *adv* 1) olg'a, oldinga; **and so ~** va boshqalar; va hokazo; **back and ~** u yoqqa va bu yoqqa; orqaga va oldinga; 2) kelgusida, kelajakda, bundan buyon; endi, minba'd; **from this day ~** shu bugundan boshlab; 3) tashqariga; **to put ~ leaves** barglarga burkanmoq, barglar chiqarmoq
- forthcoming** [ˌfɔ:θˈkʌmɪŋ] *a* 1) bo'lg'usi, kelgusi, kelajak; a ~ book yaqinda nashrdan chiqadigan kitob; 2) yaqinda bo'ladigan; kelajakdagi, kelgusi

forthright [ˈfɔːθraɪt] 1. a ochiq, beg'araz, halol; 2. *adv* to'ppa-to'g'ri, to'g'ridan to'g'ri, tortinmay, ikkilanmay, tap tortmay, qat'iyat bilan

forthwith [ˈfɔːθwɪθ] *adv* darrov, darhol, shu zahoti

forties [ˈfɔːtɪz] *n pl* (the ~) qirqinchi yillar; in the ~ qirqinchi yillarda

fortieth [ˈfɔːtiəθ] 1. *num. ord.* qirqinchi; 2. *n* qirqinchi qism

fortification [ˌfɔːtɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* mudofaa inshooti

fortified [ˈfɔːtɪfaɪd] *n 1)* *harb.* mustahkamlangan, mudofaa inshootlari qurilgan; istehkomli, mustahkam; ~ *area* mustahkamlangan (istehkomlar qurilgan) rayon; 2) tarkibidagi foydali modda miqdori ko'paytirilgan; spirt qo'shilgan, spirtli; ~ *wine* spirt qo'shilgan vino, spirtli vino

fortify [ˈfɔːtɪfaɪ] *v 1)* mustahkamlamoq; 2) kuchaytirmoq, oshirmoq

fortissimo [fɔːˈtɪsɪmɔː] *adv mus.* fortissimo, juda kuchli, juda qattiq

fortitude [ˈfɔːtɪtjuːd] *n* chidamlilik, bardoshlilik

fortnight [ˈfɔːmaɪt] *n* ikki hafta; **this day** ~ roppa-rosa ikki haftadan so'ng; **this** ~ so'nggi ikki hafta; ~*ly* ikki haftada bir mar-ta

fortress [ˈfɔːtrɪs] *n* qal'a, qo'rg'on

fortuitous [fɔːˈtjuːɪtəs] *a* tasodifiy, tasodifan bo'lgan, nogahoniy, kutilmagan

fortuity [fɔːˈtjuːɪti] *n* voqea, hodisa

fortunate [ˈfɔːtʃ(ə)nət] *a* baxtli; o'ng'ay; muvaffaqiyatli

fortunately [ˈfɔːtʃ(ə)nətli] *adv* baxtiga (baxtinga va h. k.), xayriyat; ~ **it didn't snow last week** xayriyat, o'tgan hafta qor yog'madi

fortune [ˈfɔːtʃ(ə)n] 1. *n 1)* omad, baxt, taq-dir; bad ~ omadsizlik; 2) boylik, davlat, mulk; **to come into a ~** merosga ega bo'lmoq; **to make a ~** boyib ketmoq; 2. *v 1)* sodir bo'lmoq; 2) urilib ketmoq; urib olmoq; duch kelmoq

fortune hunter [ˈfɔːtʃ(ə)nˌhʌntə] *n so'zl.* boy qalliq axtaruvchi kishi

fortuneless [ˈfɔːtʃ(ə)nləs] *a 1)* ishi yurish-magan (yurmaydigan, o'ngmaydigan), omadi yo'q; bebaxt, badbaxt, baxtsiz, baxti qora, toleyi past, sho'rpehana; 2) kam-bag'al (qashshoq) kishi

fortune-teller [ˈfɔːtʃ(ə)nˌtelə] *n* folbin, rom-chi; kinnachi

forty [ˈfɔːti] *num. card.* qirq

forty-niner [ˈfɔːtɪˌnaɪnə] *n amer. so'zl.* „qirq to'qqizinchi yil odami“ oltin qidiruvchi

(1849- yilda Kaliforniyada oltin ochilgan-dan keyin u yerga kelgan kishi)

forum [ˈfɔːrəm] *n 1)* anjuman, yig'in; 2) syezd, forum; 3) munozara, ochiq muloqot

forward [ˈfɔːwəd] 1. *n sport.* hujumchi (*football*); **a centre** ~ markaziy hujumchi; 2. *a 1)* oldingi, ilg'or, birinchi; 2) eng yaxshi; **a ~ pupil** eng yaxshi o'quvchi; 3) erta, vaqti; **a ~ spring** erta bahor; 4) tayyor; 3. *adv* olg'a; ~! olg'a!; 2) olg'a; uzoqroq, nariroq; **from this time** ~ shu vaqtdan boshlab; **to look ~ to** ...ni umid qilmoq, ...ni orziqib kutmoq; **to look ~ for smth.** oldindan sezib zavqlanmoq; **to look ~ to seeing smb. soon** tez kunda biror kishi bilan ko'rishishga oshiqmoq; 4. *v 1)* yor-dam bermoq; 2) jo'natmoq; **to ~ goods** yuk-ni belgilangan joyga jo'natmoq

forwarder [ˈfɔːwədə] *n* ekspeditor (*mol, to-var* jo'natish va keltirish ishi bilan shu-g'ullanuvchi xodim)

forward-looking [ˈfɔːwədˌlʊkɪŋ] *a 1)* prog-ressiv, tobora o'sib (ko'payib) boradigan; taraqqiyparvar; ilg'or; 2) kelajakni o'ylab ish qiladigan, uzoqni o'ylaydigan, uzoqni ko'ra biladigan, uzoqni o'ylab (ko'zlab) ish tutadigan, mulohazali

forwardness [ˈfɔːwədˌnəs] *n 1)* erta rivoj-lanish (yuksalish); 2) tayyor (shay) holat, tayyorlik, shaylik; g'ayrat, ishtiyok, jahd-u jadal; 3) o'zini katta olish, o'ziga ishonish, manmanlik

forwards [ˈfɔːwədz] *adv* oldinga qarab, ol-dinga, olg'a, ilgari

forwent [fɔːˈwent] *past. of forgo*

forworn [fɔːˈwɔːn] *a esk. shoir.* charchagan, horgan, toliqqan, horg'in

fossa [ˈfɔːsə] *n (pl -ae [-iː]) anat.* chuqurcha (*asosan, tanada*)

fossae [ˈfɔːsiː] *pl of fossa*

fosse [ˈfɔːs] *n harb.* o'r, chuqur, xandaq, zo-vur

fossick [ˈfɔːsɪk] *v avstral. so'zl.* 1) titkila-moq, titmoq, qidirmoq, axtarmoq, kovla-moq; 2) tashlandiq bo'lib qolgan kovlangan konlarda oltin qidirmoq

fossil [ˈfɔːsɪl] 1. *n* toshga aylanganlik, tosh-day qotib qolganlik (*hayvon yoki o'simlik goldig'i haqida*); 2. *a* toshga aylangan, tosh bo'lib qolgan (*qadimgi hayvonlarning goldiqlari haqida*)

fossilize [ˈfɔːsɪlaɪz] *v 1)* toshga aylantirmoq, toshday qotirib qo'ymoq; toshga aylan-moq, toshday qotib qolmoq; 2) qotib qol-moq

fossorial [fɔːˈsɔːriəl] *a* juda sekin harakat qiladigan (*hayvonlar haqida*)

foster [ˈfɒstə] *v* tarbiyalamoq, qaramoq; boqmoq; **a --brother** emikdosh (*sut emishgan*) aka yoki uka; **a --child** asrandi (o'g'il yoki qiz); **a --father** tutingan ota; **--ling** asrandi; shogird; **a --mother** tutingan ona; enaga; birovning bolasini (*emizi*) boquvchi ayol

fosterage [ˈfɒst(ə)rɪdʒ] *n* 1) (*begona*) bolani tarbiyalash; 2) (*bolani*) tarbiyalash uchun berish; 3) rag'batlantirish, qiziqtirish, taqdirlash

foster-sister [ˈfɒstə,sɪstə] *n* emikdosh singil

fought [fɔ:t] *past. p. of fight* 2

foul [faʊl] **I. a** 1) sassiq, badbo'y; 2) iflos, kir; 3) yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon; 4) yomon, yaramas, xunuk, bemaza, rasvo; **2. n** qoidani buzish; **3. v** 1) kir (iflos) qilmoq, ifloslantirmoq; 2) buzmoq, shikast yetkazmoq, ishdan chiqarmoq; 3) chalkashtirmoq

foulard [ˈfu:lɑ(d)] *n* harir (*yupqa ipak gazlama*)

foully [ˈfaʊli] *adv* 1) kir (iflos) qilib, kir (iflos) holda; yoqimsiz bir holda (*tarzda*); 2) xiyonatkorona, xoinlik bilan; shafqatsizlik bilan, ayamadan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona

foul-mouthed [ˈfaʊl ˈmaʊðd] *a* og'zi yomon, behayo, beodob, nojo'ya, so'kinib gapiradigan

foulness [ˈfaʊlnəs] *n* 1) razillik, pastkashlik, ifloslik, nopoklik; axloqi buzqlik, axloqsizlik, badaxloqlik; 2) *geol.* (tabiiy) gazga boylik

foul play [ˈfaʊl ˈpleɪ] *n* 1) g'irrom o'yin; 2) xoinlik, sotqinlik, xiyonat, xiyonatkorlik, kuch ishlatish (*asos., qotillik*)

foul-up [ˈfaʊld ˈʌp] *n* so'zl. mushkul ahvol

found I [faʊnd] *v* 1) barpo qilmoq (*shahar*); poydevor qo'yimoq; **to ~ a building** binoni barpo qilmoq; 2) yaratmoq; **to ~ a theory** nazariya yaratmoq; 3) asos solmoq; 4) ta'sis etmoq; **to be well ~ed** yaxshi asoslangan

found II [faʊnd] *a* barcha zaruriy narsalar bilan ta'minlangan; turar joy va oziq-ovqat bilan ta'minlangan

found III [faʊnd] *past. p. of find* 2

foundation [ˈfaʊn deɪʃ(ə)n] *n* 1) zamin, barpo etish, asos, negiz; **to lay the ~s of smth.** nimagadir zamin yaratmoq; 2) fond, tashkilot; **the ~ of a library** kutubxona tashkiloti

founditioner [ˈfaʊn deɪʃ(ə)nə] *n* stipendiya oluvchi (kishi)

foundation stone [ˈfaʊn deɪʃ(ə)nstəʊn] *n* 1) *qur.* poydevor uchun belgilangan tosh; 2) asos, tub, negiz; asosiy g'oya, asosiy fikr; poydevor tosh

founder I [ˈfaʊndə] **1. n** yaratuvchi, asoschi; **2. v** 1) (*ot haqida*) oqsamoq; 2) (*charchoqdan*) yiqilmoq

founder II [ˈfaʊndə] *n* metall erituvchi (*mutaxassis*); quyuvchi, degrez

foundling [ˈfaʊndlɪŋ] *n* tashlandiq bola

foundling-hospital [ˈfaʊndlɪŋ ˈhɒspɪtəl] *n* yetimxona, bolalar uyi, tarbiya uyi

foundress [ˈfaʊndrɪs] *n* asos solgan ayol, asoschi; ta'sis etuvchi, tuzuvchi

foundry [ˈfaʊndri] *n* 1) quyish (quyuv) sexi; quyimachilik (degrezlik) sexi; 2) quyish, metall quyish

foundry hand [ˈfaʊndrɪhænd] *n* quyuvchi, degrez

fount I [faʊnt] *n* buloq, chashma

fount II [faʊnt] *n* *poligr.* shriftlar (bosma harflar) to'plami

fountain [ˈfaʊntɪn] *n* 1) favvora, fontan; 2) buloq; chashma

fountainhead [ˈfaʊntɪnhed] *n* 1) buloq, chashma; 2) asl manba, dastlabki (bosh) manba; **to go to the ~** dastlabki manbaga murojaat qilmoq

fountain-pen [ˈfaʊntɪnpɛn] *n* avtoruchka

four [fɔ:] *num. card.* to'rt; to'rtlik; **on all ~s** to'rt oyoqlab; **~ footed** to'rt oyoqli

four-cornered [ˈfɔ: ˈkɔ:nəd] *a* to'rt burchakli, to'rtburchak

four-cycle [ˈfɔ: ˈsaɪk(ə)l] *a* *tex.* to'rt taktili

four-eyes [ˈfɔ:raɪz] *n* „to'rtko'z“ (*ko'z-oynak taqqan kishi haqida*)

Four-F [ˈfɔ:(r)ef] *n* *amer. harb.* harbiy xizmatga yaroqsiz (layoqatsiz) kishi

four-flusher [ˈfɔ:flʌʃə] *n* *amer.* aldamchi, aldoqchi; yolg'onchi, firibgar, qallob

fourfold [ˈfɔ:fəʊld] *a* to'rt marta, to'rt karra

four-footed [ˈfɔ: ˈfʊtɪd] *a* to'rt oyoqli

four-handed [ˈfɔ: ˈhændɪd] *a* 1) to'rt qo'lli (*maynun haqida*); 2) to'rt kishi (bo'lib) o'ynaydigan (*o'yin haqida*)

four-in-hand [ˈfɔ:ɪn ˈhænd] *n* to'rt kishidan iborat bo'lgan ekipaj

four-letter word [ˈfɔ:letə ˈwɜ:d] *n* yomon (uyat) so'z; so'kish; haqorat

four-oar [ˈfɔ:ɔ:] *n* to'rt eshkakli qayiq

four-poster [ˈfɔ: ˈpəʊstə] *n* pashshaxona, uchlari bog'langan karavot, to'rt ustunchali pashshaxonali karavot

fourscore [ˈfɔ:skɔ:] *n* *esk.* 1) sakson; 2) sakson yosh

four-seater [ˈfɔ: ˈsi:tə] *n* to'rt o'rinli mashina

foursome [ˈfɔ:s(ə)m] *n* to'rt kishidan tarkib topgan guruh; 2) golfda ikki juftlik o'rtasidagi o'yin

four-square [ˈfɔ: ˈskweə] *n* kvadrat (*tomonlari teng to'g'ri to'rtburchak*)

fourteen [ˈfɔː ˈtiːn] *num. card.* o'n to'rt; -th o'n to'rtinchi
fourth [fɔːθ] **1.** *num. ord.* to'rtinchi; **2.** *n* to'rtidan bir
fourth dimension [ˈfɔːθd(a) ˈmenʃ(ə)n] *n* fiz. to'rtinchi o'lchov
fourth estate [ˈfɔːθr ˈsteɪt] *n* hazil. matbuot
fourthly [ˈfɔːθli] *adv* to'rtinchidan
four-wheeler [ˈfɔː ˈwiːlə] *n* izvoshchi kare-tasi (to'rt g'ildirakli yengil soyabon aravasi)
fowl [faʊl] **1.** *n* uy parrandalari; **2.** *v* qush ovlamoq
fowler [ˈfaʊlə] *n* qush tutuvchi, qushtutar (asosan, sayroqi qushlarni tutish bilan shug'ullanuvchi kishi)
fowling [ˈfaʊliŋ] *n* qush ovlash
fowling bag [ˈfaʊliŋbæg] *n* ilvasin xalta, ov xalta
fowling-piece [ˈfaʊliŋpiːs] *n* ov miltig'i
fowl-run [ˈfaʊlɾən] *n* qushxona, katak; parrandalar saqlanadigan (boqiladigan) bino
fox [fɒks] **1.** *n* tulki; **2.** *v* ayyorlik qilmoq
boxbane [ˈfɒksbeɪn] *n* bot. 1) akonit, parpi (bir turli dorivor o'simlik); 2) ayiqtovon (sariq, ko'k va binafsha gulli o'simlik)
fox-brush [ˈfɒksbrʌʃ] *n* tulkiqning dumi
fox-earth [ˈfɒksə:θ] *n* tulki ini
foxfire [ˈfɒks ˈfaɪə] *n* amer. qorong'ida nur sohib turadigan yorug'lik (chirigan daraxtda)
foxglove [ˈfɒksɡlʌv] *n* bot. digitalis (dorivor o'simlik turi)
foxhole [ˈfɒkshəʊl] *n* tulki ini
foxhound [ˈfɒkshaʊnd] *n* inglizlarning tulki ovlaydigan tozi iti
foxtail [ˈfɒksteɪl] *n* 1) tulkiqning dumi; 2) bot. tulkiqyuruq (boshog'li o't)
fox terrier [ˈfɒks ˈterɪə] *n* foksteryer (uncha katta bo'lmagan ovchi it)
fox-trot [ˈfɒkstrot] **1.** *n* fokstrot (raqs turi hamda shu raqsning musiqasi); **2.** *v* fokstrot musiqasiga raqsga tushmoq
foxy [ˈfɒksi] *a* 1) tulkiga oid; 2) mug'ambir
foyer [ˈfɔɪə] *n* 1) foye (teatrda); 2) vestibul; xoll, kutish zali (mehmonxona va sh. k. da)
frabjous [ˈfræbdʒəs] *a* 1) dabdabali, serhasham, ajoyib; 2) juda soz, juda yaxshi, ajoyib, qoyilmaqom; 3) quvnoq, xursand, shod, quvonchli, sevinchli, shodiyona
fracas [ˈfrækeɪ] *n* urush, janjal, nizo, araz
fraction [ˈfræksj(ə)n] *n* 1) kasr; 2) bo'lak; ulush
fractional [ˈfræksj(ə)nəl] *a* mat. kasriy, kasr
fractionally [ˈfræksj(ə)nəli] *adv* juda kichik darajada, juda kichik miqdorda
fractionary [ˈfræksj(ə)nəri] = **fractional**

fractionate [ˈfræksj(ə)neɪt] *v* kim. fraksiya qilmoq (haydash natijasida moddani suyug narsadan ajratib chiqarmoq)
fractious [ˈfræksj(ə)s] *a* 1) injiq, serxarxasha, tantiq; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl; 3) gapga kirmaydigan, yon bermaydigan, itoat qilmaydigan, bo'ysunmaydigan; **a ~ horse** asov (ters) ot
fracture [ˈfræktʃə] **1.** *n* siniq, sinish, singan joy; **2.** *v* 1) sindirmoq, ushatmoq, parchalamoq; buzmoq; 2) sinmoq, parchalanmoq, ushatmoq; buzilmoq
frag bomb [ˈfrægbɒm] *n* harb. so'zl. parchalanadigan bomba
fragile [ˈfrædʒaɪl] *a* mo'rt, tez sinadigan
fragility [fræˈdʒɪlɪti] *n* mo'rtlik, sinuvchanlik
fragment [ˈfrægmənt] *n* parcha, bo'lak, qism
fragmentary [ˈfrægmənt(ə)rɪ] *a* uzilgan, bir-biriga bog'lanmagan, chala-chulpa
fragmentation [ˈfrægmən ˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) snaryad parchasi; 2) biol. bo'linib ko'payish
fragmentation bomb [ˈfrægmən ˈteɪʃ(ə)n-bɒm] *n* parchalanadigan bomba
fragmented [ˈfræɡ ˈmentɪd] *a* qismlarga (bo'laklarga, parchalarga) bo'lingan
fragrance [ˈfreɪgrəns] *n* xushbo'y hid, muattar hid
fragrant [ˈfreɪgrənt] *a* xushbo'y, yaxshi hidli, muattar
frail [freɪl] **1.** *a* nimjon; sinuvchan; **2.** *n* 1) qamish; 2) to'qima savat (meva va sabzavotlar uchun)
frailty [ˈfreɪlɪti] *n* 1) mo'rtlik, sinuvchanlik; bo'shlik, chidamsizlik, pishiq emaslik; 2) foniylilik, abadiy emaslik
frame [freɪm] **1.** *n* 1) skelet, qobirg'a; 2) qad-qomat, gavda; 3) ramka; **2.** *v* 1) yasamoq; qurmoq; solmoq, barpo qilmoq, o'rnatmoq; **to ~ a plan** reja tuzmoq; 2) ramkaga solmoq
frame-house [ˈfreɪmhaʊs] *n* sinchli uy
frame-up [ˈfreɪmʌp] *n* so'zl. 1) maxfiy kelishuv, til birlashtirish; 2) dalillarni buzib ko'rsatish (noto'g'ri talqin qilish); 3) tuzoq, qopqon, pistirma
framework [ˈfreɪmwɜ:k] *n* 1) kesish, kesilgan joy; 2) sinch; 3) rom, ramkaga solish, hoshiyalash; **within the ~ of (smth.)** biror narsa ichida (doirasida)
framing [ˈfreɪmɪŋ] *n* 1) rom, ramka, hoshiya; ramkaga solish, hoshiyalash; 2) sinch, qobirg'a, quruq gavda; yog'och devorli (devori ustma-ust terilgan yog'ochdan qilingan) qurilma

franc [fræŋk] *n* frank (*pul birligi*)
franchise [ˈfræntʃaɪz] *n* 1) saylash huquqi; 2) imtiyoz, yengillik
frangible [ˈfrændʒəb(ə)l] *a* moʻrt, sinuvchan, tez sinadigan
frank [fræŋk] *a* 1) ochiq, oshkora, ochiqdan ochiq; samimiy; sofdil; **a - look in the eyes** ochiq chehra; 2) saxiy
frankfurter [ˈfræŋkfɜːtə] *n* sosiska
frankincense [ˈfræŋkɪnsəns] *n* ladan (*baʼzi oʻsimliklardan olinadigan, diniy murosimlarda tutatiladigan xushboʻy (yelimshak) modda*)
franklin [ˈfræŋklɪn] *n* tar. kelib chiqishi zodagonlardan boʻlmagan, erki (huquqi) oʻzida boʻlgan yer egasi
frankness [ˈfræŋknəs] *n* ochiqlik, samimiylik
frantic [ˈfræntɪk] *a* jazavaga tushgan, gʻazab va hayajondan oʻzini bilmaydigan; shiddatli
fraternal (frəˈtɜːn(ə)l] *a* qardoshlikka oid, qardoshlik; doʻstona
fraternity [frəˈtɜːnɪti] *n* doʻstlik, qardoshlik; birodarlik; **the ~ of all men** hammaning qardoshligi, doʻstligi
fraternization [ˈfrætənaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* doʻstlashuv, birodarlashuv
fraternize [ˈfrætənaɪz] *v* doʻstona munosabat bogʻlamoq, inoqlashmoq
fratricidal [ˈfrætɪˈsɪdɪl] *a* yaqin kishilarning bir-birini oʻldirishiga (qirishiga) oid
fratricide [ˈfrætɪsɪd] *n* qon-qarindoshlarning bir-birini oʻldirishi
fraud [frɔːd] *n* 1) qallob; muttaham, yolgʻonchi; 2) yolgʻon gap
fraudulent [ˈfrɔːdjʊlənt] *a* aldanchilikka (firibgarlikka) asoslangan, aldovdan iborat boʻlgan
fraught [frɔːt] *a* 1) toʻla, toʻlib-toshgan; 2) oʻz ichiga oladigan, biror narsa tugʻdiradigan, keltirib chiqaradigan; -ga olib boradigan; **- with danger** yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin boʻlgan
fray [freɪ] *v* 1) teshilmoq, toʻzib ketmoq, eskirmoq (*kiyimga nisbatan*); 2) asablari charchamoq
frail [ˈfrɛz(ə)l, frɔːzɪl] *n* amer. 1) qish boshlarida yoki erta bahorda suv yuzida oqadigan mayda muz parchalari; 2) muz ustiga qalqib chiqqan suv va undan hosil boʻlgan muz; 3) muz qatqalogʻi; biror narsa ustida (yuzida) qotib qolgan muz
frazzle [ˈfræz(ə)l] *n* charchash, asabning charchashi
freak [fri:k] *n* 1) injiqlik, gʻaroyibot; 2) gʻayritabiiy kishi; 3) nogiron odam

freaked [fri:kt] *a* hamma yogʻi belgi va h. k. bilan toʻldirilgan; yozib (chizib) tashlangan, ola-bula (jivir-jivir) qilib yuborilgan
freakish [ˈfri:kɪʃ] *a* injiq, serxarxasha, tantiq
freckle [ˈfrek(ə)l] 1. *n* pl sepkil; 2. *v* sepkil bosmoq, sepkil toshib (bosib) ketmoq
freckled [ˈfrek(ə)ld] *a* sepkilli, sepkil bosgan, sepkildor
free [fri:] 1. *a* 1) ozod, mustaqil, erkin; **a - country** ozod Vatan (mamlakat); **- people** ozod xalq; 2) koʻngilli, ixtiyoriy; **a - choice** ixtiyoriy tanlov; 3) band boʻlmagan, boʻsh; **are you - in the afternoon?** kunduzi siz boʻshmisiz?; 4) boʻsh, ochiq; **is the way -?** yoʻl ochiqmi (boʻshmi)?; 5) bepul (*sovgʻa sifatida*); **- board and lodging** bepul yashash va taʼminlash; **- education** bepul taʼlim (bilim); 6) neytral, xolis, betaraf, erkin; **a - flight** erkin uchish; **a - position** betaraf, (xolis) taraf; 2. *v* ozod qilmoq, xalos qilmoq; **to - the land from oppression** mamlakatni jabr-zulmdan ozod qilmoq
free agency [ˈfriːˈeɪdʒ(ə)nəsi] *n* erkinlik, izmi oʻzida (ixtiyori qoʻlida) ekanlik
freebee, freebie [ˈfriːbi:] *n* soʻzl. tekin (bepul) bilet, chipita; bepul ziyofat
freeboard [ˈfriːbɔːd] *n* deng. suv ustidagi bort (yon devor)
freebooter [ˈfriːˈbuːtə] *n* dengiz qaroqchisi
freeborn [ˈfriːˈbɔːn] *a* erkin tugʻilgan
Free Church [ˈfriːˈtʃɜːtʃ] *n* hukumatdan xoli boʻlgan cherkov
free city [ˈfriːˈsɪti] *n* tar. erkin shahar (*oʻrta asrlarda*)
freedom [ˈfriːdəm] *n* 1) ozodlik, mustaqillik; **the ~ of a country** mamlakat mustaqilligi; 2) imtiyoz, yengillik; **the ~ of speech** soʻz erkinligi; 3) erkin foydalanish
free enterprise [ˈfriːˈentəpraɪz] *n* korxonaga egasining erkin faoliyati
free-fall [ˈfriːˈfɔːl] *n* 1) fiz. erkin tushish; 2) av. parashutni ancha vaqt ochmasdan tushish
freefone [ˈfriːfəʊn] *n* bepul qoʻngʻiroq qilish tizimi
free-for-all [ˈfriːfə(r)ˈɔːl] 1. *a* hamma uchun ochiq, hammaning kuchi (qurbi, imkoni) yetadigan; hammaning imkoni doirasidagi; hammabop; 2. *n* soʻzl. umumiy (yalpi) mushlashish
free-hand [ˈfriːhænd] *a* qoʻlda chizilgan; **a - drawing** qoʻlda chizilgan rasm
free-handed [ˈfriːˈhændɪd] *a* saxiy, qoʻli ochiq, saxovatli, himmatli
freehearted [ˈfriːˈhɑːtɪd] *a* 1) koʻngildagini yashirmaydigan, koʻngli ochiq, samimiy, sof (oq) koʻngilli, oq (sof) koʻngil; 2) saxiy,

- qo'li ochiq, saxovatli, oliyhimmat, hotamtoy, himmatli, hech narsani ayamaydigan
- freehold** [ˈfri:həʊld] *n* yer yoki mulkka bermalol (erkin) egalik qilish
- freeholder** [ˈfri:həʊldə] *n* tar. erkin yer egasi
- free-kick** [ˈfri:kɪk] *n* sport. jarima zarbasi (*futbolda*)
- freelance** [ˈfri:lɑːns] *a* 1) shtatsiz, shtatdan tashqari: shartnomasiz ishlaydigan; 2) erkin, mustaqil
- freelancer** [ˈfri:lɑːns] *n* shtatsiz xodim, yollanib ishlamaydigan odam
- free-list** [ˈfri:lɪst] *n* 1) boj to'lanmaydigan mollar (tovarlar) ro'yxati; 2) qayergadir pulsiz kirishi mumkin bo'lgan shaxslar ro'yxati
- free-liver** [ˈfri:lɪvə] *n* yallo qilib yurishdan, kayf-safodan boshqani bilmaydigan odam, taralabedod, ishratparast, maishatparast, aysh-ishratni yaxshi ko'radigan odam
- freeload** [ˈfri:ləʊd] *v* amer. tekinxo'rlik qilmoq
- freeloader** [ˈfri:ləʊdə] *n* sig'indi, tekinxo'r
- freely** [ˈfri:lɪ] *adv* 1) erkin, bermalol, to'siqsiz, qiyinchiliklarsiz; 2) keng, mo'l, serob
- freeman** [ˈfri:mən] *n* (*pl* -men [-mən]) 1) shaharning faxriy fuqarosi; 2) to'la huquqli fuqaro
- Freemason** [ˈfri:məɪs(ə)n] *n* mason (*masonlik oqimining tarafdori, masonlar tashkilotining a'zosi*)
- freepost** [ˈfri:pəʊst] *n* bepul pochta jo'natish
- free-range** [ˈfri:reɪndʒ] *a* q.x. ochiq dalada yurgan (*xo'roz, tovuq va b. haqida*)
- free-spoken** [ˈfri:spəʊkən] *a* ko'ngildagini yashirmaydigan, ko'ngli ochiq, samimiy; to'g'ri, to'ppa-to'g'ri
- freestanding** [ˈfri:stændɪŋ] *a* tirkaksiz, suyanchiqsiz
- freestone I** [ˈfri:stəʊn] *n* osongina ishlov bersa bo'ladigan qurilish (binokorlik) toshi
- freestone II** [ˈfri:stəʊn] *n* danagini osonlik bilan ajratsa bo'ladigan meva (*shaftoli, o'rik, olxo'ri va b.*)
- freestyle** [ˈfri:stɑɪl] *n* sport. erkin uslub (*suzishda*)
- free-thinker** [ˈfri:θɪŋkə] *n* hurfikr (erkin fikr qiluvchi) odam
- free trade** [ˈfri:treɪd] *n* 1) bojsiz savdo; 2) tar. kontrabanda (*davlat chegarasidan yashirincha, boj to'lamasdan mol o'tkazish*)
- free-trader** [ˈfri:treɪdə] *n* 1) siyos. erkin savdo qiluvchi shaxs yoki tashkilot; 2) tar. kontrabandist (*kontrabanda bilan shug'ullanuvchi kishi*)
- freeway** [ˈfri:weɪ] *n* amer. avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunalangan katta yo'l*)
- freewheel** [ˈfri:wi:l] *l. n* 1) erkin aylanadigan g'ildirak; 2) tog'dan motorni o'chirib pastga tushish (*avtomobil haqida*); 2) sekin harakatlanmoq (*harakat qilmoq*)
- free will** [ˈfri:wɪl] *n* iroda erkinligi; **of one's own** - ixtiyoriy ravishda, o'z ixtiyori bilan
- freewill** [ˈfri:wɪl] *a* ixtiyoriy, ko'ngilli, har kimning o'z ixtiyori (xohishi) bilan qilinadigan
- freeze** [ˈfri:z] *l. n* sovuq; ayoz; *2. v* (**froze; frozen**) muzlatmoq, muzlamoq, yaxlammoq; **to - in** birga muzlab qolmoq, muzlatib yopishib qolmoq; **to - on** a) mahkam ushlab (yopishib) olmoq; b) *kimgadir* bog'lanib (o'rganib) qolmoq; yopishib olmoq; **to - out** amer. so'zl. qutulmoq, xalos bo'lmog (*raqibdan*); **to - up: to be frozen up** sovib qotmoq, sovgotmoq, sovuq yemoq
- freezer** [ˈfri:zə] *n* muzlatgich, muzxona
- freeze-up** [ˈfri:zʌp] *n* qattiq sovuq (ayoz) davri
- freezing** [ˈfri:zɪŋ] *l. n* muzlash; *2. a* 1) muzdan iborat, muzli, muz ...; muz bosgan, muz bilan qoplangan; 2) muzlatadigan
- freezing-point** [ˈfri:zɪŋpɔɪnt] *n* muzlash nuqtasi
- hoodwink** [ˈhʊd,wɪŋk] *v* laqillatmoq, aldamoq
- hoof** [hu:f] 1. *n* (**hoofs, hooves**) tuyoq; 2. *v* tuyog'i bilan tepmoq
- hoofed** [hu:ft] *a* tuyoqqa oid, tuyoqli, tuyoqlik
- hook** [hʊk] *n* 1) ilgak, ilmoq; 2) tuzoq
- hooked** [hʊkt] *a* egri, bukik, qiyshiq, egribugri
- hooker** [ˈhʊkə] *n* baliq ovlaydigan kema
- hooknosed** [ˌhʊk'nəʊzɪd] *a* do'ngburun, qirg'iyburunli
- hooligan** [ˈhu:lɪgən] *a* bezori, to'polonchi
- hoop** [hu:p] 1. *n* gardish, chamberak, qasqon; 2. *v* gardishlamoq, chamberak bilan mahkamlamoq
- hooping-cough** [ˈhu:pɪŋkɒf] *n* ko'kyo'tal
- hooray** [hu'reɪ] = **hurra(h)**
- hoot** [hu:t] *n* 1) signal ovozi; 2) qichqiriq; 3) kulgili, qiziq; 4) boyo'g'li ovozi
- hooves** [hu:vz] *pl of hoof*
- hop** [hɒp] *v* 1) sakramoq, irg'imoq; 2) hatlab o'tmoq; 3) raqsga tushmoq
- hope** [həʊp] 1. *n* 1) ishonch, umid, orzu; **beyond** ~ umidsizlik bilan; 2) umid qilsa bo'ladigan odam; 2. *v* umid qilmoq, ishonmoq
- hopeful** [ˈhəʊpf(ə)] *a* umidvor, umidli
- hopefully** [ˈhəʊpf(ə)li] *adv* umid bilan, umidvorlik bilan
- hopefulness** [ˈhəʊpf(ə)lɪnəs] *n* kelajakka ishonish
- hopeless** [ˈhəʊpləs] *a* umid qilib bo'lmaydigan, tuzalmaydigan, tuzalishi (o'zgarishi) qiyin
- hopper** [ˈhɒpə] *n* sakrovchi, irg'uvchi
- hopscotch** [ˈhɒpskɒtʃ] *n* sopolak, chertak (*verni katak-katak chizib, sopolakni kuttandan katakka hakkalab tepib o'tkazib o'ynaladigan bolalar o'yini*)
- horde** [hɔ:d] *n* 1) *tar.* o'rda (*qadimiy turkmo'g'ul hokimiyati*); 2) gala, to'p, to'da, guruh
- horizon** [hə'reɪz(ə)n] *n* ufq, ufq chizig'i
- horizontal** [ˌhɒrɪ'zɒntl] *n* gorizontal (*parallel chiziq*)
- hormone** [ˈhɔ:məʊn] *n* gormon (*qonga qo'shiladigan modda*)
- horn** [hɔ:n] 1. *n* shox; muguz; 2. *a* shoxdan yasalgan
- hornbeam** [hɔ:nbi:m] *n bot.* grab (*qayintar oilasiga mansub daraxt yoki buta*)
- horned** [hɔ:nd] *a* shoxli, muguzli; ~ **cattle** shoxli mol, yirik chorva mollari
- hornet** [ˈhɔ:nɪt] *n ent.* qovog'ari, qizil ari
- horny** [ˈhɔ:nɪ] *a* shoxga (muguzga) ega bo'lgan, shoxli, muguzli
- horoscope** [ˈhɒrəskəʊp] *n* goroskop (*munajjimlar fol ochish uchun tuzgan yulduzlar jadvali*)
- horrendous** [hə'rendəs] *a* juda yomon, yoqimsiz
- horrible** [ˈhɒrəb(ə)] *a* qo'rqinchli, dahshatli, jirkantiradigan, nafratli, vahimali
- horrid** [ˈhɒrɪd] *a* qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, qo'rqitadigan
- horrific** [hə'rifɪk] *a* 1) dahshatli; 2) juda yomon
- horrify** [ˈhɒrɪfaɪ] *v* qo'rqitib yubormoq, qattiq qo'rqitmoq
- horror** [ˈhɒrə] *n* 1) dahshat, vahima; **the ~ s of war** urush dahshatlari; 2) *attr.* dahshatli; **a ~ film** dahshatli film
- horse** [hɔ:s] *n zool.* ot
- horseback** [ˈhɔ:sbæk] 1. *n* otning orqasi; **on ~** ot ustida; 2. *adv amer.* otda, otga minib, ot ustida
- horse-breeding** [ˈhɔ:s,bri:dɪŋ] *n* yilqichilik bilan shug'ullanadigan; yilqichilik
- horse chestnut** [ˌhɔ:s'tʃesnʌt] *n bot.* 1) kash-tan (*o'simlik*); 2) kash-tan yong'og'i
- horse-collar** [ˈhɔ:s,kɒlə] *n* xomut (*yog'och bo'yincha*)
- horse-flesh** [ˈhɔ:sfleʃ] *n* ot go'shti

horse-fly [ˈhɔːsflaɪ] *n ent.* so'na, so'na pashsha
horseless [ˈhɔːsləs] *n* oti yo'q, otsiz
horseman [ˈhɔːsmən] *n (pl -men [-mən])*
 1) otliq, chavandoz; 2) otboqar
horsepower [ˈhɔːs,paʊə] *n* ot kuchi (*quvvat birligi*)
horseradish [ˈhɔːs,rædɪʃ] *n* yerqalampir, xren (*tarkibida efir moyi bo'lgan va ovqatga dorivor sifatida ishlatiladigan achchiq o'simlik*)
horseshoe [ˈhɔːʃuː] **1.** *n* taqa; **2.** *v* otini taqalamoq
horsewhip [ˈhɔːs,wɪp] *v* qamchilamoq, savalamoq
horsewoman [ˈhɔːswʊmən] *n (pl -women [-,wɪmɪn])* ayol chavandoz, otliq ayol
horticulture [ˈhɔːtɪ,kʌltʃə] *n* 1) bog'dorchilik; 2) polizchilik
hose [həʊz] *n* shlang, ichak
hosier [ˈhəʊziəri] *n* chulki, paypoq kabi buyumlar
hospice [ˈhɒspɪs] *n* o'lim to'shagidagilar shifoxonasi
hospitable [ˈhɒspɪtəb(ə)l] *a* mehmondo'st, mehmonnavoz
hospital [ˈhɒspɪtl] *n* kasalxonona, shifoxona; **to be in** ~ kasalxonada yotmoq
hospitality [ˌhɒspɪˈtælɪtɪ] *n* mehmondo'stlik; samimiyylik, iltifot
host [həʊst] **1.** *n* 1) xo'jayin; mezbon; 2) mehmonxonona xo'jayini; 3) ko'pchilik; olomon; **2.** *v* 1) eshittirish olib bormoq (*radio, televideniya orqali*); 2) mehmon kutmoq
hostage [ˈhɒstɪdʒ] *n* 1) garov; 2) garov tariqasida ushlangan kishi
hostel [ˈhɒstl] *n (talabalar uchun)* umumiy yotoqxona
hostess [ˈhəʊstɪs] *n* uy bekasi, uy egasi
hostile [ˈhɒstəl] *a* dushmanlik ruhidagi, urushqoq; adovatli
hostility [hɒˈstɪlɪtɪ] *n* 1) adovat; dushmanlik; 2) *pl* harbiy harakatlar; **to open** ~ties harbiy harakatni boshlamoq
hot [hɒt] *a* 1) shiddatli; 2) issiq; 3) qiziqqon; 4) maqsadga yaqin; 5) yuqori radioaktivli; **to get one's water** ~ qaynab ketmoq; **a ~ stuff** zo'r ishlaydigan ishchi
hotbed [ˈhɒtbed] *n* manba, o'choq
hot-blooded [ˈhɒtˈblʌdɪd] *a* 1) qizg'in, jo'shqin, otashin; 2) zotli, zotdor (*hayvon haqida*)
hotchpotch [ˈhɒtʃɒtʃ] *n* sabzavot va go'shtdan qilingan ragu
hot dog [ˈhɒtˈdɒg] *n* so'zl. issiq sosiskali buterbrod
hotel [həʊˈtel] *n* mehmonxonona

hotfoot [ˈhɒtfʊt] *adv* shoshilib, tez, tezda, darrov, darhol, tezlik (zudlik) bilan
hot-headed [ˈhɒtˈhedɪd] *a* issiq, qaynoq; qizib turgan
hothouse [ˈhəʊhəʊs] *n* issiqxonona
hotline [ˈhɒtlaɪn] *n* bevosita telefon aloqasi
hound [haʊnd] *n* ov iti, ovchi it
hour [aʊə] *n* soat, vaqt; **at an early** ~ juda vaqtli, erta
hour-glass [ˈaʊəglɑːs] *n* qum soat
hour-hand [ˈaʊəhænd] *n* soat mili
hourly [ˈaʊəli] *adv* har soatda, soat sayin
house [haʊs] **1.** *n* 1) uy, palata; 2) uy-joy; 3) oila, ro'zg'or; 4) parlament; 5) savdo firmasi; 6) birja; 7) teatr; tomoshabin; 8) seans; 9) mehmonxonona; **to keep** ~ ro'zg'orni tutmoq; **to keep the** ~ uyda o'tirmoq; **2.** *v* 1) uy-joy (boshpana) bermoq; 2) uyda yashamoq; 3) boshpana topmoq
household [ˈhaʊshəʊld] **1.** *n* 1) oila, xonadon; 2) (uy) xo'jaligi; **2.** *a* xonaki, uyda tayyorlangan, qo'lda qilingan
householder [ˈhaʊs,həʊldə] *n* uy egasi yoki ijarachi
housekeeper [ˈhaʊs,ki:pə] *n* 1) uy xizmatchisi; 2) uy bekasi
housekeeping [ˈhaʊs,ki:pɪŋ] *n* uy-ro'zg'or tutish; uy-ro'zg'or ishlari
houseless [ˈhaʊsləs] *a* uy-joysiz, boshpanasiz
housemaid [ˈhaʊsmɛɪd] *n* oqsoch, uy xizmatchisi
houseman [ˈhaʊsmən] *n (pl -men [-mən])* xizmatkor, malay (*mehmonxonona, xususiy uy va b. da*)
house-surgeon [ˈhaʊs,sɜːdʒ(ə)n] *n* kasalxonada yashaydigan bosh jarroh (*bosh shifokor*)
house-to-house [ˌhaʊstəˈhaʊs] *a* uyma-uy
house-top [ˈhaʊstɒp] *n* 1) tom; 2) tom, boshpana, uy
house-warm [ˈhaʊswɔːm] *v* yangi uyga (joyga) ko'chib borganligini nishonlamoq
house-warming [ˈhaʊs,wɔːmɪŋ] *n* yangi joyga ko'chib borganligini (kelganligini) nishonlash
housewife [ˈhaʊswaɪf] *n (pl -wives [-waɪvz])* uy bekasi
housewifely [ˈhaʊswaɪflɪ] *a* 1) xo'jalikka oid; 2) tejamkor
housewifery [ˈhaʊswɪf(ə)rɪ] *n* uy-ro'zg'or ishlari, uy-ro'zg'or tutish
housework [ˈhaʊswɜːk] *n* uy-ro'zg'or ishlari
housing I [ˈhaʊzɪŋ] *n* uy-joy, uy-joy bilan ta'minlash, uy-joy qurilishi

housing II [ˈhaʊzɪŋ] *n* yopiq (ot va ba'zi boshqa uy hayvonlarining yopig'i)
hove [həʊv] *past., p. p. of heave 2*
hovel [ˈhɒv(ə)l] *n* faqirona uy, kapa, kulba
hover [ˈhɒvə] *n* 1) tebranmoq, pirpiramoq; 2) xavf solib turmoq, tahdid qilmoq; 3) ikkilanmoq
hovercraft [ˈhɒvəkra:ft] *n* havo yostiqli kema yoki poyezd
how [haʊ] 1. *adv* 1) qanday, qanday qilib; 2) necha; ~ **old is he?** u necha yoshda? 3) qanday! ~ **funny** qanday kulgili; **how comes it?** nimaga bunaqa chiqyapti? ~ **are you** qanday yashaysiz, qalaysiz?; 2. *n* so'zl. usul, yo'l
how-do-you-do [ˌhaʊdəjuˈdu:] *n* assalomu alaykum; yaxshimisiz?
how-d'ye-do [ˌhaʊdʒəˈdu:] = **how-do-you-do**
however [haʊˈevə] 1. *conj.* ammo, biroq; 2. *adv* shunga qaramay; qanday bo'lmasin
howitzer [ˈhaʊtɪzə] *n* *harb.* gaubitsa (kalta stivoli og'ir zambarak), to'p
howl [haʊl] 1. *n* ingrash, uvlash, yig'i, nola; 2. *v* uvlamoq, ingramoq
howler [ˈhaʊlə] *n* 1) yig'ichi, go'yanda (aza qo'shig'ini aytuvchi ayol); 2) so'zl. eng qo'pol yoki ahmoqona xato
howling [ˈhaʊlɪŋ] *a* 1) ma'yus, g'amgin, umidsiz; 2) uvlaydigan
howsoever [ˌhaʊsəʊˈevə] *adv* qanchalik (naqadar, nechog'lik) ... masin
hoy [hɔɪ] 1. *n* barja (shatakka olib yuriladigan yoki o'ziyurar yassi yuk kemasi); 2. *int.* hoy! hey! (chaqiruv, undov)
hoysen [ˈhɔɪdn] *n* to'polonchi qizcha
hub [hʌb] *n* 1) g'ildirak gupchagi; 2) (nima-ningdir) diqqat-markazi
hubble-bubble [ˈhʌb(ə)l,bʌb(ə)l] *n* 1) chilim; 2) qult-qult qilish; 3) qulqullagan tovush; 4) safсата, bekorchi gap
hubbub [ˈhʌbʌb] *n* 1) to'polon, shovqin-suron; 2) gumburlagan ovoz
hubby [ˈhʌbi] *n* so'zl. erjon, ergina („husband“ning erkalash shakli)
hubris [ˈhju:brɪs] *n* *grek.* kibr-havo, g'urur
huckaback [ˈhʌkəbæk] *n* zig'irpoya tolasidan to'qilgan polotno (polotno - gazlamaning qaltiroq bir turi, sochiq va b. uchun)
huckleberry [ˈhʌk(ə)lb(ə)rɪ] *n* *bot.* chernika (buta va mevasi)
huckle-bone [ˈhʌk(ə)lbəʊn] *n* *anat.* to'piq suyagi (hayvonlarda)
huckster [ˈhʌkstə] *n* 1) chakana savdogar; 2) makler; dallol; 3) televideniya va radioda reklama dasturlarini tuzuvchi kishi

huddle [ˈhʌdl] *n* 1) to'p, to'plam, uyum; 2) tartibsizlik, pala-partishlik
hue [hju:] *n* 1) tus, rang, alomat, belgi; 2) (-and cry) quvish, orqasidan (ketidan) quvib borish, quvg'in; 3) shovqin-suron
huff [hʌf] 1. *n* qattiq g'azablanish; 2. *v* qattiq g'azablanmoq, nafratlanmoq
huffish [ˈhʌfɪʃ] *a* tez achchiqlanadigan, serjahl, tez xafa bo'ladigan
huffy [ˈhʌfɪ] *a* 1) o'zidan xursand, mag'rurona; 2) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan
hug [hʌg] 1. *n* bag'riga qattiq bosish, qattiq quchoqlab olish; **to give smb. a ~** kimnidir bag'riga bosmoq; 2. *v* 1) bag'riga qattiq bosmoq, qattiq quchoqlab olmoq; 2) tashakkur bildirmoq (*kingadir*)
huge [hju:dʒ] *a* katta, ulkan, buyuk
hugely [ˈhju:dʒli] *adv* juda, g'oyatda, benihoyat, bag'oyat
hugeness [ˈhju:dʒnəs] *n* g'oyat kattalik, ulkanlik, buyuklik, zo'rlik
hugeous [ˈhju:dʒəs] = **huge**
hugger-mugger [ˈhʌgə,mʌgə] 1. *n* sir; **in ~** yashirincha; 2. *a* yashirin, maxfiy, ko'pchilik bilmaydigan; 3. *adv* yashirincha, maxfiy, bildirmay; 4. *v* yashirmoq, bekitmoq
Huguenot [ˈhju:gə,nəʊ] *n* *fr. tar.* gugenotlar (XVI - XVII asrlardagi fransuz protestantlari)
huh [hʌh] *int.* hah! heh! (g'azab, g'ayrat va h. k. ni izhor qilish uchun qo'llaniladi)
hulk [hʌlk] *n* 1) katta kema (burilmaydigan), suzishga yaramaydigan katta kema korpusi (tanasi); 2) katta beso'naqay odam, „ayiq“
hulking [ˈhʌlkɪŋ] *a* ulkan, juda katta, beso'naqay
hull I [hʌl] 1. *n* po'choq, po'st; 2. *v* po'chog'ini archmoq, po'choqdan tozalamoq
hull II [hʌl] *n* sinch, qobirg'a; (*tank, kema va b. ning*) tanasi
hullabaloo [ˌhʌləbəˈlu:] *n* to'polon, shovshuv
hulled [hʌld] *a* 1) po'choqdan tozalangan, soflangan; 2) po'chog'i bor, po'choqli
hullo(a) [hʌˈləʊ] *int.* allo
hum [hʌm] 1. *n* 1) g'o'ng'illash; 2) sassiq hid; 2. *v* g'o'ng'illamoq; 3. *int.* hm! ha! (*shubha, kinoya, ishonchsizlik, ikkilanish va sh. k. ma'nolarni ifodalaydi*)
human [ˈhju:mən] 1. *n* inson, odam; 2) (**the** -) inson zoti; 3) (*hayvon va mashinalardan farqli o'laroq*) *pl* insonlar, odamlar; 2. *a* 1) insoniy; **the ~ race** inson zoti; 2) insonga xos bo'lgan; 3) ijtimoiy

- humane** [hjuˈmeɪn] *a* insonparvar odamga oid; insonparvar...; **a man of ~ character** insonparvar odam
- humaneness** [hjuˈmeɪnəs] *n* yaxshilik, ezgulik; insonparvarlik; insoniylik; insoniy sifatlar
- humanism** [hjuˈmænɪz(ə)m] *n* insonparvarlik, odamgarchilik, gumanitar
- humanist** [hjuˈmænɪst] *n* 1) gumanizm tarafdori; 2) insonparvar, insonparvar odam
- humanitarian** [hjuˈmæniˈte(ə)rɪən] 1. *n* gumanist, gumanizm tarafdori; 2. *a* insonparvarlik
- humanity** [hjuˈmænɪti] *n* 1) insoniyat; 2) kishilik tabiati; **the humanities** gumanitar fanlar
- humanize** [hjuˈmænəɪz] *v* odamga aylantirmoq
- humankind** [hjuˈmænˈkaɪnd] *n* insoniyat, kishilik, odamzod, bashariyat
- humanly** [hjuˈmænli] *adv* insonlarcha; **all that is ~ possible** insonning qoʻlidan keladigan barcha narsalar
- humble** [ˈhʌmb(ə)l] *a* kamtar, oddiy, kam-suqum
- humble-bee** [ˈhʌmb(ə)biː] *n ent.* tukli ari
- humbly** [ˈhʌmbli] 1. *n* aldash, firib berish; 2. *v* aldamoq, firib bermoq
- humdinger** [ˈhʌmˈdɪŋə] *n amer. soʻzl.* ayni koʻngildagi yigit
- humdrum** [ˈhʌmdrʌm] 1. *n* koʻp chaynalgan gap, siyqasi chiqqan ibora; 2. *a* koʻp chaynalgan, siyqasi chiqqan (ibora)
- humect** [hjuˈmekt] *v* hoʻllamoq, namlamoq
- humeral** [ˈhjuːm(ə)rəl] *a anat.* yelkaga oid, yelka
- humid** [ˈhjuːmɪd] *a* zax, hoʻl, nam
- humidify** [ˈhjuːmɪdaɪ] *v* hoʻllamoq, namlamoq
- humidity** [ˈhjuːmɪdɪti] *n* namlik, zaxlik, hoʻllik
- humidor** [ˈhjuːmɪdə] *n* maʼlum bir foizdagi namlikni saqlab turadigan kamera yoki quti
- humify** [ˈhjuːmɪfaɪ] *v* 1) namlamoq, hoʻllamoq; 2) *q.x. esk. (yerni)* oʻgʻitlamoq, oʻgʻitlab unumdor qilmoq (yerni)
- humiliate** [hjuˈmɪliət] *v* xoʻrlamoq, kamsitmoq, haqorat qilmoq
- humiliating** [hjuˈmɪliətɪŋ] *a* xoʻrlaydigan, kamsitadigan, haqoratli
- humiliation** [hjuˈmɪliətʃ(ə)n] *n* kamsitish, haqorat qilish, xoʻrlash
- humility** [hjuˈmɪlɪti] *n* itoatkorlik, boʻy-sunish, boʻyin egish, itoat qilish
- hummer** [ˈhʌmə] *n radio.* zummer (tovush signali beradigan elektr asbob)
- humming** [ˈhʌmɪŋ] *a* gʻuvullaydigan, gʻoʻngʻillaydigan, vizillaydigan
- humming-bird** [ˈhʌmɪŋbɜːd] *n zool.* kolibri (Amerikada yashaydigan rangdor kichkina qush)
- humming-top** [ˈhʌmɪŋtɒp] *n* pirildoq, pildiryoq, bizbizak, gʻirgʻirak (oʻyinchoq)
- hummock** [ˈhʌmək] *n* tepalik, doʻnglik, balandlik
- humor** [ˈhjuːmə] *amer. = humour*
- humorist** [ˈhjuːm(ə)rɪst] *n* 1) xushchaqchaq odam, hazilkash; 2) qiziqchi, hazilkash
- humorous** [ˈhjuːm(ə)rəs] *n* kulgili, qiziq, gʻalati
- humour** [ˈhjuːmə] *n* 1) yumor, hazil; hazilmutoyiba; **sense of ~** hazil tuygʻusi; 2) kayfiyat; **in good ~** yaxshi kayfiyatda
- humourist** [ˈhjuːm(ə)rɪst] = **humorist**
- humous** [ˈhjuːməs] *a* chirindili, chirindi aralash, chirindi aralashgan, chirindi qoʻshilgan
- hump** [hʌmp] *n* bukur, doʻng
- humpback** [ˈhʌmpbæk] *n* 1) bukur odam; 2) *soʻzl.* yomon kayfiyat
- humped** [ˈhʌmpɛkt] *a* bukur, bukchaygan
- humph** [hʌmp] *int.* hm, ha (shubha, ikkilanish va sh. k. maʼnolarni ifodalaydi)
- humpy** [ˈhʌmpi] *n avst.* kulba, kichik uy
- humus** [ˈhjuːməs] *n* 1) chirindi; 2) qoratuq
- Hun** [hʌn] *n* 1) vahshiy; 2) *naf.* nemis
- hunch** [ˈhʌntʃ] 1. *n* bukur, chiqiq; 2. *v* bukmogʻ, egmogʻ, bukchaytirmoq
- hunchback** [ˈhʌntʃbæk] *n* bukur odam
- hundred** [ˈhʌndrəd] *n num. card.* yuz, yuztalik; **about ~** yuzga yaqin
- hundredfold** [ˈhʌndrədfəʊld] *a* yuz marta oshirilgan (kattalashtirilgan, koʻpaytirilgan)
- hundredth** [ˈhʌndrədθ] *num. ord.* yuzinchi
- hundredweight** [ˈhʌndrədweɪt] *n* sentner (Amerikada = 45,4 kg, Angliyada = 50,8 kg)
- hung** [hʌŋ] (*past., p. p. of hang*)
- Hungarian** [ˈhʌŋˈɡe(ə)rɪən] *a* 1) Vengriyaga va vengrlarga oid; 2) vengr, vengrlar tili
- hunger** [ˈhʌŋɡə] 1. *n* 1) ochlik; 2) (nimagadir) qattiq xohish, chanqoqlik (for, after); 2. *v* 1) och qolmoq; 2) qattiq xohlamoq; chanqamoq
- hunger-march** [ˈhʌŋɡəmə:tʃ] *n* (ishsiz va sh. k. ning) och yurishi
- hunger-marcher** [ˈhʌŋɡəmə:tʃə] *n* ochlik yurishi qatnashchisi

- hunger-strike** [ˈhʌŋgəstraɪk] 1. *n* norozilik bildirib oʻvqatdan voz kechish; 2. *v* ochlik eʻlon qilmoq
- hungry** [ˈhʌŋɡrɪ] *a* 1) och, och qolgan, qorni och; 2) (*nimugadir*) chanqoq (*for*)
- hunk** [hʌŋk] *n* bir tilim yaproq, bir parcha, bir burda (*boʻlak*)
- hunker** [ˈhʌŋkə] *n* amer. jaholatparast, taraqqiyot dushmani
- hunkers** [ˈhʌŋkəz] *n pl soʻzl. on one's ~* 1) oʻtirib qolgan; 2) juda ogʻir ahvolda
- hunks** [hʌŋks] *n* oʻtaketgan xasis (*ziqna*) odam
- hunky-dory** [ˌhʌŋkɪˈdɔːri] *a* birinchi darajali
- hunt** [hʌnt] 1. *n* 1) ov, ov qilish; 2) (*nimanidir*) qidirish (*for*); **to be on the ~ for smth.** nimanidir juda qidirmoq; 2. *v* 1) ov qilmoq; 2) izidan bormoq; **to ~ after** quvlamoq; **to ~ down** tutib oʻlmoq
- hunter** [ˈhʌntə] *n* 1) ovchi; 2) ovchi it; 3) choʻntakda olib yuriladigan qopqoqli soat
- hunter's moon** [ˈhʌntəzmuːn] *n* kuzgi teng-kunlikdan keyingi birinchi oy toʻlgan vaqt
- hunting** [ˈhʌntɪŋ] *n* ov, ovlash; ov qilish
- hunting-box** [ˈhʌntɪŋbɒks] *n* ovchining kichkina uyi (*kulbasi*)
- hunting-crop** [ˈhʌntɪŋkrɒp] *n* ovchining xipchini (*xivichi*)
- hunting-ground** [ˈhʌntɪŋɡraʊnd] *n* ovlaydigan yer (*joy*)
- hunting-horn** [ˈhʌntɪŋhɔːn] *n* ovchi burgʻusi (*burgʻu ~ hayvon shoxidan yasalgan cholgʻu ashobi*)
- hunting-party** [ˈhʌntɪŋpɑːtɪ] *n* 1) ovlash, ov qilish; 2) ovchilar, ov qatnashchilari
- hunting-season** [ˈhʌntɪŋsiːz(ə)n] *n* ovlash, (ov) mavsumi
- hunting-whip** [ˈhʌntɪŋwɪp] = **hunting-crop**
- huntress** [ˈhʌntrɪs] *n* ovchi ayol
- hunter** [ˈhʌntsmən] *n* (*pl -men [-mən]*) 1) ovchi; 2) ovchilikni oʻziga kasb qilib olgan ovchi
- hunt-the-slipper** [ˌhʌntðəˈslɪpə] *n* davradagi tufli (*oʻvin*)
- hup(p)** [hʌp] 1. *int* chu, choʻ (*ot haydaganda aytiladigan xitob*); 2. *v* otni „chu“ deb haydamoq
- hurdle** [ˈhɜːdl] 1. *n* toʻsiq, chetan devor, gʻov; 2. *v* 1) gʻov tutmoq; 2) *sport.* toʻsiqlar osha sakrab yugurmoq
- hurdler** [ˈhɜːdlə] *n* *sport.* baryerchi (*baryer osha yuguruvchi, chopuvchi sporichi, poygachi*)
- hurdle-race** [ˈhɜːdlreɪs] *n* *sport.* toʻsiqlar osha yugurish (*chopish*)
- hurdling** [ˈhɜːdlɪŋ] *n* toʻsiqlar osha yugurish (*chopish*)
- hurdy-gurdy** [ˈhɜːdɪˌɡɜːdɪ] *n* sharmanka (*burab chalinadigan quvisimon musiqa asbobi*)
- hurl** [hɜːl] 1. *n* kuchli otish (*uloqtirish*); 2. *v* kuch bilan oʻtmoq (*uloqtirmoq*)
- hurley** [ˈhɜːli] *n* Irlandiya chim usti xokkeyi
- hurly-burly** [ˈhɜːliˌbɜːli] *n* betarib (*bosh boshga qovushmagan*) harakat
- hurra(h)** [hʊˈrɔː] 1. *int.* ura! (*qichqiriq*); 2. *v* ura deb (*baqirmoq*) qichqirmoq
- hurray** [hʊˈreɪ] = **hurra(h)**
- hurricane** [ˈhʌrɪkən] *n* dovul, boʻron; toʻfon
- hurricane-lamp** [ˈhʌrɪkənˌlæmp] *n* chaqmoq chirogʻi
- hurried** [ˈhʌrɪd] *a* shoshadigan, shoshqaloq, hovliqma; **to write a few ~ lines** shoshib bir necha qator yozmoq
- hurriedly** [ˈhʌrɪdli] *adv* shoshilinch ravishda, shoshilib, shoshib
- hurry** [ˈhʌrɪ] 1. *n* shoshqaloqlik; shoshilish, hovliqish; **to be in a ~** shoshilmoq; 2. *v* 1) shoshilmoq; **to ~ off** shoshilib ketmoq; 2) shoshilinch ravishda bajarmoq
- hurry-scurry** [ˌhʌrɪˈskʌrɪ] *n* 1) yugur-yugur, qiy-chuv, toʻpolon; 2) ovoragarchilik, yugurib-yelish, yugur-yugur
- hurry-up** [ˈhʌrɪˌʌp] *a* amer. shoshilinch, kechiktirib boʻlmaydigan; **~ repairs** shoshilinch taʼmirlash
- burst** [hɜːst] *n* tepalik, balandlik, doʻnglik
- hurt** [hɜːt] 1. *n* 1) zarar, shikast; 2) urib olish, lat yeyish; 3) ogʻriq; 4) ranj-alam, xafagarchilik; 2. *v* (*hurt*) 1) zarar yetkazmoq; 2) xafa qilmoq; **to ~ smb.'s feelings** kimnidir xafa qilmoq; 3) ogʻrirmoq; **my hand still ~s** qoʻlim hali ham ogʻriyapti
- hurtful** [ˈhɜːt(ə)l] *a* zarar (*ziyon*) qiladigan, zararli, ozor beruvchi
- hurtle** [ˈhɜːtl] *v* 1) gʻuvullab uchmoq, uchib oʻtmoq; 2) kuch bilan tashlanmoq
- husband** [ˈhʌzbənd] 1. *n* er, qalliq; xoʻjayin; 2. *v* xoʻjalikni tejamkorklik bilan yurgizmoq
- husbandly** [ˈhʌzbəndli] *a* 1) erga tegishli, erniki; erlarga xos; 2) tejamkor, tejab sarf qiladigan
- husbandman** [ˈhʌzbəndmən] *n* (*pl -men [-mən]*) esk. dehqon, ziroatchi
- husbandry** [ˈhʌzbəndrɪ] *n* 1) ayash, tejamkorklik; 2) dehqonchilik; qishloq xoʻjaligi; **animal ~** chorvachilik
- hush** [hʌʃ] 1. *n* sukunat, sukut saqlash; tinchlik; 2. *v* tinchimogʻ; jim boʻlmoq, tinchlanmoq; 3. *int.* jim! sekinroq!
- hushaby** [ˈhʌʃəbɪ] *int* alla, bolar, alla

- hushfully** [ˈhʌʃfʊli] *adv* pichirlab, shivirlab, past ovoz bilan
- hush-hush** [ˌhʌʃˈhʌʃ] *a* maxfiy, yashirin, sir tutiladigan
- hush-money** [ˈhʌʃˌmʌni] *n* biror gapni hech kimga aytmalik uchun olinadigan pora
- husk** [hʌsk] 1. *n* qobiq, po'choq, po'st; 2. *v* archimoq, po'chog'ini (po'stini) olmoq
- hussy** [ˈhʌski] 1. *a* xirillagan, xirilloq, pishillagan, ovozi bo'g'ilgan, bo'g'iq; 2. *n* layka (*ovchi it turi*)
- hussar** [hʊˈzɑː] *n* gusar (*Chor Rossiyasi va ba'zi xorijiy armiyalarda: yengil suvoriy qismlarda xizmat etuvchi askar yoki zobit*)
- hussy** [ˈhʌsi] *n* 1) sayoq (suyuqoyoq) xotin, buzuq; 2) qo'rs qizcha; qo'pol muomalali qiz bola
- hustings** [ˈhʌstɪŋz] *n pl* saylov kampaniyasi
- hustle** [ˈhʌs(ə)] *v* 1) itarmoq, itarib yurgizmoq; 2) shoshiltirmoq, tezlatmoq; 3) tez harakat qilmoq
- hut** [hʌt] 1. *n* kulba, kapa, uycha; 2. *v* kulbada yashamoq
- hutch** [hʌtʃ] *n* 1) sandiq; 2) so'zl. kulba, kapa, uycha; 3) quyon va boshqalar uchun qafas
- hybrid** [ˈhaɪbrɪd] *n* gibrid, chatishma, duragay
- hydra** [ˈhaɪdrə] *n* (*pl -rae [-ri:]*) gidra (*1. mif. Yunon afsonalarida; ko'p boshli ajdar; 2. zool. umurtqasiz suv jonivorlaridan biri*)
- hydrae** [ˈhaɪdri:] *pl of hydra*
- hydrangea** [haɪˈdreɪndʒə] *n bot.* gortenziya (*yirik gulli dekorativ o'simlik*)
- hydrant** [ˈhaɪdrənt] *n* gidrant (*suv quvuri kolonkasi yoki jo'mragi*)
- hydrate** [ˈhaɪdreɪt] *n kim.* gidrat (*biror kimyoviy moddaning suv bilan birikmasi*)
- hydraulic** [haɪˈdrɒlɪk] *a* gidravlikaga oid; ~ **cement** gidravlik sement; ~s gidravlika (*suyuqliklar muvozanati va harakati haqidagi fan*)
- hydrocarbon** [ˈhaɪdrə(ɔ)ˈkɑːbən] *n kim.* uglevodorod (*uglerod bilan vodorodning kimyoviy birikmasi*)
- hydroelectric** [ˈhaɪdrəɪˈlektɪk] *a* suvdan elektr toki oluvchi, gidroelektrik...
- hydrogen** [ˈhaɪdrədʒ(ə)n] *n* vodorod (*kislorod bilan birikib suv hosil qiladigan kimyoviy element, yengil gaz*)
- hydropathic** [ˈhaɪdrə(ɔ)ˈpæθɪk] 1. *a* suv bilan davolaydigan; 2. *n* so'zl. suv bilan davolaydigan shifoxona
- hydropathy** [haɪˈdrɒpəθi] *n* suv bilan davolash
- hydrophobia** [ˈhaɪdrəˈfəʊbiə] *n tib.* quturish kasalligi
- hydroplane** [ˈhaɪdrəpleɪn] *n* gidroplan (*suvdan uchadigan va suvga qo'nadigan samolyot*)
- hyena** [ˈhaɪˈiːnə] *n zool.* sirtlon, yoldor bo'ri
- hygiene** [ˈhaɪdʒiːn] *n* gigiyena (*sog'liqni saqlash nazariyasi; sog'liqni saqlashga doir amaliy choralar; ozodlik*)
- hygroscopic** [ˌhaɪgrəˈskɒpɪk] *a* gigroskopik, nam tortadigan, suv shimadigan
- hymn** [hɪm] *n* madhiya
- hyperbola** [ˈhaɪˈpɜːbələ] *n* (*pl -lae, -s [-z]*) *mat.* giperbola (*konus kesimlaridan biri*)
- hyperbole** [ˈhaɪˈpɜːbəli] *n* giperbola, bo'rtirish, mubolag'a
- hyperbolic(al)** [ˌhaɪpəˈbɒlɪk(əl)] *a* 1) *adab.* mubolag'ali, mubolag'adan iborat bo'lgan; 2) *mat.* giperbolik
- hyperborean** [ˌhaɪpəˈboːriən] *n* shimolning chekkasida yashaydigan kishi
- hypercritical** [ˌhaɪpəˈkrɪtɪk(əl)] *n* 1) aybsituvchi, tirnoq ostidan kir izlovchi; 2) juda ham qattiqqo'l
- hypermarket** [ˌhaɪpəˈmɑːkɪt] *n* gipermarket, keng maydon va katta avtomobillar to'xtash joyiga ega bo'lgan shahar chekkasida joylashgan o'z-o'ziga xizmat qilish do'koni
- hypersonic** [ˌhaɪpəˈsɒnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (*uchadigan*); ~ **a speed** tovush tezligidan ham ortiq tezlik
- hyphen** [ˈhaɪf(ə)n] 1. *n* tilsh. defis; 2. *v* defis bilan yozmoq, defis qo'yimoq
- hyphenate** [ˈhaɪfən(e)ɪt] = **hyphen** 2
- hypnosis** [hɪpˈnəʊsɪs] *n* gipnoz (*birovning ta'siri ostida behush bo'lish, ishontirish, ta'sir o'tkazish, sehrlash yo'li bilan uxlatib qo'yish*)
- hypnotic** [hɪpˈnɒtɪk] *a* uyqu keltiradigan, uxlatadigan
- hypnotist** [ˈhɪpnətɪst] *n* gipnozchi (gipnoz qiluvchi) odam
- hypnotize** [ˈhɪpnətaɪz] *v* gipnoz qilmoq, behush qilmoq, sehrlamoq
- hypochondriac** [ˌhaɪpəˈkɒndrɪæk] *n* doim sog'lig'i haqida qayg'uradigan
- hypocrisy** [hɪˈpɒkrɪsi] *n* ikkiyuzlamachilik, soxtakorlik, munofiqlik, ayyorlik
- hypocrite** [hɪpəˈkrɪt] *a* ikkiyuzlamachi, munofiq, tilyog'lama, riyokor
- hypodermic** [ˌhaɪpəˈdɜːmɪk] 1. *a* teri ostidagi, teri osti; 2. *n* teri ostiga dori yuborish
- hypothee** [ˈhaɪpəθɪk] *n* 1) ipoteka (*1. ko'chmas mulkni garovga olib beriladigan qarz; 2. shunday qarz olish uchun garovga qo'yilgan mulk*); 2) garov xati (hujjati)
- hypotheses** [ˈhaɪˈpəθɪsiːz] *pl of hypothesis*

hypothesis [hai'pəθi:sis] *n* (*pl* -ses) gipoteza (*ilmiy faraz*), taxmin, mo'ljal, gumon
hypothetic(al) [hai'pəθetik(əl)] *a* gipotezaga asoslangan, taxminiy, faraziy
hysteria [hi'sti(ə)riə] *n* jazava (*asabiy-ruhiy kasallik*)
hysterical [hi'sterik(əl)] *a* 1) jazavaga oid; 2) jazava kasaliga duchor bo'lgan, jazavasi tutadigan
hysterics [hi'steriks] *n* isterika (*isteriya tutqanog'i, asabiy tutqanoq, isteriya natijasida qattiq jazavasi tutish*)

I

I, i [ai] *n* ingliz alifbosining to'qqizinchi harfi
I [ai] *pers. pron. mən*; - say menga qarang; - am a student men talabaman
iamb ['aɪəm(b)] = **iambus**
iambi [ai'æmbəi] *pl of iambus*
iambic [ai'æmbik] *a* yambga oid
iambus [ai'æmbəs] *n* (*pl* -bi [-bəi], -es [-ɪz]) yamb (*she'r vazni*)
Iberian [ai'bi(ə)riən] **1.** *a* iberiyalarga oid; **2.** *n* 1) iberiyalar (*1. qadimgi sharqiy gruzin qabilalari; 2. Qadimgi Ispaniyada yashagan qabilalar*); 2) iberiy tillari
ibex [aɪbɛks] *n* (*pl* ibices ['(a)ɪbisi:z]) *zool.* tog' echkisi, tog' taka
ibices ['(a)ɪbisi:z] *pl of ibex*
ibid ['ɪbɪd] *adv.* „ibidem“ ning qisqartmasi
ibidem ['ɪbɪdem] *adv. lat.* o'sha yerda, o'sha joyda
ibis [aɪbɪs] *n zool.* ibis (*issiq mamlakatlarda yashaydigan, laylakka o'xshash uzunoyoq qush*)
ice [aɪs] *n* muz; **to keep smth. on** ~ muzlatgichda saqlamoq; ~-age muz davri
ice-axe ['aɪsæks] *n* muzyorar bolta (*alpinistlarda*)
ice bag [aɪsbæg] *n tib.* muz solinadigan rezinka xalta
iceberg [aɪsbɜ:g] *n* aysberg (*suzib yuruvchi muztog'*)
iceblink [aɪsbɪŋk] *n* muz tovlanishi, muzdagi shu'la
iceboat [aɪsbəʊt] *n* 1) buyer (*muzda yuradigan yelkanli chana, yengil yelkanli qayiq*); 2) muzyorar, muzyorar kema
icebox [aɪsbɒks] *n* sovuqxona, muzxona, muzlatgich
icebreaker [aɪs,breɪkə] *n* 1) muzyorar, muzyorar kema; 2) so'zl. suhbatni boshlashga yordam beruvchi narsa, mavzu; (*suhbatda*) o'rtadagi sovuq munosabatni, tanglikni bartaraf qiladigan so'z, fikr-mulohaza

ice-cold [aɪs'kəʊld] *a* muzdek (*muzday*) sovuq
ice-cream [aɪs'kri:m] *n* morojniy, muzqaymoq
ice-cube [aɪskju:b] *n* kubik shaklidagi muz
ice-drift [aɪsdrɪft] *n* muzning shamol va oqim bilan siljib yurishi
ice-field [aɪsfi:ld] *n* muz maydoni
ice-floe [aɪsfləʊ] *n* suzib yuradigan muz
ice hockey [aɪs,hɒki] *n sport.* muz ustida xokkey
ice-house [aɪshaʊs] *n* sovuqxona, muzxona
Icelander [aɪslændə] *n* islandiyalik kishi yoki ayol
iceman [aɪsmæn] *n* (*pl* -men [-mən]) 1) muzqaymoq sotuvchi kishi; 2) alpinist
ice pack [aɪspæk] *n* qutb suvlarida suzib yuradigan ko'p yillik qalin muz
ice-skate [aɪsskeɪt] *v* konkida uchmoq
ice-yacht [aɪsjɒt] *n* buyer (*muzda yuradigan yelkanli chana, yengil yelkanli qayiq*)
ichneumon [ɪk'nju:mən] *n zool.* ixnevmon, fir'avn sichqoni (*kichkina sutemizuvchi yirtqich hayvon, kemiruvchilar kushandasi*)
ichthyoid [ɪkθɔɪd] *a* baliqsimon, baliqqa o'xshagan
ichthyologist [ɪkθɔɪ'blɒdʒɪst] *n* ixtiologiya mutaxassisi, ixtiolog
ichthyology [ɪkθɔɪ'blɒdʒɪ] *n* zoologiyaning baliqlar haqidagi bo'limi, ixtiologiya
ichthyosaurus [ɪkθɔs'sɔ:ras] *n* (*pl* -ri [-rɪ]) ixtiozavr (*tuxumi qurib ketgan sudraluvchi dengiz hayvoni*)
icicle [aɪsɪk(ə)] *n* sumalak (*qorning erib qayta muzlashi natijasida hosil bo'lgan naysimon muz*)
icily [aɪsɪli] *adv* 1) sovuq; 2) ko'ch. iltifotsiz, sovuq
icing [aɪsɪŋ] *n* muzlatish, muzlash
icon [aɪkɒn] *n* 1) ikona ..., but, sanam; 2) o'yma naqsh, surat
iconic [aɪ'kɒnɪk] *a* 1) portretga oid; 2) ikonalar taalluqli, oid, xos
iconoclast [aɪ'kɒnəklast] *n* urf-odatlariga qarshi kurashuvchi kishi
iconography [aɪkɒ'nɒgrəfi] *n* ikonografiya (*biror kishi yoki sujetga doir tasvirlarni o'rganish va tasvirlash*)
iconoscope [aɪ'kɒnɒskəʊp] *n* ikonoskop (*televideniyada: tasvir uzatadigan elektron nur trubka*)
icteric [ɪk'terɪk] *a* sariq kasaliga oid
icterus [ɪktərəs] *n tib.* sariq, sariq kasali (*kasalligi*)
ictus [ɪktəs] *n tib.* tomir urishi

icy [ˈaɪsɪ] *a* 1) muzli, muzday, juda ham sovuq; 2) befarq, e'tiborsiz, sovuq; 3) muz bilan qoplangan

idea [aɪˈdɪə] *n* 1) fikr, g'oya; 2) tushuncha: **to give an - of smth.** nimadir haqida ozgina tushuncha bermoq

ideal [aɪˈdɪəl] *1. n* oliy maqsad; eng yuksak orzu; *2. a* 1) har jihatdan yaxshi, bekamko'st, ko'ngildagidek, a'lo darajadagi, zo'r, ajoyib; **an - gift** ajoyib sovg'a; 2) tasavvuriy, xayoliy; 3) noreal, amalga oshmaydigan

idealism [aɪˈdɪəliz(ə)m] *n* idealizm (*butun borliqning negizi materiya emas, balki ong, ruh deb biluvchi falsafiy oqim*)

idealist [aɪˈdɪəlist] *n* 1) idealist, idealizmga amal qiluvchi; 2) xayolparast, orzu-xayolarga beriluvchi odam, tajribasiz odam

idealistic [aɪdɪəˈlɪstɪk] *n* idealizm ruhida-

ideality [aɪdɪˈæləti] *n* har jihatdan bekamko'stlik

idealization [aɪˈdɪəlaɪz(ə)n] *n* ideallashtirish

idealize [aɪˈdɪəlaɪz] *v* benuqsan qilib ko'rsatmoq

ideally [aɪˈdɪəli] *adv* juda soz, juda yaxshi, a'lo darajada

idem [(a)ɪdem] *n* aynan o'sha muallif; aynan o'sha kitob; aynan o'sha so'z

identical [aɪˈdentɪkəl] = **identical**

identical [aɪˈdentɪk(ə)l] *a* 1) xuddi o'zi, o'zginasi; 2) aynan, bir xil, o'xshash; 3) teng

identification [aɪˈdentɪfɪk(ə)ʃən] *n* shaxsni (kimligini) tanish, biror kishining shaxsiyatini tasdiqlaydigan hujjatlar

identify [aɪˈdentɪfaɪ] *v* 1) aniqlamoq; 2) tanimoq, tanib olmoq

identity [aɪˈdentɪti] *n* 1) aynan o'xshashlik, tenglik, bir xillik; 2) asllik, chinlik, to'g'ri-lik, haqiqiylik; 3) shaxsiyat; **to establish smb.'s -** kimningdir shaxsiyatini aniqlamoq; **an - card** shaxsni tasdiqlovchi hujjat; 4) o'ziga xoslik, o'ziga xos xususiyat; **national -** millatning o'ziga xos xususiyati

ideogram [ˈɪdɪəgræm] *n* ideogramma (*butun so'z yoki tushunchani ifodalovchi yozuv belgisi*)

ideograph [ˈɪdɪəgrə:f] = **ideogram**

ideographic(al) [ˈɪdɪəˈgræfɪk(əl)] *a* ideogramma asosidagi, ideografik, ideografikaga oid

ideological [ˈɪdɪəˈlɒdʒɪk(əl)] *a* g'oyaviy, mafkuraviy, ideologik

ideologist [ˈɪdɪəˈlɒdʒɪst] *n* ideolog (*biror sinf, ijtimoiy-siyosiy tuzum mafkurasining himoyachisi yoki yo'lboshchisi*)

ideology [ˈaɪdɪˈɒlədʒɪ] *n* mafkura, g'oya; dunyoqarash; **to embrace smb.'s -** kimningdir g'oyasini qo'llab-quvvatlamoq

idiocy [ˈɪdɪəsi] *n* 1) *tib.* esi pastlik, ovsarlik; 2) *so'zl.* ahmoqlik, tentaklik, ahmoqona ish

idiom [ˈɪdɪəm] *n* 1) idioma (*ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora*); 2) idiomatik ibora

idiomatic [ˈɪdɪəˈmætɪk] *a* idiomaga oid, idiomaga boy bo'lgan

idiosyncrasy [ˈɪdɪəˈsɪŋkrəsi] *n* *tib.* idiosinkraziya (*organizmning ba'zi narsalar ta'sirini ko'tara olmasligi*)

idiot [ˈɪdɪət] *n* esi past (ovsar, tentak, telba) odam

idiotic [ˈɪdɪˈɒtɪk] *a* 1) esi past odamlarga oid; 2) *so'zl.* ahmoqona, bema'ni

idle [ˈaɪdl] *1. a* 1) band bo'lmagan, ishlamaydigan, bo'sh; 2) yalqov, erinchoq; *2. v* 1) ishsiz yurmoq, vaqtni bekor o'tkazmoq; 2) dangasalik qilmoq

idle-headed [ˈaɪdlˈhedɪd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq

idleness [ˈaɪdlɪnəs] *n* bekorchilik, bekor (bo'sh) yurish; ishsizlik

idler [ˈaɪdlə] *n* bekorchi, erinchoq, yalqov, tanbal, ishyoqmas

idling [ˈaɪdlɪŋ] *n* bekorchilik, bo'sh yurish

idly [ˈaɪdlɪ] *adv* 1) yalqovlik (dangasalik, tanballik, ishyoqmaslik) bilan; 2) bekor, ishlamasdan, ish qilmay

idol [ˈaɪdl] *n* but, sanam

idolater [aɪˈdɒlətə] *n* butparast

idolatry [aɪˈdɒlətri] *n* butparastlik

idolize [ˈaɪd(ə)laɪz] *v* haddan tashqari sevmok; sajda qilmoq; xudo deb bilmok

idyl(l) [(a)ɪdl] *n* 1) *adab.* tabiat quchog'idagi tinch va osoyishta hayotni tasvirlovchi kichik she'riy asar; 2) *ko'ch.* tinch va osoyishta hayot, rohat va farog'at

idyllic [(a)ɪˈdɪlɪk] *a* 1) rohat-farog'atdagi; 2) tinch, osoyishta; **an - life** osoyishta hayot

if [ɪf] *1) cf* 1) agar, agarda; 2) koshki; **as - go'yo,** go'yoki

iffy [ɪfi] *a* amer. noaniq, noma'lum

igloo [ˈɪɡluː] *n* (*pl* igloos) iglu (*Shimoliy Amerika eskimoslarining muz plitalaridan qilingan uylari*)

igneous [ˈɪɡnəs] *a* 1) o'tga (*alangaga*) oid; alangali; 2) *geol.* otilib chiqqan

ignite [ɪɡˈnaɪt] *v* yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq

igniter [ɪɡˈnaɪtə] *n* *tex.* o't oldirgich

ignition [ɪɡˈnɪʃ(ə)n] *n* yoqish, yondirish, o't oldirish

ignoble [ɪgˈnəʊb(ə)] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash; **an ~ person** razil odam
ignominious [ɪgnəˈmɪniəs] *a* 1) uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan; 2) vij-donsiz, insofsiz, diyonatsiz
ignominy [ɪgnəˈmɪni] *n* 1) badnom bo'lish; 2) vijdonsizlik, tubanlik
ignoramus [ɪgnəˈreɪməs] *tot. n* o'qimagan odam, nodon
ignorance [ɪgnərəns] *n* nodonlik, johillik, bilimsizlik
ignorant [ɪgnərənt] *a* johil, bilimsiz, no-don, o'qimagan
ignore [ɪgˈnɔː] *v* e'tiborsiz qoldirmoq, men-simaslik
ikon [ˈaɪkən] = **icon**
ilex [ˈaɪləks] *n bot.* padub (*nayza bargli da-raxning bir turi*)
ilia [ˈɪliə] *n pl. anat.* qovurg'a bilan qorin orasidagi ichaklar
iliac [ˈɪliæk] *a anat.* qovurg'a bilan qorin orasidagi
ilk [ɪlk] *n* nav, tur, xil
ill [ɪl] **1.** *a* kasal, betob; **to be ~** kasal bo'l-moq; **2.** *n* balo, ofat, zarar, ziyon; **3.** *adv* yomonlik bilan, yomon tarzda
ill-advised [ɪlədˈvaɪzɪd] *a* yengiltak, o'ylamasdan ish qiladigan
ill-affected [ɪləˈfektɪd] *a* birovga yaxshilik qilmaydigan, yaxshilikni ravo ko'rmaydi-gan, yomonlik tilovchi (qiluvchi)
illation [ɪˈleɪʃ(ə)n] *n mant.* xulosa, natija
illative [ɪˈleɪtɪv] *a* yakunlovchi, so'nggi
ill-bred [ɪlˈbred] *a* 1) dag'al, qo'pol, qo'rs; 2) yomon tarbiya olgan, tarbiyasi yomon, tarbiya ko'rmagan, beadab, tarbiyasiz
ill-breeding [ɪlˈbrɪ:dɪŋ] *n* tarbiya ko'r-maganlik, tarbiyasizlik, beadablik
ill-considered [ɪlkənˈsɪdəd] *a* yaxshi o'y-lab ko'rilmagani, o'ylamasdan qilingan, be-mulohaza
illegal [ɪˈli:q(ə)] *a* qonunga xilof, yashirin, maxfiy, noqonuniy, g'ayriqonuniy
illegality [ɪliˈgælɪti] *n* g'ayriqonuniylik, qonunga xiloflik
illegibility [ɪˌledʒəˈbɪlɪti] *n* noaniqlik, o'qib bo'lmaydiganlik, tushunib bo'lmaydigan-lik
illegible [ɪˈledʒəb(ə)] *a* o'qilishi qiyin (*yo-zuv haqida*)
illegitimacy [ɪliˈdʒɪtməsi] *n* 1) g'ayriqo-nuniy, qonunga xiloflik, qonunsizlik; 2) ni-kohsiz tug'ilganlik
illegitimate [ɪliˈdʒɪtmɪt] **1.** *a* 1) noqonu-niy, g'ayriqonuniy, qonunga xilof; 2) nikoh-siz tug'ilgan, haromi; **2.** *n* nikohsiz tug'il-gan bo'la

ill-fated [ɪlˈfeɪtɪd] *a* baxtsiz, bebaxt, baxti qora, peshanasi sho'r
ill-favo(u)red [ɪlˈfeɪvəd] *a* xunuk, yoqim-siz, noxush, ko'ngilsiz, yomon
ill-founded [ɪlˈfaʊndɪd] *a* asossiz, dalilsiz, asoslanmagan, noo'rin
illiberal [ɪˈlɪb(ə)rəl] *a* o'qimagan, jaholatda qolgan, nodon, yomon tarbiya topgan
illicit [ɪˈlɪsɪt] *a* 1) man etilgan; 2) qonunga xilof, g'ayriqonuniy
illimitable [ɪˈlɪmɪtəb(ə)] *a* cheklanmagan, cheksiz, hadsiz
illiteracy [ɪˈlɪt(ə)rəsi] *n* savodsizlik, bilim-sizlik, omilik
illiterate [ɪˈlɪt(ə)rɪt] **1.** *n* o'qimagan (bilim-siz, ilmsiz, nodon) kishi; **2.** *a* savodsiz, o'qimagan, omi
ill-judged [ɪlˈdʒʌdʒd] *a* aqli yo'q, beaql, aqlsiz, kaltafahm
ill-luck [ɪlˈlʌk] *n* sira omadi yurishmaslik, ishi yurishmaslik, omadsizlik, muvaffaqi-yatsizlik
ill-mannered [ɪlˈmænəd] *a* tarbiya ko'r-magan, tarbiyasiz, beadab; qo'pol, qo'rs
illness [ɪlnəs] *n* kasallik, xastalik; illat, dard, betoblik, nosog'lik, og'riq
illogical [ɪˈlɒdʒɪk(ə)] *a* mantiqsiz, beman-tiq
illogicality [ɪˌlɒdʒɪˈkæləti] *n* mantiqsizlik, bemantiqlik
ill-omened [ɪlˈəʊmænd] *a* dahshatli, vahi-mali, mudhish
ill-suited [ɪlˈs(j)u:ɪtɪd] *a* yaroqsiz, yara-maydigan, nomunosib, nobop, noqulay
ill-tempered [ɪlˈtempəd] *a* fe'li buzuk; ser-jah
ill-timed [ɪlˈtaɪmɪd] *a* bemavrid, o'rinsiz, noo'rin
ill-treat [ɪlˈtri:t] *v* yomon muomala qil-moq, qo'pol muomala qilmoq
ill-treatment [ɪlˈtri:tment] *n* yomon muo-mala, qo'pollik, dag'allik
illumine [ɪˈl(j)u:m] = **illumine**
illuminant [ɪˈl(j)u:mɪnənt] *n* yorug'lik man-bayi; yoritish vositasi, yoritgich
illuminate [ɪˈl(j)u:mɪneɪt] *v* nur sochmoq, yoritmoq, munavvar qilmoq
illuminating [ɪˈl(j)u:mɪneɪtɪŋ] *a* yoritishga oid, yoritadigan, yorituvchi, yoritish...; ~ **gas** yoritgich (yonadigan) gaz, yoritish uchun ishlatiladigan gaz
illumination [ɪˌl(j)u:mɪˈneɪʃ(ə)n] *n* yori-tish, nur sochish
illuminative [ɪˈl(j)u:mɪnətɪv] *a* yoritadigan, yorituvchi
illumine [ɪˈl(j)u:mɪn] *v* nur sochmoq, yo-ritmoq, munavvar qilmoq

illusion [ɪˈlu:z(ə)n] *n* 1) illuziya (*aldanish, soxta tushuncha*); 2) xayol, xayolot, xom xayol

illusionist [ɪˈlu:z(ə)nɪst] *a* 1) orzu-xayollarga beriluvchan odam, xayolparast; 2) ko'z-boylag'ich, ko'z bog'lovchi, fokuschi

illusory [ɪˈlu:s(ə)rɪ] = **illusory**

illustrate [ˈɪləstreɪt] *v* rasmlar bilan bezamoq

illustration [ˌɪləsˈtreɪʃ(ə)n] *n* rasmlar bilan bezash

illustrative [ˈɪləstreɪtɪv] *a* tasviriy, ko'rgazmafi

illustrator [ˈɪləstreɪtə] *n* musavvir, kitob, jurnal va sh. k. ni bezovchi rassom

illustrious [ɪˈlɑ:striəs] *a* mashhur, atoqli, buyuk, taniqli

ill-wisher [ɪlˈwɪʃə] *n* birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan (yomonlik tilaydigan) odam, ichi qora odam

image [ˈɪmɪdʒ] 1. *n* ko'rinish, qiyofa, siymo, haykal, soya, obraz, namuna, tasvir, surat, rasm, shakl; 2. *v* 1) tasvirlamoq, aks ettirmoq, ifoda etmoq; **a poet ~ s his hero** shoir o'z qahramonini aks ettirgan; 2) ta'riflamoq

imagery [ˈɪmɪdʒ(ə)rɪ] *n* 1) ifodalilik, ta'sirchanlik, jonlilik; 2) tasavvur

imaginable [ɪˈmædʒ(ə)nəb(ə)l] *a* xayolga keladigan, faraz qilinadigan, tasavvur qilsa bo'ladigan

imaginary [ɪˈmædʒ(ə)n(ə)rɪ] *a* tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilinadigan

imagination [ɪˌmædʒɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) o'y-lash, xayol qilish; 2) xayol, faraz, tasavvur

imaginative [ɪˈmædʒ(ə)nətɪv] *a* xayoliy, tasavvuriy

imagine [ɪˈmædʒɪn] *v* 1) tasavvur qilmoq; ko'z oldiga (xayoliga) keltirmoq; 2) faraz qilmoq

imbalance [ɪmˈbæləns] *n* nomutanosiblik, mos emaslik

imbecile [ɪmˈbɛsɪ:l] *n* aqli kam, aqli past kishi

imbecility [ɪmbrɪˈsɪlɪtɪ] *n* aqli kamlik, aqli pastlik, aqli zaiflik

imbed [ɪmˈbed] *v* ichiga o'rnatmoq, solmoq, ichiga o'yib (joylab) ishlamoq

imbibe [ɪmˈbaɪb] *v* to'ydirmoq, to'yg'izmoq, qondirmoq; yutmoq, tortmoq

imbrex [ˈɪmbreks] *n* (*pl* **imbrices** [ˈɪmbrɪsɪz]) *qu.* tomga yopiladigan nova-nova sopol (*cherepitsa*)

imbroglio [ɪmˈbrəʊliəʊ] *n* (*pl* -**os** [-əʊz]) chigallik, chalkashlik; tushunmovchilik

imbrue [ɪmˈbru:] *v* qonga bo'yamoq, qonga belamoq, qon to'kmoq

imbue [ɪmˈbju:] *v* 1) to'ydirmoq, to'yg'izmoq; 2) (*matoni*) bo'yamoq

imitate [ˈɪmɪteɪt] *v* 1) taqlid qilmoq; 2) o'xshatmoq; 3) qalbakilashtirmoq; **to - money** pulni qalbakilashtirmoq

imitation [ˌɪmɪˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) taqlid qilish; o'xshatish; 2) o'xshatish, qalbakilashtirish

imitative [ˈɪmɪtətɪv] *a* 1) taqlidga oid, taqlidiy, o'xshatiladigan; ~ **arts** tasviriy san'at; 2) yasama, haqiqiy emas, qalbaki

imitator [ˈɪmɪteɪtə] *n* taqlidchi, taqlid qiluvchi

immaculacy [ɪˈmækjələsɪ] *n* ozodalik, pokizalik, tozalik, poklik, beg'uborlik

immaculate [ɪˈmækjələt] *a* beg'ubor; dog'tushmagan; toza, ozoda, pokiza

immanent [ˈɪmənənt] *a* o'ziga xos, odatdagi, doimiy

immaterial [ɪməˈtɪ(ə)rɪəl] *a* ahamiyatsiz, ahamiyati yo'q, hech qanday ahamiyat kash etmaydigan

immature [ɪməˈtʃuə] *a* yetilib pishmagan; xom; ~ **fruit** pishmagan mevalar

immaturity [ɪməˈtʃʊərətɪ] *n* yetilib pishmaganlik, yetilmaganlik, xomlik, g'o'rlik

immeasurability [ɪˌmeɪz(ə)rəˈbɪlətɪ] *n* o'lchab (solishtirib, qiyoslab) bo'lmaydiganlik, beo'lchovlik, cheksizlik

immeasurable [ɪˈmeɪz(ə)rəb(ə)l] *a* beqiyos, behad, juda katta, ulkan

immediacy [ɪˈmɪ:diəsɪ] *n* 1) kechiktirilmasslik; zud-zarurlik; orqaga (keyinga) qoldirib bo'lmaslik; 2) yaqinlik, bevositalik

immediate [ɪˈmɪ:diət] *a* 1) tez, shoshilinch; ~**ness** zudlik; 2) to'g'ridan to'g'ri, bevosita

immediately [ɪˈmɪ:diətli] *adv* 1) darrov, shartta; 2) to'g'ridan to'g'ri, bevosita

immedicable [ɪˈmedɪkəb(ə)l] *a* tuzatib bo'lmaydigan, davosi yo'q, bedavo

immemorial [ɪmˈmə:riəl] *a* juda ilgarigi, qadimgi; ~ **customs** qadimgi urf-odatlar

immense [ɪˈmens] *a* 1) g'oyat katta, ulkan; ~ **armies** ulkan armiya; 2) cheksiz, bepoyon

immensely [ɪˈmensli] *adv* o'ta, juda ham, haddan tashqari, behad

immensity [ɪˈmensɪtɪ] *n* beo'lchovlik, cheksizlik, bepoyonlik

immerse [ɪˈmɜ:s] *v* botirmoq, sho'ng'itmoq, g'arq bo'lish; cho'ktirmoq, g'arq qilmoq

immersion [ɪˈmɜ:ʃ(ə)n] *n* botish, cho'kish, cho'ktirish, suv ostiga tushirish

immigrant [ˈɪmɪgrənt] *n* muhojir, ko'chib kelgan kishi

immigrate [ˈɪmɪɡreɪt] *v* boshqa joyga ko'chirmoq
immigration [ˌɪmɪˈɡreɪʃ(ə)n] *n* ko'chish, ko'chib o'tish; muhojirlik
imminence [ˈɪmɪnəns] *n* muqarrarlik, qochib (qutulib, oldini olib) bo'lmaydiganlik
imminent [ˈɪmɪnənt] *a* yaqin, yaqinlashib kelayotgan, xavf solib turgan
inimitigable [ɪˈmɪtɪɡəb(ə)l] *a* bir so'zli, qattiq, gapga unamaydigan
immixture [ɪˈmɪkstʃə] *n* 1) aralashish, birga qatnashish; 2) daxldorlik, aloqadorlik
immobile [ɪˈməʊb(ə)l] *a* qimirlamaydigan, ko'chmaydigan, ko'chmas
immobility [ɪˈməʊˈbɪlɪti] *n* qimirlamastlik, qilt etmaslik, qotib qolishlik
immobilize [ɪˈməʊbɪlaɪz] *v* qimirlamaydigan qilib qo'yimoq; muzlatib (ololmaydigan, muomalada yurmaydigan) qilib qo'yimoq (*mas., hisob raqumidagi pul, mablag' va b. ni*); **their funds were -d** ularning mablag' (pul)lari muzlatib qo'yildi
immoderate [ɪˈmɒd(ə)rɪt] *a* cheksiz, o'lchovsiz, o'ta, haddan tashqari
immodest [ɪˈmɒdɪst] *a* benomus, uyatsiz, hayosiz, beadab
immodesty [ɪˈmɒdɪstri] *n* bezbetlik, surbetlik, beadablik, hayosizlik
immolate [ˈɪməleɪt] *v* qurbonlik qilmoq
immolation [ɪˈməˈleɪʃ(ə)n] *n* qurbonlik, qurbonlik qilish
immoral [ɪˈmɒrəl] *a* axloqsiz, beadab
immorality [ɪˈmɒˈræləti] *n* axloqsizlik, beadablik, odobsizlik
immortal [ɪˈmɔ:t(ə)l] *a* o'lmas, boqiy, o'lmaydigan, abadiy yashaydigan
immortality [ɪˈmɔ:təˈlɪti] *n* mangulik; o'lmaslik, boqiylik, abadiylik
immortalization [ɪˈmɔ:təlaɪz(ə)n] *n* abadiy xotira qilib qoldirish, abadiylashtirish, abadiy nom qoldirish
immortalize [ɪˈmɔ:təlaɪz] *v* abadiylashtirmoq, umrbod esdalik qilib qoldirmoq
immortelle [ɪˈmɔ:t(ə)l] *n* bot. o'lmas o't (*quriganda ham guli o'zgarmaydigan o't*); bo'znoch (*o'tsimon o'simlik*)
immovability [ɪˈmu:vəˈbɪlɪti] *n* qo'zg'almaydiganlik, qimirlamaydiganlik, harakat qilmaydiganlik, harakatsizlik, qotganlik, qo'zg'almaslik
immovable [ɪˈmu:vəb(ə)l] *a* 1) ko'chmas; qo'zg'almas, qo'zg'almaydigan, harakat qilmaydigan; 2) puxta, mahkam
immune [ɪˈmju:n] *a* 1) tib. kasal yuqmaydigan; 2) (*nimadandir*) ozod, ozod qilingan; 3) himoya qilingan

immunity [ɪˈmju:nɪti] *n* 1) tib. immunitet (*organizmning kasal yuqtirmasligi va kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati*); 2) daxlsizlik; 3) (*soliq to'lash va b. dan*) ozod qilish
immunization [ɪˈmju:nat(ə)n] *n* tib. immunizatsiya (*organizmni kasal yuqmaydigan qilish*)
immunize [ɪˈmju:nəɪz] *v* 1) daxlsizlik huquqini bermoq; 2) tib. kasal yuqmaydigan qilmoq
immure [ɪˈmjuə] *v* qamamoq, qamab qo'yimoq, zindonga tashlamoq
immurement [ɪˈmjuəmənt] *n* qamash, qamab qo'yish, zindonga tashlash
immutability [ɪˈmju:təˈbɪlɪti] *n* o'zgarmaydiganlik, o'zgarmaslik, doimiylik
immutable [ɪˈmju:təb(ə)l] *a* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy
imp [ɪmp] *n* tirancha, sho'x bola, shumtaka, shayton (*bola haqida*)
impact 1. *n* [ˈɪmpækt] 1) ta'sir, zarba, impuls (*ichki turtki*); 2) ta'sir; oqibat; 3) fiz. zarba kuchi; 2. *v* [ɪmˈpækt] 1) qismoq, qattiq mahkamlamoq; 2) zarba bermoq (*sportda*); 3) (*on*) ta'sir ko'rsatmoq
impair [ɪmˈpeə] *v* 1) zaiflashtirmoq, kuchquvvatdan qoldirmoq, kamaytirmoq; 2) (*sifatni*) pasaytirmoq; 3) yomonlashtirmoq; zarar yetkazmoq
impaired [ɪmˈpeəd] *a* sekinlashtirilgan, sekinlatilgan, susaytirilgan; sekinlashgan, susaygan
impale [ɪmˈpeɪl] *v* sanchmoq, tiqmoq
impalpability [ɪmˈpælpəˈbɪlɪti] *n* sezilmaydiganlik, sezilmaslik, his qilib bo'lmaydiganlik
impalpable [ɪmˈpælpəb(ə)l] *a* 1) sezilmaydigan, sezib bo'lmaydigan; eng kichik; 2) farq qilib bo'lmaydigan; 3) tushunishga qiyin, tushunilishi qiyin bo'lgan
imparity [ɪmˈpærɪti] *n* tengsizlik, baravar emaslik
impark [ɪmˈpɑ:k] *v* (*yovvoyi hayvonlarni*) parkka joylashtirmoq
impart [ɪmˈpɑ:t] *v* 1) (*fikr va sh. k. ni*) o'rtoqlashmoq, bo'lishmoq, aytmoq, yetkazmoq; 2) bermoq, baxsh etmoq, kiritmoq, biror holatga keltirmoq (*solmoq*)
impartial [ɪmˈpɑ:ʃ(ə)l] *a* xolis; adolatli, beg'araz
impartiality [ɪmˈpɑ:ʃ(ə)lɪti] *n* betarafflik, beg'arazlik, adolatlilik
impartible [ɪmˈpɑ:tɪb(ə)l] *a* bo'tinmas, bo'linmaydigan
impassable [ɪmˈpɑ:səb(ə)l] *a* o'tib bo'lmaydigan, o'tish qiyin bo'lgan

impasse [æm'pɑ:s] *n fr.* 1) qiyin ahvol; 2) boshi berk ko'cha
impassibility [ɪm,pæsə'bilɪtɪ] *n* 1) ehtiros-sizlik, beparvolik, sovuqqonlik, vazminlik; 2) his-tuyg'usi o'lganlik, sezmaslik, eti o'liklik
impassible [ɪm'pæsəb(ə)l] *a* 1) ehtiros-siz, hayajonsiz, beparvo, sovuqqon; 2) (*og'riq va sh. k. ni*) sezmaydigan
impassioned [ɪm'pæsɪ(ə)nd] *a* qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, yarugida o'ti bor
impassive [ɪm'pæsɪv] *a* (*kishiga nisbatan*) vazmin, og'ir, hovliqmaydigan
impaste [ɪm'peɪst] *v* qormoq, pishirmoq
impatience [ɪm'peɪʃ(ə)ns] *n* sabrsizlik, besabrlik, toqatsizlik; *to wait with ~ for smb.* sabrsizlik bilan kimnidir kutmoq
impatient [ɪm'peɪʃ(ə)nt] *a* sabrsiz, besabr, betoqat
impeach [ɪm'pi:tʃ] *v* ayb qo'yimoq, ayblamoq
impeachment [ɪm'pi:tʃmənt] *n* 1) oliy martabali shaxslarni javobgarlikka tortish; 2) ayblash
impeccability [ɪm,pekə'bilɪtɪ] *n* xato qilmaslik, adashmaslik, yanglishmaslik; shubhaga o'rin qoldirmaslik; bexatolik, beayblik; benuqsonlik, to'ppa-to'g'rilik
impeccable [ɪm'pekəb(ə)l] *a* xato qilmaydigan, adashmaydigan
impecunious [ɪm'pɛkjʊ:nɪəs] *a* kambag'al, qashshoq; pulsiz, pulga muhtoj
impede [ɪm'pi:d] *v* 1) to'sqinlik qilmoq, xalal bermoq; 2) (*yo'l harakati, muzokara va b. ni*) og'irlashtirmoq
impediment [ɪm,pedɪmənt] *n* 1) to'siq, g'ov; 2) duduqlanish, nutqdagi nuqson
impedimental [ɪm,pedɪ'ment(ə)l] *a* to'sqinlik qiladigan, to'siq (to'sqin, g'ov, to'g'on) bo'ladigan
impel [ɪm'pel] *v* 1) harakatga keltirmoq; 2) biror ish qilishga undamoq
impellent [ɪm'pelənt] *1. a* harakatga soluvchi (keltiruvchi); harakatlantiruvchi; *2. n* harakatga soluvchi (keltiruvchi, harakatlantiruvchi) kuch
impeller [ɪm'pelə] *n tex.* parrakli g'ildirak
impend [ɪm'pend] *v* xavf solib turmoq, tahdid qilmoq
impudence [ɪm'pend(ə)ns] *n* yaqinlik; chetlab o'tib bo'lmaydiganlik, muqarrarlik, albatta bo'ladiganlik
impudent [ɪm'pendənt] *a* 1) xavf tug'dirayotgan, yaqinlashib kelayotgan; 2) chetlab o'tib (qochib, qutulib) bo'lmaydigan
impending [ɪm'pendɪŋ] *a* 1) yaqinda bo'ladigan; 2) qo'rqitadigan, xavf soladigan, xavf solib turgan

impenetrability [ɪm,penɪtrə'bilɪtɪ] *n* 1) imkoni (iloji) yo'qlik, mumkin emaslik; 2) o'tib bo'lmazlik, o'tish qiyalik
impenetrable [ɪm'penɪtrəb(ə)l] *a* o'tib bo'lmaydigan, o'tish qiyin, o'tinmaydigan
impenitence [ɪm'penɪt(ə)ns] *n* achinmaslik, afsuslanmaslik, pushaymon bo'lmazlik, o'kinmaslik, tavba qilmaslik
impenitent [ɪm'penɪt(ə)nt] *a* 1) achinmaydigan, afsuslanmaydigan, pushaymon bo'lmaydigan, tavba qilmaydigan; 2) mahkam o'rnashgan, tomir yoygan, qonga (suyakka) singib ketgan
imperative [ɪm,perə'tatv(ə)l] *a gram.* buyruq mayliga oid
imperative [ɪm'perətɪv] *a* buyruq tarzidagi; ~ mood gram. buyruq mayli
imperceptible [ɪmpə'septəb(ə)l] *a* sezilmaydigan, bilinmaydigan
imperfect [ɪm'pɜ:fɪkt] *1. a* mukammal emas, tugallanmagan; *2. n gram.* tugallanmagan o'tgan zamon; *-ive gram.* tugallanmagan (*slavyan tillaridagi ko'rinish haqida*)
imperfection [ɪmpə'fɛkʃ(ə)n] *n* 1) mukammal (barkamol, yetuk) emaslik, takomillashmaganlik, chala; 2) kamchilik, nuqson
imperial [ɪm'prɪ(ə)riəl] *a* 1) imperiyaga oid; imperiyaga xos; 2) imperatorga oid; 3) ulug'vor, hashamatli, muhtasham
imperialism [ɪm'prɪ(ə)riəlɪz(ə)m] *n* imperialism
imperialist [ɪm'prɪ(ə)riəlɪst] *n* imperialist
imperialistic [ɪm,prɪ(ə)riəlɪstɪk] *a* imperializimga oid (xos)
imperial [ɪm'prɪ(ə)riəl] *v* xavf ostida bo'lmoq, xavf-xatarda qolmoq
imperious [ɪm'prɪ(ə)riəs] *a* buyruq (farmon, amr) tarzida, amirona
imperishability [ɪm,perɪʃə'bilɪtɪ] *n* mustahkamlik, mahkamlik; abadiylik, azaliylik, mangulik, doimiylik
imperishable [ɪm'perɪʃəb(ə)l] *a* 1) buzilmas, buzilmaydigan, mustahkam; 2) abadiy, azaliy, mangu
impermanent [ɪm'pɜ:mənənt] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan; doimiy emas; uzoq davom etmaydigan; vaqtinchalik
impermeable [ɪm'pɜ:məb(ə)l] *a* o'tkazmaydigan, o'tmaydigan; ~ to water suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan
impermissible [ɪmpə'mɪsəb(ə)l] *a* yo'l qo'yib bo'lmaydigan, nojo'ya, nojoiz
impersonal [ɪm'pɜ:s(ə)n(ə)l] *a gram.* shaxs-siz, shaxsi topilmas, shaxsi noma'lum
impersonality [ɪm,pɜ:sə'næltɪ] *n* 1) o'z qiyofasiga (o'ziga xos xususiyatga) ega

bo'lmaganlik, boshqalardan farqli (ajralib turadigan) yeri yo'qlik; 2) xolislik, betaraflik, beg'arazlik, haqqoniyat

impersonate [ɪmˈpɜːsənət] *v* 1) biror narsaning timsoli bo'lmoq; gavalantirmoq, mujassamlantirmoq; 2) rol ijro etmoq, o'ynamoq

impersonation [ɪmˈpɜːsəˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) jonlantirib tasvirlash; gavalantirish, mujassamlantirish; 2) rol ijro etish

impersonator [ɪmˈpɜːsənətə] *n* 1) birovning nomi yoki unvonini o'zicha o'zlash-tirib olish; 2) biror kimsani taqlid qiluvchi odam, parodiyachi; 3) o'zini biror kimsa qilib ko'rsatmoq

impertinence [ɪmˈpɜːtɪnəns] *n* dag'allik, qo'pollik, qo'rslik

impertinent [ɪmˈpɜːtɪnənt] *a* badfe'l, surbet, dag'al, qo'pol, qo'rs

imperturbability [ɪmpɜːtəːbəlɪtɪ] *n* og'irlik, vazminlik, yuragi kenglik; tinchlik, jimjitlik, sokinlik, osoyishtalik

imperturbable [ɪmpɜːtəːbəl(ə)] *a* og'ir, vazmin, yuragi keng; tinch, jimjit, sokin, osoyishta

impervious [ɪmˈpɜːviəs] *a* o'tkazmaydigan, o'tmaydigan

impetuosity [ɪmˌpetʃ(əˈsɪtɪ] *n* 1) tezlik, shiddatlilik; 2) shiddat, shitob; 3) sezgirlik, ta'sirchanlik

impetuous [ɪmˈpetʃuəs] *a* 1) shiddatli, juda tez, ildam; 2) g'ayratli, yuragida o'ti bor

impetus [ɪmˈpɪtəs] *n* 1) tezlik, shiddat, turtki; 2) harakatlantiruvchi kuch

impiety [ɪmˈpɪrɪtɪ] *n* 1) xudoga ishonmaslik; 2) hurmatsizlik, behurmatlik

impinge [ɪmˈpɪndʒ] *v* urilmoq, urib olmoq, qoqinmoq, qoqinib ketmoq

impingement [ɪmˈpɪndʒmənt] *n* zarba, urinish, turtish

impious [ɪmˈpiəs] *a* gunohli, murtad, betavfiq

impish [ɪmptʃ] *a* jahli yomon, battol, badjahl, jaholath, qahri tez

implacability [ɪmˌplækəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) bir so'zlilik, qattqlik, gapga unamaydiganlik; 2) shafqatsizlik, berahmlik

implacable [ɪmˈplækəb(ə)] *a* 1) bir so'zli, qattiq, qat'iy; 2) shafqatsiz, berahm; gapga unamaydigan

- lade** [leɪd] **1.** *n* ariq, kanal, daryoning quyilish joyi; **2.** *v* (**laded; laded, laden**) yuklamoq, ortmoq, joylamoq
- laden** ['leɪdn] **1.** *p. p.* of lade; **2.** *a* yukli, yuk ortilgan
- ladies** ['leɪdiz] *n* 1) *pl* of lady; 2) so'zl. ayollar hojatxonasi
- ladies' man** ['leɪdizmæn] = lady's man
- lading** ['leɪdɪŋ] *n* 1) yuklash, ortish, joylashtirish; 2) yuk, kemada tashiladigan yuk
- ladle** ['leɪdl] **1.** *n* cho'mich, yog'log'i; **a soup** - cho'mich; **2.** *v* botirib olmoq, suzib olmoq; **to ~ out** cho'michtab (suzib olib) tugatmoq
- lady** ['leɪdi] *n* (*pl* -ies [-ɪz]) 1) xotin, ayol; xonim; **a** - secretary ayol kotiba; **a great ~** aslzoda ayol; 2) tedi (*Angliyada: lordning xotini, shuningdek, aristokratlarga mansub erli ayol*)
- lady-beetle** ['leɪdi,bɪ:təl] = ladybird
- ladybird** ['leɪdɪbɜ:d] *n* ent. xonqizi
- lady-bug** ['leɪdɪbʌg] *amer.* = ladybird
- lady-chair** ['leɪdi,tʃeə] *n* o'tirg'ich, o'rindiq (*yaradortlarni tashiydigan*)
- lady-cow** ['leɪdɪkəʊ] = ladybird
- Lady Day** ['leɪdɪdeɪ] *n* cherk. ibodatga chaqirib qo'ng'iroq chalish (25-mart)
- ladyhood** ['leɪdɪhʊd] *n* 1) ledilik unvoni, faxriy nom; 2) ayollar
- lady-in-waiting** ['leɪdɪn'weɪtɪŋ] *n* (*pl* ladies-in-waiting) freylina (*malika yoki qirolicha huzurida xizmatda bo'lgan, dvoryan oiladan chiqqan ayol*)
- lady-killer** ['leɪdi,kɪlə] *n* 1) ofatijon (yigit); 2) xotintlarni shaydo qiluvchi yigit
- ladylike** ['leɪdɪlaɪk] *a* 1) yaxshi tarbiya ko'rgan; 2) ayollarga xos, nozik, nazokatli, latofatli; 3) xotinchalish, xotinnamo (*erkak haqida*)
- lady-love** ['leɪdɪləv] *n* dildan sevilgan, ma'shuqa, mahbuba, jonona
- lady's bedstraw** ['leɪdɪz 'bedstrɔ:] *n* bot. qumriot, chaqamiq
- lady's-maid** ['leɪdɪzmeɪd] *n* oqsoch, uy xizmatchisi
- lady's man** ['leɪdɪzmæn] *n* 1) xushtor, oshiq; 2) xotintlarning ko'nglimi ovlovchi shaxs
- lady's purse** ['leɪdɪzɜ:pɜ:s] *n* bot. ochambiti (*krestgullarga mansub, mayda, oq gulli va xaltacha shaklidagi o't*)
- laevogyrate** [li:vəʊ 'dʒaʊreɪt] *a* fiz. chapga aylanadigan
- lag I** [læɡ] **1.** *n* kechikish, ulgurmay qolish, orqada qolish, kech qolish; **a time ~ of one month** bir oyga kechikish; **2.** *v* kech qolmoq, ulgurmay qolmoq, orqada qolmoq
- lag II** [læɡ] *n* yuborilgan yoki surgun bo'lgan kishi
- lag III** [læɡ] *n* planka, uzun taxtacha
- lagan** ['læɡ(ə)n] *n* yur. cho'kib ketgan yuk, g'arq bo'lib ketgan yuk
- lager (beer)** ['lɑ:ɡə(bɪə)] *n* kuchsiz pivo
- laggard** ['læɡəd] *n* beso'naqay odam, qo'pol odam
- lagging I** ['læɡɪŋ] *n* el. fazaning o'zgarishi, siljishi (*fazagenerator chulg'aminig alohida bir guruhi*)
- lagging II** ['læɡɪŋ] *n* qoplama, jild
- lagoon** [lə'ɡu:n] *n* laguna, qo'ltiq
- laic(al)** ['leɪk(əl)] *a* dunyoviy
- laicize** ['leɪsaɪz] *v* 1) cherkov yoki monastir mulkini davlat mulkiga aylantirmoq; 2) cherkov qaramog'idan chiqarish; din ta'siridan chiqarish
- laid** [leɪd] *v* *past., p. p.* of lay **I, 1**
- laid-back** [leɪd'bæk] *a* beg'am, g'amsiz
- lain** [leɪn] *p. p.* of lie **II, 1**
- lair** [leɪ] *n* 1) in, uya, makon; 2) makon, kulba; **the thieves' ~** o'g'rilar makoni
- laird** [leɪd] *n* shotl. zamindor, katta yer egasi, pomeshik
- laissez-faire** [leɪseɪ'feə] *n* fr. aralashmaslik
- laity** ['leɪti] *n* dunyoviy kishi, qavm
- lake** [leɪk] *n* 1) ko'l; 2) pardoz loki, bo'yaydigan lok
- Lake Country** ['leɪk,kəntri] *n* Serko'l o'lka (*Angliyaning shimoli g'arbida*)
- lake dwelling** ['leɪk,dweliŋ] *n* (tarixdan ilgari) qoziqoyoqli imoratlar (*dengiz bo'vidagi*)
- lake-land** ['leɪklænd] = lake-country
- lake-lawyer** ['leɪk,lɔ:jə] *n* amer. nalim, yelimbaliq
- lakh** [læk] = lac **II**
- laky** ['leɪki] *a* ko'lga oid, ko'lda bo'ladigan
- Lallan** ['lælən] *n* Shotlandiyaning janubiy qismidagi sheva
- lam** [læm] *v* 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) urmoq, tushirmoq
- lama I** ['lɑ:mə] *n* zool. lama (*Janubiy Amerika tuyasi*)
- lama II** ['kɑ:mə] *n* buddizim diniga mansub ruhoni
- lamasery** ['lɑ:məs(ə)ri] *n* lamaistlar monastiri (*buddizimning tarqalgan oqimi*)
- lamb** [læm] **1.** *n* 1) qo'zi, qo'zichoq; 2) qo'zi go'shti; **2.** *v* qo'zilamoq, bolalamoq
- lambast(e)** ['læmbeɪst] *v* urmoq, maydaloq, yanchmoq

lambency [ˈlæmbənsi] *n* yarqirash, chaq-nash
lambent [ˈlæmbənt] *a* o'ynaydigan, o'yna-yotgan, nur tarqatuvchi
lambkin [ˈlæmkɪn] *n* qo'zichoq
lamblike [ˈlæmlaɪk] *a* yuvosh, beozor, mo'-min-qobil
lambrequin [ˈlæmb(r)əkiŋ] *n* lambreken (*eshik yoki deraza tepasiga ishlangan o'y-ma naqsh*)
lambskin [ˈlæm,skɪn] *n* qo'yteri, ishlangan qo'y terisi
lame [leɪm] **1.** *a* 1) oqsoq, cho'loq; **a** ~ man cho'loq odam; **a** ~ duck *ko'ch.* mayib (majruh) bo'lib qolgan kishi; 2) qoniqarsiz; muvaffaqiyatli (yaxshi) chiqmagan; ko'ngildagidek bo'lmagan; **2.** *v* mayib qilmoq, urib olmoq; **to** ~ **a** leg oyog'ini mayib qilmoq
lamella [ləˈmɛlə] *n* (*pl* -ae [-i:]) 1) plastinka; 2) yupqa qatlam (*suyakda, gazmolda*)
lamellae [ləˈmɛli:] *pl of lamella*
lameness [ˈleɪməs] *n* oqsoglik, cho'loqlik
lament [ləˈment] **1.** *n* achchiq oh-voh qilish; hasrat, ho'ngrab yig'lash, zorlanish; **2.** *v* 1) ingramoq, oh-voh qilmoq, zorlanmoq, nola qilmoq; 2) aza tutib yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq
lamentable [ˈlæməntəb(ə)] *a* o'ta achinarli, qayg'uli; **a** ~ result o'ta achinarli natija
lamentation [ˈlæməntəˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) aza; 2) faryod
lamina [ˈleɪmɪnə] *n* *grek. mif.* ayol qiyofasidagi jodugar; qonxo'r
lamina [ˈlæmɪnə] *n* (*pl* -nae) yupqa qatlam
laminae [ˈlæmɪni:] *pl of lamina*
laminar [ˈlæmɪnə] *a* plastinkasimon, plastinka shaklidagi; qatlamli, qat-qat
laminated [ˈlæmɪn(eɪ)tɪd] *v* 1) yupqa qatlamlarga bo'lib tashlamoq; 2) qog'ozdan plastmassa tayyorlamoq
laminated [ˈlæmɪneɪtɪd] *a* qat-qat shaklidagi
lamination [ˈlæmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* qatlamlarga ajralish, qat-qat qilib jo'valash
Lammās [ˈlæməs] *n* *tar.* hosil bayrami (*1-avgust*)
lamp [læmp] **1.** *n* lampa, chiroq, fonus, fonar; **a** standart ~ torsher (*biror narsaga baland o'rnatilib, polga qo'yiladigan chiroq*); **a** table ~ stol ustida turadigan chiroq; **2.** *v* yoritmoq
lampblack [ˈlæm(p)blæk] *n* lampa qorakuyasi, qurumi, tutuni, isi
lamp-burner [ˈlæm(p),bɜːnə] *n* lampa goralkasi (*goralka — suyuq yoqilg'i yoki gazni ma'lum maqsadda yoqish uchun ishlatiladigan asbob*)

lamp-chimney [ˈlæmp,tʃɪmni] *n* lampashi-sha
lamp-holder [ˈlæmp,həʊldə] *n* patron (*gilzada joylashgan lampa o'rnatgich*)
lampion [ˈlæmpjən] *n* lampion (*bezash uchun har xil qog'oz yoki shishadan yasalgan kichkina fonuscha*)
lamplight [ˈlæmplaɪt] *n* chiroq yorug'ligi; sun'iy yoritish (*yorug'lik berish*)
lamplighter [ˈlæmp,laɪtə] *n* fonarchi, fonuschi
lampoon [læmˈpuːn] **1.** *n* pamflet, achchiq hajviy asar; **2.** *v* hajviy asar ijod qilmoq
lampooner [læmˈpuːnə] *n* achchiq hajviy asar yozuvchi
lampoonist [læmˈpuːnɪst] = **lampooner**
lampost [ˈlæmpəʊst] *n* fonar osadigan simyog'och (*stolba*)
lamprey [ˈlæmpri] *n* *zool.* minoga, ilonbaliq
lamp-shade [ˈlæmpʃeɪd] *n* abajur, lampa qalpog'i
lamp-socket [ˈlæmp,sɒkɪt] = **lamp-holder**
Lancastrian [læŋˈkæstriən] **1.** *a* Lankashir va lankashirliklarga oid; **2.** *n* Lankashirda tug'ilgan kishi, lankashirlik
lance [lɑːns] **1.** *n* nayza, nishtar; **2.** *v* nayza sanchmoq
lance-corporal [ˈlɑːnsˈkɔːp(ə)rəl] *n* kichik kapral (*chor armiyasida va ba'zi chet el armiyalarida: kichik boshliqlar yoki askarlar unvon*)
lance-knight [ˈlɑːnsnaɪt] *n* 1) nayzali askar; 2) yollanma askar
lanceolate [ˈlɑːnsiəl(eɪ)t] *a* *bot.* nishtarga o'xshagan, nayzasimon
lancer [ˈlɑːnsə] *n* 1) ulan (*yengil kavaleriya askari*); 2) *tib.* lanset (*dudama, jarrohlar nishtari*)
lance-sergeant [ˈlɑːnsˈsɜːdʒ(ə)nt] *n* kichik serjant
lanacet [ˈlɑːnsɪt] *n* lanset (*dudama, jarrohlar nishtari*)
lancet arch [ˈlɑːnsɪtˈɑːtʃ] *n* *me'mor.* 1) pesh-toq shaklida ishlangan ark; 2) tepasi uchli (*cho'qqili*) darvoza
lancinating [ˈlɑːnsɪneɪtɪŋ] *a* o'tkir, keskir, sanchiq (*og'riq haqida*)
land [lænd] **1.** *n* 1) yer, quruqlik, tuproq; **by** ~ quruqlikdan, quruqlik bilan; **on** ~ quruqlikda; **dry** ~ quruqlik; **travel by** ~ quruqlik bilan (*poyezdda, mashinada*) sayohat qilmoq; **poor** ~ kamhosil tuproq; ~ **rent** yer rentasi; 2) mamlakat, davlat; **2.** *v* quruqlikka chiqmoq; yerga qo'nmoq
land-agent [ˈlænd,eɪdʒ(ə)nt] *n* 1) yer maydonlarini sotish bo'yicha agent; 2) yer xo'jaligining boshqaruvchisi

- landau** ['lændə:] *n* 1) lando (*to'rt kishilik buklama soyabonli arava*); 2) tepa qismi ochiladigan avtomobil
- land-breeze** ['lændbriz] *n* yengil shamol, shabada (*dengiz sohillarida*)
- landed** ['lændɪd] *a* yerga oid, yerli; *a* ~ proprietor yer egasi; *the* ~ interest yer egalarning manfaatlari (qiziqishlari); ~ classes zamindorlar (yer egalari)
- landfall** ['lændfɔ:l] *n* 1) deng. qirg'oqqa chiqish; *to make a* ~ qirg'oqqa yaqinlashmoq; 2) *av.* yerga qo'nish
- landfill** ['lændfɪl] *n* chiqindilarni yerga ko'nish
- land-forces** ['lændfɔ:sɪz] *n pl* quruqlikdagi qo'shinlar
- land-grabber** ['lændgræbə] *n* bironing yerini noqonuniy ravishda *yoki* aldab olib qo'ygan kishi
- landgrave** ['lændgreɪv] *n* *nem.* landgraf (*yer egasi*)
- landholder** ['lændhəʊldə] *n* yer maydonining egasi *yoki* ijarachisi
- land-hunger** ['lændhʌŋgə] *n* yerni sotib olishga intilish
- land-hungry** ['lændhʌŋgrɪ] *a* yersiz, yeri yo'q
- landing** ['lændɪŋ] *n* 1) tushirish, tushirib qo'yish; 2) qo'nish, qo'nish joyi
- landing craft** ['lændɪŋkra:ft] *n* 1) desantchilar kemasi; 2) desantchilarning suzish moslamalari
- landing field** ['lændɪŋfi:ld] *n* 1) aerodrom; 2) qo'nish joyi
- landing gear** ['lændɪŋgə] *n* shassi (*turtli mashina mexanizmlarining asosiy g'ildirak ramasi*)
- landing ground** ['lændɪŋgraʊnd] = **landing-place**
- landing mark** ['lændɪŋmɑ:k] *n* *av.* (*yerga*) qo'nish belgisi (*ishorasi*)
- landing-net** ['lændɪŋnet] *n* baliq tutadigan matrap (*matrap — baliq ushlash uchun uzun tayoq uchiga to'r xaltali chamberak o'rnatilgan asbob*)
- landing-place** ['lændɪŋpleɪs] *n* 1) qo'nish joyi; 2) kema to'xtaydigan joy
- landing stage** ['lændɪŋsteɪdʒ] *n* kemalar to'xtaydigan joy
- landing troops** ['lændɪŋtru:ps] *n pl* desantchi qo'shinlar
- land-jobber** ['lænddʒɒbə] *n* yer maydoni bilan chayqovchilik qiladigan (shaxs)
- landlady** ['lændleɪdɪ] *n* 1) ijaraga uy *yoki* yer beradigan ayol; 2) mehmonxona egasi (*ayol kishi*)
- landless** ['lændləs] *a* 1) yersiz, yeri yo'q; 2) keng, qirg'oqsiz, bepoyon (*dengiz haqida*)
- land-locked** ['lændlɒkt] *a* 1) dengizga chiqa olmaydigan (*mamlakat haqida*); 2) har tomonlama yer bilan o'ralgan (*suv havzasi haqida*); 3) chuchuk suvda yashovchi (*ba-liq haqida*)
- landloper** ['lænd,ləʊpə] = **landlouper**
- landlord** ['lændlɔ:d] *n* (*erkak haqida*) ijaraga beradigan uy egasi; katta yer (mulk) egasi; mehmonxona egasi
- landlordism** ['lændlɔ:dɪz(ə)m] *n* 1) katta yer egalarning mafkuralari (ideologiyalari); 2) katta yer egaligi tuzilmasi
- landlouper** ['lænd,ləʊpə] *n* daydi, darbadar yuradigan kishi
- landlubber** ['lænd,lʌbə] *n* deng. quruqlikda yashovchi kishi; dengizda suzishga odatlanmagan kishi
- landmark** ['lændmɑ:k] *n* 1) biror joyning ko'rinib turgan narsasi, yer usti orientiri; 2) (*ayniqsa, davlat tomonidan qo'riqlanadigan*) tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bino; me'moriy obida; 3) muhim davr, bosqich; keskin o'zgarish payti; 4) chegaralarni belgilovchi belgi (qoziq)
- landmine** ['lændmaɪn] *n* *harb.* fugas (*portlovchi moddaning zaryadi*)
- landocracy** [læn'dɒkrəsi] *n* 1) yer aristokratiyasi; 2) zamindorlar sinfi
- land-office** ['lænd,ɒfɪs] *n* *amer.* yer to'g'risidagi bitimlarni qayd qiladigan davlat idorasi
- land-on** ['lænd,ɒn] *v* *av.* yerga qo'nmoq
- landowner** ['lænd,əʊnə] *n* yer egasi
- landowning** ['lænd,əʊnɪŋ] *n* yerga egalik qilish, zamindorlik
- land power** ['lænd,pəʊə] *n* 1) quruqlikdagi harbiy kuch; 2) kuchli davlat
- landrail** ['lændreɪl] *n* *zool.* tartar (*qush*)
- land-rover** ['lænd,rəʊvə] *n* yengil avtomobil, hamma yerda yura oladigan avtomobil
- landscape** ['lændskeɪp] *n* manzara, peyzaj
- landscape-architecture** ['lændskeɪp'ɑ:kɪtektʃə] *n* manzarali bog'dorchilik
- landscape-gardener** [lændskeɪp'gɑ:d-nə] *n* bog'bon-dekorator (*dekorator — bog'larni bezovchi musavvir*)
- landscape-painter** ['lændskeɪp,peɪntə] *n* tabiat manzarasini tasvirlovchi odam
- landslide** ['lændslɑɪd] *n* 1) o'pirlash, siljish; 2) siyosiy partiyalar orasida ovoz taqsimotining keskin o'zgarishi
- landslip** ['lændslɪp] = **landslide** 1)
- landsmen** ['lændzmən] *n* (*pl* -men [-mən]) 1) quruqlikda yashovchi kishi; 2) tajribasiz dengizchi
- land-surveyor** [lændsə'veɪə] *n* yer o'lchovchi kishi

Landtag [ˈlɑːntɑːɡ] *n nem.* landtag (*Germaniya va boshqa baʼzi davlatlarda mahalliy hukumat*)

land-tax [ˈlændtæks] *n* yer soligʻi

land-tenure [ˈlænd,tɛnjʊə] *n* yerga egalik qilish

land waiter [ˈlænd,wɛɪtə] *n* boʻxona nazoratchisi

landward(s) [ˈlændwəd(z)] *adv* qirgʻoqqa, qirgʻoq tomonga

land-wind [ˈlændwɪnd] = **land-breeze**

lane [leɪn] *n* 1) tor yoʻl, soʻqmoq yoʻl, tor koʻcha; 2) *sport.* yugurish yoʻlakchasi

langsyne [ˈlæŋˈsaɪn] 1. *n shottl.* qadimgi zamon; 2. *adv* qadim zamonda, oʻtmishda

language [ˈlæŋɡwɪdʒ] *n* til; **native** ~ ona tili; ~ **and literature** til va adabiyot; filologiya; **bad** ~ beodob gap, behayo ibora, soʻkinish; behayolik; **the science of** ~ tilshunoslik

languid [ˈlæŋɡwɪd] *a* soʻligan, xumorli, boʻsh, boʻshashgan, sust

languish [ˈlæŋɡwɪʃ] 1. *n* xumorlik, intizorlik, horgʻinlik, majolsizlik; 2. *v* 1) qiynalmoq, azob chekmoq; 2) boʻshashmoq, lanj boʻlmoq

languishing [ˈlæŋɡwɪʃɪŋ] *a* kuchsiz, boʻsh; **a** ~ **look** xumor koʻz bilan qarash; horgʻin nigoh

languor [ˈlæŋɡə] *n* kuchsizlik, zaiflik, hayotda harakat yoʻqligi, sustlik, boʻshashish

languorous [ˈlæŋɡərəs] *a* 1) soʻligan; dim (*atmosfera haqida*); 2) boʻshashgan, susaygan, lanj

laniard [ˈlænjɑːd] = **lanyard**

lanital [ˈlænitəl] *n* sunʻiy jun

lank [læŋk] *a* novcha va oriq; ozgʻin, oriq(roq)

lanky [ˈlæŋki] *a* boʻyi uzun, novcha

lanolin(e) [ˈlænəlɪn] *n* lanolin (*goʻy yungini yuvganda chiqadigan sargʻish moy*)

lansquenet [ˈlænskɪnɛt] *n* 1) landsknext (*oʻrta asrlarda Yevropada: yollanma askar*); 2) landsknext (*qarta oʻyining nomi*)

lantern [ˈlæntən] 1. *n* 1) fonar; fonus (*shishali chiroq*); **a** majlc ~ sehrli fonar; 2) *tex.* tishli gʻildirak; 2. *v* fonus bilan yoritmoq

lanthanum [ˈlæntənəm] *n kim.* lantan (*kimyoviy element*), oq metall

lanyard [ˈlænjəd] *n* tasma, bogʻich, kamar

Laodicean [ˌleɪˈɒdiːˈsiːən] *a* biror narsaga beparvo qaraydigan, loqayd (*diniy va siyosiy masalalarda*)

lap I [læp] *n* 1) (*oʻtirgan odamning*) tizzasi; 2) *sport.* oʻyin partiyasi; raund; 3) yugurish yoʻlagi aylanasi (*yengil atletika*)

lap II [læp] 1. *n* shapillash, shovullash; 2. *v* shapillamoq, urilib sachramoq, chayqalmoq

lap-board [ˈlæpbɔːd] *n* taxta (*tizzaga qoʻyiladigan, stolning oʻrnida ishlatiladigan taxta*)

lap-dog [ˈlæpdɒɡ] *n* kichkina baroq it, uy iti

lapel [ləˈpel] *n* qaytarma yoqa

lapidary [ˈlæpɪd(ə)rɪ] 1. *a* qirralaydigan, tarashlaydigan; 2. *n* toshga rasm soladigan usta

lapidate [ˈlæpɪdeɪt] *v kit.* toshlar bilan urmoq

lapidify [ləˈpɪdɪfaɪ] *v kit.* toshga aylantirmoq

lapis lazuli [ˌlæpɪs ˈlæzjʊli] *n* lojuvard (*bezak buyumlar ishlanadigan koʻk rangli mineral*)

lappet [ˈlæpɪt] *n* tax, qat, burma

Lappish [ˈlæpɪʃ] *a* saamlarga, saam xalqiga oid

lapse [læps] 1. *n* 1) palapartishlik natijasida qilingan xato; 2) ishning teskari ketishi; 3) vaqt oʻtishi; 4) harorat pasayishi, bosimning pasayishi; 2. *v* 1) (*ruhan*) tushmoq, (*toʻgʻri yoʻldan*) ogʻmoq; 2) (*into*) (*biror holatga*) tushmoq; (*biror narsaga*) oʻtmoq; aylanmoq; 3) kuchini yoʻqotmoq; 4) oʻtmoq (*vaqt haqida*)

lapsed [læpst] *a* sobiq, ilgarigi, oʻtmishdagi

lapsus [ˈlæpsəs] *n lot.* dagʻal, qoʻpol xato, yanglish, sahv

laptop [ˈlæptɒp] *n* qoʻlda olib yuradigan kichkina kompyuter

lapwing [ˈlæp,wɪŋ] *n zool.* qizqush (*balıqchilar turkumiga oid bir qush*)

larboard [ˈlɑːbɔːd] *n deng.* kemaning chap yon devori

larcenous [ˈlɑːs(ə)nəs] *a* 1) oʻgʻrilarga oid, 2) oʻgʻrilikda ayblangan

larceny [ˈlɑːs(ə)nɪ] *n* oʻgʻrilik; **petty** ~ mayda oʻgʻrilik

larch [lɑːtʃ] *n bot.* tilogʻoch (*ignabarglilarga mansub daraxt*)

lard [lɑːd] 1. *n* choʻchqa yogʻi; 2. *v* choʻchqa goʻshtini surtmoq

larder [ˈlɑːdə] *n* ombor, omborxonona (*goʻsh va boshqa oziq-ovqatlar uchun*)

lardy [ˈlɑːdi] *a* yogʻi koʻp, seryogʻ, moyli, yogʻli

lares [ˈlɑːrɪːz] *n pl lot.* ruh, arvoq (*qadimgi rimliklarning eʼtiqodiga koʻra, ota-bobolarning barhayot avlodlarga homiylik qiluvchi ruhi*)

large [lɑːdʒ] 1. *a* 1) katta, ulkan, azim, yirik, zoʻr; **on a** ~ **scale** katta hajmda; **a** ~ **dog** katta it; **a** ~ **order** qiyin ish; 2) keng; ~ **views**

- keng dunyoqarash; ~ meal to'kin-sochin ovqat; ~ heart oliyjanoblik, oliyhimmatlik, fe'li kenglik; muruvvat, hikmat, karam; 2. *adv* 1) mufassal, to'la, to'liq; 2) keng, katta; 3) katta-katta qilib
- large-handed** [ˌlɑ:dʒ'hændɪd] *a* 1) qo'llari katta; 2) saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, oliyhimmat, himmatli, hech narsani ayamaydigan
- large-hearted** [ˌlɑ:dʒ'hɑ:rtɪd] *a* muruvvatli, himmatli, oliyhimmat, oliyjanob
- largely** [ˈlɑ:dʒli] *adv* 1) ma'lum (ko'p) darajada; 2) keng ko'lamda
- large-minded** [ˌlɑ:dʒ'maɪndɪd] *a* chidamli; keng fikrli, qarashlari keng bo'lgan
- largeness** [ˈlɑ:dʒnɪs] *n* 1) katta o'lcham; kattalik; 2) keng fikrlilik; 3) muruvvat
- large scale** [ˈlɑ:dʒ'skeɪl] *a* katta ko'lamdagi
- largess(e)** [ˈlɑ:zəs] *n* saxiylik, ochiqqo'llik, oliyhimmatlik, saxovat, xayr-ehson
- lariat** [ˈlæriət] 1. *n* arqon (otni bog'lash uchun); 2. *v* arqon bilan ushlamoq
- lark I** [lɑ:k] *n* zool. to'rg'ay, so'fito'rg'ay
- lark II** [lɑ:k] 1. *n* hazil; what a ~! qanday yaxshi!; 2. *v* hazil qilmoq, hazillashmoq
- larky** [ˈlɑ:kɪ] *a* quvnoq, hazilni yaxshi ko'radigan
- larmier** [ˈlɑ:mjə] *n* me'mor. nov (deraza oldi novi)
- larrikin** [ˈlærikm] *a* dag'al, qo'pol, to'ng, xuligan
- larrup** [ˈlærəp] *v* so'zl. urmoq, yanchmoq, maydalamoq
- larva** [ˈlɑ:və] *n* (pl -vae) lichinka (kapalak qurti va shu kabilarning tuxumidan chiqqan qurti)
- larvae** [ˈlɑ:vi:] *pl of larva*
- larval** [ˈlɑ:v(ə)l] *a* lichinkaga oid; in the ~ stage tuxumdan chiqish arafasida
- larynges** [lə'riŋdʒi:z] *pl of larynx*
- laryngitis** [ˌlæriŋ'dʒaɪtɪs] *n* tib. laringit (hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishi)
- laryngology** [ˌlæriŋ'gɒlədʒɪ] *n* laringologiya (hiqildoq anatomiyasi, fiziologiyasi va kasalliklari haqidagi fan)
- laryngoscope** [lə'riŋgəskəʊp] *n* laringoskop (hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishini tekshiradigan asbob)
- larynx** [ˈlæriŋks] *n* (pl larynges [lə'riŋdʒi:z]) hiqildoq, bo'g'iz
- lascivious** [lə'sɪviəs] *n* hind dengizchisi, matrosi
- lascivious** [lə'sɪviəs] *a* shahvoniy hirsiga berilgan, shahvatparast
- laser** [ˈleɪzə] *n* fiz. lazer (to'plangan nur dastasi manbayi, generatori)
- lash** [læʃ] 1. *v* urmoq, savalamoq, qamchilamoq; 2. *n* 1) o'rma qamchi; 2) kiprik
- lasher** [ˈlæʃə] *n* 1) (biror narsani bog'lash uchun) ip, arqon; 2) to'qilgan sim
- lashing** [ˈlæʃɪŋ] *n* 1) savalash, qamchilash, urish; 2) arqon, ip (bog'lash uchun)
- lash-up** [ˈlæʃʌp] *n* vaqtinchalik moslashish
- lass** [læs] *n* shotl. qizcha, qiz bola, juvon
- lassie** [ˈlæsi] *n* jonginam, jonim, go'zal, jonona (qizlarga va ayollarga murojaat qilganda erkalatib aytiladigan so'z)
- lassitude** [ˈlæsɪtju:d] *n* charchaganlik, toliqqanlik, charchoq, horg'inlik
- lasso** [ˈlæ'su:] 1. *n* (pl -os [-əʊz]) lasso, kama (hayvonlarni tutish uchun tashlanadigan sirtmoqli arqon); 2. *v* arqon bilan tutmoq (ushlamoq)
- last I** [lɑ:st] 1. *v* davom etmoq, cho'zilmok; 2. *a* oxirgi, so'nggi, o'tgan; at ~ nihoyat, natijada; for the ~ time oxirgi marta; ~ name familiya; at the ~ moment eng so'nggi lahzada; ~ week o'tgan haftada; ~ month o'tgan oyda; ~ year o'tgan yilda; ~ Tuesday o'tgan seshanba; ~ night o'tgan tunda; 3. *n* sabr, bardosh, matonat, toqat; 4. *adv* oxirida, hammadan so'ng; come in ~ hammadan keyin kirib kelmoq
- last II** [lɑ:st] *n* qolip, shon (poyabzalda'zlikda)
- lasting** [ˈlɑ:stɪŋ] *a* 1) uzoq davom etgan, doimiy; 2) mustahkam, pishiq; a ~ colour (cloth) mustahkamlangan rang (mato)
- lastly** [ˈlɑ:stli] *adv* nihoyat, axir; oxirgi o'rin-da (ro'yxat va sh. k. da)
- latch** [lætʃ] 1. *n* 1) qulf; 2) tamba; 2. *v* 1) qulflamoq; 2) zanjurlamoq
- latch-key** [ˈlætʃki:] *n* Amerika qulfining kaliti
- late** [leɪt] *a* 1) kechki, oxirgi; to be ~ for ...ga kechikmoq; he was ~ for the train u poyezdga kechikdi; ~r on keyinchalik; in ~ summer yozning oxirida; 2) sobiq; the ~ president sobiq prezident
- lateen** [leɪ'ti:n] *a* uchburchakli; a ~ sail uchburchakli yelkan
- lately** [ˈleɪtli] *adv* yaqinda, keyingi vaqtlarda, oxirgi paytlarda
- latency** [ˈleɪt(ə)nəsi] *n* yashirin holat
- lateness** [ˈleɪtnəs] *n* kechikish, kech qolish
- latent** [ˈleɪt(ə)nɪ] *a* yashirin, maxfiy, yashirin holatda
- later** [ˈleɪtə] *adv* kechroq, keyinroq, sal keyin; ~ on keyinchalik, keyinroq
- lateral** [ˈlæt(ə)rəl] 1. *a* yon tomondagi, yonboshdagi, yondan keladigan; a ~ section ko'ndalang kesim; 2. *n* 1) yon tomon; 2) shox, novda; 3) shoxobcha, tarmoq, ayrilish
- latest** [ˈleɪtɪst] *a* eng so'nggi; eng oxirgi; at the ~ eng kechi bilan

latex [ˈlæteks] *n bot.* sutsimon shira (*kau-chukli o'simliklarda*)
lath [lɑ:θ] *n* planka, uzun taxtacha; **as thin as a ~** tarashadek ozg'in (qotma)
lathe [leɪð] **1.** *n* tokarlik (*metall yoki yog'och yo'nish*) dastgohi; **a ~ tool** tokar keskichisi; **2.** *v* tokarlik dastgohida ishlov bermoq
lathee [lɑ:ˈti:] *n hind.* to'qmoq, tayoq
lather [ˈlɑ:ðə] *n* sovun ko'pigi
lathery [ˈlɑ:ð(ə)rɪ] *a* sovun surtilgan, ko'pirtirilgan
lathi [ˈlɑ:ti] = **lathee**
lathing [ˈlɑ:θɪŋ] *n* tom yopish, suvash va h. k. uchun qator *yoki* katak-katak qilib qoqilgan taxtalar
lathy [ˈlɑ:θɪ] *a* bo'yi uzun; oriq
latibulize [lɑːˈtɪbʊlaɪz] *v* inda (uyada) uyquga ketmoq
Latin [ˈlæɪn] **1.** *n* 1) lotin tili; 2) lotin alifbosi; **2.** *a* lotin...; lotincha
Latinize [ˈlæɪnaɪz] *v* lotinlashtirmoq
latitude [ˈlæɪtɪju:d] *n geogr. astr.* kenglik
latitudinarian [ˌlæɪtɪju:d(ə)nˈe(ə)rɪən] **1.** *a* 1) erkin fikrlaydigan, hurfikrli; 2) chiqishib keta oladigan, sabr-toqat qiladigan, sabr-toqatli; **2.** *n* 1) sabr-toqatli (chiqishib keta-veradigan) odam; 2) keng qarashli odam
latrine [ləˈtri:n] *n* jamoat joyidagi hojatxona
latter [ˈlætə] **1.** *a* 1) yaqinda bo'lgan, yaqindagi; 2) oxirgisi, oxiridagi; **2.** *n* ikkitadan ikkinchisi (oxirgisi, keyingisi)
latter-day [ˈlætədəɪ] *a* 1) zamonaviy, hozirgi; 2) eng yangi
latterly [ˈlætərlɪ] *adv* yaqinda, yaqindagina
lattermost [ˈlætəməʊst] *a* oxirgi, keyingi, so'nggi
lattice [ˈlætɪs] **1.** *n* panjara; **2.** *v* panjara o'rnatmoq
latticed [ˈlætɪstɪd] *a* panjarali, panjarasimon
Latvian [ˈlætvɪən] **1.** *a* Latviyaga va latviyaliklarga oid; **2.** *n* latviyalik ayol *yoki* erkak
laud [lɑ:d] **1.** *n* (*oliy darajadagi*) maqtoq, madh, sano; **2.** *v* maqtamoq, madh etmoq
laudable [ˈlɑ:dəb(ə)] *a* maqtasa bo'ladigan, maqtovga sazovor
laudanum [ˈlɑ:d(ə)nəm] *n* afyun nastoykasi, damlamasi
laudation [lɑ:ˈdeɪʃ(ə)n] *n* maqtoq, tasanno, hamd-u sano, madhiya
laudative [lɑ:ˈdɪtɪv] = **laudatory**
laudatory [ˈlɑ:dət(ə)rɪ] *a* maqtovga oid, maqtovli, maqtalغان, maqtovdan iborat bo'lgan
laugh [lɑ:f] **1.** *n* kulgi, kulish; **to raise a ~** kuldirmoq; **2.** *v* kulmoq; **to ~ at a joke** hazildan kulmoq; **to ~ at ustidan** kulmoq

laughable [ˈlɑ:fəb(ə)] *a* kuldiradigan, kulgili; **~ character** kulgili persona;
laughing [ˈlɑ:fɪŋ] *a* kulgili, kulayotgan, kulgiga to'la
laughing-gas [ˈlɑ:fɪŋgæs] *n kim.* sarxush qiladigan gaz
laughing-stock [ˈlɑ:fɪŋstɒk] *n* kulgi, masxara; **to make a ~ of smb.** kimnidir masxara qilmoq
laughter [ˈlɑ:ftə] *n* kulgi, kulish, qahqaha
launch I [lɑ:ntʃ] **1.** *v* 1) tushirmoq (*suvga*); 2) boshlamoq, yo'fga qo'yimoq; **to ~ a new enterprise** yangi korxonaga ochmoq; 3) uchirmoq, otmoq; **2.** *n* 1) (*kemani*) suvga tushirish; 2) chiqarish; boshlash; 3) uchirish
launch II [lɑ:ntʃ] *n* 1) barkas (*ko'p eshkakli katta qayiq*); 2) kater (*maxsus kichik kema*); **a pleasure ~** sayr qilish qayig'i
launcher [ˈlɑ:ntʃə] *n* (*raketalarni*) uchirish qurilmasi
launching pad [ˈlɑ:ntʃɪŋpæd] = **launching ramp**
launching ramp [ˈlɑ:ntʃɪŋræmp] *n* *harb.* (*raketalarni*) uchirish qurilmasi
launching site [ˈlɑ:ntʃɪŋsaɪt] *n* *harb.* ishga tushirish maydoni
launder [ˈlɑ:ndə] *v* kiyimlarni yuvib dazmollamoq
launderette [lɑ:nˈdret] *n* o'z-o'ziga xizmat qilish, kir yuvish ishxonasi (kirkxonasi)
laundress [ˈlɑ:ndrɪs] *n* kir yuvuvchi ayol
laundromat [ˈlɑ:ndrəmət] *n* *amer.* kir yuvish korxonasi
laundry [ˈlɑ:ndrɪ] *n* kir, kirkxona; **~ soap** kir sovun
laureate [lɑ:reɪt] **1.** *n* laureat; **2.** *a* 1) g'alaba toji bilan taqdirlangan; 2) boshiga dafna yaprog'idan qilingan g'alaba chambari kiydirilgan
laurel [ˈlɔ:rəl] **1.** *n bot.* asl dafna (*daraxti*); **2.** *v* g'alaba toji bilan taqdirlamoq
laurelled [ˈlɔ:rəld] *a* mashhur, atoqli, nomi chiqqan
laurel oak [ˈlɔ:r(ə)l,əʊk] *n* dafna daraxtining to'nkasi
lav [læv] *n* 1) kiyinish xonasi; kiyimxonasi; 2) hojatxona
lava [ˈlɑ:və] *n* lava (*vulqonlardan o'tilib chiqadigan suyuq cho'g' modda*)
lavatory [ˈlævət(ə)rɪ] *n* hojatxona
lave [leɪv] *v* 1) yuvmoq; 2) yuvinmoq, cho'milmoq
lavement [ˈleɪvmənt] *n* *tib.* yuvish, klizma
lavender [ˈlævɪndə] *n bot.* lavanda (*havorang yoki binafsharang gulli, xushbo'y, doim yashil o'simlik*)

lavender-water [lævəndə,wɔ:tə] *n* lavanda suvi

laverock [læv(ə)rək] = **lark I**

lavish [læviʃ] 1. *a* saxiy, qo'li ochiq, hotamtoy, oliyhimmat; 2. *v* saxiy bo'lmoq, saxiylik qilmoq

lavishness [læviʃnəs] *n* 1) saxiy, ochiqqo'lik, qo'li ochiqlik, oliyhimmatlik, hotamtoylik; 2) mo'l-ko'chilik, serobgarchilik, farovonlik

law [lɔ:] *n* qonun, qoida, huquq; **to read** ~ qonunni o'rganmoq; ~ **and order** huquqiy tartib; **to go to** ~ sud jarayonini boshlamoq

law-abiding [lɔ:(r)ə,bɑ:dɪŋ] *a* qonunga bo'ysunuvchi

law-book [lɔ:buk] *n* kodeks (*qonunlar majmuyi*)

law-breaker [lɔ:breɪkə] *n* jinoyatchi, qonunbuzar

law-court [lɔ:kɔ:t] *n* sud

lawful [lɔ:f(ə)l] *a* qonuniy, qonun asosidagi; ~ **authority** qonuniy hokimiyat

lawgiver [lɔ:gɪvə] *n* qonun chiqaruvchi

lawk(s) [lɔ:k(s)] *int so'zl.* nahotki, rostdanmi

lawless [lɔ:ləs] *a* qonunsiz, noqonuniy

law-list [lɔ:lɪst] *n* yillik yuridik ma'lumotnoma (yo'riqnoma)

lawmaker [lɔ:meɪkə] = **lawgiver**

law-making [lɔ:meɪkɪŋ] 1. *n* qonunlar chiqarish; 2. *a* qonun chiqarishga oid

lawn [lɔ:n] *n* kichik o'tzor, maysazor

lawn hockey [lɔ:n,hɒki] *n* chim ustida(gi) xokkey

lawn-mower [lɔ:n,məʊə] *n* o't o'radigan o'roq mashina

lawn party [lɔ:n'pɑ:tɪ] *n* amer. mehmonlarni bog'da kutish

lawn-sprinkler [lɔ:n,sprɪŋklə] *n* maysalarga suv quyadigan mashina

lawn tennis [lɔ:n'tenɪs] *n* sport. chim tennis

lawny [lɔ:nɪ] *a* 1) batistdan tikilgan; 2) yashil o'tlar bilan qoplangan

law-offender [lɔ:ɔ,fendə] = **law-breaker**

law-officer [lɔ:(:),ɔfɪsə] *n* sud idorasi xodimi

lawsuit [lɔ:sju:t] *n* sud jarayoni

law-term [lɔ:tɜ:m] *n* yur. 1) yuridik atama (termin); 2) sud sessiyasining jarayoni

lawyer [lɔ:jə] *n* advokat, yurist, oqlovchi, huquqshunos

lax [læks] *a* kuchsiz, bo'sh, so'lg'in, bo'shshagan

laxative [læksətɪv] 1. *n* surgi dori; 2. *a* ich suradigan; bo'shshatiruvchi

laxity [læksɪtɪ] *n* 1) sustlik, bo'shshaganlik; 2) beparvolik, mas'uliyatsizlik; 3) noaniqlik, noma'lumlik

lay I [leɪ] 1. *v* (**laid**) qo'yimoq, joylamoq; **to** ~ **eggs** tuxum qo'yimoq; **to** ~ **about one** chap va o'ng tomonga zarba bermoq; **to** ~ **aside** (bir chetga) tashlamoq, otmoq, irg'itmoq; **to** ~ **by** keyinga surmoq, cho'zmoq, kechiktirmoq; **to** ~ **down** 1) yotqizib qo'yimoq; 2) (*reja*) tuzmoq; 3) (*bino, kema*) qurmoq, solmoq; poydevor qo'yimoq, asos solmoq; **to** ~ **down the law** qonun o'rnatmoq; **to** ~ **down with** (*nima bilandir*) qoplamoq; **to** ~ **in** g'amlab qo'yimoq, zaxira qilib qo'yimoq, zaxiraga olib qo'yimoq; **to** ~ **off** (*kiyimni*) yechmoq; **to** ~ **on** 1) (*so'liq*) solmoq; 2) (*zarbalar*) bermoq; **to** ~ **over** 1) cho'zilib yotmoq; 2) qoplamoq; 3) qoldirmoq, kechiktirmoq; **to** ~ **up** 1) ko'tarmoq, olib chiqarmoq; 2) vaqtinchalik safdan chiqarmoq; 2. *n* o'rin, joy; joylashish tartibi

lay II [leɪ] *past. of lie II, I*

layabout [leɪəbaʊt] *n* so'zl. bekorchi, yalqov, tanbal

lay-by [leɪbaɪ] *n* yo'l ustidagi avtomobillar to'xtash joyi

lay-days [leɪ,detz] *n* *pl* tij. to'xtash (to'xtab turish) vaqtlari (kunlari)

layer [leɪə] *n* 1) qatlam; 2) bot. o'simliklarning bir novdasini ko'mib yangi tup hosil qilish va shu yo'l bilan hosil qilingan ko'chat

layette [leɪ'et] *n* chaqaloqning kiyim-kechak komplekti; chaqaloqbop kiyim-kechak

lay-figure [leɪ'fɪgə] *n* 1) maneken (kiyimlarni namoyish etish yoki o'lehab ko'rish uchun gavda qolipi); 2) *ko'ch.* quruq gavda (sumbat)

layman [leɪmən] *n* (*pl* -men [-mən]) mutaxassis bo'lmagan kishi

lay-off [leɪ'ɒf] *n* 1) ishlab chiqarishni bir muncha vaqt (biroz) to'xtatib turish; 2) ish yo'qligidan ishchilarni vaqtinchalik ishdan bo'shatish

layout [leɪaʊt] *n* 1) joylashish (o'mashish) tartibi; 2) (*kitob, gazetalarning*) maketi; 3) reja, chizma

lay-over [leɪ'əʊvə] *n* 1) dasturxonning ustiga qoyiladigan salfetka; 2) amer. (yo'lda) to'xtab dam olish

lazaretto [læzə'retəʊ] *n* (*pl* -os [-əʊz]) 1) moxovxona (*moxovlar kasalxonasi*); 2) kasallik tarqalmasligi uchun vaqtincha ajratib qo'yilgan kema yoki bino

laze [leɪz] *v* so'zl. yalqovlik (bekorchilik) qilmoq

laziness [leɪzɪnəs] *n* dangasalik, ishyoqmaslik

lazy [leɪzɪ] *n* dangasa, tanbal, ishyoqmas

lazy-bones ['leɪzɪbəʊnz] *n* so'z. dangasa, tanbal, ishyoqmas, yalqov
lea [li:] *n* she'r. maysazor, o'tloq
leach [li:tʃ] *v* suyuqlikda eritib ajratib olmoq
lead I [led] *n* qo'rg'oshin, qo'lom; **white** ~ qo'rg'oshinli belila, qo'rg'oshin belilasi; **red** ~ surik (*qizg'ish, to'q sariq yoki qizg'ish-jigarrang bo'yoq*)
lead II [li:d] *v* (**led**) 1) rahbarlik qilmoq, boshqarmoq; 2) olib (yetaklab, boshlab) bormoq; **to ~ by the hand** qo'lidan ushlab bormoq; **to ~ nowhere** hech narsaga olib kelmaslik; **to ~ the way o'zi bilan olib** (boshlab) bormoq; 2) ilgari lab ketmoq (*predlog va ravishlar bilan keladi*); **to ~ away** 1) chalg'itmoq, adashtirmoq; 2) ergashtirib ketmoq; **to ~ off** (*muzokara va b. ni*) boshlanmoq, ochmoq; **to ~ out of** (biror tomonga) qaragan bo'lmoq; tutashmoq (*xona haqida*); **to ~ to** nimagadir yoki kimgadir olib bormoq; **to ~ up (to)** 1) biror yoqqa olib bormoq; 2) biror narsaga olib bormoq; biror narsaga sabab bo'lmoq; 3) asta-sekin tayyorlamoq
leaded ['ledɪd] *a* qo'rg'oshinlangan
leaden ['ledn] *a* qo'rg'oshinga oid
leader ['li:də] *n* yetakchi, rahbar, boshliq
leaderette [li:də'ret] *n* gazetadagi kichkina maqola
leadership ['li:dəʃɪp] *n* rahbarlik, yetakchilik
leader-writer ['li:də,raɪtə] *n* bosh maqola muallifi (*gazeta, jurnalda*)
lead glance ['led'glɑ:ns] *n* min. yaltiroq qo'rg'oshintosh, qo'rg'oshin rudasi
lead-in ['li:dɪn] *n* kiritilish (*o'rnatish*) o'rni
leading ['li:dɪŋ] *a* bosh, yetakchi, ilg'or, oldindagi; **a ~ article** bosh maqola; **a ~ case** *yur. sud* pretsedenti; **a ~ lady** bosh rolni ijro etadigan aktrisa; **a ~ man** bosh rolni ijro etadigan aktyor; **a ~ writer** mashhur (buyuk, atoqli) yozuvchi
leading-strings ['li:dɪŋstrɪŋz] *n* pl (*bolani tutib turish uchun xizmat qiladigan*) qayish, tasma
lead line ['ledlaɪn] *n* deng. lotlin (*lot bog'lanadigan arqon, tros*)
lead-lotion [led'leʊʃ(ə)n] *n* qo'rg'oshinli malhan
lead-off ['li:d'ɒf] *a* bosh, boshi, uchi, boshlanishi
lead pencil [led'pens(ə)] *n* grafit qalam
leadsman ['ledzmen] *n* (*pl -men [-mən]*) deng. dengiz chuqurfigini o'chaydigan kishi
lead time ['li:dtɪm] *n* 1) yangi mahsulotni o'zlashtirish vaqti; 2) ushlanish, cho'zilish
lead-up ['li:dʌp] *n* 1) tayyorgarlik; 2) muqaddima

leaf [li:f] 1. *n* (*pl leaves*) 1) barg, yaproq; **the fall of the ~** bargning to'kilishi; **a ~ bridge** ko'tariladigan ko'priq; **to turn over a new ~** yangi hayotni boshlamoq; **to come into ~** barglar bilan qoplamoq; 2) varaq; 2. *v* 1) varaqlamoq; 2) barglari to'kilmoq
leafage ['li:fɪdʒ] *n* barglar, yaproqlar
leaflet ['li:fli:t] *n* 1) bot. yaproqcha; 2) varaqa
leafstalk ['li:fstɔ:k] *n* bot. barg qalamchasi, yaproq bandi
leafy ['li:fi] *a* barglar bilan qoplangan, bargli; **a ~ forest** bargli o'rmon; **~ shade** barg soyasi
league [li:g] 1. *n* 1) ittifoq, hamdo'stlik, birlashma; 2) liga; 2. *v* birlashmoq
leaguer I ['li:gə] *n* birlashma (ittifoq) a'zosi
leaguer II ['li:gə] *n* qurshovdagi lager
leak [li:k] 1. *n* o'tib ketish, oqish; 2. *v* oqmoq, o'tib ketmoq; **to ~ out** 1) sizib chiqmoq, sizib o'tmoq; 2) ko'ch. ko'rinmoq; ma'lum bo'lmoq (*sir, yangilik haqida*)
leakage ['li:kɪdʒ] *n* oqish, chakka (*tomdan o'tadigan chakka*)
leaky ['li:ki] *a* teshilgan; **a ~ vessel** ko'ch. sirni ochib (oshkor etib) qo'yadigan odam
leal [li:l] *a* shohl. to'g'ri, sodiq
lean [li:n] 1. *a* oriq, ozg'in, kamchil, siyrak; ~ **years** hosilsiz yillar, kambosil yillar; 2. *n* yog'siz go'sht; 3. *v* (**leaned, leant**) 1) og'moq, qayrilmoq; **to ~ to the right** o'ngga og'moq; 2) suyanmoq; **to ~ against something** biror narsaga (nimagadir) suyanmoq; **to ~ against a wall** devorga suyanmoq; **to ~ back** orqaga tashlamoq; **to ~ forward** oldinga og'moq
leaning ['li:nɪŋ] *n* mayl, havas, qiziqish
leant [lent] *past., p. p. of lean 3
lean-to ['li:nto] *n* bostirma, ayvon
leap [li:p] 1. *n* 1) sakrash, irg'ish; **to take a ~** sakramoq; 2) to'siq, g'ov; 2. *v* (**leapt, leaped**) sakramoq
leap-day [li:pdeɪ] *n* 29-fevral (*kabisa kuni*)
leap-frog ['li:pfrɒg] 1. *n* tartibsizlik, beqarorlik; 2. *v* sakrab o'tmoq; hatlamoq
leapt [lept] *past., p. p. of leap 2
leap-year ['li:pjɪə] *n* kabisa yili
learn [lɜ:n] *v* (**learnt, learned**) 1) o'qimoq, saboq olmoq; o'rganmoq; **to ~ English** ingliz tilini o'rganmoq; **to ~ by heart** yodlamoq; **to ~ by rote** tushunmasdan (ko'r-ko'rona) yodlamoq; 2) bilib olmoq
learned [lɜ:nd] 1. *past., p. p. of learn*; 2. *a* 1) o'rgatilgan; 2) chuqur bilimga ega, olim; 3) ilmiy
learner ['lɜ:nə] *n* o'rganuvchi, o'quvchi, talaba; **an advanced ~** yaxshi tayyorlangan o'quvchi**

learning [ˈlɜːnɪŋ] *n* o'qish, ta'lim olish; **the ~ of languages** tillarni o'rganish
learnt [lɜːnt] *past., p. p. of learn*
lease I [li:s] **1.** *n* ijara, kira; **to grant smth. by ~** ijaraga biror narsani bermoc; **2.** *v* ijaraga bermoc
lease II [li:s] *n to 'q.* ip taqsimlaydigan asbob
leasehold [ˈli:shəʊld] *n* 1) ijara, kiradan foydalanish; 2) ijaraga olingan narsa
leaseholder [ˈli:s,həʊldə] *n* ijaraga olgan odam, ijarachi
leash [li:f] *n* it arqoni, tasmasi
least [li:st] *a* eng kam, oz; **the ~ chance** eng oz imkoniyat; **to ~ for** hech bo'lmaganda, kamida
leastways [ˈli:stweɪz] *adv* eng kamida, oz (kam) deganda; ozi bilan, hech bo'lmaganda, loqaqal, juda bo'lmasa
leastwise [ˈli:stweɪz] = **leastways**
leather [ˈleðə] *n* pishirilgan teri, charm (*charm-dan qilingan narsalar: koptok, qayish*)
leather-back [ˈleðəbæk] *n zool.* terisi qalin toshbaqa
leathercoat [ˈleðəkəʊt] *n* po'sti qattiq olma
leatherette [ˈleðəˈret] *n* sun'iy yo'l bilan qilingan charm
leather-head [ˈleðəhed] *n so'zl.* to'nka, ahmoq, galvars
leathern [ˈleðən] *a* charmdan (teridan) qilingan
leather-neck [ˈleðənek] *n so'zl.* dengiz piyoda qo'shinlarining askari
leathery [ˈleð(ə)rɪ] *a* dag'al, charmgaga o'xshagan; **a ~ beefsteak** tagchamga o'xshagan qattiq bifshteks
leave [li:v] **1.** *v* (left) jo'nab ketmoc; **to ~ for ...ga** jo'namoc; **to ~ with ...ga, ...da** qoldirmoc; **to ~ alone** yolg'iz qoldirmoc; tinch qo'ymoc; **to ~ hold of** qo'ldan chiqarib (qo'yib yoki tashlab) yubormoc; **2.** *bermoc, qoldirmoc, taqdim etmoc; (merosni) vasiyat qilib qoldirmoc; ~ it to me* buni menga qoldirib keting; **to ~ behind** qoldirmoc, (esidan chiqarib tashlab) ketmoc; **to ~ off** nimadir qilishni to'xtatmoc; odatini tashlamoc; **to ~ out** qo'ldan chiqarib yubormoc, boy bermoc; **to ~ over** 1) bir chetga olib qo'ymoc; 2) kechiktirmoc, keyinga surmoc; **2.** *n* 1) ijozat, ruxsat; 2) mehnat ta'tili; **on ~** mehnat ta'tilida
leaved [li:vd] *a* barglar bilan qoplangan
-leaved [-li:vd] *nurakkab so'zlarda qandaydir bargli degan mazmunni beradi; a large-- tree* katta bargli daraxt
leaven [ˈlev(ə)n] *n* xamirturush
leaves [li:vz] *pl of leaf* **1**
leave-taking [ˈli:v,tetkɪŋ] *n* xayrlashish

leavings [ˈli:vɪŋz] *n pl* qoldiq, chiqit, chiqindi
Lebanese [ˈleɪbəˈni:z] **1.** *a* Livanga va livanliklarga oid; **2.** *n* livanlik erkak yoki ayol; **the ~** livanliklar
lecher [ˈletʃə] *n* buzuc odam, suyuq-oyuc
lecherous [ˈletʃ(ə)rəs] *a* buzuc, axloqsiz, suyuqoyuc
lechery [ˈletʃəri] *n* fohisha, fohishabozlik
lecithin(e) [ˈlesiθ(a)ɪn] *n kim.* letsitin
lectern [ˈlektən] *n* qiya stol (*cherkovda*)
lection [ˈlektʃ(ə)n] *n* 1) leksiya, ma'ruza; **2)** o'qish; **3)** matn varianti (*adabiy asarning boshqasidan birmuncha farq qiladigan biror qismi*)
lector [ˈlektə:] *n* 1) ovoz chiqarib o'qiydigan kishi; **2)** lektor, ma'ruzachi
lecture [ˈlektʃə] **1.** *n* leksiya, ma'ruza; **at the ~** leksiyada; **2.** *v* leksiya (ma'ruza) o'qimoc
lecturer [ˈlektʃ(ə)rə] *n* ma'ruzachi
lectureship [ˈlektʃəʃɪp] *a* lektorlik, leksiya o'qish
led [led] *past., p. p. of lead*
ledge [ledʒ] *n* planka, uzun taxtacha
ledger [ˈledʒə] *n hisob.* katta daftar
ledger-bait [ˈledʒəbeɪt] *n yem, xo'rak* (*qarmoqqa, qopqonga qo'yilgan yemish*)
lee [li:] **1.** *n* himoya, to'siq, g'ov; **under the ~ of something** nimaningdir himoyasida; **2.** *a* shamolga teskari, shamoldan panada; **~ side** kemanding shamolga teskari bo'lgan yon devori (borti); **~ shore** shamolga teskari bo'lgan qirg'oq
leech [li:tʃ] **1.** *n zool.* zuluk; **2.** *v* zuluk qo'yimoc
leek [li:k] *n* ko'k piyoz; **wild ~** yovvoyi sarimsoc piyoz
leer [liə] **1.** *n* ko'z qiri bilan qarash; **2.** *v* ayyorlarcha qaramoc, ko'z qiri bilan qaramoc
leery [ˈli(ə)rɪ] *a* quv, ayyor, mug'ambir
lees [li:z] *n* quyqa, qoldiq, cho'kindi
leeward [ˈli:wəd] **1.** *n* shamolga teskari tomon; **2.** *a* shamolga teskari; **3.** *adv* shamolga teskari tomonga
leeway [ˈli:wei] *n so'zl.* (*vaqt, joy, pul va sh. k.*) zapasi, ehtiyot uchun olib qo'yilgan qismi
left I [left] *a* chap, so'l; **to the ~** chapga; **on the ~ hand side** chap qo'l tarafda (tomonda)
left II [left] *past., p. p. of leave* **1**
left-hand [ˈleftˈhænd] *a* 1) chap, so'l, chap tomondagi; **a ~ side** chap tomon; **2)** chap qo'l bilan bajarilgan; **a ~ blow** chap qo'l bilan berilgan zarba
left-handed [ˈleftˈhændɪd] *a* chapaqay, chap qo'l bilan qilingan; **a ~ person** chapaqay odam

- left-hander** [ˈleft ˈhændə] *n* 1) chapaqay; 2) chapaqay bokschi
- leftist** [ˈleftɪst] *n* soʻl partiya aʼzosi
- left luggage office** [ˈleft ˈlɑːɡɪdʒ,ɒfɪs] *n* *tem.* y. omonat saqlash kamerasi, omonatxona
- leftmost** [ˈleftmɔːst] *a* chap tomondan oxirgisi
- left-over** [ˈleft,əʊvə] *n* qoldiq, sarqit, qolgan ovqat
- leftward(s)** [ˈleftwəd(z)] *adv* chap tomondan, chap tomonga
- left wing** [ˈleft ˈwɪŋ] *n* 1) siyosiy partiyaning chap qanoti; 2) *sport.* jamoaning chap qanoti
- leg** [leg] **1.** *n* 1) oyoq; 2) boldir; 3) yasama oyoq; **a wooden** ~ yogʻoch oyoq; **2.** *v* 1) yurmoq; 2) (*oyoq bilan*) turtmoq; 3) oyoqqa zarba bermoq
- legacy** [ˈlegəsi] *n* meros; **to leave a** ~ meros qoldirmoq
- legal** [ˈliːg(ə)l] *a* yuridik, huquqiy, qonuniy; **a** ~ **aid bureau** yuridik maslahat; ~ **profession** yuristik kasbi
- legalist** [ˈliːgəlist] *n* qonunshunos
- legality** [ˈliːgəliːti] *n* qonuniylik, qonunga asoslanganlik
- legally** [ˈliːg(ə)li] *adv* qonuniy ravishda, qonunga asoslanib
- legate I** [ˈlegɪt] *n* Rim papasining diplomatik vakili
- legate II** [ˈliːgət] *v* vasiyat qilmoq
- legatee** [ˈlegɪˈtiː] *n* merosxoʻr, voris
- legation** [ˈliːgɛɪʃ(ə)n] *n* diplomatik vakolatxona
- legato** [leˈgɑːtə] *adv* *mus.* legato (*musiq*a asarlarini ijro etishda bir tovushdan ikkinchi tovushga toʻxtovsiz va silliq oʻtish)
- leg-bail** [ˈlegbeɪl] *n* soʻzl. qochish, qochib ketish
- legend** [ˈledʒ(ə)nd] *n* afsona, rivoyat
- legendary** [ˈledʒ(ə)nd(ə)rɪ] **1.** *n* 1) afsonalar toʻplami; 2) afsonalarni toʻplovchi kishi; **2.** *a* afsonaviy; ~ **heroes** afsonaviy qahramonlar
- legerdemain** [ˌledʒədəˈmeɪn] *n* 1) qoʻlning epchil (chaqqon, mohirligi); firibgarlik; nayrangbozlik; 2) ustalik bilan qilingan hiyla (nayrang, firib)
- leggings** [ˈlegɪŋz] *n* issiq paypoq
- leggy** [ˈlegɪ] *a* oyoqlari uzun, uzun oyoqli
- leghorn** [ˈleghɔːn] *n* 1) italyan yumshoq (mayin) poxoli; (*shuningdek*) poxol shlapa; 2) leggorn (*sertuxum oq tovug*)
- legibility** [ˌledʒəˈbɪləti] *n* aniqlik, tushunarlik
- legible** [ˈledʒəb(ə)l] *a* tushunarli, aniq
- legion** [ˈliːdʒ(ə)n] *a* 1) legion (*Qadimgi Rimda*; yirik askariy oʻtradi); 2) son-sanoqsiz, behisob
- legionary** [ˈliːdʒən(ə)rɪ] **1.** *a* legionerga oid; legioner(lar)...; **2.** *n* legioner, legion askari
- legionnaire** [ˌliːdʒəˈneə] *n* legioner, legion askari
- legislate** [ˈledʒɪsleɪt] **1.** *v* qonun ishlab chiqarmoq, qonun tuzmoq; **2.** *n* qonun tuzish
- legislation** [ˌledʒɪˈsleɪʃ(ə)n] *n* 1) qonunlar tuzish; 2) qonunlar; **labour** ~ mehnat qonunlari
- legislative** [ˈledʒɪslətɪv] *a* qonun chiqaruvchi organlar
- legislator** [ˈledʒɪsleɪtə] *n* qonun chiqaruvchi organ yoki kishi
- legislature** [ˈledʒɪsleɪtʃə] *n* 1) huquqshunos; 2) qonun chiqaruvchi hokimiyat
- legist** [ˈliːdʒɪst] *n* yurist, huquqshunos
- legitimacy** [ˈliːdʒɪtɪməsi] *n* qonuniylik, qonunga muvofiqlik
- legitimate** **1.** *a* [ˈliːdʒɪtɪmət] qonuniy, haqli; **a** ~ **child** qonuniy tugʻilgan bola; **2.** *v* [ˈliːdʒɪtɪmeɪt] qonunlashtirmoq, qonuniy deb bilmok (tan olmoq)
- legitimation** [ˌliːdʒɪtɪˈmeɪʃ(ə)n] *n* 1) qonunlashtirish, rasmiylashtirish; 2) (*nikohsiz tugʻilgan bolani*) oʻgʻil qilib olish, oʻgʻillikka qabul qilish
- legless** [ˈlegləs] *a* oyoqsiz, oyogʻi yoʻq
- legman** [ˈlegmæn] *n* (*pl* -**men** [-mən]) mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turadigan muxbir*)
- leg-pull** [ˈlegpʊl] *n* soʻzl. oʻynash, oʻyin qilish; hazil
- leg-puller** [ˈlegpʊlə] *n* *amer.* soʻzl. siyosiy fitnachi odam
- legume** [ˈlegjuːm] *n* *bot.* loviya (*dukkagi va doni*)
- leguminous** [leˈgjuːmɪnəs] *a* *bot.* loviyaga oid; loviyali
- leisure** [ˈleɪzə] *n* dam, hordiq, boʻsh vaqt; **at** ~ **boʻsh** (ishdan xoli) vaqtda, bekorchilikda; **to be at** ~ **boʻsh** boʻlmoq
- leisured** [ˈleɪzəd] *a* 1) boʻsh, bekor, ishdan xoli; 2) bekorchi, ishlamaydigan
- leisurely** [ˈleɪzəli] *a* shoshilmay, bemaolol, xotirjam
- leit-motif** [ˈlaɪtməʊtɪːf] *n* *mus.* leytmotiv (*musiq*a asarida boshdan oxir takrorlanuvchi asosiy kuy)
- lemming** [ˈlemɪŋ] *n* *zool.* lemming (*kemiruvchilarga mansub hayvon*)
- lemon** [ˈlemən] *n* *bot.* limon
- lemonade** [ˌleməˈneɪd] *n* limonad (*ichimlik*)
- lemon-drop** [ˌleməndrɒp] *n* limondan qilingan obakidandon (*konfet*)
- lemon squash** [ˌlemən ˈskwɒʃ] *n* limon suvi aralashirilgan sodali suv (*sunʼiy mineralli suv*)

- lemong** ['lemɒŋ] *a* limonga oid; limon...
- lemur** ['li:mə] *n* *zool.* lemur (*yarim maymun*)
- lend** [lend] *v* (**lent**) qarzga bermoq, vaqtinchalikka berib turmoq; **to ~ money to smb.** kimgadir pul qarz bermoq
- lender** ['lendə] *n* qarz beruvchi (*bergan*) kishi
- lending library** ['lendiŋ,laɪbr(ə)rɪ] *n* kitoblarni uyga berib yuboradigan kutubxona
- length** [leŋθ] *n* uzunlik; **the ~ of the day** kunning uzunligi
- lengthen** ['leŋθ(ə)n] *v* 1) uzaytirmoq, cho'zmoq; 2) cho'zilmog, uzayib qolmoq; uzaytirilmoq
- lengthways** ['leŋθweɪz] *adv* uzunasiga, bo'y-lamasiga, bo'yiga
- lengthy** ['leŋθɪ] *a* juda uzun, uzoq
- lenience** ['li:njəns] *n* yengillik, ko'ngilchanlik
- leniency** ['li:njənsɪ] = **lenience**
- lenient** ['li:njənt] *a* yengil, bo'sh, ko'ngli bo'sh; marhamatli, iltifotli
- lenitive** ['lentɪv] 1. *a* *fib.* yumshatadigan, yumshatuvchi; 2. *n* yumshatadigan, tinchlantiradigan dori
- lenity** ['lenɪtɪ] *n* 1) rahm, rahmdillik; 2) yumshoqlik
- lens** [lenz] *n* (*pl* -es [-ɪz]) linza, optik oyna; lupa
- lent** [lent] *past., p. p. of* lend
- lenten** ['lent(ə)n] *a* (*taom haqida*) yovg'on, go'shtsiz, sutsiz (*sabzavot va baliqdan qilingan*)
- lenticular** [len'tɪkjulə] *a* 1) *opt.* ikkiyoqlama qabariq; linzasimon; linza shaklidagi; 2) *anat.* ko'z gavhariga oid
- lentil** ['lentl] *n* *bot.* yasmiq (*o'simlik*)
- Leo** ['li:əu] *n* arslon burji
- leonine** ['li:ənəm] *a* sherga (*arslonga*) oid
- leopard** ['lepəd] *n* *zool.* qoplon
- leopardess** ['lepədəs] *n* qoplonning urg'ochisi
- leotard** ['li:ətə:d] *n* triko (*sportchilar kiyimi*)
- leper** ['lepə] *n* moxov odam
- leporine** ['lepəram] *a* *zool.* quyonga oid; quyon
- leprechaun** ['leprəkə:n] *n* elf (*ruh, pari kabi afsonaviy maxluq*)
- leprosy** ['leprəsi] *n* moxov (*kasallik*)
- leprous** ['leprəs] *a* 1) moxovga oid; moxov...; 2) moxov kasalligiga xos bo'lgan
- lese-majesty** [leɪz'mædʒɪstɪ] *n* davlatga xoinlik qilish
- lesion** ['li:z(ə)n] *n* zararlanish, lat yeyish, shikastlanish
- less** [les] *a* (*little ning qiyosiy darajasi*) kichikroq, kamroq, ozgina, kam; **to drink to the ~** so'nggi tomchisigacha ichib tugatmoq
- lessee** [le'si:] *n* ijaraga olgan (*o'tirgan*) odam, ijarachi
- lessen** ['les(ə)n] *v* kamaymoq, ozaymoq; kamaytirmoq, ozaytirmoq; **to ~ speed** tezlikni kamaytirmoq; **to ~ the hours of work** ish kunini qisqartirmoq
- lesser** ['lesə] *a* kamroq, ozroq, kichkina, oz, kam
- lesson** ['les(ə)n] *n* dars; **to give ~s in Uzbek** o'zbek tilidan dars bermoq; **at the end of the ~** darsning oxirida; **at the ~** darsda; **the ~ is over** dars tugadi
- lessor** ['lesə:] *n* ijaraga beruvchi kishi
- lest** [lest] *conj* bo'lmasligi (*qilmasligi*) uchun
- let** [let] *v* (**let**) ruxsat bermoq; ijozat bermoq; qo'yib yubormoq
- letdown** ['let'daʊn] *n* 1) ko'ngil qolish (*so-vish*), ixlosi qaytish; umidsizlik; umidi puchga chiqish; 2) yomon ahvolga tushish; yomonlashish, battar bo'lish
- lethal** ['li:θ(ə)] *a* o'ldiradigan, halokatli
- lethargic** [lə'thɑ:dʒɪk] *a* lanj, bo'shshangan
- lethargy** ['leθədʒɪ] *n* 1) uyqu (*uzoq uxlash*) kasalligi; 2) lanjlik, sustlik
- Lethe** ['li:θɪ] *n* *yur. mif.* Leta (*yer ostidagi unutilish daryosi*)
- lethiferous** [lə'tɪf(ə)rəs] *a* o'ldiradigan, ajal keltiradigan, qirg'in qiladigan; o'limga, halokatga olib boradigan, halokatli
- let-off** ['let'ɒf] *n* 1) kechirish, avf etish, gunohidan o'tish, kechib yuborish; 2) belgilangan jazodan ozod etish
- Lett** [let] *n* 1) latish; latish ayol; 2) latish tili
- letter** ['letə] *n* 1) xat, noma, maktub; **in a ~** xatda; 2) harf; **in block ~s** bosh harflar bilan
- letter-box** ['letəbɒks] *n* pochta qutisi
- lettered** ['letəd] *a* 1) ko'p o'qigan, o'qimishli; 2) odobli, tarbiyali
- letter-foundry** ['letə,faʊndrɪ] *n* *poligr.* harf quyadigan joy (*ishxona, sex*)
- lettering** ['let(ə)rɪŋ] *n* 1) harflar bilan yozish; 2) ustiga yozilgan xat, yozuv
- letterless** ['letələs] *a* ilmsiz, bilimsiz, o'qimagan, omi, savodsiz, o'qish-yozishni bilmaydigan
- letter-paper** ['letə,peɪpə] *n* pochta qog'oz
- letter-perfect** [letə'pɜ:fɪkt] *a* *teatr.* o'zining rolini puxta biladigan
- letterpress** ['letəpres] *n* kitobdagi matn
- letter-weight** ['letəweɪt] *n* qog'oz bostirgich, qog'oz bostirib qo'yiladigan narsa
- Lettish** ['letɪʃ] 1. *a* latishlarga oid; latish(lar)...; 2. *n* latish tili

lettuce [ˈletɪs] *n bot.* salat, koku (*ko'kat o't-lardan bir turi*)

letup [ˈletʌp] *n so'zl.* 1) kuch-quvvatdan qolish, zaiflashish, darmonsizlanish, bolsizlanish, holdan toyish, susayish; 2) to'xtatish, tugatish, to'xtash, tugash; 3) birmuncha vaqt to'xtatish, to'xtatib qolish, to'xtatib turish; biroz to'xtash, to'xtalish, to'xtab turish

leucocyte [ˈl(j)u:kəsaɪt] *n fiz.* oqqon tanachalari

leuk(a)emia [ˈl(j)u:'ki:mɪə] *n tib.* oqqon kasalligi

lev [leʃ] *n lev* (*Bolgarivada: pul birligi*)

levee I [ˈlevi] *n* kemalar to'xtaydigan joy

levee II [ˈlevi] *n* 1) (*davlat boshlig'ining*) qabuli; 2) (*mehmonlar*) yig'ilishi

level [ˈlev(ə)l] *n* bosqich, daraja

levelcrossing [ˌlev(ə)lˈkrɒsɪŋ] *n* temir yo'l kesib o'tiladigan joy

level-headed [ˌlev(ə)lˈhedɪd] *a* og'ir, vazmin, bosiq, fe'li yaxshi

leveller [ˈlev(ə)lə] *n* tenglik uchun kurashuvchi odam

lever [ˈli:və] *n* 1) dastak, pishang; 2) vosita; kalit; **a control** - boshqaruv dastagi; **a starting** - ishga soladigan dastak (pishang)

leverage [ˈli:v(ə)rɪdʒ] *n* pishangning harakati; yuqoriga ko'taruvchi kuch

leveret [ˈlev(ə)rɪt] *n* quyon bolasi

leviathan [ˈli:vəθ(ə)n] *n* juda katta, bahaybat narsa

levigate [ˈlevɪgeɪt] *v* shafqatsizlik bilan jazolamoq, kulini ko'kka sovurmoq

levitate [ˈlevɪteɪt] *v* ko'tarilmoq, ko'tarmoq

levity [ˈlevɪtɪ] *n* yengiltaklik, yuzakilik

levy [ˈlevɪ] **I** *n* (*solliqni*) olish, yig'ish, undirish; **2** *v* (*solliq va sh. k.*) olmoq, yig'moq, undirmoq

lewd [lu:d] *a* shahvoniy; suq

lewis [ˈlu:ɪs] *n tex.* anker bolt

lewisite [ˈlu:ɪsaɪt] *n kim.* lyuizit (*zaharli modda*)

lexical [ˈleksɪk(ə)l] *a* leksikaga (so'z boyligiga) oid; lug'aviy

lexicographer [ˌleksɪˈkɒgrəfə] *n* leksikograf, lug'atshunos, lug'atchi

lexicography [ˌleksɪˈkɒgrəfi] *n* leksikografiya, lug'atshunoslik, lug'atchilik

lexicology [ˌleksɪˈkɒlədʒɪ] *n* leksikologiya

lexicon [ˈleksɪkən] *n* lug'at

liability [ˌlaɪəˈbɪlɪtɪ] *n* majburiyat, javobgarlik, mas'uliyat

liable [ˌlaɪəb(ə)l] *a* 1) ehtimol, bo'lishi mumkin bo'lgan; 2) duchor, giriftor; 3) javobgar, mas'ul

liaise [li'eɪz] *v* aloqani kanda qilmay xat yozishib turmoq

liar [ˈlaɪə] *a* aldoqchi, yolg'onchi

libel [ˈlaɪb(ə)l] **I** *n* tuhmat, bo'hton; **2** *v* tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq

liberal [ˈlɪb(ə)rəl] *a* 1) hur (erkin) fikrlovchi; 2) bo'sh, ko'ngilchan; 3) saxiy, saxovatli; 4) gumanitar; ~ arts gumanitar fanlar

liberalism [ˈlɪb(ə)rəlɪz(ə)m] *n* ko'ngilchanlik

liberate [ˈlɪbəreɪt] *n* ozod qilmoq; **to** ~ slaves qullarni ozod qilmoq

liberation [ˌlɪb(ə)ˈreɪʃ(ə)n] *n* ozodlik, ozod qilish

liberator [ˈlɪb(ə)reɪtə] *n* ozod qiluvchi, xaloskor

-mannered [-mæɪnəd] murakkab so'zlarda u yoki bu qiliq, odatga, ega ekanligini bildiradi: *masalan, well~* yaxshi odatli; *ill~* yomon odatli

mannerism [ˌmæɪnəɪz(ə)m] *n* sulukat, qiliq, odat, xulq-atvor

mannerist [ˌmæɪnəɪst] *n* taqlidchi

mannerless [ˌmæɪnələs] *a* qo'pol muomalali; tarbiyasiz, yomon tarbiya ko'rgan

mannerliness [ˌmæɪnəlɪnəs] *n* 1) muloyimlik, xushmuomalalik; 2) yaxshi tarbiya ko'rganlik

mannerly [ˌmæɪnəli] *a* 1) muloyim, silliq, xushmuomala; 2) tarbiyali; yaxshi tarbiya ko'rgan

- manning** [ˈmæniŋ] *attr.* toʻldirib qoʻyilgan; but qilib qoʻymoq
- mannish** [ˈmæniʃ] *a* erkaklarga oʻxshagan (*ayol haqida*)
- manoeuvrability** [məˌnuːv(ə)rəˈbɪlɪti] *n* *harb.* harakatchanlik, chaqqonlik
- manoeuvre** [məˈnuːvə] *n* 1) manyovra (*harbiy harakatlari*); 2) hiyla, nayrang, makr
- man-of-war** [ˌmænɒvˈwɔː] *n* (*pl* **men-** [ˌmen-]) harbiy kema; ~s **man** harbiy dengizchi
- manometer** [ˌmænɒˈmɪtə] *n* manometr (*su-yuqlik va gazlar bosimini oʻlchaydigan asbob*)
- manor** [ˈmænə] *n* feodalning yer mulki
- manor-house** [ˌmænəˈhaʊs] *n* feodalning uyi
- manorial** [ˌmænəˈrɪəl] *a* feodalning mulkiga oid
- manpower** [ˌmænˈpaʊə] *n* 1) ishchi kuchi; 2) shaxsiy tarkib; inson resurslari *yoki* zahiralari
- mansard** [ˈmænsɑːd] *n* *me'mor.* qiya shipli boloxona
- manse** [ˈmæns] *n* (*shotlandiyalik*) protestant mazhabidagi ruhoniyning uyi
- mansion** [ˈmæns(ə)n] *n* katta uy, saroy, dargoh
- mansion-house** [ˌmæns(ə)nˈhaʊs] *n* 1) katta yer egasi (pomeshik)ning uyi; 2) rasmiy qarorgoh; 3) *amer.* katta bino
- man-size(d)** [ˌmænsaɪz(d)] *a* 1) voyaga yetgan kishilar uchun, katta; 2) ogʻir, qiyin, mushkul
- manslaughter** [ˌmænsˌlɑːtə] *n* qotillik, odam oʻldirish
- mantel** [ˈmæntl] *n* *tex.* turli mexanizmlarning ustini oʻrab turuvchi qoplamasi
- mantel-board** [ˌmæntlˈbɔːd] *n* kamin ustidagi taxta tokcha
- mantelet** [ˈmæntlɪt] *n* mantilya (*ispan ayollarining yelkaga tashlab yuriladigan toʻr roʻmol*)
- mantelpiece** [ˌmæntlˈpiːs] *n* oʻchoqsimon uy pechkasining qoplami
- mantelshelf** [ˌmæntlˈʃelf] *n* kamin taxta tokchasi
- mantes** [ˈmæntɪz] *pl* of **mantis**
- mantis** [ˈmæntɪs] *n* (*pl* **-tes** [-tɪz]) *ent.* beshiktartvatar (*hasharot*)
- mantle** [ˈmæntl] *n* 1) yelkaga tashlanadigan yengsiz kiyim; 2) qoplama jild
- mantlet** [ˈmæntlɪt] = **mantelet**
- mantrap** [ˌmæntɹæp] *n* tuzoq, qopqon (*asosan, odamlarda*)
- manual** [ˈmænjuəl] 1. *a* qoʻlda olib yuradigan; qoʻl bilan boshqariladigan; - **labour** jismoniy mehnat; 2. *n* qoʻllanma, darslik; **field** ~ *amer.* jangovar ustav
- manufactory** [ˌmænjʊˈfækt(ə)rɪ] *n* 1) fabrika; 2) sex; 3) manufaktura; 4) ustaxona
- manufacture** [ˌmænjʊˈfæktʃə] 1. *n* ishlab chiqarish, korxonalar; **of home** ~ mamlakatning oʻzida ishlab chiqarilgan; **of foreign** ~ chet mamlakatda ishlab chiqarilgan; 2. *v* ishlab chiqarmoq; **to** ~ **shoes** oyoq kiyim ishlab chiqarmoq
- manufactured goods** [ˌmænjəˈfæktʃədˌɡʊdz] *n* *pl* sanoat mahsulotlari, fabrika mahsulotlari
- manufacturer** [ˌmænjʊˈfæktʃ(ə)rə] *n* fabrika egasi; tadbirkor; ishlab chiqaruvchi kishi
- manufacturing I** [ˌmænjʊˈfæktʃ(ə)rɪŋ] *n* ishlab chiqarish; ~ **cost** ishlab chiqarish xarajatlari
- manufacturing II** [ˌmænjʊˈfæktʃ(ə)rɪŋ] *a* sanoatga oid; a ~ **town** fabrika(lar) shahri; ~ **water** sanoat korxonalarining oqova (oqindi) suvlari
- manuka** [ˈmɑːnukə] *n* choy daraxti
- manumission** [ˌmænjʊˈmɪʃ(ə)n] *n* ozod qilish, ozodlik hujjati, ozodlik xati (*qullikdan*)
- manumit** [ˌmænjʊˈmɪt] *v* ozod qilmoq, qutqarmoq
- manure** [məˈnjuə] 1. *n* goʻng, oʻgʻit; 2. *v* goʻng (oʻgʻit) solmoq
- manuscript** [ˌmænjʊskɹɪpt] *n* qoʻlyozma (*qoʻlda yozilgan matn*); ~ **on paper** qoʻzdagi qoʻlyozma
- Manx** [mæŋks] 1. *a* Men oroliga oid, Men oroli...; ~ **cat** *zool.* dumsiz mushuk
- Manxman** [mæŋksmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) Men orolining fuqarosi, Men orolida yashaydigan kishi, menlik kishi
- many** [ˈmeni] 1. *a* 1) koʻp, ancha, bir talay; ~ **people** koʻp odamlar; 2. *n* koʻpdan koʻp, juda koʻp, koʻpgina kishilar
- many-sided** [ˌmeniˈsaɪdɪd] *a* har tomonlama, har taraflama
- many-stage** [ˌmeniˈsteɪdʒ] *a* koʻp pogʻonali, koʻp bosqichli
- Maori** [ˈmaʊri] *n* (*pl* **-s** [-z]) *yoki* oʻzgarishsiz) maori, maori tili
- map** [mæp] 1. *n* xarita; a ~ **of the world** dunyo xaritasi; 2. *v* xaritaga kiritmoq, xaritani chizmoq
- maple** [ˈmæp(ə)l] *n* 1) bot. zarang (*daraxt*); 2) *attr.* zarang daraxtiga oid, zarang yogʻochidan qilingan
- maple-leaf** [ˌmæp(ə)lˈliːf] *n* zarang daraxtning bargi
- map-maker** [ˌmæpˌmeɪkə] *n* kartograf (*xaritalar tuzuvchi mutaxassis, kartografiya mutaxassisi*)

mapping [ˈmæpɪŋ] *n* xaritaga kiritish, xaritagal olish

map range [ˈmæpˈreɪndʒ] *n* *harb.* gorizontal masofa (*xarita bo'yicha*)

maquis [mæˈki:] *n* *fr.* (*pl o'zgarishsiz*) maki (*Ikkinchi Jahon urushidagi fransuz partizanlarining nomi*)

mar [mɑ:] **1.** *n* urilgan joy, lat yegan joy; **2.** *v* urmoq, ziyon keltirmoq; **to make or ~** yo dong'im chiqadi, yo changim chiqadi; yo ostidan, yo ustidan (*matal*)

marabou [ˈmæɾəbu:] *n* *zool.* marabu, marbut (*laylaklarga mansub katta qush*)

marabout [ˈmæɾəbu:t] *n* tarki dunyo qilgan musulmon

marasmus [mæˈræzməs] *n* **1)** ma'naviy tushkunlik; **2)** kuch-quvvatdan qolish

marathon [ˈmæɾəθən] *n* marafon yugurishi

maraud [mæˈrə:d] *v* **1)** shilmoq, talamoq, bosqinchilik qilmoq; qimmat sotib talamoq; **2)** kafanduzlik qilmoq

marauder [mæˈrə:də] *n* **1)** kafanduz (*urush harakatlari hududidagi aholini yoki jang maydonida o'lgan va yarador bo'lganlarni talovchi odam*); **2)** qimmatfurush savdogar

marauding [mæˈrə:dɪŋ] *n* kafanduzlik, talovchilik, qimmatfurushlik

marble [ˈmɑ:b(ə)l] *n* marmar, marmartosh

marbled [ˈmɑ:b(ə)ld] *a* olachipor, xol-xol dog'li

marble-topped [ˈmɑ:b(ə)l,tɒpt] *a* : **a** ~ **table** marmar taxtali stol

marc [mɑ:k] *n* (*mevalarni*) siqish

marcel [mɑ:ˈsel] **1.** *n* sochni qattiq qilib o'rish; **2.** *v* sochlarni issiq qisqich (*fen*) bilan jingalak qilib o'rmoq

March [mɑ:tʃ] *n* mart; ~ **days** mart kunlari

march I [mɑ:tʃ] **1.** *n* **1)** *harb.* yurish, namoyish, marsh; **forced** ~ tezlashtirilgan (*judal*) yurish; **2)** *mus.* marsh (*safda yurish uchun yozilgan musiqa asari*); **dead** ~ motam marshi; **2.** *v* marsh qilmoq, olg'a bormoq

march II [mɑ:tʃ] *v* chegaradosh bo'lmoq

marching [ˈmɑ:tʃɪŋ] *n* harbiycha qadam tashlab yurish

marchioness I [ˌmɑ:ʃəˈnes] *n* eshik (*deraza*) soyaboni

marchioness II [ˌmɑ:ʃəˈnes] *n* markiza

marchpane [ˈmɑ:tʃpeɪn] *n* mag'iz xamir

march past [ˈmɑ:tʃpɑ:st] *n* tantana bilan yurib o'tish, tantanali marsh

mare [meə] *n* baytal, biya

mare's-nest [ˈmeəznest] *n* amalga oshmaydigan xom xayol

margarine [ˌmɑ:dʒəˈri:n] *n* margarin

marge I [mɑ:dʒ] = **margin I**

marge II [mɑ:dʒ] = **margarine**

margin [ˈmɑ:dʒɪn] **1.** *n* hoshiya, qirg'oq, chet; **2.** *v* hoshiyaga (*chetiga*) qayd qilmoq

marginal [ˈmɑ:dʒɪnl] *a* **1)** kitob chetiga yozilgan; **2)** chetda turadigan; **3)** o'ta, haddan tashqari; **4)** eng kam, minimal, zo'rg'a yetadigan

marginalia [ˌmɑ:dʒɪˈneɪliə] *n* *pl* kitob chetidagi qaydlar

margrave [ˈmɑ:greɪv] *n* *tar.* markgraf

margravine [ˈmɑ:grəvi:n] *n* markgraf xotini

marguerite [ˌmɑ:g(ə)ˈri:t] *n* *bot.* dastorgul

marigold [ˈmæɪŋgəʊld] *n* *bot.* **1)** gulidovud, guljavhar; **2)** gulhamishabahor

marihuana [ˌmæriˈwɑ:nə] *n* *isp.* marihuana, nasha

marijuana [ˌmæriˈwɑ:nə] = **marihuana**

marimba [ˈmæˈrɪmbə] *n* marimba (*musiqa asbobi*)

marina [ˈmæˈri:nə] *n* qayiqlar turadigan joy

marinade [ˌmæriˈneɪd] **1.** *n* ziravorli sirkamoy; **2.** *v* **1)** ziravorli sirkamoy bosmoq;

2) tuzlamoq, tuzlab qo'yimoq

marine [ˈmæˈri:n] *n* **1)** dengiz floti; **2)** dengiz floti askari; **3)** dengiz manzarasi tasvirlangan rasm

mariner [ˈmæri:nə] *n* matros, dengizchi;

master ~ savdo kemasining kapitani

marionette [ˌmæriəˈnet] *n* qo'g'irchoq (*o'yinchi qo'g'irchoq*)

marital [ˈmæri:t] *a* er-xotinga va er-xotinlikka oid

maritime [ˈmæri:təɪn] *a* **1)** dengizga oid; ~

climate dengiz iqlimi; **2)** dengiz bo'yidagi, (*yoqasidagi, labidagi*); **a** ~ **station** qirg'oqdagi (*sohildagi*) stansiya

marjoram [ˈmɑ:dʒ(ə)rəm] *n* *bot.* mayoran

mark [mɑ:k] **1.** *n* **1)** belgi, nishona, ko'rsatkich; **the ~ of accent** urg'u belgisi; **2)** tang'a, shtamp; **3)** iz; ~s **of illness** kasallik belgisi; **4)** yamoq, chandiqlik, xol; **5)** marka;

6) baho, ball; **a good ~ in English** ingliz tilidan yaxshi baho; **2.** *v* **1)** belgi qo'yimoq;

to ~ the accent urg'u qo'yimoq; **2)** tang'alamoq, belgilamoq; marka qo'yimoq; **3)** o'lchamoq, belgilamoq; **4)** iz qoldirmoq; **5)** baholamoq, belgilamoq; **6)** fikrini bildirmoq;

to ~ down pasaytirmoq, kamaytirmoq; **to ~ off** ajratmoq, chegara o'tkazmoq, chegaralamoq; **to ~ out** o'lchamoq; **to ~ up** ko'tarimoq (*narx to'g'risida*)

mark-down [ˈmɑ:kdaʊn] *n* narxlarning pasayishi

marked [mɑ:kt] *a* **1)** belgilangan, belgi (*ishora*) qo'yilgan; **2)** bilinadigan, ko'rinadigan, ko'rinib (*sezilib, bilinib*) turgan, ko'zga tashlanadigan, sezilarli; ko'zga ko'ringan, ma'

- lum; taniqli; ~ difference sezilarli farq; a ~ man mashhur odam
- marker** [ˈmɑ:kə] *n* tang'a bosuvchi, tang'a-lovchi kishi
- market** [ˈmɑ:kɪt] **1.** *n* bozor; to go to the ~ bozorga bormoq; in the ~ bozorda; home ~ ichki bozor; **2.** *v* 1) sotmoq; 2) bozorga olib kelmoq, bozorda sotib olmoq
- marketability** [ˌmɑ:kɪtəˈbɪləbɪlɪti] *n* bozorda sotishga yaroqlilik
- marketable** [ˈmɑ:kɪtəb(ə)l] *a* 1) bozori chaqqon, bozorgir, tez sotiladigan (*tovarga, molga nisbatan*); 2) bozorga oid; bozor uchun mo'ljallangan, bozor...; ~ surplus of grain sotiladigan g'alla
- market-day** [ˈmɑ:kɪdeɪ] *n* bozor kuni
- marketeer** [ˌmɑ:kɪˈtiə] *n* savdogar, do'kondor
- market garden** [ˌmɑ:kɪtˈgɑ:dn] *n* poliz, poliz ekinlari (sabzavot) ekilgan yer
- marketing** [ˈmɑ:kɪtɪŋ] *n* savdo, savdo-sotiq
- market-place** [ˈmɑ:kɪtpleɪs] *n* bozor maydoni
- market-price** [ˌmɑ:kɪtˈpraɪs] *n* bozor bahosi
- marking** [ˈmɑ:kɪŋ] *n* 1) marka, belgi, tang'a; 2) rang-barang qilib bo'yash
- markka** [ˈmɑ:kə] *n* marka (*Finlandiya pul birligi*)
- marksman** [ˈmɑ:ksmən] *n* (*pl -men (-mən)*) mergan otuvchi, mergan
- marksmanship** [ˈmɑ:ksmənʃɪp] *n* bexato otilgan o'q
- mark-up** [ˈmɑ:kˈʌp] *n* (*mol, tovar*) narxining ko'tarilishi
- marl** [mɑ:l] *n* mergel, ohakgil
- marline** [ˈmɑ:lɪn] *n* deng. marlin
- marly** [ˈmɑ:lɪ] *a* geol. ohakgilga oid
- marmalade** [ˈmɑ:məleɪd] *n* 1) quyuq shinni; 2) povidlo, meva qiyom; 3) marmelad
- marmoreal** [ˈmɑ:ˈmɑ:riəl] *a* marmarga oid
- marmoset** [ˈmɑ:məzət] *n* maymun (*martishka zoti*)
- marmot** [ˈmɑ:mət] *n* zool. sug'ur
- maroon** [ˈmɑ:ru:n] **1.** *n* to'q qizil rang; **2.** *a* to'q qizil
- marplot** [ˈmɑ:plət] *n* to'siq, to'siqlik, g'ov
- marquee** [ˈmɑ:ki:] *n* katta chodir
- marquis** [ˈmɑ:kwi:] *n* markiz (*ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida: dvoryanlar unvoni va shu unvonga ega bo'lgan kishi*)
- marquise** [ˈmɑ:kɪz] *n* markiza (*markizning xotini yoki qizi*)
- marriage** [ˈmæriʒ] *n* er-xotinlik, uylanish, nikoh, turmushga chiqish
- marriageable** [ˈmæriʒəb(ə)l] *a* katta yoshli, voyaga yetgan; a girl of ~ age voyaga yetgan qiz
- married** [ˈmæriɪd] **1.** *p. p. of marry*; **2.** *a* uylangan, turmushga chiqqan; a ~ man uylangan erkak; to get ~ turmushga chiqmoq
- marrow** [ˈmæərəʊ] *n* 1) ilik; 2) mohiyat, asosiy ma'no
- marrowbone** [ˈmæərəʊbəʊn] *n* 1) ilikli suyak; 2) asl ma'no, mazmun
- marrow squash** [ˌmæərəʊˈskwɒʃ] *n* bot. qovoqcha (*qovoqning mayda uzunchoq bir turi*)
- marrowy** [ˈmæərəʊɪ] *a* 1) ilikli; iligi to'la; 2) kuchli; baquvvat
- marry** [ˈmæri] *v* 1) uylantirmoq, xotin olib bermoq; 2) erga bermoq; 3) uylanmoq; 4) erga tegmoq
- Mars** [mɑ:z] *n* astr. Mars (*Quyosh sistemasidagi to'qqizta katta sayyoralaridan biri*)
- Marsala** [mɑ:ˈsɑ:lə] *n* marsala (*vino*)
- Marseillaise** [ˌmɑ:səˈleɪz] *n* fr. marselyeza (*1792-yili Fransiya burjuva revolyutsiyasi davrida yaratilgan revolyutsion qo'shiq, keyinchalik Fransiyaning gimni*)
- marsh** [mɑ:ʃ] *n* botqoq, botqoqlik
- marshal** [ˈmɑ:ʃ(ə)l] *n* 1) marshal; 2) amer. sud ijrochisi; 3) amer. politsiya uchastkasi boshlig'i; 4) amer. o't o'chiruvchilar komandasi boshlig'i
- marshalling yard** [ˈmɑ:ʃ(ə)lɪŋjɑ:d] *n* (*vagonlarni*) saralaydigan stansiya
- marsh gas** [ˈmɑ:ʃgæs] *n* metan, botqoq gazi
- marsh harrier** [ˈmɑ:ʃhæriə] *n* zool. botqoqlikda (to'qayda) yashaydigan bo'ktargi (*yirtqich qushlarning bir turi*)
- marshland** [ˈmɑ:ʃlænd] *n* serbotqoq joy
- marsh mallow** [ˌmɑ:ʃˈmæləʊ] *n* bot. dorivor gulxayri
- marshy** [ˈmɑ:ʃɪ] *a* botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, serbotqoq
- marsupial** [ˈmɑ:ˈsju:prɪəl] **1.** *n* zool. qopchikli hayvon, xaltali hayvon; **2.** *a* xaltali, qopchikli
- mart** [mɑ:t] *n* 1) shoir. bozor; 2) savdo markazi
- marten** [ˈmɑ:tɪn] *n* zool. suvsar (*qimmatbaho mo'ynali yirtqich sutemizuvchilarning bir turi*)
- martial** [ˈmɑ:ʃ(ə)l] *a* jangovar, harbiyga oid; ~ law a) harbiy holat; b) harbiy payt qonuni
- martial art** [ˌmɑ:ʃ(ə)lˈɑ:t] *n* sport. yakka-kurash
- Martian** [ˈmɑ:ʃ(ə)n] *n* marslik
- martin** [ˈmɑ:tɪn] *n* zool. shahar qaldirg'ochi
- martinet** [ˌmɑ:tiˈnet] *n* qattiq intizom tarafdori
- martingale** [ˈmɑ:tɪŋgeɪl] *n* qarta. dov (*qimorga tikilgan pulning yutqazganda ikki baravar ko'payishi*)

Martini [mə:'ti:ni] *n* martini (*spirtli kokteyl*)

Martinmas [mə:'ti:nməs] *n* cherk. Martin kuni (*11-noyabr*)

martlet [mə:'tli:t] *n* 1) jonim, jonginam; 2) *zool.* qora jarqaldirg'och; qora uzunqanot

martyr [mə:'ti:tə] 1. *n* azob tortgan, aziyat chekkan; 2. *v* azob bermoq, aziyat chekmoq

martyrdom [mə:'ti:tədəm] *n* azob-uqubatdagi ahvol, azob-uqubat tortish

martyrize [mə:'ti:təraiz] *v* azoblamoq, zulm qilmoq

marvel [mə:'v(ə)l] 1. *n* mo'jiza, karomat; 2. *v* ajablanmoq, hayron bo'lmoq, zavqlanmoq

marvel(l)ous [mə:'v(ə)ləs] *a* ajoyib, kishini hayron qiladigan (*hayratda qoldiradigan*)

marzipan [mə:'zi:pæn] = **marchpane**

mascara [mə:'skɑ:rə] *n* qoshga qo'yadigan tush, bo'yoq, rang

mascot [mə'skət] *n* tunor

masculine [mə'skjulin] *a* 1) erkaklarga xos bo'lgan, erkaklarcha; 2) *gram.* - gender erkak jinsi

masculinity [mə'skjul'init] *n* mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, dovyuraklik

mash I [mæʃ] *n* atala (*pivo qilish uchun tayyorlanadigan g'alla atalasi*)

mash II [mæʃ] 1. *n* 1) zavq, ishtiyoq; 2) qiziqish, ishqibozlik; 2. *v* o'ziga tortmoq, jalb qilmoq, qiziqitirib qo'yimoq; 2. *v* ayolning ko'nglini ovlamoq (*olmoq*); **to be -ed on** ...ni sevib qolmoq; ...ga oshiq bo'lib qolmoq

mashed potatoes [mæʃ'teɪtəʊz] *n pl* kartoshka pyuresi

masher I [mæʃə] *n* mevalarni ezib suvini chiqaradigan qurilma

masher II [mæʃə] *n* olifta, satang

mask [mɑ:sk] *n* 1) maska, niqob; 2) protivo-gaz

masked [mə:'skt] *a* 1) boshqacha kiyim kiygan, boshqacha kiyingan; 2) niqob kiygan; **a - ball** bal-maskarad

masker [mə:'skə] = **masquer**

mason [meɪs(ə)n] *n* g'ishi teruvchi (*quruvchi*) usta; ~'s **float** kurakcha (*suvoqchining asbabi*)

masonic [mə'sonik] *a* masonlik, masonga oid (*mason - VIII asrda paydo bo'lgan diniy, falsafiy oqim; uning tarafdorlari o'z oldiga axloqni kamolotga yetkazish vazifasini qo'ygan, lekin siyosatda reaksiyon yo'l tutgan*)

masonry [meɪs(ə)nri] *n* toshdan qurilgan devor

masque [mɑ:sk] *n* niqob teatri

masquer [mə:'skə] *n* balmaskarad yoki niqob teatrining ishtirokchisi

masquerade [mə'skə'reɪd] 1. *n* 1) maskarad, niqoblanish, yasama tus olish; 2) o'zini boshqa qilib ko'rsatish; 2. *v* 1) maskaradda qatnashmoq; 2) o'zini boshqacha qilib ko'rsatmoq

mass [mæs] *n* 1) xamir; 2) ko'p, ko'pchilik; katta miqdor; 3) ommu; **in the -** umuman, umuman aytganda, xullasi kaloni; **a - meeting** ommaviy miting; **- production** uzluksiz ishlab chiqarish

massacre [mə'səkə] 1. *n* qirg'in, xunrezlik; 2. *v* xuntezlik qilmoq

massage [mə'sɑ:ʒ] 1. *n* massaj, silash, uqalash; 2. *v* silamoq, uqalamoq

masseur [mə'sɜ:z] *n fr.* massajchi (*uqalovchi*) kishi

masseuse [mə'sɜ:z] *n fr.* massajchi (*uqalovchi*) ayol

massicot [mə'sɪkɒt] *n* qo'rg'oshin oksidi (*sariq bo'yoq*)

massif [mə'sɪ:f] *n* keng tog'li joy

massive [mə'sɪv] *n* 1) salmoqdor, yirik; 2) ulkan, katta; **- storm** qattiq bo'ron

mass media [mə's 'mi:diə] *n* ommaviy axborot vositalari

mass-produce [mə'sprə'dju:s] *v* ko'p ishlab chiqarmoq

mass-spectrograph [mə's 'spektrogrɑ:f] *n fiz.* mass-spektrograf (*spektr tasvirini yozib oladigan asbob*)

massy [mə'sɪ] *a* 1) mustahkam, puxta, ishonchli; 2) katta, yirik

mast I [mɑ:st] *n q.x.* yig'ishtirilgan xashak, pichan (*hosili*)

mast II [mɑ:st] 1. *n* machta (*kemaning yelkan olish, kuzatish, signal berish uchun xizmat qiladigan metall yoki yog'och ustuni, dori*); 2. *v* machta qo'yimoq (*o'rnatmoq*)

master [mə:'stə] 1. *n* 1) xo'jayin, ega, sohib, usta; **a - of a shop** magazin egasi; 2) o'qituvchi; **mathematics** - matematika o'qituvchisi; 3) kollej direktori; 4) magistr; **- of Law** yuridik fanlari magistri; 5) o'z ishini ustasi; 6) buyuk, mashhur rassom; 7) kapitan (*scavo kemasi*); 2. *v* 1) (*qiyinchiliklarni*) yengmoq; **to - the enemy** dushmani yengmoq; **to - a difficulty** qiyinchilikni yengmoq; 2) (*bilim, til*) egallamoq; **to - a language** tilni egallamoq; 3) boshqarmoq; **to - the house** xo'jalikni boshqarmoq

masterful [mə:'stəf(ə)l] *a* 1) hukmi (so'zi) o'tadigan; 2) mahorat bilan bajarilgan, ustalik bilan qilingan (*ishlangan, yasalgan*); mohirona, san'atkorona

- master-key** [ˌmɑːstəˈkiː] *n* ochqich (*qulfnı ochadigan mostama*)
- masterly** [ˌmɑːstəli] **1.** *a* mahorat bilan bajariladigan, mohirona; **2.** *adv* mahorat bilan, ustalik bilan
- mastermind** [ˌmɑːstəˈmaɪnd] *n* 1) zoʻr aql; 2) yoʻlboshchi, yetakchi, boshliq, ishboshi (*asosan, maxfiy, norasmiy*)
- masterpiece** [ˌmɑːstəˈpiːs] *n* shoh (*durdona*) asar
- mastership** [ˌmɑːstəʃɪp] *n* 1) oʻqituvchi, direktor va b. ning lavozimi (vazifasi); 2) hukmronlik, boshchilik, ustundik; bosh (birinchi) oʻrinda turish; 3) mahorat, sanʼat, ustalik; mohirlik
- master-spirit** [ˌmɑːstəˈspɪrɪt] *n* misli koʻril-magan (misilsiz) aqlga ega boʻlgan kishi
- master-stroke** [ˌmɑːstəˈstrəʊk] *n* oqilona qadam; ustamonlik bilan qilingan yurish
- mastery** [ˌmɑːst(ə)ri] *n* ustalik, mahorat
- mast-head** [ˌmɑːstɪd] *v* *deng.* yelkanni koʻtarmoq
- mastic** [ˌmæstɪk] *n* mastika (*xushboʻy smola*)
- masticate** [ˌmæstɪkət] *v* 1) qormoq, pishitmoq; 2) chaynamoq, kavshamoq; yemoq
- mastication** [ˌmæstɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* chaynash, kavshash
- masticatory** [ˌmæstɪkət(ə)ri] *a* chaynaydigan, kavshaydigan, chaynash (kavshash) uchun xizmat qiladigan; chaynash ...; kavshash...
- mastitis** [ˌmæsˈtɪtɪs] *n* *tib.* mastit (*koʻkrak bezlarining yalligʻlanishi*)
- mat I** [mæt] **1.** *n* 1) boʻyra, toʻshak kabi narsalarning umumiy nomi; 2) dagʻal poyandoz, oyoqartgich; 3) gilamcha, kichkina gilam; 4) chigallashib ketgan narsa; **2.** *v* 1) gilam va b. toʻshamoq; 2) chigallashtirmoq, chalkashtirmoq, adashtirmoq
- mat II** [mæt] *a* xira, yaltiramaydigan, narsiz, jilosiz
- match** [mætʃ] **I.** *n* 1) gugurt; **to strike a ~** gugurt yoqmoq; 2) *sport.* musobaqa
- match-board** [ˌmætʃˈbɔːd] *n* *qur.* shpuntlangan (qirrasidan tirnoq yoki oʻyiq chiqarilgan) taxa
- match-box** [ˌmætʃˈbɒks] *n* gugurt quti
- matching** [ˌmætʃɪŋ] *a* (*juftligʻ*) mos tushadigan, toʻgʻri keladigan, munosib (muvofiq) boʻlgan
- matchless** [ˌmætʃˈləs] *a* 1) beqiyos, bemisl, misli yoʻq, tengsiz, ajoyib, yakka-yagona; 2) eng birinchi, eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan, teng kelolmaydigan
- matchmaker I** [ˌmætʃˈmeɪkə] *n* *tex.* tirnoq yoki oʻyiq chiqaradigan randa
- matchmaker II** [ˌmætʃˈmeɪkə] *n* 1) (erkak) sovchi; (erkak) quda; 2) sovchi xotin; (ayol) quda
- match-making** [ˌmætʃˈmeɪkɪŋ] *n* 1) sovchi qoʻyish (boʻlish); 2) *sport.* oʻyin (uchrashuv, musobaqa)ni tashkil etish
- matchwood** [ˌmætʃˈwɔːd] *n* 1) gugurt ishlab chiqishga yaraydigan (gugurt ishlab chiqariladigan) daraxt; 2) gugurtbop choʻp
- mate I** [meɪt] *n* 1) oʻrtoq; **class ~** sinfdosh; 2) er, xotin, rafiq
- mate II** [meɪt] *shax.* **1.** *n* mot; **2.** *v* mot qilmoq
- material I** [məˈtɪ(ə)riəl] *a* 1) moddiy, ashyoviy; **raw ~s** xom mol, xomashyo; 2) muhim, ahamiyatli
- material II** [məˈtɪ(ə)riəl] *n* 1) ashyo, material; **building ~s** qurilish materiallari; 2) *toʻg.* gazlama, gazmol
- materialism** [məˈtɪəriəlɪz(ə)m] *n* materializm (*falsafadagi asosiy oqimlardan biri*)
- materialist** [məˈtɪəriəlɪst] *n* 1) materializm tarafdori; 2) manfaatparast, oʻz manfaatini koʻzlab ish tutuvchi odam
- materialistic** [məˈtɪəriəˈlɪstɪk] *a* materialistik
- materiality** [məˈtɪəriˈæliːti] *n* 1) moddiylik; 2) *yur.* muhimlik, ahamiyatlilik, zarurlik; katta ahamiyatga egalik
- materialization** [məˈtɪəriəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *v* amalga oshirish, hayotga tatbiq etish
- materialize** [məˈtɪ(ə)riəlaɪz] *v* (*reja va b. ni*) amalga oshirmoq; hayotga tatbiq qilmoq
- matériel** [məˈtɪ(ə)riˈel] *n* *fr.* **1)** texnika vositalari va asbob-uskunalar; **2)** jangovar texnika
- maternal** [məˈtɜːn(ə)l] *a* 1) onalarga xos boʻlgan, onalarcha; 2) ona tomondan; ~ **uncle** togʻa
- maternity** [məˈtɜːnɪti] *n* onalik; ~ **hospital** tugʻruqxona; ~ **home** tugʻruqxona; ~ **nurse** doya
- matey** [meɪtɪ] *a* soʻzl. odamga el boʻladigan, kirishimli, ulfatchilikni yaxshi koʻradigan
- mathematical** [ˌmæθɪˈmætɪk] *a* matematikaga oid, matematik; matematika ...
- mathematician** [ˌmæθɪməˈtɪʃ(ə)n] *n* matematik, matematika olimi (mutaxassisi)
- mathematics** [ˌmæθɪˈmætɪks] *n* matematika
- maths** [mæθs] *soʻzl.* **mathematics** soʻzining qisqarmasi
- matin** [ˌmætn] *n* 1) *shoir.* ertalabki qushlarning sayrashi; 2) *pl* *cherk.* ertalabki ibodat
- matinée** [ˌmætiˈneɪ] *n* *fr.* spektakl yoki konsertning kunduzgi seansi
- matriarchy** [ˌmɪtriˈɑːki] *n* matriarxat (*onalik davri*)

matrices [ˈmætrɪsɪz] *pl of matrix*
matriculate [məˈtrɪkjuleɪt] **1.** *v* oliy o'quv yurtiga qabul qilinmoq yoki qabul qilmoq; **2.** *n* oliy o'quv yurtiga qabul qilingan kishi
matriculation [məˈtrɪkjəˈleɪʃ(ə)n] *a* oliy o'quv yurtiga qabul qilish
matrimonial [ˌmætriˈməʊniəl] *a* 1) er-xotin-ga va er-xotinlikka oid; 2) uylanish bilan bog'liq bo'lgan; uylanish...
matrimony [ˌmætrɪməni] *n* er-xotinlik, nikoh
matrix [ˈmeɪtrɪks] *n* (*pl -rices [-rɪsɪz]*) 1) *anat.* bachadon; 2) *tex.* matritsa (o'yma qolip); 3) *geol.* qo'r jins (*tarkibida ruda, qimmatbaho tosh va sh. k. bo'lgan tog' jinsi*)
matron [ˈmeɪtrən] *n* 1) turmush qurgan ayol; 2) bosh hamshira
matronal [ˈmeɪtrən(ə)l] *a* hurmatli ayolga yarashadigan
matte [mæteɪ] *a* nursiz, xira, jilosiz
matter [ˈmæteɪ] *n* 1) modda; **radioactive** ~ radioaktiv modda; 2) *fals.* materiya; 3) masala, ish; 4) material; **printed** ~ bosilib chiqqan (bosib chiqarilgan, nashr qilingan) material; 2. *v* ahamiyatga ega bo'lmoq, ahamiyat kasb etmoq; **it doesn't** ~ bu hech qanday ahamiyatga ega emas
matter-of-course [ˌmæteɪ(r)əvˈkɔ:s] *a* tabiiy, o'z-o'zidan ma'lum
matter of fact [ˌmæteɪ(r)əvˈfækt] *n* bor haqiqat, haqiqiy voqelik; haqiqatda mavjud bo'lgan borliq
matter-of-fact [ˌmæteɪ(r)əvˈfækt] *a* dabdabasiz, oddiy, sodda, jo'n; uydirma (yolg'on)siz
matting [ˈmætɪŋ] *n* 1) bo'yra; bordon; 2) chipta (*dag'al buyumlar to'qish uchun tayyorlangan yupqa tilim-tilim po'stloq va undan to'qilgan narsa*)
mattock [ˈmæteɪk] *n* 1) ketmonsimon asbob; 2) dastaki so'qa (*so'qa — yer haydash uchun ishlatiladigan cho'yan tishli sodda asbob*); omoch; 2) qo'shbosh (*bir oyog'i kirkaga, bir oyog'i teshaga o'xshagan ikkiyoqlama asbob*)
mattress [ˈmætrɪs] *n* matras, to'shak
maturate [ˈmæʃureɪt] *v* *tib.* yiringlamoq, maddalamoq, madda (gazak) olmoq, yiring (fasod) bog'lamoq
maturation [ˌmæʃuˈreɪʃ(ə)n] *n* *tib.* yiringlash, maddalash, madda (gazak) olish, yiring (fasod) bog'lash
mature [məˈtʃʊə] **1.** *a* 1) pishgan, yetilgan; 2) o'sgan; katta bo'lgan; 2. *v* katta bo'lmoq, yetilmoq
maturity [məˈtʃʊə(ə)nɪ] *n* 1) yetilganlik, pishganlik; 2) tugaganlik, oxiriga yetganlik

matutinal [ˌmæʃuˈtəɪn(ə)l] *a* 1) ertalabki, erta bilan bo'ladigan; 2) erta boshlangan
maud [mɔ:d] *n* (*shotlandiyalik cho'pon va podachilarda*) katak gulli kulrang katta qalin jun ro'mol
maudlin [mɔ:dlɪn] **1.** *a* 1) yig'loqi; chakagi ochiq, seryig'i (*masligida*); 2) ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan; 2. *n* erkalik, tantiqlik
maul [mɔ:l] **1.** *n* bosqon, katta bolg'a; 2. *v* burdalamoq, tilka-pora qilmoq
mauler [ˈmɔ:lə] *n* 1) qiynovchi, ezuvchi, zolim, battol, sitamgar; 2) *sport.* so'zl. bokschi
maun [mɔ:n] *shotl.* = **must**
maunder [ˈmɔ:ndə] *v* ming'illamoq, g'ulduramoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq; **to ~ along** (**to ~ about**) sandiroqlab (tentirab) yurmoq, sanqib (daydib) yurmoq
maundy [ˈmɔ:ndɪ] *n* *tar.* pasxa arafasidagi haftada bo'ladigan kambag'allarning oyoqlarini yuvish marosimi; ~ **money** pasxa arafasidagi haftada tarqatiladigan xayr (ehson, sadaqa); **Maundy week** pasxa arafasidagi hafta
mausoleum [ˌmɔ:səˈliəm] *n* maqbara, qabr, go'r
mauve [mɔ:ʊv] *a* qizg'ish binafsharang
mavis [ˈmɛvɪs] *n* *shoir.* sayroqi qorayaloq
maw [mɔ:] *n* *anat.* shirdon
mawkish [ˈmɔ:kɪʃ] *a* 1) ko'ngilni aynitadigan, ko'ngilga tegadigan, ko'ngilga uradigan; 2) ortiq darajada hissiyotga beriladigan, ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan
maxilla [mæksɪlə] *n* (*pl -lae [-li:]*) (*umurtqali hayvontlarda*) tepa jag', ustki jag'
maxillary [mæksɪləri] *a* tepa (ustki) jag'ga oid; tepa (ustki) jag'...
maxim [ˈmæksɪm] *n* 1) hikmatli so'z; ibora; 2) shior; tamoyil
maximize [ˈmæksɪmaɪz] *v* maksimalashtirmoq, maksimal darajada kattalashtirmoq
maximum [ˈmæksɪməm] *n* maksimum (*eng katta qiymat, eng ko'p miqdor, eng yuqori daraja*)
May [meɪ] *n* may, may oyi
may I [meɪ] **1.** *v* (**might**) 1) *modal fe'l bo'lib, imkon borligini bildiradi va quyidagicha tarjimaga ega bo'ladi:* ehtimol, balki, shoyad; 2) *iltimos va ruxsaini bildiradi:* ~ **I come in?** kirsam maylimi?
may II [meɪ] *n* *shoir.* qiz
maybe [ˈmeɪbi] *adv* ehtimol, balki
may-bug [ˈmeɪbʌg] *n* *ent.* tillaqo'ng'iz
may-fly [ˈmeɪflaɪ] *n* baliqchining (qarmoqqa qo'yish uchun) tayyorlagan sun'iy xo'ragi
mayhem [ˈmeɪhɛm] *n* *yur.* mayib qilish, shikast yetkazish

Maying [ˈmeɪŋ] *n* (*Angliyada*) bahorning kirib kelishini bayram qilish

mayonnaise [ˌmeɪəˈneɪz] *n* mayonez

mayor [meə] *n* mer (*baʼzi mamlakatlarda: shahar boshqarmasining boshligʻi*), shahar hokimi

mayoralty [ˈme(ə)rəltri] *n* mer (shahar hokimi)ning mansabi (vazifasi)

mayoress [ˈme(ə)rɪs] *n* 1) mer (shahar hokimi)ning xotini; 2) mer-ayol (*shahar hokimi boʻlgan ayol*)

may-pole [ˈmeɪpəʊl] *n* 1) may ustuni (*Angliyada 1-mayda gullar bilan bezab, atrofida oʻyin-kulgi qilinadigan ustun*); 2) koʻch. novcha odam

mayweed [ˈmeɪwi:d] *n* bot. zargoʻsh, quyunchun (*sariq gulli oʻtsimon oʻsimlik*)

mazarine [ˌmæzəˈri:n] 1. *n* toʻq koʻk rang; 2. *a* toʻq koʻk

maze [meɪz] 1. *n* 1) chalkash yoʻl, yoʻlak, koʻcha va sh. k.; 2) chigallik, chalkashlik; 2. *v* 1) ogʻir (qiyin) ahvolga solib qoʻymoq; 2) sarosimaga solib qoʻymoq

mazer [ˈmeɪzə] *n* tar. (*yogʻochdan yasalgan*) qadah, jom

mazy [ˈmeɪzi] *n* shoir. oʻtzor, maysazor, koʻkalamzor, oʻtloq, yaylov

me [mi:] *pron.* men, menga; **it is beyond** ~ bunga aqlim yetmaydi

meadow [ˈmedəʊ] *n* oʻtloq, yaylov

meadowy [ˈmedəʊi] *a* 1) oʻtzorda boʻladigan, oʻsadigan; oʻtzor...; oʻtloq...; 2) oʻtzorchilik bilan bogʻliq boʻlgan; oʻtzorchilik...; oʻtzorlar uchun belgilangan; 3) oʻtzor (maysazor, koʻkalamzor)ga boy boʻlgan (*yer toʻgʻrisida*)

meagre [ˈmi:ɡə] *a* 1) yomon, yaramas; 2) foydasi kam, unumsiz

meal I [mi:l] *n* ovqat; oziq

meal II [mi:l] *v* ovqatlanmoq; ovqat yemoq

mealies [ˈmi:lɪz] *n* pl janub. afr. makka-joʻxori (*oʻsimligi va doni*)

mealtime [ˈmi:ltaɪm] *n* ovqatlanish vaqti (*masalan, nonushia, tushlik va b.*)

mealy [ˈmi:lɪ] *a* 1) kraxmalli; tarkibida un yoki kraxmal boʻlgan; serkraxmal; 2) unli, un solingan, undan (xamirdan) tayyorlangan

mealy-mouthed [ˌmi:lɪˈmaʊðd] *a* xushomadgoʻy, ikkiyuzlama, munofiq

mean I [mi:n] 1. *a* oʻrta, oʻrtadagi, oʻrtalikdagi; ~ *line* mat. bissektrisa (*burchakni teng ikkiga boʻluvchi toʻgʻri chiziq*); 2. *n* 1) oʻrta yer (joy), oʻrtaliq, oraliq; **the happy** ~ begʻalva ish, qiyinchilik tugʻdirmaydigan (jon koyitmaydigan) ish, ishning begʻalva tomoni

mean II [mi:n] *v* (**meant**) 1) nazarda tutmoq; **to ~ by** ... bilan ... demoqchi boʻlmoq, ...ni nazarda tutmoq; 2) bildirmoq; 3) maʼno anglatmoq; 4) moʻljallamoq

mean III [mi:n] *a* 1) yomon; kuchsiz, zaif; 2) qizgʻanmoq; 3) pastkash, yaramas, vijdotsiz

meander [ˈmi:ændə] *v* 1) buralib (egri-bugri boʻlib) ketmoq (*daryo va koʻchaga nisbatan*); 2) daydib yurmoq

meaning [ˈmi:nɪŋ] *n* ahamiyat, maʼno; mazmun; ~less ahamiyatsiz, maʼnosiz, mazmunsiz

meaningly [ˈmi:nɪŋli] *adv* 1) maʼnodor (mazmundor) qilib, maʼnodor, mazmundor; 2) tushunib (bilib); ayatin, ataylab, bilatirib, qasddan

meanness [ˈmi:nɪnəs] *n* 1) pastlik, pastkashlik, tubanlik, razillik, vijdotsizlik; 2) qashshoqlik, oʻta kambagʻallik; 3) qizgʻanchilik

means [mi:nz] *n* 1) iloj, chora; **by all** ~ nima qilib boʻlsa ham; **by no** ~ aslo, hech, zinhor; 2) vosita; **by ~ of** vositasida, yordamida

mean-spirited [ˌmi:nˈspɪrɪtɪd] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash, past, tuban, safil, palid, murdor

meant [ment] *past, p. p. of mean II*

meantime [ˈmi:nɪtaɪm] *adv* shu paytda (orada); **in the ~** shu asnoda, shu vaqt ichida

meanwhile [ˈmi:nwaɪl] = **meantime**

measles [ˈmi:z(ə)lz] *n* 1) tib. qizamiq; 2) vet. finnoz (*finnalar qoʻzgʻatadigan kasallik*)

measly [ˈmi:zli] *a* ozgina, arzimagan, juda kichkina

measurable [ˈmeɪz(ə)rəb(ə)l] *a* oʻlchanadigan, oʻlchab boʻladigan, oʻlchanishi mumkin boʻlgan; **in the ~ future** yaqin kelajakda

measure [ˈmeɪzə] 1. *n* 1) meʼyor, 2) oʻlchov, katta-kichiklik; **liner** ~ maydonning uzunlik oʻlchovi; 3) tadbir, chora; 2. *v* 1) oʻlchamoq; **to ~ a piece of cloth** bir parcha materialni oʻlchamoq; 2) tenglamoq; sinab koʻrmoq; **to ~ one's strength with smb.** kim bilandir kuchini sinab koʻrmoq; 3) chegarani belgilamoq; **to ~ off** oʻlchab boʻlmoq; **to ~ up** (*biror darajaga*) yetmoq, erishmoq; **to ~ out** oʻlchab chiqmoq

measurement [ˈmeɪzəmənt] *n* 1) oʻlchash, oʻlchov; 2) oʻlcham, kattalik; 3) oʻlchov tizimi

meat [mi:t] *n* 1) goʻsht; ~y goʻshtli; 2) ovqat; **at ~** ovqat ustida; **after ~** ovqatdan keyin; **before ~** ovqatdan oldin

meat-ball [ˈmi:tbo:l] *n* frikadelka (*shoʻrva-da pishirilgan yumaloq qiyma*)

meat-chopper [ˈmi:t,tʃɒpə] *n* myasorubka (*go'shtni qiymaga aylantiradigan mostama*); go'shtqiyimalagich
meat-grinder [ˈmi:t,graɪndə] = **meat-chopper**
mechanic [miˈkænik] *n* mexanik, mashinist
mechanical [miˈkænik(ə)] *a* mashinada bajariladigan, mashinaviy, mexanik
mechanism [ˈmekənɪz(ə)m] *n* 1) mexanizm, qurilma; 2) tizim, sistema
mechanize [ˈmekənəɪz] *v* mexanizatsiya-lashtirmoq
medal [ˈmedl] *n* 1) medal; 2) orden
medallion [miˈdæltən] *n* medalyon
meddle [ˈmedl] *v* bironing shaxsiy ishiga aralashmoq (*with, in*)
media I [ˈmi:diə] *n* ommaviy axborot
media II [ˈmediə] *n* fon. jarangli undosh
mediaeval [ˌmediːv(ə)] = **medieval**
medial [ˈmi:diəl] *a* 1) o'rtta, o'rtacha; o'rtta hisobdagi; 2) o'rtalikdagi, oraliqdagi
median [ˈmi:diən] 1. *a* 1) o'rtalikdagi, oraliqdagi; 2) o'rtadagi, o'rtasidagi; 2. *n* *mat.* mediana (*uchburchakning uchidan qarshi tomonning o'rtasiga o'tkazilgan kesma*)
mediate [ˈmi:diət] 1. *n* vositachi; 2. *v* vositachilik qilmoq; *to ~ between two warring countries* ikki urushayotgan mamlakat orasida vositachilik qilmoq
mediation [ˌmi:diːeɪ(ə)n] *n* vositachilik, aralashuv
mediator [ˈmi:diətə] *n* vositachi (*murosaga keltiruvchi kishi*); dallo
medical [ˈmedɪk(ə)] *a* tibbiyotga oid, tibbiy; ~ *service* tibbiy xizmat; ~ *aid* tibbiy yordam
medicine [ˈmeds(ə)n] *n* 1) tibbiyot; *to study ~* tibbiyotni o'rganmoq; 2) dori, dori-darmon
medieval [ˌmediːv(ə)] *a* o'rtta asrlarga oid; o'rtta asrlarga xos bo'lgan, o'rtta asrlardagi
mediocre [ˌmi:diːəʊkə] *a* o'rtacha, o'rtamiyona, oddiy
meditate [ˈmedɪteɪt] *v* 1) chuqur o'ylamoq; fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq; 2) niyat qilmoq, niyatida bo'lmoq
mediterranean [ˌmedɪtəˈreɪniən] *a* 1) dengiz qirg'og'idan uzoqlashgan; 2) ichki (*dengiz haqida*); 3) O'rtta Yer dengiziga oid
medium [ˈmi:diəm] 1. *n* 1) usul, yo'l; vosita; 2) fiz. muhit; atrof-muhit; 3) axborot tashuvchi (*qog'oz, magnit tasma va sh. k.*); 2. *a* o'rtacha, oraliqdagi, o'rtta
medley [ˈmedlɪ] *n* 1) aralashma, qorishma; 2) aralash-quralash narsa, qorishiq narsa, qorishma, aralashma; 2) har xil (aralash-quralash) odamlar, olomon, betartib yig'in

meek [mi:k] *a* mo'min, mo'min-qobil; yuvosh, beozor, muloyim, yumshoq
meekness [ˈmi:knes] *n* yuvoshlik, beozorlik, mo'minlik, yumshoqlik
meet [mi:t] *v* (*met*) 1) uchratmoq, uchrashmoq; *to ~ smb. in the street* kimnidir ko'chada uchratmoq; 2) tanishmoq; *we met in London* biz Londonda tanishganmiz (*uchrashganmiz*); 3) kutib olmoq
meeting [ˈmi:tɪŋ] *n* yig'in, majlis, yig'ilish; *at the ~* yig'ilishda, majlisda; *the ~ is over* yig'ilish (majlis) tugadi
megaphone [ˌmegəfəʊn] *n* megafon (*ovozni kuchaytiradigan karnay*)
melancholy [ˌmelənk(ə)li] 1. *n* ma'yuslik, g'amginlik; 2. *a* ma'yus, g'amgin
meliorate [ˌmi:lɪ(ə)reɪt] *v* 1) yaxshilanmoq, tuzalmoq; 2) yaroqli holga keltirmoq
mellifluous [məˈlɪflooəs] *a* xushomadgo'y; xushomadli; tilyog'lama, shirinsuxan
mellow [ˈmeləʊ] *a* 1) yetilgan, pishgan (*mevalar haqida*); 2) shirali, yoqimli; 3) dono, aqlli
melodious [miˈlədiəs] *a* xushohang, ohangdor, yoqimli
melodrama [ˌmelədrə:mə] *n* melodrama (*voqealarni nihoyatda bo'rtirib, ta'sirchan qilib tasvirlaydigan drama janri va shu janrdagi asar*)
melody [ˈmelədi] *n* kuy, ohang, navo
melon [ˈmelən] *n* bot. qovun; *water ~* tarvuz
melt [melt] *v* erimoq; eritmoq
melting [ˈmeltɪŋ] *a* 1) eriydigan; 2) nozik; nafis; yumshoq
melting-pot [ˈmeltɪŋpɒt] *n* tigel (*o'tga chidamli gildan qilingan qozon*)
member [ˈmembə] *n* a'zo; **M. of Parliament** parlament a'zosi
membership [ˈmembəʃɪp] *n* 1) a'zolik; 2) a'zolar miqdori, tarkibi
membrane [ˈmembreɪn] *n* 1) anat. parda; **pulmonary** ~ o'pka pardasi; 2) po'st, po'stloq, po'choq
memento [miˈmentəʊ] *n* esdalik, xotira
memo [ˈmeməʊ] *n* bayonnoma, bayonot
memoir [ˈmemwɑ:] *n* 1) qisqacha tarjimai hol; 2) *pl* xotiranomalar, yodnomalar
memorable [ˈmem(ə)rəb(ə)] *a* unutilmas, unutilmaydigan, unutilib bo'lmaydigan, esdan chiqmaydigan
memorandum [ˌmeməˈrændəm] *n* 1) bayonnoma, bayonot; 2) qayd, yozma xotira; 3) xotira (esdalik) uchun yozilgan xat
memorial [məˈmɔ:riəl] *n* 1) haykal; 2) qadimiy yodgorlik
memorize [ˈmeməraɪz] *v* 1) yodlamoq; 2) eslamoq

- memory** [mem(ə)rɪ] *n* xotira, es; yod; **good** ~ yaxshi xotira
- men** [men] *pl of man*
- menace** [menɪs] **1.** *n* tahdid, do'q, xavf; **a ~ of war** urush xavfi; **2.** *v* xavf tug'dirmoq, qo'rqitmoq
- menagerie** [mɪ'nædʒ(ə)rɪ] *n fr. so'zl. (asosan, yovvoyi hayvonlarni saqlaydigan) hayvonot bog'i*
- mend** [mend] *v* 1) tuzatmoq, to'g'rilamoq; **to ~ shoes** poyabzal tuzatmoq; 2) yaxshilamoq; **my health is ~ing** mening sog'lig'im yaxshilanib boryapti
- mendacious** [men'deɪʃəs] *a* 1) yolg'on, noto'g'ri, xato, yanglish; 2) yolg'ondakam, yasama, qalbaki
- mendacity** [men'dæsɪtɪ] *n* yolg'onlik, yolg'onchilik, aldamechilik, kazzoblik
- menial** ['mi:niəl] *n* malay, xizmatkor; laganbardor
- meningitis** [ˌmeni'n'dʒaɪtɪs] *n tib. meningit (bosh va orqa miya pardasining yallig'lanishi)*
- men-of-war** [ˌmenəv'wɔ:] *n pl* harbiy kemalar
- menopause** [ˌmenəpəʊz] *n tib. ayollarda jinsiy bezlar faoliyatining to'xtash davri*
- mensurable** [ˌmenʃərəb(ə)] *a* 1) o'lchanadigan, o'lchab bo'ladigan, o'lchanishi mumkin bo'lgan; 2) *mus.* ritmik, ritmli, bir maromda, bir maqomda
- mental** [mentl] *a* aqliy; aqliy faoliyatga oid
- mentality** [men'tælɪtɪ] *n* tafakkur, fikrlash
- mention** [menʃ(ə)n] *v* 1) yodga olmoq, eslatmoq; 2) (*gap orasida*) aytib o'tmoq, tilga olmoq, eslatib o'tmoq
- mentor** [mentə] *n* ustoz, murabbiy, rahbar, tarbiyachi
- menu** [ˌmenju:] *n fr. menyu, taomnoma*
- mercantile** [ˌmɜ:kəntaɪl] *a* 1) savdo-sotiqqa oid; 2) savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan
- mercenary** [ˌmɜ:s(ə)n(ə)rɪ] *a* g'arazli, tamagir, manfaatparast, o'z foydasini o'y-laydigan
- merchandise** [ˌmɜ:tʃ(ə)ndaɪz] **1.** *n* tovarlar, mollar; sotiladigan narsalar; **2.** *v* savdo qilmoq, sotmoq
- merchant** [ˌmɜ:tʃ(ə)nt] *n* savdogar
- merciful** [ˌmɜ:sɪf(ə)] *a* mehribon, rahmdil, muruvvatli; **~ly** rahm-shafqat bilan
- merciless** [ˌmɜ:sɪləs] *a* rahmsiz, berahm, shafqatsiz
- mercury** [ˌmɜ:kjʊrɪ] *n kim. simob*
- mercy** [ˌmɜ:sɪ] *n* 1) rahmdillik; iltifotlilik; rahm, shafqat; 2) kechirish; afv etish
- mere** [mɪə] *a* oddiy; toza; **~ly** *adv* faqat; xolos
- merge** [mɜ:dʒ] *v* qo'shilmok, birlashmoq, birlashtirmok
- merger** [ˌmɜ:dʒə] *n (banklar, korxonalar) birlashmasi, birlashma*
- meridian** [mə'ri:diən] *n* 1) meridian; **~ line** meridian chizig'i; 2) oliy nuqta; cho'qqi
- meringue** [mə'ræŋ] *n* 1) mazali (lazzatli) ovqat; 2) shirinlik; shirin narsa
- merino** [mə'ri:nəʊ] *n (pl -os [-əʊz]) merinos (1. mayin yungli qo'y; 2. shunday qo'y yungli va undan to'qilgan mayin gazlama)*
- merit** [ˌmerɪt] **1.** *n* 1) obro', e'tibor; 2) taqdirga loyiq ish, xizmat; **2.** *v* loyiq bo'lmoq; arzimok
- merriment** [ˌmerɪmənt] *n* xursandchilik, shodlik
- merry** [ˌmerɪ] *a* xursand; xushchaqchaq; **to make ~** xursandchilik qilmoq
- merry-go-round** [ˌmerɪgəˌraʊnd] *n* karusel (*o'tiradigan joylari ot, ayiq, sher, qayiq va sh. k. shakllarida bo'lib, doira bo'ylab aylanadigan qurilma*)
- mesh** [meʃ] *n* to'r, setka
- mesmerize** [ˌmezməraɪz] *v* 1) gipnoz qilmoq; 2) sehrlamoq, sehrlab qo'ymoq; 3) maftun etmoq; o'ziga asir qilmoq
- mess I** [mes] **1.** *n* 1) tartibsizlik, betartiblik; 2) iflos, loy; 3) ko'ngilsizlik; **2.** *v* 1) tartibsizlik qilmoq; 2) (**~ up**) buzmoq, rasvo qilmoq
- mess II** [mes] *n* oshxonona, yemakxonona
- message** [ˌmesɪdʒ] **1.** *n* 1) noma, xabar, maktab; **a telegraph ~** telegramma; 2) topshiriq; **to run ~s** topshiriqni bajarmoq; **2.** *v* xabar yubormok
- messenger** [ˌmes(ə)ndʒə] *n* darakchi, xabarchi, xat tashuvchi
- messmate** [ˌmesmeɪt] *n* 1) maktabdosh, birga (bir maktabda) o'qigan; 2) birga (bir dasturxonada) ovqatlanuvchi, hamtovoq
- messy** [ˌmesi] *a* 1) iflos, loy; 2) tartibsiz, betartib
- met** [ˌmet] *past., p. p. of meet*
- metal** [ˌmetl] *n* metall
- metallic** [mɪ'tæɪlɪk] *a* metallga o'xshash; metall rangidagi
- metallurgy** [ˌmetəɪlɜ:dʒɪ] *n* metallurgiya
- metamorphosis** [ˌmetə'mɔ:fəʊsɪs] *n (pl -ses [-sɪz])* metamorfoza (*rivojlanish natijasida boshqa ko'rinishga aylanish*)
- metaphor** [ˌmetəfə] *n* istiora; metafora
- metaphorical** [ˌmetə'fɔrɪkl] *a* kinoyali, ma'joziy
- metaphysical** [ˌmetə'fɪzɪk(ə)] *a* metafizikaga oid, metafizika prinsiplariga asoslangan
- metaphysics** [ˌmetə'fɪzɪks] *n* metafizika (*borliqning avvali o'zgarmas, azaliy va abadiy*)

- deb qarovchi, uning hodisalari esa bir-biridan uzilgan va turg'un holda tekshiruvchi idealistik falsafiy ta'limot, «fan»)*
- mete I** [mi:t] *n* chegara, hudud
- mete II** [mi:t] *v* belgilamoq, tayinlamoq
- meteor** ['mi:trə] *n* 1) *astr.* uchar yulduz; meteor; 2) atmosfera hodisasi
- meteorite** ['mi:trəɪt] *n* meteorit (*fazodan yerga tushgan jism*)
- meteorology** [ˌmi:tɪəˈrɒlədʒɪ] *n* meteorologiya (*ob-havo va boshqa meteorologik hodisalar haqidagi fan*)
- meter** ['mi:tə] *n* 1) o'Ichagich, o'Ichash asbobi, o'Ichaydigan asbob; 2) metr, o'Ichov
- method** ['meθəd] *n* 1) usul, uslub; yo'l, metod; 2) *pl* metodika (*fan*)
- methodical** [mɪˈθɒdɪk(ə)] *a* 1) muntazam, doimiy ravishda; 2) qat'iy tartibga asoslangan, rejali
- methylated spirit** [ˌmeθɪleɪtɪdˈspɪrɪt] *n* aynitilgan spirt
- meticulous** [məˈtɪkjələs] *a* puxta, sinchkov
- metre** ['mi:tə] *n* metr (*o'Ichov*); 4~s by 5~s to'rtga besh metr
- metric** ['metrɪk] *a* metrik, metr o'Ichovi asosidagi
- metro** ['metrəʊ] *n* 1) metro; 2) poytaxtga oid; katta shaharga taalluqli bo'lgan
- metropolis** [mɪˈtrɒp(ə)lɪs] *n* poytaxt
- metropolitan** [ˌmetrəˈpɒlɪtɪn] *a* poytaxtga oid, poytaxtdagi, poytaxt...
- mettle** ['metl] *n* 1) insonning xarakteri, tabiati, fe'li, xulqi, fe'l-atvori; 2) botirlik, jasurlik, mardlik, dovyuraklik, jasorat, dadillik
- mew I** [mju:] *1. n* miyovlash; miyovlash ovozi; miyov-miyov; *2. v* miyovlamoq
- mew II** [mju:] *n* chayka, baliqchi (*qush*)
- mew III** [mju:] *1. n* katak, qafas (*lochin, qirg'iy, qarchig'ay uchun*); *2. v* qafasga qamamoq
- mews** [mju:z] *n* otxona; molxona
- Mexican** [ˌmeksɪkən] *1. n* meksikalik, meksikalik ayol; *2. a* Meksikaga va meksikaliklarga oid
- miaow** [miˈaʊ] *n* miyovlash
- mica** [ˈmɪkə] *1. n* min, sluda (*shaffof mineral*); *2. attr.* sludaga oid; sludali
- mice** [maɪs] *pl of mouse*
- microbe** [ˈmaɪkrəʊb] *n* mikroob
- microchip** [ˈmaɪkrəʊtʃɪp] *n* *el.* mikrochip
- microcosm** [ˈmaɪkrəʊkɒz(ə)m] *n* mikrokozmi (*biror narsaning kichik namunasi*)
- microfiche** [ˈmaɪkrəʊfɪtʃ] *n* (*pl -s [-ɪz]*) mikrofisha
- microphone** [ˈmaɪkrəfəʊn] *n* mikrofon
- microscope** [ˈmaɪkrəskəʊp] *n* mikroskop
- microscopic(al)** [ˌmaɪkrəˈskɒpɪk(ə)] *a* mikroskopik, juda kichik, mayda
- microwave** [ˈmaɪkrəweɪv] *a* radio, mikroto'lqin
- mid** [mɪd] *a* o'rt, yarim
- midday** [ˌmɪdˈdeɪ] *n* 1) tush, choshgoh, peshin; qiyom (tush) vaqti; 2) *astr.* kun o'rtasi (*quyosh markazining yerning shu joydagi meridianidan o'tish payti*)
- middle** [ˈmɪdl] *1. n* o'rt, yer (joy), o'rtalik, oraliq, yarim; *2. a* o'rtacha, o'rt, hisobdagi; *a ~ man* dallol
- middle-aged** [ˌmɪdlˈeɪdʒd] *a* o'rt yoshdagi
- middleman** [ˈmɪdlmæn] *n* (*pl -men [-mən]*) vositachi, o'rtada turuvchi; dallol (*savdo ishida*)
- midge** [mɪdʒ] *n* mayda chivin, mayda pashsha
- midget** [ˈmɪdʒɪt] *n* mitti (pakana) odam
- Midlands** [ˌmɪdləndz] *n* (*the ~*) Angliyaning yirik markaziy-ma'muriy viloyatlari
- midnight** [ˈmɪdnaɪt] *n* yarim kecha, yarim tun
- midriff** [ˈmɪdrɪf] *n* anat. diafragma (*ko'krak va qorin bo'shliqlarini bir-biridan ajratib turuvchi mushakli parda*)
- midst** [mɪdst] *n* o'rtasi
- midsummer** [ˌmɪdˌsʌmə] *n* 1) yoz o'rtalari; 2) *so'zl.* yozgi quyosh turishi
- midway** [ˌmɪdˈweɪ] *a* 1) o'rtada, orada; 2) o'rtasi, yarmi (*vaqt haqida*)
- mid-week** [ˌmɪdˈwi:k] *n* hafta o'rtalari
- midwife** [ˈmɪdwaɪf] *n* doya, doya (ona) kampir
- mien** [mi:n] *n* 1) chehra, avzo, turq; 2) tashqi ko'rinish, qiyofa, bashara, aft-angor; 3) o'zini tutish (yurish-turish) tarzi
- might** [maɪt] *n* kuch, qudrat, quvvat
- mighty** [ˈmaɪtɪ] *a* kuchli, qudratli; *a ~ nation* kuchli millat (*xalq*)
- migraine** [ˌmɪˈɡreɪn] *n* migren (*boshni qattiq og'ritadigan va ko'ngilni aynitadigan asabiy kasallik*)
- migrant** [ˈmaɪgrənt] *a* 1) ko'chmanchi, ko'chib yuradigan; 2) ko'chmanchi, uchib o'tadigan (*qushlar haqida*)
- migrate** [ˈmaɪˈɡreɪt] *v* ko'chmoq; ko'chib o'tmoq
- migration** [ˌmaɪˈɡreɪʃ(ə)n] *n* ko'chib o'tish
- mike** [maɪk] *n* *so'zl.* mikrofon
- milage** [ˈmaɪlɪdʒ] = **mileage**
- milch** [mɪltʃ] *a* sutlik, sog'in
- mild** [maɪld] *a* 1) yumshoq, mayin; 2) xushfe'l, muloyim; 3) chuchuk (*ovqatga nisbatan*)
- mile** [maɪl] *n* mil (*masofa o'Ichovi 1609 m ga teng*); **within ten ~s of the lyceum** litseydan o'n mil uzoq bo'lgan masofada

mileage [ˈmaɪlɪdʒ] *n* 1) bosib o'tilgan masofa; 2) olinadigan foyda hajmi
milepost [ˈmaɪlpəʊst] *n* *tem. y.* chaqirimlarni ko'rsatadigan ustun
milestone [ˈmaɪlstəʊn] *n* chaqirimlarni ko'rsatadigan ustun
milieu [ˈmɪljəː, ˈmɪljuː] *n* *fr.* atrofdagi (o'rab olgan) muhit, sharoit
militancy [ˈmɪlɪt(ə)nstɪ] *n* urishqoqlik
militant [ˈmɪlɪt(ə)nt] *a* kurashchan, urishqoq, faol, jangovar
militarist [ˈmɪlɪt(ə)rɪst] *n* militarist, militarizm tarafdori
militarization [ˌmɪlɪtəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* harbiylashtirish, harbiylashish
militarize [ˈmɪlɪtəraɪz] *a* harbiylashtirilmoq
military [ˈmɪlɪt(ə)rɪ] *a* 1) harbiy, harbiy kuch; 2) harbiy xizmatchi
militia [mɪˈlɪʃə] *n* 1) militsiya; 2) *tar.* xalq lashkari (*Angliyada*)
milk [mɜːlk] *l.* *n* sut; *2. v* sut sog'moq; ~maid sutchi (*ayol, qiz*); ~man sut sotuvchi
milker [ˈmɜːlkə] *n* 1) sut sog'uvchi; 2) sut sog'adigan mashina
milk-white [ˌmɜːlk ˈwaɪt] *a* sutdek oq
milky [ˈmɜːlki] *a* sutli
mill [mɪl] *n* 1) tegirmon; 2) yanchadigan mashina; 3) fabrika, zavod
millennium [mɪˈleɪniəm] *n* 1) ming yillik, ming yil davom etgan vaqt (*davr*); 2) ming yillik (*ming yil to'lgan payt va shunga bag'ishlangan marosim*); 3) oltin asr (*hamma narsa – fan, madaniyat va b. ravnaq topgan asr*)
millen [ˈmɪlə] *n* tegirmonchi
millet [ˈmɪlɪt] *n* *bot.* tariq
milliard [ˈmɪljɑːd] *n* *num. card.* milliard
milligram(me) [ˈmɪlɪgræm] *n* milligramm
millilitre [ˈmɪlɪlɪtə] *n* millilitr
millimetre [ˈmɪlɪmi:tə] *n* millimetr
milliner [ˈmɪlɪnə] *n* shlapado'z va ayollar kiyimlarini tikuvchi xotin
millinery [ˈmɪlɪn(ə)rɪ] *n* 1) ayollar shlapalari; 2) ayollar shlapalarini ishlab chiqarish; 3) ayollar shlapalari savdosi; 4) ayollar shlapasi do'koni
million [ˈmɪljən] *num. card.* million
millstone [ˈmɪlstəʊn] *n* tegirmon toshi; tegirmontoş
mill-wheel [ˈmɪlwiːl] *n* tegirmon parragi
mime [maɪm] *n* mimika, mimika qilish
mimeograph [ˈmɪmɪəgrəf] *n* ko'paytiruvchi apparat (*hujjatlar uchun*)
mimic [ˈmɪmɪk] *l.* *a* taqlidiy, taqliddan iborat bo'lgan, o'xshatiladigan; *2. n* taqlidchi, o'xshatuvchi (*xuddi o'zi bo'lib ketuvchi*)

odam yoki artist); *3. v* taqlid qilmoq, o'xshatmoq, xuddi o'zi bo'lmoq
minaret [ˈmɪnəˈret] *n* *arab.* minora, minor
minatory [ˈmɪnət(ə)rɪ] *a* 1) xavfli, xatarli, qo'rqinchli; 2) do'q (*tahdid*) qiladigan; 3) do'q (*tahdidni*) ifodalaydigan
mince [mɪns] *v* qiymalamoq, burdalamoq, to'g'ramoq
mincemeat [ˈmɪnsmeɪt] *n* turshak, yong'oq va h. k. aralashmasi
mind [maɪnd] *l.* *n* 1) aql-idrok; 2) xotira; 3) fikr; *2. v* 1) qarshi fikr bildirmoq; **if you don't** ~ agar siz qarshi bo'lmasangiz; 2) eslamoq, esda saqlamoq
mindless [ˈmaɪndləs] *a* aqliy qobiliyat talab qilmaydigan
mine I [maɪn] *pron. poss.* meniki; **the bag is** ~ bu sumka meniki
mine II [maɪn] *l.* *n* kon; **a gold** ~ oltin koni; *2. v* kon ochmoq
miner [ˈmaɪnə] *n* 1) konchi; 2) *harb.* minachi
mineral [ˈmɪn(ə)rəl] *l.* *n* 1) *mineral* (*qazilma noorganik modda*); 2) *pl* foydali qazilmalar
mineralogy [ˌmɪnəˈrælədʒɪ] *n* mineralogiya (*minerallar haqidagi fan*)
minethrower [ˈmaɪnθrəʊə] *n* minomyot
mingle [ˈmɪŋɡ(ə)l] *v* aralashib ketmoq
mingy [ˈmɪŋdʒɪ] *a* 1) so'zl. xasis, ziqna, qattiq, qurumsog; 2) past, pastkash, nazari past, maydagap
miniature [ˈmɪnɪətʃə] *n* 1) miniatura (*qadimgi qo'lyozma va kitoblardagi nafis, bejirim surati*); 2) kichik hajmdagi san'at asari
minibus [ˈmɪnɪbʌs] *n* marshrutka, mikroavtobus
minimal [ˈmɪnɪm(ə)l] *a* juda kam, juda oz, eng kichik, eng oz, juda kichkina
minimize [ˈmɪnɪməɪz] *v* kichraytirib (*kamaytirib*) ko'rsatmoq
minimum [ˈmɪnɪmə] *n* eng oz miqdor
mining [ˈmaɪnɪŋ] *n* 1) kon sanoati, konchilik; 2) *harb. deng.* minalashtirish
minion [ˈmɪnɪən] *n* 1) sevikli, arzanda, jonajon, eng yaxshi ko'rilgan (*hamma sevgan*) odam; 2) birovning ko'magida martabaga erishgan odam, birovning arzandasi
minister [ˈmɪnɪstə] *l.* *n* vazir; *2. v* 1) xizmat qilmoq; 2) yordam bermoq
ministerial [ˌmɪnɪˈstɪ(ə)rɪəl] *a* 1) vazirga va vazirlikka oid; 2) hukumatga oid
ministry [ˈmɪnɪstrɪ] *n* vazirlik
mink [mɪŋk] *n* norka mo'ynasi
minor [ˈmaɪnə] *a* uncha ko'p bo'lmagan, ozgina, biroz
minority [ˈmaɪnərɪtɪ] *n* 1) kamchilik, ozchilik; 2) balog'atga yetmaganlik

- minster** [ˈmɪnstə] *n* bosh cherkov; eng katta butxona; jome
- mint** [mɪnt] *n bot.* yalpiz
- minus** [ˈmɪnəs] 1. *prep.* minus; 2. *n* minus belgisi
- minuscule** [ˈmɪnəskju:l] *n* juda kichkina
- minute** [ˈmɪnɪt] *n* 1) daqiqa; 2) lahza, on
- minutiae** [mɪ(ə)ˈnju:ʃi:] *n pl* mayda-chuyda narsalar; arzimagan (arzimas) narsa; ikirchikir narsalar
- minx** [mɪŋks] *n* 1) tannoz ayol, ishvagar ayol; 2) shoʻx (oʻyingaroq, havoyi) qiz yoki ayol
- miracle** [ˈmɪrəkl(ə)l] *n* moʻjiza
- miraculous** [mɪˈrækjələs] *a* moʻjizaviy, gʻayritabiiy
- mirage** [ˈmɪrɑ:ʒ] *n* 1) sarob; 2) koʻch. xom xayol
- mire** [ˈmaɪə] *n* botqoq, botqoqlik, loy, balchiq
- mirror** [ˈmɪrə] *n* koʻzgu, oyna; **in a -** oynada
- mirth** [mɜ:θ] *n* shodlik, xursandchilik, vaqtichogʻlik
- mis-** [mɪs-] *pref.* notoʻgʻri, yolgʻon degan maʼnolarni ifodalovchi oid qoʻshimcha; **masalan, misunderstand** notoʻgʻri tushunmoq
- misadventure** [ˌmɪsədˈventʃə] *n* badbaxtlik; omadsizlik
- misapprehension** [ˌmɪsəpreˈhenʃ(ə)n] *a* tushunmovchilik, xato (notoʻgʻri) tushunish
- misappropriate** [ˌmɪsəˈprəʊpɪət] *v* 1) gʻayriqonuniy oʻzlashtirmoq, egallab (oʻziniki qilib) olmoq; 2) kamomad qilmoq; qonunsiz (jinoyatkorona) sarflab yubormoq
- misbehave** [ˌmɪsbɪˈheɪv] *v* oʻzini yomon tutmoq
- miscalculate** [ˌmɪsˈkælkjuleɪt] *v* yanglish hisoblamoq, oshiq hisoblamoq
- miscarriage** [ˌmɪsˈkæɪrɪdʒ] *n* 1) omadsizlik; 2) chala tushgan bola; bola tashlash
- miscarry** [ˌmɪsˈkæɪrɪ] *v* muvaffaqiyatsizlikka uchramoq
- miscellaneous** [ˌmɪsəˈleməs] *a* turli-taman, har xil, xilma-xil
- mischance** [ˌmɪsˈtʃɑ:ns] *n* muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik
- mischief** [ˈmɪʃɪf] *n* 1) shoʻxlik, shumlik; 2) zarar, ziyon
- mischievous** [ˈmɪʃɪvəs] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, zararkunanda
- misconception** [ˌmɪskənˈsepʃ(ə)n] *n* anglashilmovchilik, notoʻgʻri tasavvur
- misconduct** [ˌmɪsˈkɒndʌkt] *n* yomon xulq, yomon muomala
- misconstrue** [ˌmɪskənˈstru:] *v* notoʻgʻri talqin qilmoq, tushuntirib (izohlab, sharhlab) bermoq
- miscount** [ˌmɪsˈkaʊnt] 1. *n* hisobda yanglishish, hisobda xatoga yoʻl qoʻyish; xato sanash; 2. *v* hisobda yanglishmoq, hisobda xatoga yoʻl qoʻymoq, xato sanamoq
- miscreant** [ˈmɪskrɪənt] 1. *n* yaramas, ablah, nobakor, razil, qabih, past odam; 2. *a* axloqi buzuc, axloqsiz, yomon, fosiq
- misdeed** [ˌmɪsˈdi:d] *n* 1) jinoyi harakat, jinoyat, yovuzlik; 2) xato ish, xatolik, xato
- misdeemeanour** [ˌmɪsdɪˈmi:nə] *n soʻzl.* xato, ayb, nojoʻya ish
- miser** [ˈmaɪzə] *n* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoc odam
- miserable** [ˈmɪz(ə)rəb(ə)l] *a* 1) ayanchli, achinarli, gʻamgin; 2) yoqimsiz, yomon; 3) juda oz; sifatsiz
- miserably** [ˈmɪz(ə)rəblɪ] *adv* qaygʻuli, gʻamgin, maʼyus
negotiate [niˈgəʊʃɪeɪt] *v* kelishmoq, muzokara olib bormoq
negotiated peace [niˈgəʊʃɪeɪtɪd ˈpi:s] *n* kelishilgan tinchlik
negotiation [niˈgəʊʃɪ ˈeɪʃ(ə)n] *n* muzokara, muhokama, maslahatlashish, oʻylashib koʻrish; ~**s for ...** haqida muzokaralar; ~**s are under way** muzokaralar olib borilyapti
negotiator [niˈgəʊʃɪeɪtə] *n* muzokara olib boradigan kishi
Negress [ˈni:grɪs] *n* negr ayol
Negrillo [neˈgrɪləʊ] *n* (*pl* -os, -oes [-əʊz]) past boʻyli qabiladagi negr
Negrito [neˈgrɪtəʊ] *n* negritos (*janubiy-sharqiy Osiyoning negroidlar irqiga mansub bir necha etnik guruhlariga kiradigan xalqlarning umumiy nomi*)
Negro [ˈni:grəʊ] *n* negr, habash
negro-head [ˈni:grəʊhed] *n* 1) tamakining qora va oʻtkir bir navi; 2) past navli rezina
Negroid [ˈni:grɔɪd] *a* negroid irq, negroidlar irqi
Negrophobia [ˌni:grəʊ ˈfəʊbɪə] *n* negrlarni yomon koʻrish
Negus [ˈni:gəs] *n tar.* negus (*Abissiniya imperatorlarining unvoni*)
negus [ˈni:gəs] *n* negus (*shirintlik narsalar qoʻshib, qizil vinodan tayyorlangan iliq ichimlik*)
neigh [neɪ] 1. *n* kishnash; 2. *v* kishnamoq
neighbour [ˈneɪbə] 1. *n* qoʻshni, hamsoya; 2. *v* chegaradosh boʻlmoq
neighbourhood [ˈneɪbəd] *a* atrof, tevarakda joylashgan
neighbourhood [ˈneɪbəhʊd] *n* 1) qoʻshnichilik, yonma-yonlik, qoʻshnilik, yaqinida (yonida) boʻlish; 2) atrof, tevarak-atrof; **in the ~ of** youma-yon, qoʻshni boʻlib; **good ~ doʻstona** qoʻshnichilik munosabatlari
neighbourhood unit [ˈneɪbəhʊd,ju:nɪt] *n* qaytadan rejalashtirilgan shaharning odam yashaydigan joyi

neighbouring [ˈneɪb(ə)rɪŋ] *a* 1) qo'shni, yonma-yon, chegaradosh; 2) qo'shni uylarda yashaydigan; 3) o'zaro bog'langan, bir-biriga yaqin

neighbourly [ˈneɪbəlɪ] *a* do'stona, totuv (qo'shnichilik munosabatlari haqida)

neighbourship [ˈneɪb(ə)ʃɪp] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish

neither [ˈneɪðə] 1) *olmosh vazifasida kelganda*: birortasi ham, bittasi ham (ikki kishi yoki narsadan); hech kim, hech kimsa, hech bir inson; ~ **of you knows** birortangiz ham bilmaysiz; 2) *sifat vazifasida kelganda*: na u, na bu; na u, na boshqasi; 3) *ravish vazifasida kelganda*: *biror ish harakatni u ham bajarmasligini bildiradi*: mas., **if you don't read ~ shall I** agar siz o'qimasangiz men ham o'qimayman

neither... nor [ˈneɪðə...no:] *cf.* u ham emas, bu ham emas; na u, na bu

nek [nek] *n jan. afr.* dovon, tog' ustidagi yo'l

nelly [ˈnelɪ] *n* bahaybat (juda katta) bo'ronqush

nelson [ˈnels(ə)n] *n sport.* nelson (kurash)

Nemesis [ˈnemɪsɪs] *n* 1) *grek. afs.* Nemezida, Nemesisda (o'ch olish xudosi); 2) qasos, o'ch, jazo

nenuphar [ˈnenjufa:] *n bot.* oq nilfiya

neocene [ˈniːəsiːn] 1. *n geol.* neotsen; 2. *a* neotsenga oid

neocolonialism [ˌniːəʊkəˈləʊnɪəlɪz(ə)m] *n* neokolonializm (*imperialistik davlatlarning sobiq mustamlaka ustidan iqtisodiy va siyosiy hukmronlik o'rnatishga qaratilgan yangicha juda nozik siyosati*)

neolithic [ˌniːəˈlɪθɪk] *a urxeol.* neolitga oid, neolit...

neologism [ˌniːəˈlɒdʒɪz(ə)m] *n* neologizm (*yangi so'z yoki ibora*)

neologize [ˌniːəˈlɒdʒaɪz] *v* yangi so'zlar kiritmoq

neology [ˌniːəˈlɒdʒɪ] *n* 1) neologizm (*yangi so'z yoki ibora*); 2) yangi so'z va iboralarni ishlatish yoki kiritish

neon [ˈniːɒn] *n* 1) *kim.* neon (*kimyoviy element, rangsiz va hidsiz gaz*); 2) *atr.* neon-ga oid, neonli; ~ **lamp** neon lampa

neophron [ˈniːəfrɒn] *n zool.* jo'rchi; kal jo'rchi (*o'limtik bilan ovqatlanadigan virtqich qush*)

neophyte [ˈniːəfaɪt] *n* biror sohada yangi (yosh, tajribasiz) odam; yangi (endigina) kelgan odam

neoplasm [ˈniːə(ʊ)plæz(ə)m] *n tib.* shish, g'urra, o'sma

neoplasty [ˈniːəplæsti] *n tib.* plastik operatsiya

neoteric [ˌniːəˈterɪk] *a* 1) yaqin kunlardagi, yaqindagi; 2) eng yangi; zamonaviy

neotropical [ˌniːəʊˈtrɒpɪk(ə)] *a zool.* Markaziy va Janubiy Amerikada ommalashtirilgan

Neozoic [ˌniːə(ʊ)ˈzəʊtɪk] *a geol.* kaynozoy erasiga oid

nepenthes [ˈneˈpenθiːz] *n shoir.* (*har qanday falokatdan qutqaradigan*) vosita

nephew [ˈnefju:] *n* jiyan (o'g'il)

nephology [ˈneˈfɒlədʒɪ] *n* nefologiya (*bulutlarni o'rgatadigan fan*)

nephrite [ˈnefrɪt] *n min.* nefrit (*yashil yoki surrang yarim shaffof mineral*)

nephritic [ˈniˈfrɪtɪk] *a tib.* buyrakka oid

nephritis [ˈniˈfrɪtɪs] *n tib.* nefrit (*buyrak yallig'lanishi*)

nepotism [ˈnepəʊtɪz(ə)m] *n* qarindosh-urug'chilik, quda-andachilik, oshna-og'aynigarchilik, urug'-aymoqchilik, bir-birini (yaqinlarini) qo'llash

nepotist [ˈnepəʊtɪst] *n* qarindosh-urug'lariga yordam ko'rsatadigan odam

Neptune [ˈneptju:n] *n mij. astr.* Neptun (*Quyosh sistemasining sakkizinchi katta sayyorasi*)

Neptunian [ˈnepˈtjuːniən] *a geol.* okeanga oid, dengizga oid, dengizda bo'ladigan; suvga oid, suvdagi, suvli

neptunium [ˈnepˈtjuːniəm] *n kim.* neptuniy (*tabiiy uranning parchalanishidan hosil bo'ladigan kumushsimon radioaktiv element*)

neriid [ˈni(ə)riɪd] *n zool.* bo'g'im-bo'g'im dengiz qurti

Nero [ˈni(ə)rəʊ] *n tar.* Neron

nervate [ˈnɜːveɪt] *a bot.* tomirli (*o'simlik barglarida*)

nervation [ˈnɜːˈveɪʃ(ə)n] *n bot.* tomirlash

nerve [nɜːv] 1. *n* 1) asab, nerv; 2) *pl* asab sistemasi; asablar, asabiyat; 3) kuch, energiya; **to strain every ~** bor kuchni yig'moq, zo'r bermoq; **a man of ~** og'ir (vazmin) odam; 2. *v* dadillik baxsh etmoq, tetiklashingtirmoq; kuch qo'shmoq (bag'ishlamoq); **to ~ oneself** dadil bo'lmoq; o'zini qo'lga o'lmoq

nerve-centre [ˈnɜːv,sentə] *n* asab markazi

nerve-knot [ˈnɜːvnot] *n* asab tuguni

nerveless [ˈnɜːvli:s] *a* 1) kuchsiz, bo'sh; 2) *anat.* asab sistemasi mavjud bo'lmagan; 3) *bot.* tomirsiz

nerve-racking [ˈnɜːv,rækɪŋ] *a* g'azablantiradigan, achchiqlantiradigan, asabga tegadigan

nerve-strain [ˈnɜːvstreɪn] *n* haddan tashqari asabiylanish (asabiylashuv)

nervine [nə:vi:n] 1. *a tib.* asabni tinchlantiruvchi; 2. *n* asabni tinchlantiradigan dori
nervism [ˈnə:vɪz(ə)m] *n fiziol.* nervizm
nervous [ˈnə:vəs] *a* 1) achchig'i kelgan, asabiylashgan, asabiy; **to be ~ about** ...dan asabi buzilmoq (asabiylashmoq); 2) asabga oid; 3) hayajonlangan, to'qinlangan, iztirobli
nervy [ˈnɜ:vɪ] *a* 1) nervga oid, asabga oid; 2) asablari qo'zg'agan (qo'zg'algan), hayajonli, hayajonlangan; to'qinlangan, asabiy
nescience [ˈnesiəns] *n* 1) bilmaslik, bilimsizlik, xabarsizlik, bexabarlik, xabari yo'qlik, g'aflat; 2) *fals.* agnositsizm (*dunyoni va uning qonuniyatlarini bilish imkonligini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta'limot*)
nescient [ˈnesiənt] 1. *n fals.* agnostik, agnositsizm tarafdori; 2. *a* bilmaydigan (*nimanidir*)
ness [nes] *n* burun (*faqat geografik nomlarda*)
nest [nest] 1. *n* uya, in; 2. *v* uya solmoq
nest-doll [ˈnestdɒl] *n* biri ikkinchisining ichiga kiradigan o'yinchoqlar to'plami
nest-egg [ˈnestəg] *n* 1) kurk tovuqning tagiga qo'yiladigan tuxum; 2) qora kunga kerak bo'ladi deb asrab qo'yilgan pul
nesting box [ˈnestɪŋbɒks] *n* chug'urchiq uyasi (*maxsus qurilgan*)
nestle [ˈnes(ə)l] *v* 1) qulay joylashmoq (**in, into, among**); 2) yopishmoq, qapishmoq, yopishib olmoq (**against, to**); 3) uy, boshpana bermoq
nestling [ˈnes(t)lɪŋ] *n* qush bolasi, jo'ja
net I [net] 1. *n* to'r, qopqon; tuzoq; 2. *v* to'r qo'yimoq, to'r bilan ushlamoq
net II [net] 1. *a* sof (*og'irlik haqida*); ~ **cash** naqd pul; ~ **efficiency** *tex.* foydali harakatning umumiy koeffitsiyenti; 2. *n* sof daromad; 3. *v* sof foyda keltirmoq
netful [ˈnetfʊl] *n* ichi to'ldirilgan to'r
nether [ˈnedə] *a* so'zl. juda past; pastki, ostki, quyi; ~ **garments** shim; **the ~ man** hazil. oyoqlar; **the ~ world** narigi dunyo; do'xax, jahannam
Netherlander [ˈnɛð(ə)ləndə] *n* niderlandiyalik, gollandiyalik; niderlandiyalik ayol
Netherlandish [ˈnɛð(ə)ləndɪʃ] *a* niderlandiyalikka, gollandiyalikka oid
netting [ˈnetɪŋ] *n* to'r bilan ushlab, to'r bilan ov qilish
nettle [ˈnetl] *n* qichitqi o't, gazanda o't
nettle-fish [ˈnetl,fɪʃ] *n* *zool.* meduza (*suzuvchi, qisuvchi va ovqat qamrab oladigan changali bor, dirildoq tanli dengiz, janivor*)

nettle-rash [ˈnetlɹæʃ] *n* *tib.* eshak yemi (*kasallik*)
network [ˈnetwɜ:k] *n* 1) to'r; 2) tarmoq, shoxobcha (*temir yo'l, kanal va b. da*)
network announcer [ˈnetwɜ:kə,naʊn(t)sə] *n* *amer.* diktör, suxandon
neural [ˈnju(ə)rəl] *a* *anat.* asab (tizimi)ga oid; asab...
neuralgia [njuˈrældʒə] *n* nevralgia (*asab tizimining biror yeri kasallanishi yoki yallig'lanishi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*)
neuralgie [njuˈrældʒɪk] *a* nevralgiyaga oid, nevralgia tufayli bo'lgan
neurasthenia [nju(ə)ræsˈθi:nɪə] *n* *tib.* nevrasteniya (*tez charchash, ozib ketish va bosh og'riq'i bilan xarakterlanadigan asabiy kasallik*)
neurasthenic [nju(ə)ræsˈθi:nɪk] 1. *a* 1) nevrasteniklarda bo'ladigan, nevrasteniklarga xos; 2) nevrasteniya kasaliga chalingan; 2. *n* nevrasteniya kasaliga chalingan kishi
neuritis [nju(ə)rɪtɪs] *n* *tib.* nevrıt (*nevrarning ba'zi kasalliklar yoki shikastlanish, zaharlanish, shamollash natijasida yallig'lanishi*)
neurologist [njuˈrɒlədʒɪst] *n* nevrolog, asab kasalliklari shifokori; nevrologiya mutaxassisi
neurology [njuˈrɒlədʒɪ] *n* nevrologiya (*asab tizimi va uning faoliyatini o'rganadigan fan*)
neuroma [njuˈrɒmə] *n* (*pl -mata, -s [-z]*) *tib.* nevroma
neuromata [njuˈrɒmətə] *pl of neuroma*
neuropath [nju(ə)rəpæθ] *n* asab kasalligidan azob tortayotgan kishi; nevrasteniya kasaliga chalingan kishi
neuropathist [nju(ə)rəpæθɪst] *n* nevropatolog, nevropatologiya mutaxassisi
neuroses [njuˈrɒsɪz] *pl of neurosis*
neurosis [njuˈrɒsɪs] *n* (*pl -ses [-sɪz]*) nevroz (*markaziy asab tizimining buzilishi natijasida ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik*); **anxiety** ~ qo'rquv nevrozi
neurotic [njuˈrɒtɪk] 1. *a* 1) asabga oid, asabiy, asabi buzuq; 2) asabni qo'zg'atadigan; 2. *n* 1) nevrasteniya kasaliga chalingan kishi; 2) asab sistemasiga ta'sir etadigan dori
neuter [nju:tə] 1. *a* 1) *gram.* sredniy rodga oid; 2) *gram.* o'timsiz (*fe'llar haqida*); 3) *bot.* urug'lik alomati yo'q, jinssiz; 4) *biol.* naslsiz, bola tug'maydigan, bepusht; 5) *vet.* axtalangan, bichilgan; 2. *n* 1) *gram.* sredniy rod; 2) *gram.* o'timsiz fe'l; 3) *biol.* jinssiz hasharot; 4) *vet.* axtalangan (bichilgan) hayvon

- neutral** [ˈnju:trəl] 1. *a* betaraf, xolis; ~ **colour** kulrang; 2. *n* betaraf davlatlar
- neutralism** [ˈnju:trəlɪz(ə)m] *n* betaraflik, xolislik
- neutralist** [ˈnju:trəlɪst] *n* betaraf, xolis kishi
- neutrality** [nju:ˈtræliɪtɪ] *n* betaraflik, xolislik; **armed** – qurolli neytralited (*urushga shay bo'lsa-da, betaraf turish*)
- neutralization** [ˈnju:trəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* betarafashtirish, xolis qilib qo'yish
- neutralize** [ˈnju:trəlaɪz] *v* 1) zararsizlantirmoq; 2) betaraf, xolis qilib qo'yimoq
- neutrino** [nju:ˈtri:nəʊ] *n* fiz. neytrino
- neutron** [ˈnju:tron] *n* fiz. neytron (*atom yadrosi tarkibidagi elektr zaryadidan xoli bo'lgan zarra*)
- névé** [ˈnevɛ] *n* fr. firn (*muzliklarning yuqori qismida bo'ladigan donador qor*)
- never** [ˈnevə] *adv* hech qachon, asti, aslo, hech, sira; ~ **a one** hech kim, biror kishi, birorta ham; **hech** bir inson; ~ **fear** xavotir bo'lmang, g'am yemang, qayg'urmang; **ishoning**, **ishonchingiz** komil bo'lsin; ~ **mind** zarari (ahamiyati) yo'q; **mayli**, qo'yaver; **hech gap emas**; e'tibor bermang; ~ **so** qanchalik (naqadar, nechog'liq) ... masin
- never-ceasing** [ˈnevəˈsi:ɪŋ] *a* to'xtamaydigan
- never-dying** [ˈnevəˈdaɪɪŋ] *a* o'lmaydigan, abadiy yashaydigan, o'lmas, boqiy
- never-ending** [ˈnevə(r)ˈendɪŋ] *a* tugamaydigan, tunganmas, bitmas-tunganmas
- never-fading** [ˈnevəˈfeɪdɪŋ] *a* so'nmas, o'chmas, unutilmas
- nevermore** [ˈnevəˈmɔ:] *adv* boshqa, hech qachon, hech vaqt, aslo
- never-never** [ˈnevəˈnevə] *n* xom xayol, amalga oshmaydigan orzu
- nevertheless** [ˈnevədəˈles] 1. *adv* ...ga qaramay, ...ga qaramasdan, ... bo'lmasa ham; biroq, ammo; 2. *conj.* shunday bo'lsa-da, shunga qaramay
- never-to-be-forgotten** [ˈnevətəbɪfəˈgɒtɪn] *a* unutilmas, unutib bo'lmaydigan, esdan chiqmaydigan
- new I** [nju:] *a* yangi, endigina qilingan (qurilgan, olingan), tutilmagan; ~ **milk** yangi sog'ilgan sut; ~ **wine** yangi (yaqinda solingan) vino; ~ **potatoes** yangi (uzilgan) kartoshkalar
- new II** [nju:] *adv* yaqinda, yaqindagina, kechagina
- new-blown** [nju:ˈbləʊn] *a* yangi gullagan
- new-born** [nju:ˈbɔ:n] *a* yangi tug'ilgan
- new-built** [ˈnju:bɪlt] *a* yangidan qurilgan, qaytadan qurilgan
- new-come** [nju:ˈkʌm] *a* qaytadan (yana qaytib) kelgan
- new-comer** [ˈnju:kʌmə] *n* 1) yangi kelgan kishi; 2) kelgindi, musofir, begona odam, notanish odam
- New Deal** [ˈnju:ˈdi:l] *n* yangi kurs (*prezident Ruzveltning siyosati*), Ruzvelt hukumati
- newel** [ˈnju:əl] *n* me'mor. aylanma (*burama*) zinaning ustuni
- newel post** [ˈnju:əlˈpəʊst] = **newel**
- newer literature** [ˈnju:əˈlɪtərətʃə] *n* eng yangi (zamonaviy) adabiyot
- new-fallen** [nju:ˈfɔ:lən] *a* yangi yog'gan (*qor to'g'risida*)
- new-fangled** [ˈnju:fæŋg(ə)ld] = **new-fashioned**
- new-fashioned** [ˈnju:fæʃ(ə)nd] *a* modaning yangi turi, yangi urf, rasm bo'lgan
- new-fledged** [ˈnju:fledʒd] *a* yangi pat chiqqan
- new-found** [nju:ˈfaʊnd] *a* yangi topilgan
- Newfoundland** [nju:ˈfaʊndlənd] *n* Nyufaundlend oroli
- Newfoundland dog** [nju:ˈfaʊndlənddɒg] *n* cho'kkanlarni qutqaradigan it
- Newfoundlander** [nju:ˈfaʊndləndə] *n* Nyufaundlend aholisi
- New Frontier** [ˈnju:frʌntɪə] *n* amer. „Yangi hududlar“ (*prezidenti Kennedining siyosati*)
- Newgate** [nju:ˈɡeɪt] *n* Nyugetdagi qarzdorlar qamoqxonasi (*Londonda*)
- new growth** [nju:ˈgrəʊθ] *n* 1) shish, g'urra; 2) yangidan paydo bo'lish, yuzaga kelish
- newish** [ˈnju:ɪʃ] *a* juda yangi, eng yangi
- new-laid** [ˈnju:leɪd] *a* yangi tuxum qo'ygan
- newly** [ˈnju:lɪ] *adv* 1) yaqinda; 2) yana, qaytadan
- newlywed** [ˈnju:lɪwed] *n* yangi uylangan; yangi turmushga chiqqan
- new-made** [ˈnju:meɪd] *a* 1) yaqinda qilingan; 2) qaytadan (yangidan) qilingan
- Newmarket** [ˈnju:mɑ:kɪt] *n* badanga yopishib turadigan uzun palto
- Newmarket coat** [ˈnju:mɑ:kɪt,kəʊt] = **Newmarket**
- new-minted** [ˈnju:mɪntɪd] *a* yaqinda bosib chiqarilgan (*tanga haqida*)
- new moon** [nju:ˈmu:n] *n* yangi chiqqan oy, hilol
- newness** [ˈnju:nəs] *n* 1) yangilik; 2) yangi narsa (*gap, xabar va h. k.*)
- newpenny** [nju:ˈpenɪ] *pl* yangi peruni (*Angliyada 1971-yildagi pul*)
- news** [nju:z] *n* 1) yangilik; **what is the ~?** qanday yangiliklar bor? **the morning** – yangiliklarning ertalabki soni; 2) darak, axborot, xabar
- news agency** [ˈnju:z,eɪdʒ(ə)nsɪ] *n* telegraf agentligi; matbuot agentligi

newsagent [ˈnju:z,eɪdʒ(ə)nt] *n* gazeta kioskasidagi sotuvchi
newsboy [ˈnju:zboɪ] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi (*o'spirin*)
news-bulletin [ˈnju:z,bʊlɪtɪn] *n* yangiliklar ma'lumoti
newscast [ˈnju:z,kɑ:st] *n* so'nggi xabarlar ko'rsatuv (*radio, televedeniya orqali*)
newscaster [ˈnju:z,kɑ:stə] *n* 1) diktor; suxandon; 2) radio sharhlovchisi
news cinema [ˈnju:z,sɪnəmə] *n* xronik-hujjatli filmlar ko'rsatadigan kinoteatr
newsdealer [ˈnju:z,dɪ:lə] = **news-agent**
news-department [ˈnju:z,dɪ:pɑ:tmənt] *n* axborot bo'limi; nashr qilish bo'limi
newsflash [ˈnju:zflæʃ] *n* radio, shoshilinch ma'lumot
newshawk [ˈnju:zhɔ:k] *n* so'zl, mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*)
newsletter [ˈnju:z,letə] *n* 1) axborot bulleteni (*savdo firmasi va b.*); 2) reklama xarakteridagi savdo-sotiq ma'lumotnomasi
newsman [ˈnju:z,mæn] *n* (*pl -men*) 1) muxbir, mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*); 2) gazeta xodimi; 3) gazeta sotuvchi
news monger [ˈnju:z,mɑŋgə] *n* g'iybatchi odam, gap tashuvchi
newspaper [ˈnju:s,pɛɪpə] *n* gazeta
newspaperese [ˈnju:s,pɛɪpə ˈri:z] *n* gazeta uslubi, sharhlovchiga xos uslub
newsprint [ˈnju:z,pɪnt] *n* gazetabop qog'oz, gazeta qog'oz
newsreader [ˈnju:z,rɪ:də] *n* yangiliklar dasturi suxandoni
newsreel [ˈnju:zri:l] *n* 1) kinojurnal; 2) xronika (*voqealarni xronikal tasvirlovchi hujjatli film*); 3) xronikal hujjatli film; 2. *v* kinojurnalda suratga tushmoq
newsroom [ˈnju:zru:m] *n* gazeta va jurnallar olish mumkin bo'lgan o'qish zali
newsservice [ˈnju:z,sɜ:vɪs] *n* axborot agentligi
news-sheet [ˈnju:zʃi:t] *n* varaqa
news-stand [ˈnju:zstænd] *n* 1) gazeta do'koni; 2) *amer.* = **bookstall**
New Style [ˈnju:stɑ:l] *n* yangi uslub (*grigorian yil hisobi; grigorian kalendari*)
news-theatre [ˈnju:z,θɪətə] *n* xronik-hujjatli kinolar ko'rsatiladigan kinoteatr
news vendor [ˈnju:z,vendə] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi kishi
newsy I [ˈnju:zi] *a* 1) yangiliklarga yoki g'iybatga boy; 2) sinchkov, har narsani bilishga intiluvchi
newsy II [ˈnju:zi] *n* *amer.* = **newsboy**

newt [nju:t] *n* *zool.* ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor
Newtonian [nju:ˈtɔ:nɪən] *n* Nyuton izdoshi
New Year [ˈnju:ˈjɪə] *n* yangi yil; **Happy ~!** Yangi yilingiz bilan tabriklayman! Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin!
New Year's [ˈnju:ˈjɪəz] *a* yangi yilga oid; ~ **Eve** yangi yil arafasi; ~ **day** birinchi yanvar
next [nekst] *1. a* keyingi, navbatdagi; ~ **day** ertasi kuni; ~ **week** kelasi haftada; ~ **month** kelasi oyda; ~ **year** kelasi yilda; *2. adv* keyin, so'ng, kelasi, yanagi; **what ~?** xo'sh, (undan) keyinchi?
next-best [ˈnekstˈbest] *a* faqat eng zo'riga yon beradigan
next-door [ˈnekstˈdɔ:] *a* yaqin joydagi, yaqin o'rtadagi, qo'shni bo'lgan
next of kin [ˈnekstəvˈkɪn] *n* yaqin qarindoshlar
nexus [ˈneksəs] *n* 1) aloqa, zanjir; **the cash** ~ pulga oid (pulli) munosabatlar; 2) *gram.* neksus
Niagara [naɪˈæɡərə] *n* 1) oqim; 2) qattiq zarba ovozi; 3) sharshara, shalola, shovva; ~ **falls** Niagara sharsharasi
nib [nɪb] *1. n* 1) metall pero; 2) tumshuq (*qushlarda*); 3) pichoqning o'tkir tomoni; *2. v* ruchkaga pero qo'ymoq
nibble [ˈnɪb(ə)l] *1. n* kemirish, g'ajish, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlash, kemirib (g'ajib) yeyish; *2. v* kemirmoq, g'ajimoq, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlamoq, kemirib (g'ajib) yemoq
niblick [ˈnɪblɪk] *n* *sport.* klushka (*golf o'yini uchun*)
nibs [nɪbz] *n* iltifot, lutf, yaxshilik
nice [naɪs] *a* 1) iltifotli, yoqimli; 2) o'tkir; **a** ~ **ear** o'tkir (yaxshi eshitadigan) quloq; **a** ~ **question** qalitis masala; 3) shirin, mazali (*meva*); 4) yaxshi; **a** ~ **weather** yaxshi ob-havo
nice-looking [ˈnaɪsˈlʊkɪŋ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq
nicely [ˈnaɪsli] *adv* 1) yaxshi, durust; 2) yaxshilab, yaxshigina, boplab, qotirib, tuzuk-kina, durustgina
nicety [ˈnaɪsɪ] *adv* 1) to'g'rilik, aniqlik; **to a** ~ haqiqatan, chindan, rostdan; 2) puxtalik; 3) noziklik; 4) tartibga aniq rioya qilish, batartiblik, saranjom-sarishtalik
niche [nitʃ] *1. n* 1) kovak; 2) tokcha, taxmon; *2. v* tokchaga joylashtirmoq
Nick [nɪk] *n* shayton, iblis (*odatda, Old ~*)
nick [nɪk] *1. n* kertma belgi, kertik; *2. v* kertma belgi qo'ymoq
nickel [ˈnɪk(ə)l] *1. n* *kim.* nikel (*kimyoviy element, yaltiroq metall*); *2. v* nikellamoq, nikel yugurtirmoq

nickelage [ˈnɪk(ə)lɪdʒ] = **nickel-plating**
nickelodeon [ˌnɪk(ə)lˈəʊdɪən] *n amer.*
 patefon-avtomat, pianola-avtomat
nickel-plating [ˌnɪk(ə)lˈpleɪtɪŋ] *n tex.* 1) ni-
 kel, nikel qatlami (*buyumda*); 2) nikellash,
 nikel yugurtirmoq
nicker [ˈnɪkə] *v* qahqaha urib (qattiq) kul-
 moq, xaxolab kulmoq
nick-nack [ˈnɪknæk] *n* 1) mayda-chuyda
 bezak, buyum, zeb-ziynat; 2) *esk.* shirinlik;
 mazali taom
nickname [ˈnɪkneɪm] 1. *n* laqab; 2. *v* laqab
 qoʻymoq
nicotian [nɪˈkəʊt(ə)n] 1. *a* tamakiga oid,
 tamakidan qilingan; 2. *n* kashanda odam,
 chekadigan kishi
nicotine [ˈnɪkətiːn] *n* nikotin (*tamaki tar-*
kibida boʻladigan zaharli modda)
nicotinism [ˈnɪkətiːnɪz(ə)m] *n* nikotindan
 zaharlanish
nictate [ˈnɪkteɪt] = **nictitate**
nictation [nɪkˈteɪʃ(ə)n] = **nictitation**
nictitate [ˈnɪktɪteɪt] *v* 1) pırpıratmoq, uchir-
 moq; 2) koʻz qismoq, koʻz bilan imlamoq,
 koʻz qisib imo-ishora qilmoq
nictitating membrane [ˈnɪktɪteɪtɪŋ,mem-
 breɪn] *n* koʻzdagi pırpıratadigan parda
 (*qushlarda*)
nictitation [ˌnɪktɪˈteɪʃ(ə)n] *n* koʻz qisish,
 koʻz bilan imlash
nicy [ˈnaɪsɪ] *n* bol, obaki, obakidandon (*konfet*)
niddle-noddle [ˈnɪdl, nɒdl] 1. *a* qimirlaydi-
 gan, qaltiraydigan; 2. *v* bosh qimirlatmoq,
 bosh qimirlatib (irgʻitib) tabriklamoq (*yoki*
rozilik bildirmoq, maʼqullamoq)
nidge [nɪdʒ] = **nig**
nidi [ˈnaɪd(aɪ)] *pl of nidus*
nidificate [ˈnɪdɪfɪkeɪt] *v* uya (in) toʻqimoq
 (*qurmoq, soʻlmoq*)
nidify [ˈnɪdɪfaɪ] = **nidificate**
nid-nod [ˈnɪdnɒd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh
 irgʻitmoq
nidus [ˈnaɪdəs] *n lot. (pl nidi, -es [-ɪz]) zool.*
 (*hasharotlar*) uyasi, ini; 2) yuqumli kasal-
 liklar manbayi
niece [ˈniːs] *n* jiyan (*qiz*)
nielli [nɪˈel(ə)] *pl of niello*
niello [nɪˈeləʊ] *n ital. (pl -li, -os [-əʊz])* 1) qo-
 ra kumush (*kumush, mis, oltinugurt va*
qalay qotishmasi, asosan, metall buyum-
larni oʻyib bezatishda ishlatiladi); 2) qora
 kumush bilan bezalgan buyumlar
nielloed [nɪˈeləʊd] *a* qoraytirilgan, qoraga
 boʻyalgan
nifty [ˈnɪftɪ] 1. *a* 1) rasm boʻlgan, keng tarqal-
 gan; 2) aʼlo darajadagi; 2. *n* oʻtkir gap; dono-
 lik bilan aytilgan soʻz

nig [nɪg] *v* toshni tarashlab tekislamoq
niggard [ˈnɪgəd] 1. *n* xasis (ziqna) odam, qu-
 rumsoq, nokas; 2. *adv* oz, kam, ozgina,
 uncha yaxshi (yetarli) emas
niggardly [ˈnɪgədli] 1. *a* xasis, ziqna, qattiq,
 qurumsoq; 2. *adv* ayab, qizgʻanib, ziqnalik
 bilan
nigger [ˈnɪgə] *n* zangi, habash; qop-qora
 (*iflos, isqirt*)
niggle [ˈnɪg(ə)l] *v* aldamoq, yolgʻon, ahmoq
 qilmoq
niggling [ˈnɪg(ə)lɪŋ] *a* 1) mayda gap; 2) chal-
 kash, oʻqib boʻlmaydigan (*husnixat, yozuv*
haqida)
nigh [naɪ] *a* yaqin joydagi, yaqindagi, yaqin
night [naɪt] *n* tun, kecha, oqshom, kechki
 payt, kechasi; **to have a good ~** yaxshi
 uxlamoq; **at ~ tunda**; **by ~ tunda**, kechasi; ~
by ~ har kecha, har kuni kechasi; **all ~**
 (**long**) tun boʻyi tinmay
night binoculars [ˈnaɪtbɪ, nɒkjʊləz] *n pl* tun-
 da koʻradigan durbin
night-bird [ˈnaɪtbɜːd] *n* 1) tunda uchadigan
 qush; 2) kech yotadigan, kechasi uzoq
 ishlaydigan, kechalari daydib yuradigan
night-blindness [ˈnaɪt, blændnəs] *n tib.* shab-
 koʻrlik
nightcap [ˈnaɪtkæp] *n* 1) tungi (kechasi ki-
 yib yotiladigan) qalpoq; 2) *amer. sport.* kun-
 ning soʻnggi musobaqasi
night-cart [ˈnaɪtkɑːt] *n* toʻrt gʻildirakli arava
 (*axlat va najaslarni tozalash ishlari uchun*
ishlatiladigan)
night-chair [ˈnaɪtʃeə] *n* tuvak (*hojat uchun*)
night-clothes [ˈnaɪtkləʊðz] *n* tunda (kecha-
 si) kiyiladigan ich kiyim
night-club [ˈnaɪtklʌb] 1. *n* tunda ishlaydigan
 klub, tungi klub; 2. *v* kechasi ishlaydigan
 klubtarga qatnashmoq
night-dress [ˈnaɪtdres] *n* ayollar yoki bola-
 larning tungi koʻylagi
nightfall [ˈnaɪtˌfɔːl] *n* 1) kech kirishi; 2) gʻira-
 shira payt, tong yorishgan yoki qosh qoray-
 gan payt
night-fighter [ˈnaɪt, faɪtə] *n av.* kechasi qi-
 ruvchi samolyot
night-flower [ˈnaɪt, fləʊə] *n* tunda ochiladi-
 gan gul
night-fly [ˈnaɪtflaɪ] *n* tun kapalagi
night-flying [ˈnaɪt, flaɪɪŋ] *n av.* tungi uchish-
 lar (parvozlilar)
night-glass [ˈnaɪtɡlɑːs] *n* kechasi koʻradigan
 dengiz durbini
night-gown [ˈnaɪtgaʊn] = **night-dress**
night-hag [ˈnaɪthæɡ] *n* 1) jodugar xotin, yal-
 mogʻiz, alvasti; 2) yomon tush; bosinqi-
 rash

- nipper** ['nɪpə] *n* 1) tishlaydigan kishi, tishlaydigan narsa; 2) ombur, qisqich
- nipping** ['nɪpɪŋ] *a* chimchilaydigan; ~ **frost** qattiq (qahraton) sovuq
- nipple** ['nɪp(ə)l] *n* 1) emchak uchi; 2) so'rg'ich; 3) *tex.* nippel (quvur, shlang va *sh. k. ni germetik ravishda ulaydigan, shuningdek, kameralardan havoni chiqarmaydigan detal*)
- Nipponese** [ˌnɪpə ˈniːz] *n* yapon ayol, yaponiyalik ayol
- nippy** ['nɪpɪ] *a* sovuq, juda sovuq
- nirvana** [ˌnɪə ˈvɑːnə] *n* nirvana (*budda dini ta'limotiga ko'ra: bu dunyo tashvishlaridan kechib o'zini rohat-farog'atda sezish*)
- Nisei, nisei** ['niːsei] *n* nasl-nasabi yapon bo'lgan amerikalik
- nisi** ['naɪsɪ] *cj. lot. yur.* agar, agarda, mabodo, bordi-yu, basharti..., bo'lmasa
- nisi prius** [ˌnaɪsɪ ˈpraɪəs] *n yur.* sudning ko'chma majlisi
- nit I** [nɪt] *n* sirka (*bit tuxumi*)
- nit II** [nɪt] *n shohl.* yong'oq, yong'oq mag'zi, yong'oq daraxti, yong'oq ko'chati
- niton** ['nɪtɒn] *n kim.* niton, radon (*kimyoviy element*)
- nitrate** ['naɪtreɪt] *n kim.* nitratlar (*azot kislotasining tuzlari*)
- nitration** [ˌnaɪ ˈtreɪʃ(ə)n] *n kim.* azotlash, azotli moddalar bilan o'g'itlash
- nitre** ['naɪtə] *n kim.* selitra (*azot kislotasining natriy, kaliy yoki ammoniyli tuzi texnikada va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi*)
- nitric** ['naɪtrɪk] *a kim.* azotli; ~ **acid** azot kislotasi
- nitrication** [ˌnaɪtrɪf ˈkeɪʃ(ə)n] *n kim.* nitrikatsiya
- nitriify** ['naɪtrɪfaɪ] *v kim.* selitruga aylantirmoq
- nitrite** ['naɪtrɪt] *n kim.* nitrat (*azot kislotasining tuzi*)
- nitrogen** ['naɪtrədʒ(ə)n] *n kim.* azot (*rangsiz va hidsiz kimyoviy element, o'simliklar ozig'ining eng muhim elementlaridan biri*)
- nitrogenous** [ˌnaɪ ˈtrɒdʒɪnəs] *a kim.* azotli, azotdan iborat bo'lgan
- nitroglycerin(e)** [ˌnaɪtrəʊ ˈglɪsərɪn] *n* nitroglitserin (*glitserin va nitrat kislotasi birikmasidan iborat moysimon modda*)
- nitron** ['naɪtrɒn] *n* nitron (*jun o'rnida ishlatiladigan pishiq sun'iy tola*)
- nitrous** ['naɪtrəs] *a kim.* tarkibida azot bo'lgan, azotli; ~ **acid** azotli kislotasi
- nitty** ['nɪtɪ] *a* bitlab ketgan, bit bosgan
- nitwit** ['nɪt,wɪt] *n so'zl.* jinni, esi past, ahmoq odam
- nitwitted** ['nɪt,wɪtɪd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq
- nival** [ˌnɪv(ə)l] *a* 1) qorli, qordan iborat bo'lgan, serqor; 2) qorning tagida o'sadigan
- nix** [nɪks] *n so'zl.* hech nima, hech narsa
- nixie** ['nɪksɪ] *n afs.* suv parisi
- no** [nəʊ] *adv* 1) yo'q; bo'lmaydi; ~ **smoking!** chekish man etiladi! 2) inkor, rozi emaslik, qo'shilmaslik
- nob** [nɒb] *n so'zl.* baland martabali, martabasi ulug'
- nobble** ['nɒb(ə)l] *v so'zl.* 1) pora berib sotib olmoq, o'z tomoniga og'dirmoq; 2) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq (olmoq); 3) (*jino-yatchi va b. ni*) tutib olmoq, qo'lga tushirmoq
- nobby** ['nɒbɪ] *a so'zl.* kelishgan, bejirim, ko'rkam, zebo, shinam, muhtasham
- nobiliary** [nə(ə) ˈbɪləri] *a* oqsuyaklarga xos (*mansub*) bo'lgan
- nobility** [nə(ə) ˈbɪlɪtɪ] *n* 1) dvoryanlar tabaqasi; 2) oqsuyaklar, zodagonlar; 3) muruvvat, himmat, oliyjanoblik; oliyhimmatlik
- noble** [ˌnəʊb(ə)l] *a* 1) himmatli, muruvvatli, oliyhimmat, oliyjanob; 2) ajoyib, a'lo darajadagi
- nobleman** [ˌnəʊb(ə)lmən] *n (pl -men [-mən])* oqsuyak, zodagon, unvonli shaxs
- noble-minded** [ˌnəʊb(ə)l ˈmaɪndɪd] *a* muruvvatli, himmatli, oliyhimmat, oliyjanob
- noble-mindedness** [ˌnəʊb(ə)l ˈmaɪndɪd-nəs] *n* muruvvat, himmat, karam, oliyjanoblik, oliyhimmatlik, fe'li kengli
- nobleness** [ˌnəʊblnəs] *n* 1) oliyjanoblik, oliyhimmatlik, vijdonlilik, poklik, mardlik, mardonavorlik; 2) aslzodalik, zodagonlik
- noblewoman** [ˌnəʊb(ə)l,wʊmən] *n (pl -women [-wɪmɪn])* oqsuyak ayol, zodagon ayol
- nobody** [ˌnəʊbɒdɪ] *pron.* hech kim, hech kimsa, hech bir inson
- noctiflorous** [ˌnɒktɪ ˈflɔːrəs] *a bot.* kechasi (*tunda*) gullaydigan
- noctovision** [ˌnɒktə ˈvɪʒ(ə)n] *n* qorong'ida ko'rish qobiliyati
- nocturnal** [ˌnɒk ˈtɜːnl] *a* kechki, kechqurungi
- nocturne** [ˌnɒktɜːn] *a mus.* noktyurn (*kichkina lirik musiqa asari*)
- nocuous** [ˌnɒkjʊəs] *a* 1) zararli (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli; 2) zaharli, og'uli
- nod** [nɒd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh igr'atmoq
- nodal** [ˌnəʊdl] *a* markaziy, o'rtadagi, markazdagi, o'рта
- noddle** ['nɒdl] *n so'zl.* kalla, bosh
- noddy** ['nɒdɪ] *n* 1) soddadil odam, go'l odam; 2) esi yo'q (ahmoq) odam, ahmoq, tentak, esi past; 2) shimoliy qutb dengizlarida yashaydigan suv qushi

node [nɒd] *n* 1) *tib.* o'simta; 2) *mat.* ikki chiziqning kesish nuqtasi; 3) *astr.* orbitalarning kesish nuqtasi
nodical ['nɒdɪk(ə)l, 'nəʊdɪk(ə)l] *a* orbitalarning kesish nuqtasiga oid
nodose ['nəʊdəʊs] *a* 1) tugunli, sertugun; 2) bo'g'inlari turtib chiqqan; g'adir-budur, serko'z
nodosity [nəʊ'dɒsɪtɪ] *n* 1) tugunlilik, sertugunlik; 2) bo'g'inlari turtib chiqqanlik; g'adir-budurlik, serko'zlik; 3) yo'g'onlashish, qalinlashish; qalinlashtirish, yo'g'onlashtirish
nodular ['nɒdjʊlə] *a* kurtaksimon, buyraksimon; ~ **ore** buyraksimon ruda
nodulated ['nɒdjʊlətɪd] = **nodular**
nodule [nɒdju:l] *n* tuguncha, kichkina tugun
nodulose, nodulous ['nɒdjʊləʊs, 'nɒdjʊləs] *a* bo'g'inlari turtib chiqqan, g'adir-budur
nodus ['nɒdəs] *n* (*pl* **nodii**) 1) tugun (*mu-rakkab vaziyat, sharoit, holat*); 2) qiyinchilik, qiyin (og'ir, mushkul) ahvol, mashaqqat, mushkullik, tanglik
noetic [nəʊ'etɪk] *a* aqliy, ruhiy, ma'naviy, zakovatli
nog [nɒg] *n* yog'och pona, yog'och mix, mixcho'p
noggin ['nɒɡɪn] *n* kichkina krujka
nohow [nəʊhəʊ] *adv* so'zl. aslo, hech, sira, mutlaqo
noise [nɔɪz] *n* shovqin, to'polon
noise-killer ['nɔɪz,kɪlə] *n* shovqin pasaytirgich
noiseless ['nɔɪzləs] *a* shovqinsiz, tovushsiz, ohista
noisome ['nɔɪs(ə)m] *a* 1) zararli, ziyonli, yomon; 2) hidi yomon, sassiq, badbo'y; 3) juda xunuk, yoqimsiz
noisy ['nɔɪzi] *a* 1) shovqin-suronli, sershovqin, shovqinli; 2) yorqin, charaqlagan
nomad ['nəʊmæd] *n* ko'chmanchi, daydib yuradigan kishi
nomenclature [nəʊ'menklətʃə] *n* 1) nomenklatura (*nomlar, atamalar, terminlar majmuyi*); 2) terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*)
nominal ['nɒmɪnəl] *a* nominal
nominate I ['nɒmɪneɪt] *v* tayinlamoq (*lavozimga*)
nominate II ['nɒmɪneɪt] *v* (*saylovda*) nomzod ko'rsatmoq
nomination [nɒmɪ'neɪʃ(ə)n] *n* 1) tayinlash; 2) nomzodni ko'rsatish
nominate ['nɒm(ɪ)nətɪv] *n* *gram.* bosh kelishik

nominee [ˌnɒmɪ'ni:] *n* saylovda nomzodi taklif etilgan shaxs (*nomzod*)
non-aggression [ˌnɒnə'ɡresʃ(ə)n] *n* hujum qilmaslik; ~ **pact** hujum qilmaslik haqidagi shartnoma
non-aligned [ˌnɒnə'laɪnd] *a* siyos. qo'shilmasslik siyosatini tutuvchi; harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmagan
non-alignment [ˌnɒnə'laɪnmənt] *n* siyos. blok yoki harbiy guruhlariga qo'shilmasslik
non-belligerence [ˌnɒnbə'lɪdʒ(ə)rəns] *n* urushda qatnashmaslik
nonchalant [ˌnɒnʃələnt] *a* loqayd, beparvo, ehtirossiz, hayajonsiz, sovuqqon
non-combatant [ˌnɒn'kɒmbət(ə)nt] *n* safdan tashqari, xizmatdagi askar
non-commissioned officer [ˌnɒnkə'mɪʃ(ə)nd'ɒfɪsə] *n* serjant
non-committal [ˌnɒnkə'mɪtl] *a* gapni chalg'ituvchi; samimiy bo'lmagan
non-conductor [ˌnɒnkən'daktə] *n* fiz. dielektrik (*elektr o'tkazmaydigan modda*)
nonconformist [ˌnɒnkən'fɔ:mɪst] *n* dindan qaytgan, murtad; mazhabparast
non-descript ['nɒndɪ,skrɪpt] *a* zerikarli, qiziq emas
none [nʌn] 1. *pron.* hech kim, hech narsa, hech bir; 2. *adv* zinhor, aslo, sira, hech ham
nonentity [nɒ'nentɪtɪ] *n* 1) e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'q odam, faqir, notavon; 2) mavjud bo'lmagan narsa, yo'q narsa; 3) fano, yo'qlik, hayotning, faoliyatning yo'q bo'lib ketishi
non-existence [ˌnɒnɪg'zɪst(ə)ns] *a* mavjud bo'lmagan
non-ferrous [ˌnɒn'ferəs] *a* rangli (*metall to'g'risida*)
non-governmental [ˌnɒŋɡəv(ə)n'mentl] *a* hukumarga qarashli bo'lmagan, nodavlat
non-interference [ˌnɒnɪntə'fɪ(ə)rəns] *n* aralashmaslik
non-intervention [ˌnɒnɪntə'venʃ(ə)n] *n* aralashmaslik
nonmember [ˌnɒn'membə] *a* a'zo bo'lmagan
non-nuclear [ˌnɒn'nju:kliə] *a* yadro qurolidan foydalanmaydigan
non-observance [ˌnɒnəb'zɜ:v(ə)ns] *n* (*qoidalar va sh. k. ga*) rioya qilmaslik; (*qonunni*) buzish
non-partisan [ˌnɒnpɑ:tɪ'zæn] *a* partiyasiz, hech qaysi bir partiya a'zo bo'lmagan
non-party [ˌnɒn'pɑ:ti] *a* partiyasiz, partiya a'zo bo'lmagan
non-persistent [ˌnɒnpə'sɪstənt] *a* turg'un emas, tez tarqaladigan; ~ **gas** tez tarqalib ketadigan gaz

nonplus [ˈnɒplʌs] *n* qiyin (tang) ahvol
nonpolitical [ˌnɒnpəˈlɪtɪk(ə)l] *a* siyosat bilan bogʻliq boʻlmagan
non-proliferation [ˌnɒnpəˈlɪfəˈreɪʃ(ə)n] *n* yadro qurolini tarqatmaslik
nonrecognition [ˌnɒnrekəɡˈnɪʃ(ə)n] *n* tan olmaslik, qabul qilmaslik
nonrenewable [ˌnɒnrɪˈnjuːəb(ə)l] *a* tiklanmaydigan, tiklab boʻlmaydigan
non-self-governing [ˌnɒnsɛlfˈgʌvənɪŋ] *a* oʻz-oʻzini boshqara olmaydigan
nonsense [ˈnɒns(ə)ns] *n* safsata, behuda gap; **to talk ~** bemaʼni soʻzlarni gapirmoq
nonsensical [ˌnɒnˈsensɪk(ə)l] *a* bemaʼni, kelishmagan; tuturiqsiz
non-smoker [ˌnɒnˈsməʊkə] *n* chekmaydigan kishi
non-starter [ˌnɒnˈstɑːtə] *n* kelajagi yoʻq (*shaxs, reja, gʻoya va b. haqida*)
non-stick [ˌnɒnˈstɪk] *a* tagi kuymaydigan, tagiga olmaydigan, tagiga oldirmaydigan
non-stop [ˌnɒnˈstɒp] *a* 1) qoʻnmaydigan, toʻxtamaydigan; 2) toʻxtovsiz davom etadigan
non-union [ˌnɒnˈjuːniən] 1. *a* kasaba uyushmasiga aloqasi boʻlmagan; kasaba uyushmasiga aʼzo boʻlmagan; 2. *n* tib. sinishdan keyin suyaklarning bitib ketmasligi
nonuse [ˌnɒnˈjuːs] *n* ishlatilmaslik
nonviolence [ˌnɒnˈvaɪələns] *n* zoʻravonlik uslublarini qoʻllashdan voz kechish
noodle I [ˈnuːdl] *n* soʻzl. befahm (anqov, laqma) odam
noodle II [ˈnuːdl] *n* pl boʻshang odam, latta
noodles [ˈnuːdlz] *n* ugra, ugra osh
nook [nɒk] *n* goʻsha, burchak, pana (xilvat) joy
noon [nuːn] *n* peshin, kun oʻrtasi, tun vaqti; ~ meal tushlik; at ~ peshinda
noose [nuːs] *n* ilmoq, sirtmoq, halqa, dor, tuzoq
nor [nɔː] *cf.* na..., ham...; ~ ... nor na..., na...; **neither you - he** na sen, na u
norm [nɔːm] *n* 1) meʼyor, tartib; 2) namuna, qolip, andaza
normal [ˈnɔːm(ə)l] *a* 1) meʼyordagi; 2) oddiy, oʻrtamiyona
normalization [ˌnɔːməlaɪˈzeɪʃn] *n* normalashtirish, tartibga solish, bir meʼyorga keltirish, tartibga solish
normalize [ˈnɔːməlaɪz] *v* normalashtirmoq, tartibga keltirmoq
north [nɔːθ] *n* shimol; ~ Star Qutb yulduzi; **in the ~** shimolda; **to the ~ of a)** ...dan shimolga; b) ...ning shimolida
norther [ˈnɔːθə] *n* qattiq shimoliy shamol
northerly [ˈnɔːθəli] *a* shimoliy, shimolda boʻladigan

northern [ˈnɔːðən] *a* shimoliy; ~ east shimoli sharq; ~ Sea Shimoliy dengiz
northerner [ˈnɔːð(ə)nə] *n* shimolda yashovchi kishi; shimollik
northernmost [ˈnɔːðənmoʊst] *a* eng shimoldagi, shimolga eng yaqin boʻlgan
northward [ˈnɔːθwəd] *adv* shimolga, shimol tomonga
northward(s) [ˈnɔːθwədz] = **northward**
north-west [ˌnɔːθˈwest] *n* shimoli gʻarb, shimoliy-gʻarbiy taraf (tomon)
north-wester [ˌnɔːθˈwestə] *n* shimoliy-gʻarbiy shamol
Norwegian [nɔːˈwiːdʒ(ə)n] 1. *a* Norvegiya va norvegiyaliklarga oid; 2. *n* 1) norveg. norveg ayoli; 2) norveg tili
nor-wester [ˌnɔːˈwestə] *n* 1) = **north-wester**; 2) oʻtkir musallasning stakani; bir stakan oʻtkir musallas
nose [nəʊz] *n* anat. burun
nosedive [ˈnəʊzdɑɪv] *v* av. shoʻngʻimoq, shoʻngʻib uchmoq (*samolyot haqida*)
nosegay [ˈnəʊzgeɪ] *n* bir dasta gul, gul dastasi
nosey [ˈnəʊzi] *a* soʻzl. 1) burni katta, burundor; 2) uzuntumshuq, tumshugʻi uzun; 3) boshqalarning ishiga qiziquvchan
nostalgia [nɒˈstældʒɪə] *n* vatanni sogʻinish, qoʻmsash
nostril [ˈnɒstrɪl] *n* burun teshigi, burun kovagi
not [nɒt] *adv* yoʻq, emas; **he is - here** u bu yerda yoʻq
notable [ˈnəʊtəb(ə)l] 1. *n* mashhur odam; 2. *a* taniqli, mashhur, buyuk, atoqli
notably [ˈnəʊtəblɪ] *adv* 1) ayniqsa, asosan; 2) nihoyatda, bagʻoyat, juda ham; ancha sezilarli daraja
notary [ˈnəʊtəri] *n* notarius
notation [nəʊˈteɪʃ(ə)n] *n* qayd, qayd qilish; shartli belgilar bilan koʻrsatish
notch [nɒtʃ] 1. *n* kertma belgi, kertik, belgi; 2. *v* kertmoq, kertik solmoq, kertib belgi qoʻymoq
note [nəʊt] 1. *n* 1) yozuv; 2) izoh, eslatma; ~book daftar; ~pad daftarcha; 2. *v* 1) ahamiyat bermoq; 2) qayd qilmoq, yozmoq
noted [ˈnəʊtɪd] *a* atoqli, mashhur, buyuk, taniqli
note-paper [ˈnəʊtˌpeɪpə] *n* pochta qogʻozi
noteworthy [ˈnəʊtˌwɜːði] *adv* diqqatga sazovor
nothing [ˈnʌθɪŋ] 1. *pron. neg.* hech nima, hech narsa; 2. *adv* hech, hech bir, sira, aslo, zinhor
notice [ˈnəʊtɪs] 1. *n* eʼtibor berish, payqash; **without** - (rasmiy ravishda) ogohlantirmasdan; 2. *v* eʼtibor bermoq, payqamoq

notice-board [ˈnəʊtɪsbɔ:d] *n* eʼlonlar taxtasi, eʼlonlar osiladigan (yopishtiriladigan) taxta

notification [ˌnəʊtɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* bildirish, eʼlon, xabarnoma

notify [ˈnəʊtɪfaɪ] *v* xabar qilmoq; bildirmoq

notion [ˈnəʊʃ(ə)n] *n* tushuncha, gʻoya, niyat, maqsad, oʻy, fikr

notional [ˈnəʊʃ(ə)nəl] *a* fals. mavhum, sinalmagan, tajribaga asoslanmagan; ~ *words gram.* leksik maʼno anglatuvchi soʻzlar

notoriety [ˌnəʊtəˈrɪəti] *v* yomon ot chiqarish, yomon shuhrat, badnomlik

notorious [nə(ʊ)ˈtɔ:riəs] *a* salbiy jihatdan mashhur, yomon ot chiqargan, badnom

notwithstanding [ˌnɒtwɪðˈstændɪŋ] *prep.* shunday boʻlsa ham, shunga qaramay

nought [nɔ:t] *n* 1) hech nima, hech narsa; 2) *mat.* nol

noun [naʊn] *n gram.* ot; **proper** – atoqli ot; **common** – turdosh ot

nourish [ˈnaɪrɪʃ] *v* 1) boqmoq, ovqatlantirmoq; 2) hislarni yoki ishonchni kuchaytirmoq

nourishing [ˈnaɪrɪʃɪŋ] *a* toʻq tutadigan, toʻyimli

nourishment [ˈnaɪrɪʃmənt] *n* ovqat, oziq, taom

nous [naʊs] *n* 1) aql, fahm, idrok, zehn; 2) toʻgʻri (sogʻlom) fikr

novation [ˌnəʊˈveɪʃ(ə)n] *n* yangilik, yangi rasm-rusum, yangi kiritilgan tartib-qoida (*usul, rasm-rusum va h. k.*), yangilik

novel [ˈnɒv(ə)l] *1. n* 1) roman; 2) yangi gʻalla; 3) yangi hosilning doni (gʻallas); *2. a* yangi, nomaʼlum, notanish

novelist [ˈnɒv(ə)lɪst] *n* roman yozadigan yozuvchi

novelty [ˈnɒv(ə)lɪti] *n* yangilik; yangi chiqqan narsa

November [nə(ʊ)ˈvembə] *n* noyabr

novice [ˈnɒvɪs] *n* shogird; yangi kelgan

now [naʊ] *adv* hozir; **just** – hozirgina; **up to** – hozirgacha

nowaday [ˌnaʊədəɪ] *a* hozirgi, shu paytdagi, hozirgi vaqtdagi

nowadays [ˌnaʊədəz] *adv* hozirgi kunda, bizning davrimizda, shu kunlarda

nowhere [ˌnəʊweə] *adv* hech qayerga, hech qayerda

nowise [ˌnəʊwaɪz] *adv* aslo, hech, sira, mutlaqo

noxious [ˈnɒksjəs] *adv* zararli, zarar (ziyon) qiladigan, yomon, halokatli; ~ *air* konning zaharli havosi; ~ *plants* zaharli oʻsimliklar

nozzle [ˈnɒz(ə)l] *n* *tex.* suv yoki gaz quvurining joʻmrangi

n't [nt] *soʻzl. of not*

nth [enθ] *a mat.* biror, qandaydir, muayyan (maʼlum) bir

nuance [ˈnju:əns] *n fr.* nozik farq, sezilar-sezilmas farq

nub [nʌb] *n* 1) yoʻgʻonlashish, qalinlashish; 2) asl maʼno, tub mohiyat, ishning mohiyati

nuclear [ˈnju:kliə] *a* yadroga (atom yadrosiga) oid; ~ **energy** yadro (atom) energiyasi

nuclei [ˈnju:kliəri] *pl of nucleus*

nucleus [ˈnju:kliəs] *n (pl -lei [-liəri])* 1) oʻzak, markaz; yadro; 2) *biol.* hujayra yadrosi; 3) atom yadrosi

nude [nju:d] *a* yalangʻoch; ochilib qolgan, ochiq

nudge [nʌdʒ] *1. n* tirsak bilan sekin turtib qoʻyish; *2. v* tirsak bilan sekin turtib qoʻymoq (*birovning diqqatini oʻziga tortish uchun*)

nudity [ˈnju:di:ti] *n* yalangʻochlik; yalangʻoch joy

nugatory [ˈnju:gət(ə)rɪ] *a* 1) arzimaz, ahamiyatsiz, behuda, oson; 2) qonuniy kuchga ega boʻlmagan; 3) foydasiz, natijasiz

nugget [ˈnʌɡɪt] *n* sof holda topilgan metall (oltin)

nuisance [ˈnju:s(ə)ns] *n* 1) koʻngilsizlik; koʻngilsiz; 2) alam, ranj, oʻkinch, achinish

null [nʌl] *a* qonuniy kuchga ega boʻlmagan, bekor qilingan

nullify [ˈnʌlɪfaɪ] *v* bekor qilmoq, yoʻq qilmoq, kuchdan qoldirmoq

nullity [ˈnʌlɪti] *n* 1) eʼtibori (salmogʻi, nufuzi) yoʻqlik, eʼtiborsizlik, arzimaganlik, juda kichkinalik, haqirlik, notayonlik; 2) *yur.* qonuniy kuchga ega boʻlmaslik, bekor qilinganlik, bekor qilishlik

numb [nʌm] *a* karaxt, uvushib qolgan

number [ˈnʌmbə] *n* son, miqdor, raqam; *a* ~ of koʻp

numeral [ˈnju:m(ə)rəl] *n* 1) raqam; 2) *gram.* son

numerate [ˈnju:məreɪt] *v* sanamoq, hisoblamoq

numeration [ˌnju:məˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) hisoblash, sanash, sanoq; 2) tartib raqamlari

numerator [ˈnju:məreɪtə] *n* 1) *mat.* surat; 2) hisoblovchi, hisobchi; 3) *tex.* hisoblagich

numerical [ˈnju:ˈmerɪk(ə)l] *a* raqamlarga oid, raqamlar bilan koʻrsatilgan, raqamli

numerous [ˈnju:m(ə)rəs] *a* 1) koʻp sonli, koʻp kishilik; 2) koʻp, koʻpgina, ancha

numskull [ˈnʌmskʌl] *n* ahmoq, tentak, nodon

nun [nʌn] *n* rohiba

nunnery [ˈnʌnəri] *n* ayollar monastiri

nuptial [ˈnʌpʃ(ə)l] *1. a* nikohga, er-xotinlikka oid; *2. n* toʻy, nikoh toʻyi

nurse [nɜ:s] *n* 1) boquvchi xotin, enaga; 2) hamshira
nurseling [ˈnɜ:slɪŋ] *n* 1) emadigan bola; 2) shogird; 3) arzanda
nursery [ˈnɜ:s(ə)rɪ] *n* 1) bolalar xonasi; 2) bolalar bog'chasi
nursling [ˈnɜ:slɪŋ] = **nurseling**
nurture [ˈnɜ:tʃə] *v* 1) parvarish qilmoq, boqmoq; 2) tarbiyalamoq, o'qitmoq, o'rgatmoq
nut [nʌt] **1.** *n* yong'oq; **2.** *v* yong'oq termoq
nutcracker [ˈnʌt,krækə] *n* yong'oq chaqadigan qisqich
nutmeg [ˈnʌtmeg] *n* muskat yong'og'i
nutrient [ˈnju:triənt] **1.** *n* ovqat bo'ladigan moddalar; ovqat (oziq) moddalari; **2.** *a* 1) yeb bo'ladigan, ovqat (oziq) bo'ladigan; 2) to'q tutadigan, to'yimli; ~ value to'yimlilik, to'q tutish xossasi
nutrition [nju:ˈtrɪʃ(ə)n] *n* oziq, ovqat, taom
nutritious [nju:ˈtrɪʃəs] *a* ovqat (oziq) bo'ladigan, yeb bo'ladigan
nutritive [ˈnju:trɪtv] *n* ovqat (oziq) moddalari
nutshell [ˈnʌtʃel] *n* yong'oq po'chog'i; **in a** ~ qisqa qilib, ikki og'iz so'z bilan
nutter [ˈnʌtə] *n* jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam
nut-tree [ˈnʌtri:] *n* yong'oq daraxti
nutty [ˈnʌti] *a* 1) yong'oq ta'mli; 2) mazali, lazzatli, totli, shirin; 3) qiziqarli
nutwood [ˈnʌtwʊd] *n* 1) yong'oq daraxti; 2) o'rmon yong'og'i (*butasimon o'simlik*)
nuzzle [ˈnʌz(ə)l] *v* hidlamoq, iskamoq, hidlab ko'rmoq (*ular haqida*)
nyctalopia [ˈnɪktəˈlɔ:piə] *n* shabko'rlik
nylon [ˈnaɪlɒn] **1.** *n* neylon (*sun'iy tola va toladan to'qilgan gazlama*); **2.** *a* neylondan tayyorlangan
nymph [nɪmf] *n* 1) nimfa (*yunon mifologiyasida: tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohiyasi*); 2) *zool.* lichinka (*kapalak, chivin, chuvalchang va sh. k. ning tuxumidan chiqqan qurti*)

O

O, o [əʊ] *n* ingliz alifbosining o'n beshinchi harfi
O' [əʊ-] *pref.* irlandcha oilardan oldin qo'yiladigan prefiks, mas., **O'Henry** O'Henri
oaf [əʊf] *n* (*pl* **oafs** [-s], **oaves**) 1) xunuk yoki g'o'r bola; 2) aqli noqis, esi past, ahmoq odam
oafish [ˈəʊfɪʃ] *a* 1) aqli noqis, miyasi yu'q, esi past, kaltafahm; 2) beso'naqay, beo'xshov, qo'pol

oak [əʊk] *n* *bot.* dub, eman; bolut
oak-apple [ˈəʊk,æpl] *n* mozi (*bolut daraxtining bargida ba'zi parazitlar ta'sirida hosil bo'ladigan yong'oqsimon o'simta*)
oaken [ˈəʊkən] *a* dubga oid, dubdan ishlangan
oakery [ˈəʊk(ə)rɪ] *n* dubzor o'rmon, emanzor
oak-fig [ˈəʊkfɪg] = **oak-apple**
oak-gall [ˈəʊkɡɔ:l] = **oak-apple**
oaklet [ˈəʊkɪt] *n* yosh dub (eman)
oakling [ˈəʊklɪŋ] = **oaklet**
oak-nut [ˈəʊknʌt] = **oak-apple**
oak-tree [ˈəʊktri:] *n* dub, bolut, eman daraxti
oakum [ˈəʊkəm] *n* zig'irpoyaning dag'al to'lasi; kanop losi
oak-wart [ˈəʊkwɔ:t] = **oak-apple**
oak-wood [ˈəʊkwʊd] *n* dubzor o'rmon, dubzor, emanzor
oaky [ˈəʊki] *a* dubga oid, dubdan ishlangan
oar [ɔ:] *n* 1) eshkak, chovxoda, chov; **a pair** ~ **boat** ikki eshkakli qayiq; **a four** ~ **boat** to'rt eshkakli qayiq; 2) eshkak eshuvchi; **a good** ~ yaxshi eshkakchi (eshkak eshuvchi); 2. *v* eshkak eshmoq
oarage [ˈɔ:riɔ:] *n* eshkak eshish
oared [ɔ:d] *a* eshkakka oid, eshkakli
oarer [ˈɔ:rə] = **oarsman**
oarsman [ˈɔ:zmən] *n* (*pl* ~ **men** [-mən]) eshkakchi, eshkak eshuvchi
oarsmanship [ˈɔ:zmənʃɪp] *n* eshkak eshish san'ati, eshkak eshish qobiliyati
oases [əʊˈeɪsi:z] *pl of* **oasis**
oasis [əʊˈeɪsɪs] *n* voha, vodiy
oast [əʊst] *n* undirib yanchilgan bug'doy yoki arpani quritadigan pech
oast-house [ˈəʊsthaʊs] *n* qulmoqni (xmelni) quritadigan quritish mo'stamasi
oat [əʊt] **1.** *n* (*pl* 1) suli; 2) *attr.* suliga oid; suli yormasidan (unidan) tayyorlangan
oatcake [ˈəʊtkeɪk] *n* suli unidan tayyorlangan non
oaten [ˈəʊtən] *a* esk. shoir. suliga oid, suli yormasidan tayyorlangan
oat-flakes [ˈəʊtflɛɪks] *n* *pl* suli yormasi
oath [əʊθ] *n* ont, qasam; **on** ~ qasamyod qilib; ~ **of** **allegiance** harbiy qasam; ~ **of** **office** biror mansabga o'tirishdan oldin qabul qilinadigan qasam
oath-breaker [ˈəʊθ,breɪkə] *n* qasamxo'r, qasamini buzgan odam, ontidan qaytgan odam
oath-breaking [ˈəʊθ,breɪkɪŋ] *n* qasamyodni buzish
oatmeal [ˈəʊtmi:l] *n* 1) suli uni, suli yormasi; 2) sulidan qilingan to'qon; 3) suli unidan, yormasidan tayyorlangan bo'tqa
oats [əʊts] *n* *pl* suli yormasi; suli bo'tqasi

oaves [əʊvz] *pl of oaf*

obduracy [ˈɒbdʒərəsɪ] *n* 1) qotganlik, suvi qochganlik; 2) o'jarlik, qaysarlik

obdurate [ˈɒbdʒʊrət] *a* 1) qotib qolgan, suvi qochgan; 2) o'jar, qaysar

obedience [əˈbi:diəns] *n* itoat qilish, quloq solish, itoatkorlik, bo'ysunish

obedient [əˈbi:diənt] *a* gapga kiradigan, itoatkor

obedientary [əˈbi:diˈenʃ(ə)rɪ] *n* monax, rohib

obedience [əʊˈbeɪs(ə)ns] *n* 1) tiz cho'kib ta'zim qilish, bosh egib ta'zim qilish; 2) hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom; **to do (to make, to pay)** ~ birovga hurmat (ehtimom) ko'rsatmoq

obelisk [ˈɒbəlɪsk] *n* yodgorlik

obelisk [ˈɒbəlɪsk] *n* yodgorlik

obelize [ˈɒbəlɪz] *v* krest (*xoch*) belgisini qo'yimoq

obelus [ˈɒbɪləs] *n* (*pl -li [-lar]*) = **obelisk**

obese [əʊˈbi:s] *a* 1) semiz, yo'g'on; 2) semizlikdan azob tortayotgan

obesity [əʊˈbi:sɪtɪ] *n* 1) semizlik, to'lalik; 2) semirish, yog' bosib ketish

obey [əʊˈbeɪ] *v* quloq solmoq, itoat qilmoq; **to ~ the law** qonunga itoat qilmoq

obfuscate [ˈɒbfʌsket] *v* 1) qorong'ilashtirmoq; 2) chalkashtirmoq (*savol va b. haqida*)

obi [ˈɒbi] *n* yap. ipakdan qilingan keng belbog'

obiter [ˈɒbɪtə] *adv* *loc.* 1) yo'l-yo'lakay, shunchaki; 2) darvoqe, aytmog'chi

obituarist [əˈbɪtʃu(ə)rɪst] *n* ta'ziyanoma muallifi

obituary [əˈbɪtʃuəri] *n* 1) ta'ziyanoma; 2) o'lganlar ro'yxati

object I [ˈɒbdʒekt] *n* 1) predmet, narsa; 2) gram. to'ldiruvchi; 3) maqsad

object II [əbˈdʒekt] *v* qarshilik qilmoq, e'tiroz bildirmoq (**to, against**); **to ~ to ...ga** qarshi bo'lmoq, ...ga e'tiroz bildirmoq; **I ~ to drinking** men odamlarning spirtli ichimlik ichishlariga qarshiman

object-flinder [ˈɒbdʒɪktˌfaɪndə] *n* sur. vidiskatel (*foto va kinoapparatlarning suratga olinadigan obyekt holatini kuzatish uchun xizmat qiladigan moslamasi*)

object-glass [ˈɒbdʒektˌglɑ:s] *n* opt. obyektiv (*optik asbob shishasi*)

objectify [əbˈdʒektɪfaɪ] *v* gavdalanitirmoq, mujassamlantirmoq, gavdalanitirib ko'rsatmoq

objection [əbˈdʒekʃ(ə)n] *n* e'tiroz, qarshilik, norozilik; ~ **to ...ga** e'tiroz; **to take ~** qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq

objectionable [əbˈdʒekʃ(ə)nəb(ə)l] *a* xush kelmaydigan, yoqmaydigan, nomatlub, yoqimsiz; munozarali

objective [əbˈdʒektɪv] **I.** *n* 1) maqsad, intilish; 2) opt. obyektiv (*optik asbob shishasi*); **2.** *a* xolis, beg'araz; ~ **case gram.** tushum yoki jo'nalish kelishigi; ~ **method fals.** induktiv metod

objectivism [əbˈdʒektɪvɪz(ə)m] *n* fals. obyektivizm (*ijtimoiy hayot hodisalari*ni passiv qayd etish bilangina cheklanib, ularni abadiylashtirishga qaratilgan idealistik falsafiy oqim)

objectivity [ˌɒbdʒekˈtɪvɪti] *n* xolislik

objectless [ˈɒbdʒektləs] *a* ma'lum maqsadga qaratilmagan; bemaqsad, maqsadsiz

object-lesson [ˈɒbdʒektˌles(ə)n] *n* ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda o'tiladigan dars

objector [əbˈdʒektə] *n* qarshilik bildiradigan, e'tiroz bildiradigan kishi

objurgate [ˈɒbdʒɜ:geɪt] *v* 1) so'kmoq, urishmoq, koyimoq; 2) gina qilmoq, o'pkalamoq, ta'na qilmoq, ayblamoq

objurgation [ˈɒbdʒɜ:geɪʃ(ə)n] *n* ta'na, ta'na qilish, yuziga solish

objurgatory [ˈɒbˈdʒɜ:gət(ə)rɪ] *a* ta'nali, ginali, ta'nani ifodalaydigan

oblite [ˈɒblɪt] *a* cherk. o'zini bag'ishlagan (*monaxlik hayotiga va b.*)

oblation [əˈbleɪʃ(ə)n] *n* 1) qurbonlik, qurbon, qurbonlik qilish; 2) xayrli ishga *yoki* cherkovga xayr-ehson qilish

oblational [əˈbleɪʃ(ə)nəl] *a* qurbonga, qurbonlikka oid, qurbonlikka ataigan

obligatory [ˈɒblɪgət(ə)rɪ] = **oblational**

obligate [ˈɒblɪgeɪt] *v* majbur qilmoq

obligation [ˈɒblɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* 1) majburiyat; **to be under an ~** kimningdir oldida qarzdor bo'lmoq; **to undertake ~s** majburiyatlar olmoq; 2) burch, vazifa; **to undertake on ~** majburiyat olmoq

obligatory [əbˈblɪgət(ə)rɪ] *a* majburiy, bajarilishi (qilinishi) shart bo'lgan, albatta qilinishi kerak bo'lgan

oblige [əˈblɪdʒ] *v* majbur etmoq, talab qilmoq, zimmasiga yuklamoq; **much ~d to you** men sizdan minnatdorman

obliged [əˈblɪdʒd] *a* minnatdor, qarzdor

obliging [əˈblɪdʒɪŋ] *a* xizmatga tayyor, iltifotli, so'zining ustidan chiqadigan, buyurilgan ishdan bo'yin tovlamaydigan

obligingly [əˈblɪdʒɪŋli] *adv* iltifot bilan, nazokat (muloyimlik) bilan

obligor [ˈɒblɪˈɡɔ:] *n* yuz. o'ziga majburiyat olgan odam

oblique [əˈbli:k] *a* qiya, qiyalama, bir tomonga nishab (*yoki* qiyshaygan, yonboshlagan); ~ **case** *gram.* bosh kelishikdan boshqa kelishik

obliquity [əˈblikwɪtɪ] *n* noto'g'ri yo'nalish
obliterate [əˈblɪtəreɪt] *v* o'chirmoq, o'chirib tashlamoq

obliteration [əˈblɪtəˈreɪʃ(ə)n] *n* o'chirish, o'chirib tashlash, chizib tashlash

oblivion [əˈblɪvɪən] *n* esdan chiqarish, unutilish, yoddan chiqarish, esdan chiqarib yuborish; **act of** ~ umumiy afv (kechirish, gunohidan o'tish)

oblivious [əˈblɪvɪəs] *a* xotirasi past, faromushxotir, unutuvcchan, esidan chiqadigan, unutadigan, parishon

oblong [ˈɒblŋ] *a* 1) cho'zinchoq, uzunchoq, cho'ziq; 2) uzaytirilgan

obloquy [ˈɒbləkwɪ] *n* yomonlab gapirish, qattiq so'kish, haqorat qilish

obnoxious [əbˈnɒksjəs] *a* 1) bezbet; 2) yoqimsiz, jirkanch, yomon, chidab (toqat qilib) bo'lmaydigan

oboe [ˈəʊə] *n* *it.* goboy (*puflab chalinadigan yog'och musiqa asbobi*)

oboist [ˈəʊəɪst] *n* goboy chaluvchi sozanda

obscene [əbˈsi:n] *a* beadab, odobsiz, odobdan tashqari, axloqsiz, yaramas, nomunosib

obscenity [əbˈsenɪtɪ] *n* 1) beadablik, uyatsizlik, yomonlik; 2) yaramas xatti-harakat, uyat gap

obscurant [ɒbˈskjʊ(ə)rənt] *n* nodon, jaholatparastlik, ilm-ma'rifat dushmani

obscurantism [ˌɒbskjʊˈræntɪz(ə)m] *n* nodonlik, jaholatparastlik, ilm-ma'rifatga dushmanlik

obscurantist [ˌɒbskjʊˈræntɪst] *a* obskuranizmga oid, jaholatparastlikdan iborat bo'lgan

obscuration [ˌɒbskjʊˈreɪʃ(ə)n] *n* xiralashtirish, qorong'lashish

obscure [əbˈskjʊə] **1.** *a* 1) qorong'i, zulmatdagi; 2) tushunib bo'lmaydigan; **2.** *v* qorong'lashtirmoq

obscurity [əbˈskjʊ(ə)rɪtɪ] *n* 1) tim qorong'lik, zimiston, zim-ziyo, zulmat; 2) tushunib bo'lmaydiganlik

obsecration [ˌɒbsɪˈkreɪʃ(ə)n] *n* 1) iltijo, o'tinib so'rash; 2) rahm-shafqat so'rash

obsequial [əbˈsi:kwiəl] *a* dafn etishga (ko'mishga) oid

obsequies [ˈɒbsɪkwɪz] *n* *pl* dafn qilish marosimi, ko'mish, dafn etish

obsequious [əbˈsi:kwiəs] *a* xushomadgo'y, laganbardor, qullarcha bosh eguvchi

obsequiousness [əbˈsi:kwiəsənəs] *n* xushomadgo'ylik, laganbardorlik

observable [əbˈzɜ:vəb(ə)] *a* ko'zga tashlanadigan, ko'rinib (sezilib, bilinib) turgan

observance [əbˈzɜ:v(ə)ns] *n* 1) (*qonunga, urf-odatga va b. ga*) rioya qilish, amal qilish; 2) tartib, taomil, odat, (*qonuni*) bajarish

observant [əbˈzɜ:v(ə)nt] *a* 1) kuzatuvchan, ziyrak; 2) tirishqoq, harakatchan

pyramid [ˈpɪrəmid] *n* 1) *mat.* piramida; 2) *tar.* piramida. ehrom; 3) piramida shaklida terib qo'yilgan narsalar; 4) *sport.* piramida (*bir-birining ustiga chiqib hosil qilingan piramidasimon shakl*); 5) *maxs.* piramida (*mlitq-larni tikka terib qo'yishga moslangan joy*); 6) piramida (*16 soqqali bilyard o'yini hamda o'yin boshida uchburchak shaklida terilgan 15 dona soqqa*)

pyre [paɪə] *n* dafn etish (*ko'mish*) gulxani

python [ˈpaɪθ(ə)n] *n* zool. piton (*tropik mamlikatlarda boʻladigan yirik boʻgʻma ilon*)

Q

Q, q [kju:] *n* ingliz alifbosining oʻn yettinchi harfi

qua [kwɛɪ] *adv* lot. ...sifatida

quack I [kwæk] **1.** *n* (*oʻrdakning*) gʻagʻil-lashi; **2.** *v* 1) gʻagʻillamoq (*oʻrdak haqida*); 2) tomoq qirmoq; 3) vaysamoq, koʻp ga-pirmoq

quack II [kwæk] *n* tabib, emchi, duxon; **a** ~ **doctor** tabib; ~ **medicine** tabib dorisi; **2.** *v* 1) (*xalq tabobatida qoʻllaniladigan dori-darmon bilan*) davolamoq; 2) koʻch. fribgarlik qilmoq

quackery [ˈkwæk(ə)rɪ] *n* tubiblik, emchilik

quackle [kwækəl] *v* gʻagʻillamoq, gʻaq-gʻaq-lamoq, gʻaq-gʻaq qilmoq

quack-quack [kwækˈkwæk] *n* oʻrdak

quacksalver [ˈkwæk.sæl.və] = **quack II**

quad [kwɒd] *n* 1) **quadrangle** soʻzining qis-qartirilgan shakli; 2) **quadrat** soʻzining qisqartirilgan shakli; 3) **quadruplets** soʻzining qisqartirilgan shakli

quadragesarian [kwɒdrədʒɪˈne(ə)rɪən] **1.** *a* qirq yillik, qirq yil davom etgan, qirq yoshdagi; **2.** *n* qirq yoshdagi kishi, qirqqa kirgan kishi

Quadragesima [kwɒdrəˈdʒesɪmə] *n* din. pasxa bayrami oldidan tutiladigan yetti haf-talik roʻza

quadragesimal [kwɒdrəˈdʒesɪm(ə)] *a* qirq kun davom etadigan, qirq kunlik (*roʻza haqida*)

quadrangle [ˈkwɒdræŋɡ(ə)] *n* 1) toʻrtburchak, toʻrtburchaklik; 2) atrofi binolar bilan oʻralgan toʻrtburchak hovli; 3) toʻrtburchak bino

quadrangular [kwɒˈdræŋɡələ, -gjuələ] *a* toʻrtburchakli, toʻrtburchak

quadrant [ˈkwɒdrənt] *n* mat. kvadrant (*doiraning toʻrtidan bir boʻlagi*)

quadrat [ˈkwɒdræt, ˈkwɒdræt] *n* poligr. shpatsiya (*harf terishda soʻzlar orasini ochish, abzas hosil qilish va sh. k. uchun qoʻyiladigan metall plastinka*)

quadrante [kwɒdrət, kwɒdrɛt] **1.** *n* 1) kvadrat (*tomonlari teng toʻgʻri toʻrtburchak*); 2) toʻrtburchak (*chorsi*) yer, maydon yoki narsa; **2.** *a* kvadrat shaklidagi, toʻrtburchak

quadratic [kwɒˈdrætɪk] *a* mat. kvadrat, ikkinchi darajali; **a** ~ **equation** ikkinchi darajali tenglama

quadrature [ˈkwɒdrətʃə] *n* kvadratura (*1. sathning kvadratlar bilan ifodalangan kattaligi, oʻlchami; 2. mat. egri chiziqlar bilan chegaralangan yuzani kvadratlariga boʻlib oʻlchash; 3. astr. Yer, Quyosh va Oyning toʻgʻri burchakli uchburchak hosil qilib turgan holati*)

quadrennial [kwɒˈdrenɪəl] *a* 1) toʻrt yil davom etadigan; **a** ~ **period** toʻrt yillik davr; 2) toʻrt yilda bir marta boʻladigan; **a** ~ **election** toʻrt yilda bir marta boʻladigan saylov

quadrige [kwɒˈdri:gə] *n* (*pl* -gæ [-gi:]) kvadrige (*qadimgi yunon va rimliklarda: toʻrt otga bogʻlangan ikki gʻildirakli jang yoki poyga aravasi*)

quadrigae [kwɒˈdri:gi:] *pl* of **quadrige**

quadrilateral [kwɒdrɪˈlæt(ə)r(ə)] **1.** *a* toʻrt tarfli, toʻrt tomonli, toʻrt yoqli (*chor-qirra*); 2) toʻrt tomonlama; **2.** *n* toʻrtburchak

quadrille [kwɒˈdrɪl] *n* kadri (*just-just boʻlib ijro etiladigan bal raqsi va uning musiqasi*)

quadrillion [kwɒˈdrɪlɪ(ə)n] *n* mat. kvadrillion, millionning toʻrt darajasiga koʻpaytirilganligi (*1 dan keyin 24 ta nol yoziladi*)

quadrupartite [kwɒdrɪˈpɑ:tɪt] *a* toʻrt qismdan iborat boʻlgan; toʻrt qismga boʻlingan

quadrupole [kwɒdrɪpəʊl] *n* toʻrt qutbli radio

quadrissyllable [kwɒdrɪˈsɪləb(ə)] *n* toʻrt boʻgʻinli soʻz

quadrivalent [kwɒˈdrɪvələnt] *a* kim. toʻrt valentli

quadroon [kwɒˈdru:n] *n* duragay (*oq va qora tanli er-xotindan tugʻilgan bola*)

quadruped [ˈkwɒdrupəd] **1.** *a* toʻrt oyoqli; **2.** *n* toʻrt oyoqli hayvon (*asosan, sutemizuvchilar*)

quadrupedal [kwɒˈdrupɪd] *a* toʻrt oyoqli

quadruple [ˈkwɒdrəp(ə)] **1.** *n* toʻrt baravar koʻpaytirilgan miqdor (*son*); **2.** *a* toʻrt baravar katta, toʻrt hissa koʻpaytirilgan;

3. *v* toʻrt baravar oshirmoq

quadruplets [kwɒdruplɪts] *n* *pl* toʻrt egizak

quadruplicate [kwɒˈdru:plikt] **1.** *n* 1) : **in** ~ toʻrt nusxada; 2) *pl* toʻrtta bir xildagi nusxa; **2.** *a* toʻrt hissa koʻpaytirilgan, toʻrt baravar kattalashtirilgan; **3.** *v* [kwɒˈdru:plikt] 1) toʻrt baravarga koʻpaytirmoq, toʻrt hissa koʻpaytirmoq; 2) toʻrt nusxada chiqarmoq

quads [kwɒdz] *soʻzl. of quadruplets*

quaere [ˈkwɪ(ə)rɪ] *n* lot. savol, soʻroq

quaff [kwɒf, kwɔ:f] *v* kit. batamom (*tagigacha*) ichmoq; bir koʻtarishda (*dam, nafas olmasdan*) oxirigacha ichmoq

quag [kwæg, kwɒg] = **quagmire** 1)

quaggy [kwægi, 'kwɔgi] *a* botqoqlikka oid, serbotqoq, botqoqlik joylari ko'p bo'lgan

quagmire [kwægmərə, 'kwɔg-] *n* 1) botqoq, botqoqlik; 2) qiyin (og'ir, mushkul, tang) ahvol

quail I [kwɛɪl] *n* bot. bedana; kaklik

quail II [kwɛɪl] *v* 1) qo'rqmoq, cho'chimoq, qo'rqoqlik qilmoq, titramoq; 2) taslim bo'lmoq; 3) ruhan tushmoq

quail-call ['kwɛɪlkɔ:l] = **quail-pipe**

quail-pipe ['kwɛɪlpɑ:p] *n* kirkik (*qush chaqiradigan hushtak*)

quaint [kwɛɪnt] *a* g'alati, g'aroyib, ajoyib

quake [kwɛɪk] *v* titramoq, qaltiramoq, tebranmoq, chayqalmoq; 2. *n* titrash, qaltirash

Quaker ['kwɛɪkə] *n* kvaker (*xristian dini-ning Angliya va Amerikada tarqalgan bir mazhabiga mansub kishi*)

Quakeress ['kwɛɪkərəs] *n* kvaker mazhabiga mansub ayol

quaker-gun ['kwɛɪkə'gʌn] *n* amer. tar. yasama (qalbaki) qurol

Quakerish ['kwɛɪk(ə)rɪʃ] *a* kvakerlarga oid

Quakerism ['kwɛɪk(ə)rɪzəm] *n* kvakerlik, kvakerlar mazhabi

Quaker-meeting ['kwɛɪkə'mi:tɪŋ] = **Quakers' meeting**

Quakers' meeting ['kwɛɪkəz'mi:tɪŋ] *n* kvakerlar yig'ilishi

quaking ['kwɛɪkɪŋ] *l. n* titrash, qaltirash; 2. *a* qaltiraydigan, titraydigan; *a* ~ aspen tog'terak

quaky ['kwɛɪki] *a* qaltiraydigan, titraydigan

qualification [kwɔlɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n* 1) malaka, mahorat, ixtisos, kasb, hunar: *a* teacher's ~ o'qituvchilik kasbi; 2) diplom, attestat; guvohnoma; daraja, unvon

qualificatory [kwɔlɪfɪkət(ə)rɪ] *a* 1) aniqlovchi, xarakterlovchi; 2) cheklovchi, cheklaydigan

qualified ['kwɔlɪfaɪd] *l. p. p. of* qualify; 2. *a* 1) yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) munosib, bop, qulay, o'ng'ay; mos, muvofiq; 3) yaroqli, kerakli, foydali

qualify [kwɔlɪfaɪ] *v* 1) biror faoliyatga tayyorlamoq; 2) (*nimagadir*) o'qimoq; 3) qandaydir kasb egallamoq; 4) susaytirmoq, yumshatmoq; 5) *gram.* aniqlamoq

qualifying [kwɔlɪfaɪɪŋ] *a* mutaxassislik (tayyorgarlik, mahorat) darajasini belgilovchi, ixtisosini aniqlovchi

qualitative [kwɔlɪtətɪv] *a* sifatli

quality [kwɔlɪtɪ] *n* sifat, nav; *of good* ~ yuqori navli (*sifatli*)

qualm [kwɔ:m] *n* 1) jazavasi tutish; ~ *of* conscience vijdon azobi; 2) ikkilanish, shubha; 3) ko'ngil aynish, behuzur bo'lish

qualmish ['kwɔ:mɪʃ] *a* 1) ko'ngil aynishni his etayotgan; 2) vijdon azobini his etayotgan

qualmishness ['kwɔ:mɪʃnəs] *n* ko'ngil aynish, behuzur bo'lish

quandary ['kwɔnd(ə)rɪ] *n* qiynalish, siqilish, mushkul ahvol

quant [kwɔnt] *l. n* langarcho'p; 2. *v* langarcho'p bilan sakramoq

quanta ['kwɔntə] *pl of* quantum

quantify ['kwɔntɪfaɪ] *v* sonini aniqlamoq

quantitative ['kwɔntɪtətɪv] *a* songa, miqdorga oid

quantity ['kwɔntɪtɪ] *n* son, miqdor; *rational* ~ies ratsional sonlar; *unknown* ~ *mat.* noma'lum kattalik; *in* ~ies katta miqdorda

quantum ['kwɔntəm] *n* lot. (*pl* -ta [-tə]) 1) miqdor, summa; 2) qism, bo'lak; 3) *fiz.* kvant (*chiqarilishi yoki yutilishi mumkin bo'lgan eng oz, bo'linmas energiya miqdori*); 4) *attr.* kvantga oid; ~ *theory* kvant nazariyasi

quarantine ['kwɔrəntɪ:n] *n* 1) karantin (*yuqunli kasal tarqalgan joydan kelgan kishilarni, kema va mollarni tibbiyot ko'rigidan o'tkazish punkti*); 2) *yur. tar.* qirq kunlik davr; 3) *attr.* *a* ~ flag sariq karantin bayrog'i

quarrel I ['kwɔrəl] *l. n* janjal, nizo, adovat; *to pick (to seek)* *a* ~ *with* urishish uchun bahona qidirmoq; 2. *v* urishmoq, janjallashmoq, arazlamoq

quarrel II ['kwɔrəl] *n* tar. qo'ndog'li kamoning o'qi

quarrelsome ['kwɔrəls(ə)m] *a* bema'ni, behuda, bo'lmag'ur, janjalkash

quarry I ['kwɔrɪ] *l. n* 1) tosh koni; 2) ochik kon; 3) ma'lumotlar manbayi; 2. *v* (kondan tosh) qazib olmoq

quarry II ['kwɔrɪ] *n* 1) o'lja, qo'lga kiritilgan narsa, ovlangan narsa; 2) iziga tushilgan (quvilayotgan) yirtqich hayvon

quart [kwɔ:t] *n* kvarta (*l. suyuq va sochiluvchi jismlar hajmini o'lchash birligi*); 2. *mus. diatonik gammaning to'rtinchi pardasi, shuningdek, birinchi va to'rtinchi pardalar oralig'i*)

quarter ['kwɔ:tə] *l. n* 1) chorak; *a* ~ *to five* soat chorak kam besh; 2) kvartal, mahalla; 3) dunyo tomoni; *the four -s of the globe* yer sharining hamma tomonlari; 4) joy, tomon; *from every* ~ har (hamma) tomondan; 5) *pl* kvartira, uy, turar joy, uy-joy, istiqomatgoh, makon; *to beat up* ~s ko'rgani (hol-ahvol so'ragani) bormoq; *close* ~s tor kvartira; 2. *v* to'rtta teng qismga bo'lmoq

- quarterage** [ˈkwɔ:t(ə)rɪdʒ] *n* qarorgohlarga joylashish (yoki joylashtirish)
- quarterback** [ˈkwɔ:təbæk] *n* himoyachi (Amerika futbolida)
- quarter-bill** [ˈkwɔ:təbɪl] *n* deng. urush jadvali
- quarter binding** [ˈkwɔ:təˈbaɪndɪŋ] *n* charm koreshokli muqova
- quarter-day** [ˈkwɔ:tədeɪ] *n* yil kvartalining boshlanish kuni (Angliyada to'lov muhlatlari)
- quarter-deck** [ˈkwɔ:tədek] *n* deng. yut (kema yuqori palubasining quyruq qismi)
- quarterly** [ˈkwɔ:təli] **1.** *n* uch oyda bir marta chiqadigan jurnal; **2.** *a* uch oyga mo'ljallangan
- quartermaster** [ˈkwɔ:tə,mɑ:stə] *n* *harb.* kvartirmeyster (*harbiy qismni qarorgohlarga joylashtirish va ta'minot ishlari bilan shug'ullanuvchi ofitser*)
- quatern** [ˈkwɔ:tən] *n* **1)** chorak, chorak qism; *qog'ozning to'rtidan bir qismi*; **2)** to'rt qadqli bulka non
- quarter sessions** [ˈkwɔ:tə,seɪ(ə)nz] *n* sudning kvartal sessiyasi
- quartet(te)** [ˈkwɔ:'tɛt] *n* *mus.* kvartet (to'rt ovoz yoki soz uchun yozilgan musiqa asari)
- quarto** [ˈkwɔ:təʊ] *n* *paligr.* **1)** varaqning to'rtidan bir qismidagi bichim; **2)** varaqning to'rtidan bir qismi shaklidagi kitob
- quartz** [ˈkwɔ:ts] *n* *min.* chaqmoqtosh
- quash** [kwɒʃ] *v* **1)** *yur.* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq; **to ~ a judgement** sud hukmini bekor qilmoq; **2)** yo'q qilmoq, yer bilan yakson qilmoq
- quasi** [ˈkwɑ:zi] *adv* *lot.* go'yoki, emish
- quasi-** [ˈkwɑ:zi-] *qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, biror narsaning yarmisini (chala) bildiradi; mas., quasi-conductor yarim (chala) o'tkazgich*
- quasi-conductor** [ˈkwɑ:zɪkənˈdʌktə] *n* *fiz.* yarim o'tkazgich, chala o'tkazgich
- quassia** [ˈkwɒʃə] *n* *bot.* kassiya (*dukkaklilar oilasiga mansub o'simlik; doni, barglari surgi dori sifatida ishlatiladi*)
- quatercentenary** [ˈkwætəsənˈti:n(ə)rɪ] *n* to'rt yuz yillik, to'rt yuz yillik muddat (vaqt), to'rt yuz yillik marosim
- quaternary** [kwɔˈtɜ:nəri] **1.** *a* to'rt qismdan iborat bo'lgan, narsaning to'rtidan bir qismiga teng bo'lgan; **2.** *n* **1)** to'rtlik; **2)** to'rtta predmetning to'plami
- quaternion** [kwɔˈtɜ:mən] *n* to'rt, to'rt raqami
- quaternion** [ˈkwɒtrem] *n* ruboiy, to'rtlik
- quaver** [ˈkwɛvə] **1.** *n* **1)** ovoznining titrashi; **2)** ovoznining titrab (tovlanib yoki jaranglab) chiqishi (*ko'pincha, qushlarning sayrashi haqida*); **2.** *v* titramoq, qaltiramoq
- quavery** [ˈkwɛv(ə)rɪ] *a* titraydigan, qaltiraydigan, jaranglaydigan
- quay** [ki:] *n* kemalarning to'xtash joyi, kemalar bog'lab qo'yiladigan joy, daryo bo'yi, qirg'oq
- quayage** [ˈki:ɪdʒ] *n* deng. prichal chizig'ining uzunligi, kema bog'lab qo'yiladigan joyning uzunligi
- quayside** [ˈki:sɑɪd] *n* pristan (*kemalar to'xtaydigan joy*)
- quean** [kwɪ:n] *n* **1)** esk. buzuq, axloqsiz, yomon yo'lga kirgan, fahshga berilgan odam; **2)** *shotl.* yosh ayol, voyaga yetgan qiz
- queasily** [ˈkwɪ:zɪli] *adv* **1)** ko'ngilni aynitadigan, o'qchitadigan holatda; **2)** injiqlik bilan
- queasiness** [ˈkwɪ:zɪnəs] *n* ko'ngil aynish, behuzur bo'lish, qayt qilgisi kelish
- queasy** [kwɪ:zi] *a* **1)** kuchsiz, bo'sh (*oshqozon haqida*); **2)** ko'ngilni aynitadigan (*ovqat haqida*); **3)** injiq, nozik, serzarda, nozik tabiatli, tabiati nozik
- quebracho** [kəˈbrɑ:tʃəʊ] *n* **1)** kvebraxo (*ba'zi Janubiy Amerika daraxtlaridan olinadigan juda qattiq yog'och-taxtalar*); **2)** kvebraxo po'stlog'i (*tibbiyotda teri oshlovchi modda sifatida ishlatiladi*)
- queen** [kwɪ:n] *n* qirolicha, malika
- queenhood** [ˈkwɪ:nhʊd] *n* qirolicha podsholik qilgan davr
- queening** [ˈkwɪ:nɪŋ] *n* *bot.* behi
- queenly** [ˈkwɪ:nli] *a* shohona, qirolichaga xos
- queer** [kwɪə] **1.** *a* **1)** g'alatiroq, tentaksimon; **2)** shubhali, shubha tug'diradigan; **2.** *v* **1)** buzmoq, ishdan chiqarmoq; **2)** aldamoq, firib bermoq
- quell** [kwel] *v* **1)** (*qo'rquv va b. ni*) bosmoq, bartaraf qilmoq, yengmoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq; **2)** yengillashtirmoq, tinchitmoq; **to ~ pain** og'riqni yengillashtirmoq
- quench** [kwentʃ] *v* **1)** o'chirmoq, so'ndirmoq; **2)** (*changqoni*) bosmoq, qondirmoq; **3)** tilagini qondirmoq; **4)** poymol qilmoq (*his, tuyg'u haqida*)
- quencher** [ˈkwentʃə] *n* **1)** o'chirgich, so'ndirgich; **2)** so'z. ichimlik
- quenching** [ˈkwentʃɪŋ] *n* chiniqtirish, toblash
- quenchless** [ˈkwentʃləs] *a* o'chmas, doimiy; **a ~ flame** doimiy (o'chmas, doim yonib turadigan, abadiy) olov, mash'ala
- quenelle** [kəˈnel] *n* *oshx.* qiyma uzmasi
- quercitron** [ˈkwɜ:sɪtrɒn] *n* *amer.* kversitron (*sariq bo'yoq*)
- querist** [ˈkwɪ(ə)rɪst] *n* savol beruvchi kishi

quern [kwɜ:n] *n* qo'l tegirmon
querulous [ˈkwɛr(j)ʊləs] *a* sergap, ezma, ko'p shikoyat qiluvchi
query [ˈkwɪ(ə)rɪ] 1. *n* 1) savol, so'roq; 2) shubha, gumon; 3) so'roq belgisi; 2. *v* 1) so'ramoq, savol bermoq; 2) shubhalanmoq; 3) so'roq belgisini qo'ymoq
quest [kwɛst] 1. *n* qidiruv, qidirish, izlash; *in ~ of* qidirib, izlab; 2. *v* qidirmoq, izlammoq
question [kwɛstʃ(ə)n] 1. *n* 1) savol, so'roq; *ask me no ~s* menga savollar bermang; *to put a ~ to* savol bermoq; *it is out of the ~* buning imkoni yo'q; *out of ~* hech shubhasiz, albatta; 2) muammo, masala; *the ~ of the day* dolzarb masala; *the ~ is* gap shundaki; *it is not the ~* gap bunda emas; 3) shubha, gumon; *beyond all ~s* shubhasiz, shak-shubhasiz; 4) *tax*, qiynoq, azob, iskanja; *to put to the ~* jismoniy qiynamoq, qiynoqqa solmoq, azob bermoq; 2. *v* savol bermoq
questionable [ˈkwɛstʃ(ə)nəb(ə)l] *a* shubhali, shubha tug'diradigan
questioner [ˈkwɛstʃənə] *n* savol beruvchi, intervyu oluvchi, muxbir
questioning [ˈkwɛstʃ(ə)nɪŋ] *n* so'roq qilish, so'roq
questionless [ˈkwɛstʃ(ə)nləs] 1. *a* shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, begumon, aniq; 2. *adv* tortishmay, shak-shubha qilmay
question-mark [ˈkwɛstʃ(ə)nma:k] *n* so'roq belgisi
questionnaire [k(w)ɛstʃəˈneə] *n* fr. savolnoma, savol varaqasi
quetzal [k(w)ɛts(ə)l] *n* ketsal (*Guatemala*ning pul birligi)
queue [kju:] 1. *v* 1) sochni mayda qilib o'rmoq; 2) navbatda turmoq; *in a ~* navbatda; 2. *n* 1) 3) soch o'rimi, kokil; 2) navbat, navbatda turish
quibble [kwɪb(ə)l] 1. *v* so'zl. 1) so'z o'ynamoq; 2) gapni aylantirmoq, to'g'ri javobdan qochmoq; 2. *n* so'z o'yini
quiche [ki:f] *n* go'sht, pishloq va b. qo'shib pishirilgan pirog
quick [kwɪk] 1. *a* 1) tez, chaqqon; 2) jonli; 3) tez tushunadigan, aqli (kallasi) yaxshi ishlaydigan, fahmi (zehni) o'tkir, fahmli, idrokli; *a ~ child* zehni o'tkir (aqlli) bola; *~ to learn* tez tushunadigan (qabul qiladigan); 4) tez, chaqqon, shaxdam, ildam; *~ luncheon* tez tayyorlanadigan (tayyor bo'ladigan) nonushta; *~ march* *harb.* ildam qadam bilan, ildam qadam bos (*asosan, og'zaki buyruqda*); *~ time* *harb.* ildam qa-

dam tashlab harakat qilish (*soatiga 4 milgacha*); *~ to sympathize* 1) hozirjavob, sezgir; 2) rahmdil, ko'ngilchan; *~ to take offence* salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan; *~ temper* serjahlik, jahli (achchig'i) tezlik, jizzakilik; *to be ~* shoshmoq, shoshilmoq, shoshilishmoq, oshiqmoq; shoshqaloqlik qilmoq, hovliqmoq; *be ~!* shoshiling! oshiqing! tez-tez qimirlang! tezroq bo'ling!; 2. *adv* tez, tezda, darrov, darhol, tezlik (zudlik) bilan; *please come ~!* darhol keling!; 3. *n* 1) (*the ~*) *esk.* tiriklar; *the ~ and the dead* tiriklar va o'liklar; 2) nozik (qaltis, his etadigan) joy; 4. *inf.* tezroq, ildamroq; tez, ildam; *now then, ~!* qani, tezroq!
quick bread [kwɪkˈbrɛd] *n* *amer.* oshirilmagan xamirdan (*qilingan*) pishiriqlar
quick-change [kwɪk ˈtʃeɪndʒ] *a* *teatr.* tez o'zgaradigan; *a ~ artist* ko'p rolli aktyor (*kiyimni, tovushini o'zgartirib, bir o'zi bir necha rollni bajaruvchi aktyor*)
quicken I [kwɪkən] *v* 1) jonlanmoq, ruhlanmoq; 2) tezlatmoq, tezlashtirmoq; tezlashmoq, jadallashmoq; *her pulse ~ed* uning tomir urishi tezlashdi
quicken II [kwɪkən] *n* chetan (*daraxti va mevasi*)
quick-fence [kwɪkfɛns] *n* g'ov, buta o'simlikdan hosil bo'lgan ihota
quickfirer [kwɪkˌfaɪ(ə)rə] *n* *harb.* tez otadigan (tezotar) qurol
quick-firing [kwɪkˌfaɪ(ə)rɪŋ] *a* tez otadigan
quick-freeze [kwɪkˌfri:z] *v* (*oziq-ovqatlar-ni*) tez muzlatmoq
quickie [kwɪki] *n* 1) pala-partish qilingan ish; 2) sifati past bo'lgan mahsulot
quicklime [kwɪklaɪm] *n* so'ndirilmagan ohak
quickly [kwɪkli] *adv* tez, tezda, darrov, tezlik (zudlik) bilan
quickness [kwɪknəs] *n* tezlik, chaqqonlik, ildamlik, jadallik
quicksand [kwɪksænd] *n* oqma loy, suyuq loy, suyuq qum, bilqillama qumloq
quickset [kwɪkset] *n* *q. x.* 1) qalamcha (*asosan, do'lananiki*); 2) buta (chakalak) g'ov, o'simlikdan hosil bo'lgan ihota
quicksilver [kwɪkˌsɪlvə] *n* simob; *to have ~ in one's veins* tinib-tinchimas odam bo'lmog
quicktempered [kwɪkˈtempəd] *a* jahli (achchig'i) tez, qiziqqon, jizzaki, jirtaki, tez achchiqlanadigan, serjahl
quickwitted [kwɪkˈwɪtɪd] *a* 1) tadbirli, tadbirkor, aqli, fahm-farosafli, topqir, hozirjavob; 2) tez tushunadigan, aqli (kallasi) yax-

- shi ishlaydigan, fahmi (zehni) o'tkir, fahmli, idrokli
- quid I** [kwɪd] *n* chaynash uchun presslangan tamaki bo'lagi
- quid II** [kwɪd] *n* (pl o'zgarishsiz) jarg. funt sterling
- quiddity** [kwɪdɪti] *n* kit. mohiyat, tub ma'no, mazmun, mag'iz
- quidnunc** [kwɪdnʌŋk] *n* lot. g'iybatchi odam, gap tashuvchi
- quid pro quo** [kwɪdprəʊ'kwəʊ] *n* lot. 1) badal, muzd, haq, tovon; 2) o'tinni to'ldirish, haq (badal, tovon) to'lash
- quiescence, -cy** [kwai'es(ə)ns, -sɪ] *n* 1) sukunat, harakatsiz muvozanat, harakatsizlik, tinchlik, tinch holat; 2) osoyishtalik, orom, hozur-halovat
- quiescent** [kwai'es(ə)nt] *a* qo'zg'almaydigan, qimirlamaydigan, harakat qilmaydigan, harakatsiz, qotgan, qo'zg'almas, jim, sokin, turg'un; ~ **load** tex. doimiy yuk (og'irlik)
- quiet** ['kwaɪət] *a* 1) tinch, jimjit, osoyishta, xomush; yuvosh, muloyim; 2) shovqinsiz, tovushsiz, tovush chiqmaydigan, tovush chiqarmaydigan; 3) eshitib bo'lmaydigan, eshitilmas: **keep -!** jim bo'ling!
- quieten** ['kwaɪətən] *v* ovutmoq, tinchlantirmoq, tinchitmoq, yupatmoq, taskin (orom) bermoq
- quietism** ['kwaɪətɪz(ə)m] *n* fals. kvietizm (*hamma narsani xudodan deb bilishga da'vat etuvchi ta'limot*)
- quietly** ['kwaɪətli] *adv* 1) tinch, osoyishta, asta, sekin, sekingina, xotirjamlik bilan, xotirjam, bamaylixotir, bemaolot; 2) sekin, past ovoz bilan
- quietness** ['kwaɪətɪnəs] *n* 1) tinchlik, jimjitlik, sokinlik, sukunat; 2) osoyishtalik, halovat, orom
- quietude** ['kwaɪətju:d] *n* tinchlik, sukunat, osoyishtalik
- quietus** [kwai'ɪtəs] *n* ajal, o'lim, vafot, o'lish, vafot (qazo) qilish, jon berish, jon uzilishi
- quill** [kwɪl] *n* 1) qush pati; 2) tish kovlagich
- quill-driver** ['kwɪl,drɑ:və] *n* no'noq (iste'dodsiz, qobiliyatsiz) yozuvchi
- quillet** ['kwɪlt] = **quibble I**
- quilling** ['kwɪlɪŋ] *n* burma hoshiya (*biror narsaning ustiga burib tikiladigan yengil mat*)
- quilt** [kwɪlt] 1. *v* (ko'rpachani) savalamoq, qanchilamoq, qavimoq; 2. *n* qavima ko'rpachani
- quinary** ['kwɑɪn(ə)rɪ] *a* 1) besh o'lchamli, besh soni bilan o'lchanadigan, besh marta katta yoki ko'p; 2) beshtadan iborat bo'lgan
- quince** [kwɪns] *n* bot. behi (*daraxti va mevasi*)
- quincentenary** [kwɪnsən'tɪ:n(ə)rɪ] *n* 1) besh yuz yillik vaqt yoki muddat; 2) besh yuz yillik yubiley
- quinine** ['kwɪni:n] *n* kim. farm. xinin (*bezzak dori*)
- quininize** [kwɪnɪnaɪz] *v* bezzak dori bermoq
- quinism** ['kwɪnɪz(ə)m] *n* tib. xininni juda ko'p ichish natijasida markaziy asab faoliyatining buzilishi
- quinize** ['kwɪnaɪz] = **quininize**
- quinquagenarian** [kwɪŋkwədʒɪ'ue(ə)rɪən] 1. *a* ellik yillik, ellik yil davom etadigan, ellik yil mobaynidagi; 2) ellik yoshga kirgan, ellik yoshli, ellik yoshlar; 2. *n* ellik yoshli kishi
- quinquennia** [kwɪŋ'kwɛnɪə] *pl of* **quinquennium**
- quinquennial** [kwɪŋ'kwɛnɪəl] 1. *a* 1) besh yillik, besh yil davom etadigan, besh yil mobaynida; besh yilga mo'ljallangan; 2) besh yoshga kirgan, besh yoshli, besh yashar; 2. *n* 1) besh yil, besh yillik vaqt yoki muddat; 2) besh yillik (*boshlanganiga yoki tug'ilganiga besh yil to'lgan vaqt va shunga bag'ishlangan marosim*)
- quinquennium** [kwɪŋ'kwɛnɪəm] *n* (pl -nia [-nɪə]) besh yil, besh yillik vaqt yoki muddat
- quinquina** [kwɪŋ'kwɪnɪə] *n* xin(in) daraxti (*Janubiy Amerikada o'sadigan, po'stlog'ida xinin bo'ladigan daraxt*)
- quinquivalent** [kwɪŋ'kwɪvələnt] *a* kim. besh valentli
- quinsy** [kwɪnzɪ] *n* tib. angina; yiringli tonzillit (*tonzillit - tomoq bodomsimon bezlarining yallig'lanishi*)
- quint** [kwɪnt] *n* mus. kvinta (1. *diatonik gammaning beshinchi parda orasi*; 2. *skripkaning eng ingichka tori*)
- quintain** ['kwɪntɪn] *n* chavandoz otadigan nayzaning nishoni o'rnatilgan ustun
- quintal** ['kwɪntl] *n* sentner; kvantal (*ingl. = 50,8 kg; amer. = 45,36 kg*)
- quintan** ['kwɪntən] *n* tib. (*har besh kunda takrorlanib turadigan*) uzoq muddat davom etadigan isitma (bezzak, isitmafi qaltiroq)
- quintessence** [kwɪn'tes(ə)ns] *n* eng muhim joy, asosiy mohiyat, mag'iz; **the ~ of virtue** (**politness**) yaxshi fazilat (xushmuomallik) timsoli
- quintessential** [kwɪntɪ'sensj(ə)l] *a* eng muhim joy bo'lgan, eng mag'zi bo'lgan
- quintet(te)** [kwɪn'tet] *n* mus. kvintet (1. *besh ovoz yoki besh soz uchun yozilgan*)

- musiqqa asari; 2. besh ijrochidan iborat ansambli)*
- quintuple** [kwɪntjʊp(ə)] *a* besh karra, besh marta takrorlangan
- quintuplet** [ˈkwɪntjʊplɪt] *n* 1) besh predmetning to'plami; 2) *pl* besh egizaklar
- quip** [kwɪp] *n* 1) istehzoli (achechiq) tanbeh; 2) piching, achchiq (qattiq) gap, zaharxanda
- quire** [kwɪə] *n* 1) dest, dasta (*yozuv qog'ozining o'lchov birligi*); 2) ma'lum tartibda bukilgan bosma qog'oz
- quirk** [kwɜ:k] *n* 1) so'z o'yini, tajnis; 2) g'ayritabiiy harakat, g'alati qiliq
- quirky** [ˈkwɜ:kɪ] *a* (*inson xarakteriga nisbatan*) g'ayrioddiy, g'ayritabiiy
- quirt** [kwɜ:t] 1. *n* ovchi qanchisi (*ov iltarini haydab borish uchun*); 2. *v* ovchi qanchisi bilan savalamoq (kaltaklamoq, do'pposlammoq)
- quisle** [kwɪzl] *v* sotqin bo'lmoq, vatanni sotmoq
- quisling** [ˈkwɪzliŋ] *n* sotqin, xoin, xiyonatchi, xiyonatkor
- quit** [kwɪt] 1. *n* amer. ishdan bo'shsh, ishdan bo'shatilish; 2. *v* 1) (*ishni, xizmatni*) to'xtatmoq, voz kechmoq; *to ~ work* ishdan ketmoq; *to ~ the army* armiyadan iste'foga chiqmoq; *to ~ hold of* qo'ldan chiqarib (qo'yib yoki tashlab) yubormoq; *to ~ a house* uydan chiqib ketmoq; 2) (*qarzni*) to'lamoq
- quitch** [kwɪtʃ] *n* bot. yer bag'irlab o'sadigan bug'doyiq (*g'allasimon o'simlik*)
- quitch-grass** [ˈkwɪtʃgrɑ:s] = **quitch**
- quitclaim** [ˈkwɪtkleɪm] 1. *n* yur. huquqdan bosh tortish; 2. *v* huquqdan bosh tortmoq
- quite** [kwɪt] *adv* 1) butunlay, tamoman; 2) ancha; ~ **a long time ago** ancha oldin (ilgari, burun); ~ **another** butunlay boshqa; 3) judayam, juda; ~ **right** juda to'g'ri
- quits** [kwɪts] *a predic.* : **to be ~** qarzni uzmoq, qarzdan qutulmoq; orani ochiq qilmoq (*kim bilandir*)
- quittance** [ˈkwɪtʃ(ə)ns] *n* esk. 1) kvitansiya; 2) tovon, badal; 3) (*majburiyat, to'lov va b. dan*) ozod qilish
- quitter** [ˈkwɪtə] *n* so'zl. 1) boshlagan ishni osonlik bilan tashlaydigan sabr-bardoshsiz kishi; 2) qo'rqoq, yuraksiz; 3) progulchi, dangasa, yalqov, ishyoqmas, tanbal
- quiver I** [ˈkwɪvə] 1. *n* titroq, qaltiroq, larza, titrash; 2. *v* titramoq, qaltirammoq
- quiver II** [ˈkwɪvə] *n* o'qdon, tirdon, sadoq
- quiverful** [ˈkwɪvəfʊl] *n* 1) o'qdonga sig'adigan o'qlar miqdori; 2) hazil. katta oila
- qui vive** [ki:ˈvi:v] *n* fr. **on the ~** hushyor bo'lib, sergak, ogoh
- Quixote** [ˈkwɪksət] *n* 1) Don-Kixot; 2) ko'ch. soddadil, xayolparast odam, xomxayol
- quixotic** [ˈkwɪksətɪk] *a* soddadilona, xayolparastona, xomxayol bilan
- quixotics** [ˈkwɪksətɪks] = **quixotism**
- quixotism** [ˈkwɪksətɪz(ə)m] *n* donkixotlik, xomxayollik
- quiz I** [kwɪz] 1. *n* masxara qilish, istehzo; ustidan kulish; masxaraboz, qiziqchi; 2. *v* ustidan kulmoq, hazillashmoq
- quiz II** [kwɪz] 1. *n* amer. imtihon; 2) sinash uchun beriladigan savollar; 3) so'rash, so'roqlash, surishtirish; 4) viktorina (savol-javob o'yini); 5) *attr.* : **a ~ program** televiktorina; 2. *v* 1) imti hon qilmoq; 2) sinash uchun savol bermoq
- quizzee** [ˈkwɪzi:] *n* amer. so'zl. so'roq qilishda ishtirok etadigan shaxs
- quizzical** [ˈkwɪzɪk(ə)l] *a* kulgili, istehzoli, masxara (mazax, mayna) qilib aytilgan
- quizzing-glass** [ˈkwɪzɪŋɡlɑ:s] *n* monokl (*bir ko'zga tutiladigan ko'zoynak yoki durbin*)
- quoad** [ˈkwɔəd] *lot. prep.* kelsak (keladigan bo'lsak)
- quod** [kwɒd] 1. *n* qamoqxona; 2. *v* qamamoq, hibsga olmoq, qamoqqa olmoq
- quoin** [k(w)ɔɪn] *n* 1) binoning tashqi burchagi; 2) g'ishtdan qurilgan devorning burchakdagi g'ishti
- quoit** [k(w)ɔɪt] *n* halqani nishonga otish (*o'yin*)
- quondam** [ˈkwɒndæm] *a* *lot.* sobiq, ilgari
- Quonset hut** [ˈkwɒnsətˈhʌt] *n* amer. bir yo'nalishda bukilgan tunukadan yasalgan yig'ma uy
- quorum** [ˈkwɔ:rəm] *n* *lot.* kvorum, majlis, kengash va sh. k. ning qarorlari qonuniy bo'lishi uchun ishtirokchilarning ustav bo'yicha yetarli hisoblanadigan miqdori
- quota** [ˈkwɔ:tə] *n* qism, bo'lak, hissa, ulush
- quotable** [ˈkwɔ:təb(ə)l] *a* sitata olinadigan, sitata olsa bo'ladigan, sitata (matn parchasi) keltirsa bo'ladigan
- quotation** [kwəʊˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) sitata (*matn parchasi*); 2) *tij.* narx
- quotation-marks** [kwəʊˈteɪʃ(ə)nmo:ks] *n* *pl* qo'shtirnoq
- quote** [kwəʊt] *v* 1) sitata olmoq, sitata keltirmoq; 2) dalil qilib ko'rsatmoq; 3) qo'shtirnoq ochmoq, qo'shtirnoqqa olmoq; 4) *tij.* narx belgilamoq
- quoth** [kwəʊθ] *v* aytmq, gapirib yubormoq
- quotha** [kwəʊθə] *int. so'zl.* haqiqatan, rostdan, haqiqatan ham
- quotidian** [kwəʊˈtɪdɪən] *a* 1) har kungi, kundalik, har kuni bo'ladigan; 2) ko'p chaynal-

gan, siyqasi chiqqan; **oddiy**; ~ **thought** od-diy fikr

quotient [kwəʊʃ(ə)nt] *n mat.* bo'linma (*bir sonni boshqa bir songa bo'lishdan hosil bo'lgan son*); 2) koeffitsiyent (*1. bir mate-matik ifodaning o'zgarmas yoki ma'lum ko'paytiruvchisi; 2. biror fizik hodisani miqdor jihatidan ko'rsatadigan son*)

quotum [kwəʊtəm] *n hissa, ulush, bo'lak*
Quran [ku'ra:n] *n Qur'on*

R

R, r [ɑ:] *n ingliz alifbosining o'n sakkizinchi harfi*

rabbit [ræbɪt] **1. n** 1) tarnov, nov; 2) o'yi-q. kovak, tirqish; chuqurcha; 3) taxtaning yon qirasi bo'ylab chiqarilgan tirmoq (shpunt); 2. *v* shpuntlamoq, tirmoq (*yoki o'yi-q*) chiqarmoq

rabbi [ræbɪ] = **rabbin**

rabbin [ræbɪn] *n ravvin (yahudiylar ru-honiysi)*

rabbinate [ræbrɪt] *n ravvin unvoni, rav-vinlar*

rabbinic(al) [ræ'brɪk(əl)] *a ravvinga (yahu-diylar ruhoniysiga) oid*

rabbit [ræbɪt] **1. n** 1) *zool.* quyon; 2) qo'rqoq, kuchsiz kishi; 3) so'zl. yomon o'yinchi; 2. *v* quyonlarni ovlamoq

rabbit-fever [ræbɪt,fi:və] *n tib.* tulyaremiya (*kasal kemiruvchilar orqali odum va hay-vonlarga yuqadigan og'ir kasallik*)

rabbit-hutch [ræbɪtʰʌtʃ] *n uy quyoni qafasi*

rabbit-warren [ræbɪt,wɒrən] *n quyonxo-na, quyon boqiladigan katalak*

rabbity [ræbɪtɪ] *a* 1) uy quyoniga oid, uy quyoni bilan to'lib-toshgan; 2) quyon teri-sidan qilingan

rabble [ræb(ə)] **1. n** 1) olomon, to'da; 2) (*the* ~) qalang'i-qasang'ilar, qora xalq

rabid [ræbɪd] *a darg'azab, shiddatli, ashad-diy, quturgan (it to'g'risida)*

rabidity [ræ'brɪtɪ] **1. n** 1) achchiq, jahl, g'azab, qahr, jazava; 2) quturish, g'azabga minish

rabies [reɪbi:z] *n tib., vet.* quturish (*kasallik*)

raccoon [ræ'ku:n] = **raccoon**

race [reɪs] **1. n** 1) poyga, musobaqa; **a** ~ **horse** chopqir (poygachi, chopag'on) ot; 2) irq, zot; 3) qabila, xalq; **the human** ~ **insoniyat**; 2. *v* poygada qatnashmoq (*ot haqida*)

race-card [reɪskɑ:d] *n otchopar (poyga) dasturi*

racecourse [reɪskɔ:s] *n sport.* trek (*poyga yoki kimo'zar uchun mo'ljallangan max-*

sus doirasimon maydoncha); otchopar (*ip-podrom*)

race-hatred [reɪs,heɪtrɪd] *n irqiy, milliy ado-vat*

racehorse [reɪshɔ:s] *n poygachi ot, chopqir ot*

raceme [reɪ'si:m] *n bot.* bosh, popuk, shing-il

race-meeting [reɪs,mi:tɪŋ] *n poyga kuni*

racemose [ræsiməʊs] *a bot.* popuksimon, popukli

racer [reɪsə] **1. n** 1) poygachi; 2) poyga oti, poygachi ot, chopqir ot

race-suicide [reɪs,sju:ɪsaɪd] *n aholining qi-rilib ketishi*

racetrack [reɪstræk] **1. n** 1) yugurish yo'l-kasi; 2) *sport.* trek (*poyga yoki kimo'zar uchun mo'ljallangan maxsus doirasimon maydoncha*); 3) otchopar, ippodrom

race-way [reɪsweɪ] *n amer. el.* yer ostidan kabel o'tkazish

rachitis [ræ'kæɪtɪs] *n tib.* raxit, shirzada, mechkay (*yosh bolalar kasali*)

racial [reɪʃ(ə)l] *a irqiy, irqqa oid*

racialism [reɪʃ(ə)lɪz(ə)m] *n irqchilik*

racialist [reɪʃ(ə)lɪst] *n irqchi, irqchilik taraf-dori*

racing [reɪsɪŋ] *n yugurish musobaqasi*

racism [reɪsɪz(ə)m] *n irqchilik*

racist [reɪsɪst] *n irqchi, irqchilik tarafdori*

rack I [ræk] **1. n** 1) oxur, tegana; 2) ilgak; 3) tokcha; 2. *v* nimanidir tokchaga qo'ymoq

rack II [ræk] **1. v** qynamoq, azob bermoq; 2. **n** 1) *tar. diba* (*aybdorning tanasini cho-zadigan qadimgi qiynoq qurilmasi*); 2) *ko'ch.* qiynoq, azob, iskanja

rack III [ræk] *v (vinoni)* suzg'ichdan o't-kazmoq

racket I [ræktɪ] *n tennis o'ynaydigan ra-ketka*

racket II [ræktɪ] **1. n** 1) shovqin, shovqin-suron; **to kick up** (*yoki to make*) **a** ~ to'po-lon ko'tarmoq; 2) aysh-ishratli hayot tarzi;

2. *v* 1) shovqin solmoq, to'polon qilmoq; 2) aysh-ishratli hayot kechirmoq

racketeer [ræki'tiə] *n amer.* qo'rqitib un-diruvchi, tovlamachi

racketeering [ræke'ti(ə)rɪŋ] *n amer.*

1) zo'rlik bilan pora olish, tamagirlik, zo'rlik, do'q-po'pisa bilan tama qiluvchi;

2) bosqinchilik; 3) qo'rqitib (*yoki do'q-po'pisa va b. yo'llar bilan*) undirish, olish;

4) tovlamachilik, tamagirlik, yulg'ichlik

rackety [ræktɪ] *a* sershovqin, shovqin-suronli, betartib, pala-partish

racking I [ræktɪŋ] *a* azob beradigan, qiynay-digan; **a** ~ **headache** qattiq bosh og'rig'i

racking II [ˈrækɪŋ] *a* og'ir, mashaqqatli
racking III [ˈrækɪŋ] *n* suzg'ichdan o'tkazish (vinoni)
racking IV [ˈrækɪŋ] *n* yo'rg'alash, yo'rg'alab yurish
rack-rail [ˈræk, reɪl] *n* tishli rels
rack-railway [ˈræk, reɪlweɪ] *n* tishli temir yo'l
rack-rent [ˈrækrent] **1.** *n* haddan tashqari yuqori bo'lgan ijara haqi; **2.** *v* haddan tashqari yuqori ijara haqi olmoq
rack-wheel [ˈræk, wi:l] *n* tishli g'ildirak
racoon [ˈræːkuːn] *n* yenot (*sarg'ish-kulrang mo'ynali kichkina hayvon; shu hayvon terisi, mo'ynasi va undan qilingan buyum*)
racquet(te) [ˈrækɪt] *n* raketka (*tennis o'y-nash uchun*)
racy [ˈreɪsɪ] *a* 1) tirik, jonli; 2) ta'mi o'tkir; nordon; 3) o'ziga xos
radar [ˈreɪdɑː] *n* radiolokator (*radioto'lqinlar yordamida obyektlarning turgan joyini aniqlovchi qurilma*)
raddle [ˈrædl] **1.** *n* oxra (*sariq yoki qizil mineral bo'yoq*); **2.** *v* oxra bilan bo'yamoq; (mollarga) tamg'a bosmoq, tamg'alamoq, belgi qo'yamoq
radial [ˈreɪdiəl] *a* 1) nurli, nur...; 2) nur sohib turadigan, nurafshon, yorqin, yorug'; 3) radial, radius bo'yab tarqalgan
radian [ˈreɪdiən] *n* *mat.* radian
radiance, cy [ˈreɪdɪəns, -sɪ] *n* nur, yog'du, shu'la, nur sochish, jilva, nurlanish
radiant [ˈreɪdiənt] *a* nurli, shu'lali, yog'duli, nur sochayotgan, yarqirayotgan, chaqna-yotgan, yorqin, yorug', yonib (porlab) turadigan, chaqmoq, porloq (*ko'z haqida*); **a** ~ face yorug' yuz; ~ eyes porlab turadigan (chaqmoq) ko'zlar
radiate **1.** *v* [ˈreɪdiət] 1) nur sochmoq, nurlanmoq, tarqatmoq (*nur, issiqlik va sh. k. haqida*); 2) markazdan tarqalmoq, tarqalib turmoq; **2.** *a* [ˈreɪdiət] nurlar tarqatadigan
radiation [ˈreɪdiːʃən] *n* 1) nurlanish, nur sochish, radiatsiya; **atomic** ~ atom radiatsiyasi; 2) nurlantirish, nur berish, biror narsa nuri bilan ta'sir etish (*masalan, davolash uchun*); 3) nur sochish, yarqirash, chaqnash; 4) *attr.* nurga oid, nurli, nur...; ~ sickness nur kasalligi (*radioaktiv nur ta'sirida yuzaga keladigan kasallik*)
radiative [ˈreɪdiətɪv] *a* nur sochadigan
radiator [ˈreɪdiətə] *n* 1) *tex.* radiator (*1. motorning suvini sovitadigan moslama, asbob*; 2. binoni bug' yoki qaynoq suv bilan isitadigan asbob)
radical [ˈrædɪk(ə)] **1.** *n* siyos. radikal (*1. qisman demokratik islohotlar o'tkazishni talab qiladigan so'l burjua partiyalarining*

tarafdori; 2. *mat.* ildiz chiqarish amalining ishorasi; 3. *kim.* bir kimyoviy birikmadan ikkiuchi kimyoviy birikmaga o'zgarmadan o'tadigan atomlar guruhi); ~ changes keskin o'zgarishlar; **2.** *a* tubdan, qat'iy, keskin, asosiy, to'liq

radicalism [ˈrædɪkəlɪz(ə)m] *n* radikalizm (*radikallarning siyosiy maslagi va xarakteri*)

radices [ˈreɪdɪsɪz] *pl of radix*

radicle [ˈrædɪk(ə)] *n* 1) *anat.* ildiz, tomir, tomircha; asab; 2) *bot.* ildizcha

radii [ˈreɪdiə] *pl of radius*

radio [ˈreɪdiəʊ] *n* 1) radio; **a** ~ operator radio operatori, radist (*radio ishi mutaxassis*); **to turn on the** ~ radioni qo'yamoq; **to turn off the** ~ radioni o'chirmoq; 2) radioeshittirish

radioactive [ˈreɪdiəʊˈæktɪv] *a* 1) radioaktivlikka oid, radioaktivlik tufayli yuz beradigan; radioaktiv...; 2) radioaktiv xususiyatiga ega bo'lgan

radioactivity [ˈreɪdiəʊˈæktɪvɪtɪ] *n* radioaktivlik (*kimyoviy elementlar atomlari yadrolarining tarkibiy qismlarga bo'linishi, parchalanishi va nurlanishi*)

radio aerial [ˈreɪdiəʊˈeɪəriəl] *n* radio antenasi

radio-beacon [ˈreɪdiəʊˈbiːkən] *n* radiomayak (*signallar vositasida kema va samolyotlarning turgan joylarini va ularning yo'nalishini aniqlashga yordam beruvchi radiostansiya*)

radiobiology [ˈreɪdiəʊbaɪˈɒlədʒɪ] *n* radiobiologiya (*radioaktiv nurlanishlarning organizmga ta'sirini o'rganadigan fan*)

radiobroadcast [ˈreɪdiəʊˈbrɔːdkɑːst] *v* (*radiobroadcast*) radio orqali dastur olib hormoq, radio orqali eshittirmoq

radio-controlled [ˈreɪdiəʊkənˈtrəʊld] *a* radio bilan boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan

radio engineering [ˈreɪdiəʊen(d)ʒɪˈnɪ(ə)rɪŋ] *n* radiotexnika (*1. elektromagnit tehranishlari va radioto'lqinlar haqidagi fan*; 2. amaliy ishlarda radioto'lqinlarning qo'llanish texnikasi)

radiogenic [ˈreɪdiəʊ(ə)ˈdʒenɪk] *a* fiz. radiogenik; radioaktiv tufayli yuz bergan (kelib chiqqan)

radiogram [ˈreɪdiəʊ(ə)græm] *n* 1) radiogramma (*radio orqali berilgan xabar*); 2) rentgen surati (*rentgen apparatida olingan surati*)

radio-gramophone [ˈreɪdiəʊ(ə)ˈgræməfəʊn] *n* radiola (*radiopriyomnik va elektr patefon birikmasidan iborat apparat*)

radiograph [ˈreɪdɪə(ʊ)ɡrɑ:f] *v* rentgenga tushirmoq

radio-location [ˌreɪdɪəʊləʊˈkeɪʃ(ə)n] *n* radiolokatsiya (*radio toʻlqinlar yordamida obyektlarning turgan joyini aniqlash*)

radio-locator [ˌreɪdɪəʊləʊˈkeɪtə] *n* radiolokator (*radiotoʻlqinlar yordamida obyektlarning turgan joyini aniqlovchi qurilma*)

radiology [ˌreɪdɪˈɒlədʒɪ] *n* 1) radiologiya (*radiy va boshqa radioaktiv moddalarining taʼsiri va ulardan foydalanish haqidagi fan*); 2) rentgenologiya (*rentgen nurlari va ulardan foydalanish haqidagi taʼlimot*)

radioman [ˈreɪdɪə(ʊ)mæn] *n* (*pl* -men [-mən]) radiist (*radio ishi mutaxassisi*)

radiometer [ˌreɪdɪˈɒmɪtə] *n* radiometr (*elektromagnit nurlanish energiyasini oʻlchash uchun moʻljallangan asbob*)

radiometry [ˌreɪdɪˈɒmɪtri] *n* fiz. radiometriya (*radioaktiv manbalardagi nuklidlarning faolligini oʻlchash metodlari majmuyi*)

radio net(work) [ˌreɪdɪə(ʊ)ˈnet(wɜ:k)] *n* 1) radiotarmoq, radio tarmoqlari (*radiostansiyalar tarmogʻi*); 2) ovozni kuchaytirib beruvchi apparat majmuasi

radionics [ˌreɪdɪˈɒnɪks] *n* radioelektronika (*radiotexnika va elektronikadan rivojlanib chiqqan bilim tarmogʻi*)

radiophare [ˈreɪdɪə(ʊ)fəʃ] *n* radiomayak (*signallar vositasida kema va samolyotlarning turgan joylarini va ularning yoʻnalishini aniqlashda yordam beruvchi radiostansiya*)

radiophone [ˌreɪdɪə(ʊ)fəʊn] *n* radiotelefon, simsiz telefon

radioscopy [ˌreɪdɪˈɒskəpi] *n* rentgenoskopiya (*rentgen nurlari yordami bilan koʻrish*)

radiosensitive [ˌreɪdɪəʊˈsensɪtɪv] *a* tib. nurlanishni sezadigan

radio show [ˌreɪdɪəʊʃəʊ] *n* radiopostanovka

radiosonde [ˌreɪdɪə(ʊ)sɒnd] *n* radiozond (*havo shariga bogʻlab uchiriladigan, havo sharoiti haqida radiosignal berib turadigan meteorologik asbob*)

radiospectroscopy [ˌreɪdɪəʊspekˈtrɒskəpi] *n* radiospektroskopiya

radio-telegraph [ˌreɪdɪə(ʊ)ˈtelɪɡrɑ:f] *n* radiotelegraf, simsiz telegraf (*radio orqali xabarlar beriladigan aloqa tizimi*)

radio-therapeutics [ˌreɪdɪə(ʊ)θerəˈpiju:tɪks] = **radio-therapy**

radio-therapy [ˌreɪdɪə(ʊ)ˈθerəpi] *n* 1) radioterapiya (*radioaktiv moddalar bilan davolash*); 2) rentgenoterapiya (*rentgen nurlari bilan davolash*)

radiotrician [ˌreɪdɪəˈtriʃ(ə)n] *n* radiotexnik (*radiotexnika mutaxassisi*)

radish [ˈrædɪʃ] *n* bot. rediska (*oʻsimligi*)

radium [ˈreɪdɪəm] *n* kim. radiy (*radioaktivlik xossasiga ega boʻlgan kimyoviy element*)

radius [ˈreɪdɪəs] *n* (*pl* radii) 1) mat. radius; 2) koʻch. biror narsaning harakat qilish (taʼsir koʻrsatish) doirasi; 3) gʻildirakning kegayi; 4) anat. bilak suyagi; 5) tex. yuk koʻtaruvchi kran strelkasining (xartumsimon qismining) qulochi

radix [ˈreɪdɪks] *n* (*pl* radices) 1) (*oʻsimlik*) ildizi; 2) (*soʻzning*) oʻzagi; 3) ildiz, tub, tag, manba, sabab; 4) baloning ildizi (*sababi*)

radon [ˈreɪdɒn] *n* kim. radon (*kimyoviy element*)

rafale [rəˈfɑ:l] *n* harb. kuchli oʻq yomgʻiri

raff [ræf] *v* sayoq yurmoq, buzuqlik qilmoq

raffia [ˈræfiə] *n* bot. rafiya (*palmaning tolasi*)

raffish [ˈræfɪʃ] *a* 1) axloqi buzuq, axloqsiz, buzuq, suyuqoyoq, sayoq; 2) odobdan tashqari, beadiab, dagʻal

raffle [ˈræf(ə)l] 1. *n* lotereya; 2. *v* lotereya oʻynamoq

raft [rɑ:ft] 1. *n* sol, parom; 2. *v* paromda (solda) oʻtkazmoq

rafter I [ˈrɑ:ftə] *n* solchi, paromchi, sol oqizuvchi, solni kuzatib boruvchi

rafter II [ˈrɑ:ftə] 1. *n* qur. stropil (*tom toʻsinlari*); 2. *v* qur. toʻsin qoʻymoq

rafting [ˈrɑ:ftɪŋ] *n* 1) yogʻoch oqizish; 2) yogʻochlarni bir-biriga biriktirish, yogʻochlarni sol qilib bogʻlash

raftsman [ˈrɑ:ftsmən] *n* (*pl* -men [-mən]) sol oqizuvchi, solni kuzatib boruvchi

rag I [ræg] *n* 1) latta, qiyqim, qiyqindi, rezgi, parcha; laxtak; 2) *pl* latta-lutta, latta-putta, eski-tuski, uvada, juldur

rag II [ræg] 1. *n* janjal, mojaro, mashmasha, toʻpolon, baqiriq-chaqiriq; 2. *v* janjallashmoq, janjal qilmoq, mashmasha qilmoq

rag III [ræg] 1. *n* 1) qattiq ohaktosh; 2) yirik qumtosh; 2. *v* toshlarni maydalamoq

ragamuffin [ˈrægəˌmʌfɪn] *n* juldur (yirtiq-yamoq) kiyimli kishi

rag-and-bone-man [ˌrægən(d)ˈbəʊn,mæn] *n* (*pl* -men [-mən]) eskifurush, lattafurush

rag-baby [ˌrægˈbeɪbɪ] *n* lattadan qilingan qoʻgʻirchoq

rag-bolt [ˌrægˈbəʊlt] *n* tex. anker bolt (*soatning moʻtadil yurib turishini taʼminlash uchun ishlatiladigan bolt*)

rage [reɪdʒ] 1. *n* 1) qattiq gʻazab, jahli; 2) shiddatlilik, juda qattqlik; 2. *v* 1) gʻazablamoq, jahli chiqmoq; 2) avjga chiqmoq (*shamol haqida*)

rag fair [ˈrægfeə] *n* eski bozor, chayqov bozori

- ragged** [ˈræɡɪd] *a* 1) notekis, gʻadir-budur; 2) yirtilgan, eski
- raggery** [ˈræɡ(ə)rɪ] *n* soʻzl. latta-putta, kiyim-kechak (*asosan, ayollarniki*)
- ragging** [ˈræɡɪŋ] *n* togʻ. rudani maydalash
- raging** [ˈreɪdʒɪŋ] *a* qattiq gʻazablangan, juda achchiqlangan; ~ **pain** qattiq ogʻriq
- raglan** [ˈræɡlən] *n* yeng bilan yelkasi yaxlit bichilgan palto
- ragman** [ˈræɡmən] (*pl* -men [-mən]) = **rag-and-bone-man**
- ragout** [ˈræɡuːt] *n* ragu, jarkop
- rag paper** [ˈræɡ,pɛrpə] *n* latta qogʻoz
- rag-picker** [ˈræɡ,pɪkə] *n* lattafurush, eskifurush (eski-tuski, latta, uvada yigʻib yuruvchi odam)
- rags-to-riches** [ˈræɡzɪtə ˈrɪtʃɪz] *a fr* kambagʻal oiladan chiqqan qahramoni boy boʻlib ketadigan hikoya
- ragtag** [ˈrægtæg] *n* soʻzl. jamiyatdagi razil kishilar
- ragtime** [ˈrægtam] *n* 1) *mus.* sinkopik ritm (*ohangning kuchli qismdan kuchsiz qismga oʻtishi*); 2) *attr.* bemaʼni, tuturiqsiz, kulgili; *a* ~ **army** intizomsiz qoʻshin
- ragweed** [ˈræɡwiːd] *n bot.* sariqbosh (oʻt)
- rag-wheel** [ˈræɡwi:l] *n tex.* zanjirli gʻildirak
- ragwort** [ˈræɡwɔ:t] = **ragweed**
- rah** [rɑ:] *int.* („hurrah“ soʻzining qisqartmasi), ura! (*qichqiriq*)
- rah-rah** [ˈrɑ:rɑ:] *a amer.* talabalarga oid, talabalarcha quvnoq; ~ **boys** vaqtni quvnoq oʻtkazishni yaxshi koʻradigan talabalar
- raid** [reɪd] 1. *n* hujum, oʻrab (qurshab) olib tutish, bostirib kirish; 2. *v* bostirib kirmoq
- raider** [ˈreɪdɪ] *n* 1) hujum ishtirokchisi; 2) *deng.* reyder (*dengiz yoʻllarida dushmanning transport va savdo kemalariga qarshi mustaqil kurash olib boradigan harbiy kema*); 3) *av.* havo hujumida qatnashadigan samolyot
- rail I** [reɪl] *n* 1) suyanchiq, toʻsiq, panjara; 2) *tem. v.* rels, iz; 3) temir yoʻl orqali joʻnatmoq; **by** ~ temir yoʻl orqali; **off the** ~s relsdan chiqib ketgan
- rail II** [reɪl] *v* 1) soʻkishmoq, urishmoq; 2) shikoyat qilmoq; 3) panjara bilan oʻrab olmoq
- rail III** [reɪl] *n zool.* tartar (qush)
- railage** [ˈreɪlɪdʒ] *n* 1) temir yoʻl orqali tashimoq; 2) temir yoʻl orqali tashilgan yuklarga pul toʻlash
- railhead** [ˈreɪlhɛd] *n harb.* taʼminot stansiyasi
- railing** [ˈreɪlɪŋ] *n* devor, toʻsiq
- railery** [ˈreɪlɪrɪ] *n* 1) muloyim hazillashish (*hazil qilish*); 2) hazil
- rail mill** [ˈreɪlmɪl] *n* rels yoyadigan mashina
- railroad** [ˈreɪlrəʊd] 1. *n amer.* 1) temir yoʻl; 2) *attr.* temirga oid; temirdan qilingan; 2. *v* temir yoʻl orqali sayohat qilmoq
- railroader** [ˈreɪlrəʊdə] *n amer.* temiryoʻlchi, temir yoʻl ishchisi
- railrolling mill** [ˈreɪlrəʊlɪŋ ˈmɪl] = **rail mill**
- railway** [ˈreɪlweɪ] 1. *n* temir yoʻl; **at** ~ **speed** juda ham tezlik bilan; ~ **bed** temir yoʻl koʻtarmasi; ~ **system** temir yoʻl tarmogʻi; 2. *v* 1) temir yoʻl qurmoq; 2) temir yoʻl orqali sayohat qilmoq
- railway line** [ˈreɪlweɪlɪn] *n* poyezd yoʻli
- railway station** [ˈreɪlweɪˈsteɪʃn] *n* temir yoʻl stansiyasi (vokzali)
- railway-yard** [ˈreɪlweɪˈjɑ:d] *n* saralash stansiyasi (joyi)
- raiment** [ˈreɪmənt] *n* kiyim, kiyim-bosh, ust-bosh, libos, sarpo
- rain** [reɪn] 1. *n* yomgʻir; **in the** ~ yomgʻirda; ~ **or shine** ob-havo qanday boʻlmasin; **the** ~s tropik yomgʻirlar davri; 2. *v* yoʻmgʻir yogʻmoq; **it is** ~**ing now** hozir yomgʻir yogʻyapti; **it is** ~**ing cats and dogs** yomgʻir chelakdan quyilgandek yogʻyapti
- rainbow** [ˈreɪnbəʊ] *n* 1) kamalak; 2) *attr.* kamalakdek rang-barang
- rainbow trout** [ˈreɪnbəʊtraʊt] *n zool.* rangdor gulmohi
- raincoat** [ˈreɪnkəʊt] *n* suv oʻtmaydigan palto, plash
- raindrop** [ˈreɪndrɒp] *n* yomgʻir tomchisi
- rainfall** [ˈreɪnfɔ:l] *n* 1) jala, sharos yomgʻir; 2) yogʻin miqdori
- rain forest** [ˈreɪnˈfɒrɪst] *n* tropik oʻrmon
- rain-gauge** [ˈreɪnɡeɪdʒ] *n* yomgʻir oʻlchagich
- rain-glass** [ˈreɪnɡlɑ:s] *n* barometr (*atmosfera bosimini oʻlchaydigan asbob*)
- rainless** [ˈreɪnləs] *a* yogʻingarchilik kam boʻlgan, quruq, yomgʻirsiz
- rainproof** [ˈreɪnpru:f] *a* suv oʻtmaydigan (oʻtkazmaydigan), nam tortmaydigan
- rainstorm** [ˈreɪnstɔ:m] *n* dovulli jala
- raintight** [ˈreɪntaɪt] = **rainproof**
- rainwater** [ˈreɪnwo:tə] *n* yomgʻir suvi
- rainwear** [ˈreɪnweə] *n* suv oʻtkazmaydigan (nam tortmaydigan) kiyim
- rain-worm** [ˈreɪnwɔ:m] *n* chuvalchang
- rainy** [reɪnɪ] *a* 1) yomgʻirli, seryomgʻir, yomgʻir (yogʻingarchilik) koʻp boʻlgan; ~ **weather** yomgʻirli ob-havo; 2) yomgʻirli (*bulut va shamol haqida*); **for a** ~ **day** qora kunga (har ehtimolga qarshi)
- raise** [reɪz] *v* 1) koʻtarmoq; **to** ~ **one's glass to smb.'s health** kimningdir sogʻligʻi uchun qadah koʻtarmoq; **to** ~ **oneself** koʻtarilmoq, turmoq; **to** ~ **wages** oylikni oshir-

- moq; 2) (*masalani*) ko'tarmoq, qo'ymoq; to ~ a question masalani qo'ymoq; 3) parvarish qilmoq, boqib ko'paytirmoq
- raised** [reɪzd] *a* 1) xamirturushda ko'pchigan, achigan (*xamir haqida*); 2) turtib chiqqan, qavariq
- raisin** ['reɪz(ə)n] *n* 1) mayiz; 2) bir dona mayiz, mayiz donasi
- raj** [rɑ:dʒ] *n hind.* hokimlik, hukmronlik, ustunlik, saltanat, hokimiyat
- raja(h)** [rɑ:dʒə] *n hind.* roja (*Hindistondagi feodal hukmdor unvoni va shu unvonga ega shaxs*)
- rake I** [reɪk] *1. n* 1) xaskash; 2) kurak, kurakcha, belcha, qirg'ich; 3) temir kosov; 4) juda ori q odam; *2. v* 1) kurab tashlamoq, kurab qo'ymoq; 2) sidirib (shipirib) tashlamoq
- rake II** [reɪk] *n deng.* qiyalik, qiya nishab (*machta va b. haqida*)
- rake III** [reɪk] *1. n* yengil (sho'x) yigit; havoyi odam; suyuqoyoq (sayoq) odam; *2. v* sho'xlik (yengiltaklik, beboshlik) qilmoq, bebosh yurmoq
- rake-off** [reɪkɒf] *n amer.* vositachilik haqi; pora
- raker** ['reɪkə] *n* xaskash
- rakish I** ['reɪkɪʃ] *a* buzuq, axloqsiz; badaxloq, sayoq, suyuqoyoq, fohishaboz, fohisha
- rakish II** ['reɪkɪʃ] *a deng.* tez yuradigan
- rakle** [rɑ:l] *n fr. tib.* xirillash, xir-xir
- ralliar(t)** ['rælɪkɑ:(t)] *n to'rt* kishilik ikki g'ildirakli arava
- rally I** ['ræli] *1. n* 1) (*kuchni*) tiklash, to'plash, jamlash; 2) birlashish, birlashuv, birlashtirish; 3) syezd, qurultoy, yig'ilish, yig'in; 4) *sport.* avtoralli; *2. v* 1) gaytadan to'planmoq (*umumiy kuch to'plash uchun*); 2) yig'ilmoq, birikmoq
- rally II** ['ræli] *v* kim bilandir hazillashmoq, kimnidir maskara qilib kulmoq
- ram** [ræm] *n* 1) qo'chqor; 2) qo'y
- ramble** ['ræmb(ə)] *n* (*biror maqsadsiz*) sayr, tomosha
- rambler** ['ræmblə] *n* bekor yuradigan, yallo qilib yuradigan odam
- rambling** ['ræmblɪŋ] *a* sayoq, daydi
- rambunctious** [ræm'bʌŋkʃəs] *a amer.* so'zl. badjahl, jahli yomon, serjahl, jizzaki
- ramie** ['ræmi:] *n bot.* Xitoyda o'sadigan tikanli (qichitqi) o't
- ramification** [ræmɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n* shoxlash, shox (butoq) chiqarish, sershox bo'lib ketish; yangi novda, shox, butoq
- ramify** ['ræmɪfaɪ] *v* shoxlamoq, shox (butoq) chiqarmoq, sershox bo'lib ketmoq
- ramjet** [ræmdʒet] *n harb.* havo-reaktiv dvigateli
- rammer** ['ræmə] *n* 1) shibbalagich, shibbalash; 2) shibba; 3) shompol (*miltiq stvolini tozalash, moylash yoki og'zidan o'qlanadigan miltiqqa zaryad joylash uchun ishlatiladigan ingichka va uzun metall tayoq*)
- rammish** ['ræmɪʃ] *a* 1) yomon (badbo'y) hid tarqatadigan; 2) shahvoniy, shahvatparastlarcha; 3) suq
- ramose** [reɪmɔ:s] *a* shoxli, butoqli, sershox
- ramp I** [ræmp] *n* qiyalik, nishab, nishablik
- ramp II** [ræmp] *n* qo'rqitib undirish, olish; tovlamachilik
- rampage** [ræm'peɪdʒ] *n* qattiq g'azab, qahr
- rampageous** [ræm'peɪdʒəs] *a* jazavaga tushgan (*hayajon va sh. k. da o'zini bilmaydigan*); g'azabi oshgan
- rampant** [ræmpənt] *a* 1) jazavadan (g'azabdan, hayajondan) o'zini bilmaydigan, darg'azab; 2) tez tarqalayotgan, yayilayotgan
- rampart** ['ræmpɑ:t] *n* tayanch, suyanchiq, homiy, muhofazachi
- ramrod** [ræmrod] *n* 1) shompol (*miltiq stvolini tozalash, moylash yoki og'zidan o'qlanadigan miltiqqa zaryad joylash uchun ishlatiladigan ingichka va uzun metall tayoq*); 2) *amer. harb.* qiruvchilar hamrohligidagi bombardimonchilar zarbasi
- ramshackle** ['ræmʃæk(ə)l] *a* puturdan ketgan, eskirgan, chirigan, ko'hna, to'zgan
- ran** [ræn] *past. of run*
- ranch** [rɑ:ntʃ] *1. n amer.* katta fermer xo'jaligi; *2. v* chorvadorlik (chorvachilik) bilan shug'ullanmoq
- rancher** [rɑ:ntʃə] *n* 1) chorvador; katta fermer xo'jaligi xo'jayini (egasi); 2) fermer xo'jaligi ishchisi
- ranchman** ['rɑ:ntʃmən] (*pl -men [-mən]*) = **rancher**
- rancid** [rænsɪd] *a* 1) taxir, kakra, hidlangan; 2) hidlangan, buzilgan (*yog' haqida*)
- rancidity** [ræn'sɪdɪtɪ] *n* taxirlik, kakralik, achiganlik, buzilib qolganlik
- rancidness** [rænsɪdnəs] = **rancidity**
- rancorous** [ræŋk(ə)rəs] *a* 1) yomon, yovuz, serjahl, badjahl, g'azablangan; 2) dushmanlik ruhidagi, adovatli
- rancour** [ræŋkə] *n* 1) kek, adovat, xusumat, gina; 2) yashirin (pinhoniy) dushmanlik
- rاند** [rænd] *n* rant, baxya
- randan I** [ræn'dæn] *n* uchta eshkakchi (eshkak eshuvchi)dan iborat bo'lgan to'rt eshkakli qayiq
- randan II** [ræn'dæn] *n* ichkilikbozlik, ichimlik bazmi, aysh-ishrat, mayxo'rlik; to go

- on ~ aysh-ishrat qilmoq, ichkilikbozlik qilmoq
- random** [ˈrændəm] *a* 1) taxminan (chamablab) bajarilgan yoki aytilgan; 2) o'ylamasdan (andisha qilib o'tirmay) tanlab olingan; 3) tasodifiy, kutilmagan, nogahoniy; **at** ~ o'ylamay, tavakkaliga, taxminan; **to speak at** ~ o'ylamay gapirmoq; **a** ~ **bullet** daydi o'q
- randy** [ˈrændi] **1.** *a* *shotl.* dag'al, qo'pol, baqiroq; **2.** *n* janjalkash ayol
- rang** [ræŋ] *past. of ring II, 2*
- range** [reɪndʒ] **1.** *n* 1) soha, doira; **a** ~ **of science** fan sohasi; **a** ~ **of vision** saviya, ong, bilim darajasi (doirasi); 2) qa tor (uyalar); 3) tizma (tog' va b.); 4) *harb.* **a** ~ **table** o'q otish jadvali; **2.** *v* 1) qatorga solmoq; 2) tartibga keltirmoq; 3) o'zgarib, chiqib-tushib turmoq
- range-finder** [ˈreɪndʒfaɪndə] *n* (dalmomer) masofa o'lchagich
- range-pole** [ˈreɪndʒpəʊl] *n* masofa o'lchash reykası, masofa o'lchaydigan reyka (*reyka* – *yupqa va ensiz uzun taxtacha*)
- ranger** [ˈreɪndʒə] *n* daydi, eshikma-eshik yuradigan kishi
- rangy** [ˈreɪndʒi] *a* sayoq, daydi, beqaror, ko'chmanchi
- rank** [ræŋk] **1.** *n* 1) unvon, martaba, lavozim, mansab; **of higher** ~ yuqori (oliy) mansabli; 2) qator, saf; **2.** *v* 1) joy egallamoq; 2) baho bermoq; 3) saf tortmoq
- ranker** [ˈræŋkə] *n* oddiy askardan chiqqan zobit
- rankle** [ˈræŋk(ə)l] *v* yiringlamoq, yiring (gazak) olmoq; fasod bog'lamoq
- ransack** [ˈrænsæk] *v* 1) qidirmoq, izlamoq, axtarmoq; **to** ~ **one's brains** *amer.* bosh qotirmoq, o'ylab qolmoq; 2) uyni shipshiydam qilib urib ketmoq
- represent** [ˌreprɪ'zent] *v* vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq; **to ~ a country** mamlakat vakili bo'lmoq
- representation** [ˌreprɪzən'teɪʃ(ə)n] *n* vakillik, vakolatxona
- representative** [ˌreprɪ'zentətɪv] *n* vakil, delegat, vakil qilib jo'natilgan kishi; **an accredited ~** muxtor vakil
- repress** [ri'pres] *v* 1) (qo'zg'olon va b. ni) kuch bilan bosmoq; 2) jazolamoq
- repressed** [ri'prest] *a* kuch bilan bosilgan, ezilgan
- repression** [ri'presʃ(ə)n] *n* jazo, jazo choras
- repressive** [ri'presɪv] *a* jazo tariqasida (jazolash uchun) qo'llaniladigan
- reprieve** [ri'pri:v] *n* (o'lim jazosi) hukm ijrosini keyinga qoldirish
- reprimand** [ˌreprɪmɑːnd] *v* tanbeh bermoq, hayfsan e'lon qilmoq, urishmoq
- reprint** [ˌri:'prɪnt] *v* qayta nashr qilmoq
- reprisal** [ri'praɪz(ə)l] *n* jazo, jazo tadbirlari
- reproach** [ri'prəʊʃ] *n* ta'na, malomat, gina qilish, yuziga solish
- reproachful** [ri'prəʊʃf(ə)l] *a* ta'nali, ginali, ta'nani ifodalaydigan
- reproachfully** [ri'prəʊʃf(ə)li] *adv* ta'na bilan, gina qilib, o'pkalab
- reprobate** [ˌreprəbeɪt] *n* 1) buzuq odam, suyuqoyoq; 2) razil (qabih, past) odam, yaramas, ablah, nobakor
- reproduce** [ˌri:prə'dju:s] *v* 1) qayta (takror) ishlab chiqarmoq; 2) aks ettirmoq, tasvirlamoq; 3) nusxa olmoq; 4) tiklamoq, asliga keltirmoq; 5) ishlab chiqarmoq
- reproduction** [ˌri:prə'dʌkʃ(ə)n] *n* 1) qayta ishlab chiqarish; 2) ko'paytirish, ko'payish, nusxa olib ko'paytirish
- reproductive** [ˌri:prə'dʌktɪv] *a* qayta ishlab chiqaruvchi (chiqaradigan)
- reproof** [ri'pru:f] *n* 1) ogohlantirish, tanbeh; 2) ta'na, malomat
- reprove** [ri'pru:v] *v* tanbeh bermoq, tergap koyimoq
- reptile** [ˌreptɪl] *n* zool. sudralib yoki o'rmatlab yuradigan hayvon
- republic** [ri'pʌblɪk] *n* respublika; jumhuriyat; **to proclaim a ~** respublika deb e'lon qilmoq
- republican** [ri'pʌblɪkən] *a* respublikaga oid, jumhuriyatga oid, respublika..., jumhuriyat...
- repudiate** [ri'pjʊ:diɪt] *v* 1) rad qilmoq, inkor qilmoq, tonmoq; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq
- repugnance** [ri'pʌgnəns] *n* 1) yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; nafrat, jirkanish; 2) zidlik, to'g'ri kelmaslik
- repugnant** [ri'pʌgnənt] *a* 1) bir-biriga to'g'ri kelmaydigan; 2) yomon, chidab bo'lmaydigan, nafratni qo'zg'aydigan
- repulse** [ri'pʌls] *n* qarshi zarba, qarshilik; qarshi zarba berish, qaytarish, daf qilish
- repulsion** [ri'pʌlʃ(ə)n] *n* 1) yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; 2) (*dushmanga*) qarshi zarba berish
- repulsive** [ri'pʌlsɪv] *a* jirkanch, qabih, razil, manfur, juda yomon, yoqimsiz, sovuq
- reputable** [ˌrepjʊtəb(ə)l] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram
- reputation** [ˌrepjʊ'teɪʃ(ə)n] *n* obro', shuhrat, e'tibor, dong, yaxshi nom; **to blacken smb.'s ~** birovning obro'sini to'kmoq
- repute** [ri'pjʊ:t] *n* obro', e'tibor, shuhrat, dong, yaxshi nom
- reputed** [ri'pjʊ:tɪd] *a* 1) yaxshi obro'ga ega bo'tgan; 2) mashhur, nom chiqargan
- reputedly** [ri'pjʊ:tɪdli] *adv* umumiy mulohazalarga ko'ra
- request** [ri'rekwɪst] **1.** *n* iltimos, talab; **at the ~ of ...**ning iltimosiga ko'ra; **2.** *v* iltimos qilmoq; **to grant smb.'s ~** birovning iltimosini qondirmoq
- require** [ri'kwɪə] *v* 1) talab qilmoq; buyurmoq; 2) (*nimagadir*) muhtoj bo'lmoq
- requirement** [ri'kwɪəmənt] *n* 1) talab, zaruriy sharoit, zarurat, talabnoma; 2) ehtiyoj
- requisite** [ˌrekwɪzɪt] *a* kerakli, zarur; **the number of votes ~ for election** saylash uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori
- requisition** [ˌrekwi'zɪʃ(ə)n] *n* 1) rasmiy talab; 2) ehtiyoj, talab; 3) talabnoma
- rescind** [ri'sɪnd] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq
- rescue** [ˌreskjʊ:] **1.** *n* qutqarish; ozod qilish; **to come to the ~** yordamga kelmoq; **2.** *v* qutqarmoq, ozod (xalos) qilmoq
- rescuer** [ˌreskjʊə] *n* qutqaruvchi, xalos qiluvchi, xaloskor, najotkor
- research** [ri'resɪʃ] **1.** *n* tadqiqot, o'rganish, ilmiy tekshirish; **2.** *v* ilmiy ish olib bormoq; **to be engaged in ~** ilmiy ish bilan band bo'lmoq
- researcher** [ri'resɪʃə] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi
- rescat** [ˌri:'sɪ:t] *v* 1) yana (qayta) o'tirg'izmoq; 2) yangi kreslolarini qo'yimoq (*teatr va b. da*)

resemblance [riˈzemb(ə)ns] *n* oʻxshashlik, bir xillik, bir xil boʻlish; **to bear** ~ oʻxshamoq; **to have a strong ~ to smb.** kimgadir juda oʻxshamoq

resemble [riˈzemb(ə)] *v* oʻxshamoq, oʻxshash boʻlmoq

resent [riˈzent] *v* qattiq gʻazablanmoq, achchiqlanmoq; gʻazabi kelmoq

resentful [riˈzentf(ə)] *a* xafa boʻlgan, ranjigan, koʻngli ogʻrigan, dilsiyoh, xafa

resentment [riˈzentmənt] *n* gʻazab, nafrat, qahr

reservation [ˌrezəˈveɪʃ(ə)n] *n* saqlash, olib qoʻyish, atab qoldirish, zaxira qilib qoʻyish; oldindan joy band qilib qoʻyish (*mehmonxonada*)

reserve [riˈzɜ:v] **1.** *n* gʻamlab qoʻyilgan narsa, zaxira, ehtiyot; **2.** *v* 1) gʻamlamoq, gʻamlab qoʻymoq; 2) (*mehmonxona, restoran va sh. k. dan*) joy band qilib qoʻymoq

reserved [riˈzɜ:vd] *a* 1) kamgap, pismiq; 2) oldindan buyurtirilgan; **a ~ seat** a) oldindan buyurtirilgan joy; b) teatrga oldindan olingan chipta

reservoir [ˈrezəvwa:] *n* suv ombori, hovuz

reshaped [ˌri:ʃeɪpt] *a* oʻzgargan, oʻzgartirilgan, boshqa shaklga oʻtkazilgan

reshuffle [ri:ˈʃʌf(ə)] *n* oʻrinni almashtirib qoʻyish, boshqa joyga koʻchirib qoʻyish, joylarini almashtirib oʻrnatish

reside [riˈzaɪd] *v* istiqomat qilmoq, yashamoq, umr kechirmoq

residence [ˈrezɪd(ə)ns] *n* istiqomat qiladigan, yashaydigan joy; turar joy, qarorgoh

resident [ˈrezɪd(ə)nt] *n* doimiy yashovchi (turuvchi) kishi

residential [ˌrezɪˈdenʃ(ə)] *a* 1) yashash uchun moʻljallangan; 2) yashash joyi bilan bogʻliq boʻlgan

residue [ˈrezɪdʒu:] *n* qoldiq, qolgani, ortgani; qolgan narsa

resign [riˈzaɪn] *v* isteʼfoga chiqmoq, ishdan boʻshamoq

resignation [ˌrezɪgˈneɪʃ(ə)n] *n* isteʼfoga chiqish

resigned [riˈzaɪnd] *a* gapga kiradigan, rozi boʻladigan, koʻngilchan, yumshoq

resilience [riˈzɪliəns] *n* egiluvchanlik, taranglik, elastiklik, qayishqoqlik

resilient [riˈzɪliənt] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq, tarang; 2) xushchaqchaq, quvnoq

resin [ˈrezɪn] **1.** *n* smola, yelim (*baʼzi oʻsimliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*)

resist [riˈzɪst] *v* qarshilik koʻrsatmoq, qarshilik qilmoq

resistance [riˈzɪstəns] *n* qarshilik, qarshi chiqish, qarshilik koʻrsatish; **to overcome the ~ (of)** qarshilikni yengmoq; **to offer ~** qarshilik qilmoq

resistant [riˈzɪstənt] *a* chidamli, pishiq, puxta; mahkam, mustahkam

resolute [ˈrezəlu:t] *a* barqaror, matonatli, mustahkam, salobatli, qatʼiy, dadil

resolutely [ˈrezəlu:tli] *adv* qatʼiyat bilan, jasurlik bilan, jasurona

resolution [ˌrezəˈlu:ʃ(ə)n] *n* qaror; **to adopt** ~ qaror chiqarmoq; **joint** ~ qoʻshma qaror;

draft ~ qaror loyihasi

resolve [riˈzɒlv] **1.** *n* niyat, maqsad, oʻy; qasd, ahd; **2.** *v* qaror qabul qilmoq; qarorga kelmoq

resonant [ˈrezənənt] *a* jarangdor, jarangli, yaxshi eshitiladigan

resort [riˈzɔ:t] *v* 1) himoya, yordam, madad; 2) taskin, tasalli; 3) kurort; 4) yordam soʻrab murojaat qilish

resound [riˈzaʊnd] *v* ovoz (tovush) chiqarmoq, sadolanmoq

resounding [riˈzaʊndɪŋ] *n* tovushning qaytishi, tovushni qaytarish

resource [riˈsɔ:s] *n* 1) boylik, zaxiralar; **natural** ~s tabiiy boyliklar; 2) manba, vosita

resourceful [riˈsɔ:sf(ə)] *a* tadbirli, tadbirkor, topqir

respect [riˈspekt] **1.** *n* 1) hurmat, eʼtibor; ~ **for** ...ga hurmat; **with (in) ~ to** ... xususida, haqida; 2) munosabat; **2.** *v* hurmat qilmoq

respectable [riˈspektəb(ə)] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram, hurmatga sazovor boʻlgan, hurmatga loyiq; ulugʻ, tartibli

respectful [riˈspektf(ə)] *a* odobli, hurmat (izzat) qiladigan; hurmat bilan; ehtirom bilan

respecting [riˈspektɪŋ] *prep.* toʻgʻrisida, haqida, xususida

respective [riˈspektɪv] *a* mos, muvofiq, tegishli, kerakli, loyiq

respectively [riˈspektɪvli] *adv* 1) mos ravishda, tegishli, tegishli ravishda; yara-sha; 2) koʻrsatilgan tartibda

respiration [ˌrespɪˈreɪʃ(ə)n] *n* nafas olish, nafas

respirator [ˈrespɪreɪtə] *n* respirator (*nafas olish, koʻrish va eshitish aʼzolarini zaharli gaz va changdan saqlaydigan asbob*)

respite [ˈrespant] *n* 1) dam olish, nafasni rostdash; 2) keyinga qoldirish, kechiktirish, keyinga surish

resplendent [riˈsplendənt] *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiragan

respond [riˈspɒnd] *v* javob bermoq; **to ~ with a blow** qarshi zarba bermoq

response [rɪˈspɒns] *n* 1) javob, in ~ to ... ga javoban; 2) sado
responsibility [rɪˈspɒnsəˈbɪlɪtɪ] *n* javobgarlik, burch, mas'uliyat; **to take the ~** javobgarlikni o'z zimmasiga olmoq
responsible [rɪˈspɒnsəb(ə)l] *a* javobgar, mas'ul; **to be ~ for smth.** nimagadir mas'ul bo'lmoq; ~ **for** ... ga mas'ul
responsibly [rɪˈspɒnsəb(ə)lɪ] *adv* mas'uliyatni (javobgarlikni) o'z bo'yniga olib
responsive [rɪˈspɒnsɪv] *a* javob tariqasidagi (ma'nosidagi), javoban qilingan
rest I [rest] *1. n* dam, dam olish; *2. v* dam olmoq
rest II [rest] *n* 1) qoldiq; 2) qolganlar, boshqalar; **keep the ~ for yourself** qolganini o'zingizga oling
restaurant [ˈrest(ə)rɒŋ, -rɒnt] *n* restoran
restful [ˈrestf(ə)l] *a* tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutadigan, orom beradigan
restitution [ˌrestɪˈtjuːʃ(ə)n] *n* 1) qaytarish, qaytarib berish; 2) tiklash
restive [ˈrestɪv] *a* 1) o'jar, qaysar, tutgan joyini kesadigan; 2) asov (ters) ot
restless [ˈrestləs] *a* 1) notinch; beorom, tinib-tinchimaydigan; 2) tinch (tek) tura olmaydigan; 3) tashvishli
restoration [ˌrestəˈreɪʃ(ə)n] *n* qayta qurish, tiklash, tuzatish, ta'mirlash
restorative [rɪˈstɔːrətɪv] *1. a* quvvatni oshiradigan, tetiklantiradigan; *2. n* quvvat (daron) beradigan vosita
restore [rɪˈstɔː] *v* qayta qurmoq; tiklamoq, tuzatmoq, ta'mirlamoq; **to ~ one's health** sog'liqni tiklamoq
restrain [rɪˈstreɪn] *v* 1) cheklamoq, chek qo'y-moq, chegaralamoq; 2) ozodlikdan mahrum qilmoq, qamoqqa olmoq
restrained [rɪˈstreɪnd] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) cheklangan
restraint [rɪˈstreɪnt] *n* o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, o'zini yo'qotmaslik, dardillik
restrict [rɪˈstrɪkt] *v* cheklamoq
restricted [rɪˈstrɪktɪd] *a* cheklangan, chegaralangan, tor
restriction [rɪˈstrɪktʃ(ə)n] *n* cheklash, chek qo'yish; **without ~** cheksiz
restrictive [rɪˈstrɪktɪv] *a* cheklaydigan, chek qo'yadigan, cheklovchi, chegaralovchi
result [rɪˈzʌlt] *1. n* natija, oqibat, samara; **without ~** natijasiz; **as a ~ of** natijada; *2. v* 1) kelib chiqmoq (**from**); 2) biror natija bilan tugamoq (**in**); **to ~ in** natijaga ega bo'lmoq
resume [rɪˈzjuːm] *v* yangidan boshlamoq, qaytadan boshlamoq; yana davom ettirmoq; **well, to ~** demak, davom etamiz

résumé [re(1)zjumeɪ] *n fr.* 1) qisqacha avtobiografiya; 2) ma'lumot; qisqacha xulosa; konspekt
resumption [rɪˈzʌmpʃ(ə)n] *n* yangidan, qaytadan boshlash, davom ettirish
resurgent [rɪˈsɜːdʒ(ə)nt] *a* 1) (avvalgi) holi-ga qaytayotgan; 2) tiklanayotgan
resurrect [ˌrezəˈrekt] *v so'zl.* 1) tirilmoq, hayotga qaytmoq; 2) tiriltirmoq
resurrection [ˌrezəˈrekʃ(ə)n] *n* qaytadan vujudga kelish, tug'ilish, jonlanish, tirilish
resuscitate [rɪˈsʌstɪteɪt] *v* tiriltirmoq, hayotga qaytarmoq; tirilmoq, hayotga qaytarmoq; o'ziga (hushiga) kelmoq
retail [ˈriːteɪl] *n* 1) chakana savdo; **at ~ donalab; by ~** chakanalab, donalab; 2) *attr.* chakana savdoga oid; ~ **price** chakana narx
retailer [ˈriːteɪlə] *n* 1) do'kondor, attor, chakana savdogar; 2) g'iybatchi odam, gap tashuvchi
retain [rɪˈteɪn] *v* 1) ushlab (saqlab) qolmoq, tutib qolmoq; 2) saqlamoq, asramoq; 3) esda tutmoq, yodda saqlamoq, eslamoq
retaliate [rɪˈtæliet] *v* o'ch olmoq, qasos olmoq, alimini olmoq
retaliation [rɪˈtæliˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) ajr, evaz, mukofot; 2) o'ch, qasos
retard [rɪˈtɑːd] *v* to'xtatmoq, to'xtatib (tutib, ushlab) qolmoq
retarded [rɪˈtɑːdɪd] *a* sekinlashgan, sekinlagan, sekinlatgan
retch [retʃ] *1. n* qusish, qayt qilish; qusuq; *2. v* kekirmoq
retention [rɪˈtenʃ(ə)n] *n* 1) tutib qolish; 2) saqlab qolish, saqlash; 3) eslab qolish qobiliyati; **xotira**
retentive [rɪˈtentɪv] *a* 1) saqlab qola oladigan, saqlaydigan; 2) yaxshi (**xotira haqida**)
rethink [ˌriːˈθɪŋk] *v* (**rethought**) qaytadan ko'rib chiqmoq; yana bir qarab chiqmoq
rethought [ˌriːˈθɔːt] *past., p. p. of* **rethink**
reticence [ˌrets(ə)ns] *n* 1) o'zini tuta bilish, vazminlik, osoyishtalik; 2) sirini (ichidagini) hech kimga aytmaslik; yashirinlik, maxfiylik
reticent [ˌretɪs(ə)nt] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) yashirin, maxfiy
retinue [ˌretɪnjuː] *n* tantanali yurish, namoyish
retire [rɪˈtaɪə] *v* 1) uzoqlashmoq, yiroqlashmoq, uzoqqa ketmoq; 2) uxlagani yotmoq; 3) iste'foga chiqmoq; ~**d** iste'foga chiqqan
retirement [rɪˈtaɪəmənt] *n* iste'foga chiqish
retiring [rɪˈtaɪə(ə)rɪŋ] *a* kamtar, oddiy, sipo; uyatchan
retort I [rɪˈtɔːt] *n* retorta (**laboratoriyalarda ishlatiladigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qaytarilgan idish**)

retort II [rɪˈtɔ:t] 1. *n* e'tiroz, qarshilik; qo'rs javob; 2. *v* 1) qo'rs javob bermoq; 2) rad etmoq

retouch [ˈri:tʌtʃ] *n* retush, retushlash (*retush* – bo'yoq, qalam kabilar bilan negativ yoki suratning kam-ko'stini to'g'rilash, tuzatish)

retrace [rɪˈtreɪs] *v* iziga (ketiga) tushmoq, orqasidan poylab bormoq, ta'qib qilmoq

retract [rɪˈtrækt] *v* 1) tortib (sudrab) kiritmoq (yoki chiqarmoq); 2) (so'z va sh. k. ni) qaytarib olmoq; (va'da va sh. k. ni) rad etmoq

retreat [rɪˈtri:t] 1. *n* chekinish; 2. *v* chekinmoq, orqaga qaytmoq

retrench [rɪˈtrentʃ] *v* qisqartirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq

retrenchment [rɪˈtrentʃmənt] *n* tejash, (*chiqim va b. ni*) kamaytirish

retribution [ˌretriˈbju:ʃ(ə)n] *n* qasos, o'ch, jazo

retrieve [rɪˈtri:v] *v* 1) qayta topib olmoq; 2) o'ziga qaytarib olmoq; 3) oldingi holatiga qaytarmoq

retrospection [ˌretroˈspekʃ(ə)n] *n* o'tmishga murojaat, o'tmishga nazar tashlash

retrospective [ˌretroˈspektɪv] *a* o'tmishga qaratilgan, o'tmishga nazar solib qilingan

retrospectively [ˌretroˈspektɪvli] *adv* o'tmishga nazar solib, o'tmishni hisobga olgan holda

return [rɪˈtɜ:n] 1. *n* 1) qaytarish, qaytarib berish, qaytib kelish; *in* ~ javoban; o'rniga; *in* ~ for ...ning o'rniga; 2) *pl* saylov natijalari; 3) xabar, axborot, ma'lumot; 2. *v* qaytib kelmoq, qaytarib bermoq

returnable [rɪˈtɜ:nəbl̩] *a* 1) qaytarib berilishi kerak bo'lgan; 2) qaytarib olinadigan (*tara haqida*)

reunion [riːˈju:njən] *n* qaytadan birlashtirish, qaytadan qo'shilish (birlashtirish)

reunite [riːˈju:ˈnaɪt] *v* qaytadan qo'shmoq, qaytadan birlashtirmoq

rev [rev] *so'zl.* 1. *n* („**revolution II**“ ning qisqartmasi) aylanish (*dvigatel, motor haqida*); 2. *v* („**revolve**“ ning qisqartmasi) aylanmoq

revanche [rɪˈvɑ:nʃ] *n* *fr.* qasos olish, o'ch olish, intiqom

revanchist [rɪˈvɑ:nʃɪst] *n* qasoschi, qasos oluvchi kishi

reveal [rɪˈvi:l] *v* ko'rsatmoq, ochmoq, fosh etmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; *to* ~ a plot fitnani fosh etmoq

revealing [rɪˈvi:lɪŋ] *a* fosh qiladigan, aybini (kamchiliklarini) ochadigan

reveille [rɪˈvæli] *n* *harb.* uyg'otish, uyg'otish signali, ertalabki jismoniy mashqlar

revel [ˈrev(ə)l] 1. *n* quvnoqlik, xushchaqchaqlik, xursandlik; 2) *pl* kichik ziyofat

revelation [ˌrevəˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) (*sir va sh. k. ni*) ochish, fosh etish; 2) *din.* vahiy

revenge [rɪˈvendʒ] 1. *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd; 2. *v* qasos olmoq, o'ch olmoq; *to* ~ oneself (up) on smb. birovdan o'ch olmoq

revenger [rɪˈvendʒə] *n* qasos (o'ch) oluvchi; qasoskor

revenue [ˈrevɪnju:] *n* 1) daromad; 2) daromad manbayi; 3) soliq va yig'imlar departamenti; moliya boshqarmasi

reverberate [rɪˈvɜ:b(ə)reɪt] *v* aks etmoq, qaytarmoq

reverberation [rɪˈvɜ:b(ə)reɪʃ(ə)n] *n* 1) aks, tasvir; 2) aksini (soyasini, tasvirini) ko'rsatmoq

revere [rɪˈviə] *v* chuqur izzat-hurmat qilmoq, qadrlamoq, ehtirom qilmoq, ixlos qo'y-moq

reverence [ˈrev(ə)rəns] *n* chuqur hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom

reverend [ˈrev(ə)rənd] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram

reverent [ˈrev(ə)rənt] *a* hurmat (izzat) qiladigan; odobli

reverie [ˈrevəri] *n* 1) xayol surish, orzu-xayollarga berilish, xayol surish; 2) orzu, xayol

reversal [rɪˈvɜ:s(ə)l] *n* 1) (*siyosiy*) vaziyatning o'zgarishi; 2) bekor qilish; **the** ~ of judgement sud qarorini (hukmini) bekor qilish

reverse [rɪˈvɜ:s] *n* 1) (*tanga pul va b. ning*) teskari (orqa) tomoni; 2) teskarilik, egrilik; 3) muvaffaqiyatsizlik; *to meet with a* ~ muvaffaqiyatsizlikka uchramoq

reversible [rɪˈvɜ:səb(ə)l] *a* 1) asl holiga qayta oladigan; qaytariladigan; 2) ikki tomonlama (*mato haqida*)

reversion [rɪˈvɜ:ʃ(ə)n] *n* 1) (*oldingi holatga*) qaytish; 2) *biol.* atavizm (*ajdodlarda bo'lgan belgilarning bir necha bo'g'indan keyingi avlodda takrorlanishi*)

revert [rɪˈvɜ:t] *v* 1) oldingi holatga qaytmoq; 2) *yur.* oldingi egasiga o'tmoq

revet [rɪˈvet] *v* ustini, sirtini qoplamoq

review [rɪˈvju:] 1. *n* 1) ko'zdan kechirish, qayta ko'rib chiqish; 2) taqriz, sharh; *to pass in* ~ ko'zdan kechirmoq; 2. *v* ko'zdan kechirmoq, qayta ko'rib chiqmoq

reviewer [rɪˈvju:ə] *n* sharhlovchi; kuzatib boruvchi; taqrizchi

- revise** [ri'vaɪz] *v* 1) qayta ko'rib chiqmoq, tekshirmoq; 2) tuzatmoq, to'g'rilamoq; 3) qarab (ko'rib) chiqmoq
- revised** [ri'vaɪzɪd] *a* tahrir qilingan, tuzatilgan, to'g'rilangan
- revision** [ri'vɪʒ(ə)n] *n* qaytadan ko'rish, qaytadan qarab chiqish, takrorlash
- revisionism** [ri'vɪʒənɪzəm] *n* siyos. revizionizm (*biror-bir ta'limot, nazariya, nuqtayi nazar prinsiplarini va qoidalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiluvchi ta'limot*)
- revisionist** [ri'vɪʒənɪst] *n* revizionist (*revizionizm tarafdori*)
- revival** [ri'vaɪv(ə)] *n* uyg'onish, jonlanish, qayta tiklanish, yuksalish
- revive** [ri'vaɪv] *v* 1) tiklanmoq, jonlanmoq, ruhlanmoq; 2) qaytadan (yangidan, boshidan) boshlamoq; **to ~ a play** tomoshani boshidan boshlamoq
- revoke** [ri'vəʊk] *v* (*qonun, buyruq va b. ni*) bekor qilmoq
- revolt** [ri'vəʊlt] 1. *n* qo'zg'olon, isyon; 2. *v* isyon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq, qo'zg'olon qilmoq
- revolting** [ri'vəʊltɪŋ] *a* 1) 1) (*biror narsaga qarshi*) bosh ko'taruvchi; 2) jirkantiradigan, juda xunuk, yoqimsiz
- revolution I** [ˌrevə'lu:ʃ(ə)n] *n* 1) inqilob; 2) ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi keskin o'zgarish; to'ntarish, to'ntarilish
- revolution II** [ˌrevə'lu:ʃ(ə)n] *n* 1) aylanish; 2) *tex.* aylanish, oborot
- revolutionary** [ˌrevə'lu:ʃən(ə)rɪ] 1. *a* inqilobiy; 2. *n* inqilobchi
- revolutionize** [ˌrevə'lu:ʃənəɪz] *v* revolutsion g'oyalarni tarqatmoq (yoymoq), inqilobiy-lashtirmoq
- revolve** [ri'vəʊlv] *v* aylanmoq, aylantirmoq, buramoq, buralmoq
- revolver** [ri'vəʊlvə] *n* 1) to'pponcha; 2) *tex.* baraban (*mashina va mexanizmlarning silindr shaklidagi qismi*)
- revolving** [ri'vəʊvɪŋ] *a* aylanadigan, buriladigan, aylanma
- revue** [ri'vju:] *v* 1) revyu (*teatrdagi mavzudagi ayrim nomer, epizod va ko'rinishlardan iborat tomosha*); 2) kundalik umumiy mavzudagi bir necha xil nomerdan tuzilgan estrada-teatr tomoshasi
- revulsion** [ri'vʌlʃ(ə)n] *n* 1) kutilmaganda yuz bergan o'zgarish; 2) nafrat, jirkanish; 3) *tib.* (*qonning*) kamayishi
- revulsive** [ri'vʌlʃɪv] *a* *tib.* diqqatni chetga tortadigan, chalg'itadigan
- reward** [ri'wɔ:d] 1. *n* mukofot; 2. *v* mukofotlamoq, taqdirlamoq
- rewind** [ri'waɪnd] *v* qaytadan (yangidan) o'ramoq; boshqatdan o'ramoq
- rewrite** [ri'raɪt] *v* (**rewrote; rewritten**) qaytadan yozib chiqmoq, ko'chirmoq
- rewritten** [ri'raɪtɪd] *p. p.* of rewrite
- rewrote** [ri'raɪt] *past.* of rewrite
- rhapsodic(al)** [ræp'sɒdɪk(əl)] *a* 1) g'oyat zavqli, quvonchli; 2) shod-xurram
- rhapsody** [ræpsədi] *n* *mus.* rapsodiya (*xalq qo'shiqlari, dostonlari mavzusidagi mustaqil asari*)
- rheostat** [ri'ɹiəstæt] *n* *el.* reostat (*tok kuchini va uning kuchlanishini rosilab, tartibga solib turadigan apparat*)
- rhesus** ['ri:səs] *n* *zool.* rezus (*makakalar urug'iga mansub maymun*)
- rhetor** ['ri:tə] *n* nutqi yaxshi shaxs, notiq, gapdon
- rhetoric** ['retənk] *n* notiqlik san'ati
- rhetorical** [ri'tɔrɪk(əl)] *a* 1) dabdabali, ritorik; 2) notiqlik qoidalariga asoslangan
- rhetorician** [ˌretə'ri:ʃ(ə)n] *n* mahmadona, gapdon
- rheum** [ru:m] *n* tumov
- rheumatic** [ru:'mætɪk] 1. *a* revmatizmga (*bod kasalligiga*) oid; 2. *n* bod kasaliga yo'liqqan odam
- rheumaticky** [ru:'mætɪkɪ] *a* so'zl. bod kasalligiga oid
- rheumatism** [ˌru:mətɪz(ə)m] *n* *tib.* revmatizm, bod (*kasallik*)
- rheumatiz** [ˌru:mətɪz] = **rheumatism**
- rhinestone** ['rɪnstəʊn] *n* 1) tog' xrustali; 2) soxta brilliant
- Rhine wine** [ˌraɪn'waɪn] *n* reynevayn (*uzum vinosining bir navi*)
- rhino I** [ˌraɪnəʊ] „rhinoceros“ so'zining qisqartirilgan shakli
- rhino II** [ˌraɪnəʊ] *n* *sl.* pul, aqcha
- rhinoceros** [raɪ'nɒs(ə)rəs] *n* *zool.* 1) shoxli qo'ng'iz; 2) karkidon (*toq tuyoqli sutemizuvchilarga mansub, bitta yoki ikkita shoxi bor, terisi qalin, bahaybat katta hayvon*)
- rhododendron** [ˌrɒdə'dendrən] *n* *bot.* alp atirguli
- rhomb** [rɒm] *n* *mat.* romb (*hamma tomonlari teng parallelogramm*)
- rhombi** [ˌrɒmbaɪ] *pl* of rhombus
- rhombic** [ˌrɒmbɪk] *a* rombgaga oid, rombsimon, romb shaklidagi
- rhomboid** [ˌrɒmbɔɪd] *n* *mat.* parallelogramm (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan to'rtburchak*)
- rhombus** [ˌrɒmbəs] *n* (*pl* -bi [-baɪ]) romb
- rhubarb** [ˌru:bɑ:b] *n* *bot.* rovoch, rivoch (*yirik bargli, ildizi yo'g'on o'tsimon ko'p yillik o'simlik*)

rhumb [rʌm] *n* deng. rumb (ufqning 32 dan bir qismiga, ya'ni 11,25 ga teng kompas darajasi)

rhyme [raɪm] *n* qofiya, qofiyali she'r, double ~ urg'u she'riy satrning oxiridan ikkinchi bo'g'iniga tushadigan qofiya; **single** ~ urg'u she'riy satrning oxirgi bo'g'iniga tushadigan qofiya

rhymed [raɪmd] *a* qofiyali, qofiyadosh, qofiyaga solingan

rhymers ['raɪmə] = **rhymester**

rhymester ['raɪmstə] *n* qofiyaboz (no'noq sho'r haqida)

rhythm ['rɪð(ə)m] *n* ritm, vazn, marom, maqom

rhythmic(al) ['rɪðmɪk(ə)l] *a* ritmli, vaznli, ohangli, bir maqomdagi; uyg'un, bir tekis

rib [rɪb] *n* 1) anat. qovurg'a; 2) qirra, yon, bigin; 3) o'tkir uch

ribald ['rɪb(ə)ld] **I.** *n* og'zi buzuq odam, qo'pol (dag'al, qo'rs, tarbiyasiz) odam; **2.** *a* uyatsiz, adabsiz, yuzsiz, beor

ribaldry ['rɪb(ə)ldrɪ] *n* beodob gap, behayo ibora, so'kinish, qo'pollik, dag'allik, qo'rslik

ribbed [rɪbd] *a* 1) qovurg'asi chiqqan; 2) qovurg'ali, qirrali, qovurg'asimon

ribbon ['rɪbən] **I.** *n* lenta, tasma; **typewriter** ~ yozuv mashinasining lentasi; **2.** *v* lenta bilan bezamoq

ribboned ['rɪb(ə)nd] *a* lenta bilan bezatilgan

rice [raɪs] *n* 1) bot. sholi; 2) guruch; 3) *attr.* guruchdan qilingan, guruchli; **a** ~ **field** sholipoya

rice-flakes ['raɪs 'fleɪks] *n* *pl* parchalangan (yanchilgan) guruch

rice-paper ['raɪs,peɪpə] *n* sholi qog'oz (sholi paxolidan qilingan yupqa pishiq qog'oz)

rice-water ['raɪs,wɔ:tə] *n* xo'rda, yovg'on xo'rda; guruch qaynatmasi

rich [rɪtʃ] *a* 1) boy, badavlat; ~ **in ...** ga boy; 2) serhosil, hosildor; ~ **harvest** mo'l hosil; 2) (diqqat-e'tiborga) arziydigan; qimmatli, loyiq; **a** ~ **suggestion** e'tibor berishga arziydigan taklif

Richard Roe [rɪtʃəd rəʊ] *n* *yar.* sud jarayonidagi aybdor (javobgar) shaxs (*asosan, ismi ma'lum bo'lmaganlarga ishlatiladi*)

riches ['rɪtʃɪz] *n* boylik, mol-mulk; **the** ~ **of the soil** yerosti boyliklari

richly ['rɪtʃli] *adv* farovon, boy, to'q, hasham bilan

richness ['rɪtʃnəs] *n* boylik, mol-mulk, dunyo, davlat, bisot

rick I [rɪk] **I.** *n* g'aram, to'p; **2.** *v* g'aramlamoq, to'plamoq

rick II [rɪk] = **wrick**

rickets ['rɪkɪts] *n* tib. raxit, shirzada, mechkay (yosh bolalar kasali)

rickety ['rɪkɪti] *a* 1) raxit (mechkay) kasalligiga oid; 2) nozik, nimjon, zaif (*sog'liq haqida*); 3) liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, shaloq, bo'sh, liqildoq; **a** ~ **chair** omonat (shaloq) stul

ricksha(w) ['rɪkʃə:] *n* *yap.* riksha (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ikki g'ildirakli aravaga qo'shilib, odam va yuk tashiydigan hammo'l*)

ricochet ['rɪkəʃet] *n* rikoshet (*otilgan tosh, o'q kabilarning tekkan joyidan sapchib, nari uchib ketishi*)

rictus ['rɪktəs] *n* lot. og'iz bo'shlig'i

rid [rɪd] *v* (**rid**, **ridded**) ozod qilmoq, qutqarmoq, qutulmoq, qutqazmoq; **to get ~ of smb., smth.** kimdandir, nimadandir qutulmoq

ridable ['raɪdəb(ə)l] *a* otda yurishga yaroqli

riddance ['rɪd(ə)ns] *n* 1) qutqarish, ozod qilish, xalos etish; 2) yo'qotish, yo'q qilish, bartaraf qilish, barham berish

riddel ['rɪd(ə)l] *n* darparda (*mehrobda, cherkov ibodatxonasida*)

ridden ['rɪdn] *p. p. of ride* **2**

-ridden [-,rɪdn] *a* murakkab so'zlar oldida ishlatilib, (*nimaningdir*) ixtiyorida, izmida, qo'lida; (*nimagadir*) butun vujudi bilan berilgan, degan ma'nolarni anglatadi

riddle I ['rɪdl] **I.** *n* topishmoq; cho'pchak; **2.** *v* muammo qilib gapirmoq

riddle II ['rɪdl] *n* g'alvir, katta simg'alvir

riddled ['rɪdlɪd] *a* 1) sepilgan, sochilgan, ekilgan; 2) elangan, elakdan o'tkazilgan

ride [raɪd] **I.** *n* safar, sayohat, sayr, tomosha (*otga minib, mashinada, velosipedda va b.*); **2.** *v* (**rode**; **ridden**) otga minmoq, ot minmoq

ridel ['rɪdl] = **riddel**

rider ['raɪdə] *n* otliq, ot mingan kishi, chavandoz

riderless ['raɪdələs] *a* chavandozsiz (*chavandozini yo'qotgan ot to'g'risida*)

ridge I [rɪdʒ] *n* 1) tog' qirrası; 2) tog'lar tizması

ridge II [rɪdʒ] *v* 1) dikkaymoq, tikkaymoq; 2) yotmasdan tikka turmoq

ridged [rɪdʒd] *a* uchi o'tkir, cho'qqili

ridge-pole ['rɪdʒpəʊl] *n* 1) tortib cho'zish; 2) tirgak (*chodir bo'laklarini mustahkamlab va ma'lum vaziyatda ushlab turadigan to'sin*)

ridgy ['rɪdʒɪ] = **ridged**

ridicule ['rɪdɪkjʊ:l] *n* 1) mazax (masxara) qilish; 2) masxara, istehzo, zaharxanda; **to hold up to** ~ masxara (kalaka) qilmoq

- ridiculous** [rɪˈdɪkjələs] *a* kulgili, kulgidan boshqaga arzimaydigan, qiziq, qovushmagan
- riding** [ˈraɪdɪŋ] *n* ot minish
- riding-habit** [ˈraɪdɪŋ,hæbɪt] *n* amazonka (*chavandoz ayollarning maxsus uzun ko'y-lagi*)
- riding-hag** [ˈraɪdɪŋ ˈhæg] *n* so'zl. 1) dahshat, tushkunib bo'lmaydigan narsa; 2) bosinqirash, yomon tush
- riding hall** [ˈraɪdɪŋhɔ:l] *n* usti yopilgan sirk maydoni
- riding master** [ˈraɪdɪŋ,mɑ:stə] *n* bereytor (*otni minishga o'rgatuvchi va chavandozlikdan ta'lim beruvchi mutaxassis*)
- Riesling** [ˈri:slɪŋ] *n* risling (*oq uzumning bir turi*)
- rife** [raɪf] *a* oddiy, odatdagi; **to be** ~ oddiy bo'lmoq
- riffle** [ˈrɪf(ə)] *n* 1) jimirlash, mavj urish, mavjlanish; 2) ostonatosh (*daryo tagida ko'ndalang ko'tarilib turgan tosh do'nglik*)
- riff-raff** [ˈrɪfræf] 1. *n* tubanlik (razolatga) tushgan kishilar; 2. *a* keraksiz, foydasiz, okerak
- rifle** [ˈraɪf(ə)] *n* 1) miltiq, beshotar; 2) *harb.* o'qchilar qismi
- rifle-green** [ˈraɪf(ə)ˈɡri:n] *a* *harb.* to'q ko'k (*ingliz o'qchi askarlari liboslarining rangi*)
- rifle-grenade** [ˈraɪf(ə)lɡrɪˈneɪd] *n* *harb.* miltiq granatasi
- rifleman** [ˈraɪf(ə)lmən] *n* (*pl* -men [-mən]) *harb.* o'q otuvchi, mergan; **an expert** ~ juda yaxshi mergan
- rifle-range** [ˈraɪf(ə)lreɪndʒ] *n* 1) tir (*nishonga otishni mashq qilish uchun moslangan bino*); 2) otish maydoni (*otish mashqlari, mashg'ulotlari o'tkaziladigan maydon*)
- rift** [rɪft] *n* 1) yoriq, darz; 2) tog'ning (*tepaning, yerning yorig'i*)
- rig I** [rɪg] *n* yelkanli kema jihozlari (*yelkan va arqonlar*)
- rig II** [rɪg] 1. *n* 1) qiliq, hiyla-nayrang, makt ishlatish (qilish); 2) muttahamlik, makt, hiyla; 2. *v* muttahamlik (qalloblik, firibgarlik) qilmoq; firib bermoq, aldamoq, tovlamoq
- rigging** [ˈrɪŋɪŋ] *n* deng. takelaj (*kemaning kanop va sim arqonlari*)
- right I** [raɪt] 1. *n* 1) haq, huquq; **equal** ~s teng huquqlar; 2) to'g'ri (haqqoniy) talab (to); 3) imtiyoz, yengillik; ~ **to work** mehnat qilish huquqi; ~s **and duties** huquq va burchlar; 4) kerakli, zarur; 5) sog'lom, yaxshi holatda; 2. *a* to'g'ri, haq, haqqoniy, adolatli; **to be** ~ to'g'ri (haqli) bo'lmoq; ~ **use of words** so'zlarni to'g'ri ishlatish; 3. *adv* to'g'ri; **to get it** ~ to'g'ri tushunmoq; **to do a sum** ~ topshiriqni to'g'ri yechmoq; 4. *v* tuzatmoq, to'g'rilamoq, kamchiliklarni bartaraf qilmoq
- right II** [raɪt] *n* o'ng tomon; **on the** ~ o'ng tomonda; **to the** ~ o'ngga; **on the** ~ **hand side** o'ng qo'l tarafda (tomonda)
- right-angled** [ˈraɪt,æŋg(ə)ld] *a* to'g'ri burchakli
- right-down** [ˈraɪtˈdaʊn] *a* ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan, borib turgan, nariyog'i yo'q
- righteous** [ˈraɪtʃəs] *a* 1) taqvodor, taqvoli, adolatli; 2) xayrli, ezgu
- righteousness** [ˈraɪtʃəsənəs] *n* 1) taqvodorlik; 2) odillik
- rightful** [ˈraɪtʃ(ə)l] *a* 1) qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan; 2) adolatli, odil
- right-hand** [ˈraɪtˈhænd] *a* o'ng, o'ng tomondagi
- rightist** [ˈraɪtɪst] *n* o'ng, reaksiонер
- rightly** [ˈraɪtli] *adv* 1) to'g'ri, rost; 2) haqqoniy ravishda
- right-minded** [ˈraɪtˈmaɪndɪd] *a* yaxshi niyatli, niyati xolis
- rightwards** [ˈraɪtwədz] *adv* o'ngga, o'ng tomonga
- right-wing** [ˈraɪtˈwɪŋ] *a* o'ng qanot, reaksiонер
- rigid** [ˈrɪdʒɪd] *a* 1) qattiq, egilmaydigan; 2) shiddatli, jiddiy, qattiqqo'l, keskin
- rigidity** [rɪˈdʒɪdɪti] *n* 1) qattqlik; 2) mustahkamlik
- rigidly** [ˈrɪdʒɪdli] *adv* qat'iyon, keskinlik bilan, keskin, uzil-kesil
- rigmarole** [ˈrɪgmərəʊl] *n* bema'ni gap, safsata
- rigorism** [ˈrɪgərɪz(ə)m] *n* rigorizm (*axloqiy prinsiplarga, qoidalarga juda ham qattiq amal qilish, yopishib olish*)
- rigorous** [ˈrɪgərəs] *a* 1) qattiqqo'l, qabri qattiq; 2) sovuq, og'ir; **a** ~ **climate** sovuq iqlim
- rigour** [ˈrɪgə] *n* talabchanlik, qattiqqo'llik
- rile** [raɪl] *v* g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq
- rill** [rɪl] 1. *n* 1) kichkina soy, jilg'a, ariq; 2) buloq, chashma; 2. *v* sharillab oqmoq
- rim** [rɪm] *n* 1) (g'ildirak) to'gini, tegarchigi; 2) (ko'zoynak) gardishi; 3) band, halqa, tutqich, dasta (*chelak, sandiq va h. da*)
- rime I** [raɪm] = rhyme
- rime II** [raɪm] 1. *n* 1) qirov; 2) bulduriq; 3) sovuq nam havo; 2. *v* qirov bosmoq
- rimer** [ˈraɪmə] *n* *tex.* teshikni kengaytirish uchun ishlatiladigan asbob

- rimy** [ˈrɪmɪ] *a* qirov bosgan, qirov tushgan
- rind** [raɪnd] **1.** *n* po'choq, po'stloq; **2.** *v* po'stloqni shilmoq
- ring I** [rɪŋ] **1.** *n* 1) to'da, guruh; 2) uzuk; **2.** *v* 1) halqa qilib o'rab olmoq; 2) uzuk taqmoq
- ring II** [rɪŋ] **1.** *n* jarang, jaranglagan ovoq; **2.** *v* (**rang; rung**) jaranglamoq; **to ~ up** qo'ng'iroq (telefon) qilmoq
- ring-dove** [ˈrɪŋdʌv] *n* *zool.* govkaptar
- ringed** [rɪŋd] *a* 1) aylana bilan belgilangan; 2) halqali; 3) ko'ch. (kingadir) unashtirilgan
- ringer** [ˈrɪŋə] *n* qo'ng'iroqchi, qo'ng'iroq chaluvchi (*cherkovda*)
- ring-fence** [ˈrɪŋfens] *n* (*nimanidir hamma tomonidan qurshab olgan*) devor, panjara
- ring-finger** [ˈrɪŋˌfɪŋgə] *n* yon barmoq, so'fi barmoq (*jimjiloq yonidagi to'rtinchi barmoq*)
- ringing** [ˈrɪŋɪŋ] *n* jarang, jiring, jaranglash, jaranglagan (jiringlagan) ovoq
- ringleader** [ˈrɪŋˌliːdə] *n* 1) boshchi, boshliq, sarkor; 2) yetaklab (boshlab) boruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshchi, rahbar; 3) sababchi, boshlagan (boshlab bergan) kishi
- ringlet** [ˈrɪŋlɪt] *n* jingalak soch, zulf, gajak
- ringleted** [ˈrɪŋlɪtɪd] *a* jingalak, sochi jingalak
- ring-mail** [ˈrɪŋmeɪl] *n* sovut
- ring-master** [ˈrɪŋˌmɑːstə] *n* menej (sirk maydoni) nazoratchisi (inspektori)
- ring-net** [ˈrɪŋnet] *n* kapalak tutadigan matrap
- ring ouzel** [ˈrɪŋˌuːz(ə)] *n* *zool.* qorayaloq (*oq bo'qqoqli*)
- ringtail** [ˈrɪŋteɪl] *n* *zool.* bo'ktargi urg'ochisi (*yirtqich qushlarning bir turi*)
- ringworm** [ˈrɪŋwɜːm] *n* *tib.* moyxo'rak, qirma temiratki
- rink** [rɪŋk] **1.** *n* 1) yaxmalak (*konki uchish uchun yaxlatilgan maydon*); 2) *sport.* skettingring (*rolikli konkida uchish uchun belgilangan maydoncha*); **2.** *v* g'ildirakchali konkida uchmoq
- rinse** [rɪns] **1.** *n* 1) og'iz (tomog) chayqaydigan dori; 2) davolash maqsadida suyuqlik bilan chayish, chayqash; **2.** *v* chayqamoq, chaymoq
- rinsing** [ˈrɪnsɪŋ] *n* 1) og'iz chayqash; 2) og'iz chayqashdan qolgan suv
- riot** [ˈrɪət] **1.** *n* isyon, qo'zg'olon, g'alayon; **2.** *v* isyon (qo'zg'olon, g'alayon) ko'tarmoq
- rioter** [ˈrɪətə] *n* isyonchi, g'alayonchi; isyon (g'alayon) qatnashchisi
- riotous** [ˈrɪətəs] *a* 1) isyonkor; 2) fe'li tez, battol, to'polonchi
- rip I** [rɪp] **1.** *n* 1) yorilish, yorilib ketish; 2) kesik (kesilgan), yorilgan joy; **2.** *v* qirqmoq, kesmoq, tilmoq, tilimlamoq, qirqib (kesib, tilib) qo'yimoq
- rip II** [rɪp] *n* 1) dardov ot, qirchang'i; 2) so'zl. axloqsiz (yomon yo'lga kirgan) odam
- riparian** [ˈrɪˌpe(ə)rɪən] *a* qirg'oq bo'yidagi (*oldidagi*)
- ripe** [raɪp] *a* 1) yetilgan, pishgan (*meva*); 2) balog'atga (voyaga) yetgan, yetilgan, yetuk
- ripen** [ˈraɪpən] *v* 1) pishmoq, yetilmoq; 2) balog'atga yetmoq
- ripeness** [ˈraɪpənəs] *n* 1) pishganlik, yetilganlik; 2) voyaga yetganlik
- ripping** [ˈrɪpɪŋ] *a* hayratda qoldiradigan, larzaga soladigan
- ripple I** [ˈrɪp(ə)l] *n* 1) jimirlash, mavj urish; 2) (*sochning*) jingalakligi
- ripple II** [ˈrɪp(ə)l] *n* zig'irpoya tozalaydigan taroq
- rippy** [ˈrɪpɪ] *a* to'lqinli, mavj urib turgan
- rip-saw** [ˈrɪpsɔː] *n* *tex.* bo'ylama arra (*yo'g'ochni uzunasiga tiladigan arra*)
- rise** [raɪz] **1.** *n* 1) ko'tarish, oshirish, balandroq (yuqoriroq) qilish; **to be on the ~** (*narxnavoni*) oshirmoq, ko'tarmoq; 2) ko'tarilgan joy; **2.** *v* (**rose, risen**) ko'tarilmoq, turmoq
- risen** [ˈrɪz(ə)n] *p. p. of* rise **2**
- risibility** [ˈrɪzəˈbɪlɪtɪ] *n* kulong'ichlik, kulag'onlik
- risible** [ˈrɪzəb(ə)l] *a* 1) bekorga kulaveradigan, kulong'ich, kulag'on; 2) kulgili, kulgini qistatadigan
- rising** [ˈraɪzɪŋ] *a* 1) qo'zg'olon, g'alayon, isyon; 2) turish, o'midan turish; 3) chiqish; **the ~ of the sun** quyosh (kun) chiqishi
- risk** [rɪsk] **1.** *n* tavakkal ish, qaltis harakat, xavf-xatar; **2.** *v* jur'at etmoq, tavakkal qilmoq
- risky** [ˈrɪskɪ] *a* qaltis, xatarli, xavfli
- risqué** [ˈrɪskeɪ] *a* *fr.* 1) xavfli, xatarli; 2) shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan; 3) har xil tushunsa bo'ladigan, ilmoqli (*hazil haqida*)
- rissole** [ˈrɪsəʊl] *n* 1) kotlet; 2) tefteli (*yumaloq qilib qovurilgan qiyma go'sht*)
- rite** [raɪt] *a* marosim, udum
- ritual** [ˈrɪtʃuəl] *n* udum, tamil, odat
- ritualism** [ˈrɪtʃuəlɪz(ə)m] *n* marosimlar, udumlar, rasm-rusumlar
- ritually** [ˈrɪtʃuəli] *adv* marosimga (rasm-rusumga, udumga) ko'ra
- rival** [ˈraɪv(ə)] **1.** *n* raqib, raqobatchi; **a ~ team** raqib jamoa; **2.** *v* raqobat qilmoq
- rivalry** [ˈraɪv(ə)rɪ] *n* raqobat, raqiblik, kurash, bahs, bellashuv; **friendly ~** do'stona bellashuv
- rive** [raɪv] **1.** *n* yoriq, darz, kovak, tirqish; **2.** *v* (**rived; rived, riven**) 1) yormoq, maydalamoq, parchalamoq; 2) yorilmoq, maydalanmoq, parchalanmoq

- riven** [ˈrɪv(ə)n] 1. *p. p. of rive* 2; 2. *a* maydalangan, parchalangan, yorilgan
- river** [ˈrɪvə] *n* 1) daryo, soy, anhor; **by (near) the ~** daryo yoqasida; 2) oqim; **to cross the ~** daryoning narigi qirg'og'iga o'tmoq
- river-bed** [ˈrɪvəbed] *n* daryo o'zani
- river-horse** [ˈrɪvəhɔ:s] *n* begemot, suv oti
- riverine** [ˈrɪvərɪn] *a* 1) qirg'og' bo'yidagi, qirg'og' oldidagi, qirg'og' oldi; qirg'og' bo'yi...; 2) daryoga oid, daryo...; daryoda bo'ladigan; 3) daryoda suzishga mo'ljallangan; daryoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan
- river-side** [ˈrɪvəsɪd] *n* 1) qirg'og' bo'yidagi yerlar; 2) daryo qirg'og'i
- rivet** [ˈrɪvɪt] 1. *n* mixparchin, chega; 2. *v* parchinlamoq, parchinlab qo'ymoq
- riveting** [ˈrɪvɪtɪŋ] *a* kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maftunkor
- rivière** [ri:ˈvjeə] *n fr.* marjon, shoda (*bir nechta ipli*)
- rivulet** [ˈrɪvjulɪt] *n* soy, anhor, ariq, jilg'a, kichkina daryocha
- roach** [rəʊtʃ] *n zool.* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*)
- road** [rəʊd] *n* yo'l; **country ~** qishloq yo'li, tuproq yo'l; **by ~** yo'l orqali
- road-bed** [ˈrəʊdbed] *n* ko'tarma yo'l (*shag'al to'kib ko'tarilgan yo'l*)
- Road-Board** [ˈrəʊdbɔ:d] *n* shosse yo'llar boshqarmasi
- road-book** [ˈrəʊdbʊk] *n* 1) yo'l ma'lumotnomasi; 2) avtomobil yo'llarining atlas
- road clearance** [ˈrəʊd ˈklɪ(ə)rəns] *n* 1) yoriqdan tushgan shu'la, yorug'lik; 2) yo'lda harakat qilish uchun ruxsat
- roadless** [ˈrəʊdləs] *a* yo'lsiz, qatnov yo'llari yo'q
- road-metal** [ˈrəʊd,metl] *n* shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*)
- road scraper** [ˈrəʊd,skreɪpə] *n* greyder (*tog' ishlari va qurilishlarda ishlatiladigan, tuproq tashiydigan mashina*)
- road-show** [ˈrəʊdʃəʊ] *n amer.* teatr yoki sirk ijodiy guruhining safardagi tomoshasi
- roadside** [ˈrəʊdsɪd] 1. *n* yo'l qirg'og'i (*che-ri, yoqasi*); 2. *a* yo'l bo'yidagi
- roadstead** [ˈrəʊdsted] *n deng.* rey (portga kirish oldida kemalar to'xtab turadigan qulay joy)
- roadster** [ˈrəʊdstə] *n* yo'l (safari) velosipedi
- road-test** [ˈrəʊdtest] *v amer.* mashinani tabiiy sharoitda sinab ko'rmoq
- roadway** [ˈrəʊdweɪ] *n* 1) shosse (*asfalt, beton kabilar yotqizilgan katta yo'l*); 2) to'shama yo'l (*tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan yo'l*); 3) transport yuradigan yo'l
- roam** [rəʊm] 1. *n* darbadarlik, joydan joyga ko'chib yurish, darbadar kezish, ovorayi jahon bo'lib yurish, sargardonlik; 2. *v* 1) tentiramoq; 2) olamni (elma-el, yurtma-yurt) kezmoq; 3) darbadar kezmoq, sargardon bo'lmoq, aylanmoq; **to ~ about the world** dunyoni kezmoq
- roan I** [rəʊn] 1. *a* burul (*ko'kish, xoldor*); 2. *n* burul ot
- roan II** [rəʊn] *n* yumshoq qo'y terisi (*muqovalar uchun*)
- roar** [rɔ:] 1. *n* bo'kirish, o'kirish, na'ra; uvilash (*hayvonlar haqida*); 2. *v* bo'kirmoq, na'ra tortmoq
- roarer** [ˈrɔ:rə] *n* 1) baqiroq odam, shang'i; baqirib gapiradigan odam; 2) issiqlatilgan ot
- roaring** [ˈrɔ:rɪŋ] *n* bo'kirish, o'kirish
- roast** [rəʊst] 1. *n* jarkop, qovurma; 2. *a* qovurilgan; 3. *v* qovurmoq, pishirmoq
- roaster** [ˈrəʊstə] *n* 1) manqal, manqaldon, tova; 2) kabob ko'ra
- roasting-jack** [ˈrəʊstɪŋdʒæk] *n* kabob sexi
- rob** [rɒb] *v* o'g'irlamoq, bosqinchilik qilmoq, talamoq, shilmoq
- robber** [ˈrɒbər] *n* 1) bosqinchi, bosmachi; o'g'ri; 2) qarog'chi, yo'lto'sar
- robbery** [ˈrɒb(ə)rɪ] *n* 1) o'g'irlik, o'g'irlash; 2) bosqinchilik, talash, talonchilik
- robe** [rəʊb] *n* keng kiyim; chopon
- robin** [ˈrɒbn] *n* 1) *sl.* penni (*finlarda; mayda pul, chaqa*); 2) *zool.* malinovka (*chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush*)
- robot** [ˈrəʊbɒt] *n* robot (*odamsimon harakat qiladigan avtomat*)
- robust** [rəˈbʌst] *a* 1) mahkam, qattiq, mustahkam; 2) sog'lom, baquvvat, tetik, chidamli
- robustious** [rəˈbʌstʃəs] *a* 1) kuchli, shiddatli, qattiq; 2) sershovqin, shovqinli
- rock I** [rɒk] *n* 1) qoya, jarlik; 2) osilib turgan qoyatosh, tik qoya
- rock II** [rɒk] *v* silkinmoq, tebranmoq; **to ~ cradle** beshikni tebratmoq, allalamoq
- rock III** [rɒk] *n* esk. charx, ip yigiradigan charx
- rock-crystal** [ˈrɒk ˈkrɪstl] *n* tog' (billuri) kristali
- rock-drill** [ˈrɒkdrɪl] *n* *tex.* 1) perforator (*tog' jinrlarini parmatovchi mashina*); 2) burg'ilash iskanasi
- rocker** [ˈrɒkə] *n* tebranma kursi
- rocket** [ˈrɒkɪt] 1. *n* 1) raketa; 2) raketa dvigateli; 3) reaktiv snaryad; 2. *v* 1) ko'tarilmoq, parvoz qilmoq; 2) raketa uchirmoq
- rocking-chair** [ˈrɒkɪŋ,tʃeə] *n* tebranma kursi

rocky [ˈrɒki] *a* qoyalardan iborat, qoyali, serqoya, toshli
rod [rɒd] *n* xipchin, novda, xivich, chiviq, savag'ich
rode [rəʊd] *past. of ride* 2
rodent [ˈrəʊd(ə)nt] *n zool.* kemiruvchi
roe [rəʊ] *n* ikra, uvuldiriq (*balıq, baqa va h. k. tuxumi, urug'i*)
rogue [rəʊg] *n* tovlamachi; aldanchi, firibgar, qallob, muttaham; ~ry muttahamlik, qalloblik, firibgarlik, aldanchilik, tovlamachilik
roguish [rəʊgɪʃ] *a* muttahamroq, qallobroq, aldam-qaldam ishlarga moyil
roister [ˈrɔɪstə] *v* jamoat tartibini buzmoq, o'zboshimchalik (beboshlik) qilmoq
role [rəʊl] *n* 1) rol, ahamiyat, xizmat, tutgan o'rin; 2) rol (*sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz*)
roll [rɒl] 1. *n* 1) tugun, o'ralgan narsa; 2) rulon; 3) bog'lam, dasta; 4) gumbur-gumbur, gumburlash; 2. *v* 1) o'ramoq; 2) dumalamoq; 3) g'ildiramoq
roll-call [ˈrɒlkɔ:l] *n* bir-biriga ovoz (tovush) berib turish, bir-birini chaqirib turish
roller [ˈrɒlə] *n* 1) *tex.* val, silindr; rolik; 2) to'lqin, po'rana, mavj
roller-mill [ˈrɒləmɪl] *n* jo'vali tegirmon
roller towel [ˈrɒlətaʊəl] *n* bir rulon (g'o'la shaklida o'ralgan) sochiq
rollick [ˈrɒlɪk] 1. *n* sershovqin (g'ovur-g'uvur) o'yin-kulgi; 2. *v* vaqtini chog' qilmoq, quvonmoq
rolling-pin [ˈrɒlɪŋpɪn] *n* o'qloq, jo'va
rolling-stock [ˈrɒlɪŋstɒk] *n* harakatdagi sostav (*parovoz, va vagonlar*)
roly-poly [ˈrɒliˈpɔli] *n* muraboli pud-ding
Roman [ˈrəʊmən] *n* rimliklar (*Qadimgi Rim davlatining aholisi*)
romance [rəʊˈmæns] *n* G'arbiy Yevropada o'rtasrlarda: ritsarlarning ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarini tasvirlaydigan adabiy asar
romantic [rəʊˈmæntɪk] *a* xayolparast
romp [rɒmp] 1. *n* to'polon, shovqin-suron; 2. *v* tipirchilamoq, o'ynashmoq
roof [ru:f] *n* 1) tom, boshpana; iron ~ tunuka tom: **to live under the same** ~ bir uyda yashamoq; 2) kulba
rook I [rɒk] *n* shaxm. rux
rook II [rɒk] *n* 1) *zool.* go'ngqarg'a; 2) muttaham, qallob, firibgar; aldanchi
room [ru:m] *n* 1) xona, zal; 2) kvartira, yashash joyi, uy; 3) bo'sh joy; **to make ~ for joy** bo'shatmoq
room-mate [ˈru:m,meɪt] *n* xonadosh

roomy [ˈru:mi] *a* keng, uzun
roost [ru:st] *n* 1) qo'noq, qo'ndog (*masafan, tovuqlarniki*); 2) yotoq (uy); yotoqxona, uxlash xonasi
rooster [ˈru:stə] *n* 1) xo'roz; 2) urishqoq, janjalkash; jangari
root [ru:t] 1. *n* 1) ildiz; 2) o'zak; negiz; 2. *v* ildiz otmoq
rootlet [ˈru:tɪt] *n* 1) yangi novda, shox, butoq; 2) tomircha, ildizcha
rope [rəʊp] 1. *n* arqon; arg'amchi; 2. *v* arqon bilan bog'lamoq
rosary [ˈrəʊz(ə)rɪ] *n* 1) gulzor, atirgulzor, gulbog'; 2) tasbeh
rose I [rəʊz] *n* bot. atirgul; (**there is no ~ without a thorn** atirgul tikansiz bo'lmas)
rose II [rəʊz] *past. of rise* 2
rosebud [ˈrəʊzbʌd] *n* atirgul g'unchasi
rose-hush [ˈrəʊzbʊʃ] *n* atirgul tupi, bir tup atirgul
rosette [rəʊˈzet] *n* 1) rozetka (*xotin-qizlar ko'ylagiga, shlapasiga taqiladigan lentadan qilingan gul-bezak*); 2) me'mor. to'p-barggul shaklidagi bezak, naqsh
rosin [ˈrɒzɪn] *n* smola, yelim (*ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*)
roster [ˈrəʊstə] *n* 1) *harb.* navbatchilik jadvali; 2) ro'yxat
rostra [ˈrɒstrə] *pl of rostrum*
rostrum [ˈrɒstrəm] *n* (*pl -ra, -s [-z]*) 1) minbar, tribuna; 2) tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*); 3) kema tumshug'i
rosy [rəʊzi] *a* qizil, qizg'ish, pushti rang, och qizil
rot [rɒt] 1. *n* chirish, irish, buzilish, sasish, aynish; 2. *v* chirimoq, buzilmoq; ~ten chirigan; buzilgan
rota [ˈrəʊtə] *n* navbatchilik jadvali
rotary [ˈrəʊt(ə)rɪ] *a* aylanadigan, aylanma; ~ current ko'p fazali tok
rotate [rəʊˈteɪt] *v* aylantirmoq, buramoq, aylanmoq
rotation [rəʊˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) aylanish; 2) galma-gal qilish, almashtirib turish; 3) vaqt-vaqti bilan takrorlanib turish
rote I [rəʊt] *n* amer. qirg'oqqa uriladigan to'lqinlarning shovullashi (shovqini)
rote II [rəʊt] *n* tushunmasdan yodlab olish
rotten [ˈrɒtən] *a* chirigan, irigan; chirib qolgan; buzilgan; sasigan, aynigan; palag'da
rotter [ˈrɒtə] *n* sl hech narsaga arzimaydigan odam
rottweiler [ˈrɒtwaɪlə] *n* rotveyler (*itning zoti*)
rotund [rəʊˈtʌnd] *a* to'liq, to'la, liq to'la, semiz, to'ladan kelgan; dum-dumaloq
ruble [ˈru:b(ə)l] *n* rubl (*pul birligi*)

- rouge** [ru:ʒ] *n* 1) pushti-qizil yog'upa (bo'yog); 2) lab bo'yog'i (pomadas)
- rough** [raf] *a* 1) dag'al, badhazm; ~ **food** dag'al (badhazm) ovqat; 2) notekis, past-baland o'ydim-chuqur (*yo'l haqida*); **a** ~ **country** o'nqir-cho'nqir joy; 3) qo'pol, to'ng, qo'rs; **a** ~ **customer** qo'pol muomala odam; 4) ishlov berilmagan, qora; **a** ~ **copy** oqqa ko'chirilmagan qo'lyozma yoki daftar; 5) bo'ronti, to'lqinli
- roughage** [rafɪdʒ] *n* 1) dag'al xashak; 2) dag'al (badhazm) ovqat; 3) dag'al, qo'pol, to'ng, qo'rs
- roughcast** [rafkɑ:st] *n* dastlabki loyiha
- roughen** [raf(ə)n] *v* 1) dag'al qilmoq, notekis qilmoq; 2) qo'pollashmoq, dag'allashmoq, qo'rsplashmoq
- rough-neck** [rafnek] *n* amer. so'zl. to'polonchi, urishqoq, battol
- roulette** [ru:'let] *n* fr. ruletka (*aylanib turuvchi gardishga raqamlar qo'yilgan bir xil qimor o'yini*)
- Roumanian** [ru'meɪnɪən] **1.** *a* rumintar yoki Ruminiyaga oid; rumin...; **2.** *n* 1) rumin ayoli yoki erkagi; 2) rumin tili
- round** [raʊnd] **1.** *n* aylana, doira, aylanma yo'l; **all the year** ~ butun yil bo'yi, yil davomida; ~ **the corner** muyulishda, burchakda; **at the** ~ **about** aylanma yo'lda; **2.** *a* 1) yumaloq, dumaloq; 2) sharsimon, sharga o'xshagan; ~ **back** bukchayganlik, yeikasi chiqqanlik; **3.** *v* tugallamoq, silliq-lamoq; **to** ~ **a sentence** jumlani silliq-lamoq; **4.** *adv* 1) atrofga, tevarak-atrofga; atrofda; ~ **about** gapni aylantirib, masalaga yaqindan yondashmay (yonverida aylanib); **5.** *prep.* atrofida, tevaragida; ~ **the world** yer yuzi (dunyo) bo'ylab
- roundabout** [raʊndəbaʊt] **1.** *a* chetlab o'tadigan, chet, aylanish, aylanma; **2.** *n* aylanma yo'l
- rounders** [raʊndəz] *n* pl inglizlarning chillak o'yini
- Roundhead** [raʊndhed] *n* tar. boshi yumaloq, yumaloq bosh (XVI - XVII asrlarda ingliz shotland burjuaziyasi uyushtirgan diniy-siyosiy harakat qatnashchisi)
- roundly** [raʊndli] *adv* 1) yumaloq (dumaloq) qilib; 2) ro'yirost, ochiqdan ochiq, dangal
- round-up** [raʊndʌp] *n* 1) yangiliklar hisoboti; 2) qurshab olish, o'rash; 3) qurshov
- rouse** [raʊz] *v* qo'zg'atmoq, uyg'otmoq
- rout** [raʊt] **1.** *n* tor-mor qilish; tor-mor bo'lish; **2.** *v* yer bilan yakson qilmoq; tor-mor keltirmoq
- route** [ru:t] *n* yo'l, yo'nalish, marshrut
- routine** [ru:'ti:n] *n* aniq belgilangan tartib, o'rnatilgan tartib
- routinely** [ru:'ti:nli] *adv* 1) joriy etilgan tartibda; 2) muntazam ravishda
- rove I** [rəʊv] **1.** *n* olamni kezish, sayohat, safar; **2.** *v* olamni kezmoq, sayohat qilmoq
- rove II** [rəʊv] *n* 1) tex. shayba; 2) xom ip, xom (biroz) pishirilgan ip
- row I** [rəʊ] *n* qator, saf; **in a** ~ **bir qator**da
- row II** [rəʊ] **1.** *n* eshkak; **2.** *v* eshkak eshmoq; **to** ~ **a race** eshkak eshish musobaqasida qatnashmoq
- rowan** [ˈrəʊən] *n* bot. chetan (*daraxti va mevasi*)
- rowdy** [ˈrəʊdi] **1.** *n* urishqoq, to'polonchi; **2.** *a* shovqin-suronli, sershovqin
- rowlock** [ˈrəʊlək] *n* eshkak qulog'i (*qayiq yonida eshkak o'rnatiladigan ayri va shu ayri qozig'i uchun qilingan teshik*)
- royal** [ˈrɔɪəl] *a* 1) qirolga oid, podshoga (shohga) oid; **a** ~ **palace** qirol saroyi; 2) shohona
- royalty** [ˈrɔɪəlti] *n* 1) qirol (podsho) hokimiyati; 2) mualliflik qalam haqi
- rub** [rʌb] *v* 1) surtmoq, surkamoq, uqalamoq, ishqalamoq, ishqamoq; 2) artmoq; 3) o'chirmoq (*so'zni*)
- rubber** [ˈrʌbə] *n* o'chirg'ich, rezina
- rubbish** [ˈrʌbɪʃ] *n* 1) eski-tuski, lash-lush, latta-putta; 2) bema'ni (behuda) gap
- rubble** [ˈrʌb(ə)l] *n* tosh yoki g'isht bo'laklari
- rubella** [ru:'belə] *n* tib. qizilcha (*bolalar kasalligi*)
- rubicund** [ru:'bɪkʌnd] *a* qizil, qip-qizil, qirmizi (*yuz haqida*)
- ruby** [ˈru:bi] **1.** *n* la'l, yoqut; **2.** *a* qip-qizil, to'q qizil
- rucksack** [ˈrʌksæk] *n* yuk xalta
- rudder** [ˈrʌdə] *n* av. rul
- ruddy** [ˈrʌdi] *a* qizil, qip-qizil, qizargan
- rude** [ru:d] *a* qo'pol; qo'rs, to'ng, to'rs
- rudely** [ru:dlɪ] *adv* qo'pollik bilan, qo'pollik qilib, qo'rs ohangda
- rudeness** [ˈru:dnəs] *n* qo'pollik, dag'allik
- rudimentary** [ˌru:di'menti(ə)rɪ] *a* boshlang'ich...; ibtidoiy
- rudiments** [ˈru:dɪmənts] *n* 1) boshlang'ich (*ma'lumotlar*); 2) boshlanish, ibtido
- rue I** [ru:] *n* rahmi kelish, achinish, rahm qilish, shafqat
- rue II** [ru:] *n* bot. toshbaqa toli (*zaharli sariq gulli buta o'simlik*)
- rueful** [ru:f(ə)l] *a* 1) ma'yus, g'amgin, umidsiz; 2) ayanchli, achinarli
- ruff I** [raf] *n* burma hoshiya (*hiror narsaning ustiga burib tikiladigan yengil mat*)
- ruff II** [raf] *n* zool. bir turli serqiltanoq baliq

- ruff III** [rʌf] 1. *n* kuzir (*qartada*); 2. *v* kuzir bilan bosmoq
- ruffian** [ˈrʌfɪən] *n* 1) kallakesar; bezori; 2) bosmachi, bosqinchi; 3) yaramas, ablah, qabih odam
- ruffle I** [ˈrʌf(ə)] *n* jimirlash, mavj urish
- ruffle II** [ˈrʌf(ə)] *n* nogʻoraning doʻpirdoʻpiri (takir-tukuri)
- rug** [rʌg] *n* gilam, gilamcha, kichkina gilam
- rugby** [ˈrʌgbɪ] *n sport*. regbi (*futbolning bir turi*)
- rugged** [ˈrʌɡɪd] *a* notekis, gʻadir-budur, past-baland; oʻnqir-choʻnqir
- ruin** [ˈruːn] 1. *n* 1) xaroba, vayrona; to fall into ~ xarobaga aylanmoq; 2) barbod boʻlish, halok boʻlish, qulash; 2. *v* 1) xarob qilmoq; 2) inqirozga uchratmoq
- ruinous** [ˈruːnəs] *a* xarob qiladigan, xonavayron (*kafangado*) qiladigan
- rule** [ruːl] 1. *n* 1) hukmronlik, boshqarish; 2) qoida; the ~ of the game oʻyin qoidasi; 2. *v* idora qilmoq, boshqarmoq
- ruler I** [ˈruːlə] *n* hokim, hukmdor, idora qiluvchi, boshqaruvchi
- ruler II** [ˈruːlə] *n* chizgʻich
- ruling** [ˈruːlɪŋ] 1. *a* hukmron, hukumat tepasida turuvchi, idora qiluvchi; 2. *n* boshqarish
- rum I** [rʌm] *n* 1) rum (*kuchli spirtli ichimliklarning bir xili*); 2) spirtli ichimlik
- rum II** [rʌm] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, gʻalati; a ~ fellow gʻalati (tentaksimona) odam
- Rumanian** [ruːˈmeɪniən] = Roumanian
- rumble** [ˈrʌmb(ə)] *n* 1) guldurash, gumburlash, gumbur-gumbur; 2) norozilik, hasrat, shikoyat, nolish
- ruminate** [ˈruːmɪneɪt] *v* 1) saqich chaynamoq; 2) yaxshitab (obdon) oʻylab koʻrmoq
- rummage** [ˈrʌmɪdʒ] *n* qidiruv, qidirish, izlash, axtarish; tintuv, taftish
- rummy I** [ˈrʌmɪ] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, gʻalati
- rummy II** [ˈrʌmɪ] *n* araqxoʻr, piyonista
- rumour** [ˈruːmə] 1. *n* mish-mish gap, ovoza; 2. *v* ovoza tarqatmoq, mish-mish tarqatmoq
- rumoured** [ˈruːməd] *a* odamlarning aytishiga koʻra maʼlum boʻlgan; it is ~ that ... degan mish-mishlar tarqalib yuribdi
- rump** [rʌmp] *n* 1) anat. dumgʻaza; 2) paz. son goʻshti; 3) hazil. orqa, ket, yumshoq joy
- rumple** [ˈrʌmp(ə)] *v* toʻs-toʻpolon qilmoq, tartibsizlik qilmoq
- run** [rʌn] *v* (ran; run) 1) chopmoq, yugurmoq; to ~ across toʻsatdan uchratib qolmoq; to ~ down yugurib tushmoq; to ~ in yugurib kirmoq; to ~ out yugurib chiqmoq; to ~ over ustidan bosib ketmoq, bosib oʻt-
- moq; 2) tez tarqalmoq (*olov, yangilik haqida*); 3) yurmoq; 4) oqmoq; 5) olib bormoq; 6) rahbarlik qilmoq
- runaway** [ˈrʌnəweɪ] *n* qochoq, qochqin
scrupulous ['skru:pjələs] *a* halol, pok, vijdonli, insofli

scrutinize ['skru:tɪnaɪz] *v* puxta tekshirmoq, diqqat bilan (e'tibor berib, sinchiklab) ko'rib chiqmoq

scrutiny ['skru:tɪni] *n* sinchkov nigoh, diqqat bilan qarash

scud [skʌd] *n* tez (ildam, jadal) harakat

scuff [skʌf] *v* eskirmoq, yirtilmoq; ko'p ishlatib (kiyilib) ishdan chiqmoq

scuffle ['skʌf(ə)l] *n* mushtlashish, yoqalashish, urishish

scullery ['skʌl(ə)rɪ] *n* idish-tovoq yuvish xonasi

sculptor ['skʌlptə] *n* haykaltarosh

sculptress ['skʌlptɪs] *n* haykaltarosh xotin (ayol)

sculptural ['skʌlptʃ(ə)rəl] *a* haykaltaroshlikka oid; haykalga oid

sculpture ['skʌlptʃə] **1.** *n* haykaltaroshlik; **2.** *v* haykal yasamoq; kesib yoki o'yib naqsh solmoq

scum [skʌm] **1.** *n* 1) ko'pik; 2) po'choq, chiqindi; **2.** *v* 1) ko'piklanmoq; ko'pirmoq; 2) ko'pigini olmoq

scummy ['skʌmi] *a* 1) ko'pikli, ko'pigi bor; serko'pik; 2) razil, qabih, yaramas

scurf [skɜ:f] *n* 1) qazg'oq, bosh kepagi; 2) qatlam

scurriious [skʌrɪləs] *a* beadab, axloqsiz, yaramas

scurry ['skʌrɪ] *n* tez (ildam) harakat

scurvy I [skɜ:vi] *n* *tib.* singa, lavsha, zangila (*milk kasalligi*)

scurvy II [skɜ:vi] *a* jirkaneh, razil

scutcher ['skʌtʃə] *n* 1) titkich; savacho'l; 2) titadigan mashina, paxtatitkich, juntitkich

scuttle I ['skʌtl] *n* ko'mir soladigan quti yoki paqircha

scuttle II ['skʌtl] **1.** *n* qopqoqli tuynuk, teshik; **2.** *v* kemani cho'ktirmoq

scuttle III ['skʌtl] *v* qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq

scythe [saɪð] **1.** *n* *q. x.* chalg'i, belo'roq; **2.** *v* chalg'i (belo'roq) bilan o'rmoq

sea [si:] *n* dengiz; **in the** ~ dengizda; **at** ~ dengizda (*sayohatda*); **a** ~ **port** dengiz porti; **a** ~ **man** dengizchi; **a** ~ **shore** dengiz qirg'og'i; **a** ~ **level** dengiz sathi; **a** ~ **coast** dengiz qirg'og'i (sohili); **by** ~ dengiz orqali, dengiz bilan; **on** ~ dengizda

seaboard ['si:bɔ:d] *n* dengiz sohili

- sea-calf** [ˈsi:kɑ:f] *n zool.* tulen (*kurakoyoqlilar oilasiga mansub sutemizuvchi dengiz hayvoni*)
- sea-dog** [ˈsi:dɒg] *n* 1) sut emizuvchi dengiz hayvoni; 2) yelimbaliq; 3) mohir dengizchi
- sea-front** [ˈsi:frʌnt] *n* 1) dengiz bo'yidagi xiyobon; 2) dengiz bo'yidagi shahar
- seagoing** [ˈsi:gəʊɪŋ] *a* uzoq kema safari
- sea-gull** [ˈsi:gʌl] *n zool.* chayka, baliqchi (*qush*)
- sea-horse** [ˈsi:hɔ:s] *n zool.* dengiz toychasi (*boshi otga o'xshash baliq*)
- seal I** [si:l] 1. *n zool.* tulen (*kurakoyoqlilar oilasiga mansub sutemizuvchi dengiz hayvoni*); **an eared** ~ sivuch, shalpangquloq tulen; **a fur** ~ dengiz mushugi (*tulening bir turi*); 2. *v* tulen ovlamoq
- seal II** [si:l] 1. *n* muhr; 2. *v* muhr bosmoq
- sealer** [ˈsi:lə] *n* dengiz mushuklarini ovlaydigan ovchi
- sea-fishery** [ˈsi:l,fɪʃ(ə)rɪ] *n* dengiz mushugi ovlash
- sealskin** [ˈsi:l,skɪn] *n* dengiz mushugi mo'y-nasi
- seam** [si:m] *n* chok, baxya, tikilgan joy; ~**stress** tikuvchi
- seaman** [ˈsi:mən] *n* (*pl* -**men** [-mən]) dengizchi
- seamanship** [ˈsi:mənʃɪp] *n* kema yuritish san'ati
- sea-mew** [ˈsi:mju:] = **sea-gull**
- seamstress** [ˈsemstrɪs] *n* tikuvchi ayol
- seamy** [ˈsi:mɪ] *a* chandiqli, chandiqli bilan qoplangan; **a** ~ **face** chandiqli yuz
- séance** [seɪns] *n fr.* yig'ilish, kengash, majlis
- sea-piece** [ˈsi:pi:s] *n* marina (*dengiz manzarasi tasvirlangan rasm*)
- seaplane** [ˈsi:pleɪn] *n* gidrosamolyot
- seaport** [ˈsi:pɔ:t] *n* 1) dengiz porti; 2) port shahar
- sear I** [sɪə] *a* qurigan, so'lib qolgan, so'ngan
- sear II** [sɪə] *n* *harb.* tushirish uchun ishlatiladigan dastak (*richag*)
- search** [sɜ:tʃ] 1. *n* izlash, izlanish; 2. *v* izlanmoq, izlamoq, qidirmoq
- searching** [ˈsɜ:tʃɪŋ] *a* puxta (*sinchiklab*) qilingan, diqqat bilan bajarilgan, puxta
- searchlight** [ˈsɜ:tʃlaɪt] *n* proyektor
- search-party** [ˈsɜ:tʃ,pɑ:ti] *n* qidiruv guruhi (*otradi*)
- search-warrant** [sɜ:tʃ,wɔrənt] *n* tintuv uchun order
- sea-scape** [ˈsi:sketp] = **sea-piece**
- seashore** [ˈsi:ʃɔ:] *n* dengiz qirg'og'i (*sohili*)
- seasickness** [ˈsi:sɪknəs] *n* dengiz kasali (*dengiz to'qinidan bosh aylanishi, ko'ngil aynishi*)
- seaside** [ˈsi:sɑɪd] *n* dengiz qirg'og'i
- season** [ˈsi:z(ə)n] *n* mavsum; yil fasli
- seasonable** [ˈsi:z(ə)nəb(ə)l] *a* o'z vaqtida bo'ladigan, ayni paytida qilinadigan
- seasonal** [ˈsi:z(ə)nəl] *a* sezonli, mavsumli; mavsumiy
- seasoned** [ˈsi:z(ə)nd] *a* 1) uzoq turib (*saqlanib*) yetilgan, turgan; 2) chiniqqan, toblangan; *matonati*, pishiq
- seasoning** [ˈsi:z(ə)nɪŋ] *n* 1) ma'lum vaqt (*yoki ma'lum sharoitda*) saqlab yetiltirish; sifatini yaxshilash; 2) eskirish; 3) ziravor
- season-ticket** [ˈsi:z(ə)n,tɪkɪt] *n* 1) mavsumiy chipta; 2) obuna
- seat** [si:t] 1. *n* joy, o'rindiqlik; **to have** (*yoki to take*) **a** ~ o'tirmoq; **jump** ~ qaytarma o'rindiqlik; 2. *v* o'tirmoq; **please be** ~**ed** marhamat, o'tiring
- sea-wall** [ˈsi:wɔ:l] *n* damba, ko'tarma, to'liqin qaytargich
- seaward** [ˈsi:wəd] *a* dengizga olib boradigan; dengizga chiqadigan; dengizga qaragan
- sea-way** [ˈsi:weɪ] *n* dengiz yo'li
- seaweed** [ˈsi:wɪ:d] *n* dengiz o'simligi
- seaworthy** [ˈsi:wɜ:ði] *a* suzishga yaraydigan (*kema haqida*)
- sec** [sek] *a fr.* spirtsiz vino
- secant** [ˈsi:kənt] *n* *mat.* kesuvchi chiziq, kesuvchi tekislik
- secede** [siˈsi:d] *v* ajralmoq, ajralib (*bo'linib*) ketmoq
- secession** [siˈseʃ(ə)n] *n* 1) (*partiya, federatsiya va b. dan*) chiqish; 2) ajralish, ajralib ketish
- secessionist** [siˈseʃ(ə)nɪst] *n* ajratuvchi, ixtilof soluvchi, buzg'unchi
- seclude** [siˈklu:d] *v* ayirmoq, ajratmoq, boshqalardan ajratib (*yakkalab*) qo'y-moq
- secluded** [siˈklu:dɪd] *a* yolg'iz, yakka, tanho, alohida ajralib turadigan
- seclusion** [siˈklu:ʒ(ə)n] *n* yolg'izlik, yolg'iz yashash, yakka turish; **to live in** ~ yolg'iz yashamoq
- second I** [ˈsekənd] *num. ord.* ikkinchi; ~ **language** ikkinchi til
- second II** [ˈsekənd] *v* qo'llab-quvvatlamoq, ma'qullamoq
- second III** [ˈsekənd] *n* soniya, sekund
- secondary** [ˈsekənd(ə)rɪ] *a* 1) ikkilamchi, ikkinchi darajali; 2) o'rta (*ma'lumot haqida*); ~ **school** o'rta maktab; 3) *geol.* mezo-zoy erasiga oid
- second-best** [ˈsekəndˈbest] *a* ikkinchi sort, ikkinchi nav
- second-class** [ˈsekəndˈkla:s] *a* ikkinchi darajali; ikkinchi klass

- seconded** [ˈsekəndəd] *n* 1) sportchi; 2) taklifni quruvatlovchi
- second-hand I** [ˈsekənd ˈhænd] *a* tutilgan, ishlatilgan, kiyilgan; eski
- second-hand II** [ˈsekənd ˈhænd] *n* soniya mili
- secondly** [ˈsekəndli] *adv* ikkinchidan, ikkilanchi
- second-rate** [ˈsekənd ˈreɪt] *a* 1) ikkinchi sort, ikkinchi navli; 2) oʻrtacha, oʻrtamiyona
- secrecy** [ˈsi:kri:si] *n* yashirinlik, maxfiylik, sirlik
- secret** [ˈsi:krit] *a* maxfiy narsa, sir; *-ly* yashirincha
- secretarial** [ˌsekɹəˈte(ə)riəl] *a* kotibga oid, kotiblik, kotib
- secretariat(e)** [ˌsekɹəˈte(ə)riət] *n* 1) kotibiyat; 2) kotiblik mansabi
- secretary** [ˈsekɹət(ə)rɪ] *n* 1) kotib, kotiba; 2) tashkilot rahbari; **a ~ general** bosh kotib
- secrete** [siˈkri:t] *v* 1) ajratmoq, ajratib olish; 2) yashirmoq, bekitmoq
- secretive** [siˈkri:tɪv] *a* sirli, maxfiy, yashirin, pinhoni
- secretiveness** [siˈkri:tɪvnəs] *n* maxfiylik, yashirinlik
- sect** [sekt] *n* oqim, mazhab
- sectarian** [sekˈte(ə)riən] *a* 1) mazhabparast, biror mazhabga mansub kishi; 2) oʻtaketgan mutaassib
- section** [ˈsekʃ(ə)n] *n* 1) qism, boʻlak (*mebel va b. da*); 2) shoʻba, boʻlim; 3) paragraf, boʻlim (*kitoblarda*)
- sectional** [ˈsekʃ(ə)nəl] *a* qismlarga ajratiladigan va qayta yigʻib qoʻyiladigan, yigʻma
- sector** [ˈsektə] *n* 1) sektor; maydon; soha; 2) *tex.* kulisa (*harakat yoʻnalishini oʻzgartiradigan mexanizm*)
- secular** [ˈsekjələ] **1.** *a* qadimdan qolib kelayotgan, azaliy, qadimgi, eski, koʻhna; **2.** *a* dunyoviy kishi, qavim
- secure** [siˈkjʊə] **1.** *v* xavfsizlikni taʼminlamoq, himoya qilmoq, qoʻriqlamoq; **2.** *a* 1) xotirjam, sokin; 2) (*biror narsaga*) ishonchi komil; 3) xavfsiz, himoya qilingan; 4) ishonchli, pishiq, puxta
- security** [siˈkjʊ(ə)rɪti] *n* 1) xavfsizlik; 2) xavfsizlik organlari; 3) soqchilar, qoʻriqchilar
- selan** [siˈdæn] *n* *tar.* portshez (*yengil koʻchma kresto*)
- sedate** [siˈdeɪt] *a* tinch, jinjit, sokin
- sedative** [ˈsedətɪv] *a* ogʻriqni qoldiradigan, ogʻriqni bosadigan, tinchlantiradigan
- sedentary** [ˈsed(ə)nt(ə)rɪ] *a* oʻtirgan holdagi, oʻtirgan holda qilinadigan; oʻtiradigan
- sedge** [sedʒ] *n* *bot.* qamish
- sediment** [ˈsedɪmənt] *n* choʻkindi, loyqa, quyqum, choʻkma
- sedimentary** [ˌsedɪˈment(ə)rɪ] *a* choʻkishga oid; choʻkkan...; choʻkindi...
- sedition** [siˈdɪʃ(ə)n] *n* isyon, gʻalayon, igʻvogʻarlik; **an act of ~** igʻvo solish
- seditious** [siˈdɪʃəs] *a* isyonkorlik ruhidagi, isyonkor
- seduce** [siˈdju:s] *v* yoʻldan ozdirmoq, aldab nomusiga tegmoq
- seducer** [siˈdju:sə] *n* yoʻldan ozdiruvchi, vasvasa qiluvchi
- seduction** [siˈdʌkʃ(ə)n] *n* yoʻldan ozdirish (urish), avrash, aldash
- seductive** [siˈdʌktɪv] *a* qiziqtiradigan, havas keltiradigan, qiziqarli
- sedulous** [ˈsedjʊləs] *a* tirishqoq, gʻayratchan, serhafsala, quntli, serharakat
- see** [si:] *v* (**saw**; **seen**) koʻrmoq, qaramoq
- seed** [si:d] **1.** *n* urugʻ, don; **2.** *v* 1) urugʻlamoq; 2) don ekmoq
- seed-bed** [siˈdbed] *n* koʻchat ekilgan joʻyak
- seed-cake** [siˈdkeɪk] *n* zirali pecheniy yoki keks
- seed-corn** [siˈdɔ:n] *n* ekiladigan don
- seed-drill** [siˈdɹɪl] *n* *q. x.* qatorlab ekadigan seyalka
- seedling** [ˈsi:dɪŋ] *n* koʻchat, urugʻdan koʻkargan daraxt koʻchati
- seedling-machine** [ˈsi:dɪŋməʃɪn] *n* ekish mashinasi
- seedless** [siˈdləs] *a* *bot.* urugʻsiz, tuxumsiz, donsiz
- seedling** [ˈsi:dɪŋ] *n* urugʻdan koʻkartirilgan koʻchat
- seed-pearl** [ˈsi:dpeə:l] *n* mayda marvarid
- seed-plot** [ˈsi:dplɒt] *n* koʻchatxona, niholxona
- seed-time** [ˈsi:dtɑɪm] *n* ekish mavsumi
- seedy** [ˈsi:di] *a* serurugʻ, serdon; **~ grapes** urugʻli uzum
- seeing** [ˈsi:ɪŋ] *n* koʻrish, koʻrish jarayoni
- seek** [si:k] *v* (**sought**) 1) izlamoq, qidirmoq; **it is yet to ~** bu hali topilmadi; 2) intilmoq, harakat qilmoq, tirishmoq, urinmoq; **to ~ to fame** shuhratga intilmoq
- seem** [si:m] *v* tuyulmoq; ...ga oʻxshamoq; **to ~ to** tuyulmoq, boʻlib koʻrinmoq
- seeming** [ˈsi:mɪŋ] *a* ...boʻlib koʻrinadigan, tuyuladigan; sunʼiy, yasama, soxta, qalbaki
- seemingly** [ˈsi:mɪŋli] *adv* 1) koʻrinishidan, rangidan, basharasidan, chehrasidan; 2) chamas, aftidan, boʻlsa kerak, oʻxshaydi
- seemly** [ˈsi:mli] *a* munosib, loyiq, yarashadigan
- seen** [si:n] *p. p.* of see
- seep** [si:p] *v* sizib kirmoq, sizib oʻtmoq

- seer I** [sɪə] *n* bashorat qiluvchi, oldindan ko'ra biluvchi
- seer II** [sɪə] *n* sir (*Hindistondagi og'irtlik o'lchovi; mamlakatning turli qismlarida turlicha*)
- seesaw** [si:sɔ:] *n* bolalar hayinchagi (arg'im-chog'i)
- seethe** [si:ð] *v* (**seethed** [-d], **sod**; **seethed**, **sodden**) qaynamoq, jo'sh urmoq
- segment** [segmənt] *n* bo'lak, parcha, burda
- segregate** ['segrɪgeɪt] *v* chegaralamoq, ajratmoq, ajratib turmoq
- segregation** [ˌsegrɪ'geɪʃ(ə)n] *n* yakkalanib (ajralib) qolish; yakkalab (ajratib) qo'yish, yakkalik
- seine** [seɪn] *n* baliq ovlanadigan katta to'r
- seiner** [seɪnə] *n* seyner (*baliq ovlash kemasi*)
- seismic** ['saɪzmɪk] *a* zilzila...; seysmik...
- seismograph** ['saɪzməgrə:f] *n* seysmograf (*yer qimirlashint avtomatik ravishda yozib oladigan asbob*)
- seize** [si:z] *v* bosib olmoq, egallamoq; **to ~ by** ...dan ushlamoq (tutmoq)
- seizure** [si:ʒə] *n* 1) musodara qilish; 2) bosib olish, egallash
- seldom** ['seldəm] *adv* kam, siyrak, goh-goh, kamdan-kam
- select** [sɪ 'lekt] *v* saylab olmoq, ajratmoq, tanlamoq; **~ed** tanlangan
- selection** [sɪ 'lektʃ(ə)n] *n* tanlash, saralash
- selective** [sɪ 'lektɪv] *a* saylanadigan, saylaydigan
- selectively** [sɪ 'lektɪvli] *adv* tanlab, saralab; saylab
- self-** [self-] *pref.* murakkab so'zlarning birinchi tarkibi, harakatning o'ziga qaratilganligini ifoda etadi, o'zini-, o'ziga-, o'zini-
- self** [self] *n* (*pl selves*) ish-harakatda bevosita ishtirok etuvchi shaxs yoki predmetni bildiradi: o'zi
- self-absorbed** [selfəb'sɔ:bd] *a* 1) manmanlikka oid, xudbinlikka oid; 2) o'z fikrlari bilan band
- self-assured** [selfə'ʃʊəd] *a* o'ziga ishongan, surbet, bezbet, uyatsiz
- self-centred** [self'sentəd] *a* egoist, xudbin...; igoizm va egoistga oid
- self-collected** [selfkə'lektɪd] *a* o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq, sipo
- self-command** [selfkə'mɑ:nd] *n* o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, esankiramaslik
- self-confessed** [selfkən'fest] *a* o'zini aybdor deb hisoblovchi
- self-confidence** [self'kɒnfɪd(ə)ns] *n* o'ziga ishonish
- self-conscious** [self'kɒnʃəs] *a* o'z-o'zini anglagan, o'z mohiyatini tushungan
- self-consciousness** [self'kɒnʃəsnəs] *n* o'zini o'zi anglash, o'z mohiyatini (o'rni, burchini) tushunish
- self-contained** [selfkən'teɪnd] *a* odamga qo'shilmaydigan, odamovi, pismi
- self-control** [selfkən'trəʊl] *n* o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, dadillik
- self-defence** [selfdɪ'fens] *n* o'z-o'zini himoya qilish
- self-denial** [selfdɪ'naɪəl] *n* ixtiyoriy ravishda o'z manfaatidan voz kechish
- self-determination** [selfdɪ'tɜ:mɪ'neɪʃ(ə)n] *n* o'z taqdirini o'zi belgilash
- self-educated** [self'edʒəkertɪd] *a* mustaqil ravishda (o'zicha) o'rgangan, o'qigan
- self-effacing** [selfɪ'feɪsɪŋ] *a* kamtar, oddiy, sipo; kamtarin
- self-employed** [selfɪm'plɔɪd] *a* o'zining shaxsiy ishxonasiga xizmat qiluvchi
- self-esteem** [selfɪ'sti:m] *n* o'ziga bo'lgan hurmat, izzat
- self-evident** [self'evid(ə)nt] *a* ochiq-oydin ko'rinib turgan, ayon, oshkora
- self-explanatory** [selfɪk'splænət(ə)rɪ] *a* ochiq-oydin ko'rinib turgan, aniq, ravshan, o'z-o'zidan tushunarli
- self-government** [self'gʌvnmənt] *n* o'zini-o'zi idora qilish, ichki ishlarini o'zi hal qilish
- self-importance** [selfɪm'pɔ:t(ə)ns] *n* o'zini hammadan yuqori qo'yish, o'zini hammadan aqli fahmlash
- self-indulgence** [selfɪn'dʌldʒ(ə)ns] *n* o'z istaklariga erk berish
- self-indulgent** [selfɪn'dʌldʒ(ə)nt] *a* o'z istaklariga erk beradigan
- self-interest** [self'ɪnrɪst] *n* o'z manfaatini ko'zlash, o'z manfaatini ko'zlab ish tutish
- selfish** [selfɪʃ] *a* xudbinlikka (faqat o'z manfaatini ko'zlashga) oid
- selfishness** [selfɪʃnəs] *n* egoizm, xudbinlik
- selfless** [selfləs] *a* fidokor, fidokorona, fidokorlik bilan qilingan
- self-love** [self'lʌv] *n* o'ziningina yaxshi ko'rish; xudbinlik
- self-made** [self'meɪd] *a* hamma narsani o'zi uchun o'zi qilishga majbur bo'lgan
- self-pity** [self'pɪtɪ] *n* o'ziga achinish
- self-portrait** [self'pɔ:trɪt] *n* avtoportret (*rassom yoki haykaltaroshning o'zi ishlagan o'z portreti*)
- self-possessed** [selfpə'zest] *a* o'zini tuta biladigan, og'ir, vazmin
- self-preservation** [selfprezə'veɪʃ(ə)n] *n* o'z jonini saqlash, o'z jonini saqlashga intilish

self-reliant [ˌselfrɪˈlaɪənt] *a* o'ziga ishongan
self-respect [ˌselfrɪˈspekt] *n* o'z qadrini bilish
self-righteous [ˌselfˈraɪtʃəs] *a* o'zidan (o'z
 ishidan) xursand, o'ziga bino qo'ygan, mag'rur
self-sacrifice [ˌselfˈsækrɪfɪs] *n* o'zini qurbon qilish, o'z manfaatlaridan voz kechish
selfsame [ˌselfseɪm] *a* o'zining o'zi, aynan o'sha
self-satisfied [ˌselfˈsætɪsfaɪd] *a* o'z ishidan xursand, mag'rur
self-seeking [ˌselfˈsiːkɪŋ] *a* o'z manfaatini ko'zlaydigan, manfaatparast
self-service [ˌselfˈsɜːvɪs] *n* o'z-o'ziga xizmat qilish; **a - shop** o'z-o'ziga xizmat qilish magazini
self-starter [ˌselfˈstɑːtə] *n* *tex.* starter (*dvigatellarni yurgizib beruvchi, o't oldiruvchi mexanizm*)
self-styled [ˌselfˈstɑɪld] *a* manman, kek-kaygan
self-sufficiency [ˌselfsəˈfɪʃ(ə)nəsi] *n* 1) mustaqillik, erkinlik, tobe (qaram) emashlik, erki (huquqi) o'zidalik; 2) o'ziga ortiq darajada ishonish (bino qo'yish); ortiq darajadagi ishonch
self-sufficient [ˌselfsəˈfɪʃ(ə)nt] *a* tobe (qaram) bo'lmagan, erkin, mustaqil
self-support [ˌselfsəˈpɔːt] *n* mustaqillik, erkinlik
self-supporting [ˌselfsəˈpɔːtɪŋ] *a* huquqi o'zida bo'lgan, erkin
self-will [ˌselfˈwɪl] *n* o'zboshimchalik, qaysarlik
self-willed [ˌselfˈwɪld] *a* o'zboshimcha, boshqaning gapiga kirmaydigan
sell [sel] *v* (*sold*) 1) sotmoq; **the car is to -** mashina sotiladi; 2) savdo-sotiq qilmoq; savdo-sotiq bilan shug'ullanmoq
seller [ˈselə] *n* 1) sotuvchi, savdogar, sotadigan kishi; 2) hozorgir mol
selvage, selvedge [ˈselvɪdʒ] *n* hoshiya, qirra, yon, chet
selves [selvz] *pl of self*
semantic [sɪˈmæntɪk] *a* semantikaga (so'z ma'nosiga) oid, semantik; ma'noviy
semaphore [ˈseməfɔː] *v* ko'rinadigan signallar bermoq, ko'rinadigan narsalar vositasida aloqa bog'lamoq (gaplashmoq)
semblance [ˈseɪbləns] *n* 1) o'xshashlik; 2) tashqi (sirtqi) ko'rinish, qiyofa, aft-angor
semen [ˈsiːmən] *n* urug', tuxum, pusht
semester [sɪˈmestə] *n* semestr
semi- [ˈsemi-] *pref.* yarim (*old qo'shimcha*)
semi-basement [ˈsemiˌbeɪsmənt] *n* yarim podval (*birinchi qavatning tagidagi yarmi yer ostida bo'lgan uy*)

semicircle [ˌsemiˈsɑːk(ə)l] *n* yarim doira
semicolon [ˌsemiˈkəʊlən] *n* nuqtali vergul
semi-detached [ˌsemiˈdɛtʃ(ə)tɪd] *a* umumiy devorga ega bo'lgan; **a - house** qo'shni uy bilan umumiy devorga ega bo'lgan uy
semifinal [ˌsemiˈfaɪn(ə)l] *n* *sport.* yarim final
seminar [ˈseminɑː] *n* seminar
semolina [ˌseməˈliːnə] *n* manniy krupa
senate [ˈsenɪt] *n* 1) senat (*parlamentning qonun chiquruvchi yuqori palatasi*); 2) kengash (*universitetda*)
senator [ˈsenətə] *n* senator, senat a'zosi
send [send] *v* (*sent*) yubormoq, jo'natmoq
senescent [sɪˈnes(ə)nt] *a* eskirayotgan, qariyotgan, keksayib borayotgan
senile [ˈsiːnɪl] *a* keksalarga xos bo'lgan, keksalarcha, qarigandagi, qari
senility [sɪˈnɪlɪtɪ] *a* keksalik, qarilik
senior [ˈsiːniə] *a* katta, yoshi katta; **to'n-g'ich**; **she is five years - to me** u mendan besh yosh katta
seniority [ˌsiːniˈɒrɪtɪ] *n* kattalik, ulug'lik, yuqorilik (*yosh, martaba jihatdan*)
sensation [senˈseɪʃ(ə)n] *n* 1) sezgi, his, tuyg'u; 2) sezish, his qilish; 3) hayratga soladigan taassurot, hammani hayratga soladigan voqea, **shov-shuv** (*duv-duv*) gap bo'ladigan hodisa
sensational [senˈseɪʃ(ə)nəl] *a* shov-shuv (*duv-duv*) gap bo'ladigan, hammani hayratga soladigan
sensationally [senˈseɪʃ(ə)nəli] *adv* shov-shuv bo'ladigan gaplarni tarqatuvchi kishi
sense [sens] *n* 1) his, tuyg'u, sezgi; 2) aql, fahm, idrok, zehn
senseless [ˈsensləs] *a* 1) ma'nosiz, mazmunsiz; 2) hushsiz
sensibility [ˌsensəˈbɪlɪtɪ] *n* sezuvchanlik, o'ta sezgirlik, ta'sirchanlik
sensible [ˈsensəb(ə)l] *a* aqlli, bama'ni; o'y-lab ish qiladigan, mulohazali
sensitive [ˈsensɪtɪv] *a* sezgir
sensitivity [ˌsensɪˈtrɪvɪtɪ] *n* sezuvchanlik, o'ta sezgirlik; ta'sirchanlik
sensual [ˈsensjuəl] *a* sezgiga oid; seziladigan, bilinadigan, sezib bo'ladigan
sensuality [ˌsensʊˈæliətɪ] *n* sezuvchanlik (sezgirlik) qobiliyati
sensuous [ˈsensjuəs] *a* sezgiga oid, seziladigan, bilinadigan
sent [sent] *past., p. p. of send*
sentence [ˈsentəns] 1. *v* hukm qilmoq, hukm chiqarmoq; 2. *n* 1) *gram.* gap; 2) *yur.* hukm
sententious [senˈtenʃəs] *a* ibratli, nasihat-omuz; saboq bo'ladigan
sentiment [ˈsentɪmənt] *n* sezish, hissiyot; **-al** nozik hissiyotga beriluvchan

sentimentality [ˌsentɪmənˈtæltɪ] *n* kimsaga rosa rahmdillik bilan qarash; erkalik, tan-tiqlik

sentinel [ˈsentɪn(ə)] *n* soqchi, qorovul, posbon; himoya qiluvchi

sentry [ˈsentɪ] *n* *harb.* soqchi, qorovul, posbon

sentry-box [ˈsentɪbɒks] *n* soqchi budkasi

separable [ˈsep(ə)rəb(ə)] *a* ajraladigan, ajratiladigan, ajratib olib boʻladigan

separate 1. *a* [ˈsep(ə)rɪt] mustaqil, alohida; 2. *v* [ˈsepəreɪt] 1) bir-biridan ajratmoq; 2) elakdan (gʻalvirdan) oʻtkazib ajratmoq, tozalamoq, saralab olmoq, saragini sarakka, puchagini puchakka chiqarmoq

separated [ˈsepəreɪtɪd] *a* ajralishgan, xotinini qoʻygan yoki eridan chiqqan

separately [ˈsep(ə)rɪtli] *adv* boshqalardan ajralgan holda, alohida olib, mustaqil ravishda

separation [ˌsepəˈreɪʃ(ə)n] *n* ajralish, ajratish, taqsimlash

September [sepˈtembə] *n* sentabr

septennial [sepˈtenɪəl] *a* yetti yillik, yetti yil davom etadigan; yetti yil mobaynida

septic [ˈseptɪk] *a* *tib.* septik (*sepsis* natijasida sodir boʻladigan)

septicaemia [ˌseptɪˈsiːmiə] *n* *tib.* sepsis (*qonga kirgan zararli mikroblar tufayli bunun organizmning zaharlanishi*)

sepulchral [sɪˈpʌlkɪrəl] *a* goʻrga, goʻristonga oid, qabr..., mozor...; ~ **mound** goʻr, goʻrtepa

sequel [ˈsiːkwəl] *n* 1) natija, oqibat, pirovard; 2) davom ettirish; davom etish

sequence [ˈsiːkwəns] *n* 1) izchillik, ketma-ketlik, tartib; **the ~ of events** voqealarning borishi (rivojlanishi); 2) natija, oqibat, pirovard

sequential [sɪˈkwɛnsɪ(ə)] *a* keyingi, kelasi, kelgusi; keyingi safar

sequester [sɪˈkwɛstə] *v* boshqalardan ajratib qoʻymoq, yolgʻiz qoldirmoq, odamlardan xoli qoʻymoq

sere [stə] *a* soʻligan, soʻlib qolgan, soʻngan

serenade [ˌserɪˈneɪd] *n* serenada (*maʼshuqaga atab aytilgan ishqiy qoʻshiq*)

serene [sɪˈriːn] 1. *a* 1) ochiq, tiniq, sof, toza, oydin; musaffo, bulutsiz; 2) tinch, osoyishta; 2. *n* musaffo osmon, ochiq havo

serenity [sɪˈrenɪti] *n* 1) ochiqlik, tiniqlik, soflik, musaffollik (*havo, osmon haqida*); 2) tinchlik, osoyishtalik

serf [sɜːf] *n* qul, asir, mahbus, tutqin

sergeant [ˈsɜːdʒ(ə)nt] *n* *harb.* serjant

serial [ˈsɪ(ə)rɪəl] *a* seriyaga oid; seriyali

serialize [ˈsɪ(ə)rɪəlaɪz] *v* vaqt-vaqti bilan nashr qilmoq

sericulture [ˈserɪ,kʌltʃə] *n* ipakchilik, pilla-chilik

series [ˈsɪ(ə)rɪːz] *n* qator, bir qator, qator-qator

serious [ˈsɪ(ə)rɪəs] *a* 1) jiddiy, muhim; 2) xavfli, **a ~ illness** xavfli kasallik

seriously [ˈsɪ(ə)rɪəsli] *adv* 1) jiddiy ravishda; chindan, astoydil; 2) mohirona, ustalik bilan

seriousness [ˈsɪ(ə)rɪəsənəs] *n* jiddiylik, jiddiyat

sermon [ˈsɜːmən] *n* pand, nasihat

serpent [ˈsɜːpənt] *n* zaharli katta ilon

serpentine [ˈsɜːpəntɪn] *a* ayyor, makkor

serrated [səˈrɛɪtɪd] *a* tishli

serried [ˈsɛrɪd] *a* tutash, zich

servant [ˈsɜːv(ə)nt] *n* xizmatkor; **to engage a ~** xizmatkor yollamoq

serve [sɜːv] *v* xizmat qilmoq

server [ˈsɜːvə] *n* 1) patnis; 2) xizmat koʻrsatuvchi

service [ˈsɜːvɪs] *n* xizmat; xizmat koʻrsatish; **at somebody's ~** ...ning xizmatida

serviceable [ˈsɜːvɪsəb(ə)] *a* 1) foydali; manfaatli; 2) mahkam, pishiq, puxta

serviette [ˌsɜːvɪˈet] *n* *fr.* qoʻl sochiq, salfetka

servile [ˈsɜːvaɪl] *a* qulga oid; qullarga xos, qul...; eng ogʻir, chidab boʻlmas

servility [sɜːˈvɪltɪ] *n* xushomadgoʻylik, laganbardorlik, tiz choʻkib sajda qilish

servitude [ˈsɜːvɪtjuːd] *n* qullik, qul tuzumi

session [ˈseʃ(ə)n] *n* 1) yigʻilish; 2) (*parlament*) kengashi; 3) oʻquv semestri (*Shotlandiya va Amerika universitetlarida*)

set I [set] *n* toʻplam, sidra, komplekt

set II [set] *v* oʻrnatmoq, qoʻymoq, joylashingtirmoq; **to ~ off** 1) yoʻl olmoq, joʻnamoq; 2) boshlanmoq; **to ~ out** 1) joʻnamoq, yoʻlga tushmoq; 2) (*biror ish*) qilmoqchi boʻlmoq, niyatida boʻlmoq; 3) (batafsil) bayon etmoq

set-back [setˈbæk] *n* orqaga qaytish; inqiroz, tanazzul

settee [seˈtiː] *n* kichik divan

setting [ˈsetɪŋ] *n* 1) sharoit, muhit, vaziyat; 2) anjom, idish-tovoq

settle [ˈsetl] *v* hal qilmoq, tartibga solmoq, yoʻlga qoʻymoq

settled [ˈsetld] *a* 1) barqaror, bardoshli, chidamli, pishiq, mustaqil; 2) aholi yashaydigan

settlement [ˈsetlmənt] *n* manzilgoh, joy, makon

setter [ˈsetlə] *n* koʻchkindi, koʻchmanchi (*yangi joyga koʻchib borib yashayotgan kishi*)

settling [ˈsetlɪŋ] *n* 1) loyqa, quyqum; 2) tekislash, silliqlash

seven ['sev(ə)n] *num. card.* yetti; ~**th** yettinch; ~**ty** yetmish; ~**fleth** yetmishinchi; ~**fold** yetti marta ko'p

seventeen [,sev(ə)n'ti:n] *num.* o'n yetti
sever ['sevə] *v* 1) (*munosabatlarni*) uzmoq; 2) bir-biridan ajratmoq, ayirmoq, judo qilmoq

several ['sev(ə)rəl] *a* bir qancha, bir qator
severally ['sev(ə)rəli] *adv* alohida, boshqa, bo'lak, ayrim

severance ['sev(ə)rəns] *n* 1) (*aloqa yoki munosabatni*) uzish, buzish; 2) uzilish, buzilish
severe [si'viə] *a* qattiq, keskin: **a** ~ **competition** keskin kurash; **a** ~ **headache** qattiq bosh og'rig'i; ~ **weather** sovuq ob-havo
severely [si'viəli] *adv* talabchanlik (qattiqqo'llik) bilan, qattiq talab qilib
severity [si'veriti] *n* talabchanlik, qattiqqo'llik

sew [səu] *v* (**sewed**; **sewed**, **sewn**) tikmoq
sewage ['s(j)u:ɪdʒ] *n* oqindi suvlar, oqova suvlar

sewer I ['səuə] *n* tikuvchi, tikuvchi ayol
sewer II ['s(j)u:ə] *n* kanalizatsiya trubasi
sewer III ['s(j)u:ə] *n* tax. xizmatkorlar og'asi
sewerage ['s(j)u:ərɪdʒ] *n* kanalizatsiya (*axlat, chiqindi va yog'in suvlari oqiziladigan quvurlar sistemasi*)

sewing ['səuɪŋ] *n* tikish, tikuv
sewing-machine ['səuɪŋməʃi:n] *n* tikuv mashinasi

sewn [səʊn] *p. p. of sew*
sex [seks] *n* *biol.* jins; **the weaker** ~ ayollar; **the stronger** ~ erkaklar

sexual ['sekʃuəl] *a* jinsiy, shahvoniy
shabby ['ʃæbi] *a* kiyilgan, yirtilgan, eski
shack [ʃæk] **1.** *n* faqirona uy, kulba, kapa; **2.** *v* yashamoq, istiqomat qilmoq

shackle [ʃæk(ə)l] **1.** *n* pl kishan, zanjir; bo'g'ov, band; **2.** *v* kishanlamoq, zanjirlamoq, kishan urmoq, zanjirband qilmoq

shade [ʃeɪd] **1.** *n* soya, ko'lanka; **in the** ~ soyada; **2.** *v* qorong'i qilmoq, qorong'lash-tirmoq

shadow [ʃædəʊ] **1.** *n* soya; ko'lanka; qorong'ilik; **2.** *v* soya tashlamoq; xafa qilmoq
shadowy [ʃædəʊ] *a* xira, noaniq, o'zgarib turadigan

shady [ʃeɪdi] *a* 1) sersoya, soya-salqin; 2) shubhali, qorong'i; dargumon; 3) yomon, sifati past, buzuc

shaft [ʃɑ:ft] *n* dasta, sop, yog'och
shaggy [ʃægi] *a* serjun, yungi uzun
shake [ʃeɪk] **1.** *v* (**shook**; **shaken**) tebratmoq, silkitmoq; qoqmoq, qimirlatmoq; **2.** *n* 1) titrash; **to** ~ **with** ...dan titramoq (qaltiramoq); 2) qo'l berib so'rash

shaken ['ʃeɪkən] *p. p. of shake 1*

shake-up [ʃeɪk'ʌp] *n* (*lavozimli shaxslar*) o'rini almashtirmoq

shaky [ʃeɪki] *a* liqitlab (qimirlab, chayqalib) turadigan, shaloq, bo'sh, liqildoq

shall [ʃæl] *v* (**should**) *birinchi shaxs birlik va ko'plik sonlarda kelasi zamon shaklini yasovchi yordamchi fe'l*

shallow [ʃæləʊ] **1.** *a* sayoz, uncha chuqur bo'lmagan, yuza, yassi; **2.** *n* sayozlik, sayoz joy; **3.** *v* sayozlashmoq, suvi pasaymoq

shallowness [ʃæləʊnəs] *n* 1) mayda-chuyda narsalar, jonivorlar; 2) mayda bolalar; 3) sayozlik

sham [ʃæm] *n* mug'ambirlik, yasamalik, soxtalik, munofiqlik, ayyorlik

shamble [ʃæmb(ə)l] **1.** *n* beso'naqay yurish; **2.** *v* oyog'ini sudrab bosmoq, sudralib bormoq

shambles [ʃæmb(ə)lz] *n* 1) tartibsizlik, to's-to'polon; 2) xaroba, vayrona, xaroblik, vayronalik

shame [ʃeɪm] **1.** *n* uyat, sharm, hayo, or, nomus, ibo, uyalish; **2.** *v* uyaltirmoq; uyatga qo'ymoq

shamefaced [ʃeɪm'feɪst] *a* uyatchan, tortinchoq; iboli

shameful [ʃeɪmf(ə)l] *a* uyat, uyatli, uyatga qoldiradigan, sharmanda qiladigan

shameless [ʃeɪmləs] *a* uyatsiz, nomussiz, xayosiz, behayo, sharmanda

shammy [ʃæmi] *n* zamsha (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmatsimon charm*)

shampoo [ʃæm'pu:] *n* 1) shampun; 2) bosh yuvish

shamrock [ʃæmrək] *n* *bot.* sebarga, uchbarg (*masalan, beda*)

shandy(gaff) [ʃændɪ(gæf)] *n* pivoning limonad bilan aralashmasi

shank [ʃænk] *n* 1) boldir; 2) oyoq; 3) oyoqning kafti (*tovon bilan barmoqlar o'rta-si*)

shantytown [ʃæntɪtaʊn] *n* xarob mahallalardan iborat bo'lgan shaharcha

shape [ʃeɪp] *n* shakl, ko'rinish, qiyofa
shapeless [ʃeɪpləs] *a* shaklsiz, qolipsiz

shapely [ʃeɪpli] *a* kelishgan, qomatli
share [ʃeə] **1.** *n* ulush, qism; **2.** *v* baham ko'rmoq, bo'lmoq, taqsimlamoq; **to** ~ **money among three men** pulni uch kishiga bo'lib bermoq

shareholder [ʃeə'həʊldə] *n* aksiya egasi, aksiyador; sherik

shark [ʃɑ:k] **1.** *n* 1) *zool.* akula, nahang; 2) tovlamachi, yulg'ich; **2.** *v* qo'rqitib undirmoq, tovlamoq, yulmoq

- sharp** [ʃɑ:p] *a* 1) keskin, o'tkir, uchli, qirrali; 2) mazasi (ta'mi) o'tkir
- sharpen** [ʃɑ:pən] *v* uchini chiqarmoq, o'tkirlamoq, charxlamoq
- sharpener** [ʃɑ:p(ə)nə] *n* 1) qayroqtosh, qayroq; 2) charx (*pichoq va boshqa asboblarni charxlab o'tkirlaydigan asbob*)
- sharper** [ʃɑ:pə] *n* firibgar, qallob, muttaham
- sharply** [ʃɑ:plɪ] *adv* shafqatsizlik bilan, zolimlarcha
- sharpness** [ʃɑ:pənəs] *n* o'tkirlik, keskirlik
- sharp-shooter** [ʃɑ:p,ʃu:tə] *n* mohir otuvchi, mergan
- shatter** [ʃætə] *v* sindirmoq, sindirib qo'y-moq, chilparchin qilmoq; sinmoq, parchalanmoq
- shattered** [ʃætəd] *a* singan, parchalangan
- shave** [ʃeɪv] *1. n* qirish, olish; *to have a ~* soch-soqolini olmoq *yoki* oldirmoq; *2. v* (*shaved, shaven*) soch-soqolini olmoq
- shaven** [ʃeɪv(ə)n] *p. p. of shave* *2*
- shaver** [ʃeɪvə] *n* ustara
- shaving-brush** [ʃeɪvɪŋbrʌʃ] *n* sartaroshlik cho'tkasi
- shavings** [ʃeɪvɪŋz] *n* qirindi, payraxa
- shawl** [ʃɔ:l] *n* shol ro'mol
- she** [ʃi:] *pers. pron. u* (*ayollar uchun*)
- sheaf** [ʃi:f] *n* (*pl sheaves*) bog', bog'lam, dasta
- shear** [ʃiə] *1. n* 1) *pl* qaychi; 2) kesish, qir-qish, butash; 3) *tex.* siljish; *2. v* (*sheared; sheared, shorn*) qirqmoq, kesmoq (*yung, soch, o't va h. k. haqida*)
- sheath** [ʃi:θ] *n* qin, g'itof; jild, quti
- sheathe** [ʃi:ð] *v* 1) g'itofga solmoq; 2) ustiga muqova o'rarmoq
- sheave** [ʃi:v] *n* 1) *tex.* g'ildirakcha; 2) naycha, g'altak (*tikuv va yigiruv mashinalarida*)
- sheaves** [ʃi:vz] *pl of sheaf*
- shed** [ʃed] *v* (*shed*) 1) (*barg*) to'kmoq; (*tish, soch*) to'karmoq, tushmoq; 2) to'kmoq (*ko'z voshi, qon va sh. k.*)
- sheen** [ʃi:n] *n* yaltirash, yarqirash, chaqnash; yaltiroqlik; yaltiroq (yorqin) nur, shu'la; jilva
- sheep** [ʃi:p] *n* qo'y, sovliq qo'y, qo'chqor; ~ *skin* qo'y terisi
- sheep-fold** [ʃi:pəʊld] *n* qo'yxona
- sheepish** [ʃi:pɪʃ] *a* 1) jur'atsiz, yuraksiz, qo'rqqoq; tortinchoq, uyatchan; 2) tentaknamo, ahmoqroq
- sheepskin** [ʃi:p,skɪn] *n* qo'y teri, ishlangan qo'y terisi
- sheer** [ʃiə] *1. a* qiyos qilinmasdan olingan, nisbiy emas; *2. adv* mutlaqo, sira, sira ham, aslo, hech
- sheers** [ʃiəz] *n* jo'mrak, chumak
- sheet** [ʃi:t] *n* 1) choyshab; 2) varaq (qog'oz)
- sheik(h)** [ʃeɪk] *n* shayx (*oqsoqol, jamoa yoki qabilaning boshlig'i*)
- shelf** [ʃelf] *n* (*pl shelves*) tokcha, javon
- shell** [ʃel] *1. n* 1) chig'anoq; 2) po'choq; *2. v* 1) chuyimoq; 2) po'chog'ini archmoq
- shellfish** [ʃel,fɪʃ] *n* *zool.* qisqichbaqasimonlar
- shell-proof** [ʃelpru:f] *a* artilleriya o'tidan (o'qidan) himoya etilgan
- shelter** [ʃeltə] *1. n* boshpana, uy-joy; *2. v* boshpana bermoq
- shelve** [ʃelv] *v* taxtadan qilingan tokchaga qo'yimoq
- shelves** [ʃelvz] *pl of shelf*
- shepherd** [ʃepəd] *1. n* cho'pon; *2. v* qo'y boqmoq
- sheriff** [ʃerɪf] *n* sherif (*ma'muriy amaldor hamda ayrim sud ishlarini olib boruvchi shaxs*)
- sherry** [ʃerɪ] *n* xeres (*kuchli uzum vinosining bir navi*)
- shield** [ʃi:ld] *n* g'ov, to'siq, qalqon
- shift** [ʃɪft] *1. n* o'zgarish; almashish; *2. v* o'zgarimoq, o'zgartirmoq
- shifty** [ʃɪftɪ] *a* topqir, topag'on, darrov o'y-lab topadigan; ijodkor, tadbirkor; epcil, chaqqon
- shilling** [ʃɪlɪŋ] *n* shilling (*Angliya funt sterlingning 1/20 ga teng tanga puli*)
- shilly-shally** [ʃɪlɪ,ʃæli] *a* ikkilanuvchi, jur'atsiz, qat'iyatsiz
- shimmer** [ʃɪmə] *n* miltillamoq, miltillab (jimillab) ko'rinmoq, milt-milt o'chmoq, milt-milt etib ko'rinib turmoq
- shin** [ʃɪn] *1. n* boldir; *2. v* o'rmlamoq, tirmashmoq; o'rmlab (tirmashib) chiqmoq
- shindy** [ʃɪndɪ] *n* so'zl. 1) shovqin, shovqin-suron, g'ovur-g'uvur, shov-shuv, to'polon, junjal, mojaro; sharmandalik; 2) quvnoq kayfiyat, xushchaqchaqlik
- shine** [ʃaɪn] *1. n* 1) yaltirash; yarqirash; 2) nur sochish; *2. v* (*shone*) yaltiramoq, yarqiramoq, nur sochmoq
- shingle I** [ʃɪŋg(ə)] *n* tom yopish uchun ishlatiladigan taxtachalar
- shingle II** [ʃɪŋg(ə)] *n* shag'al, mayda tosh
- shingles** [ʃɪŋg(ə)lz] *n* *pl* *fib.* temiratki
- shining** [ʃaɪnɪŋ] *a* yorug', yorqin, charaqlagan, loyullagan; quyoshli, porloq
- shiny** [ʃaɪnɪ] *a* quyoshli, yarqiroq, yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiragan
- ship** [ʃɪp] *1. n* kema; *by* ~ kema bilan; *to take* ~ kemaga o'tirmoq; *2. v* 1) kemaga yuklamoq; 2) kemaga o'tirmoq
- shipbuilding** [ʃɪp,bɪldɪŋ] *n* kemasozlik, kema qurish

shipmate [ˈʃɪpmɪt] *n* kemada birga suzadigan o'rtoq (shirik)

shipment [ˈʃɪpmənt] *n* 1) (kemaga) yuk ortish; 2) (yuk) jo'natish

shipping [ˈʃɪpmɪŋ] *n* 1) dengiz floti; 2) kemaga yuk ortish, jo'natish, yuk tushirish; 3) kemachilik

shipshape [ˈʃɪpʃeɪp] 1. *a* batartib, saranjom-sarishta; 2. *adv* tartib va ehtiyotlik bilan

shipwreck [ˈʃɪprek] 1. *n* kema halokati; 2. *v* kema halokatiga uchramoq

shipyard [ˈʃɪpjɑːd] *n* kemalar qilinadigan zavod

shire [ˈʃaɪə] *n* graflik (1. graf unvoni; 2. Angliya, AQSH va boshqa ba'zi mamlakatlarda: yirik ma'muriy bo'linish, viloyat)

shirk [ʃɜːk] *v* chap bermoq, o'zini chetga olmoq, chap berib omon qolmoq; qutulib qolmoq

shirt [ʃɜːt] *n* erkaklar ko'ylagi

shirt-sleeve [ˈʃɜːt,slɪːv] *n* (odatda, *pl*) ko'y-lakning yengi

shirty [ˈʃɜːtɪ] *a* so'zl. g'azablangan, achchiqlangan, asabiylashgan, darg'azab

shiver [ˈʃɪvə] 1. *n* titrash, titroq, qaltirash; 2. *v* titramoq, qaltiramoq, qaltiroq bosmoq; **to ~ with** ...dan titramoq (qaltiramoq)

shivery [ˈʃɪv(ə)rɪ] *a* mo'rt, sinuvchan, tez sinadigan

shoal I [ʃəʊl] 1. *n* sayozlik, sayoz joy; 2. *v* sayozlashmoq, suvi pasaymoq

shoal II [ʃəʊl] *n* 1) baliq to'dasi, uyumi; 2) ko'p, juda ko'p

shock [ʃɒk] 1. *n* 1) zarba, to'qnashuv; 2) tebranish, titrash; 3) hayajon, iztirob; ruhiy larza; **to be ~ed at/by** ...dan larzaga kelmog; 2. *v* hayratda qoldirmoq, hayron qoldirmoq, lol (qoyil) qoldirmoq

shocking [ˈʃɒkɪŋ] *a* 1) hayratda qoldiradigan, juda kuchli; 2) janjalli, dahshatli, juda yomon; 3) juda rasvo, yomon

shod [ʃɒd] *past., p. p. of shoe* 2

shoddy [ˈʃɒdi] 1. *n* o'ziga bino qo'yganlik, serishvalik; 2. *a* yasama, soxta, qalbaki

shoe [ʃuː] 1. *n* oyoq kiyimi; 2. *v* 1) poyabzal kiygizmoq, oyoq kiyimini kiygizib qo'y-moq; 2) taqalamoq, taqa qoqmoq

shoe-horn [ˈʃuːhɔːn] *n* belecha, qoshiq (oyoq kiyimini kiyishda ishlatiladigan asbob)

shoe-lace [ˈʃuːleɪs] *n* botinka ipi (bog'ichi)

shoemaker [ˈʃuːmeɪkə] *n* etikdo'z; yamoqchi

shone [ʃəʊn] *past., p. p. of shine*

shoo [ʃuː] 1. *int.* kish-sh! (qushlarni qo'r-qitish uchun); 2. *v* qo'rqitmoq, haydamoq, hurkitmoq

shook [ʃʊk] *past. of shake* 1

shoot [ʃuːt] *v* (shot) otmoq, otib tashlamoq

shooting-gallery [ˈʃuːtɪŋ,ɡæləri] *n* tir (ni-shonga otishni mashq qilish uchun moslan-gan bino)

shooting star [ˈʃuːtɪŋˈstɑː] *n* uchar yulduz

shop [ʃɒp] 1. *n* 1) magazin; 2) do'kon, usta-xona, **from ~ to ~** do'kondan do'konga; 2. *attr.* **a ~ assistant** sotuvchi

shopkeeper [ˈʃɒp,ki:pə] *n* do'kondor, baq-qol, attor

shoplift [ˈʃɒp,lɪft] *v* do'kondan (magazin-dan) o'g'irlamoq

shop-steward [ˈʃɒpˈstjuəd] *n* sex boshlig'i

shop-window [ˈʃɒp,wɪndəʊ] *n* ko'rgazma oynasi

shore [ʃɔː] *n* qirg'oq, sohil, lab, bo'y (den-giz, ko'l, daryoda); **on ~** sohilida, labida, bo'yida

shoreward [ˈʃɔːwəd] 1. *a* qirg'oq tomonga harakat qiluvchi; 2. *adv* qirg'oq tomonga

shorn [ʃɔːn] *p. p. of shear* 3

short [ʃɔːt] *a* 1) qisqa, kalta; 2) yaqin; 3) past bo'yli (kish haqida); 4) shortik, kalta ishton

shortage [ˈʃɔːtɪdʒ] *n* yetishmaslik, kamlik, yetishmovchilik, yo'qchilik, tanqislik

shortbread [ˈʃɔːtbred] *n* qumoq (uvalanib ketadigan) pishiriq

short-circuit [ˈʃɔːtˈsɜːkɪt] *n* *el.* qisqa tuta-shuv

shortcoming [ˈʃɔːt,kʌmɪŋ] *n* kamchilik, nuqson, yetishmovchilik

shorten [ˈʃɔːtn] *v* qisqartirmoq, kaltaroq (qisqaroq) qilmoq

shorthand [ˈʃɔːθænd] *n* stenografiya (*matn-ni shartli belgilar bilan tez yozib olish*)

shortlived [ˈʃɔːtˈlɪvd] *a* umri qisqa (kalta), uzoq yashamaydigan, uzoqqa bormaydi-gan, o'tkinchi

shortly [ˈʃɔːtli] *adv* 1) tez, ko'p o'tmay, tez orada, darrov; 2) sal oldin, ilgariroq; 3) qis-qacha, qisqa, qisqa qilib

shorts [ˈʃɔːts] *n* *pl* 1) trusik, kalta ishton; 2) shorti (*trusiksimon kalta shim*)

short-sighted [ˈʃɔːtˈsaɪtɪd] *a* uzoqni ko'rol-maydigan, yaqindan ko'ra oladigan, yaqin-ni ko'ruvchi

short-tempered [ˈʃɔːtˈtempəd] *a* jizzaki, jirtaki, o'zini tutib turolmaydigan, serjahl, salga jahli chiqib ketaveradigan

shot I [ʃɒt] *n* to'p (zambarak) o'qi

shot II [ʃɒt] *a* jaranglaydigan, yangraydigan

should [ʃʊd] 1. *past. of shall*; 2. *v* kerak, lozim (*maslahat berganda*)

shoulder [ˈʃəʊldə] 1. *n* yelka, kurak suyagi; **~ to ~** yelkama-yelka; yonma-yon; 2. *v* 1) yelka bilan surib (itarib, turtib) yubor-moq; 2) yelkasiga ko'tarib olmoq; 3) o'z bo'yniga olmoq

- shoulder-blade** [ˈʃəʊldəbleɪd] *n anat.* kurak, kurak suyagi
- shoulder-strap** [ˈʃəʊldəstræp] *n 1) harb.* pogon; 2) kiyimosgich
- shout** [ʃaʊt] *1. n* qichqirish, baqirish, qiyqiriq, hayqiriq; *to ~ at ...ga* baqirmoq; *2. v* qichqirmoq, baqirmoq, qiyqirmoq, hayqirmoq
- shove I** [ʃəʊv] *1. n 1)* turtish, itarish, urish; zarba; *2)* ishdan bo'shatish; *2. v* itarmoq, turtmoq, itarib yubormoq
- shove II** [ʃəʊv] *n* o'zak (*zig'ir, nasha, kanop va sh. k. o'simliklar o'zagi*)
- shovel** [ˈʃəʊvəl] *n 1)* kurak, kurakcha, xokandoz; *2) q. x.* plug tishi
- show** [ʃəʊ] *1. n 1)* ko'rsatish, tomosha; *2)* spektakl; *3)* ko'rgazma; *2. v (showed; showed, shown)* ko'rsatmoq, namoyish etmoq
- show-down** [ˈʃəʊdaʊn] *n* o'z sirini (niyatini) ochib (bildirib) qo'yish
- shower** [ˈʃəʊə] *1. n 1)* jala; qattiq yomg'ir; *2)* dush; *2. v 1)* jala quymoq, shovullab yog'moq; *2)* dush qabul qilmoq
- shower-bath** [ˈʃəʊəbɑːθ] *n* dush
- show jumping** [ˈʃəʊdʒɑːmpɪŋ] *n sport.* ot chopish musobaqasi; konkur
- shown** [ʃəʊn] *p. p. of show 2*
- show-room** [ˈʃəʊruːm, -rɒm] *n* ko'rgazma zali
- show-window** [ˈʃəʊwɪndəʊ] *n* magazin dera-zasi (oynasi)
- showy** [ˈʃəʊɪ] *a 1)* ta'sirchan, kuchli taassurot qoldiradigan, yorqin, ko'zga tashlanadigan; *2)* ajoyib, hayratlanarli
- shrank** [ʃræŋk] *v past. of shrink*
- shred** [ʃred] *n* bir parcha, kichkina, ozgina, parcha, burda, bo'lak
- shrew** [ʃruː] *n 1)* zool. yerqazar (*hasharot*); *2)* janjalkash xotin
- shrewd** [ʃruːd] *a 1)* aqlli, oqil, miyali, fahm-farosatli; *2)* o'tkir, ziyrak, sezgir
- shrewish** [ˈʃruːɪʃ] *a* ming'ir-ming'ir, mij-g'ov; janjalkash
- shriek** [ʃriːk] *1. n* qattiq chinqirish (baqirish); *2. v* qattiq qichqirmoq, chinqirib baqirmoq
- shrill** [ʃrɪl] *a* qattiq, kuchli, o'tkir, shiddatli
- shrimp** [ʃrɪmp] *n zool.* mayda qisqichbaqa
- shrine** [ʃraɪn] *n* maqbara, qabr
- shrink** [ʃrɪŋk] *v (shrank, shrunk; shrunk, shrunken) 1)* (*yuzni yoki peshanani*) burushtirmoq, tirishtirmoq, bujmaytirmoq; *2)* qovjiramoq, bujmaymoq, qisqarmoq; *3)* kamaymoq, qisqarmoq; *4)* qurib qolmoq
- shrivel** [ˈʃrɪvəl] *v* bujmaytirmoq, burushtirmoq, qurib (so'lib) qolmoq
- shroud** [ʃraʊd] *n 1)* kafan; *2)* biror narsani qoplab turadigan parda, qatlam
- Shrovetide** [ˈʃrəʊvtɑɪd] *n* qishni kuzatish bayrami, maslenitsa
- shrub I** [ʃrʌb] *n* buta, buta o'simlik
- shrub II** [ʃrʌb] *n esk.* meva sharbati va araqdan qilingan ichimlik
- shrubbery** [ˈʃrʌb(ə)rɪ] *n 1)* butazor, changalzor; *2)* xiyobon
- shrug** [ʃrʌg] *1. n* yelka qisish; *2. v* yelka-si(ni) qismoq
- shrunk** [ʃrʌŋk] *past., p. p. of shrink*
- shrunken I** [ˈʃrʌŋkən] *a* bujur, burushgan, tirishgan, ajin bosgan, burushiq
- shrunken II** [ˈʃrʌŋkən] *p. p. of shrink*
- shudder** [ˈʃʌdə] *v 1. n* titrash, qaltirash, seskanish, iztirobga (larzaga) kelish; *2. v* titramoq, qaltiramoq, seskanmoq, iztirobga (larzaga) kelmoq
- shuffle** [ˈʃʌf(ə)l] *n* sharaqlash, shaldirash; shitirlash, shitirlatish
- shun** [ʃʌn] *v* qochmoq, o'zini chetga olmoq, chap bermoq
- shunt** [ʃʌnt] *n tem.y.* zaxiradagi (ehtiyotdagi) yo'lga surib qo'yish
- shut** [ʃʌt] *v (shut) 1)* yopmoq, bekilmoq; bekitmoq; *2)* yopmoq, ishini to'xtatmoq
- shutter** [ˈʃʌtə] *n* deraza eshigi
- shy** [ʃaɪ] *1. a 1)* uyatchan, tortinchoq; *2)* qo'rqoq, qo'rqadigan, cho'chiydigan, hurkadigan; *2. v 1)* ikkilanmoq, jur'at qilolmaslik; *2)* qo'rqmoq, cho'chimoq, hurkmoq
- sibilant** [sɪbɪlənt] *a* chiyildoq; guvullagan, shovullagan; xushtaksimon ovoz chiqaradigan
- sick** [sɪk] *a 1)* kasal; betob, xasta; *2)* charchagan
- sicken** [ˈsɪkən] *v 1)* kasal bo'lmoq; *2)* ko'ngil aynimoq
- sickle** [ˈsɪk(ə)l] *n* o'roq, qo'l o'roq
- sick-leave** [ˈsɪkli.v] *n* kasallik tufayli olingan mehnat ta'tili
- sick-list** [ˈsɪklist] *n 1)* bemorlar ro'yxati; *2)* kasallik varaqasi
- sickness** [ˈsɪknəs] *n 1)* kasallik, xastalik, kasal, dard, og'riq; *2)* ko'ngil aynish, behuzur bo'lish
- side** [saɪd] *n 1)* tomon, taraf; yoq; *from ~ to ~ u* tomondan bu tomonga; *2)* yon, yonbosh, biqin; *- by ~* yonma-yon
- sideboard** [ˈsaɪdbɔːd] *n 1)* kichkina yemak-xona; *2)* idish javoni, servant
- side-car** [ˈsaɪdkɑː] *n* kolaskali mototsikl, kajavali mototsikl
- side-line** [ˈsaɪdlaɪn] *n 1)* qo'shimcha ish; *2)* yon chiziq

sidelong [ˈsaɪdlɒŋ] 1. *a* yon tomondagi, yonboshdagi; qiya, qiyshiq; 2. *adv* yon tomonga, qiyshayib; yon-tomon bilan
side-slip [ˈsaɪdˌslɪp] 1. *n* av. samolyotning bir tomonga ogʻishi; 2. *v* bir tomonga egilmoq (*samolyot haqida*)
side-track [ˈsaɪdtræk] *n* zaxira (temir) yoʻl
side-view [ˈsaɪdvjuː] *n* yon tomon, yon tomondan koʻrinish
sidewalk [ˈsaɪdwɔːk] *n* trotuar, yoʻlka
sideward(s) [ˈsaɪdwəd(z)] = **sideways**
sideways [ˈsaɪdweɪz] *adv* qiyasiga, qiyalab, qiya qilib, yon bilan, yonboshlab
siding [ˈsaɪdɪŋ] *n* tem. y. tarmoq (*temir yoʻl tarmogʻi*)
sidle [ˈsaɪdl] *v* 1) yon tomon bilan harakat qilmoq; 2) yashirincha (bekinib, pisib, sezdirmasdan) yurmoq
siege [siːdʒ] *n* qamal qilish, oʻrab olish, qamal qilinish, oʻrovda qolish
siege-gun [ˈsiːdʒən] *n* muhosara quroli (*toʻpi, zamburagi*)
sienna [siˈenə] *n* toʻq sariq tabiiy boʻyoq
sieve [sɪv] 1. *n* elak, gʻalvir, suzgʻich; 2. *v* elamoq, elakdan (gʻalvirdan) oʻtkazmoq
sift [sɪft] *v* elamoq, elakdan (gʻalvirdan) oʻtkazmoq
sigh [saɪ] *n* nafas, dam, nafas olish va chiqarish, xoʻrsinish, uflash
sight [saɪt] *n* 1) qarash, koʻrish; **at first** ~ bir koʻrishda, birinchi qarashda; **in** ~ koʻrish maydonida (*doirasida*); **within** ~ koʻrsa boʻladigan masofada; **to come in** ~ of nimanidir koʻrmoq; 2) diqqatga sazovor joylar; 3) nuqtayi nazar
sightless [ˈsaɪtləs] *a* koʻrmaydigan, ojiz, koʻr, soʻqir
sightly [ˈsaɪtlɪ] *a* chiroyli, koʻrkli, koʻrkam, koʻzga yoqadigan
sightseeing [ˈsaɪtˌsiːɪŋ] *n* diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish; **to go** ~ diqqatga sazovor joylarni tomosha qilmoq
sign [saɪn] 1. *n* 1) belgi, alomat; 2) imo, ishora; 3) ramz; 2. *v* imo (ishora) qilmoq
signal [ˈsɪgn(ə)l] 1. *n* alomat, ishora, xabar, belgi; 2. *v* xabar bermoq
signal-book [ˈsɪgn(ə)lˌbʊk] *n* signal kitobi
signal-box [ˈsɪgn(ə)lˌbɒks] *n* tem. y. markazlashtirilgan post (*kuzatish, nazorat qilish yoki boshqarish joyi*)
signalize [ˈsɪgnəlaɪz] *v* 1) belgilamoq, belgi qoʻymoq, belgi solmoq; 2) signal bermoq, ogohlantirmoq, xabar bermoq
signalman [ˈsɪgnəlˌmæn] *n* (*pl* -men [-mən]) signal beruvchi, signalchi

signatory [ˈsɪgnət(ə)ri] 1. *n* bitimga qoʻl qoʻygan davlatlar; 2. *a* (*qandaydir hujjatga, asosan, bitimga*) imzo chekuvchi
signature [ˈsɪgnətʃə] *n* 1) imzo, qoʻl; 2) imzo chekish, qoʻl qoʻyish
signboard [ˈsɪnbɔːd] *n* korxon, muassasa va sh. k. ning nomi yozilgan va kiraverishga osib qoʻyiladigan lavha
signet [ˈsɪgnɪt] *n* tangʻa, muhr, pechat
significance [sɪgˈnɪfɪkəns] *n* 1) ahamiyat, mohiyat; 2) maʼno, mazmun; 3) maʼnodorlik, mazmundorlik, sermazmunlik, sermaʼnolik
significant [sɪgˈnɪfɪkənt] *a* muhim, ahamiyatli, katta ahamiyatga ega boʻlgan, arziguli
significantly [sɪgˈnɪfɪkəntli] *adv* 1) maʼnodor qilib, maʼnoli, maʼnodor, katta ahamiyatga molik qilib; 2) sezilarli darajada
signification [ˌsɪgnɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* maʼno, mazmun, maʼni, ahamiyat, mohiyat
signify [ˈsɪgnɪfaɪ] *v* 1) anglatmoq, ifoda etmoq; 2) maʼno anglatmoq, maʼno bermoq
signpost [ˈsaɪnpəʊst] *n* koʻrsatkich (*yozuv, strelka, asbob*)
silage [ˈsaɪlɪdʒ] *n* silos (*maydalab maxsus tayyorlangan chorvabop xashak va shunday xashak saqlanadigan qurilma*)
silence [ˈsaɪləns] *n* jimlik, sukunat, sukut saqlash, jimjitlik
silencer [ˈsaɪlənsə] *n* tex. glushitel (*ovozni, shovqinni pasaytiradigan asbob, mostama*)
silent [ˈsaɪlənt] *a* indamas, gapirmas; tilsiz, soqov
silhouette [ˌsɪluːˈet] *n* fr. bir rangda ishlangan kontur surat
silica [ˈsɪlɪkə] *n* chaqmoqtosh
silk [sɪlk] 1. *n* 1) ipak; 2) *pl* ipak ip; 2. *a* ipakka (shoyiga, pillaga) oid; ~ **worm zool.** ipak qurti
silken [ˈsɪlkən] *a* 1) ipakka (shoyiga, pillaga) oid; 2) ipakdek mayin, ipaksimon
silk-mill [ˈsɪlkmɪl] *n* ipak yigirish fabrikasi
silkworm [ˈsɪlkwɜːm] *n* zool. ipak qurti
silky [ˈsɪlki] *a* ipakdek mayin, ipaksimon, ipakka oʻxshagan
sil [sɪl] *n* derazaning tokchasi, deraza rafi
silly [ˈsɪli] *a* tentak, ahmoq, aqli kam, aqli (past) zaif
sil [ˈsaɪlə] 1. *n* (*pl* -os [-əʊz]) silos chuquri; silos minorasi; silos (*maydalab maxsus tayyorlangan chorvabop xashak va shunday xashak saqlanadigan qurilma*); 2. *v* siloslamoq, silos qilmoq
silt [sɪlt] *n* loyqa, balchiq
silver [ˈsɪlvə] 1. *n* kumush; 2. *v* kumush yugurtirmoq; 3. *a* kumush yugurtirilgan

- similar** [ˈsɪmlə] *a* o'xshash, o'xshagan, bir xil, bir xildagi
- similarity** [ˌsɪməˈlærɪti] *n* o'xshashlik, bir xillik, bir xil bo'lish
- similitude** [sɪˈmɪlɪtjuːd] *n* o'xshashlik, bir xillik
- simmer** [ˈsɪmə] *v* sekin qaynay boshlamoq, qaynamoq, qaynab chiqmoq
- simper** [ˈsɪmpə] *n* nozli tabassum
- simple** [ˈsɪmp(ə)] *a* 1) oddiy, sodda; 2) qismlarga bo'linmaydigan, bo'laklarga ajralmaydigan; **a** - **fraction** oddiy kasr
- simple-hearted** [ˌsɪmp(ə)ˈhɑːtɪd] *a* ochiqko'ngil, soddadil, sofdil; sodda, ko'ngilchan
- simple-minded** [ˌsɪmp(ə)lˈmaɪndɪd] *a* 1) sodda, to'g'ri; 2) esi kirmagan, go'l
- simpleton** [ˌsɪmp(ə)lɪ(ə)n] *n* soddadil odam, go'l odam
- simplicity** [sɪmˈplɪsɪti] *n* 1) oddiylik, soddalik; 2) soddadillik, go'llik
- simplification** [ˌsɪmplɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* soddalashtirish, osonlashtirish
- simplify** [ˈsɪmplɪfaɪ] *v* soddalashtirmoq, osonlashtirmoq
- simplistic** [sɪmˈplɪstɪk] *a* soddalashgan, sodda, yuzaki
- simply** [ˈsɪmplɪ] *adv* osonlik bilan, osongina, qiynalmay
- simulate** [ˈsɪmjuleɪt] *v* simulatsiya qilmoq, o'zini yolg'ondan biror ko'ygga solmoq, mug'ambirlik qilmoq
- simulation** [ˌsɪmjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* simulatsiya, o'zini yolg'ondan biror ko'ygga solish, mug'ambirlik qilish
- simultaneity** [ˌsɪm(ə)lɪtəˈniːti] *n* baravar yuz berish, ayni bir vaqtda bo'lish
- simultaneous** [ˌsɪm(ə)lˈteɪniəs] *a* bir paytda (vaqtda) bo'lgan, bo'ladigan; birdan (bir yo'la) qilinadigan; baravar yuz bergan (yuz beradigan)
- sin** [sɪn] 1. *n* gunoh; 2. *v* gunoh qilmoq
- since** [sɪns] 1. *adv* shundan (o'shandan) beri; 2. *prep.* ...dan keyin
- sincere** [sɪnˈsɪə] *a* samimiy, sofko'ngil, sofdil, ochiqko'ngil, chin yurakdan (qalbdan) aytilgan (qilingan)
- sincerely** [sɪnˈsɪəltɪ] *adv* samimiylik (sofdillik) bilan, chin yurakdan
- sincerity** [sɪnˈsɪərɪti] *n* samimiylik, samimiyat, ochiqko'ngillik, sofdillik
- sine** [saɪn] *n* *mat.* sinus (burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbati)
- sinew** [ˈsɪnjuː] *n* 1) pay, chandir; 2) *pl* muskullar, mushaklar
- sinful** [ˈsɪnf(ə)] *a* gunohkor, gunohli; osiy
- sing** [sɪŋ] *v* (**sang**; **sung**) kuylamoq, ashula aytmoq
- singe** [sɪndʒ] *n* kuyish, kuyib qolish; kuydirish
- singer** [ˈsɪŋə] *n* 1) ashulachi, qo'shiqchi; hofiz; 2) kuychi, shoir, baxshi
- singing** [ˈsɪŋɪŋ] *n* ashula (qo'shiq) aytmoq, kuylamoq
- single** [ˈsɪŋɡ(ə)] *a* yolg'iz, yakka
- single-breasted** [ˌsɪŋɡ(ə)lˈbrɛstɪd] *a* bir yoqlama tugmali
- single-handed** [ˌsɪŋɡ(ə)lˈhændɪd] 1. *a* 1) chetdan yordam olmay (o'z kuchi bilan) qilingan; 2) bir qo'lli, bir qo'li yo'q (yoki cho'loq); 2. *adv* begona kishilarning yordamisiz
- single-hearted** [ˌsɪŋɡ(ə)lˈhɑːtɪd] *a* ochiq, oshkora, ro'yirost
- single-minded** [ˌsɪŋɡ(ə)lˈmaɪndɪd] *a* aniq bir maqsadga qaratilgan
- single-seater** [ˌsɪŋɡ(ə)lˈsiːtə] *n* bir o'rinli mashina yoki samolyot
- singlet** [ˈsɪŋɡlɪt] *n* 1) fufayka (*issiq to'qima ko'ylak*); 2) mayka
- singly** [ˈsɪŋɡli] *adv* boshqalardan ajralgan holda, bo'lak qilib, alohida olib, boshqaboshqa, alohida-alohida, mustaqil ravishda
- singsong** [ˈsɪŋsɒŋ] *a* bir ohangdagi, bir ovoqli
- singular** [ˈsɪŋɡjələ] *n* *gram.*: **the** - birlik son
- sinister** [ˈsɪnɪstə] *a* 1) dahshatli, vahimali; shum; 2) badjahl, jahldor, qahrli; yovuz
- sink** [sɪŋk] *v* (**sank**; **sun**) cho'kmoq, botmoq, g'arq bo'lmoq
- sinking-fund** [ˈsɪŋkɪŋfʌnd] *n* amortizatsiya (chegirma) fondi
- sinless** [ˈsɪnləs] *a* gunohi yo'q, gunohsiz, begunoh
- sinner** [ˈsɪnə] *n* gunohkor, osiy
- sinter** [ˈsɪntə] *n* shlak, toshqol (1. *metall eritilganda qolgan qotishma*; 2. *qattiq yonilg'ularning kulga aylangan qoldig'i*)
- sinuous** [ˈsɪnjuəs] *a* 1) egri-bugri, ilonizi; 2) murakkab, og'ir; 3) ayyor, mug'ambir, nosamimiy
- sinus** [ˈsaɪnəs] *n* (*pl* -es [-z]) 1) *anat.* bo'shliq (*tananing biror organidagi bo'shliq*); 2) *tib.* teshik yara, yara teshigi
- sip** [sɪp] *v* ho'plamoq, ho'plab qo'ymoq, sekin-asta (oz-ozdan) ichmoq, qultumlab (oz-ozdan ho'plab, mazasini totib) ichmoq
- siphon** [ˈsaɪf(ə)n] *n* sifon (*yuqoriroqdagi idishdan pastroqdagi idishga suyuqlik o'tkazadigan bukik navcha*)
- sir** [sɜː] *n* janob, taqsir (*murojaatda*)
- siren** [ˈsaɪərən] *n* 1) sirena (*yunon afsonalarida: boshi ayol, tanasi qush qiyofasidagi suv parisi*); 2) havo xatarining signali (ishorasi)

sirloin [ˈsɜ:lɔɪn] *n* lahm go'sht, suyaksiz go'sht
siskin [ˈsɪskɪn] *n zool.* sa'va
sissy [ˈsɪsi] *n* xotinchalish erkak
sister [ˈsɪstə] *n* opa, singil
sisterly [ˈsɪstəli] *a* opa-singillarcha
sit [sɪt] *v* (sat) o'tirmoq; **to ~ down** o'tirmoq
site [saɪt] *n* turgan joy, o'mashgan (ishg'ol qilgan) joy, joylashgan joy
sitter-in [ˌsɪtər ˈɪn] *n* enaga, bolaga qarovchi ayol
sitting [ˈsɪtɪŋ] *n* yig'ilish, kengash, majlis
sitting-room [ˈsɪtɪŋru:m, -rʊm] *n* mehmon-xona
situate [sɪtʃueɪt] *v* o'rnatmoq, joylashtirmoq
situated [sɪtʃueɪtɪd] *a* joylashgan, joylashtirilgan
situation [ˌsɪtʃuˈeɪʃ(ə)n] *n* ahvol, vaziyat, sharoit
six [sɪks] *num. card.* olti; **~teen** o'n olti; **~th** oltinchi
six-shooter [ˌsɪks ˈʃu:tə] *n* olti o'qli to'pponcha
sixtieth [ˈsɪksɪtθ] *num. ord.* oltmishinchi
sixty [ˈsɪksɪ] *num. card.* oltmish
sizable [ˈsaɪzəb(ə)l] *n* katta (o'lcham)
size [saɪz] *n* o'lcham, katta-kichiklik
sizzle [ˈsɪz(ə)l] *n* vishillash, pishillash, shillash, vijillash, vij-vij
skate [skeɪt] *v* konkida uchmoq
- totally** [təʊt(ə)li] *adv* to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila
- totter** ['tɒtə] *v* 1) oqsoqlanmoq, sudralmoq, oyoqlarini sudrab qadam tashlamoq; 2) tebranmoq, liqillamoq; 3) halokatga uchramoq, tanazzulga yuz tutmoq
- touch** [tʌtʃ] *v* tegmoq, turtmoq, qo'l tegizmoq
- touch-and-go** [tʌtʃən(d) 'gəʊ] *a* 1) xavfli, xatarli, tablikali, qaltis; 2) chala-chulpa, yuzaki, naridan beri qilingan
- touched** [tʌtʃt] *a* hayajonlangan, to'liqinlangan, tashvishli, iztirobli
- touching** [tʌtʃɪŋ] 1. *a* ta'sirli, ko'ngilni yumshatadigan, eritadigan; 2. *prep.* haqida, to'g'risida: taalluqli, tegishli, doir
- touchy** [tʌtʃɪ] *a* salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan; ta'bi nozik, terisi yupqa
- tough** [tʌf] 1. *a* qattiq, zich, tig'iz, qalin; 2. *n* bezori, xuligan
- toughen** [tʌf(ə)n] *v* 1) qattiq bo'lmoq; qotmoq; 2) qattiq qilmoq; **a ~ing-up course** katta kuch bilan (qattiq) mashg'ulot o'tkazadigan kurs
- tour** [tʊə] *n* sayohat, sayr
- tourism** ['tʊərizm] *n* turizm
- tourist** ['tʊə(ə)rɪst] *n* sayyoh, sayohatchi
- tournament** ['tʊənəmənt] *n* musobaqa, poyga, turnir
- tousle** ['təʊz(ə)l] *v* tutamlamoq, tutamlab paxmoq qilmoq (*sochni, soqolni*)
- tout** [taʊt] 1. *n* qo'yarda-qo'yumay (zo'rliab) chaqirib kelish, qistab chaqirish, chorlash; 2. *v* 1) mollarni zo'rliab o'tkazmoq; 2) mijozlarni qistab chaqirmoq
- tow I** [təʊ] 1. *n* 1) pishiq arqon, arg'amchi, chilvir; 2) shatakka olish, shatakka olib tortish; 2. *v* deng. shatakka olmoq
- tow II** [təʊ] *n* kanop yoki zig'irpoyaning titilgan tolası
- towards** [tə'wɔːdz] *prep.* -ga, -ga qarab, tomonga, tarafga
- towel** ['təʊəl] *n* sochiq
- towel-horse** ['təʊəl'hɔːs] *n* sochiq ilib qo'yiladigan ilgak
- tower** ['təʊə] *n* minora
- towing** ['təʊɪŋ] *n* shatakka olish, shatakka olib tortib borish
- town** [taʊn] *n* shaharcha, kichik shahar; **all over the ~** butun shahar bo'ylab; **out of ~** shahardan tashqarida; safarda
- township** ['taʊnʃɪp] *n* amer. shaharcha, shahar tipidagi qishloq
- toxic** ['tɒksɪk] 1. *n* zahar, og'u; 2. *a* zaharli, og'uli
- toy** [tɔɪ] *n* o'yinchoq
- toyman** [tɔɪmən] *n (pl -men [-mən])* o'yinchoq sotuvchi kishi
- toyshop** ['tɔɪʃɒp] *n* o'yinchoq magazini
- trace** [treɪs] 1. *n* iz; 2. *v* iziga tushmoq, izidan kuzatib bormoq
- tracing** ['treɪsɪŋ] *n* 1) iziga (ketiga, payiga) tushish, orqasidan poylab borish, ta'qib qilish; 2) chizmadan kalka bilan ko'chirib olish, chizmani kalkaga o'tkazish; 3) konki izi (*muzda*)
- tracing-paper** ['treɪsɪŋ,peɪpə] *n* nusxa ko'chirish uchun mum bilan ishlangan qog'oz
- track** [træk] *n* 1) iz; **to be on the ~ of** iziga tushmoq, kuzatmoq; 2) qishloq yo'li, tuproq yo'li; 3) hayot yo'li
- tract** [trækt] *n* biror muammoga bag'ishlangan ilmiy asar
- tractable** ['træktəb(ə)l] *a* gapga kiradigan, quloq soladigan, itoat qiladigan, bo'ysunadigan, itoatkor
- traction** [træk(ə)n] *n* (yuk) tortuvchi kuch; (yuk) tortish; **electric ~** elektr kuchi bilan tortish
- tractor** ['træktə] *n* traktor
- trade** [treɪd] 1. *n* savdo, savdo-sotiq, kasb, hunar; 2. *v* savdo-sotiq qilmoq
- trader** ['treɪdə] *n* (*ulgurji*) savdogar, do'kondor
- tradesman** ['treɪdzmən] *n (pl -men [-mən])* savdogar, do'kondor
- trade-union** [treɪd'juːnən] *n* kasaba uyushmasi

trade-unionist [ˈtreɪdˈjuːnɪənɪst] *n* kasaba uyushmasining aʼzosi
tradition [trəˈdɪʃ(ə)n] *n* anʼana, urf-odat, rasm
traduce [trəˈdjuːs] *v* yomonlab gapitmoq, yomonlamoq, gʻiybat qilmoq
traffic [ˈtræfɪk] *n* harakat, koʻcha harakati; ~ **light** svetofor; **at the ~ lights** svetoforda
trafficator [ˈtræfɪkətə] *n* yoʻl muyulishi (burilishi)ning koʻrsatkichi
tragedy [ˈtrædʒɪdɪ] *n* 1) fojiali sahna asari; 2) koʻch. fojia, falokat, dahshat
tragic(al) [ˈtrɛdʒɪk(ə)l] *a* fojiali, dahshatli
trail [treɪl] **I.** *n* iz; **to get on the ~** iziga tushmoq; **2.** *v* 1) sekin yurib bormoq, sudralib yurmoq, zoʻrgʻa qadam tashlab bormoq; 2) izidan bormoq
trailer [ˈtreɪlə] *n* 1) tirkama, pritsep; 2) kinoafisha (kino haqidagi eʼlon); 3) anons (oldindan chiqarilgan eʼlon); 4) chirmashadigan oʻsimlik
train I [treɪn] *v* tarbiyalamoq, oʻqitmoq; oʻrgatmoq, mashq qildirmoq
train II [treɪn] *n* poyezd; **by ~** poyezd bilan
trained [treɪnd] *a* taʼlim olgan, oʻqigan, oʻrgangan
trainee [ˈtreɪniː] *n* tajriba muddatini oʻtayotgan kishi, oʻqiyotganlar, mashgʻulot ishtirokchilari
trainer [ˈtreɪnə] *n* murabbiy, mashq qildiruvchi mutaxassis
training [ˈtreɪnɪŋ] *n* 1) taʼlim, mashq; trening-mashgʻulot; 2) oʻrgatish, oʻqitish
train-oil [ˈtreɪnˈɔɪl] *n* vorvan (dengiz hayvonlarining eritilgan moyi)
trait [treɪ(t)] *n* 1) oʻziga xos xususiyat; 2) chiziq, ingichka chiziq
traitor [ˈtreɪtə] *n* sotqin, xoin, xiyonatchi
trajectory [trəˈdʒekt(ə)rɪ] *n* trayektoriya (1. biror jism yoki nuqtaning harakat yoʻli; 2. harb. otilgan oʻq yoki snaryadning yoy-simon harakati)
tram [træm] *n* tramvay; **by ~** tramvay bilan
trammel [ˈtræm(ə)l] *n* xalal, xalaqit, toʻsiq, toʻsqinlik
tramp [træmp] *n* daydi, darbadar
trample [ˈtræmp(ə)] *n* oʻtni (koʻkatni) bosmoq (ezmoq)
trampoline [ˈtræmpəliːn] *n* sport. 1) trampolin (sakrashda balandroq koʻtarilishga yordam beradigan moslama); 2) batut (sakratadigan sim yoki kapron toʻr)
tramway [ˈtræmweɪ] *n* tramvay; tramvay yoʻli
trance [trɑːns] *n* tib. trans (gipnoz, jazava va zoʻr xursandchilik vaqtida asablarning

juda qoʻzgʻalib ketishi, miyaning karaxt boʻlishi, hushdan ketish)
tranquil [ˈtræŋkwɪl] *a* tinch, jimjit, sokin
tranquility [ˈtræŋkwɪlɪtɪ] *n* tinchlik, jimjitlik, sokinlik, sukunat
trans- [træns-] *qoʻshma soʻzlarning birinchi qismi:* 1) biror masofa orqali qatnash; **transatlantic** Atlantika okeani orqali qatnaydigan; 2) biror narsaning chegarasidan tashqaridagi; *masalan, transalpine* Alp togʻlarining narigi yogʻida
transact [trænzækt] *v* 1) (ish) olib bormoq; 2) (bitim) tuzmoq
transaction [trænzæktʃ(ə)n] *n* 1) ish, yumush, xizmat; mashgʻulot; 2) bitim, kelishuv
transatlantic [ˈtrænzətˈlæntɪk] *a* Atlantika okeani orqali qatnaydigan; Atlantika okeaniga oid
transcend [trænzend] *v* oshmoq, oshirib yubormoq, chegaradan chiqmoq
transcontinental [ˈtrænzkontɪˈnɛntl] *a* transkontinental, kontinentlar orasidagi aloqaga (qatnovga) oid
transcribe [trænskraɪb] *v* 1) qaytadan yozib chiqmoq, koʻchirmoq; 2) fon. transkripsiya yozmoq; 3) mus. aranjirovka qilmoq, moslashtirmoq
transcript [ˈtrænskɪpt] *n* 1) nusxa, koʻchirma; 2) rashifrovka qilish, nimaligini aytib berish
transcription [trænzskɪptʃ(ə)n] *n* 1) koʻchirib yozish, nusxa koʻchirish; 2) transkripsiya; 3) mus. aranjirovka
transfer [ˈtrænsfɜː] *v* (boshqa joyga) koʻchirmoq, oʻtkazmoq
transfigure [trænsˈfɪgə] *v* shaklini (koʻrinishini) oʻzgartirmoq, boshqa shaklga (koʻrinishga) oʻtkazmoq, boshqa shakl (koʻrinish) bermoq, turlamoq
transform [trænzˈfɔːm] *v* oʻzgartirmoq, aylantirmoq
transformation [ˈtrænsfɔːmeɪʃ(ə)n] *n* oʻzgartirish, qayta tuzish
transformer [trænzˈfɔːmə] *n* 1) oʻzgartiruvchi, qayta quruvchi; 2) tex. fiz. oʻzgartirgich, oʻzgartirgich
transfuse [trænsˈfjuːz] *v* 1) quyinoq, birinchisidan ikkinchisiga quyinoq; 2) (qon) olib quyinoq
transfusion [trænsˈfjuːz(ə)n] *n* (qon) quyish, olib quyish, bir joydan ikkinchi joyga olib quyish
transgress [trænzˈɡres] *v* 1) chetga chiqmoq, buzmoq (qonun va b. haqida); 2) (odob doirasining) chegarasidan chiqmoq; 3) gunoh qilmoq

transient [ˈtrænzɪənt] *a* oʻtkinchi, vaqtincha, omonat
transistor [trænˈzɪstə] *n* (~ radio) koʻtarib yurishga qulay (ixcham) radiopriyomnik
transit [ˈtrænsɪt] *n* 1) (*transportda*) oʻtish, oʻtib ketish, yoʻl yurish; 2) (*qisqa muddatli*) safar yoki sayohat, sayr; 3) tranzit
transition [trænˈzɪʃ(ə)n] *n* oʻtish; *a* - period oʻtish davri
transitional [trænˈzɪʃ(ə)nəl] *a* (oʻtish) koʻchishga oid
transitive [ˈtrænsɪtv] *a* gram. oʻtimli; *a* - verb oʻtimli feʻl
transitory [ˈtrænsɪ(ə)rɪ] *a* qoʻnmay uchib oʻtuvchi, oʻtkinchi; bir lahzali, bir onli
translate [trænsˈleɪt] *v* tarjima qilmoq; *to* ~ from ...dan tarjima qilmoq; *to* ~ into ...ga tarjima qilmoq
translation [trænsˈleɪʃ(ə)n] *n* tarjima, tarjima qilish
translator [trænsˈleɪtə] *n* (*yozma*) tarjimon
translucent [trænsˈlu:s(ə)nɪ] *a* yarim tiniq, yarim shaffof (*nariyogʻidagi narsalar aniq koʻrinmaydigan*)
transmission [trænzˈmɪʃ(ə)n] *n* 1) uzatish, berish; 2) radio, televizor orqali beriladigan eshittirish yoki koʻrsatuv; 3) *tex.* uzatkich (*harakatni mashinaning bir qismidan boshqa qismiga oʻtkazuvchi mexanizm*)
transmit [trænzˈmɪt] *v* 1) topshirmoq, bermoq, uzatmoq, uzatib yubormoq, olib bermoq; 2) harakatni (boshqaga) uzatib turmoq, boshqasini harakatga keltirmoq (*mexanizmlar haqida*)
transmitter [trænzˈmɪtə] *n* radio, toʻlqin uzatuvchi moslama
transmute [trænzˈmju:t] *v* boshqa narsaga aylantirmoq, oʻzgartirmoq
ransom [ˈtræns(ə)m] *n* 1) parda osish uchun romning ust qismiga oʻrnatilgan karniz; 2) koʻndalang qoʻyilgan toʻsin
transparency [trænˈspærənstɪ] *n* tiniqlik, shaffoflik
transparent [trænˈspærənt] *a* tiniq, shaffof
transpire [trænˈspɪrə] *v* bugʻlanmoq, bugʻga aylanmoq
transplant [trænˈsplɑ:nt] *v* 1) koʻchat qilmoq, koʻchirib boshqa joyga oʻtqazmoq (*daxrati va b. haqida*); 2) koʻchirib boshqa joyga joylashtirmoq; 3) *jarg.* (*organizmdan bir qismini*) kesib olib boshqa joyga ulamoq
transport 1. *n* [ˈtrænsˌpɔ:t] transport; 2. *v* [trænˈspɔ:t] *v* tashimoq; koʻchirmoq (*boshqa joyga*)
transportation [ˌtrænsˌpɔ:tˈteɪʃ(ə)n] *n* tashish

ranspose [trænsˈpəʊz] *v* aralash-tirmoq, qorish-tirmoq; qoʻshib yubormoq
transversal [trænzˈvɜ:s(ə)l] *a* koʻndalang, koʻndalangiga (eniga) tushgan, koʻndalang qoʻyilgan
transverse [trænzˈvɜ:s] *a* koʻndalang, koʻndalangiga (eniga) tushgan, koʻndalang qoʻyilgan; *a* - section koʻndalang kesim
trap [træp] 1. *n* qopqon, tuzoq; 2. *v* 1) qopqon (tuzoq) qoʻymoq; 2) tuzoqqa tushirmoq
trapdoor [ˈtræpdɔ:] *n* qopqoqli tuynuk, teshik
trapeze [trəˈpi:z] *n* mat. trapetsiya (*ikkita parallel tomoni boʻlgan toʻrtburchak*)
trappings [ˈtræpɪŋz] *n* pl egar-jabduq, ot abzali
trash [træʃ] *n* 1) eski-tuski, lash-lush; tashlandiq, chiqindi, axlat; 2) *soʻzl.* pala-partish (*naridan-beri*) yozilgan badiiy asar; (*badiiy va gʻoyaviy jihatdan*) xom (gʻoʻr) asar; bemaʼni (boʻlmagʻur) asarlar
trauma [ˈtrɔ:mə] *n* tib. shikastlanish, jarohatlanish; yara, jarohat, mayiblik
travel [ˈtræv(ə)] 1. *n* sayohat, safar; 2. *v* sayohat qilmoq; *to* ~ around the country mamlakat boʻylab sayohat qilmoq
traveller [ˈtræv(ə)lə] *n* sayohatchi, sayyoh
traverse [ˈtrævɜ:s] *n* koʻndalang toʻsin, koʻndalang oʻtkazilgan (qoʻyilgan) narsa
travesty [ˈtrævɪstɪ] *n* parodiya (*hazil yoki hajviy tarzda boshqa asarga taqlid qilib yozilgan asar*)
trawl [trɔ:l] *n* tral (*kemalardan turib baliq tutadigan katta qopsimon toʻr*)
tray [treɪ] *n* patnis, barkash
treacherous [ˈtreɪʃ(ə)rəs] *a* xiyonatkorona, xoinlik bilan qilingan
treachery [ˈtreɪʃ(ə)rɪ] *n* sotqinlik, xoinlik
treacle [ˈtri:k(ə)l] *n* 1) quyuc shinni, qiyom; 2) tilyogʻlamalik
tread [tred] 1. *n* qadam; qadam tashlash, yurish; 2. *v* (*trod; trodden*) yurmoq, qadam tashlamoq (qoʻymoq)
treadle [ˈtredl] *n* 1) pedal, tepki (*velosipedda*); 2) *tex.* oyoq bilan harakatni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan mexanizm
treason [ˈtri:z(ə)n] *n* xoinlik, xiyonat qilish
treasure [ˈtreʒə] *n* qimmatbaho narsa, boylik; *buried* ~ xazina
treasurer [ˈtreʒ(ə)rə] *n* gʻaznachi
treasury [ˈtreʒ(ə)rɪ] *n* 1) xazina, gʻazna; 2) davlatga qarashli mol-mulk (mablagʻ, xazina)
treat [tri:t] 1. *n* koʻngil ochish; ziyofat; mehmondorchilik; 2. *v* 1) muomala qilmoq; 2) ishlov bermoq, tayyorlamoq; 3) talqin qilmoq, izohlamoq; sharhlamoq; 5) meh-

- mon qilmoq, ziyofat qilmoq; 2) davolamoq, davolanmoq
- treatise** [ˈtri:tɪz] *n* traktat (*biror muammo-ga bag'ishlangan ilmiy asar*)
- treatment** [ˈtri:tmənt] *n* 1) davolash; 2) muomala qilish
- treaty** [ˈtri:tɪ] *n* shartnoma, bitim
- treble** [ˈtreb(ə)l] *a* 1) uch marta katta, uch hissa ko'p; 2) *mus.* ingichka ovoz uchun belgilangan (yozilgan)
- tree** [tri:] *n* daraxt
- trefoil** [ˈtrefoɪl] *n* beda, yo'ng'ichqa
- trek** [trek] *n* sayohat
- trellis** [ˈtrellɪs] *n* panjara
- tremble** [ˈtremb(ə)l] *v* titramoq, qaltiramoq, tebranmoq; **to ~ with ...** dan titramoq (qaltiramoq)
- tremendous** [trɪˈmendəs] *a* 1) qo'rqinchli, dahshatli; 2) so'zl. g'oyat katta, ulkan, buyuk
- tremendously** [trɪˈmendəsli] *a* qo'rqinchli, vahimati, dahshatli, bahaybat, mudhish
- tremor** [ˈtremə] *n* 1) titroq, qaltiroq, titrash, qaltirash; 2) tebranish, titrash, larzaga kelish (*keltirish*)
- tremulous** [ˈtremjʊləs] *a* jur'atsiz, yuraksiz, qo'rqoq; tortinchoq
- trench** [ˈtrentʃ] 1. *n* o'ra, chuqur, xandaq, zovur; 2. *v* chuqur qazimoq
- trend** [trend] *n* 1) yo'nalish; 2) mayl, rag'bat, moyillik, intilish; 3) moda, fason, uslub
- trendy** [ˈtrendi] *a* keng tarqalgan, hammaga rasmi bo'lgan
- trepidation** [ˈtrepiˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) titrash, qaltirash, titroq, qaltiroq; 2) bezovtalik
- trespass** [ˈtrespəs] 1. *v* 1) suiiste'mol qilmoq, o'z manfaat uchun foydalanmoq; 2) *yur.* zarar yetkazmoq; zarba bermoq; 2. *n* 1) suiiste'mol qilish; 2) buzish; 3) *din.* gunohkor, gunohli; osiy
- tress** [tres] *n* kokil, soch o'rini
- trestle** [ˈtres(ə)l] *n* estakada (*yo'l tepasiga qurilgan ko'prikl; osmako'prikl*)
- trial** [ˈtraɪəl] *n* 1) sinash, sinov, ko'rik; 2) *yur.* sud jarayoni
- trial-trip** [ˈtraɪəl ˈtrɪp] *n* 1) sinash uchun bajarilgan suzish; 2) ko'ch. tajriba
- triangle** [ˈtraɪæŋg(ə)l] *n* uchburchak, uchburchaklik
- triangular** [traɪˈæŋgjʊlə] *a* uch burchakli, uchburchak qilib yasalgan
- tribe** [traɪb] *n* urug', qabila
- tribunal** [traɪˈbjʊ:n(ə)l] *n* sud
- tribune** [ˈtribju:n] *n* minbar
- tributary** [ˈtribjʊ(ə)ri] *n* tar. o'lpon (solliq) to'lovchi
- tribute** [ˈtribju:t] *n* tar. solliq, o'lpon, to'lov
- trice I** [traɪs] *n* ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt, payt, lahza; **in a ~** ko'z ochib yumguncha
- trice II** [traɪs] *v* deng. qattiqroq tortib bog'lamoq
- trick** [trɪk] *n* hiyla, ayyorlik, aldash
- trickery** [ˈtrɪk(ə)ri] *n* aldamchilik, firibgarlik
- trickle** [ˈtrɪk(ə)l] *n* tizillab otilayotgan (oqayotgan) suyuqlik
- tricky** [ˈtrɪki] *a* ayyor, mug'ambir, firibgar, hiylagar, makkor
- tricolour** [ˈtraɪkələ] 1. *n* uch rangli bayroq; 2. *a* uch (xil) rangli
- tricycle** [ˈtraɪsɪk(ə)l] *n* uch g'ildirakli velosiped
- triennial** [traɪˈeniəl] *a* voqea, hodisa
- trifle** [ˈtraɪf(ə)l] *n* arzimagan (ahamiyatsiz) gap yoki voqea
- trig I** [trɪg] *a* ozoda, toza, pokiza, saranjom-sarishta
- trig II** [trɪg] *v* ponalamoq, pona qoqib mahkamlamoq
- trigger** [ˈtrɪgə] *n* *harb.* tepki (*otish qurol-larida*)
- trigonometry** [ˈtrɪgəˈnɒmɪtri] *n* *mat.* trigonometriya (*matematikaning uchburchak tomonlari va burchaklari o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limi*)
- trill** [trɪl] *n* *mus.* ovozning titrab (tovlanib, churullab yoki jaranglab) chiqishi
- trillion** [ˈtrɪljən] *n* *num. card.* trillion (*ming milliard*)
- trilogy** [ˈtrɪlədʒɪ] *n* trilogiya (*mazmunan bir-biriga bog'langan uchta mustaqil asar*)
- trim** [trɪm] 1. *n* 1) tartib; 2) bezak; 2. *a* 1) tartibli; 2) ziynatli; 2. *v* 1) tartibga keltir-moq; 2) bezamoq
- trinket** [ˈtrɪŋkɪt] *n* 1) mayda-chuyda bezak, buyum; 2) arzimagan (ahamiyatsiz) gap yoki voqea
- trio** [ˈtri:əʊ] *n* *mus.* trio (*uch kishi ijrosidagi musiqa asari*)
- trip** [trɪp] 1. *n* safar, sayohat; 2. *v* 1) safar qilmoq, sayohat qilmoq; 2) chalinmoq, qoqil-moq
- tripartite** [ˈtraɪˈpɑ:tɪt] *a* uch davlat o'rtasidagi; uch davlatdan iborat bo'lgan, uch tomonlama, uchta ish ishtirokchisi
- tripe** [traɪp] *n* 1) qorin (*qorindan tayyorlangan ovqat*); 2) hech narsaga arzimaydigan narsa (*yoki odam*)
- triplet** [ˈtrɪplɪt] *n* 1) uchlik (*uchta kishi yoki uchta predmet*); 2) uchтали yoki uch egizakdan biri; 3) *pl* uchтали egizak
- tripod** [ˈtraɪpɒd] *n* 1) uch oyoq (*ustiga biror narsa o'rnatish uchun uchta oyog'i bo'l-*

- gan asbob); 2) uch oyoqli stolcha yoki uch oyoqli kursi
- tripper** [ˈtrɪpə] *n* ekskursiyachi, turist, say-yoh
- trite** [traɪt] *a* ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan; oddiy
- triumph** [ˈtraɪəmf] *n* zafar, tantana, g'alaba
- triumphant** [traɪˈʌmf(ə)nt] *a* g'olibona, g'alabaga olib boruvchi; g'olib, zafarli
- trivet** [ˈtrɪvɪt] *n* uch oyoq, uch oyoqli temir o'choq
- trivial** [ˈtrɪvɪəl] *a* ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan; bemaza, bema'ni
- trod** [trɒd] *past. of tread* 2
- trodden** [ˈtrɒdn] *p. p. of tread* 2
- trolley** [ˈtrɒli] *n* 1) ovqat tashish uchun mo'ljallangan g'ildirakli kichkina stul; 2) aravacha; 3) amer. tramvay; 4) vagoncha
- trolley-bus** [ˈtrɒlibʌs] *n* trolleybus
- trombone** [ˈtrɒmbəʊn] *n* trombon (*puflab chalinadigan musiqa asbobi*)
- troop** [trʊ:p] *n* qo'shin; lashkar; -s qo'shinlar
- trophy** [ˈtrɒfi] *n* o'lja; qo'lga kiritilgan narsa
- tropic** [ˈtrɒpɪk] *n* tropik; *the* -s tropikdagi issiq joylar
- tropical** [ˈtrɒpɪk(ə)l] *a* tropikka oid, tropik...; issiq
- trot** [trɒt] *n* yo'rtilish, yo'rtib chopish, yelish
- trouble** [ˈtrʌb(ə)l] 1. *n* notinchlik, bezovtalik, tashvish, qayg'u, alam; 2. *v* tinchsizlantirmoq, bezovta qilmoq, tashvishga solmoq; -some sertashvish; notinch
- troubled** [ˈtrʌb(ə)ld] *a* tashvishli, xavotirli, betinch, notinch
- troublemaker** [ˈtrʌb(ə)lˌmeɪkə] *n* buzg'unchi, g'alamis, fitnachi; janjalkash kishi
- troubleshoot** [ˈtrʌb(ə)lˌʃu:t] *v* 1) mojaroni (janjalni, muammoni) bartaraf qilish maqsadida har tomonlama tekshirib chiqmoq; 2) bartaraf (bir yoqlama, hal) qilmoq
- troubleshooter** [ˈtrʌb(ə)lˌʃu:tə] *n* 1) avariya montyori; 2) muammo, janjal, mojarolarni bartaraf qiluvchi maxsus vakil
- trough** [traʊf] *n* tog'ora; xamir tog'ora
- trounce** [traʊns] *v* urmoq, tushirmoq, savalamoq, kaltaklamoq, do'pposlamoq
- troupe** [trʊ:p] *n* fr. truppa (*teatr yoki sirk ijodiy jamoasi*)
- trousers** [ˈtraʊzəz] *n* pl shim
- trousseau** [ˈtrʊ:səʊ] *n* fr. (*pl* -s [-z], -x) 1) sep, sep-sidirg'a; 2) chaqaloqbop kiyim-kechak
- trout** [traʊt] *n* zool. gulmohi (*lasoslar oilasiga mansub baliqlar*)
- trowel** [ˈtraʊəl] *n* belcha (*suvoqchi belcha*), kurakcha
- truancy** [ˈtru:ənsɪ] *n* darslarni sababsiz qoldirish
- truant** [ˈtru:ənt] 1. *n* progulchi (*o'qishga sababsiz kelmay qolgan o'quvchi*); **to play** ~ o'qishga bormay yoki kelmay qolmoq; 2. *a* yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas; 3. *v* darsga bormay (*yoki kelmay*) qolmoq
- truce** [tru:s] *n* yarash, vaqtinchalik sulh
- truck** [trʌk] *n* yuk avtomobili
- trucker I** [ˈtrʌkə] *n* amer. sabzavotkor (*sabzavotchi*) fermer
- trucker II** [ˈtrʌkə] *n* yuk mashinasining haydovchisi
- truculent** [ˈtrʌkjʊlənt] *a* yovuz, yirtqich, vahshiy; g'azabi avj olgan, yovuzlashgan
- trudge** [ˈtrʌdʒ] 1. *n* 1) uzoq va mashaqqatli yo'l; 2) charchatadigan sayr; 2. *v* sudralib yurmoq, zo'rg'a qadam tashlab bormoq
- true** [tru:] *a* 1) sodiq, sadoqatli; 2) asl, chin, haqiqiy, to'g'ri; -ly to'g'ri; rost
- truly** [ˈtru:li] *adv* haqiqatan, chindan ham; to'g'ri, rost
- trump I** [trʌmp] *n* kuzir (*qarta o'yinida*); **to play a** ~ kuzirni yurmoq
- trump II** [trʌmp] *n* xristianlar aqidasi ko'ra, qiyomat kuni Isrofil (*farishta*)ning surchalish ovozi (*bu ovoz bilan go'yo hamma tiriladi*)
- trump-card** [ˈtrʌmpkɑ:d] *n* kuzir (*qarta o'yinida*)
- trumped-up** [ˈtrʌmpɪˈʌp] 1. *a* soxta, uydirma aybnoma; 2. *v* o'ylab chiqarmoq, ixtiro qilmoq
- trumpety** [ˈtrʌmp(ə)rɪ] *n* qalbaki narsa, hech narsaga arzimaydigan narsa
- trumpet** [ˈtrʌmpɪt] *n* karnay
- truncheon** [ˈtrʌntʃən] *n* 1) aso, hassa; 2) yo'ng'on tayog, to'qmoq
- trundle** [ˈtrʌndl] *n* g'ildirakcha, kichkina g'ildirak
- trunk** [trʌŋk] *n* 1) daraxtning tanasi; 2) gadda; 3) xartum; 4) chamadon
- trunk-call** [ˈtrʌŋkko:l] *n* xalqaro telefon orqali chaqirish
- truss** [trʌs] *n* bog'lam, bog', dasta; o'ram
- trust** [trʌst] 1. *n* ishonch, e'tiqod; 2. *v* ishonmoq
- trustee** [ˈtrʌˈsti:] *n* vasiy, homiy
- trusteeship** [ˈtrʌˈsti:ʃɪp] *n* vasiylik, homiylik
- trusting** [ˈtrʌstɪŋ] *a* sodda, ishonuvchan
- trustworthy** [ˈtrʌstˌwɜ:ðɪ] *a* ishonchli, ishonarli, ishonsa bo'ladigan
- truth** [tru:θ] *n* 1) haqiqat; 2) adolat
- truthful** [ˈtru:θf(ə)l] *a* haqiqatgo'y (*rostgo'y*) odam
- try** [traɪ] 1. *n* sinash, urinish; 2. *v* 1) sinab ko'rmoq; **to** ~ **out** sinab ko'rmoq; 2) urinib

udometer [ju:'domɪtə] *n* meteor. yong'ir o'lchagich

UFO ['ju:fəʊ, ju:ef'əʊ] *n* („Unidentified flying object“ning qisqartmasi) noma'lum uchar jism, NUJ

ugh [okh, ɜ:, ʌg] *int.* tuf! tuf! tuf-a! ax! eh! (qattiq norozilik, nafratlanish ma'nosida)

uglify ['ʌgɫɪfaɪ] *v* xusnini buzmoq, xunuk (ko'rimsiz) qilmoq

ugliness ['ʌgɫɪnəs] *n* 1) badbasharalik, xunuklik; 2) yomonlik, yaramaslik, jirkanch

ugly ['ʌgɫɪ] *a* 1) badbashara, xunuk; 2) yomon, ko'ngilsiz

uhlan ['(j)u:lən] *n* tar. ulan (inqilobdan oldingi Rossiya va ba'zi chet el armiyalarida yengil kavaleriya)

ukase [ju:'keɪz] *n* rus. farmon (hokimiyat oliy organining qonun kuchiga ega bo'lgan qarori)

Ukrainian [ju:'kreɪniən] *l. a* Ukrain va ukrainlarga oid; ukraincha; *2. n* 1) ukrainalik, ukrain kishi; ukrain ayol; 2) ukrain tili

ukulele [ju:'kɜ:'leɪli] *n* Gavaya gitarasi

ulcer ['ʌlsə] *n* tib. 1) yara; 2) kuydirgi; yarali kasallik, jarohat

ulcerate ['ʌlsəreɪt] *v* 1) yara qilib yubormoq, yara-chaqa bostirmoq; 2) buzmoq, yomonlashtirmoq, aynitmoq

ulcered, ulcerous ['ʌlsəd, 'ʌls(ə)rəs] *a* yaraga oid, yarali, yara (chaqa) bosgan

uliginose, uliginous [ju'ɫɪdʒɪnəs] *a* serloyqa, serbalchiq, balchiqli, botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, botqoqlardan iborat bo'lgan, serbotqoq

ullage ['ʌɫɪdʒ] *n* oqib (sirqib) chiqib ketish, to'kilib kamayish

ulna ['ʌlnə] *n* (pl -nae [-ni:]) *anat.* tirsak suyagi

ulnae ['ʌlni:] *pl of ulna*

ulster ['ʌlstə] *n* keng uzun palto (asosan, belbog'li)

ulterior [ʌl'ɪ(ə)rɪə] *a* 1) yashirin, maxfiy, pinhoni, sirli; ~ **object** yashirin maqsad; 2) keyingi, kelgusi

ultima ['ʌltɪmə] *a* lot. hal qiluvchi, yakunlovchi, oxirgi, so'nggi, qat'iy, uzil-kesil; ~ **ratio** so'nggi (qat'iy) dalil

ultimate ['ʌltɪmt] *a* 1) eng olis; 2) yakuniy, oxirgi, so'nggi; 3) maksimal, eng ko'p (kat-ta, yuqori); eng yuksak, haddan tashqari; ~ **load** haddan tashqari (juda ko'p) yuk; ~ **output** maksimal kuch

ultimately ['ʌltɪmtli] *adv* pirovardida, oqibatda, axiri, oxiri

ultimatum [ʌltɪ'meɪtəm] *n* 1) ultimatum, qat'iy talab; 2) so'zl. do'q bilan qo'yilgan talab

ultimo ['ʌltɪməʊ] *adv* lot. o'tgan oyda

ultimogeniture [ˌʌltɪmə(ʊ)'dʒenɪtʃə] *n* yur. eng kichik o'g'ilaing merosga daxldorligi tizimi (merosga bo'lgan huquqi)

ultra ['ʌltrə] *a* o'ta, haddan tashqari

ultra- ['ʌltrə-] *pref.* 1) biror narsadan tashqarida joylashgan (bo'lgan); 2) g'oyat, juda ham

ultramarine [ˌʌltrəmərɪ'nɪə] *n* ultramarin (och ko'k bo'yoq)

ultra-red [ˌʌltrə'red] *fiz.* infraqizil nurlar

ultrasonic [ˌʌltrə'sɒnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (uchadigan)

ultra-violet [ˌʌltrə'vaɪələɪt] *a* *fiz.* ultrabinafsha; ~ **rays** ultrabinafsha nurlar (spektrda binafsha nurdan keyingi ko'rinmaydigan nur)

ululate ['ju:ljuleɪt] *v* uvllamaq, uvllamoq, uvullab turmoq

umbel [ˌʌmb(ə)ɪl] *n* bot. to'pgul

umbellate [ˌʌmbɪl(e)ɪt] *a* bot. soyabongulilarga oid

umbelliferous [ˌʌmbɪ'lɪf(ə)rəs] = **umbellate**

umber [ˌʌmbə] *l. n* umbra (jigarrang mineral bo'yoq); *2. a* to'q jigarrang; *3. v* jigarrang mineral bo'yoq bilan bo'yamoq

umbilical [ˌʌm'bɪlɪk(ə)l] *a* *anat.* kindikka oid, kindik...; **an** ~ **cord** kindik ichakchasi, kesilmagan kindik

umbilicus [ˌʌm'bɪlɪkəs] *n* (pl -ici [-ɪsɪ]) *anat.* kindik

umbra [ˌʌmbərə] *n* (pl -ae [-i:]) o'lganning rahi (arvohi)

umbrage [ˌʌmbɪdʒ] *n* 1) soya, ko'fanka; 2) nohaq gapdan (ishdan) yetgan ozor, ranjalam, xafagarchilik; **to take** ~ xafa bo'lmoq; **to give** ~ xafa qilmoq, ko'ngliti ranjitmoq, dilini og'ritmoq

umbrageous [ˌʌm'breɪdʒəs] *a* 1) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik, terisi yupqa, jizzaki; 2) sersoya, soya-salqin

umbrella [ˌʌmbrɪlə] *n* soyabon, zontik

umbrella stand [ˌʌm'brɪləstænd] *n* soyabonning tagiga qo'yiladigan taglik (poya)

umbrella tree [ˌʌm'brɪlətri:] *n* bot. magnoliya (yirik xushbo'y gulli doim yashil daraxt yoki buta)

umiak ['u:mɪæk] *n* umiak (eskimoslarning teridan yasalgan qayig'i)

umpire [ˌʌmpaɪə] *n* sudya, hakam

umpteenth [ˌʌmp'tɪnθ] *a* so'zl. ko'p sonli, ko'p kishili; ko'pgina, ancha

umpteenth [ˌʌmp'tɪnθ] *a* biror, istalgan bir, qandaydir bir; muayyan (ma'lum) bir; falowcha; **for the** - **time** yuz marta, yuzinch marta, juda ko'p

- un-** [AN-] *pref. fe'lga teskari ma'no beradi:*
to undo bajargan ishni yo'q qilmoq
unabashed [ANə' bæʃt] *a* or-nomusni bil-
 maydigan, vijdotsiz, insofsiz, uyatsiz, be-
 nomus
unabated [ANə' beɪtɪd] *a* (bo'ron va b. ha-
 qida) bo'shshagan, susaymagan
unabbreviated [ANə' bri:vieɪtɪd] = **una-**
bridged
unabiding [ANə' baɪdɪŋ] *a* o'tkinchi, vaq-
 tincha, omonat
unable [AN' eɪb(ə)l] *a* qobiliyatsiz, layoqat-
 siz, chorasiz, noqobil, qo'ldan kelmaydigan
unabridged [ANə' brɪdʒd] *a* 1) to'liq, liq to'-
 la, limmo-lim; 2) qisqartirilgan
unaccented [ANək' sentɪd] *a* urg'usiz (bo'-
 g'in, tovush)
unacceptable [ANək' septəb(ə)l] *a* to'g'ri
 (muvofiq) kelmaydigan, qabul qilib (ko'-
 nib, rozi bo'lib) bo'lmaydigan, nomaqbul
unaccommodating [ANə' kɒmədeɪtɪŋ] *a*
 gapga ko'nmaydigan (*unamaydigan*), o'jar,
 qaysar
unaccompanied [ANə' kəmp(ə)nɪd] *a* 1) ham-
 roh (yo'ldosh) bo'lib borib bo'lmaydigan;
 2) birga yurib bo'lmaydigan; 3) jo'r bo'lib
 bo'lmaydigan
unaccomplished [ANə' kɒmplɪʃt] *a* tugatil-
 magan, bitirilmagan, tamom qilinmagan,
 oxiriga yetkazilmagan
unaccountable [ANə' kauntəb(ə)l] *a* tushun-
 tirib (tushunib) bo'lmaydigan
unaccredited [ANə' kreditɪd] *a* vakolat ber-
 maydigan, sug'urta qilinmagan
unaccustomed [ANə' kəstəmd] *a* odatlanil-
 magan, o'rganilmagan, odat tusiga kirma-
 gan, yangi
unachievable [ANə' tʃi:vəb(ə)l] *a* erishib
 (yetishib, amalga oshirib) bo'lmaydigan
unachieved [ANə' tʃi:vɪd] *a* 1) yetib (borib)
 bo'lmaydigan; 2) tugatilmagan
unacknowledged [ANək' nɒlɪdʒd] *a* 1) dong
 taratmagan, shuhrat qozonmagan, tanilmag-
 an; 2) javobsiz qolgan
unacquainted [ANək' weɪntɪd] *a* tanishtiril-
 magan, notanish, bilmaydigan, noma'lum
unactable [AN' æktəb(ə)l] *a* sahnaga mos
 kelmaydigan, sahnabop emas (*sahna asari*
to'g'risida)
unadmitted [ANəd' mɪtɪd] *a* tanilmagan, no-
 mi chiqmagan, tan olinmagan, e'tirof etil-
 magan
unadopted [ANə' dɒptɪd] *a* o'g'il qilib olin-
 magan
unadulterated [ANə' dʌltərəɪtɪd] *a* 1) haqi-
 qiy, chin, asl, toza, sof; 2) g'irt, qip-qizil,
 haqiqiy, chin; ~ **nonsense** g'irt bema'nilik
unadvised [ANəd' vaɪzɪd] *a* shoshilinch (tez)
 qilingan, shoshilib (o'ylamay-netmay) qi-
 lingan
unadvisedly [ANəd' vaɪzɪdli] *adv* o'ylamay,
 muhokama (mulohaza) qilib ko'rmay,
 telbalarcha, tentaklarcha
unaffable [AN' æfəb(ə)l] *a* dag'al, qo'rs, so-
 vuq, iltifotsiz, bemehr
unaffected [ANə' fektɪd] *a* samimiy, sofdil,
 ochiq ko'ngil, chin qalbdan aytilgan
unafraid [ANə' freɪd] *a* qo'rqmas, vahima-
 siz
unagreeable [ANə' gri:əbl] *a* 1) yoqimsiz,
 yomon; 2) ko'ngilsiz, noxush, sovuq, xu-
 nuk; 3) rozilik berib bo'lmaydigan
unaided [AN' eɪdɪd] *a* 1) yordam ko'rsatil-
 magan; 2) (*begonalarning, birovning*)
 yordamisiz
unallowable [ANə' laʊəb(ə)l] *a* yo'l qo'yib
 bo'lmaydigan, nojo'ya, nojoiz, mumkin
 bo'lmagan
unallowed [ANə' laʊd] *a* ijozat berilmagan,
 taqiqlangan, man qilingan
unalloyed [ANə' lɔɪd] *a* ozoda, toza, poki-
 za
unalterable [AN' ə:lɪt(ə)rəb(ə)l] *a* o'zgar-
 maydigan, o'zgarmas, doimiy, o'zgartirib
 bo'lmaydigan
unaltered [AN' ə:lɪtəd] *a* doim bir xilda bo'la-
 digan, bir zaylda turadigan
unambiguous [ANəm' bɪgjuəs] *a* ikki xil tu-
 shunishga yo'l qo'ymaydigan, aniq, to'ppa-
 to'g'ri
unamenable [ANə' mi:nəb(ə)l] *a* 1) yechib
 (bo'shatib, burib, sindirib va h. k.) bo'lmay-
 digan, juda mustahkam, qattiq, pishiq;
 2) gapga kirmaydigan, gapga quloq sol-
 maydigan
unanalysable [AN' ænəlaɪzəb(ə)l] *a* tahlil
 qilinmaydigan
unanimity [ju:nə' nɪmɪti] *n* yakdillik, bir-
 damlik
unanimous [ju:' nænɪməs] *a* 1) yakdillik
 bilan aytilgan, hamjihatlik bilan qilingan;
 2) bir ovozdan qabul qilingan
unanswerable [AN' a:ns(ə)rəb(ə)l] *a* 1) javob
 qaytarib (berib) bo'lmaydigan; 2) rad etib
 bo'lmaydigan
unanswered [AN' a:nsəd] *a* javobsiz, javob-
 siz qolgan (*xat, iltimos*); ~ **love** javobsiz
 muhabbat, rad etilgan sevgi
unappealable [ANə' pi:ləb(ə)l] *a* yur. shiko-
 yat (norozilik) arizasi tushmaydigan; qat'iy
 tayinlangan, o'zgartirib bo'lmaydigan
unappeasable [ANə' pi:zəb(ə)l] *a* murosaga
 kelmaydigan, kelishtirib bo'lmaydigan,
 qondirib bo'lmaydigan

unappetizing [AN'æpɪtaɪzɪŋ] *a* mazasiz, bemaza, lazzatsiz; **an ~ kitchen** shinam bo'lmagan oshxona

unappreciated [ANə'pri:ʃreitɪd] *a* yetarlicha baho berilmagan, kam baho berilgan; e'tibordan chetda qolgan

unapproachable [ANə'prəʊtʃəb(ə)] *a* 1) egallab (yo'lab, chiqib) bo'lmaydigan; 2) erishib (yetishib, yoniga borib, yaqin kelib, yo'lab, chiqib, olib, egallab) bo'lmaydigan

unapproving [ANə'pru:vɪŋ] *a* ma'qullanmagan, ma'qul deb topilmagan, ma'qullamay qilingan

unapprovingly [ANə'pru:vɪŋli] *adv* ma'qullamay, ma'qul topinay, manzur ko'rmay

unapt [AN'æpt] *a* munosib kelmaydigan, nobop; noqulay, nomuvofiq; **an ~ quotation** muvofiq kelmaydigan sitata (matn parchasi)

unarm [AN'ɑ:m] *v* qurolsizlantirmoq, qurolsizlanmoq

unarmed [AN'ɑ:md] *a* 1) qurolsiz, qurollanmagan; 2) *bot. zool.* tikansiz, ignasiz

unartful [AN'ɑ:ft(ə)] *a* mahoratsiz, uquvsiz, no'noq

unashamed [ANə'ʃeɪmd] *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdotsiz, insofsiz, uyatsiz, benomus

unasked [AN'ɑ:skt] *a* ixtiyoriy, ko'ngilli, kutilmagan, chaqirilmagan, aytilmagan, taklif qilinmagan

unaspiring [ANəs'paɪ(ə)rɪŋ] *a* mulozametni yaxshi ko'rmaydigan

unassailable [ANə'seɪləb(ə)] *a* 1) egallab bo'lmaydigan; 2) olib (zabt etib) bo'lmaydigan; **an ~ fortress** mustahkam qal'a

unassertive [ANə'sɜ:tɪv] *a* 1) kamtar, kamsuqum, oddiy, sipo; kamtarin; 2) uyatchan, tortinchoq, iboli

unassisted [ANə'sɪstɪd] *a* yordamsiz, ko'maksiz; **my friend translated the text ~ do'stim** matnni o'zi tarjima qildi

unassuming [ANə's(j)u:mɪŋ] *a* oddiy, kamsuqum, sipo

unassured [ANə'ʃʊəd] *a* ishonmaydigan, gumonsiraydigan, ikkilanuvchi, qat'iyatsiz

unattached [ANə'tætʃt] *a* 1) turmushga chiqmagan, uylanmagan; 2) biriktirilmagan

unattainable [ANə'teɪnəb(ə)] *a* erishib (yetishib, amalga oshirib) bo'lmaydigan; muyassar bo'lmaydigan

unattended [ANə'tendɪd] *a* qarovsiz qoldirilgan, o'z holiga tashlab qo'yilgan, e'tibordan chetda qolgan; ~ **wound** bog'lanmagan yara

unattending [ANə'tendɪŋ] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, xayoli sochilgan, parishonxotir, xotiri parishon

unattractive [ANə'træktɪv] *a* ko'rimsiz, badbashara, yoqimsiz, xunuk

unauthorized [AN'ɔ:θəraɪzd] *a* taqiqlangan, man qilingan, ruxsat berilmagan

unavailable [ANə'veɪləb(ə)] *a* mavjud bo'lmagan, ixtiyorida yo'q bo'lgan

unavailing [ANə'veɪlɪŋ] *a* 1) soxta; 2) foyda bermaydigan, befoyda, foydasiz, foydasi (nafi) yo'q, behuda, bekorchi

unavoidable [ANə'vɔɪdəb(ə)] *a* muqarrar, albatta yuz beradigan, oldini olib bo'lmaydigan

unaware [ANə'weə] *a* bexabar, bilmaydigan

unawares [ANə'weəz] *adv* qo'qqisdan, to'satdan, bexosdan, g'afiatda qoldirib

unbacked [AN'bækt] *a* tarafdorlari bo'lmagan, yordanchilari (madadkorlari) bo'lmagan

unbaked [AN'beɪkt] *a* pishmagan, yaxshi pishmagan, pishirilmagan

unbalance [AN'bæləns] *v* ruhiy osoyishtalikdan mahrum qilmoq; ruhiy osoyishtaligini buzmoq

unbalanced [AN'bælənst] *a* aynima, tuturiqsiz, sabotsiz; beqaror, betayin; yengil, fe'li yomon, badfe'l

unballast [AN'bæləst] *a* *deng.* ballast (posangi yuklarni) tushirmoq (*kemadan*)

unballasted [AN'bæləstɪd] *a* 1) *deng.* ballasti (posangi yuki) bo'lmagan; 2) *tem. y.* ballast (temir yo'l shpallari tagiga gum yoki shag'al) yotqizmagan; 3) yetarlicha qattiq bo'lmagan, yumshoq, bo'sh

unbar [AN'bo:] *v* 1) surma zulfinni (lo'ki-donni) surib qo'yimoq; 2) (*eshik, yo'l va b. ni*) ochmoq

unbare [AN'beə] *v* yalang'ochlamoq, yechintirmoq, libosini yechmoq

unbearable [AN'be(ə)rəb(ə)] *a* chidab (toqat qilib) bo'lmaydigan, juda yomon, juda og'ir; **an ~ situation** jahannam

unbearded [AN'biədɪd] *a* 1) soqoli yo'q, soqoli chiqmagan; 2) ko'sa

unbeatable [AN'bi:təb(ə)] *a* 1) boshqalardan ustun (afzal, ortiq) bo'lgan; 2) yengilmas, yengilmaydigan, yengib bo'lmaydigan, kuchli, zo'r

unbeaten [AN'bi:t(ə)n] *a* mag'lubiyatni bilmaydigan, eng birinchi, eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan, teng kelolmaydigan

unbecoming [ANbi'kəmiŋ] *a* yarashmaydigan, odobdan tashqari, beadab, uyat, noloyiq, noshoyon; **an ~ conduct** nojo'ya (odobdan tashqari) xatti-harakat

unbefitting [ˌʌnbɪˈfɪtɪŋ] *a* nomunosib; no-loyiq, nobop, to'g'ri kelmaydigan

unbegun [ˌʌnbɪˈɡʌn] *a* 1) hali boshlanmagan; 2) abadiy amal qiladigan (*turadigan*), azaliy, abadiy

unbeknown [ˌʌnbɪˈnəʊn]. **unbeknownst** [ˌʌnbɪˈnəʊnst] *a* 1) noma'lum, notanish, allaqanday; 2) sirli; tushunib bo'lmaydigan

unbelief [ˌʌnbɪˈliːf] *n* ishonmaslik, bovar qilmaslik, umidsizlik, ishonchsizlik

unbelievable [ˌʌnbɪˈliːvəb(ə)l] *n* aqlga (haqiqatga) to'g'ri kelmaydigan, mumkin bo'lmaydigan, ehtimoldan uzoq, aql bovar qilmaydigan

unbeliever [ˌʌnbɪˈliːvə] *n* 1) dinga (xudoga) ishonmaydigan, dinsiz, dahriy; 2) har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan kishi

unbelt [ˌʌnˈbɛlt] *v* kamar (belbog')ni yechmoq

unbend [ˌʌnˈbend] *v* (**unbent**) 1) to'g'rilamoq, qaddini rostlamoq; 2) dam bermoq; ~ **to one's mind** boshga dam bermoq

unbending [ˌʌnˈbendɪŋ] 1. *v* to'g'rilamoq, rostlamoq; 2. *a* sabotli, matonatli, qat'iyatli

unbeneficed [ˌʌnˈbenɪfɪst] *a* *cherk.* hech qanday kirimi (daromadi) bo'lmagan

unbent [ˌʌnˈbent] *past., p. p. of unbend*

unbeseeming [ˌʌnbɪˈsiːmɪŋ] *a* nomunosib, noloyiq, yarashmaydigan, kelishmaydigan

unbias(s)ed [ˌʌnˈbiːsɪd] *a* betaraf, beg'araz, odil, xolis, haqqoniy, adolatli

unbidden [ˌʌnˈbɪdn̩] *v* aytilmagan, chaqirilmagan, taklif qilinmagan, chorlanmagan

unbind [ˌʌnˈbaɪnd] *v* (**unbound**) 1) yechmoq, bo'shatmoq, ochmoq; 2) (*sochni*) yoymoq, yechmoq

unblamable [ˌʌnˈbleɪməb(ə)l] *a* benuqson, bekam-ko'st, qusursiz

unbleached [ˌʌnˈbliːtʃt] *a* oqartirilmagan, oqlanmagan

unblemished [ˌʌnˈblemɪʃt] *a* dog'tegmagan, benuqson, bekam-ko'st, aybsiz, nuqsonsiz

unblended [ˌʌnˈblendɪd] *a* sof, toza, ozoda, pokiza

unblock [ˌʌnˈblɒk] *v* 1) ochmoq, bo'shatmoq, ochib (bimalol qilib) qo'yimoq (*yo'l, chegara va b. haqida*); 2) to'siqni olib tashlamoq

unblooded [ˌʌnˈblʌdɪd] *a* toza emas, zotli emas, ayrigan, nasldor emas, zoti past

unbloody [ˌʌnˈblʌdi] *a* 1) qon tegmagan; 2) qonsiz, qoni kam, qoni qoehgan

unblown [ˌʌnˈbləʊn] *a* gullamagan, gui chiqarmagan

unblushing [ˌʌnˈblʌʃɪŋ] *a* besharm, uyati (yuzi) yo'q; uyatsiz, nomussiz, behayo, sharmanda

unbodied [ˌʌnˈbɒdɪd] *a* tanasiz, jisimsiz, tanadan tashqari

unboiled [ˌʌnˈbɔɪld] *a* qaynamagan, qaynatilmagan

unbolt [ˌʌnˈbɔʊlt] *v* (*zulfinni, qulfni, qulflangan narsani*) ochmoq

unbone [ˌʌnˈbɔʊn] *v* (*go'shtning ichidan*) suyakni chiqarib olmoq

unbooked [ˌʌnˈbʊkɪd] *a* qayd qilinmagan, hisobga oliumagan

unborn [ˌʌnˈbɔːn] *a* 1) (hali) tug'ilmagan; 2) kelgusi, kelgusidagi, kelasi, bo'lg'usi, kelajak

unbosom [ˌʌnˈbʊz(ə)m] *v* (*o'z sirini*) birovgaga ishonib oshkor qilmoq, aytib qo'yimoq, aytib bermoq; **to ~ oneself** dilidagi dardini ochib-sochmoq

unbound [ˌʌnˈbaʊnd] *n* erkin, ozoda, hur, erki o'zida bo'lgan

unbounded [ˌʌnˈbaʊndɪd] *a* chegaralanmagan, chegarasi yo'q

unbowed [ˌʌnˈbaʊd] *v* gappa kirmaydigan, rozi bo'lmaydigan, yon bermaydigan, ko'nmaydigan

unbrace [ˌʌnˈbreɪs] *v* kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflaltirmoq, kuchsizlantirmoq

unbridle [ˌʌnˈbraɪdl̩] *v* (*aravadan yoki qo'shdan*) chiqarmoq, yechmoq, bo'shatmoq

unbridled [ˌʌnˈbraɪdl̩d] 1. *v* (*aravadan*) chiqarmoq, yechmoq, bo'shatmoq; 2. *a* 1) tiyib (jilovlab) bo'lmaydigan, shiddatli; 2) intizomsiz, tartibsiz

unbroken [ˌʌnˈbrəʊkən] *a* 1) o'tib (o'zib) bo'lmaydigan; **an ~ record** orqada (ortda) qoldirilmagan rekord; 2) sinmagan, sindirilmagan, butun; ~ **spirit** sinmagan (sindirilmagan) ruhi; 3) bus-butun, siomagan

unbuckle [ˌʌnˈbʌkl̩] *v* tugmani (ilgakni, to'qani) yechmoq

unbuild [ˌʌnˈbɪld] *v* buzmoq, yiqitmoq, qulatmoq, vayron qilmoq

unburden [ˌʌnˈbɜːdn̩] *v* og'irini (mushkulini) yengil qilmoq

unbusinesslike [ˌʌnˈbɪznɪslɪk] *a* 1) ishga (xizmatga) aloqador bo'lmagan, ish yuzasidan olib borilmaydigan; 2) tajribasiz, nonoq, ishning ko'zini bilmaydigan

unbutton [ˌʌnˈbʌtn̩] *v* yechmoq, tugmasini yechmoq

unbuttoned [ˌʌnˈbʌtn̩d] *a* tugmasi yechilgan

uncage [ˌʌnˈkeɪdʒ] *v* qafasdan chiqarib (qo'yib) yubormoq

uncalled-for [ˌʌnˈkɔːldfɔː] *a* o'rinsiz, no-o'rin, bemavrid; **an ~ remark** o'rinsiz tanbeh

uncanny [ˌʌnˈkæni] *a* dahshatli, vahimati, mudhish, qo'rqinchli

uncap [ʌnˈkæp] *v* 1) shlapani yechmoq; 2) qopqoqni ochmoq
uncared-for [ʌnˈkeədfoː] *a* 1) tashlandiq; 2) tashlab qo'yilgan, qarovsiz qolgan, xaroba; ~ **children** qarovsiz qolgan bolalar
uncase [ʌnˈkeɪs] *v* 1) qutidan chiqarib olmoq; 2) o'rovdagi narsalarni ochib olmoq
uncaused [ʌnˈkɔːzd] *a* sababsiz, besabab, asossiz, bevaaj
unceasing [ʌnˈsiːsɪŋ] *a* to'xtamaydigan, to'xtovsiz, tugamaydigan
unceremonious [ʌnsəriˈmɛəriəs] *n* oddiy, norasmiy, g'ayrirasmiy
uncertain [ʌnˈsɜːtɪn] *a* 1) ishonmaydigan, ishonchsiz; 2) noma'lum, noaniq, notayin
uncertainty [ʌnˈsɜːtɪ(ə)nti] *n* ishonchsizlik, ishonchsizlik bilan qilinadigan harakat, ikkilanish, ishonmaslik
unchain [ʌnˈtʃeɪn] *v* 1) zanjirdan yechib yubormoq; 2) taqasini olib tashlamoq; 3) kishandan bo'shatmoq, kishanni olib tashlamoq
unchallengeable [ʌnˈtʃælɪndʒəb(ə)l] *a* bahslashmaydigan, ishonchli, shubhasiz, rad qilib bo'lmaydigan
unchancy [ʌnˈtʃɑːnsɪ] *a* muvaffaqiyatsiz, ishi o'ngidan (baroridan) kelmagan
unchanged [ʌnˈtʃeɪndʒd] *a* o'zgarimagan, o'zgarishsiz qolgan
uncharitable [ʌnˈtʃærɪtəb(ə)l] *a* rahmsiz, berahm, qahrli, zolim, shafqatsiz
uncharted [ʌnˈtʃɔːtɪd] *a* xaritada belgilanmagan
unchecked [ʌnˈtʃekt] *a* 1) tekshirilmagan (*hujjat, hisob va b.*); 2) o'zboshimcha, tiyib bo'lmaydigan
unchristian [ʌnˈkrɪstɪən] *a* 1) xristian dini-ga mansub bo'lmagan; 2) so'zl. to'g'ri kelmaydigan, noqulay, o'rinsiz
uncial [ʌnʃiəl] *a* 1) unsiyal, unsiyaga oid (*unsiya - 29,86 grammga teng bo'lgan og'irlik o'lchovi*); 2) bosh (*harf*)
uncivil [ʌnˈsɪv(ə)l] *a* 1) qo'pol, to'ng, qo'rs; 2) madaniyatsiz, madaniyatga erishmagan
uncivilized [ʌnˈsɪvɪlɪzd] *a* madaniyatsiz, madaniyatga erishmagan
unclad [ʌnˈklæd] *a* yalang'och, kiyimsiz, kiyinmagan
unclasp [ʌnˈklɑːsp] *v* 1) tugma (ilgak)ni yechmoq; 2) (qo'ldan) chiqarmoq
uncle [ʌŋk(ə)l] *n* amaki, tog'a
unclean [ʌnˈkliːn] *a* 1) nopok, harom; kir, iflos, isqirt; 2) axloq qoidalariga xilof
unclear [ʌnˈkliə] *a* aniq (ravshan, tushunarli) emas
uncleared [ʌnˈkliəd] *a* 1) yig'ishtirilmagan, saranjom-sarishta qilinmagan; 2) to'lanmagan (*qarz haqida*)

unclench [ʌnˈklentʃ] *v* yozmoq, ochmoq, ochib (yozib) yubormoq (*musht va b. haqi-da*)
uncloak [ʌnˈkləʊk] *v* 1) plashni yechmoq; 2) ko'ch. niqobini yechmoq, sirini fosh qilmoq
unclose [ʌnˈkləʊz] *v* 1) ochmoq, qopqog'ini ko'tarmoq; **to ~ one's eyes** ko'zini ochmoq, ko'ziga ko'rsatib qo'yimoq; „hushyor bo'l“ demog
unclosed [ʌnˈkləʊzd] *a* 1) ochiq, yopil-magan; 2) tugatilmagan, oxiriga yetkazilmagan; ~ **argument** oxiriga yetkazilmagan bahs (munozara)
unclothe [ʌnˈkləʊð] *v* yechintirmoq, kiyimini yechmoq, yechib qo'yimoq
unclouded [ʌnˈklaʊdɪd] *a* bulutsiz, ochiq, musaffo; ~ **happiness** beg'ubor (porloq) baxt; ~ **life** porloq hayot; ~ **childhood** beg'ubor bolalik
unco [ʌŋkəʊ] **1. a** *shotl.* ajib, ajoyib, taajjub, qiziq, g'alati, alomat; **2. adv** boshqalarga o'xshamagan holda; **3. n** (*pl -os [-əʊz]*) 1) notanish odam, begona; 2) yangiliklar
uncoll [ʌnˈkɔɪl] *v* yormoq, tortib chavatmoq; yechmoq
uncoined [ʌnˈkɔɪnd] *a* chekilmagan, zarb qilinmagan
uncome-at-able [ʌnˈkəʊmətəb(ə)l] *a* so'zl. egallab bo'lmaydigan, zabt etib bo'lmaydigan
uncomely [ʌnˈkəʊmli] *a* 1) xunuk, ko'rim-siz, ko'rksiz, chiroyli emas; 2) yarashmaydigan
uncomfortable [ʌnˈkəʊmf(ə)təb(ə)l] *a* 1) noqulay, nobor; 2) o'ng'aysiz
uncommitted [ʌnˈkɔmɪtɪd] *a* 1) betaraf, xolis; 2) qo'shilmaslik siyosatini tutuvchi (harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmagan)
uncommon [ʌnˈkɔmən] *a* 1) kam uchraydigan, kamyob; 2) boshqalarga o'xshamagan, boshqalardan farq qiladigan, boshqacha, alomat, ajoyib, qiziq
uncommonly [ʌnˈkɔmənli] *adv* 1) odatdan tashqari, favqulodda; ajoyib, g'oyat, nihoyat darajada; 2) kam, ahyon-ahyonda, onda-sonda
uncommunicative [ʌnˈkɔmjuːnikətɪv] *a* odamga el bo'lmaydigan, kirishmaydigan, odamlarga qo'shilmaydigan
uncompanionable [ʌnˈkɔmpənjənəb(ə)l] *a* kamgap, indamas, odamlarga qo'shilib ketmaydigan
uncomplaining [ʌnˈkɔmpleɪnɪŋ] *a* itoatkor, nolimaydigan, zorlanmaydigan, tovush chiqarmaydigan, sabr-toqatli

- uncompliant** [ˌʌŋkəmˈplaɪənt] *a* yechib (bo'shatib, burib, sindirib) bo'lmaydigan, juda mustahkam, qattiq, pishiq
- uncomplying** [ˌʌŋkəmˈplaɪɪŋ] *a* bo'yin egmaydigan, yon bermaydigan
- uncompromising** [ˌʌŋˈkɒmprəmaɪzɪŋ] *a* 1) sabotli, matonatli, mahkam, toymas, qaytmas, bukilmas, qat'iy; 2) ashaddiy, kelishib bo'lmaydigan
- unconcealed** [ˌʌŋkənˈsiːld] *a* ochiqdan ochiq ko'rinib turgan, ochiq, oshkora
- unconcern** [ˌʌŋkənˈsɜːn] *n* beg'amlik, beparvolik, betashvishlik
- unconcerned** [ˌʌŋkənˈsɜːnd] *a* parvosiz, beparvo, beg'am, betashvish; ~ **about** nimagadir nisbatan beparvo; ~ **in** nimagadir aralashmagan (qo'shilmagan); ~ **with** nima bilandir qiziqmaydigan
- unconditional** [ˌʌŋkənˈdɪʃ(ə)nəl] *a* 1) so'zsiz, e'tirozsiz; ~ **surrender** so'zsiz taslim bo'lish; 2) shart qo'ymasdan
- unconditioned** [ˌʌŋkənˈdɪʃ(ə)nd] *a* cheklanmagan, cheksiz, cheki yo'q
- unconforming** [ˌʌŋkənˈfɔːmɪŋ] *a* talabga javob bermaydigan
- unconformity** [ˌʌŋkənˈfɔːmɪti] *n* to'g'ri kelmaslik, muvofiq emaslik, nomunosiblik
- unconnected** [ˌʌŋkəˈnektɪd] *a* aloqasi bo'lmagan, taalluqli bo'lmagan, daxldor bo'lmagan
- unconquerable** [ˌʌŋˈkɪŋk(ə)rəb(ə)l] *a* yengilmas, yengilmaydigan, yengib bo'lmaydigan
- unconscionable** [ˌʌŋˈkɒnʃ(ə)nəb(ə)l] *a* ornomusni bilmaydigan, vijdotsiz, insofsiz, uyatsiz, benomus, noinsof; vijdotsizlarcha qilingan; ~ **bargain** yuz g'ayriqonuniy bitim
- unconscious** [ˌʌŋˈkɒnʃəs] *a* 1) tushunmaydigan, bilmaydigan, anglamaydigan, fahmlamaydigan, his qilmaydigan, sezmaydigan, hushsiz, hushidan ketgan; 2) ongsiz, ongi (aqli) to'liq shakllanmagan; 3) behush, hushini yo'qotgan, hushsiz
- uncontemplated** [ˌʌŋˈkɒntɛmpleɪtɪd] *a* kutilmagan, tasodifiy, nogahoniy, to'satdan bo'lib qolgan, kutilmaganda yuz bergan
- uncontented** [ˌʌŋkənˈtɛntɪd] *a* ko'ngli to'lmagan, norozi, domangir, rozi emas
- uncontrollable** [ˌʌŋkənˈtrəʊləb(ə)l] *a* to'xtatib (uyib, bosib) bo'lmaydigan, shiddatli, kuchli
- unconventional** [ˌʌŋkənˈvɛnʃən(ə)l] *a* 1) rasmi-rusumni bilmaydigan; 2) qoliplanmagan, andazalanmagan, qolip (andaza) bo'yicha qilinmagan
- unconversable** [ˌʌŋkənˈvɜːsəbl] *a* 1) kimgap, kamsuxan, indamas; 2) odamga qo'shilmaydigan
- unconverted** [ˌʌŋkənˈvɜːtɪd] *n* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy
- unconvertible** [ˌʌŋkənˈvɜːtəb(ə)l] = **inconvertible**
- unconvincing** [ˌʌŋkənˈvɪnsɪŋ] *a* ishonarli bo'lmagan, ishonтира olmaydigan, uncha ishonchli emas
- uncooked** [ˌʌŋˈkɒkt] *a* kom, tayyor bo'lmagan, pishmagan (*ovqat to'g'risida*)
- uncord** [ˌʌŋˈkɔːd] *v* yechmoq, bo'shatmoq; yechib (bo'shatib) olmoq, yechib (bo'shatib) qo'ymoq (yubormoq)
- uncork** [ˌʌŋˈkɔːk] *v* ochmoq, og'zini (tiqinni, qopqog'ini) ochmoq
- uncorruptible** [ˌʌŋkəˈrʌptəbl] *a* poraga uchmaydigan, sotilmaydigan, vijdonini sotmaydigan
- uncostly** [ˌʌŋˈkɒstl] *a* arzon, bahosi (narxi) past
- uncountable** [ˌʌŋˈkaʊntəb(ə)l] *a* sonsiz, sanoqsiz, beadad, ko'p, son-sanoqsiz, hisbiga (sanog'iga) yetib bo'lmaydigan
- uncounted** [ˌʌŋˈkaʊntɪd] *a* hisobsiz, son-sanoqsiz; cheksiz, behisob, behad
- uncouple** [ˌʌŋˈkʌp(ə)l] *v* ajratmoq, uzinoq, ajratib (uzib) qo'ymoq
- uncouth** [ˌʌŋˈkuːθ] *a* kelishmagan, qovushmagan, o'xshovi yo'q, beso'naqay, beo'xshov, qo'pol
- uncover** [ˌʌŋˈkʌvə] *v* 1) (*qopqoqni*) olib qo'ymoq, olmoq, chiqarib tashlamoq, ochmoq; 2) (*yuz va b. ni*) ochmoq
- uncovered** [ˌʌŋˈkʌvəd] *a* ochiq, usti yopil-magan, qopqoqlanmagan, usti ochiq (berkitilmagan)
- uncrippled** [ˌʌŋˈkrɪp(ə)ld] *a* lat (shikast) yemagan, ishdan chiqmagan
- uncritical** [ˌʌŋˈkrɪtɪk(ə)l] *a* 1) ko'r-ko'rona qabul qilib oladigan; 2) tanqidiy ko'z bilan qaralmagan (yondoshilmagan), tanqidiy emas
- uncrossed** [ˌʌŋˈkrɒst] *a* qarshiliksiz, erkin, bema'lol: **an** ~ **cheque** puli to'lanmagan chek
- uncrown** [ˌʌŋˈkraʊn] *v* taxtdan tushirmoq, tojdan mahrum qilmoq
- uncrowned** [ˌʌŋˈkraʊnd] *a* 1) tugatilmagan, tugamagan, oxiriga yetmagan; 2) toj kiyinmagan, taxtga mingan
- unction** [ˌʌŋk(ə)n] *n* 1) surtish, suckash (*marosim, rasm-rusum*); 2) malham dori
- unctuous** [ˌʌŋktʃʊəs] *a* yog'li, seryog', yog'i ko'p

uncultivated [ʌnˈkʌltɪveɪtɪd] *a* 1) rivojlanmagan (*qobiliyat va b.*); 2) haydalmagan, chopilmagan (*yer haqida*)

uncultured [ʌnˈkʌltʃəd] *a* 1) madaniyatsiz, madaniyatdan orqada qolgan; 2) tarbiya koʻrmagan, tarbiyasiz, beadab

uncurb [ʌnˈkɜːb] *v* 1) suvligʻini (yuganini) olib *yoki* chiqarib qoʻymoq; 2) *soʻzl.* hadidan oshirib yubormoq

uncurl [ʌnˈkɜːl] *v* rivojlanmoq, oʻsmoq (*zulf, gajak, jingalak soch toʻgʻrisida*)

uncurtain [ʌnˈkɜːt(ə)n] *v* ikki tomonga surmoq, ochmoq; pardani ochmoq

uncurtained [ʌnˈkɜːtɪnd] *a* pardasiz, pardalanmagan, parda tutib (*pardalab*) qoʻyilmagan

uncustomary [ʌnˈkʌstəm(ə)rɪ] *a* odatlanilmagan, odat tusiga kirmagan, yangi, oʻrganilmagan

uncut [ʌnˈkʌt] *a* qirilmagan, kesilmagan, tilinmagan

undamped [ʌnˈdæmpt] *a* radio, dempferlanmagan (*dempfer – tebranishni pasaytiruvchi yoki yutuvchi asbob; qurilma*)

undated [ʌnˈdeɪtɪd] *a* sanasi yozilmagan, sanasi koʻrsatilmagan, sanasi yoʻq (*nomaʼlum*)

undaunted [ʌnˈdɔːntɪd] *v* jasoratli, jasur, qoʻrqmas, dovyurak, botir

undecelve [ʌndɪˈsiːv] *v* adash, yoʻlidan qaytmoq, koʻzi ochilmoq

undecided [ʌndɪˈsaɪdɪd] *a* 1) hal etilmagan; hal boʻlmagan; 2) hal qilinmagan, bir xulosaga kelmagan

undecipherable [ʌndɪˈsaɪf(ə)rəb(ə)] *a* 1) noaniq, chaplashib ketgan, oʻqib boʻlmaydigan; 2) tushunib boʻlmaydigan, noaniq

undecked [ʌnˈdekt] *a* bezatilmagan, yasatirilmagan, zeb berilmagan; pardozsiz

undeclared [ʌndɪˈkleəd] *a* eʼlon qilinmagan, maʼlum qilinmagan

undemocratic [ʌndeməˈkrætɪk] *a* 1) demokratiyaga qarshi; 2) demokratiyaga qarshi qaratilgan, antidemokratik

undemonstrative [ʌndɪˈmɒnsɪrətɪv] *a* vazmin, ogʻir, bosiq, oʻzini tuta biladigan

undeniable [ʌndɪˈnaɪəb(ə)] *a* 1) rad qilib boʻlmaydigan, eʼtirozga oʻrin qoldirmaydigan, aniq, shak-shubhasiz; 2) juda yaxshi, juda soz, aʼlo darajadagi, ajoyib

under [ʌndə] *prep* 1) ostida, tagida; 2) pastroq, ozroq; ~ *smb.*'s *protection* kimningdir himoyasi ostida

underact [ʌndərˈækt] *v* rolni sust ijro etmoq

underaction [ʌndərˈækʃ(ə)n] *n* ikkinchi darajali epizod

under-age [ʌndərˈeɪdʒ] *a* voyaga (*balogʻatga*) yetmagan, norasida

underbade [ʌndəˈbeɪd] *past. of underbid*

underbid [ʌndəˈbɪd] *v* (**underbade; underbidden**) (*narxni*) pasaytirmoq, kamaytirmoq, tushirmoq

underbidden [ʌndəˈbɪdn] *p. p. of underbid*

underbought [ʌndəˈboʊt] *past., p. p. of underbuy*

underbred [ʌndəˈbred] *a* 1) yomon tarbiya olgan, tarbiyasi yomon; 2) zoti aynigan

underbrush [ʌndəˈbrʌʃ] = **underwood**

underbuy [ʌndəˈbaɪ] *v* (**underbought**) oʻz narxidan arzon narxga sotib olmoq

undercarriage [ʌndəˈkærɪdʒ] *n av.* shassi (*samolyotning aerodromda yurishi, uchish va qoʻnishida xizmat qiladigan gʻildirakli qismi*)

undercharge [ʌndətʃɑːdʒ] 1. *v* 1) juda ham arzon narxda olmoq; 2) yetarli darajada zaryadlamaslik; yetarlicha yuklamaslik; 2. *n* 1) juda ham past narx; 2) yetarli boʻlmagan zaryad

underclothes [ʌndəˈkləʊ(ð)z] *n* ichki (*ich*) kiyimlar

undercoat [ʌndəkəʊt] *n* boshqa kiyim ostidan kiyiladigan kiyim

undercooling [ʌndəˈkuːlɪŋ] *n* 1) yetarli boʻlmagan sovitish; 2) *fiz.* haddan tashqari sovitish, juda sovib ketish

undercover [ʌndəˈkʌvə] *a* yashirin, maxfiy; **an ~ agent** maxfiy agent

undercroft [ʌndəkroʊft] *n* gumbazli yertoʻla

undercurrent [ʌndəˈkʌrənt] *n* 1) pastki (*qarshi*) oqim; 2) *koʻch.* yashirin tuygʻu

undercut [ʌndəkʌt] *n* 1) (*goʻshidan*) qirqib olingan, parcha; 2) *sport.* sapchish, sakrash *yoki* pastdan berilgan zarba

underdeveloped [ʌndəˈveləpt] *a* hali oʻsib yetilmagan, yaxshi rivojlanmagan

underdid [ʌndəˈdɪd] *past of underdo*

underdo [ʌndəˈduː] *v* (**underdid; underdone**) oxiriga yetkazilmagan, tobiga yetkazilmagan

underdog [ʌndədɒg] *n* 1) magʻlubiyatga uchragan it (*kuchuk*); 2) magʻlubiyatga uchragan tomon; omadsiz

underdone [ʌndəˈdʌn] *p. p. of underdo*

underdose [ʌndəˈdəʊz] 1. *n* yetarli boʻlmagan doza (*dori-darmonning oʻlchovli miqdori*); 2. *v* yetarli boʻlmagan dozani bermoq

underestimate [ʌndərˈestɪmeɪt] *v* kam baholamoq, yetarli baho bermaslik

under-expose [ʌndərɪksˈpəʊz] *v* 1) ajratilgan (*koʻrsatilgan*) vaqtdan kam ushlab turmoq; maʼlum vaqtgacha saqlab (*ushlab, tutib*) turmaslik

underfed [ʌndəˈfed] *past., p. p. of underfeed*

- underfeed** [ˌʌndəˈfi:d] *v* (**underfed**) to'y-dirmasdan ovqatlantirmoq, ovqatni kam bermoq, to'ydirmay boqmoq
- underfoot** [ˌʌndəˈfʊt] *adv* 1) oyoq ostida; 2) qaramog'i ostida, nazorati ostida; to keep on ~ kimgadir qattiqqo'llik qilmoq; kimnidir iskanjada tutmoq
- undergarment** [ˌʌndəˈgɑ:mənt] *n* ichki kiyim, ko'ylak-ishton
- undergo** [ˌʌndəˈgəʊ] *v* (**underwent**; **underdone**) boshdan kechirmoq, uchramoq, yo'liqmoq, duchor bo'lmoq
- undergone** [ˌʌndəˈgɒn] *p. p. of undergo*
- undergraduate** [ˌʌndəˈgrædʒu:it] *n* 1) oxirgi kurs talabasi; 2) tajribasi yo'q, tajribasiz, malakasiz
- underground** 1. *n* [ˌʌndəˈgraʊnd] 1) (the ~) metro; by ~ metro orqali; 2) yashirin tashkitot; 3) yashirin (maxfiy) ish; 2. *a* [ˌʌndəˈgraʊnd] yer ostida joylashgan, yer ostidagi
- undergrowth** [ˌʌndəˈgrəʊθ] *n* o'rmondagi butalar (*yetilmagan daraxtlar*)
- underhand** [ˌʌndəˈhænd] *a* yashirin, maxfiy, ko'pchilik bilmaydigan
- underhung** [ˌʌndəˈhʌŋ] *a* (*ostki jag' haqida*) oldinga turtib chiqqan
- underlaid** [ˌʌndəˈleɪd] *past. p. p. of underlay*
- underlain** [ˌʌndəˈleɪn] *p. p. of underlie*
- underlay I** [ˌʌndəˈleɪ] *v* (**underlaid**) 1) tagiga (ostiga) qo'yimoq (yotqizmoq); 2) (*biror narsaning*) tagida yotmoq
- underlay II** [ˌʌndəˈleɪ] *past. of underlie*
- underlet** [ˌʌndəˈlet] *v* (**underlet**) juda ham arzon narxda ijaraga bermoq
- underlie** [ˌʌndəˈleɪ] *v* (**underlay**; **underlain**) 1) nimaningdir ostida yotmoq; 2) asosida yotmoq
- underline** [ˌʌndəˈlaɪn] *v* 1) tagiga chizmoq; 2) ta'kidlamoq, alohida urg'u bermoq
- underling** [ˌʌndəˈlɪŋ] *n* 1) mayda mansabdor; 2) kichkina (arzimagan, e'tiborsiz) odam
- underlying** [ˌʌndəˈlaɪɪŋ] *a* 1) asosiy, tub, bosh, eng muhim; 2) nimaningdir ostida yotgan *yoki* joylashtirilgan
- undermanned** [ˌʌndəˈmænd] *a* *harb.* to'liq bo'lmagan shaxsiy tarkibga ega bo'lgan
- undermine** [ˌʌndəˈmaɪn] *v* 1) vayron qilmoq; yemirmoq; 2) biror joyning tagini kovlamoq; 3) portlatib buzmoq
- undermost** [ˌʌndəˈməʊst] *a* eng pastdagi, quyidagi
- underneath** [ˌʌndəˈni:θ] 1. *adv* 1) quyida, pastda, quyi (ost) tomonda; 2) ostga, pastga, pastga qarab, pastga tomon; 2. *prep.* tagida, tagiga
- undernourish** [ˌʌndəˈnaɪʃ] *v* ovqatni kam bermoq, to'ydirmay boqmoq
- underpaid** [ˌʌndəˈpeɪd] *past. p. p. of underpay*
- underpants** [ˌˈʌndəˈpænts] *n pl* 1) ishton, erkaklar ishtoni; 2) (*erkaklar*) trusigi, kalta ishtoni
- underpass** [ˌʌndəˈpɑ:s] *n* 1) temir yo'l ko'tarmasi ostidagi yo'l; 2) *amer.* yer ostidagi o'tish joyi
- underpay** [ˌʌndəˈpeɪ] *v* (**underpaid**) juda oz oylik (maosh) to'lamoq
- underpin** [ˌʌndəˈpɪn] *v* 1) qo'llamoq, quvvatlamoq; mustahkamlamoq; 2) tiramoq, tirab qo'yimoq, tirgovuch (tirgak) qo'yimoq (*devorga*)
- underplot** [ˌʌndəˈplɒt] *n* 1) fitna, zimdan tayyorlanayotgan qasd; 2) sir tutilgan fikr (*roman haqida*)
- underpopulated** [ˌʌndəˈpɒpjʊleɪtɪd] *a* aholisi kam, siyrak, kam aholi
- underpressure** [ˌʌndəˈpreʃə] *v* *fiz.* siyraklanish, siyraklashuv, siyraklashish, kamaytirish (*bosim haqida*)
- underprivileged** [ˌʌndəˈprɪvɪlɪdʒd] *a* 1) juda oz huquqlarga ega bo'lgan; 2) kambag'al, faqir, nochor
- underprize** [ˌʌndəˈpraɪz] *v* kam baho bermoq, yetarlicha baho bermaslik
- underproduce** [ˌʌndəˈprɒdʒu:s] *v* yetarli bo'lmagan miqdorda mahsulot ishlab chiqmoq
- under-production** [ˌʌndəˈprɒdʒ(ə)n] *n* yetarli ishlab chiqarmaslik, rejadan kam ishlab chiqarish
- underproof** [ˌʌndəˈpru:f] *a* : ~ spirit belgilangan me'yordan past gradusga ega bo'lgan spirt
- underrate** [ˌʌndəˈreɪt] *v* 1) noto'g'ri ko'rsatmoq (*ashob-uskuna to'g'risida*); 2) kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik, qadriga yetmaslik, nazar-pisand qilmaslik
- under-ripe** [ˌʌndəˈraɪp] *a* yetilib pishmagan, yetilmagan, xom
- underscore** [ˌʌndəˈskɔ:] *v* 1) tagiga chizmoq; 2) ta'kidlamoq, uqtirib o'tmoq; 3) diqqatni tortmoq, e'tiborni jalb etmoq
- undersea** [ˌʌndəˈsi:] 1. *a* suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi, suvosti; 2. *adv* suvning ostida
- under-secretary** [ˌʌndəˈsekrət(ə)rɪ] *a* vazir o'rinbosari *yoki* yordamchisi
- undersell** [ˌʌndəˈsel] *v* (**undersold**) 1) boshqalardan ko'ra arzonroq sotmoq; 2) o'z narxidan past narxga sotmoq
- underset** [ˌʌndəˈset] 1. *n* *deng.* suv ostidagi oqim; 2. *v* tiramoq, tirab qo'yimoq, tirgovuch (tirgak) qo'yimoq

undershirt [ˈʌndəʃɜ:t] *n* ichki (ich) ko'ylak, mayka
undersign [ˌʌndə'saɪn] *v* qo'l qo'yimoq, imzo chekmoq
undersigned [ˌʌndə'saɪnd] *a* 1. *a* quyida qo'l qo'ygan, quyida imzo chekkan; 2. *n* quyida imzo chekkan kishi; **we the ~** biz, quyida imzo chekkan (imzo chekuvchi) kishilar
undersized [ˌʌndə'saɪzɪd] *a* kichik o'lehamli; o'lehami kichik
underskirt [ˌʌndə'skɜ:t] *n* xotin-qizlar ko'y-lagining beldan pastki qismi
undersoil [ˌʌndə'sɔɪl] *n* tagzamin (ishlanadigan tuproq ostidagi yer qatlami)
undersold [ˌʌndə'səʊld] *past., p. p. of undersell*
undersong [ˌʌndə'sɒŋ] *n* 1) naqarot; 2) yashirin ma'no
understaffed [ˌʌndə'stɔ:fɪd] *a* to'lmagan, to'ldirib olinmagan, but qilib olinmagan, to'ldirilmagan
understand [ˌʌndə'stænd] *v* (understood) tushunmoq, anglamoq
understandable [ˌʌndə'stændəb(ə)l] *a* 1) tushunarli, tushunib bo'ladigan, tushuniladigan; 2) asosli, o'rinli
understanding [ˌʌndə'stændɪŋ] *n* 1) tushunish, anglash, fahmlash; **beyond one's ~** aqlga sig'maydigan; 2) bitim, kelishuv
understate [ˌʌndə'steɪt] *v* kichraytirib (kamaytirib) ko'rsatmoq, kamsitmoq
understatement [ˌʌndə'steɪtmənt] *n* kichraytirib yuborish, kichraytirib (kamaytirib) ko'rsatish; kamsitish
understock [ˌʌndə'stɒk] *v* 1) (*mol va anjomlar bilan*) yetarli darajada ta'minlamaslik; 2) *tex.* yoqilg'ini pastdan yetkazib bermoq
understood [ˌʌndə'stʊd] *past., p. p. of understand*
understrapper [ˌʌndə'stræpə] = **underling**
understratum [ˌʌndə'strɔ:təm] *n* (*pl -ta (-tə)*) *geol.* pastki qatlam
understudy [ˌʌndə'stʌdi] *n* dublyor (*biror ishni navbatlashib bajaruvchi ikki kishidan biri*)
undertake [ˌʌndə'teɪk] *v* (undertook; undertaken) 1) o'z bo'yniga olmoq, zimmasiga olmoq; 2) kirishmoq; **to ~ a trip** sayohat qilmoq; **to ~ a job** ishga kirishmoq, ishga tushmoq
undertaken [ˌʌndə'teɪkən] *p. p. of undertake*
undertaker [ˌʌndə'teɪkə] *n* korxonaga egasi
undertaking [ˌʌndə'teɪkɪŋ] *n* ish, majburiyat, vazifa
undertenant [ˌʌndə'tenənt] *n* kichik ijarachi

under-the-table [ˌʌndəðə'teɪb(ə)l] *a* yashirin, maxfiy, bironvga aytilmaydigan, sir tutiladigan
undertint [ˌʌndətɪnt] *n* nim rang, och rang
undertone [ˌʌndətəʊn] *n* yarim ohang, yarim ovoz
undertook [ˌʌndə'tʊk] *past of undertake*
undervalue [ˌʌndə'vælju:] *n* kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik, qadriga yetmaslik
underwater [ˌʌndə'wɔ:tə] *a* suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi, suvosti...
underwear [ˌʌndəweə] *n* ichki (ich) kiyimlar
underwent [ˌʌndə'went] *past. of undergo*
underwood [ˌʌndəwʊd] *n* 1) o'rmondagi butalar (*yetilmagan daraxtlar*); 2) chakalakzor, yosh o'rmon
underwork [ˌʌndə'wɜ:k] *n* past sifatli ish
underworld [ˌʌndə'wɜ:ld] *n* do'zax, jahannam
underwrite [ˌʌndə'raɪt] *v* (underwrote; underwritten) qo'l qo'yimoq, imzo chekmoq
underwriter [ˌʌndə'raɪtə] *n* 1) sug'urta kompaniyasi; sug'urta qiluvchi shaxs yoki idora; 2) (*zayom, aksiya va b.*) obunachi
underwritten [ˌʌndə'raɪtɪn] 1. *p. p. of underwrite*; 2. *a* quyida (tubanda) qo'l qo'yuvchi (qo'ygan)
underwrote [ˌʌndə'rəʊt] *past. of underwrite*
undeservedly [ˌʌndɪ'zɜ:vɪdli] *adv* nohaq, o'rinsiz, asossiz
undesigned [ˌʌndɪ'zaɪnd] *a* qasddan (atayin) qilinmagan, bilmasdan qilingan
undesirable [ˌʌndɪ'zɑɪ(ə)rəb(ə)l] *a* 1) maqsadga muvofiq bo'lmagan, keraksiz, to'g'ri kelmaydigan; 2) noqulay, o'rinsiz
undeterminable [ˌʌndɪ'tɜ:mɪnəb(ə)l] *a* aniqlab (belgilab) bo'lmaydigan, aniqlash qiyin bo'lgan
undetermined [ˌʌndɪ'tɜ:mɪnd] *a* noaniq, aniqlanmagan
undeveloped [ˌʌndɪ'veləpt] *a* 1) rivojlanmagan, taraqqiy etmagan; 2) ishlov berilmagan (*yer haqida*)
undid [ʌn'dɪd] *past. of undo*
undies [ˌʌndi:z] *a pl so'zl.* ayollarning yoki bolalarning ichki ko'yilagi
undigested [ˌʌnd(a)'dʒestɪd] *a* 1) hazm bo'lmagan; 2) o'zlashtirilmagan; 3) yaxshi o'y-lab qilinmagan
undignified [ˌʌn'dɪgnɪfaɪd] *a* noloyiq, loyiq emas, nomunosib, arzimaydigan
undine [ˌʌndi:n] *n* suv parisi (*afsonalarda*)
undiplomatic [ˌʌn,dɪplə'mætɪk] *a* 1) beandisha, odobsiz; 2) ustomonlik bilan qilinmagan

undipped [ʌnˈdɪpt] *a* cho'qintirilmagan, cho'qinmagan, xristian diniga kirmagan

undischarged [ˌʌndɪsˈtʃɑːdʒd] *a* 1) bajarilmagan; ado etilmagan (*burch haqida*); 2) to'lanmagan

undisciplined [ʌnˈdɪsɪplɪnd] *n* 1) o'rgatilmagan, o'qitilmagan; 2) intizomsiz, tartibsiz

undiscriminated [ˌʌndɪsˈkrɪmɪneɪtɪd] *a* teng huquqli, tahqirlanmagan, kamsitilmagan, haq-huquqi cheklab qo'yilmagan

undisguised [ˌʌndɪsˈgaɪzɪd] *a* ochiq, oshkora, ro'yiros

undisposed [ˌʌndɪˈspəʊzd] *a* 1) joylashtirilmagan, joy-joyiga qo'yilmagan; 2) taqsimlanmagan, bo'linmagan

undisputed [ˌʌndɪˈspjuːtɪd] *a* shubhasiz, aniq, ravshan

undistinguished [ˌʌndɪˈstɪŋwɪʃt] *a* 1) ravshan emas, yaxshi (aniq) ko'rinmaydigan; 2) farq qilib (ajratib) bo'lmaydigan

undisturbedly [ˌʌndɪˈstɜːbdli] *adv* tinchlik (osoyishtalik) bilan

undivided [ˌʌndɪˈvaɪdɪd] *a* 1) butun, but, to'la, to'liq; 2) bo'linmagan

undo [ʌnˈduː] (**undid**; **undone**) *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, yo'q qilib yubormoq; **to** ~ **the seam** chokidan so'kmoq; **to** ~ **a treaty** shartnomani bekor qilmoq

undoing [ʌnˈduːɪŋ] *n* yo'q qilish, yo'qotish, yo'q qilib tashlash

undone [ʌnˈdʌn] 1. *p. p. of undo*; 2. *a* 1) tugatilmagan, qilinmagan; 2) o'lgan; **they are** ~ **ular** o'ldilar; 3) yechilgan, yechilib ketgan

undoubted [ʌnˈdaʊtɪd] *a* shubhasiz, shubha tug'dirmaydigan, aniq, ravshan, begumon

undoubtedly [ʌnˈdaʊtɪdli] *adv* shubha tug'dirmasdan, shubhasiz, shak-shubhasiz, beshak, begumon

undraw [ʌnˈdrɔː] *v* (*pardani*) ochmoq

undreamt-of [ʌnˈdremtɒv] *a* tasavvur qilib bo'lmaydigan, favqulodda, haddan tashqari, kutilmagan, uxlab tushida ham ko'rmagan; ~ **riches** aql bovar qilmaydigan darajadagi boylik

undress [ʌnˈdres] *v* yechmoq, yechinmoq, yechintirmoq

undressed [ʌnˈdrest] *a* yechingan, yechintirilgan

undue [ʌnˈdjuː] *a* haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta; ~ **haste** o'ta shoshilinch

undulate [ˌʌndjʊleɪt] *a* to'lqinsimon, taram-taram, qat-qat, to'lqinga o'xshagan

undulated [ˌʌndjʊleɪtɪd] = **undulate**

undulation [ˌʌndjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* to'lqinsimonlik, to'lqinga o'xshashlik

unduly [ʌnˈdjuːli] *adv* haddan tashqari, juda; juda ham, nihoyatda, g'oyatda, ortiq darajada

undying [ʌnˈdaɪŋ] *a* azaliy va abadiy, boqiy; ~ **glory** abadiy shon-shuhrat

unearned [ʌnˈɜːnd] *a* mehnat qilib olinmagan, ishlab topilmagan; ~ **praise** mehnatsiz qo'lga kiritilgan maqto

unearth [ʌnˈɜːθ] *v* 1) yer tagidan qazib olmoq; 2) uyasidan chiqarib yubormoq

unearthly [ʌnˈɜːθli] *n* 1) sirlı, g'ayritabiiy; 2) yerdan tashqaridagi; 3) so'zl. nomuvofiq, noqulay

unease [ʌnˈiːz] *n* 1) qo'pollık, beso'naqaylik, qovushmaganlik; 2) qiyinlik, tanglik, og'irlik; siqıqlık

uneasily [ʌnˈiːzli] *adv* noqulay holda, noqulay

uneasiness [ʌnˈiːzɪnəs] *n* 1) noqulaylik, qulaysızlık, o'ng'aysızlık; 2) notinchlik, bezovtalık

uneasy [ʌnˈiːzi] *a* 1) o'ng'aysız, noqulay; 2) xavotirli, tashvishli, xavf-xatarli, notinch, bezovta

uneatable [ʌnˈiːtəb(ə)] *a* yeyilmaydigan, yeb bo'lmaydigan

uneconomic [ˌʌniːkəˈnɒmɪk] *a* 1) tejab-tergashni (tejamkorlikni) bilmaydigan, isrofgar; 2) tejamasdan qilingan (qilinadigan); 3) xarajatlarnı qoplamaydigan, o'zini-o'zi ko'tarmaydigan, foydasız

uneconomical [ˌʌniːkəˈnɒmɪk(ə)] *a* 1) tejamkorlikni bilmaydigan; 2) xo'jasız, noşud

unedited [ˌʌnˈedɪtɪd] *a* 1) nashr etilmagan, bosmadan chiqmagan; 2) tahrır qilinmagan

uneducated [ˌʌnˈedjʊkətɪd] *a* ma'lumotsız, o'qimagan, bilimsız, omi, savodsız

unemployed [ˌʌnɪmˈplɔɪd] *a* ishsız, band bo'lmagan, ishsız qolgan

unemployment [ˌʌnɪmˈplɔɪmənt] *n* 1) ishsızlık, bekorchilik; 2) ishchilarning ishsız qolishlari; ~ **benefit** (**relief**) ishsızlar uchun beriladigan yordam pulı

unencumbered [ˌʌnɪnˈkʌmbəd] *a* malol kelmaydigan, og'ır tushmaydigan

unending [ˌʌnˈendɪŋ] *a* bitmas, tuganmas, bepoyon, cheksız, tugamaydigan

unendowed [ˌʌnɪnˈdaʊd] *a* mablag' (sarmoya) bilan ta'minlanmagan

unendurable [ˌʌnɪnˈdʒʊ(ə)rəb(ə)] *a* chidab bo'lmaydigan, toqat qilib bo'lmaydigan

un-English [ʌnˈɪŋglɪʃ] *a* ingliz emas, inglizlarga xos bo'lmagan

unenterprising [ˌʌnˈentəpraɪzɪŋ] *a* noşud, biron ishning uddasidan chiqmaydigan, tashabbus ko'rsatmaydigan

- unequable** [AN'ekwəb(ə)l] *a* chidamsiz, chidolmaydigan; bo'sh, noustuvor
- unequal** [AN'ikwəl] *a* tengsiz, teng (baravar) bo'lmagan; ~ **match** tengsiz nikoh
- unequaled** [AN'ikwəld] *a* mislsiz, tengi yo'q, tengsiz, benazir
- unequivocal** [ANi'kwivək(ə)l] *a* 1) ikki xil tushunishga yo'l qo'ymaydigan, ikki ma'noli bo'lmagan, aniq, tushunarli; 2) aniq, ma'lum bir; **to count for ~ support** ma'lum bir yordamni mo'ljallamoq; **to give ~ expression** ochiq-oydin izhor qilmoq
- unerring** [AN'ɛ:riŋ] *a* bexato, xatosiz, to'g'ri
- uneven** [AN'i:v(ə)n] *a* notekis, g'adir-budur, qing'ir-qiyshiq
- unexampled** [ANiŋ'zə:mp(ə)ld] *a* tengi yo'q, mislsiz, tengsiz, misli ko'rilmagan
- unexceptionable** [ANik'sep(ə)nəb(ə)l] *a* juda yaxshi, juda soz, a'lo darajadagi, ajoyib
- unexecuted** [AN'eksikju:tɪd] *a* 1) bajarilmagan, amalga oshirilmagan; 2) rasmiylashtirilmagan, qonuniylashtirilmagan
- unexpected** [ANik'spektɪd] *a* kutilmagan, favqulodda, tasodifiy
- unexperienced** [ANik'spi(ə)rɪnst] *a* tajribasiz, malakasiz
- unexplored** [ANik'splɔ:d] *a* tadqiq etilmagan, o'rganilmagan
- unfabled** [AN'feib(ə)ld] *a* haqiqiy, o'ylab topilmagan, to'qib chiqarilmagan
- unfading** [AN'feɪdɪŋ] *a* so'lmaydigan, so'lmas, so'nmas, o'chmas
- unfailing** [AN'feɪlɪŋ] *a* sodiq, vafodor, vafoli, sadoqatli, ajralmas; **an ~ friend** sodiq (ajralmas) do'st
- unfair** [AN'feə] *a* adolatsiz, harom, nohaq
- unfaithful** [AN'feɪθf(ə)l] *a* 1) ishonchsiz, vafosiz; 2) bevafo, xiyonakor; **to be ~ to one's husband** eriga xiyonat qilmoq
- unfaltering** [AN'fɔ:lt(ə)rɪŋ] *a* qattiq, mustahkam, sabotli, barqaror
- unfamiliar** [ANfə'mɪlɪə] *a* notanish, begona, yot
- unfashionable** [AN'fæʃ(ə)nəb(ə)l] *a* urf (rasm) bo'lmagan, modadan chiqqan
- unfasten** [AN'fɑ:s(ə)n] *a* bo'shatmoq, yechmoq, yechib (bo'shatib) yubormoq
- unfathered** [AN'fɑ:ðəd] *a* shoir nikohlanmagan ota-onadan tug'ilgan, nikohsiz tug'ilgan, haromi
- unfathomable** [AN'fæð(ə)məb(ə)l] *a* 1) tubsiz, o'lehab bo'lmaydigan, behad; 2) tushuntirib bo'lmaydigan
- unfavourable** [AN'feɪv(ə)rəb(ə)l] *a* 1) noqulay, nomuvofiq, nobop, o'ng'aysiz; 2) xushi (xohishi) yo'q, xush (ma'qul) ko'rmaydigan, yoqtirmaydigan
- unfed** [AN'fed] *a* ovqatlantirilmagan, boqilmagan
- unfeeling** [AN'fi:lɪŋ] *a* shafqatsiz, toshbag'ir, berahm, yovuz
- unfeigned** [AN'feɪnd] *a* soxta (qalbaki) emas, haqiqiy, chin
- unfinished** [AN'fɪnɪʃt] *a* tugatilmagan, oxiriga yetkazilmagan
- unfit** [AN'fɪt] *a* yaroqsiz, to'g'ri (mos) kelmaydigan, ishga yaramaydigan, ishdan chiqqan, nobop; **a house ~ to live in** yashash uchun yaroqsiz uy
- unfix** [AN'fɪks] *a* bo'shatmoq, yechmoq, ko'chirmoq, siljitmoq
- unflagging** [AN'flæŋɪŋ] *a* bo'shshamaydigan, susaymaydigan
- unflappable** [AN'flæpəb(ə)l] *a* og'ir, vazmin, yuragi keng; ~ **temperament** og'ir fe'l (xulq-atvor)
- unfold** [AN'fəʊld] *a* 1) yozmoq, ochmoq, yoymoq; 2) ochilmoq
- unforeseen** [ANfə:'si:n] *a* kutilmagan, o'ylanmagan, tasodifiy, nogahoniy, xayolga ham kelmagan, to'satdan (qo'qqisdan) bo'lib qolgan
- unforgettable** [ANfə'getəb(ə)l] *a* unutilmas, uatib bo'lmaydigan
- unforgivable** [ANfə'gɪvəb(ə)l] *a* kechirilmaydigan, kechirib bo'lmaydigan
- unformed** [AN'fɔ:md] *a* shaklsiz, hali bir shaklga keltirilmagan
- unfortunate** [AN'fɔ:tʃʊnɪt] *l. a* bebaxt, badbaxt, baxtsiz, baxti qora, sho'rpehana; *2. n* baxtsiz odam
- unfortunately** [AN'fɔ:tʃʊnɪtli] *a* afsuski, baxtga qarshi
- unfounded** [AN'faʊndɪd] *a* yetarli asosga ega bo'lmagan, yetarlicha asoslanmagan, asossiz, isbot qilinmagan
- unfreeze** [AN'fri:z] *a* muzdan tushirmoq, eritmoq
- unfriended** [AN'frendɪd] *a* do'stsiz, do'stlari bo'lmagan, do'stlari yo'q
- unfriendly** [AN'frendli] *a* xush ko'rmaydigan, yoqtirmaydigan, yomon ko'radigan, yaxshi ko'rmaydigan
- unfrock** [AN'frɒk] *a* diniy mansabdan mahrum qilmoq
- unfulfilled** [ANful'fɪld] *a* bajarilmagan, qilinmagan, amalga oshirilmagan
- unfunded** [AN'fʌndɪd] *a* *mal.* 1) qisqa muddatli; 2) (*budget va sh. k. dan*) mablag' bilan ta'minlanmaydigan
- unfurnished** [AN'fɜ:nɪʃt] *a* jihozlanmagan, mebelsiz
- ungainly** [AN'geɪnli] *a* qo'pol, beso'naqay, beo'xshov, kelishmagan, qovushmagan

ungear [AN'gɪə] *v tex.* o'chirmoq, o'chirib qo'yimoq, uzmoq, uzib qo'yimoq
unget-at-able [AN'get'ætəb(ə)] *a* 1) egallab bo'lmaydigan; 2) olib (zabt etib) bo'lmaydigan
ungloved [AN'gləvd] *a* qo'lqopsiz
ungodly [AN'gɒdli] *a* 1) xudosiz, dinsiz, dahriy, xudoga ishonmaydigan; 2) so'zl. juda, haddan tashqari, dahshatli
ungovernable [AN'gəv(ə)nəb(ə)] *a* 1) gapga kirmaydigan, gapga rozi bo'lmaydigan; 2) asov, idora etib bo'lmaydigan
ungraceful [AN'greɪsf(ə)] *a* nafosatsiz, kelishmagan, nazokatsiz
ungracious [AN'greɪʃəs] *a* dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, iltifotsiz, bemehr
ungrateful [AN'greɪtɪf(ə)] *a* ko'rnamak; nonko'r, oqibatsiz, yaxshilikni bilmaydigan, qadr-qiyomatiga yetmaydigan
ungrounded [AN'graʊndɪd] *a* 1) asossiz, tagi puch; 2) asoslanmagan
ungrudging [AN'grʌdʒɪŋ] *a* 1) saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, oliyhimmat, hotamtoy, himmatli, hech narsani ayamaydigan; 2) mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p, to'kin-sochin
unguarded [AN'gɑ:dɪd] *a* 1) beparvo, parvosiz, beg'am; 2) himoya qilinmagan; qo'riqlanmaydigan
unguent [AN'gwənt] *a* malham dori
ungulate [AN'gʊljʊl(e)nt] *zool.* 1. *a* tuyoqqa oid, tuyoqli; 2. *n* tuyoqli hayvon
unhackneyed [AN'hækneɪd] *a* yangi, aynimagan, urinmagan, buzilmagan
unhallowed [AN'hæləʊd] *a* gunohkor, gunohli, gunohga botgan
unhand [AN'hænd] *a* 1) qo'l tortmoq; 2) nimanidir qo'ldan boy bermoq
unhandsome [AN'hæns(ə)m] *a* 1) majruh, mayib, maymoq; 2) xunuk, badbashara
unhandy [AN'hændi] *a* qo'pol, qovushmagan, beso'naqay, chaqqon (epchil) emas
unhang [AN'hæŋ] *v* (**unhung**) (*osilgan narsani*) olmoq, olib qo'yimoq
unhappy [AN'hæpi] *a* baxtsiz, baxti qora
unharméd [AN'hɑ:md] *a* zarar yetkazilmagan, bezarar, zarar (shikast) topmagan, ziyon-zahmatsiz, beshikast
unharness [AN'hɑ:nɪs] *v* (*aravadan yoki qo'shdan*) chiqarmoq, bo'shatmoq, yechmoq
unhealthy [AN'helθi] *a* kasalmand, dardchil, kasaldan chiqmaydigan; nosog', betob, xasta
unheard [AN'hɜ:d] *a* 1) eshitilmagan; 2) eshitilmas, eshitilmaydigan
unheard-of [AN'hɜ:dɒv] *a* quloq eshitmagan, eshitilmagan, misli ko'ril-magan, mislsiz, ajoyib

unheeded [AN'hi:ɪd] *a* e'tiborga olinmagan, ko'rmay qolingan
unheeding [AN'hi:ɪŋ] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, parishonxotir
unhelpful [AN'hɛlpf(ə)] *a* foyda bermaydigan, foydasi (nafi) yo'q, befoyda, foydasiz, behuda
unhesitating [AN'hezɪteɪtɪŋ] *a* dadil, jasur, dovyurak, mard, ikkilanmaydigan
unhesitatingly [AN'hezɪteɪtɪŋli] *a* jasurona, tortinmay, ikkilanmay, dadillik bilan
unhewn [AN'hju:n] *a* yaxshi ishlov berilmagan, tekislanmagan
unhinge [AN'hɪndʒ] *v* (*eshikni*) ilgagidan chiqarmoq
unholy [AN'həʊli] *a* betavfiq, munkir, gunohli, murtag
unhook [AN'hʊk] *v* ilgagidan chiqarib olmoq, olib qo'yimoq, chiqarib (ko'chirib, bo'shatib) olmoq
unhorse [AN'hɔ:s] *a* otdan tashlamoq, otdan sakrab tushmoq, otdan (irg'itib) tashlab yubormoq
unhoused [AN'hauzɪd] *a* uy-joysiz, boshpanasiz, bevtan, uydan haydalgan (quvilgan)
unhung [AN'hʌŋ] *past. p. p. of unhang*
unhurried [AN'hʌrɪd] *a* sekin, sust, ohista, bamaylixotir, shoshilmasdan
unhurt [AN'hɜ:t] *a* lat yemagan, butun, sog'salomat
unhygienic [AN'hɑi'dʒi:nɪk] *a* 1) kasalmand, nosog', betob, xasta; 2) gigiyenaga oid bo'lmagan
uni- ['ju:nɪ-] *a murakkab so'zlarda* „bir“ degan mazmuni beradi
unicellular [ju:nɪ'sɛljʊlə] *a biol.* bir hujayrali
unicorn ['ju:nɪkɔ:n] *n* bir shoxli afsonaviy hayvon
unicorn-fish ['ju:nɪkɔ:nfɪʃ] *n zool.* yakka-shox, narval (*tumshug'ida shoxsimon tish bo'lgan kitsimon dengiz hayvoni*)
unidentified [ANaɪ'dentɪfaɪd] *a* notanish, noma'lum, aniqlanmagan; ~ **flying object** (UFO) noma'lum uchar jism (NUJ)
unification [ju:nɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *a* birlashish, birlashuv
uniform ['ju:nɪfɔ:m] 1. *n* forma; 2. *a* bir xil, bir-biriga aynan o'xshagan; 3. *v* 1) forma kiymoq; 2) bir xillash-tirmoq
uniformed ['ju:nɪfɔ:md] *a* forma kiygan
uniformity [ju:nɪ'fɔ:mɪti] *a* bir xillik, o'xshashlik, bir qolipdalik, bir taxlitdalik
unify ['ju:nɪfaɪ] *a* 1) birlashtirmoq, bir xillash-tirmoq; 2) bir shaklga keltirmoq, bir xil qilmoq
unilateral [ju:nɪ'læt(ə)rəl] *a* bir tomonlama; ~ **disarmament** bir tomonlama qurolsizlanish

unimaginable [ˌʌnɪˈmædʒɪnəb(ə)] *a* tasavvur qilib bo'lmaydigan, favqulodda, had-dan tashqari

unimaginative [ˌʌnɪˈmædʒɪnətɪv] *a* tasavvur qila olmaydigan, ko'z oldiga (xayolga) keltirolmaydigan

unimpaired [ˌʌnɪmˈpeəd] *a* 1) qo'l tegizilmagan, qo'l urilmagan, butun; 2) susaymagan, zaiflashmagan

unimpeachable [ˌʌnɪmˈpi:tʃəb(ə)] *a* be-noqson, bekam-ko'st

unimpeded [ˌʌnɪmˈpi:di:d] *a* qarshiliksiz, monesiz, bemalol, erkin, hech qanday to's-qiniksiz

unimportant [ˌʌnɪmˈpɔ:t(ə)nt] *a* ahamiyat-siz, ahamiyati yo'q, unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan

unimprovable [ˌʌnɪmˈpru:vəb(ə)] *a* tuzatib bo'lmaydigan, tuzalmaydigan, tuzalmas, to'g'rilab bo'lmaydigan

unimproved [ˌʌnɪmˈpru:vɪd] *a* tuzatish kiritilmagan, to'g'rilanmagan

uninfluenced [ˌʌnˈɪnfluənst] *a* ta'siri ostida bo'lmagan

uninformed [ˌʌnɪnˈfɔ:md] *a* bexabar, xabari yo'q, uncha bilmaydigan

uninhabitable [ˌʌnɪnˈhæbɪtəb(ə)] *a* yashash uchun yaroqli bo'lmagan, yashab bo'lmaydigan

uninhabited [ˌʌnɪnˈhæbɪtɪd] *a* odam (aholi) yashamaydigan, bo'sh yotgan, kishi qadami yetmagan

uninhibited [ˌʌnɪnˈhɪbɪtɪd] *a* ozod, erki (huquqi) o'zida bo'lgan

uninjured [ˌʌnˈɪndʒəd] *a* jabr (zarar) ko'r-magan, shikastlanmagan

uninspired [ˌʌnɪmˈspəɪəd] *a* ruhlanmagan, ruhi ko'tarilmagan

uninsured [ˌʌnɪnˈʃʊəd] *a* 1) sug'urta qilinmagan; 2) ko'ch. xavfsizligi ta'minlanmagan

unintelligent [ˌʌnɪnˈtelɪdʒ(ə)nt] *a* aqlsiz, fahm-farosatsiz

unintelligible [ˌʌnɪnˈtelɪdʒɪb(ə)] *a* ushuni bo'lmaydigan, noaniq, chalkashib ketgan

uninterested [ˌʌnˈɪntɪrɪstɪd] *a* 1) loqayd, be-parvo; 2) qiziqmagan, qiziqmay (ishqi tushmay, havas qilmay) qolgan

uninterrupted [ˌʌnɪntəˈraptɪd] *a* uzluksiz, to'xtovsiz

uninuclear [ˌju:niˈnju:kliə] *a* bir yadroli

uninvited [ˌʌnɪnˈvaɪtɪd] *a* taklif qilinmagan, chaqirilmagan

uninviting [ˌʌnɪnˈvaɪtɪŋ] *a* o'ziga jalb qil-maydigan, tortmaydigan, yoqimsiz, ko'rimsiz, jozibasiz

union [ˈju:niən] *n* ittifoq, birlik, uyushma

Union flag [ˈju:niənflæg] *n* Birlashgan Qirol-likning davlat bayrog'i

unionism [ˈju:niənɪz(ə)m] *n* tred-yunio-nizm (*ishchilar harakatida: vazifa faqat iqtisodiy talablarni amalga oshirish uchun kurashdan iborat deb biladigan, siyosiy kurashdan bosh tortadigan oqim*)

unionist [ˈju:niənɪst] *n* kasaba uyushmasi-ning a'zosi

unionize [ˈju:niənaɪz] *v* 1) birlashtirmoq; 2) kasaba uyushmasiga birlashtirmoq

Union Jack [ˈju:niənˈdʒæk] = **Union flag**

Union-smashing [ˈju:niənˈsmæʃɪŋ] *n* kasa-ba uyushmasining tor-mor qilinishi

union suit [ˈju:niəns(j)u:t] *n* amer. erkak-larning ichki kombinezoni (*kombinezon – shimi bilan ko'ylagi birga qo'shib tikilgan ish kiyimi, korjoma*)

unique [juːni:k] **1.** *a* noyob, yagona, kamdan-kam uchraydigan, misli ko'rilmagan; **2.** *n* noyob, nodir, yagona (*kimsa yoki narsa*)

unisex [ˈju:ni:seks] *a* ikkala jinsdagi kishilar uchun ham bo'laveradigan (to'g'ri keladi-gan); ~ **clothes** ham ayollar, ham erkaklar kiyisa bo'ladigan kiyimlar

unisexual [ˈju:niˈsekʃʊəl] *a* bot. bir jinsli

unison [ˈju:ni:z(ə)n] *n* mus. unison (*bir xil balandlikdagi bir necha ovozuving o'zaro mosligi yoki ohangdoshligi*)

unit [ˈju:ni:t] *n* 1) *harb.* bo'linma, qism; 2) bir butun (yaxlit) holdagi narsa

unite [juːˈnaɪt] *v* qo'shilmoq, birikmoq, qo'shmoq, birlashtirmoq

united [juːˈnaɪtɪd] *a* 1) birlashgan, uyush-gan, qo'shma; 2) ahil, inoq, totuv; **a** ~ **family** ahil (totuv) oila

United Nations [juːˈnaɪtɪdˈneɪʃ(ə)nɪz] *n* Birlashgan Millatlar Tashkiloti

unity [ˈju:ni:tɪ] *n* birlik, birdamlik, hamjihat-lik

universal [ˌju:niˈvɜ:s(ə)] *a* umumiy, om-maviy, barchaga baravar taalluqli bo'lgan

universe [ˈju:ni:vɜ:s] *n* borliq, dunyo, olam, koinot

university [ˌju:niˈvɜ:sɪti] **1.** *n* universitet; **2.** *a* universitetga oid

unjoin [ˌʌnˈdʒɔɪn] *v* ayirmoq, ajratmoq, uz-moq, ayirib (ajratib, uzib) qo'ymoq

unjust [ˌʌnˈdʒʌst] *a* 1) adolatsiz, nohaq; 2) insofsiz, noinsof

unkempt [ˌʌnˈkempt] *a* taralmagan, to'z-g'igan

unkind [ˌʌnˈkaɪnd] *a* jahli yomon, badjahl, yovuz, shafqatsiz

unknown [ˌʌnˈnəʊn] **1.** *a* noma'lum, nota-nish; **2.** *n* (**the** ~) noma'lum shaxs, nota-nish kishi

- unlaboured** [ʌnˈleɪbəd] *a* esk. mehnat qilmasdan osongina erishilgan
- unlace** [ʌnˈleɪs] *v* (*oyoq kiyimining*) ipini yechmoq, bog'ichini bo'shatmoq, ipini yechib (bo'shatib) qo'yimoq
- unlade** [ʌnˈleɪd] *v* (**unladed; unladed, unladen**) yukni tushirmoq; yukdan bo'shatmoq
- unladen** [ʌnˈleɪdn] *p. p. of unlade*
- unladylike** [ʌnˈleɪdɪlaɪk] *a* nozik emas, nomuloyim, yumshoq bo'lmagan, xonimlarga xos bo'lmagan
- unlawful** [ʌnˈlɔːf(ə)l] *a* 1) g'ayriqonuniy, qonunga to'g'ri kelmaydigan; 2) nikohsiz
- unleaded** [ʌnˈledɪd] *a* qo'rg'oshundan tozalanagan (*yonilg'ini haqida*)
- unlearn** [ʌnˈlɜːn] *v* (**unlearned, unlearned**) bilganini esdan chiqarmoq, unutib qo'yimoq
- unlearned** [ʌnˈlɜːnd] *a* savodsiz, o'qish-yozishni bilmaydigan, bilimsiz, o'qimagan
- unlearned** [ʌnˈlɜːnt] *past., p. p. of unlearn*
- unleash** [ʌnˈliːʃ] *v* 1) (*imni*) bo'shatmoq, chiqarmoq, bo'shatib (qo'yib) yubormoq; 2) biror narsaga erk bermoq
- unleavened** [ʌnˈlev(ə)nd] *a* chuchuk, sho'r emas, tuzsiz
- unless** [ənˈles] *conj* agar (agarda, basharti, mabodo, bordi-yu) ...masa
- unlettered** [ʌnˈletəd] *a* savodsiz, o'qish-yozishni bilmaydigan
- unlike** [ʌnˈlaɪk] *a* o'xshamagan, boshqacha
- unlikely** [ʌnˈlaɪklɪ] *a* haqiqatdan yiroq, mumkin bo'lmagan, noto'g'ri, o'xshamaydigan, boshqacha
- unlimited** [ʌnˈlɪmɪtɪd] *a* cheksiz, chegarasiz, bepoyon, cheklanmagan
- unlink** [ʌnˈlɪŋk] *v* ajratmoq, uzmoq, ajratib (uzib) qo'yimoq
- unload** [ʌnˈləʊd] *v* yukini tushirmoq, yukdan bo'shatmoq
- unlock** [ʌnˈlɒk] *v* (*qulfn, qulflangan narsani*) ochmoq
- unlooked-for** [ʌnˈlʊktfɔː] *a* kutilmagan, kutilmaganda yuz bergan, tasodifiy, nogahoniy
- unlovely** [ʌnˈləʊvəb(ə)l] *a* 1) sevish uchun munosib bo'lmagan, sevishga arzi olmaydigan; 2) o'ziga jalb qilmaydigan, jozibasiz, yoqimsiz
- unlovely** [ʌnˈləʊvli] *a* yoqimsiz, yomon, o'ziga jalb qilmaydigan
- unlucky** [ʌnˈlʌki] *a* 1) muvaffaqiyatsiz, o'ngidan kelmagan; 2) baxtsiz, omadsiz
- unmade** [ʌnˈmeɪd] *past., p. p. of unmake*
- unmake** [ʌnˈmeɪk] *v* (**unmade**) qilingan (bajarilgan) ishni bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq
- unman** [ʌnˈmæn] *v* 1) axtalamoq, bichmoq; 2) odamlarsiz qolmoq
- unmanageable** [ʌnˈmænɪdʒəb(ə)l] *a* nazorat qilish (boshqarish) qiyin bo'lgan; nazorat qilib (boshqarib) bo'lmaydigan
- unmanned** [ʌnˈmænd] *a* 1) (*ish o'rnini*) to'ldirib olmagan; 2) odamlar bilan to'ldirilmagan; 3) aholisiz, aholisi yo'q *yoki* kam, siyrak
- unmannerly** [ʌnˈmænərlɪ] *a* tarbiya ko'rmagan, tarbiyasiz, beadab
- unmarked** [ʌnˈmɑːkt] *a* belgilanmagan, belgi qo'yilmagan
- unmarketable** [ʌnˈmɑːkɪtəb(ə)l] *a* bozor (sotish)ga yaramaydigan, bozorbop emas
- unmarried** [ʌnˈmæriɪd] *a* uylanmagan, turmushga chiqmagan
- unmask** [ʌnˈmɑːsk] *v* niqobini yechib tashlamoq
- unmatched** [ʌnˈmætʃt] *a* mislsiz, tengsiz, tengi yo'q, benazir, hech kim oldiga tusholmaydigan
- unmeaning** [ʌnˈmiːnɪŋ] *a* bema'ni, ma'no ifodalamaydigan, ma'nosi yo'q, ma'nosiz
- unmeant** [ʌnˈment] *a* ataylab (qasddan) qilinmagan, bexosdan qilingan, jo'rttaga (bilaturib) qilinmagan
- unmeasured** [ʌnˈmeʒəd] *a* 1) o'lchanmagan; 2) o'lchab (solishtirib, qiyoslab) bo'lmaydigan, beqiyos
- unmeet** [ʌnˈmiːt] *a* munosib (bop, qulay, o'ng'ay, mos, muvofiq) emas
- unmentionable** [ʌnˈmenʃ(ə)nəb(ə)l] *a* 1) uyatsiz, qo'pol; 2) taqiqlangan, man etilgan; 3) nojo'ya, nomunosib
- unmerciful** [ʌnˈmɜːsɪf(ə)l] *a* rahm-shafqatni bilmaydigan; berahmlik (shafqatsizlik) bilan qilingan; berahm, toshyurak
- unmindful** [ʌnˈmaɪndf(ə)l] *a* tez esidan chiqadigan, xotirasi past, parishonxotir
- unmistakable** [ʌnˈmɪstəkəb(ə)l] *a* 1) xatosiz (bexato) qilingan; 2) xatosiz, to'g'ri
- unmitigated** [ʌnˈmɪtɪgeɪtɪd] *a* yumshatilmagan, muloyim qilinmagan, yumshamagan; 2) kamaymagan, pasaymagan
- unmoor** [ʌnˈmʊə] *v* deng, shvartov (*kemani kema to'xtaydigan joyga bog'lashda ishlatiladigan yo'g'on arqon, tros*)larni yechib yubormoq
- unmoral** [ʌnˈmɔːrəl] *a* axloqsiz, axloqi buzilgan
- unmounted** [ʌnˈmaʊntɪd] *a* piyoda, yayov
- unmoved** [ʌnˈmuːvd] *a* 1) qo'zg'almaydigan, qimirlamaydigan; 2) harakatsiz, qo'zg'almas
- unmurmuring** [ʌnˈmɜːm(ə)nɪŋ] *a* itoatkor, gap qaytarmaydigan, gapga kiradigan, qobil

unnamed [AN'neɪnd] *a* nomsiz, oisiz, ismsiz, nomi yo'qolgan

unnatural [AN'nætʃ(ə)rəl] *a* 1) tabiatda yo'q, tabiatda bo'lmagan; 2) notabiiy, g'ayritabiiy, sun'iy, yasama, soxta

unnecessary [AN'nesəs(ə)rɪ] *a* keraksiz, foydasiz, befoyda

unnerve [AN'nɜ:v] *v* 1) asabiylantirmoq, asabini buzmoq; 2) kuchsizlantirmoq, quvvatsizlantirmoq, madorsiz qilmoq

unnoticed [AN'nəʊtɪst] *a* sezilmagan, bilinmagan, ko'rinmagan, kishi bilmagan

unnumbered [AN'nʌmbəd] *a* 1) son-sanoqsiz, behisob, ko'p; 2) raqam qo'yib chiqilmagan, raqam qo'yilmagan

unobservant [ANəb'zɜ:v(ə)nt] *a* diqqate'iborsiz, beparvo, aqli parishon

unobstructed [ANəb'straktɪd] *a* qarshiliksiz, bema'ol, erkin, to'sqinsiz

unobtainable [ANəb'teɪnəb(ə)l] *a* erishib bo'lmaydigan, yetishib bo'lmaydigan, qo'l yetmaydigan

unobtrusive [ANəb'tru:sɪv] *a* kamtar, oddiy, sipo, kamtarin

unoccupied [AN'ɒkjʊpaɪd] *a* band emas, bo'sh

unoffending [ANə'fendɪŋ] *a* 1) ranjitmaydigan, xafa qilmaydigan; 2) beayb, begunoh, aybsiz, gunohsiz

unofficial [ANə'fɪʃ(ə)l] *a* norasmiy, g'ayrirasmiy, oddiy

unoriginal [ANə'ɹɪdʒɪn(ə)l] *a* original (asl) emas; o'zlashtirilgan

unorthodox [AN'ɔ:bədɒks] *a* 1) dindor emas, e'tiqodsiz; 2) hamma qabul qilmagan, hammaga ma'qul bo'lmagan, rasm bo'lmagan

unpack [AN'pæk] *v* ochmoq, ochib olmoq (o'rovdan, qutidan), o'rovini olib tashlamoq

unpaged [AN'peɪdʒd] *a* sahifa (bet)lariga raqam qo'yilmagan

unpaid [AN'peɪd] *a* to'lanmagan, haq to'lanmagan

unpalatable [AN'pælətəb(ə)l] *a* 1) maza (lazzat, tot)siz, shirin (xushxo'r) emas; 2) yoqimsiz, noxush

unparalleled [AN'pærəleɪd] *a* mislsiz, tengsiz, tengi yo'q, misli ko'rilmagan, benazir

unpardonable [AN'pɑ:dənəbl] *a* kechirilmaydigan, kechirib bo'lmaydigan, uzrsiz

unparented [AN'peərəntɪd] *a* 1) yetim qolgan, ota-onasi tashlab ketgan; 2) ota-onalik huquqidan mahrum etilgan (bo'lgan)

unpeg [AN'peg] *v* (ichidan) olmoq, chiqarmoq, chiqarib (tortib) olmoq

unpenetrable [AN'penətrəb(ə)l] *a* (sav, yorug'lik, ovoq va h. k. ni) o'tkazmaydigan, o'tmaydigan, o'zidan o'tkazmaydigan

unpeople [AN'pi:p(ə)l] *v* 1) odamsiz qoldirmoq, huvullatib qo'ymoq; 2) odamsiz bo'lib qolmoq, kimsasiz qolmoq, huvullab qolmoq

unperturbed [ANpə'tɜ:bd] *a* og'ir, vazmin, yuragi keng

unpick [AN'pɪk] *v* tilmoq, yormoq

unpin [AN'pɪn] *v* (nimadandir) to'g'nag'ichni yechib olmoq

unpleasant [AN'plez(ə)nt] *a* yoqimsiz, yomon, xunuk

unpleasantness [AN'plez(ə)ntnəs] *n* 1) ko'ngilsizlik, yoqimsizlik; 2) urush, janjal, nizo, araz; 3) anglashilmovchilik, tushunmovchilik, xato (noto'g'ri) tushunish

unplug [AN'plʌg] *v* (tarmoqdan) uzmoq, uzib qo'ymoq

unpointed [AN'pɔɪntɪd] *a* o'tmaydigan, kesmaydigan, o'tmas, uchi chiqarilmagan (qalam va b.)

unpolitical [ANpə'ltɪk(ə)l] *a* 1) siyosatga aloqador bo'lmagan; 2) o'ylamasdan ish qiladigan; 3) hech narsaga qiziqmaydigan, hafsalasi (havasi, ishtiyoqi) yo'q, loqayd

unpopular [AN'pɒpjʊlə] *a* hech kim tanimaydigan, dong'i chiqmagan

unpractical [AN'præktɪk(ə)l] *a* ishning ko'zini (turmushning ilmini) bilmaydigan, tajribasiz

unpractised [AN'præktɪst] *a* 1) tajribasiz, tajribasi yo'q (kam), tajriba orttirmagan, malakasiz; 2) amaliyotda qo'llanilmagan

unprecedented [AN'presɪdɪntɪd] *a* mislsiz, tengsiz, tengi yo'q, misli ko'rilmagan, benazir

unprejudiced [AN'predʒədɪst] *a* oldindan biror (odatda, salbiy) fikrda bo'lmagan, xolis, beg'araz, odil, betaraf

unpremeditated [ANpri'medɪteɪtɪd] *a* qasd-dan qilinmagan, bilmasdan qilib qo'yilgan, oldindan o'ylab (atayin) qilinmagan, g'araz niyat bilan qilinmagan

unprepared [ANpri'peəd] *a* tayyorgarlik ko'rmagan, hozirlik ko'rmagan, tayyor (shay, hozir, tappa-taxt) emas

unrepossessed [ANpri:pə'zest] = **unprejudiced**

unpresentable [ANpri'zentəb(ə)l] *a* ko'rimsiz, fayzsiz, xunuk, sovuq, ko'rksiz

unpretending [ANpri'tendɪŋ] = **unpretentious**

unpretentious [ANpri'tenʃəs] *a* kamtar, oddiy, sipo, sharm-hayoli

unpriced [AN'praɪst] *a* 1) aniq (belgilangan) narxsiz; 2) bahosi yo'q, bebaho, qimmatbaho

unprincipled [AN'prɪnsɪp(ə)ld] *a* maslak-maqsadi yo'q, tuturiqsiz, betayin

- unprocurable** [ˌʌnpɹəˈkʃʊərəbl̩] *a* erishib (yetishib, yoniga borib, chiqib, olib, egallab) bo'lmaydigan
- unproductive** [ˌʌnpɹəˈdʌktɪv] *a* unumsiz, unumi kam (oz), samarasiz
- unprofessional** [ˌʌnpɹəˈfeʃ(ə)nəl] *a* kasbga oid (kasb bilan bog'liq) bo'lmagan, kasb qilib olinmagan; hech qanday kasbi bo'lmagan
- unprofitable** [ˌʌnˈprɒfɪtəb(ə)] *a* foyda (naf) keltirmaydigan, foydasiz, befoyda, foyda bermaydigan
- unpromising** [ˌʌnˈprɒmɪsɪŋ] *a* kam (oz) va'da beradigan; hech qanday yaxshi narsani va'da bermaydigan
- unprompted** [ˌʌnˈprɒmptɪd] *a* sekin (pichirlab, boshqalarga sezdirmay) aytib berilmagan, aytib turilmagan
- unprovided** [ˌʌnpɹəˈvaɪdɪd] *a* 1) (pul va b. bilan) ta'minlanmagan; 2) tayyorlanmagan; 3) ehtiyotsiz, uzoqni o'ylamay ish qiladigan
- unprovoked** [ˌʌnpɹəˈvɔʊkt] *a* ataylab ig'vo qilib fitna chiqarmagan
- unpublished** [ˌʌnˈpʌblɪʃt] *a* nashr qilinmagan, bosib chiqarilmagan, matbuotda e'lon qilinmagan
- unpunishable** [ˌʌnˈpʌnɪʃəbl̩] *a* jazolanmaydigan, jazo berilmaydigan, jazoga tortilmaydigan
- unpunished** [ˌʌnˈpʌnɪʃt] *a* jazosiz, jazosiz qoldirilgan
- unqualified** [ˌʌnˈkwɒlɪfaɪd] *a* kerakli darajadagi ma'lumot yoki malakaga ega bo'lmagan
- unquenchable** [ˌʌnˈkwentʃəb(ə)] *a* qonmaydigan, qondirib bo'lmaydigan; ~ **thirst** qattiq tashnalik
- unquestionable** [ˌʌnˈkwɛstʃ(ə)nəb(ə)] *a* shubhasiz, so'zsiz, beshak, begumon, aniq
- unquestioned** [ˌʌnˈkwɛstʃənd] *a* shubha tug'dirmaydigan, aniq, begumon
- unquestioning** [ˌʌnˈkwɛstʃənɪŋ] *a* 1) ko'p savollar so'ramaydigan; 2) shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, begumon
- unquiet** [ˌʌnˈkwɪəɪt] *n* notinchlik, xavotirlik, bezovtalik, tashvish
- unquotable** [ˌʌnˈkwəʊtəb(ə)] *a* 1) sitata olishga arzimaydigan; 2) senzurasiz
- unquote** [ˌʌnˈkwəʊt] *v* qo'shimchoqni yopmoq
- unravel** [ˌʌnˈræv(ə)] *v* 1) (jumboq va sh. k. ning) uchini, yechimini topmoq, o'ylab topmoq; 2) (ip va sh. k. ning) chigalini yechmoq
- unread** [ˌʌnˈred] *a* o'qilmagan, o'qib chiqilmagan, o'qib berilmagan
- unreadable** [ˌʌnˈriːdəb(ə)] *a* (husnixat haqida) o'qib bo'lmaydigan
- unreal** [ˌʌnˈriːəl] *a* 1) sun'iy, yasama, soxta, qalbaki; 2) xayoliy, xayoldagi, faraz qilingan
- unrealistic** [ˌʌnrɪəˈlɪstɪk] *a* xayoliy, haqiqiy bo'lmagan, amalga oshmaydigan; amalga oshirsa bo'lmaydigan
- unrealizable** [ˌʌnrɪəˈlaɪzəb(ə)] *a* bajarib (amalga oshirib) bo'lmaydigan, yuzaga (ro'yobga) chiqmaydigan
- unreason** [ˌʌnˈriːz(ə)n] *n* aqldan ozganlik, jinnilik, aqlsizlik, befarosatilik, noma'qullik
- unreasonable** [ˌʌnˈriːz(ə)nəb(ə)] *a* 1) o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak; 2) aqlsiz, ongsiz; 3) o'ta, haddan tashqari, asossiz
- unrecognized** [ˌʌnˈrɛkəɡnaɪzd] *a* tanilmagan, o'ti (nomi, dong'i) chiqmagan
- unreel** [ˌʌnˈriːl] *v* 1) (g'altakni) yozmoq, yechmoq, tortmoq, chuvatmoq; 2) yechilmoq, ochilmoq, yozilmoq; to ~ silk ipak tortmoq
- unrelenting** [ˌʌnrɪˈlentɪŋ] *a* ayamaydigan, rahmsiz, shafqatsiz, bag'ritosh, zolim, noinsof
- unreliable** [ˌʌnrɪˈlaɪəb(ə)] *a* ishonib bo'lmaydigan, ishonchsiz, bo'sh, omonat, ko'ngil to'lmaydigan
- unrelieved** [ˌʌnrɪˈliːvd] *a* 1) (qandaydir lavozim, mansabdari) bo'shatilmagan, ozod qilinmagan; 2) yordam olinmagan
- unremitting** [ˌʌnrɪˈmɪtɪŋ] *a* betinim, hormas-tolmas, doimiy, qattiq
- unrepeatable** [ˌʌnrɪˈpiːtəb(ə)] *a* 1) qaytarib aytib bo'lmaydigan; tengi yo'q, mislsiz, misli yo'q, yagona, topilmas
- unrequited** [ˌʌnrɪˈkwɑɪtɪd] *a* tegishli (yarasha) taqdirlanmagan, mukofotlanmagan, haq to'lanmagan
- unreserved** [ˌʌnrɪˈzɜːvd] *a* 1) oshkor, ochiqdan ochiq; 2) oldindan (buyurib) band qilib qo'yilmagan
- unreservedly** [ˌʌnrɪˈzɜːvɪdli] *adv* butunlay, batamom, tamomila; mutlaqo
- unresolved** [ˌʌnrɪˈzɒlvd] *a* 1) hal etilmagan; 2) jur'atsiz, ikkilanuvchi; 3) qaror qabul qilmagan
- unrest** [ˌʌnˈrest] *n* notinchlik, xavotirlik, bezovtalik
- unresting** [ˌʌnˈrestɪŋ] *a* charchamas, tolmas, hormas
- unrestrained** [ˌʌnrɪˈstreɪnd] *a* 1) o'lchovsiz, chegaralanmagan, cheklanmagan; 2) tiyib (to'xtatib) bo'lmaydigan
- unrestricted** [ˌʌnrɪˈstrɪktɪd] *a* cheksiz, cheklanmagan, chek qo'yilmagan
- unriddle** [ˌʌnˈrɪdl̩] *v* 1) (jumboqni) o'ylab topmoq, (topishmoqni) yechmoq; 2) tushuntirib (izohlab) bermoq
- unrig** [ˌʌnˈrɪg] *v* 1) qurolsizlantirmoq; 2) yechintirmoq

unrighteous [AN'raɪfəs] *a* 1) betavfiq, mun-
kir, murtad, gunohli; 2) adolatsiz, asossiz
unrip [AN'rip] *v* (*chokidan*) so'kmoq
unripe [AN'raɪp] *a* yetilib pishmagan, xom,
g'o'r, dumbu
unrival(l)ed [AN'raɪv(ə)ld] *a* eng birinchi,
eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech
narsa) oldiga tusholmaydigan
unroll [AN'ru:l] *v* yozilmoq, yoyilmoq
unruffled [AN'raʃ(ə)ld] *a* 1) tinch, osoyish-
ta, tekis, tep-tekis, silliq (*dengiz va sh. k.*
yzasi haqida); 2) jimjit, tinch, sokin; oso-
yishta, xotirjam, bexavotir
unruly [AN'ru:li] *a* itoatsiz, bo'ysunmaydi-
gan, so'zga kirmaydigan, quloq solmaydigan
unsaddle [AN'sædl] *v* 1) otning egarini olib
qo'yimoq; 2) (*oidan*) tashlamoq, otmoq,
irg'imoq
unsafe [AN'seɪf] *a* ishonib bo'lmaydigan,
ishonchsiz, xavfli, qaltis
unsaid [AN'seɪd] *a* aytilmagan, gapirilmagan,
so'zlanmagan, deyilmagan
unsatisfactory [ANSæts'fækt(ə)rɪ] *a* qoni-
qarsiz, talabga javob bermaydigan; **an -**
answer qoniqarsiz javob
unsatisfied [AN'sætɪsfɑɪd] *a* qoniqmagan,
qanoatlanmagan, mamnun bo'lmagan
unsavoury [AN'seɪv(ə)rɪ] *a* 1) yoqimsiz, jir-
kanch, kishini sovitadigan, o'zidan qochi-
radigan; 2) bemaza, mazasi yo'q
unscathed [AN'skeɪðd] *a* zarar (shikast)
topmagan, eson-omon, sog'-salomat, shi-
kastsiz, beshikast
unscrew [AN'skru:] *v* burab chiqarmoq, bu-
rab chiqarib olmoq; burab bo'shatmoq
unscrupulous [AN'skru:pjʊləs] *a* 1) injiq
(serzarda) emas; 2) maslak-maqsadi yo'q,
tuturiqsiz, betayin
unseam [AN'si:m] *v* 1) tilmoq, yormoq, cha-
vaqlamoq; 2) (*chokidan*) so'kmoq
unseeing [AN'si:n] *a* ko'rmaydigan, ojiz,
ko'r
unseemly [AN'si:mli] *a* nomunosib, nolo-
yiq, yarashmaydigan, kelishmaydigan,
to'g'ri kelmaydigan, noma'qul
unseen [AN'si:n] *a* ko'rinmaydigan, bilin-
maydigan, ko'rinmas
unselfish [AN'selfɪʃ] *a* beg'araz, xolis, tama-
qilmaydigan, o'z manfaatini ko'zlamaydigan
unsettled [AN'setld] *a* tartibga solinmagan,
yo'lga qo'yilmagan, hal bo'lmagan, hal
qilinmagan
unshadowed [AN'ʃædəʊd] *a* 1) bulutsiz,
ochiq, musaffo; 2) *ko'ch.* porloq, beg'ubor
unshak(e)able [AN'ʃetkəb(ə)] *a* og'ish-
maydigan, qaytmaydigan; qattiq, mustah-
kam, sabotli, barqaror

unshapely [AN'ʃeɪplɪ] *a* 1) shaklsiz; 2) xu-
nuk, ko'rimsiz, chiroyli emas; beso'naqay;
an - figure beso'naqay qomat
unshared [AN'ʃeəd] *a* 1) bo'linmagan,
taqsimlanmagan, qismlarga bo'linmagan;
2) *ko'ch.* javobsiz, bir tomonlama (*hissiyot*
va b.)
unsheltered [AN'ʃeltəd] *a* 1) ochiq, yopil-
magan, berkitilmagan, himoya qilinmagan;
2) boshpanasiz
unshod I [AN'ʃɒd] *a* taqasi tushib qolgan
yoki olib tashlangan, taqasiz (*ot haqida*)
unshod II [AN'ʃɒd] *past. p. of unshoe*
unshoe [AN'ʃu:] *v* (**unshod**) olmoq, olib
qo'yimoq, olib tashlamoq (*oyoq kiyimini*)
unshrinking [AN'ʃrɪŋkɪŋ] *a* qattiq, mustah-
kam sabotli, barqaror
unshutter [AN'ʃʌtə] *v* deraza eshiklarini
ochmoq
unsightly [AN'saɪtli] *a* ko'rimsiz, xunuk,
badburush, yomon
unskilful [AN'skɪlf(ə)l] *a* noshud, epsiz, taj-
ribasiz, no'noq, ish bilmaydigan, ishning
uddasidan chiqq olmaydigan, mahoratsiz
unskilled [AN'skɪld] *a* 1) malakasiz, tajri-
basiz; ~ **labour** maxsus malaka talab qil-
maydigan ish; 2) yaxshi ishlanmagan, ma-
horatsiz ishlangan, no'noq; ~ **work** no'noq
ish
unsleeping [AN'sli:pɪŋ] *a* uyg'oq, sergak,
hushyor, ziyrak
unsolicited [ANSə'hsɪtɪd] *a* ixtiyoriy ra-
vishda (so'ralmasa ham) berilgan, taqdim
etilgan
unsound [AN'saʊnd] *a* sog'lig'i qochgan,
kasalmand, betob, xasta
unsparing [AN'speɪ(ə)rɪŋ] *a* isrofgar, nobud-
gar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yubo-
ruvchi
unspcakable [AN'spɪ:kəb(ə)] *a* ta'riflab (tav-
siflab, tushuntirib, aytib) bo'lmaydigan,
ta'rifga sig'maydigan
unsportsmanlike [AN'spɔ:tsmənlaɪk] *a*
1) sportchilarga xos bo'lmagan; sportchiga
noloyiq, nomunosib, teng (loyiq, munosib)
emas; 2) sport qoidalariga nomuvofiq
unspotted [AN'spɒtɪd] *a* dog' tushmagan,
gard tegmagan, kir (iflos) qilinmagan
unstable [AN'steɪb(ə)l] *a* o'zgaruvchan,
beqaror, kalovlagan, omonat
unstained [AN'steɪnd] *a* dog' (gard) tegma-
gan, badnom bo'lmagan
unstarched [AN'stɑ:tʃt] *a* 1) kraxmallanma-
gan, ohorlanmagan, ohorsiz; 2) erkin, be-
malol, tabiiy
unsteady [AN'stedɪ] *a* beqaror, likillab (qi-
mirib, chayqalib) turadigan

- unstirred** [ˌʌnˈstɜːd] *a* og'ir, vazmin, yuragi keng, sira hovliqmaydigan, pinagini buzmaydigan, tepsa-tebranmas
- unstitch** [ˌʌnˈstiːtʃ] *v* so'kmoq (*chok to'g'risida*)
- unstop** [ˌʌnˈstɒp] *v* 1) to'siqni, xalal beruvchi narsani olib tashlamoq; (*yo'l va sh. k. ni*) ochmoq; 2) og'zini (tiqinini, qopqog'ini) ochmoq, po'kagini (tiqinini) chiqarib olmoq
- unstrained** [ˌʌnˈstreɪnd] *a* 1) tarang tortilmagan (*arqon va sh. k. haqida*); 2) erkin, bermalol, tabiiy
- unstrap** [ˌʌnˈstræp] *v* (*kamar va sh. k. ni*) yechmoq, yechib qo'yimoq, bo'shatmoq
- unstressed** [ˌʌnˈstrest] *a* urg'u olmaydigan, urg'usiz
- unstrung** [ˌʌnˈstrʌŋ] *a* 1) shaloq, liqildoq; 2) tarang qilib tortilmagan (*tor haqida*)
- unstuck** [ˌʌnˈstʌk] *v* (*yelimlangan, yopishtirilgan narsani*) ko'chirmoq, ko'chirib olmoq
- unstudied** [ˌʌnˈstʊdiəd] *a* 1) o'rganilmagan, tekshirilmagan; 2) (*nimanidir*) bilmaydigan, (*nimadandir*) xabardor bo'lmagan; 3) erkin, bermalol, tabiiy
- unsubstantial** [ˌʌnsəbˈstæns(ə)l] *a* uncha ahamiyatli bo'lmagan, unchalik muhim bo'lmagan, ikkinchi darajali
- unsuccessful** [ˌʌnsəkˈsesf(ə)l] *a* muvaffaqiyatsiz, omadsiz
- unsuitable** [ˌʌnˈs(j)uːtəb(ə)l] *a* nomunosib, nолоyiq, yarashmaydigan, to'g'ri (mos, loyiq) kelmaydigan
- unsuited** [ˌʌnˈs(j)uːtɪd] *a* nomunosib, nobop, noqulay, nomuvofiq
- unsure** [ˌʌnˈʃʊə] *a* 1) ishonib bo'lmaydigan, ishonchsiz; 2) ishonchi komil emas, ikkilanuvchi
- unsuspecting** [ˌʌnsəˈspektɪŋ] *a* 1) ishonuvchan, inonuvchan; 2) laqma, laq etib tushadigan
- unswerving** [ˌʌnˈswɜːvɪŋ] *a* to'g'ri yo'ldan og'ishmaydigan, qattiq, mustahkam, sabotli
- untangle** [ˌʌnˈtæŋɡ(ə)] *v* (*chigal, tugun kabilarni*) yechmoq, yozmoq, bo'shatmoq
- untaught** [ˌʌnˈtɔːt] *a* o'rgatilmagan, o'qitilmagan, maxsus ta'lim berilmagan (olmagan)
- unthankful** [ˌʌnˈθæŋkf(ə)l] *a* yaxshilikni bilmaydigan, ko'rnamak, nonko'r, oqibatsiz, qadr-qimmatiga yetmaydigan
- unthinkable** [ˌʌnˈθɪŋkəb(ə)l] *a* tasavvur qilib bo'lmaydigan, aqlga sig'maydigan, aqlga to'g'ri kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan
- unthinking** [ˌʌnˈθɪŋkɪŋ] *a* 1) o'ylamasdan qilingan, mulohazasiz; 2) hech narsani o'ylamaydigan
- untidy** [ˌʌnˈtɑːdɪ] *a* iflos, kir, isqirt, pala-partish
- untie** [ˌʌnˈtaɪ] *v* yechmoq, bo'shatmoq, ochmoq
- until** [ˌʌnˈtɪl] *prep.* -maguncha, -gacha, qadar, vaqtgacha
- untimely** [ˌʌnˈtaɪmlɪ] *a* 1) vaqtdan ilgari (erta) yuz bergan; 2) bevaqt, bemahal
- unto** [ˌʌntuː] = **to**
- untold** [ˌʌnˈtəʊld] *a* hikoya qilinmagan, so'zlab berilmagan, hikoya qilib (gapirib, aytib) berilmagan
- untouchable** [ˌʌnˈtʌtʃəb(ə)l] *a* 1) qo'l tegizib bo'lmaydigan; 2) erishib (yetishib) bo'lmaydigan
- untoward** [ˌʌntəˈwɔːd] *a* noqulay, nobop, o'ng'aysiz, yomon
- untrained** [ˌʌnˈtreɪnd] *a* 1) o'rgatilmagan, o'qitilmagan; 2) malakasiz
- untrammelled** [ˌʌnˈtræm(ə)ld] *a* qarshiliksiz, erkin, bermalol
- untranslatable** [ˌʌntrænsˈleɪtəb(ə)l] *a* tarjima qilib bo'lmaydigan, tarjima qilinmaydigan
- untrue** [ˌʌnˈtruː] *a* yolg'on, noto'g'ri, xato
- untrustworthy** [ˌʌnˈtrʌst,wɜːðɪ] *a* ishonchsiz, ishonib bo'lmaydigan
- untruth** [ˌʌnˈtruːθ] *n* nohaq (noto'g'ri, yolg'on) gap, ish va h. k.
- untutored** [ˌʌnˈtjuːtəd] *a* o'rgatilmagan, o'qitilmagan, maxsus ta'lim berilmagan (olmagan)
- untwine** [ˌʌnˈtwam] *v* (*chigal, tugun kabilarni*) yechmoq, bo'shatmoq
- untwist** [ˌʌnˈtwɪst] *v* buralgan narsani aylantirib (g'ildiratib) yechmoq, bo'shatmoq
- unused** [ˌʌnˈjuːst] *a* 1) (*to nimagudir*) odatlanmagan; 2) [ˌʌnˈjuːzd] ishlatilmagan; ishlatilmaydigan
- unusual** [ˌʌnˈjuːʒʊəl] *a* odatdan tashqari, g'alati, ajoyib
- unusually** [ˌʌnˈjuːʒʊəli] *adv* xususan, ayniqsa, birinchi navbatda, eng avval, avvalo
- unutterable** [ˌʌnˈʌt(ə)rəb(ə)l] *a* ta'riflab (tushuntirib, aytib) bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan
- unvalued** [ˌʌnˈvæljuːd] *a* bebaho, qimmatli
- unveil** [ˌʌnˈveɪl] *v* 1) ochmoq, ochib qo'yimoq, ochib tashlamoq; 2) (*yodgorlikni*) tantanali ravishda ochmoq; 3) (*sir, reja va b. ni*) ochmoq, fosh etmoq
- unversed** [ˌʌnˈvɜːst] *a* uncha (yetarlicha) bilmaydigan, bexabar, yetarli tajribasi bo'lmagan
- unvoice** [ˌʌnˈvɔɪs] *v* fon. jarangsiz qilmoq
- unwanted** [ˌʌnˈwɒntɪd] *a* xush ko'rilmagan (kelmaydigan), yoqmaydigan, noma'qul, yoqimsiz

unwarrantable [AN'wɪrəntəb(ə)] *a* 1) to'g'ri deb bo'lmaydigan, asossiz; 2) noo'rin, foydasiz, o'rinsiz

unwarranted [AN'wɪrəntɪd] *a* 1) kafilligi olinmagan; 2) ijozat berilmagan, ruxsat etilmagan, yo'l qo'yilmagan, mumkin bo'lmagan, nojoiz

unwary [AN'we(ə)rɪ] *a* ehtiyotsizlik bilan ish tutadigan, ehtiyotsiz, oqibatini o'ylamay ish qiladigan

unwearying [AN'wi(ə)rɪŋ] *a* charchamas, tolmas, hormas, tinmaydigan, toliqmaydigan, serg'ayrat

unweave [AN'wi:v] *v* (**unwove**; **unwoven**) o'ramni yozmoq (yechmoq), o'ralgan narsani yechmoq

unwelcome [AN'welkəm] *a* 1) xush ko'ril-magan (kelmaydigan), yoqmaydigan, yoqimsiz; 2) xohlanmagan, istalmagan; so'ralmagan

unwell [AN'wel] *a* kasalmand, betob, xasta, sog'lig'i yomon

unwholesome [AN'həʊls(ə)m] *a* 1) sog'lig'i qochgan, kasalmand; 2) foydasiz, zararli

unwieldy [AN'wi:ldɪ] *a* qo'pol, beso'naqay, katta, ko'p joy oladigan

unwilled [AN'wɪld] *a* 1) bexosdan qilingan, tasodifiy; 2) atayin (jo'rrtaga, bilaturib, qasddan) qilinmagan

unwilling [AN'wɪlɪŋ] *a* xohishi yo'q, maylisiz, yoqtirmaydigan; mayli (havasi, ishtiyoqi) bo'lmagan

unwillingly [AN'wɪlɪŋli] *adv* istar-istamas, xohlamay, beixtiyor, xohlamasdan

unwind [AN'waɪnd] *v* (**unwound**) 1) yozilmoq, chuvalmoq, chuvalib (yozilib) ketmoq; 2) chavamoq, yechmoq

unwisdom [AN'wɪzdəm] *n* ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik, bema'nilik

unwise [AN'waɪz] *a* o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak, bema'ni

unwished [AN'wɪʃt] *a* istalmagan, orzu qilinmagan, kutilmagan

unwitting [AN'wɪtɪŋ] *a* 1) bilmaydigan, be-xabar, bilimsiz, ma'lumotsiz, tajribasiz; 2) oldindan o'ylab (mo'ljalab) qo'yilmagan, ataylab (qasddan, jo'rrtaga) qilinmagan

unwittingly [AN'wɪtɪŋli] *adv* noiloj, beixtiyor, xohishsiz, xohlamasdan, bexosdan, ixtiyorsiz

unwonted [AN'wəʊntɪd] *a* odatlanmagan, o'rganilmagan, odat tusiga kirmagan

unworn [AN'wɔ:n] *a* kiyilmagan, yangi, tutilinagan

unworthy [AN'wɔ:ði] *a* noloyiq, nomunosib, loyiq (munosib, teng) emas, arzimaydigan

unwound [AN'waʊnd] *past., p. p. of* unwind

unwove [AN'wəʊv] *past. of* unweave

unwoven [AN'wəʊv(ə)n] *p. p. of* unweave

unwrap [AN'ræp] *v* ochilmoq, yechilmoq, (*nuguni, o'ralgan narsani*) yechmoq, ochmoq

unwritten [AN'ɪrɪtɪ] *a* 1) yozilmagan; 2) toza, bo'sh (*bet, sahifa, varaq haqida*)

unyielding [AN'ji:ldɪŋ] *a* o'z ahdidan qaytmas, sabotli, mustahkam

up [ʌp] *adv* yuqoriga, tepaga, balandga; **the time is ~** vaqt tugadi; **~ to ...** gacha

up-and-coming [ʌpən'kʌmɪŋ] *a* quntli, g'ayratli, faol

up and down [ʌpən'daʊn] *adv* tepaga va pastga, ko'tarilib va tushib; **to move ~** tepaga va pastga harakat qilmoq

upbraid [ʌp'breɪd] *v* 1) birovni asossiz ayblamoq, tirnoq ostidan kir izlamoq; 2) ta'na (malomat) qilmoq; tanbeh bermoq, tergab koyimoq

upbringing [ʌpbrɪŋɪŋ] *n* tarbiya, tarbiyalash, parvarish qilish

upbuild [ʌp'bɪld] *v* (**upbuilt**) qurmoq, ko'tarmoq, bino qilmoq, barpo qilmoq

upbuilt [ʌp'bɪlt] *past., p. p. of* upbuild

upchuck [ʌp'tʃʌk] *v* qusmoq, qayt qilmoq, ko'ngli aynimoq

up-country [ʌpkəntri] *adv* 1) mamlakatda, mamlakat ichida; 2) mamlakatga, mamlakat ichiga

update [ʌp'det] *v* zamonaviylashtirmoq, hozirgi zamonga moslab qayta ishlamoq

updo [ʌpdu:] *n* sochni yuqoriga qarab tarab turmaklash

upgrade [ʌpɡreɪd] *n* yuksalish, rivojlanish, malaka oshirish

upgrowth [ʌpɡrəʊθ] *n* o'sish, rivojlanish, ko'tarilish

upheaval [ʌp'hi:v(ə)ɪ] *n* 1) siqish, surilish; 2) tub burilish

upheave [ʌp'hi:v] *v* (**uprove**) ko'tarilmoq, yuqori chiqmoq, ko'tarmoq

upheld [ʌp'held] *past., p. p. of* uphold

uphill [ʌp'hɪl] 1. *adv* tepaga, yuqoriga; 2. *a* tog'ga chiquvchi

uphold [ʌp'həʊld] *v* (**upheld**) 1) qo'llab-quvvatlamoq; 2) tutib turmoq; tirab turmoq

upholder [ʌp'həʊldə] *n* tarafdor, yoqlovchi

upholster [ʌp'həʊlstə] *v* 1) (*mebelni*) qoplamoq, sirmoq; 2) (*gilam va b. ni*) ilmoq, osmoq, ilib (osib) qo'yimoq; yoymoq

upholsterer [ʌp'həʊlstərə] *n* mebel qoplovchi usta

upholstery [ʌp'həʊlst(ə)rɪ] *n* 1) mebel qoplovchilik kasbi; 2) qoplash uchun ishlatiladigan gazlama (gazmol)

uprove [ʌp'həʊv] *past., p. p. of* upheave

- upkeep** [ˈʌpki:p] *n* yaxshi holatda ushlab turish, qarash, saqlash, asrash
- upland** [ˈʌplənd] *n pl* tog'li mamlakat
- uplift** [ˈʌp,lɪft] *n* ko'tarish, ko'tarilish (*madaniyat va b. haqida*); ruhiy ko'tarinkilik
- uplifting** [ˈʌp,lɪftɪŋ] *n* (*kayfiyatni*) ko'tarish
- upon** [əˈpɒn] *prep.* ustida, ustiga
- upper** [ˈʌpə] *n* yuqori, yuqoridagi, tepadagi, ustki; **the Upper House** yuqori palata (*lordlar palatasi — Angliyada; Senat — AQSHda*)
- uppermost** [ˈʌpəməʊst] *a* 1) eng yuqori o'rinni egallaydigan; 2) oliy, bosh, eng yuqori
- uppish** [ˈʌpɪʃ] *a so'zl.* 1) kekkeygan, g'ururli, kibrlil, takabbur, dimog'dor; 2) surbet, bezbet, behayo, uyatsiz
- uppity** [ˈʌpɪtɪ] *a so'zl.* kekkeygan, g'ururli, takabbur, dimog'dor
- upraise** [ˈʌp'reɪz] *v* 1) (*yerdan*) ko'tarmoq, ko'klarga ko'tarmoq; 2) e'tiborini oshirmoq; obro'yini ko'tarmoq
- upright** [ˈʌpraɪt] *a* 1) to'g'ri, tikka; 2) tirgovuch, tirgak, tamba
- uprightly** [ˈʌpraɪtli] *adv* to'g'ri, to'ppa-to'g'ri, to'g'ridan to'g'ri, ochiqdan ochiq
- upright piano** [ˈʌpraɪtpiˈæneɪʊ] *n* pianino
- uprise** [ˈʌpraɪz] *1. n* chiqish, quyoshning chiqish payti, tong; **2. v** (**uprose; uprisen**) ko'tarilmoq, yuqori chiqmoq
- uprisen** [ˈʌp'raɪz(ə)n] *past. of uprise* **2**
- uprising** [ˈʌp,raɪzɪŋ] *n* qo'zg'olon, g'alayon, isyon
- uproar** [ˈʌprɔ:] *n* shovqin, shovqin-suron, shov-shuv, qiy-chuv
- uproarious** [ˈʌp'rɔ:riəs] *a* 1) shovqin-suronli, sershovqin; 2) kuchli, shiddatli, qattiq
- uproot** [ˈʌp'ru:t] *v* 1) tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, ildizini quritmoq; 2) ildizi bilan sug'urib tashlamoq
- uprose** [ˈʌp'rəʊz] *past. of uprise*
- upset** [ˈʌp'set] *v* 1) ag'darmoq, ag'darilmoq; 2) xafa qilmoq, ko'nglini g'ash qilmoq; **to be ~ about ...dan kayfiyati buzilmoq** (xafa bo'lmoq)
- upshot** [ˈʌpʃɒt] *n* yechim, oqibat, yakun, natija; **in the ~** oqibatida
- upside-down** [ˈʌpsaɪd'daʊn] *1. a* ostin-ustun qilingan; **2. adv** 1) ostin-ustun, to'ntarilib, to'ntarib; 2) ostin-ustun, alg'ov-dalg'ov
- upstairs** [ˈʌp'steəz] *adv* 1) yuqoriga, yuqori qavatga; 2) (*zinapoya bilan*) yuqoriga, tepaga, yuqori tomonga
- upstanding** [ˈʌp'ʌstændɪŋ] *a* 1) tik turadigan, o'zi turaveradigan, tik; 2) sog'lom, tani sog'; ~ **children** sog'lom bolalar
- upstart** [ˈʌpsta:t] *n* 1) qo'ldan kelmaydigan mansabga minib oigan odam; tirrancha;
- 2) har ishga (gapga) suqiluvchi odam, mahmadona
- up-stream** [ˈʌp'stri:m] *1. adv* oqimga qarshi; **2. a** oqimga qarshi suzuvchi
- upstroke** [ˈʌpstroʊk] *n* yuqoriga yo'naltirilgan chiziq (*xat va qo'lyozmada*)
- upsurge** **1. n** [ˈʌpsɜ:dʒ] o'sish, ko'tarilish, yuksalish; **2. v** [ˈʌp'sɜ:dʒ] o'smoq, ko'tarilmoq, yuksalmoq
- upsweep** [ˈʌpswi:p] *n* tararmoq, tarab o'lmoq (*qo'yimoq*)
- upswing** [ˈʌp,swɪŋ] *n* to'satdan ko'tarilish, chiqish, o'sish, yaxshilanish, ko'tarilish
- uptake** [ˈʌptek] *n* tushunish, anglash, fahmlash
- uptight** [ˈʌptaɪt, ʌp'taɪt] *a* asablarni qo'zg'atadigan, asabni buzadigan, diqqatni oshiradigan
- up-to-date** [ˈʌptə'deɪt] *a* hozirgi kundagi (zamonadagi), hozirgi, zamonaviy
- up-to-the-minute** [ˈʌptəðə'mɪnɪt] *a* 1) hozir (yaqindagina) bo'lgan, hozirgi; 2) eng oxirgi, eng so'nggi
- upturn** [ˈʌptɜ:n] *v* to'ntarmoq, ag'darib qo'yimoq, ag'darmoq
- upturned** [ˈʌp'tɜ:nd] *a* 1) to'ntarilgan, ag'darilgan; 2) yuqoriga ko'tarilgan
- upward** [ˈʌpwəd] *a* tepaga (yuqoriga) yo'naltirilgan yoki harakat qiladigan
- upwards** [ˈʌpwədz] *adv* yuqoriga, tepaga, yuqori tomonga; tepasiga, ustiga
- uraemia** [juˈri:miə] *n tib.* uremiya (*huyrak faoliyatining buzilishi tufayli paydo bo'ladigan kasallik oqibatida organizmning zaharlanishi*)
- uranium** [jʊ'reɪniəm] *n kim.* 1) uran (*radioaktiv kimyoviy element*); 2) *attr.* uranli, uranga oid; **a ~ reactor** uranli reaktor
- Uranus** [juˈreɪnəs] *n astr.* Uran (*sayyora, Quyoshdan o'rtacha uzoqligi 2871 mln. km*)
- urban** [ˈɜ:bən] *a* shaharga oid; ~ **population** shahar aholisi
- urbane** [ˈɜ:bɛɪn] *a* 1) xushmuomala, muloyim, silliq, boadab, nazokatli; 2) tarbiyali, madaniyatli
- urbanity** [ˈɜ:bænɪtɪ] *n* xushmuomalalik, muloyimlik, boadablik, nazokat
- urchin** [ˈɜ:tʃɪn] *n* ko'cha bolasi, o'g'il bola
- urea** [ju(ə)riə] *n kim.* mochevina, karbaloid (*siydik tarkibida bo'ladigan kristall modda*)
- urge** [ɜ:dʒ] **1. n** biror ishga otlantiruvchi, ilhomlantiruvchi narsa, sabab, turki; **2. v** (*biror ish qilishga*) undamoq, qo'zg'amoq, majbur qilmoq
- urgency** [ˈɜ:dʒ(ə)nəsi] *n* shoshilinchlik, zudlik

urgent [ˈɜːdʒ(ə)nt] *adv* favqulodda, shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan

uric [ˈjʊərɪk] *a* siydikka (peshobga) oid

urinal [ˈjʊ(ə)rɪn(ə)l] *n* pissuar (*hojatxonada: siydik oqib ketadigan chanoq*)

urinate [ˈjʊ(ə)rɪneɪt] *v* siymoq, yozilmoq, bo'shanmoq

urine [ˈjʊ(ə)rɪn] *n* siydik, peshob

urn [ɜːn] *n* 1) ko'zacha, kuvacha; 2) quti; 3) axlatdon (*ko'cha va jamoat binolarida: adal, papiros qoldiqlari tashlanadigan idish*)

urology [ˈjʊ(ə)ˈrɒlədʒɪ] *n* tib. urologiya (*siydik - jinsiy organlar kasalliklarini o'rganadigan fan*)

ursine [ˈɜːs(a)ɪn] *n* ayiqqa oid, ayiq

us [ʌs] *pron. pers.* („we“ kishilik olmoshining obyekt kelishigi shakli) bizni, bizga, bizdan

usage [ˈjuːsɪdʒ, ˈjuːzɪdʒ] *n* qo'llanish, foydalanish, ishlatish

use **I**, *n* [juːs] 1) qo'llash; qo'llanish, ishlatish; **out of** ~ foydalanilmaydigan; **to make** ~ **of** ...dan foydalanmoq, ...ni ishlatmoq; 2) foyda, naf; **2**, *v* [juːz] 1) ishlatmoq, qo'llamoq, foydalanmoq; 2) o'z manfaati yo'lida ishlatmoq

used [juːsd] *a* o'rgangan, odatlangan; **to get** ~ **to** o'rganib qolmoq, ko'nikmoq

useful [ˈjuːsf(ə)l] *a* foydali, foyda qiladigan, foyda keltiradigan

useless [ˈjuːsləs] *a* foydasiz, foyda qilmaydigan, foyda keltirmaydigan

user [ˈjuːzə] *n* iste'molchi, iste'mol qiluvchi, foydalanuvchi

user-friendly [ˈjuːzəˈfrendli] *a* 1) ishlatilishi qulay bo'lgan; 2) do'stona, samimiy, ahil, inoq

usher [ˈʌʃə] *n* shveysar (*darbon*)

usherette [ˈʌʃəˈret] *n* chipta tekshiruvchi xodim (*teatrda*)

usquebaugh [ˈʌskwɪbɔː] *n* shorl, viski (*ingliz arag'i*)

usual [ˈjuːʒʊəl] *a* odatdagi, doimiy; as ~ odatdagidek

usually [ˈjuːʒʊəli] *adv* 1) odatda, odatga ko'ra, odatdagicha, odatdagidek; 2) ko'proq, ko'pincha

usurer [ˈjuːz(ə)rə] *n* sudxo'r, foydaxo'r

usurious [ˈjuːzjʊ(ə)rɪəs] *a* sudxo'rlik bilan, sudxo'rona

usurp [juːˈzɜːp] *v* qonunga xilof ravishda tortib olmoq, kuch ishlatmoq

usurpation [juːˈzɜːˈpeɪʃ(ə)n] *n* tortib olish (*hokimiyatni yoki birovning huquqini qonunga xilof ravishda tortib olish*); uzurpatsiya

usurper [juːˈzɜːpə] *n* hokimiyatni yoki birovning huquqini qonunga xilof ravishda tortib olgan shaxs

usury [ˈjuːz(ə)rɪ] *n* 1) sudxo'rlik; 2) sudxo'rlik foizi

utensil [juːˈtens(ə)l] *n* 1) turli idishlar, idish-tovoq; 2) asbob-anjom, buyum, jihoz, ashyo, narsa; **kitchen** ~s oshxona idishlari, qozon-tovoqlar

uteri [juːˈt(ə)rɪ] *pl of uterus*

uterine [ˈjuːt(ə)rɪn] *a* qoringa (ichga) oid, qorindagi; **a** ~ **brother** bir qorindan talashib tushgan onasi bir, otasi boshqa aka-uka

uterus [juːˈt(ə)rəs] *n* anat. bachadon

utilitarian [juːˈtɪliˈte(ə)rɪən] *a* manfaatparast, faqat foyda olishga intiladigan

utilitarianism [juːˈtɪliˈte(ə)rɪənɪz(ə)m] *n* fals. 1) utilitarizm (*axloqning asosi foyda olish, manfaat ko'rish deb biluvchi idealistik ta'limot*); 2) manfaatparastlik

utility [juːˈtɪlɪtɪ] *n* foyda, naf; **of no** ~ befoyda

utilization [juːˈtɪlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* tatbiq qilish, qo'llanilish, foydalanish

utilize [juːˈtɪlaɪz] *v* qo'llamoq, ishlatmoq, foydalanmoq

utmost [ˈʌtməʊst] *a* eng uzoqdagi, eng uzoq joydagi, eng olis (uzoq, yiroq); **the** ~ **ends of earth** yerning eng olis joylari

Utopia [juːˈtəʊpiə] *n* xom xayol, amalga oshmaydigan orzu

Utopian [juːˈtəʊpiən] *a* utopiyaga oid, xayoliy, amalga oshmaydigan

utter **I** [ˈʌtə] *n* to'liq, to'la, butunlay, mutlaqo

utter **II** [ˈʌtə] *v* 1) so'z bilan ifoda etmoq; 2) ovoz chiqarmoq, talaffuz qilmoq

utterance [ˈʌt(ə)rəns] *n* (*yo'zma yoki og'zaki*) fikr bildirish

utterly [ˈʌtəli] *adv* g'oyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada

uttermost [ˈʌtəməʊst] = **utmost**

U-tube [ˈjuːtjuːb] *n* sifon naycha

U-turn [ˈjuːtɜːn] *n* burilish, muyulish; aylanish; orqaga aylanish (burilish)

uvula [juːˈvjuːlə] *n* (*pl* -ae [-liː]) anat. tilcha, kichik til

uvulae [juːˈvjuːliː] *pl of uvula*

uvular [juːˈvjuːlə] *a* anat. tilchaga (kichik tilga) oid, tilcha...

Uzbek [ˈʊzbək] **I**, *a* o'zbek, o'zbeklarga oid; **in** ~ o'zbekcha, o'zbek tilida; **2**, *n* 1) o'zbek kishisi, o'zbek ayoli; 2) o'zbek tili

V

V, *v* [viː] *n* ingliz alifbosining yigirma ikkinchi harfi

vac [væk] *n* so'zl. 1) „vacation“ so'zining qisqartmasi; 2) „vacuum-cleaner“ so'zining qisqartmasi

vacancy [veikənsi] *n* 1) bo'sh o'rin (lavozim, vazifa haqida); 2) foydalanilmayotgan joy; 3) bo'sh qolgan joy, ochiq joy, oraliq (matnda)

vacant [veikənt] *a* ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, quruq, puch; **to be** ~ bo'sh turmoq, bo'shab qolmoq

vacantly [veikəntli] *adv* biror ma'no ifodalagan holda, ma'nosiz, bema'ni

vacate [və'kett] *v* 1) ozod qilmoq, qutqarmoq, xalos qilmoq; 2) qoldirib ketmoq, tashlab ketmoq

vacation [və'kei(ə)n] 1. *n* mehnat ta'tili; 2. *v amer.* dam (orom) olmoq, istirohat qilmoq, hordiq chiqarmoq

vacationist [və'kei(ə)nɪst] *n amer.* 1) dam oluvchi (istirohat qiluvchi, hordiq chiqaruvchi) kishi; 2) ta'til olgan (ta'tildagi) kishi

vaccinate [væksɪneɪt] *v tib.* chechakka qarshi emlamoq (*organizmga vaktsina yubormoq*)

vaccination [væksɪ'neɪ(ə)n] *n tib.* emlash, em

vaccine [væksi:n] 1. *n tib.* vaktsina (yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolash uchun ishlatiladigan em dori), emlik; 2. *attr.* vaktsinaga oid; ~ **therapy** vaktsinoterapiya, vaktsina bilan davolash

vacinnia [væk'sɪniə] *n vet.* sigir chechagi

vacillate [væstleɪt] *v* 1) tebranmoq; 2) pirlamoq, hilpiramoq, silkinmoq; 3) chayqalmoq; 4) ikkilanmoq; o'zgarib turmoq

vacillating [væstleɪtɪŋ] *a* 1) ikkilanadigan; 2) o'zgarib turadigan; 3) tebranadigan

vacillation [væsi'leɪ(ə)n] *n* 1) tebranish; 2) chayqalish, ikkilanish; o'zgarib turish

vacuity [væ'kjʊ:ti] *n* mazmunsizlik, ma'nosizlik, tuturiqsizlik; ~ **of mind** mazmunsizlik, ma'nosizlik, tuturiqsizlik

vacuous [vækjuəs] *a* ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, quruq, puch; ~ **stare** ma'nosiz qarash

vacuum [vækju(ə)m] *n fiz.* vakuum (*berkidish ichidagi havoning yoki gazning siyraklashgan holati*)

vacuum brake [vækju(ə)mbreɪk] *n* vakuumli tormoz

vacuum capacitor [vækju(ə)mkeɪ'pæsɪtə] *n* vakuumli kondensator

vacuum cleaner [vækju(ə)m,kli:nə] *n* changso'rar, changyutgich

vacuum concrete [vækju(ə)m,kɒnkri:t] *n* vakuumlangan beton

vacuum fan [vækju(ə)mfaʊn] *n tex.* tortib (so'rib) oladigan ventilator

vacuum flask [vækju(ə)m,flɑ:sk] *n* termos

vacuum-tube [vækju(ə)m,tju:b] *n rad. tely.* elektron lamp, vakuumli lamp

vade-mecum [vɑ:deɪ'meɪkəm] *n lot.* yo'l ko'rsatkich (*yo'llarni ko'rsatuvchi kitobcha*); (*yonda, cho'ntakda olib yuriladigan*) ma'lumotnoma (*spravochnik*)

vagabond [vægəbɒnd] 1. *n* daydi, darbadar, miskin; 2. *a* sayoq, beqaror, ko'chmanchi; 3. *v* daydib yurmoq, sarson-sargardonlikda hayot kechirmoq

vagabondage [vægəbɒndɪdʒ] *n* darbadarlik, daydilik, sayoqlik; sarsonlik; sargardonlik; qo'nimsizlik, doim ko'chib yurish

vagabondism [vægəbɒndɪz(ə)nɪ] = **vagabondage**

vagabondize [vægəbɒndaɪz] *v* daydib yurmoq; sarson-sargardonlikda hayot kechirmoq

vagarious [və'ge(ə)rɪəs] *a* injiq, serxarxasha, tantiq; ajib, qiziq, g'alati, alomat

vagary [vægəri] *n* injiqlik, miyg'ovlik, xarxasha, noz, g'alati qiliq; tantiqlik

vagina [və'dʒaɪnə] *n (pl. -nae, -s |-z)* 1) *anat.* moyliq (*xotinlar tanosil a'zosining ichi*); hazna, qin (*diloq*); 2) *bot.* qin (*yaproq qini*)

vaginae [və'dʒaɪni:] *pl of vagina*

vagrancy [vægərənsɪ] *n* 1) darbadarlik, daydilik, sayoqlik, sarsonlik, sargardonlik; 2) qo'nimsizlik, doim ko'chib yurish

vagrant [vægərənt] 1. *n* daydi, darbadar, miskin; 2. *a* sayoq, daydi, beqaror, ko'chmanchi

vague [veɪg] *a* noaniq, noma'lum, mujmal; ~ **rumours** uoaniq mishmishlar; ~ **hopes** allaqanday noaniq orzu-umidlar; ~ **resemblance** ozgina (sal-pal) o'xshatish

vail I [veɪl] *v so'zl. shoir.* 1) (*bayroqni, qurolni*) tushirmoq, pastga tushirmoq; 2) birovdan bo'sh kelmoq, birovga yon bermoq, bo'ysunmoq; bosh egmoq; 3) (*shlapani*) yechmoq, olib qo'yimoq

vail II [veɪl] *n esk.* 1) choychaqa, choy puli; 2) pora, rishva

vain [veɪn] *a* behuda, foydasiz, asossiz; quruq; **in** ~ behuda, bekorga; ~ **regrets** behuda pushaymon; ~ **efforts** behuda urinishlar; ~ **discussion** foydasiz bahs; ~ **promise** quruq va'da

vainglorious [veɪn'glɔ:riəs] *a* shuhratparast, kekkaygan, mag'rur; o'ziga bino qo'ygan, maqtanchoq

vainglory [veɪn'glɔ:ri] *n* manmanlik, shuhratparastlik, kekkayishlik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish

vainly [ˈveɪnlɪ] *adv* behuda, bekor, natijasiz, foydasiz

vakeel [ˈvæːki:l] *n hind.* 1) vakil, namoyanda; 2) elchi; 3) advokat, himoyachi, yoqlovchi

valance [ˈvæləns] *n* 1) to'r hoshiya (*biror narsaning chetiga tutilgan to'r*); 2) burma; 3) guldor qimmatbaho chodir, choyshab

vale I [ˈveɪl] *n* vodiy, soylik, uva

vale II [ˈveɪl] **1.** *n lot.* xayrlashish; vidolashish; xayrlashuv; **2.** *int. lot.* xayrl sog' bo'ling! yaxshi qoling! alvido!

valediction [ˌvæliˈdɪkʃ(ə)n] *n* xayrlashish, vidolashish, xayrlashuv

valedictorian [ˌvæliˈdɪkˈto:riən] *n amer.* xayrlashuv nutqini so'zlayotgan bitiruvchi talaba

valedictory [ˌvæliˈdɪkʃ(ə)rɪ] **1.** *n* xayrlashuv nutqi; **2.** *a* xayrlashuvga oid, xayrlashuv

valency [ˈveɪlənsɪ] *n kim.* valentlik (*kimyoviy element atomining boshqa elementlar atomi bilan birikish yoki almashinish qobiliyati*)

valentine [ˈvæli(ə)ntaɪn] *n* 1) dildan sevilgan; yurakdan urgan; sevikli; 2) oshiq, mahbub, xushtor, yor, ma'shuqa, mahbuba, nigor, dildor, jonona; 3) avliyo Valentin kuni ma'shuqaga beriladigan sovg'a yoki yo'llanadigan ochiq xat, „valentinka“; 4) (V) avliyo Valentin kuni

valerian [ˈvɒli(ə)rɪən] *n bot.* valeriana (*dorivor o'tsimon o'simlik*); ~ **drops** valerianka tomchisi

valeric [ˈvɒli(ə)rɪk] *a* 1) valeriana o'simligiga oid; 2) valerianadan tayyorlangan; ~ **acid** valeriana kislotasi

vale [ˈvælt] **1.** *n* 1) xizmatkor, malay; 2) kamerdiner (*shaxsiy uy xizmatkori*); **2.** *v* (*mehmonxonada*) tozalash, artish, yuvish va kiyimlarni dazmollash bilan shug'ullanmoq

valeudinarian [ˌvæltju:diˈne(ə)rɪən] **1.** *a* kasalmand, dardchil, tez-tez kasal bo'lib turadigan, kasaldan chiqmaydigan, nosog'; **2.** *n* dardmand, kasalmand odam

valeudinarianism [ˌvæltju:diˈne(ə)rɪənɪz(ə)n] *n* 1) kasalmandlik, dardchilik, nosog'lik; 2) vasvoslik, badgumonlik, har narsadan shubhalanish, gumonsirash

valeudinarian [ˌvæltju:diˈne(ə)rɪ] = **valeudinarian**

Valhalla [ˈvælhælə] *n skand. mif.* panteon (*1. mashhur kishilar dafn etiladigan bino; dahma; 2. yunon va rimliklarda barcha hindlarga atab qurilgan ibodatxona; 3. kit. biror dinga mansub bo'lgan hamma xudolarning umumiy nomi*)

valiancy [ˈvæliənsɪ] *n* botirlik, jasurlik, mardlik, dovyuraklik, jasorat, dadillik, shon-shavkat, fidokorlik, fidokorona ish, jonbozlik

valiant [ˈvæliənt] **1.** *a* botir, jasur, mard, dovyurak; **2.** *n* mard o'g'lon, botir (jasur, mard, dadil) odam

valid [ˈvælid] *a yur.* o'z kuchini saqlagan ta'sir, kor qiladigan, amaliy, ta'sirli, ta'sirchan; amaldagi, kuchini yo'qotmagan; **the contract is ~ shartnoma** kuchini yo'qotmagan; **the ticket is ~ for a week** yo'l chiptasi bir haftaga yaraydi (*bir haftagacha kuchini yo'qotmaydi*)

valid data [ˈvæliˈdɛtə] *n* ishonchli ma'lumotlar

validate [ˈvæliˈdeɪt] *v* 1) tasdiqlamoq; 2) tasdiq qilmoq; 3) *yur.* kuchga kiritmoq, amalga joriy etmoq

validation [ˌvæliˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) tasdiqlash; 2) qonuniylashtirish, qonuniy (rasmiy) deb e'lon qilish

validity [ˈvæliˈdɪti] *n* 1) qonuniylik, qonunga asostanganlik; 2) asostanganlik, isbotlanganlik; 3) to'g'rilik, rostlik, aniqlik; 4) yaroqlilik, keraklilik, foydalilik

valise [ˈvæli:z] *n* 1) chamadon; 2) *harb. tur.* safar xalta, jild, sumka (*orqaga bog'lab ko'tarib yuriladi*); 3) xurjun, gadoyto'ruva

vallant [ˈvæljənt] *a* jasoratli, jasur, botir, qahramon; shavkatli

valley [ˈvæli] *n* 1) vodiy, uva; 2) *me'mor.* tomning qirasi; 3) *tex.* tarnov, nov

valor [ˈvælə] *amer.* = **valour**

valorize [ˈvæləraɪz] *v* 1) davlat tomonidan ko'rsatilgan andazaga amal qilgan holda narxni ko'tarmoq; 2) davlat tomonidan maxsus tadbirlar orqali narxni oshirmoq

valorous [ˈvælərəs] *a* shoir. jasoratli, jasur, botir, qahramon, shavkatli, fidokor, jonboz

valour [ˈvælə] *n* jasorat, botirlik, qahramonlik; shon-shavkat, fidokorona ish, jasorat

valuable [ˈvæljʊ(ə)b(ə)l] **1.** *a* qimmatbaho, ahamiyatli, foydali, qimmatli, qadrlı; ~ **information** foydali ma'lumotlar; **a ~ discovery** muhim kashfiyot; **a ~ service** katta xizmat, **a ~ assistance** katta yordam;

2. *n* qimmatbaho, qimmatli narsalar

valuables [ˈvæljʊ(ə)b(ə)lz] *n pl* qimmatbaho buyumlar, qimmatli narsalar

valuation [ˌvæljʊˈeɪʃ(ə)n] *n* narsaning bahosi, baho, narx

value [ˈvæljʊ:] **1.** *n* 1) qiymat, baho, narx; **commercial ~** bozor bahosi; **to be of ~** qiymatga ega bo'lmoq; **2.** *v* baholamoq, qadrlamoq, baho bermoq; **to ~ at ...** ga baholamoq

- valued** [vælju:d] *a* qimmatbaho, qimmatli; qadrli, yuqori baholangan; **a ~ opinion** qimmatli fikr
- valueless** [vælju:ləs] *a* 1) hech narsa turmaydigan, hech narsaga arzimaydigan; 2) foyda bermaydigan, befoyda, foydasiz, behuda, bekorchi
- valuer** [væljuə] *n* baholovchi, narx kesuvchi (qo'yuvchi)
- valuta** [və'ljutə] *n* valuta, pul (biror mamlakatning pul sistemasi va unga asos qilib olingan pul birligi)
- valve** [vælv] *n* tex. 1) klapan (*suv, havo yoki bug' yo'lini ochib-berkitib turadigan detal yoki qopqoq*); 2) jo'mrak; 3) zolotnik (*turli mashinalarda: bug', suyuqlik yoki gaz taqsimlovchi klapan*); 4) mus. ventil, klapan (*puflab chalinadigan musiqa asboblarida*)
- valve gate** [vælv'geit] *n* 1) surma klapan (qopqoq), lo'kidon; 2) (quvurda) ochib-yopuvchi mexanizm, qurilma, eshik
- valve set** [vælvset] *n* radio. lampali priyomnik
- valvular** [vælvjələ] *a* 1) tib. : ~ defect yurak illati (*kasallik*); 2) klapaniga oid
- vamoose, vamoose** [væ'mu:s, və-] *n* 1) ketmoq, ketib qolmoq, chiqib ketmoq, tark etmoq; 2) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq
- vamp I** [væmp] 1. *n* 1) poyabzalning old qismi; 2) yamoq; 2. *v* 1) poyabzalning old qismini yangi qo'yimoq; 2) tuzatmoq; yamamoq
- vamp II** [væmp] 1. *n* so'zl. 1) qiziqtirib (havasini keltirib) yo'ldan uradigan ayol, yo'ldan ozdiruvchi, vasvasa qiluvchi; 2. *v* (*g'araz maqsudda erkaklarni*) o'ziga jalb qilmoq (tortmoq)
- vampire** [væmpaɪə] *n* 1) zool. katta ko'rshapalak; 2) qonxo'r, zolim, yovuz
- van I** [væn] *n* avangard, ilg'or
- van II** [væn] 1. *n* 1) furgon (*l. sovabon arava; 2. yuk tashuvchi avtomobil, arava kabillarda yopiq kuzov*); 2) yuk vagoni; 2. *v* furgonda bir joydan ikkinchi joyga tashimoq
- vanadium** [və'neɪdɪəm] *n* kim. vanadiy (*kimyoviy element, metall*)
- vandal** [vændl] 1. *n* 1) vandal (*madaniyatsiz, johil odam, nodon*); 2) xuligan, bezori; 2. *a* 1) yovvoyilarcha; vahshiyona; 2) shafqatsiz, berahm, yovuz
- vandalism** [vænd(ə)liz(ə)m] *n* 1) madaniyatsizlik, jaholat, nodonlik; 2) vahshiylik, yovvoyilik, johillik
- vandalize** [vænd(ə)larz] *v* jamoat tartibini buzmoq, o'zboshimchalik (beboshlik) qilmoq
- vane** [veɪn] *n* 1) fluger (*shamolning yo'nalishi va tezligini ko'rsatadigan asbob*); 2) (*ventilator, shamol tegirmoaning*) qanoti
- vanguard** [væŋgə:d] *n* ilg'or, oldinda boruvchi o'trad; **to be in the ~ of a movement** harakatning oldingi saflarida bo'lmoq
- vanilla** [və'nɪlə] *n* 1) bot. vanil (*xushbo'y mevali tropik o'simlik*); 2) so'zl. vanilin (*vanil qo'shilgan*) muzqaymoq; 3) attr. vanilga oid; vanilli, vanil...
- vanillin** [və'nɪlɪn] *n* kim. vanilin (*vanil mevasidan olinadigan yoki sun'iy xushbo'y modda*)
- vanish** [vænɪʃ] 1. *v* 1) yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq, yo'q bo'lib ketmoq, g'oyib bo'lmoq; **to ~ in the crowd** odamlar ichiga kirib ketmoq; 2) mat. nolga qarab harakat qilmoq; 2. *n* fon. sirg'anish
- vanishing** [vænɪʃɪŋ] *a* yo'q bo'layotgan, yo'qoladigan, yo'q bo'ladigan; ~ **fraction** mat. nolga harakat qiluvchi kasr
- vanishing-line** [vænɪʃɪŋlaɪn] *n* tushish chizig'i
- vanishing-point** [vænɪʃɪŋpɔɪnt] *n* tutash (uchrashish) nuqtasi (*parallel chiziqlarda*)
- vanity** [vænɪtɪ] *n* 1) ortiqcha harakat, behuda (befoyda) urinish; **injured** ~ tahqirlangan izzat-nafsi; 2) bekorlik, behudalik; 3) puchlik, foydasizlik, natijasizlik; **a ~ bag** ayollar sumkasi
- vanity case** [vænɪtɪkeɪs] = **vanity bag**
- vanquish** [væŋkwɪʃ] *v* 1) yengmoq, g'alaba qozonmoq; 2) g'olib kelmoq, zafar qozonmoq, musobaqada yutmoq
- vanquisher** [væŋkwɪʃə] *n* g'olib, g'alaba qozongan kishi, muzaffar
- vantage** [vɑ:ntɪdʒ] *n* ustunlik, ortqlik, afzallik; **to have (yoki to hold, to take) smb. at a ~** kimdandir ustun turmoq
- vantage-ground** [vɑ:ntɪdʒgraʊnd] *n* 1) qulay vaziyat; 2) nazorat punkti
- vantage-point** [vɑ:ntɪdʒpɔɪnt] = **vantage-ground**
- vapid** [væpɪd] *a* mazasi, ta'mi yo'q, mazasiz, ta'msiz, bemaza; ~ **beer** mazasi (kuchi) ketib qolgan pivo
- vapidity** [və'pɪdɪtɪ] *n* mazasi yo'qlik, mazasizlik, ta'msizlik
- vapor** [veɪpə] *amer.* = **vapour**
- vaporable** [veɪp(ə)rəb(ə)] *a* bug'lanadigan, bug'ga aylanadigan
- vaporarium** [veɪpə're(ə)rɪəm] = **vapour bath**
- vaporescence** [veɪpə'res(ə)ns] *n* bug' hosil bo'lishi
- vaporization** [veɪpəra'zeɪʃ(ə)n] *n* bug'lanish, bug'ga aylanish

- vaporize** [ˈveɪpəraɪz] *v* 1) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq; 2) bug'lantirmoq, bug'ga aylantirmoq
- vaporizer** [ˈveɪpəraɪzə] *n* *tex.* bug'latgich
- vaporous** [ˈveɪp(ə)rəs] *a* 1) bug'ga o'xshash, bug'simon; 2) bug' bilan to'ldirilgan
- vapour** [ˈveɪpə] 1. *n* 1) bug', par; 2) xom xayol, ro'yobga chiqmaydigan (amalga oshmaydigan) orzu-umid; 2. *v* 1) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq; 2) maqtanmoq, katta gapirmoq
- vapour bath** [ˈveɪpəbɑːθ] *v* issiqxona, bug'xona (*hanumonida*)
- vapour trail** [ˈveɪpətrel] *n* samolyotning siyrak (siyraklashgan) havodagi izi
- vapourish** [ˈveɪp(ə)rɪʃ] *a* maqtanchoq, manman
- vapoury** [ˈveɪp(ə)rɪ] *a* 1) noaniq, xira, salpal bilinadigan; 2) g'amli, qayg'uli
- varan** [ˈvæɪrən] *n* *zool.* echkamar
- Varangian** [ˈvæɪrændʒɪən] *tar.* 1. *a* varyaglar-ga oid; varyaglar; 2. *n* 1) varyaglar; 2) ko'ch kelgindilar
- variability** [ˌveɪ(ə)rɪəˈbɪləbɪlɪtɪ] *n* o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish, beqarorlik, betayinlik, qarori (tayini) yo'qlik
- variable** [ˈveɪ(ə)rɪəb(ə)l] *a* 1) o'zgaruvchan, beqaror, doim bir xil turmaydigan, o'zgarib turadigan; 2) *mat.* o'zgaruvchan
- variance** [ˈveɪ(ə)rɪəns] *n* qarama-qarshilik, ziddlik, ziddiyat
- variant** [ˈveɪ(ə)rɪənt] 1. *n* variant; 2. *a* har xil, turli, bir-biridan farq qiladigan, boshqaboshqa
- variation** [ˌveɪ(ə)rɪˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) o'zgarish, almashtirish, og'ish; 2) tur, xil
- varicella** [ˌvæɪrɪˈselə] *n* *tib.* suvchechak
- varicoloured** [ˈveɪ(ə)rɪˌkɒləd] *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli
- varicose** [ˈvæɪrɪkəʊs] *n* *tib.* kengaytirilgan, keng; kuchaytirilgan
- varied** [ˈveɪ(ə)rɪd] *a* turli, har xil, turli-tuman; ~ *opinions* turli-tuman fikrlar
- variegate** [ˈveɪ(ə)rɪˈgeɪt] *v* xilma-xil (turli-tuman, rang-barang) qilmoq, turli tusga (shaklga) kiritmoq, turli ranglar bilan bo'yamoq
- variegated** [ˈveɪ(ə)rɪˈgeɪtɪd] *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli
- variegation** [ˌveɪ(ə)rɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* 1) guldor naqsh; 2) rang-barang qilib bo'yash
- variety** [ˈvæɪrɪəti] *n* xilma-xillik; ko'p tomonlamalik; xilma-xillik, rang-baranglik; ~ *of opinions* fikrlardagi har xillik, tafovut
- variety show** [ˈvæɪrɪəʃəʊ] *n* 1) varyete (*yengil janrli estrada teatri*); 2) estrada konserti
- variety store** [ˈvæɪrɪətiːstɔː] *n* *amer.* universal magazini (*univermag*)
- variform** [ˈveɪ(ə)rɪfɔːm] *a* turli shakllarga ega bo'lgan
- variola** [ˈvæɪrɪələ] *n* *tib.* chechak
- variolate** [ˈveɪrɪəleɪt] *v* *tib.* chechak chekmoq, chechakka qarshi emlamoq
- variometer** [ˌveɪ(ə)rɪˈɒmɪtə] *n* *radio.* variometr (*radio apparatlari zanjiridagi induktivlikni tekis o'zgartiruvchi asbob*)
- variorum** [ˌveɪ(ə)rɪˈɔːrɪəm] *n* 1) turli sharhlovchilarning sharhlari kiritilgan nashr; 2) bir matnning turli variantlari bilan berilgan nashr
- various** [ˈveɪ(ə)rɪəs] 1. *a* har xil, turli, boshqaboshqa; 2. *n* so'zl. bir qancha, qandaydir (*kishi, odam*)
- varmint** [ˈvɑːmɪnt] = *varmint*
- varmint** [ˈvɑːmɪnt] *n* so'zl. takasaltang, valakisalang, havoyi, sayoq
- varnish** [ˈvɑːnɪʃ] 1. *n* 1) lok; 2) yaltiroqlik, jilo, sayqal; 2. *v* loklamoq, lok surtmoq, yaltiratmoq
- varnishing-day** [ˈvɑːnɪʃɪŋdeɪ] *n* ko'rgazma ochilish matosimi arafasi
- varsity**, **varsity** [ˈvɑːsɪti] *n* 1) so'zl. universitet, dorilfunun (*oliy o'quv yurti*); 2) *attr.* universitetga oid, universitet... dorilfununga oid, dorilfunun...; *a* ~ *team* dorilfunun sport jamoasi
- vary** [ˈveɪ(ə)rɪ] *v* 1) o'zgartirmoq; 2) o'zgar-moq; 3) farq qilmoq
- vascular** [ˈvæskjələ] *a* *anat.* tomir(lar)ga oid; tomirli, tomir...; *a* ~ *system* tomir sistemasi (*tizimi*)
- vase** [ˈvɑːz] *n* guldon, vaza
- vaseline** [ˈvæslɪn] *n* vazelin
- vase-painting** [ˈvɑːzˌpeɪntɪŋ] *n* guldonga chizilgan rasm
- vassal** [ˈvæs(ə)l] 1. *n* 1) *tar.* vassal (*1. o'rtasarlarda: yirik feodal, hukmdorga qaram bo'lib, uning buyrug'ni bajarishga majbur bo'lgan katta yer egasi; 2. qaram bo'lgan kishi; tobe davlat*); 2) xizmatkor, malay; 2. *attr.* qaram, tobe
- vassalage** [ˈvæsələdʒ] *n* vassallik, qaramlik
- vast** [ˈvɑːst] 1. *a* 1) keng, bepoyon, katta, ko'p; *the* ~ *of ocean* okean kengligi; 2) g'oyat katta, zo'r, ulkan; 2. *n* *shoir.* kenglik, yalanglik, sayhon yer
- vastly** [ˈvɑːstli] *adv* 1) ancha, nisbatan ko'p (ortiq, tez va h. k.); 2) ma'lum (ko'p) darajada; 3) so'zl. juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada
- vasty** [ˈvɑːsti] = *vast* 1; 1)
- vat** [ˈvæt] *n* chan (*bir tomoni ochiq yog'och bochka*); bak (*suyuqlik solinadigan katta idish*); sisterna

- vatic** [vætk] *a* payg'ambarga oid; payg'ambar..., payg'ambarlik...
- Vatican** [vætkən] *n* *geogr.* Vatikan
- vaticinate** [væ'tisneit] *v* 1) payg'ambarlik qilmoq; 2) karomat qilmoq, bashorat qilmoq, oldindan aytmoq
- vaticination** [væ'tisi'nei(ə)n] *n* oldindan aytish, bashorat, karomat
- vaudeville** [və:dəvil] *n* vodevil (*bir-ikki pardali kichik komediya*)
- vault I** [və:lt] *n* gumbaz, qubba; **the ~ of a church** cherkov gumbazi; **the ~ of heaven** osmon gumbazi
- vault II** [və:lt] 1. *n* langarcho'p bilan sakrash; 2. *v* sakramoq; **he ~ed over the fence** u panjara ustidan sakrab o'tdi
- vaulted** [və:ltəd] *a* gumbaz (qubba) shaklidagi, gumbazimon, qubbasimon, qubbali, gumbazli
- vaulting I** [və:ltɪŋ] *n* gumbaz, qubba
- vaulting II** [və:ltɪŋ] *n* 1) sakrash, igr'ish, sapchish; 2) voltijirovka (*chopqir ot ustida qilinadigan chavandozlik mashqlari*)
- vaulting-horse** [və:ltɪŋhɔ:s] *n* gimnastika koni (*gimnastika mashqlari bajarish uchun mo'ljallangan uzun to'ri oyoqli sport anjomi*)
- vaunt** [və:nt] *n* 1) maqtanchoqlik, mananlik; 2) maqtanish, kerilish; 2. *v* maqtanmoq, kerilmoq, maqtanib gapirmoq
- VCR** [vi:si'ɑ:] (*„video cassette recorder“ning qisqartmasi*) videomagnitofon
- V-Day** [vi:dei] *n* (*„Victory Day“ning qisqartmasi*) G'alaba kuni (*Ikkinchi jahon urushida*)
- veal** [vi:l] *n* buzoq go'shti (*ovqat sifatida*)
- vector** [vektə] 1. *n* *mat.* vektor (*1. miqdor va yo'nalishga ega bo'lgan kattalik; 2. shunday kattalikni ko'rsatuvchi kesma*); 2. *v* yo'llamoq; yo'naltirmoq, yo'l ko'rsatmoq
- vector field** [vektəfi:ld] *n* vektor maydoni
- vedette** [vi'det] *n* o'tli (otda yuradigan) qorovul; **a ~ boat** nazorat qiluvchi kema
- veer** [viə] *v* *deng.* (*arqon, sim kabilarni*) bo'shatmoq, sekin-asta qo'yib yubormoq
- veering** [viəriŋ] *n* buriqish, muyulish; muyush
- vegan** [vi:ɡən] *n* faqat sabzavot va sutli ovqatlarni iste'mol qilishga jiddiy amal qiluvchi kishi
- vegetable** [vedʒ(ɪ)təb(ə)] 1. *n* sabzavot; 2. *a* 1) o'simlikdan olingan, o'simlikdan qilingan, o'simlikdan tayyorlangan, o'simlik; ~ **physiology** o'simliklar fiziologiyasi; ~ **oil** o'simlik moyi (yog'i); 2) sabzavotga oid; sabzavot
- vegetal** [vedʒ(ɪ)təl] *a* 1) o'simliklarga oid; o'simliklar...; 2) o'simliklardan olingan
- vegetarian** [vedʒi'te(ə)rɪən] 1. *n* vegetarian (*faqat sabzavot va sutli ovqatlarni iste'mol qiluvchi odam*); 2. *a* vegetarianlar uchun belgilangan; go'shtsiz
- vegetarianism** [vedʒi'te(ə)rɪənɪz(ə)m] *n* vegetarianlik, et (go'sht) yemaslik
- vegetate** [vedʒiteit] *v* 1) o'smoq, rivojlanmoq, katta bo'lmoq; 2) betashvish hayot kechirmoq
- vegetation** [vedʒi'teɪ(ə)n] *n* 1) o'simliklar; **tropical** ~ tropik o'simliklar; 2) unish, o'sish
- vegetative** [vedʒi:tətɪv] *a* o'simliklarga oid; o'simlik; ~ **cover** o't-o'lanlar, o'simlik qoplamasi
- vehemence** [viəməns] *n* kuch, quvvat, tinkamador, majol, darmon
- vehement** [viəmənt] *n* kuchli, quvvatli, zardast, baquvvat
- vehicle** [vi:ɪk(ə)] *n* tashish vositalari
- vehicular** [vi:'hikjələ] *a* tashishga (o'tkazib qo'yishga) xizmat qiladigan
- veil** [veil] 1. *n* 1) choyshab, o'rin yopinchig'i, xotin-qizlarning yopinchiqsimon libosi, yopinchiq; 2) shlapaga tutiladigan va yuzni bekitib turadigan to'r; 2. *v* yopinchiq bilan yopmoq
- veiling** [veilɪŋ] *n* 1) shlapaga tutiladigan va yuzni bekitib turadigan to'r; 2) yengil shaffof gazlama
- vein** [veɪn] *n* *anat.* vena, ko'ktomir, qon tomiri
- veinstone** [veɪnstəʊn] *n* *geol.* ruda koni
- veiny** [veɪni] *a* 1) chandir, tirishqoq; 2) chayir, qotma, qotmadan kelgan
- vela** [vi:lə] *pl* of **velum**
- velar** [vi:lə] *fon.* 1. *a* tanglay orqasi bilan talaffuz etiladigan; 2. *n* tanglay orqasi bilan talaffuz etiladigan tovush
- velaria** [vi'le(ə)rɪə] *pl* of **velarium**
- velarium** [vi'le(ə)rɪəm] *n* bostirma, ayvon, shiypon, soyabon
- veld(t)** [velt] *n* cho'l, dasht, yovon
- vellum** [veləm] *n* kalka (*chizma, rasm va sh. k. dun nusxa ko'chirish uchun ishlatiladigan shaffof qog'oz yoki gazlama*)
- velocipede** [vi'ləsɪpi:d] *n* 1) motorsiz, drezina (*temir yo'lda yuradigan arava, vagon*); 2) *amer.* uch g'ildirakli velosiped
- velocity** [vi'ləsɪti] *n* tezlik, jadallik, ildamlik
- velodrome** [velədrəʊm] *n* velodrom (*velosiped mashqlari, musobaqalari va sinovlari o'tkaziladigan maydon*)
- velour(s)** [və'loʊ] *n* *fr.* velur (*movvut turi*)

- velum** [ˈvi:ləm] *n* (*pl* **vela**) *anat.* yumshoq tanglay
- velvet** [ˈvelvɪt] *n* baxmal, duxoba
- velveteen** [ˌvelvɪˈti:n] *n* chiyduxoba
- velvety** [ˈvelvɪtɪ] *a* baxmalga oʻxshash mayin, yumshoq
- vena** [ˈvi:nə] *n* (*pl* **venae**) vena, koʻktomir
- venae** [ˈvi:ni:] *pl of* **vena**
- venal** [ˈvi:nəl] *a* 1) sotishga (sotilishga) oid, sotiladigan; 2) poraga uchadigan sotqin
- venality** [vi:ˈnæltɪ] *n* sotqinlik
- vend** [vend] *v* 1) sotmoq, bozorga solmoq; 2) savdo-sotiq bilan shugʻullanmoq, savdo-sotiq qilmoq
- vendee** [ˈvenˈdi:] *n* *yur.* xaridor, sotib oluvchi
- vender** [ˈvendə] = **vendor**
- vendetta** [ˈvenˈdɛtə] *n* *ital.* xun, qasos, qonga qon bilan oʻch olish, qonga qon olish
- vendor** [ˈvendə:] *n* uy-uyiga eltib berib savdo qiluvchi savdogar
- vener** [ˈviːnə] *n* 1) shpon (*bir qavatli yupqa fanera*); 2) (*gʻishi*) qoplama
- venerable** [ˈven(ə)rəb(ə)] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram; hurmatga sazovor boʻlgan; **a** ~ **age** tabarruk (*ulugʻ*) yosh
- venerate** [ˈvenərət] *v* ortiq darajada hurmat etmoq, izzat-ikrom qilmoq, aziz koʻrmoq, eʼzozlamoq
- eneration** [ˌvenəˈreɪʃ(ə)n] *n* hurmatlash, hurmat qilish, qadrlash, ortiq darajadagi hurmat, izzat-ikrom, aziz koʻrish
- venerator** [ˈvenərətə] *n* hurmatlovchi, qadrllovchi, hurmatini oʻrniga qoʻyuvchi (*odam*)
- venereal** [ˌviːri(ə)rɪəl] *a* 1) tanosil kasalligiga oid, venerik; ~ **disease** tanosil kasalligi; 2) shahvatparast
- venereologist** [ˌviːri(ə)rɪˈnɒlədʒɪst] *n* venerolog
- Venetian** [ˌviːniːʃ(ə)n] *a* Venetsiyaga oid; **a** ~ **window** venetsiyancha (*italyancha*) deraza, uch tabaqali deraza
- Venezuelan** [ˌvenəˈzweɪlən] **1.** *a* Venesuelaga va venesuelalikalarga oid; Venesuela...; **2.** *n* venesuelalik, venesuelalik ayol
- vengeance** [ˈvendʒ(ə)ns] *n* qasos, oʻch, intiqom, qasd
- vengeful** [ˈvendʒf(ə)] *a* kek saqlovchi, qasos olmay qoʻymaydigan, kekni unutmaydigan
- venial** [ˈvi:niəl] *a* kechirarli, uzrli, kechirsa boʻladigan; **a** ~ **error** kechirsa boʻladigan xato
- venire** [ˌvɛːniəri:] *n* *amer. yur.* maslahatchilarni sudga chaqirish uchun farmoyish
- venison** [ˈvenɪs(ə)n] *n* bugʻu goʻshu
- venom** [ˈvenəm] *n* 1) zahar, ogʻu (*asosan, ilonniki*); 2) kek, adovat, xusumat, gina, gʻazab, qahr, achchiq
- venomous** [ˈvenəməs] *a* 1) zaharli, ogʻuli; 2) gʻazabli, achchiq
- vent** [vent] **1.** *n* chiqadigan yoki kiradigan teshik (*tuynuk*); **2.** *v* nimanidir teshmoq
- ventage** [ˈventɪdʒ] *n* 1) tuynuk, yoʻl (*havo, gaz, tutun chiqib turishi uchun*); 2) (*puflab chalinadigan musiqa asboblarning*) klapani
- venter** [ˈventə] *n* 1) *anat. zool.* qorin; 2) soʻzl. meʼda, oshqozon; 3) uy hayvonlari, mol, tuyoq; 4) *yur. by one* ~ bir tugʻishgan, bir qorindan talashib tushgan, onasi bir, otasi boshqa (*aka-ukalar, opa-singillar haqida*)
- vent-hole** [ˈventhəʊl] = **vent 1**
- ventilate** [ˈventɪleɪt] *v* shamollatmoq, havosini yangilamoq
- ventilation** [ˌventɪˈleɪʃ(ə)n] *n* shamollatish, havosini yangilash
- ventilator** [ˈventɪleɪtə] *n* ventilator, havo yangilagich
- vent-peg** [ˈventpeɪɡ] *n* *tex.* 1) vtulka; 2) probka, fiqin
- vent-pipe** [ˈventpaɪp] *n* tortuvchi (*tortish, tortadigan, tortib oladigan*) quvur
- ventral** [ˈventrəl] *a* *anat. zool.* qoringa oid, qorin
- ventricle** [ˈventrɪk(ə)] *n* *anat.* 1) yurak qorinchasi; 2) miya qorinchasi (*bosh miyadagi boʻshliq*)
- ventriloquism** [ˌvenˈtrɪləkwɪz(ə)m] *n* labini (*ogʻzini*) qimirlatmay gapirish
- ventriloquist** [ˌvenˈtrɪləkwɪst] *n* labini qimirlatmasdan gapira oladigan odam
- ventriloquize** [ˌvenˈtrɪləkwɪz] *v* labini (*ogʻzini*) qimirlatmasdan gapirmoq
- venture** [ˈventʃə] *a* 1) qaltis ish, avantyura; 2) chayqovchilik; **to run the** ~ tavakkal qilmoq; **a joint** ~ qoʻshma korxonona
- venturer** [ˈventʃ(ə)rə] *n* tavakkalchi (*tavakkal qilib qaltis ishga qoʻl unuvchi*) korxonona egasi
- venturesome** [ˈventʃəs(ə)m] *a* 1) jasur, botir, qoʻrqmas, dovyurak, yurakli; 2) tavakkal qiluvchi; 3) xavfli
- venturous** [ˈventʃ(ə)rəs] = **venturesome**
- venue** [ˈvenju:] *n* yigʻilish (*uchrashuv, musobaqa*) oʻtkaziladigan joy
- Venus** [ˈvi:nəs] *n* 1) *mif.* Venera (*Qadimgi Rim afsonalarida: muhabbat va goʻzallik xudosi*); 2) *astr.* Zuhra
- veracious** [vəˈreɪʃəs] *a* 1) haqiqatgoʻy, rostgoʻy, toʻgʻrisoʻz, haqqoʻy, toʻgʻri; 2) ishonchli, chin, haqiqiy
- veracity** [vəˈræsɪtɪ] *n* 1) haqqoniylik, haqqoniyat, rostgoʻylik, toʻgʻrilik, haqqoʻylik; 2) shubhasiz toʻgʻrilik, ishonchlilik

veranda(h) [və'ændə] *n* 1) ayvon, peshayvon; 2) sport maydonidagi bostirma ostida joylashgan tomoshabinlar joyi
verb [vɜ:b] *n gram.* fe'l
verbal [vɜ:b(ə)] 1. *a* og'zaki; **a ~ arrangement** og'zaki kelishuv; **a ~ contract** og'zaki shartnoma; **a ~ communication** og'zaki xabar; 2. *n* fe'lning shaxssiz (shaxsi topilmas) shakli, shaxsi noma'lum fe'l
verbalism [ˈvɜ:b(ə)lɪz(ə)m] *n* o'taketgan rasmiyatchilik
verbalist [ˈvɜ:b(ə)lɪst] *n* o'taketgan rasmiyatchi
verbally [vɜ:b(ə)li] *adv* 1) og'zaki; 2) faqat og'izda
verbena [vɜ:'bi:nə] *n bot.* tizimgul
verbiage [ˈvɜ:bi:dʒ] *n* 1) ortiqcha so'zlarning ko'pligi, cho'zilganlik, ezmalik; 2) quruq mahmadonagarchilik, safsatabozlik; quruq (puch) gap
verbose [vɜ:'bɔ:ʊ] *a* ortiqcha so'zlari ko'p, cho'zilib ketgan, ezma
verbosity [vɜ:'bɔ:ʊti] *n* cho'zilganlik, ezmalik, ortiqcha (keraksiz) so'zlarning ko'pligi
verdancy [ˈvɜ:d(ə)nstɪ] *n* 1) maysa, o't; 2) yashil rang; 3) tajribasizlik, g'o'rlik, xomlik
verdant [ˈvɜ:d(ə)nt] *a* 1) yashil, bargrang, ko'm-ko'k, yam-yashil; 2) tajribasiz, xom, g'o'r
verdict [ˈvɜ:dɪkt] *n* hukm, hukmnoma, qaror, fikr, xulosa
verdigris [ˈvɜ:dɪgrɪs] *n max.* yashil bo'yoq
verdure [ˈvɜ:dʒə] *n* 1) yashil (sabza) rang; 2) ko'kat, rezavor, sabzavot
Verey light [ˈvɜ:riəlaɪt] = **Very light**
verge [vɜ:dʒ] 1. *n* chegar, qirra; **on the ~ of ...** chegarasida, yoqasida; 2. *v* yaqinlashmoq, yaqin kelmoq
verger [ˈvɜ:dʒə] *n* cherkov xizmatchisi
veridical [vɪˈrɪdɪk(ə)l] *a* 1) haqiqatgo'y, rostgo'y, to'g'riso'z; 2) haqqoniy, rost, to'g'ri, chin
verification [ˌvɜ:rɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) tekshirish; 2) tasdiqlash; **control and ~ of the fulfilment of adopted decisions** qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish va tekshirish; 3) *yur.* tasdiqlash, guvohlik berish
verify [ˈvɜ:rɪfaɪ] *v* 1) (to'g'riligini) tekshirmoq, tekshirib ko'rmoq; 2) tasdiqlamoq, guvohlik bermoq
verily [ˈvɜ:rɪli] *adv* haqiqatan, chindan ham, darhaqiqat, rosti bilan
verisimilar [ˌvɜ:rɪˈsɪmlə] *a* 1) haqiqatnamo, haqiqatga o'xshagan; 2) yuz berishi (bo'lishi) mumkin bo'lgan

verisimilitude [ˌvɜ:rɪsɪˈmɪlɪtju:d] *n* haqiqatnamolik, haqiqatga o'xshashlik
veritable [ˈvɜ:rɪtəb(ə)l] *a* haqiqiy, chin, rost, to'g'ri
verity [ˈvɜ:rɪti] *n* 1) haqiqat, chin, bor narsa, to'g'ri gap; 2) haqiqatlik, chinlik, rostlik
vermeil [ˈvɜ:m(e)ɪl] *n* zarhallangan (tilla suvi yuritilgan) kumush, nuqra, mis
vermicelli [ˌvɜ:mɪˈtʃɛli] *n it.* vermishel
vermicide [ˈvɜ:mɪsaɪd] = **vermifuge**
vermicular [ˈvɜ:mɪkjʊlə] = **vermiform**
vermiform [ˈvɜ:mɪfɔ:m] *a* chugalchangsimon; **a ~ appendix anat.** chugalchangsimon o'simta
vermifuge [ˈvɜ:mɪfju:dʒ] *n tib.* gijja tushiradigan dori
vermillion [ˈvɜ:mɪlɪən] *n* kinovar (*qizil rangli mineral, simob sulfid, simob rudasi*)
vermin [ˈvɜ:mɪn] *n* 1) parazit, tekinxo'r (*bit, kana va b.*); 2) *q.x.* zararkunanda hasharot; 3) yirtqichlar (*hayvonlar va qushlar*)
verminate [ˈvɜ:mɪneɪt] *v* qurtlamoq, qurt bosmoq (tushmoq), qurtlab qolmoq
vermination [ˌvɜ:mɪˈneɪʃ(ə)n] *n* qurtlaganlik, qurt tushganlik, qurti borlik
verminosis [ˌvɜ:mɪˈnɔ:sɪs] *n (pl -ses [-sɪ:z])* gijja kasalligi
verminous [ˈvɜ:mɪnəs] *a* bitlab ketgan, bit bosgan
verm(o)uth [ˈvɜ:məθ] *n* vermut (*vinoning bir turi*)
vernacular [vɜˈnækjʊlə] 1. *a* xalqqa (oid), mansub, ommaviy, xalq...; 2. *n* ona tili
vernal [ˈvɜ:nl] *a* ko'klamgi, bahorgi, bahoriy, bahor...; **the ~ equinox** bahorgi tengkunik, bahorda kechasi bilan kunduzi teng bo'ladigan payt (*21- mart*)
veronica [vɜˈrɒnɪkə] *n bot.* veronika (*hinafsha gulli o'tsimon o'simlik*)
versatile [ˈvɜ:sətəl] *a* 1) egiluvchan, bukiluvchan; 2) serqirra, har tarafdama
versatility [ˌvɜ:səˈtɪlɪti] *n* ko'p tomonlamalik; serqirralik, har tarafdamalilik
verse [vɜ:s] 1. *n* 1) band, she'r, bayt, misra; 2) poeziya, she'riyat, nazm; **in ~ or prose** nazmda yoki nasrda; **lyrical** - lirik she'r; 2. *v* 1) she'r yozmoq; 2) she'r bilan ifoda etmoq
versed I [vɜ:s] *a* tajribali, tajribakor, omilkor, usta, mohir
versed II [vɜ:s] *p. p. of* **verse 2**
verse-monger [ˈvɜ:sˌmʌŋgə] *n* 1) qofiyaboz (*no'noq shoir haqida*); 2) no'noq shoir
versicoloured [ˌvɜ:sɪˈkɒləd] *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli
versification [ˌvɜ:sɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* she'r tuzilishi, she'r tuzish

versifier [ˈvɜːsɪfaɪə] *n* 1) esk. she'r texnikasini yaxshi biladigan shoir, nozim; 2) no'noq shoir, qofiyaboz

versify [ˈvɜːsɪfaɪ] *v* 1) she'r yozmoq; 2) she'r-ga (nazmga) aylantirmoq, she'r (nazm) bilan ifodalamoq

version [ˈvɜːʃ(ə)n] *n* 1) rivoyat, naql, taxminiy fikr; 2) variant, boshqacha ko'inish; 3) tarjima

verso [ˈvɜːsəʊ] *n* lot. (*pl* -os [-əʊz]) 1) ochiq kitobning chap-tomonidagi sahifasi; 2) orqa (teskari) tomon (*tanga pul, medal*)

versus [ˈvɜːsəs] *lot. prep.* 1) qarshi, xilof, zid; 2) bilan solishtirganda

vert [vɜːt] *n* yashil rang

vertebra [ˈvɜːtɪbrə] *n* (*pl* -rae [-ri:]) 1) umurtqa suyagi, umurtqa pog'onasi (*umurtqaning har bir bo'g'ini*); 2) *pl* so'zl. umurtqa

vertebrae [ˈvɜːtɪbrɪ:] *pl of vertebra*

vertebral [ˈvɜːtɪbrəl] *a* 1) umurtqaga oid; umurtqali, umurtqasi bor; **a** - column umurtqa

vertebrate [ˈvɜːtɪbr(e)ɪt] **1.** *n* umurtqali hayvonlar; **2.** *a* umurtqali, umurtqasi bor

vertebration [ˌvɜːtɪˈbreɪʃ(ə)n] *n* umurtqa suyagining paydo bo'lishi (vujudga kelishi)

vertex [ˈvɜːteks] *n* (*pl* -tices) tepa, uchi, cho'qqi; **the** - of an angle burchak uchi

vertical [ˈvɜːtɪk(ə)l] **1.** *a* vertikal yo'nalishdagi, vertikal, tik; **2.** *n* vertikal (tik) chiziq

vertices [ˈvɜːtɪsɪz] *pl of vertex*

verticil [ˈvɜːtɪsɪl] *n* bot. g'ushsha (*g'uj barg, gul, novda*)

vertiginous [vɜːˈtɪdʒɪnəs] *a* 1) boshni aylantiradigan, gangitadigan; 2) boshi aylanishdan azoblanayotgan; **to feel** - boshi aylanmoq; 3) aylanadigan; **a** - current girdob, aylanma

vertigo [ˈvɜːtɪgəʊ] *n* (*pl* -os [-əʊz]) bosh aylanish, gangish, esankirash

vervain [ˈvɜːveɪn] *n* bot. tizimgul

very [ˈveri] **1.** *adv* juda, g'oyatda, o'ta; ~ well juda ham yaxshi; ~ much katta; juda ko'p; **thank you** ~ much katta rahmat; **2.** *a* chin, haqiqiy, chinakam, rostakam, ayni. g'irt, qip-qizil; **the** - truth chin (ayni) haqiqat

Very light [ˌvɪ(ə)lɪt] *n* harb. signal (*ishora, xabar*) beradigan raketa

vesicant [ˈvesɪkənt] *a* tib. yiringli yaraga oid, yiringli yara; chipqonga oid

vesicate [ˈvesɪkeɪt] *v* yiringlamoq, maddalamoq, fasod bog'lamoq

vesicle [ˈvesɪk(ə)l] *n* anat. biol. pufakcha; ko'pikcha

vesicular [ˌvɛsɪˈkjʊlə] *a* tib. pufakchali; qavariqli; ~ disease qavariq

vesper [ˈvespə] *n* 1) (V) kechki yulduz; 2) *pl* cherk. kechki ibodat (*xristianlarda*)

vesper-bell [ˈvespəbəl] *n* kechki ovoz, kechki tovush

vespertine [ˈvespətɪn] *a* 1) kechki, kechqurungi, oqshomgi; 2) bot. kechki payt ochiladigan; 3) zool. tungi, tundagi

vespiary [ˈvesprəri] *n* gazandalar uyasi

vessel [ˈves(ə)l] *n* 1) kema; **a merchant** - savdo kemasi; 2) samolyot

vest [vest] **1.** *n* 1) amer. nimcha; **coat** - and **trousers** pidjak, shim va nimchadan iborat kastum; 2) mayka; 3) kiyim, libos; 4) tar. kamzul

vesla [ˈvestə] *n* mum gugurt; **fusee** - shamolda o'chmaydigan gugurt

vestal [ˈvestl] **1.** *n* iffatli qiz, ma'suma, bokira; **2.** *a* iffatli, ma'suma, bokira; **pok**

vested [ˈvestɪd] *a* qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan, qonun asosidagi

vestiary [ˈvestɪəri] = vestry

vestibular [ˈvestɪbjʊlə] *a* : **a** - mechanism vestibular moslama (*ichki quloqda joylashgan, bosh va gavda muvozanatini idora qiladigan a'zo*)

vestibule [ˈvestɪbjʊ:l] *n* 1) vestibul; 2) anat. biror teshik (kanal) yo'lining boshlanishi (boshlanish, kirish qismi)

vestibule school [ˈvestɪbjʊːlsku:l] *n* amer. (*zavod yoki fabrika qoshidagi*) ishlab chiqarish maktabi

vestige [ˈvestɪdʒ] *n* 1) iz; nishon; asar, qoldiq; alomat; 2) biol. rudiment, qoldiq (*organizmning evolutsion taraqqiyoti mobaynida o'z ahamiyatini yo'qotgan qismi*)

vestigia [ˈvestɪdʒɪə] *pl of vestigium*

vestigial [ˈvestɪdʒɪəl] *a* qoldiq; hozir o'z qiymatini yo'qotgan, o'tmishdan qolgan, eskirgan, qoldiq

vestigium [ˈvestɪdʒɪəm] *n* iz; nishon; asar, qoldiq; alomat

vestment [ˈvestmənt] *n* sarpo, libos; kiyim, kiyimbosh, ust-bosh

vest-pocket [ˌvestˈpɒkɪt] *n* nimcha (jilet) cho'ntagi

vestry [ˈvestri] *n* cherk. rizaxona (*rizalar va cherkov anjomlari saqlanadigan bino, ombor*)

vesture [ˈvestʃə] *n* 1) sarpo, libos; 2) parda, choyshab, ro'mol; 3) xotin-qizlarning yengil (yupqa) libosi

vet [vet] **1.** *n* 1) mol doktori; 2) doktor, shifokor; 3) amer. veteran (*keksa, tajribali harbiy kishi, urush qatnashchisi*); **2.** *v* hayvonlarni davolamoq

vetch [vetʃ] *n* bot. xashaki no'xat

- veteran** [ˈvet(ə)rən] *n* veteran (*keksa, tajribali harbiy kishi, urush qatnashchisi*), faxriy kishi
- veterinary** [ˈvet(ə)rən(ə)rɪ] *n* veterinar; mol doktori
- veto** [ˈvɪtəʊ] **1.** *n* veto (*man etish, bekor qilish, taqiqlash huquqi*); **2.** *v* biror narsani bekor qilmoq; man etmoq
- vex** [veks] *v* o'kintirmoq, o'ksitmoq, xafa qilmoq, ranjitmoq, alam qildirmoq, alam qiladigan ish qilmoq; **to be -ed** g'azablanmoq
- vexation** [ˈvekˈseɪʃ(ə)n] *n* 1) o'kinish, achinish, ranj, alam; 2) g'azablanish, achchiqlanish
- vexatious** [ˈvekˈseɪʃəs] *a* kishiga ranj yetkazadigan, alam qiladigan, kishini ranjitadigan, afsuslantiradigan, o'ksitadigan, o'kinchli
- vexed** [ˈveksɪd] *v* g'azablantirmoq, achchiqlantirmoq, g'ashiga tegmoq
- vexing** [ˈveksɪŋ] *a* 1) yoqimsiz, yomon, ko'ngilsiz, noxush, sovuq, xunuk; 2) g'azablantiradigan, achchiqlantiradigan, g'ashiga tegadigan
- via** [ˈvaɪə] *lot. prep.* orqali, bilan; yordami bilan, vositasida
- viable** [ˈvaɪəb(ə)l] *a* yashashga qobil, yashovchan
- viaduct** [ˈvaɪədəkt] *n* 1) teshik ko'prik (*yo'l ustidan o'tgan ko'prik*); 2) kesishgan yo'l ustidan o'tkazilgan ikkinchi yo'l (*ko'prik yo'l*)
- vial** [ˈvaɪəl] *n* shishacha, kichkina shishacha; **to pour out ~s of one's wrath on smb.** g'azabini kimgadir sochmoq
- vials** [ˈvaɪəndz] *n pl* 1) oziq-ovqat; 2) taom; noz-ne'mat
- viatic** [ˈvaɪˈæti:k] *a* yo'lga oid, yo'l...
- viator** [ˈvaɪˈeɪtə] *n* sayohatchi, sayyoh
- vibrant** [ˈvaɪbrənt] *a* jo'shqin, zavqli
- vibrate** [ˈvaɪˈbreɪt] *v* tebranmoq, titramoq, zirillamoq
- vibration** [ˈvaɪˈbreɪʃ(ə)n] *n* tebranish, titrash, zirillash
- vibrator** [ˈvaɪˈbreɪtə] *n* *tex.* tebratkich
- vibrio** [ˈv(aɪ)brɪəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) *biol.* vibriion (*vergul shaklidagi bakteriya*)
- viburnum** [ˈvaɪˈbɜːnəm] *n* *bot.* kalina, bodrezak (*buta o'simligi va uning mayda, qizil, nordon mevasi*)
- vicar** [ˈvɪkə] *n* ruhoni
- vicarage** [ˈvɪk(ə)rɪdʒ] *n* 1) ruhoniyluk mansabi; 2) ruhoniyning uyi
- vicarial** [v(aɪ)ˈke(ə)rɪəl] *a* *cherk.* pop yordamchisiga (o'rinbosariga) oid
- vicarious** [vɪˈke(ə)rɪəs] *a* 1) vaqtincha bironing o'rniga ishlaydigan; ~ **authority** (*yoki ~ power*) ishonchnoma, vakolatnoma; 2) bironing o'rniga qilingan; ~ **atonement** bironing gunohini yuvish
- vice I** [vaɪs] *n* 1) nuqson, qusur, ayb, kamchilik, iflat; 2) huzuqlik, yomonlik, yovuzlik, yomon (yovuz) ish
- vice II** [vaɪs] *prep.* o'rniga, badaliga, o'rniga o'rin
- vice III** [vaɪs] *n* *pref.* o'rinbosar; ~ **president** vitse-prezident
- vice IV** [vaɪs] **1.** *n* *tex.* iskanja, taxtakach; **2.** *v* siqmoq, qismoq, siqib qo'yimoq, qisib olmoq
- vice-admiral** [vaɪsˈædm(ə)rəl] *n* vitse-admiral
- vice-chairman** [ˌvaɪsˈtʃeənmən] *n* rais o'rinbosari
- vice-chancellor** [ˌvaɪsˈtʃɑːns(ə)lə] *n* vitse-kansler
- vice-consul** [ˌvaɪsˈkɒns(ə)l] *n* vitse-konsul
- vicegerent** [ˌvaɪsˈdʒerənt] *n* vakil, noib, o'rinbosar
- vice-governor** [ˌvaɪsˈgʌv(ə)nə] *n* vitse-gubernator
- vice-minister** [ˌvaɪsˈmɪnɪstə] *n* vazir muovini (o'rinbosari)
- vicennial** [ˈvaɪˈsentəl] *a* yigirma yillik (*davr, muhlal haqida*); har yigirma yilda bo'ladigan
- vice-president** [ˌvaɪsˈprezɪd(ə)nt] *n* vitse-prezident
- viceregal** [ˌvaɪsˈriːg(ə)l] *a* vitse-qirollik
- vicereine** [ˌvaɪsˈreɪn] *n* vitse-qirolning xotini
- viceroi** [ˈvaɪsrɔɪ] *n* vitse-qirol, qirol o'rinbosari
- vice squad** [ˌvaɪsˈskwɒd] *n* *amer.* davlat tomonidan sotilishi man qilingan narsalarni sotish bilan shug'ullanuvchilarga qarshi kurashuvchi politsiya o'tradi
- vice versa** [ˌvaɪs(ɪ)ˈvɜːsə] *adv* *lot.* aksi, teskarisiga, aksincha, qayta, qaytaga; boshqacha
- vicinage** [ˈvɪsɪndʒ] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik; yaqinida (yonida) bo'lish
- vicinal** [ˈvɪsɪn(ə)l] *a* 1) mahalliy, yerli, shu yerli, tub joyli; 2) yonma-yon joylashgan
- vicinity** [ˈvɪsɪnɪtɪ] *n* yaqinlik, yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish
- vicious** [ˈvɪʃəs] *a* 1) axloqsiz, odobsiz, yomon, buzuq; 2) noto'g'ri, xato, nuqsonli
- vicissitude** [ˈvɪsɪsətjuːd] *n* teskarilik, noto'g'rilik, egrilik, yolg'onlik; **the ~s of fate** (*yoki life*) taqdirning bevafoqligi (o'zgaruvchanligi)
- victim** [ˈvɪktɪm] *n* 1) qurbon; qurbonlik; 2) sadaqa; hadya

- victimization** [ˌvɪktɪmaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) aldash, chalgʻitish, firib berish; 2) azoblash, qiynash; azob, uqubat; 3) qurbonlik qilish; 4) (siyosiy chiqishlarda, ish tashlashlarda qatnashganlari uchun ishchi va xizmatchilarni) ishdan boʻshatish
- victimize** [ˌvɪktɪmaɪz] *v* 1) azoblamoq; (azob, ozor) bermoq; qiynamoq, aziyat chektirmoq; 2) aldamoq, chalgʻitmoq, yolgʻon gapirmoq, firib bermoq
- victor** [ˈvɪktə] *n* gʻolib, muzaffar; yengib chiqqan (yutgan) kishi, gʻalaba qozongan kishi
- victoria** [ˌvɪkˈtɔːrɪə] *n* ikki kishilik yengil fayton (yengil arava)
- Victorian** [ˌvɪkˈtɔːrɪən] *a* 1) qirolicha Viktoriya davriga oid (1837 – 1901- yillar); 2) bichimi (modasi) eskirgan, eski modadagi; 3) eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan
- victoria plum** [ˌvɪkˈtɔːrɪəpləm] *n* olxoʻri navi
- victorious** [ˌvɪkˈtɔːrɪəs] *a* muzaffar, gʻalabaga olib boruvchi, zafarli, gʻolib, gʻolibona; ~ **troops** muzaffar qoʻshinlar
- victory** [ˈvɪkt(ə)rɪ] *n* gʻalaba, zafar, yutuq; **to win a convincing** – ishonchli gʻalaba qozonmoq
- victress** [ˈvɪktrɪs] *n* yengib chiqqan (yutgan, gʻalaba qozongan) ayol
- virtual** [ˈvɪtʃl] *1. n* ovqat, oziq, taom; *2. v* oziq-ovqat bilan taʼminlamoq
- virtual** [ˈvɪtʃl] *n* oziq-ovqat bilan taʼminlovchi, oziq-ovqat yetkazuvchi kishi
- virtual** [ˈvɪtʃl] *n* oziq-ovqat bilan taʼminlash, oziq-ovqat yetkazib berish
- virtuall** [ˈvɪtʃlɪə] *n* oziq-ovqat ombori
- vicuna**, **vicuña** [vɪˈkjuːnə] *n* zool. lamavignon (Janubiy Amerikada yashovchi tuyasimon hayvon)
- vide** [ˈvaɪdɪ] *lot. v imp.* qara(moq); ~ **supra** yuqoriga qara; ~ **infra** pastga qara
- videlicet** [vɪˈdelɪsɪt] *adv lot.* 1) xuddi, naqd, ayni, aniq; 2) chunonchi, masalan, yaʼni
- video** [ˈvɪdɪəʊ] *1. n* 1) video; 2) amer. televideniya; *2. a* televideniya oid, televideniya taalluqi boʻlgan; video
- vidimus** [ˈvaɪdɪməs] *n* 1) hujjatlarni rasmiy tekshirish; 2) tasdiqlangan nusxa
- vie** [vaɪ] *v* raqib boʻlmoq, raqobat qilmoq, bahslashmoq; **to ~ with smb. for smth.** kim bilandir nimadir haqida bahslashmoq; **to ~ in doing smth.** nimadir haqida bahslashmoq
- Viennese** [ˌvɪeˈniːz] *1. a* Venaga oid, Vena; *2. n* Vena fuqarosi, venalik kishi
- Viet-Namese**, **Vietnamese** [ˌvɪːetnəˈmiːz] *1. a* Vyetnam va vyetnamliklarga oid, Vyetnam...; *2. n* Vyetnam, vyetnamlik, vyetnamlik ayol
- view** [vjuː] *1. n* 1) fikr, qarash; **from his point of** ~ uning fikricha; **in ~ of** ... sababli; **with a ~ to** ... maqsadida; 2) koʻrinish, qiyofa, tus, chehra, aft, bashara, **point of** ~ nuqtayi nazar; **progressive social ~** ilgʻor ijtimoiy qarashlar; *2. v* 1) qarab chiqmoq, koʻrib chiqmoq; 2) muhokama qilmoq, koʻrib chiqmoq
- viewer** [ˈvjuːə] *n* tomoshabin, tomoshachi, kuzatuvchi
- view-finder** [ˈvjuːˌfaɪndə] *n* foto. vidoiskatel (foto va kinoapparatlarning suratga oladigan obyekt holatini kuzatish uchun xizmat qiladigan moslamasi)
- viewless** [ˈvjuːləs] *a* koʻrinmaydigan, bilinmaydigan, koʻrinmas
- view-point** [ˈvjuːˌpɔɪnt] *n* nuqtayi nazar, qarash
- viewy** [ˈvjuːɪ] *a soʻzl.* 1) (tabiati) qiziqroq, gʻalatiroq, tentaksimon; 2) hashamatli, muhtasham
- vigil** [ˈvɪdʒɪl] *n* 1) bedorlik, bedor boʻlish, uxlamaslik, uygʻoq turish (boʻlish), hushyorlik, sergaklik; 2) navbatchilik
- vigilance** [ˈvɪdʒɪləns] *n* 1) hushyorlik, ogohlik, ziyraklik, sezgirlik; **to preserve one's** ~ hushyorlikni saqlamoq, sergak boʻlmoq; 2) tib. uyqusizlik, bedorlik; uyqusizlik kasali
- vigilant** [ˈvɪdʒɪlənt] *a* hushyor, ziyrak, sergak, sezgir, ogoh
- vigilante** [ˌvɪdʒɪˈləntɪ] *n* drujinachi, drujina aʼzosi
- vignette** [vɪˈnjet] *1. n* vinyetka (kitobning bosh va oxirgi sahifasiga solingan gul); *2. v* vinyetka chizmoq
- vigogne** [vɪˈɡəʊn] *n toʻq.* vignon (dagʻal yung bilan paxta aralashmasidan eshilgan ip)
- vigor** [ˈvɪɡə] *amer.* = **vigour**
- vigorous** [ˈvɪɡ(ə)rəs] *a* gʻayratli, dadil, kuchli, zabardast
- vigorously** [ˈvɪɡ(ə)rəsli] *adv* kuch (zarb, shiddat) bilan
- vigour** [ˈvɪɡə] *n* kuch, quvvat, tinka, mador, majol, darmon
- viking** [ˈvaɪkɪŋ] *n* tar. viking (Qadimgi Skandinaviyada harbiy dengiz askari)
- vile** [vaɪl] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash
- vilification** [ˌvɪlɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* qattiq soʻkish, haqorat qilish; obroʻsini toʻkish
- vilify** [ˈvɪlɪfaɪ] *v* qattiq soʻkmoq, haqoratlam, haqorat qilmoq
- villa** [ˈvɪlə] *n* villa (bogʻli koshona)
- village** [ˈvɪlɪdʒ] *n* qishloq
- villager** [ˈvɪlɪdʒə] *n* qishloqlik, qishloqda yashovchi kishi

villain [ˈvɪləɪn] *n* jinoyatchi, badkor, badkirdor, yaramas, razil (qabih, past) odam, ablah, nobakor
villainous [ˈvɪləɪnəs] *a* ablahona, xunuk, iflos, jirkanch, qabih
villainy [ˈvɪləɪni] *n* yaramaslik, razillik, ifloslik, xunuklik
vim [vɪm] *n* soʻzl. energiya, quvvat, kuch, tinka-mador, majol, darmon
vincible [ˈvɪnsəb(ə)] *a* yengib (yoki yengsa) boʻladigan, yengish mumkin boʻlgan
vindicate [ˈvɪndɪkeɪt] *v* 1) isbotlamoq, isbot qilmoq; **to ~ one's courage** oʻzining jasoratini koʻrsatmoq; 2) himoya qilmoq, yoqlamoq, qoʻllab-quvvatlamoq
vindication [ˌvɪndɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) dalil, isbot; 2) himoya, yoqlash, qoʻllab-quvvatlash
vindicator [ˈvɪndɪkət(ə)rɪ] *n* himoyachi, himoya (mudofaa) qiluvchi, mudofaa...
vindicatory [ˈvɪndɪkət(ə)rɪ] *a* himoya qiladigan, yoqlaydigan, yoqlovchi, himoya, yoqlash...
vindictive [vɪnˈdɪktɪv] *a* kek saqlovchi, qasos olmay qoʻymaydigan, kekni unutmaydigan
vine [vaɪn] *n* 1) tok novdasi; 2) tok, uzum; ~ **culture** uzumchilik; **ground ~** palak
vinedresser [ˈvaɪnˌdresə] *n* tokchi (uzumchi) bogʻbon, sohibkor
vinegar [ˈvɪnɪgə] *n* 1) sirka; 2) yoqimsiz (yomon) feʼl-atvor (xarakter); 3) qoʻrs javob
vinegary [ˈvɪnɪg(ə)rɪ] *a* 1) sirkaga oid, sirka...; 2) yoqimsiz, xunuk; ~ **smile** yoqimsiz tabassum
vine-prop [ˈvaɪnprɒp] *n* tok novdasi uchun tayanch
vinery [ˈvaɪn(ə)rɪ] *n* uzum issiqxonasi, tok oʻstirish uchun qilingan issiqxona
vineyard [ˈvaɪnjəd] *n* tokzor, uzumzor
viticulture [ˈvɪniˌkʌltʃə] = **viticulture**
vino [ˈvɪnəʊ] *n* (*pl* -oes [-əʊz]) soʻzl. arzon vino (musallas, may, sharob, boda)
vin-ordinaire [ˌvænoːˈdɪˈneə] *n* fr. arzon qizil musallas
vinous [ˈvaɪnəs] *a* 1) vinoga oid, vinobop; vinoli, sharobli; 2) ichib olgan, mast
vintage [ˈvɪntɪdʒ] **1.** *n* uzumning hosili; ~ **wine** oliy navli musallas; **2.** *v* 1) uzum termoq; 2) uzum vinosi (musallas) tayyorlamoq
vintager [ˈvɪntɪdʒə] *n* uzum teruvchi (yigʻuvchi, yigʻib-terib oluvchi) kishi
viol [ˈvaɪə] *n* mus. viola (skripkasimon musiqa asbobi)
viola I [vɪˈəʊlə] *n* alt (*past* ovoqli qilli yoki puflab chalinadigan musiqa asbobi)
viola II [ˈvaɪəʊlə] *n* bot. binafsha, gunafsha

violaceous [ˌvaɪəˈleɪʃəs] *a* 1) binafshaga oid, binafsha...; 2) binafsharang, gunafsharang
violate [ˈvaɪələt] *v* buzmoq, chetga chiqmoq; **to ~ the law** qonunni buzmoq
violation [ˌvaɪəˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) buzish, rioya qilmaslik, bajarmaslik; 2) kuch ishlatish; kuchini koʻrsatish
violator [ˌvaɪələt(ə)rɪ] *n* buzuvchi, buzgʻunchi
violence [ˈvaɪələns] *n* 1) kuch; qahr, gʻazab, jazava; 2) kuch ishlatish, zoʻrlash
violent [ˈvaɪələnt] *a* 1) jazava (gʻazab, hayajon va shu kabilardan oʻzini bilmaydigan), gʻazabi oshgan, dargʻazab, quturgan; 2) kuchli, quvvatli
violently [ˈvaɪələntli] *adv* 1) juda, gʻoyat, qattiq, nihoyat darajada; 2) kuch (zarb, shiddat) bilan
violet [ˈvaɪələt] *n* 1) bot. binafsha, gunafsha; 2) binafsharang
violin [ˌvaɪəˈlɪn] *n* mus. skripka; gʻijjak
violinist [ˌvaɪəˈlɪnɪst] *n* skripkachi
violoncellist [ˌvaɪələntˈʃelɪst] *n* mus. violonchelchi, violonchel chaluvchi
violoncello [ˌvaɪələntˈʃeləʊ] *n* (*pl* -os [-əʊz]) violonchel (skripkasimon katta musiqa asbobi)
viper [ˈvaɪpə] *n* 1) zool. qora ilon (yapaloq boshli zaharli ilon); 2) koʻch. makkor, yovuz odam
viperous [ˈvaɪp(ə)rəs] *a* 1) zaharli; 2) yomon, yovuz, serjahl, gʻazablangan
virago [vɪˈrɑːɡəʊ] *n* (*pl* -os, -oes [-əʊz]) janjalkash ayol, badjahl ayol
virgin [ˈvɜːdʒɪn] **1.** *n* 1) qiz; iffatli qiz, maʼsuma, bokira; 2) qoʻriq, boʻz yer; **2.** *a* qizlik davridagi, qizlarga xos boʻlgan
virginal [ˈvɜːdʒɪn(ə)] *a* iffatli, maʼsum, bokira, pok; hayb, aybsiz, gunohsiz
virginity [ˈvɜːdʒɪnɪti] *n* iffatlilik, maʼsumlik, bokiralik; iffat
Virgo [ˈvɜːɡəʊ] *n* astr. sunbula (*burj*)
viridity [ˈvɪrɪdɪti] *n* 1) maysa, oʻt; oʻsimliklar, barglar; koʻkalamzor; 2) yangilik, tozalik, soflik
virile [ˈvɪrɪl] *a* 1) (*erkak haqida*) balogʻatga (voyaga) yetgan; 2) kuchli, baquvvat
virility [ˈvɪrɪlɪti] *n* 1) mardlik, botirlik, jasurlik, jasorat; 2) balogʻatga yetganlik (*erkak haqida*)
virology [ˌvaɪ(ə)ˈrɒlədʒɪ] *n* virusologiya (mikrobiologiyaning viruslar haqidagi boʻlimi)
virtu [ˈvɜːtuː] *n* : **articles of ~** noyob sanʼat, *pl* nodir narsalar
virtual [ˈvɜːtʃʊəl] *a* haqiqiy, chin; ~ **rulers of a country** mamlakatning haqiqiy rahbartari

virtually [ˈvɜ:tʃuəli] *adv* 1) aslida, haqiqatan; 2) aslim (haqiqatni) olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risi
virtue [ˈvɜ:tʃu:] *n* 1) yaxshi fazilat, yaxshi xislat; **by - of ...** tufayli; 2) saxovat, himmat, ezgu ish; **a man of ~** saxovatli kishi
virtuosi [ˌvɜ:tʃuˈəuzi] *pl of virtuoso*
virtuosity [ˌvɜ:tʃuˈɒsiti] *n* yuksak mahorat, mohirlik, ustalik
virtuoso [ˌvɜ:tʃuˈəuzəʊ] *n* *pl -os {-əuz} [-zi]* 1) yuksak mahoratli san'atkor; 2) o'z ishiga mohir odam, usta
virtuous [ˈvɜ:tʃuəs] *a* yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan, saxovatli; himmatli; xayrli, ezgu
virulence [ˈvɪrələns] *n* 1) zaharlilik, zaharli bo'lish; 2) kek, adovat, xusumat, gina; 3) yomonlik, yovuzlik
virulent [ˈvɪrələnt] *a* 1) zaharli, og'uli; 2) xavfli, og'ir (*kasallik haqida*); 3) dushmanlik ruhidagi
virus [ˈvaɪ(ə)rəs] *n* *lot.* virus (yuqumli kasallikni qo'zg'atuvchi, yuqtiruvchi mikroorganizm)
visa [ˈvi:zə] *l. n* viza, ruxsatnoma; **to grant a ~** ruxsatnoma (viza) bermoq; **entrance (yoki entry) ~** kirish ruxsatnomasi; **exit ~** chiqish ruxsatnomasi; **2. v** ijozat bermoq, viza qo'ymoq
visage [ˈvɪzɪdʒ] *n* yuz, bet, aft, hashara, chehra
visard [ˈvɪzəd] = visor
vis-à-vis [ˌvi:zəˈvi:] *n fr.* ro'para, yuzmayuz, betma-bet, qarana-qarshi
viscera [ˈvɪsərə] *lot. n pl* ich, qorin, ichak-chovoq
visceral [ˈvɪs(ə)rəl] *a* ich, qorin, ichak-chovoqqa oid, ich...; qorin...; ichak-chovoq...
viscid [ˈvɪsɪd] = viscous
viscose [ˈvɪskəʊs] *n to'q.* viskoza (*sun'iy tola va sellofan tayyorlash uchun ishlatiladigan modda*)
viscosity [vɪsˈkɒsiti] *n* 1) egiluvchanlik, qayishqoqlik; 2) yopishqoqlik, yelimshaklik, qovushqoqlik
viscount [ˈvaɪkaunt] *n* vikont (*Angliya, Fransiya va ba'zi boshqa mamlakatlarda: baron bilan graf o'rtasidagi dvoryanlik unvoni*)
viscountess [ˈvaɪkauntɪs] *n* vikont xotini yoki qizi
viscous [ˈvɪskəs] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq; 2) yopishqoq, qovushqoq, yelimshak
vice [vaɪs] *amer.* = vice IV
visibility [ˌvɪzəˈbɪlɪti] *n* 1) ko'rinish, ko'z ilg'ash, sirdan ko'rinish, zohiriy tomon; 2) ko'rish, ko'ra olish

visible [ˈvɪzəb(ə)] *a* 1) ko'zga ko'rinadigan, ko'rib bo'ladigan, ko'z ilg'aydigan, ko'rinarli, zohir; 2) oshkor, aniq
visibly [ˈvɪzəb(ə)li] *adv* 1) aftidan, chamasi, shekilli; 2) sezilarli darajada, ancha
vision [ˈvɪʒ(ə)n] *n* ko'rish qobiliyati, ko'rish, ko'z; **to lose one's ~** ko'rish qobiliyatini yo'qotmoq, ko'r bo'lmoq
visional [ˈvɪʒ(ə)nəl] *a* 1) ko'rishga oid; ko'rish...; 2) tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilinadigan
visionary [ˈvɪʒən(ə)rɪ] *l. a* xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoldagi, xayoliy; **2. n** orzu-xayollarga beriluvchan odam, xayolparast
visit [ˈvɪzɪt] *l. n* tashrif, safar, kelib (borib) ko'rish, borish; **to make (yoki to pay) a ~** tashrif buyurmoq; **a return ~** javob safari; **mutual (reciprocal) ~s** o'zaro tashrif(lar); **a goodwill ~** yaxshi niyatli tashrif; **2. v** kelib (borib) ko'rmoq, tashrif buyurmoq, safar qilmoq
visitable [ˈvɪzɪtəb(ə)l] *a* keluvchilar uchun ochiq
visitant [ˈvɪzɪt(ə)nt] *n* 1) shoir, mehmon, mo'tabar (aziz) mehmon; 2) ko'chmanchi qush (*ko'klamda shimol tomonga, kuzda janubga uchib o'tadigan qushlar*)
visitation [ˌvɪzɪˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) rasmiy tashrif; 2) aylanib o'tish, chetlab o'tish
visitatorial [ˌvɪzɪtəˈto:riəl] *a* inspektorga (nazoratchiga) oid; inspektor...; inspektorlik
visiting [ˈvɪzɪtɪŋ] *a* qatnovchi, tashrif buyuruvchi
visiting-card [ˈvɪzɪtɪŋkɑ:d] *n* vizit kartochkasi
visiting-day [ˈvɪzɪtɪŋdeɪ] *n* qabul kuni; mehmonlarni qabul qilish kuni
visiting professor [ˌvɪzɪtɪŋprəˈfesoʊ] *n* universitetda leksiya o'qish uchun ma'lum fanlardan chaqirilgan mutaxassis
visiting-round [ˌvɪzɪtɪŋˈraʊnd] *n* (*qorovullarni, kasallarni*) aylanib chiqish, ko'rib chiqish
visiting teacher [ˌvɪzɪtɪŋˈti:tʃə] *n* *amer.* kasal yoki nogiron o'quvchilarning o'qitilishini nazorat qilish zimmasiga yuklatilgan maktab o'qituvchisi
visitor [ˈvɪzɪtə] *n* tashrif etuvchi, mehmon, tashrif buyurgan kishi
visor [ˈvaɪzə] *n* soyabon (*bosh kiyimida*)
vista [ˈvɪstə] *n* 1) manzara, uzoqdan ko'rinish; 2) xiyobon; 3) o'rmon so'qimog'i; 4) xotiralar silsilasi, bitmas-tuganmas xotiralar
visual [ˈvɪʒuəl] *a* ko'rgazmali; ko'rishga oid, ko'rish...; ~ **nerve** ko'rish nervi (*asabi*);

- ~ **memory** ko'z xotirasi (*ko'rganni eslab qolish qobiliyati*); ~ **aids** ko'rgazmali qurollar
- visualization** [ˌvɪzʊəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* aniq (yaqqol) ko'rish obrazi
- visualize** [ˈvɪzʊəlaɪz] *v* xayolida ko'rmoq, xayolan tasavvur qilmoq
- vita** [ˈvaɪtə] *n* qisqacha tarjimai hol
- vita glass** [ˈvaɪtəˈɡlɑːs] *n* ultrabinafsha nurlanish o'tqazadigan oyna
- vital** [ˈvaɪtl] *a* 1) hayotiy, zaruriy, muhim; 2) hayotda (turmushda) bo'ladigan; hayotdan olingan
- vitalism** [ˈvaɪ(ə)lɪz(ə)m] *n* *biol.* vitalizm (*hayotiy jarayonlar moddiy sabablarga emas, balki ilohiy kuchlarga bog'liq deb da'vo qiluvchi idealistik oqim*)
- vitality** [vaɪˈtælɪti] *n* yashash qobiliyati, yashovchanlik, yashay olish
- vitals** [ˈvaɪtlz] *n* *pl* 1) hayot uchun kerak bo'lgan a'zolar (organlar); 2) eng muhim (kerakli) qismlar, narsalar va b.
- vitamin** [ˈvɪtəˌmɪn] 1. *n* vitamin; 2. *attr.* vitamanga oid, vitaminli; ~ **tablets** vitamin tabletkalari; ~ **deficiency** tib. avitaminoz (*vitaminlar yetishmasligi natijasida ro'y beradigan kasallik*)
- vitiate** [ˈvɪʃi(e)ɪt] *v* buzmoq, buzib qo'y-moq, ishdan chiqarmoq
- vitiating** [ˌvɪʃiˈeɪʃ(ə)n] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish
- viticulture** [ˈvɪtɪˌkʌltʃə] *n* tokchilik, uzumchilik, sobibkorlik
- vitreous** [ˈvɪtriəs] *a* shisha ko'rinishidagi, shishaga o'xshash; ~ **body** (*yoki humour*) anat. shishasimon modda (*ko'zda*)
- vitriification** [ˌvɪtrɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* oyna yoki oynasimon moddaga aylanish
- vitriify** [ˈvɪtrɪfaɪ] *v* oynaga yoki oynasimon moddaga aylanmoq
- vitriol** [ˈvɪtriəl] *n* kuporos (*sulfat kislotatuzlarining texnik nomi*)
- vitriolic** [ˌvɪtrɪˈɒlɪk] *a* kuporosga oid, kuporosli
- vituperate** [vɪˈtjuːpəreɪt] *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq
- vituperation** [vɪˌtjuːpəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) uyatli so'z, so'kish so'zlari; 2) urush, jang; 3) qat'iq so'kish, haqorat qilish
- vituperative** [vɪˈtjuːp(ə)rətɪv] *a* haqoratli, uyatli, haqorat..., uyat..., so'kish..., ko'yish...
- viva I** [ˈviːvə] 1. *int.* yashasin!; 2. *n* tabrik, tabriklash
- viva II** [ˈvaɪvə] *so'zl. of viva voce*
- vivacious** [vɪˈveɪʃəs] *a* g'ayratli, jonli, quvnoq, ruhi ko'tarilgan, kayfi chog'
- vivacity** [vɪˈvæsɪtɪ] *n* jonlilik, tezlik, ildamlilik, chaqqonlik, qizg'inlik, jo'shqinlik
- vivaria** [vaɪˈveɪ(ə)rɪə] *pl of vivarium*
- vivarium** [vaɪˈveɪ(ə)rɪəm] *n* (*pl -ia* [-ɪə]) 1) vivariy (*hayvonlar ustida tajriba o'tkaziladigan maxsus joy*); 2) xona, katalak; 3) ov, qopqon, dom
- viva voce** [ˌvaɪvəˈvɔːtʃɪ] 1. *n* lot. og'zaki imtihon; 2. *a* og'zaki; ~ **examination** og'zaki imtihon
- vivid** [ˈvɪvɪd] *a* 1) yorug', yorqin, charaqlagan; 2) qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, yuragida o'ti bor; ~ **imagination** jo'shqin xayol
- vivify** [ˈvɪvɪfaɪ] *v* 1) tiriltirmoq, jon kiritmoq; 2) tekislashtirmoq, jonlantirmoq, g'ayrat bag'ishlamoq
- viviparous** [vɪˈvɪp(ə)rəs] *a* *zool.* bola tug'adigan (*tuxum ochmay bolalaydigan*)
- vivisect** [ˈvɪvɪsekt] *v* tirik hayvonni yoki tirik hayvon organizmini yorib tekshirmoq
- vivisection** [ˌvɪvɪˈseks(ə)n] *n* viviseksiya (*tirik hayvonni yoki tirik hayvon organizmini yorib tekshirish*)
- vixen** [ˈvɪks(ə)n] *n* 1) zahar (*badjahl*) ayol, janjalkash ayol; 2) urg'ochi tulki
- vixenish** [ˈvɪks(ə)nɪʃ] *a* jahli yomon, battol, badjahl, janjalkash
- viz** [vɪz] *adv* 1) xuddi, naq, ayni, aniq; 2) chunonchi, masalan
- vizard** [ˈvɪzəd] *n* esk. niqob
- visor** [ˈvɪzə] = visor
- V-J Day** [ˌviːˈdʒeɪdɪ] *n* (*Ikkinchi jahon urushida*) Yaponiya ustidan qilingan g'alaba kuni
- V-mail** [ˈviːmeɪl] *n* ovoz yozib olinadigan lentalar orqali bir-biriga xat-xabar yozib turish (*harbiy xizmatdagilarga yuborish*)
- V-neck** [ˈviːnek] *n* (*kiyimda*) burmadan kesib olinadigan qirqim
- vocable** [ˈvəʊkəb(ə)l] 1. *n* tilsh. chet so'z, chet so'zlar lug'ati; 2. *a* talaffuz qilinadigan
- vocabulary** [ˌvəʊˈkæbjʊləri] 1. *n* 1) lug'at; 2) so'z boyligi; 3) (*tilning*) lug'at tartibi; 2. *attr.* lug'atga oid, lug'at...; *a* ~ **entry** lug'at maqolasi
- vocal** [ˈvəʊk(ə)l] *a* tovushga (tovush chiqarishga) oid, tovush chiqarish uchun xizmat qiladigan, tovush chiqaradigan
- vocalic** [vəʊˈkæli] 1. *a* unli (*tovush haqida*); 2. *n* unli tovush
- vocalist** [ˈvəʊk(ə)lɪst] *a* ashulachi, qo'shiqchi, hofiz, xonanda
- vocality** [vəʊ(ə)ˈkæltɪ] *n* so'zlash qobiliyati
- vocalization** [ˌvəʊk(ə)laɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* ifodalash, aytish, ifoda etish, izhor qilish
- vocalize** [ˈvəʊk(ə)laɪz] *v* ashula (qo'shiq) aytmoq, kuylanmoq

vocally [vəʊk(ə)li] *adv* 1) og'zaki; 2) qattiq (baland) ovoz bilan, hammaga eshittirib, baralla, oshkora

vocation [vəʊ'keɪʃ(ə)n] *n* 1) moyillik, mayl, rag'bat, qiziqish, havas, iste'dod; 2) mashg'ulot turi, kasb

vocational [vəʊ'keɪʃ(ə)nəl] *a* kasbga oid, kasb bilan bog'liq, kasbiy; **a ~ school** hunar maktabi

vocative [vɒkətɪv] *n gram.* undash (atov) kelishigi (*murojaatni ifodalovchi ot shakli*)

voces [vəʊsi:z] *pl of vox*

vociferate [vəʊ(u)'sɪfəreɪt] *v* baqirmoq, baqirib gapirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, bo'kirmoq

vociferation [vəʊ(u),sɪfə'reɪʃ(ə)n] *n* 1) baqirish, qichqirish, bo'kirish; 2) baqiriq, qichqiriq, qiyqiriq, hayqiriq, shovqin, shovqin-suron, dod, dod-faryod

vociferous [vəʊ(u)'sɪf(ə)rəs] *a* ovozi baland; shallaqi, shang'i

vocular [vɒkjələ] *a* 1) tilsh. unli (*tovush haqida*); 2) qattiq, baland (*ovoz, tovush haqida*)

vodka [vɒdkə] *n* araq

vogue [vəʊg] *n* moda, rasm, odat; **all the ~** eng so'nggi antiqa moda

voice [vɔɪs] **1.** *n* 1) ovoz, tovush; **at the top of one's ~** tovushining boricha; **~ of conscience** vijdon amri; 2) *gram.* nisbat; **active ~** aniqlik nisbati; **passive ~** majhul nisbat; **2.** *v* (*so'z bilan*) ifodalamoq, izhor etmoq

voicecast [vɔɪskɑ:st] *n* ovoz yozib olingan magnit lentasi

voiced [vɔɪst] *a* 1) jaranglagan, jaranglaydigan, jaranglovchi; 2) *fon.* jarangli

voiceless [vɔɪsləs] *a* 1) tili yo'q, tilsiz, ovozini yo'qotgan, ovozga ega bo'lmagan, soqov, gung; 2) *fon.* jarangsiz

voice vote [vɔɪsvəʊt] *n* saylovda qatnashganlardan ma'lumot to'plab qaror qabul qilish

void [vɔɪd] **1.** *n* vakuum, bo'shliq, xolilik; **2.** *a* ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, xoli; **3.** *v* bo'shamoq, xoli bo'lmoq

voidable [vɔɪdəb(ə)l] *a* bahslashsa (rad, inkor qilsa) bo'ladigan, munozarali, tortishuvli

voidance [vɔɪd(ə)ns] *n* bekor qilish, yo'q qilish, kuchdan qoldirish

voidness [vɔɪdnəs] *n* bo'shliq, xolilik

volant [vəʊlənt] *a* uchadigan, uchar

volatile [vɒlətaɪl] *a* 1) *kim.* uchuvchan, tez bug'lanadigan; 2) joyini o'zgartirib turadigan

volatility [vɒl'ɪlɪti] *n* 1) *kim.* uchuvchanlik (*tez bug'lanish*); 2) joyini o'zgartirib turish

volatilization [vɒ,lætɪlaɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* uchib ketish, bug'lanib ketish

volatilize [vɒ'lætɪlaɪz] *v* uchib ketmoq, bug'lanib ketmoq

volcanic [vɒl'kænɪk] *a* 1) vulqonga va vulqonizmga oid, vulqonizm hodisalari bilan bog'langan; **- rock** vulqonli tog' jinsi; 2) to'liqlik, jo'shqin, kuch-g'ayratga to'lib-toshgan

volcano [vɒl'keɪnəʊ] *n* vulqon (*yonar tog'*); **an active ~** harakatdagi vulqon

volition [vɒ'lɪʃ(ə)n] *n* istak, xohish, ixtiyor, niyat, tilak, orzu, xohlash, intilish

volitional [vɒ'lɪʃ(ə)nəl] *a* 1) irodaga oid; iroda...; 2) irodali, irodasi kuchli

volley [vɒli] **1.** *n* zalp, baravariga o'q otish (*uzish*); **2.** *v* baravariga o'q uzmoq

volleyball [vɒlɪbɔ:l] *n* voleybol

volplane [vɒl'pleɪn] **1.** *n* (*qo'nish maqsadida*) sekin-asta pastlab uchish; **2.** *v* (*qo'nish maqsadida*) sekin-sekin pastlab uchmoq

volt [vɒlt] *n el.* volt (*elektr kuchlanishi o'lchov birligi*)

voltage [vɒltɪdʒ] *n* voltaj (*elektr tarmog'ida voltlar bilan ifodalangan kuchlanish*)

voltaic [vɒl'teɪk] *a el.* galvanik; **- arc** fiz. volta yoyi, elektr yoyi

Voltairean [vɒl'teɪ(ə)rɪən] *n* volterchi, Volter maslakdoshi (*XVIII - XIX asrlarda hurfikrli odamlarga berilgan nom*)

Voltaireism [vɒl'teɪtɪz(ə)m] *n* volterizm, Volter ta'limoti

voltmeter [vɒl'tæmɪtə] *n el.* voltmetr (*elektr toki kuchini uning kimyoviy ta'siriga qarab o'lchaydigan asbob*)

volte [vɒlt] *n sport.* 1) volt (*otning manej mashqida bir aylanib chiqishi*); 2) raqibning hujumidan o'zini chetga tortish (*qilichbozlikda*)

volte-face [vɒl'teɪs] *n fr.1) harb.* orqaga burilish; 2) keskin o'zgarish (*qarash, siyosat va b. haqida*)

voltmeter [vɒl'tmɪtə] *n* voltmetr (*elektr toki kuchlanishini o'lchaydigan asbob*)

volubility [vɒljə'bɪlɪti] *n* sergaplik, ezmalik, ko'p gapirishlik, hech kimga gap bermaslik

voluble [vɒljəb(ə)l] *a* sergap, ko'p gapiradigan, ezma, hech kimga gap bermaydigan

volume [vɒljʊ:m] *n* 1) hajm, ko'lam, miqdor; **the ~ of knowledge** bilimlar ko'lami; **the ~ of trade** savdo ko'lami; 2) tom, jild

volumenometer [vɒ,l(j)u:mɪ'tɒmɪtə] *n* voluminometr (*qattiq jismlarning hajmini o'lchaydigan asbob*)

volumeter [vɒ'l(j)u:mɪtə] *n* volumetr (*suyuqlik va gazsimon narsalarning hajmini o'lchaydigan asbob*)

volumetric [ˌvɒljʊˈmɛtrɪk] *a* hajmga oid, hajmiy, hajm...; ~ **capacity** sig'im, hajm, kattalik; **a** - flask *fiz.* o'ichov kolbasi
voluminous [vəˈl(j)uːmɪnəs] *a* 1) ko'p jildli (*nashr to'g'risida*); 2) ishi serunum; sermahsul; mahsuldor (*yozuvchi haqida*)
voluntarism [ˈvɒlənt(ə)rɪz(ə)m] *n fals.* voluntarizm (*voqelikning negizi irodadir deb biluvchi va obyektiv taraqqiyot qonunlarini rad etuvchi yo'nalish*)
voluntary [ˈvɒlənt(ə)rɪ] *a* ixtiyoriy, ko'ngilli
voluntaryism [ˈvɒlənt(ə)rɪz(ə)m] *n* ixtiyoriylik (ko'ngillilik) prinsipi
volunteer I [ˌvɒl(ə)nˈtɪə] *n* ko'ngilli; talabgor
volunteer II [ˌvɒlənˈtɪə] *v* (o'z yordamini) taklif qilmoq
voluptuary [vəˈlʌptʃuəri] *n* shahvoniy hisga berilgan odam, shahvatparast
voluptuous [vəˈlʌptʃuəs] *a* 1) sezgiga oid; seziladigan, bilinadigan, sezib (bilib) bo'ladigan; 2) shahvoniy hisga berilgan
volute [vəˈlu:t] *n* voluta (*kolonna, ustun va sh. k. da spiral shaklidagi bezak*)
volution [vəˈlu:ʃən] *n* 1) jingalak, gajak; 2) gajak shaklida o'ralgan narsa, o'ram, gajak
volvulus [ˈvɒlvjʊləs] *n* ichaklarning buralishi (buralib qolishi)
vomit I [ˈvɒmɪt] *n* 1) qusish, qayt qilish, qusiq; 2) qayt qildiradigan dori
vomit II [ˈvɒmɪt] *v* qusish (qayt qilish)dan azob chekmoq; **he was ~ ing blood** u qon qusdi
vomitive [ˈvɒmɪtɪv] = vomitory
vomitory [ˈvɒmɪt(ə)rɪ] **I.** *n* qayt qildiradigan dori; **2.** *a* 1) qusishga (qayt qilishga) oid, qayt qilish...; 2) qustiradigan, qayt qildiradigan
voodoo [ˈvʊ:du:] **1.** *n* tabib, emchi, duxon; **2.** *v* sehrlab qo'yimoq, jodu qilmoq
voracious [vəˈreɪʃəs] *a* 1) yebto'yimas, badnafs, mechkay; 2) ochko'z, suq; xasis, qizg'anchiq
voracity [vəˈræsɪtɪ] *n* yebto'yimaslik, badnafslik, mechkaylik, sertomoqlik
vortex [ˈvɔ:tɛks] *n* (*pl* -tices, -es [-ɪz]) uyurma, quyun, girdob, girvat, aylanma, uyurmali qattiq shamol, bo'ron
vortical [ˈvɔ:tɪk(ə)l] *a* 1) dovulli, girdobli; 2) uyurmalangan, uyurma; 3) aylanadigan, aylanma, aylantiruvchi
vortices [ˈvɔ:tɪsɪz] *pl of vortex*
vorticose [ˈvɔ:tɪkəʊs] = vortical
votares [ˈvəʊt(ə)rɪs] *n* 1) monax ayol, rohiba; 2) hurmatini o'rniga qo'yuvchi (ayol)
votary [ˈvəʊt(ə)rɪ] *n* 1) monax, rohib; 2) tarafdor, yoqlovchi

votation [vəʊ(ə)ˈteɪj(ə)n] *n* ovoz berish; ovozga qo'yish; ovoz
vote [vəʊt] **I.** *n* ovoz berish, ovoz; **a secret (an open) -** yashirin (ochiq) ovoz berish; **to put to the ~** ovozga qo'yimoq; **to take a ~ on question** masalani ovozga qo'yimoq; **2.** *v* ovoz bermoq; **to ~ for (against)** yoqlab (qarshi) ovoz bermoq
voter [ˈvəʊtə] *n* 1) saylovchi, ovoz beruvchi; 2) saylov qatnashchisi
voting [ˈvəʊtɪŋ] *n* ovoz berish, saylash
voting machine [ˈvəʊtɪŋməˌʃɪn] *n* saylovda beriladigan ovozlarni hisoblaydigan mashina
voting paper [ˈvəʊtɪŋˌpeɪpə] *n* saylov varaqasi (bulleteni)
votive [ˈvəʊtɪv] *a* ont ichib qilingan
vouch [vaʊtʃ] *v* kafil bo'lmoq, kafolat bermoq, kafilligini olmoq, ishonirmoq
voucher [ˈvaʊtʃə] *n* 1) tilxat, kafil, kafil bo'lgan kishi; 2) tasdiqlovchi hujjat
vouchsafe [vaʊtʃˈseɪf] *v* sazovor qilmoq, loyiq topmoq, munosib ko'rmoq
vow [vaʊ] **1.** *n* qasam, ont, va'da, so'z; **2.** *v* qasam ichmoq, va'da qilmoq, ont ichmoq
vowel [ˈvaʊəl] *n* *tilsh.* unli, unli tovush
vox [vɒks] *n* *lot.* (*pl* voces) ovoz, fikr, mulohaza; ~ **populi** jamoat fikri
voyage [ˈvɔɪdʒ] **1.** *n* sayohat, safar; dengiz sayohati; **2.** *v* (*dengizda*) sayohat qilmoq
voyager [ˈvɔɪdʒə] *n* dengizda sayohat qiluvchi (qilgan) kishi, sayohatchi
voyeur [ˈvɔɪːˈjɜː] *n* shahvoniy filmlarni ko'rish orqali lazzatlanadigan kishi
vug [vʌg] *n* *geol.* cho'nqir yer, ichiga botgan (kirgan) joy
vulcanic [ˈvʌlˈkæɪnɪk] *a* vulqonga va vulqonizmga oid, vulqonizm hodisalari bilan bog'langan
vulcanite [ˈvʌlkənɪt] *n* ebonit (*izolatsion material*)
vulcanization [ˌvʌlkənɪz(ə)ɪz(ə)n] *n* vulkanizatsiya (*1. kauchukni rezinkaga aylantirish jarayoni; 2. rezinka buyumlarini xom rezinkadan yamoq solib ta'mirlash*)
vulcanize [ˈvʌlkənɪz] *v* (*rezinani*) vulkanizatsiya qilmoq
vulgar [ˈvʌlgə] **1.** *a* dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, xunuk; **2.** *n* (**the ~**) so'zl. avom, oddiy xalq
vulgarian [ˈvʌlˈgɛ(ə)rɪən] *n* beadab (tar-biya ko'rmagan) kishi
vulgarism [ˈvʌlgəɪz(ə)m] *n* 1) *tilsh.* vulgarizm (*adabiy tilda uchraydigan beadab so'z yoki ibora*); 2) beadablik
vulgarity [ˈvʌlˈgærɪtɪ] *n* 1) mohiyatini buzib ko'rsatishlik, ma'nosini buzib talaffuz

qilish, soxtalashtirish, qo'pollashtirish; 2) beadablik, qo'pollik, tarbiyasi buzqlik

vulgarization [ˌvʌlgəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* buzish, rasvolashtirish, rasvo qilish, qo'pollashtirish, soxtalashtirish, ma'nosini buzib talaffuz qilish, mohiyatini buzib ko'rsatish

vulgarize [ˌvʌlgəraɪz] *v* 1) buzmoq, rasvolashtirmoq, rasvo qilmoq, rasvosini chiqarmoq; 2) qo'pollashtirmoq, ma'nosini buzib talaffuz qilmoq

vulnerability [ˌvʌlnərə(ə)ˈbɪləti] *n* darrov shikastlanadiganlik, himoyasi bo'shlik, zaiflik, mo'rtlik

vulnerable [ˌvʌln(ə)rəb(ə)l] *a* nozik, kuchsiz, zaif

vulnerable [ˌvʌlnərəri] *a* shifobaxsh, shifoli, davvo bo'ladigan, dorivor; ~ **plants** dorivor o'simliklar

vulpicide [ˌvʌlpsaɪd] *n* 1) tulkilarni tozi itsiz ov qilish; 2) tulkilarni tozi itsiz o'ldiradigan o'vchi

vulpine [ˌvʌlpɪn] *a* 1) makkor, hiylakor; ayyor; 2) tulkiga oid, tulki...

vulture [ˌvʌltʃə] *n* 1) *zool.* kalxat; qoraqush; 2) talovchi, qonxo'r, vahshiy, yirtqich, isrofgar (*kishilar haqida*)

vulturous [ˌvʌltʃ(ə)rəs] *a* 1) shafqatsiz, yovuz; 2) ochko'z, suq

vulva [ˌvʌlvə] *n* ayollarning tashqi jinsiy a'zolari (organlari)

wying [ˌvaɪŋ] *pres. p. of vie*

W

W, w [dʌb(ə)lju:] *n* ingliz alifbosining yigirma uchinchi harfi

wabble [ˈwɒb(ə)l] *n* tebranish, chayqalish, silkinish, qimirlash, likillash

wabbly [ˈwɒbli] *a* liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan

wack [wæk] *n* so'zl. jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam

wacko [ˈwækəʊ] = **wack**

wacky [ˈwæki] 1. *a* so'zl. 1) ahmoqona, ahmoqlarcha, bema'ni (g'oya); 2) miyasi biroz aynigan; tentakroq, jumiroq; 2. *n* jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam

wad [wɒd] 1. *n* 1) o'ram, kalava (*momiq paxta, jun, yung haqida*); 2) yumaloqlangan narsa; 3) qog'oz pullar bog'lami (*dastasi*); 2. *v* 1) ichiga paxta tiqmoq; 2) yumaloqyassi qilmoq

wadding [ˈwɒdɪŋ] *n* 1) momiq, paxta, jun; 2) qadash, tikish; 3) astar

waddle [ˈwɒdl] 1. *n* lapanglab yurish; 2. *v* lapanglab yurmoq

wade [weɪd] *v* sayoz joydan kechib o'tmoq

wader [ˈweɪdə] *n* 1) botqoqlik (to'qay) qushi; 2) *pl* botqoq etigi, botqoqlikda (to'qayzorlarda) kiyiladigan etik

wading bird [ˈweɪdɪŋbɜːd] *n* botqoqlik (to'qay) qushi

wafer [ˈweɪfə] *n* 1) vafli (*katak-katak yupqa pecheniy*); 2) *farm.* kapsula, g'ilof; 3) surg'uchli muhr

wafer-thin [ˌweɪfəˈθɪn] *a* juda ham yupqa

wafery [ˈweɪf(ə)rɪ] 1. *n* vafli ishlab chiqaradigan korxonasi; 2. *a* yupqa, ingichka; vafli-dek tez sinadigan (mo'rt)

waff [wɒf] *n* (*qo'lni*) silkitish, siltash, qoqish

waffle I [ˈwɒf(ə)] 1. *n* og'z. (quruq) safсата, bekor (behuda) gap; 2. *v* behuda gaplar gapirmoq

waffle II [ˈwɒf(ə)] *n* vafli

waffle-iron [ˈwɒf(ə)l,ærən] *n* vafli tayyorlaydigan qolip

waft [wɔːft] 1. *n* 1) (*qanot*) qoqish; 2) (*shamol*) esish; 2. *v* 1) tarqalmoq, taralmoq; 2) olib bormoq, eltmoq, tashimoq; 3) haydab bormoq, surmoq

wag I [wæg] 1. *n* silkitish, bosh qimirlatish; 2. *v* 1) qimirlatmoq, silkitmoq; 2) (*dumini*) likillatmoq

wag II [wæg] 1. *n* 1) qiziqchi, masxaraboz; 2) bekorchi, yalqov, tanbal; 2. *v* ishga bormay (*yoki* kelmay) qolmoq

wage I [weɪdʒ] *n* ish haqi, maosh, oylik; **living** ~ kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori

wage II [weɪdʒ] *v* 1) urush qilmoq; 2) boshlamoq, olib bormoq (*urush haqida*)

wage-cut [ˈweɪdʒkʌt] *n* ish haqini kamaytirish

wage-earner [ˈweɪdʒ,ɜːnə] *n* 1) yollanma ishchi; 2) boquvchi, qarovchi, tarbiyachi

wage-freeze [ˈweɪdʒfriːz] *n* ish haqini to'lamaslik, maoshni o'z vaqtida bermaslik

wage-fund [ˈweɪdʒfʌnd] = **wages-fund**

wager [ˈweɪdʒə] 1. *n* 1) garov, bahs, garov o'ynash; 2) oylik, maosh; 2. *v* 1) garov o'ynamoq; 2) tavakkal qilmoq

wage-rate [ˈweɪdʒreɪt] *n* 1) maosh, ish haqi; 2) tarif (*biror narsaga to'lanadigan qar'iy baholar majmuvi*)

wages-fund [ˈweɪdʒɪzʃfʌnd] *n* ish haqi fondi

wage-slavery [ˈweɪdʒsleɪv(ə)rɪ] *n* majburiy yollanma mehnat

wage-work [ˈweɪdʒwɜːk] *n* yollanma mehnat

wage-worker [ˈweɪdʒ,wɜːkə] *n* yollanma ishchi

waggery [ˈwægəri] *n* 1) sho'xlik, hazilkashlik, hazil-huzul; 2) (*qo'pol, qaltis*) hazil; 3) hazilkashlik

- waggish** {ˈwæɡɪʃ} *a* 1) shoʻx, oʻyingaroq; shuntaka; 2) qiziq, ajib, gʻalati, kulgili
- waggle** {ˈwæɡ(ə)} *n* 1) silkish; 2) tebratlash, chayqatish; *v* 1) silkitmoq, qimirlatmoq; 2) tebratmoq, chayqatmoq
- waggly** {ˈwæɡlɪ} *a* liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, boʻsh, liqildoq
- wag(g)on** {ˈwæɡən} *n* 1) toʻrt gʻildirakli arava; 2) vagon, yuk vagoni
- wag(g)oner** {ˈwæɡənə} *n* aravakash, yuk tashuvchi, kirakash
- wag(g)onette** {ˈwæɡəˈnet} *n* ikki oʻrindiqli, boʻyiga uzaytirilgan yengil arava
- wagon-lit** {ˈwæɡənˈlɪt} *n* fr. uxlab (yotib) ketiladigan vagon
- wagon-train** {ˈwæɡənˈtreɪn} *n* karvon
- wagtail** {ˈwæɡteɪl} *n* zool. jibljibon (*chumchuqsimonlar turkumiga mansub, ingichka va uzun dumli kichkina qush*)
- waif** {weɪf} *n* 1) hech kimga tegishli boʻlmagan, tashlandi narsa; 2) boshpanasiz odam; 3) boqimsiz, bota
- wail** {weɪl} *n* dod, figʻon, nola, faryod, baqiriq, qichqiriq, chinqiriq; dod-voy, figʻon, oʻkirib yigʻlash; *v* baqirmoq, qichqirmoq, dodlamoq, dod-voy qilmoq
- wailful** {ˈweɪlf(ə)} *a* gʻamga botgan, xafa, gʻamgin, qaygʻuli
- wain** {weɪn} *n* 1) shoir; toʻrt gʻildirakli arava; 2) (the W) *astr.* Katta Ayiq, Katta Yetti Ogʻayni
- wainscot** {ˈweɪnskət} *n* devorlarning pastki qismini qoplab turadigan yogʻoch-taxta; *v* panel bilan qoplamoq, ustiga panel qopmoq
- waist** {weɪst} *n* bel; **to strip to the ~** belgacha yechinmoq
- waistband** {ˈweɪstbænd} *n* kamar, belbogʻ
- waist-belt** {ˈweɪstbelt} *n* belga taqiladigan kamar
- waistcoat** {ˈweɪskəʊt} *n* nimcha, jiletka
- waist-deep** {ˈweɪstˈdi:p} *1. a* belgacha boradigan; *2. adv* belgacha; **~ in the water** belgacha suv ichiga kirish
- waist-high** {ˈweɪstˈhaɪ} = **waist-deep**
- waistline** {ˈweɪstlaɪn} *n* belning chizigʻi, koʻylakning beli
- wait** {ˈweɪt} *n* kutish, koʻz tutish, intizor boʻlish; **a long ~** uzoq kutish; *v* kutmoq, muntazir boʻlmoq, koʻz tutmoq (**for**): **to ~ for ...ni** kutmoq
- wait-a-bit** {ˈweɪtəbɪt} *n* soʻzl. tikandek sanjiladigan buta oʻsimlik
- wait-and-see** {ˈweɪtən(d)ˈsiː} *a* fursat kutadigan, payt poylaydigan
- waiter** {ˈweɪtə} *n* 1) ofitsiant; 2) qabulni kutayotgan kishi
- waiting** {ˈweɪtɪŋ} *1. n* kutish; *2. a* poylovchi, ogoh; intizor
- waiting-list** {ˈweɪtɪŋlɪst} *n* nomzodlar roʻyxati (*mansabga, turar joy olish va b. uchun*)
- waiting-room** {ˈweɪtɪŋru:m} *n* 1) qabulga (qabul qilishga) oid, qabul qilish...; *2) tem. y.* kutish xonasi (zali)
- waitress** {ˈweɪtrɪs} *n* ofitsiantka, (*oshxonada*) ovqat uzatib turuvchi ayol
- waive** {weɪv} *v* rad etmoq, tontmoq, (*huquq, talabdan*) bosh tortmoq; *2) vaqtinchalik chetga surib qoʻymoq*
- waiver** {ˈweɪvə} *n* yur. talab, huquqdan bosh tortish
- wake I** {weɪk} *v* (**woke, waked** [-t]; **waked, woken, woke**) *1)* uygʻonmoq; *2)* uygʻotmoq; **to ~ up** uygʻonmoq, uygʻotmoq; *3)* bedor boʻlmoq, uygʻoq turmoq; *2. n* shoir, bedorlik, bedor boʻlish, uxlamaslik, uygʻoq turish (boʻlish), hushyorlik, sergaklik
- wake II** {weɪk} *n* deng. kilvater (*kemaning orqada kil yoʻnalishida qoltirib borayotgan izi*)
- wakeful** {ˈweɪkf(ə)} *a* 1) uygʻotadigan; *2)* uxlamaydigan, uyqusiz; *3)* hushyor, sezgir
- wakeless** {ˈweɪkləs} *a* uygʻotib boʻlmaydigan, deng qotgan, juda qattiq (*uyqu haqida*)
- waken** {ˈweɪkən} *v* 1) uygʻotmoq, uyqudan turgʻizmoq; *2)* uygʻonmoq, uyqudan turmoq
- wakening** {ˈweɪk(ə)nɪŋ} *n* 1) uygʻonish, uyqudan turish; *2)* uygʻotish, uyqudan turgʻizish
- wakey** {ˈweɪki} *int. soʻzl.* oʻrningdan tur!
- waking** {ˈweɪkɪŋ} *a* uxlamayotgan, bedor, uygʻoq
- wale** {weɪl} *1. n* 1) chandiq, yamoq (*bitgan yaraning oʻrni*); *2)* kertik, chuqur chiziq, oʻyiq; *3)* yoʻgʻonlashgan chok yoki baxya; *2. v* (*pichoq, qamchi va sh. k. bilan*) tilib yubormoq, urib badanda uzun iz qoldirmoq
- walk** {wɔ:k} *1. n* 1) (*piyoda*) yurish; *2)* masofa, ora, uzoqlik, yoʻl; **a mile's ~ from the lyceum** litseydan bir mil uzoqlikda; *2. v* 1) yurmoq, bormoq; *2)* piyoda yurmoq; **to ~ about** sayr qilmoq, aylanib (oʻynab, tomosha qilib) yurmoq; **to ~ away** ketib qolmoq, tashlab ketmoq; qochib ketmoq; **to ~ back** qaytmoq, tontmoq, voz kechmoq (*soʻzidan, fikridan va b.*); **to ~ down** pastga tushmoq; **to ~ in** kirmoq; kutilmaganda paydo boʻlmoq; **to ~ into** urilmoq, oʻzini urib olmoq; bexosdan tushib (botib yoki kirib) ketmoq; **to ~ off** a) ketmoq, ketib qolmoq, chiqib ketmoq; b) olib ketmoq, ergashtirib ketmoq, boshlab olib bormoq; d) (yurib) ozmogʻ; **to ~ on** a) oldinga bormoq, oldinga qarab yurmoq; b) yurishni

davom ettirmoq; c) *teatr.* so'zsiz rol o'ynamoq; to ~ out a) chiqmoq, tashqariga chiqmoq; b) (*majlis, zal va b. ni*) namoyishkorona tashlab chiqib ketmoq; to ~ over a) hatfamoq, hatlab (qadam tashlab) o'tmoq; b) raqibdan osonlik bilan o'zib ketmoq (*yugurish va b. haqida*); to ~ up yaqinlashmoq, yaqinroq bormoq

walkaway [wɔ:kəweɪ] *n* osonlik bilan g'alabaga erishish (*musobaqada*)

Walker [wɔ:kə] *int.* yolg'on!, bo'lishi mumkin emas, aldayapsan!

walker [wɔ:kə] *n* piyoda yuradigan odam, piyoda yuruvchi, piyoda

walkie-lookie [wɔ:ki'lʊki] *n* ko'tarib yuriladigan televizor apparati

walkie-talkie [wɔ:ki'tɔ:ki] *n* ko'chiriladigan, ko'chma radiostansiya

walking [ˈwɔ:kiŋ] *n* 1) piyoda yurish, qadam tashlash; 2) yuradigan, yura oladigan; a ~ case *tib.* yura oladigan bemor

walking-orders [ˈwɔ:kiŋ,ɔ:dəz] = **walking-papers**

walking-papers [ˈwɔ:kiŋ,peɪpəz] *n* ishdan haydash, ishdan bo'shatish

walking-race [ˈwɔ:kiŋreɪs] *n* sportcha yurish bo'yicha sarafash, musobaqa

walking-stick [ˈwɔ:kiŋstɪk] *n* hasa, tayoq

walking-ticket [ˈwɔ:kiŋ,tɪktɪ] = **walking-papers**

walking-tour [ˈwɔ:kiŋtʊə] *n* piyoda sayr qilish, ekskursiya

walk-on [wɔ:k'ɒn] *n teatr.* so'zsiz rollarni ijro etuvchi artist

walkout [ˈwɔ:kəʊt] *n* 1) ish tashlash; 2) tashkilot safidan chiqish yoki majlisni tashlab chiqib ketish (qat'iy norozilik belgisi)

walk-over [ˈwɔ:kəʊvə] *n* yengil g'alaba, osonlik bilan qo'lga kiritilgan g'alaba

walk-up [ˈwɔ:kəp] *n amer.* liftsiz uydagi kvartira

walkway [wɔ:kweɪ] *n* 1) so'qmoq, so'qmoq yo'l, yo'lka; 2) xiyobon

wall [wɔ:l] *1. n* devor; *2. v* devor bilan o'rab olmoq

walla [ˈwɔ:lə] = **wallah**

wallaby [wɔləbi] *n* 1) *zool.* kenguru (*kichkinasi*); 2) *pl so'zl.* avstraliyaliklar

wallah [wɔlə] *n* 1) yigit; 2) xizmat qiluvchi, xizmatkor

wallaroo [wɔlə'ru:] *n avstr.* kenguru (*kattasi*)

wallet [ˈwɔlɪt] *n* 1) hamyon; 2) qin, g'ilof, jild, quti; to'rva, xalta (*asbob uchun*)

wall-eye [ˈwɔ:lai] *n* 1) ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq; 2) dog' (oq) tushgan ko'z

wall-eyed [ˈwɔ:l'aid] *n* 1) ko'zga oq tushgan; 2) g'ilay, qiyshiq

wallflower [wɔ:l,flaʊə] *n hazil.* yigitsiz qolgan ayol (*kechu, bazmda*)

Walloon [wɔ'lu:n] *1. n* 1) vallon, vallonka; 2) vallon tili; *2. a* vallonliklarga oid

wallop [ˈwɔləp] *n* kuchli zarba; to land (*yoki to strike*) a ~ qattiq zarba bermoq

walloper I [ˈwɔləpə] *n* g'oyat katta narsa, ulkan (buyuk, bahaybat) narsa

walloper II [ˈwɔləpə] *n avstral. jarg.* politsiyaga oid; politsiya ...

walloping [ˈwɔləpiŋ] *1. a* katta, ulkan, azina, yirik; *2. n* 1) urish, kaltaklash; 2) titish, savash

wallow [ˈwɔləʊ] *1. n* 1) o'rmondagi hayvonlar dumalaydigan sertuproq yalang joy; 2) (*tuproq va b. da*) dumalash; *2. v* 1) ag'anab (dumalab) yotmoq; 2) og'ir (qo'pol) harakat qilmoq

wall-painting [wɔ:l,peɪntɪŋ] *n* devoriy rasm, freska (*devorga solingan rasm*)

wallpaper [wɔ:l,peɪpə] *n* oboy, gulqog'oz

wall pier [wɔ:l,piə] *n me'mor.* pilastra (*bir tomoni devordan chiqib turgan ustun*)

Wall Street [ˈwɔ:lstri:t] *n* Uollstrit (*Nyu-Yorkdagi birja joylashgan ko'cha*)

wally [ˈwɛlɪ,ˈwɔli] *n so'zl.* kaltafahm, ovsar, lalaygan, noshud, lapashang, uquvsiz odam

walnut [ˈwɔ:lnʌt] *n bot.* grek yong'og'i

walnut-tree [ˈwɔ:lnʌttri:] *n* yong'oq daraxti

Walpurgis Night [væl'pʊəɡɪsnait] *n* Valpurgiyevich kechasi (*qadimiy nemislarda bahor boshlanishiga bag'ishlangan bayram, birinchi may kechasi*)

walrus [ˈwɔ:lɹʊs] *n zool.* morj (*kurakoyoqlilar turkumiga mansub dengiz sutemizuvchi hayvoni*)

waltz [wɔ:l(t)s] *1. n* vals (*mayin raqs turi va uning musiqasi*); *2. v* valsga tushmoq

wamble [ˈwɒmb(ə)l] *v* 1) gindiraklab yurmoq; 2) gulduramoq, g'ulduramoq (*qorin haqida*)

wampum [ˈwɒmpəm] *n* chig'anoqdan bo'lgan marjon (*hindutarda*)

wampus [ˈwɒmpəs] *n* yoqimsiz, yomon; gapga ko'nmaydigan odam

wamus [ˈwɒməs] *n amer.* nimcha, kalta kamzul (*to'qilgan yoki dag'al jundan qilingan*); jaket

wan [wɒn] *1. a* 1) rangi oqarib ketgan, holdan toygan; 2) kasalmand, dardchil; 3) xira, nursiz, rangi ketgan; *2. v* qattiq charchatmoq, kuch-quvvatni olmoq, tinka-madorni quritmoq, holdan toydirmoq, behol (bema'jol) qilmoq

wand [wɒnd] *n* 1) hasa, aso; 2) chiviq, xivich, tayoqcha

wander [wɒndə] *v* 1) aylanib (sandroqlab) yurmoq, kezmoq, tentiramoq; 2) darbadar kezmoq, ovorayi jahon bo'lib yurmoq, sargardon bo'lmoq
wanderer [wɒnd(ə)rə] *n* darbadar, musofir, darvesh, daydi, musofirchilikda yashovchi odam
wandering [wɒnd(ə)rɪŋ] *a* 1) sayoq, daydi, ko'chmanchi; 2) ko'chib yuradigan, ko'chmanchi; ~ **tribes** ko'chmanchi qabilalar
wanderlust [wɒndələst] *n* sayohatga g'oyat darajada berilganlik, sayohatni juda yaxshi ko'rish
wane [weɪn] *1. n* 1) kamayish; 2) pasayish; **his power was on the ~** uning qo'lidan hokimiyat asta-sekin chiqa boshladi; 3) kamayish, torayish, kichrayish (*oy haqida*); *2. v* oxiriga yetmoq, kamaymoq (*oy haqida*)
wangle [wæŋg(ə)] *1. n* makkorlik, ayyorlik, nayrang, hiyla; *2. v* makkorlik (hiyla, nayrang) bilan qo'lga kiritmoq
want [wɒnt] *1. n* xohish, istak, orzu; **for ~ of ...** yetishmasligi (yo'qligi) tufayli; *2. v* xohlamoq, istamoq, orzu qilmoq
want-ad [wɒntəd] *n* gazetaning talab va taklif sahifasidagi qisqacha e'lon
wantage [wɒntɪdʒ] *n* yetishmaslik, kamlik, yo'qchilik, yetishmovchilik, yo'qlik, tanglik
wanted [wɒntɪd] *a* qidirilayotgan
wanting [wɒntɪŋ] *a* 1) muhtojlik; 2) yo'q bo'lgan, yetishmayotgan, yetarli darajada mavjud bo'lmagan
wanton [wɒntən] *a* o'ynoqi, sho'x, tinchimaydigan, tinib-tinchimas
wapiti [wɒpɪtɪ] *n zool.* wapiti (bug'u)
war [wɔː] *n* urush; **civil** - fuqarolar urushi; **to be at ~** urush holatida bo'lmoq
warble [ˈwɔːb(ə)] *1. n* ovozning jaranglab chiqishi, qushning sayrashi; *2. v* sayramoq (*qushlar haqida*)
warbler [ˈwɔːblə] *n* sayroqi qush
war-cloud [ˈwɔːklaʊd] *n* urushdan oldingi vaziyat; urush tahdidi
war-cry [ˈwɔːkraɪ] *n* jangovar xitob, jangovar chaqiriq, jangovar shior
ward [wɔːd] *n* 1) vasiylik; 2) vasiylikdagi, vasiylik ostidagi; 3) palata (*kasalxonada*)
warden [ˈwɔːdn] *n* 1) nazoratchi; 2) qamoqxona boshlig'i
warder [ˈwɔːdə] *n* 1) qamoqxona nazoratchisi; 2) qorovul, soqchi
war-devastated [ˈwɔːdevəstetɪd] *a* urush natijasida xarobaga aylangan
war-dog [ˈwɔːdɒg] *n* 1) *harb.* xizmat uchun belgilangan it; 2) sobiq askar

Wardour Street English [ˌwɔːdəstriːt ˈɪŋɡlɪʃ] *n* eskirgan so'zlar bilan bezab tashlangan inglizcha nutq
wardress [ˈwɔːdrɪs] *n* qamoqxonaning ayol nazoratchisi
wardrobe [ˈwɔːdrəʊb] *n* kiyim shkafi, garderoab
wardroom [ˈwɔːdrʊm] *n* ofitserlar uchun umumiy xona (*kemada*)
wardship [ˈwɔːdʃɪp] *n* 1) vasiylik; 2) panoh
ware I [weə] *n* 1) ishlab chiqarilgan mahsulotlar; 2) sopol buyumlar
ware II [weə] *a* hushyor, ogoh, sezgir
-ware [-weə] *n* murakkab so'zlarda buyum, mahsulot, mol *degan ma'noni beradi*; **earthenware** sopol buyumlar
warehouse [ˈweəhaʊs] *n* tovar (mol) ombori
warehouseman [ˈweəhaʊsmən] *n* (*pl* -men [-mən]) 1) ombor xo'jayini; 2) ombor xizmatchisi
wareroom [ˈweərʊm, -rʊm] *n* omborxonona
warfare [ˈwɔːfeə] *n* 1) urush, jangovar harakatlar; 2) to'qnashuv, jang
war-game [ˈwɔːɡeɪm] *n* harbiy o'yin
war-head [ˈwɔːhed] *n* o'qlangan moslamaning bosh qismi
war-horse [ˈwɔːhɔːs] *n* 1) jangovar ot; 2) urush faxriysi; 3) tajribali sobiq askar; 4) tajribali siyosiy arbob
warily [ˈwe(ə)rɪli] *adv* ehtiyotkorlik bilan, ehtiyot bo'lib, ehtiyot qilib
wariness [ˈwe(ə)rɪnəs] *n* ehtiyotlik, ehtiyotkorlik bilan ish tutish
warlike [ˈwɔːləɪk] *a* jangovar; urushga (urush olovini yoqishga) qaratilgan, harbiy; ~ **attitude** jangovar holat
warlock [ˈwɔːlək] *n* esk. sehrgar, jodugar, afsungar
war-lord [ˈwɔːləɔːd] *n* 1) harbiy oliy qo'mondon; 2) qo'shin (lashkar) boshlig'i
warm [wɔːm] *1. a* issiq, iliq, isigan; ~ly o'tashin; iliqlik bilan; *2. n* issiq, issiqlik, harorat; *3. v* (~ up) isimoq, isinmoq
warm-blooded [ˌwɔːm ˈblʌdɪd] *a* 1) *zool.* issiq qonli (*hayvonlar haqida*); 2) qaynoq, jo'shqin (*odam haqida*)
warm-hearted [ˌwɔːm ˈhɑːtɪd] *a* chin ko'ngildan qilinadigan, samimiy
warm-house [ˈwɔːmhʌʊs] *n* issiqxona
warmed-over [ˈwɔːmd,əʊvə] *a* ilitilgan, isitilgan; qizitilgan, qizdirilgan; **that is ~ cabbage** bu ko'hna (eski) tarix
warmer [ˈwɔːmə] *n* 1) grelka; 2) isitadigan (qizitadigan) asbob
warming [ˈwɔːmɪŋ] *n* isish, ilish, isinish, ilitish, isitish
warming-pan [ˈwɔːmɪŋpæn] *n* grelka

warming-up [ˈwɔːmɪŋˈʌp] *n* 1) *sport.* (oyoq-qo'ling) chigilini yechish; 2) *tex.* qizitish, isitish, qizdirish
warmish [ˈwɔːmɪʃ] *a* issiq, iliq
warmonger [ˈwɔːmɪŋgə] 1. *n* urush olovini yoquvchi; 2. *v* ig'vo qilib urush chiqarishga sabab bo'lmoq
warmth [ˈwɔːmθ] *n* 1) issiqlik, issiq; 2) samimiylik, samimiyat
warm-up [ˈwɔːmˈʌp] *n* *amer.* mashq qilish, qo'l-oyoqning chigalini yechish
warn [wɔːn] *v* ogohlantirmoq; ogohlantirib (bildirib, xabardor qilib) qo'ymoq, xabar bermoq
warning [ˈwɔːnɪŋ] 1. *v* ogohlantirish, xabar berish; 2. *a* ogohlantiruvchi, ogohlantiradigan, oldini oladigan
warp [wɔːp] *v* qayishmoq, qiysaymoq
war paint [ˈwɔːpeɪnt] *n* 1) jangga kirish uchun yuzni rang-barang qilib bo'yash (*hind qabilalarida*); 2) *so'zl.* grim, makiyaj
war-path [ˈwɔːpɑːθ] *n* *tur.* urush so'qmoqlari
warped [wɔːpt] *a* qayishgan, qiysaygan
warper [ˈwɔːpə] *n* *to'q.* tanda qo'yadigan kishi
war-plane [ˈwɔːpleɪn] *n* harbiy samolyot
warrant [ˈwɔːrənt] 1. *n* order (*yoзма buyruq, farmon, ruxsat qo'y'ozi*); qamoqqa olish uchun order; 2. *v* 1) himoya qilmoq, oqlamoq; 2) kafolat bermoq, kafil bo'lmoq; 3) ruxsat bermoq, huquq (vakolat) bermoq
warrantable [ˈwɔːrəntəb(ə)l] *a* qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan, qonun asosidagi
warrantee [ˈwɔːrənˈtiː] *n* *yur.* kafillikka olinadigan shaxs
waranter [ˈwɔːrəntə] = **warrantor**
warrant officer [ˈwɔːrənt,ɒfɪsə] *n* 1) *harb.* uorent-ofitser (*serjantlik va zobitlik tarkibi o'rtasidagi daraja*); 2) *deng.* michman (*harbiy unvon*)
warrantor [ˈwɔːrəntɔː] *n* kafil, kafil bo'lgan kishi, kafolat bera oladigan kishi
warranty [ˈwɔːrəntɪ] *a* kafolat, kafillik, garov, ishonirish, ishonch
warren [ˈwɔːrən] *n* quyonxona, quyon boqiladigan katalak
warring [ˈwɔːrɪŋ] *a* 1) qarama-qarshi, teskari, zid, biri boshqasini inkor qiladigan; 2) murosaga kelmaydigan, murosasiz
warrior [ˈwɔːriə] *n* *shoir.* jangchi, askar, sipoh
warship [ˈwɔːʃɪp] *n* harbiy kema
wart [wɔːt] *n* 1) so'gal, chiqiq; 2) daraxt yelimi; 3) buqoq (*daraxt buqog'i*)
war-time [ˈwɔːtaɪm] *n* 1) urush davri (vaqti); *in* ~ urush davrida; 2) *attr.* urushga oid,

urush bilan bog'langan, urush uchun belgilangan, harbiy, urush...

warty [ˈwɔːti] *a* so'galli, serbuqoq

war-whoop [ˈwɔːhuːp] *n* jangovar chaqiriq

war-worn [ˈwɔːwɔːn] *a* urush natijasida xarobaga aylangan

wary [ˈwe(ə)ri] *a* ehtiyotli, ehtiyotkor

was [wɔz] *v* *to be* fe'lining o'tgan zamon birluk shakli

was-bird [ˈwɔzbɜːd] *n* bor-budini yo'qotgan odam

wash [wɔʃ] 1. *v* 1) yuvmoq; 2) yuvinmoq; 3) kir yuvmoq; *to* ~ *away* yuvib tashlamoq, yuvib tozalamoq (yo'q qilmoq, yo'qotmoq, ketkizmoq); *to* ~ *down* yuvmoq, yuvib tashlamoq, yuvib ketkazmoq; *to* ~ *out* a) (*asos.*, *piyola, shisha va b. ning ichlarini*) yuvib tozalamoq; b) yuvib dog'ini ketkazmoq; *to* ~ *over* ko'p quyilib chetidan toshmoq; *to* ~ *up* idish-tovoq yuvmoq; 2. *n* 1) yuvish; yuvinish; 2) kir yuvish

washable [ˈwɔʃəb(ə)l] *a* yuvsa bo'ladigan

wash-and-wear [ˈwɔʃən(d)ˈweə] 1. *n* yuvilgandan so'ng dazmol talab qilinmaydigan matodan tikilgan kiyim; 2. *a* yuvilgandan keyin dazmollashni talab qilmaydigan (*gazmol haqida*)

wash-basin [ˈwɔʃˌbeɪs(ə)n] *n* yuvinish tosi (tog'orasi)

wash-board [ˈwɔʃbɔːd] *n* 1) *qur.* chaspak; 2) kir yuvishga mo'ljallangan moslama (taxta)

wash-boiler [ˈwɔʃˌboɪlə] *n* ichki kiyimlarni solib qaynatish uchun ishlatiladigan bak (katta idish)

wash-bowl [ˈwɔʃˌbɔʊl] *n* tog'ora, jom, tos

washcloth [ˈwɔʃˌklɒθ] *n* 1) idishlarni yuvish uchun ishlatiladigan latta; 2) paxmoq gazlamadan qilingan moxalka

wash-day [ˈwɔʃdeɪ] *n* 1) tozalik kuni; 2) kir yuvadigan kun

wash-drawing [ˈwɔʃˌdrɔːɪŋ] *n* akvarel (*suvda qoritadigan bo'yoq bilan ishlangan rasm*)

washed-out [ˈwɔʃtˈaʊt] *a* 1) so'zl. charchagan, toliqqan, horg'in; 2) rangi ketgan, aynigan

washed-up [ˈwɔʃtˈʌp] *a* 1) yuvilgan; 2) ishdan chiqqan, tamom bo'lgan

washer [ˈwɔʃə] *n* 1) yuvish mashinasida ishlovchi; 2) yuvish mashinasi (qurilmasi); 3) kir yuvish mashinasi; 4) *tex.* shayba

washeteria [ˈwɔʃəˈtɪ(ə)rɪə] *n* o'z-o'ziga xizmat qiladigan kirxona

washerwoman [ˈwɔʃəˌwʊmən] *n* (*pl* -**women** [-ˌwɪmən]) kir yuvuvchi ayol

- wash-hand** [ˈwɒʃhænd] *a* yuvinishga oid, bet-*qoʻl* yuvadigan, yuvinadigan; **a** ~ *basin* yuvinish tosi
- wash-house** [ˈwɒʃhaus] *n* kirxona, kir yuvish xonasi
- washiness** [ˈwɒʃɪnəs] *n* 1) rangi oʻchganlik; 2) kuchsizlik, zaiflik, nimjonlik
- washing** [ˈwɒʃɪŋ] *n* 1) yuvish, yuvib tozalash; 2) *sheʻr* yuvinish, tahorat qilish; 3) yuvilib ketish; 4) yuviladigan kiyimlar
- washing-day** [ˈwɒʃɪŋdeɪ] = **wash-day**
- washing-house** [ˈwɒʃɪŋhaus] = **wash-house**
- washing-machine** [ˈwɒʃɪŋməʃiːn] *n* kir yuvish mashinasi
- washing-soda** [ˈwɒʃɪŋsəʊdə] *n* kir yuvadigan soda
- washing-stand** [ˈwɒʃɪŋstænd] *n* umivalnik, bet-*qoʻl* yuvgich
- washing-up** [ˈwɒʃɪŋˈʌp] *n* 1) idishlarni yuvish; 2) yuvish uchun taxlab *qoʻyilgan* idishlar
- washing-up liquid** [ˈwɒʃɪŋˈʌpˌlɪkwɪd] *n* idish-tovoq yuvish uchun ishlatiladigan suyuq modda
- wash-leather** [ˈwɒʃˌleðə] *v* zamsh (*bugʻu*, *qoʻy* va *boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmulsimon charm*)
- wash-out** [ˈwɒʃaʊt] *n* 1) suv yuvib ketgan joy; 2) *soʻzl.* omadsizlik; 3) toleyi past odam
- wash-room** [ˈwɒʃru:m] *n* 1) yuvinadigan, bet-*qoʻl* yuvadigan joy; 2) *amer.* hojatxona
- wash-stand** [ˈwɒʃstænd] *n* umivalnik
- wash-tub** [ˈwɒʃtʌb] *n* kir togʻora, jomashov
- wash-up** [ˈwɒʃˈʌp] *n* toʻlqin qirgʻoqqa chiqarib tashlagan qandaydir narsa
- washwoman** [ˈwɒʃˌwʊmən] = **washerwoman**
- washy** [ˈwɒʃɪ] *a* 1) suyuq, sersuv; 2) rangi oʻchgan, rangsiz; 3) boʻshashgan, shalpaygan
- wasp** [wɒsp] *n* *zool.* ari
- waspish** [ˈwɒspɪʃ] *a* 1) alam qildiradigan, zaharli; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl, serzarda, jizzaki
- wassail** [ˈwɒseɪl] **1.** *n* *esk.* kichik ziyofat, xonaki bazm; **2.** *v* bazm qurmoq
- wassailing** [ˈwɒseɪlɪŋ] *n* ramazon, rojdestvo ashualarini aytib uyma-uy yurmoq
- wastage** [ˈweɪstɪdʒ] *n* 1) charchash, ishdan chiqish; 2) talafot, nobudgarchilik
- waste I** [weɪst] **1.** *n* 1) choʻl, dasht, sahro, biyobon; 2) talafot, zarar, ziyon; 3) ortiqcha chiqim (xarajat); **2.** *a* odam yashamaydigan, choʻlga oʻxshagan; **3.** *v* 1) oʻrinsiz sarf qilmoq, sovurmoq; 2) behuda sarf qilmoq, behuda ketkazmoq, boy bermoq
- waste II** [weɪst] *a* ishga yaroqsiz
- waste-basket** [ˈweɪstˌbɑːskɪt] = **waste-paper-basket**
- wasted** [ˈweɪstɪd] *a* 1) isrof qilingan; oqilona foydalanilmagan; 2) ozib (oriqlab) ketgan, ozib-toʻzgan
- wasteful** [ˈweɪstf(ə)l] *a* isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi
- wastepaper basket** [ˌweɪst ˈpeɪpəˌbɑːskɪt] *n* kerak boʻlmagan qogʻozlarni tashlaydigan savat; **fit for the** ~ hech narsaga arzi olmaydigan (yaramaydigan)
- waste-pipe** [ˈweɪstpaɪp] *n* suv oqadigan quvur, suv oqib tushadigan (ketadigan) quvur
- waster** [ˈweɪstə] *n* isrofgar, isrof qiluvchi, behuda sarflovchi, pulni sovuruvchi
- wastewater** [ˈweɪstˌwɔːtə] oqindi suvlar, oqova suvlar
- wasting** [ˈweɪstɪŋ] *a* vayron qiluvchi, xarob qiladigan, falokatli; ~ *war* falokatli urush
- wastrel** [ˈweɪstrəl] = **waster**
- watch I** [wɒtʃ] *n* *qoʻl* soat
- watch II** [wɒtʃ] *v* (diqqat, eʻtibor) tomosha qilmoq, koʻrmoq; **to** ~ **out for** ehtiyot boʻlmoq
- watch-box** [ˈwɒtʃbɒks] *n* qorovulxona
- watch-case** [ˈwɒtʃkeɪs] *n* soat qobigʻi
- watch-chain** [ˈwɒtʃˌtʃeɪn] *n* soat zanjiri
- watch-crystal** [ˈwɒtʃˌkrɪstl] *n* soat oynasi
- watchdog** [ˈwɒtʃdɒg] *n* 1) soqchi it; 2) *amer.* talon-tarojlik, isrofgarchilik va h. k. ning yoʻl *qoʻyilmasligiga masʼul* shaxs yoki shaxslar guruhi
- watcher** [ˈwɒtʃə] *n* 1) qorovul, soqchi, *qoʻriqchi*; 2) kuzatuvchi, nazoratchi
- watch-fire** [ˈwɒtʃˌfaɪə] *n* 1) lashkargoh gulxani; 2) signal (xabar) beradigan gulxan
- watchful** [ˈwɒtʃf(ə)l] *a* 1) eʻtiborli, kuzatuvchan, hushyor, sergak, sezgir; 2) ehtiyotli, ehtiyotkor
- watchglass** [ˈwɒtʃɡlɑːs] *n* soat oynasi
- watch-guard** [ˈwɒtʃɡɑːd] *n* soat zanjiri (bogʻichi)
- watchhouse** [ˈwɒtʃhaus] *n* qorovul budkasi, qorovulxona
- watch-key** [ˈwɒtʃkiː] *n* soatni burash uchun ishlatiladigan kalit
- watch-maker** [ˈwɒtʃˌmeɪkə] *n* soatsoz; ~'s soatsozlik uxtaxonasi
- watchman** [ˈwɒtʃmən] *n* (*pl* -men [-mən]) tungi qorovul
- watch night** [ˈwɒtʃnaɪt] *n* 1) Yangi yil kechasi; 2) *cherk.* yangi yildagi kechki ibodat
- watch pocket** [ˈwɒtʃˌpɒkɪt] *n* soat soladigan choʻntak
- watch-spring** [ˈwɒtʃˌsprɪŋ] *n* soat prujinasi
- watchtower** [ˈwɒtʃˌtaʊə] *n* soqchilar minorasi, soqchilar turadigan minora

watchword [ˈwɒtʃwɜːd] *n* 1) shior, da'vat, shartli kelishuv; 2) parol (*shartlashgan maxfiy so'z*)

water [ˈwɔːtə] 1. *n* suv; 2. *v* 1) sug'ormoq; 2) namlamoq, ho'llamoq, ivitmoq

water aerodrome [ˈwɔːtə,æərədroum] *n* gidroaerodrom

waterage [ˈwɔːtərɪdʒ] *n* yuklarni suv orqali bir yerdan ikkinchi yerga olib borish

water-anchor [ˈwɔːtə(r),æŋkə] *n* suzib yuruvchi langar

water-bailiff [ˈwɔːtə,belɪf] *n* baliqlarni muhofaza qiluvchi, nazoratchi

water-bearer [ˈwɔːtə,be(ə)rə] *n* meshkob, suv tashuvchi

water-bearing [ˈwɔːtə,be(ə)rɪŋ] *a* namli, suvli, nam saqlaydigan

water bed [ˈwɔːtəbed] *n* (*bemorlar uchun*) suv to'ldirilgan rezinali to'shak

water bird [ˈwɔːtəbɜːd] *n* suv qushi

water blister [ˈwɔːtə,bliːstə] *n* suvli qavariq (*po'rsildoq*)

water boat [ˈwɔːtəbɔːt] *deng.* suv tashuvchi kichkina kema

water-boots [ˈwɔːtəbuːts] *n pl* botqoq etigi, botqoqlikda (*to'qayzorlarda*) kiyiladigan etik

water-borne [ˈwɔːtəbɔːn] *a deng.* 1) suv (*dengiz*) orqali tashiladigan (*yuk haqida*); 2) suzadigan, suvda yuradigan

water-bottle [ˈwɔːtə,bɒtl] *n* 1) suvdon, suv saqlaydigan grafin; 2) flaga (*suyuqlik tashiladigan katta idish*)

water bus [ˈwɔːtəbʌs] *n* daryo tramvayi

water butt [ˈwɔːtəbʌt] *n* yomg'ir suvi uchun bochka

water-can [ˈwɔːtəkæn] *n* bidon, biton

water cannon [ˈwɔːtəkænən] *n* suv sepadigan qurol

water-carriage [ˈwɔːtə,kærɪdʒ] *n* 1) kanalizatsiya; 2) suv transporti

water-carrier [ˈwɔːtə,kærɪə] *n* suv tashuvchi (*arava yoki mashinada*)

water cart [ˈwɔːtəkɑːt] *n* 1) ko'chalarga suv sepadigan sistema; 2) suv tashuvchining aravasi

water-closet [ˈwɔːtə,kloʊzɪt] *n* 1) kiyinish, yasanish va pardozi-andoz xonasi, kiyimxona, pardozxona; grimxona; 2) hojatxona

water-colour [ˈwɔːtə,kɒlə] *n* akvarel bo'yoq

water-cooled [ˈwɔːtəkʊːld] *a tex.* suv bilan sovutiladigan

watercourse [ˈwɔːtəkɔːs] *n* 1) oqim; ariq, daryo, soy, anhor, daryocha, kanal; 2) o'zan, daryo yo'li

water-craft [ˈwɔːtəkraːft] *n* kema

water-cure [ˈwɔːtəkjʊə] *n* suv bilan davolash

water dog [ˈwɔːtədɒg] *n so'zl.* tajribali dengizchi; yaxshi suzuvchi

water-drinker [ˈwɔːtə,drɪŋkə] *n* (*spiritli ichimliklar*) ichmaydigan odam

water-drop [ˈwɔːtədɒp] *n* 1) yosh, ko'z yoshi; 2) suv tomchisi

watered [ˈwɔːtəd] *a* 1) muardan qilingan, tovlanadigan; 2) (*suv*) aralashirilgan

water-engine [ˈwɔːtə(r),endʒɪn] *n* 1) suv chiqaradigan (*tortadigan*) nasos; 2) *esk.* o't o'chiruvchi mashina, o't o'chirish mashinasi

waterfall [ˈwɔːtəfɔːl] *n* sharshara, shalola

